

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

D.R. Ergashev

MILLIY VA JAHON IQTISODIYOTI

(Kredit-modul bo'yicha)

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan.

TOSHKENT – 2021

UO‘K:339.13(075.8)

KBK 65.5

E 30

**E 30 D.R.Ergashev. Milliy va jahon iqtisodiyoti. Darslik. – T.:
«Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 - 672 b.**

ISBN 978-9943-7421-1-6

“Milliy va jahon iqtisodiyoti” fanidan tayyorlangan darslik talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, zamonaviy jahon iqtisodiyoti va Milliy iqtisodiyotda ro‘y berayotgan hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ularning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Darslik 5231100 – “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” (mintaqa va faoliyat turlari bo‘yicha) mutaxassisligi uchun mo‘ljallangan.

Учебник подготовлен по курсу «Национальная и мировая экономика». Данный курс формирует у студентов теоретические и практические навыки, раскрывает современные процессы и события, происходящие в мировой и национальной экономике, способствует формированию научного мировоззрения.

Учебник предназначен для специальности бакалавриата 5231100 – «Мировая экономика и международные экономические отношения» (по регионам и видам деятельности).

The textbook is "National and World Economy" provides students with theoretical knowledge, practical skills, methodological approach to the happening of evidence and processes in the modern world economy and national economies, as well as the formation of their scientific outlook.

The textbook is intended for the specialties 5231100 - "World Economy and international foreign relations" (by region and type of activity).

UO‘K:339.13(075.8)

KBK 65.5

Tuzuvchi:

D.R. Ergashev – TDIU, “Jahon iqtisodiyoti” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

Sh. Sharifxo‘jayev – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, “Xalqaro iqtisodiyot” kafedrasi mudiri, professor iqtisod fanlari doktori;

A. Isajanov – O‘zbekiston islom xalqaro akademiyasi dotsenti, iqtisod fanlari doktori.

ISBN 978-9943-7421-1-6

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021.

KIRISH

O‘zbekiston milliy iqtisodiyotini rivojlantirish, tarkibiy yangilash va modernizatsiya qilish bo‘yicha tanlagan strategiyamizni va inqirozga qarshi qabul qilingan dasturlarimizni amalga oshirish natijasida yurtimiz jahondagi iqtisodiyoti tez rivojlanayotgan davlatlar qatorida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning barqaror sur’atlarini ta’minalash, aholimizning moddiy farovonligini yuksaltirishga erishgani barchamizga katta mammuniyat va iftixor bag‘ishlaydi, albatta.

Mustaqillik davri mobaynida mamlakatimiz jahon xo‘jaligida o‘zining munosib o‘rnini topishga muvaffaq bo‘ldi. So‘nggi yillarda “Yangi O‘zbekiston” milliy iqtisodiyotini rivojlantirish borasida qo‘lga kiritilgan natijalar Xalqaro valuta fondi (XVF), Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa bir qator nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan yuksak baholanmoqda.

“Yangi O‘zbekiston” sifatida shakllanayotgan milliy iqtisodiyotimiz yangi islohotlarning muhim qismi O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi xomashyosini baholashga qaratilganidir. Iqtisodiyotimizning barcha sohalari, ayniqsa sanoat tarmoqlarida o‘zgarishlar yuz bermoqda va yangi turdagи o‘nlab mahsulotlarimiz jahon bozorlariga chiqarilmoqda. O‘zbekistonning xalqaro bozorga mustaqil sur’atda chiqishi va dunyo xo‘jaligiga integratsiyalashuvi sharoitlarida uning boshlang‘ich iqtisodiy salohiyati jahon xo‘jaligiga samarali qo‘shilish istiqbollariga umid qilish imkonini beradi.

Jahon iqtisodiyotida har bir mustaqil mamlakat milliy iqtisodiyotning sanoat sohasini rivojlantirishda o‘z milliy taraqqiyot uslubiga, siyosatiga va strategiyasiga egadir. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarning o‘z iqtisodiy taraqqiyotida jahoning turli mintaqalaridagi iqtisodiyoti rivojlangan yirik mamlakatlar tomonidan “iqtisodiy mo‘jiza”ga erishgan mamlakatlar tajribalaridan foydalanishlari ijobjiy samara bermoqda.

Milliy va jahon iqtisodiyoti jahon xo‘jaligida milliy iqtisodiyotlarning mohiyati, mazmuni va ahamiyati, milliy iqtisodiyot taraqqiyot modellari, rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy o‘sishga ijobjiy ta’sir qiluvchi omillar, milliy va jahon iqtisodiyotidagi global muammolar, yo‘nalishlar va so‘nggi yangiliklar, rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy o‘sish taraqqiyoti yo‘lini samarali tashkil qilish va rivojlantirish

yo‘llari va usullari, ularning iqtisodiy rivojlanish tajribalarini o‘rganishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Mazkur darslik doirasida jahon xo‘jaligida yuzaga kelgan “iqtisodiy mo‘jiza”lar va “iqtisodiy rivojlanish model”larini, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyot sabablari va rivojlanish xususiyatlari, Milliy iqtisodiyotda amalga oshirilgan olamshumul ahamiyatga ega bo‘lgan islohotlar va dasturlar o‘rganiladi.

“Milliy va jahon iqtisodiyoti” fani milliy iqtisodiyotning rivojlanishi va ularning xalqaro darajadagi raqobatbardoshligini oshirishda jahon xo‘jaligida tutgan o‘rnining muhim ahamiyatga ega ekanligiga alohida e’tibor qaratadi.

“Milliy va jahon iqtisodiyoti” fanini o‘qitishdan maqsad talabalarga milliy va jahon iqtisodiyotiga oid nazariy va amaliy bilimlarni berish, o‘z yo‘nalishiga mos tasavvur va ko‘nikmalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Fanni o‘qitishning asosiy vazifalari talabalarga milliy va jahon iqtisodiyotining nazariy asoslari va tamoyillarini rivojlantirishni o‘ziga xos jihatlarini tushunishiga yordam berish va shuningdek, o‘rganilayotgan mintqa mamlakatlarining jahon mamlakatlari bilan samarali hamkorlik qilishning nazariy va amaliy tomonlarini o‘rganishdan iborat.

Ushbu darslik o‘z oldiga milliy va jahon iqtisodiyoti, O‘zbekiston iqtisodiyotining jahon xo‘jaligida tutgan o‘rni va uning integratsiyalashuv yo‘nalishlari to‘g‘risida to‘liq tasavvur shakllantirish uchun zarur bo‘lgan barcha masalalarni umumiyl ko‘rinishda ko‘rib chiqish vazifasini qo‘ygan. Shu maqsadda milliy va jahon iqtisodiyoti muammolari O‘zbekiston iqtisodiyoti bilan bevosita bog‘liqlikda tahlil qilingan. Ayniqsa, pandemianing O‘zbekiston milliy iqtisodiyotiga ta’siri, inqirozga qarshi kurashish chora-tadbirlari, xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan O‘zbekistonning hamkorligi va ularning milliy iqtisodiyotimizning taraqqiyotidagi o‘rni alohida tahlil qilib chiqilgan.

Darslik tarkibi mantiqan uning maqsadidan kelib chiqqan holda “Milliy va jahon iqtisodiyoti” fani predmetining nazariy va amaliy jihatlarini yoritib berishga qaratilgan.

Ushbu darslik mavzularida keltirilayotgan asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar AQSH dollarida bo‘lganligi sababli, barcha mavzulardagi “dollar” so‘zi - AQSH dollari ko‘rinishida o‘qilishini so‘raymiz.

I BOB. MILLIY IQTISODIYOT VA UNI TAVSIFLOVCHI ASOSIY MAKROIQTISODIY KO‘RSATKICHLAR TIZIMI

- 1. “Milliy va jahon iqtisodiyoti” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.**
- 2. Juhon xo‘jaligida milliy iqtisodiyotning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi va ishtiroki.**
- 3. Juhon xo‘jaligida mamlakatlarning tasniflanishi.**
- 4. Milliy iqtisodiyot rivojini tavsiflovchi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar.**

Tayanch iboralar: milliy iqtisodiyot, jahon iqtisodiyoti, jahon xo‘jaligi, globallashuv, integratsiya, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, rivojlangan industrial mamlakat, “Uchinchi dunyo mamlakatlari”, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, yalpi ichki mahsulot (YaIM), yalpi milliy mahsulot (YaMM), valuta zaxirasi, tashqi qarzdorlik.

1.1. “Milliy va jahon iqtisodiyoti” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Milliy iqtisodiyot – jahon xo‘jaligining bir qismidir. XX asrning oxiri – XXI asrning boshlarida dunyoda ro‘y bergan keng ko‘lamdagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlar jahon xo‘jaligi va uning mohiyatiga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Bu jarayonlarning ta’sirida sezilarli siljishlar va o‘zgarishlar yuz berib, uning rivojlanishining yangi, turli-tuman va ko‘p tarmoqli bosqichlari shakllandi.

Bugungi kunda zamonaviy jahon xo‘jaligi nafaqat dunyo, balki uni tushunish hamda talqin qilish jarayoni ham o‘zgarib bormoqda. O‘tgan asrning o‘rtalaridan boshlab jahon xo‘jaligida, ayniqsa, Yevropa va Sharqiy Osiyodagi mamlakatlarning milliy iqtisodiyotlarida shunday tub o‘zgarishlar yuz berdiki, bu o‘zgarishlar ham, albatta, jahon xo‘jaligini rivojlanishiga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmadı.

Ma’lumki, hozirgi kunda jahon mamlakatlari bir-biri bilan shunday o‘zaro bog‘lanib ketganki, biz bularni asosan o‘zaro iqtisodiy aloqalarni turli darajada rivojlangan iqtisodiy tuzilmalarning ishtirokida ko‘rishimiz mumkin. Ushbu

mamlakatlarning milliy iqtisodiyoti nafaqat turli darajada rivojlanganligi bilan, balki ularni xalqaro mehnat taqsimoti va jahon xo‘jaligiga turli darajada jalb qilinganligi bilan ham farq qiladi.

1991-yilda O‘zbekiston Respublikasi suveren davlat sifatida jahon arenasiga o‘zining ilk qadamini qo‘ydi va 1992-yilda jahondagi eng nufuzli BMTga a’zo bo‘ldi. Yangi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitda, ya’ni o‘tish iqtisodiyotining tarkibiy qismiga aylangan bir sharoitda mamlakatimizning jahon xo‘jaligiga integratsiyaviy jarayonlarga faol va keng ko‘lamda jalb etilishiga xalaqit berayotgan bir qator to‘siqlarni yengib o‘tishga to‘g‘ri keldi va jahondagi bir qator rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar bilan iqtisodiy munosabatlarni va hamkorliklarni keng ko‘lamda rivojlantirishga harakat qilmoqda.

Shu nuqtai nazardan olganda, bozor munosabatlari nazariyasi va amaliyotini, raqobatbardosh iqtisodiyot asoslarini va korporatsiya-larning tashqi iqtisodiy aloqalar sohasida ishtiroki usullarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlar respublikamizda tobora ortib bormoqda.

Mamlakatimizning barcha turdagи sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni tashqi bozorga olib chiqish va xorijiy kompaniya va firmalarning respublikamizda endigma shakllanib borayotgan tovar va xizmatlar bozoriga kirib kelishi ilgari xo‘jalik amaliyotida duch kelinmagan bir qator yangi muammolarni ham keltirib chiqarmoqda va ushbu masalalarni xorijiy rivojlangan mamlakatlarning tajribalari asosida ko‘rib chiqib foydalanish mumkin.

XX asrning so‘nggi dekadasida sobiq Ittifoq tarkibidan ajralib chiqqan boshqa bir qator mustaqillikka erishgan mamlakatlarda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham bozor sharoitida, ayniqsa, xalqaro bozor sharoitida faoliyat olib borish uchun zarur bo‘lgan nazariy va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan mutaxassislarning kamligi hamon sezilmoqda. Shuning uchun ham, bugungi kunda jahon arenasida “Yangi O‘zbekiston” sifatida shakllanayotgan mamlakatimizning iqtisodiy siyosati rivojlangan mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, yirik xorijiy kompaniya va tashkilotlarning sarmoyalarini milliy iqtisodiyotimizning turli

sohalariga jalb qilish hamda qisqa fursatda jahon xo‘jaligidan munosib o‘rin olishga alohida e’tibor qaratilgan.

Ma’lumki, iqtisodiy rivojlanish jahonnning barcha davlatlari uchun umumiyl tabiiy qonuniyatlarasi asosida shakllanib boradi, ya’ni, aytmoqchimizki, bozor munosabatlarining alohida ajratib olingan ko‘rinishi yoki milliy libosi, ammo uning rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlari va yo‘llari mavjuddir. Ular jahonning u yoki bu mamlakatlarining iqtisodiy-geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va resurslari, iqlimi, aholisi, iqtisodiy rivojlanish darajasi va munosabatlarining ko‘pgina boshqa sabablariga ko‘ra turlicha bo‘ladi. Shuning uchun ham jahondagi davlatlar yuqori darajada, ayrimlari esa o‘rtacha va past (qoloq) rivojlangan bo‘ladi. Bu davlatlarning (ayniqsa, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Italiya, Yaponiya, Kanada) iqtisodiy yutuqlarini atroflichcha tahlil etish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanish yo‘llari tajribalaridan unumli va samarali foydalanish ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

“Milliy va jahon iqtisodiyoti” fanining maqsadi – jahon iqtisodiyotida rivojlangan va rivojlanayotgan milliy iqtisodiyotlarning o‘rnini va ularning iqtisodiy taraqqiyoti hamda iqtisodiy rivojlanish sabablarini o‘rganishdan iboratdir.

Fanning vazifasiga esa, jahon xo‘jaligida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiyot tarkib tuzilmasi, iqtisodiy taraqqiyoti uchun amalga oshirilgan muhim iqtisodiy islohot va dasturlar, ularning iqtisodiy rivojlanish bosqichlari va rivojlanish davrlari hamda “iqtisodiy mo‘jiza” yaratishidagi asosiy omillari, rivojlangan mamlakatlarning jahon iqtisodiyotida tutgan o‘rni va ularning bugungi pandemiya sharoitidagi iqtisodiy ahvollarini o‘rganish muhimdir.

Shuningdek, mavzular davomida jahon xo‘jaligidagi yirik “Katta yettilik” mamlakatlari, “To‘rt ajdarho mamlakatlari”, “To‘rtta kichik yo‘lbars mamlakatlari” va Yangi industrial mamlakatlari iqtisodiyoti hamda bir qator “iqtisodiy rivojlanish model”lari, jumladan: “amerika modeli”, “nemis modeli”, “fransuz modeli”, “Yaponiya modeli”, “singapur modeli”, “turk modeli”, “xitoy modeli” kabi milliy iqtisodiy taraqqiyot modellari ko‘rib chiqiladi.

Shu bilan birga, 2020-yilda jahonda yuzaga kelgan pandemiya

tufayli jahon iqtisodiyotining inqirozi, pandemianing jahon bozoriga va milliy iqtisodiyotlarga salbiy ta'siri hamda ularning inqirozga qarshi kurashish chora-tadbirlari haqida fikr yuritiladi.

1.2. Jahon xo‘jaligida milliy iqtisodiyotning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi va ishtiroki

Jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarish omillarining va mamlakatlarning rivojlanish shart-sharoitlarini turli-tumanligi iqtisodiy rivojlanish darajasini bir tomonlama baholash imkonini bermaydi. Shunga ko‘ra, jahon iqtisodiyotida mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi va mavqeini tahlil qilish maqsadida quyidagi bir qator asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlardan foydalilanildi, jumladan:

- yalpi ichki mahsulot (YaIM) va yalpi milliy mahsulot (YaMM);
- aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan milliy daromad;
- milliy iqtisodiyotning tarmoq tarkibi (sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalari);
- aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan asosiy iste’mol mahsulot turlarining ishlab chiqarilishi;
- aholining turmush darajasi va sifati;
- iqtisodiy samaradorlik va boshqa ko‘rsatkichlar tashkil qiladi.

BMT tarkibida 2021 holatiga ko‘ra, jahoning jami 191 ta mamlakati mustaqil davlat sifatida a’zolikka qabul qilingan, shuningdek, yana 2 nafari (Falastin va Vatikan) “kuzatuvchi mamlakat” maqomi ostida BMT tarkibiga kiritilgan. Demak, jahon iqtisodiyotida jami 193 xil milliy iqtisodiyotlar mavjuddir. Jahon iqtisodiyotida ayni paytda iqtisodiy salohiyati va qudrati bo‘yicha mamlakatlar reytingini AQSH, Xitoy va Yaponiya mamlakatlari boshqarib borishmoqda. Ushbu mamlakatlar jahonda yalpi ichki mahsulot (YaIM) miqdori bo‘yicha yetakchi mamlakatlardir:

- 1) AQSH - 21,4 trln.doll.;
- 2) Xitoy – 14,3 trln.doll.;
- 3) Yaponiya – 5,1 trln. dollarini tashkil qiladi.

1.1-jadval

Jahondagi eng yirik YaIM miqdoriga ega bo‘lgan mamlakatlar reytingi (2019-y.)

O‘rin	Mamlakatlar	YaIM miqdori (mln.dollarda)	Jahondagi ulushi (foizda)
1	AQSH	21 427,7	24,4
2	Xitoy	14 342,9	16,3
3	Yaponiya	5 081,8	5,8
4	Germaniya	3 845,6	4,4
5	Hindiston	2 875,1	3,3
6	Buyuk Britaniya	2 827,1	3,2
7	Fransiya	2 715,5	3,1
8	Italiya	2 001,2	2,3
9	Braziliya	1 839,8	2,1
10	Kanada	1 736,4	2,0
11	Rossiya	1 699,9	1,9
12	Janubiy Koreya	1642,4	1,8
34	Singapur	372,1	0,4
54	Qozog‘iston	180,2	0,2
... 81	O‘zbekiston	57,9	0,07
...93	Turkmaniston	40,8	0,05
...114	Afg‘oniston	19,1	0,02
...145	Qirg‘iziston	8,5	0,01
146	Tojikiston	8,2	0,01
.....	Jahon bo‘yicha	87.751,5	100,0

Manba: ushbu jadval Jahon bankining “The World Bank: Gross Domestic Product 2020” ma’lumotlari asosida ishlab chiqildi.

Agarda 1.1-jadvalga e’tibor qaratsak, bir qator qiziqarli holatlarni ko‘rishimiz mumkin, jumladan:

- dunyodagi “mitti mamlakatlar” va “yosh mamlakatlar” qatoridan joy olgan Singapurning YaIM miqdori jihatidan jahon reytingidan 34-o‘rindan joy olgan;

- mamlakatimizga qo‘shti bo‘lgan Afg‘onistonda qariyb 30 yildan buyon siyosiy beqarorlik hukm sursa-da, uning YaIM miqdori Qirg‘iziston va Tojikistonga qaraganda ancha salmoqli bo‘lib, deyarli ikki marotaba ko‘pdir;

- Hindiston yil sayin jahon mamlakatlari reytingida yuqorilab

bormoqda va 2019-yilgi 7-o‘rindan 5-o‘ringa ko‘tarilgan.

1.2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, YaMMning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad bo‘yicha yuqori uchlikni Yevropaning Lixtenshteyn, Shvetsariya va Norvegiya mamlakatlari egallashgan.

1.2 - jadval

YaMM miqdorining aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadi ko‘rsatkichi bo‘yicha jahon reytingi (2019-y.)¹

O‘rin	Mamlakatlar	AQSH dollarida
1	Lixtenshteyn	116 430
2	Shvetsariya	85 500
3	Norvegiya	82 500
4	Makao (Xitoy)	78 640
5	Luksemburg	73 910
6	AQSH	65 760
7	Qatar	63 410
8	Daniya	63 240
9	Irlandiya	62 210
10	Singapur	59 590
...65	Rossiya	11 260
...69	Xitoy	10 410
...77	Qozog‘iston	8 810
...89	Turkmaniston	6 740
...144	Hindiston	2 130
...152	O‘zbekiston	1 800
...166	Qirg‘iziston	1 240
...170	Tojikiston	1030
...187	Afg‘oniston	540

Manba: jadval Juhon banki ma’lumotlari asosida ishlab chiqildi.

Milliy iqtisodiyotning iqtisodiy rivojlanish darajasini aniqlashdagi eng muhim ko‘rsatkichlar sifatida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot (YaIM) va yalpi milliy mahsulot (YaMM)ning ulushi va aynan ushbu iqtisodiy ko‘rsatkichlar orqali jahon mamlakatlarini rivojlanayotgan yoki rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon iqtisodiyotida mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darjasasi – bu tarixiy tushunchadir. Milliy iqtisodiyotning yoki jahon

¹ <https://data.worldbank.org/indicator/NY.GNP.PCAP.CD>

hamjamiyatining har bir rivojlanish bosqichi uning asosiy ko‘rsatkichlariga u yoki bu darajadagi o‘zgarishlarni doimiy ravishda kiritib turadi va iqtisodiy ko‘rsatkich raqamlari yil so‘nggida o‘zgarib turadi. Jahon xo‘jaligida milliy iqtisodiyotning iqtisodiy rivojlanganlik darajasini va iqtisodiy holatini har yili turli xalqaro tashkilotlar tomonidan tahlil qilib boriladi va hisob-kitoblar asosida aniq raqamlar bilan belgilaydi. Biroq ayrim xalqaro tashkilotlar tomonidan milliy iqtisodiyotlarning holati bo‘yicha ishlab chiqiladigan hisob-kitoblarda ma’lum bir tafovutlar ham mavjuddir.

1.3 - jadval

Jahon mintaqalari bo‘yicha YaMM miqdorining aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad ko‘rsatkichlari (2019-y.)²

T/r	Mintaqalar (o‘rtacha)	AQSH dollarida
	Jahon bo‘yicha o‘rtacha	11 570
1	Yevropa Ittifoqi bo‘yicha	35 721
2	Janubi-Sharqiy Osiyo va Tinch okeani	11 726
3	Lotin Amerikasi bo‘yicha	8 775
4	Yaqin va O‘rta Sharq va Shimoliy Afrika	7 994
5	“Arab dunyosi” o‘rtacha	6 502
6	Markaziy Osiyo	3 451
7	Janubiy Osiyo	2 019
8	Jahondagi barcha rivojlanayotgan mamlakatlar	1 089

Manba: ushbu jadval Jahon banki ma’lumotlari asosida ishlab chiqildi.

1.3-jadval orqali berilgan jahon mintaqalari bo‘yicha YaMM miqdorining aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadi ko‘rsatkichlarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha Yevropa Ittifoqi (YI) jahondagi boshqa mintaqalarga qaraganda ancha yuqori ko‘rsatkichga ega ekanligini ko‘rish mumkin. Agarda YI bo‘yicha aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad 35 721 dollardan to‘g‘ri kelsa, Janubiy Osiyo mintaqasi bo‘yicha esa ancha past, ya’ni o‘rtacha 2019 dollarni, jahondagi barcha rivojlanayotgan mamlakatlar bo‘yicha esa 1089 dollardan to‘g‘ri keladi.

Hozirgi zamonaviy jahon iqtisodiyotida mamlakatlarni tasniflashda,

² <https://data.worldbank.org/indicator/NY.GNP.PCAP.CD>

yalpi ichki mahsulotning (YaIM) aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadidan kelib chiqqan holda aniqlash mumkin. Jahon bankining uslubiyotiga ko‘ra, yuqori rivojlangan mamlakatlarni tasniflashda YaIMning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad ko‘rsatkichi 2020-yildan 12 616 dollardan kam bo‘lmasligi belgilangan³.

Biroq jahondagi ba’zi bir rivojlanayotgan mamlakatlarda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaIM miqdori ushbu ko‘rsatkichdan yuqoriroq bo‘lsa-da, ularni boshqa iqtisodiy ko‘rsatkichlarining yig‘indisi bo‘yicha rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiritib bo‘lmaydi. Bunday mamlakatlar qatoriga Dominika Respublikasi – 12659 dollar; Mug‘uliston – 12820 dollar; Pargvay – 13210 dollar; Ukraina – 13 341 dollar; Moldova – 13574 dollar; Shri-Lanka – 13620 dollar; Armaniston – 14220 dollar; Fidji – 14 428 dollar va boshqalar.

1.4 - jadval

YaIM miqdorining aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadi ko‘rsatkichi bo‘yicha jahon reytingi (2019-y.)⁴

O‘rin	Mamlakatlar	AQSH dollarida
1	Makao	129 103
2	Luksemburg	121 293
3	Singapur	101 376
4	Qatar	96 491
5	Irlandiya	88 241
6	Shvetsariya	70 989
7	BAA	69 901
8	Norvegiya	66 832
9	AQSH	65 281
10	Bruney	64 673
...52	Rossiya	29 181
...54	Turkiya	27875
...56	Qozog‘iston	27 444
...76	Xitoy	16 785
...120	O‘zbekiston	7 289
...121	Hindiston	7 034
...128	Qirg‘iziston	5 471
...144	Tojikiston	3 520
...159	Afg‘oniston	2 294

Manba: ushbu jadval Jahon banki ma’lumotlari asosida ishlab chiqildi.

³ New country classifications by incomelevel: 2019-2020, World Bank

⁴ <https://nonews.co/directory/lists/countries/gdp-per-capita-ppp>

1.4-jadvalda YaIM miqdorining aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad ko‘rsatkichi bo‘yicha jahon reytingida Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi vakili Bruneyning ko‘rsatkichi 64,7 ming dollarni tashkil qilib 10-o‘rinni egallagan. Mazkur mamlakat ASEAN uyushmasi a’zolarining rivojlanganlik darajasi bo‘yicha “Quyi beshlik mamlakatlari” qatoridan joy olgan, chunki uning iqtisodiy salohiyati va rivojlanganlik darajasi ASEANning “Yuqori beshlik mamlakatlari”ga (Singapur, Tailand, Malayziya, Indoneziya va Filippin) qaraganda 2-3 marotaba orqada qolgan.

Xalqaro valuta fondi (XVF) yoki Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) uslubiyotlariga ko‘ra esa, mamlakatlarning rivojlanganlik darajasini aniqlashda va jahon mamlakatlarini tasniflashda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad ko‘rsatkichidan foydalanimaydi.

Jahon banking ma’lumotiga ko‘ra, jahonning 81 ta mamlakatining aholisi 2020-yilda yuqori daromad olish ko‘rsatkich darajasiga chiqqan. Ushbu 81 ta mamlakatning YaIM miqdorining aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadi 15 ming dollardan ortiqdir. Ushbu mamlakatlar ro‘yxatidan Kolumbiya (15644 dollar) va Liviya (15803 dollar) kabi mamlakatlar ham ushbu ro‘yxatdan joy olgan.⁵

Jahon iqtisodiyotida tarmoq tuzilmasi ham muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Uning tahlili YaIM ko‘rsatkichlari asosida olib boriladi, ya’ni tarmoqlarning YaIMdagi ulushi hisoblanadi. Eng avvalo, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining nisbati e’tiborga olinadi. Bu nisbat, birinchi navbatda, jahon mamlakatlari iqtisodiyotida qayta ishslash sanoatining solishtirma og‘irligi bilan aniqlanadi.

Jahon iqtisodiyotida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan asosiy mahsulot turlarini ishlab chiqarilishi ham mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda, eng avvalo, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan elektr energiya mahsulotlarini ishlab chiqarish muhim hisoblanadi. Chunki elektr energiya boshqa barcha ishlab chiqarish korxonalarining rivojlanishi asosidir. Albatta, bugungi zamonaviy jahon xo‘jaligida elektr energiyasiz hayotni tasavvur qilish qiyin. Masalan, jahon mamlakatlari bo‘yicha aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan eng kam energiya ishlab chiqarilishi Laosga to‘g‘ri

⁵ New country classifications by incomelevel: 2019-2020, World Bank

keladi.

Jahon bankining tahlillariga ko‘ra, 2020-yilda jahon bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish miqdori jami 38,3 trln. dollarni tashkil qilgan. Yuqori uchlik reytingni Xitoy – 9,4 trln. dollar; AQSH – 3,7 trln. dollar va Hindiston – 2,2 trln. dollarni tashkil qilgan. Eng oxirgi o‘rirlarni esa, Afrika mamlakatlari egallagan bo‘lib, Jibuti – 63 mln.dollar va Markaziy Afrika Respublikasi atigi 54 mln.dollarini tashkil qilib jahon reytingida eng oxirgi o‘rinni egallagan (qarang: 1.5-jadval).

1.5-jadval

Jahon bo‘yicha jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari miqdorining mamlakatlarga taqsimlanishi reytingi (2020-y.)⁶

O‘rin	Mamlakatlar	Miqdori (mlrd.doll)	Jahon bo‘yicha ulushi (foizda)
1	Xitoy	9 400,1	24,5
2	AQSH	3 722,6	9,8
3	Hindiston	2 179,0	5,7
4	Yaponiya	1 638,3	4,3
...41	Qozog‘iston	163,2	0,4
...62	O‘zbekiston	75,2	0,2
...72	Turkmaniston	46,6	0,12
...99	Shimoliy Koreya	19,0	0,05
...109	Afg‘oniston	14,7	0,04
...129	Luksemburg	8,0	0,02
...133	Tojikiston	7,3	0,02
134	Qirg‘iziston	7,2	0,02
...192	Jibuti	0,63	0
...193	MAR	0,54	0
	Jahon bo‘yicha	38 340,0	100,0

Manba: ushbu jadval Jahon bankining ma’lumotlari asosida ishlangan.

Jahon iqtisodiyotida elektr energiyadan tashqari sanoat mahsulotlari ichida muhim ahamiyat kasb etuvchi turlari ichida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan po‘lat eritish, metall kesuvchi dastgohlar, avtomobillar, tabiiy o‘g‘itlar, kimyoviy tolalar, qog‘oz va h.k.larni ham alohida ajratib

⁶ <https://tyulyagin.ru/reyting-stran-mira-po-obemu-promyshlennogo-proizvodstva.html/amp>

ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari don, sut, go'sht, shakar, kartoshka kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini hamda aholi iste'moli mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi ham muhim ko'rsatkich sanaladi.

Turmush farovonligini aniqlashda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan nooziq-ovqat mahsulotlar (matolar, kiyimlar, poyabzal, to'qimachilik mahsulotlari) ham zarur ko'rsatkichdir. Jahon mamlakatlari ichida aholisi eng kam oziq-ovqat bilan ta'minlangan mamlakat bu – Janubiy Sudan hisoblanadi. Shuning uchun ham so'nggi yillarda BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan ushbu mamlakatga ko'plab insonparvarlik va xayriya hamda beg'araz yordamlar berilmoqda.

Demak 1.6-jadvaldan ko'rinish turibdiki, jahon mamlakatlari ichida eng ko'p elektr energiya Xitoy mamlakati tomonidan ishlab chiqariladi. Uning bir yildagi ishlab chiqarish quvvati 7503,4 TV (teravatt) soatga teng va jahon bo'yicha elektr energiyaning ulushi 27,8 foizini tashkil qiladi.

1.6-jadval

Elektr energiya ishlab chiqaruvchi jahondagi eng yetakchi va quyi mamlakatlar reytingi (2020-y.)

O'rin	Mamlakatlar	Bir yilda (TV soat)	Jahon bo'yicha ulushi (foizda)
1	Xitoy	7503,4	27,8
2	AQSH	4401,3	16,3
3	Hindiston	1558,7	5,8
4	Rossiya	1118,1	4,1
5	Yaponiya	1036,3	3,8
6	Kanada	660,4	2,4
7	Braziliya	625,6	2,3
8	Germaniya	612,4	2,3
9	Janubiy Koreya	584,7	2,2
10	Fransiya	555,4	2,1
...34	Qozog'iston	108,4	0,4
...48	O'zbekiston	62,9	0,2
	Jahon bo'yicha	27 004,7	100,0

Manba: Statistical Review of World Energy 2020 ma'lumotlari asosida jadval shakliga keltirildi.

BMT ekspertlari tahlillariga ko'ra, Shvetsariyaning Syurix shahri mahsulotlar narxlarini qimmatligi jihatidan "Jahoning eng qimmat shahri" sifatida tan olindi. Tahlillar 400 ta muhim mahsulotlar iste'moli va 160 xildagi kundalik tovarlar va xizmatlar (kiyim-kechak, oziq-ovqat,

transport, meditsina xizmati, ijara, kommunal to‘lovlar, kundalik ehtiyojlar va xususiy maktab va bog‘chalardagi to‘lovlar orqali jami 150 mamlakatning 500 ta shahrida o‘tkazilgan (qarang: 1.2.7-jadval).

Umuman olganda oxirgi uch yil davomida jahon xo‘jaligida iste’mol mahsulotlar narxining holati bo‘yicha ishlab chiqilgan jahon reytingida doimiy ravishda Yaponiya, Shvetsariya, Avstraliya kabi mamlakatlar va ularning shaharlari yuqori uchlik qatoridan joy egallab kelishgan. Shuningdek, iste’mol mahsulotlarining arzonligi bo‘yicha jahon reytingida esa, so‘nggi yillarda doimiy ravishda Pokiston, Nepal va Hindiston kabi mamlakatlar o‘rin olishgan.

2020-yilning so‘ngida Shvetsariyaning Jeneva shahrida eng kam ish haqi 4100 dollar etib belgilangan. Bu ko‘rsatkich dunyo bo‘yicha eng yuqori miqdordagi ish haqidir. Uning miqdori bir soatlik ish uchun 25 dollarni, 41 soatlik ish haftasida esa 4100 dollarni tashkil qiladi⁷

1.7 - *jadval* **Jahoning “Eng qimmat shaharlari” reytingi (2020-y.)**

№	Shaharlар nomi	Mamlakat	№	Shaharlар nomi	Mamlakat
1	Syurix	Shvetsariya	37	Vankuver	Kanada
2	Tokio	Yaponiya	40	Moskva	Rossiya
3	Jeneva	Shvetsariya	41	Los-Anjeles	AQSH
4	Osaka	Yaponiya	42	Shanxay	Xitoy
5	Kobe	Yaponiya	47	Nyu-York	AQSH
6	Sidney	Avstraliya	59	Pekin	Xitoy
7	Melburn	Avstraliya	430	Muskat	Ummon
8	Singapur	Singapur	437	Mumbay	Hindiston
9	Oslo	Norvegiya	438	Dehli	Hindiston
10	Parij	Fransiya	496	Katmandu	Nepal
11	Frankfurt Mayn	Germaniya	498	Karachi	Pokiston

Manba: jadval “Economist Intelligence Unit” ma’lumotlari asosida ishlab chiqildi.

Oylik maoshi haqida gap ketganda, ta’lim sohasida o‘qituvchilarining eng yuqori oylik maosh – Luksemburgda belgilan. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot tashkiloti ma’lumotiga ko‘ra, Luksemburgda maktab o‘qituvchilari uchun to‘lanadigan maosh

⁷ www.spot.uz/ru/2020/10/02/geneva/

miqdori bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turadi va ushbu mamlakatda o'qituvchilarning obro'si ancha yuqoridir. Matab o'qituvchilarining oyligi 7,0 ming dollardan va oliygohdagi o'qituvchilarning oyligi 12,0 ming dollardan boshlanadi. 15 yillik tajribaga ega maktab o'qituvchisi o'rtacha 9,7 ming dollar oylik olsa, oliyohlardagi o'qituvchilar 15,0 ming dollardan yuqori maosh olishadi.

Mamlakat aholisining turmush faravonligini aniqlashda YaIMning foydalanish bo'yicha tarkibi, ayniqsa, shaxsiy iste'mol xarajatlari muhimdir. Uzoq muddatli foydalaniladigan tovarlar qancha ko'p iste'mol qilinsa yoki xizmatlardan keng foydalanilsa, ushbu mamlakat shuncha rivojlanganroq hisoblanadi. Aholining turmush tarzi darjasи bir-biri bilan chambarchas bog'liq ko'rsatkichlar (iste'mol savati va yashash minimumi tahlili) bilan bog'liqdir.

Bundan tashqari jahon iqtisodiyotida aholi turmush tarzini aniqlashda mehnat resurslari, aholini uy-joy bilan ta'minlanganlik darjasи va aholiga xizmatlar ko'rsatish sohasining rivojlanish ko'rsatkichlaridan ham keng foydalaniladi. O'z o'rnida ta'kidlash joizki, jahonda o'z aholisini uy-joy bilan 100 foiz ta'minlagan mamlakat bu – BAAdir.

Xalqaro Growth from Knowledge (GfK) analitika kompaniyasi aholining xarid qobiliyati bo'yicha Yevropa mamlakatlari reytingini tuzdi. Unga ko'ra, reytingning eng yuqori pog'onasida Lixtenshteyn qayd etilgan. Bu davlat aholisining xarid qobiliyati kishi boshiga yiliga 67 550 Yevroga teng bo'lган. Bu Yevropadagi o'rtacha ko'rsatkich (14 739 Yevro)dan 4,5 barobarga ko'proq demakdir. Yuqori uchlikka Shvetsariya va Luksemburg ham kiritilgan bo'lib, ularning ko'rsatkichlari mos ravishda 42 va 35 ming yevroni tashkil etadi. Reytingning so'nggi o'rinida Ukraina qayd etilgan bo'lib, ukrainaliklarning xarid qobiliyati yiliga 1830 yevro deb baholangan. Eng quyi uchlikda, shuningdek, Moldova va Kosovo Respublikalari ham bor. Tadqiqot mualliflarining tushuntirishicha, xarid qobiliyati deganda aholi daromadining soliqlar va xayriya badallari chegirib tashlanganidan keyingi mablag' miqdori tushuniladi. Odamlar bu pulni oziq-ovqat, uy-joy, xizmatlar, ko'ngilochar tadbirlar, xaridlar va dam olishga sarflashadi. Umuman olganda, 2019-yilda Yevropada bir kishi o'rtacha 14,739 dollar pulni o'z ehtiyojlari uchun sarflagan.

1.3. Jahon xo‘jaligida mamlakatlarning tasniflanishi

Jahon iqtisodiyotida mamlakatlarning tasniflanishi aholining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga asoslangan holda guruhlarga bo‘linadi. Bunda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaIM miqdoriga ko‘ra, jahon mamlakatlarining tasniflanishi quyidagi guruhlarga bo‘linib o‘rganiladi:

- rivojlangan mamlakatlar;
- o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlar;
- rivojlanayotgan mamlakatlar.

Bu guruhlarga kiruvchi mamlakatlarni ham turli iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy tamoyillarga ko‘ra yana bir necha kichik guruhlarga bo‘lib o‘rganish mumkin.

BMTning uslubiyotiga ko‘ra, jahon mamlakatlarning tasniflanishini o‘ziga xos xususiyatlari orqali tahlil qilib, quyidagi guruhlarga bo‘lingan:

a) iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar:

1) Asosiy rivojlangan mamlakatlar jahon xo‘jaligida rivojlangan mamlakatlarning ichida eng taraqqiy etgan mamlakatlar ro‘yxatiga AQSH, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya va Kanada mamlakatlari kiradi. Ushbu mamlakatlar jahon bo‘yicha jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish miqdorining 50 foiz ulushi, elektr energiyaning 65 foizi; mahsulotlar eksportining qariyb 60 foizi to‘g‘ri keladi va jahonda “Katta yettilik” mamlakatlari deb nomlanadi;

2) iqtisodiyoti rivojlangan Yevropa mamlakatlari – Shvetsariya, Belgiya, Niderlandiya, Avstriya, Skandinaviya (Shvetsiya, Finlyandiya, Norvegiya va Daniya), Luksemburg kabi mamlakatlarni ushbu guruhga qo‘shish mumkin;

3) “Kapitalizmni ko‘chirgan mamlakatlar” – Buyuk Britaniyaning sobiq mustamlakalari hisoblangan Avstraliya, Yangi Zelandiya, Janubiy Afrika Respublikasi va shuningdek, Isroil kabi mamlakatlari kiradi.

b) o‘rta darajada rivojlangan mamlakatlar:

1) Yevropaning o‘rta darajada rivojlangan mamlakatlari – Gretsya, Ispaniya, Portugaliya, Irlandiya kabilar ushbu guruhni tashkil qiladi;

2) yangi industrial mamlakatlar – “To‘rt ajdarho mamlakatlari” (Janubiy Koreya, Singapur, Gonkong va Tayvan), “To‘rtta kichik yo‘lbars mamlakatlari” (Tailand, Malayziya, Indoneziya va Filippin), Lotin Amerikaning Braziliya, Argentina va Meksika hamda Osiyoning Turkiya, BAA, Saudiya Arabiston, Qatar, Quvayt va Bahrayn kabi mamlakatlar.

3) o‘tish iqtisodiyotli mamlakatlar – Sharqiy Yevropa va MDHning barcha davlatlari tashkil qiladi. Ushbu toifadagi mamlakatlar milliy iqtisodiyotlarini rivojlantirishda XX asrning 90-yillaridan boshlab markazlashgan rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o‘tishdi. 2020-yillarga kelib ushbu guruhning a’zolari Chexiya, Slovakiya va Xorvatiya kabi Sharqiy Yevropa mamlakatlari rivojlanganlik darajasi bo‘yicha “o‘rta rivojlangan mamlakatlar”ning birinchi guruhiga deyarli yaqinlashishgan.

c) *rivojlanayotgan mamlakatlar*: BMTning ushbu guruhdagi mamlakatlarning tasnifiga Yuqorida sanab o‘tilgan mamlakatlarning qolgan barcha jahon mamlakatlari tashkil qiladi. Xususan Xitoy, Hindiston, Vietnam, Misr kabi mamlakatlar ham.

1.4. Milliy iqtisodiyot rivojini tavsiflovchi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar

Dunyodagi barcha mamlakatlarning jahon xo‘jalik aloqalarida tutgan o‘rnini, eng avvalo, ularning iqtisodiy salohiyatini va qudratini bir qator muhim bo‘lgan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari orqali baholash mumkin. Bu makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar qatoriga quyidagi asosiy ko‘rsatkichlarni kiritamiz:

- mamlakatning yalpi ichki mahsulot (YaIM) miqdori;
- yalpi milliy mahsulot (YaMM) miqdori;
- aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaIM yoki YaMM;
- o‘rtacha ish haqi miqdori;
- tashqi savdo operatsiyalari hajmi (eksport-import);
- kapital harakati ko‘rsatkichlari;
- mamlakatning tashqi qarzdorlik ko‘rsatkichi;
- valuta zaxirasi;
- ishsizlik darajasi kabilar kiradi.

Bundan tashqari, inflatsiya va ishsizlik darajasining o‘sish sur’ati ko‘rsatkichlari, foiz stavkasi darajasi, soliq stavkalari, milliy valuta kursining yetakchi mamlakatlar valutalariga nisbatan ayirboshlashdagi (konvertatsiya) o‘zgarish dinamikasi va boshqa bir qator nisbiy ko‘rsatkichlardan ham foydalaniladi.

Shuningdek, mamlakatlarni qiyosiy solishtirishda savodxonlik darajasi, nafaqa va ijtimoiy rag‘batlar miqdori, o‘rtacha umr ko‘rish davri, tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlari, mahsulotlar iste’moli kabi ko‘rsatkichlarni ham inobatga olish zarur.

Mamlakatning tashqi qarzdorlik iqtisodiy ko‘rsatkichi ham jahon iqtisodiyotida muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. 2020-yilga kelib, dunyodagi umumiylar qarzdorlik miqdori qariyb 190 trln. dollarga yetganligini XVF tomonidan ma’lum qilingan va tashqi qarzdorlik bo‘yicha ushbu ko‘rsatkich jahon iqtisodiyotida o‘zining rekord ko‘rsatkichi miqdoriga etgan. Ushbu umumiylar qarzdorlikning uchdan ikki qismi xususiy sektorga tegishlidir. Jahon iqtisodiyoti tashqi qarzdorlik bo‘yicha bunday ulkan raqamlarni Ikkinchini jahon urushidan beri ko‘rmagan edi.

Xo‘sh, avvalo davlatning qarzi nima va uning tarkibi qanday qarzlardan tashkil topgan?

Ilmiy tilda aytganda, davlatning qarzi - davlat budgeti yetishmovchilagini qoplash uchun davlat olgan moliyaviy qarzlardir. Davlatning qarzi o‘z tarkibida ichki va tashqi qarzlar bo‘ladi. Ichki qarzlar davlatning qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha qarzlar, aksiyadorlar jamiyatlari chiqargan qimmatli qog‘ozlarga davlat kafolatlari bo‘yicha qarzlar, davlatga banklar va boshqa kreditorlar bergan qarzlar, to‘lanmagan tovonlar va h.k.

Tashqi qarzlar esa boshqa davlatlar, xalqaro tashkilotlar hamda xalqaro huquq subyektlari oldidagi davlatning qimmatli qog‘ozlari uchun qarzlar, davlatga tashqi kreditorlar bergan qarzlar, rezident tashkilotlar davlat kafolati ostida olgan qarzlar, budget tashkilotlarining tashqi savdo jarayonlarida to‘lashi lozim bo‘lgan qarzlardir.

Iqtisodiyotda davlat qarzining ahamiyatini ham salbiy, ham ijobjiy baholashadi. Jahon iqtisodchisi David Rikardonning fikriga ko‘ra, “davlatning qarzi insoniyat qachondir kashf etgan eng dahshatli falokatlardan biridir”, degan edi. Keynschilar esa, uni “iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlovchi yuqori qarzdorlik”, deb biladilar.

Jahon iqtisodiyotida milliy iqtisodiyotlar uchun tashqi qarzdorlik ko‘rsatkichining o‘sib borishi qanchalik tahlikali?

Jahon banki ekspertlarining tahlillariga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun tashqi qarz YaIMga nisbati 60–70 foizdan oshganda xavflidir. Tahlikaning ostonasi davlat o‘zining tanqislashgan budgetini moliyalashtira olmay qolganda va bu tashqi qarz YaIMning 70-80 foiziga yetganda boshlanadi hamda 100 foizdan o‘tganda ulkan tahlika yuzaga keladi, deganidir. Faqatgina jahoning rivojlangan mamlakatlari yirik miqdordagi tashqi qarzni shakllantira olishi mumkin.

Xo‘sh, tashqi qarz - milliy xavfsizlikka tahdid soladimi?

Davlatning tashqi va ichki qarzi oshishiga asosiy sabablar - davlat xarajatlarining tinimsiz oshishi, iqtisodiy islohotlarning inqirozi va parokandaligi, korrupsiya va yashirin iqtisod, harbiy xarajatlar va tabiiy ofatlar bo‘lishi mumkin. Yetarlicha davlat va jamoatchilik nazorati yo‘qligi, boshqaruv tizimi haddan ziyod korruptsyalashgani budjet yetishmasligi va qarzdorlik oshishini milliy xavfsizlik tahdidiga aylantirishi mumkin. Qolversa, tashqi va ichki qarzdorlik davlat moliyaviy tizimi barqarorligiga, sarmoya kiritish iqlimiga va davlatning dunyodagi mavqeiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu xavflarni hisobga olmaslik xatarlidir.

Aytish kerakki, bugungi kunda jahon iqtisodiyotida oshib borayotgan tashqi qarz muammosi nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlarni, balki rivojlangan davlatlarni ham tahlikaga solmoqda.

Davlat tashqi qarzining YaIMga nisbati iqtisodiy barqarorlikni namoyon qiladigan ko‘rsatkich bo‘lib, Maastricht mezonlariga ko‘ra, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari uchun 60 foiz etib belgilangan, XVF davlat qarzining YaIMga 50 foiz nisbatini tahlikaning boshlanishi, deb hisoblaydi.

Tashqi qarz borasida jahon iqtisodiyotidagi ahvol qanday?

Dunyodagi eng yirik tashqi qarzdor mamlakat sifatida jahon qarzdorlik mamlakatlar reytingini jahondagi iqtisodiyoti eng rivojlangan AQSH mamlakati egallab turibdi va uning tashqi qarzdorlik ko‘rsatkichi qariyb 25,7 trln. dollarni tashkil qilmoqda va jahon bo‘yicha umumiyligini ko‘rsatkichining 13,6 foiz ulushi to‘g‘ri kelmoqda. Shuningdek, 1.8-jadval orqali berilgan tashqi qarzdorlik ko‘rsatkichi reytingida AQSHdan tashqari Xitoy va Yaponiya mamlakatlari ham yuqori uchlikdan joy olishgan.

Demak, jahon mamlakatlarining tashqi qarzdorlik reytingi tahlillaridan ko‘rinib turibdiki, davlatning tashqi qarzdorlik ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan mamlakatlar dunyoda iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar AQSH, Xitoy, Yaponiya va Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridir. Ayni paytda AQSH va Yevropa mamlakatlarida tashqi qarz yuqori bo‘lsa, BRIKS davlatlari va Yaponiyada ichki qarz yuqoridir, ya’ni ular milliy valutada o‘z xalqidan va o‘z banklaridan qarzdor. Umuman, davlatning qarzdorligi milliy iqtisodiyotga sarmoya kiritishni cheklaydi, mamlakat budjetining sezilarli qismini ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarga emas, balki tashqi qarzni to‘lash uchun sarflashga majbur qiladi hamda mamlakat moliya tizimi xalqaro zaxiralarga tobe bo‘lib qoladi.

AQSH Kongressining Budget boshqarmasi prognozlariga ko‘ra, davlatning qarzi 2026-yilga borib salkm 30,0 trln. dollarga yetishi mumkin. Bu ahvol AQSHning o‘zigagina emas, balki jahon iqtisodiyotiga ham xavf soladi, chunki hozirgi jahon globallashuv davrida milliy iqtisodiyotlar bir-biriga o‘ta bog‘langan holdadir.

1.8 - jadval

Jahon iqtisodiyotidagi yirik “Tashqi qarzdor mamlakatlar” reytingi (2019-y.)⁸

O‘rin	Mamlakatlar	Miqdori (mlrd.dollar)	Jahondagi ulushi (foizda)
1	AQSH	25 717,1	13,6
2	Xitoy	16 250,6	8,6
3	Yaponiya	13 504,0	7,1
4	Hindiston	7 677,9	4,0
5	Fransiya	6 266,2	3,3
6	Braziliya	3 195,5	1,7
7	Italiya	3 160,3	1,7
8	Buyuk Britaniya	2 681,2	1,4
9	Germaniya	2 557,1	1,3
10	Ispaniya	1 849,6	1,0
...	O‘zbekiston	29,3	0,02
	Jahon bo‘yicha	189 674,2	100,0

Manba: ushbu jadval “ru.m.wikipedia.org” saytidagi ma’lumotlar asosida ishlab chiqildi.

O‘z o‘rnida ta’kidlash joizki, 2017–2020-yillarda AQSH hukumati tepasiga kelgan D.Tramp tomonidan saylov oldi dasturida “ikkita prezidentlik muddatida tashqi qarzni tugatib yuborishini va’da qilgan edi”. Lekin uning davrida AQSHning tashqi qarzdorlik ko‘rsatkichi qaytanga rekord darajadagi qarz miqdori qayd etildi.

Xo‘sh, jahoning qolgan ayrim davlatlarning tashqi qarzlari ularning YaIMga nisbatan holati qanday? Masalan: Yaponiya 239,2 foiz; Gretsiya 175,1 foiz; Italiya 132,6 foiz; Portugaliya 129 foiz; AQSH 116,4 foiz; Fransiya 93,5 foiz; Germaniya 78,4 foiz; Norvegiya 30,0 foiz; Qozog‘iston 11,0 foiz; Ozarboyjon 10 foiz; Saudiya Arabistoni 7,5 foiz;

⁸ [https://ru.m.wikipedia.org/wiki/%D0%A1%D0%BF%D0%B8%](https://ru.m.wikipedia.org/wiki/%D0%A1%D0%BF%D0%B8)

Quvayt 7,4 foiz va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma’lumotiga ko‘ra, mamlakatimiz tashqi qarzining umumiyligi 2021-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra 33,8 mlrd.dollarni tashkil etgan. Bundan davlat qarzi 21,3 mlrd.dollarni tashkil etsa, xususiy tashqi qarz esa 12,5 mlrd.dollarni tashkil etgan.

Pandemiya sharoitida davlat tashqi qarzini oshib borishi muammosi qo‘shni Tojikiston va Qirg‘izistonni ham xavotirga solmoqda. Masalan, Osiyo taraqqiyot banki so‘nggi yillarda mamlakat qarz inqiroziga uchramasligi uchun Tojikistonga qarz bermaslikka, faqat beg‘araz yordam ko‘rsatishga qaror qilgan. Bu mamlakatning tashqi qarzi hozir YaIMning 40 foizi atrofidadir.

Tojikiston tashqi qarzining 96,5 foizidan ortig‘i bevosita hukumat qarzi bo‘lib, 2021-yil holatiga ko‘ra 3,13 mlrd.dollarni tashkil qiladi. Uning asosiy kreditori Xitoy (1,2 mlrd.dollar) hisoblanadi. Shuningdek, asosiy qarzdorligi Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va XVF kabi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.⁹

Yoki Qirg‘izistonda vaziyat bir qadar murakkab bo‘lib, 4,4 mlrd. dollarlik tashqi qarzning 3,8 mlrd. ulushi davlatga tegishlidir, kreditlar bo‘yicha foizlarni to‘lash majburiyati qarzni yanada oshirishi mumkin. Qozog‘iston va Turkmanistonni tashqi qarz tahlikasi muammosidan xavotirlanmaslikka asos bo‘layotgan omil bu ularning tabiiy boyliklari zaxiralarining (neft va gaz) mavjudligidir.

Pandemiya davrida jahondagi ko‘plab mamlakatlarning tashqi qarzdorlik miqdorlari salmoqli darajada o‘sdi va ko‘rsatkichlar yaqin 2 yil davomida yanada sezilarli darajada o‘sishi va jahon iqtisodiyoti bo‘yicha tashqi qarzdorlik miqdori qariyb 200 trln. dollarga yetishi taxmin qilinmoqda. Chunki XVFning 75 yillik tarixida hali biror marta bunchalik ko‘p davlatlar favqulodda moliyaviy yordamga muhtoj bo‘lishmagan edi. Pandemiya davrining birinchi yilini o‘zidayoq, XVFga qisqa fursatning o‘zida 85 ta davlat moliyaviy yordam so‘rab murojaat qilgan. Moliyaviy yordam so‘ragan mamlakatlarning talablarini qondirish uchun maqsadida XVF o‘zining 1 trln. dollarlik butun zaxirasidan foydalandi va favqulodda moliyalashtirish miqdorini 50 mlrd.dollardan 100 mlrd.dollargacha oshirdi.

Shuningdek, agarda Xitoyning valuta zaxiralari miqdoriga uning

⁹ <https://www.asiaplustj.info/ru/news/tadzhikistan/economik/20210226/>

obyekti sifatida qaraladigan Tayvan, Gonkong va Makao kabi mamlakatlarning valuta zaxiralarini qo'shib hisoblaydigan bo'lsak, u holda Xitoyning umumiyligi valuta zaxirasi salkam 4,3 trln. dollarini tashkil qilar ekan. Demak, valuta zaxiralari miqdori bo'yicha jahon iqtisodiyotidagi yetakchi mamlakatlar qatoriga Xitoy, Yaponiya va Shvetsariya mamlakatlari yuqori uchlik mamlakatlarini tashkil qiladi.

1.9-jadval orqali jahondagi yirik valuta zaxiralariga ega bo'lgan mamlakatlar reytingida Xitoy mamlakati yaqqol ustunlikka egadir. Uning umumiyligi valuta zaxirasi 3,2 trln.dollarni tashkil qiladi va hozirgi jahon iqtisodiyotidagi iqtisodiy holatdan kelib chiqib, uni yaqin o'n yillikda hech qaysi mamlakat quvib yetishga qodir emas.

1.9 - jadval

Jahondagi yirik valuta zaxiralariga ega bo'lgan mamlakatlar reytingi (2019-y.)¹⁰

T/r	Mamlakatlar	Miqdori (mlrd.dollar)
1	Xitoy	3 222,9
2	Yaponiya	1 322,4
3	Shvetsariya	854,9
4	Rossiya	555,2
5	AQSH	516,7
6	Saudiya Arabiston	515,0
7	Tayvan	499,6
8	Gonkong	441,3
9	Janubiy Koreya	408,8
10	Hindiston	463,5
11	Braziliya	356,9

Jahon xo'jaligida sanoati rivojlangan davlatlar o'zlarining iqtisodiy mustaqilligi bilan mag'rurlangan, tabiiy va mineral resurslarning yetishmovchiligi ortayotganligi, global ekologik katastrofa tahdidi, noqonuniy migratsiya masshtablarining hamda davlatlarning tashqi qarzdorlik miqdorlarining o'sishida ular ham rivojlanayotgan davlatlarga yanada bog'liq bo'lib qolayotganligini tan olishga majbur bo'lmoqdalar.

Xalqaro jahon tashkilotining ekspertlarining taxminlariga qara-

¹⁰ <https://nonews.co/directory/lists/countries/gold>

ganda jahon xo‘jaligidagi iqtisodiy taraqqiyotning salohiyatli ko‘rinishi XXI asrning birinchi choragida ham asosan Janubi-Sharqiy Osiyo va Fors ko‘rfazi mintaqalarida joylashgan mamlakatlarida bo‘layotganini ta’kidlashmoqda. Albatta, har bir mamlakat milliy iqtisodiyoti o‘zining iqtisodiy tarixining turli yillarida ham ijobjiy ko‘rsatkichlarga yoki shu jumladan, salbiy ko‘rsatkichlarga erishadi.

Chunki iqtisodiyotni biz inson organizmiga taqqoslashimiz mumkin. Bunga sabab, insonga ham ma’lum bir vitamin yetishmaydigan bo‘lsa, u holda inson ma’lum bir kasalikka duchor bo‘ladi. Yoki bo‘lmasa, iqtisodiyotning xohlagan bir sohasida, masalan: pul sohasini tahlil qiladigan bo‘lsak, agarda aholida naqd pul borgan sari ko‘payib borsa, u holda mamlakatda inflatsiya ko‘rsatkichi ham o‘sib boraveradi.

Bob yuzasidan xulosa

Hozirgi jahon xo‘jaligining globallashuvi sharoitida jahon xo‘jaligida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarining milliy iqtisodiyotlari muhim ahamiyat kasb etadi, chunki jahondagi barcha mamlakatlarning iqtisodiy salohiyati va nufuzi tobora yildan yilga ortib bormoqda. O‘z navbatida, milliy iqtisodiyotlarni rivojlantirishda daromadlarni maqsadli ravishda sarflash, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish, diversifikatsiya jarayonlarini samarali olib borilishi va milliy iqtisodiyotning taraqqiyotida ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishlarga alohida e’tibor berilishi natijasida ularning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarda o‘z aksini topmoqda.

Hozirgi globallashuv sharoitidan kelib chiqib, yangi shakllanayotgan har qanday “yosh mamlakat” o‘z iqtisodiy taraqqiyotini turli “iqtisodiy taraqqiyot model”lari orqali rivojlantirishi mumkin. Jumladan “xitoy modeli”, “yapon modeli”, “singapur modeli”, “koreya modeli”, “nemis modeli”, “fransuz modeli”, ”qatar modeli”, “turk modeli”, “arab modeli” va boshqa miliy iqtisodiyotlarning uslublarini misol qilish mumkin.

Nazorat savollari

1. “Milliy va jahon iqtisodiyoti” fanining maqsadini ayting.

2. “Milliy va jahon iqtisodiyoti” fanining vazifalarini ayting.
3. Jahon xo‘jaligi bilan jahon iqtisodiyotining farqi nimada?
4. “Milliy va jahon iqtisodiyoti” qaysi fanlar bilan bog‘liq?
5. Jahon xo‘jaligida milliy iqtisodiyotning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi, iqtisodiy salohiyati va ishtirokini qaysi iqtisodiy ko‘rsatkichlardan tahlil qilsa bo‘ladi?
6. Jahon xo‘jaligida mamlakatlar qanday tasniflanadi?
7. BMTning uslubiyotiga ko‘ra mamlakatlarning tasniflanishi qanday guruhlarga bo‘lingan?
8. Jahondagi eng rivojlangan 7 ta mamlakatni va ularni joylashgan iqtisodiy mintaqalarini aytib bering.
9. Milliy iqtisodiyot rivojini tavsiflovchi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni aytib bering.
10. Jahon bo‘yicha YaIM miqdori bo‘yicha eng yetakchi mamlakatlar va ularning miqdorlarini ayting.
11. Jahon mamlakatlari YaMM miqdorlarining aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan ulushi bo‘yicha reytingdagi yetakchi mamlakatlar va ularning miqdorlarini ayting.
12. Jahondagi “Eng qimmat shaharlari” reytingi qanday omillar va iqtisodiy ko‘rsatkichlarga tayangan holda monitoring qilinadi?
13. Jahondagi yirik valuta zaxiralariga ega bo‘lgan mamlakatlar va ularning miqdorlarini ayting.
14. Jahondagi eng yirik “Tashqi qarzdor mamlakat”lar va ularning miqdorlarini ayting.
15. Nima uchun so‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida tashqi qarzdorlik miqdorlari ko‘payib bormoqda?
16. Jahon xo‘jaligida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish miqdori bo‘yicha qaysi mamlakatlar yetakchilik qilishadi va ularning ulushi?

Uyga vazifa!

Talabaning “Milliy iqtisodiyot va uni tavsiflovchi asosiy makroiqtisodiy indikatorlar tizimi” mavzusini chuqur o‘zlashtirishi hamda amaliyot darsiga puxta tayyorgarlik ko‘rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

- 1) mavzu so‘ngida berilgan “Nazorat savollari”ga tayyorgarlik ko‘rish;

2) jahon xo‘jaligida vujudga kelgan “xitoy modeli”, “yapon modeli”, “singapur modeli”, “koreya modeli”, “nemis modeli”, “fransuz modeli”, “turk modeli”, “o‘zbek modeli” iqtisodiy rivojlanishi mavzusida (tanlama ravishda) talabalar guruhlarga bo‘lingan holda “taqdimot” o‘tkaziladi.

II BOB. JAHON XO‘JALIGINING SHAKLLANISHI VA UNI RIVOJLANISHINING ASOSIY BOSQICHLARI

- 1. “Jahon iqtisodiyoti” tushunchasi va mohiyati hamda uning xususiyatlari.**
- 2. Jahon xo‘jaligining vujudga kelishi.**
- 3. Jahon xo‘jaligining xususiyatlari.**
- 4. Jahon xo‘jaligida “ochiq iqtisodiyot” va “yopiq iqtisodiyot” tushunchasi va ularning mohiyati.**
- 5. Zamonaviy jahon xo‘jaligi rivojlanishining asosiy bosqichlari.**

Tayanch iboralar: jahon iqtisodiyoti, “ochiq iqtisodiyot”, “yopiq iqtisodiyot”, “kapitalistik”, xalqaro tovar, xizmatlar savdosi, intellektual mulk, xalqaro kapital harakati, xalqaro valuta-kredit munosabatlari, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi, transmilliy kompaniyalar, transmilliy banklar, integratsiya.

2.1. “Jahon iqtisodiyoti” tushunchasi va mohiyati hamda uning xususiyatlari

Jahon iqtisodiyoti – bu bir-biri bilan xalqaro mehnat taqsimoti, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar tizimi orqali bog‘langan milliy iqtisodiyotlar yig‘indisidir. Milliy xo‘jaliklar o‘rtasida universal aloqalar esa xalqaro iqtisodiy munosabatlarga asoslanadi.

Jahon xo‘jaligi tarixidan ma’lumki, mamlakatlar ma’lum bir tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishga ixtisoslasha boshladilar va bu tovar va xizmatlarni tashqi bozorda ayirboshlash jarayonini kuchaytirdi. Ayni ana shu davrga kelib kapitalni xorijga olib chiqish hamda sanoat va nomoddiy ishlab chiqarish sohasiga xorijiy investitsiyalarni kiritish jarayoni ham boshlandi. Bu munosabatlarga xalqaro tovar va xizmatlar savdosi, intellektual mulkni xalqaro transferti, xalqaro kapital harakati, xalqaro valuta-kredit munosabatlari, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi kabilar kiradi.

Jahon iqtisodiyoti asosini milliy va global miqyosdagi ishlab chiqarish munosabatlari, moddiy va nomoddiy ne’matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste’mol qilish kabilar tashkil qiladi. O‘z o‘rnida eslatib o‘tish joiz, “jahon iqtisodiyoti” tushunchasidan “xalqaro iqtisodiyot” tushunchasini farqlab olish maqsadga muvofikdir, chunki xalqaro iqtisodiyot deganda jahon iqtisodiyoti emas, balki xalqaro

iqtisodiy munosabatlar nazariyasi tushuniladi.

Jahon iqtisodiyoti tushunchasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- insonlarning ishlab chiqarish faoliyatining yig‘indisi;
- milliy iqtisodiyotlar yig‘indisi;
- xalqaro iqtisodiy munosabatlar yig‘indisi;
- transmilliy kompaniyalar va transmilliy banklar faoliyati;
- mamlakatlar guruhi integratsiyasi;
- insoniyatning iqtisodiy faoliyati natijalari va boshqalar.

2.2. Jahon xo‘jaligining vujudga kelishi

Jahon xo‘jaligi XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Yevropada ro‘y bergan sanoat inqilobidan keyin vujudga keldi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida kapitalning monopol bosqichiga o‘tish davrida esa jahon xo‘jaligi jarayoni yanada rivojlandi va uzoq tarixiy jarayonlar natijasida XX asrning boshlariga kelib shakllandi. XIX asrning o‘rtalariga keliboq, Yevropadagi bir qator mamlakatlarda yirik sanoat, mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish tarmoqlarining vujudga kelishi va rivojlanishi ichki bozorning kichikligini hamda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqish zarurligini taqozo etdi. Ilk shaharlar va davlatlar tashkil topgan davrlardayoq vujudga kelgan xalqaro savdo XIX asrga kelib sezilarli darajada faollashdi.

Jahon xo‘jaligining vujudga kelishi va rivojlanishida uzoq va juda qiyin bo‘lgan bir qator rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tdi. Ayrim tadqiqotchilar uning vujudga kelishini Rim imperiyasi davri (eramizdan avvalgi II va eramizning IV asrlari) bilan bog‘lashgan. Bunda ular Rim imperiyasini o‘scha vaqt dagi butunjahon xo‘jalik tizimi deb baholaydilar.

Boshqa bir guruh olimlar esa, jahon xo‘jaligini faoliyat ko‘rsata boshlagan davrini XV–XVI asrlar bilan, ya’ni buyuk geografik kashfiyotlar davri bilan bog‘laydilar. Aynan shu kashfiyotlar qimmatbaho toshlar, metallar va metall buyumlar, teri va teridan ishlangan mahsulotlar, shirinlik kabi mahsulotlar xalqaro savdoning tez o‘sishiga sabab bo‘ldi.

Ammo bu davrdagi jahon xo‘jaligi cheklangan bo‘lib, faqat savdogarlarning sarmoyalari ishlaydigan soha bo‘lgan edi xolos. XIX asr oxiri va XX asr boshidagi jahon xo‘jaligi o‘zining rivojlanish xususiyatlari bilan XX asrning 1960–90-yillaridagi jahon xo‘jaligidan tubdan farq qilishi bizga ma’lumdir.

Shunday qilib, zamonaviy jahon xo‘jaligi XIX asrning oxiriga kelib

vujudga kelgan va hozirgi paytda ham kundan kunga taraqqiy etib borayotgan iqtisodiy tizim bo‘lib, uning asosini tovarlar va xizmatlar, intellektual mulk mahsulotlarining ishlab chiqaruvchi, ularni xalqaro savdo jarayonida taqsimlovchi va ayirboshlovchi hamda iste’mol qiluvchi milliy iqtisodiyotlar tashkil etadi. Yoki qisqa qilib aytganda, zamonaviy jahon xo‘jaligi sanoat inqilobidan keyin kapitalning monopol bosqichiga o‘tishi davomida vujudga keldi.

Xo‘sh, zamonaviy jahon xo‘jalingining mohiyati, uning o‘ziga xos tomonlari, ko‘rsatkichlari va rivojlanish omillari nimalardan iborat? XXI asr bo‘sag‘asidagi jahon xo‘jaligi o‘z miqyosiga ko‘ra globaldir, u to‘liq ravishda bozor iqtisodiyotining tamoyillari, xalqaro mehnat taqsimotining obyektiv qonuniyatlariga, ishlab chiqarishning baynalmilallahuviga asoslanadi.

Jahon xo‘jaligi XX asr va XXI asr bo‘sag‘asida global miqyosga ega ekanligi, bozor iqtisodiyoti prinsiplariga asoslanishi, xalqaro mehnat taqsimotining obyektiv qonuniyatlari asosida faoliyat yuritishi va ishlab chiqarishning baynalmilallahuvi bilan ajratib turadi. Zamonaviy jahon xo‘jaligi uch elementni – milliy iqtisodiyotlar, ularni bog‘lab turuvchi xalqaro iqtisodiy munosabatlar va xalqaro korporatsiyalar tomonidan yaratilgan xalqaro iqtisodiyotni o‘z ichiga oladi.

Demak, Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda, zamonaviy jahon xo‘jaligi bu bozor iqtisodiyotining obyektiv qonunlariga bo‘ysunuvchi, doimiy harakatdagi, o‘sib, rivojlanib boruvchi xalqaro iqtisodiy aloqalarga o‘zaro bog‘liq bo‘lgan milliy iqtisodiyotlar yig‘indisi, ya’ni, global iqtisodiy organizmdir. Jahon xo‘jalingining amal qilish jarayoni XX asr oxiri va XXI asr boshlariga kelib zamonaviy jahon iqtisodiyotiga xos qator rivojlanish tamoyillari va qonuniyatlarini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi.¹¹

2.3. Jahon xo‘jalingining xususiyatlari

Jahon xo‘jalingining xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- zamonaviy jahon xo‘jaligini subyektlari va mamlakatlarning jahon xo‘jaligida tutgan o‘rnini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar (aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad, YaIM miqdori, YaMM miqdori, valuta zaxirasi, eksport-import, va h.k.) tizimi;
- xalqaro iqtisodiy integratsiya;

¹¹ Vahobov A.V. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik.– T.: O‘zbekiston milliy universiteti. 2015. - 19 b

- XX–XXI asr bo‘sag‘asida jahon iqtisodiyotidagi global muammolar;
- zamonaviy jahon xo‘jaligining tabiiy resurslar salohiyati;
- jahon iqtisodiyotidagi inson resurslari;
- ilmiy-texnik salohiyat va uning zamonaviy jahon xo‘jaligi taraqqiyotidagi roli;
- jahon xo‘jaligida tarmoq tuzilmasi tushunchasi va zamonaviy sanoatning jahon iqtisodiyotida tutgan o‘rni;
- jahon iqtisodiyotida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning tutgan o‘rni kabi xususiyatlarni o‘z ichiga qamrab oladi.

O‘zining rivojlanish xususiyatlari bilan XIX asr oxiri va XX asrning birinchi yarimidagi jahon xo‘jaligi “kapitalning kuchi”ga nisbatan ko‘p jihatdan oddiy kuchga, ya’ni, iqtisodiyotga yot bo‘lgan majburiyatlarga asoslangan bo‘lib, bu davrdagi jahon xo‘jaligida jiddiy qarama-qarshiliklar mavjud edi. Bularni rivojlangan mamlakatlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarda (ikkita yirik jahon urushi), shuningdek, sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarda ko‘rshimiz mumkin. Jumladan, XX asrning birinchi choragida jahon xo‘jaligi ikki qismga: “jahon kapitalistik xo‘jalik tizimi”ga va “jahon sotsialistik xo‘jalik tizimi”ga bo‘lingan edi. Juhon iqtisodiy aloqalari tizimida jahon kapitalistik xo‘jaligi tizimi ustunlik qilgan. 1990-yillar boshida xalqaro savdo tovar aylanmasining 9/10 qismi jahon kapitalistik xo‘jaligi doirasida ro‘y bergan.

2.4. JAHON XO‘JALIGIDA “OCHIQ IQTISODIYOT” VA “YOPIQ IQTISODIYOT” TUSHUNCHASI VA ULARNING MOHIYATI

XX asrning ikkinchi yarmida transport, axborot va aloqa vositalarining sezilarli darajada rivojlanishi milliy iqtisodiyotlarni “ochiqlik” darajasini rivojlanishida va shuningdek, aholini harakatchanlik holatini oshishida muhim rol o‘ynadi. Asta-sekin uzoq yillar mobaynida davlatlarni bir-biridan ajratib turgan savdo-iqtisodiy va moliyaviy-valuta kabi to‘silalar olib tashlandi. Xalqaro ayrboshlashning erkinlashtirilishi esa, milliy xo‘jaliklarning tashqi iqtisodiy sharoit va ta’sirlarga moslashishini yengillashtirdi, ularning xalqaro mehnat taqsimotida yanada faollik ko‘rsatishiga imkon yaratdi.

Xo‘sh, jahon iqtisodiyotini integratsiyalashuvi jarayonida uning ochiqlik darajasini oshishiga katta ta’sir ko‘rsatgan asosiy omillar

nimalardan iborat bo‘ldi?

Ma’lumki, ochiq iqtisodiyotni shakllantirishda davlat katta rol o‘ynaydi. Davlat tovar va xizmatlar olib chiqishni rag‘batlantirib, xorijiy firmalar bilan kooperatsiyalarga, tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlanishiga yordamlashib, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishlarni rag‘batlantirish funksiyasini oladi. Chet eldan investitsiyalar, texnologiyalar, ishchi kuchi va axborot vositalarini oqib kelishini yengillashtirib, mustahkam huquqiy asos yaratadi.

Jahon mamlakatlarining ochiq iqtisodiyotga o‘tish jarayonlari transmilliy korporatsiyalar (TMK) faoliyati bilan yanada tezlashdi. Yangi bozorlarni o‘zlashtirishga intilib, turli mamlakatlarda ko‘plab kichik shahobchalar, sho‘ba korxonalari tashkil etilib, TMK xorijiy davlatlarning protektsionistik to‘sislarni aylanib o‘tdilar va xalqaro iqtisodiy ayriboshlashni baynalmilallashtirdilar.

Iqtisodiy nazariyada odatda erkin savdo protektsionizm siyosatiga (ingl. protection – himoya, homiylik), ya’ni milliy iqtisodiyotni ichki va tashqi bozor tamoyillarining salbiy ta’sirlaridan himoyalash maqsadida davlat tomonidan joriy etiladigan iqtisodiy va ma’muriy chora-tadbirlar tizimi qarama-qarshi qo‘yiladi.

Protektsionizm o‘z mohiyatiga ko‘ra, ilk davlatlar shakllangan paytdan buyon mavjud. Bu siyosatning prinsiplari nazariy jihatdan amerikalik davlat arbobi A. Gamilton (XVIII asrning oxiri) va taniqli nemis iqtisodchisi F. List (XIX asrning o‘rtalari) asarlarida ishlab chiqilgan.

Jahon iqtisodiyotida “Erkin savdo” va “Ochiq iqtisodiyot” tushunchalarini farqlash lozim. “Erkin savdo” haqidagi qarashlar konsepsiysi aslida A.Smitning siyosiy iqtisodiyotidan boshlangan bo‘lib, u zamonaviy amerika iqtisodchilarining kashfiyoti emasligini bilishimiz zarur. Erkin savdo siyosati (yoki fritredlik – inglizcha free trade) iqtisodiy hayotning bir hodisasi sifatida XVIII asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘ldi. Uning nazariy jihatdan asoslanishida A. Smitning mashhur asari “Xalqlar boyligi tabiatni va sabablari” muhim ahamiyat kasb etdi.

“Ochiq iqtisodiyot” bu shunday iqtisodiyotki, mamlakatning barcha fuqarolari xalqaro tovar va kapital bozorida oldi-berdilarni cheklanmagan holda amalga oshirishlari mumkin.

“Ochiq iqtisodiyot” tushunchasi aslida ishlab chiqarish omillari, axborot, milliy valutalarning o‘zaro almashuvining erkin harakatini o‘z

ichiga olgan tovarlar savdosi ko‘rinishida bo‘lib, u “erkin savdo” tezisidan ko‘ra kengroq tushunchaga egadir. Ochiq iqtisodiyotning vujudga kelishi bu jahon xo‘jaligi rivojlanishining obyektiv tendensiyasidir.

Ochiq iqtisodiyot tamoyillariga mos ravishda harakat qilish bu – jahon bozori standartlarini tan olish va uning qonunlari asosida harakat qilish demakdir. Ochiq iqtisodiyot ichki bozorning chet el kapitali, tovarlari, texnologiyalari, axborotlari, ishchi kuchining oqimi uchun aqlga to‘g‘ri keladigan darajada ochiqligini nazarda tutadi.

Ikkinci jahon urushidan keyin jahon xo‘jaligida AQSH o‘zining “ochiq savdo” va “ochiq iqtisodiyot” degan qarashlar konsepsiysi bilan chiqqan edi. Bu, avvalo, jahon bozorida AQSH o‘zining siyosiy-iqtisodiy manfaatlari va xohishlarini o‘tkazish maqsadini qo‘ygan bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa, ikkinchi jahon urushida g‘olib bo‘lib, urush tufayli yanada boyib chiqqan jahoning eng ilg‘or savdo mamlakati sifatida yangi iqtisodiy tartib va qo‘llanmalarni taklif etgan edi.

Shunday qilib jahon iqtisodiyoti XX asrning 1960-yillardan boshlab “ochiqlik” jarayonlari bir qator rivojlanayotgan mamlakatlarga ham tarqala boshlandi. 1980-yillarning bosqlarida jahon sotsialistik xo‘jalik tizimi asosida rivojlanib kelayotgan Xitoy ham iqtisodiyotning “ochiqlik” siyosatiga tarafdar ekanligini e’lon qilib, “ochiq eshiklar siyosati” dasturini tatbiq qildi.

Demak, “ochiq iqtisodiyot” - bu turli hamkorlikdagi tadbirkorlik shakllaridan faol foydalanish, erkin tadbirkorlik hududlarini tashkil qilish, tashqi savdoda davlat yakkahokimligini yo‘qotish (ko‘p sohalar bo‘yicha), xalqaro mehnat taqsimotida davlatning nisbiy ustunliklaridan samarali foydalanish hamda ichki bozorning chet el kapitali, tovarlari, texnologiyalari, axborotlari va ishchi kuchi oqimining ochiqligini nazarda tutadi.

Hozirgi kunda tadbirkorlar, o‘rta va kichik biznes jahon mamlakatlarida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Rivojlangan davlatlarda tadbirkorlik subyektlari umumiy korxonalar sonining 90 foizidan ziyodini tashkil etadi va mehnatga layoqatli aholining kamida 50 foizidan ortig‘ini ish bilan ta’minlaydi.

Jumladan, Yaponiyada 71,7 foiz; Germaniyada 69,3 foiz; AQSHda 53,0 foiz fuqarolar o‘rta va kichik korxonalarda faoliyat yuritadi. Masalan, 2019-yilgi holatga ko‘ra, O‘zbekistonda mehnat bilan band

aholining 76,3 foizi shu sohada ishlaydi. Shu bilan birga, tadbirkorlik subyektlari taraqqiy etgan mamlakatlarning YaIM tarkibida ham salmoqli o‘ringa ega. Xususan, Xitoyda bularning ulushi 60 foizni; Germaniyada – 57 foiz; Singapurda – 53,0 foiz; AQSH va Buyuk Britaniyada – 52,0 foiz; Yaponiyada esa 51,6 foizni tashkil etadi. O‘zbekiston YaIMda mazkur soha ulushi 59,4 foizdir.

Ochiq iqtisodiyotning afzalliklari quyidagilardan iboratdir:

- ishlab chiqarishni ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvining chuqurlashishi;
- resurslarni mulohazakorlik bilan samaradorlik darajasiga qarab taqsimlash;
- xalqaro iqtisodiy aloqalar tizimi orqali jahon tajribasining tarqalishi;
- jahon bozoridagi raqobat tomonidan rag‘batlantiriladigan milliy ishlab chiqaruvchilar orasida raqobatning kuchayishi.

Ma’lumki, jahon iqtisodiyotida shakllanib bo‘lgan “ochiq iqtisodiyot” va “ochiq iqtisodiyotga o‘tish” bir xil tushuncha emas. Ochiq iqtisodiyot davlatning tashqi iqtisodiy aloqalarida nazoratsizlik va hamma narsa mumkin yoki “chegaralar ochiq” degan tushuncha yo‘q, albatta. Biroq ochiq iqtisodiyot uning aqlga sig‘adigan darajada amalgamoshirish mexanizmini shakllantirishda davlatning sezilarli aralashuvini talab qiladi. Hech bir mamlakatda iqtisodiyotning mutlaq ochiqlik siyosati mavjud emas.

Bunday “ochiq iqtisodiyot” haqidagi qarashlar konsepsiyasini to‘g‘risida fransiyalik iqtisodchi olim Mishel Pebro shunday degan edi: “Ochiq va erkin savdo – ilg‘or iqtisodiyot uchun eng qulay o‘yin qoidalari”dir.

Amerikalik iqtisodchilar J. Saks va E. Uornerlar milliy iqtisodiyotning ochiqlik darajasi mamlakatda “haddan tashqari katta” eksport va import bojlarining yo‘qligi, milliy valutaning “yetarli darajada” konvertatsiyasi mavjudligi bilan aniqlanadi, deyishib, “davlat sotsialistik tizimda bo‘lmasligi kerak”, degan fikrni bildirishadi.

O‘z navbatida M.Pebro, “savdoning erkinligida ehtiyyotkorliksiz bo‘lish kerak emas, chunki bu qoidalardan ko‘r-ko‘rona foydalanish tezda kuchsizlarning kuchlilarga bo‘ysunishiga, iqtisodiy kolonializmini kelib chiqishiga olib kelishi mumkin”, - deb eslatib o‘tadi.

Lekin, Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, jahon xo‘jaligida Xitoy o‘zining iqtisodiy taraqqiyotini sotsialistik tizimdagisi rivojlanish yo‘lini

tanlab olib, XX asrning 90-yillari oxirida “iqtisodiy mo‘jiza”ga erishganiga guvoh bo‘lmoqdamiz.

Jahon xo‘jaligi tarixidan ma’lumki, milliy iqtisodiyotning hech biri jahon xo‘jaligidan ayrim holda, boshqa bir milliy iqtisodiyotlar bilan o‘zaro iqtisodiy munosabatlarga kirishmay turib to‘laqonli ravishda rivojlna olmaydi. Jahon xo‘jaligi tarixida shunday voqealar ham o‘rin olganki, biror bir mamlakat u yoki bu sabablar bilan o‘z hududlari chegarasida o‘ralashib qolgan bo‘ladi va xorijiy mamlakatlar bilan o‘zaro iqtisodiy aloqalari va tovarlar savdosi bilan “chegaralangan” (kam) holda olib boradi. Masalan, bugungi kunda Osiyoning Shimoliy Koreya va Markaziy Amerika mintaqasida joylashgan Kuba hamda Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasidagi Eron va Suriya kabi mamlakatlarni misol qilsa bo‘ladi.

Xalqaro savdoda ishtirok etmaydigan iqtisodiyot “yopiq iqtisodiyot” deb ataladi. Hozirgi kunda mutlaq yopiq iqtisodiyot mavjud emas. Ammo, makroiqtisodiy tahlil va istiqbolni belgilashda foydalilaniladigan modellarga bunday mavhumlikka yo‘l qo‘yiladi. Hozirgi zamonaviy jahon xo‘jaligida milliy iqtisodiyotning to‘la avtonomligi to‘g‘risida gapirganda “yopiq iqtisodiyot”li mamlakatlarga moslashgan milliy iqtisodiyotlarga Shimoliy Koreya mamlakatini misol keltirish mumkin.

Yopiq iqtisodiyot modelida tovarlar, xizmat va kapital oqimlari milliy chegaralar tashqarisiga chiqmaydi hamda unda asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$Y = S + I + G$$

Bunda:

Y – milliy mahsulot (daromad) ;

S – o‘z mamlakatida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xarid qilishga sarflangan iste’mol xarajatlari;

I – shu mamlakat ishlab chiqaruvchilarining o‘z mamlakatida investitsiya tovarlariga xarajatlari;

G – davlat tomonidan o‘z mamlakatida tovar va xizmatlarini xarid qilinishi.

Ochiq iqtisodiyotda mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro aloqalar mavjud va u milliy iqtisodiyotda tovarlar hamda daromad harakatlarida namoyon bo‘ladi.

Asosiy iqtisodiy tenglikka qo‘sishimcha ko‘rsatkich kiritilsa, u

quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$Y = S + I + G + Ex$$

Bunda: Ex – xorijliklarning shu mamlakat ichkarisida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarga qilgan xarajatlari bilan xorijda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarga ichki xarajatlar o‘rtasidagi farq, ya’ni qisqacha aytganda eksport va import o‘rtasidagi farqdir.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ko‘rsatib berilgan iqtisodiy ko‘rsatkichlar har doim ham iqtisodiyotning ochiqlik holatini to‘liq ko‘rsata olmaydi.

2.5. Zamonaviy jahon xo‘jaligi rivojlanishining asosiy bosqichlari

Zamonaviy jahon xo‘jaligida bozor iqtisodiyoti hozirgi holatga kelgunga qadar uzoq tarixiy yo‘lni bosib o‘tdi. U faqat kapitalizm davrida rivojlangan ko‘rinishda namoyon bo‘ldi. Shu sababli ham XIX asr o‘rtasidan boshlangan davrni bozor davri deb hisoblash mumkin. O‘tgan 1,5 asr davomida u bir qancha bosqichlarni bosib o‘tdi. Ularning har biri uning evolutsiyasi jarayonidagi chuqur sifat o‘zgarishlarini aks ettiradi.

Birinchi bosqich – XIX asr o‘rtalari – XX asrning birinchi choragi. Ushbu bosqichda ishlab chiqarish ko‘lamlari, milliy daromad hajmi va kapitalning o‘sishi XX asrning 20-yillarini oxiriga qadar kapitalistik (bozor) iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyati bo‘ldi. Ayniqsa, XIX asrning ikkinchi yarmida Yevropada fan va texnikaning shiddat bilan o’sib borishi birinchi bosqichning asosiy xususiyatlaridan biri bo‘ldi. Agarda XIX asrning boshlaridan ikkinchi yarmigacha fan va texnikalar sohasida kashfiyotlar va ixtiolar sanqlari darajada bo‘lgan bo‘lsa, biroq asrning oxiriga kelib bunday ixtirolarning soni keskin darajada ko‘paydi.

Ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishdagi o‘zgarishlar jarayoni mashina industriyasining tarmoq tuzilmasida jiddiy o‘zgarishlarga olib keldi va sanoat sohasining yangi tarmoqlari paydo bo‘ldi (energetika, kimyo mahsuloti ishlab chiqarish, neft qazib olish va qayta ishslash va boshqalar).

Ikkinchi bosqich – XX asrning 30-yillarining boshlaridan – 40-yillari oxiri. Jahon xo‘jaligida bozor iqtisodiyotining juda tez sur’atlarda rivojlanishini kutilmaganda 1929-yil 24-oktabrda AQSH iqtisodiyoti

tarixida ro'y bergan eng og'ir iqtisodiy inqiroz butkul to'xtatib qo'ydi. Aynan ushbu kun AQSH iqtisodiyoti tarixida "Qora payshanba" deb nom oldi. Shu kuni Nyu-York fond birjasida o'sha davrdagi eng yirik mablag' hisoblangan 13 mln.dollar miqdoridagi aksiya fantastik tarzda o'ta past narxlarda sotildi. Deyarli barcha ishlab chiqarish kompaniyalari, zavodlar, korporatsiyalar, banklar va boshqa turli moliyaviy xizmat ko'rsatish sohalarining ish faoliyati vaqtinchalik to'xtadi. AQSHda ro'y bergan iqtisodiy inqiroz tez fursatda Yevropaga ham kirib bordi va jahondagi boshqa mamlakatlarning iqtisodiyotiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatdi.

Ushbu iqtisodiy inqirozdan chiqib ketish maqsadida AQSH hukumati tomonidan mashhur va jahon iqtisodiyoti tarixidan joy olgan "Yangi kurs siyosati" dasturi amalga oshirildi. "Yangi kurs siyosati" dasturi 1933–1940-yillarga mo'ljallangan keng masshtablik milliy iqtisodiy taraqqiyot yo'nalişlarini o'ziga jamlagan edi. Dasturning mohiyati davlatning mamlakat iqtisodiyotini boshqarishi va uni ijtimoiy-iqtisodiy tartibga solishi, 1929-yilda sodir bo'lgan inqirozga butunlay barham berishdan iborat bo'ldi. Shuningdek, dasturdan tashqari qabul qilingan inqirozga qarshi kurash chora-tadbirlar va islohotlarning asosiy xususiyati, eng avvalo, aholini ijtimoiy muhofaza qilish mexanizmlari qabul qilinganligidan iborat bo'ldi. Islohotlardan ko'zda tutilgan maqsad milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va erkin tadbirkorlik tizimini o'zgartirishdan iborat bo'ldi.

Uchinchi bosqich – XX asrning 50-yillaridan boshlab 90-yillar oxiri. XX asrning 1950-yillaridan boshlab bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yangi o'zgarishlar paydo bo'ldi va jahon xo'jaligida fan-texnika inqilobi hamda milliy iqtisodiyotlarning misli ko'rilmagan darajadagi tez o'sishlari natijasida "iqtisodiy mo'jiza"lar vujudga keldi. Jumladan, 1960-yillarda jahon xo'jaligida Yaponiya va Germaniya mamlakatlarining "iqtisodiy mo'jiza"ni vujudga keltirishi va keyinroq, 1970-yillarda "Yangi industrial mamlakatlari" vujudga kelishini alohida ta'kidlash joiz.

To'rtinchi bosqich - XXI asrning boshlaridan boshlab. XXI asrning boshlaridan boshlab jahon mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanishi fan-texnika sohasining rivojlanishidan endilikda zamонавиу texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishlar tizimiga o'tildi. Jahon iqtisodiyotida vujudga kelgan "raqamli iqtisodiyot" va "yangi iqtisodiyot" natijasida va ayniqsa, innovatsion g'oyalar asosida ishlab

chiqarishning yangi tizimiga o‘tilishi jahon iqtisodiyotining yangi ko‘rinishiga olib keldi.

2.1 - jadval

Zamonaviy jahon xo‘jaligi rivojlanishining asosiy bosqichlari

Bosqichlar	Davrlar	Xususiyatlari
Birinchi bosqich	XIX asr o‘rtalari – XX asrning birinchi choragi	Ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishdagi o‘zgarishlar mashina industriyasining tarmoq tuzilmasida jiddiy o‘zgarishlarga olib keldi va sanoat sohasining yangi tarmoqlari paydo bo‘ldi (elektr energetikasi va kimyo mahsuloti ishlab chiqarish, neft qazib olish va qayta ishlash va boshqalar)
Ikkinchchi bosqich	XX asrning 30-yillari boshlaridan 40-yillari oxiri	Jahon xo‘jaligi tarixida 1929-yilda AQSHda yuzaga kelgan eng og‘ir iqtisodiy inqiroz nafaqat AQSHga, balki butun jahon iqtisodiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. AQSH va Yevropa mamlakatlari tomonidan inqirozga qarshi kurash chora-tadbirlari jahon xo‘jaligida yangi zamonaviy sanoat tarmoqlari vujudga keldi. Shuningdek, jahon siyosati va iqtisodiyotida uzoq yillardan buyon gegemonlik (hukmdor) qilgan Buyuk Britaniyaning o‘rnini endilikda AQSH egalladi.
Uchinchi bosqich	XX asrning 50-yillaridan – 90-yillari oxiri	Bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yangi o‘zgarishlar paydo bo‘ldi va fan-texnika inqilobi hamda milliy iqtisodiyotlarning misli ko‘rilmagan darajadagi tez o‘sishlari natijasida jahon xo‘jaligida “iqtisodiy mo‘jiza”lar vujudga keldi.
To‘rtinchchi bosqich	XXI asr boshlaridan boshlab	Jahon iqtisodiyotida vujudga kelgan “raqamli iqtisodiyot” va “yangi iqtisodiyot” natijasida ishlab chiqarishning innovatsion g‘oyalar asosida yangi tizimga o‘tilishi jahon iqtisodiyotining yangi ko‘rinishiga olib keldi.

Bob yuzasidan xulosa

Shunday qilib Ikkinchı jahon urushidan keyin jahon iqtisodiyoti ikki yo‘nalishda, ya’ni “kapitalistik iqtisodiy taraqqiyot” deb nomlangan “ochiq iqtisodiyot” yo‘nalishidagi rivojlanish hamda “sotsialistik iqtisodiy taraqqiyot” deb nomlangan “yopiq iqtisodiyot” yo‘nalishdagi rivojlanish xususiyatlariga bo‘lindi va bu jarayon qariyb yarim asr davrgacha davom etdi. XX asrning 40-yillaridan jahon xo‘jaligida AQSH o‘zining “ochiq savdo” va “ochiq iqtisodiyot” degan qarashlar konsepsiysi bilan chiqib, birinchidan jahon bozorida AQSH o‘z xohish-istiklarini o‘tkazish maqsadini qo‘ygan bo‘lsa, ikkinchidan esa jahon urushidan g‘olib bo‘lib, iqtisodiy jihatdan yanada boyib chiqqan jahoning eng ilg‘or mamlakati sifatida yangi iqtisodiy tartib va qo‘llanmalarni taklif etdi.

Demak, Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, “ochiq iqtisodiyot”ni shakllantirishda davlat katta rol o‘ynaydi. Davlat milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni jahon bozoriga olib chiqishni rag‘batlantirib, xorijiy firmalar bilan kooperatsiyalarga, tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlanishiga yordamlashadi hamda eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishlarni rag‘batlantirish vazifasini oladi.

Nazorat savollari

1. “Jahon iqtisodiyoti” tushunchasini aytинг.
2. Jahon xo‘jaligi qachon vujudga kelgan?
3. Zamonaviy jahon xo‘jaligi qachon vujudga kelgan?
4. Jahon iqtisodiyoti tushunchasi xalqaro iqtisodiyot tushunchasidan qanday farqlanadi?
5. Jahon xo‘jaligi bilan zamonaviy jahon xo‘jaligining farqi qaysi xususiyatlari bilan ajralib turadi?
6. Jahon xo‘jaligi bilan jahon iqtisodiyotining farqi nimada?
7. Jahon xo‘jaligi tushunchasining mohiyatini aytинг.
8. Jahon xo‘jaligining xususiyatlarini aytib bering.
9. Jahon xo‘jaligida “ochiq iqtisodiyot”ning mohiyatini aytинг.
10. Jahon xo‘jaligida “yopiq iqtisodiyot”ning mohiyatini aytинг.
11. Jahon xo‘jaligida qaysi mamlakatlarni “yopiq iqtisodiyot”ga moslashgan mamlakatlar deyiladi va nima uchun?

Uyga vazifa!

Talabaning “Jahon xo‘jalignining shakllanishi va uni rivojlanishining asosiy bosqichlari” mavzusini chuqur o‘zlashtirishi hamda amaliyot darsiga puxta tayyorgarlik ko‘rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

1) mavzu so‘nggida berilgan “Nazorat savollari”ga tayyorgarlik ko‘rish;

2) Shimoliy Koreya (KXDR), Kuba, Eron, Turkmaniston va Vietnam mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanishi mavzusida talabalar guruhlarga bo‘lingan holda “taqdimot” o‘tkaziladi.

III BOB. JAHON XO‘JALIGIDAGI TARKIBIY O‘ZGARISHLAR

1. Jahon xo‘jaligida iqtisodiy tizimlar va ularning xususiyatlari.

2. Ishlab chiqarishning buyruqbozlik iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotiga o‘tishning zarurligi va o‘tish davri davlatlarida bozor islohotlari.

3. Jahon xo‘jaligida Ikkinchi jahon urushidan so‘ng “iqtisodiy mo‘jiza”larning vujudga kelishi va ularning asosiy omillari.

4. Iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishni qo‘llab-quvvatlashda davlatning roli.

Tayanch iboralar: iqtisodiy tizim, an’anaviy iqtisodiyot, buyruqbozlik iqtisodiyoti, bozor iqtisodiyoti, milliy iqtisodiyot, “iqtisodiy mo‘jiza”, milliy iqtisodiy taraqqiyot modeli, sanoatlashtirish.

3.1. Jahon xo‘jaligida iqtisodiy tizimlar va ularning xususiyatlari

Jahondagi har bir mamlakat alohida **mavjud iqtisodiy tizimga egadir**. U qonunlar (masalan, mulkchilik huquqi to‘g‘risidagi qonun), qarorlar, ko‘rsatmalar, soliqlar subsidiyalar va hokazolarni, ya’ni davlat ular orqali asosiy iqtisodiy masalalarga asoslanadi, ya’ni: nima ishlab chiqarishga; qanday ishlab chiqarishga hamda qanday taqsimlashga ta’sir ko‘rsatadigan barcha omillarni o‘z ichiga oladi.

U shuningdek, mulkchilik shakliga ko‘ra har xil bo‘lgan, mahalliy kapital tomonidan barpo etilgan yoki xorijiy egalarining nazorati ostida bo‘lgan firmalarni ham o‘z ichiga oladi.

Iqtisodiy tizimning resurslardan foydalanishga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy qurilishi uning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Jamiyatning (davlat) har qanday ijtimoiy tashkilotining asosiy xususiyatlari belgilari uning mulkka, nazoratga va maqsadlarga munosabati bilan belgilanadi. Misol sifatida ishlab chiqarish omili hisoblangan yerni olib ko‘raylik. Davlat, xususiy shaxslar, bir nechta yirik yer egalari uning egasi bo‘lishi mumkin va hokazo.

Umuman olganda, iqtisodiy tizimlarning tavsifi xilma-xil bo‘lishi mumkin va iqtisodiy tizimning quyidagi uchta asosiy turga bo‘lish mumkin:

1. An’anaviy iqtisodiyot (AQSH, Buyuk Britaniya, Italiya, Yaponiya, Kanada, Germaniya va jahondagi boshqa ko‘plab rivojlangan industrial mamlakatlarni misol qilish mumkin). An’anaviy iqtisodiy tizim u yoki bu tovarlarni ishlab chiqarish usullariga doir o‘zgarishlari yildan yilga juda kam o‘zgarishi bilan ajralib turadi. Nima va qancha ishlab chiqarish kerak, qanday ishlab chiqarish va jamoa mehnati natijalarini qanday taqsimlash zarur, degan iqtisodiy savollarga javob beradi.

2. Buyruqbozlik iqtisodiyoti (sobiq Ittifoq, Yevropa va Osiyodagi sobiq “sotsialistik mamlakatlar”, Kuba, Xitoy, Hindiston va bugungi kunda KXDRni misol qilish mumkin). Masalan, Hindistonda iqtisodiyotni rivojlantirishda 5 yillik rejalar qabul qilinsa-da, ularni nazorati boshqa “yopiq iqtisodiyot”li mamlakatlardan tubdan farqlanadi. Chunki, ushbu davrdagi 5 yillikda qaysi iqtisodiyot sohalari rivojlansa va ular daromad manbayi sifatida qaralsa, keyingi 5 yillikda aynan o‘sha daromadli iqtisodiyot sohalariga e’tibor qaratiladi. Shuning uchun odatda Hindiston iqtisodiyotni rivojlantirishda aralashma modeldan foydalanadi.

Buyruqbozlik iqtisodiyotida mayjud resurslarni taqsimlash masalalari markaziy rahbariyat tomonidan hal etiladi va ishlab chiqarish siyosati markazlashgan rejaga asosan olib boriladi. Markaziy rahbariyat iqtisodiy masalalar bo‘yicha barcha zarur chora-tadbirlarni va qarorlarni qabul qiladi. Shu sababli ham, iqtisodiyotning bunday ko‘rinishi buyruqbozlik iqtisodiyoti deb ataladi.

Masalan, KXDR iqtisodiyotining asosiy taraqqiyoti XX asrning 60-yillariga to‘g‘ri keladi va uning iqtisodiyoti rejallashtirilgan tizimga asoslangan holda markazdan turib boshqariladi. Unda har bir qabul qilingan islohotlarning ijrosi davlat tomonidan juda kuchli bo‘lgan nazorat ostida amalga oshiriladi hamda uning xalqaro iqtisodiy munosabatlari va aloqalari chegaralangan.

Jahon bozorida “yopiq iqtisodiyotli” KXDR mamlakatining ishlab chiqargan mahsulotlarining eksporti deyarli yo‘q. Biroq uning tashqi savdo aloqalarida Xitoy va Rossiya kabi mamlakatlardan asosan aholi iste’moli mahsulotlari va oziq-ovqat mahsulotlarini import qiladi.

Mamlakatning xalqaro iqtisodiy munosabatlari chegaraganligi sababli, uning aholisi tashqi jahon muhitidan ajralib qolgandek ko‘rinadi. Milliy iqtisodiyoti hukumatning kuchli markazlashgan siyosati bilan amalga oshiriladi

Shuningdek, mamlakat aholisi internet tizimidan foydalanishi qat’iyan man qilingan. Xorijiy mehmonlar mamlakatga tashrif buyurishsa, poytaxt Pxenyan aeroportidayoq ularning barcha aloqa va texnika buyumlari mahalliy nazoratchilar tomonidan vaqtinchalik olib qo‘yiladi. KXDR bugungi kunda ocharchilik yoqasida turgan jahondagi eng qashshoq mamlakatlaridan biri hisoblansa-da, 2020-yilning oktabr oyida pandemianing og‘ir davriga qaramay o‘z milliy bayramini tarixiy tarzida nishonladi va 2020-yilda pandemiya sharoitida eng yirik bayram kunini nishonlagan yagona mamlakat sifatida jahon xo‘jaligi tarixidan joy oldi.

3. O‘tish iqtisodiyoti (MDH mamlakatlari, Sharqiy Yevropa mamlakatlari va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlari). Iqtisodiyotning bunday ko‘rinishida resurslarni joylashtirish to‘g‘risidagi qaror markaziy rahbariyatning ko‘rsatmalarisiz, biroq yakka tartibdagi ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar tomonidan qabul qilingan ko‘plab mustaqil qarorlar natijasida amalga oshiriladi.

O‘tish iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy muammolarga tegishli qarorlar nomarkazlashtirilgan bo‘ladi. Bozor tomonidan belgilanadigan narxlar asosiy muvofiqlashtiruvchi bo‘ladi va shuning uchun ham erkin bozor tizimini ko‘pincha narx tizimi deb ham atashadi.

Bozor iqtisodiyotiga xos bo‘lgan bir qator asos bo‘luvchi va universal tamoyillar mavjud bo‘lib, unga raqobatga (talab va taklifga) asoslangan narx belgilash tizimi tegishlidir.

Bozor iqtisodiyotining tamoyillari quyidagilardan iboratdir:

- mahsulot va xizmatlarning narxlarini erkin belgilash;
- xususiy mulkka egalik;
- shartnomaviy munosabatlarga kirishish erkinligi;
- ochiq bozorlar;
- qonun ustuvorligi;
- tadbirkorlikning rivojlanishi;
- barqaror valuta kabi narx ko‘rsatkichlarini ham qamrab oladi.

3.2. Ishlab chiqarishning buyruqbozlik iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotiga o‘tishning zarurligi va o‘tish davri davlatlarida bozor islohotlari

Jahon iqtisodiyotida o‘tish iqtisodiyoti bir xo‘jalik yuritish tizimining boshqasi bilan almashish holatini ifoda etadi. Bu jarayon nisbatan uzoq davrni o‘z ichiga oladi. Uning o‘ziga xos jihat shundaki, eski iqtisodiy tizim batamom yo‘q bo‘lib ketmaydi va uning asorati bir necha yillar davom etadi hamda yangi iqtisodiy tizimda esa o‘zining samaraliroq ekanligini ko‘rsata olmaydi. Buning natijasida iqtisodiyotning yaxlitligi buziladi. Ya’ni, eski va yangi iqtisodiyotning unsurlari bir vaqtning o‘zida faoliyat ko‘rsatadi. Shunga o‘xshash holatlar jahon xo‘jaligining sivilizatsiyalar almashuvida (antik davrdan o‘rta asrlar davriga, o‘rta asrlar davridan kapitalizmga o‘tishda) kuzatilgan edi.

Zamonaviy bosqichda o‘tish iqtisodiyoti Yevropa va Osiyodagi sobiq “sotsialistik mamlakatlar”ga (KXDR bundan mustasno) xosdir. Jahon iqtisodiyotida sobiq Ittifoq, Chexoslovakiya va Yugoslaviya kabi sotsialistik tizimdagi davlatlar tarqalib (bo‘linib) ketganidan so‘ng ularning o‘rnida jami 29 ta o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlar, ya’ni bularning 15 tasi sobiq Ittifoq hududida bo‘lsa, qolgan 14 tasi Yevropa hududida vujudga keldi.

O‘tish davri davlatlarining iqtisodiyoti bir butun yaxlit emas, buning natijasida barqaror o‘sish mexanizmlari qiyin ahvolga tushib qolgan bo‘lib, milliy xo‘jalik holati barqaror va turg‘un emas. Biroq Yevropadagi Xorvatiya, Sloveniya, Polsha, Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Ruminiya kabi mamlakatlarning “Yevropa Ittifoqi” tashkilotiga a’zo bo‘lishi natijasida ularning milliy iqtisodiyoti an’anaviy tarzda qisqa yillar ichida salmoqli darajada rivojlanishiga olib keldi.

O‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarda davlat barqarorlashtirish jarayonlarini kuchaytirishga, milliy ishlab chiqarishni raqobatbardoshligini oshirishga, yangi xo‘jalik yuritishning bozor ko‘rinishlarini amalga oshirishni yengillashtirishga harakat qiladi.

Jahon iqtisodiyotida raqobatbardoshlik muammosi eng dolzarb hisoblanadi, chunki markazdan turib rejalashtirish tizimidan voz kechish, eng avvalo, ishlab chiqarishda samaradorlikni pastligi bilan

va shuningdek, uning daromadligini pasayishi bilan ajralib turadi.

XX asrning oxirlarida Sharqiy Yevropa mamlakatlarini iqtisodiyoti tashqi bozorga bog‘liq bo‘lganligi sababli o‘z mahsulotlarini jahon bozorida sotishda bir qator muammolarga duch kelishdi. Eksport imkoniyatlarining yetarli darajada emasligi esa valuta mablag‘larini jamg‘arilishida bir qator qiyinchiliklarni tug‘dirdi hamda aholining turmush darajasi va farovonligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan import tovarlarni yetarli darajada sotib olish imkoniyatini bermagan edi.

O‘tish davri mamlakatlarida ishlab chiqarish samaradorligiga bo‘lgan talablarga nisbatan yondashuv ham bir xil bo‘lman. Agar Sharqiy Yevropa mamlakatlarida xo‘jalik boshqaruv mexanizmining inqirozga uchraganligi jahon bozori talablaridan orqada qolganligi bilan baholansa, sobiq Ittifoq respublikalarida rejali iqtisodiyot ishlab chiqarishda aholining haqiqiy ehtiyojlari uchun xizmat qilmasligi tanqid ostiga olinadi. Shunday qilib Sharqiy Yevropada bozor iqtisodiyotiga xos bo‘lgan xususiy xo‘jalik alohida iqtisodiy uklad sifatida saqlanib qolgan bo‘lib, u bozor islohotlarini amalda qo‘llanilishini yengillashtirgan edi.

Jahon iqtisodiyotida Yevropadagi bir qator sobiq “sotsialistik mamlakatlar” tomonidan XX asrning so‘nggi choragida muhim iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlarning asosiy maqsadi rejali iqtisodiyotning ustun jihatlarini bozor iqtisodiyoti yutuqlari bilan birlashtirish edi. Sobiq Yugoslaviyada bozor islohotlari yanada chuqurroq xususiyatga ega bo‘lib, unda ishlab chiqarish korxonalari o‘z-o‘zini boshqarish, erkin narx belgilash va tovarlarni sotish imkoniyatiga egaligi bilan raqobat kuchaygan edi. Buning oqibatida korxonalar bu raqobatga bardosh berish uchun bozor sharoitiga moslashishga majbur bo‘lgan.

Jahon xo‘jaligi tarixidan joy olgan “Yugoslaviya modeli” korxonalarning talabga moslasha olish, bozorni to‘ldirish va mahsulotni nisbatan yuqori sifatda bo‘lishini ta’minlash imkoniyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Mamlakat o‘zining texnikalarini zamonaviy texnologiyalarga yangilay olish imkoniyatini ham namoyish etdi. Bunday yangilash usuli mahalliy korxonalarning o‘zлari tomonidan, ya’ni o‘z hisobidan amalga oshirildi. Biroq “Yugoslaviya modeli” mamlakatda ishsizlikni oshishiga va inflatsiya jarayonlarining

kuchayishiga olib kelgan edi.

Xuddi shu davrda Vengriyada milliy iqtisodiy taraqqiyot modelini yaratish maqsadida korxonalarning ishlab chiqarish faoliyatiga mustaqillik berish yo‘li bilan bog‘liq bo‘lib, ularga o‘z mahsulotlarini o‘zлari sotishga ruxsat berildi. Ma’lumki, mamlakat yetarli darajada kichik bo‘lgan taqdirda bu jarayonga davlatning jiddiy aralashuvi talab etilmaydi. Shuning uchun ham Vengriyada korxonalar ish haqi fondlarini saqlab qolgan holda ish bilan band bo‘lganlarning sonini mustaqil belgilash huquqiga ega bo‘ldi. Unga ko‘ra, ishchilar sonini kamaytirish hisobiga ish haqi fondi saqlab qolindi, natijada korxona bu fondni qayta taqsimlash huquqiga ega bo‘lganligi sababli, ishlab chiqarishda ishchi-mutaxassislarning ish haqini oshirish imkoniga ega bo‘ldi.

Vengriyada o‘tkazilgan islohotlarning eng diqqatga sazovorlik tomoni shunda bo‘ldiki, bu yerda ichki narxlarni jahon narxlariga bog‘lab qo‘yishga harakat qilindi. O‘tkazilgan bu islohotlar natijasida Vengriya milliy iqtisodiyoti raqobatbardosh bo‘lmagan ishlab chiqarishdan holi bo‘lib, raqobatda g‘olib chiqqan korxonalar jahon bozori talablariga moslashish ko‘nikmasiga ega bo‘ldi. Shunday qilib XX asrning 80-yillari boshlarida mamlakatda amalga oshirilgan jiddiy islohotlar natijasida jahon xo‘jaligida “vengriya modeli” yuzaga keldi va bu islohotlar vengerlar tomonidan “iqtisodiy qon almashtirish” sifatida baholandи hamda keyinchalik bu bozor iqtisodiyoti tomon tashlangan jiddiy qadam bo‘ldi.

Sobiq Chexoslovakiyada esa, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish jarayoni markazdan turib rejalashtirish asoslariga putur yetkazmagan holda, resurslarning narxlari har yili oshirilgan bo‘lsa, iste’mol tovarlari narxlari esa pasaytirib borildi. Natijada o‘tgan asrning 90-yillariga kelib narx parametrlari va ularning tarkibi jahon standartlariga yaqinlashdi. Buning natijasida bundan keyingi davrlardagi inflatsiya jarayonlaridan qutilib qolish imkoniyatini berdi.

Jahon iqtisodiyotida Polsha milliy iqtisodiyoti Sharqiy Yevropadagi boshqa qo‘shni mamlakatlarga qaraganda ancha barqaror rivojlandi. Ayniqsa, XX asrning 90-yillariga kelib bozor iqtisodiyotiga mos keladigan qonunchilik ishlab chiqilishi natijasida iqtisodiyot tarkibidagi barcha sohalarni bir tekis rivojlanishiga olib keldi. Polshada bozor iqtisodiyotining boshlanishi bozor iqtisodiyotini

amalda bo‘lishining moddiy shart-sharoitining yaratilishidan boshlandi. Buning ichida erkin bozor narxlari hududining kengayishi, xususiy mulkchilikka nafaqat qishloq xo‘jaligida, balki qayta ishslash sanoatida ham ruxsat etilishini alohida ta’kidlash joiz. 1982-83-yillarda mamlakat hukumati tomonidan amalga oshirilgan islohotlar quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oldi.

- markazdan turib rejalashtirishni davlat buyurtmalari tizimi bilan almashtirish;
- markazdan turib narx belgilash doirasini qisqartirish (buning natijasida 1989-yilning kuziga kelib 90 foiz narx erkinlashdi);
- moddiy resurslarni markazdan turib taqsimlash ulushini 1986-yildagi 45 foizdan 1988-yilga kelib 22 foizgacha qisqartirish;
- tarmoq vazirliklarini tugatish va yagona sanoat vazirligini tashkil etish (Vengriya kabi);
- ish haqini erkinlashtirish va mehnatga haq to‘lash fondining oshishiga o‘sib boruvchi soliq tizimini joriy etish;
- vositachilik va lizing shartnomalarini joriy etish;
- qayta ishslash sanoatida xususiy mulkchilikka ruxsat berish;
- eng muhimmi, xorijiy valuta bozorini 1989-yildan boshlab erkinlashtirish kabilarni o‘z ichiga oldi.

1990-yillarning boshlariga kelganda Polsha iqtisodiyotida xususiy sektor tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (to‘qimachilik, poyabzal, elektronika mahsulotlari) jarayoni va ularning turlari hamda eksporti jihatidan Yevropadagi sobiq “sotsialistik” mamlakatlar ichida eng yetakchi sektorga aylandi va Polsha mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqishda eng faol sektorga aylandi.

Shunday qilib, Sharqiy Yevropa mamlakatlarida XX asrning so‘nggi yillarida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarni MDH davlatlari bilan solishtirganda ularda bozor islohotlarini o‘tkazish uchun qulay vaziyat yaratilganligini ko‘rishimiz mumkin. Dastlabki bunday qulay shart-sharoitlar bir qator jihatlar bilan bog‘liqdir. Masalan, Sharqiy Yevropa mamlakatlarida iqtisodiyotning monopollashish darajasi MDH mamlakatlariga nisbatan pastroqligi va aholining turmush darajasining nisbatan yuqoriligi hamda bu mamlakatlarda bozor mentaliteti saqlanib qolganligi bilan ajralib turadi.

3.3. Jahon xo‘jaligida Ikkinci jahon urushidan so‘ng “iqtisodiy mo‘jizalarning vujudga kelishi va ularning asosiy omillari

Ikkinci jahon urushidan keyingi o‘n yilliklardagi jahon xo‘jaligini rivojlanish xususiyatlaridan biri, bu ko‘plab davlatlarning birin-ketin yopiq milliy xo‘jalikdan tashqi bozorga yuz tutgan iqtisodiy ochiq turdagи xo‘jalikka o‘tish bilan izohlanadi. Albatta, Ikkinci jahon urushi jahon iqtisodiyotini deyarli izdan chiqardi. Biroq urush tufayli bir qator mamlakatlarning, xususan AQSH va Kanada kabi mamlakatlarning iqtisodiyoti salmoqli darajada katta miqdorda foyda ko‘rdi, chunki ushbu mamlakatlar urushda qatnashayotgan mamlakatlar uchun muhim bo‘lgan aholi iste’moli mahsulotlari, harbiy texnika va qurol-yaroqlar bilan ta’minlab beruvchi eng asosiy eksportyor mamlakatlarga aylanishgan edi.

XX asrning 50-60-yillari Yevropa va Osiyo mamlakatlari uchun tiklanish davri bo‘ldi. Yevropadagi deyarli barcha mamlakatlar urush sababli vayronagarchilik, ishlab chiqarishning butunlay to‘xtab qolganligi, ko‘plab inshootlar ta’mirtalab yoki qaytadan qurish lozimligi, ishsizlikning hukm surishi, qisqasi infratuzilma butunlay izdan chiqqan bo‘lib, ushbu mamlakatlarda “tiklanish” jarayonlari turlicha iqtisodiy yo‘llar bilan amalgalashdi. Ayniqsa, Ikkinci jahon urushidan so‘ng urushdan eng ko‘p aziyat chekkan mamlakatlar qatorida Germaniya, Yaponiya va sobiq Ittifoq jahon tarixidan joy oldi.

Ikkinci jahon urushidan so‘ng jahon xo‘jaligida keng ko‘lamdagи iqtisodiy taraqqiyot Yevropa va Osiyoning Sharqiy qismida kuzatildi. Ayniqsa, yer yuzida aholisi juda zinch va ko‘p bo‘lgan Sharqiy Osiyo mamlakatlari urushdan so‘nggi 30 yil ichida milliy iqtisodiyotlarni rivojlantirishda katta hajmdagi ishlarni amalgalashdi va bularning yakunida yuqori iqtisodiy ko‘rsatkichlarga erishdilar. Bu mintaqadagi ko‘plab mamlakatlarning, jumladan Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Gonkong, Tayvan, Malayziya, Indoneziya, Filippin va Tailand kabi mamlakatlarning milliy iqtisodiyotlari tez va jadal sur’atlar bilan rivojlandi. Sharqiy Osiyo mamlakatlarining jahon iqtisodiyotida qisqa fursat yillar ichidagi tez taraqqiyoti natijasida bir qator “iqtisodiy mo‘jiza”lar vujudga keldi.

Jahon xo‘jaligida vujudga kelgan “iqtisodiy mo‘jiza”larni

quyidagi beshta iqtisodiy davrlarga bo‘lamiz:

Birinchi iqtisodiy davr – XX asrning 1960-yillari (Yaponiya va Germaniya). Ushbu yillarda Yaponiya milliy iqtisodiyotining misli ko‘rilmagan darajadagi taraqqiyoti natijasida jahon xo‘jaligida birinchi bo‘lib “iqtisodiy mo‘jiza”ga erishdi. Uning “iqtisodiy mo‘jiza”ga yetaklagan va iqtisodiy taraqqiyotiga sabab bo‘lgan eng asosiy omil fan-texnika inqilobi bo‘lgan bo‘lsa, shu yillarda Germanyaning “iqtisodiy mo‘jiza”siga “nemis modeli” eng asosiy omil sifatida sabab bo‘ldi.

Ikkinci iqtisodiy davr – XX asrning 1970-yillari (“To‘rt ajdarho mamlakatlari”). 1970-yillarda bir qator mamlakatlar milliy iqtisodiyotida sanoat tarmoqlarining rivojlanishi va ular tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining jahon bozorida munosib o‘rin olganligi bilan jahonda “Yangi industrial mamlakatlar” paydo bo‘ldi. Ayniqsa, Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasidagi Janubiy Koreya, Singapur, Gonkong va Tayvan mamlakatlarining iqtisodiy taraqqiyoti natijasida jahon xo‘jaligida “iqtisodiy mo‘jiza”larni vujudga kelishi tufayli yangi atama, ya’ni “To‘rt ajdarho mamlakatlari” paydo bo‘ldi. Shuningdek, shu yillarda Lotin Amerikasidagi Braziliya, Argentina va Chili mamlakatlari ham Yangi industrial mamlakatları qatoridan joy olishdi.

“To‘rt ajdarho mamlakatlari” milliy iqtisodiyoti quyidagi eng asosiy omillarga ko‘ra “iqtisodiy mo‘jiza”ga erishishdi:

- Janubiy Koreya – ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining yalpi eksportga chiqarilishi;
- Tayvan – milliy iqtisodiyotida kichik va o‘rta biznesning hamda oilaviy tadbirkorlikning yuksak darajada rivojlanishi;
- Gonkong – tashqi savdoda reeksportning rivojlanishi;
- Singapur milliy iqtisodiyotining shakllanishi va uning rivojlanishida esa eng asosiy omil mamlakatning iqtisodiy-geografik qulayligidir.

Uchinchi iqtisodiy davr – XX asrning 1980-yillari (“To‘rtta kichik yo‘lbars mamlakatlari”). 1980-yillarda aynan Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasidagi ASEAN (Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy uyushmasi) uyushmasiga a’zo bo‘lgan mamlakatlar, jumladan Malayziya, Tailand, Filippin va Indoneziya mamlakatlari tomonidan kichik “iqtisodiy mo‘jiza”ga erishildi. Jahon xo‘jaligida

ushbu mamlakatlar “To‘rtta kichik yo‘lbars mamlakatlari” deb ataldi. Demak, “To‘rtta kichik yo‘lbars mamlakatlari”ning milliy iqtisodiyotlari quyidagi eng asosiy omillarga ko‘ra “iqtisodiy mo‘jiza”ga erishishdi:

- Malayziya – milliy iqtisodiyotga xorijiy sarmoyadorlarni jalg qilinishi;
- Tailand – 1980-yillarda xalqaro turizmning rivojlanishi;
- Filippin – AQSH bilan o‘zaro iqtisodiy hamkorligi va uning beg‘araz iqtisodiy yordami;
- Indoneziya – Tabiiy resurs va xomashyolarni eksportga chiqarishi.

To‘rtinchi iqtisodiy davr – XX asrning 1990-yillari. 1990-yillarda jahon xo‘jaligida “to‘rtinchi iqtisodiy mo‘jiza”ni vujudga keltirgan Xitoy mamlakatining milliy iqtisodiyotini misli ko‘rilmagan darajada tez taraqqiy etishiga sabab bo‘lgan eng asosiy omil bu – jahon bozorida demping siyosatini qo‘llaganligidir.

Xitoy mamlakati bungacha bo‘lgan davrdan hatto 15 yil oldin ham iqtisodiy holati va aholining turmush tarzi o‘ta qoloq darajada bo‘lganligi hamda aholining asosiy daromadi faqatgina qishloq xo‘jaligi sohasidan kelgan edi. Biroq Mao Szedun davridan so‘ng mamlakat tepasiga Den Syao Pin kelgach, 1980-yillarda mamlakatda keng masshtabli “ochiq iqtisodiyot” maqomi ostida bir qator iqtisodiy islohot va dasturlar amalga oshirildi. Jumladan jahon mamlakatlari bilan savdo-sotiq jarayonlarini keng ko‘lamda olib borish maqsadida “ochiq eshiklar siyosati” dasturini tatbiq qiladi.

Ushbu dastur o‘z ichiga asosan bir qator muhim bo‘lgan choratadbirlarni o‘z ichiga olib, ularning eng muhimlari qirg‘oqbo‘yi hududlardagi 14 ta shaharga tashqi iqtisodiy faoliyatni olib borishi uchun “xalqaro dengiz porti” maqomini berish hamda 4 ta yirik erkin iqtisodiy hududlarni tashkil qilish kabi vazifalarini o‘z ichiga olgan edi. Aynan mamlakatning ushbu qisqa davrdagi iqtisodiy taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan “Xitoy mo‘jizasi” jahon xo‘jaligida “xitoy modeli”ga asos solindi.

Albatta, Xitoyning bunchalik tez sur’atlar bilan iqtisodiy rivojlanishiga va taraqqiy etishiga jahondagi ko‘plab xalqaro tashkilotlar, iqtisodchi olimlar va ekspert mutaxassislar “vaqtinchalik rivojlanish” deb taxmin qilgan edilar. Lekin haqiqatda mana yaqin 20

yillar davomida Xitoy davlati iqtisodiy taraqqiyotni qanday amalga oshirish kerakligini jahon ommasiga isbotlab bermoqda.

Beshinchi iqtisodiy davr – XXI asrning boshlari, ya’ni 2000-yillar. 2000-yillarning boshlarida Yaqin va O’rta Sharq mintaqasining Fors ko’rfazi mintaqasida joylashgan BAA milliy iqtisodiy taraqqiyoti cho’l hududida joylashganligiga qaramay barcha sohalarda taraqqiyotga erisha boshladilar. Mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotiga sabab bo’lgan eng asosiy omil hisoblangan neft xomashyosining eksporti milliy iqtisodiyotning eng asosiy muhim daromadi bo’ldi.

BAA tomonidan bir vaqtning o’zida mamlakat bo’ylab keng qamrovli qurilish ishlari, sanoat tarmoqlariga “nou-xau” texnologiyalarini va yirik investorlarni jalg qilinishi, erkin iqtisodiy hududlarni tashkil qilinishi, sanoat tarmoqlariga rivojlangan xorijiy mamlakatlardan malakali mutaxassislarning taklif qilinishi hamda iqtisodiyotning kam rivojlangan sohalarida yuzlab yirik investitsiya loyihamalarini muvaffaqiyatli amalga oshirilishi natijasida jahon xo’jaligida “Cho’l ustidagi iqtisodiy mo’jiza”ni vujudga kelishiga olib keldi.

Albatta, neft xomashyosining eksportidan tushgan valuta mablag’lari iqtisodiyotning barcha sohalarini bir tekis rivojlantirilishi uchun yo’naltirildi. Hatto tabiiy sharoiti noqulay hisoblangan va hududi cho’lda joylashgan bo’lsa-da, qishloq xo’jaligi tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida qo’shni Eron va Hindiston kabi mamlakatlardan unumli tuproqni import qilib agrar sohaga e’tibor qaratganligini ham alohida ta’kidlash joiz. Qisqa 15 yil ichida BAA milliy iqtisodiyotining bunchalik o’z qiyofasini o’zgartirishi va pandemiya sharoitiga qaramasdan jahon sayyoohlarini o’ziga tortishi BAAning jahon iqtisodiyotidan munosib o’rin olganligini anglatadi.

Jahon banki ekspertlarining tahlillariga ko’ra, XXI asrning 10-yillarida Osiyoning Vietnam, Qatar va Hindiston kabi mamlakatlar tomonidan yaqin qisqa 5-6 yillar ichida jahon xo’jaligida navbatdagi “iqtisodiy mo’jiza”larini bashorat qilishgan. Biroq, yuzaga kelgan pandemiya ularning milliy iqtisodiy taraqqiyotiga jiddiy salbiy ta’sir ko’rsatgan va iqtisodiy o’sish sur’atlariga sezilarli darajada o’z ta’sirin o’tkazgan. Ayniqsa, Hindistonning iqtisodiy o’sishi kamida 6 foizga pasayishi kuzatilgan. Shu bilan birga, ekspertlarning taxminlariga qaraganda, jahon xo’jaligidagi iqtisodiy taraqqiyot va milliy

iqtisodiyotdagi katta ijobiy siljishlar XXI asrning 20-yillarida ham asosan Sharqiy Osiyo va Fors ko‘rfazi mintaqasida ro‘y berishini taxmin qilishmoqda.

Yuqorida keltirilgan iqtisodiy davrlardagi “iqtisodiy mo‘jiza”ga erishgan mamlakatlar iqtisodiyotining shakllanishi va ularning milliy iqtisodiyotini rivojlanishiga sabab bo‘lgan asosiy xususiyatlari haqida keyingi mavzularimizda batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

3.4. Iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishni qo‘llab-quvvatlashda davlatning roli

Jahon xo‘jaligidagi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning ilk iqtisodiy taraqqiyoti davrida davlatning ahamiyati beqiyos katta bo‘ladi. Hatto jahondagi rivojlangan mamlakatlarda ham xususan, Germaniya, Fransiya, Italiya, Yaponiya kabi mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish davrlari tahlil qilinganda milliy iqtisodiyotni davlat boshqaruvi, ya’ni iqtisodiy taraqqiyot modellari tatbiq qilingan. Bugungi kunda ham jahonning ko‘plab mamlakatlari iqtisodiyotida davlat sektorining ulushi yuqori bo‘lib, asosan davlat budgetiga asosiy daromadlarni keltiruvchi donor tarmoqlarni davlat sektori bevosita nazoratiga olgan.

Jahon xo‘jaligidagi aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlarning, jumladan Xitoy, Hindiston, Pokiston, Turkiya, Misr kabi va MDHning bir qator mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanishida davlat asosiy rolni o‘ynagan. Aynan hukumat mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish strategiyasini ishlab chiqib, milliy davlat rejalarini bajarilishiga erishgan, ular turli-tuman tadbirlar orqali eksportni rag‘batlantirgan, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni xorijiy raqobatchilardan saqlagan, eng muhim bo‘lgan strategik tarmoqlarni rivojlantirgan. Shuning uchun ham bu mamlakatlar o‘z yutuqlari va kamchiliklari bilan hukumatga bog‘liqdir.

Albatta, davlat iqtisodiyotni tartibga solib turishida muhim bo‘lgan iqtisodiy dasturlar va islohotlarlarni amalga oshiradi. Davlat tomonidan iqtisodiyotni tizimli tartibga solishda mulkchilikka, tadbirkorlikka, tijorat ishlariga, moliya-kredit faoliyati va boshqalarga oid bir qator muhim bo‘lgan iqtisodiy qonunlarni ishlab chiqib hayotga tatbiq etadi. Shuningdek, soliqqa tortish, korxona va tashkilotlarga har xil kreditlar berilishi hamda aholining ssuda olishida davlat muhim rol

o‘ynaydi. Bozor munosabatlarining rivojlanishi qonun yo‘li bilan kafolatlanadi, turli mulk shakllarining daxlsizligi ta’minlanadi, monopoliyalarga yo‘l berilmaydi hamda erkin raqobatga shart-sharoit yaratiladi.

Bob yuzasidan xulosa

Demak, Yuqorida fikrlardan kelib chiqib, shuni ta’kidlab o‘tamizki, iqtisodiy tizimlarning bir-biridan farqlarini quyidagi xulosalar orqali belgilaymiz:

1. Iqtisodiy tizimlarning bir-birlaridan eng asosiy farqlari:
 - asosiy iqtisodiy masalalarni hal etish usullari;
 - ijtimoiy tuzilishi;
 - mulkka munosabati, nazorat va maqsadlari.

2. Agar an’anaviy iqtisodiy tizim sharoitida ishlab chiqarish masalalari belgilangan an’analarga muvofiq hal qilinsa, buyruqbozlikka asoslangan tizimda esa markaziy davlat tomonidan hal etiladi, ya’ni markazlashgan holda. Shuningdek, bozor iqtisodiyoti sharoitida eng asosiy muvofiqlashtiruvchi kuch bozor belgilab bergen narx-navolar hisoblanadi.

3. Bozor iqtisodiyoti nihoyatda xilma-xil bo‘lib, bu ma’lum bir mamlakat yoki mintaqaning tarixiy, geografik yoki iqtisodiy rivojining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liqdir.

Nazorat savollari

1. Ijtimoiy xo‘jalik iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotining afzalligini xarakterlab bering.

2. O‘tish iqtisodiyoti davlatlari deganda qanday davlatlarni tushunasiz?

3. Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarni o‘ziga xos jihatlarini aytib bering.

4. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarni MDH mamlakatlari bilan taqqoslab, ularning farqini aniqlang.

5. O‘tish iqtisodiyoti davlatlarida vujudga kelayotgan iqtisodiy muammolarni ko‘rsating.

6. XX asrning ikkinchi yarmida jahon xo‘jaligida vujudga kelgan

“iqtisodiy mo‘jiza”larning davrlarini hamda mamlakatlarni ayting.

7. “Iqtisodiy mo‘jiza”ga erishgan mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyotiga asos bo‘lgan eng asosiy omillarni ayting.

8. Jahon xo‘jaligidagi “Yangi industrial mamlakatlar”ni sanab bering.

9. “To‘rt ajdarho mamlakatlar” tarkibiga qaysi mamlakatlar kiradi?

10. “To‘rtta kichik yo‘lbars mamlakatlari”ni sanab bering.

11. Xalqaro tashkilotlar va ekspertlar yaqin 5-6 yillar ichida Osiyoning qaysi mamlakatlari iqtisodiy taraqqiyotini yuqori baholashmoqdalar va nima uchun?

12. Jahon xo‘jaligida “to‘rtinchchi iqtisodiy mo‘jiza” qaysi mamlakat tomonidan amalga oshirildi?

13. XX asrning so‘nggi dekadasida Xitoy milliy iqtisodiyotining misli ko‘rilmagan darajada rivojlanishiga qaysi omillar ta’sir ko‘rsatdi?

14. Nima sababdan BAA milliy iqtisodiyoti yil sayin tez sur’atlarda rivojlanib bormoqda?

15. AQSH hukumati tomonidan Yevropaning qaysi mamlakatlariga ”Marshall rejasi” dasturi bilan iqtisoidy yordamlarni taqdim qilgan?

Uyga vazifa!

Talabaning “Jahon xo‘jaligidagi tarkibiy o‘zgarishlar” mavzusini chuqr o‘zlashtirishi hamda amaliyat darsiga puxta tayyorgarlik ko‘rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

1) mavzu so‘nggida berilgan “Nazorat savollari”ga tayyorgarlik ko‘rish;

2) jahon xo‘jaligida “iqtisodiy mo‘jiza”ga erishgan mamlakatlarning (tanlama ravishda) asosiy omillari tahlili bo‘yicha talabalar tomonidan guruhlarga bo‘lingan holda “taqdimot” o‘tkaziladi.

IV BOB. JAHON BOZORI VA UNING KONYUNKTURASI

1. Jahon bozori va jahon tovarlar bozori konyunkturasi tushunchasi.

2 Konyunkturani shakllantiruvchi omillar va jahon tovar bozorlari konyunkturalarini o‘rganish uslubiyoti.

3. Jahon bozorida xomashyo tovarlari savdosi va xomashyo tovarlari bozori konyunkturasi tadqiqotining o‘ziga xos xususiyatlari.

4. Jahon neft va neft mahsulotlari bozorida narx shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlari.

5. Tovar bozori konyunkturasini istiqbollash bo‘yicha asosiy yondashuvlar.

6. Marketingda jahon tovar bozorlari konyunkturalarini istiqbollash.

7. Jahon moliyaviy bozorlarining tahlili, maqsadi va asosiy vazifalari.

8. Jahon bozorida eksportning turlari va ularning xususiyatlari.

9. “COVID-19”ning jahon xomashyo bozorlariga salbiy ta’siri

Tayanch iboralar: konyunktura, jahon bozori, savdo-sotiq, tashqi savdo, eksport, import, saldo, reeksport, savdo imtiyozlari, bozor segmenti, dollar, AQSH dollari, yevro, funt sterling, jahon neft bozori, pandemiya, inqiroz, “OPEK+”, marketing, trend modeli, jahon bozorini tadqiq qilish.

4.1. Jahon bozori va jahon tovarlar bozori konyunkturasi tushunchasi

Avvalo “Konyunktura” so‘zining ma’nosini nima?

Mahalliy va xorijiy adabiyotlarda konyunkturaga quyidagicha ta’rif berilgan: konyunktura – bu muayyan tovarlarga to‘lash (to‘loc) imkoniyati va uning taklifi o‘rtasidagi nisbatdir.

Konyunktura tub mazmuni bilan bozor iqtisodiyotining kategoriyasi bo‘lib, u bozor holati va undan xabardor bo‘lib turishdan iboratdir. Bozor sharoitida iqtisodiy faoliyat oldindan belgilangan

rejalar va ko‘rsatmalar yo‘li bilan amalga oshmaydi, balki o‘zining ichki qonuniyatlari, kategoriya va qonunlarning harakati asosida yuz beradi.

Demak, oddiy so‘z bilan aytganda, konyunktura – bu bozor holati bo‘lib, qisqa vaqt ichida yuzaga kelgan vaziyatdir. Bozor konyunkturasi (lotinchadan olingan bo‘lib, “conjungere” – bog‘layman, aloqa ma’nosini beradi) ma’lum vaqt mobaynida omillar, kuchlar va shartlar ta’siri ostida yuzaga kelgan bozor holati yoki aniq iqtisodiy vaziyatdir.

“Holat” termini lotin tilida “situacio” – ahvol yoki holat degan ma’noni bildiradi. Bozor holati va bozor konyunkturasi bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Bozor o‘ziga xos tarkibga ega bo‘lgan murakkab tizimdir. Shunga ko‘ra, u bir necha turlarga bo‘linadi. Konyunktura bozorning asosiy elementi bo‘lib, muayyan davrdagi bozor holati, bozordagi muvozanatning mavjudligi yoki buzilganligi bilan ajralib turadi.

Har qanday strategiyalarni ishlab chiqish, rejallashtirish, bozor segmentini tanlash, yangi tovarni ishlab chiqarishga doir qarorlar, savdo shartnomalarini tuzish, bozorni tadqiq etish, narxlarni o‘zgartirish va firmanın bozordagi o‘rnini va bozor holatini e’tiborga olgan holda amalga oshiriladi. **Jahon tovar bozorlari konyunkturasi** umumjahon konyunkturasidan farq qilib, alohida aniq tovarlar ishlab chiqarish va sotish sohasidagi joriy o‘zgarishlarni hamda tebranishlarni o‘rganadi.

Jahon bozori – bu mamlakatlar o‘rtasidagi oldi-sotdi, ya’ni tovar-pul munosabatlardan iborat bo‘lib, bunda tovar-pul munosabatlari xalqaro kelishilgan narxlarda va xalqaro valuta hisobida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, jahon bozori - moddiylashtirilgan va moddiylashtirilmagan ko‘rinishdagi ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste’mol bosqichlarni o‘z ichiga oluvchi xalqaro iqtisodiy munosabatlar subyektlarining (milliy va hududiy iqtisodiyotlar, xalqaro tashkilotlar) o‘zaro iqtisodiy ta’sirlashish jarayonidagi global muhitdir.

Barchaga ma’lumki, jahon bozorida tovarlar taklifi talabga bog‘liq bo‘ladi, shuning uchun ham zamonaviy xalqaro savdo nazariyasi tovarlar talab va taklifiga birdek e’tibor beradi. Jahon bozorida tovarlar taklifining ortishi nisbiy narxlarning pasayishiga olib keladi. Chunki

har bir mamlakat nisbiy narxi ortib borayotgan import tovarlarini ilgaridek miqdorda sotib olish uchun nisbiy narxlari tushib borayotgan o‘zlarining eksport tovarlarini yanada ko‘proq miqdorda sotishga majbur bo‘lishadi hamda eksportni kengaytirishga qaratilgan o‘sish harakati mamlakat savdo shartini savdo hamkorlari foydasiga yaxshilanishiga olib keladi.

Shuningdek, jahon bozori deganda mamlakatlar o‘rtasida ularning ijtimoiy mahsulotlarining bir qismini sotish bo‘yicha o‘zaro munosabatlar tizimi tushuniladi. Bu iqtisodiy munosabatlar yoki ayirboshlash quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- xalqaro savdo;
- ishlab chiqarish kooperatsiyasi;
- kapital migratsiyasi;
- ishchi kuchi migratsiyasi;
- o‘zaro to‘lovlar va hisob valuta operatsiyalari.



4.1-rasm. Jahon bozori tuzilmasi.

Demak, jahon bozori tuzilmasi o‘z tarkibiga Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, tovar, xomashyo va xizmatlar bozori; kapital bozori; moliya va valuta bozori; axborot resurslari bozori; fan-texnika va texnologiyalar bozori; mehnat bozori va ishchi kuchi migratsiyasi va boshqalarni tashkil qiladi.

Jahon bozori bilan tashqi bozor o‘rtasida qanday farq bor?

Tashqi bozor – bu mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning zamonaviy texnologiyada ishlab chiqarilishi, jahon standartlariga mos keladigan mahsulotlarni ishlab chiqarilishi, jahon xo‘jaligida va bozorida raqobat qila oladigan mahsulotlarni mamlakatdan tashqariga savdo uchun olib chiqilishi tushuniladi. Qisqacha aytganda, tashqi bozor muayyan mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning boshqa mamlakatlarga sotilish jarayoni tushuniladi. Bunda bir mamlakatdan tashqi bozorga olib chiqilgan mahsulotlar eksport hisoblanadi.

Jahon bozori konyunkturasining muhim xususiyatlaridan biri tashqi bozorlarda jahoning yetakchi rivojlangan mamlakatlarning yirik kompaniyalari, korxonalari va firmalarining hukmronligi rol o‘ynaydi. Tashqi savdoda esa sotiladigan tovarlar uchun avvalo pul hisobida “oltin”, ya’ni tovarlarning qiymat o‘lchovi muhim ahamiyat kasb etadi.

Har qanday davlatning tashqi savdo siyosati hukumatning umumiqtisodiy yo‘nalishining muhim tarkibiy qismi sanaladi, yanada tor ma’noda esa eksport-import tovar oqimlari hajmi, tovar tarkibi va jug‘rofiy yo‘nalishini tartibga solish bilan bog‘liq budget-soliq faoliyati sohalaridan biridir.

Bugungi kunda tashqi bozorda jahoning yetakchi mamlakatlarining quyidagi asosiy milliy valutalari muomalada bo‘lmoqda: umumiy xalqaro savdoning 85 foizi AQSH dollarida (\$) va undan tashqari, Yevropa Ittifoqining “Yevro” pul birligi, Yaponianing “yen”i, Buyuk Britaniyaning “funt sterling”i, Xitoyning “yuan”i va boshqa ba’zi mamlakatlarning milliy valutalari xalqaro hisob-kitoblarda muhim valuta rolini bajarmoqdalar. Xalqaro tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan tahliliy hisob-kitoblari asosan AQSH dollarida beriladi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan yetakchi milliy valutalarning jahon bozorida muomalada bo‘lishi ushbu milliy valuta egalarining jahon iqtisodiyotidagi nufuziga va jahon bozoridagi faoliyatiga ham o‘z ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

4.2. Konyunkturani shakllantiruvchi omillar va jahon tovar bozorlari konyunkturalarini o‘rganish uslubiyoti

Konyunkturaga ta’sir etishiga qarab, davriy bo‘lmagan konyunkturani shakllantiruvchi omillar ikki turga bo‘linadi:

- doimiy, ya’ni: ilmiy-texnik taraqqiyot, tashqi sharoitlarni o‘zgarishi, monopoliyalarning ta’siri, davlat boshqaruvi va inflatsiya kabilar;
- doimiy bo‘lmagan, ya’ni: mavsumiylik, ijtimoiy nizolar, siyosiy inqirozlar, tabiiy ofatlar kabi turlarga ajratiladi.

Ilmiy-texnik taraqqiyot ishlab chiqaruvchi kuchlarning keskin rivojlanishiga sabab bo‘lib, u birinchi navbatda iqtisodiyotning an’anaviy tarmoqlarida asosiy kapitalni (vositalarni) yangilanishini tezlashtirdi.

Monopoliyalarning ta’siri. Hozirgi davr sharoitidan kelib chiqib ishlab chiqarish va kapital konsentratsiyasining kuchayishi monopoliyalarning qudrati va ta’sirini keskin o‘sishiga olib keldi.

Davlat boshqaruvi (ta’siri). Davlat tovar bozorlarida sotib oluvchi va sotuvchi sifatida faoliyat ko‘rsatuvchi qudratli kuchni namoyon qila oladi va u o‘z qo‘lidagi ma’muriy kuchlar orqali iqtisodiyotga ta’sir ko‘rsatadi.

Inflatsiyaning ta’siri. Inflatsiya bu – tovar aylanmasi ehtiyojidan ortiqcha bo‘lgan qog‘oz pullarni muomalaga kiritish oqibatida yuzaga keladigan pulning qadrsizlanish jarayonidir. Inflatsiya asosan tovar narxlarini o‘sishida yaqqol ko‘rinadi. Inflatsiyaning kon'yunkuraga ta’siri qarama-qarshi holatlarni keltirib chiqaradi.

Konyunkturani rivojlanishiga qisman ta’sir etuvchi doimiy va davriy bo‘lmagan omillar ham o‘z ta’sirini o’tkazadi. Mavsumiylik ba’zi bir tovarlarni yil davomida bozorga doimiy tarzda yetkazilmasligi va sotish hajmlaridagi tebranishlarda aks etadi.

Jahon tovar bozorlari konyunkturalarini o‘rganish uslubiyoti bu – konyunkturani yaqin kelajakdagи rivojlanish istiqbolini ishlab chiqish va bozorda yuzaga kelgan holatni tahlil qilish imkonini beruvchi aniq tadqiq etish usullarining to‘plami hamda harakatlar ketma-ketligidir. Shunga ko‘ra, konyunkturani o‘rganishda quyidagi umumiy uslubiy talablariga rioya etish maqsadga muvofiqdir:

1. Iqtisodiy va jamiyat hayotidagi holatlarning umumiy

bog‘lanishlarini hisobga olish zarur. Konyunktura tadqiqotlarida har qanday tovar bozorini alohida o‘rganish mumkin emas, ya’ni umumiqtisodiy konyunktura hamda boshqa tarmoqdagi holatlarni ham o‘rganish lozim.

2. Mavjud bozor tendensiyasini boshqa bozorga to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘chirish kerak emas, hatto ular bir qator o‘xshashliklarga ega bo‘lsa ham. Masalan, umumiqtisodiy konyunkturadagi o‘zgarishlarni barcha tarmoq bozorlariga avtomatik tarzda ko‘chirish mumkin emas.

3. Konyunkturaning beqarorligi hamda bozorlardagi o‘zgarishlar bozorlarni to‘xtovsiz va doimiy ravishda kuzatib borishni talab etadi. Bu asosan turli xil siyosiy inqirozlar, ijtimoiy hamda tasodifiy omillar bozorlarga kuchli ta’sir etuvchi xususiyatlardir.

4. Tovar bozorlari konyunkturasini o‘rganish ma’lum bir ketma-ketlikda o‘rganilishi kerak. Eng avvalo, bozorning asosiy qirralari va xususiyatlarini tadqiq etish zarur. Bunday o‘rganish konyunktura tadqiqotining boshlang‘ich bosqichi hisoblanadi.

Demak, Yuqoridagi tahlillarga ko‘ra xulosa qilish mumkinki, jahon bozori konyunkturasini o‘rganish uslubiyoti quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- ishlab chiqarishni tahlil etish;
- iste’mol va talabni tahlil etish;
- xalqaro savdoni tahlil etish;
- narxni tahlil etish.

4.3. Jahon bozorida xomashyo tovarlari savdosi va xomashyo tovarlari bozori konyunkturasi tadqiqotining o‘ziga xos xususiyatlari

So‘nggi yillarda jahon savdo aylanmasida xomashyo tovarlarining ulushi tobora kamayib borayotganini kuzatishimiz mumkin. Buning sabablari jahon savdosida xomashyodan ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlar savdosini kengayishi va ular bahosining xomashyo tovarlari bahosiga nisbatan ortib borayotganligi bilan izohlanadi. Ammo ba’zi davriy bo‘lmagan omillar ta’sirida xomashyo tovarlarning narxi jahon bozorida sezilarli darajada ko‘tarilishi yoki pastlashi mumkin. Bu jarayonlar iqtisodiy inqirozlar davrida, ayniqsa, pandemiya sharoitida yaqqol yuzaga chiqdi.

Agarda jahon tashqi savdo tarkibini ko‘rib chiqsak,

rivojlanayotgan mamlakatlarning eksporti tarkibida xomashyo mahsulotlari asosiy ulushni tashkil qilishini ko‘rish mumkin. Hammamizga ma’lumki, jahonning bir qator sanoati rivojlangan Yaponiya, Singapur, Gonkong kabi mamlakatlari xomashyoni deyarli 99-100 miqdorida, shuningdek, Yevropa Ittifoqining ham ayrim sanoati rivojlangan mamlakatlari sanoat tarmoqlari uchun asosiy xomashyoni 50-60 foizini jahon bozoridan import qiladi.

Bugungi zamонавијајања хољигиде минерал хомашё бозори конјунктураларини шакланишга бу сохага юнальтирилган капитал юйимлар миқдорининг ко‘пайши та’sир этмоқда. Шу билан биргаликда, дениз ва океан тубларидан минерал хомашёларни қазиб чиқариш ва қидирик ишлари учун хомашёга муҳтој бо‘лган мamlakatlar salmoqli pul mablag‘larini sarflanmoqda. Biz Yuqorida ta’kidlab о‘тган айнан Yaponiya, Singapur va Gonkong mamlakatlari ushbu xususiyатга яъқол misol bo‘лади.

Yangi industrial mamlakatlarida сanoat sohasining rivojlanishi тahlillaridan kelib чиқиб аytish mumkinki, ularning сanoat sohasini rivojlanishiga sabab bo‘лган eng asosiy omil – бу ushbu mamlakatlar hududlarida muhim bo‘лган табииy resurslarning mavjudligidir. Masalan, AQSH, Kanada, Braziliya, Hindiston, Rossiya, Xitoy, Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari mineral resurslarga boy bo‘lib, ularning сanoat tarmoqlari уchun bir qator muhim bo‘лган, neft, gaz, ко‘mir, qora va rangli metall, oltin va qurilish xomashёлари kabilar mavjuddir. Fors ko‘rfazi va Shimoliy Afrika mintaqasida joylashgan arab mamlakatlari esa neft va gaz kabi yirik energetik resurslarga boy hisoblanishadi.

Geologik-qidiruv natijalari va BMTning ma’lumotlariga ko‘ra, jahon xo‘jaligida tabiiy va mineral resurslarga boy bo‘лган materik - bu Osiyo materigidir. Shuning uchun ham jahon bozorlariga xomashyoning asosiy qismini Osiyo mamlakatlari yetkazib bermoqda. XX asrning oxirlariga kelib, Fors ko‘rfazi mamlakatlari tomonidan (Saudiya Arabistoni, BAA, Quvayt va Qatar) mavjud neft xomashyosining eksporti evaziga jamg‘arilgan yirik kapitallari natijasida jahon xo‘jaligida moliyaviy jihatdan yirik donor mamlakatlariga aylanishdi.

Mineral xomashyo va yoqilg‘i bozorlari rivojlanishida milliy iqtisodiyotlardagi davriy va tarkibiy o‘zgarishlar, jumladan сanoatni

asosiy turdag'i xomashyo va materiallar bilan ta'minlashda o'z aksini topmoqda. Bunday sharoitlarda mazkur bozorlar konyunkturasining shakllanishiga joriy talabning cheklanganligi, ishlab chiqarish quvvatlarining to'liq yuklanmaganligi hamda mahsulot ishlab chiqarish birligiga sarflanadigan xomashyo va materiallarni tejaydigan ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish ta'sir etadi.

Konyunkturaga yana iste'molchilarining to'xtovsiz ravishda ularni xomashyo bilan ta'minlash kafolatlari hamda yuqori darajadagi tijorat zaxiralarni ushlab turish ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Ba'zi xomashyo tovarlari bozori konyunkturasiga xalqaro kelishuvlar va shartnomalar ta'sir qiladi. Masalan, mamlakatimizda paxta tolasini eksport qilishda jahon tajribasida qo'llaniladigan uslubga ko'ra, xorijiy kompaniyalar bilan eksport shartnomasini imzolashda asosan belgilangan kontraktatsiya shartnomalariga muvofiq amalga oshirilishi tajribasi uzoq yillardan buyon mavjuddir. Ya'ni xomashyoga ega bo'lgan mahalliy kompaniya xorijiy hamkorga mahsulot tayyor bo'lman (yoki hosil pishmagan) bo'lsa-da mazkur mahsulotni 6 oy yoki keyingi yili xarid qilishi uchun oldindan ayni paytdagi jahon narxiga asoslangan holda, ya'ni kotirovkaga (narxning shakllanish jarayoni) asoslanib kontraktatsiya shartnomasini tuzishi mumkin. Mamlakatimizning paxta tolasiga bo'lgan kotirovka narxi Liverpul birjasiga asoslanadi.

Bunday tajribalarni biz jahon qishloq xo'jaligidagi eng oliy paxta tolesi nava ega bo'lgan Misr va Italiya kompaniyalari o'rta sidagi eksport shartnomalarini ham misol tariqasida ta'kidlashimiz mumkin. Bunda Italiyaning yirik to'qimachilik kompaniyalari Misr dalalarida hali pishmagan va yetishtirilmagan paxta tolesi uchun kamida bir yil oldin kontraktatsiya shartnomalarini tuzib qo'yishadi va narxning kelishivi shartnoma tuzilayotgan paytdagi narxdan kelib chiqqan holda imzolanadi.

Albatta, bunday kelishuvlarning maqsadi xomashyolar narxining kelishilgan darajada ushlab turish va ularni eksport kvotalari hamda barqaror fondlarni (bufer zaxiralari) tashkil etish orqali boshqarishdir.

Yoki boshqa bir misolni olaylik, AQSHdagi deyarli barcha sanoat kompaniyalarning neftga bo'lgan ehtiyoji va talabi hozirgi kunda ham katta. Neft xomashyosi mamlakat hududlarida yetarlicha bo'lsa-da,

AQSHning iqtisodiy siyosatidan kelib chiqib, hozirgi sharoitda asosiy xomashyoni xorijdan import qiladi. Bundan ko‘zlangan maqsad o‘zining hududlaridagi ko‘plab xomashyolarning zaxiralarini kelajak avlod uchun saqlab qo‘yish chorasini ko‘radi. Bu jarayon, albatta, jahon neft bozorida neft narxining me’yoriy jihatdan bir tekis turishiga ma’lum bir imkon beradi.

Shunday qilib, xomashyo tovarlari bozori konyunkturasining tahlili quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

1. O‘rganilayotgan ma’lum bir davrdagi xomashyo tovarlarni ishlab chiqarish va iste’mol qilishdagi o‘zgarishlar, xomashyo bozori tarkibidagi o‘zgarishlar, xomashyo tovarlarining xalqaro savdosining hajmi, shuningdek, ushbu tovarlarning geografik yo‘nalishlari, narx shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlari, bozordagi narx darajalari dinamikasidagi o‘zgarishlar aniqlanadi (ishlab chiqaruvchi va iste’molchi mamlakatlar kesimida, bir va yarim yillik yakunlari bo‘yicha).

2. Tahlil qilinayotgan davrdagi tovarni ishlab chiqarish, uning muomalasi va iste’moli sohalarida yuz bergan o‘zgarishlarga sababchi bo‘lgan omillar aniqlanadi va o‘rganiladi. Tashqi savdoda narxning shakllanishi mamlakatdagi narxning shakllanishidan sezilarli darajada farq qiladi. Eksport va import tovarlarining narxi xalqaro qoidalar bo‘yicha hamkorlik yuzasidan o‘tkazilayotgan muloqot jarayonlari davomida o‘rnataladi.

Bu narxlar, albatta jahon bozorlaridagi narxga asoslangan bo‘ladi. Jahon bozoridagi narxning shakllanish sohasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lish bilan bir qatorda, xuddi mamlakat ichidagi narxning shakllanishi kabi qiymat qonuni asosida boshqariladi.

Shuningdek, narxning shakllanishiga boshqa turdag, ya’ni qiymat asosidan chetlashgan omillar ham ta’sir etadi. Bunday omillarga talab va taklifni tebranishlari, bozorlarni monopollashtirish, davlat tomonidan narxni tartibga solish, inflatsiya va boshqalar kiradi. **Narx** bu – tovar qiymatining pul ko‘rinishidagi ifodasidir. Qiymat o‘z navbatida har bir mahsulotni ishlab chiqarish uchun ketgan zaruriy mehnat xarajatlari miqdori yordamida aniqlanadi. Tovarni ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan ish vaqtini o‘zgarishi ishlab chiqarish jarayonini o‘zgarishi bilan bog‘liqdir.

Jahondagi buyuk iqtisodchilardan biri, hind olimi Manxoman

Singh quyidagi tahlilni 2006-yilda BMT qoshidagi Jahon oziq-ovqat tashkilotiga taqdim qilgan edi: agarda Hindiston 5 mln.tonna sholini jahon bozoriga eksport qiladigan bo‘lsa jahon bozorida sholining narxi 20 foizga tushib ketadi. Bordi-yu, agar 5 mln.tonna sholini Hindiston jahon bozoridan import qilgudek bo‘lsa, u holda sholining narxi jahon bozorida 70 foizga ko‘tarilib ketdi. Shuning uchun ham Hindiston jahon bozorida sholi eksportidan yoki sholi importidan “uzoqda” turadi va mamlakatda yetishtiriladigan sholining iste’molidan ortgan qismini faqat “Oziq-ovqat zaxirasi”ga g‘amlaydi.

Monopoliyalarning narx-navoga ta’siri. Hozirgi sharoitda transmilliy kompaniyalarning jahon bozoridagi narxlarga ta’siri qiymat qonuni va talab mexanizmini puchga chiqara olmasa-da, biroq narx harakatini va uning sezilarli darajada o‘zgarishiga olib keladi.

Odatda jahon xo‘jaligidagi bir qator rivojlanayotgan Milliy iqtisodiyotda asosiy daromad keltiruvchi bo‘lgan mahsulotlarni ba’zi yetakchi kompaniyalar tomonidan nazorat olib borishi natijasida mazkur mamlakatlarda monopoliya jarayonini egallab olishadi. Buning natijasida iqtisodiyotda raqobat bo‘lmay mahsulotning sifat darajasi va uning zamonaviy rivojlanish darajasi o‘zgarmaydi hamda davr o‘tgan sari ham o‘zgarish jarayoni amalga oshirilmaydi.

Demak, tovar ichki yoki tashqi bozorlarda sotilishiga ko‘ra, ichki va eksport narxlarga ajratiladi. Odatda eksport narxlari ichki bozor narxlaridan pastroq bo‘ladi. Chunki bu holat jahon bozoridagi keskin raqobat sharoiti bilan bog‘liqdir. Jahondagi ko‘plab mamlakatlar, jahon xomashyo bozorlarida turli sabablar, iqtisodiy inqirozlar yoki fors-major holatlariga ko‘ra narxlarning keskin pasayishi tufayli bir qator yirik shartnomalarni tuzishga kirishishadi. Jumladan, 2020-yilning boshida “COVID-19” pandemiyasini boshlanishi bilan yuzaga kelgan jahon iqtisodiy inqirozi sharoitida ko‘plab jahon bozorlarida xomashyolarning narxi bir necha barobarga tushib ketganligi sababli, jahonning ba’zi mamlakatlari xomashyolarning arzon paytidan foydalangan holda yirik hajmda import qilishni afzal ko‘rishdi va xomashyolar zaxirasini shakllantirib olishdi.

Masalan, 2020-yil aprel oyida AQSH Prezidenti D.Trampning ko‘rsatmasiga ko‘ra, mamlakatdagi neft-gaz sektorida faoliyat ko‘rsatayotgan barcha kompaniyalarga neft narxining jahon bozorida o‘zining eng minimum davriga kelganligini hisobga olib, jahon neft

bozoridan imkon boricha 8-10 yillik zaxiralarni yaratish maqsadida ko‘plab miqdordagi neft xomashyolarni import qildi va yirik miqdorda milliy neft zaxirasini yaratishdi. Ortiqcha miqdorda neft xomashyosini mamlakat milliy zaxirasi uchun sotib olinishi AQSH iqtisodiyoti tarixida hali kuzatilmagan edi.

4.4. Jahon neft va neft mahsulotlari bozorida narx shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlari

Neft hozirgi davrda birinchi darajali energiyaning asosiy manbasi bo‘lib qolmoqda. Undan keng darajada foydalanish jahon iqtisodiyotining rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Shu bilan birligida, energetika va kimyo sanoatida neft va neft mahsulotlaridan xomashyo sifatida foydalanish yil sayin tobora ortib bormoqda. Jahon neft savdo hajmi 2019-yil 644 mld. doll.dan oshib ketdi, bu jahon tovar ayirboshlash hajmining atigi 4 foizini tashkil qilsa-da, biroq mana shu 4 foizlik savdo ulushi jahon sanoat bozorining asosiy fundamentidir¹².

2020-yilga kelib jahon neft importi 3 432 mln.tonnaga yetdi. Bu raqamni foiz ulushlarida ko‘rsak hududlarga quyidagicha taqsimlanadi: Yevropa – 33,9 foiz, Osiyo – 33,5 foiz, Shimoliy va Markaziy Amerika – 27 foiz, Janubiy Amerika – 2,4 foiz, Afrika – 2,1 foiz, Okeaniya – 1,1 foiz.

Agarda mamlakatlar miqyosida ko‘radigan bo‘lsak, u holda jahonning eng yirik neft importchilari: AQSH – 851,6 mln.tonna; Xitoy – 559,7 mln.tonna; Hindiston – 195,5 mln.tonna va Yaponiya – 189,6 mln.tonna neft xomashyosini import qilgan¹³. Jahon neft bozorida neft xomashyosini 133 ta davlat sotib olgan, shulardan 82 tasi yiliga 1 mln.tonnadan ziyod neftni import qiladi hamda 30 ta davlat nisbatan ko‘p neft xomashyo xarid qiluvchi davlatlar qatoriga kiradi.

Pandemiya sharoitida Xitoy jahon neft bozoridan eng ko‘p miqdordagi neftni import qilgan asosiy mamlakat bo‘ldi. Uning eng ko‘p miqdorda neftni import qilishini hisobga olsak, jahon neft bozorida pandemiya davrigacha uning kunlik iste’moli 14,0 mln.barrelni tashkil qilgan edi. Biroq 2020-yilda uning kunlik neft iste’moli ko‘rsatkichi o‘rtacha 8,2 mln.barrelga tushib qoldi. Chunki pandemiya sharoitiga ko‘ra yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz tufayli

¹² <https://www.google.com/search?client=ms>

¹³ <https://www.google.com/search?ie=UTF-8&>

Xitoyning jahon neft bozoridan importining 30 foizga qisqarishi va kunlik iste'molining 10 mln.barreldan ham tushib ketishi oqibatida neft narxi yanada pasaydi.

Yuzaga kelgan inqirozni oldini olish va neft bozorini tartibga solish uchun 2020-yilning aprelida favqulodda o'tkazilgan "OPEK+" onlayn-video yig'ilishda OPEKning barcha a'zolari va a'zo bo'lman neft ishlab chiqaruvchi mamlakatlar ham bosqichma-bosqich ikki yil davomida neft qazish hajmlarini, ya'ni neft narxining keskin tushib ketishi fonida qazib chiqarish hajmini rekord darajada kuniga 9,7 mln. barrelga kamaytirish haqida kelishib olindi. Bo'lib o'tgan ushbu yig'ilishda OPEKning barcha a'zolari va jahondagi neft eksportyorlari, jumladan Rossiya va a'zo bo'lman boshqa mamlakatlar ham bir ovozdan neft qazib olish hajmini jahon neft bozorida narxni barqarorlashuvi jarayonigacha tobora kamaytirib borishga kelishib olindi. AQSHning o'zida ham neft ishlab chiqaruvchilar savdo kelishuvi bilan qazib olishni qisqartirishga kelishishgan.

Biroq neft bozoridagi ahvol 2020-yilning so'nggi oylariga borganda barqarorlashganligi sababli, 2020-yilning 3-dekabr kuni o'tkazilgan navbatdagi "OPEK+" onlayn-video yig'ilishida neft ishlab chiqaruvchi mamlakatlarga qazib chiqarish miqdorini 2021-yilning 1-yanvaridan boshlab kvotalar ulushida qisman ko'paytirilishiga ruxsat berildi va neft qazib chiqarish hajmi kuniga 500 ming barrelgacha oshirishga kelishib olindi.

Xususiy sektordagi neft kompaniyalar jahon neft bozorida narxning tushishiga javoban ishlab chiqarishni yanada qisqartirishga majbur bo'lishdi. Ammo ular neft bozoriga fundamental ta'sir o'tkaza olmaydi. Chunki bozorda tabiiy talab bo'lmanidan keyin ishlab chiqarishni to'xtatish qo'shimcha ishsizlikni keltirib chiqaradi, xolos.

OPEKning eng asosiy a'zosi hisoblangan Saudiya Arabistonining neft sanoati jahon neft bozori bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ba'zi holatlarda neft qazish kvotasini oshirib yoki kamaytirib jahon neft bozoridagi holatiga keskin ta'sir ko'rsatishi mumkin. Saudiya qariyb 10 yildan buyon jahon neft bozorida neft qazish kvotasini salkam 25 foizga oshirishga muvaffaq bo'lgan. Chunki 2012-yilda xalqaro hamjamiyat tomonidan Eronning neft eksportiga nisbatan qo'yilgan "iqtisodiy jazo" tufayli, Saudiyaning neft qazish miqdori Eron hisobiga ko'paytirilgan edi. Jahon neft bozorida asosiy siyosiy o'yinlar "ikki

gigant tanker”: Saudiya va Rossiyaning iqtisodiy siyosatiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Ma’lumki, jahon neft bozorida 1 barrel “Brent” markali neft xomashyosining narxi 2020-yilning 20-aprelida rekord darajada, ya’ni 19 dollargacha tushib ketdi va u 2002-yildagi narxiga tenglashgan edi. Ushbu “Brent” markali neft xomashyosining jahon neft bozoridagi eng baland eksport narxi 2008-yilning 16-mayida sodir bo‘lgan bo‘lib, o‘shanda 152 dollargacha ko‘tarilgan edi. 2020-yilning 20-aprel kuni birja savdolarida amerikaning neft narxi ham tarixda ilk bor manfiy darajaga tushib ketdi va xomashyoga bo‘lgan talabning keskin pasayishi neft bozorining texnik xususiyati bilan ham bog‘liq bo‘ldi. Ammo ko‘plab neft xomashyosiga ega bo‘lgan mamlakatlar neft narxi tushib ketgan bo‘lsa-da, biroq ular tomonidan neftning arzon narxda sotishni istashmadi va ular eksport kontraktlarini, ya’ni kontraktatsiyalarini faqatgina 1 barrel neft bahosini 30 dollardan yuqori narxlarda tuzishlarini belgilashdi.

Albatta, neft xomashyosining sifati va o‘zining turiga qarab narxlar neft bozorida turlicha belgilangan. 2020-yilning boshlarida yuzaga kelgan neft inqirozi barcha navlarining narxlariga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Masalan, jahon neft bozorida asosan Yevropa mamlakatlari tomonidan xarid qilinadigan va dunyodagi eng namunaviy “Brent Crude” neft navining narxi ham 2019-yil dekabr oyidagi belgilangan 84 dollardan 2020-yilning aprel oyining o‘rtalariga kelganda 26 dollargacha arzonlashdi. Hatto 2020-yilning I choragida Yevropa mamlakatlari mazkur oliy sifatga ega bo‘lgan neft xomashyosini 2020-yilning aprel-iyun oylarida ham jahon neft bozorida yuzaga keladigan narxning qanday bo‘lishidan qat’i nazar - 26 dollardan xarid qilinishi belgilab qo‘yildi.

Tahlillarga ko‘ra, pandemianing ikki yillik davomiyligini hisobga olib, neft xomashyosining narxi jahon neft bozorida yanada pastlashishi ehtimoli mavjud bo‘lgan edi. Biroq 2021-yilning mart oyiga kelib neft xomashyosining narxi yana o‘zining avvalgi holatiga qayta boshladи. Xususan 2021-yilning 8-mart kuni jahon neft bozorida 1 barrel “Brent” markali neft xomashyosining narxi 71 dollargacha ko‘tarildi. Taxminlarga ko‘ra, 2021-yil oxiriga borib uning bahosi 100 dollargacha ko‘tarilishi mumkin.

Xo‘sh, jahon iqtisodiyotidagi eng muhim bo‘lgan ushbu

xomashyo narxini keskin darajada tushib ketishi va jahon neft bozoridagi inqiroz ko‘plab yirik mamlakatlarning milliy iqtisodiyotining daromadlarini keskin tushib ketishiga va milliy iqtisodiyotining rivojiga juda ham katta salbiy ta’sir ko‘rsatishiga “siyosiy o‘yin”ning dahli bormi yoki jahon neft bozorida yuzaga kelgan “iqtisodiy tanglik” bu siyosiy o‘yinmi?

Fikrimizcha, yo‘q, albatta. OPEK, Rossiya va shu kabi siyosiy sabablar bu yerda umuman rol o‘ynamaydi. Biroq pandemianing ilk to‘lqinida jahon neft bozorida xomashyo narxining keskin darajada tushib ketishiga jahonning ko‘plab ommaviy axborot vositalari tomonidan Saudiya Arabistonni va Rossiya o‘rtasida neft qazish kvotalari borasida turli qarama-qarshiliklar fonida yuzaga kelganligini ham qisman bo‘lsa-da bildirib o‘tishgan edi. Neft narxining pandemiya sharoitida vaqtinchalik kun sayin keskin tushib ketish jarayoni jahon xo‘jaligidagi yirik neft importchilarini ham ancha sarosimaga tushirdi. Chunki neft narxi hamon barqarorlashganicha yo‘q va qancha narxgacha tushishi borasida biron bir aniq omil bilan hozirgi sharoitda istiqbollab bo‘lmaydi.

Yuzaga kelgan pandemianing tugash davrini aniq belgilaydigan yoki uning istiqboli borasida fikr berishga hatto Jahon sog‘lijni saqlash tashkiloti ekspertlari ham ojizdir. Shuning uchun ham nafaqat neft bozori, balki xomashyolarning qolgan bozorlardagi narxlarning barqaror holatda bo‘lishiga pandemianing butkul tugash davriga bog‘liqdir. Jahon iqtisodiyoti inqirozi sharoitida sanoatining neftga bo‘lgan talabi va ehtiyoji tushib ketdi va natijada uning narxi eng minimum darajaga keldi. Nimaga narx yanada pastga tushdi? Sababi oddiy, ishlab chiqarilgan neftni hech kim ishlatmayotgani uchun, albatta. Jahon neft narxining ko‘tarilishi pandemianing tugash davriga bog‘liq bo‘lib qoldi. Demak, talab qisqarsa, narx tushadi, bu iqtisodiyotning eng oddiy qonuniyatidir.

4.5. Tovar bozori konyunkturasini istiqbollash bo‘yicha asosiy yondashuvlar

Hozirgi davrda konyunkturani tadqiq etish amaliyotida quyidagi ikki xil yondashuvni keltirish mumkin: iqtisodiy tahlilga asoslangan yondashuv va iqtisodiy-matematik yondashuv.

Iqtisodiy tahlilga asoslangan yondashuv – konyunkturani

o‘rganish borasidagi istiqbollashning eng keng tarqalgan hamda an’anaviy yondashuvlaridan biri hisoblanadi. Bu yondashuv ekspertlarning mantiqiy-hissiy xulosalariga tayanish va ularning subyektiv qarashlaridan iborat bo‘ladi. Ushbu yondashuv asosida istiqbollash konyunkturani shakllantiruvchi omillarini kelgusi davrdagi o‘zgarishlarini subyektiv tarzda ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Bundan tashqari, iqtisodiyotning uzoq muddatli rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish bilan bir qatorda, yangi paydo bo‘lgan holat va jarayonlarni chuqur tahlil qilishni ham nazarda tutadi. Mazkur yondashuv konyunkturani istiqbollahda miqdoriy usullardan foydalanish zarurati bo‘limganda yoki ba’zi bir sabablarga ko‘ra ulardan foydalanish imkoniyati bo‘limgan holatlarda qo‘llaniladi.

Murakkab kombinatsiyali yoki kompleks tahlil usullari – bu usullardan asosan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni istiqbollahda qo‘llaniladi. Ularga istiqbollashning grafik usullarini kiritish mumkin. Oldingi mavzularda ham ta’kidlab o‘tganimizdek, mahsulotlar bozoridagi narxlarni o‘zgarib turishi bir qator siyosiy-iqtisodiy holatlarga ham bog‘liq jarayondir. Shuning uchun ham mahsulotlar bozoridagi narxlarni istiqbollah jarayonida ham real iqtisodiy holat darajasi va ham siyosiy o‘yinlar natijasida keskin tub burilishlar yuzaga kelishi mumkin.

Ekstrapolatsiya usuli - matematik statistikani keng qo‘llashga asoslanadi. Matematikada Ekstrapolatsiya quyidagicha tushuniladi: agar funksianing ahamiyati biror interval oralig‘ida $[X_0, X_n]$ yotgan nuqtalarda $x_0 < x_1 < x_2 \dots x_n$ ma’lum bo‘lsa, funksianing $f(x)$ qiymatini intervaldan tashqarida $[X_0, X_n]$ yotgan x nuqtalarda belgilash Ekstrapolatsiya deyiladi. Lekin istiqbollah shu soha ichida amalga oshirilsa, bunga ***interpolatsiya*** deyiladi. Ekstrapolatsiya usullari bozor konyunkturasining turli ko‘rsatkichlari va xususiyatlarini istiqbollahda qo‘llaniladi. Ekstrapolatsiya hodisalar yoki jarayonlarning kelgusidagi holati qonunlari, nazariyalari hamda tajribasini keng yoyishni taqozo qiladi. Ya’ni bu holda Ekstrapolatsiya istiqbollah amalga oshirilayotgan obyektning ilgarigi rivojlanish tendensiyalariga tayanadi.

Ekstrapolatsiyaning bozor tadqiqotlarida qo‘llaniladigan asosiy modellaridan biri bu – ***trend modellaridir***. Trend modellari jarayonlarni vaqtga nisbatan o‘zgarishning asosiy yo‘nalishlarini

ko'rsatadi. Bozorning har bir rivojlanish xususiyatiga alohida trend modeli mos keladi, faqatgina rivojlanish modeli to'g'ri tanlanib istiqbollash amalga oshirilsagina bozorning kelgusidagi rivojlanishi aniq belgilanadi. Natijada korxona va firmalarning bozordagi o'zgarish jarayonlarga qarata ko'radigan chora-tadbiri samarali bo'ladi.

4.6. Marketingda jahon tovar bozorlari konyunkturalarini istiqbollash

Barchamizga ma'lumki, jahon bozorida tovarlar taklifi talabga bog'-liq bo'ladi. Shuning uchun ham zamonaviy xalqaro savdo nazariyasi tovarlar talab va taklifiga birdek e'tibor beradi. Jahon bozorida tovarlar taklifining ortishi nisbiy narxlarning pasayishiga olib keladi.

Chunki har bir mamlakat nisbiy narxi ortib borayotgan import tovarlarini ilgaridek miqdorda sotib olish uchun nisbiy narxlari tushib borayotgan o'zlarining milliy eksport tovarlarini yanada ko'proq miqdorda sotishga majbur bo'lishadi. Buning natijasida eksportni kengaytirishga qaratilgan iqtisodiy taraqqiyotning rivojlanish modelida mamlakatning savdo sharti xorijiy hamkorlari foydasiga yaxshilanishiga olib keladi.

Jahon bozorida tovarlar eksport va import ko'rinishida harakatda bo'ladi. Har qaysi milliy iqtisodiyot uchun eksport miqdorining import miqdoridan ustun darajasi ijobiy saldo tushuniladi. Albatta, saldo darajasi ijobiy bo'lsa, bu milliy iqtisodiyotning rivojlanishidan dalolat beradi hamda xorijiy valutalarning jamg'arilishiga olib keladi.

Bozor konyunkturasini o'rganishda zamonaviy marketingning o'rni kattadir. Shuning uchun konyunkturaning tahlilida marketing tahlili va marketing tadqiqotlari uning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu marketing siklining hamma bosqichiga katta ta'sir ko'rsatadi. Firmanın bozordagi holati, kelajakdagi imkoniyatlari marketing faoliyatidagi strategiyalar yetarli darajada tashqi shart-sharoitlarga va bozor konyunkturasiga bog'liqdir.

Marketing – bu bozorni o'rganish, ya'ni bozorda mahsulotlarga nisbatan taklif, talab va ehtiyojlarni o'ziga qamrab oladi. Jahon xo'jaligidagi har bir mamlakat sanoat tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarishda ichki va tashqi bozor imkoniyatlarini o'rganib, talab va ehtiyoj, ichki va tashqi bozorlarni zarur mahsulotlar bilan to'ldirish kabi marketing faoliyatini olib borishga majbur bo'ladi.

Bozor bu – sotuvchilar va xaridorlarning tovarlarni pul vositasida

ayirboshlash yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlari, ularning o‘zaro aloqalaridir. Bozorda sotuvchilar va xaridorlar bir-birlarini topadilar, bozor ularni bog‘lab turuvchi mexanizm hisoblanadi.

Alovida tovarlar bozori konyunkturasini tadqiq qilish esa, maxsus tovarlar bozori holatini tahlil va istiqbollashni o‘z ichiga oladi. Masalan, paxta bozori, g‘alla bozori, qimmatbaho metallar bozori va hokazolar.

Jahon bozorini tadqiq qilish quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:

- axborotlarni yig‘ish, ularni tartibga solish va qayta ishlash;
- o‘rganilayotgan obyektning xususiyatlarini aniqlash;
- yaqin rejalashtirilayotgan davr uchun obyektning o‘zgarishini istiqbollash;
- istiqbollash natijalaridan foydalanish samaradorligini baholash.

Kompaniyalar hozirgi davrda juda ko‘p turdagи konyunkturani istiqbollash usullaridan foydalanishadi. Ulardan eng keng tarqalganlari:

- ekspert baholash va so‘rov (iste’molchilarning orasida so‘rov o‘tkazish natijalari bo‘yicha istiqbollash);
- iqtisodiy-matematik usullar (ko‘p omilli modellashtirish).

Bozor konyunkturasi tahlilida ularning aniqlik darajasi ham alovida e’tiborga loyiq, chunki istiqbollash natijasida olingan va haqiqiy ko‘rsatkichlar orasidagi farqlarning kattaligi qabul qilinadigan qarorlar to‘g‘riligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun ham istiqbollashning aniqlik darajasini o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

4.7. Jahon moliyaviy bozorlarning tahlili, maqsadi va asosiy vazifalari

Avvalo, moliya o‘zi nima? Moliya – iqtisodiy kategoriya sifatida pul mablag‘laridan foydalanish va uning harakatini tartibga solish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar tizimi bo‘lib, uning vositasida turli darajada pul mablag‘lari jamg‘armalari vujudga keltiriladi va ular takror ishlab chiqarish ehtiyojlari va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida taqsimланади.¹⁴

Endi bevosita “moliya” tushunchasiga ta’rif bersak. “Moliya kategoriya sifatida xalq xo‘jaligidan pul resurslarini hosil qilish, ularni taqsimlash va ishlatish borasidagi iqtisodiy munosabatlarni bildiradi”.¹⁵

Har qanday iqtisodiy faoliyat mablag‘ va pul talab qiladi. Ishlab chiqarish qayerda bo‘lmisin, baribir moliyani yuzaga keltiradi. Mahsulot

¹⁴ N.Tuxliev, A.O’Imasov “Ishbilarmonlar lug’ati”. - T.Fan, 1993. – B.91.

¹⁵ R.V.Abulleaev. Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent islom universiteti. 2004. – B.94.

ishlatish uchun taqsimlanganda pul shaklidagi moliyaviy fondlar hosil bo‘ladi, ular tabiy holatda moliyaviy resurs hisoblanadi.

Moliya munosabatlariga xos bo‘lgan belgilar va xususiyatlar moliyaning vazifalarida ifodalanadi. Moliyaning vazifasi bu – moliya mohiyatining xo‘jalik faoliyatidagi aniq ko‘rinishi va uning ifodasidir. Yuqorida aytganimizdek, moliya mahsulot qiymatini taqsimlash orqali pul fondlarini hosil qilish va ularni ishlatilishini bildirar ekan, shunga ko‘ra u taqsimlash, rag‘batlantirish, ijtimoiy himoya, iqtisodiy informatsiya kabi vazifalarini ado etadi. Moliya iqtisodiy darajasida o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir qator vazifalarni bajaradi:

Birinchidan, moliyaning iqtisodiy jarayonlarini, tadbirlarni, moliyaviy ta’minlash va unga xizmat ko‘rsatish vazifasini bajaradi.

Ikkinchidan, moliyaning taqsimlovchi vazifasi, moddiy ishlab chiqarish sohalarida yaratilgan yalpi milliy mahsulotni, ayniqsa, uning milliy daromadni tashkil qiluvchi qismini davlat va mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, iqtisodiy tarmoqlari, moddiy ishlab chiqarish sohalari mamlakat hududlari o‘rtasida taqsimlash va qayta taqsimlashda namoyon bo‘ladi.

Jahonning ko‘plab mamlakatlarida tashkil qilingan fond birjalari jahon moliya bozorini tartibga solishda o‘zlarining faoliyati bilan alohida ajralib turadi hamda jahon iqtisodiyotining rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘sib boradi. Shuningdek, bank-moliya tizimining xalqaro iqtisodiy munosabatlaridagi ishtiroki nihoyatda muhimdir.

Moliyaviy bozorlarning tahlili yoki moliyaviy prognozlash mazkur bozorlar konyunkturasini baholash va ulardagi baholar o‘zgarishini prognozlashdan iboratdir. Boshqacha qilib aytganda, agarda moliyaviy tahlil pul (mablag‘) qo‘yilmalari yoki qandaydir moliyaviy operatsiya yoxud tijorat bitimi amalga oshirilishidan qanday samara (daromad) olinishini aniqlash imkonini bersa, moliyaviy bozorlarning tahlili vaqtning muayyan bir oralig‘ida mablag‘larni qayerga investitsiya qilish samaraliroq ekanligini bilish imkonini beradi.

Xo‘sh, **moliyaviy bozor** o‘zining xususiyatlariga ko‘ra, uning qanday turlari mavjud?

- moliyaviy bozor;
- xalqaro kreditlar bozori;
- valuta bozori;
- qimmatli qog‘ozlar bozori;
- sug‘urta va pensiya fondlari bozori.

Moliyaviy bozorlardagi operatsiyalarning mohiyati valutalar (qimmatli qog'ozlar) kurslarining farqi, tovar – xomashyo birjalaridagi tovarlar baholarining yoki qimmathi qog'ozlar kotirovkalari indekslarining o'zgarishi sifatida daromad olishdan iboratdir.

Moliyaviy bozorni tahlil qilishning maqsadi – minimal xavf-xatar sharoitida maksimal daromad olinishini ta'minlashdir. Moliyaviy bozorlarning tahlili maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- tovarlarga bo'lgan baholar, valuta kurslari, qimmatli qog'ozlar kotirovkalari va ishbilarmonlik faolligi indekslarini prognozlash uchun bozorlar konyunkturasini baholash;
- baholar (kurslar, kotirovkalar) o'zgarishiga ta'sir qiladigan omillarning tahlili va ularning bozorga ta'sir muddatlari bo'yicha tasnifi, obyektiv va subyektiv omillarning ajratib ko'rsatilishi. Ya'ni, baholar o'zgarishiga bo'lgan qandaydir omillarning ta'siri tugaganligini, agarda tugamagan bo'lsa u holda ushbu holat qachon yuzaga kelishi mumkinligini aniqlash zarur (masalan, u yoki bu mamlakat qishloq xo'jaligidagi hosildorsizlik, siyosiy kursning o'zgarishi, siyosiy inqiroz, harbiy harakatlar, fors-major holatlar va boshqa shu kabilar);
- kelgusida baholar o'zgarishiga olib kelishi mumkin bo'lgan omillarni aniqlab topish va bunday o'zgarishlarni baholarga bo'lgan ta'sir darajasini prognozlash;
- subyekt o'z operatsiyalarini amalga oshiradigan bozorning chuqur tahlili va uning rivojlanish tendensiylarini aniqlash;
- o'xshash bozorlarning taqqoslama tahlili;
- moliya bozoridagi o'yinning aniq belgilangan strategiya va taktikasi hisobiga tavakkalchiliklarni pasaytirish yo'llarini qidirish kabi vazifalarni o'z ichiga oladi.

Valuta bozorining asosiy ishtirokchilari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- markaziy banklar;
- tijorat banklari;
- investitsiya va pensiya fondlari;
- eksport-import operatsiyalarni amalga oshiruvchi korxonalar;
- valuta birjalari;
- valuta operatsiyalari bilan shug'ullanuvchi broker firmalari;
- xususiy shaxslar.

Fond bozorining asosiy ishtirokchilari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- emitentlar, ya’ni qimmatli qog‘ozlarni joylashtirilishi ustidan pul mablag‘larini jalg etuvchi korxona va tashkilotlar;
- moliyaviy vositachilar (brokerlar va dilerlar). Ular emitentlar va investorlar o‘rtasida vositachilik funksiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi tegishli litsenziyalarga ega;
- qimmatli qog‘ozlarning birja va birjadan tashqari bozori hamda fond birjalari va birjadan tashqari savdo tizimlari tegishli ravishda;
- investorlar, ya’ni vaqtincha bo‘sh pul sarmoyalariga ega hamda ularni qimmatli qog‘ozlarga joylashtirishdan manfaatdor bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslardir;
- davlatning muvofiqlashtirish va nazorat organlari, ya’ni Moliya vazirligi, Markaziy bank, Qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha tashkilot va boshqalar;
- o‘z-o‘zini muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar, ya’ni moliyaviy vositachilarning professional birlashmalari;
- qimmatli qog‘ozlar bozorining infratuzilmasi, ya’ni maslahat va axborot firmalari, ro‘yxatga oluvchilar, depozitar va hisob-kitob kliring tizimlarini tashkil qiladi.

4.8. Jahon bozorida eksportning turlari va ularning xususiyatlari

Jahon tashqi savdosida eksport muhim ahamiyat kasb etadi va u har qanday milliy iqtisodyotning davlat bujetini xorijiy valutalar bilan ta’minlaydi, shuningdek, eksport evaziga olinadigan valuta tushumlari mamlakatning valuta zaxirasini jamg‘arilishida asosiy manba hisoblanadi. Jahon bozorida eksportning quyidagi turlari mavjud:

1. Oddiy eksport (nomarkazlashgan). Eksport bu – mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotni xorij mamlakatiga chiqarilishi (sotish) tushuniladi. Xitoy 2000-yilda jahon xo‘jaligida o‘z mahsulotlarini eksport shartnomalari orqali jahoning barcha mamlakatlariga eksport qilgan eng birinchi mamlakatdir. Shuningdek, jahon iqtisodiyotida Janubiy Koreya 1960-yildan 1990-yillargacha eksport miqdorini yiliga o‘rtacha 30 foizdan o‘sishini ta’minlagan va ushbu ko‘rsatkichni yaqin istiqbol yillarda ma’lum bir mamlakat tomonidan yangilashiga qodir emas.

Jahon tashqi savdosi 2020-yilda ro‘y bergen pandemiya o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatdi va oldingi 2019-yilga nisbatan sezilarli darajada

pasayib ketdi. 4.1-jadvaldagi “Jahon tashqi savdosidagi yetakchi mamlakatlar reytingi”ga ko‘ra, jahon mamlakatlarining umumiyl tashqi savdo-sotig‘i 2019-yil yakuni bo‘yicha qariyb 36,4 trln. dollarini tashkil qilgan. Bundan eksport miqdori – 18,1 trln. dollar va import – 18,3 trln. dollarni tashkil qilgan. Jahon iqtisodiyotida tashqi savdo aylanmasi miqdori bo‘yicha Xitoy, AQSH, Germaniya kabi mamlakatlar yetakchilikni o‘z qo‘liga olishgan.

4.1-jadval

Jahon tashqi savdoda eng yetakchi eksportyor mamlakatlar reytingi

T/r	Mamlakatlar	Umumiyl eksport (mlrd.dollar)	Jahon eksportidagi ulushi (foizda)
1	Xitoy	2 498,6	13,8
2	AQSH	1 644,3	9,1
3	Germaniya	1 492,8	8,2
4	Yaponiya	705,6	3,9
5	Gollandiya	577,6	3,2
6	Fransiya	556,4	3,1
7	Janubiy Koreya	542,2	3,0
8	Gonkong	535,7	3,0
9	Italiya	532,7	2,9
10	Buyuk Britaniya	468,3	2,6
....	Boshqalar	8 543,5	47,2
	Jahon bo‘yicha	18 097,7	100

Manba: ushbu jadval <https://trendeconomy.ru> ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

4.1-jadval, 4.2-jadval va 4.3-jadvallardan ko‘rinib turibdiki, Xitoy jahon tashqi savdoda eng asosiy eksportyordir. Uning umumiyl eksporti - 2,5 trln. dollarni tashkil qilib jahon eksportining 13,8 foiz ulushi to‘g‘ri keladi. AQSH esa, jahon tashqi savdoda eng asosiy importyor mamlakatdir. Uning umumiyl importi - 2,57 trln. dollarni bo‘lib jahon importining 14 foiz ulushi to‘g‘ri keladi.

2. Markazlashgan eksport korxona va tashkilotlarning davlat tomonidan rejali eksport shartnomalarini tuzib xorijga mahsulot chiqarilishi (sotish) tushuniladi. Masalan, mamlakatimizda paxta

tolasining eksportini markazlashgan eksportning turiga kiritishimiz mumkin. Mamlakatimizda paxta tolsi eksportini O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tasarrufidagi tashqi savdo kompaniyalari tomonidan amalga oshiriladi.

3. Maxsus eksport bu – mamlakatdan chetga oltin, qimmatbaho rangli metallarni sotish va boshqa ba’zi bir maxsus tovarlarni sotish demakdir. Lekin oltindan ishlangan qimmatbaho mahsulotlar eksportning ushbu turiga kirmaydi, chunki oltindan ishlangan mahsulotlar oddiy eksport turiga kiritiladi.

4. Kapitalning eksporti bu – xorijiy mamlakatlarga daromad olish maqsadida kapitalni chiqarilishi tushuniladi. Jahon xo‘jaligida AQSH XX-yillarning 50-yillaridan, Yaponiya esa 60-yillardan boshlab kapitalning xorijiy mamlakatlarga eksport qilgan eng birinchi mamlakatlar hisoblanishadi. Bugungi kunda Xitoy xorijiy mamlakatlarga jami 3,2 trln. dollar miqdorida kapital eksport qilgan. Jahonda kapital eksporti miqdori bo‘yicha Xitoy, AQSH va Yaponiya mamlakatlari yetakchilik qilishadi.

4.2-jadval

Jahon tashqi savdoda eng yetakchi importyor mamlakatlar reytingi

T/r	Mamlakatlar	Umumiyl import (mlrd.dollar)	Jahon importidagi ulushi (foizda)
1	AQSH	2 567,5	14,0
2	Xitoy	2 069,0	11,3
3	Germaniya	1 240,5	6,8
4	Yaponiya	720,9	3,9
5	Britaniya	692,5	3,8
6	Gollandiya	514,5	3,8
7	Fransiya	643,2	3,5
8	Gonkong	578,6	3,2
9	Janubiy Koreya	503,3	2,7
10	Italiya	473,6	2,6
...	Boshqalar	8 758,2	47,8
	Jahon bo‘yicha	18 312,4	100,0

Manba: jadval <https://trendeconomy.ru> ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

4.3-jadval

Jahon tashqi savdosidagi yetakchi mamlakatlar reytingi

mlrd.doll.

T/r	Mamlakatlar	Umumiy tashqi savdo	eksport	import
1	Xitoy	4 567,6	2 498,6	2 069,0
2	AQSH	4 211,8	1 644,3	2 567,5
3	Germaniya	2 733,3	1 492,8	1 240,5
4	Yaponiya	1 426,5	705,6	720,9
5	Fransiya	1 199,6	556,4	643,2
6	Buyuk Britaniya	1 160,8	468,3	692,5
7	Gonkong	1 114,3	535,7	578,6
8	Gollandiya	1 092,1	577,6	514,5
9	Janubiy Koreya	1 045,5	542,2	503,3
10	Italiya	1 006,3	532,7	473,6
....21	Rossiya	673,9	426,7	247,2
....55	Qozog‘iston	96,1	57,7	38,4
....62	O‘zbekiston	36,8	14,9	21,9
...101	Qirg‘iziston	7,0	2,0	5,0
....	Jahon bo‘yicha	36410,1	18 097,7	18 312,4

Manba: ushbu jadval <https://trendeconomy.ru> ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

5. Barter asosida eksport qilish turi bu – ikki mamlakat o‘rtasida mahsulotlarning qiymatiga qarab mahsulot ayrboshlash tushuniladi.

6. Birja orqali eksport qilish turi bu – mahalliy korxonalarning (xo‘jalik subyektlari) mahsulotlarini birja orqali chetga chiqarilishi (sotish) tushuniladi.

7. Xizmat qilish eksporti bu – mahalliy xo‘jalik subyektlarining xizmatlari evaziga kelib tushadigan xorijiy valuta tushumlari tushuniladi (masalan turizm, ta’lim, meditsina, qurilish, savdo, bank-moliya va boshqa o‘nlab sohalarda xizmat ko‘rsatish turlari).

Jahondagi ko‘plab mamlakatlar, xususan Fransiya, Ispaniya, Italiya, Chexiya, Xorvatiya, Avstriya, Singapur, Malayziya, Gongkong, Tailand, BAA va boshqa o‘nlab mamlakatlar xalqaro

turizm sohasidan katta daromad oladi.

Ayniqsa Chexiya, Avstriya, Xorvatiya, Tailand, Maldiv va Nepal kabi mamlakatlarning YaIMning deyarli 30 foizi turizm sohasi va unga ixtisoslshgan xizmat ko'rsatish tarmoqlaridan tushadigan valuta tushumlari tashkil qiladi.

2020-yilda yuzaga kelgan pandemiya sharoitida ham Maldiv, Turkiya va BAA kabi mamlakatlarning asosiy e'tibori turizm sohasiga qaratildi. 2020-yilda ushbu mamlakatlarning YaIMning asosiy ulushi aynan turizmdan tushgan daromadlar tashkil qildi. Turizm sohasidan valuta ishslash va eksportda asosiy ulushlarni tashkil qilayotganligi sababli ham turizmni jahon xo'jaligida "eksportning ko'rinnmas turi" deyishadi.

Jahondagi nufuzli Mastercard'ning Global Destination Cities Index reytingiga ko'ra, 2019-yilda Tailand poytaxti Bangkok shahri dunyo sayyoohlarining eng ko'p qabul qiluvchi shahri deb e'lon qilingan va ushbu shaharga qariyb 25 mln. kishi tashrif buyurgan.

Undan keyingi o'rirlarni esa Parij (19,3 mln. kishi), London (19,1 mln. kishi), Dubay (16,4 mln. kishi), Singapur (14,6 mln. kishi), Kuala-Lumpur (13,7 mln. kishi), Nyu-York (13,6 mln. kishi), Istanbul (13,4 mln. kishi), Tokio (12,9 mln. kishi) hamda Antalya (12,4 mln. kishi) egallagan. Ushbu reyting Jahan sayohatlar va turizm kengashi hamda havo transporti xalqaro uyushmasi ma'lumotlariga ko'ra tayyorlangan. Bunda tunash uchun qolgan xorijiy mehmonlar soni va ularning xarajatlari hisobga olingan.

Albatta, 2020 yilda jahon iqtisodiyotida vujudga kelgan pandemiya jahon turizm tizimini butkul izdan chiqardi. Jahan turizmning 2019 yildagi iqtisodiy ko'rsatkichlariga qaytishi uchun ehdi kamida 5-6 yil muddat kerak bo'ladi.

4.4-jadvalga ko'ra, jahon turizm sohasidan eng ko'p daromad oluvchi mamlakat AQSH bo'lsa, eng ko'p sayyoohlarning tashrif soni bo'yicha Fransiya mamlakati yetakchilikni o'z qo'liga olgan.

Sayyoohlarning umumiy xarajatlari bo'yicha birinchi o'rinni 30,8 mlrd. dollarlik ko'rsatkich bilan BAAning yirik ishbilarmon shahri Dubay shahri va keyingi o'rinni esa Saudiya Arabistonidagi Makka shahri 20,9 mlrd dollarlik ko'rsatkich bilan egallagan.

4.4 - jadval

Jahon turizm sohasidan eng ko‘p daromad oluvchi va eng ko‘p sayyoohlar oqimi bo‘yicha yetakchi mamlakatlar reytingi (2019-y.)

Daromad bo‘yicha¹⁶

№	Mamlakatlar nomi	Daromad (mlrd.doll.)
1	AQSH	100,5
2	Ispaniya	30,9
3	Fransiya	30,9
4	Italiya	27,4
5	Buyuk Britaniya	21,7
6	Germaniya	17,6
7	Xitoy	16,2
8	Kanada	10,6
9	Avstriya	10,0
10	Avstraliya	8,4

Sayyoohlar soni bo‘yicha¹⁷

№	Mamlakatlar nomi	Sayyoohlar soni (mln. kishi)
1	Fransiya	90,2
2	Ispaniya	83,8
3	AQSH	78,7
4	Xitoy	67,5
5	Italiya	64,6
6	Turkiya	52,5
7	Meksika	44,9
8	Tailand	39,7
9	Germaniya	39,4
10	Buyuk Britaniya	36,9

8. Ishchi kuchi eksporti bu – xorijiy mamlakatlarga mehnat resurslarini eksport qilib ularning mehnat faoliyati evaziga olinadigan xorijiy valuta tushuniladi. Jahondagi ko‘plab mamlakatlar, jumladan Misr, Jazoir, Ukraina, Belorussiya, Hindiston, Pokiston, Nepal, Tojikiston va Qirg‘iziston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan mehnat resurslarini eksport qilinishi xorijiy valuta daromadlarining eng muhim manbasidan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu mamlakatlarning mehnat resurslari ishchi kuchi eksportiga ixtisoslashgan.

Masalan, qo‘shni Tojikiston YaIMda deyarli 32 foiz xorijiy valuta tushumi mehnat resurslarining eksportidan tushgan daromad tashkil qilgan va YaIMda ishchi kuchi eksporti miqdori bo‘yicha jahon mamlakatlari ichida 1-o‘rinda turadi (Nepal – 31 foiz; Qirg‘iziston – 26 foiz va boshqalar);

¹⁶ <https://studopedia.org/4-122265.html>

¹⁷ <https://www.google.com/search?ie=UTF-8&cliennt=ms>

Jahon bankining ma'lumotiga ko'ra, 2019-yilda jahoning 62 ta mamlakati ishchi kuchi eksportidan 1 mlrd.dollari miqdoridan ortiq xorijiy valuta tushumlariga ega bo'lgan, xususan O'zbekiston ham.

9. Eksportning reeksport turi bu – mamlakatga xorijdan import qilingan yoki bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga eksport qilinib ushbu mahsulotni uchinchi mamlakatga qayta sotilish jarayoniga tushuniladi. Jahonda Gonkong "iqtisodiy mo'jiza"ga erishishidagi asosiy omillaridan biri aynan reeksport jarayoni bilan bog'liqdir. Umumiyligi eksportda reeksport ulushi yuqori bo'lgan mamlakatlar reytingida: Gonkong – 72 foiz; Singapur – 33 foiz va BAA – 17 foizni tashkil qiladi.

10. Konsignatsiya usuli orqali eksport qilish bu – shunday usulki, bunda mahsulot xorijga chiqarilganda, sotib oluvchilar tovarlarni majburiyatsiz sotib oladilar va tovar sotilganidan keyingina xorijiy valuta tushumi olinadi. Agar tovar sotilmay qolsa, unda u egasiga qaytariladi.

11. Demping siyosati orqali eksport qilish turi bu – mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlari tannarxidan arzon baholarda chetga eksport qilib tashqi bozorlarni egallash tushuniladi. Shuningdek, tashqi bozorda eksport uchun chiqarilgan mahsulotlar hatto ichki bozorga nisbatan ham arzon narxlarda sotiladi. Jahon xo'jaligida XX asrning 90-yillarida Xitoy demping siyosati orqali jahon bozorlarini egallagan.

Demping siyosati orqali tashqi bozor uchun kurashda o'z raqobatchilarini jahon bozoridan "turtib chiqarish" va ularni "sindirish"ga olib keladi. Shuningdek, demping eksporti orqali ko'rilgan zarar ichki bozorda yuqori narxlarda sotilgan tovarlardan olingan foyda va davlat budgeti hisobidan qo'shimcha mablag'lar evaziga qoplanadi.

4.9. "COVID-19"ning jahon xomashyo bozorlariga salbiy ta'siri

2020-yilda jahon iqtisodiyotida pandemiya tufayli boshlangan inqirozlarning ilk ko'rinishi va alomatlarining boshlanishi jahon birjalari va bozorlarida birin-ketin namoyon bo'la boshladи. Iqtisodiy inqiroz jahon xomashyo bozorining barcha sohalariga o'z salbiy

ta'sirini o'tkazib tahlikalik holatga keltirib qo'ydi. Uzoq yillardan buyon xalqaro birjalarda faoliyat ko'rsatadigan yuqori malakaga ega bo'lган mutaxassislar va ekspertlar ham xomashyo narxining ertasi kuni qanday narxda bo'lishi yoki narxning ijobiy holatga qaytishi borasida fikr berishga ham ojiz qolishgan edi. Chunki jahon xomashyo bozori uzoq yillardan buyon barqaror ravishda o'z faoliyatini davom ettirayotgan edi. Hatto 2008-yilgi jahon moliyaviy iqtisodiy inqiroz davrida ham inqirozning ta'siri xomashyo birjalariga bu qadar "qattiq zarba" bermagan edi.

Jahon metall bozoridagi vaziyat ham tang ahvolga kelib, jahon sanoat tarmoqlari ishlab chiqarishi uchun eng muhim bo'lган xomashyolar, ya'ni qora metall, aluminiy, mis, nikel kabi xomashyolarning narxi jahon bozorida kamida 7-12 foizgacha arzonlashdi hamda jahon metall bozoriga xomashyo yetkazib beruvchilar ishlab chiqarish faoliyatlarida moliyaviy muammolarga duch kelishdi.

Pandemianing eng kuchli zarbasi jahon neft bozoriga berildi. Zarbaning shunday kuchliligidan jahon neft bozori "nokdaun"ga uchradi va neft narxi tezlik bilan qisqa fursatlar ichida tushib ketdi. Qizig'i 1 barrel "Brent" markali neft narxi 2020-yilning yanvar oyida barqaror bo'lib turgan paytda 2020-yilning boshlarida 68 dollardan 18 kun ichida 19 dollargacha tushib ketishi jahondagi barcha neft ishlab chiqaruvchilarini "shok"ka tushirdi. Chunki jahon neft bozori tarixida narxning bu qadar tezlik bilan pastga sho'ng'ishi shu paytgacha kuzatilmagan edi.

Jahon neft bozoridagi eng yirik kompaniyalaridan biri hisoblangan "British petroleum" (British Petroleum) kompaniyasi o'zining eng og'ir inqirozini boshidan kechirmoqda. Ushbu kompaniyaning yillik hisobotida, 2020-yilda jahon bozorida neftga bo'lган talab o'zining eng yuqori nuqtasidan o'tgan bo'lishi mumkinligi taxmin qilingan bo'lib, jahonda neftga bo'lган talab, aftidan, o'zining eng yuqori nuqtasiga ko'tarilgan va yaqin 30 yil ichidagi misli ko'rilmagan pasayishga duch kelgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, pandemianing birinchi to'lqinidayoq, jahon neft bozorida "Brent" markali neft xomashyosining 1 barrel bahosi 19 dollargacha tushib ketgan bo'ls-

da, keyinchalik uning bahosi 32–36 dollar atrofida “suzib yurdi”. XVFning ma’lumotiga ko‘ra, 2020-yilning o‘zida pandemiya tufayli jahon neft kompaniyalari 10 mldr.dollardan ziyod zarar ko‘rganini ma’lum qilgan.

Pandemiya sharoitida jahon xomashyo bozorlarida narx tushib ketgan bo‘lsa-da, biroq oltinning narxi keskin darajada ko‘tarildi. Oltinning narxi salmoqli darajada ko‘payishi jahondagi oltin ishlab chiqaruvchi mamlakatlarga ancha miqdorda ko‘zda tutilmagan mablag‘larni keltirdi. Jahon oltin bozorida esa narxning keskin ko‘tarilishi yuz berdi hamda oltin xomashyolarga ega bo‘lgan mamlakatlarning daromadiga qo‘srimcha bonus olib keldi. Jahon oltin bozorida oltin narxi o‘zining iqtisodiy tarixida birinchi marta 2020-yil avgust oyida 1 unsiya uchun 2000 AQSH dollarigacha chiqib, rekord narx belgilangan edi. Biroq pandemiya sharoitidagi vaqt o‘tishi bilan oltin bozoridagi narx ham asta-sekin yana o‘z holiga qaytmoqda.

“Forbes”ning qayd etishicha, pandemiya paytidagi og‘ir damlarda narxi ko‘tarilgan qimmatbaho metallarga bo‘lgan qiziqish koronavirusga qarshi vaksina muvaffaqiyatlari haqidagi xabarlar pasaytirayotganligini va shu tariqa jahon iqtisodiyoti asta-sekin rivojlanish davriga qayta kirganini ma’lum qilgan.

“Macquarie” investitsiya banki 2021-yilda jahon iqtisodiyotining o‘sish ko‘rsatkichlari nisbatan yaxshiroq bo‘lishini taxmin qilgan va oltinning narxi o‘zining yuqori cho‘qqisiga ko‘tarilganligi hamda 2021-yilda uning narxi 1 unsiya uchun 1550 dollargacha tushishini va 2020-yilga nisbatan 17 foizga pastlashini taxmin qilgan. “Morgan Stanley” banki esa, “COVID-19”ga qarshi vaksinaning dunyoga tarqatila boshlanishi oltinga bo‘lgan qiziqishni pasayishi va iqtisodiyotni o‘z holiga qaytishi mumkinligini bildirgan.

Ma’lumki, inqiroz o‘zining avjiga chiqqan paytida jahondagi yirik investorlarning oltin fondlariga bo‘lgan qiziqishining oshgani 2020-yilning birinchi yarmida oltin narxining ko‘tarilishida muhim omil bo‘lib xizmat qildi. 2020-yilning avgust-oktabr oylarida belgilangan oltin narxining eng baland narxi davridan keyin, unga bo‘lgan talabni pasayishi bilan narx asta-sekin tushishni boshladi.

Jahondagi ko‘plab yirik kapitalga ega bo‘lgan investorlar mablag‘larini ishlab chiqarishda foydalaniladigan qimmatbaho metallarga ham tikishni boshlagan, chunki yakunda iqtisodiyotning tiklanishi ularga daromad keltirishi mumkin. Masalan, quyosh batareyalarida foydalaniladigan kumushning narxi ham asta-sekin ko‘tarilgan.

Xo‘sh, savol tug‘iladi, albatta? Oltin narxlarining o‘zgarishi O‘zbekiston milliy iqtisodiyotiga qanday ta’sir qildi?

Jahon oltin bozorida 2020-yilning avgust oyida oltin narxining rekord darajaga ko‘tarilgani O‘zbekistonga qo‘l keldi, davlat budjetiga tushadigan daromadlar miqdori ham ushbu metall narxining 26 foizga oshgani tufayli sezilarli darajada ko‘paydi.

4.5-jadval

Jahondagi yirik oltin qazib chiqaruvchi mamlakatlar reytingi

O‘rin	Mamlakatlar	Miqdori (tonna)	Jahon bo‘yicha ulushi (foizda)
1	Xitoy	404,1	12,1
2	Avstraliya	314,9	9,5
3	Rossiya	297,3	8,9
4	AQSH	221,7	6,7
5	Kanada	189,0	5,7
6	Peru	158,4	4,8
7	Indoneziya	136,9	4,1
8	Gana	130,5	3,9
9	JAR	128,9	3,9
10	Meksika	115,4	3,5
...	Boshqa mamlakatlar	1 234,9	37,1
	Jahon bo‘yicha	3 332,0	100,0

Manba: ushbu jadval World Gold Council ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston 2020-yilning III choragi yakunlariga ko‘ra, jahonda oltin sotish bo‘yicha yetakchi o‘rinni egallagan. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 35 tonna oltinni sotishga muvaffaq bo‘lgan va 2020-yilning sentabr oyida mamlakat umumiyligi

eksportidagi oltin savdosining ulushi 50 foizni tashkil qilgan.¹⁸ Oltin narxining o'sishi eksportning bir nechta manbalari tushib ketayotgan bir pallada, inqiroz vaziyatda O'zbekiston iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi, ya'ni jahon oltin bozorida narx ko'tarilganligi sababli oltin eksportimizning hajmi salmoqli darajada ko'payib, qo'shimcha xorijiy valuta tushumlariga ega bo'lган.

4.3.1-jadvalda berilgan World Gold Council ma'lumotiga ko'ra, O'zbekiston oltin-valuta zaxirasi miqdori jihatidan dunyo mamlakatlari reytingida 17-o'ringa ko'tarilgan va oltin-valuta zaxirasi miqdori 325,7 tonnani tashkil qilgan¹⁹. Oltin xomashyosini qazib chiqarishda esa jahonda Xitoy, Avstraliya va Rossiya mamlakatlari yetakchilik qilishadi.

Bob yuzasidan xulosa

Jahon bozorida va uning savdo aylanmasida xomashyo tovarlarining ulushi tobora kamayib borayotganligini asosiy sabablari sifatida jahon savdosida xomashyodan ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlar savdosini kengayishi va ular bahosining xomashyo tovarlari bahosiga nisbatan ortib borayotganligi ma'lum bo'ldi. Ammo ba'zi davriy bo'lмаган omillar ta'sirida ham xomashyo tovarlari narxi jahon bozorida sezilarli darajada ko'tarilishi yoki pastlashi mumkinligini ko'rib chiqdik.

Jahon iqtisodiyoti inqirozi sharoitida jahon bozorlaridagi ko'plab xomashyolar narxini keskin tushib ketganligi yoki ba'zi mahsulotlar narxining ko'tarilganligi milliy iqtisodiyotlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi, ham ijobiy foyda keltirishi mumkin ekan. Demak, Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, talab qisqarib borsa, narx ham tushib boraveradi, ehtiyoj ko'paysa narx ham ko'tariladi, bu iqtisodiyotning eng oddiy qonuniyatidir. Ushbu inqiroz natijasida butun dunyo mamlakatlari milliy iqtisodiyotining rivojlanishini izdan chiqardi va jahon iqtisodiyoti inqirozga yuz tutdi. Yuzaga kelgan pandemiya milliy iqtisodiyotning barcha sohalariga jiddiy

¹⁸ <https://www.ft.com/content/a1f0a75c-b3d7-4550-88ef-ea8cad18d0f3>

¹⁹ <https://www.google.com/amp/s/kursiv.kz/news/mirovaya-ekonomika/2019-10/uzbekistan-voshel-v-top-20-stran-po-zolotym-rezervam%3>

salbiy ta'sir ko'rsatdi. Juhon mamlakatlarining iqtisodiy inqirozga yuz tutishi, hatto Ikkinci jahon urushi davrida ham bunday holat kuzatilmagan edi. Jahonda ishlab chiqarish sohalarining bir necha oy davomida majburiy tarzda o'z faoliyatini to'xtatishi, millionlab ishchi-mutaxassislarning majburiy tarzda mehnat ta'tillariga chiqarilishi hamda jahon bozorlarida xomashyo narxining keskin tushib ketishi natijasida jahon iqtisodiyoti inqirozga uchradi.

Nazorat savollari

1. Juhon bozori konyunkturasini tahlilining mohiyatini ayting.
2. Konyunkturaning qanday shakllantiruvchi omillari mavjud?
3. Juhon bozori konyunkturasini o'rganishda qanday asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi?
4. Juhon tovar bozorlari konyunkturalarini o'rganish uslubiyotini tushuntirib bering.
5. "Konyunktura" so'zining ma'nosi nima va uning mohiyatini ayting.
6. Juhon tovar bozorlari konyunkturasining mohiyatini ayting.
7. Juhon bozoriga ta'rif bering va uning mohiyatini ayting.
8. Ichki bozor va tashqi bozor tushunchalari hamda ularning mohiyatini ayting.
9. Juhon bozori konyunkturasi tahlilining qanday xususiyatlari mavjud?
10. Juhon moliya bozorida va tashqi savdoda asosan qaysi xorijiy valatalardan foydalaniladi?
11. Juhon xomashyo tovarlari bozorida narx qanday shakllanadi?
12. O'zbekistonning paxta tolasining narxi qaysi jahon paxta bozori birjasida shakllanadi?
13. Narxning shakllanishiga qaysi omillar ta'sir etadi?
14. Monopoliyalarning narx-navoga ta'siri jarayonini tushuntiring.
15. Juhon moliyaviy bozorlarning maqsadi va asosiy vazifalari nimalardan iborat?
16. Eksportning turlarini ayting.

17. Jahan trizm bozorida sayyohlarning tashrifi va xalqaro turizmdan olinadigan daromad bo'yicha qaysi mamlakatlar yetakchilik qilishmoqda?

18. Pandemiyaning jahon iqtisodiyotiga salbiy ta'sirining boshlang'ich bosqichlarini aytib bering.

19. Pandemiya jahon iqtisodiyotining qaysi sohalariga jiddiy shikast yetkazdi?

20. "COVID-19"ning ta'sirida asosan qaysi mamlakatlarning turizm sohasi butkul o'z faoliyatlarini to'xtatdi?

21. "COVID-19"ning jahon xomashyo bozorlariga qanday ta'sir ko'rsatdi?

22. Neft bozoridagi holat qanday kechdi va OPEK tomonidan narxni barqarorlashtirish uchun qanday choralarni ko'rди?

Uyga vazifa!

Talabaning "Jahon bozori va uning konyunkturasi" mavzusini chuqur o'zlashtirishi hamda amaliyot darsiga puxta tayyorgarlik ko'rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

1) mavzu so'ngida berilgan "Nazorat savollari"ga tayyorgarlik ko'rish;

2) jahon bozorlari (xomashyo, moliya, turizm, sug'urta va h.k.) bo'yicha (tanlama) talabalar guruhlarga bo'lingan holda "taqdimot" o'tkaziladi.

V BOB. JAHON IQTISODIYOTINING INTEGRATSIYALASHUVI

- 1. Iqtisodiy integratsiyaning mohiyati va unga ta'sir etuvchi omillar.**
- 2. Jahon xo'jaligida iqtisodiy integratsiya darajalarining asosiy bosqichlari.**
- 3. Integratsiya jarayonlarining jahon markazlari va ularning asosiy xususiyatlari.**
- 4. Integratsiya jarayonlarining milliy iqtisodiyotlar rivojiga ta'siri.**
- 5. Jahon xo'jaligida integratsiya jarayonlarining zamonaviy jihatlari.**
- 6. Jahon xo'jaligidagi eng yirik integratsiyaviy tashkilot – Yevropa Ittifoqining vujudga kelishi.**
- 7. Yevroosiyo mamlakatlarining integratsiyalashuvida «Bir makon – bir yo'l» strategiyasining ahamiyati.**
- 8. 2020-yilda bo'lib o'tgan jahon xalqaro tashkilotlarining onlayn Sammitlari va ularning asosiy xususiyatlari.**

Tayanch iboralar: integratsiya, iqtisodiy integratsiya, kapitalning baynalmilallashuvi, erkin savdo zonasi, iqtisodiy ittifoq, yagona iqtisodiy siyosat, umumiy valuta, savdo imtiyozlari, Maastricht shartnomasi, “neytral” (betaraf), Breksit, Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (YIH), Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi, Yevropa Ittifoqi, NAFTA, ASEAN, BRIKS, MDH, ADL, ShHT, BMT, OPEK, YOII (Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi), Sammit.

5.1. Iqtisodiy integratsiyaning mohiyati va unga ta'sir etuvchi omillar

Jahon xo'jaligida iqtisodiy integratsiya bu – xo'jalik faoliyatining baynalmilallashuvida (internatsionallashuvi) oliy bosqich bo'lib, o'ziga xos huquqiy tizimlari bilan ajralib turuvchi, ham davlatlararo, ham milliy manfaatlarga tayangan siyosat asosida faoliyat ko'rsatuvchi bir butun yagona xo'jalikdir. Bunga esa turli milliy iqtisodiyotlarning birlashuvi jarayonida erishiladi (masalan: Yevropa Ittifoqi).

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab yetakchi industrial mamlakatlarning tez iqtisodiy rivojlanishi, xalqaro transport va kommunikatsiya vositalarining takomillashishi natijasida tovarlar hamda xizmatlar almashinuvining qizg‘in rivojlanishi ro‘y berdi. Ishlab chiqarish omillari (kapital, ish kuchi va texnologiyalar) xalqaro harakatning turli shakllari vujudga kela boshladi, buning natijasida xorijga faqat tayyor mahsulot emas, balki uni ishlab chiqarish omillari ham ko‘chib o‘ta boshladi. Tovarning narxiga qo‘silgan foyda endilikda faqat milliy chegaralar doirasidagina emas, balki xorijda ham yaratila boshlandi. Iqtisodiy integratsiya tovarlar va xizmatlar xalqaro savdosi hamda ishlab chiqarish omillari aylanishi rivojlanishining qonuniy natijasi bo‘ldi. Shuningdek, iqtisodiy integratsiya mamlakatlarning o‘zaro iqtisodiy hamkorligi natijasi bo‘lib, u xo‘jalik mexanizmlarining yaqinlashuviga olib keladi va bu yaqinlashuv davlatlararo bitimlar shaklini oladi hamda tegishli davlatlararo organlar tomonidan tartibga solinadi.

Hozirgi vaqtida iqtisodchi olimlar orasida integratsiyalashuv jarayonlariga nisbatan yagona fikr va nuqtai nazar yo‘q. Chunki iqtisodchilarining bir guruhi integratsiya jarayonida mamlakatlar o‘rtasida yangi tovar oqimlarini shakllantirish hisobiga “resurslarning cheklanganligi” omilini bartaraf etishni eng maqbul variant sifatida biladilar. Bu jarayon alohida olingan bir mamlakat hududida bir-biriga o‘xshash qimmatroq tovarlar ishlab chiqarishni bartaraf etish yoki ilmiy-tadqiqot hamda tajriba-konstrukturlik ishlariga sarflanadigan vositalarni tejash imkonini beradigan texnologik o‘zaro almashuvlarni kengaytirishga imkon tug‘diradi deb hisoblaydilar.

Oimlarning boshqa guruhi, ustunlik qiluvchi shart-sharoitlar sifatida tashqi iqtisodiy omillar, masalan, kollektiv mudofaa qobiliyatini oshirishni ilgari suradilar.

Uchinchi guruh olimlar esa, integratsion guruhlar tuzilishi bu ularning a’zolariga ishlab chiqarishning birdek o‘sishi, ijtimoiy barqarorlik va shakliy maqsadlarga oson hamda tezroq erishish imkonini beradi deb hisoblashadi.

Shunday qilib, integratsiyaga nisbatan bu va boshqa nazariy yondashuvlarni umumlashtirib, shuni ta’kidlash joizki, integratsiya bu mintaqaviy miqyosda sifat jihatidan yangi iqtisodiy muhitni shakllantirish yo‘li bilan milliy xo‘jalik majmularining yaqinlashuvi

va bir-biriga kirib borishini ifodalaydi. Jahon iqtisodiyotida integratsiya jarayonlari har bir davlat uchun faqat “o‘zi ishlab chiqarishiga” ega bo‘lishi foyda bermaydigan bo‘lib qoladigan vaziyatni keltirib chiqaradi. Ba’zi iqtisodiyotlar o‘z iqtisodiy salohiyatlarini kuchaytirishga intilib, jahon xo‘jaligiga tobora ko‘proq qo‘shilib bormoqda. Jahon xo‘jaligida ish kuchining harakati, kadrlar tayyorlash, mutaxassislarni o‘zaro ayriboshlash jarayonlari borgan sari baynalmilal xususiyatda tus olmoqda.

Jahon xo‘jaligi aloqalari shakllanishi va rivojlanishining istiqbollari – xalqaro jahon xo‘jaligi rivojlanishining asosiy tendensiyasi sifatida sayyoramiz miqyosida tovarlar, kapitallar va xizmatlarning yagona bozorini yaratishga, alohida mamlakatlarning iqtisodiy yaqinlashishi va yaxlit xalqaro xo‘jalik majmualariga birlashishiga intilishda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Bu esa xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yuqori bosqichi hisoblanadi.

Integratsiyaviy tuzilmalarni ishlab chiqarishning integratsiyalashuvida erishilgan darajasiga qarab ajratish lozim. Bunda integratsiyalashuv ham rasmiy, ham real xususiyatga ega bo‘lishi mumkin. Rasmiy integratsiyalashuv ishlab chiqarishni shunday xalqaro umumlashtirishdan iboratki, uning asosida mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar xalqaro mehnat taqsimoti asosida o‘rnataladi. Real iqtisodiy integratsiya esa, ishlab chiqarishni shunday xalqaro umumlashtirishdan iboratki, bu umumlashtirish ishtirokchi davlatlar asosiy ijtimoiy-iqtisodiy o‘lchamlarining ma’lum paritetini nazarda tutadi.²⁰

Ma’lumki, ko‘plab mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar o‘z asarlarida shunday holatlar ma’lum bo‘lmoqdaki, integratsion guruhda u yoki bu mamlakatning ishtirok etishining ijobjiy yoki salbiy tomonlarini baholash hamon murakkabligicha qolmoqda. Biroq, shu narsa ma’lumki, integratsiyadan ichki bozori kichik, resurslarga boy bo‘lмаган, jahon YaIMda kam ulushga ega bo‘lgan davlatlar ko‘proq samara oladi.

Bunga ko‘ra iqtisodiy integratsiya bir qator obyektiv omillarga asoslangan bo‘lib, ular orasida quyidagilar muhim o‘rin tutadi:

- 1) xo‘jalik hayoti baynalmilallahuvining o‘sib borishi;

²⁰ Lomakin Mirovaya ekonomika: uchebnik dlya studentov vuzov, obuchayushixsy po ekonomicheskim spetsialnostyam i napravleniyam / V.K. Lomakin. – 3-e izd., pererab. i dop. – M.: YUNITI-DANA, 2007.

- 2) xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi;
- 3) o‘z xususiyatiga ko‘ra umumjahon ilmiy-texnik inqilobi;
- 4) milliy iqtisodiyotlar ochiqligi darajasining oshishi.

Bu omillarning barchasi bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqdir. Integratsiyalashuv – mamlakatlar o‘rtasidagi (avvalambor, xalqaro mehnat taqsimoti asosida) barqaror o‘zaro aloqalar rivojlanishi jarayoni va qayta ishlab chiqarishning milliy xo‘jalik doirasidan chetga chiqishidir.

Integratsiyaviy jarayonlar rivojlanishining boshqa omili xalqaro mehnat taqsimoti tuzilishidagi chuqur ilgari siljishlar (ilmiy-texnika inqilobi ta’siri ostidagi) hisoblanadi.

Xalqaro mehnat taqsimoti mamlakatlar o‘rtasida mehnatni ijtimoiy-hududiy taqsimlashni rivojlantirishning ma’lum mahsulot ishlab chiqarishni alohida mamlakatlarda barqaror jamlashni nazarda tutuvchi yuqori bosqichidir.

Demak, Yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, jahon iqtisodiyotida iqtisodiy integratsiyaga eng asosan ikkita omil katta ta’sir ko‘rsatadi:

- 1) ilmiy-texnik inqilob;
- 2) transmilliy korporatsiyalarning faoliyati.

5.2. Jahon xo‘jaligida iqtisodiy integratsiya darajalarining asosiy bosqichlari

XX asrning ikkinchi yarmida xo‘jalik hayotining baynalmilallashuvi zamonaviy jahon xo‘jaligi rivojlanishining yetakchi an’anasiga aylandi. Jahon xo‘jaligini global baynalmilallashuvining asosiy tendensiyalaridan biri shundaki, ma’lum bir davlat yoki bir necha davlatlar guruhining ta’sir hududi vujudga kelishidir. Bu davlatlar yoki davlatlar guruhi jahon xo‘jaligi aloqalari ta’sirida o‘ziga xos mintaqalar hosil qilib, boshqa davlatlarni o‘z atrofida birlashtiruvchi integratsiyaviy markazlarga aylanib boradi.

Jahon iqtisodiyotida iqtisodiy integratsiya o‘z navbatida, bu jarayon ishtirokchilari bo‘lmish davlatlar o‘rtasida ishlab chiqarish va kapitalning baynalmilallashuviga imkon yaratadi. Iqtisodiy integratsiyaga boshlovchi jarayonlarni o‘zaro bir-biriga uzviy bog‘liq zanjir shaklida quyidagicha ifodalash mumkin:

- ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi;

- xalqaro mehnat taqsimoti;
- ishlab chiqarish va kapitalning baynalmilallahuvi;
- iqtisodiy integratsiya.

Jahon xo‘jaligida integratsiyaviy jarayonlarni rivojlantirish bo‘yicha to‘plangan tajribalar iqtisodiy integratsiyaning yuzaga kelishi va rivojlanishida beshta bosqichdan o‘tish zarurligidan dalolat beradi. Demak, iqtisodiy integratsiyaning izchil beshta bosqichi mayjud bo‘lib, ular: “imtiyozli savdo bitimi”, “erkin savdo zonası”, “bojxona ittifoqi”, “umumiyl bozor”, “iqtisodiy ittifoq va valuta ittifoqi” kabi bosqichlarini quyida ko‘rib chiqamiz:

Birinchi bosqich – zamonaviy talqinda preferensial savdo kelishuvlari, ya’ni *imtiyozli savdo haqidagi bitim* (preferential trade arrangement). Ushbu bitimga a’zo bo‘lgan mamlakatlarga unga a’zo bo‘lmagan mamlakatlarga nisbatan savdoda yana ham qulayroq imkoniyatlar ta’minlaydi. Bu hol iqtisodiy integratsiyaning eng ibridoiy shaklidir. Masalan, Britaniya imperiyasining a’zolari bilan birlashgan Qirollik tomonidan 1932-yilda qabul qilingan Britaniya hamdo‘stligi preferensiyalari (imtiyozlari) tizimini misol qilish mumkin.

Ikkinci bosqich - Erkin savdo zonası (free trade area) – iqtisodiy integratsiyaning bir shakli bo‘lib, unda a’zo mamlakatlar o‘rtasidagi savdoda hamma to‘silalar va bojlar bekor qilinadi, lekin har bir mamlakat a’zo bo‘lmagan mamlakatlar bilan savdoda o‘zining to‘silalarini (cheklashlarini) joriy etadi. Erkin savdo zonası – preferensial (boshqalardan afzal) hudud bo‘lib, uning doirasida tovarlar boj va miqdoriy cheklashlardan ozod bo‘ladilar. Erkin savdo zonası yaratish ishtirokchi mamlakatlar savdo siyosati xarakterini barqarorlashtiradi. Tashqi iqtisodiy faoliyatning barcha tizimlarini takomillashtiradi.

Masalan, Buyuk Britaniya, Avstriya, Daniya, Norvegiya, Portugaliya, Shvetsiya va Shvetsariya (bularga 1961-yilda uzviy a’zo sifatida Finlyandiya ham qo‘shilgan) tomonidan 1960-yilda tashkil etilgan Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi, shuningdek, 1991-yilda kuchga kirgan AQSH, Kanada va Meksika tomonidan tuzilgan erkin savdo haqidagi Shimoliy Amerika bitimini (NAFTA) misol qilish mumkin.

Erkin savdo hududlari iqtisodiy integratsiyaning boshlang‘ich

bosqichlaridan biri hisoblanadi. Erkin savdo hududlari amalda ikki va undan ortiq davlatlarning o‘zaro savdosida bojlar, litsenziyalar va kvotalarni muzlatish va asta-sekinlik bilan bekor qilish to‘g‘risidagi bitimning imzolanishi natijasida yuzaga keladi.

Uchinchi bosqich - Bojxona ittifoqi (custom union) – a’zo bo‘lgan mamlakatlar o‘rtasida yagona tashqi savdo tarifini joriy etishni, savdodagi cheklovlardan voz kechishni va dunyodagi boshqa a’zo bo‘limgan mamlakatlarga nisbatan yagona savdo siyosatini muvofiqlashtirib turishni nazarda tutadi.

Bojxona ittifoqi erkin savdo zonasiga qaraganda ancha takomillashgan integratsion tuzilmaddir. Birinchidan, bojxona tariflariga nisbatan yagona tashqi savdo siyosatini olib borsa, ikkinchidan – mamlakatlar tovarlar oqimini ularning tashqi tarifini va yakuniy narxini hisobga olgan holda tartibga soladi. Bu esa o‘z navbatida resurslarni qayta taqsimlash, ishlatish va ishlab chiqarishga turki bo‘ldi.

To‘rtinchi bosqich – Umumiyo bozor (a common market) – integratsiyaning bojxona ittifoqiga nisbatan imkoniyatlari yanada kengroq shakli, chunki unga a’zo bo‘lgan mamlakatlar o‘rtasida nafaqat tovarlar, balki mehnat resurslari kapitalning hamda erkin harakat qilishi nazarda tutiladi. Masalan, YI 1980-yillarda umumiyo bozor maqomini olgan.

Umumiyo bozorni barpo etish uchun iqtisodiyotning muayyan tarmoqlarini rivojlantirishning yagona siyosatini ishlab chiqish, ishlab chiqarishning barcha omillarining erkin harakat qilishi uchun sharoit yaratish, shuningdek, ijtimoiy va mintaqaviy taraqqiyotning umumiyo jamg‘armalarini shakllantirish lozim.

Beshinchi bosqich – yagona iqtisodiy siyosat, umumiyo valuta va milliy darajadan ustun turuvchi va tartibga solish tashkilotlariga ega to‘liq integratsiya. Integratsiyaning bu darajasiga erishishida siyosiy-iqtisodiy ittifoq, ya’ni unga kirayotgan davlatlar integratsiyaning oldingi bosqichlarida erishilgan natijalarni hisobga olgan holda, uchinchi mamlakatlarga nisbatan birgalikda savdo, so‘ngra umuman, iqtisodiy siyosatni olib borish hamda iqtisodiyotni tartibga solish tizimini birxillashtirish haqida kelishuvlarni o‘z ichiga oladi.

5.1-jadval

Integratsiya jarayonlari shakllari va bosqichlari

T/r	Integratsiya ko‘rinishlari	Belgilari
1.	Preferensial savdo kelishuvlari	O‘zaro savdoda tariflar va boshqa to‘silalar olib tashlanadi. Uchinchi mamlakatlarga nisbatan milliy tariflar saqlanadi. Davlatlararo boshqaruv organlari tuzilmaydi.
2.	Erkin savdo zonalari	Bitim shakli. Bunda qatnashchilar bir-birlariga nisbatan bojxona tariflari va kvotalarini olib tashlash to‘g‘risida ahdlashadilar. Uchinchi mamlakatlarga nisbatan har kimning o‘z siyosati mavjud bo‘ladi. Misol uchun: NAFTA.
3	Bojxona ittifoqi	Uchinchi mamlakatlarga nisbatan yagona bojxona siyosati. Biroq bunda ham jiddiyroq ichki qaramaqarshiliklar paydo bo‘ladi. Yevropa iqtisodiy hamjamiyati buning misoli bo‘lishi mumkin.
4	Umumiy bozor	Ishtirokchi mamlakatlar o‘rtasida ishlab chiqarishning barcha harakati uchun to‘silarni to‘liq bartaraf etish. Iqtisodiy siyosatni to‘liq kelishish, iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tenglashtirish kabi masalalar hal etish jarayonida turadi.
5	To‘liq iqtisodiy integratsiya	Yagona iqtisodiy siyosat va buning oqibati sifatida qonunchilik bazasini bir tizimga keltirish. Shartlari: umumiy yagona soliq tizimi; mehnat to‘g‘risidagi yagona qonunlar; yagona standartlarning mavjudligi va boshqalar.

6	Iqtisodiy ittifoq	Yuqori iqtisodiy rivojlanish bosqichida paydo bo‘ladi. Iqtisodiy siyosat (hatto yagona iqtisodiy siyosat) kelishiladi va shuning asosida barcha to‘silalar olib tashlanadi. Davlatlararo (davlatlardan yuqori turuvchi) organlar tashkil etiladi. Barcha qatnashchi mamlakatlarda yirik iqtisodiy islohotlar amalga oshiriladi.
7	Valuta ittifoqi	Iqtisodiy ittifoq shakli. Quyidagilar valuta ittifoqining xarakterli belgilari hisoblanadi: Milliy valutalarning kelishilgan (birgalikdagi) muomalasi; qatnashchi mamlakatlarning Markaziy banklari tomonidan maqsadga qaratilgan holda qo‘llab-quvvatlanadigan qat’iy begilangan valuta kurslarini o‘rnatish; ushbu xalqaro valuta birligining emissiya markazi hisoblangan yagona mintaqaviy bankni shaklantirilishi.

Manba: A.Kireev Mejdunarodnaya ekonomika// M., 2004.

Integratsiyaning ushbu bosqich qatnashuvchi mamlakatlarning tashqi siyosatini kelishilgan holda olib borilishini ko‘zda tutadi va har bir qatnashuvchi mamlakat va umuman, ittifoqning iqtisodiy rivojlanishi manfaatlari yo‘lida bor imkoniyat va vositalarini o‘zaro manfaatli birlashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Iqtisodiy ittifoq (an economic union) – integratsiyaning yanada mukammalroq shakli bo‘lib, u a’zo bo‘lgan mamlakatlarning valuta (monetary) va moliya (fiscal) siyosatini muvofiqlashtirishni va hatto yagonalashtirishni (unifikatsiya) nazarda tutadi. Masalan, Ikkinchiji jahon urushidan keyin ilk bor Beniluks mamlakatlarini (Belgiya, Niderlandiya va Luksemburg o‘rtasida tuzilgan iqtisodiy ittifoq) hamda YIni misol qilish mumkin.

Yuqorida qayd etilgan shakllardan tashqari integratsiyaning soliqlardan ozod etilgan zonalar (Duty - free zones) yoki erkin iqtisodiy zonalar (Free economic zones) shakli ham mavjud bo‘lib: bu xomashyo va ikkilamchi mahsulotlarni soliqsiz yetkazib berish yo‘li bilan chet el investitsiyalarini jalb etish uchun tashkil etilgan hududlardir.

XX–XXI asr bo‘sag‘asida G‘arbiy Yevropa iqtisodiy integratsiyasining muvaffaqiyatli rivojlanishi jahonning boshqa rivojlanayotgan mintaqalarini ham e’tiborini o‘ziga jalb qildi. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasida o‘ttizdan ortiq erkin savdo zonalari,

bojxona yoki iqtisodiy ittifoqlar yuzaga keldi. Bugungi kunda Yevropa Ittifoqi yo‘lidan ASEAN bormoqda va yaqin istiqbol yillarda ASEAN ham YI kabi yirik savdo hududiga aylanishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Yuqorida keltirilgan iqtisodiy integratsiya tushunchasidan kelib chiqib ta’kidlash mumkinki, iqtisodiy integratsiya – hududiy miqyosda sifat jihatdan yangi iqtisodiy muhitni yaratish yo‘li orqali milliy xo‘jalik majmularini bir-biriga yaqinlash va bir-biriga kirib borish jarayonidir.

5.3. Integratsiya jarayonlarining jahon markazlari va ularning asosiy xususiyatlari

Hozirgi kunda jahonda 30 dan ortiq xalqaro iqtisodiy birlashmalar mavjud bo‘lib, jahon bo‘yicha YaIMning deyarli 90 foizi, tovar aylanmasi va investitsiyalarni asosiy qismi ushbu birlashmalar hissasiga to‘g‘ri keladi. Biroq bu markazlar ichida uchta asosiy integratsiya markazini alohida ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiq: G‘arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika va Osiyo – Tinch okeani mintaqasi. G‘arbiy Yevropada ikkinchi jahon urushidan keyin ikkita yirik guruhning, ya’ni Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (YIH) va Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi (EESA)ning vujudga kelishi natijasida integratsion jarayonlar shiddat bilan rivojlandi.

1995-yildan boshlab YIH rasmiy ravishda Yevropa Ittifoqi maqomini olgach, Yevropadagi ikkinchi integratsiyaviy tashkilot – Yevropa erkin savdo tashkilotining (EEST) faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi hamda EEST o‘z tarkibida faqatgina Islandiya, Lixtenshteyn, Norvegiya va Shvetsariya davlatlarini saqlab qoldi xolos. Bu ikki birlashmani solishtiradigan bo‘lsak, EEST o‘zining taraqqiyotida bojxona ittifoqini yaratishdan u yog‘iga o‘tmadi, uning tuzilmasi millatlararo tashkilotlar bilan mustahkamlanmadı. 1990-yilda YIH va EEST o‘rtasida Yevropa Iqtisodiy hududini tashkil qilish to‘g‘risida kelishib olindi. Bu hudud doirasida EEST a’zolarining ishlab chiqaruvchilari YI a’zolari kompaniyalari bilan bir qatorda Preferensial bojxona rejimidan foydalanishadi.

Sharqiy Yevropada esa, 1949-yildan beri mavjud bo‘lib kelgan O‘zaro Iqtisodiy Yordam Kengashining 1991-yilda o‘z faoliyatini to‘xtatishi natijasida Sharqiy Yevropa davlatlari o‘zlarining iqtisodiy aloqalari va yo‘nalishlarini g‘arbiy bozorlarga e’tibor qaratishiga va

yangi birlashmalar tashkil etishga intilishdi. 1992-yilda Erkin savdo to‘g‘risida Markaziy Yevropa kelishuvi imzolanib, unga Vengriya, Polsha, Chexiya va Slovakiya davlatlari a’zo bo‘ldi.

Nufuzi jihatidan o‘z vaqtida tashkil qilinganda jahon xo‘jaligi reytingida ikkinchi o‘ringa qo‘yilgan xalqaro integratsiya markazi - Shimoliy Amerika hududi hisoblanadi. Bu yerda 1991-yil 1-yanvarda Shimoliy Amerika Erkin savdo Assotsiatsiyasi (NAFTA) kuchga kirgan. NAFTAgan AQSH, Kanada va Meksika davlatlarini o‘z tarkibiga birlashtirgan. NAFTA kelishuvi – tovar va xizmatlar savdosida cheklashlarni olib tashlash, kelishmovchiliklarini hal etish mexanizmlarini ishlab chiqish, bir-biriga nisbatan investitsion muhitni erkinlashtirishni nazarda tutadi.

NAFTA davlatlari tomonidan imzolangan shartnomaning asosiy huquqiy holatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- 1) AQSH, Kanada va Meksika davlatlari o‘rtasida savdo tovarlarga nisbatan bojlarni bekor qilish;
- 2) Shimoliy Amerika bozorlarini Meksika orqali kirib kelayotgan tovarlarga nisbatan bojlarni to‘lamaslikka harakat qiluvchi Osiyo va Yevropa kompaniyalarining ekspansiyasidan himoya qilish;
- 3) Meksikaning bank va sug‘urta kompaniyalari ichida AQSH va Kanada kompaniyalarini kapital qo‘yilmalariga nisbatan bo‘lib turadigan turli tayziq va taqiplarni olib tashlash;
- 4) Ekologik atrof-muhitni himoyalash hamda u bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni hal etish va h.k.lar.

NAFTAning YIga nisbatan o‘ziga xos xususiyati integratsiya jarayonlarining simmetrik emasligidir: Kanada va Meksika ustun ravishda AQSHga integratsiyalashishga intilishadi.

2020-yilda AQSH hukumati NAFTA tashkiloti faoliyatini samarasiz ekanligini hamda ushbu tashkilot doirasidagi amalgamoshiriladigan vazifalarni qayta ko‘rib chiqish lozimligini bildirib o‘tgan edi, chunki NAFTA yildan yilga o‘z nufuzini jahon xo‘jaligida yo‘qotib bormoqda.

Uchinchi markaz boshqalariga ko‘ra alohida xususiyatlari bilan ajralib turuvchi Osiyo – Tinch okeani mintaqasidir. Ushbu mintaqadagi mamlakatlar iqtisodiy rivojlanish darajasidagi keskin tafovutlar, etnik-madaniy farqlar, o‘zaro siyosiy da’volar yuki, hududiy tortishuvlar kabilar ana shu to‘siqlar jumlasiga kiradi. Hozirgi

kunda Tinch okeani havzasida bir necha yirik subhududiy iqtisodiy guruhlar, jumladan: Osiyo – Tinch okeani mintaqasi davlatlarining iqtisodiy hamkorligi (OTOIH), Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining uyushmasi (ASEAN), Janubiy Xitoy Forumi, Avstraliya-Yangi Zelandiya erkin savdo hududi kabilardir.

OTOIH 1989-yilda tashkil etilgan bo‘lib, 1998-yil 1-yanvardan beri bu tashkilot turli darajada iqtisodiy taraqqiyotga va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda turli mavqelarga ega bo‘lgan 21 ta davlatni o‘z tarkibiga birlashtirgan. Haqiqatan ham, AQSH va Papua–Yangi Gvineya, Yaponiya va Bruney, Xitoy va Peru, Kanada va Vietnamning xo‘jalik majmularini bir-biri bilan solishtirish mumkinmi? Yo‘q, albatta.

Bu tashkilot 1995-yilda Yaponianing Osaka shahrida bo‘lib o‘tgan Sammitida ma’qullangan va kelishilgan harakat dasturiga ko‘ra, 2010-2020-yillargacha savdo va investitsiyalashni xalqaro standartlariga muvofiq erkinlashtirishga yo‘naltirilgan edi. Biroq tashkilot tomonidan ushbu ko‘zlangan maqsadga hozircha erishganicha yo‘q. Hozirgi paytda bu integratsion guruh o‘z tanlagan yo‘lining boshida turibdi, zero, a’zo mamlakatlar o‘rtasida bojxona, ta’rif, transport va boshqa sohalardagi ko‘plab muammolarni hal etish uchun hali ko‘p ishlarni amalga oshirishi lozim.

Bundan tashqari o‘nlab tashkilotlar: “Katta yettilik”, Arab davlatlari ligasi (ADL), Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH), yildan yilga jahon xo‘jaligida eng yirik xalqaro iqtisodiy-siyosiy tashkilot sifatida namoyon bo‘lishni maqsad qilgan Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT), Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (EOII), BRIKS (Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy va JAR mamlakatlarining integratsiyaviy tashkiloti), SAARK – “Janubiy Osiyo mintaqasi mamlakatlarining hamkorlik assotsiatsiyasi” (South Asian Association for regional Co-operation), Afrika Ittifoqi, Islom dunyosidagi eng yirik tashkilot sifatida namoyon bo‘lgan – Islom hamkorlik tashkiloti (ushbu tashkilot 2011-yilgacha Islom konferensiya tashkiloti deb atalgan), Arab mag‘ribi ittifoqi (MAG‘RIB), MERKOSUR, Kaspiybo‘yi mamlakatlarining iqtisodiy hamkorligi va boshqa ko‘plab bir qator integratsiyaviy tashkilotlarni misol qilishimiz mumkin.

1991-yilda sobiq Ittifoq tarqab ketgach, ittifoqdosh respublikalar MDH doirasidagi tashkilotni shakllantirishdi. Biroq MDHga

Boltiqbo‘yi respublikalari hisoblangan Estoniya, Latviya va Litva ushbu tashkilot doirasiga yaqinlashishmagan bo‘lsa, a’zo bo‘lgan Gruziya va Ukraina mamlakatlari keyinchalik a’zolikdan rasman chiqib ketishdi. 2020-yilning oxirlarida Moldova va Belarus davlatlaridagi siyosiy o‘zgarishlar jarayoni ularning MDHdagi doimiy a’zoligi mavhumligini ko‘rsatmoqda. 2021-yilda o‘zining 30 yillik yubileyini nishonlaydigan MDH o‘tgan yillar mobaynidagi Sammitlar doirasida salkam 700 ga yaqin hujjatlar imzolangan. Biroq imzolangan hujjatlarning ijrosi bo‘yicha ma’lumotlar yetarlicha emas, albatta.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan BRIKS tashkiloti jahon xo‘jaligida yaqin yillar ichida tashkil qilingan eng yosh tashkilotlaridan biri bo‘lib, ushbu tashkilot dunyodagi har bir qit’adan bittadan yirik mamlakatlarning a’zoligi asosida tashkil qilingan bo‘lsa-da, biroq mazkur tashkilotning bugungi kungacha bo‘lgan faoliyati, uning asosiy vazifalari, amalga oshirayotgan loyihalari va strategik hamkorlik yo‘nalishlarining natijalari yuzasidan fikr bildirishga hozircha erta bo‘lib, faqatgina uning istiqboldagi faoliyatini kuzatishga majburmiz xolos.

Biroq shunday tashkilotlar borki, o‘z vaqtida o‘z oldilariga ulkan maqsadlarni qo‘yib tashkil qilingan bo‘lsa-da, lekin yillar o‘tib tashkil qilingan tashkilot doirasida imzolangan hujjatlar faqat qog‘ozda qolib ketayotganligi hamda a’zo mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik munosabatlariga unchalik ta’sir qilmayotgan bir qator integratsiyaviy tashkilotlarni ham ta’kidlash joiz, masalan:

2014-yilda Rossiyaning Astraxan shahrida Rossiya, Qozog‘iston, Turkmaniston, Ozarbayjon va Eron mamlakatlari rahbarlari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda tashkil qilingan “Kaspiybo‘yi mamlakatlarning iqtisodiy hamkorligi” tashkilotidir. Mazkur tashkilotga nafaqat MDH mamlakatlari, balki Fors ko‘rfazi vakili Eron ham qo‘shilgan bo‘lib, tashkilotning asosiy maqsadi Kaspiy dengizi hududidagi tabiiy resurslardan o‘zaro teng sheriklik tamoyilida va undan unumli foydalanish borasida kelishuvlar belgilangan hamda tashkilot Sammiti har yili o‘tkazilishiga kelishib olingan. Biroq mazkur tashkilotning ish faoliyati, yo‘nalishlari hamda maqsad va vazifalarining ijrosi mamlakatlar o‘rtasida imzolangan “kelishuv hujjatlari” faqat qog‘ozda qolib ketdi.

Shuningdek, 2002-yilning fevralida Toshkent shahrida Markaziy

Osiyo davlatlarining rahbarlari ishtirokida bo‘lib o‘tgan Sammitda “Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorligi” (MOH) tashkilotiga asos solindi. Mazkur tashkilot sobiq Ittifoq tarqab ketgach o‘sha davrda Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy munosabatlar va hamkorlik aloqalarining susayganligi sababli, mintqa mamlakatlari o‘rtasidagi iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni yanada rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi hukumati tashabbusi bilan tashkil qilingan edi. Keyinchalik Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorligi tashkilotiga 2004-yilda Dushanbe shahrida bo‘lib o‘tgan navbatdagi Sammitda ushbu tashkilotga kuzatuvchi mamlakat sifatida Rossiya ham a’zo bo‘lgan edi.

Tashkilotning keyingi yillardagi Sammitlari noma'lum sabablarga ko‘ra o‘tkazilmadi va mintaqadagi mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy-siyosiy munosabatlarda tashkilotning ahamiyati va nufuzi yo‘qoldi. Biroq tashkilotning nufuzini qayta tiklash va mamlakatlar o‘rtasidagi do‘stona aloqalarni yanada rivojlantirish hamda siyosiy-iqtisodiy munosabatlarni tashkilot doirasida oliy darajada olib borishni maqsad qilgan O‘zbekiston Respublikasi hukumatining harakatlari bilan tashkilotning faoliyati yana qayta tiklandi va nihoyat uzoq 15 yildan buyon birinchi marotaba Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorligining Sammitini o‘tkazilishi 2020-yilning oktabriga belgilandi. Biroq Toshkent shahrida o‘tkazilishi rejalashtirilgan Sammit pandemiya sababli 2021-yilga qoldirildi.

Jahondagi yana bir tashkilotning keyingi faoliyati hamon mavhumligicha qolmoqda. Shimoliy Afrika mintaqasida Marokash va Liviya hukumatlarining tashabbuslari bilan 1989-yilda Marokash poytaxti Rabot shahrida Jazoir, Marokash, Tunis, Liviya va Mavritaniya davlatlari rahbarlari ishtirokidagi Sammitda Arab mag‘ribi ittifoqiga asos solindi. Ushbu Arab mag‘ribi ittifoqi Shimoliy Afrika mintaqasi arab mamlakatlari ittifoqligida (MAG‘RIB) tashkil qilingan. Eng muhimi, mazkur xalqaro tashkilotga a’zo hisoblangan barcha mamlakatlar ADL hamda Afrika Ittifoqi kabi tashkilotlarga ham a’zo hisoblanishadi. Lekin faqatgina Marokash Afrika Ittifoqiga a’zo bo‘lib kirmagan.

MAG‘RIB tashkil qilingan paytda, tashkilotning maqsad va vazifalariga muvofiq, keljak yillarda a’zo mamlakatlar o‘rtasida yagona YIHni tashkil qilish va keyinchalik, Bojxona ittifoqini tuzish

haqida bir qator muhim hujjatlar imzolangan edi. Lekin ushbu imzolangan g‘oyalar “qog‘oz”da qolib ketmoqda va haqiqatda imzolangan hujjatlarni amalga oshirish g‘oyalari turli sabablarga ko‘ra “unutilib” ketdi. MAG‘RIB tashkilotida atigi 5 ta mamlakat a’zo bo‘lsa-da, lekin a’zo mamlakatlar o‘rtasida bir necha bor ziddiyatlar kelib chiqqan.

Masalan, 1994-yilda Jazoir hukumati mazkur xalqaro tashkilotning raisligini Liviyaga topshirish haqidagi taklifiga Jazoir bilan boshqa a’zo mamlakatlar o‘rtasida diplomatik munosabatlariga “sovucchilik” tushgandi. Buning asosiy sababi, Marokash bilan Liviya o‘rtasidagi kelishmovchilikdir. Chunki mazkur ikki davlatning rahbarlari doimiy ravishda Ittifoqning Sammitlarida qatnashishdan bosh tortishar yoki ular o‘zlarining o‘rniga boshqa rasmiy kishilarni, masalan, Tashqi ishlar vaziri yoki Iqtisodiyot vaziri kabilarni yuborishar edi.

Hammamizga ma’lumki, ShHT 2001-yilda tashkil topgan bo‘lib, bugungi kunda uning 8 nafar a’zo mamlakatlari: Rossiya, Xitoy, Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston, Hindiston va Pokiston hamda 4 nafar kuzatuvchi mamlakatlar: Afg‘oniston, Eron, Mug‘uliston va Belarus davlatlari Sammitlarda qatnashib kelishmoqda. Tashkilotning faoliyatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 2020-yilgacha asosan turli siyosiy yo‘nalishlarda faoliyat olib borganligini ko‘rshimiz mumkin.

2020-yilning 10-noyabrda Rosssiya rahbari raisligida bo‘lib o‘tgan navbatdagi ShHT Sammitida “Moskva deklaratsiyasi” imzolandi. Eng muhimi, ushbu Sammitda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan olg‘a surilgan bir qator taklif va loyihalar xususan: savdo-iqtisodiy aloqalarning keskin qisqarishi, ishlab chiqarish hajmlarining kamayishi, ishsizlikning ortishiga olib kelgan pandemiya rivojlanishimiz sur’atlariiga juda salbiy ta’sir ko‘rsatayotganligini alohida ta’kidladi.

2000-yili Qozog‘iston poytaxti Ostona (hozirgi Nur-Sulton) shahrida Belorussiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Rossiya davlatlari rahbarlari o‘rtasida imzolangan bitimga ko‘ra jahon xo‘jaligida yangi tashkilot, ya’ni “Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi” tashkiloti tashkil bo‘ldi. Ushbu tashkilot haqida batafsil keyingi bo‘limlarda fikr yuritamiz.

Jahon xo‘jaligida shunday mamlakatlar borki, jahonning ko‘plab xalqaro tashkilotlariga a’zo bo‘lmagan mamlakatlar ham mavjud. Bu yerda mazkur mamlakatlarni biz ikki xil toifada ko‘rishimiz mumkin, ya’ni:

birinchidan, ba’zi mamlakatlar o‘zlarining jahon xo‘jaligi integratsiyasidan “neytral mamlakat” sifatida e’tirof etishlaridir. Ushbu mamlakatlar ro‘yxatiga Shvetsariya, Shvetsiya yoki Turkmaniston kabi mamlakatlarni kiritish mumkin. Masalan, Turkmaniston 1995-yilda o‘zining “betarafligini” jahon ommasiga e’lon qilgan;

ikkinchidan esa, jahon ommasi tomonidan mazkur mamlakatlarni turli siyosiy tortishuvlarga va ba’zi sabablarga ko‘ra xalqaro tashkilotlar tomonidan a’zolikka qabul qilinmasligidir. Masalan, ushbu toifadagi mamlakatlar qatoriga Turkiya (Yevropa Ittifoqi), Shimoliy Koreya (ASEAN), Suriya (ADL), Afg‘oniston (SAARK) kabi misollarni keltirishimiz mumkin.

Jahon hamjamiyatida milliy iqtisodiyotlarning rivojiga ulkan hissa qo‘shayotgan hamda jahon xo‘jaligida ko‘plab iqtisodiy masalalarning yechimini hal qilayotgan bir qator xalqaro tashkilotlar ham mavjuddir. Masalan BMT, jahon iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etayotgan OPEK tashkiloti, ko‘plab rivojlangan va ayniqsa, rivojlanayotgan jahon mamlakatlariga iqtisodiy ko‘mak berayotgan XVF va Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Islom taraqqiyot banki (ITB), Quvayt arab fondi, JST va yana o‘nlab xalqaro tashkilotlarni misol qilishimiz mumkin.

Jahondagi barcha mustaqil mamlakatlar BMTga a’zo hisoblanishadi. Mazkur tashkilot jahondagi eng dolzarb siyosiy-iqtisodiy muammolar, masalalar va ularning yechimi bilan faoliyat olib boruvchi tashkilotdir. O‘zbekiston mazkur nufuzli tashkilotga 1992-yilning 2-martida a’zo bo‘lib kirgan. Siyosatchi ekspertlarning tahlillariga ko‘ra, hozirgi BMTning obro‘-nufuzi oldingi, ya’ni “XX asrdagi BMT”ga qaraganda pasaygan.

Agarda jahondagi tashkil qilingan barcha tashkilotlarning umumiyligi aholi soniga e’tibor beradigan bo‘lsak, albatta, BMTdan tashqari, ShHTga a’zo bo‘lgan mamlakatlarning umumiyligi aholi soni salkam 3 mlrd. kishini, ya’ni jahon aholisining 40 foizini tashkil qilar ekan hamda BMTdan so‘ng hududiy jihatdan eng yirik tashkilot hisoblanadi.

Demak, milliy iqtisodiyotlarni bir-biri bilan o‘zaro yaqinlashishi va bir-biriga kirib borishi obyektiv jarayon sifatida XX asrning so‘ngida xalqaro iqtisodiy munosabatlarning o‘ziga xos belgilaridan biri bo‘ldi. Shunday qilib Yevropa, Shimoliy Amerika, Osiyo – Tinch okeani hududlari jahon xo‘jaligida integratsiya jarayonlarining yetakchi markazlariga aylandi. Integratsiya jarayonlarining eng yuqori darajada chuqurlashuvi esa Yevropa mamlakatlariga to‘g‘ri keldi, ya’ni XX asr so‘ngida ular qudratli iqtisodiy guruhnini, ya’ni Yevropa Ittifoqini tuzdilar.

5.4. Integratsiya jarayonlarining milliy iqtisodiyotlar rivojiga ta’siri

Jahon xo‘jaligida Yevropa hamjamiyati tashkil bo‘lishiga qadar iqtisodiyot fanlarida “iqtisodiy integratsiya” termini mavjud emas edi. Biroq milliy davlatlar orasidagi “bozorlar integratsiyasi” va “siyosat integratsiyasi” kabi jarayonlar uzoq vaqtlardan beri mavjud. U yagona milliy bozorlar savdosining stixiyali (asta-sekin) rivojlanishi va mehnat taqsimoti natijasida shakllanib keldi. Bu jarayonlarning yuqori bosqichi sifatida birlashgan xalq xo‘jaligi komplekslarining yuzaga kelishi bo‘ldi.

Yevropa integratsiyalashuvining yo‘li ham shu kabi bo‘ldi: yagona ichki bozor yaratildi, Yevropa hamjamiyati bo‘ylab yagona iqtisodiy qonunchilik tizimi va yagona (yoki hech bo‘lmaganda uyg‘unlashgan) iqtisodiy siyosat olib borila boshlandi. Biroq alohida olingan milliy davlatlar ichidagi birlashtiruvchi jarayonlar bilan davlatlararo birlashtiruvchi jarayonlar orasida jiddiy sifat jihatidan farqlar mavjud edi. Faqatgina XX asrning 50-yillariga kelibgina tadqiqotchilar tomonidan erkin savdo zonalarini va bojxona ittifoqlarini tashkil etish shubhasiz erkin savdo bozorini yiriklashuv jarayonini yuz berishi ekanligini izohlashdi.

Demak, Yuqoridagi fikrlarni davom ettirgan holda, integratsiya integratsion guruh ichida erkin savdoning maksimal rivojini, lekin shu bilan birga ushbu guruh va tashqi olam orasidagi proteksionizmning kuchayishini anglatadi. Shu sababli, hududiy integratsiyaning ratsionalligi yoki irratsionalligi masalasi, pirovard natijada, ikki o‘zaro qarama-qarshi samaralarning nisbatiga keltiriladi. Bir tomonidan, agarda erkin savdo zonasini yoki bojxona ittifoqini yaratilishi

natijasida qimmat ichki ishlab chiqarishni arzonroq import bilan almashtirilsa, u holda “savdoni tashkil etish” (trade creation) ro‘y beradi. Boshqa tarafdan esa, agarda integratsiya natijasida uchinchi davlatlardan olinadigan arzon import, erkin savdo zonasi yoki bojxona ittifoqi bo‘yicha qo‘shti davlatlardan olinadigan qimmat import bilan almashtirilsa, u holda “savdoni chalg‘itish” (trade diversion) ro‘y beradi. Birinchi bor bu konsepsiya Dj.Viner va M.Bielar tomonidan 1950-yilda, ya’ni “Katta otilik”ning bojxona ittifoqini tuzishiga qadar, ilgari surilgan edi.²¹

Ma’lumki, milliy iqtisodiyotning hech biri jahon xo‘jaligidan ayrim holda, boshqa bir milliy iqtisodiyotlar bilan o‘zaro munosabatlarga kirishmay turib to‘laqonli ravishda rivojlana olmaydi. Integratsiyaviy birlashmaga qo‘shiluvchi davlatning iqtisodiyoti o‘zaro aloqalar olib boruvchi hamkorlarga xos umumiylarayonlarni boshidan kechira boshlaydi. Bu jarayonlar ko‘plab holatlarda ijobjiy ta’sir ko‘rsatsa-da, biroq ba’zi bir salbiy jihatlarga ham egadir.

Milliy xo‘jalikning rivojlanishi uchun integratsiyaning ustunlik tomonlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) bozor miqyosining kengayishi, buning natijasida taklifning ko‘payishi tufayli kapital aylanmasi tezligi ortadi, bu esa milliy bozori cheklangan kichik va o‘rta mamlakatlar uchun katta ahamiyat kasb etadi;

2) ishtirokchi mamlakatlarning ishlab chiqarishi va noishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanishi;

3) integratsion blok a’zosi obro‘-e’tiborining oshishi, bu unga turli savdo-iqtisodiy muzokaralarda yaxshi mavqega ega bo‘lishini ta’minlaydi;

4) axborot texnologiyalar ayrboshlash sur’atlarining tezlashishi, bu eksport mahsulotining tannarxini kamaytirish, sifati va raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi;

5) ko‘pgina ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni tartibga solish imkonini beruvchi mamlakatlar o‘rtasidagi migratsiya aylanmasini oshiradi.

Integratsiyaning yaqqol ko‘zga tashlanuvchi salbiy oqibatlari ichida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

²¹ SHemyatenkov V. Yevropeyskaya integratsiya M.: Mejdunarodnie otnosheniya.2003. 242 str.

1) kuchsizroq iqtisodiy mamlakatlardan resurslarning kuchli hamkorlar tomon oqib o‘tishi;

2) kompaniyalar o‘rtasida oshkor bo‘lmagan kartel bitimlar, yoki o‘zaro birlashishlar natijasida transmilliy kompaniyalar va milliy monopoliyalar ahamiyatining kuchayishi. Albatta, bu jarayon “sog‘lom bozor” raqobatini cheklaydi;

3) integratsion blokning byurokratik institutlari faoliyati natijasida katta miqdordagi xarajatlarning vujudga kelishi.

Odatda integratsion guruhsida u yoki bu mamlakatning ishtirok etishining ijobjiy yoki salbiy jihatlarini baholash juda murakkab va turlichadir (xuddi O‘zbekistonning EOIIga a’zo bo‘lib kirishi istiqboli singari). Biroq, o‘z-o‘zidan tushunarligi, integratsiyadan ichki bozori kichik, resurslarga kambag‘al, jahon yalpi ichki mahsulotda kam ulushga ega bo‘lgan davlatlar ko‘proq iqtisodiy samara olishadi. Bunday natijaga turli integratsion tashkilotlar, xususan YIning rivojlanish bosqichini tahlil qilish asosida bilish mumkin.

5.5. Jahon xo‘jaligida integratsiya jarayonlarining zamonaviy jihatlari

Hozirgi zamonaviy jahon iqtisodiyotining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri uning qamrovi kengayib borayotganligidan iborat bo‘lib, bu jarayon ham rivojlanayotgan mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalari nafaqat savdo-sotiq sohasida, balki boshqa ko‘lamlarda ham erkinlashib borayotganligi, ularning milliy iqtisodiyotlari tobora ko‘proq o‘z qobig‘ini yorib, bir-biri bilan bog‘lanib ketayotganligi bilan ajralib turadi. Ushbu jarayonlar quyidagi ikki g‘oyat muhim holat natijasi hisoblanadi:

bir tomondan, amaliyotda tobora ko‘proq milliy bozorlarning yaratilishi va milliy iqtisodiyotlarning tashqi aloqalarga urg‘u berilishi;

ikkinci tomondan esa, xalqaro xo‘jalik munosabatlarini rivojlantirish va chuqurlashtirish yo‘lida uchraydigan transport va kommunikatsiya sohalarida g‘oya va to‘siqlarni darhol bartaraf etuvchi texnologik innovatsiyalar.

Bugungi kunda jahon xo‘jaligida integratsiya jarayonlari kuchayib bormoqda. XXI asrning boshlaridan jahon iqtisodiyoti xalqaro savdo va xalqaro moliyaviy munosabatlar haddan tashqari yuqori sur’atlar bilan o‘sayotgan davrga qadam qo‘ydi. 2009-yildan 2019-yilgacha

bo‘lgan davr ichida xalqaro savdo aylanmasi hajmi bir yilda o‘rtacha 6,5 foizga ortib bordi, xalqaro xizmatlar savdosi 2,4 marta ko‘paydi. Xuddi shu davrda bevosita chet el investitsiyalarining o‘sishida jiddiy o‘zgarish yuz berdi: ularning jahon yalpi mahsulotdagi salmog‘i ikki barobar ko‘paydi. Ahamiyatlisi, rivojlanayotgan mamlakatlarga mo‘ljallangan innovatsiyalar hajmi XX asrning 90-yillariga qaraganda to‘rt hissa ortib ketdi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati milliy xo‘jaliklar o‘rtasida o‘zaro chuqur va barqaror aloqalarni rivojlantirish hamda mehnat taqsimotini yo‘lga qo‘yish, ularning turli darajadagi va turli shakllardagi qayta ishlab chiqarish tizimlari o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish asosida mamlakatlarning xo‘jalik va siyosat sohalarida birlashuvi jarayonidan iboratdir.

Mikro darajada – bu qo‘shni mamlakatlardagi ba’zi xo‘jalik subyektlari (korxonalar, firmalar)ning kapitali bir-biri bilan iqtisodiy bitimlar tuzish usullarini shakllantirish, chet elda o‘z bo‘linmalarini ochish yo‘li bilan o‘zaro hamkorlik qilish demakdir.

Davlatlararo (makro) darajada esa integratsiya davlatlarning iqtisodiy birlashmalarini shakllantirish hamda milliy siyosatlarini muvofiqlashtirish asosida ro‘y beradi.

Natijada, milliy iqtisodiyotlar bir-birlariga “kirib bormoqdalar”. Xo‘jalik asosining internatsionallashuvi yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Fan-texnika, ishlab chiqarish, investitsiya, moliya-tijorat faoliyatining ko‘p va turli bosqichlari bir-biriga bog‘lanib “chatishib” ketmoqda. Mamlakatlar va xalqlarning iqtisodiy o‘zaro bog‘liqligi aniq haqiqatga aylanmoqda.

Shuningdek, iqtisodiy integratsiya asosiga xo‘jalik hayotining o‘sib borayotgan internatsionallashuvi, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, fan-texnika taraqqiyoti, milliy iqtisodiyotlarning ochiqlik darajasining ortib borishi kabi omillar ham kiradi. Iqtisodiy integratsiyaning shart-sharoitlari sifatida integratsiyada qatnashayotgan mamlakatlar bozorining rivojlanish darajasini solishtirish, ularning geografik yaqinligi, ular oldida turgan muammolarning umumiyligi, bozor islohotlarini tezlashtirishga intilish va integratsion jarayonlardan chetda qolmaslik kabi xususiyatlarni qayd etib o‘tish kerak.

Integratsiyaning eng muhim umumiy iqtisodiy tavsifi

quyidagilardan iborat:

1. Iqtisodiy jarayonlarni davlatlararo miqyosda yo‘lga qo‘yish.
2. Bir-biridan u yoki bu darajada mustaqil hisoblangan milliy xalq xo‘jalik majmualari o‘rniga umumiy mutanosiblikka va umumiy qayta ishlab chiqarish tizimiga ega bo‘lgan biron mintaqaviy internatsional majmuani asta-sekin shakllantirish.
3. Mintaqaga doirasida mahsulotlar, ishchi kuchi va moliyaviy resurslarning davlatlararo harakati uchun hududiy sharoitlarni kengaytirish hamda bunday harakatga monelik qiluvchi ko‘plab ma’muriy va iqtisodiy g‘ovlarni bartaraf etish.
4. Integratsion birlashmalarda qatnashuvchi davlatlarning ichki iqtisodiy shart-sharoitlarini bir-biriga yaqinlashtirish hamda ularning iqtisodiy rivojlanish darajalarini tenglashtirish.

Odatda u yoki bu geografik mintaqaga va unda joylashgan qo‘shti mamlakatlar shunday integratsion birlashmalarning asosiy o‘zagini tashkil etadi. Hozirgi kunda xalqaro iqtisodiyotda yuzaga kelayotgan va rivojlanayotgan ko‘plab integratsion birlashmalar aslida o‘z oldiga bir-biriga o‘xshash vazifalarni qo‘yadilar. Bular quyidagilardan iborat:

1. Keng ko‘lamli iqtisodiyot ustunliklaridan foydalanish. Keng ko‘lamli iqtisodiyot nazariyasi assosida bozorlar hajmini kengaytirish, transaksion xarajatlarni kamaytirish va boshqa bir qator afzallikklardan foydalanish. Bu, o‘z navbatida, katta hajmdagi bozorlarga katta ishtiyoq bilan kirib keladigan to‘g‘ridan to‘g‘ri chet el investitsiyalarini jalg qilishga bevosita imkon beradi.

2. Qulay tashqi siyosiy muhitni yaratish. Ko‘plab integratsion birlashmalarning muhim maqsadi ularda ishtirok etuvchi davlatlarning siyosiy, harbiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa noiqtisodiy sohalarda bir-birini tushunishi va hamkorligini mustahkamlashdan iboratdri.

3. Savdo siyosatidagi vazifalarni hal qilish. Mintaqaviy integratsiya, ko‘pincha, Jahon savdo tashkiloti doirasida ishtirok etayotgan mamlakatlarning muzokarasi nuqtai nazaridan olib qaraladi. Mamlakatlar “bloki” (guruhi) nomidan kelishilgan holdagi bayonot ancha jiddiy hisoblanadi va savdo siyosati sohasida kutilgan natijalarni beradi.

4. Iqtisodiyotni tuzilmaviy qayta qurishga ko‘maklashish. Ma’lum bir tashkilotga a’zo bo‘lgan davlat o‘z qo‘senisini integratsiya jarayonlariga qo‘shar ekanlar, rivojlanganroq davlatlar ham o‘sha

mamlakatlardagi to‘laqonli va katta hajmli bozorlarni yaratish hamda ulardagi bozor islohotlarining ildiz otishidan manfaatdor bo‘ladi. Yevropa Ittifoqining u yoki bu shakliga qo‘sila turib, ko‘plab G‘arbiy Yevropa mamlakatlari aynan shu maqsadlarni ko‘zlagan edi.

5. Milliy sanoatning yosh sohalarini qo‘llab-quvvatlash. Hatto, integratsion birlashmalar uchinchi mamlakatlarga nisbatan kansituvchi choralarini nazarda tutmaganlarida ham ularning faoliyati uchun kengroq mintaqaviy bozor ochiladigan mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash usuli sifatida qaraladi.

Tarixan integratsion jarayonlar bir nechta asosiy bosqichlar asosida rivojlanib keldi. Ularning har biri uning rivojlanishining ma’lum darajaga yetganligini ifoda etadi. Integratsion guruhlardagi ishtirokchi mamlakatlar milliy iqtisodiyotining makro va mikro darajada o‘zaro yaqinlashishi va bir-birini iqtisodiy jihatdan naqadar chuqur kirib borishini baholashda namoyon bo‘ladi.

5.6. Jahon xo‘jaligidagi eng yirik integratsiyaviy tashkilot – Yevropa Ittifoqining vujudga kelishi

Jahon xo‘jaligidagi eng yirik integratsiyaviy tashkilot bu – Yevropa Ittifoqidir. 1992-yili Maastrichtda Yevropa Ittifoqi to‘g‘risidagi shartnoma imzolangan. Ushbu tashkilot jahon xo‘jaligida boshqa xalqaro tashkilotlarga qaraganda uning mavqeい va nufuzi ancha ustundir. Integratsiya jarayoni G‘arbiy Yevropa mamlakatlari iqtisodiyotida o‘zining eng to‘liq rivojlanishiga erishdi. Umuman olganda iqtisodiy tarixda G‘arbiy Yevropa integratsiyasi obyektiv iqtisodiy jarayonlardan tashqari V.Gyugo, I.Kant kabi ko‘plab Yevropa siyosiy va jamoat arboblari hamda mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan yagona Yevropani birlashtirish g‘oyalari mavjud bo‘lgan edi. Agarda tarixga murojaat qilsak, Yevropani birlashtirish g‘oyasi ancha ilgari boshlangan bo‘lib, quyidagi tarixiy sanalarga e’tibor beramiz:

1517-yilda Erazm fon Rotterdamskiy Yevropa xalqlarini birlashtirish va yagona imperiyani tashkil qilish g‘oyasi haqida o‘z asarlarida yozgan edi;

1849-yilda fransuz yozuvchisi Viktor Gyugo Amerika qit’asida AQSH tashkil etilgach, ushbu shtatlar ittifoqligini Yevropada ham

amalga oshirish, ya’ni “Yevropa Qo’shma SHatlari” mamlakatini tashkil etish borasida o‘z fikrlarini bayon qilgan;

1946-yil Syurixda Yevropa mamlakatlari rahbarlari yig‘ilishida, Buyuk Britaniya Bosh Vaziri Uinston Cherchill “Yevropa qo’shma Shtatlarini tashkil etishimiz kerak” degan taklifni o‘rtaga tashlagan edi. Biroq 1950-yilning o‘rtalarigacha bu shiorlar negizida hech qanday iqtisodiy asos bo‘lmagan.

Yevropaning yagona iqtisodiy hudud sifatidagi taraqqiyoti faqatgina Ikkinchi jahon urushidan so‘ng boshlandi. G‘arbiy Yevropa davlat rahbarlarining siyosiy xohish-istaklari, jumladan, 1950-yil 9-mayda Germaniya va Fransiya o‘rtasida ko‘mir va po‘lat ishlab chiqarishni muvofiqlashtirishni taklif etgan Fransiya tashqi ishlar vaziri R.Shumanning taklifini alohida ta’kidlab o‘tish joizdir.

YIning tashkil topishi va rivojlanishining zamonaviy tarixi 1951-yildan boshlanadi. YI o‘zida xalqaro tashkilot va federativ davlat xususiyatlarini mujassamlashtirgan davlatlararo uyushma YIning tashkil topishi 1951-yil 18-aprelda bo‘lib, u Parijda “Ko‘mir va po‘lat birlashmasi” tuzish shartnomasining imzolanishi bilan bog‘liqdir. Ushbu shartnomani tuzishda ilk bor quyidagi 6 ta davlat: Belgiya, Italiya, Luksemburg, Niderlandiya, Fransiya va GFR a’zo bo‘lishgan.

1955-yilning iyun oyida bo‘lib o‘tgan Italiyaning Messina shahrida bo‘lib o‘tgan yig‘ilish qarorlari integratsiya jarayonlarining rivojlanishiga yangi turtki bo‘ldi. Ushbu yig‘ilishda Yevropa integratsiyasining istiqbollari belgilandi, pirovard maqsad milliy iqtisodiyotlarning birlashishi va ijtimoiy siyosatni muvofiqlashtirish orqali umumiyo bozorni shakllantirish edi.

YIning navbatdagi yirik tarixiy bosqichi 1957-yilning mart oyida Yuqorida sanab o‘tilgan mamlakatlar tomonidan bojxona ittifoqi va qishloq xo‘jaligi sohasida umumiyo siyosat olib borishga asoslangan Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati (YIH)ni tashkil etish to‘g‘risida Rim shartnomasini imzolashdi. Hamjamiyatlar tarkibiga rivojlanish darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlar kirdi, bu ularning keyingi yillar mobaynida iqtisodiy o‘sishining yuqori sur’atlarini belgilab berdi.

G‘arbiy Yevropa integratsiyasining rivojlanishi XX asrning 50-
108

yillari oxiridan boshlab hozirgi vaqtgacha notekis va nisbatan ziddiyatli kechdi hamda o‘z oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalar yetarlicha izchil va muvaffaqiyali amalga oshirildi. G‘arbiy Yevropa iqtisodiy integratsiyasi rivojlanish jarayonini shartli ravishda to‘rtta bosqichga bo‘lish mumkin.

Birinchi bosqich (XX asrning 50-yillari oxiri – 70-yillar o‘rtasi). Hamjamiyat hayotidagi bu bosqich “oltin asr” davri hisoblanadi. Ushbu bosqich bojaxona ittifoqining muddatidan oldin tashkil etilishi yagona agrar bozorning nisbatan muvaffaqiyatli shakllantirilishi, YIga uchta yangi mamlakat: Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiyaning kirishi bilan ajralib turadi. Ko‘pincha “Umumiy bozor” deb yuritiladigan Yevropa iqtisodiy hamjamiyatini tashkil etilishining aniq maqsadlari quyidagilardan iborat edi:

- ishtirokchi davlatlar o‘rtasidagi savdoda barcha cheklashlarni asta-sekin bartaraf etish;
- uchinchi mamlakatlar bilan savdoda umumiy bojaxona tarifini belgilash;
- “insonlar, kapital, xizmatlar” erkin harakat qilishi uchun cheklashlarni tugatish;
- transport va qishloq xo‘jaligi sohasida umumiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- valuta ittifoqini tashkil etish;
- soliq tizimini bir xil tizimga keltirish;
- qonunchilikni yaqinlashtirishlarini ishlab chiqish.²²

YIHning eng asosiy maqsadi a’zo mamlakatlarning tovarlari, kapitallari, xizmatlari va ishchi kuchi umumiy bozorni tashkil etilishi vazifasining hal etilishi edi. Buning uchun bojaxona ittifoqi tashkil etildi. YIHga aynan bojaxona ittifoqi asos qilib olingan. Bojaxona ittifoqi doirasida:

- a’zo mamlakatlarning YIH doirasidagi o‘zaro savdosidagi savdo cheklashlari bekor qilindi;
- uchinchi mamlakatlarga nisbatan yagona bojaxona tarifi belgilandi;
- kapitallar, kreditlar harakati, pul o‘tkazmalari, xizmatlar

²² Shodiyev R.X., Maxmudov E. Jahon iqtisodiyoti. – T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2005.- 92 bet.

ko'rsatish erkinligiga erishildi;

– ish kuchining erkin migratsiyasi va yashash joyini erkin tanlash ta'minlandi.

Ushbu choralarning barchasi sanoat integratsiyasining jadallashuviga ko'maklashdi. Ayni bir vaqting o'zida kompensatsiya yig'imlari va qishloq xo'jaligi jamg'armasi orqali moliyalashtirish yordamida umumiylar proteksionizm o'rnatish shaklida agrar integratsiyani amalga oshirishga urinib ko'rildi. YIning agrar siyosati a'zo mamlakatlarning ko'plab qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun birdek minimal narxlar belgilanishini kafolatlovchi narxlarning yagona tizimiga asoslanadi. Umumiylar bozorni shakllantirilishi YI milliy monopoliyalarining transmilliy monopoliyalarga aylanishi jarayonini tezlashtirdi, sherik mamlakatlar iqtisodiyotiga kirib borishga ko'maklashdi.

Ikkinch bosqich (XX asrning 70-yillar o'rtasi – 80-yillar o'rtasi). YI tarixiga Yevropa valuta hamkorligi dasturi qabul qilinishiga, tashqi siyosiy kelishuvlarga muvaffaq bo'linganligi sifatida kirdi. Birok, baribir paydo bo'lgan salbiy tendensiylar ushbu davrda G'arbiy Yevropa iqtisodiy integratsiyasining jiddiy tangligiga olib keldi. Ushbu tanglik "Yevroskleroz" degan nom oldi. XX asrning 70-yillarida va 80-yillar boshida YI mamlakatlari o'rtasidagi rivojlanish darajasidagi tafovut ko'paydi. 1981-yilda Gretsya YI ga kirishi bilan ushbu tendensiya yanada aniqroq namoyon bo'ldi, chunki ushbu mamlakatni iqtisodiy salohiyati hamjamiyatning boshqa qatnashchilari bilan taqqoslanganda ancha past darajada edi.

Uchinchi bosqich (XX asr 80-yillar ikkinchi yarmi – 90-yillar boshi) – Hamjamiyat tarkibining yanada kengayish davri bo'ldi. 1986-yilda Ispaniya va Portugaliyaning qo'shilishi ilgari mavjud bo'lgan mamlakatlararo nomutanosiblikning keskinlashuviga olib keldi. Shu bilan birga, ayni ushbu davr G'arbiy Yevropa integratsiyasi rivojlanishidagi yangi kuchayish bilan xarakterlanadi. Bu eng avvalo, Yagona Yevropa Akti (YYA) qabul qilinishi bilan bog'liqdir.

YYA hamjamiyat qatnashchilari bo'lgan mamlakatlarning umumiylar maqsadi – YI tashkilotini tashkil etish tasdiqlandi. YI

o‘zida hamjamiyat qatnashchilarining siyosiy alyansini ifodalar va ularning iqtisodiy, valuta-moliyaviy, insonparvarlik hamkorligining yuqori darajasining emas, balki tashqi siyosatni, shu jumladan, xavfsizlikni ta’minlashni kelishishni ham nazarda tutar edi.

YYAda yagona iqtisodiy makon barpo etish maqsadi unda qayd etilgan markaziy qoida bo‘lib, YIH qatnashchilari bo‘lgan har bir ishtirokchi mamlakat yagona xo‘jalik organizmini tashkil etishi kerak edi. YYAning qabul qilinishi bilan hamdo‘stlik a’zolari bo‘lgan mamlakatlarning mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot, siyosat va huquq, fan va ekologiya, mintaqaviy rivojlanish, ijtimoiy munosabatlar sohasidagi integratsiyaviy jarayonlari kuchaydi. 1990-yillarning boshida YI a’zosi bo‘lgan mamlakatlar yagona bozor asoslarini barpo etishni amalda tugalladilar va valuta iqtisodiy va siyosiy ittifoqlarni shakllantirishga juda yaqinlashib qoldilar.

To‘rtinchи bosqich (XX asrning 90-yillari o‘rtasi – XXI asr boshi). Yagona Yevropa Aktiga muvofiq, 1993-yil 1-yanvardan boshlab, hamjamiyat chegaralari ichida ishlab chiqarish omillarining erkin harakat qilinishi joriy etildi. Amalda hamjamiyat doirasida yagona iqtisodiy makon paydo bo‘ldi, bu YIning iqtisodiy integratsiyaning sifat jihatidan yangi bosqichiga kirganligini anglatar edi. Buning sababi Yevropa Ittifoqi to‘g‘risidagi shartnoma 1992-yil Maastricht shahrida (Niderlandiya) Yevropa Hamjamiyatiga a’zo bo‘lgan 12 ta davlat rahbarlari ishtirokida “Maasrixt shartnomasi” imzolandi. Yevropa mamlakatlarining siyosiy va valuta iqtisodiy ittifoqini vujudga keltirish to‘g‘risidagi bu shartnoma Yuqorida ta’kidlanganidek, 1993-yil 1-noyabrdan kuchga kirdi. 1994-yil 1-yanvardan boshlab YIH qatnashchi mamlakatlari soni 15 tagacha ko‘paydi va YI tashkilotiga aylantirildi. YI doirasida to‘liq yagona ichki bozor tashkil etish amalga oshirildi.

Maastricht bitimlari YIga quyidagi vazifalarni yuklagan:

- yagona valuta tizimini yaratish va uni boshqarish;
- yagona iqtisodiy siyosatni, ayniqsa, uning budget ishlariga taalluqli qismini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va kuchaytirish;
- erkin raqobatga asoslangan yagona bozorni tashkil etish va himoyalash;
- iqtisodiy jihatdan yuqori va quyi iqtisodiy tengsizlikni (boy va

qashshoq) mintaqalar o‘rtasida tenglikka intilish hamda (imkon bo‘lgan joylarda) mablag‘larni qayta taqsimlash;

- qonunchilik va tartib-qoidani qo‘llab-quvvatlash;
- uchinchi mamlakatlarga nisbatan bamaslahat yuritiladigan savdo, keyinroq esa umumiyligi iqtisodiy siyosat to‘g‘risida hamda iqtisodiy siyosatni yagonalashtirish borasida ham kelishib olishlarini nazarda tutadi.²³

2002-yilning 1-yanvaridan esa YIning 13 ta a’zo mamlakatlarida “Yevro” muomalaga kiritildi.

Yevropa Ittifoqi uchta tamoyilga asoslanadi:

- 1) iqtisodiy ittifoq;
- 2) a’zo mamlakatlarning milliy xususiyatlari va urf-odatlariga hurmat bilan qarash;
- 3) yustitsiya va ichki ishlar sohasida hamkorlik hamda xavfsizlik va tashqi siyosat sohasida kelishib ish ko‘rish.

Yevropa Ittifoqining maqsadlari:

- Yevropa xalqlarining mustahkam ittifoqini vujudga keltirish;
- ichki chegaralari bo‘limgan hududni tashkil etish;
- iqtisodiy va ijtimoiy o‘zaro ta’sirini kuchaytirish yo‘li bilan muvofiqlashtirilgan uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyotga yordam berish;
- iqtisodiy va valuta ittifoqini tashkil qilish va yagona valuta tizimini yaratish (bu maqsadga 2002-yil yanvarda erishilgan);
- a’zo mamlakatlar hamkorligida tashqi va mudofaa siyosatlarini oqilona olib borish;
- adliya va ichki ishlar sohasida hamkorlikni rivojlantirishdan iborat.

YIning shtab-kvartirasi Bryusselda joylashgan, bu yerda Kengash majlislari o‘tkaziladi va Yevropa Komissiyasi doimiy asnoda faoliyat olib boradi. Yevropa Parlamenti va Sudi Luksemburgda joylashgan.

YIning rivojlanib borishi Ittifoqda qarama-qarshiliklar va qiyinchiliklar yo‘q ekanligini anglatmaydi. Yuqorida YIga yangi a’zolar qo‘shilishi natijasida mamlakatlararo va mamlakat ichidagi

²³ SHodiev R.X., Maxmudov E. “Jahon iqtisodiyoti”. – T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2005.- 98 bet.

nomutanosibliklar paydo bo‘lganligi qayd etilgan edi. Yagona agrar siyosatni, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy turlariga yagona markazlashtirilgan narxlarning amalga oshirilishi jarayonida anchagina muammolar paydo bo‘ldi va paydo bo‘lmoqda. Biroq, shunday bo‘lsada, YI bugungi kunda jahondagi iqtisodiy salohiyati jihatidan eng yirik va nufuzli integratsiyaviy tashkilot bo‘lib, unga jami 27 mamlakat a’zodir.

Ma’lumki, Buyuk Britaniya 2020-yilgacha YIning faol a’zolaridan biri hisoblangan. Britaniyaliklar 2016-yilning yozida bo‘lib o’tgan referendumda YI tarkibidan chiqish uchun ovoz bergan edi. Shundan so‘ng mamlakat parlamenti va qirolicha Elizaveta II jarayonni ma’qullashini bildirgandi. 2018-yilning 15-noyabr kuni Britaniya Vazirlar Mahkamasi Yevropa Ittifoqidan chiqish to‘g‘risidagi bitimni qabul qilgan. Muhokama qilinganidan so‘ng “Breksit” masalalari bo‘yicha vaziri va mamlakat mehnat vaziri ham iste’foga chiqqan. Shu yilning 15 yanvarida Parlament quyi palatasi Tereza Meyning YIdan chiqish rejasini rad etgan. Keyinchalik Tereza Mey ham iste’foga chiqishga majbur bo‘lgan. Oxir-oqibat Buyuk Britaniya YIni 2020-yilning 1-fevralidan tark etgan.

5.2-jadval

Yevropa Ittifoqining barcha a’zolari

T/r	YI mamlakatlari	A’zo yili
1-6	Belgiya, Germaniya, Italiya, Luksemburg, Gollandiya va Fransiya	1957
7-8	Daniya va Irlandiya	1973
9	Gretsiya	1981
10-11	Ispaniya va Portugaliya	1986
12-14	Avstriya, Finlyandiya va Shvetsiya	1995
15-24	Vengriya, Kipr, Latviya, Litva, Malta, Polsha, Sloveniya, Slovakiya, Chexiya va Estoniya,	2004
24-26	Bolgariya va Ruminiya,	2007
27	Xorvatiya	2013

Manba: ushbu jadval ma’lumotlar asosida ishlab chiqildi.

Osiyoning vakili hisoblangan Turkiya esa, qariyb 60 yildan buyon YI tashkilotiga a'zo bo'lib kirish uchun harakat qilsa-da, YI tomonidan har doim Turkiyaga nisbatan turli shartlar va boshqa sabablar bilan YI a'zo mamlakatlarining Turkiyani a'zo bo'lishiga qat'iy qarshiligi (Gretsiya va Kipr) yoki boshqa bir qator noma'lum xususiyatlarga ko'ra bugungi kungacha mazkur tashkilotga a'zo bo'lib kirmagan.

1964-yildan beri YIning assotsiatsiyalangan a'zosi bo'lgan Turkiya, YIga a'zo bo'lish uchun 1987-yil 14-aprelda murojaat qilgan. Uni YIga qabul qilish bo'yicha muzokaralar jarayoni 2005-yil 3-oktabrda boshlangan. Turkiya YIga qo'shilish uchun Yevropa Komissiyasi bilan muzokaralarni 35 punktdan 33 tasini muvaffaqiyatli yakunlashi kerak (ikkiasi kelishuv talab qilmaydi). Shundan so'ng, YI mamlakatlari bir ovozdan Turkiyaga YIga a'zo bo'lishi uchun ovoz berishi kerak.

2017-yil 6-iyulda Yevropa Parlamenti YI davlatlari va Yevropa Komissiyasini Turkiyaning qo'shilishi bo'yicha muzokaralarni uning rasmiylari konstitutsiyaga o'zgartirish kiritgunga qadar to'xtatishga chaqiruvchi rezolyutsiya qabul qilgan edi. 2017-yil aprel oyida Turkiyada konstitutsiyaviy islohoti bo'yicha referendum bo'lib o'tdi, natijada prezident vakolatlari sezilarli darajada kengaytirildi. So'nggi to'rt yil ichida Bryussel va YIga a'zo davlatlar turli darajalarda Turkiyaning harakatlari YIdan uzoqlashishiga hissa qo'shayotganini bir necha bor ta'kidladi va Anqarani o'z pozitsiyasini aniqlashga chaqirdi.

2021-yilning 9-yanvarida Turkiya Prezidenti R.Erdo'g'an Yevropa Komissiyasi rahbari Ursula fon der Lyayen bilan o'tkazilgan muzokaralar chog'ida Turkiya va YI o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama qilinib, unda R.Erdo'g'an Turkiyaning kun tartibida YI ustuvor mavqega ega ekanini va Turkiyaning kelajagini Yevropada ko'rishini ta'kidladi. Ushbu muzokaralarda R.Erdo'g'an Bojxona ittifoqini yangilash, Turkiya fuqarolari uchun viza erkinligini ta'minlash va Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga a'zoligi bo'yicha muzokaralarda qadamlar qo'yish zarurligini yana bir bor ishora qilgan.

YI jahondagi xalqaro tashkilotlar doirasida eng nufuzli hisoblansa-da, 2020-yilda quyidagi ba’zi faoliyatları bilan jahon arenasi oldida o‘z nufuzini tushirib qo‘ydi, jumladan:

- 1) 2020-yilning boshlarida boshlangan pandemiya YIning o‘zining asli qanday tashkilot ekanligini amalda isbotladi. Chunki YI bugungi kunda 27 mamlakat a’zo bo‘lsa-da, pandemiyaga qarshi kurashda “YAgona yirik davlat”ning o‘rniga tashkilotga a’zo bo‘lgan har bir mamlakat o‘zi yakka holda kurashishga majbur bo‘ldi. Hatto YI mamlakatlari o‘zining ichki davlat chegaralarini bir-biridan yopishga ham majbur bo‘lishdi va shuningdek, joriy qilingan “Shengen vizasi”ga qaramay YI tarkibidagi mamlakatlar qo‘shti mamlakat fuqarolarini ham o‘z hududiga kirishiga yo‘l qo‘yishmadi;
- 2) 2020-yilning 1-fevralidan YIning eng asosiy yetakchi a’zolaridan biri hisoblangan va Yevropada iqtisodiy salohiyati jihatidan Germaniyadan keyingi o‘rinda turuvchi Buyuk Britaniya “Breksit” islohoti natijasida YI a’zoligidan chiqib ketdi. Mazkur holat tashkilotning istiqboldagi faoliyatiga xavf keltirish tabiiy, albatta. Chunki Buyuk Britaniyadan so‘ng unga a’zo bo‘lgan boshqa mamlakatlar ham (Gretsiya va Vengriya) a’zolikdan chiqib ketish xavfini tug‘dirdi;
- 3) 2020-yilning 31-martida Vengriya Yevroparlament chiqargan qonunlariga qarshi chiqdi va ba’zi qonunlarni o‘zi mustaqil ravishda qabul qildi;
- 4) 2020-yilning may oyida Gretsiyaning Yevroparlamentga yo‘llagan bayonotida Yaqin va O‘rta Sharqdan kirib kelayotgan muhojirlar oqimini to‘xtatishga yakka o‘zi kurashayotganligi sababli, mahalliy hukumat bundan keyin uning YIga a’zoligining ijobjiy va salbiy jihatlarini qayta ko‘rib chiqishini ma’lum qilgan edi.

Ma’lumki, YI mamlakatlari o‘rtasida “Shengen bitimi” imzolangan va bitim YI hududida o‘z kuchiga egadir. 2020-yilning so‘nggida Fransiyada yuzaga kelayotgan ichki siyosiy inqirozlarni oldini olish va mahalliy aholini xavfsizligini ta’minalash maqsadida, Fransiya Prezidenti E.Makron Shengen hududini isloh qilishni taklif etdi. Unga ko‘ra, YI chegaralarida xavfsizlikni ta’minalash uchun Shengen hududini boshqarishni takomillashtirish lozimligi, chunki hozirgi paytda hududda migratsiya va ichki xavfsizlik masalalarini

tartibga solish bo‘yicha doimiy siyosiy kuzatuv mavjud emasligini bildirib o‘tgan.

“Shengen kabi erkin harakatlanish hududi Yevropaning yagona hududi qurilishining asosiy yutug‘idir. Ammo bu tashqi chegaralarimiz muhofazasi va xavfsizligi va’dasi evaziga ichki chegaralarsiz erkin harakatlanish va’dasiga asoslangan edi. Agar Shengen mintaqasini chuqur isloh qilmasak, chegaralarimizni ochiq saqlash masalasida muammolar yuzaga kelmoqda. Biz buni bahorda (2020-yil) pandemiya sharoitida ko‘rdik, bugun buni terrorizm bilan bog‘liq vaziyatda ko‘rib turibmiz. Biz Shengen hududini isloh qilishimiz kerak, shunda u xavfsizlik hududi bo‘ladi hamda biz ushbu makon boshqaruvini yangilashimiz kerak”²⁴ deb ta’kidlagan.

Umuman Shengen zonası, viza va shu nomdagı shartnoma – Luksemburgda joylashgan kichik shaharcha sharafiga shunday atalgan bo‘lib, 1985-yilda Shengen shahridan uzoq bo‘lmagan Mozel daryosidagi “Malika Mariya Astrid” kemasida 5 ta davlat vakillari Shengen kelishuvini imzolashgan. Bu joy bejiz tanlanmagan, chunki bu shaharcha uch mamlakat – Luksemburg, Fransiya va Germaniya chegaralari bilan tutashgandir. Mazkur kelishuv 1995-yilga kelibgina kuchga kirdi, 1999-yilda esa Yevropa Ittifoqining Shengen qonunchiligiga aylanib, o‘z kuchini yo‘qotdi.

5.7. Yevroosiyo mamlakatlarning integratsiyalashuvida “Bir makon – bir yo‘l” strategiyasining ahamiyati

“Bir makon-bir yo‘l” – Xitoyning xalqaro tashabbusi bo‘lib, u Markaziy Osiyo, Yevropa va Afrikada joylashgan 60 dan ortiq mamlakatlarni o‘zaro bog‘lovchi iqtisodiy yo‘laklarni yanada takomillashtirish hamda yangi transport va savdo yo‘llarini yaratishga qaratilgan. Ushbu hududdagi davlatlar jahon yalpi ichki mahsulotining 55 foizini, global energiya zaxiralaringning 75 foizini o‘zida jamlagan. Ushbu g‘oya haqida ilk bor XXR davlat rahbari Si Szinpin 2013-yilning sentabrida Qozog‘istonga tashrifi chog‘ida mahalliy talabalar bilan uchrashuv chog‘ida ma’lum qildi.

So‘nggi yillarda “Bir makon bir yo‘l” iborasi Yevroosiyo qit’asi

²⁴ <https://www.interfax.ru/world/736475>

davlatlariga tobora kirib bormoqda. Ushbu loyiha Xitoy tomonidan ilgari surilayotgan tashabbusdir. Tashabbusning mohiyati Xitoy ishtirokidagi mavjud mintaqaviy ikki tomonlama va ko‘p tomonlama mexanizmlarni mustahkamlagan holda, xalqaro hamkorlik va taraqqiyotning yangi modelini izlab topish, shakllantirish va ilgari surishni nazarda tutadi.

Shuningdek, ushbu tashabbus g‘oyasini amalgga oshirishda, qadimiy Buyuk Ipak Yo‘li ruhiyatini rivojlantirish va davom ettirish asnosida “Bir makon bir yo‘l” mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish, ishtirokchi davlatlarning iqtisodiy ravnaq topishini rag‘batlantirish, turli sivilizatsiyalar o‘rtasidagi turli sohalarda aloqalarni mustahkamlash, shuningdek, tinchlik va barqaror rivojlanishga ko‘maklashish kabi g‘oyalar o‘rin olgan.

«Bir makon – bir yo‘l» loyihasi rivojlanayotgan davlatlar, jumladan, yangi iqtisodiyotlar va rivojlangan davatlardan iborat Yevroosiyo qit’asining katta qismini qamrab oladi. Megaloyiha hududida juda boy resurslar va zaxiralari mavjud bo‘lib, unda yer kurrasining 63 foiz aholisi istiqomat qiladi hamda taxmin qilinayotgan iqtisodiy salohiyat esa qariyb 25 trln. dollarga tengdir.


Umumi manfaatlarga asoslangan hamjamiyat. “Bir makon – bir yo‘l” loyihasining hamkorlikda amalgga oshirilishi har bir davlatning solishtirma ustunligidan yaxshiroq foydalanish imkonini beradi va iqtisodiy jihatdan bir-birini to‘ldirish holatini va rivojlanishning yangi harakatga keltiruvchi kuchiga aylantiradi.

Tashabbus g‘oyasi savdo va investitsiyalarni rag‘batlantirish va o‘zaro bog‘liqlikni ilgari surish uchun keng iqtisodiy hamkorlikka tayanadi. U mag‘lub bo‘lmaydigan strategiyalar hukmron bo‘lgan yangi iqtisodiy yuksalish olamini nazarda tutadi. Garchi “Bir makon – bir yo‘l” tashabbusini Xitoy ilgari surgan bo‘lsa ham, taklif etilgan yo‘nalishlar atrofida va qiziqish bildirayotgan mamlakatlarning ishtiroki uni amalgga oshirishda o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy manfaatlар va ustuvorliklarning bir-biriga zid kelishi, shuningdek, kutilmagan vaziyatlar ushbu yirik loyihani amalgga oshirilishida jiddiy to‘sqinlik qilishi turgan gap. Shu bois, keng asosda maslahatlashuvlar zarur bo‘ladi. Faqatgina birgalikdagi jon

kuydirish va umumiy mas'uliyat har qanday tahdidni zararsizlantirish imkonini beradi.

Tashabbusning yana bir tomoni shundaki, kelajak istiqbolda yirik hamjamiyat tashkil qilish g'oyasi ham mavjuddir hamda tashabbus doirasida umumiy kelajakka ega bo'lgan hamjamiyat faqatgina umumiy manfaatlar va umumiy tenghuquqlik shartlari asosida barpo etilishi mumkin.

Shunday qilib, manfaatlar mos kelishi va o'zaro iqtisodiy taraqqiyotning yangi harakatga keltiruvchi kuchga aylanadigan savdo va investitsiya sohasida hamkorlikni kengaytirish uchun doimiy ravishda harakat qilish kerak bo'ladi. Bir vaqtning o'zida, barcha davlatlar xalqaro muammolarni hal qilish va barcha tomonlarning manfaatlarini hisobga olgan holda hamkorlik asosini shakllantirishi uchun kuchlarni birlashtirmog'i lozim bo'ladi.



5.1-rasm. «Bir makon – bir yo'l” loyihasining jahon xaritasidagi ko‘rinishi.

Ipak yo‘lida yashil taraqqiyot. Tashabbus tegishli davlatlarning ekologik sig‘imini hisobga olgan holda, iqtisodiy o‘sish va atrof-muhit muhofazasi o‘rtasida puxta muvozanat talab etadi.

Ipak yo‘lida aql-idrokni rivojlantirish. Ipak yo‘lida aql-idrokni “Bir makon – bir yo'l” bo‘ylab joylashgan davlatlarda ixtisoslashgan

kadrlar yetishmovchiligi kuzatilganda iqtidorlilarni rivojlantirishni mustahkamlash va tajriba almashishni nazarda tutadi.

Ipak yo‘lida tinchlik va osoyishtalik. Tinchlik va osoyishtalik Ipak yo‘lida bir-birini to‘ldiruvchi ikki tarkibiy qismga tayanadi: «Bir makon – bir yo‘l» tashabbusi ravnaq topishi uchun zarur bo‘ladigan, nisbatan barqaror vaziyat hamda mintaqaviy tinchlik va barqarorlikka olib keluvchi savdo-sotiq tarmog‘ini yaratish uchun birqalikdagi harakatlar majmuasini anglatadi.

“Ipak yo‘li iqtisodiy kamari” loyihasi doirasida TransYevroosiyo iqtisodiy koridorini yaratish nazarda tutilmoqda: Shimoliy (Xitoy – Markaziy Osiyo – Rossiya – Yevropa); Markaziy (Xitoy – Markaziy va G‘arbiy Osiyo - Fors ko‘rfazi va O‘rta yer dengizi); Janubiy (Xitoy – Janubi-Sharqiy Osiyo – Janubiy Osiyo – Hind okeani).

2017-2020-yillarda Xitoy tashabbusi bilan e’lon qilingan “Bir makon-bir yo‘l” loyihasi 2017-yilda Vietnamning Xanoy shahrida “Xitoy va Janubi-Sharqiy Osiyo iqtisodiy forumi”da, Fors ko‘rfazi mamlakatlari ishtirokida “Xitoy-Fors ko‘rfazi: hamkorlik aloqalar va istiqbollar” mavzusidagi 2018-yili Doha shahrida bo‘lib o‘tgan forumda va Xitoyda 2019-yilda Xitoy va MDH mamlakatlari ishtirokida bo‘lib o‘tgan “Bir makon – bir yo‘l” iqtisodiy forumida namoyish qilindi.

“Bir makon – bir yo‘l” loyihasiga ko‘ra, Xitoydan Yevropaga yo‘l olgan ilk yuk poezdi 2019-yilning noyabridan ishga tushirildi. Unga ko‘ra, tarkibi 21 ta vagondan iborat bo‘lgan poezd 12 kun ichida 10 ta mamlakat orqali o‘tib, jami 11,5 ming kilometrga yaqin yo‘l bosgan. U Xitoydan Qozog‘iston, Ozarbayjon, Gruziya va Turkiya orqali Yevropaga yo‘l olgan ilk yuk poyezdi Bosfor bo‘g‘ozni ostidagi Marmaray tonnelidan o‘tdi. China Railway Express poezdi Xitoyning Shian shahridan yo‘lga chiqqan va uning so‘nggi manzili Chexiya poytaxti Praga bo‘ldi. Mazkur yo‘nalish tufayli Xitoydan Yevropaga yuk tashish xarajatlari va vaqtqi qisqarishiga olib kelgan.

5.8. 2020-yilda bo‘lib o‘tgan jahon xalqaro tashkilotlarining onlayn Sammitlari va ularning asosiy xususiyatlari

2020-yilning boshlari va o‘rtalarida rejalashtirilgan barcha xalqaro tashkilotlarning yig‘ilish va Sammitlari pandemiya tufayli noma’lum muddatlarga qoldirilgan edi. 2020-yilning sentabridan dekabrgacha bo‘lgan qisqa davr ichida birin-ketin avvaliga BMT, keyinroq esa BRIKS, ASEAN, ShHT, MDH, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi, “OPEK+”, YI, “Katta yigirmatalik” kabi tashkilotlarning Sammitlari bo‘lib o‘tdi. Ushbu o‘tkazilgan Sammitlar tarixda ilk bor birinchi marta “Onlayn video-Sammit” ko‘rinishda o‘tkazildi.

2020-yilning sentabrida BMTning “75 yillik” onlayn Sammitida BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish o‘z nutqida jahon mamlakatlarining pandemiyaga hamda rivojlanayotgan mamlakatlar kambag‘alikka qarshi kurashish chora-tadbirlarini olib borishlarini ta’kidlab o‘tdi. Ushbu onlayn Sammitda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev BMT tarixida ilk bor o‘zbek tilida nutq so‘zlandi.

2020-yilning 10-noyabrida ShHTning 20-Sammiti Rossiya Federatsiyasi raisligida o‘tkazildi va barcha a’zo mamlakatlar o‘z nutqilarida asosiy urg‘uni ShHT doirasidagi siyosiy yo‘nalishlarga e’tibor berishgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev o‘z ishtirokidagi nutqida bir qator tashabbuslar va g‘oyalarni ilgari surdi. O‘zbekiston rahbari tomonidan onlayn Sammitda bildirilgan fikr-mulohazalar va tashabbuslar quyidagilardan iborat bo‘ldi:

- pandemiya sharoitida xalqaro va mintaqaviy hamkorlik uchun ShHT platformasidan samarali foydalanishga xizmat qiladi;
- ShHTning mavjud, ayniqsa savdo-iqtisodiy sohadagi ulkan salohiyatni ochib berishga qaratilgan;
- ShHT hududidagi xalqlarning xavfsiz va barqaror taraqqiyoti, ijtimoiy farovonligi va iqtisodiy o‘sishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi.

ShHTning ushbu Sammiti – O‘zbekistonning xalqaro imidji va mintaqadagi nufuzini ortib borayotganligini yana bir bor ko‘rsatdi.

2020-yil 15-noyabrida Vietnamning Xanoy shahrida onlayn

Sammit formatda ASEAN tashkilotining yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Sammitda a’zo mamlakatlar o‘rtasida tarixiy bitim - jahondagi eng yirik “Erkin savdo hududi” tashkil qilindi. Ushbu bitimga muvofiq, ASEANning jahon iqtisodiyotidagi iqtisodiy salohiyati 2025-yilga borib qariyb 2,2 mlrd aholi soniga ega bo‘lishi va YaIM qariyb 29,0 trln. dollar miqdoriga ega bo‘lgan yirik iqtisodiy hudud shakllanishi rejalashtirildi.

2020-yil 17-noyabrida BRIKS tashkilotining onlayn Sammiti yig‘ilishida Rossiya, Braziliya, Hindiston, Xitoy va JAR rahbarlari tomonidan tashkilot doirasida hamkorlik munosabatlarini yanada rivojlantirish va iqtisodiy hamkorlikda investitsiyaga asosiy urg‘u berish lozimligi xususida fikr almashishdi. A’zo davlatlarning rahbarlari o‘z nutqilarida pandemiyaga qarshi kurashishda hamjihatlik va investitsiya loyihalarini amalga oshirishlaridan manfaatdorliklarini bildirishdi.

2020-yilning 21-22-noyabr kunlari Saudiya Arabistoni Qiroli Salmon bin Abdulaziz Al-Saud raisligida “Katta yigirmatalik” Sammiti ham o‘z tarixida birinchi marta onlayn formatda o‘tkazildi. Mazkur onlayn Sammitda pandemiya sharoitida inson hayotini himoya qilish va iqtisodiy o‘sishni tiklashga qaratilgan masalalar hal qilindi. “G20” davlatlari koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashda vaksinalar ishlab chiqarish va tarqatish hamda aholining davolanish imkoniyatini ta’minlashga jami 21 mlrd.dollar sarmoya kiritish haqida kelishib olindi.

Sammitda tashkilot doirasida dunyoning eng kambag‘al davlatlariga umumiyligi miqdorda 14 mlrd.dollardan ko‘p mablag‘ ajratilishini Saudiya Arabistoni rahbari ta’kidlab o‘tgan, jumladan: “Biz pandemiya tufayli o‘n yillik taraqqiyotni xavf ostiga qo‘ygan dunyodagi eng zaif mamlakatlarga favqulodda yordam ko‘rsatamiz. Ya’ni, dunyodagi zaif davlatlarning qarz yukini yengillashtirish uchun 14 mlrd.dollardan ko‘p mablag‘ ajratamiz. Bu qarz xizmatini to‘xtatib turish tashabbusi doirasida amalga oshiriladi”²⁵.

Eng muhimmi, jahon iqtisodiyotini qo‘llab-quvvatlash va inqirozga barham berish maqsadida ushbu tashkilot mamlakatlari

²⁵ https://1prime.ru/state_regulation/20201122/832393622.html

jamı 11 trln. dollar mablag‘ ajratilganligi ta’kidlab o‘tildi. Shuningdek, Sammitda koronavirus bilan bog‘liq muammo va masalalardan tashqari innovatsiyalar, oziq-ovqat xavfsizligi va kambag‘allikka qarshi kurashish kabi qator boshqa masalalar ham muhokama qilindi.

2020-yilning 11-dekabr kuni Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqining (YOII) onlayn Sammiti bo‘lib o‘tdi. Sammitda O‘zbekiston ham ishtirok etdi. Sammitning kun tartibidan olgan asosiy masalalaridan biri Kuba va O‘zbekiston mamlakatlarini tashkilot huzuridagi kuzatuvchi davlat maqomini berishdan iborat bo‘ldi hamda ushu mamlakatlarga kuzatuvchi mamlakat maqomi berilishi yuzasidan qaror qabul qilindi. Tadbirda YOIIga a’zo davlatlar Rossiya, Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Armaniston, shuningdek, kuzatuvchi maqomidagi Moldova va taklif etilgan mamlakatlar sifatida Kuba va O‘zbekiston rahbarlari ishtirok etishdi.

Va oxirgisi, 2020-yilda bo‘lib o‘tgan so‘nggi Sammit haqida. O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev raisligida 18-dekabr kuni MDH davlat rahbarlari ishtirokida onlayn Sammiti bo‘lib o‘tdi. Sammitda Belarus, Moldova, Ozarbayjon, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va O‘zbekiston davlat rahbarlari ishtirok etdi. Kun tartibiga muvofiq MDH doirasidagi ko‘p qirrali hamkorlikning holati va ustuvor yo‘nalishlari ko‘rib chiqildi, sheriklik munosabatlarini mustahkamlash bo‘yicha birgalikdagi rejalar belgilab olindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev o‘z nutqida O‘zbekiston shu yil Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga raislik qilishdek sharafli va mas’uliyatli vazifani ilk bor o‘z zimmasiga olganini ta’kidladi.

Sh.Mirziyoyev tashkilot doirasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirishga doir qator takliflarni ilgari surdi. U o‘z nutqida “O‘zbekiston umumiy muammolarni hal qilishga yangi, nostandart va o‘zaro manfaatli yondashuvlarni birgalikda ishlab chiqish va amalga oshirishga tayyor”²⁶, – deb ta’kidlab o‘tdi.

²⁶ <https://president.uz/uz/lists/view/4024>

Bob yuzasidan xulosa

Ishlab chiqarish kuchlarining internatsionallashuvidan va uning oliv shakli – jahon xo‘jaligining globallashuvidan iborat muhim jarayon dunyoning ko‘pgina mintaqalarida birlashmalarning rivojlanishida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Milliy xo‘jaliklar o‘rtasida chuqur va barqaror o‘zaro aloqalarning kamol topishi hamda mehnat taqsimotining yuzaga kelishi, takror ishlab chiqarish kuchlarining turli darajada va turli shakllarda o‘zaro hamkorligi asosida mamlakatlarning xo‘jalik va siyosiy jihatdan birlashuvi jarayoni xalqaro iqtisodiy mohiyatini tashkil etadi.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi – bu savdo, moliya sohalari, texnologiya, axborot ayrboshlovi hamda inson omillarining ko‘chib o‘tishi kengayib, yanada chuqurlashuvi natijasida ayrim mamlakatlar milliy iqtisodiyotlarining o‘zaro qo‘shiluviga (integratsiyaga) bo‘lgan moyillikdir. Bu jarayon ham bozorlar, ham ishlab chiqarish tizimlarini qamrab oladi.

Bozorlarning globallashuvi esa, bu muayyan mamlakatlarning bozorlari savdo to‘sqliari natijasida bir-biridan ajralib qolgan iqtisodiy tizimdan ularni yagona global bozorga keltiruvchi tizimga asta-sekin o‘tish demakdir. Ishlab chiqarishning globallashuvi ishlab chiqarish jarayonining birligini nazarda tutadi, bu holda ishlab chiqaruvchilar dunyoning istalgan nuqtasida joylashgan bo‘lib, u yerda – mehnat, kapital, yer kabi ishlab chiqarish omillaridan eng ko‘p manfaat bilan foydalanishlari mumkin.

Nazorat savollari

1. Jahon xo‘jaligi integratsiyalashuvi mazmunini va sababini ayting.
2. Jahon xo‘jaligi integratsiyalashuvi rivojlanishining asosiy bosqichlarini ayting.
3. Jahon xo‘jaligida integratsiya jarayonlari qachon vujudga kelgan?
4. Integratsiya jarayonlarining jahon markazlarini sanab o‘ting va har bir jahon markazining mohiyatini tushuntiring.
5. Integratsiya jarayonlarining milliy iqtisodiyotga qanday

salbiy ta'sirlari mavjud?

6. Integratsiya jarayonlarining milliy iqtisodiyotga qanday ijobiy ta'sirlari mavjud?

7. Jahon xo'jaligida integratsiyaviy jarayonlarning zamonaviy jihatlarini ayting.

8. Iqtisodiy integratsiya darajalarining bosqichlarini sanab o'ting.

9. Jahon iqtisodiyotida iqtisodiy integratsiyaga muhim bo'lgan qaysi ikkita omil katta ta'sir ko'rsatadi?

10. Jahonning qaysi mamlakatlari jahon integratsiya jarayonidan holi, ya'ni betaraf hisoblanishadi?

11. Iqtisodiy integratsiyaga ta'rif bering.

12. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyatini ayting.

13. Iqtisodiy integratsiyaning asosiga qaysi omillar kiradi?

14. Nima uchun Turkiya qariyb 50 yildan buyon Yevropa Ittifoqiga a'zolikka qabul qilinmayapti, Sizning fikringiz?

15. YIining shakllanish bosqichlarini aytib bering.

16. Yaqin istiqbol yillarda YIga qaysi mamlakatlarning a'zo bo'lib kirishi kutilmoqda?

17. Jahonda tashkil qilingan qaysi xalqaro tashkilotlarning faoliyatları va nufuzi yil sayin pasayib bormoqda va nima uchun?

18. "Bir makon – bir yo'l" g'oyasining mohiyatini ayting.

19. 2020-yilning ikkinchi yarmida qaysi xalqaro tashkilotlarning onlayn Sammitlari bo'lib o'tdi?

Uyga vazifa!

Talabaning "Jahon iqtisodiyotining integratsiyalashuvi" mavzusini chuqur o'zlashtirishi hamda amaliyot darsiga puxta tayyorgarlik ko'rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

1) mavzu so'ngida berilgan "Nazorat savollari"ga tayyorgarlik ko'rish;

2) xalqaro tashkilotlarning faoliyati (tanlama ravishda) bo'yicha talabalar guruhlarga bo'lingan holda "taqdimot" o'tkaziladi.

VI BOB. XALQARO KORPORATSIYALAR VA ULARNING JAHON IQTISODIYOTIDA TUTGAN O'RNI

- 1. Jahon xo'jaligidagi transmilliy korporatsiyalarning vujudga kelishi va rivojlanishi.**
- 2. Jahon xo'jaligidagi TMKlar faoliyatining asosiy xususiyatlari.**
- 3. Xalqaro TMKlarning tashkil topishi va shakllanish bosqichlari hamda rivojlanishi.**
- 4. Xalqaro korporatsiyalarning mohiyati, tuzilmasi va ko'rinishlari.**
- 5. Jahon xo'jaligidagi transmilliy korporatsiyalarning roli.**

Tayanch iboralar: xalqaro korporatsiyalar, transmilliy korporatsiyalar (TMK), global korporatsiyalar, maxsus investitsiyaviy kompaniyalar, kapital, litsenziya, litsenzion kelishuv, franchayzing, savdo markasi, brend, barel, sho'ba korxonalar, nizom fondi, "Uchinchi dunyo mamlakatlari".

6.1. Jahon xo'jaligidagi transmilliy korporatsiyalarning vujudga kelishi va rivojlanishi

Ma'lumki, jahon sanoatida mahsulotlar ishlab chiqarishda Transmilliy korporatsiyalar (TMK) juda muhim ahamiyat kasb etadi. BMT ekspertchi-mutaxassislarning fikriga ko'ra, TMK "jahon mamlakatlari iqtisodiyotining rivojlanishidagi eng asosiy dvigatellari" bo'lib xizmat qiladi. YUNKTAD ma'lumotiga ko'ra, 2019-yilda jahon xo'jaligidagi TMKlarning soni 63 mingtaga yetgan va ularning qariyb 800 mingga yaqin bo'linmalari mavjud bo'lib, ular iqtisodiyotning turli sohalarini qamrab olgan. Masalan, jahonda eng ko'p TMKlar soni Germaniyada ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ularning soni 7 mingtadan ziyodni tashkil qiladi. Shuningdek, jahondagi yirik TMKlarning eng ko'p bo'linmalari Xitoyda ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ularning soni 45 mingtadan oshgan²⁷.

Shu bilan birga, TMKlarning o'z davlatlaridan tashqarisida, ya'ni boshqa xorijiy mamlakatlarda faoliyat ko'rsatib kelayotgan 300 mingdan ortiq sho'ba korxonalari ham bevosita faoliyat ko'rsatmoqda. Birgina 2000-yildan 2019-yilgacha TMKlarning soni qariyb 5

²⁷ <https://moluch.ru/archive/245/56546/>

barobarga ko‘paygan. Masalan, bundan deyarli 50 yil oldin, ya’ni 1970-yilda jahon xo‘jaligida atigi 7 mingta TMKlar mavjud bo‘lgan edi xolos. Shuningdek, hozirgi kunda jahon xo‘jaligida mavjud bo‘lgan 100 ta eng yirik xalqaro kompaniyalarning deyarli 44 foiz mulki (shu jumladan moliyaviy mulki) boshqa xorijiy davlatlar hududlarida joylashgan.

XXI asr boshlarida jahonda TMKlarning asosiy qismi Xitoy, AQSH, YI va Yaponiyada joylashgan bo‘lsa, so‘nggi 10 yil davrda ularning oqimi asta-sekin BAA, Hindiston, Vietnam va boshqa bir qator rivojlanayotgan mamlakatlarda ham yuzlab yirik TMKlar faoliyat ko‘rsatishmoqda. TMKlar jahon xo‘jaligida ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining qariyb 50 foizini va jahon savdosining 70 foizini tashkil qiladi.²⁸

TMK korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning yillik miqdori 4 trln.doll.dan ortiq miqdorni tashkil qilib, ularda qariyb 200 mln.ga yaqin ishchi-mutaxassislar faoliyat ko‘rsatishadi (ya’ni jahonda ish bilan band aholining 8 foizi demakdir). Biroq ularning faoliyatining turli davrlarida pasayishlar ham yuzaga kelgan. Chunonchi, 2008-yilda jahon iqtisodiyotida yuzaga kelgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz jahon xo‘jaligidagi TMKlarning faoliyatiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatgan bo‘lib, ularning daromadlari 2009-yildayoq oldingi yilga nisbatan 24 foizga kamaygan. Albatta, yuzaga kelgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz kompaniyalarning faoliyatiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatib, ishlab chiqarish sur’atlarining pasayishiga va minglab ishchi o‘rinlarni qisqarishiga olib kelgan edi. Bu jarayon, ayniqsa Xitoy, AQSH va YI mamlakatlarida joylashgan TMKlar faoliyati pasaygan.

2020-yilning avgustida XVF ekspertlarining bergan tahlillariga ko‘ra, 2008-yilda ro‘y bergan moliyaviy-iqtisodiy inqirozning davri 2020-yilning o‘rtalariga kelib qayta takrorlanganligini ma’lum qilishdi.

Xo‘sh, jahon iqtisodiyotida “Transmilliy korporatsiyalar” nima? Ularga qanaqa turdagи yoki toifadagi kompaniyalar kiradi?

Demak, BMTning XX asrning 60-yillardagi tasnifiga ko‘ra, TMKlar tarkibiga yillik kapital aylanmasi 100 mln.doll. miqdoridan oshuvchi va kamida 6 ta davlatda uning bo‘limlari bo‘lgan firmalarni

²⁸ https://ru.m.wikipedia.org/wiki/Transnatsionalnaya_kompaniya

kiritgan. Biroq keyingi yillarda ushbu ko'rsatkich tarkibiga rezident-davlatdan tashqarida sotilgan mahsulotlar miqdori, xorijiy bo'linmadagi umumiy ishchilarni soni kabi ko'rsatkichlari ham kiritildi. Bu ko'rsatkichlar bo'yicha jahon xo'jaligining deyarli barcha hududlarida uzoq yillar mobaynida ilg'or va faol faoliyat ko'rsatayotgan Shvetsariyaning "Nestle" firmasini alohida ta'kidlash joiz.

BMT metodologiyasi usuli bo'yicha xalqaro korporatsiyalarning aktivlari tarkibiga qarab ham aniqlash mumkin. XXI asrning ikkinchi dekadasida jahon xo'jaligida TMKlar ichida yuqori o'rnlarda Xitoy, AQSH, Buyuk Britaniya, Gollandiya mamlakatlariga tegishli bo'lgan TMKlar jahon reytingining yuqori o'ntaligini egallahsgan. Eng ko'p xorijiy aktivga ega bo'lgan (moliya sektoridagi transmilliy banklardan tashqari) Angliya-Gollandiya konserni hisoblangan "Royal-Datch Shell", undan keyin AQSHning 5 ta yirik kompaniyasi: ya'ni "Ford", "Jeneral motors", "Ekson", "Ay-Bi-Em", "Berkshire Hathaway" TMKlari egallagan.

Shuningdek, jahon moliya sektorida Xitoyning "ICBC", Xitoy qurilish banki, Xitoy qishloq xo'jaligi banki, AQSHning "JP Morgan Chase" banki kabilar jahon reytingida eng yuqori pog'onalarini egallahsgan.

Biroq 2020-yilning boshlarida jahon iqtisodiyotida pandemiya tufayli yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz ularning faoliyatini ancha susaytirganligi va inqirozning sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatganligini hisobga olib, keyingi yaqin istiqbol yillarda ularning "aktivlar reytingi"da egallab turgan o'rinalining pasayish ehtimoli ham mavjuddir.

G'arb davlatlari va boshqa ko'plab xorijiy mamlakatlarning iqtisodiy adabiyotlarida xalqaro monopoliyalarning ko'plab turlarini (ko'pmilliy korporatsiyalar, baynalmilal korporatsiyalar, transmilliy korporatsiyalar, global korporatsiyalar va x.k.lar) uchratish mumkin. Filipp Kotler tashkiliy tamoyillar asosida aynan ana shunday xalqaro kompaniyalarni ko'rsatib o'tgan edi. Rossiyalik iqtisodchi olimlar esa, korporatsiyalarning quyidagi klassifikatsiyasini beradi.

Transmilliy korporatsiyalar – bu xorijiy aktivga ega bo'lgan milliy monopoliyalardir. Ularning ishlab chiqarish va savdo-iqtisodiy faoliyatları bir davlat chegarasidan chiqib ketadi.

AQSH iqtisodiyotida hissadorlik jamiyatlarini ham "korporatsiya" deb atashadi. Jahon xo'jaligida zamonaviy TMKlarning aksariyati

amerika kompaniyalarining ekspansiyasi tufayli vujudga kelganligi uchun ham bu termin iqtisodiy adabiyotlarga kirib kelgan.

Hozirgi kunda TMKlarning huquqiy filiallari va sho‘ba korxonalari jahonning turli davlatlarida faoliyat yuritib kelmoqda. Bu kompaniyalar nisbatan mustaqil bo‘lib, ishlab chiqarish va tayyor mahsulotlarni sotish, ilmiy tadqiqot va iste’molchilarga xizmat ko‘rsatish kabi ishlab chiqarish faoliyatlarini bajaradi. Umuman olganda ular yagona ishlab chiqarish sotish majmuyini tashkil etib, bu majmuada hissadorlik kapitaliga faqat ta’sischi davlat egalik qiladi. Shu bilan birga TMKlarning bo‘limlari va sho‘ba korxonalari aralash korxonalar ko‘rinishida ham bo‘lishi va ularda milliy kapital ustunlik qilishi ham mumkin.

Jahon iqtisodiyotida **Ko‘pmilliy korporatsiyalar** (KMK) – ishlab chiqarish va ilmiy tadqiqotchilik asosida bir necha davlatlarning milliy korporatsiyalarini birlashtiruvchi xalqaro korporatsiyadir. KMKga 1907-yildan buyon faoliyat ko‘rsatib kelayotgan Angliya – Gollandiyaning “Royal-Datch Shell” kompaniyasini yoki mashinasozlik va elektron injenerlik sohalariga ixtisoslashgan Yevropaning mashhur Shvetsariya-Shvetsiya “AVV” (Asea Brown Bovery) kompaniyasi va boshqa misollarni ko‘rsatish mumkin.

Jahon iqtisodiyotida Transmilliy va Ko‘p milliy korporatsiyalar qatoriga xalqaro kompaniyalar ichida yaqqol ajralib turuvchi **Global korporatsiyalarni** (GK) ham kiritish mumkin. Ushbu kompaniyalar XX asrning 80-yillarida vujudga kelgan bo‘lib, hozirgi kunda ularning salohiyati va faoliyati yil sayin kuchayib bormoqda. Global korporatsiyalar zamonaviy jahon xo‘jaligida moliya kapitalining butun bir qudratini namoyon qiladi. Jahon iqtisodiyotida globalizatsiya jarayonlari hozirgi kunda ko‘proq ximiya, elektrotexnika va elektron sohalarda, neft va avtomobil sohalarida, axborot va boshqa bir necha sohalarda ro‘y bermoqda.

Transmilliy korporatsiyalarni paydo bo‘lishiga sabab nima?
Ularning paydo bo‘lishini asosiy sabablari quyidagilardan iboratdir:

1. Milliy davlat chegaralaridan chiqib ketgan ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi asosida ishlab chiqarish va kapitalning baynalmilallashuvidir. Ishlab chiqarish va kapitalning baynalmilallashuvi yirik kompaniyalar tomonidan xorijiy mamlakatlarda o‘z bo‘limlarini tashkil etib, milliy korporatsiyalarning TMKlarga aylanishi orqali ekspansiya xususiyatiga ega bo‘ladi.

2. Transmilliy korporatsiyalarni vujudga kelishining sabablaridan

yana biri - haddan tashqari foyda olishga bo‘lgan intilishdir. O‘z navbatida, kuchli raqobat, bu kurashda “tirik qolish” zaruriyati, xalqaro miqyosda esa ishlab chiqarish va kapitalning konsentratsiyasi ham TMKlarni paydo bo‘lishiga olib keladi.

Demak, jahon iqtisodiyotida kapital olib chiqish bu - xalqaro korporatsiyalarining shakllanishi va rivojlanishining eng muhim omillardan biridir.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro korporatsiyalarini vujudga kelishi va rivojlanish tarixini ko‘rib chiqsak, hozirgi kunda o‘z qo‘lida jahonning elektr jihozlari va sanoat uskunalarini bozorining salkam 20 foizini egallagan Shvetsiyaning “Elektrolyuks” TMK ni ko‘rsatish mumkin. U 1912-yilda ikki Shved kompaniyalarining birlashuvi natijasida vujudga kelgan ushbu kompaniya XX asrning 20-yillardayoq Avstraliya va Yangi Zelandiya bozorlariga chiqib, ishlab chiqarishni tashkil qilgan edi. Bugungi kunda ham “Elektrolyuks” korporatsiyasi jahonning 78 mamlakatida kundalik elektrotexnik sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish, sotish va xizmat ko‘rsatish bo‘yicha jahon xo‘jaligida rivojlangan tizimga ega bo‘lgan yirik kompaniya sifatida faoliyat ko‘rsatmoqda.

6.2. Jahon xo‘jaligida TMKlar faoliyatining asosiy xususiyatlari

Jahon xo‘jaligida ro‘y berayotgan iqtisodiy jarayonlarning obyektiv natijalariga ko‘ra, vujudga kelgan TMKlar o‘ziga xos xususiyatga ega. Jahon iqtisodiyotida TMK xalqaro mehnat taqsimotining faol ishtirokchisi bo‘lib, uning rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. Jahon iqtisodiyotida kuchli ishlab chiqarish bazasiga ega bo‘lgan TMKlar ishlab chiqarishda tovarlar bozorini samarali rejallashtirishni ta’minlovchi ishlab chiqarish - savdo siyosatini olib bormoqda. Rejallashtirish bosh kompaniya doirasida amalga oshirilib, sho‘ba korxonalarga tarqatiladi.

TMKlarda kapitalning harakati odatda korporatsiya joylashgan davlatda bo‘layotgan jarayonlardan mustaqil ravishda sodir bo‘ladi. Jahon xo‘jaligida TMKlar yirik investitsiyalar va yuqori malakali mutaxassislarni talab qiluvchi yuqori texnologiyali, ilmtalab sohalarga intensiv kirib boradi. Ushbu sohalarni TMKlar tomonidan monopoliya qilish tendensiyasi ro‘y beradi.

1980-yillarning o‘rtalarida ikki mingga yaqin eng yirik korporatsiyalar tomonidan dunyo sanoat mahsulotining 75 foizi ishlab

chiqarilgan bo‘lsa, hozirgi kunga kelib moliyaviy baquvvat bo‘lgan va jahon reytingining yuqori 100 ta TMKlar jahon sanoatining 75 foizini ishlab chiqarmoqda. Gigant TMKlar hissasiga jahon bozoriga chiqarilayotgan elektronika va ximiya sanoatining 79 - 80 foizi, neft xomashyosining 87 foizi, farmatsevtikaning deyarli 95 foizi, mashinasozlikning 70-80 foiz sanoat mahsulotlari to‘g‘ri keladi.

Jahon iqtisodchi mutaxassislarining fikriga ko‘ra, XXI asrning 20-yillarida ham jahon mamlakatlarida faoliyat ko‘rsatayotgan 500 ga yaqin yirik TMKlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan jami yalpi mahsulotining 75 foizi ustidan o‘z nazoratini o‘rnatib, ishlab chiqarish va xizmatlar sohasini sezilarli ravishda diversifikatsiya qilib borar ekan.

Hozirgi jahonda yuz tutayotgan iqtisodiy inqirozlarga hali to‘la barham bermasdan turib uning ketidan 2020-yilning boshlarida mutlaqo kutilmagan fors-major holati yuz berdi va pandemiya davri boshlandi. Pandemianing birinchi to‘lqinidayoq, jahondagi deyarli 80 foiz ishlab chiqarish kompaniyalari vaqtinchalik o‘z faoliyatlarini to‘xtatishga majbur bo‘lishdi. Jahon bozorlarida mineral, energetika resurslari va tayyor mahsulotlarning narxlarining doimiy o‘zgarib turishi natijasida jahon xo‘jaligidagi milliy iqtisodiyotlarga ham o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatdi.

Ayniqsa, 2020-yilning dastlabki oylarida jahon neft bozorida xomashyo narxining tushib ketishi bu jahon sanoati ishlab chiqarilishining pasayishidan darak berdi. Biroq, keyinchalik jahon neft bozorlarida narxning asta-sekin ko‘tarilishi bilan holat yana barqarorlashmoqda. Jahondagi neft sohasidagi eng yirik kompaniya hisoblangan ikki yirik kompaniyalar, ya’ni Saudiya Arabistonining “Saudiya Aramko” va Rossiyaning “Lukoyl” kabi yirik gigant kompaniyalari jahon neft bozorini deyarli nazorat qilishadi desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. “Saudiya aramko” jahon neft sanoatining eng yirik kompaniyasidir.

Jahon iqtisodiyotida TMKlar tomonidan xalqaro bozorlarni egallashning eng yangi shakllaridan biri xorijda **“Maxsus investitsiyaviy kompaniya”**larni tashkil qilishdir. Ularning asosiy vazifasi – TMKnинг sho‘ba va hamkorlikdagi korxonalarining mahsulotlarini mintaqaviy bozorlarga chiqarishni rag‘batlantirish uchun ularni investitsiyalashdan iboratdir. Masalan, bunday usuldan hozirgi kunda Afrikada alkogolsiz ichimlik mahsulotlarini sotish bo‘yicha eng yirik xalqaro kompaniyalar – “Pepsi-kola” va “Koka-kola” kabi TMKlar keng foydalanishmoqda.

TMKlar o‘z ekspansiyasini kengaytira borib, jahon bozorini o‘zlashtirishning turli shakllaridan (litsenziya berish, franchayzing, boshqaruv shartnomalari, texnik va marketing xizmatlari ko‘rsatish, korxonalarini “kalit ostida” topshirish, vaqt bo‘yicha cheklangan qo‘shma korxonalar tuzish haqidagi shartnomalar kabilar) keng foydalanadilar. Bu shakllar ko‘p jihatdan shartnomaga asoslanib, hissadorlik kapitalida boshqa firmalarning qatnashishiga bog‘liq bo‘lmaydi.

Jahon iqtisodiyotida litsenzion kelishuvlar, ayniqsa, keng tarqalgan bo‘lib, faoliyatining gurkirab rivojlangan davri XX asrning 90-yillariga to‘g‘ri keladi. Litsenzion kelishuv yuridik shartnoma bo‘lib, litsenziar litsenziyantga bir qancha muddatga to‘lov evaziga ma’lum huquqlarni beradi. Litsenziya berish TMKning ichki firma shartnomalari bo‘yicha ham, texnologiya berishning tashqi kanallari bo‘yicha ham amalga oshiriladi.

Franchayzing – uzoq muddatga mo‘ljallangan litsenzion kelishuvdir. Bunda franchayzer klient-firmaga ma’lum huquqlarni beradi. Bu huquqlar o‘z ichiga ma’lum to‘lovlar evaziga savdo markasi yoki firma nomidan foydalanish, shuningdek texnik yordam ko‘rsatish, ishchi kuchi malakasini oshirish, savdo va boshqarish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish sohalarini oladi.

XXI asrga kelib jahon iqtisodiyotida boshqaruv va marketing xizmatlarini ko‘rsatish kabi TMKlar ekspansiyasini shakli keng tarqaldi. Boshqaruv xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha shartnomaga muvofiq, korxonani operativ nazorat qilish ma’lum to‘lovlar evaziga boshqa korxonaga berildi. Texnik va marketing xizmatlarini ko‘rsatish haqidagi shartnomaga ko‘ra, TMKlar ushbu firma faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan texnik xizmatlarni amalga oshiradi. Bunday shartnomalar mashina va uskunalarini remont qilish, “nou-xau”dan keng foydalanish bo‘yicha maslahatlar berish, fors-major holatlarini oldini olish va sifatni nazorat qilish bilan bog‘liq bo‘ldi.

Jahon iqtisodiyotida hozirgi kunda korxonalarini (ishlab chiqarish obyektlarni) “kalit ostida” topshirish haqidagi shartnomalar ham keng tarqalmoqda. Bunda TMK ma’lum obyektni qurish va rejallashtirish uchun zarur bo‘lgan barcha ish faoliyatni amalga oshirish javobgarligini o‘z bo‘yniga oladi.²⁹

²⁹ T.YU.Klichev. “Perspektivi razvitiya transnatsionalnix korporatsiy na mirovom rynke”// Rossiyskoe predprinimatestvo. – 2014 g.- №13.

6.3. Xalqaro TMKlarning tashkil topishi va shakllanish bosqichlari hamda rivojlanishi

TMKlarning iqtisodiy rivojlanish tarixini zamonaviy ko‘rinishda bir nechta bosqichga bo‘lish mumkin. Jalon xo‘jalligi holatining XIX asr o‘rtalaridan boshlab hozirgi vaqtgacha bo‘lgan keng miqyosdagi o‘zgarishlariga (mustamlakaga aylantirish, mustamlakadan chiqarish, jahon urushlari, “sovuq urush” davrlari, ilmiy-texnika inqilobi, sanoatni zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minalash davri, resurslar uchun raqobat kurashi, rivojlanayotgan va sobiq Ittifoq mamlakatlari iqtisodiyoti modernizatsiyasi, globallashtirish, sanoatlashtirish, yaqin koinotni o‘zlashtirish va h.k.) bo‘lgan reaksiyasi TMKlarning bir nechta avlodini umumlashtiruvchi mezoni hisoblanadi.

TMKlarning tashkil topish sabablari turlichadir. Ularning aksariyat qismi obyektiv xususiyatga ega bo‘lib, ba’zilari bozor mexanizmlarining mukammal emasligi bilan bog‘liq. Uning asosiy omillari orasida quyidagilarni alohida ajratish mumkin:

- ishlab chiqarish va kapitalni xalqarolashtirish;
- kapital va ishlab chiqarish faoliyatini umumjahon miqyosida konsentratsiyalashga yetaklovchi kuchli raqobat;
- kapital, tovarlar, xizmatlar, odamlarning harakatlanishi uchun davlat chegaralari ahamiyatining pasaytirilishi;
- xalqaro savdo yo‘lidagi to‘silqlar (valuta nazorati);
- transport xarajatlari;
- soliq qonunchiligidagi farqlar.

Zamonaviy xalqaro turdagи xalqaro korporatsiyalarning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari quyidagilardan iboratdir:

Birinchi bosqich – yirik xalqaro korporatsiyalar shakllanishining ilk bosqichini, biz shartli ravishda, XIX asrning o‘rtalari – 1914-1918-yillardagi Birinchi jahon urushining boshlanish davriga taqqoslaymiz. Bu - yirik sanoat va moliyaviy monopoliyalar, qudratli klanlarni yaratish, mineral resurslarga ega bo‘lgan ko‘plab mustamlakalarni bo‘lib olish uchun buyuk davlatlarning kurashi; shuningdek, qazib olish, kimyo sanoati, mashinasozlikdagi yutuqlar bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy-texnik taraqqiyotning yangi pog‘onasining yaratilishi; eng asosiysi esa, elektr quvvati, telegraf va telefonning joriy etilish davridir.

Ishlab chiqarishni kooperatsiyalashtirish, asosan, vertikal tamoyil bo‘yicha qurilar edi, ya’ni xomashyoni qazib olishdan tayyor mahsulot

ishlab chiqarishgacha bo‘lgan barcha jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu kompaniyalar shakli bo‘yicha tarmoqda deyarli monopoliya holatini egallab turuvchi yirik korporatsiyalar va ularning birlashmalarini (trestlar, sindikatlar, kartellar) ifodalar edi.

Bu borada, amerikalik iqtisodchi B.Seligmen quyidagicha fikr bildirgan: “XIX asrning oxirgi choragida, Amerika biznesida uch kishi hukmronlik qilgan va ularning har biri o‘z faoliyat sohasiga ega bo‘lgan. “Po‘lat” – Karnegiga, “neft” – Djon Devison Rokfellerga (1870-yilda “Standard Oil” kompaniyasini tashkil qilgan), “Uoll Strit” esa – Dj.P.Morganga tegishli bo‘lgan”.

Ikkinchи bosqich - korporatsiyalar faoliyat sohasini xorijiy davlatlariga chiqarish hisobiga uni kengaytirgan, ya’ni Birinchi va Ikkinchи jahon urushlari oralig‘idagi davr (1918 – 1939-yillar). Ushbu davrda neft va boshqa mineral xomashyoning qazib olinishi, po‘lat, mashina va jihozlar, qurol-yaroq va harbiy texnikani ishlab chiqarish manfaatlarning asosiy doirasi bo‘lgan. Qazib oluvchi korxonalarini mustamlakalar va mandat bilan idora qilingan hududlarda joylashtirishni davom ettirar, mashina va jihozlar ishlab chiqarishni AQSH va Yevropadagi rivojlangan davlatlariga ko‘chirish amalga oshirilar edi. Ushbu bosqich, AQSHni, ya’ni davlatning tartiblashtiruvchi o‘rnini mustahkamlash va xususiy tadbirkorlik faoliyatining ko‘pchilik sohalarini o‘z nazorati ostiga olishga majbur qilgan “Buyuk depressiya” degan nom bilan atalgan edi. AQSH Prezidenti F.Ruzvelt davrida bank qo‘yilmalarini sug‘urtalash tizimi joriy etildi, ijtimoiy sug‘urta tizimi takomillashtirildi, fond bozorining tartiblashtirilishi kuchaytirildi, bir qator mahsulotlarga kafolatlangan minimal narxlar belgilandi. AQSH va Yevropadagi yirik TMKlarning faoliyati ko‘pincha davlat nazorati ostida rivojlanib borgan.

Uchinchi bosqichning boshlanishini biz, hozirgi kungacha o‘z mohiyatini yo‘qotmagan xalqaro institutlarning (BMT, XVF, Jahon banki, JST (GATT – tariflar va savdo bo‘yicha bosh bitim) shakllanishi, ikki qutbli dunyoni yaratish (sobiq Ittifoq va AQSH), Buyuk Britaniya, Fransiya kabi yirik mustamlaka imperiyalarining parchalanishi va ularning avval hukmronlik qilgan davlatlar birin-ketin o‘z mustaqilligiga erishishi bilan bog‘liq bo‘lgan urushdan keyingi davr (1945-yil) bilan bog‘laymiz.

Ushbu uchinchi bosqich 1970-yillarda xalqaro xo‘jalik tizimining to‘liq isloh qilinishi bilan yakunlandi. Ko‘plab g‘arb mutaxassislari

ushbu bosqichni “rivojlangan davlatlar farovonligining oltin asri” deb atashadi. Haqiqatan ham, ushbu bosqich yillarda YAIMning aholi jon boshiga o’sishining eng yuqori sur’ati, umumiyligini iqtisodiy barqarorlik, inflatsiya va ishsizlikning past darajasi hamda jahon xo‘jaligida ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan “iqtisodiy mo‘jiza”ga erishildi. Ushbu yillarda Yaponiya va Germaniyada fan-texnika inqilobi ro‘y berdi.

Mazkur davrda, Yuqorida qayd etilgan xalqaro institutlardan tashqari, keyinchalik Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT) – “Boylar klub”ga aylangan Yevropa Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti tashkil etilgan edi. Yevropada Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati (YIH) shakllandi. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasida integratsion jarayonlar rivojvana boshladi. Mazkur davrda xalqaro milliy korporatsiyalar importni o‘zaro almashtirish va shaxsiy ishlab chiqarish asoslarini yaratish tamoyiliga amal qilishni qabul qilgan “Uchinchi dunyo mamlakatlari” (rivojlanayotgan) deb nomlanuvchi davlatlarning ko‘pchiligi sanoatlashtirish davriga asta-sekin kirib bordi.

Rivojlangan mamlakatlarning korporatsiyalari yordamida “Uchinchi dunyo mamlakatlari”da metallurgiya, kimyo, avtomobilsozlik kabi sanoat tarmoqlarida korxonalar qurildi hamda eng muhim ushbu hududlarda foydali qazilmalarning yangi konlari topilib arzon xomashyo resurslari qazila boshlandi. Chet el korporatsiyalari fan va sanoatning eng yangi tarmoqlari hisoblangan – atom energetikasi, elektronika, kosmos, zamonaviy asbob-uskuna kabi sohasidagi ilmiy-texnik yutuqlarning tarqatuvchisi edilar. Ushbu bosqich elektron-hisoblash mashinalari, keyin esa kompyuterlarni joriy etish va keyinchalik, ulardan foydalanish imkoniyatini bergen buyuk kashfiyotlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liqdir.

1947-yilda AQSHda kompyuterlar sanoqli miqdorda bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik ularning soni 1955-yilda 250 dona, 1968-yilga kelib 70 ming donagacha ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘ldi. 1971-yilda kompyuterning to‘laqonli markaziy protsessor bloki sifatida ishlay oladigan birinchi mikroprotsessor – chipdagi sxemalar to‘plami yaratildi. “Intel” kompaniyasi tomonidan chiqarilgan birinchi mikroprotsessor 2200 dona tranzistordan iborat bo‘lib, u bilan solishtirilishi mumkin bo‘lgan yarim-o‘tkazgichli chipning to‘rt yil avvalgi narxiga qaraganda ikki baravar arzon edi.

To‘rtinchi bosqichni XX asming 70-yillarini boshlanishi – 1980-

yillarning oxiri deb belgilaymiz. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda amal qilgingan “Bretton-Vuds tizimi faoliyatining barbod bo‘lishi, xalqaro valuta-kredit va moliyaviy munosabatlarning erkinlashtirilishi, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy inqirozlarning ketma-ketligi bilan bog‘lash mumkin. Ushbu bosqichda xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish xususiyatlariga bir qator rivojlanayotgan mamlakatlarda amalga oshirilgan qazib olish va qayta ishslash tarmoqlarining milliylashtirilishi muhim ta’sir ko‘rsatdi. Arab mamlakatlari tomonidan, Arab-Isroil urushida Isroilni qo‘llab-quvvatlaganligi uchun AQSHga neftni yetkazib berishga kiritilgan embargo jahon xo‘jaligining rivojiga sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Buning natijasida 1973-yilda dollar kursining pasayishi fonida neft va boshqa xomashyolar narxining to‘rt barobarga o‘sib ketishi, OPEKning tashkil topishida namoyon bo‘lgan hamda neft qazib oluvchi mamlakatlarning talablarini mustahkamlanishiga olib kelgan energetik inqirozning kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Buning natijdasida jahon xo‘jaligida “Birinchi jahon neft inqirozi” ro‘y berdi.

Beshinchi bosqich esa, XX asrning 90-yillari va XXI asrning boshlariga to‘g‘ri kelib, jahonning ko‘plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ham ilm va fanga asoslangan yirik TMKlar shakllanib bormoqda. Ayniqsa, zamonaviy bir qator rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotning vujudga kelishi hamda innovatsion g‘oyalar asosida minglab kompaniyalar o‘zlarining ishlab chiqarish jihatlarini zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi bilan bir davrda moslab bormoqdalar.

Yirik TMKlar ko‘plab yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlanayotgan Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga ko‘chirishmoqda (masalan, Yaponianing bir qator kompaniyalari Xitoya ko‘chirilishi va ular tomonidan “Made in China for Japan” yoki “Made in China for Yevro” hamda “Made in China for USA” tamg‘alari asosida mahsulotlar ishlab chiqarilishini misol qilish mumkin). Ushbu davrda jahon xo‘jaligida zamonaviy ilg‘or texnologiyalarni joriy qilinishi va ular yil sayin takomillashib bordi, ilmiy-texnika taraqqiyotining ta’sirida jahon xo‘jaligining iqtisodiy va moliyaviy tuzilmalarida chuqr o‘zgarishlar yuz beradi va dunyodagi barcha texnologik jarayonlarga ta’sir ko‘rsatgan kompyuter texnologiyasi inqilobining boshlanishi bo‘ldi.

6.1 - jadval

Jahon xo‘jaligida yirik korporatsiyalarning shakllanish bosqichlari

T/r	TMKning shakllanish bosqichlari	Bosqich davrlari	Xususiyatlari
1.	Birinchi bosqich	XIX asrning o‘rtalaridan – Birinchi jahon urushiga-cha (1914-1918-yillar)	Bu bosqich – yirik sanoat va moliyaviy monopoliyalar, qudratli klanlarni yaratish, mineral resurslarga ega bo‘lgan ko‘plab mustamlakalarni bo‘lib olish uchun buyuk davlatlarning kurashi, shuningdek, qazib olish, kimyo sanoati, mashinasozlikdagi yutuqlar bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy-texnik taraqqiyotning yaratilgan davridir.
2.	Ikkinchchi bosqich	1918-1939-yillar	Ushbu davrda neft va boshqa mineral xomashyoning qazib olinishi, po‘lat, mashina va jihozlar, quroq-yaroq va harbiy texnikani ishlab chiqarish manfaatlarning asosiy doirasi bo‘lgan.
3.	Uchinchi bosqich	1945-yildan – 1970-yilgacha	Ushbu bosqich, elektron-hisoblash mashinalari, keyin esa kompyuterlarni joriy etish va keyinchalik, ulardan foydalanish imkoniyatini bergen buyuk kashfiyotlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘ldi.
4.	To‘rtinchchi bosqich	XX asrning 70-yillarini boshlanishi – 1980-yillarning oxiri	Ushbu davrda, mahsulotlar (tovarlar), xizmatlar, kapitallar xalqaro oqimlarinining tezlashishi va XIMning umumiy erkinlashtirilishi ta’siri ostida, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida eksportga yo‘naltilgan milliy taraqqiyot modellarining shakllanishi boshlandi.
5.	Beshinchchi bosqich	XX asrning 90-yillari-XXI asrning boshlari	Ushbu davrda jahon xo‘jaligida zamonaviy ilg‘or texnologiyalarni joriy qilinishi va ular yil sayin takomillashib bordi, ilmiy-texnika taraqqiyotining ta’sirida jahon xo‘jaligining iqtisodiy va moliyaviy tuzilmalarida chuqr o‘zgarishlar yuz beradi va dunyodagi barcha texnologik jarayonlarga ta’sir ko‘rsatgan kompyuter inqilobi davri yuzaga keldi.

Manba: ushbu jadval ma’lumotlar asosida ishlab chiqildi.

6.4. Xalqaro korporatsiyalarning mohiyati, tuzilmasi va ko‘rinishlari

TMKlar o‘z tarkibiga bosh boshqaruvchi markaz orqali rivojlanishning umumiy strategiyasini ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi, ikki yoki undan ortiq mamlakatda xo‘jalik birliklariga ega bo‘lgan, shuningdek, katta miqdorda xorijiy aktivlarga ega xalqaro kompaniyalar ekspertchi-mutaxassislar tomonidan transmilliy korporatsiya (TMK) nomini olgan.

Jahon iqtisodiyotining o‘ziga xos “umurtqa pog‘onasi” bo‘lgan mazkur zamonaviy TMKlarning alohida xususiyatga ega bo‘lgan belgilari quyidagilar hisoblanadi:

- ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko‘rsatish faoliyatining katta qismini bosh shtab-kvartira joylashgan mamlakat iqtisodiy hududi chegarasidan tashqariga olib chiqish;
- turli davlatlarda shahobchalar, sho‘ba va uyushma kompaniyalarning katta tarmog‘ini shakllantirish;
- iqtisodiy faoliyatni samarali istiqbollash va rejalashtirish sharoitida tashqi va ichki investitsiyaviy oqimlarni boshqarish;
- kapitallar, ishchi kuchi, axborot ko‘chishi (transferti)ning firma ichkarisidagi kanallarining ko‘pligidir.

Ishlab chiqarish quvvatlarini va servis markazlarini jahonning turli hududlariga bo‘lib-bo‘lib joylashtirish (diversifikatsiyalash). Bunday korporatsiyalarga xalqaro mehnat taqsimoti shartlari va ichki milliy bozor xususiyatlaridan kelib chiquvchi ustunliklardan foydalanish hisobiga katta daromad olish imkoniyatini beradi.

TMKning namunaviy tuzilmasini – bosh kompaniya (ushbu mamlakatda ro‘yxatdan o‘tgan korporatsiyaning bosh shtab-kvartirasi) va boshqa davlatlarda joylashgan shahobchalar, sho‘ba va uyushma kompaniyalar tizimi tashkil qiladi. Ko‘pincha TMK tuzilmasiga moliya-kredit muassasalari (banklar, investitsiya fondlari va sug‘urta kompaniyalari) ham kiritilishi mumkin. Bundan tashqari, yirik xalqaro korporatsiyalar odatda o‘zining muhofaza xizmati, malakali kadrlar treningi, transport va boshqa xizmatlariga ega bo‘lishadi.

Shahobchalarning sho‘ba korxonalardan farqi shundaki, ular o‘z balansi va iqtisodiy mustaqillikka ega emas. Uyushma kompaniyalarga kelsak, ular bosh kompaniya tomonidan odatda shartnoma

munosabatlari tizimi (pudrat, trast kabilar) orqali nazorat qilinadi. TMK ko‘rinishlari tanlangan mezonga bog‘liq ravishda turlicha toifalanadi. Eng keng tarqalgan xalqaro korporatsiyaning bosh tuzilmasi nizom jamg‘armasidagi kapital ulushini belgilovchi milliy mansublik belgisi hisoblanadi.

Bu holatda quyidagilarni alohida ajratib ko‘rsatish joiz:

- monomilliy kompaniyalar (milliy kompaniya, masalan, Shvetsariyadagi “Nestle” konserni);
- multimilliy kompaniyalar (baynalmilal kompaniya, masalan, ingliz-golland “Rooyal Datch Shell” korporatsiyasi);
- konsorsiumlar (uzoq muddatli kapital sig‘imli loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun bir necha korporatsiyalar aktivlarining bir qismini vaqtinchalik birlashtirish maqsadida yo‘naltirish).

Xalqaro korporatsiyalarning *boshqaruv tuzilmasi* bosh kompaniya va bir necha turga bo‘linuvchi hamda maqomi bo‘yicha farqlanuvchi qator xorijiy bo‘limlarning (filial) o‘zaro harakatlanish asosida tashkil qilinadi:

- bo‘linmalar – ularning 100 foiz kapitali bosh kompaniyaga tegishli va ular, qabul qiluvchi davlatning qonunlari bo‘yicha yuridik shaxs hisoblanmaydilar;
- sho‘ba kompaniyalar – qabul qiluvchi davlatning qonunlari bo‘yicha shaxsiy balansga ega bo‘lgan yuridik shaxs hisoblanib, ularning faoliyatini nazoratini olib boruvchi ulush bosh kompaniyaga tegishli bo‘ladi;
- uyushma (assotsiatsiyalashgan) kompaniyalar – xuddi shunday faoliyat yuritayotgan davlatining qonunchiligi bo‘yicha yuridik shaxs bo‘lib, bosh kompaniya bilan bitim asosida bog‘liq va bunday kompaniyaning faoliyati, umuman olganda, mustaqil xususiyatga egadir.

Yetakchi korporatsiyalarning xorijiy investitsiyaviy faoliyati, hozirgi vaqtda quyidagi bir qator muhim yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimlanadi:

- “triada” ichidagi yetakchi mamlakatlarning o‘zaro investitsiyalari: AQSH – Yaponiya – G‘arbiy Yevropa;
- rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan va o‘tish davri mamlakatlariga investitsiyalar;

– rivojlanayotgan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakat-larga investitsiyalarga taqsimlanadi.

Oxirgi ikki yo‘nalish, ayniqsa, bizning davrimizda faollashdi va rivojlanayotgan mamlakatlardagi TMKlarning jahon arenasiga chiqishi bilan bog‘liqdir. Tarmoq tuzilmasining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, xorijiy investitsiyalarning eng katta oqimi: elektronika va elektr texnika sanoati; avtomobilsozlik; neftni qayta ishlash; kimyo; farmatsevtika; oziq-ovqat; xizmatlar kabi sohalarga yo‘naltirilgan.

6.5. Jahon xo‘jaligida transmilliy korporatsiyalarning roli

Transmilliy korporatsiyalarda kapitalning harakati, odatda, korporatsiya joylashgan davlatda bo‘layotgan jarayonlardan mustaqil ravishda sodir bo‘ladi. Xalqaro biznes uchun TMKlarning ahamiyati juda ham katta, chunki ular bir vaqtning o‘zida, xalqaro bozordagi asosiy subyekt va asosiy harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi.

Xalqaro korporatsiyalarning roli haqida quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha fikr yuritish mumkin: 2018-yilda ularning xorijiy filiallarida ishlab chiqarilgan qo‘sishimcha qiymat 8,6 trln. dollarni tashkil etdi. TMKlar xorijiy tuzilmalarining sotuv hajmlari 1990-yildan 2018-yilgacha bo‘lgan davr mobaynida 7 baravardan ortiqroqqa, ya’ni 5,1 trln.doll.dan 38,2 trln. dollargacha oshdi.

Sotuv yoki YaIM hajmlari 50 mlrd.dollardan oshiq bo‘lgan dunyodagi 172 ta xo‘jalik subyektlaridan 112 tasi TMK tomonidan, qolgan 60 tasi davlat tomonidan ifodalangan. Bunda nisbatan yirik bo‘lgan TMKlarda kapitalning konsentratsiyalashuvi kuzatilmoqda. YUNKTADning ma’lumotlariga ko‘ra, 1995-yildan 2018-yilga qadar, jahon YaIM 157 foizga oshganda, 100 ta eng yirik TMKning xorijiy aktivlari 219 foizga oshgan. TMKlar jahondagi erkin kapitalning 80 foizini nazorat qiladi va milliy iqtisodiyotlar uchun asosiy investor hisoblanadi. Ular xalqaro kapitalning iste’mochilar sifatida ham namoyon bo‘ladi.

6.2 - jadval

Jahon iqtisodiyotida eng yirik kapital qo‘yilmalariga ega bo‘lgan TMKlar reytingi (2020-y.)

T/r	Jahondagi yirik TMKlar	Mamlakat nomi	Kapital miqdori (mlrd.dollarda)
1	Microsoft	AQSH	905,0
2	Apple	AQSH	896,0
3	Amazon	AQSH	875,0
4	Alphabet (Google)	AQSH	817,0
5	Berkshire Hathaway	AQSH	494,0
6	Facebook	AQSH	476,0
7	Alibaba	Xitoy	472,0
8	Tensem	Xitoy	438,0
9	Jonson &Johnson	AQSH	372,0
10	Exxon Mobil	AQSH	342,0

Manba: ushbu jadval

<https://www.google.com/amp/s/biz.liga.net/amp/ekor/> ma’lumotlari asosida ishlab chiqildi.

6.2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2020-yilga kelib jahondagi eng yetakchi 100 ta TMKlar ro‘yxatini AQSH, Xitoy va Buyuk Britaniya mamlakatlarining TMKlari boshqarib borishmoqda. Eng yuqori yetakchi 10 ta TMKlar ro‘yxatida esa 8 tasi AQSHga va 2 ta Xitoyga tegishlidir. 6.3-jadvalda esa dunyoning eng qimmat brendlariiga ega bo‘lgan yetakchi TMKlar reytingi berilgan bo‘lib, unda ham AQSHning TMKlar yetakchilik qilayotganini ko‘rish mumkin.

Jahondagi nufuzli “PricewaterhouseCoopers” kompaniyasining ma’lumotiga ko‘ra, dunyoning eng oldi 100 ta TMKlarning jahon iqtisodiyotidagi kapital qo‘yilmalarini umumiyligi miqdori 21,1 trln. dollarga etganligini va bu jahon iqtisodiyotida TMKlar faoliyati bo‘yicha iqtisodiy rekord ko‘rsatkichdir. Ushbu yetakchi 100 ta kompaniyalarning 54 tasi AQSHga tegishli bo‘lib, ularning umumiyligi kapital qo‘yilmalari miqdori - 13,3 trln. dollar; 15 tasi Xitoyga tegishli

bo‘lib, ularning umumiy kapital qo‘yilmalari miqdori – 3,2 trln. dollar va 6 tasi Buyuk Britaniyaga tegishli bo‘lib ularning umumiy kapital qo‘yilma miqdorlari – 870 mlrd.dollarni tashkil qiladi³⁰.

TMKlar bo‘yicha berilgan iqtisodiy ko‘rsatkich tahlillaridan ko‘rinib turibdiki, TMK va ularning bo‘limlarining soni XX asrning so‘nggi dekadasida ancha o‘sgan, ya’ni qariyb 10 yildan oshiq vaqt mobaynida, bosh kompaniyalarning soni 74 foizga oshgan, filiallar soni esa shu vaqtning o‘zida 6 barobarga ko‘paygan. Agarda 1991-yilda bitta korporatsiyaga xorijdagi filiallar soni o‘rta hisobda 4,5 tani tashkil qilgan bo‘lsa, 2003-yilda bu ko‘rsatkich salkam 15 tani tashkil etgan ekan. Shuning uchun ham, jahon iqtisodiyotida TMKlar faoliyatining eng gurkirab o‘sgan davrini XX asrning 90-yillari deyilishi beziz emas, albatta.

6.3 - jadval

Dunyoning “Eng qimmat brend TMKlar reytingi” (2020y.)

T/r	Jahondagi yirik TMKlar	Kapital miqdori (dollarda)	2019-yilga nisbatan (foizda)
1	Apple	241,2	+17
2	Google	207,5	+24
3	Microsoft	162,9	+30
4	Amazon	135,4	+40
5	Facebook	70,3	-21
6	Coca-Cola	64,4	+9
7	Disney	61,3	+18
8	Samsung	50,4	-5
9	Louis Vuitton	47,2	+20
10	McDonald’s	46,1	+5

Manba: jadval “Forbes Global 2000 (2020)” ma’lumotlari asosida ishlab chiqildi.

TMKlarning soni yuqori sur’atlar bilan o‘sib bormoqda. Ularning ko‘pchiligi sanoat kompaniyalaridir (“Toyota Motor Corporation”, “Ford Motor Company”, “General Electric” kabilar). Yirik bo‘lgan TMKlar o‘zining iqtisodiy salohiyati bilan ba’zi bir mamlakatlarning

³⁰ <https://www.google.com/amp/s/biz.liga.net/amp/ekor/ekonomika>

budgetidan oshiq budgetga egadir. 2020-yilning 30-aprel holatiga ko‘ra, AQSHning “Forbes” moliya-iqtisod jurnalida chop etilgan “Dunyoning eng yirik TMKlar reytingi”da eng yuqori yetti o‘rinning 4 tasi Xitoy, 2 tasi AQSH va 1 tasi Saudiya Arabistoniga tegishli bo‘lganligini ko‘rshimiz mumkin va ularning kapital miqdorlarini 6.4-jadval orqali ko‘rshimiz mumkin.

6.4 - jadval
Dunyoning eng yirik TMKlarning reytingi (2020-y.)

T/r	Jahondagi yirik TMKlar	Mamlakat nomi	Bozordagi sotuv miqdori
1	ICBC (Xitoy sanoat va tijorat banki)	Xitoy	177,2
2	China Construction bank	Xitoy	162,1
3	JP Morgan Chase	AQSH	142,9
4	Berkshire Hathaway	AQSH	134,7
5	Agricultual Bank of China	Xitoy	129,4
6	Saudi Arabian Oil Company (Saudi Aramco)	Saudiya Arabistoni	127,5
7	Ping An Insurance Group	Xitoy	124,1

Manba: The World Largest Public Companies. Retrieved July 5, 2020 from.

Alovida mamlakatlarning YaMMning TMK orqali har yilgi sotuvlari hajmi solishtirilganda, “General Motors” Shvetsariya, Pokiston va JAR dan, Royal Dutch Shell esa Eron, Venesuela va Turkiyadan ko‘ra boyligi aniqlandi. AQSHning “Wal-Mart” TMKsi ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha Polsha, Isroil va Gretsiya ishlab chiqarishlarining umumlashtirilgan hajmidan ham oshib ketgan. Yaponiyaning “Mitsubishi” kompaniyasi xuddi shu parametrda: o‘zining ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha va aholi soni bo‘yicha jahonda to‘rtinchchi o‘rinni egallab turuvchi Indoneziyadan o‘zib ketgan.

Bob yuzasidan xulosa

Yuqorida berilgan fikrlardan kelib aytish mumkinki, transmilliy

korporatsiyalar – bu yirik xorijiy aktivga ega bo‘lgan milliy monopoliyalardir. Ularning ishlab chiqarish va savdo-iqtisodiy faoliyatları bir davlat chegarasidan chiqib ketadi. TMKlarning bo‘limlari va sho‘ba korxonalari aralash korxonalar ko‘rinishida ham bo‘lishi va ularda milliy kapital ustunlik qilishi ham mumkindir.

Shunday qilib bugungi kunda TMKlar iqtisodiy va ilmiy salohiyatining o‘sishi, ularni butun jahon xo‘jalik aloqalarining majmuyiga ta’sir etish darajasining kuchayishi kuzatilmoxda. TMK ta’siri yetarli darajada qarama-qarshi va bir xil emas. Demak, TMKlarning iqtisodiyotda moliyaviy salohiyati jihatidan yirik kompaniyaga aylanishi ularning yaqin kelajak yillarda xalqaro moliya sektorini egallashiga shubha yo‘qdir.

Nazorat savollari

1. TMK nima va ularga qanday kompaniyalar kiradi?
2. Jahon iqtisodiyotida TMK faoliyatining ijobiyligi va salbiy tomonlari nimalardan iborat?
3. Jahon xo‘jaligida TMKlar qanday vujudga keldi?
4. Jahon xo‘jaligida TMKlar faoliyati qanday rivojlandi?
5. Jahon xo‘jaligida TMKlar faoliyatining qanday asosiy xususiyatlari mavjud?
6. TMKlarga qanaqa turdagidan yoki toifadagi kompaniyalar kiradi?
7. Xalqaro TMKlarning shakllanishidagi asosiy omillarni ayting.
8. TMKlar rivojlanishining 1-bosqich davrini sharhlab bering.
9. TMKlar rivojlanishining 2-bosqich davrini sharhlab bering.
10. TMKlar rivojlanishining 3-bosqich davrini sharhlab bering.
11. TMKlar rivojlanishining 4-bosqich davrini sharhlab bering.
12. TMKlar rivojlanishining 5-bosqich davrini sharhlab bering.
13. Xalqaro korporatsiyalar qanday mohiyatga ega?
14. Xalqaro korporatsiyalarning tashkiliy tuzilmasini ayting.
15. Xalqaro korporatsiyalarning qanday ko‘rinishlari mavjud?
16. TMKlarni paydo bo‘lishiga qanday sabablar mavjud?
17. TMKning boshqaruv tuzilmasini ifodalab bering.
18. Xalkaro kapital migratsiyasida TMKlarning rolini ayting.
19. Rivojlanayotgan mamlakatlarni iqtisodiy rivojlanishida TMKlarning roli qanday kechadi?

Uyga vazifa!

Talabaning “Xalqaro korporatsiyalar va ularning jahon iqtisodiyotida tutgan o‘rni” mavzusini chuqur o‘zlashtirishi hamda amaliyot darsiga puxta tayyorgarlik ko‘rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

1. Mavzu so‘ngida berilgan “Nazorat savollari”ga tayyorgarlik ko‘rish;
2. Xorijiy mamlakatlarning TMKlari faoliyati (tanlama ravishda) bo‘yicha talabalar guruhlarga bo‘lingan holda “taqdimot” o‘tkaziladi.

VII BOB. XALQARO KAPITAL MIGRATSIYASI

- 1. Xalqaro kapital migratsiyasining (olib chiqilishi) mohiyati.**
- 2. Kapital eksporti - xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ilg‘or shakli sifatida.**
- 3. Kapital eksportining asosiy shakllari va uning o‘ziga xos tomonlari.**
- 4. Kapitalning harakat shakllari.**
- 5. Milliy iqtisodiyotda investitsiya siyosatining shakllantirish omillari.**

Tayanch iboralar: kapital, xalqaro kapital, kapital migratsiyasi, daromad, kapital eksportyori, kapital importyori, investitsiya, to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar, portfel investitsiya, real investitsiya, qimmatbaho qog‘oz, obligatsiya, veksel, zayom, aksionerlik jamiyati, ssuda, xalqaro ssuda kapital bozori.

7.1. Xalqaro kapital migratsiyasining (olib chiqilishi) mohiyati

Xalqaro kapital harakati – bu kapitalni chet elda, birinchi navbatda, foyda olish maqsadida joylashtirish va ishlatalishdir. Bunda “kapital” so‘zining iqtisodiy termini zaminida faqat ishlab chiqarish omili sifatida kapitalning o‘zi emas, shuningdek, unda qisman bo‘lsada mehnat, yer va tadbirkorlik qobiliyati ham tushuniladi. Chunki chet elda kapital sarflanganda ularni bir-biridan ajratish jarayonida ba’zi qiyinchiliklarga duch kelinadi.

Chet elga kapital chiqarish (kapital olib chiqish) shunday bir jarayonki, uning davomida bir mamlakatning milliy muomalasida bo‘lgan kapitalning bir qismi chiqarib olinadi, va shuningdek, turli shakllarda (mahsulot yoki pul) ikkinchi bir davlatning ishlab chiqarish jarayoniga va muomalasiga kiritiladi. Shunga ko‘ra, kapitalning xalqaro harakati mamlakatlar o‘rtasidagi kapitallar migratsiyasidan iborat bo‘lib, u o‘z egalariga daromad keltiradi. Demak, **xalqaro kapital migratsiyasi** – kapital egasi uchun foyda keltiruvchi, davlatlar orasidagi qarama-qarshi harakatdir. Har bir davlat bir vaqtning o‘zida kapitalning importyori va eksportyori bo‘lib hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotida katta foyda uchun kapital olib chiqishning

eng muhim sabablari quyidagilardan iboratdir:

- kapital olib chiqilayotgan davlatda uning ortiqcha to‘planganligi;
- jahon xo‘jaligining turli zvenolarida kapital talabi va taklifining mos kelmasligi;
- mahalliy bozorni monopollashtirish imkoniyati mavjudligi;
- kapital eksportini qabul qiluvchi davlatda arzon xomashyo va ishchi kuchining mavjudligi;
- barqaror siyosiy holat va umuman qulay investitsion muhitning mavjudligidir.

7.2. Kapital eksporti – xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ilg‘or shakli sifatida

Kapitalni xorijga chiqarish bilan uning davlatlar orasidagi faol migratsiyasi zamonaviy jahon xo‘jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning eng muhim ajratib turuvchi tomoniga aylandi. Kapitalni xorijga olib chiqish jahon xo‘jaligining chuqur rivojlanishi davrida tovar olib chiqish monopoliyasini sindirdi. Tovar olib chiqishni to‘ldiruvchisi va uning vositachisi bo‘lib, kapital olib chiqish xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida aniqlovchi omilga aylanib bormoqda.

Jahon iqtisodiyotida kapital olib chiqish ma’lum bir milliy davlat o‘z aylanmasidan bir qism kapitalni olib, uni boshqa bir davlatning ishlab chiqarish jarayoniga va aylanmasiga tovar yoki pul ko‘rinishida joylashtirishida namoyon bo‘ladi. XX asrning 50-yillarida kapital olib chiqish jarayoni jahon xo‘jaligida kapitalni eksport qiladigan kam sonli sanoati rivojlangan davlatlarga xos bo‘lgan edi xolos. Kapital chiqarish har qanday muvaffaqiyatli, iqtisodiy o‘sishi dinamik rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining vazifasi bo‘lib qoldi. XXI asrning boshlariga kelib esa, kapitalni ilg‘or sanoati rivojlangan davlatlar ham, o‘rtacha rivojlangan davlatlar ham, rivojlanayotgan, va ayniqsa “yangi industrial mamlakatlar” ham chiqarmoqdalar.

Kapital olib chiqishning asosiy sababi uning ma’lum bir davlatlarda “nisbatan” ortiqcha bo‘lib qolishligidir, ya’ni ishbilarmonlik asosida foyda olish yoki foiz olish maqsadida kapital chet elga chiqariladi. Kapital eksporti ichki investitsiya uchun kapital yetishmagan holda ham amalga oshirilishi mumkin. Agarda XX

asrning 90-yillarida jahon bo'yicha ortiqcha kapital 180-200 mlrd.dollarga teng deb baholangan bo'lsa, XXI asrning 10-yillariga kelib qariyb 1 trln. dollaridan oshgan edi.

Jahon xo'jaligi iqtisodiy tarixidan ma'lumki, XX asrning ikkinchi yarmidan so'ng chetga kapital chiqarish tinimsiz o'sib bordi. Kapital eksporti hozirgi kunda o'sish sur'atlari bo'yicha tovar eksportini ham, sanoati rivojlangan davlatlarda YaIMning o'sish darajasini ham orqada qoldirmoqda. Kapital olib chiqish masshtabining keskin kengayishi xalqaro migratsiyaning kuchayishiga olib kelmoqda. Jahon iqtisodiyotida investitsiya qilish zaruriyati o'zida investitsiyaviy muhitning barcha qismlarini mujassamlashtirgan sabablar majmuasi va shuningdek, ayrim bozorlarning nisbiy ustunligi tamoyillari bilan belgilanadi. Demak, kapital olib chiqishga sabab bo'luvchi va uni rag'batlantiruvchi omillar quyidagilardan iboratdir:

1. Kapital olib chiqishni faollashtiruvchi va harakatlantiruvchi kuch bo'lib, u milliy iqtisodiyotlarning o'sib borayotgan o'zaro bog'liqligi hisoblanadi. Ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi xalqaro kapital harakatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Kapital eksportining bosh omili bo'lib, u to'g'ridan to'g'ri yo'naltirilgan investitsiyalar ishlab chiqarishni xalqaro ishlab chiqarishga aylanishi va shuningdek, xalqaro mahsulot yaratishidir. Xalqaro mahsulot – global xalqaro bozorda sotiladigan mahsulotdir.

2. Xalqaro sanoat kooperatsiyasi, TMKlarning sho'ba korxonalariga qo'yiladigan qo'yilmalari.

3. Sanoati rivojlangan davlatlarning iqtisodiy o'sish sur'atlarini ushlab turish, sanoatning ilg'or sohalarini rivojlantirish, bandlik darajasini saqlash uchun sezilarli hajmda kapital jalb qilishga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosati.

4. Xorijiy kapital jalb qilish yordamida o'z iqtisodiy rivoji uchun sezilarli turtki berish, "kambag'allik darjasini doirasidan" chiqib ketishga harakat qilayotgan davlatlarning iqtisodiy o'z-o'zini tutishi.

5. Kapital oqimini yo'naltiruvchi va tartibga soluvchi xalqaro moliyaviy tashkilotlarning muhim rol o'ynashi.

7.3. Kapital eksportining asosiy shakllari va uning o‘ziga xos tomonlari

Jahon xo‘jaligidagi kapital olib chiqish asosan quyidagi shakllarga ko‘ra amalga oshiriladi:

- sanoat, savdo va boshqa korxonalarga to‘g‘ridan to‘g‘ri yo‘naltirilgan investitsiyalar;
- portfel investitsiyalar (xorijiy obligatsiyalar, aksiya, qimmatbaho qog‘ozlar);
- ssuda kapitalining sanoat va savdo korporatsiyalari, bank va boshqa moliyaviy tashkilotlariga o‘rta va uzoq muddatli kreditlari yoki zayomlari;
- iqtisodiy yordam – tekin (bepul) va imtiyozli kreditlar shaklida (foizsiz, kam foizli).

Jahon iqtisodiyotida kapital ko‘chishi va xorijiy investitsiyalar o‘rtasida aniq farq belgilangan. Kapital ko‘chishi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: xorijiy hamkorlar bilan operatsiyalar bo‘yicha to‘lovlar, zayomlar berish (5 yildan ortiq bo‘lmagan muddatda), faqat kapital joylashtirish maqsadida xorijiy kompaniyalarning aksiya, obligatsiya va qimmatbaho qog‘ozlarini sotib olish, qimmatbaho qog‘ozlar portfeli diversifikatsiya qilish va h.k.lar. Xorijiy investitsiyalar bu kapital qabul qiluvchi davlatda kompaniya ustidan nazorat o‘rnatish va uni boshqarishda ishtirok etish maqsadida kapital ko‘chirishdir. To‘g‘ridan to‘g‘ri yo‘naltirilgan investitsiyalar shaklida kapital olib chiqish – bu kapital qabul qiluvchi davlat hududida kapital eksportyori tomonidan ishlab chiqarishni tashkil etishini bildiradi. Bu shuningdek, kadrlarni tayyorlash va o‘qitish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarga raqobatchilik ta’siridir.

To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar xalqaro korporatsiyalarning jahon xo‘jaligidagi hukmronligining asosini tashkil qiladi. Ular korporatsiyalarning xorijiy korxonalariga to‘liq egalik qilishi yoki aksionerlik kapitalining amalda egalik qilishiga imkoniyat beradi. Odatda, bu shunday investitsiyalarki, bunda xorijiy investor kompaniyani aksionerlik kapitalining 25 foizdan kam bo‘lmagan miqdoriga egalik qiladi. AQSH, GFR, Yaponiya statistika boshqarmalari aksionerlik kapitalining 10 foizi va undan ko‘prog‘ini o‘ziga olgan investitsiyalarni “to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar” deb

hisoblaydi. G‘arb iqtisodichi olimi P.X.Lindertning fikriga ko‘ra, “To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar va portfel investitsiyalari orasidagi farq, avvalambor, kapital qo‘yiladigan firma ustidan nazorat qilish muammosiga borib taqaladi”.

Portfel investitsiyalar yirik korporatsiyalar, markaziy va xususiy banklar tomonidan chiqariladigan obligatsiya zayomlarini moliyalashtirish uchun xorijiy kapitalni jalg qiluvchi muhim manbadir. Xorijiy portfel investitsiyalarini jalg qilishda odatda yirik investitsion banklar vositachilik qiladi.

Jahon iqtisodiyotida o‘tgan asrning 50-yillaridan keyingi davrda kapital eksporti tarkibida sezilarli darajada o‘zgarishlar ro‘y berib, jahon xo‘jaligi rivojlanishining o‘ziga xos tomonlarini namoyon qildi. Ulardan eng muhimi 1970–1980-yillarda xalqaro kreditlarning o‘sishi va kapitalning kredit-moliya sohasini paydo bo‘lganligidir hamda jahon iqtisodiyotida ssuda kapitalining roli keskin oshganligi davri bilan jahon iqtisodiyoti tarixidan muhim o‘rin oldi.

Xalqaro ssuda kapitali bozori:

- a) pul bozori;
- b) kapital bozoriga bo‘linadi.

Pul bozori – bu asosan qisqa muddatli kreditlar (1 yilgacha) bozoridir. Bunday kreditlar odatda aylanma mablag‘lar yetishmovchilagini qoplash uchun ishlatiladi.

Kapital bozori esa o‘zida bank kreditlari va uzoq muddatli kreditlarni namoyon qiladi. Ular asosan obligatsiyalar chiqarish va sotib olishda namoyon bo‘ladilar.

Sanoati rivojlangan davlatlar tomonidan tekin (bepul) yoki imtiyozli kreditlar shaklida ko‘rsatiladigan iqtisodiy yordamni biz jahon davlatlariga yordam berish bo‘yicha dunyoda ikkinchi o‘rinda (Yaponiyadan keyin) turadigan AQSH misolida ko‘rib chiqishimiz mumkin. AQSH hukumatining “Xorijiy davlatlarga yordam xaqidagi” qonuniga muvofiq, har yili ko‘plab mintaqalarga xayriya yoki imtiyozli kreditlarini taqdim qiladi. Masalan, AQSH 1998-yilda xorijiy mamlakatlarga yordam uchun 13 mlrd.dollardan ortiq assignatsiya qilgan edi (uning 76 foizi iqtisodiy va 24 foizi harbiy maqsadlarga ajratilgan). Bu davrda kredit oluvchilar ro‘yxatida birinchi o‘rinda Isroil (3 mlrd.doll.) turgan bo‘lsa, ikkinchi o‘rinda Misr (2,1 mlrd.doll.) turgan (ko‘rsatilgan ushbu yordamning b5 foizini tekin va

35 foizini imtiyozli ko‘rinishdagi kreditlar).

Uning xorijiy mamlakatlarga yordam mablag‘i, ya’ni taqdim qilingan xayriya yoki imtiyozli kreditlar miqdori 2018-yilgacha davom etib kelgan bo‘lsa-da, biroq 2018-yildan AQSHning iqtisodiy yordam siyosatida bir qator o‘zgarishlar yuz berdi, ya’ni hukumat tepasiga kelgan AQSH Prezidenti D.Tramp AQSHning bundan keyingi iqtisodiy siyosatida beriladigan iqtisodiy yordamlar negizida AQSHning iqtisodiy-siyosiy manfaatlaridan kelib chiqib taqdim qilinishini ma’lum qildi. AQSHning xorijiy mamlakatlarga beg‘araz iqtisodiy yordamlarining ko‘rsatishidan maqsad – AQSH milliy xavsizligini ta’minalash, davlatlarga ochiq bozor iqtisodiyoti tizimini o‘rnatish va shuningdek, demokratiyani rivojlanishiga yordam berishdan iboratdir.

“Kreditor”ning ma’nosi nima? Albatta, sodda qilib aytganda qarz va mablag‘ beruvchi tushuniladi. Dunyodagi eng yirik “kreditor” mamlakat uzoq 30 yildan buyon Yaponiya mamlakati hisoblangan bo‘lsa, 2016-yilga kelib uning o‘rnini Xitoy mamlakati egalladi. Demak, bugungi kunda jahondagi “eng yirik kreditor mamlakat” hisoblangan Xitoyning dunyo mamlakatlariga bergen kredit miqdori 2 trln. dollaridan oshib ketgdi.

Jahon iqtisodiyotida kapital olib chiqish asosan sanoati rivojlangan davlatlardan olib chiqiladi. Sanoati rivojlangan davlatlar o‘rtasida ham kapitalning faol migratsiyasi ro‘y bermoqda. Sanoati rivojlangan davlatlar doirasida ro‘y berayotgan kapital migratsiyasini bir necha holatlarda ko‘rib chiqishimiz lozim:

XX asrning oxirlarida kapital migratsiyasi reytingida jahon iqtisodiyotida “Uchlik” deb atalmish davlatlar, ya’ni AQSH, G‘arbiy Yevropa va Yaponiya kabi mamlakatlar yetakchilik qilishgan bo‘lsa, XXI asrning boshlariga kelib ushbu mamlakatlar qatoriga Xitoy davlati ham qo‘sildi va jahon kapital migratsiyasi reytingida “To‘rtlik” atamasi paydo bo‘ldi.

Kapital migratsiyasi o‘z subyektlari nuqtai nazaridan makro va mikro darajalar bilan farqlanadi. Makrodaraja – bu, kapitalning davlatlararo oqimi bo‘lib, statistikada u davlatlarning to‘lov balansida tasvirlanadi. Mikrodaraja – bu, kapitalning xalqaro monopoliyalar ichida korporatsiyalar ichki yo‘nalishlari orqali ro‘y berayotgan harakatidir. Jahon tasnifida eng yirik kapital “donorlari” bo‘lib Xitoy,

Yaponiya, AQSH kabi mamlakatlar yetakchilik qilishayotgan bo'lsa, eng yirik "zayomchilar" esa AQSH, Buyuk Britaniya va Saudiya Arabistonni kabi mamlakatlar hisoblanadi.

Kapital olib chiqishning zamonaviy xususiyatlari orasida ishlab chiqarish kapitali eksportining o'sib borayotganligini alohida ajratib ko'rsatish lozim. Ishbilarmonlik faoliyatida portfel investitsiyalar qatnashishdan to'g'ridan to'g'ri yo'naltirilgan investitsiyalarga o'tdi. 1950-yillardan boshlab to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni qazib chiqarish sanoatidan endilikda qayta ishlash sanoati tarmog'iga, shuningdek, hozirgi kunda yillik hajmining kamida 50 foizdan ortig'i milliy iqtisodiyotning xizmat ko'rsatish sohalariga yo'naltirilishi ro'y bermoqda.

Jahon iqtisodiyotida XXI asr boshlarining muhim tomonlaridan biri – rivojlanayotgan davlatlar o'rtasida va ayniqsa, "Yangi industrial mamlakatlar" o'rtasida kapital migratsiyasining faollashuvidir. Kapitallar bozorida hamon neft eksportyor – davlatlari tashkiloti (OPEK) faol bo'lmoqda. Xorijiy kapitalning ahamiyatini avvalo, biz Xitoyning yuqori iqtisodiy sur'atlarda o'sishi bilan ta'minlanganligini va siyosiy barqarorligida ko'rishimiz mumkin. Xitoyning yalpi ichki mahsulot miqdori XX asrning 90-yillari va XXI asrning boshlarida o'rtacha 8-12 foizdan o'sib bordi. Xuddi shunday iqtisodiy o'sishlik darajasini ba'zi bir Osiyo "ajdarho"lari davlatlarida va shuningdek, ba'zi bir Lotin Amerikasining "Yangi industrial mamlakatlar"ida ham ko'rish mumkin.

Ekspertlarning fikricha, ayni bir paytda jahon xo'jaligidagi kambag'al davlatlar qatoriga kiruvchi ba'zi bir rivojlanayotgan mamlakatlar sanoati rivojlangan davlatlarning investorlari uchun ozroq qiziqish uyg'otmoqdalar. Bunday davlatlar qatoriga tobora kamayib borayotan to'g'ridan to'g'ri yo'naltirilgan investitsiyalar oqimi to'g'ri keladi. 2010-yillarda kam rivojlangan davlatlar qatoriga xorijiy investitsiyalarning bor yo'g'i 5 foizigina to'g'ri kelgan edi xolos.

Sanoati rivojlangan davlatlarning kapital migratsiyasiga ta'siri, milliy va davlatlararo darajada kapitalning eksport va importini rag'batlantirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Zayom, portfel investitsiyalari shaklidagi kapital ko'chishi asosan davlat siyosatining harakati yo'lidagi barcha to'siqlarni olib tashlash asosida olib borilmoqda.

Davlat tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarga nisbatan iqtisodiyotda milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan har qanday cheklanishlarni qo‘llash huquqi saqlab qolingan. Xarakterli tomoni shundaki, kapitalni xorijga olib chiqish, xorijiy kapitalni olib kirishdan ko‘ra ko‘proq tartibga solinadi.

Jahon iqtisodiyotida xorijiy kapital qo‘yilmalarini tartibga solishning muhim amaliy hujjati bo‘lib, 1994-yilda Indoneziya poytaxti Jakarta shahrida bo‘lib o‘tgan Osiyo-Tinch okeani hamkorlik tashkiloti Sammiti doirasida ishlab chiqilgan – “Ko‘ngilli kodeks”dir. Bugungi kunda Jahon savdo tashkiloti tomonidan foydalaniladigan ushbu “Kodeks”da quyidagi investitsion tamoyillar belgilab berilgan:

- donor davlatlarga diskriminatsiyasiz yondashuv;
- xorijiy investitsiyalar uchun mahalliy davlat tomonidan imtiyozli shart-sharoitlar va qulayliklarni taqdim qilinishi, ya’ni milliy rejim;
- investitsion rag‘batlantirishlar xavfsizlik va atrof-muhit himoyasi sohalaridagi talablarning kuchsizlanishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak;
- savdo va kapital sohalar cheklovchi va tartibga soluvchi investitsion talablarni minimallashtirish;
- ro‘yxatga olish va konvertatsiya imkoniyatini ta’minalash;
- kapital olib chiqishdan cheklashlarni olib tashlash;
- xorijiy investorni milliy investorlar bilan teng ravishda davlat qonunlariga, ma’muriy qoida va holatlariga rioya qilinishi;
- kelishmovchiliklarni konsultatsiyalar va muzokaralar yoki xo‘jalik sudsari orqali hal qilish.

Shunday qilib, jahon iqtisodiyoti tajribasining amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda rag‘batlantirish siyosati bozor omillariga nisbatan kamroq ta’sir ko‘rsatadi. Iqtisodiy erkinlik, bozor mexanizmlarining to‘siksiz ishlashi xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda muhim omil hisoblanadi.

7.4. Kapitalning harakat shakllari

Jahon iqtisodiyotida kapitallar chet elga quyidagi shakllarda chiqariladi:

- 1) xususiy va davlat kapitallari shaklida;
- 2) pul va tovar shaklida;

3) qisqa muddatli (odatda bir yilgacha), o‘rtalik va uzoq muddatli shakllarda;

4) ssuda va tadbirkorlik shaklida.

Sudxo‘rlik shaklidagi kapital (ssuda kapitali) mulk egasiga ko‘pincha qo‘yilgan pul, zayom (yoki qimmatbaho qog‘oz) va kreditlar bo‘yicha foiz shaklida daromad keltiradi.

Tadbirkorlik shaklidagi (tadbirkorlik kapitali) kapital asosan foyda tarzida daromad keltiradi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan shakllarni batafsilroq tahlillar asosida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Kapitalning chet elga chiqishiga asosiy sabab bo‘lgan omillar ichida uning o‘z mamlakatida – “donor mamlakat”da nisbatan mo‘l ekanligini ta’kidlab o‘tdik. Bu hol yanada ko‘proq daromad topish ilinjida kapitalni chet elga joylashtirishga hamda ham dividend shaklida va ham foiz shaklida foyda olishga imkon beradi.

Demak, chet elga kapital joylashtirish o‘z xususiyatlari va shakllariga ko‘ra hamda kelib chiqish manbalariga qarab, ular odatda ikki xil ko‘rinishda bo‘ladi:

- davlat kapitali;
- xususiy kapitalga bo‘linadi.

Davlat kapitali – xalqaro tajribada davlat tomonidan joylashtirilgan kapital bo‘lib, bu kapitallar davlat budgeti mablag‘i hisobidan yoki bevosita hukumatning, yohud hukumatlararo tashkilotlarning qaroriga binoan chet elga chiqariladi yoki chet eldan olinadi. Bular davlat zayomlari, qarzlari, grantlari (ehsonlari) yordam tariqasida bo‘lib, ularning xalqaro harakati hukumatlararo bitimlar orqali belgilanadi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan beriladigan (kredit) qarzlar va bo‘lak mablag‘lar (masalan, XVF yoki Jahon banki tomonidan berilgan qarzlari) ham kiradi.

Xususiy kapital – bu nodavlat manbalaridan olingan mablag‘ bo‘lib, u xususiy shaxslar (yuridik va jismoniy) tomonidan chet elga chiqariladi yoki chet eldan olib kelinadi. Bular jumlasiga investitsiyalar, savdo qarzlari, banklararo qarz berish kabilarni o‘z ichiga oladi. Xususiy kapitalning davlat budgetiga aloqasi yo‘q, ammo hukumat bularning harakatini kuzatib boradi va o‘z vakolati doirasida ularni nazorat qiladi hamda tartibga solib boradi. Shuningdek, amalda ba’zan davlat mablag‘larini xususiy investitsiyalarga aylantirishdek

“nozik o‘yin”lar ham uchrab turadi.

Chet elga kapital joylashtirish usuli o‘z muddatiga ko‘ra, uch xil ko‘rinishga ega:

- 1) qisqa muddatli (bir yilgacha);
- 2) o‘rta muddatli;

3) uzoq muddatli, bunda 15 yildan ko‘proq muddatga joylashtirilgan kapital uzoq muddatli hisoblanadi. Katta miqdorda qo‘yilgan kapitallar ana shu toifaga kiradi va tadbirkorlik kapitalining bevosita va bilvosita shaklidagi barcha investitsiyalari (ko‘pincha xususiy), shuningdek, ssuda kapitali (davlat va xususiy kreditlar) uzoq muddatli hisoblanadi.

Chet elga qo‘yilgan kapitallar, ulardan qanday foydalanishga quyidagi atama nomlarga bo‘linadi:

1) “Qarzga beriladigan”, ya’ni foiz shaklida daromad olish maqsadida qarzga mablag‘ berish demakdir. Bu sohada davlat va xususiy manbalardan keladigan kapitallar ancha faol ishtirok etmoqda;

2) “Tadbirkorlik uchun” degan nomlar bilan ikkiga bo‘linishi mumkin. Tadbirkorlik investitsiyalari bevosita (to‘g‘ridan to‘g‘ri) yoki bilvosita shaklida ishlab chiqarishga joylashtiriladi va ular dividend shaklida daromad olish huquqini beradi. Bu o‘rinda ko‘pincha xususiy kapital nazarda tutiladi.

XX asr boshida jahondagi yetakchi mamlakatlarda erkin kapitallar juda katta miqdorda yig‘ilib qolgan bo‘ladi. Gap shundaki, raqobat tadbirkorni kapitalni saqlab qolish uchun uni doimiy ravishda kengaytirib borishga majbur qiladi, u bunga jamg‘armani tobora ko‘paytirib borish orqaligina erishishi mumkin. Keyinchalik XX asrning yarmiga kelib, fan-texnika taraqqiyoti sharoitida jamg‘armani bunday tobora ko‘paytirib borish shunga olib keldiki, yangi ishlab chiqarilgan mahsulotning bir qismi chet el bozorida sotilgan taqdirdagina, foydali daromad olish mumkindir.

7.5. Milliy iqtisodiyotda investitsiya siyosatining shakllantirish omillari

Jahondagi milliy iqtisodiyotlarga kiritilayotgan sarmoya turining eng katta ulushi sifatida bevosita sarmoya turini alohida ta’kidlash joiz. Dunyodagi bevosita sarmoyalari hajmi jahon biznesini globallashtirish, turli davlatlar iqtisodiyotining o‘zaro aloqalari va bir-

birini boyitish jarayonini kuchaytirgan holda barqaror ravishda o'sib bormoqda.

Bevosita xorijiy sarmoyalar miqdori, mavjud ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda qariyb 3 trln. dollari miqdoridan oshgan. Biroq 2020-yilda yuzaga kelgan jahon iqtisodiy inqirozi jahon investitsiya siyosatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu iqtisodiy inqiroz jarayoni, albatta, xorijiy mamlakatlardagi investorlarning faoliyatiga va hatto ularning ish jarayonining to'xtatilishiga ham olib keldi.

Odatda kapital egalari o'zga mamlakatga sarmoya qo'yishdan oldin asosan quyidagi asosiy omillarga e'tibor qaratadi:

birinchidan, sarmoya qo'yiladigan mamlakatning iqtisodiy-geografik muhiti va uning qulayligiga;

ikkinchidan, o'sha mamlakatning tabiiy resurslariga boyligi, ya'ni arzon xomashyoga egaligi;

uchinchidan, mamlakatning siyosiy barqarorligi;

to'rtinchidan esa, eng muhimi, o'zga mamlakatning iqtisodiy qonunchilik me'yorlari va normativ-hujjatlariga e'tiborni qaratishadi.

O'z o'rnida, xorijiy investor o'z sarmoyasini o'zga mamlakatdan quyidagi holatlarda olib ketishi mumkin:

birinchidan, investor qachonki o'z biznesidan to'la-to'kis foydalanib bo'lsagina;

ikkinchidan, investorga ushbu mamlakatda uning sarmoyasiga talab yoki taklifning tugab bo'lganidan keyin;

uchinchidan, investor tomonidan ishlab chiqarayotgan mahsulotlar raqobatga bardosh bera olmasa;

to'rtinchidan esa, mamlakatda siyosiy barqarorlik mavjud bo'lmasa.

Har bir mamlakatda mahalliy va xorijiy kompaniyalarning ish faoliyatini tartibga solish maqsadida qonun va normativ-hujjatlar qabul qilinadi. Mamlakatimizda ham "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni 1998-yilda qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonuni ham 1998-yilda qabul qilingan.

"Chet ellik investorlar" tushunchasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

a) chet el davlatlarining ma'muriy yoki hududiy organlari;

b) davlatlararo bitimlar yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tashkil topgan xalqaro tashkilotlar;

d) chet el davlatlarining tashkilotlari yoki uyushmalarini tashkil qiladi.

Chet el investitsiyalarini jalg etish – milliy korxonalarga zaruriy sarmoyalar bilan zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv tajribasini kiritibgina qolmay, balki ularni jahon bozorlariga chiqishi uchun yo'l ochadi va raqobatbardosh bo'lgan milliy tovarlar va xizmatlar ko'lagini oshiradi. Bu esa o'tish davrini boshidan kechirayotgan har qanday mamlakat uchun eng muhim masala hisoblanadi.

Jahonda shunday mamlakatlar borki, milliy iqtisodiyotining ba'zi sohalariga xorijiy sarmoyadorlarni umuman "yaqinlashtirmaslik" siyosatini olib borishadi. Masalan, Saudiya Arabiston hukumati milliy iqtisodiyotning neft va gaz qazish sohasiga xorijiy sarmoyadorlarni jalg qilinishini va ularning faoliyatini qat'yan cheklab qo'ygan. KXDR esa, harbiy mudofaa sanoatiga xorijiy investorlarning jalg qilinishini va ularning faoliyatini ham qat'yan man qilgan.

BMTning sobiq bosh kotibi Pan Gi Mun 2010-yilda BMTning navbatdagi Sammitida, xorijiy investorlar faoliyati uchun "Jahondagi eng xavfsiz mamlakat" sifatida BAA mamlakatini ta'riflagani beziz emas, albatta. Haqiqatan ham bugungi kunda BAAda minglab xorijiy kompaniyalar o'z bo'limlarining faoliyatini yo'lga qo'ygan. Xorijiy sarmoyalarni jalg qilish va investorlar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib berish bo'yicha jahon reytingida 1-o'rinda Singapur turadi. Ushbu mamlakatda xorijiy investorlar o'z kapitallaridan yanada daromad olishlari uchun ko'plab imtiyozlar va shart-sharoitlarga egadir.

Aksincha, sarmoyalarni jalg qilish bo'yicha jahon reytingida eng oxirgi o'rinni Afg'oniston egallagan. Chunki, xorijiy sarmoyani jalg qilishdagi asosiy muammolari sifatida quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

- 1) mamlakatda xavfsizlik choralariga to'la barham berilmaganligi;
- 2) iqtisodiyotda korrupsiyani rivojlanganligi;
- 3) milliy iqtisodiyotning rivoji uchun iqtisodiy dastur va islohotlarni yetarli darajada olib borilmaganligi;
- 4) xalqaro tashkilotlar tomonidan iqtisodiy yordamlarni qisqartirilganliklarini alohida e'tirof etish joiz.

2019-yilda dunyoga mashhur bo'lgan "Ernest end Yang" kompaniyasining tahlillari va istiqboliga ko'ra, yaqin o'n yilliklarda

jalb qilinayotgan xorijiy sarmoyalarning yuqori ulushi asosan Xitoy, Hindiston va Saudiya Arabistoni mamlakatlariga to‘g‘ri kelmoqda. Jahonda bevosita sarmoya oluvchilar ro‘yxatini boshqarib borayotgan mamlakat bu aynan Xitoy mamlakatidir. Demak, jahonda xorijiy sarmoyalarning yirik eksportchisi va oluvchisi (importchisi) jahon mamlakatlari ichida Xitoy, AQSH va Yaponiya mamlakatlari yetakchi hisoblanadi.

Jahonda sarmoyani tartibga solish va uning chora-tadbirlari bo‘yicha 1965-yili “Davlat shaxslari va xorijiy shaxslar o‘rtasida sarmoya nizolarini hal etish to‘g‘risidagi” Vashington konvensiyasi tuzildi. Bundan tashqari sarmoya kafolatlari bo‘yicha “Ko‘p tomonli agentlikni ta’sis etish” to‘g‘risidagi Seul konvensiyasi kabi xalqaro konvensiyalar tuzilgan.

Jahondagi ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlar yirik xalqaro moliya tashkilotlarining sarmoyalarini iqtisodiyotning ko‘plab sohalariga jalb qilishni asosiy maqsadlaridan biri sifatida tan olishadi. Yevropa investitsiya banki dunyodagi eng katta, keng tarmoqli moliyaviy institut hisoblanadi. Bankning YI hududi hamda undan tashqari mintaqalardagi asosiy maqsadlaridan biri – u har yili o‘rtacha 70-75 mlrd. yevro atrofida asosan jahonning rivojlanayotgan mamlakatlariga moliyaviy ko‘mak ajratadi. Bu ko‘rsatkich xalqaro maydondagi iqtisodiy holatga qarab o‘zgarib turadi. Ushbu bank jahondagi yirik xalqaro moliya tashkilotlaridan biri hisoblangan Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan kamida sakkiz barobar ko‘p moliyaviy resurslar ajratiladi. Bu borada hatto Jhon bankidan ham oldinda turadi, chunki Jhon bankining yillik qarz ajratmalari miqdori taxminan 65-70 mlrd. yevroni tashkil qiladi.

Yevropa investitsiya banki Yevropa Ittifoqiga a’zo 27 ta davlatga tegishli bo‘lib, Bank 1958-yilda Yevropa mamlakatlari iqtisodiy holatini yaxshilash maqsadida tashkil etilgan va dastlabki yillarda asosan mintaqadagi davlatlar rivoji uchun xizmat qilgan. Ammo biroz vaqt o‘tgach, u faoliyatini asta kengaytirib, Yevroittifoq hududidan tashqarida ham moliyaviy ko‘maklar ajrata boshlagan. Hozirda taxminan o‘n foiz aktivlari, ya’ni 8 mlrd. yevroga yaqin mablag‘ ajratmalari Ittifoq tashqarisidagi xorijiy mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Bankning shtab-kvartirasi Luksemburgda joylashgan bo‘lib, jami uch mingga yaqin xodim faoliyat yuritadi. Hozirga kelib Yevropa

Ittifoqi hududi tashqarisida dunyoning turli mintaqalarining 14 ta shaharda vakolatxonalarini bor. Biroq Markaziy Osiyo mintaqasida vakolatxonasi mavjud emas.

Bob yuzasidan xulosa

Jahon iqtisodiyoti rivojlangani sari kapital olib chiqishning sabablari o‘zgarib boraveradi, shuningdek, jamg‘arma va kapitalni chetga chiqarish jarayonlarida yangi sifat tavsiflari paydo bo‘ladi. Jumladan, bevosita xususiy investitsiyalarni rivojlantirishda kapitalni import qiladigan mamlakatlarda qo‘shma jamiyatlarni barpo etish, chet el firmalari bilan uzoq muddatli shartnomalar tuzish, chet elda yangi shu’ba korxonalar barpo etishga bo‘lgan moyillik tobora ko‘proq ahamiyat kasb etib bormoqda.

Kapitalni xorijga chiqarish, uning davlatlar orasida faol migratsiyasi zamonaviy jahon xo‘jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning eng muhim ko‘rinishlaridan biridir. Kapital olib chiqish jahon xo‘jalingining chuqur rivojlanishi davrida rivoj topib kelayotgan tovar olib chiqish monopoliyasini inqirozga uchratmoqda. Tovar olib chiqishni to‘ldiruvchisi va uning vositachisi bo‘lib, kapital olib chiqish xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida aniqlovchi omilga aylanib bormoqda. Demak, kapitallarning xalqaro harakati – bu kapitalni chet elda dastavval foyda olish maqsadida joylashtirish va ishlatishdir.

Nazorat savollari

1. Kapital migratsiyasining asosiy sabablarini tavsiflab bering.
2. Kapital migratsiyasiga ta’sir ko‘rsatuvchi qanday omillar mavjud?
3. Xalqaro kapital bozorlarida qanday o‘zgarishlar ro‘y bermoqda?
4. Xalqaro kapital migratsiyasining mohiyatini ayting.
5. Jahon iqtisodiyotida katta foyda uchun kapital olib chiqishning eng muhim sabablarini ayting.
6. Kapitalning qanday harakat shakllari mavjud?
7. Kapitalning chet elga joylashtirishning o‘z xususiyatlariga ko‘ra qanday shakllarga bo‘linadi?

8. Chet elga kapital joylashtirish usuli o‘z muddatiga ko‘ra necha xil ko‘rinishda bo‘ladi va ularni birma-bir mohiyatini tushuntiring?
9. Tadbirkorlik maqsadida joylashtirilgan kapitallar o‘z oldiga qo‘ygan vazifasiga ko‘ra qanday toifalarga bo‘lingan?
10. Investitsiyaning qanday turlari mavjud?
11. Odatda sarmoyadorlar o‘zga mamlakatga sarmoya qo‘yishdan oldin qaysi asosiy omillarga e’tiborni qaratadi?
12. Xorijiy investor o‘z sarmoyasini o‘zga mamlakatdan qaysi holatlarda olib ketishi mumkin?
13. Sarmoyalarni jalb qilish va investorlar uchun shart-sharoitlarni tashkil qilish bo‘yicha jahon reytingida qaysi mamlakat yuqori o‘rinda turadi va nima uchun?
14. Sarmoyalarni jalb qilish va investorlar uchun shart-sharoitlarni tashkil qilish bo‘yicha jahon reytingida qaysi mamlakat eng oxirgi o‘rinda turadi va nima uchun?
15. O‘zbekistonda sarmoya muhiti qanday?

Uyga vazifa!

Talabaning “Xalqaro kapital migratsiyasi” mavzusini chuqur o‘zlashtirishi hamda amaliyat darsiga puxta tayyorgarlik ko‘rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

- 1) mavzu so‘ngida berilgan “Nazorat savollari”ga tayyorgarlik ko‘rish;
- 2) talabalar mustaqil ravishda O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 24-dekabrda qabul qilingan “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”gi qonunlarini o‘qib chiqishlari;
- 3) xorijiy mamlakatlarning (tanlama ravishda) investitsiyalarni jalb qilishdagi shart-sharoitlar va imtiyozlari bo‘yicha talabalar guruhlarga bo‘lingan holda “taqdimot” o‘tkaziladi.

VIII BOB. XALQARO ISHCHI KUCHI MIGRATSIYASI

1. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi tushunchasi va uning tarixi.
2. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining asosiy sabablari.
3. Ishchi kuchi migratsiyasi – eksportning bir turi.
4. Xalqaro mehnat migratsiyasining asosiy yo‘nalishlari va markazlari.

Tayanch iboralar: ishchi kuchi, ishchi kuchi eksporti, migratsiya, immigratsiya, emigratsiya, “aqlii kishilarning ketib qolishi”, reemigratsiya, fertil, assimilatsion, mehnat, mehnat taqsimoti, xorijiy ishchi kuchi, muhojir, donor mamlakat.

8.1. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi tushunchasi va uning tarixi

“Aholi migratsiyasi” tushunchasi odamlarning ma’lum hududlar chegarasidan o‘tib, boshqa hududlarga joylashishi va muhim turar-jowni o‘zgartirishi yoki shu yerga qaytib kelishini bildiradi. Jahan iqtisodiyotida xalqaro migratsiyaning quyidagi shakllari mavjud: mehnat, oilaviy, turistik, siyosiy, iqtisodiy va hokazo shakllarda namoyon bo‘ladi.

Shundan kelib chiqqan holda, avvalo, xalqaro mehnat migratsiyasi muammolari, shuningdek, boshqa jahon bozorlari; xususan, mahsulot va xizmat turlari, kapital bozorlari qatori mavjud bo‘lgan xalqaro ishchi kuchi bozorining rivojlanish jarayonlari e’tiborga sazovordir. Ishchi kuchi bir mamlakatdan ikkinchi bir mamlakatga o‘tar ekan, u tovar sifatida o‘zini bozorga soladi, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasida ishtirok etadi.

Hozirgi zamon xalqaro mehnat bozorida ishchi kuchi milliy hududlardan oshib o‘tib, turli oqimlarga bo‘linib ketishini nazarda tutadi. Shu tariqa xalqaro mehnat bozori milliy va mintaqaviy ishchi kuchi bozorlarini birlashtiradi va ishchi kuchi migratsiyasi shaklida namoyon bo‘ladi. Ishchi kuchi migratsiyasini tahlil qilishda quyidagi iqtisodiy terminlarni farqlab olish lozim, xususan:

Immigratsiya (immigration) – mehnatga layoqatli aholining berilgan mamlakatga uning sarhadlari tashqarisidan kirib kelishi;

Emigratsiya (emigration) – mehnatga layoqatli aholining berilgan mamlakat sarhadlaridan chiqib ketishi.

Migratsion saldo (net migration) – mamlakatdan immigratsiya va mamlakatga emigratsiyaning o‘rtasidagi tafovut farqi.

“Aqli kishilarning ketib qolishi” (“brain drain”) – yuqori malakali kadrlarning xalqaro migratsiyasi.

Reemigratsiya (re-emigration) – emigrantlarning vataniga doimiy yashash joyiga qaytib kelishi.

Jahon iqtisodiyotida ishchi kuchi migratsiyasining ilk boshlanish davri XVIII oxiri – XIX asrlarning boshlariga to‘g‘ri keladi. Chunki, Amerikaning kashf etilishi natijasida ko‘plab arzon ishchi kuchlari Yevropa mamlakatlaridan okean ortiga yo‘l oldilar. Ayniqsa bu jarayon XX asrning boshlarida kuchaydi. AQSH va Kanada mamlakatlariga jahoning turli mamlakatlaridan malaka ishchilarning milliy iqtisodiyotning sanoat tarmoqlariga jalb qilinishi ochiq-oydin namoyon bo‘ldi.

Masalan, jahon xo‘jaligida birinchilardan bo‘lib rasman xorijiy fuqarolarni milliy iqtisodiyot tarmoqlariga ishlashga yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilishni Kanada hukumati 1957-yilda amalga oshirgan edi. Unga ko‘ra, Kanada xorijiy fuqarolarni doimiy ish bilan ta’minlash bo‘yicha alohida dasturni qabul qilib, mamlakatga faqat yuqori malakali mutaxassislarni uchun kelishiga alohida ahamiyat bergen. Mamlakatga kelayotgan xorijiy fuqarolarni doimiy ko‘chib kelishi, hukumatning “immigratsiya siyosati”ga asosan jalb qilingan. Biroq, o‘scha yillarda ko‘chib kelgan fuqarolarning aksariyat qismi Buyuk Britaniya, G‘arbiy va Shimoliy Yevropa mamlakatlaridan kelishgan migrantlar tashkil qilgan edi.

XX asrning 90-yillaridan boshlab esa, migratsiyaning asosiy qismi sobiq Ittifoq va sobiq Yugoslaviya davlatlaridan parchalangan mamlakatlar fuqarolarining AQSH, Kanada va G‘arbiy Yevropaning bir qator mamlakatlariga “oqimi” kuchaydi. Masalan, Kanadaning qishloq xo‘jaligi tarmoqlariga Ukrainadan minglab fuqarolarni jalb qilinishi natijasida hozirgi kungacha ham kanadalik yirik fermerlarning asosiy qismi ukrain millatiga mansubdir. Kanada milliy iqtisodiyotining rivoji va uning taraqqiyotini davomiyligi xorijdan jalb qilinadigan migrantlarga bog‘liq. Shuning uchun ham Kanada hukumati so‘nggi yillarda har yili qariyb yarim millionga yaqin xorijiy

fuqarolarni milliy iqtisodiyotning turli sohalariga ishga jalgilishmoqda.

Mamlakatlararo ishchi kuchi migratsiyasining bugungi tarixi uning bir necha muhim yo‘nalishlarini aniqlashga imkon beradi. Bular quyidagilardan iborat:

- 1) rivojlanayotgan mamlakatlardan sanoati rivojlangan mintaqalarga migratsiya;
- 2) sanoati rivojlangan mintaqalar doirasida migratsiya;
- 3) rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasida ishchi kuchi migratsiyasi;
- 4) Sobiq Ittifoq mamlakatlardan sanoati rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchi migratsiyasi (rivojlanayotgan mamlakatlardan sanoati rivojlangan mamlakatlarga bo‘layotgan migratsiya kabi);
- 5) sanoati rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga ilmiy xodimlar, malakali mutaxassislar migratsiyasi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, migratsiya sabablari ham, uning ijtimoiy tarkibi ham tarixiy ko‘chib yurish xususiyatiga ega bo‘lib, ko‘pgina ichki va tashqi omillarga bog‘liqdir. Masalan, XIX asrning 60-yillari oxirlarigacha dunyoning yetakchi rivojlangan mamlakatlardagi sanoat inqilobi tufayli ko‘proq sanoat ishchilari xalqaro migratsiyasi yuz berardi hamda u “eski migratsiya” nomini olgan edi.

XIX asrning uchinchi choragi va XX asrining birinchi yarmida migratsion oqimlarga xonavayron bo‘lgan dehqonlar ommasi – “yangi migratsiya”ga kelib qo‘sildi va yetakchi rol o‘ynadi. Bu bosqichni bir tomonidan, agrar sektoridagi tanglik va ishlab chiqarishning bu sohasidagi iqtisodiy munosabatlardagi o‘zgarish jarayonlari kuzatilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, sanoat ko‘laming ortishi va shunga tegishli ravishda ishchi kuchiga bo‘lgan talabning o‘sishini keltirib chiqargan edi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin ko‘plab jahon mamlakatlarining va asosan urushdan jabr ko‘rgan 100 minglab ziyoli aholining xalqaro mehnat migratsiyasiga kelib qo‘silishi, ya’ni “aqlli-idrokli odamlarning boshqa mamlakatlarga o‘tib ketishi” (brain drain) yaqqol ko‘zga tashlana boshladи. Bu jarayon shu bilan bog‘liq ediki, fan-texnika taraqqiyoti hozirgi zamon mehnat migratsiyasi omillari ichida

yetakchi rol o'ynadi, uning taraqqiyoti rivojlangan davlatlarda malakali chet el ishchi kuchiga bo'lgan talabni ko'p jihatdan belgilab berdi. Masalan, urush tufayli minglab nemis olimlari okean ortiga ko'chib ketishga majbur bo'lishgan edi.

Gap shundaki, yangi ishlab chiqarishning fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq tarmoqlarini shakllantirish yuksak rivojlangan mamlakatlarda XX asrning 50–60-yillarida malakali ishchi kuchiga talabning oshishiga olib keldi. Zero, bu davrda malakali mehnat resurslariga bo'lgan talab asosan mahalliy aholi hisobiga qondirildi. Lekin bunday ishlab chiqarishlar juda kam bo'lib, ko'pgina boshqa sohalarda qo'l mehnati saqlanib qolgandi. Oqibatda, ishlab chiqarish tarmoqlarining malakali ishchilarga bo'lgan talabining ortishi natijasida ishchi kuchining bu tarmoqlarga ko'chib o'tishi yuz berdi, jismoni kuch ko'p talab qilinadigan va ish haqiga nisbatan kam to'lanadigan ish o'rinalariga esa asosan rivojlanayotgan mamlakatlardan ishchi kuchlari jalb qilina boshlandi.

XX asrning so'nggi yillarida fan-texnika taraqqiyotining yangi bosqichida esa bunday mexanizm o'zgardi. G'arbning gurkirab rivojlanayotgan yetakchi mamlakatlarida ishlab chiqarishni avtomatlashtirish natijasida malakasiz ishchi kuchiga bo'lgan talab ancha kamaydi hamda fan-texnika taraqqiyoti yil sayin malakali ishchi-mutaxassislariga, xususan; muhandis xodimlarga, ilmiy xodimlarga bo'lgan talabni ancha oshirib yubordi.

Lekin professional ta'limning mavjud tizimi talabni to'la qondira olmaydi va bunga bo'lgan ehtiyoj ko'pincha boshqa mamlakatlardan malakali xodimlarni import qilinishi hisobiga qondirilardi. Shuning uchun chet el ishchi kuchi tarkibida tayyorlangan mutaxassislar ulushi tobora orta bordi. Shunday qilib, agrar rivojlangan mamlakatlarda qo'shimcha "qo'llarga" bo'lgan talab keyingi yillarda pasaygan ekan, bu hech ham "aqli-idrokli" odamlarni import qilish soni kamaydi, degan ma'noni anglatmaydi.

Mehnatkashlarning xalqaro migrantsion oqimlariga oliy milliy unvonlar, diplomlar va bilimlarga ega bo'lgan minglab olim, muhandislar, iqtisodchilar, o'qituvchilar, shifokorlar va boshqa mutaxassislar kelib qo'shilmoqda. Jumladan, an'anaviy sabablar bilan (ish haqi, turmush sharoiti, siyosiy, irqiy, milliy va boshqa sabablar) bir qatorda, ilmiy tadqiqotlar uchun sharoitning yo'qligi, olimlar,

kashfiyotchilar, konstruktorlar va boshqalarning haq-huquqlari hamda ularni mukofotlash, rag‘batlantirish hamda taqdirlashdagi juda katta farqlar singari boshqa sabablar ham bor edi.

8.2. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining asosiy sabablari

Insonlarning bir mamlakatdan boshqa mamlakatga ko‘chib yurishga undovchi, shuningdek, mehnat resurslarning xalqaro migratsiyaga olib keladigan eng muhim ro‘kachlari va sabablari orasida ko‘plab iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, milliy-irqiy, diniy va boshqa sabablarga bog‘liqdir. Demak, xalqaro ishchi kuchi migratsiyaning quyidagi sabablarini ham keltirish mumkin:

- 1) siyosiy, ijtimoiy, milliy-irqiy, diniy;
- 2) mehnat uchun to‘lanadigan ish haqidagi farqlar (masalan, Tojikistonning oddiy bank xodimining oylik maoshi o‘rtacha 50 dollarni tashkil qilsa, AQSH, Yaponiya yoki boshqa rivojlangan mamlakatlarda kamida 5000 dollarni tashkil qiladi);
- 3) dunyoning turli mamlakatlari va mintaqalaridagi aholining o‘sish nisbati bir xil emasligi (masalan, Hindistonning aholisi yiliga 18-19 mln. kishiga ko‘paysa, Yaponiya, Fransiya, Italiya kabi jahonning rivojlangan mamlakatlarida aholining tug‘ilish darajasi ancha pastlaganligi sababli iqtisodiyot tarmoqlarini yangi ishchi-mutaxassislar bilan to‘ldirishi lozim);
- 4) biror-bir mamlakatda iqtisodiy taraqqiyot va xususan, sanoat taraqqiyoti darajasidagi tafovutlar (amaldagi tajriba shuni ko‘rsatadiki, ishchi kuchi asosan turmush darjasini past bo‘lgan mamlakatlardan shu darajadan yuqoriqoq bo‘lgan mamlakatlarga migratsiya qiladi, masalan, sanoat sohasida xitoylik yoki vietnamlik mutaxassislarning Singapur yoki Janubiy Koreya iqtisodiyotidagi sanoat tarmoqlarida faoliyat ko‘rsatishi);
- 5) ayrim mamlakatlarda, avvalo, kam rivojlangan mamlakatlarda mavjud bo‘lgan surunkasiga ishsizlik;
- 6) kapitalning xalqaro harakati hamda xalqaro korporatsiyalar faoliyati (ma’lumki, korporatsiyalar ishchi kuchini kapitalga yaqinlashtiradi, yoki o‘z kapitalini mehnat resurslari ko‘p bo‘lgan mintaqalarga olib boradi), ishchi kuchining kapital bilan birlashib ketishiga ko‘maklashadi.

Keyingi paytlarda jahon iqtisodiyotida aloqa vositalari va

transport sohalarida ro'y bergan sezilarli rivojlanish, o'z navbatida, hozirgi zamon xalqaro ishchi kuchi migratsiyasini ancha kuchaytirib yubordi.

BMT klassifikatsiyasiga asoslanib, zamonaviy xalqaro migratsiyasining beshta asosiy turini farqlash mumkin:

- bir joydan ikkinchi joyga ko'chib kelganlar, ya'ni doimiy tarzda yashashga ko'chib kelganlar;
- kontrakt (shartnomalar) bo'yicha ishlaydiganlar, ushbu shartnomada qabul qiluvchi mamlakatda yashash muddati aniq belgilangan bo'ladi;
- professionallar yuqori darajadagi tayyorgarlik, tegishli ta'lim, amaliy ish tajribasiga ega bo'lganlar, shuningdek, jahon tizimidagi oliy ta'limga asoslanib ko'chib kelgan o'qituvchi va talabalar;
- noqonuniy migrantlar, ish faoliyati bilan shug'ullanuvchi, turistik yoki muddati o'tib ketgan vizaga ega bo'lмаган xorijliklar;
- qochoqlar – qandaydir xavf tug'ilganda o'z Vatanini tark etishga majbur bo'lganlar.

Xalqaro migratsiya aylanmasi tarkibini tushunib yetish uchun mehnat migratsiyasining ko'rinishlarini belgilab olish zarur, ularni turli mezonlarga ko'ra guruhlash mumkin.

Demak, migratsiyasining asosiy ko'rinishlari quyidagilardan iborat:

- davomiyligiga ko'ra – vaqtinchalik, mavsumiy va doimiy;
- ijtimoiy tarkibiga ko'ra – malakasiz ishchilar, o'rta texnik va servis xodimlari, talabalar (ta'til paytida), mutaxassislar, fan, madaniyat va sport arboblari hamda tadbirkor kabilar;
- tabiatiga ko'ra – bevosita va bilvosita (TMK doirasida firma ichida);
- mehnat shartnomasi ko'rinishiga ko'ra - shaxsiy va jamoaviy;
- qabul qiluvchi mamlakatda huquqiy holatga ko'ra - assimilatsion (keyinchalik fuqarolik berilishi) va neassimilatsion.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, migrantlarning asosiy qismini sanoat ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi tarmoqlarida band bo'lgan kam malakali ishchilar tashkil etadi. Biroq bugungi kunga kelib, yuqori malakali migrant mutaxassislar TMKlar tuzilmasida faoliyat ko'rsatishmoqda. Ayniqsa, AQSHdagi ko'plab nou-xau sohasida mehnat qilayotgan malakali ishchi kuchlarining asosiy qismini

Hindistondan tashrif buyurgan migrantlar tashkil qiladi va ular e'tiborli hamda yuqori haq to'lanadigan mansablarni egallab borayotgan ishchi kuchidir.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda migratsiya oqimlarini kuchayib borishi tufayli ularning qabul qilib oluvchi va jo'natuvchi davlatlar milliy iqtisodiyotiga ta'siri yanada sezilarli bo'lib bormoqda. Shuning uchun ham jahon ishchi kuchi bozorini ana shu nuqtai nazardan ko'rib chiqish joizdir.

8.3. Ishchi kuchi migratsiyasi – eksportning bir turi

Xalqaro huquqiy xujjatlarda ishsizlikni kamaytirish, emigrant-ishchilardan valuta mablag'larini kirib kelishi, qabul qiluvchi mamlakatda ularga yetarli darajadagi turmush sharoitini ta'minlashga ko'mak berish uchun emigratsion siyosat olib borilishi qayd etiladi. Xalqaro mehnat tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, migrantlarning asosiy qismini 30-40 yoshdagilar va ularning deyarli 75 foizini erkak kishilar tashkil qiladi. Ularning xorijga chiqishi ichki mehnat bozoridagi raqobatni yumshatish imkoniyatini beradi.

Jahonning har bir mustaqil mamlakati umumjahon xo'jalik aloqalariga qo'shilishi uchun olib boradigan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining muhim tarkibiy qismlaridan biri bu – *ishchi kuchi tashqi migratsiyasi* hisoblanadi. Ishchi kuchining eksporti milliy iqtisodiyotning quyidagi yo'nalishlariga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazadi:

- xalq farovonligini o'sishiga va iqtisodiy taraqqiyotni rivojlanishga;
- ichki va tashqi pul-moliya bozori munosabatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi,
- mamlakat mehnat bozorining rivojlanish darajasini o'sishiga hissa qo'shish;
- xorij mamlakatlarda ish bilan band bo'lish va ularning kasbiy malakasini yanada oshishi;
- zamonaviy texnologiya va ilg'or texnikani o'rganishi va o'zlashtirishi;
- tadbirkorlik madaniyatini va tajribasini boyitishi;
- mehnat qonunchiligiga rioya qilishlarini o'rganishiga xizmat qiladi.

Ma'lumki, ishchi kuchi migratsiyasi ishchi kuchi eksport qilingan mamlakatga ham, ishchi kuchining egasi – xalqaro mehnat bozoriga chiqqan fuqarolarga va mutaxassislarga ham foydalidir. Ayni paytda qonun va har jihatdan to‘g‘ri tashkil qilingan tashqi migratsiyagini yetarli iqtisodiy samara beradi. Avvalo, migratsiyaning qanday omilga ko‘ra yuzaga kelishi muhimdir. Amalga oshirish stragtegiyasi va taktikasi oldindan ishlab chiqilgan, oqibatlari hisobga olingan migratsiya turlari bo‘yicha ko‘zlangan maqsadga tezroq erishiladi. Masalan, AQSHda mamlakat Parlamenti qonunlariga ko‘ra, har yili migratsiya, to‘g‘rirog‘i, migratsiya kvotalari o‘rnataladi va hatto “Grin kard” o‘yinlari orqali ham. Bunda birinchi navbatda, albatta, AQSH manfaatlari hisobga olinadi.

Soha fani va amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, ishchi kuchi tashqi migratsiyadan foydalanishdan oldin uning omillari qanaqa bo‘lishini ishlab chiqish lozim. Chunki migratsiya hosil qiluvchi omillarning yuzaga kelishi uchun zamin yaratmasdan turib bu jarayonni boshqarib bo‘lmaydi. Ishchi kuchi migratsiyasi, albatta ishchi kuchi jalb qiluvchi mamlakat uchun daromad manbayidir. Dastavval, ishchi kuchini eksport qilishga mamlakatga xorijiy valutaning kirib kelishi uchun bir manba deb qaraladi. XVFning ma'lumotlariga ko‘ra, ishchi kuchi eksport qilinganda olinadigan foydaning o‘rtacha normasi tovarlarni eksportiga qaraganda 20 foiz va xizmatlarni eksportiga qaraganda esa undan ancha yuqori – 50 foiz bo‘ladi.

Mehnat resurslari migratsiyasining rivojlanayotgan mamlakatlar uchun roli ancha kattadir. 2010-yillarning oxirlarga borib, ishchi kuchini eksport qilishdan keladigan tushumlar rivojlanayotgan mamlakatlarda yuksak sur’atlar bilan o‘sib bordi, ya’ni yiliga o‘rtacha 20 foizdan. Masalan, bizga qo‘shni bo‘lgan Tojikiston YaIMda 2019-yilda deyarli 30 foiz tushum mehnat resurslarining eksportidan tushgan daromad tashkil qilgan. Yoki Misr uchun Suvaysh kanalidan foydalanish 2010-yillarda yiliga o‘rtacha 2 mlrd.dollari va xalqaro turizmdan qariyb 1 mlrd.dollari miqdorida daromad keltirgan bo‘lsa, holbuki ishchi kuchi eksporti evaziga o‘tkazma xorijiy valutalar miqdori yiliga o‘rtacha 3 mlrd.dollaridan ortiq bo‘lgan. 2018-2019-yillarda Yamanda muhohirlarni xorijga (asosan Saudiya Arabiston, BAA, Qatar va Quvayt) ishga yuborish ayrim yillarda eksportdan keladigan tushumlarining 60 fozini tashkil qilgan. Buning asosiy

sababi mamlakatdagi siyosiy notinch vaziyat bo‘lganligidir.

Shuning uchun ham, ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarning mehnat resurslari ishchi kuchi eksportiga ixtisoslasha boshlashdi, ayniqsa Misr, Jazoir, Ukraina, Belorussiya, Pokiston, Hindiston, Nepal, Tojikiston va Qirg‘iziston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan mehnat resurslarini eksport qilinishi xorijiy valuta daromadlarining eng muhim manbasidan biri bo‘lib qolmoqda.

Ishchi kuchini eksport qilishdan olinadigan xorijiy valuta daromadlari quyidagi to‘rt bevosita manbadan iborat:

- vositachi firmalar daromadidan olinadigan soliqlar;
- immigrantlarning oilasiga va qarindosh-urug‘lariga yordam tariqasida o‘z vatanlariga yuboradigan pul jo‘natmalari;
- immigratlarning shaxsiy investitsiyalari (vataniga ishlab chiqarish vositalari va uzoq muddatli foydalilaniladigan buyumlarni olib kelishi, yer-suv, ko‘chmas mulk sotib olish, qimmatbaho qog‘ozlarni xarid qilish);
- ishchi kuchini import qiluvchi mamlakatlardan keladigan kapitallar bo‘lib, bular ko‘pincha mehnat resurslarini qayta tiklashga, ijtimoiy sohaga sarflanadi.

Eksportchi mamlakat uchun ishchi kuchlari yangi kasblarga bepul o‘rgatiladi, mehnatni tashkil qilishning ilg‘or metodlari bilan tanishtiriladi. Zamonaviy g‘arb sivilizatsiyasi bilan tanishish ham an’anaviy turmush tarziga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Eksportchi mamlakat uchun ishchi kuchini eksport qilishning salbiy jihatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- aqli, idrokli odamlarning xorijiy mamlakatlarga chiqib ketishi;
- malakali va tashabbuskor xodimlarning kamayishi kabilardir.

Muhojirlar o‘z vatanlariga qaytganlaridan keyin ham ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida sezilarli darajada o‘zgarishlar yuz beradi. Ishchilarning ko‘plari chet elga ketishlaridan oldin o‘z mamlakatlari uchun an’anaviy bo‘lgan qishloq xo‘jalik ishlari bilan shug‘ullanishgan va ularning ozgina qismi sanoatda yordamchi ishlarni bajargan. Muhojirlarning aksariyat qismi o‘z yurtiga qaytganidan so‘ng asosan qishloq xo‘jaligi sohasidagi mehnatiga qaytishga majbur bo‘lishadi, natijada kechagina xorijiy mamlakatning yirik sanoat tarmoqlarida faoliyat ko‘rsatgan xodim mahalliy ishdan ko‘ngli sovib, yana chet elga ketishga harakat qiladi. Muhimi, ulardagi talab-

ehtiyojlar ortadi, ularning hayotga, mehnatga bo‘lgan munosabatlari, qarashlari hamda odatlari o‘zgaradi.

Ishchi kuchining oshkora qonuniy ravishda migratsiyasi ko‘lamni ancha ortishi bilan bir vaqtida uning yashirinch kelishi ham ancha o‘sdi. Zero, ular mehnatidan foydalanish tadbirkorlar uchun ancha foydalidir. Ishchi kuchini emigratsiya qilish rivojlanayotgan donor mamlakatlarga ham samarali ta’sir ko‘rsatadi. Bu chet el valutasining mamlakatga kirib kelishining asosiy manbalaridan biridir. Bundan tashqari, bu ortiqcha mehnat resurslari tayziqini, binobarin, mamlakatdagi ijtimoiy tanglikni pasaytirishga yordam beradi. Shuningdek, milliy kadrlar chet elga borib, yangi kasblarni o‘rganadi, mehnatni tashkil qilishning yangi uslublari, an’anaviy sivilizatsiyasining yaxshi-yomon tomonlari bilan tanishadi.

Ko‘plab mamlakatlarda xorijiy ishchi kuchlarini import qilayotgan mamlakatlarda ularga berilayotgan shart-sharoitlar va xavfsizlik choralarini yetarli darajada ta’milamanganligini ham ta’kidlash lozim. Chunonchi, The Guardian ma’lumotiga ko‘ra, kichik hududga ega bo‘lgan Qatarda o‘tgan o’n yil mobaynida mamlakatda Hindiston, Pokiston, Nepal, Bangladesh va Shri-Lankadan kelgan jami 6500 dan ortiq mehnat muhojirlari turli baxtsiz hodisalardan halok bo‘lgan.

Aqli kishilarni ketib kolishi muammoesi esa, xalqaro iqtisodiy munosabatlarda keyingi yigirma-o‘ttiz yillar ichida eng dolzarb muammoga aylandi. Muammoning mohiyati shundaki, ishga joylashish maqsadida xorijga chiqib ketgan malakali kadrlarni yo‘qotish eksport qiluvchi mamlakat uchun ma’lum miqdorda iqtisodiy zarar yetkazadi.

Xalqaro mehnat tashkilotining (XMT) direktori Xuan Somaviyaning ta’kidlashicha, 2011–2020-yillarda jahon mamlakatlarining iqtisodiyot tarmoqlarida ishchilar uchun jami 600 million ishchi o‘rnlari tashkil qilingan. Jahonda aholi sonini o‘sib borishini hisobga oladigan bo‘lsak, ushbu ko‘rsatkich jahondagi mehnatga layoqatli aholining har 3 kishidan biriga ishchi o‘rin kafolatlangan xolos. Agarda hisob-kitoblarga murojaat qilsak, jahonning har bir mamlakatida ishsizlik darajasi o‘rtacha 10 foizni tashkil qilsa, u holda 2020-yilda COVID-19 tufayli yuzaga kelgan pandemiyadan qat’i nazar, jahonning qariyb 1 mlrd.ga yaqin ishga layoqatli aholisi ishsizlik davrini boshidan kechirishi mumkin ekan.

XMTning ma'lumotiga ko'ra, 2020-yil holatiga ko'ra, jahon mamlakatlarining ishga layoqatli aholisining 512 million nafari ishsizlik sonini tashkil qilgan. Yuzaga kelgan jahon iqtisodiy inqirozi sharoitida ushbu tashkilotning 2020-yilning aprelidagi ma'lumotiga tayanadigan bo'lsak, ko'plab jahon mamlakatlarida ishchimutaxassislarning vaqtinchalik majburiy ta'tilga chiqarib yuborilishi natijasida jahonda qariyb 2 milliarddan ortiq ishsizlar o'z ish o'rinalarini tashlab ketishga majbur bo'lishgan. Endilikda, BMT, Jahon banki va XVF kabi xalqaro tashkilotlar oldida jahon iqtisodiyotini tezroq "ozyoqqa turg'izish" borasida ulkan chora-tadbirlarni amalga oshirilishi talab etiladi.

8.4. Xalqaro mehnat migratsiyasining asosiy yo'nalishlari va markazlari

Odatda mamlakatga kelgan migrantlar faqat ishslash uchun, ya'ni "pul topish va mablag' yig'ish" uchun tashrif buyuradi. Demak, o'z-o'zidan ma'lumki, xorijiy mamlakatga tashrif buyurgan fuqaroning birdan bir "yagona maqsadi" mablag' topishdan iboratdir. Jahon iqtisodiyotida mehnat migratsiyasi deyarli barcha milliy iqtisodiyotlarga xos jarayondir. Biroq uning jadallik darajasi jahonning u yoki bu hududlarida sezilarli darajada farq qiladi. Mehnatkash-migrantlarning eng jadal oqimi ishchi kuchini eksport va import qiluvchi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi darajasida va tabiiy demografik o'sish sur'atlaridan jiddiy farq bo'lganda kuzatiladi.

BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashining ma'lumotiga ko'ra, 2020-yilda dunyo bo'y lab migrantlarning soni 281 mln. kishiga etgan (2010-yilda - 221 mln. kishi va 2000-yilda esa 173 mln. kishini tashkil qilgan.³¹

Dunyoda eng ko'p migrantlar istiqomat qiladigan davlatlar qatoridan AQSH, Germaniya, Saudiya Arabistoni, Rossiya va Buyuk Britaniya o'rin olgan. AQSH xalqaro migrantlar uchun asosiy yo'nalish bo'lib qolmoqda va 2020-yilda ro'yxatdan o'tgan barcha migrantlarning soni 51 mln. kishini tashkil qilgan (dunyodagi jami migrantlarning 18 foizi demakdir). Shuningdek, Rossiyada 12 mln. migrantlar istiqomat qilsa, Buyuk Britaniyada 9 mln. migrantlar

³¹ <https://korrespondent.net/world/4316816-chyslo-mygrantov-v-mire-za-20-let-vyroslo>

mavjuddir.

Migratsiyaning xalqaro yo‘nalishlari ichida jami migratsiya oqimining hajmi bo‘yicha rivojlanayotgan mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlar tomon ishchi kuchlarini ko‘chishi birinchi o‘rinda turadi. Mutaxassislar quyidagi migratsiya oqimlarini alohida ko‘rsatib o‘tishadi: G‘arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari o‘rtasida, sobiq sotsialistik mamlakatlardan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarga, rivojlanayotgan yoki o‘tish iqtisodiyoti davlatlar o‘rtasida (masalan, Ukraina yoki MDH davlatlaridan Rossiyaga).

Ishchi kuchi migratsiyasining yana bir yo‘nalishi, ya’ni rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan yoki o‘tish iqtisodiyoti davlatlarga migratsiya uchrasa-da, bu yo‘nalishni tanlovchi migrantlar soni unchalik ko‘pchilikni tashkil etmaydi va ular TMKlarning shaxobchalari va sho‘ba korxonalarida band bo‘lgan xodimlar, turli xayriya tashkilotlari va fondlari a’zolari, shuningdek, sarguzasht izlovchilar hamda tavakkalchilardan iborat. Demak, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining quyidagi yo‘nalishlarini ko‘rib chiqamiz.

Xalqaro mehnat migratsiyasida ishchi kuchini o‘ziga tortuvchi markazlar ichida eng yirik va qariyb uch yuz yildan beri mavjud bo‘lgan yo‘nalishi bu – *Shimoliy Amerika yo‘nalishi* (AQSH va Kanada) hisoblanadi. O‘tgan asrning 90-yillar davomida AQSHga belgilangan kvota yiliga 675 ming kishi bo‘lishiga qaramay yiliga 1 mln. dan ortiq migrantlar kirib kelgan, shuningdek, Kanadaga o‘rtacha yiliga 250-270 ming migrantlar tashrif buyurishgan. Bu jarayon XXI asrning 10-yillarida ham hamon davom etmoqda, biroq kvotalarning soni AQSHda ancha kamaytirilgan bo‘lsa, Kanadaga migrantlarning kirish soni deyarli ikki barobarga oshirilgan. Agar 1980-yillarning oxirlarigacha sobiq Ittifoqdan AQSHga kelgan migrantlar umumiy muhojirlar sonining ulushida atigi 1,3 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2000-yilga kelib 8,5 foiz, 2010-yilda 5,4 foiz va 2019-yilga kelib bu ko‘rsakich 5,2 foizni tashkil qilib hamon yuqori ko‘rsatkichligicha qolmoqda.

Yana quyidagi misolga e’tibor qaratish lozim: XX asrning 70-yillarning oxiri va 80-yillarning boshida AQSHdagi muhandislar orasida migrantlarning ulushi 10 foizga va shifokorlar orasida esa migrantlarning ulushi 24 foizga yetgan edi. Qizig‘i shundaki, Milliy akademiya a’zolarining 23 foizi hamda Nobel mukofoti

sovridorlarining 33 foizi AQSHga kelgan muhojirlardir.

Ishchi kuchi migratsiyasining yana bir yo‘nalishi – bu **Yevropa Ittifoqi mamlakatlari**. Fransiya mamlakat aholisining 8 foizi yoki Germaniya aholisining deyarli 7,5 foizi xorijliklarni tashkil qiladi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari ichida aynan ushbu ikki mamlakat migrantlarning soni jihatidan yetakchilik qilishadi. Bulardan tashqari Belgiya, Niderlandiya, Shvetsiya, Avstriya, Ispaniya, Italiya kabi mamlakatlar ham ishchi kuchini qabul qilishda oldingi o‘rinlarda turadi. 2020-yildan Norvegiya, Chexiya, Avstriya va Botiqbo‘yi mamlakatlari migrantlarni qabul qilish bo‘yicha ba’zi cheklovlarini joriy qilishga majbur bo‘lishdi.

Ikkinci jahon urushidan so‘ng, xalqaro mehnat migratsiyasining eng yirik markazlardan biri, albatta bu G‘arbiy Yevropa bo‘ldi. Germaniya (GFR) hukumati urush asoratlardan xalos bo‘lish, vayronagarchiliklarga barham berish, tozalash va qurilish hamda ishlab chiqarish tarmoqlariga xorijiy mamlakatlardan ishchilarini jalb qilinishi natijasida “qora ishchilar”ning salmog‘i bir necha barobarga oshib ketdi. Masalan, Germaniya iqtisodiyotining sanoat tarmoqlariga jalb qilingan Turkiya ishchi-fuqarolari sonining o‘sishi 2000-yillarda o‘zining eng yuqori nuqtasiga chiqqan, ya’ni Germaniya sanoat tarmoqlarida ishlayotgan umumiyligi ishchilarning 17 foizini turk millatiga mansub fuqarolar tashkil qilgan. 2019-yilda Germaniyaning ommaviy-axborot vositalaridagi ma’lumotiga ko‘ra, mamlakatda jami 8 millionga yaqin turk millatiga mansub aholilarning yashashi ma’lum qilinganligini misol qilish mumkin.

Shuningdek, 2010-yillarning boshiga kelib, Buyuk Britaniyada arab mamlakatlaridan (asosan Misr va Iordaniyadan), Pokiston, Hindiston va Eron mamlakatlaridan 1140 nafar olim va ilmiy tadqiqotchilar, 8 ming nafarga yaqin shifokor va 50 mingdan ortiq oliy ma’lumotga ega ishchi-mutaxassislar mehnat faoliyatini olib borgan. Buyuk Britaniya hamon meditsina sohasida xorijiy migrantlarga tayanmoqda. Buning asosiy sababi 2020-yilning fevral-aprel oylarida Buyuk Britaniyada yuzaga kelgan COVID-19ga qarshi kurashishda jami 40 mingga yaqin shifokorlarning yetishmasligi ma’lum qilingan. Ayni pandemiyaning yuqori nuqtasiga chiqqan paytda, mahalliy hukumat shifokorlarning yetishmasligi sababli nafaqaga chiqqan 21 ming shifokorlarni 3 marotaba yuqori oylik maoshi evaziga yordamga chaqirishga majbur bo‘lishdi. 2020-yilning 18-aprelida Buyuk Britaniya Bosh vaziri

tomonidan xorijiy mamlakatlardan, ayniqsa, Sharqiy Yevropa, Eron va Kuba mamlakatlaridan malakali shifokorlarni doimiy ishga jalb qilish masalasini ko‘rib chiqilishini ma’lum qilgan edi.

Haqiqatan ham, bugungi kunda jahoning ko‘plab rivojlangan mamlakatlarida Eron va Kubaning minglab oliy toifadagi shifokorlari faoliyat ko‘rstishmoqda. Bundan 30 yil muqaddam ham, 1980-yillarning o‘rtalarida AQSH va G‘arbiy Yevropada ishlagan eronlik shifokorlarning soni Erondagi faoliyat ko‘rsatayotgan shifokorlar soniga qaraganda ancha ko‘pchilikni tashkil qilgan. O‘sha davrda 40 millionli aholiga ega bo‘lgan mamlakatda atigi 15 ming shifokor to‘g‘ri kelardi. Holbuki, o‘sha davrda oylik maoshlarini pastligi sababli mamlakatdan chiqib ketgan 16 ming eronlik shifokorlar AQSHda va 5 mingga yaqini esa G‘arbiy Yevropa mamlakatlaridan qo‘nim topishgan.

XMTning ma’lumotiga ko‘ra, XXI asrning 10-yillarida ham, jahondagi rivojlanayotgan mamlakatlaridan jalb qilinayotgan migrant ishchi kuchi rivojlangan mamlakatlarning quyi ishchi o‘rinlariga kamida 15-20 foizgacha ishchi-o‘rinlarini ta’minlab turmoqda. Masalan, Britaniyaning nufuzli “The Economist”ning ma’lumotiga ko‘ra, 2019-yilda Fransiya iqtisodiyotining qishloq xo‘jaligi sohasining dehqonchilik tarmog‘idagi umumiy ishchilarini 85 foizini asosan Shimoliy Afrika mamlakatlaridan kelgan migrantlar tashkil qilgan, bu albatta, yuqori ko‘rsatkichdir.

2019-yilning dekabr oyida bo‘lib o‘tgan Yevroparlamentdagi yig‘ilishda Fransiya, Belgiya, Shvetsiya va Germaniya mamlakatlarining hukumatlari endilikda xorijdan ishchilarini jalb qilishni umuman to‘xtatilishini va hatto, muhojirlarni o‘z mamlakatga kiritilishini imkon qadar to‘xtatilishini yoki cheklashligini Yevropa Parlamentiga ma’lum qilishgan edi. Eng muhimi, 2020-yilda YI mamlakatlari iqtisodiyotida agrar sohadagi hosildorlik 2019-yilga qaraganda o‘rtacha 20-22 foizga kamaydi. Buning eng asosiy sababi shu paytga qadar YI mamlakatlari qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida Sharqiy Yevropa va Shimoliy Afrika mamlakatlaridan tashrif buyuradigan ishchilarining mehnati bilangina amalga oshirilar edi. Biroq yuzaga kelgan pandemiya YI chegaralarini mustahkam yopishiga majbur qildi.

Mehnat migratsiyasining uchinchi yirik markazi – *Avstraliyadir*. XX asrning 90-yillarida Avstraliya hukumati mamlakat hududining katta qismida aholi zichligi darajasi pastligini hisobga olib, mamlakatga oq irqga mansub bo‘lgan aholini hamda asosan fertil (turmush qurish va

farzand qurishga qodir) yoshdagi ayollarni ko‘chib o‘tishini rag‘batlantirish borasida chora-tadbirlar majmuasini e’lon qilgan edi.

XXI asrning boshlariga kelib jahon xo‘jaligida migratsiyaning yangi markazi paydo bo‘ldi, ya’ni **Fors ko‘rfazi**. Keyingi yigirma yil ichida migrantlarni o‘ziga jalb etuvchi ushbu markazga (Saudiya Arabiston, Qatar, Quvayt, Baxrayn, Birlashgan Arab Amirliklari) asosan Eron, Hindiston, Pokiston, Nepal, Afg‘oniston va Yaman kabi mamlakatlardan migrantlar oqimi ro‘y berdi. Ushbu markaz Yaqin Sharq mintaqasining neft konlari va neftni qayta ishlovchi sanoat korxonalari joylashgan hududlari hamda “Cho‘l ustidagi iqtisodiy taraqqiyot markazlari”da tez qaror topa boshladi.

2010-yillarning boshlarida bu yerda qo‘shti arab mamlakatlaridan, Pokiston, Hindiston, Bangladesh, Filippin, Yaman, Suriya va Iroqdan salkam 5 mln.ga yaqin chet ellik ishchilar kelib ishlashmoqda. BAA ishchi kuchlarining salkam 90 foizi hamon muhojirlar, Qatarda 85 foiz, Quvaytda salkam 70 foiz, Saudiya Arabiston va Bahreynda o‘rtacha 40 foiz, Ummonda esa 35 foiz ishchilar xorijliklardir. Masalan, Qatarning 2022-yilgi Jahon bo‘yicha futbol championatiga tayyorgarlik ishlari uchun mamlakatdagi keng ko‘lamli qurilish ishlariga xorijiy mamlakatlardan jami 400 mingga yaqin ishchi-mutaxassislar jalb qilindi.

Bulardan tashqari, muhim migratsiya markazlardan biri sifatida **Isroidni** ta’kidlash ham maqsadga muvofiqdir. Chunki ushbu mamlakat o‘tgan asrning 90-yillarning boshlarida jahondagi barcha yaxudiylarni o‘zlarining tarixiy vatanlariga qaytarishga harakat qildi. Yaxudiylarning “Jannatmakon yer”ga migratsiyasi umuman olganda siyosiy sabablar tufayli bo‘lsa-da, biroq uning iqtisodiy jihatlari ham mavjud bo‘lib, turmush darajasi past bo‘lgan mamlakatlardan, asosan sobiq Ittifoq hududidan kelgan migrantlar oqimining jadalligi ham bundan dalolat berib turibdi.

Shuningdek, **Lotin Amerikasi** (Argentina, Braziliya, Meksika) hamda Osiyoning (Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tayvan) yangi industrial mamlakatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Afrika qit’asida esa bunday markaz **JAR** hisoblanadi.

MDH doirasida esa **Rossiya** migrantlarning yirik markazi bo‘lsa-da, u ham eksportyor, ham importyor mamlakat sanaladi. Rossiyanadan rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchini eksport qilsa (yiliga o‘rtacha 10 ming kishi), u o‘ziga MDH mamlakatlardan asosan Ukraina, Belorusiya, Moldaviya, Qozog‘iston va Markaziy Osiyo davlatlaridan

import qiladi.

Demak, xalqaro mehnat migratsiyasining eng yangi markazi bu Rossiyadir. Rossiyaning ko‘plab hududlariga asosan sobiq Ittifoq, Xitoy, Turkiya, Vietnam kabi mamlakatlardan minglab ishchilar jalb qilinmoqda. Rossiyaning “Vesti” axborot vositasining ma’lumotiga ko‘ra, 2019-yilda Rossiyada jami 9,2 mln. ishchilar rasmiy ravishda Rossiya Federatsiyasi Mehnat migratsiyasining ro‘yxatidan o‘tgan. Bularning qariyb 4,3 mln. ishchilari Markaziy Osiyodan; 1,4 mln. ishchilar Xitoy, Shimoliy Koreya, Laos va Vietnam kabi mamlakatlardan; 1,2 mln. dan ortiq ishchilar Ukraina, Moldova va Belorussiyadan; qariyb 800 minggi Kavkaz mamlakatlaridan (Ozarbayjon, Armaniston va Gruziya) va qolganlari esa Turkiya, Suriya, Hindiston kabi mamlakatlardan kelgan ishchi migrantlarni tashkil qilgan.

XMTining tahliliga ko‘ra, ayni paytda MDH mamlakatlarining aholisi mehnat koeffitsiyenti bo‘yicha, ya’ni eng ko‘p mehnat faoliyatini olib borishi bo‘yicha yuqori o‘rinda turibdi. “Expat Insider 2020” tashkiloti 2020-yilda dunyoning 181 davlatida istiqomat qiladigan 173 millat vakillari bo‘lgan 15 mingdan ortiq odam o‘rtasida “So‘rovnoma” o‘tkazgan. So‘rovnomada migrantlarning yashash sifati, moliyaviy holat va turar-joyning arzonligi, joylashgan shahari va ish hayoti hamda migratsiyaga tegishli bo‘lgan ko‘plab ijtimoiy savollar o‘rin olgan. Unga ko‘ra, jahonda migrantlarning yashashi uchun eng yaxshi va qulay shaharlar reytingida Ispaniyaning Valensiya shahri jahon migrantlari uchun yashash sifati va uning qiymat ko‘rsatkichi bo‘yicha “Eng yaxshi migrantlar shahri” deya tan olingan.³²

Biroq shaharda yashashning kamchiligi sifatida ishga joylashishdagi muammolar ko‘rsatib o‘tilgan. Bundan tashqari, yetakchilar ro‘yxatidan Panama-Siti, Singapur, Malaga, Buenos-Ayres, Kuala-Lumpur, Madrid va Abu-Dabi kabi shaharlar o‘rin olgan.

Xo‘sh, o‘zbekistonlik migrantlarning asosiy yo‘nalishlari qaysi mamlakatlarga to‘g‘ri keladi va ular asosan qaysi mamlakatlarda ishlashmoqda?

2020-yil holatiga ko‘ra, 2 million 600 nafar O‘zbekiston fuqarosi o‘zga davlatlarda mehnat qilmoqda. 2020-yilning 16-yanvarida Xalqaro press klubning mamlakatimizdagi ishsizlik va mehnat munosabatlari bag‘ishlangan teledasturda aytishicha, ularning 80 foizi, ya’ni 2

³² <https://www.internations.org/expat-insider/2020/the-best-worst-cities-for-expats-40063>

million 200 nafari Rossiyada, 350 ming nafari Qozog‘istonda, 80 ming nafari Janubiy Koreyada, 60 ming nafari Turkiya va boshqa mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Ma’lumotlarga ko‘ra, xorijiy mamlakatlardan o‘tgan yili mehnat migrantlarimiz O‘zbekistoniga qariyb 5 milliard dollardan ortiq xorijiy valuta yuborishgan.

Bob yuzasidan xulosa

Odamlarning bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga muhojir bo‘lib borishlariga turki bo‘lgan sabablar va muhojirlilikning ijtimoiy tarkibi juda ko‘p iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa omillarga bog‘liqdir. Chet el ishchi kuchi umuman olganda, qabul qilayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga ancha samarali ta’sir ko‘rsatadi: ishlab chiqarilayotgan tovarlarning raqobat qilish qobiliyati ortadi, ishlab chiqarishning o‘sishi va odamlarning qo‘srimcha ish bilan ta’milanishi rag‘batlantiriladi, ta’lim va professional tayyorgarlikka qilinadigan sarf-xarajatlar tejaladi, ayrim rivojlangan mamlakatlarda demografik ahvol yaxshilanadi.

Fan-texnika taraqqiyoti hozirgi zamon mehnat migratsiyasi omillari orasida yetakchi rolni o‘ynaydi,. Uning rivoji birinchi navbatda rivojlangan davlatlarda chet ellik ishchi kuchlariga bo‘lgan talabni ko‘p jihatdan belgilab beradi. Jumladan, yuksak malakali kadrlarga, xususan intellektual mehnat kishilariga bo‘lgan talab keskin ortdi. Albatta, vaqt o‘tishi bilan xalqaro mehnat migratsiyasining sabablari va ijtimoiy tarkibigina emas, balki uning geografik yo‘nalishlari ham o‘zgarib boradi.

Shunday qilib, mehnat migratsiyasining milliy iqtisodiyotlarga ta’siri darajasi turlicha bo‘lib, ko‘p jihatdan hukumat tomonidan olib boriladigan siyosatga bog‘liq. Ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakatlar asosiy foydani xorijdan valuta transferti oqimlarini kengayishidan oladi, ammo bunda ko‘pchilik hollarda yuqori malakali kadrlarini yo‘qotadi. Importyor mamlakatlar esa mehnat immigratsiyasining miqdoriy va sifat darajasini kvotalar va cheklashlar joriy qilish orqali tartibga solishga harakat qiladi, hozirgi paytda malakali kadrlarni va ilmiy-texnika sohasidagi ekspertlarning kirib kelishi maqsadga muvofiqdir.

Nazorat savollari

1. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining tushunchasini aytинг.
2. Ishchi kuchi migratsiyasining tarixini aytинг.

3. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining sabablarini ayting.
4. Mehnat migratsiyasi asosiy yo‘nalishlari va markazlarini ayting.
5. Mehnat migratsiyasining qanday ko‘rinishlarini bilasiz?
6. Ishchi kuchi eksportining jo‘natuvchi mamlakatlar uchun qanday ijobiy jihatlari bor?
7. Ishchi kuchi eksportining jo‘natuvchi mamlakatlar uchun qanday salbiy jihatlari bor?
8. Ishchi kuchi importidan olinadigan iqtisodiy samara qanday?
9. “Aqli kishilarning ketib qolishi” muammosining mohiyati nimada?
10. Nima uchun jahon iqtisodiyotida ishchi kuchi migratsiyasini eksportning bir turi deyishadi?
11. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining milliy iqtisodiyotga ta’sirini ayting.
12. Ishchi kuchini eksport qilinishidagi asosiy omillar nimalardan iborat?
13. Qaysi mamlakatlar ishchi kuchi importiga muhtoj hisoblanadi?
14. O‘zbekiston qaysi xorijiy mamlakatlar bilan ishchi kuchi eksporti bo‘yicha hamkorlik qilmoqda?
15. Jahon mehnat migratsiyasida shakllangan eng yangi markazni ayting va ushbu markazga qaysi mamlakatlarning migrantlari tashrif buyurishmoqda?
16. Juhonning qaysi mamlakati bиринчи bor rasmiy ravishda xorijiy ishchi kuchlarini jalb qilishni boshlagan?

Uyga vazifa!

Talabaning “Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi” mavzusini chuqr o‘zlashtirishi hamda amaliyat darsiga puxta tayyorgarlik ko‘rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

- 1) mavzu so‘nggida berilgan “Nazorat savollari”ga tayyorgarlik ko‘rish;
- 2) jahondagi mehnat migratsiyasi markazlari bo‘yicha talabalar guruhlarga bo‘lingan holda “taqdimot” o‘tkaziladi.

IX BOB. JAHON XO‘JALIGIDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING TUTGAN O‘RNI

- 1. Jahon xo‘jaligida Erkin iqtisodiy hududlarning tashkil topishi.**
- 2. Milliy iqtisodiyotda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil qilish sabablari va maqsadlari.**
- 3. Erkin iqtisodiy hududlarning asosiy turlari va ular tashkil qilish bosqichlari.**
- 4. Jahon mamlakatlarida erkin iqtisodiy hududlar faoliyatining o‘ziga xos rivojlanish xususiyatlari.**
- 5. Jahon xo‘jaligida erkin iqtisodiy hududlarning tashkil topishi va ularning faoliyatida Xitoy tajribasi.**
- 6. Jahon xo‘jaligida “Cho‘l ustida qurilgan EIHLAR” faoliyatining Birlashgan Arab Amirliklari tajribasi.**

Tayanch iboralar: erkin iqtisodiy hudud (EIH), maxsus iqtisodiy hudud (MIH), erkin bojxona hududlari (EBH), erkin savdo hududlari (ESH), offshor hududlar, konvensiya, valuta, viza, “dyuti fri”, moliyaviy imtiyozlar, ma’muriy imtiyozlar, zamonaviy texnik axborotlar, soliq, soliq imtiyozlari, daromad solig‘i, “ochiq eshiklar siyosati”, erkin dengiz porti.

9.1. Jahon xo‘jaligida Erkin iqtisodiy hududlarning tashkil topishi

Jahon xo‘jaligi tarixidan ma’lumki, XX asr oxiri - XXI asr boshlarida “Erkin (maxsus) iqtisodiy hududlar” (EIH) jahon xo‘jaligi rivojlanishining asosiy ko‘rinishlaridan biriga aylanib, dunyoning ko‘plab mamlakatlarida tashkil topdi. So‘nggi 20 yilda jahon xo‘jaligida EIHLarning soni 6 marotabaga ko‘paydi. Agarda 1998-yilda jahon xo‘jaligida 900 ta EIHLar tashkil qilingan bo‘lsa (1975-yilda jami – 79 ta), 2018-yilga kelib, jami 147 ta mamlakatda ularning soni 5400 taga yetdi. Shuningdek, yaqin istiqbol yillarda yana 500 ga yaqin EIHLarning tashkil qilinishi kutilmoqda³³.

EIH haqida tushuncha birinchi marta 1973-yil 18-maydagi Kioto konvensiyasida berilgan. Unga ko‘ra, “Erkin iqtisodiy hudud – bu

³³ <https://goole.com/amp/s/1prof.by/news/ekonomika-i-biznes/svobodnye-ekonomicheskie-zony>

ma'lum bir davlat hududining shunday qismiki, unda tovarlar importi va eksportini, bojxona va soliq cheklovlarisiz olib kirish mumkin bo'lgan hududga aytildi va ushbu hududga olib kirilgan va olib chiqilgan tovarlar bojxona hududidan tashqariga tovar sifatida qaralib, u bojxona tekshiruvidan va soliqlaridan ozod etiladi".

Xalqaro korporatsiyalar o'z faoliyatlarini yanada kengaytirish va rivojlantirish maqsadida EIHLar uchun qulay va imtiyozli sharoitlarni tashkil etib, ulardan imkon qadar ko'p foyda olish mumkin bo'lgan soha sifatida foydalanishadi. Yirik xalqaro korportsiyalar EIHLarni o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarining sotuvi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan hududlardan biri, deb hisoblaydilar. EIHL milliy iqtisodiyotlarning boshqa bir qismlarida foydalanilmaydigan imtiyoz va rag'batlarning o'ziga xos tizimlari qo'llaniladigan iqtisodiy hududning bir qismidir, ya'ni EIHL geografik jihatdan u yoki bu darajadagi rivoj topgan alohida bir hududdir. Ko'plab mahalliy va xorijiy ilmiy maqolalar va darsliklarda, shuningdek, xalqaro tashkilotlarning hisobotlarida turli xildagi iqtisodiy hududlar ham "EIHL" deyilgan. Ammo, bu termin ushbu holatning mazmuni va mohiyatini to'liq ochib bermaydi.

Masalan, EIHLarning ko'pchiligidagi mavjud bo'lgan iqtisodiy qoidalar, ma'muriy qonunlar ularni ma'lum huquqiy va xo'jalik rejimidagi ozod qilmaydi. U faqat tadbirkorlikni rag'batlantiruvchi imtiyozlar beradi va uni yengillashtiradi. Davlat hokimiyatining esa iqtisodiy jarayonlarga aralashishini kamaytiradi. Rivojlangan davlatlar uchun EIHLar ushbu hududda faoliyat ko'rsatuvchilarning hayotiy turmush darajasini va ishlab chiqarish salohiyatini ko'rsatuvchi "maxsus" hudud bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham bu hududlar "Maxsus iqtisodiy hudud" deyiladi.

EIHL xo'jalik yuritishning yangi shakllaridan biri bo'lib, xalqaro maydonda 1950-yillarning oxiri va 60-yillarning boshlarida paydo bo'lgan. 1970-yillarning o'rtalariga kelib esa, ular jahon maydonida keng ommalasha boshlagan. Bunday hududlar, dastlab, sanoat ishlab chiqarishi rivojlangan mamlakatlar hisoblangan – AQSH, Yaponiya, Germaniya va Buyuk Britaniyada, keyinchalik esa Polsha, Vengriya, Bolgariya kabi mamlakatlarda tashkil etildi. EIHLar, dastavval, daryo va dengiz portlarida, xalqaro aeroportlarda, temir va avtomobil yo'llariga yaqin bo'lgan joylarda, sayyohlik va alohida olingan sanoat

markazlarida tashkil etilgan. Chunki, tovar-moddiy boyliklarni jahon bozorlariga olib chiqishda va xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etishda EIHning roli muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, EIHLar shunday geografik hududki, unda mamlakatda qabul qilingan xo‘jalik faoliyati tartibiga qaraganda imtiyozli soliq to‘lash tartibi joriy etiladi. Yoki sodda qilib aytganda, erkin iqtisodiy hududda shu mamlakat hududida xo‘jalik ishlarini yuritish uchun mahalliy va siyosiy tomondan berilgan imtiyozlarga hamda qulay geografik muhitga ega bo‘lgan joy (hudud) tushuniladi.

EIHDa davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi kamaytiriladi va unda milliy iqtisodiy makonning bir qismi sifatida mamlakatning boshqa hududlarida qo‘llanilmaydigan ma’lum imtiyozlar tizimi joriy etiladi. Shuningdek, EIHL mamlakat hududining imtiyozli, valuta, soliq, viza va mehnat rejimlari joriy etilgan maxsus ajratilgan qismidir.

9.2. Milliy iqtisodiyotda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil qilish sabablari va maqsadlari

Milliy iqtisodiyotda EIHLarni tashkil qilinishining sabablari nimada? Uning bir necha xil sabablari mavjud bo‘lib, jumladan, quyidagilarni alohida ta’kidlab o‘tmoq joiz:

- birinchidan, davlat o‘z iqtisodiyotini xorijiy kapital oqimi uchun to‘liq ochishni va imtiyozli investitsiyaviy muhitni hamma joyda tashkil etishni istamaydi;
- ikkinchidan, mamlakatning tashqi savdosida jahon bozori bilan integratsiyani chuqurlashtirish;
- uchinchidan, xalqaro iqtisodiy aloqalarni rag‘batlantirish;
- to‘rtinchidan, ma’lum bir faoliyat shakli va ishlab chiqarish sohasini rag‘batlantirish;
- beshinchidan esa, qoloq hududlarni rivojlantirish va sanoatlashtirish EIHLarni tashkil qilinishining asosiy sabablaridir.

Bunda shuni alohida e’tirof etish o‘rinligi, jahonning ko‘pgina mamlakatlari iqtisodiyotda kapital va shuningdek, o‘ziga xos investitsiya oqimini hamma joyda ham to‘liq ochishni istamaydi va shu sababdan EIHLarni tashkil qilishga alohida urg‘u beradilar. Shuning uchun ham EIHLar maxsus hudud sifatida u yoki bu davlatlarning ma’lum bir rivojlangan mintaqalarida tashkil topadi.

Xo‘sh, EIHLar nima maqsadda tashkil qilinadi? Nega ular hozirgi

kunda o‘z geografik masshtabini kengaytirib bormoqda? Bunga EIhlarni tashkil etishning bir qator maqsadlari ta’sir ko‘rsatmoqda.

Erkin iqtisodiy hududlar tashkil etishning asosiy maqsadlari:

– maxsus imtiyozlar, barqaror qonuniy baza va tashkiliy tadbirlarni soddalashtirish tufayli xorijiy kapitalni va texnologiyalarni jalg etish;

– tayyor mahsulot eksportini kengaytirish uchun mehnat taqsimoti afzalliklaridan foydalanish;

– mamlakatning Davlat budgetiga xorijiy valuta tushumining o‘sishi;

– yangi ish joylarini yaratish;

– EIhlarni tashkil qilish, ularni boshqarish va moliyalash sohalarida jahon tajribasini o‘rganish va amaliyotga joriy etish hisobidan ish kuchi malakasini oshirishdan iboratdir.

Ma’lumki, EIhlarni tashkil qiluvchilar tomonidan ochiq iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirishdagi ahamiyati kattadir. Ularning faoliyat ko‘rsatishi tashqi iqtisodiy faoliyatni faollashtirish va erkinlashtirish bilan bog‘liqdir. U yoki bu davlatlar iqtisodiyotining tashqi dunyoga ochiqligida EIhlarning ahamiyati bojxona, soliq va investitsiyaviy rejimlarni o‘rnatishda va shuningdek, tashqi va ichki investitsiyalar faoliyati uchun yuqoridir.

Xalqning farovonligi va hayotning ko‘rkamlashib borishi, ko‘p jihatdan, shu mamlakat EIhlarning tashkil etilishi va muvaffaqiyatlari faoliyat ko‘rsatishi bilan ham bog‘liqdir. Chunki, bunday holatlarni iqtisodiyoti rivojlangan va EIhlar tashkil etgan mamalakatlar faoliyatida ko‘plab kuzatish mumkin. Negaki, qaysi mamlakatda chet el investorlari va tadbirkorlar faoliyati uchun keng imtiyozlar va shart-sharoitlar yaratilsa, ularning o‘zlarini tiklab olishlari uchun amaliy yordam berilsa va imkoniyatlar yaratilsa, investitsiya miqdori ham, tadbirkorlikning ishchanlik qobiliyati ham o‘sha yerda yuqori bo‘ladi.

Bundan tashqari, EIhlar jahon xo‘jaligida kapital migratsiyasi uchun “qopqon” bo‘lib ham hisoblanadi. Mamlakatlar ichidagi iqtisodiy jarayonlarni faollashtirishda xorijiy kapitalni jalg qilish bilan bir qatorda sanoat sohasida erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini yanada kuchaytirish maqsadida quyidagi uchta muhim vazifani ko‘rishimiz mumkin:

– sanoat eksportini rag‘batlantirish asosida xorijiy valuta

mablag‘larini jalg qilish;

– aholini ish bilan bandlik darajasini yanada oshirish (eng muhim);

– milliy xo‘jalikni rivojlantirish maqsadida EIHLarni xo‘jalik yuritish sohasidagi yangi usullar sifatida amaliyotda qo‘llashdan iboratdir.

EIHLar tashkil topgan mamlakatlarning tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, jahon xo‘jaligida integratsiyani chuqurlashtirish, xalqaro iqtisodiy aloqalarni rag‘batlantirish maqsadida tuzilgan hududlar milliy iqtisodiyotda muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Masalan, qoloq hududlarni (tuman) rivojlantirish va iqtisodiyoti rivojlanmagan qoloq tumanlarni sanoatlashtirish hamda savdoni rivojlantirish va boshqalarni sanab o‘tish mumkin, albatta. Shuning uchun ham EIHLar tashkil topishi sabablari va maqsadlari har bir mamlakatda o‘zgacha bo‘lib, ular bir-biriga mutlaqo o‘xshamasligi ham mumkin.

Masalan, jahondagi AQSH va Buyuk Britaniya kabi sanoati rivojlangan mamlakatlarda EIHLarni tashkil qilishdan maqsad depressiyaga uchragan tumanlarda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishga qaratilgan mintaqaviy siyosatni amalga oshirishga qaratilgan. Ushbu maqsadda tadbirkorlarga (kichik va o‘rta) mamlakatning boshqa tumanlariga nisbatan ko‘proq faoliyat erkinligi va shuningdek, sezilarli darajada moliyaviy imtiyozlar berilgan edi (biroq, EIHLarni rivojlantirishda xorijiy kapitalni jalg qilishga e’tibor qaratilmagan).

EIHLarning tashkil topishida ikkita konseptual, ya’ni hududiy va funksional yondashuv qo‘llaniladi, jumladan:

– birinchi yondashuvdagi holatda – hududda barcha rezident korxonalar xo‘jalik faoliyatida imtiyozlardan keng foydalanadilar. Masalan, Janubiy Koreyadagi maxsus EIHLar, Xitoydaggi EIHLar, Braziliyadagi “Manaus” maxsus erkin iqtisodiy hududini va boshqa bir qator rivojlanayotgan davlatlardagi eksport ishlab chiqarish hududlarini ko‘rsatish mumkin;

– ikkinchi yondashuv bo‘yicha esa, korxona mamlakatning qaysi tumanida joylashishidan qat’i nazar tadbirkorlik faoliyatining ma’lum ko‘rinishlari uchun qo‘llaniladigan imtiyozli rejimlaridan foydalanishi mumkin, xolos.

9.3. Erkin iqtisodiy hududlarning asosiy turlari va ularni tashkil qilish bosqichlari

Umuman olganda, jahon xo‘jaligida EIHLarning 30 ga yaqin turi bo‘lib, ulardan keng tarqalganlari: erkin savdo hududlar, erkin bojxona, erkin ishlab chiqarish, erkin ilmiy-texnik hududlardir. Bularning har biri “erkin iqtisodiy hudud” toifasiga kirgani bilan, o‘z funksiyasiga ko‘ra, bir-biridan farq qiladi³⁴.

EIHLar o‘zlarining bojxona hududiga ega bo‘lib, bu hudud territoriyasiga kirib-chiqish qoidalari o‘rnatilgan tartibda amalga oshiriladi. EIHLar geografik jihatdan joylashishiga qarab, “tashqi” ya’ni ikki yoki bir necha mamlakat hududida joylashgan xalqaro va bir mamlakat hududida joylashgan “ichki” erkin iqtisodiy hududlarga bo‘linadi.

EIHLar konsignatsiya omborlarini, erkin bojxona zonalarini, shuningdek, tovarlarga ishlov berish, ularni o‘rash (qadoqlash) va joylash, saralash, saqlash kabi hududlarini o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, EIHLar xalqaro maydonda xo‘jalik ixtisosligi va tashkil etish toifalariga qarab ham quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Erkin savdo hududi.
2. Sanoat va ishlab chiqarish zonasasi.
3. Texnik va texnologiyani joriy etish hududlari.
4. Xizmat ko‘rsatish zonalarini.
5. Majmuaviy zonalar.
6. Xalqaro zonalar.

Tashkil etish turlariga qarab esa: hududiy zonalar va maxsus tartibot zonalariga bo‘linadi.

Jahon xo‘jaligida EIHLarning eng oddiy ko‘rinishlaridan biri erkin bojxona (bojsiz) hududlari (EBH) hisoblanadi. Bu hududlar erkin savdo hududlari kabi **birinchchi avlod hududlariga** kiradi. Ular XVII–XVIII asrlardan buyon mavjud. Bu hududlarga tranzit yoki konsignatsiyaviy omborlar, eksportga mo‘ljallangan tovarlarni qadoqlash va kam miqdorda qayta ishlash sohalari kiradi. Bunday hududlar, ko‘pincha, “bond omborlari” yoki “erkin bojxona hududlari” ham deb ataladi. Erkin bojxona hududlarda tovar olib kirish va olib chiqishda bojdan ozod qilinadi.

³⁴ Kolesov V.P., Kulakov M.V. “Mejdunarodnaya ekonomika”: Uchebnik. - M.: INFRA-M, 2008. - 474 s.

Erkin savdo hududlari (ESH) ham dunyoda keng tarqalgan. Masalan, ESHlari AQSHda ko‘plab tashkil etilgan bo‘lib, ular “Tashqi savdo zonalari” (Foreing Trade Zones) deb nomlanadi. Bugungi kunda AQSHda 200 dan ortiq zona va subzonalar faoliyat qo‘rsatmoqda. ESH AQSHda 1934-yildagi maxsus qonun-qoidalar asosida faoliyat ko‘rsatmoqda.

I. Savdo	II. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish.	III. Texnika kiritish	IV. Xizmat
<ul style="list-style-type: none"> 1. Erkin bojxona hududlari 2. Band omborlari 3. Erkin portlar 4. Erkin savdo hududlari 	<ul style="list-style-type: none"> 1. Import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar 2. Eksportga ishlab chiqaruvchi mahsulotlar 3. Sanoat bog’lari 4. Ilmiy-sanoat bog’lari 	<ul style="list-style-type: none"> 1. Texnopolis 2. Texnobog’ 3. Yangi va ilg’or texnologiya-larni rivojlantirish hududlari 	<ul style="list-style-type: none"> 1. Offshor zonalar 2. Moliyaviy markazlar 3. Bank xizmatlari hududi 4. Turizm xizmatlari hududi 5. Ekobog‘lar
V. Majmuaviy	VI. Xalqaro		

9.3.1-rasm. Erkin iqtisodiy hududlarning turlari

Manba: ushbu jadval ma’lumotlar asosida ishlab chiqildi.

ESHlarning maqsadi xalqaro savdoni rag‘batlantirish, savdo operatsiyalarini tezlashtirish, savdo xarajatlarini kamaytirishdan iboratdir. AQSH qonunchiligidagi tashqi iqtisodiy faoliyatda nisbatan imtiyozlar o‘rnatalgan. Qonunda har bir rasmiy port qoshida kamida bitta erkin tashqi savdo hududi tashkil qilinishi mumkinligi belgilab qo‘yilgan. AQSH qonunchiliga muvofiq, mamlakat hududidagi erkin savdo hududlari umumiy va maxsus hududlarga bo‘linadi. Umumiy hududlar kichik hududda (bir necha km.kc) joylashib, milliy boj hududidan tashqarida bo‘ladi. Ularda kiritilgan tovarlarni omborlarga joylashtirish va qayta ishslash ishlari amalga oshiriladi (qadoqlash, o‘rash, sortlarga ajratish).

Oddiy erkin savdo hududlari qatoriga yirik xalqaro aeroportlardagi maxsus “dyuti fri” savdo do‘konlarini ham kiritish mumkin. Siyosiy rejim nuqtai nazaridan ular davlat chegaralaridan tashqarisida deb

hisoblanadi. Erkin savdo hududlari qatoriga imtiyozli holatga ega bo‘lgan an’anaviy erkin portlarni ham kiritish mumkin.

Erkin bojxona hududlari – chet elda ishlab chiqarilgan va mamlakatga kirib kelayotgan mahsulotlarni imtiyozli to‘lov asosida saqlash, markalar va sortlarga ajratish, ishlov berish, agar kerak bo‘lib qolgan taqdirda, qayta yig‘ish (komplektlashtirish) va sotish kabi vazifalarni bajaradi. Bunday erkin bojxona hududlari daryo va dengiz portlarida, chegaradosh temiryo‘l tarmoqlarida va aeraportlarda xorijiy valutada daromad olish maqsadida tashkil etiladi.

Sanoat ishlab chiqarish hududlari (SICHH) **ikkinci avlod hududlari** (XX asrning 50-60-yillari) bo‘lib hisoblanadi. Ular erkin savdo hududlariga faqat tovar emas, balki kapital ham olib kirilishi va shuningdek, faqat savdo bilan emas, balki ishlab chiqarish faoliyati bilan ham shug‘ullanishi oqibatida vujudga kelgan edi. SICHH maxsus boj rejimiga ega bo‘lgan hududlarda tashkil topadi. Ularda eksport uchun yoki import o‘rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqariladi. Bu hududlar soliq va moliyaviy imtiyozlarga ega bo‘ladi.

Eksport ishlab chiqarish hududlari (EICHH), ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda keng tarqalgan. Bunday hududlarning zamonaviy modeli 1959-yilda Irlandiyaning “Shennon” aeroportida tashkil qilingan hududiy tizimga asoslanadi. Bunday hududlardan “Yangi industrial mamlakatlar” eng katta samara ko‘rmoqda. EICHHlarining tashkil topishi mantiqan olganda rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir. XX asrning 50–60-yillarida rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoat eksportini rag‘batlantirish va xorijiy kapital oqimi yordamida bandlik darajasini oshirish zaruriyati tug‘ilgan edi. Keyinchalik irlandlarning tajribasidan Singapur, Tayvan, Germaniya, Turkiya va BAA kabi mamlakatlar ham samarali foydalanishdi.

EICHH maqsadli ijtimoiy-iqtisodiy dastur bo‘lib, yangi ishlab chiqarish munosabatlari asosida alohida hududda tadbirkorlikni rag‘batlantirish, milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, istiqbolli texnologiyalarni erkin raqobat, ma’muriy-iqtisodiy mustaqillik hamda o‘zini-o‘zi mablag‘ bilan ta’minalash tamoyillari asosida joriy etilishidir. Bu maqsad uchun ijara, kooperativ, qo‘shma va xorijiy korxonalarini tashkil qilib, ular uchun inshootlar qurish va ularni ekspluatatsiya qilish evaziga erishiladi.

Xalqaro maydonda EICHH ham muvaffaqiyatli faoliyat

ko'rsatmoqda. Masalan, BAAAdagi "Dubay xalqaro aeroporti" va Germaniyadagi "Frankfurt" aeroportlari EIChHlarining oddiy vakillari hisoblanib, bu aeroportlarning o'ziga xos xususiyatlari, ya'ni turistlarning ko'pligi va juda ko'plab mamlakatlarning havo yo'llari kesishganligi hamda boshqa ko'plab qulay imkoniyatlari uchun bu yerda sotuvga qo'yilgan xorijiy firmalarning tovarlari firma egalariga juda katta daromad keltiradi.

EIChHlarida ishlab chiqaruvchilarga narxlarni erkin raqobat va bozordagi talab va taklif asosida belgilash, hamkorni tanlash, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning hajmi va soni hamda turlarini belgilash, ishchilarni ishga qabul qilish, ularga to'lanadigan ish haqi miqdorlarini milliy va xorijiy valutada belgilash huquqi beriladi.

Jahon iqtisodiyotida texnika kiritish hududlari **uchinchchi avlod hududlari** hisoblanadi (XX asrning 70-80-yillari). Ular stixiyali tarzda yoki maxsus davlat yordamida yirik ilmiy markazlar atrofida tashkil topishi mumkin. Ularda yagona soliq va moliyaviy tizimdan foydalanuvchi milliy va xorijiy tadqiqotchilar, loyihachilar, ilmiy ishlab chiqarish firmalar faoliyat ko'rsatadi. Hozirgi kunda texnika kiritish hududlari asosan AQSH, Yaponiya, Xitoyda samarali faoliyat ko'rsatmoqda. AQSHda ularni texnoparklar, Yaponiyada texnopolislardan, Xitoyda esa, yangi va ilg'or texnologiyalar hududi deb yuritiladi.

Jahondagi eng mashhur va eng yirik AQSHning "Silikon Velli" nomli texnopark jahonda ishlab chiqarilayotgan hisoblash texnikasi vositalari va kompyuterlarning salkam 20 foizini bermoqda va hozirgi kunda ushbu mamlakatda 100 ga yaqin bunday hududlar mavjud. Yaponiyada ham maxsus hukumat dasturlari doirasida ilg'or ilmiy tashkilotlar asosida yigirmaga yaqin texnopolislardan tashkil qilingan. Xitoyda esa, bunday hududlar davlatning ilmiy-texnikani rivojlantirish rejalarini amalga oshirish paytida tashkil topgan. XX asrning 90-yillari o'rtalarida Xitoyda 50 dan ortiq yangi va ilg'or texnologiyalarni rivojlantirish hududlari faoliyat ko'rsata boshlagan edi.

Demak, erkin ilmiy-texnik hududlar (EITH) – ilmiy ishlab chiqarish va o'quv markazlari jamlangan hududdir. Unda rivojlangan infratuzilmaga ega bo'lган, chet el ilmiy-texnikaviy va texnologiyasiga, ishlab chiqarish va moliyaviy jihatdan salohiyatga ega bo'lган va maxsus huquqiy tartibot o'rnatiladigan alohida ajratilgan hududlardan iborat bo'ladi.

EITH yuksak texnopolislardan, texnoparklardan, mintaqaviy innovatsiya

markazlari – texnopolislar ishlaydigan zonalar shaklida tashkil etiladi. Bunday hududlarni tashkil etishdan maqsad fan va texnika rivojlanishida muhim yo‘nalishlarni olib borish va uni xalqaro maydondagi nufuzini yanada oshirishdan iboratdir. EITH tashqi iqtisodiy masalalarni hal etish bilan bir qatorda, mamlakatning ichki umumiy xo‘jalik masalalarini yechishga ham qaratilgan bo‘lishi lozim. Bunday holatda bu zonalarda ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, atrof-muhitga ziyon yetkazmaydigan ishlab chiqarishni tashkil etish va ishlab chiqarish resurslarini o‘zlashtirish uchun yuqori imkoniyatlar mavjud bo‘ladi.

Jahon iqtisodiyotida turli iqtisodiy, moliyaviy-sug‘urta va boshqa xizmatlar ko‘rsatuvchi firma va tashkilotlar uchun tadbikorlik faoliyatining imtiyozli sharoitlari yaratilgan hududlar servis hududlar deb ataladi va ular **to‘rtinchi avlod hududlariga** kiradi. Servis hududlar qatoriga offshor hududlar va soliq gavanlari ham kiradi. Offshor hududlar va soliq gavanlar tadbirkorlarni qulay valuta-moliya va fiskal sharoitlar bilan bank va tijorat sirlarining yaxshi saqlanishi va davlat boshqaruvining kamligi bilan o‘ziga jalb qiladi.

Offshor hududlar deb maxsus soliq tizimi o‘rnatilgan hududga aytildi yoki bu hududni xorijiy investitsiya uchun soliq imtiyozlari qo‘llaniladigan hudud deb ham atash mumkin. Ushbu holatda har qanday kompaniya ro‘yxatga olinish davrida soliqqa tortilish sharoitlariga qarab ikki turga bo‘linadi, ya’ni:

1. Oddiy kompaniyalar.
2. Offshor kompaniyalar.

Birinchi offshor hududlar 1960-yillarda tashkil etilgan. Uning tashkil bo‘lishining asosiy sababi mustaqillikka erishgan mamlakatlar xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun soliq imtiyozlarini joriy eta boshlanishi bilan bog‘liq. AQSH va boshqa mamlakatlardagi qattiq bank nazoratidan aziyat chekkan yirik korporatsiyalar bu hududlarda o‘zlarining filiallarini tashkil etishga kirishdilar. Bu bilan offshor tadbirkorlarning tarkibi ham rivojlana boshladi³⁵. Offshor tadbirkorligi o‘zining xususiyatlari jihatdan quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Bank-offshor markazlari.
2. Savdo-offshor kompaniyalari.
3. Sug‘urta-offshor kompaniyalari.
4. Investitsiya-offshor kompaniyalari.

³⁵ Kolesov V.P., Kulakov M.V. Mejdunarodnaya ekonomika: Uchebnik. – M.: INFRA-M, 2008. – 474 s.

5. Turistik-rekratsion hududlarga bo‘linadi.

Bunday kompaniyalar bir qancha imtiyozlarga ega bo‘lib, ular:

- birinchidan, soliq stavkalarining minimal miqdori;

- ikkinchidan, ma’muriy nazoratning yumshoqligi va hisobotlarni topshirish muddatlarining uzoqligi;

- uchinchidan esa, offshor kompaniyalar faoliyatining konfedensialligi, ya’ni sir saqlashning muhimligi hisoblanadi.

Offshor hududda ro‘yxatga olingan soliq va boshqa imtiyozlarga ega bo‘lgan kompaniyalarga qo‘yiladigan asosiy talab – offshor markaz joylashgan davlatning rezidenti bo‘lmaslik va bu davlatning hududida daromad olmaslikdir. Soliq gavanlarining offshor hududlardan farqi shundaki, u yerda firmalar (xorijiy va mahalliy firmalar ham) faoliyatning barcha turlari bilan shug‘ullanishida imtiyozlarga ega bo‘ladilar. Hozirgi paytda jahonda 300 dan ortiq offshor markazlar mavjud bo‘lib, ularning 70 tasi soliq gavanlari hisoblanadi.

9.1-jadval

Offshor kompaniyalar o‘rtasidagi farqlar

Kompaniya-lar statusi	Xo‘jalik faoliyati	Muassis-lar	Daromad manbalarini	Soliq stavkalari
Oddiy	mamlakat hududida va tashqi iqtisodiy aloqalarida ishtirok etishi mumkin	fuqaroligi bo‘lgan va chet ellik fuqarolar	mamlakat hududida va chet ellarda ham bo‘lishi mumkin	soliq kodeksida belgilangan tartibda
Offshor	rezidentlar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan xo‘jalik faoliyati bilan	mamlakat tashqarisida asosiy filial ro‘yxatdan o‘tgan mamlakatda	mamlakatda tashqarisida offshor kompaniyalari uchun mahalliy resurslardan (tabiiy, moliyaviy) foydalanish taqilanganadi	imtiyozli soliq stavkalari yoki fiksatsiya-langan to‘lovlar

Manba: Mejdunarodnaya ekonomika. Kireev A. Moskva. 1999g.

Offshor hududlardagi sanoat, savdo, bank, sug‘urta va boshqa kompaniyalar umuman soliqqa tortilmaydi (Irlandiya) yoki kichik miqdordagi soliqlar to‘laydi (Lixtenshteyn, Antil orollari, Panama, Men orollari va boshqalar), xolos. Masalan, Shvetsariyada offshor biznesga nisbatan kam soliq miqdori belgilangan. Bu soliq, ma’lum holatlarda, umuman to‘lanmasligi ham mumkin. Offshor hududlar valuta cheklashlarni yo‘qligi bilan daromadni olib chiqish erkinligi, xorijiy investorlar uchun bojlarning yo‘qligi bilan ham ajralib turadi. Offshor hududlarni tashkil qiluvchi davlatlar qo‘srimcha xorijiy kapitalni jalb qilish, hududda ro‘yxatga olingan korxonadan foyda olish, mahalliy mutaxassislar uchun qo‘srimcha ish joylar tashkil qilinishi orqali foyda ko‘radilar.

Odatda, offshor biznes bank, sug‘urta ishi, dengiz kemachiligi, ko‘chmas mulk operatsiyalar bilan trast faoliyati va eksport-import operatsiyalari bilan konsaltingda jamlanadi. Hozirgi kunda jahon xo‘jaligida katta mavqega ega bo‘lgan bir qator yirik offshor zonalari mavjud bo‘lib: Malta, Gonkong, Kipr, Singapur, Lixtenshteyn, Luksemburg, Shvetsariya, Panama, Gibraltar kabi mamlakatlar hisoblanadi. Ushbu mamlakatlarning milliy iqtisodiyoti tahlili va ularda tashkil etilgan EIHLar rivojlanish darajasidan ko‘rinib turibdiki, bu mamlakatlardagi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga EIHLar katta ijobjiy ta’sir o‘tkazadi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, hozirgi kunda offshor biznesda band bo‘lgan kapital 1 trln. dollardan ortiq mablag‘ni tashkil etib, unda qariyb 2 mln. dan ortiq kishi banddir. Har yili bir necha minglab yangi offshor biznesga oid kompaniyalar ro‘yxatga olinadi.

Majmuaviy hududlar alohida ma’muriy rayonlar hududida xo‘jalik yuritish rejimiga nisbatan alohida, imtiyozli rejim o‘rnatish yo‘li bilan tashkil qilinadi. Ularga Xitoyning 6 ta maxsus iqtisodiy hududlarini, Braziliyadagi “Manuas” hududini, Argentinaning “Olovli yer” hududini, sanoati rivojlangan davlatlarning kam rivojlangan hududlaridagi erkin tadbirkorlik zonalarini misol qilib ko‘rsatish mumkin.

9.4. Jahon xo‘jaligida erkin iqtisodiy hududlar faoliyatining o‘ziga xos rivojlanish xususiyatlari

Bugungi kunda jahon xo‘jaligida tashkil qilinayotgan asosiy EIHLarning soni rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Chunki, jahon xo‘jaligida erkin iqtisodiy hududlarning tashkil topishi-

ning eng gurkiranagan davri XX asrning 80-yillariga to‘g‘ri keladi.

Turli ko‘rinishdagi EIHLarning o‘xshash tomonlaridan biri ularda tadbirkorlar uchun moliyaviy, bojxona va soliq imtiyozlari, shuningdek, umumiy rejimga nisbatan ustunliklarga ega bo‘lgan qulay investitsiyaviy iqlimning mavjudligidir. Turli ko‘rinishdagi EIHLarda imtiyoz va rag‘batlantirishlar o‘zlarining ba’zi jihatlari bilan farq qiladi. Bunday imtiyozlarni to‘rtta asosiy guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. Tashqi savdo imtiyozlari. Bunga alohida bojxona-tarif rejimi kirib (eksport-import bojlarini kamaytirish yoki bekor qilish), unda tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish tartiblari soddalashtiriladi.

2. Soliq imtiyozlari. Bunda faoliyatning ma’lum ko‘rinishlari soliq imtiyozlari orqali rag‘batlantiriladi. Bu imtiyozlar soliq bazasi (daromad, mulk qiymati va boshqalar) va shuningdek, uning tarkibiy qismlari (amortizatsiya ajratmalar, ish haqiga xarajat, transport) soliqqa tortilishidan doimiy va vaqtinchalik ozod qilishda qo‘llaniladi.

3. Moliyaviy imtiyozlar. U o‘z ichiga turli shakldagi subsidiyalarni oladi. Ularga kommunal xizmatlarning arzonligi, yer maydonlari va ishlab chiqarish binolarining ijara haqini kamaytirish hamda imtiyozli kreditlar kiradi.

4. Ma’muriy imtiyozlar korxonalarni ro‘yxatdan o‘tkazish va xorijiy fuqarolarning kirib-chiqishlarini yengillashtirish, shuningdek, xizmatlar ko‘rsatish maqsadida ma’muriyat tomonidan maxsus hududlarning ajratilishi bilan bog‘liq tartiblarni o‘z ichiga oladi.

Jahon xo‘jaligidagi iqtisodiy holatlarning o‘zgarib turishi EIHLarning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatib, bu o‘zgarishlarga mos ravishda javob qaytarishni talab qiladi. EIHLarning tashkil qilinishi ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan foydalidir. Bu hududlar ko‘plab ish o‘rinalarini tashkil qilishda, xalqaro tovar ayriboshlashni jonlantirishda, tashqi savdo natijalarini yaxshilashda, ilmiy ishlab chiqarish salohiyatini oshirishda muhimdir. Jahon banki tahliliga ko‘ra, 2018-yilda jahon tovar aylanmasining 32 foizi ana shu turli xildagi EIHLarda ro‘y bergen.

Rivojlanayotgan davlatlardagi EIHLar bir qator o‘xshashliklarga ega bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

Birinchidan, bu davlatlarda eksport uchun ishlab chiqarish

hududlari keng tarqalgan. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, erkin ishlab chiqarish hududlarini tashkil qilishga qator iqtisodiy sabablar, avvalambor, eksport uchun sanoat tovarlari ishlab chiqarishni rivojlantirish, mamlakatga xorijiy kapital, ilg'or fan-texnika, ilg'or zamonaviy texnik axborotlar jalg qilish zaruriyati kabi sabablar turtki bo'ladi.

Ikkinchidan, EIhlardagi xo'jalik yuritish rejimi xorijiy ishbilarmonlar uchun erkin va imtiyozli bo'ladi. Bu EIhlar orasida xalqaro raqobatning kuchayishi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar mavjud bo'ladi.

Uchinchidan esa, EIhlar faoliyatida tovar sanoat diversifikatsiyasi ro'y beradi. Zamonaviy yangi va yuqori texnologik ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan EIhlarni ilg'or o'rnlarga olib chiqadi.

Ba'zi jahon mamlakatlarida tashkil qilingan EIhlarning hammasida ham faoliyati bir tekis rivojlanmagan, albatta. EIhlar jahon iqtisodiyotida, nafaqat, muvaffaqiyat keltirishi, balki ularni tashkil etishda muvaffaqiyatsizlikka uchrashi ham mumkin ekan. Masalan, Hindiston, Pokiston, Shri-Lanka, Gvatemala, Liberiya, Senegal va boshqa davlatlarda turli ko'rinishdagi tashkil qilingan EIhlar milliy iqtisodiyot rivoji uchun o'z samarasini bermagan hamda ular o'z faoliyatini butkul to'xtatgan edi.

Buning asosiy sabablari - siyosiy, iqtisodiy va tashkiliy sabablarni ko'rsatish mumkin. Siyosiy sabablarga mamlakatdagi umumiy siyosiy beqarorlik va siyosiy inqirozlar, fuqarolar o'rtasidagi kelishmovchiliklar va boshqalar kiradi. Iqtisodiy sabablarga esa, eng avvalo, EIhlardagi juda murakkab investitsiyaviy rejim haqidagi qonunchilik kiradi. EIhlardagi qog'ozbozlik, boshqaruqli ta'sir va shuningdek, investorlarni ro'yxatga olishdagi ortiqcha qog'ozbozlik jarayonlarining mavjudligi, reklamalarning sustligi va boshqalar ham EIhlar faoliyatiga hamda ularning taqdiriga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi.

9.5. Jahon xo'jaligida erkin iqtisodiy hududlarning tashkil topishi va ularning faoliyatida Xitoy tajribasi

Hammamizga ma'lumki, Xitoy XX asrning 90-yillarida jahon xo'jaligida "iqtisodiy mo'jiza"ga erishgan mamlakatdir. Xitoydagi EIhlarning tashkil qilinishi va ularning faoliyati o'tgan asrning 80-

yillarida juda ham tez taraqqiy etgan. Xitoy hukumati tomonidan tatbiq qilingan “ochiq eshiklar siyosati” dasturining amalga oshirilishi natijasida mamlakatning qirg‘oqbo‘yi hududlarida birin-ketin yirik xalqaro dengiz portlarining qurilishi boshlandi. Ushbu qurilishning asosi sifatida 1984-yilda Xitoyning 14 shahriga tashqi iqtisodiy faoliyatni olib borish huquqini berilganligini keltirish mumkin, ushbu dengiz shahar portlari tashqi savdo-sotiqni rivojlantirish maqsadida xorijiy hamkor mamlakatlar uchun “ochiq” deb e’lon qilindi.

Shu bilan birga, avvaliga 4 ta “erkin iqtisodiy hudud” tashkil qilindi. Jumladan: Shenchjen, Chjuxay, Syamen va Shantou. Ushbu “erkin iqtisodiy hudud”larning eng yirigi bu – Shenchjen erkin iqtisodiy hududidir va u Gonkongga juda ham yaqin bo‘lgan hududda joylashgan. Ushbu EIHLarga kiritilgan xorijiy kapital miqdori 4 mlrd. dollarni tashkil qilgan bo‘lsa, Xitoyning o‘zi kiritgan mablag‘lari 22 mlrd. dollarni tashkil qilgan. Shunday qilib, amalda Xitoyda EIHLarning infratuzilmasi markaziy davlat mablag‘lari hisobiga vujudga kelgan va shakllantirilgan.

Keyinchalik mamlakatning janubiy hududida yana bir erkin iqtisodiy hudud – “Xaynan” tashkil qilindi va Osiyodagi eng yirik xalqaro turistik bozorning shakllanishiga aynan ushbu Xaynan erkin iqtisodiy hududi sabab bo‘ldi. Albatta, Xitoy hukumati tomonidan qisqa 10 yil ichida amalga oshirgan ulkan iqtisodiy dasturlar va islohotlar negizida mamlakatning o‘scha paytdagi rahbari Den Syao Pinning mehnatlari beqiyosdir.

Bundan tashqari, XX asrning 80-yillarining so‘ngida Xitoyning janubiy provinsiyalarida 20 dan ortiq texnik-iqtisodiy hududlar va yangi yuqori texnikani rivojlantirish hududlari – texnoparklar ham tashkil qilindi va hukumat nazorati ostida rivojlandi. “Pudun iqtisodiy rivojlanish hududi” bir necha o‘n yillar mobaynida Shanxayni Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi yirik savdo va moliyaviy markazga aylantirdi.

EIHLarning tashkil topishi va ular faoliyatining keng darajada rivojlanishi, Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, Xitoy hukumati tomonidan XX asrning oxirgi chorak qismida jahon hamjamiyatiga e’lon qilingan ochiq tashqi iqtisodiy siyosatining natijasidir. EIHLarni rivojlantirish modelini tanlashda Xitoy rahbariyati xorij tajribalarini e’tiborga oldi. Gonkong, Singapur, Tayvan va AQSH kabi

mamlakatlarning EIHLar faoliyatlari tajribalariga alohida e'tibor qaratdi. EIHLarni tashkil qilishning bir necha variantlari ishlab chiqildi va natijada eksportga ixtisoslashgan va shuningdek, xorijiy kapitalni jalg qilish asosida ishlab chiqarish texnologiyasini yaxshilashga yo'naltirilgan EIHL modeli tanlab olindi. Maxsus iqtisodiy hududlar "ochiq eshiklar siyosati"ni amalga oshirgan holda mamlakatning boshqa hududlarini bog'lab turuvchi "ko'prik" vazifasini bajarib turdi.

Xitoylek va xorijiy mutaxassislar mamlakatdagi EIHLar tomonidan amalga oshirilgan ulkan samarali ishlarga va yuqori yutuqlarga erishishiga, avvalambor, barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini, hududlarga ko'p miqdorda xorijiy investorlarning jalb qilinishini, mehnat unumdorligining sezilarli darajada o'sishini va nihoyat, aholi turmush tarzi darajasining qisqa yillar ichida tez o'sishini va sh.k.larni misol qilib keltirish mumkin. Bugungi kunda Xitoyning o'zida 2543 ta erkin iqtisodiy hududlar mavjud³⁶.

9.6. Jahon xo'jaligida "Cho'l ustida qurilgan EIHLar" faoliyatining Birlashgan Arab Amirliklari tajribasi

Ma'lumki, jahon ommasi Fors ko'rfa zi mamlakatlarining milliy iqtisodiyoti rivojlanishini asosiy omil sifatida qaraluvchi neft eksporti bilan bog'lashadi, albatta. Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) XXI asrning boshida jahon xo'jaligida iqtisodiyoti tez rivojlanayotgan malakatlar qatoridan joy oldi va qisqa 15 yil ichida "Cho'l ustidagi iqtisodiy mo'jiza" atamasini oldi. BAAning iqtisodiy geografik joylashuvi Osiyo va Yevropa mintaqalari o'rtasidagi strategik jihatdan nihoyatda qulay joylashgan va Yaqin Sharqdagi xalqaro yuk tashish tranzit yo'llari markazidan salmoqli darajada foyda ko'radigan mamlakatdir.

BAA da EIHLarning tashkil topish tarixiga nazar soladigan bo'lsak, 1985-yilda mamlakatning yirik shahri hisoblangan Dubayda hukumat tomonidan "Jebel Ali" nomli birinchi EIHLni ochishga imkon beradigan qonun imzolandi va natijada Xalqaro Dubay aeroporti qoshida yirik "Jebel Ali" erkin savdo hududi tashkil qilindi. U, nafaqat, aeroportga yangi hayot bag'ishladi, balki xalqaro investorlarni ham o'ziga jalb etdi. Ushbu tashabbus natijasida amalga oshirilgan ulkan ishlar shu

³⁶ <https://goole.com/amp/s/1prof.by/news/ekonomika-i-biznes/svobodnye-ekonomicheskie-zony>

qadar muvaffaqiyatli bo‘ldiki, uning iqtisodiy muvaffaqiyatlarining natijasida boshqa amirliklar ham Dubay tajribasini o‘zlashtira boshladilar, natijada birin-ketin ko‘p sonli yangi EIHLar tashkil qilindi.

BAAda EIHning quyidagi asosiy vazifalarini ta’kidlash joiz:

- xorijiy investitsiyalar, ishlab chiqarish texnologiyalari va innovatsiyalarni jalg qilish;
- yangi ish o‘rinlarini yaratish va rivojlangan xorijiy mamlakatlardan yuqori malakali mutaxassislarni jalg qilish;
- xalqaro savdoni rivojlantirish kabi vazifalarni amalga oshirish belgilangan.

Shunday qilib, BAAda EIHLarning tashkil qilinishiga sabab bo‘lgan asosiy turtki BAA hududining xalqaro savdo yo‘llarining chorrahasida joylashganligidir, shu sabab bilan ushbu mamlakatni Amerikadan Yevropaga va aksincha yo‘nalishda parvoz qiladigan samolyotlarning xalqaro tranzit hududiga aylantirishdan boshlandi. Keyinchalik, bu yerda barcha zarur inshootlar va binolar qurildi hamda aeroportning o‘zi qaytadan qurilib, kengaytirildi hamda uning infratuzilmasi xalqaro darajada yaxshilandi.

2003-yilda boshlangan bunday ulkan ishlar natijasida, qisqa 5 yil ichida qurilgan yirik Dubay xalqaro aeroporti yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish, turli servis, aviareyslar va yo‘lovchilarini tashish hajmi jihatidan Osiyoning Stambul shahridagi “Otaturk xalqaro aeroporti”ga haqiqiy va chinakam raqobatchiga aylandi.

BAA hukumati Dubaydagi muvaffaqiyatlarga asoslangan holda, mazkur “Erkin savdo shahri”ni dunyodagi eng yaxshi sharoit va imtiyozlarga ega bo‘lgan yirik “Ishbilarmonlar shahri”ga aylantirishga va jahonning “Ikkinci Nyu-York” shahri bo‘lishini ta’minlash maqsadiga erishish yo‘lida yirik loyihamalarni amalga oshirilmoqda. Ushbu maqsadlardan kelib chiqib, Amirliklarni oltin quyish savdosini, zamonaviy “nou-xau” texnologiyalarini tadqiq qilish va rivojlantirish hamda moliyaviy faoliyatni yanada rivojlantirish uchun global markaz sifatida kashf etishni rejalshtirgan bir nechta yangi erkin savdo zonalari ishga tushirildi.

Bugungi kunda faqat Dubayning o‘zida bir necha o‘nlab EIHLar muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatmoqda. Jumladan, aviatsiya, dizayn, sog‘liqni saqlash, axborot texnologiyalari, qimmatbaho metallar va toshlar savdosini, moliya, avtomobilsozlik, ishlab chiqarish va logistika,

ommaviy axborot vositalari, harbiy texnika va qurol-aslaha savdosi, tovarlar birjalari va boshqa sohalarda bir qator maxsus erkin iqtisodiy zonalar mavjud.

BAAda erkin savdo zonalarining juda katta tanloviga qaramay, chet ellik ishbilarmonlar, asosan, quyidagi 3 ta yirik erkin iqtisodiy hududlarni tadbirkorlik va biznesni yuritish uchun eng qulay deb hisoblashadi:

1) “Jebel Ali” erkin savdo hududi – bugungi kunda 6000 dan ortiq turli xil kompaniyalar, shu jumladan, “Nestle”, “Toshiba”, “Mitsubishi” va boshqa o‘nlab dunyoga mashhur brendlar faoliyat ko‘rsatadi;

2) “Ras al-Xayma” maxsus iqtisodiy hududida 5000 dan ortiq turli kompaniyalar uchun yirik hudud shakllandi va bugungi kunda samarali faoliyat ko‘rsatmoqda;

3) “Ajman” erkin hududining faoliyati yil sayin shakllanib bormoqda va undagi inshoot va texnologiyalarni ijara berish mumkinligi va shuningdek, ushbu hudud atrofi Amirlikda kun kechirish va yashash narxi bo‘yicha boshqa hududlarga qaraganda ancha arzon va qulayligi bilan ajralib turadi.

Aslida, BAAdagi ixtisoslashgan zonalar mamlakatning o‘ziga xos biznes muhitiga egadir. Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun imtiyozli shartlar BAAning shunday erkin iqtisodiy zonalarida taqdim etiladi hamda ro‘yxatdan o‘tgan kompaniyalar va korxonalar keng ko‘lamli investitsiya vositalari va to‘liq iqtisodiy faoliyat bilan ta’minlanadi.

BAAdagi maxsus erkin iqtisodiy zonalar (erkin savdo zonalari)ning asosiy maqsadi haqida gap ketganda quyidagi eng asosiy tamoyillarni ajratib ko‘rsatish mumkin, jumladan:

- zonada sanoat o‘sishini faollashtirish va rag‘batlantirish;
- mahalliy bozorni sifatlari mahsulotlar bilan ta’minlash;
- xalqaro savdo va tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish;
- import va eksportni tarmoqli rivojlantirish;
- chet eldan to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish;
- rivojlangan mamlakatlardan malakali ishchi kuchini jalb qilish;
- amalga oshirilgan tadbirlarning negizida milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga hissa qo‘sishini ta’minlash kabilarni o‘z ichiga oladi.

BAA hukumatining sarmoyadorlar va ishbilarmonlarga bo‘lgan

sodiqligini quyidagilar aks ettirishi mumkin:

- BAAning imtiyozli soliq va bojxona rejimi;
- BAAda xorijiy ishchi kuchini jalg qilishda erkinlik.

O‘z o‘rnida ta’kidlash joizki, 2010-yilda bo‘lib o‘tgan BMTning navbatdagi Sammitida BMTning Bosh kotibi Pan Gi Mun tomonidan ta’kidlab o‘tilgan: “BAA – jahondagi eng xavfsiz mamlakatidir”, degan iborasini yana bir bor eslash kifoyadir. Avvalo, savol tug‘iladi – nima uchun jahondagi yirik ishbilarmonlar o‘zlarining kapitalini Singapur yoki Gonkongga emas, balki aynan BAAGA olib kelishga harakat qilishmoqda? Albatta, buning bir qator asosiy xususiyatlari va sabablari mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iboratdir:

- BAA bugungi kunda jahondagi eng ko‘p xorijiy ishbilarmonlarni o‘z e’tiboriga chorlaydi va jalg qiladi;
- BAA hududi qulay iqtisodiy-geografik joylashuvga ega bo‘lib, u xalqaro savdo yo‘llari chorrahasida joylashgan mamlakatdir;
- daromad solig‘i, bojxona to‘lovlar va boshqa majburiy to‘lov va talablarning yo‘qligi;
- yangi ofis, omborxona va turar-joy binolarining tayyorligi, zamonaviyligi va doimiy mavjudligi hamda ushbu hududlar dunyodagi eng yaxshi infratuzilmalardan biri ekanligi;
- arzon energiya va biznes xizmati;
- Yevropa va AQSHga qaraganda ancha arzon ish haqi to‘lanadigan malakali ishchilar va ularga unchalik yuqori bo‘lmagan hamda ishchilarni qoniqtiradigan darajadagi oylik maoshlarining joriy etilganligi;
- chet elliklar uchun mahalliy hamkorlarni jalg qilmasdan mustaqil ravishda kompaniyaga egalik qilish imkoniyatining mavjudligi;
- barcha hujjatlarni juda tez tekshirish va ro‘yxatga olish jarayonining ancha soddalashtirilganligi;
- BAA hukumatining o‘z hududlarida ishlaydigan xorijiy ishbilarmonlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni boshqa mamlakatlarning soliq idoralari bilan baham ko‘rishni istamasligi;
- ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan davlatning barqarorligi;
- eng muhimi, maxfiylikning yuqori darajasi va biznes haqidagi ma’lumotlar va hujjatlar ommaga oshkor qilinmaydi.

BAAdagi EIHLar tomonidan 2019-yilda 356,5 mlrd. dirham yoki

97,6 mlrd. dollar miqdorida mahsulotlar import qilingan, bu avvalgi yilga nisbatan 2,7 foizga ko‘p demakdir. Eksport hajmi esa 1,3 foizga o‘sib, 264,8 mlrd. dirhamni yoki 72,5 mlrd. dollarni tashkil qilgan³⁷.

Qisqasi, BAAda EIHLar xorijiy kompaniya va tadbirdorlarga qulay investitsiyaviy sharoitlarni yaratgan bo‘lib, daromad solig‘idan ozod qilish va xorijiy kapitalning to‘liq qaytarilish kafolati qonun bilan belgilab qo‘yilgan.

Bob yuzasidan xulosa

Demak, Yuqoridagi keltirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, erkin iqtisodiy hududlar – bu muayyan imtiyoz va Preferensiylar ostida alohida ajratilgan mamlakatning qonunchilik tizimidan tashqarida bo‘lgan iqtisodiy hududidir. Bunday hududlardan davlatlar o‘zining nisbatan qoloq hududlarini rivojlantirish yoki muayyan siyosatni amalga oshirishda tajriba sifatida foydalanishni maqsad qilganlarida qo‘llaydilar.

Erkin iqtisodiy hududlarning turli-tuman shakllari mavjud bo‘lib, ularning iqtisodiy ishlab chiqarish zonalari, savdo zonalari, offshor hududlar, erkin turizm zonası, texnopark va boshqa o‘nlab turlari mavjud. Jahan xo‘jaligida erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etishda Xitoy va BAA kabi mamlakatlarning tajribalari muhim sanaladi. Chunki, ushbu mamlakatlar milliy iqtisodiyotlarini rivojlantirish manfaatlaridan kelib chiqqan holda EIHLarni rivojlantirish bo‘yicha turli modellarni tanlab olganlar va bu o‘z samarasini ko‘rsatib kelmoqda.

Nazorat savollari

1. Erkin iqtisodiy hudud deganda nimani tushunasiz.
2. EIHLarning mazmun va mohiyatini tushuntirib bering.
3. EIHLarni asosiy ko‘rinishlarini tavsiflab bering.
4. Jahanoning turli mamlakatlarida EIHLar faoliyati rivojlanishining qanday o‘ziga xos xususiyatlari bor?
5. EIHLar faoliyatining muvaffaqiyatsizlikka uchrashini qanday sabablari bo‘lishi mumkin?
6. Jahanoning qaysi mamlakatlarida tashkil qilingan EIHLarning faoliyati samarasiz yakunlangan va nima uchun?

³⁷ <https://busnessemirates.ae/content/blog/busnes-i-investitsii/fri-zony-dubaya>

7. Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etishdan maqsad nima?
8. Qaysi mamlakatlarning EIH tashkil etish bo‘yicha tajribalarini bilasiz va ularning xususiyatlarini ayting.
9. Offshor hududlarning savdo hududlaridan farqi nimada?
10. Xitoyda qanday va qachon EIHLar tashkil qilingan?
11. BAAdagi EIHLar tashkil qilinishining mohiyatini ayting.
12. Nima uchun jahondagi yirik kompaniya va ishbilarmonlar BAAda o‘z faoliyatlarini olib borishlarini istashadi?
13. O‘zbekistonda “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risi”dagi Qonun qachon kuchga kirgan va EIHga qanday ta’rif berilgan?
14. O‘zbekistonda qanday EIH tashkil qilingan?
15. Mamlakatimizning qaysi EIH bugungi kunda qolgan EIHLarga qaraganda faoliyatini yuqori baholaysiz va nima uchun?
16. Mamlakatimizda eng birinchi bo‘lib tashkil qilingan “Navoi EIH”ning istiqbolini qanday baholaysiz?

Uyga vazifa!

Talabaning “Jahon xo‘jaligida Erkin iqtisodiy hududlarning tutgan o‘rni” mavzusini chuqur o‘zlashtirishi hamda amaliyot darsiga puxta tayyorgarlik ko‘rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

- 1) mavzu so‘ngida berilgan “Nazorat savollari”ga tayyorgarlik ko‘rish;
- 2) jahonda mamlakatlaridagi erkin iqtisodiy hududlar bo‘yicha (tanlama ravishda) “Mustaqil ish” mavzusini tahlil qilish;
- 3) O‘zbekistonda tashkil qilingan erkin iqtisodiy hududlar faoliyati bo‘yicha (har bir bosqich alohida guruhga) talabalar guruhlarga bo‘lingan holda “taqdimot” o‘tkaziladi.

X BOB. JAHON VALUTA TIZIMI

- 1. Xalqaro valuta tizimining mohiyati va tarkibi.**
- 2. Xalqaro valuta tizimining rivojlanish bosqichlari.**
- 3. Xalqaro rezerv valuta birliklari.**
- 4. Yevropa valuta tizimi.**
- 5. Xalqaro valuta va moliya-kredit bozorlari.**
- 6. Valuta kurslarining barqarorligi.**

Tayanch iboralar: valuta-kredit munosabatlari, xalqaro moliya, oltin, zayom, milliy valuta tizimi, xalqaro valuta tizimi, valuta bozorlari, valuta kursi, valuta pariteti, konvertatsiya, oltin standart tizimi, oltin-deviz standarti tizimi, Genuya kelishuvi, Bretton-Vuds kelishuvi, Yamayka kelishuvi, SDR (Special drawing rights).

10.1. Xalqaro valuta tizimining mohiyati va tarkibi

XX asrning 50–60-yillarida jahon iqtisodiyotida xalqaro iqtisodiy, moliyaviy va valuta munosabatlarini rivojlanishida yangi davr boshlandi. Ochiq iqtisodiyotning umumiy tendensiyasi savdo ayirboshlashuvining tezlashishiga, xalqaro moliyalashtirishning rivojlanishiga, yangi valuta bozorlarini hosil bo‘lishiga, turli mamlakatlar orasida valuta-moliya munosabatlarining kengayishiga imkon berdi.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro valuta munosabatlari pulning “jahon puli” funksiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy munosabatlarni namoyon qiladi. Pul o‘z qiymati bilan jahon puli sifatida tashqi savdo va xizmatlar, kapital migratsiyasi, foydaning investitsiyalarga ko‘chishi, zayom va subsidiyalar berish, ilmiy-texnik almashuv, turizm, davlat va xususiy pul ko‘chirishlariga (o‘tkazmalar) xizmat qila boshladi.

Valuta munosabatlari odatda milliy va xalqaro darajalarda amalga oshiriladi. Milliy darajada ular milliy valuta tizimlari sohasini qamrab oladi. Milliy valuta tizimi bu valuta qonunchiligi bilan belgilanadigan davlat valuta munosabatlarini tashkil qilishning shaklidir. Milliy valuta tizimining o‘ziga xos tomoni u yoki bu davlat iqtisodiyotining, shuningdek, tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanish darjasini va o‘ziga xosligi bilan aniqlanadi.

Milliy valuta tizimi quyidagi holatlari bilan xarakterlanadi:
– milliy valuta birligi bilan;

- rasmiy oltin va valuta zaxiralarining tarkibi bilan;
- milliy valuta pariteti va valuta kursi shakllanishining mexanizmi bilan;
- valuta qaytishi sharoitlari bilan;
- valuta chekshanishlarining mavjudligi yoki yo‘qligi bilan;
- davlatlarning tashqi iqtisodiy hisob-kitoblarini amalga oshirish tartibi va boshqalar.

10.1 - jadval

Jahon valuta tizimining elementlari

№	Elementlar	Ularning tavsifi
1	Zaxira valutalar va xalqaro hisob birliklari	Zaxira valutalari sifatida AQSH dollari, Yevro, Buyuk Britaniya funt sterlingi va Yaponiya yeni tan olinadi.
2	Valutalarni o‘zaro konvertirlash shartlari	Faqat ichki konvertirlikka ega bo‘lgan valutalar. Ichki va tashqi konvertirlikka ega bo‘lgan valutalar.
3	Valuta paritetlarining umumlashtirilgan rejimlari	Valuta paritetlarini milliy valutalarning xarid kuchini yetakchi valutalardan birining xarid kuchiga nisbatan hisoblash keng qo‘llanmoqda.
4	Valuta kursi rejimlarini tartibga solish	Qat’iy belgilangan kurslar rejimi barham topdi va davlatlarga “erkin suzish” rejimidan foydalanish tavsiya etildi.
5	Valutaviy cheklashlarni davlatlararo tartibga solish	XVF davlatlarni joriy operatsiyalar bo‘yicha valutaviy cheklashlarni olib tashlashga chaqiradi.
6	Xalqaro valutaviy likvidlikni davlatlararo tartibga solish	Xalqaro valutaviy likvidligi past bo‘lgan davlatlarga XVF imtiyozli kreditlar bermoqda. Ularga texnik yordam ko‘rsatilmoqda.
7	Xalqaro kredit muomala vositalaridan foydalanishning umumlashtirilgan tartibi	Xalqaro kredit muomala vositalaridan foydalanishning umumlashtirilgan tartibi xalqaro Jeneva konvensiyalari, akkreditiv va inkasso bo‘yicha umumlashtirilgan qoidalarda o‘z ifodasini topgan.

8	Xalqaro hisob-kitob shakllarini umumlashtirish	Xalqaro hisob-kitob shakllari ikki yirik guruhga bo‘linadi: sof to‘lovlar va hujjatlashtirilgan to‘lovlar.
9	Xalqaro valuta va oltin bozorlarining rejimi	Xalqaro valuta va oltin bozorlari valutaviy cheklashlar mavjud bo‘lmagan davlatlarda joylashgan va ularda erkin savdo amalga oshiriladi.
10	Valuta munosabatlarini tartibga soluvchi xalqaro tashkilotlar	XVF, Jahon banki, Xalqaro hisob-kitoblar banki bu sohada nufuzli xalqaro tashkilotlar hisoblanadi.

Manba: ushbu jadval ma’lumotlar asosida ishlab chiqilgan.

Milliy valuta tizimlari bog‘lovchi zveno bo‘lib valuta kursi va valuta pariteti xizmat qiladi. Valuta kursi alohida mamlakatlarning valutalariga bo‘lgan nisbati yoki ma’lum bir davlat valutasining boshqa bir davlatlar valutasida hisoblangan “narxi”ni namoyon qiladi.

Valuta pariteti – valutalarning ulardagি oltinga mos keluvchi nisbatidir. Valuta kursi amalda hech qachon paritet bilan mos kelmaydi.

Xalqaro valuta tizimi - jahon xo‘jaligi doirasida valuta munosabatlarini tashkil qilishning shaklidir. U jahon kapitalistik xo‘jaligi evolutsiyasi natijasida paydo bo‘lib, huquqiy jihatdan davlatlararo kelishuvlar bilan rasmiylashtirilgan.

Xalqaro valuta tizimining asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

- valuta birliklarining milliy va umumiylarini zaxiralari;
- xalqaro likvidli aktivlarning tarkibi va tuzilishi;
- valuta paritetlari va kurslarining mexanizmi;
- valutalarning o‘zaro almashuv shartlari;
- xalqaro hisob-kitob shakllari;
- xalqaro valuta bozori va jahon oltin bozori rejimi;
- valuta-moliya tashkilotlarini (Jahon banki, XVF, Xalqaro tiklanish taraqqiyot banki va boshqalar) tartibga soluvchi davlatlararo valuta-kredit tashkilotlarining maqomi.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro valuta tizimining asosiy vazifasi muhim iqtisodiy o‘sishni ta’minlashdan, inflatsiyani kamaytirishdan, tashqi iqtisodiy almashuv va to‘lov aylanmasining tengligini qo‘llab-quvatlash uchun xalqaro hisob-kitoblar hamda valuta bozori sohasini tartibga solishdan iboratdir. Jahon valuta tizimining elementlarini 10.1-jadval

orqali ko‘rishimiz mumkin.

10.2. Xalqaro valuta tizimining rivojlanish bosqichlari

Jahon iqtisodiyotida xalqaro valuta tizimi doimiy ravishda dinamik rivojlanib boruvchi tizimdir. U o‘zining o‘sish darajasini tez rivojlantirib yuqori ko‘rsatkichga erishadigan (evolutsion) rivojlanish bosqichlarda doimo o‘zgarib turadi va rivojlanadi. O‘zining tarixiy evolutsion rivojlanishida Xalqaro valuta tizimi to‘rtta xalqaro valuta tizimlarini o‘zida namoyon qiluvchi quyidagi to‘rtta muhim bosqichni bosib o‘tgan va ushbu bosqichlarni 10.2-jadval orqali ko‘rish mumkin.

Xalqaro valuta tizimining birinchi bosqichi:

Xalqaro valuta tizimida oltin standart deb ataluvchi birinchi tizim stixiyali ravishda XIX asr oxirida vujudga keldi. Unda jahon iqtisodiyotidagi bir qator rivojlangan davlatlarning valutalari o‘z davlatlarining ichki bozorida erkin ravishda oltinga tenglashtirilgan.

Oltin standart tizimi quyidagilar bilan ajralib turgan:

- valuta birligi ma’lum miqdorda oltin qiymatiga egaligi;
- valutaning oltinga konvertatsiyalanishi alohida bir davlatning ichida ham tashqarisida ham ta’minlanganligi;
- oltin quymalari (plitka) erkin ravishda tangalarga almashtirilishi mumkin, oltin erkin eksport va import qilinadi, xalqaro oltin bozorlarida sotilishi oddiy eksport sifatida yo‘lga qo‘yilgan;
- milliy oltin zaxirasi va ichki pul taklifi o‘rtasida kuchli nisbatning saqlanishi bilan ajralib turadi.

Ushbu bosqichda oltin standartga asoslangan xalqaro hisob-kitoblar mexanizmi qayd qilingan kursni o‘rnatdi. Oltin tanga, oltin yombi, oltin deviz standartlari oltin standartning turlaridir. Oltin standartning bir turidan ikkinchisiga evolutsion o‘tishi xalqaro an’anaviy iqtisodiyotning rivojlanish davrlarida ro‘y bergen edi.

Xalqaro valuta tizimining ikkinchi bosqichi:

Xalqaro valuta tizimining ikkinchi bosqichida 1922-yilda Italiyaning Genuya shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiya qabul qilingan qarorlari natijasida oltin-deviz standartining ikkinchi tizimi vujudga keldi. Keyinchalik, u ko‘plab rivojlangan mamlakatlar tomonidan tan olindi. Bunda banknotalar oltin emas, balki keyinchalik oltinga almashtirilishi mumkin bo‘lgan boshqa davlatlar “deviz”iga (banknota, veksel, cheklar) almashtirilgan. Deviz valuta sifatida dollar

va funt sterling tanlandi. Oltin-deviz standarti amalda tartibga soluvchi valuta kurslari standarti tizimini oltin valuta standarti tizimiga o‘tish bosqichi bo‘ldi. Oltin-valuta standarti tizimi XX asrning 30-yillarida tashkil topdi va XX asrning 50-yillar oxirida u to‘liq shakllandi. Bu ikkinchi tizim sharoitida kog‘oz pullar oltinga almashtirilmaydigan bo‘ldi.

Xalqaro valuta tizimining uchinchi bosqichi:

1944-yilda AQSHning Bretton-Vuds shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiyada bu tizim huquqiy maqom hamda “Bretton-Vuds valuta tizimi” atamasini oldi. Bretton-Vuds valuta tizimining o‘ziga xos tomonlari quyidagilardan iboratdir:

- oltin davlatlar orasida yakuniy pul hisob-kitoblari vazifasini saqlab qoldi;
- oltin bilan bir qator turli davlatlarning valutalari qiymati o‘lchovi, shuningdek to‘loving xalqaro kredit vositasi sifatida tan olingan “AQSH dollari” rezerv valutasi bo‘ldi;
- dollar boshqa davlatlarning markaziy banklari va hukumat idoralari tomonidan AQSH xazinasida 1 troya unsiyaga (31,1 gramm), ya’ni 35 dollarga teng bo‘lgan kurs qiymati bo‘yicha rasman 1944-yildan boshlab oltinga almashtirilishi belgilandi. Bundan tashqari, hukumat organlari va xususiy shaxslar oltinni xususiy bozorda sotib olishlari ham mumkin bo‘ldi. Oltinning valuta qiymati rasmiy qiymat asosida shakllanib bordi va u 1968-yilgacha sezilarli darajada o‘zgarmadi;
- milliy valutalarning qiymatini bir-biriga tenglashtirish. Ularning o‘zaro almashuvi oltin va dollarda belgilangan rasmiy valuta paritetlar asosida amalga oshirildi;
- har bir davlat o‘z valutasining boshqa valutaga nisbatan kursini barqaror saqlashi kerak bo‘ldi. Unda valutalarning bozordagi kurslari qayd qilingan oltin yoki dollar paritetidan u yoki bu tomonga 1 foizdan ortiq darajada o‘zgarmasligiga kelishib olindi. Paritetlarning o‘zgarishi to‘lov balansining doimiy buzilishi sodir bo‘lganda amalga oshirilishi mumkin bo‘ldi;
- valuta munosabatlarini davlatlararo tartibga solish asosan Bretton-Vuds konferensiyasida tashkil qilingan XVF orqali amalga oshirildi. U a’zo davlatlar tomonidan rasmiy valuta paritetlari, kurslari va o‘zaro erkin valuta almashtirishga amal qilishlari ta’minlandi.

10.2 - jadval

Xalqaro valuta tizimining bosqichlari

T/r	Xalqaro valuta tizimining bosqichlari	Bosqich davrlari	Xususiyatlari
1.	Xalqaro valuta tizimining birinchi bosqichi	XIX asr oxirlari-da	Jahon iqtisodiyotida bir qator rivojlangan davlatlarning valutalari o‘z davlatlarining ichki bozorida erkin ravishda oltinga tenglashtirilgan.
2.	Xalqaro valuta tizimining ikkinchi bosqichi	1922-yil	“Genuya kelishuvi”: bunda banknotalar oltin emas, balki keyinchalik oltinga almashtirilishi mumkin bo‘lgan boshqa davlatlar “deviz”iga (banknota, veksel, cheklar) almashtilgan. Deviz valuta sifatida dollar va funt sterling tanlandi.
3.	Xalqaro valuta tizimining uchinchi bosqichi	1944-yil	“Bretton-Vuds kelishuvi”: oltin bilan bir qator turli davlatlarning valutalari qiymati o‘lchovi, shuningdek to‘loving xalqaro kredit vositasi sifatida tan olingan “AQSH dollari” rezerv valutasi bo‘ldi; Oltinning kurs qiymati belgilandi (1 unsiya - 35 dollar); Xalqaro valuta fondi tashkil qilindi.
4.	Xalqaro valuta tizimining to‘rtinchi bosqichi	1976-yil	“Yamayka kelishuvi”: asosiy zaxira valutani va boshqa rezerv valutalarning rolini kamaytirish maqsadida SDR (Special drawing rights - SDR) “maxsus o‘rnini olish huquqi” standarti kiritildi.

Manba: ushbu jadval ma’lumotlar asosida ishlab chiqilgan.

Bretton-Vuds kelishuvi xalqaro valuta tizimining rivojlanishini eng muhim bosqichi hisoblanadi. Birinchi marta xalqaro valuta tizimi hukumatlararo kelishuvlarga asoslana boshladi. Oltin-dollar standarti

tizimini mustahkamlagan Bretton-Vuds tizimi xalqaro savdo aylanmasining kengayishida, sanoati rivojlangan davlatlar ishlab chiqarishining o'sishida ham muhim rol o'ynadi.

XX asrning 60-yillari oxiriga kelib Bretton-Vuds tizimi jahon xo'jaligida kuchayib borayotgan baynalmilallahuvi bilan, TMKlarining valuta sohasidagi faol chayqovchilik faoliyati bilan qaramaqarshi chiqishga majbur bo'ldi. Oltin-dollar standarti rejimi amalda asta-sekin dollar standarti tizimiga aylana boshladi. Shu bilan birga, o'tgan asrning 60-yillari oxirida dollarning jahondagi mavqeい G'arbiy Yevropa davlatlari va Yaponianing iqtisodiy salohiyati va ta'sir doirasini oshishi natijasida sezilarli darajada yomonlashdi.

AQSHdan tashqaridagi dollar zaxiralari juda katta miqdorda bo'lib, yirik Yevrodollar bozorini tashkil qilgan edi. AQSH to'lov balansining kamomadi (defitsiti) mumkin bo'lgan normalardan ortib bordi. Bretton-Vuds tizimining dollarni oltinga aylantirish haqidagi talabi AQSH uchun og'irlik qilib qoldi, chunki u Bretton-Vuds kelishuviga asosan o'z zaxiralari hisobidan oltinning past narxini saqlab turishi kerak edi. 1970-yillar boshlariga kelib Bretton-Vuds tizimi amalda o'z faoliyatini to'xtatdi va AQSH dollarni oltinga rasmiy narxlarda almashtirishdan bosh tortdi.

Xalqaro valuta tizimining to'rtinchи bosqichi:

1976-yilda Yamaykaning Kingston shahrida bo'lib o'tgan Xalqaro valuta fondining navbatdagi yig'ilishida dunyoda xalqaro valuta tizimining asoslari aniqlandi. Yamayka kelishuvidan kelib chiqqan holda xalqaro valuta mexanizmini tashkil etuvchilar quyidagilardan iboratdir:

1. Oltinning qiymat o'lchovi va valuta kurslarini hisoblashning boshlang'ich nuqtasi sifatidagi vazifasi bekor qilindi. Oltin erkin narxli oddiy tovarga aylanadi. Shu bilan bir qatorda u alohida likvidli tovar bo'lib ham qoldi. Ya'ni, zarur bo'lganda oltin sotilishi mumkin, olingan valuta esa to'lov uchun ishlatilishi mumkinligi belgilandi.

2. Asosiy zaxira valutani va boshqa rezerv valutalarning rolini kamaytirish maqsadida XVF tashabbusi bilan 1969-yildan SDR (Special drawing rights - SDR) - "maxsus o'rnnini olish huquqi" standarti kiritildi.

3. Davlatlarga valuta kursining xohlagan rejimini tanlab olish huquqi berildi. Davlatlar o'rtasidagi o'zaro valuta munosabatlari ularni

milliy pul birliklarining “suzuvchi kursi”ga asoslanadigan bo‘ldi.

Xalqaro moliyaviy qonunlarda kurslarning o‘zgarishi quyidagi ikki asosiy omil bilan belgilanadi:

a) davlatlarning ichki bozorlarida valutalarning real qiymatlari nisbati bilan;

b) xalqaro bozorlarda milliy valutalarga bo‘lgan talab va takliflar nisbati bilan.

10.3. Xalqaro rezerv valuta birliklari

XX asrning 90-yillarini boshiga kelib suzuvchi kurslar omili amalga oshirilishi munosabati bilan quyidagi elementlar asosida yetarli darajada murakkab bo‘lgan xalqaro valuta tizimini tashkil qilish sxemasi vujudga keldi:

1. Asosiy ustun birliklar tanlandi. Bu bilan ular milliy valutalar munosabatlarini, aniqrog‘i o‘z valuta kurslarini saqlab qoldilar.

2. Valuta kurslarining o‘zgarish darajasi bir xil bo‘lmasdan, diapazoni keng edi. Bunda ma’lum diapazon doirasida faqat ayrim valutalarga nisbatan valuta kursi saqlanadi, biroq boshqa valutalarga nisbatan kurs erkin o‘zgarib turadi.

Jahon iqtisodiyotida amalda davlatlar e’lon qilgan valuta rejimlari xilma-xildir. 1988-yilda jahoning 58 davlati o‘z valutalarining asosiy hamkorlaridan birining valutasiga nisbatan kursini o‘rnatishga qaror qildilar. Bular AQSH dollari (39 ta davlat), fransuz franki (frank zonasining 14 ta davlati) yoki boshqa valutalarda (5 ta davlat). Ayrim davlatlar o‘z valutalarini SDRga (17 ta davlat) yoki boshqa valutalar savatchasiga (29 ta davlat) bog‘ladilar. Bundan tashqari, 4 ta davlat yagona valutaga nisbatan cheklangan moslashuvchanlik rejimini ma’qulladilar. O‘z navbatida Yevropa Ittifoqining 8 ta davlati o‘zlari uchun valuta hamkorligi mexanizmini ta’sis etishib, o‘z valuta kurslarini barqarorlashtirdilar. Jahoning 19 ta davlatlari esa, shu jumladan, AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya va Yaponiya mustaqil “suzish rejimi”ni tanladilar.

Yamayka kelishuvi jamoa valuta birligi sifatida “maxsus o‘rnini olish huquqi”ni (SDR) tan oldi. SDR 1969-yilda oddiy kredit vositasi sifatida yaratilgan edi. Biroq keyinchalik SDRni “xalqaro valuta tizimining zaxira aktivisi” ga aylanirish vazifasi qo‘yildi. Oldiniga SDR birligi dollarning oltin qiymatiga (1970-yil) mos ravishda oltinga

tenglashtirildi. 1974-yilning iyulida valutalarning suzuvchi kursga o‘tishi bilan SDRning oltin qiymati bekor qilindi. Bu valuta birligining kursi valuta savatchasi tashqi savdosi jahon savdosining 1 foizdan kam bo‘limgan 16 ta davlat valutalarining o‘rtacha kursi asosida aniqlanardi. 1981-yildan boshlab SDR 5 ta davlat valutasi (AQSH dollari, GFR markasi, yapon yenasi, fransuz franki va Angliya funt sterlind) to‘plamidan kelib chiqqan holda aniqlanadigan bo‘ldi.

Valuta korzinasi – bu bir valuta o‘rtacha hisoblangan kursining boshqa valutalarning ma’lum to‘plamiga nisbatan solishtirish usulidir. Valuta kursini hisoblash uning tarkibi, valuta komponentlarining o‘lchovi, valutalarning dollarga nisbatan bozor kursiga bog‘liq.

SDR foizlar keltiradi va SDR birligi birlikdir. U XVFning maxsus hisob-raqamlarida XVFga a’zo davlatlarga ajratilgan kvotalar asosida keltiriladi. Bu kvotalardan konventirlanadigan valuta sotib olish yoki to‘lov balansi defitsitini to‘lash uchun foydalaniadi. Ammo ularning an’anaviy bozor iqtisodiyotidagi mamlakatlarning umumiyligi valuta zaxiralaridagi ulushi 6 foizga yaqin bo‘lib uncha katta emas. Ko‘pgina olimlar SDRni kamroq zaxira valuta sifatida hamda ko‘proq kredit sifatida ko‘rish mumkin deb hisoblaydilar. Xullas, SDR ham zaxira valuta, ham kreditdir. Uni yaratuvchilardan biri aytganidek SDR “ayrimlar qora yo‘lli oq, ayrimlar oq yo‘lli qora jonivor sifatida ko‘rinadigan zebraga o‘xshaydi”.

Valuta savatchasi qiymati asosida belgilanadigan yana bir jamoa zaxira valuta birligi EKYUdir. EKYU (European currency unit) Yevropa Ittifoqiga kiruvchi Yevropaning eng yetakchi ilg‘or 12 nafar davlatlarning valutalariga asoslangan edi. Ular bir valutaning savatchadagi og‘irligi a’zo davlatlarning Yevropa Ittifoqi yalpi milliy mahsuloti va Ittifoq ichidagi eksportdagi ulushiga muvofiq belgilanadi. 1 EKYU taxminan 1,3 AQSH dollariga tenglashtirilgan edi. SDRdan farqli ularoq EKYUning rasmiy emissiyasi qisman naqd oltin va dollarga aylantirilgan. EKYU emissiyasining hajmi SDRdan ko‘pdir.

Xuddi SDR kabi EKYU ham naqdsiz shaklda - ular bo‘yicha naqdsiz ko‘chirishda markaziy banklar (yoki tijorat banklari) hisob-raqamlarida yozuv shaklida namoyon bo‘ladi. Qisqasi, EKYU – Yevropa valuta tizimida 1979-1998-yillarda foydalanilgan valuta birligidir. U o‘z faoliyatini to‘xtatgan.

10.4. Yevropa valuta tizimi

Yevropa Ittifoqi Hamjamiyatining tuzilishi yagona Yevropa valutasini yaratishni ko‘zda tutmagan edi. Ammo 1970-yillarning o‘rtalariga kelib, yagona valuta ittifoqini tuzish yo‘llarini qidirish faollashdi. Yevropa hamjamiyati rahbarlari nafaqat AQSH dollariga muqobil valuta birligini yaratish, balki valuta interventsiyasini amalgalashishga harakat qildilar. Uzoq davom etgan murakkab muzokaralar natijasida Yevropa Ittifoqi (YI) doirasida 1979-yilning martida Yevropa valuta tizimi (YVT) tashkil topdi. YVT - umumiyligi iqtisodiy munosabatlarni namoyon qiluvchi, iqtisodiy integratsiya doirasida milliy valutalarning ishlashi bilan bog‘liq bo‘lgan xalqaro (mintaqaviy) valuta tizimidir. YVT - jahon valuta tizimining eng muhim tarkibiy qismi bo‘lib hisoblandi.

1972-yilda Yevropa Ittifoqi hamjamiyatining (YIH) Vazirlar Kengashi “Hamjamiyatga kiruvchi davlatlar valutalarining bir-biriga nisbatan o‘zgarishi amplitudasini cheklash” haqida qaror qabul qildi. Ushbu maqsadga erishish uchun markaziy banklar valuta bozoridagi interventsiyalarini muvofiqlashtirishlari lozim edi. Shunday qilib “Yevropa valuta iloni” tug‘ildi. YIH, davlatlari valutalarining bir-biriga nisbatan kursining o‘zgarishi turli yillarda $\pm 4,5$ foizgacha ruxsat berildi. Grafik tasvirda “ilon” YIHga a’zo 6 ta davlat (GFR, Fransiya, Italiya, Niderlandiya, Belgiya, Luksemburd) valutalarining o‘zaro kursining o‘zgarishlarini eng kam miqdorini bildirgan. Agar mamlakat valutasining kursi mumkin bo‘lganidan pastga tushib ketsa, Markaziy bank milliy valutani chet el valutasida sotib olishi lozim bo‘lgan.

“Valuta iloni” YIH a’zo davlatlarning u yoki bu tarkibi bilan 1979-yilda Yevropa valuta tizimi kiritilguniga qadar amalda bo‘ldi. YVT o‘zida uch muhim elementni (EKYU – YVT asosiga, valuta kurslari va interventsiyalarini mexanizmi, Hamjamiyat davlatlari valutalari nisbatida har ikki tomonga $\pm 2,25$ foizdan ortiq o‘zgarishi mumkin emasligini) qamrab oladi. Yevropa valuta tizimida valuta interventsiyasi bilan bog‘liq vaqtinchalik to‘lov balansi defitsiti va hisob-kitoblarni qoplash uchun Markaziy banklarga kredit berish yo‘li bilan davlatlararo mintaqaviy valutani tartibga solish amalgalashishga oshirilgan. Yevropa valuta tizimi oldiga quyidagi maqsadlar qo‘yilgan:

- YI hududida yuqori valuta barqarorligini o‘rnatish;
- barqarorlik sharoitida o‘sish strategiyasining asosiy elementi bo‘lish;
- iqtisodiy rivojlanish jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligini kuchaytirish va Yevropa jarayoniga yangi turtki berish;
- xalqaro iqtisodiy va valuta munosabatlariga barqarorlashtiruvchi ta’sir ko‘rsatish.

YVT harakat mexanizmi EKYU tashkil qilish va barqaror, ammo tartibga solinuvchi YI davlatlari orasida valuta kurslari orqali qiymatni o‘zaro o‘lchash negizini o‘rnatishni ko‘zda tutadi. YVT valuta rezervlarini umumiy foydalanishga berilishini kafolatlaydi. Yaratilgan tizim YI ichida kredit mexanizmlarining butun bir arsenalini harakatga keltiradi. YVTning faoliyat jarayoni va rivojlanishi “Delar rejasi” bilan chambarchas bog‘liq. 1989-yilda YIning atoqli arbobi (Yevropa Ittifoqi Komissari raisi) J.Delar Yevropa valuta birlashuvining uch bosqichli rejasini tasvirlagan hisobotni taqdim qildi. Bu reja quyidagilarni o‘z ichiga olgan edi:

- 1) alohida YI davlatlarining muvofiqlashtirilgan iqtisodiy va valuta siyosatini amalga oshirish;
- 2) YI Markaziy bankini tashkil qilish;
- 3) Milliy valutalarни YIning yagona valutasiga almashtirish.

1990-yilda Yevropa valuta tizimi kengaydi. Unga Angliya, Ispaniya, Portugaliya kirdi. 1991-yilda yagona Yevropa hududini tashkil qilish haqidagi Maastricht shartnomasi imzolandi. Bu shartnomaga muvofiq, YI a’zolarining hukumat boshliqlari valuta ittifoqini tuzish haqida kelishib oladilar.

G‘arbiy Yevropa valutalari o‘zgarishini tartibga solish maqsadida tuzilgan YVT qariyb 15 yil mobaynida o‘z vazifalarini muvaffaqiyatli bajardi. Ammo 1992-yilning kuzidan u izdan chiqa boshladidi. Bir yil mobaynida 1992-yil sentabridan YVTdan Angliya funt sterlingi, Ispaniya peseti va Portugaliya eskudosi devalvatsiya qilindi.

Buning asosiy sabablaridan biri qayd qilingan davlatlar markaziy banklarining valuta devalvatsiyasiga umid qilib, kursni pasayishiga o‘ynayotgan birja olib-sotarlarining tobora kuchayayotgan hujumlariga dosh berishga qodir emasliklaridadir. Natijada 1993-yilning yozida YVTga kiruvchi 8 ta pul birligidan 5 tasi, ya’ni Fransiya va Belgiya franki, Daniya kronasi, Ispaniya peseti va Portugaliya eskudosi

o'rnatilgan qiymatidan eng past darajaga tushib qoldi. Markaziy banklar tomonidan o'z valutalarini sun'iy ravishda ushlab turish mumkin emas, degan qapop qabul qilindi.

Ular belgilangan kurslar atrofida u yoki bu tomonga 15 foizga o'zgarishlari mumkin. Markaziy banklar shuningdek, almashish kurslarini qo'llash maqsadida yuqori darajada saqlab turgan hisobga olish stavkalarini pasaytirishlari mumkin bo'ldi.

1991-yilgi Maastricht shartnomasi qaroriga muvofiq, YI davlatlari tomonidan valuta ittifoqi tuzishning oxiri, ya'ni milliy valutalar bir-biriga nisbatan yakuniy qayd qilinadigan bosqichi XX asrning 90-yillari oxirida ro'y berishi kerak edi. YI rejasiga muvofiq, valuta ittifoqni tashkil qilinishi uch bosqichda amalga oshirilishi kerak edi.

1. 1998-yilda boshlanadigan birinchi bosqichda valuta ittifoqiga kirish uchun ruxsatnama beradigan talabga javob beradigan davlatlar aniqlanishi lozim. Maastricht shartnomasi tomonidan belgilangan bu mezonli qarorga quyidagilarni, ya'ni: inflatsiya darajasi, davlat budgeti kamomadi (3 foizdan ortiq emas), hisobga olish stavkasining o'lchami, milliy valutaning barqarorligi va boshqalarni kiritish mumkin.

Ushbu mezonlarga to'liq javob beruvchi davlatlar birinchi guruhga kirib, bu guruh davlatlari, valuta ittifoqini tashkil qiladi. Avvaliga bu mezonlarga faqat Germaniya, Luksemburg, Irlandiya va Avstriya javob bergen edi. 1998-yilning oxirigacha Markaziy Yevropa banki tashkil qilinib, Yevropa Markaziy banklar tizimi harakatga keltirildi.

2. Ikkinchi bosqichda, ya'ni 1999-2001-yillarda Markaziy Yevropa banki, birinchi qadam sifatida valuta almashtirish bo'yicha operatsiyalarda yagona valutani ishlata boshladi. Tijorat banklari va moliyaviy tashkilotlar undan valuta bozorlarida keng foydalana boshladilar.

3. So'nggi uchinchi bosqichda, ya'ni 2002-yildan milliy tanga va qog'oz pullarni yangi Yevropa pul birligi "Yevro" bilan almashtirildi. Yangi yagona valuta naqd pul muomalasiga kiritildi. Milliy valutada amalga oshirilayotgan hisob-kitoblar tizimiga mos o'zgartirishlar kiritildi. Boshlanishida (6 oy mobaynida) yangi valuta milliy valutalar bilan bir vaqtida muomalada bo'ldi. Bu davrning oxiriga kelib, rejaga muvofiq milliy valutalar "to'lov vositasi statusini yo'qotdilar". Uchinchi bosqichda Yevropa valuta-iqtisodiy ittifoqi hududida barcha

bank hisob-raqamlari Yevropa valutasiga konvertirlanadigan bo‘ldi. EIda Yevro 2002-yilning 1 yanvaridan muomalaga kiritildi va bugungi kunda EIning 19 ta mamlakatida Yevro asosiy milliy valutaning muomalasini bajarib kelmoqda.

Yagona Yevropa valutasi iqtisodchi olimlarning tahlillariga ko‘ra, dunyoda eng kuchli valutalaridan biri bo‘lishi uchun barcha imkoniyatlarga ega. Yevro valutasi muomalaga kiritilishi qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq barcha kelishuvlar hajmining oshishiga olib keldi hamda butun dunyo investorlarining YI ga bo‘lgan qiziqishlarini tobora ortib bormoqda. Yagona valutaning o‘zi esa, kapital bozorida dollarning o‘rnini egallash uchun barcha imkoniyatlarga ega. Yevroga o‘tish jarayoni butun dunyodagi moliyaviy holatga ham muhim o‘zgartirishlarni kiritdi.

10.5. Xalqaro valuta va moliya-kredit bozorlari

Xalqaro valuta va moliya-kredit bozorlari jahon xo‘jaligida xalqaro iqtisodiy munosabatlarning juda muhim bo‘g‘inlaridan biridir. Jahon moliya bozori XXI asr boshlarida (2008-yil) ro‘y bergen jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davriga qadar gurkirab rivojlandi. Dunyoning ilg‘or rivojlangan davlatlarining umumiy moliya aktivlari ularning YaIMiga nisbatan 2,5 barobarga o‘sdi. Jahon valuta va savdo operatsiyalari qiymatlarining nisbati esa dunyoning ilg‘or davlatlarining umumiy aktivlari, ularning YaIMiga nisbatan ham 2,5 barobarga tez o‘sdi. Jahon valuta va savdo operatsiyalari qiymatlarining nisbati 1980-yildagi 10:1 dan 2008-yildagi 80:1 gacha o‘sdi.

Jahon iqtisodiyoti faoliyatidagi kapital davriy aylanmasi qonuniyati moliyaviy bozor rivojlanishining obyektiv asosidir. Jahonning ba’zi hududlarida ortiqcha erkin kapital paydo bo‘ladi, ba’zi joylarida esa unga talab paydo bo‘ldi. Jahon valuta va moliya-kredit bozorlari bu qarama-qarshiliklarni jahon xo‘jaligi darajasida hal qiladi.

Jahon valuta, kredit, qimmatli qog‘ozlar bozorlari tashkil topishining ko‘rinishi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- kapitalning ishlab chiqarish va bank ishida konsentratsiyasida;
- xo‘jalik aloqalarining baynalmilallashuvida;
- banklararo telekommunikatsiyalarining rivojlanishida.

Valuta bozorlari – xorijiy valutaning milliy valutaga bo‘lgan talab

va taklifi asosida hosil bo‘luvchi kurs bo‘yicha oldi-sotdisini amalgam shiriladigan markazdir. Milliy valuta bozorlari rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega bo‘lgan barcha davlatlarda mavjud. Milliy bozorlar va ularning o‘zaro aloqalari rivojlanib borishi bilan yagona jahon valuta bozori vujudga keladi. U o‘z ichiga jahon, mintaqaviy, milliy (mahalliy) valuta bozorlarini o‘z ichiga oladi. Bu bozorlar valuta operatsiyalarining hajmi, xarakteri va operatsiyalarda qatnashayotgan valutalar miqdori bilan bir-biridan farq qiladi. Jahon valuta bozorlari jahon moliya markazlarida to‘planadi.

Jahon moliya markazlari – bu banklar, ixtisoslashgan kredit-moliya institatlari yig‘iladigan joydir. Unda xalqaro valuta, kredit, moliya operatsiyalari, qimmatli qog‘ozlar, oltin oldi-sotdisi amalgam shiriladi. 2020-yil holatiga ko‘ra, jahondagi eng yirik xalqaro moliya markazlari reytingini Nyu-York moliya markazi boshqarmoqda. Undan keyingi o‘rinni London, Shanxay, Tokio, Gonkong, Singapur, Pekin, San-Frantsisko, Shenchjen va Syurix moliya markazlari yuqori top 10 talik qatoridan joy olishgan.³⁸

Nyu-Yorkning jahon xo‘jaligida xalqaro moliya markazini yetakchisi bo‘lib aylanishiga ushbu shahar – jahondagi yirik ishbilarmon, madaniy, turizm markazi va yuzlab tijorat banklarning faoliyat ko‘rsatishidir. Shuningdek, ushbu shaharda NYSE (New York Stock Exchange), NASDAQ (National Association of Securities Dealers Automated Quotation), Amerika fond birjasi, Nyu-York tovar birjasi hamda Nyu-York savdo palatasining mavjudligini ham alohiyada ta’kidlash joiz.

Shuningdek, Buyuk Britaniyaning “Z/Yen Group” tahliliy kompaniyasi saytida e’lon qilingan ma’lumotda ham, pandemiya sharoitida ham Nyu-York dunyoning yetakchi moliyaviy markazi nomini o‘zida saqlab qolgan. “Jahon moliyaviy markazlari indeksi”da (The Global Financial Centres Index) ham jahon moliya markazlarining yuqori uchligi sifatida Nyu-York, London va Shanxay moliya markazlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Jahon moliya markazlari indeksi ro‘yxatga hammasi bo‘lib 104 ta shahar kiritilgan. Markaziy Osiyo davlatlaridan ro‘yxatga faqat Qozog‘iston poytaxti Nur-Sulton kiritilgan (51-o‘rin). E’tiborlisi, Nur-

³⁸ <https://www.google.com/amp/s/investment.24tv.ua/ru/krupneyshie-finans>

Sulton Rossiya poytaxti Moskvadan (71-o‘rin) 20 pog‘ona yuqoriq o‘rin egallagan.

Ma’lumot o‘rnida ta’kidlash joizki, “Jahon moliyaviy markazlari indeksi” 2007-yildan buyon tuzila boshlangan va har yarim yilda yangilanib turiladi. Ballarni hisoblashda “5” ko‘rsatkich hisobga olinadi, unga ko‘ra: biznes-muhit, moliya, infratuzilma, inson kapitali va nufuz kabi xususiyatlar hisobga olinadi. Ushbu tadqiqotda oxirgi o‘rnlarni Tyantszin, Nankin va Xanchjou (hammasi Xitoy) egallagan.

Jahondagi valuta bozorlarida jami kunlik aylanma miqdori (Foreign Exchange) yil sayin tobora ortib bormoqda. Masalan, 1977-yilda kunlik aylanma 5 mlrd. dollar tashkil qilgan bo‘lsa, 1987-yilda 600 mlrd. dollar; 1992-yilda esa kunlik aylanma 1 trln. dollar; 1997-yilda 1,2 trln. dollar; 2000-yilda 1,5 trln. dollar; 2010-yilda 4 trln. dollar; 2016-yilda 5,1 trln. dollar va 2019-yilda esa 6,6 trln. dollar miqdoriga yetgan.

Jahondagi yirik moliya bozorlarining faoliyati tashkil qilinganidan buyon o‘z faoliyatini vaqtinchalik to‘xtatmagan bo‘lsa-da, biroq 2020-yilning fevral-aprel oylarida jahondagi deyarli barcha yirik moliya markazlari o‘z faoliyatlarini yuzaga kelgan pandemiya sababli vaqtinchalik to‘xtatib turishga majbur bo‘lishgan edi.

10.6. Valuta kurslarining barqarorligi

Valuta bozorlari xalqaro hisob-kitoblarni tez fursatda amalga oshirish, xalqaro valuta bozorlarining kredit va moliya bozorlari bilan o‘zaro aloqasini ta’minlaydi. Valuta bozorlari yordamida banklar, korxonalar, davlatlarning valuta zaxiralari to‘ldiriladi. Bundan tashqari, valuta bozorlari mexanizmidan milliy iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarilishida, shu jumladan, makrodarajada davlatlar guruhi doirasida (masalan, YI) foydalaniлади.

Valuta bozorlari – bu birja, brokerlik firmalari, banklar, korporatsiyalar va shuningdek, TMKlarning umumiyligidir. 2010-yillarning boshlarida banklararo bozorda o‘zaro bir-birlari bilan, shuningdek, savdo-sanoat mijozlari bilan 90 foiz atrofida valuta savdosi amalga oshirilgan bo‘lsa, 2010-yillarning oxiriga kelib, savdo kelishuvlarining tobora ko‘pchiligi banklar emas, balki investitsion fondlar tomonidan amalga oshirilmoqda.

Xalqaro kredit-moliya munosabatlari ssuda kapitalining jahon

kredit va moliya bozorlaridagi harakati bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlар tizimini qamrab oladi. Xalqaro kredit bozorida davlatlar o‘rtasida qaytarish, vaqtli, foiz to‘lash shartlari bo‘yicha pul kapitalining harakati ro‘y beradi.

Jahon kredit bozori – ssuda kapitalining bir qismidir. Ssuda kapitali bozori o‘z ichiga birinchidan, jahon pul bozorini olsa (1 kundan 1 yilgacha qisqa muddatli depozit-ssuda operatsiyalari, shuningdek, Yevrovalutalar bozorini o‘z ichiga oladi), ikkinchidan esa, jahon kapitali bozorini (o‘rta va uzoq muddatli xorijiy kreditlar va Yevrokreditlar bozorini-1 yildan 15 yilgacha) o‘z ichiga oladi.

Jahon moliya bozori - bu ssuda kapitallari bozorining bir qismi bo‘lib, unda asosan qimmatbaho kog‘ozlarning emissiyasi va savdosotig‘i amalga oshiriladi.

Jahon ssuda kapitali bozori milliy ssuda kapitali bozorlarining xalqaro operatsiyalari asosida paydo bo‘ladi, ularning baynalmilallashuvi davomida rivojlanadi. Jahon ssuda kapitallari bozori oxirgi 10 yillikda tez rivojlandi. Bunga sabab ssuda kapitali harakatining uzoq muddatli an’analari, bu harakatni milliy darajada tartibga soluvchi davlatlarning huquqiy normalarining liberallashuvi, qimmatli qog‘ozlar harakatining kengayishi, integratsiyaviy jarayonlardir.

Jahon ssuda kapitali bozori jahon xo‘jaligidagi ssuda kapitali harakatini ta’minlovchi turli kompaniya, bank valuta-kredit munosabatlari birligini qamrab oladi. Jahon xo‘jaligi va xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishining XXI asr boshlaridagi muhim tendensiyasi shundaki, xalqaro kredit-moliya munosabatlari o‘sish sur’atlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish va xalqaro savdodan ancha oldindadir.

XX asrning 50-yillari oxiridan boshlab xalqaro kredit-moliya bozorining rivojlanishi jahon ssuda kapitali bozorining o‘ziga xos tomoni – Yevrobozorning vujudga kelishi va kengayishiga sabab bo‘ldi. **Yevrobozor** – bu Yevrovalutada kredit zayomlar bo‘yicha operatsiyalar amalga oshiriladigan bozordir. **Yevrovaluta** - mamlakatning biror bir xorijiy bank hisobiga o‘tkazilgan va shu banklar tomonidan barcha davlatlarda, shu jumladan, emitent davlatda ham operatsiyalar amalga oshirishda foydalanadigan konvertirlanadigan valutasidir.

Yevrobozorlar - davlat, hukumat bozori degan maqomga ega emas. Ularning paydo bo‘lishiga korxonalar, investorlar, shuningdek ba’zi bir davlatlarning ehtiyoji sabab bo‘ladi. Yevrobozorlardagi operatsiyalar ayrim davlatlarni davlat tomonidan valutani tartibga solinuviga va soliq qonunchiligiga bo‘ysunmaydi.

Demak, jahon iqtisodiyotida Yevrobozorlar XX asr 50-yillar oxirida yuzaga kelgan bo‘lib, uning asosiy sabablari quyidagilardan iboratdir:

1. Dollarni AQSHdan tashqarida joylashtirish taklifining paydo bo‘lishi.
2. Yevropada dollarga bo‘lgan talabning kattaligi.
3. AQSHdagi tartibga solishning bu davlatda dollar bilan valuta operatsiyalarini o‘tkazishning erkin bozordagiga nisbatan mushkul-lashtirilganligi.
4. Yevropa banklarining xalqaro operatsiyalarini moliyalashtirish qurolini topishga bo‘lgan istagi va boshqalar.

Shunday qilib, Yevrobozorlar o‘z faoliyatlarini diversifikatsiya qilib jahon miqyosi o‘lchamlarini oladi. Ular kapital joylashtirish va kreditlash bo‘yicha operatsiyalarni barcha xalqaro operatorlarga taklif qiladi. Yevrobozorlar barcha yirik xalqaro banklarni, jahon moliyaviy markazlarni va barcha konvertirlanadigan valutalarni mobilizatsiya qiladi. Yevrobozorlarning rivojlanishi yangi moliyaviy markazlarni, ya’ni Shaxxay, Stambul, Dubay, Doha kabi moliya markazlarini paydo bo‘lishiga olib keldi.

Bob yuzasidan xulosa

Jahon iqtisodiyotida valuta munosabatlari pulning jahon puli vazifasi bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy munosabatlarda namoyon bo‘ladi. Valuta munosabatlari odatda milliy va xalqaro darajada amalga oshiriladi. Milliy darajada ular milliy valuta tizimlari sohasini qamrab oladi. Xalqaro valuta tizimi jahon xo‘jaligi doirasida valuta munosabatlarini tashkil qilish shaklidir. U o‘zining davriy rivojlanishi natijasida 4 ta bosqichni bosib o‘tib, huquqiy jihatdan davlatlararo kelishuvlar bilan rasmiylashtirildi.

Shuningdek, jahon iqtisodiyotida Yevrobozorlarni rivojlanishi va xalqaro moliya bozorlarini baynalmilallashuvi xalqaro iqtisodiy munosabatlar uchun tovarlar va bozorlarni rivojlanishi hamda

baynalmilallashuvida xalqaro mehnat taqsimotini rivojlanishi kabi muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro valuta tizimining asosiy vazifasi - iqtisodiy o'sishni ta'minlashdan, inflatsiyani kamaytirishdan, tashqi iqtisodiy almashuv va to'lov balansining mutanosibligini qo'llab-quvvatlash uchun xalqaro hisob-kitoblar va valuta bozori sohasini tartibga solishdan iboratdir.

Nazorat savollari

1. Valuta kursi qanday aniqlanadi?
2. Valuta pariteti nima?
3. Jahon valuta tizimi deganda nimani tushunasiz?
4. Jahon valuta tizimi rivojlanishining qanday bosiqchlari mavjud?
5. "Genuya kelishuvi"ning mohiyatini ayting.
6. "Bretton-Vuds kelishuvi" va uning xususiyatini ayting.
7. "Yamayka kelishuvi" va uning xususiyatini ayting.
8. Yevrodollar nima degani?
9. SDR nima va uning mohiyatini ayting.
10. EKYU nima va uning mohiyatini ayting.
11. Yevro qachondan va nechta mamlakatda muomalaga kiritilgan?
12. Yevroning kiritilishi Yevropa Ittifoqi davlatlari va shuningdek, jahon iqtisodiyotiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
13. Xalqaro moliya bozorlaridagi tendensiyalarni gapirib bering.
14. Yevrobozor nima va uning rivojlanish sabablarini ayting.
15. Jahondagi yirik moliya markazlarini ayting.

Uyga vazifa!

Talabaning "Jahon valuta tizimi" mavzusini chuqur o'zlashtirishi hamda amaliyat darsiga puxta tayyorgarlik ko'rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

- 1) mavzu so'ngida berilgan "Nazorat savollari"ga tayyorgarlik ko'rish;
- 2) xalqaro valuta tizimining bosqichlari (har bir bosqich alohida guruhga) bo'yicha talabalar guruhlarga bo'linib, "taqdimot" o'tkaziladi.

XI BOB. JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUVI

- 1. “Jahon iqtisodiyotining globallashuvi” tushunchasi va uning mohiyati.**
- 2. Globallashuvning ijobiylari va salbiy oqibatlari.**
- 3. Zamonaviy jahon iqtisodiyotining globallashuvi.**

Tayanch iboralar: globallashuv, jahon iqtisodiyotining globallashuvi, noqonuniy reeksport, savdo ekspansiyasi, iqtisodiy jinoyat, qalbaki mahsulotlar, narkotik modda savdosi, Chernobil AES, Fukushima AES, makroiqtisodiy darajada, mikroiqtisodiy darajada, yuqori darajada rivojlanayotgan, global iqlimni isishi.

11.1. “Jahon iqtisodiyotining globallashuvi” tushunchasi va uning mohiyati

Jahon iqtisodiyotida XX asrning oxirida yangi so‘z iborasi, ya’ni “globallashuv” degan tushuncha paydo bo‘ldi. Globallashuv muammolarini tarixchilar, iqtisodchilar, texnologlar, faylasuflar va ko‘plab mamlakatlarning hukmron doiralari hamda jamiyat vakillari tomonidan doimiy ravishda muhokama qilinmoqda. Muhokamalarning avjiga chiqishi XXI asrning birinchi dekadasida o‘z cho‘qqisiga chiqdi.

“Globallashuv” tushunchasi ilk bora amerikalik olimlar tomonidan kiritilgan. Taniqli olim T.Levit “Bozorlarning globallashuvi” nomli maqolasida globallashuvni oldin tasavvur qilib bo‘lmaydigan darajada ko‘p ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan istemol tovarlari standartlashishi uchun global bozorlar paydo bo‘lishi bilan bog‘liq yangi tijorat voqeligi deb atagan.

Iqtisodchi N.Trift esa, globallashuvning quyidagi jihatlarini ajratib ko‘rsatadi:

- 1) moliyaviy markazlashuvning kuchayishi. Uning yordamida kredit mablag‘lari shakllantiriladi, kreditlar beriladi va foydalilanadi, shuningdek kapitalning ishlab chiqarish ustidan hukmronligi o‘rnataladi;
- 2) axborotlar ahamiyatining oshishi;
- 3) global megapolislarning (shaharlarda aholini ko‘payib borishi) to‘xtovsiz kengayib borishi (Mumbay, Mexiko, Shanxay va boshqa

aholi soni ko‘p bo‘lgan yirik shaharlar);

4) transmilliy korporatsiyalar (TMK) sonining ortishi;

5) transmilliy iqtisodiy diplomatiyaning shakllanishi va milliy davlat hokimiyatining globallashuvi.

Kaliforniya universiteti professori M.Kastels globallashuv jarayonini “yangi kapitalistik iqtisodiyot” deb atab, unda axborot, bilim va informatsion texnologiyalar ishlab chiqarish va raqobatbardoshlik o‘sishning asosiy manbasi ekanligini ta’kidlaydi.

Rossiyalik olma I.G.Vladimirovaning fikricha, globallashuv jahon iqtisodiyoti baynalmilallahuvining eng yuqori bosqichidir, degan tushunchani beradi. Umuman olganda jahon iqtisodiyotining globallashuvi deganda jahon iqtisodiyotining o‘zaro bog‘liq bo‘lgan turli soha va jarayonlarining kuchayib borishi, jahon xo‘jaligida tovarlar, xizmatlar, kapital, ishchi kuchi va bilimlar bozorini asta-sekinlik bilan yagona bozorga aylanishini bildiradi.

Global muammolarning mohiyati shundan iboratki, ular u yoki bu darajada har qanday mamlakatning milliy iqtisodiyoti va aholi turmushiga ta’sir ko‘rsatadi, ushbu muammolarning hal etilishi bo‘lsa dunyodagi barcha mamlakatlarning xatti-harakatlariga bog‘liq bo‘ladi.

Global muammolarning vujudga kelishi birinchi navbatda XX asrning ikkinchi yarmidagi iqtisodiy rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liqdir. Birinchi bo‘lib iqtisodchilar global muammolar to‘g‘risida XX asrning 1960- va 1970-yillarida gapira boshladilar. Aynan shu davrdan boshlab ilmiy muomalada globalistika atamasi ilmiy tadqiqotlarning alohida yo‘nalishi sifatida kirib keldi.

Mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning o‘sib borish sharoitida bitta mamlakat yoki mintaqaning muammozi, agar o‘z vaqtida yechimini topmasa asta-sekinlik bilan global darajaga o‘sishi mumkin. Buning ustiga barcha zamonaviy global muammolar umumiyl xususiyatlarga ega bo‘ldi. Global muammolarning quyidagi xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- barcha mamlakatlarning manfaatlariga ta’sir ko‘rsatadi;
- jahonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini to‘xtatadi;
- muammoni kechiktirmasdan tezlik bilan hal etilishi talab qiladi;
- bir-birlari bilan o‘zaro bog‘liq bo‘ladi;
- jahondagi barcha mamlakatlarning harakatlarini o‘zaro muvofiqlashtirilishini talab qiladi.

Global muammolarning ustuvorligini aniqlash masalasi murakkab hisoblanadi. Hozirda global muammolarni ta'siri ostida rivojlanayotgan mamlakatlardagi millionlab kishilar uchun turmush darajasi turg'unligicha qolmoqda, ayrim mamlakatlarda bo'lsa u pasayib ketgan.

Globallashuv tarafdorlari va unga qarshi bo'lganlarning mavjudligi ushbu tushunchani turlicha talqin qilinishini anglatadi. Globallashuv tarafdorlarining fikricha, globallashuv quyidagi ijobjiy omillarga egadir, ya'ni globallashuv:

- iqtisodiy o'sishni rag'batlaniradi;
- aholi farovonligini oshiradi;
- yangi ish o'rirlari yaratilishiga imkon beradi.

Globallashuvga qarshi bo'lganlar esa, globallashuv quyidagi salbiy omillarga egadir:

- savdo ekspansiyasining kuchayishi;
- iqtisodiy jinoyatlarning ortishi (qalbaki mahsulotlar ishlab chiqarish, narkotik moddalar savdosining oshishi, korrupsiya va h.k.);
- atrof-muhitni ifloslanishi va zaharlanishi (Fukusima AES);
- zamonaviy texnika va texnologiya xavfsizligiga amal qilmaslik (avtomobil, samolyot, transport sohasidagi turli hodisa va avariylar, h.k.);
- bolalar mehnatidan foydalanish va boshqa noxush hodisalar bilan bog'liq muammolar rivojlanayotgan mamlakatlarda kuchayishiga olib keladi, deb hisoblaydilar.

Globallashuv bo'yicha umumiy fikrlar shundan iboratki, u savdo va moliyaviy oqimlar uchun chegaralarning ochiqligini ta'minlab beradi. Globallashuv tarafdorlari uning ustuvorligini global mehnat taqsimoti sharoitlarida protektsionistik va ideologik chegaralar bilan cheklanmagan unumli raqobatning kuchayishida ko'rishadi. Ushbu fikrlar asosida ta'kidlash mumkinki, globallashuvning manfaatlari va ularning manbalari har doim ham bir xil bo'lavermaydi. Agar global raqobatni mamlakatlar o'rtasida emas, balki faqatgina TMKlar o'rtasida ko'rib chiqadigan bo'lsak, u holda bunday qarama - qarshilik bekor qilinishi mumkin.

Kompaniyalar o'z samaradorigini oshirish maqsadida o'z rivojlanish jarayonlarida xarajatlar miqdorini kamaytirishga qodir bo'lgan vositalarni topishga harakat qilishadi. Bu xarajatlar tizimning

o‘zini tashqi muhit bilan har qanday o‘zaro munosabatda yoki o‘z elementlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda yuzaga keladigan noaniqliklardan kelib chiqadi. Umuman olganda globallashuv jarayonini to‘xtatib bo‘lmaydi. Tahlilchilar globallashuv jahon iqtisodiy rivojlanishining u yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik va ekologik tendensiyalarga qanday ta’sir ko‘rsatishini o‘rganishlari lozim bo‘ladi.

Globallashuv jarayoni jahon iqtisodiyotining turli sohalarini qamrab oladi, ya’ni;

- tashqi, xalqaro, jahon miqyosidagi tovarlar, xizmatlar, texnologiyalar, intellektual mulk obyektlari savdosini;
- ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakatini (ishchi kuchi, kapital, axborot);
- xalqaro moliya-kredit va valuta operatsiyalarini (beg‘araz moliyalashtirish va yordam, iqtisodiy munosabatlar subyektlarining kredit va qarzlari, qimmatbaho qog‘ozlar bo‘yicha operatsiyalar, maxsus moliyaviy mexanizmlar va vositalar, valuta operatsiyalari);
- ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy, texnologik, injiniring va axborotlar sohasidagi hamkorlikni.

Globallashuv quyidagi toifalarga bo‘lingan:

Makroiqtisodiy darajadagi globallashuv - davlatlar va integratsiyaviy uyushmalarning iqtisodiy faollikka intilib, savdo va investitsion to‘sirlarni olib tashlash, erkin savdo hududlarini tashkil qilish asosida paydo bo‘ladi. Undan tashqari, globallashuv jarayoni davlatlararo xo‘jalik yuritish uchun iqtisodiy, huquqiy, axborot va siyosiy miqyosdagi o‘zaro kelishuvlarni ham qamrab oladi.

Mikroiqtisodiy darajadagi globallashuv esa kompaniyalar faoliyatining ichki bozordan tashqarida kengayishi natijasida paydo bo‘ladi. Ko‘plab TMKlar global miqyosda harakat qiladi: ularning chegarasi va milliy egaligidan qat’i nazar iste’molchilarning talabini qondirishi kerak. TMK uchun ichki bozorga nisbatan ko‘pincha tashqi iqtisodiy faoliyat muhim ahamiyatga ega ekanligini hisobga oladigan bo‘lsak, ular globallashuv jarayonining subyekti bo‘ladi. Demak, TMKlar – bu globallashuvning asosidir hamda uni harakatga keltiruvchi asosiy kuchdir.

11.2. Globallashuvning ijobiy va salbiy oqibatlari

Yuqoridagi fikrlarga asosan, globallashuvning ijobiy va salbiy oqibatlari to‘g‘risida ham to‘xtalib o‘tsak maqsadga muvofiqdir.

Globallashuv jarayonining *ijobiy tomonlari* quyidagilardan iborat:

- globallashuv natijasida xalqaro mehnat taqsimoti chuqurlashib boradi (ushbu jarayonda mablag‘ va resurslar samarali sarflanadi);
- globallashuv jarayonining asosiy ustunliklaridan biri xarajatlarning qisqarishi, narxlarning pasayishi va barqaror iqtisodiy o‘sishga olib keluvchi ishlab chiqarish miqyosidagi iqtisod qilish hisoblanadi;
- globallashuvning ijobiy jihatlaridan yana biri erkin savdodan keladigan yutuq va daromad barcha mamlakatlarni qanoatlanadir;
- globallashuvda raqobatning kuchayishi uchun yangi zamonaviy ilg‘or texnologiyalarni joriy qilinishini va ularning jahon mamlakatlari o‘rtasida keng tarqalishini ta’minlaydi (mazkur sharoitda xorijiy to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar sur’atini oshishi jahon savdosining o‘sishiga olib keladi);
- globallashuv jarayonida xalqaro raqobat kuchayib, milliy bozordagi ichki raqobatchilarga tashqi bozordagi kuchli raqiblar ham qo‘shiladi (jahon iqtisodiyotining globallashuvi jarayoni eng avvalo, iste’molchilarga qulay, bunda raqobat ularga narxlarni pasaytirish va tanlash imkoniyatini beradi);
- globallashuv ilg‘or texnologiyalarni tarqalishi va global miqyosdagi ishlab chiqarishning yanada zamonaviylashuvi natijasida mehnat unumdorligining oshishiga olib kelishi, shuningdek, jahon miqyosidagi innovatsion g‘oyalarni amaliyotga uzluksiz tatbiq etish imkonini beradi;
- globallashuv davlatlarga moliyaviy resurslarining asosiy qismini aylanishni ta’minlashga keng imkoniyat beradi;
- globallashuv jahon hamjamiyatini birlashishini turli sohalardagi harakatlarni faollashtirishni talab qiluvchi va insoniyat uchun umumiyl bo‘lgan muammolarni, eng avvalo, ekologik muammolarni hal qilish uchun jiddiy asos yaratadi;
- umuman olganda, ko‘pchilik mutaxassislar globallashuvning pirovard natijasi jahon mamlakatlarida aholining turmush va farovonligini oshishiga olib keladi, deb umid qiladilar.

Globalashuvning salbiy oqibatlari quyidagilardan iborat:

- globalashuvning keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy va siyosiy muammolar;
- globalashuvning keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan inqirozlar, xavf-xatarlar va tahdidlar;
- globalashuv sharoitida markazlashtiruvchi kuchlarning markazlashishi bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar globalashuvning salbiy oqibatlaridir.

Shuningdek, globalashuv jarayoni mamlakat ichidagi an’anaviy aloqalarning uzilishiga, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning kuchayishiga, mazkur jamiyat uchun begona bo‘lgan salbiy oqibatlar tufayli yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar sifatida quyidgilarni keltirish mumkin:

- globalashuvdan keladigan afzalliklarning milliy iqtisodiyotning alohida tarmoqlari o‘rtasida bir xil taqsimlanmasligi;
- milliy iqtisodiyotda sanoatlashtirish jarayonining sekinlashuvi.

11.3. Zamonaviy jahon iqtisodiyotining globalashuvi

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov: “XXI asr – bu xalqaro munosabatlarning globalizatsiya asri bo‘ladi³⁹ deb ta’kidlagan edilar. Zamonaviy jahon iqtisodiyotining globalashuvi quyidagi jarayonlarda namoyon bo‘ladi:

1. Eng avvalo, *ishlab chiqarish baynalmilallahuvining chuqurlashuvi*. Ishlab chiqarish baynalmilallahuvi iste’mol uchun yaratiladigan mahsulotni tayyorlashda jahoning turli davlatlar ishlab chiqaruvchilari qatnashishini namoyon qiladi. Jahon savdosining asosiy qismini yarim tayyor mahsulotlar egallaydi. Ishlab chiqarishning baynalmilallahuvida TMKlar yetakchi hisoblanadi;

2. *Kapitalning baynalmilallahuvini chuqurlashuvi*, ya’ni davlatlar o‘sishi. Bunda eng avvalo, to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar ko‘rinishida va fond bozorlarining baynalmilallahuvi;

3. Ishlab chiqarish va ilmiy-texnikaviy, texnologik bilimlar vositalarini almashinuvini natijasida, shuningdek, xalqaro ixtisoslashuv va kooperatsiyalashuv, xalqaro miqyosda ishlab

³⁹ Doklad Prezidenta Respublikii Uzbekistan I.A.Karimova “Nasha osnovnaya zadacha – ukreplenie dostignutix rubejey, posledovatelnie prodoljenie reform”. “Narodnoe slovo”, 10 fevralya 2004g., №27.

chiqarish resurslarining joylashuvi natijasida *ishlab chiqarish kuchlarining globallashuvi*;

4. *Xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi* natijasida ayrboshlashning baynalmilallashuvini kuchayishi. Bunda xalqaro iqtisodiy hamkorlikning ishlab chiqarish sohasiga nisbatan xizmatlar sohasi asosiy yo‘nalishlardan biriga aylanadi:

5. *Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining o‘sishi*. Bunda rivojlangan davlatlarga iqtisodiyoti rivojlanmagan yoki rivojnayotgan davlatlardan kelgan ishchi kuchlarini malaka talab qilmaydigan yoki past malaka talab qiladigan ishga jalgan etiladi:

6. *Ishlab chiqarish va iste’molning baynalmilallashuvini atrof-muhitga ta’sirining ortishi*, bu esa zamonaviy global muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan xalqaro iqtisodiy hamkorlikka bo‘lgan ehtiyojning ortishini keltirib chiqaradi.

Demak, zamonaviy jahon xo‘jaligida globallashuv jarayoni quyidagi xususiyatlarlarni o‘ziga jalg qiladi:

- mintaqaviy integratsion jarayonlarni jadallashtiradi;
- bozorlardagi ishtirokchilarning to‘siqlarsiz qatnashuvini ta’minlaydi;
- moliyaviy va savdo operatsiyalarining qonun-qoida va chegaralarini universallashtiradi;
- bozorlarni tartibga solish va nazorat qilishni bir me’yorga keltirish, ya’ni unifikatsiya qiladi;
- kapital joylashtirish, investitsiyaviy jarayonlar va umumjahon to‘lov-hisob tizimini standartlashtiradi.

11.1-rasmdan ko‘rinib turidiki, jahon iqtisodiyotining globallashuvi jarayonlari bugungi kunda jahon xo‘jaligining deyarli barcha sohalarini o‘z tarkibida mujassamlashtirgan. Xususan: global moliyaviy inqirozlar; xalqaro huquq; xalqaro tashkilotlar; iqtisodiy, savdo va bojxona ittifoqlari; transmilliy ishlab chiqarish; xalqaro savdo va yagona axborot makoni hamda boshqa sohalarni kiritish mumkin.



11.1 – rasm. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi.

Globalashuv jarayonlari rivojlangan mamlakatlarda xayrixohlik bilan rivojlanayotgan mamlakatlarda esa xavotir bilan qabul qilinmoqda. Buning sababi shundaki, globalashuv jarayonining afzalliklari barcha mamlakatlarga teng taqsimlanmaydi. Shuning uchun globalashuvdan kim foyda ko‘radi, degan savol turli bahs va munozaralarga sabab bo‘layotgan eng asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

Yuqorida qayd qilib o‘tganimizdek, jahon iqtisodiyotining globalashuvi turlicha talqin qilinmoqda. Bu jarayonga nafaqat olimlar, mutaxassislar va ekspertlar, balki turli mamlakatlarning davlat rahbarlari va fuqarolari ham turlicha munosabat bildirmoqda. Zamonaviy globalashuv jarayonlari, eng avvalo, sanoati rivojlangan mamlakatlar mavqeini mustahkamlab, ularga qo‘srimcha afzalliklar beradi. Xalqaro mehnat taqsimoti doirasida globalashuv jarayonining kengayishi past rivojlangan mamlakatlar mavqeini salbiy o‘zgarishiga sabab bo‘lib, ularni globalashuv jarayonini subyektlariga emas, balki obyektlariga aylantirishi mumkin. Demak globalashuv jarayonlarining alohida mamlakatlar iqtisodiyotiga ijobiy ta’sirining darajasi ushbu mamlakatlarning jahon iqtisodiyotida tutgan o‘rniga bog‘liqdir.

Shu o‘rinda, 2006-yili Turkiyada Islom konferensiya tashkiloti (Islom hamkorlik tashkiloti) tashhabusi bilan dunyoning 55 islom mamlakatlaridan jami 1500 dan ortiq ishtirokchilar, jumladan davlat va xalqaro tashkilotlar rahbarlari, ishbilarmonlar, tadbirkorlar ishtirokida o‘tkazilgan “Islom dunyosi mamlakatlarining iqtisodiy forumi”da

Turkiya rahbari Rejep Erdo‘g‘an, “Globalizatsiya – bu bizning yuksak maqsadimizning eng muhim vositasidir. Yevropa o‘zining ichki iqtisodiy-siyosiy muammolarini hal qilmasdan turib, jahoning ko‘plab jarayonlariga, o‘z navbatida, islam dunyosiga o‘z nazoratini o‘rnatishga harakat qilmoqda. Shuning uchun o‘zimizga ishonch bildirmasdan turib iqtisodiy taraqqiyotimizni hech qachon rivojlantira olmaymiz”-deb ta’kidlangan edi.⁴⁰

Mazkur “Islam dunyosi mamlakatlarining iqtisodiy forumi”ni o‘tkazilishidan maqsad, bugungi globallashuv sharoitida energiya resurslarini ishlab chiqarish va Yevropa mamlakatlariga eksport qilish, mahsulotlarni eksport qilishda transport xarajatlarini qayta ko‘rib chiqish, transport magistrallarida tranzit tariflari bo‘yicha aniq bir to‘xtamga kelish kabi muhim muammoli masalalar birinchi bor muhokama qilingan edi. Forumning eng asosiy muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida YIini islam dunyosi mamlakatlari bilan savdo munosabatlarini yanada kengaytirish borasidagi takliflar va tavsiyalar ko‘rib chiqilgan edi.

Bob yuzasidan xulosa

Shunday qilib, jahon xo‘jaligida globallashuv jarayonlari rivojlangan mamlakatlarda hayrihohlik bilan qabul qilinsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa xavotir bilan qabul qilinmoqda. Buning asosiy sababi shundaki - globallashuv jarayonining afzalliklari barcha mamlakatlarga teng taqsimlanmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, jahon iqtisodiyotining globallashuvi iborasi turlicha talqin qilinmoqda. Zamonaviy globallashuv jarayonlari, eng avvalo, sanoati rivojlangan mamlakatlar mavqeini mustahkamlab, ularga qo‘shimcha afzalliklar beradi. Xalqaro mehnat taqsimoti doirasida globallashuv jarayonining kengayishi past rivojlangan mamlakatlar mavqeini salbiy o‘zgarishiga sabab bo‘lib, ularni globallashuv jarayonini subyektlariga emas, balki obyektlariga aylantirishi mumkin.

Demak, bugungi globallashuv jarayonlari jadallahayotgan sharoitda jahondagi har bir mamlakat milliy iqtisodiyotining yuqori sur’atlarda taraqqiyotining o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatadigan sohalardan

⁴⁰ <http://www.made4u.ru/3/>

biri - bu xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hamda xalqaro moliya bozori institatlari bilan aloqalarini kengaytirishni talab etadi.

Nazorat savollari

1. Globallashuv jarayoni jahon iqtisodiyotining qaysi sohalarini qamrab oladi?
2. Globallashuv qanday toifalarga bo‘linadi?
3. Makroiqtisodiy darajadagi globallashuvning mohiyatini ayting.
4. Globallashuv jarayonining ijobiy tomonlarini ayting.
5. Globallashuv jarayonining salbiy tomonlarini ayting.
6. Zamonaviy jahon iqtisodiyotining globallashuvi qaysi jarayonlarda namoyon bo‘ladi?
7. Globallashuv jarayoni qaysi xususiyatlarlarini o‘ziga jalb qiladi?
8. Turkiya Prezidenti 2006-yilda bo‘lib o‘tgan “Islom dunyosi mamlakatlarining iqtisodiy forumi”da Yevropa bilan iqtisodiy hamkorlik qilishda qaysi masalalarga alohida urg‘u bergen edi?
9. Juhon xo‘jaligida aholi sonining o‘sishi qanday global muammolarni keltirib chiqaradi?
10. Juhon xo‘jaligida tabiiy xomashyolar muammosi qanday global muammolarni keltirib chiqaradi?
11. “Globallashuv” tushunchasi ilk bora kimlar tomondan jahon iqtisodiyoti adabiyotlariga kiritilgan?
12. T.Levitning qaysi asarida ilk globallashuv tushunchasi kiritilgan?
13. N.Trift globallashuvning qaysi jihatlarini ajratib ko‘rsatadi?
14. M.Kastels globallashuv jarayonini nima deb ataydi?
15. Olima I.G.Vladimirovaning tahlilining mohiyatini ayting.

Uyga vazifa!

Talabaning “Jahon iqtisodiyotining globallashuvi” mavzusini chuqr o‘zlashtirishi hamda amaliyat darsiga puxta tayyorgarlik ko‘rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

- 1) mavzu so‘ngida berilgan “Nazorat savollari”ga tayyorgarlik ko‘rish;
- 2) jahon xo‘jaligining globallashuviga oid mavzular mavzular bo‘yicha talabalar guruhlarga bo‘lingan holda “taqdimot” o‘tkaziladi.

XII BOB. MILLIY IQTISODIYOTLAR RIVOJIGA TA'SIR ETUVCHI XAVFSIZLIK MUAMMOLARI

- 1. Jahon xo'jaligida ijtimoiy-iqtisodiy global muammolarning kelib chiqish sabablari.**
- 2. Globallashuv sharoitda milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga ta'sir etuvchi xavfsizlik muammolari.**
- 3. Mintaqaviy mojarolarning milliy iqtisodiyotlar rivojiga ta'siri.**
- 4. Milliy iqtisodiyotda demografik muammolar.**
- 5. Ekologiya muammosi va global iqlimning keskin o'zgarishi.**
- 6. Pandemianing jahon iqtisodiyoti va milliy iqtisodiyotlar rivojiga ta'siri**
- 7. Milliy iqtisodiyotlar taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan va "ko'zga ko'rinxaymaydigan" korrupsiya muammosi.**

Tayanch iboralar: globallashuv, iqtisodiy jazo, mintaqaviy mojaro, demografiya, urbanizatsiya, qurg'oqchilik, ekologiya, kambag'al, qashshoq, koronavirus, pandemiya, "COVID-19", global iqlim, Kioto kelishuvi, Parij kelishuvi, korrupsiya.

12.1. Jahon xo'jaligida ijtimoiy-iqtisodiy global muammolarning kelib chiqish sabablari

Tabiat insonni oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va boshqa zaruriy ne'matlar bilan ta'minlaydi. Jahon iqtisodiyoti bo'yicha YaIMning jami qariyb 40 foizini tabiiy resurslar, ya'ni oltin, neft, gaz, turli rangli metallar, paxta va boshqa muhim xomashyolar tashkil qiladi. Mamlakatning iqtisodiy salohiyati har doim ham hududning kattaligi va aholi sonining ko'pligi bilan belgilanmaydi, masalan:

- Hindistonning YaIM miqdori aholi soni jihatidan deyarli 10 marta kam aholiga ega bo'lgan Yaponiyaning YaIM miqdorining deyarli yarmiga teng;
- Malayziya hududi jihatidan Singapurdan 550 marta katta bo'lishiga qaramay, bu ikki davlatning ishlab chiqarishi va iqtisodiy salohiyati imkoniyatlari deyarli teng;
- Rossiyaning hududi jihatidan Yaponiyanikidan 45 marta katta bo'lishiga qaramay, Yaponiyaning YaMM Rossiyaning YaMMdan

3,5 marta va valuta zaxirasi miqdori bo‘yicha esa 2 marta ko‘pdir;

– 9 mln. aholiga ega bo‘lgan Shvetsariya salkam 220 mln.aholi yashaydigan Pokiston iqtisodiyotidan deyarli to‘rt barobardan ortiq iqtisodiy salohiyatga ega;

– 34 million aholiga ega bo‘lgan O‘zbekiston YaIM miqdori 6 million aholiga ega bo‘lgan Singapurning YaIM miqdoridan 6,5 martaga kam.

Xo‘sh jahon xo‘jaligida ijtimoiy-iqtisodiy global muammolarning kelib chiqish sabablari nimada? Tahlillarga qaraganda, quyidagi eng asosiy ikki muammolar ta’sirida jahon xo‘jaligida global muammolar tizimini keltirib chiqarar ekan.

Birinchidan, tabiiy resurslarning kamayib borishi. Ma’lumki, tabiiy resurslar kamayib borar ekan, albatta, jahon bozorlarda ham ushbu xomashyoga bo‘lgan talab ham ko‘payib boraveradi va buning natijasida xomashyo narxi ham yil sayin ko‘tarilib boradi. Masalan, jahondagi iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlardan Yaponiya, Singapur va Gonkong kabi mamlakatlar tabiiy resurslarga muhtojligi sababli ushbu mamlakatlar har qanday tabiiy resurslardan oqilona foydalanishadi.

Ikkinchidan esa, jahonda aholi sonining ko‘payib borishi. Dunyoda aholi ko‘paygan sari aholiga bo‘lgan oziq-ovqat, uy-joy, kiyim-kechak, o‘nlab turli strategik iste’mol mahsulot va aholi iste’moli mahsulotlarga bo‘lgan talab va ehtiyojlari ham ko‘payib boraveradi.

12.2. Globallashuv sharoitda milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga ta’sir etuvchi xavfsizlik muammolari

Milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga ta’sir etuvchi xavfsizlik muammolari hozirgi globalashuv sharoitida quyidagilardan iboratdir:

- 1) oziq-ovqat muamosi;
- 2) ichimlik suvi muammosi;
- 3) tabiiy resurslar muammosi;
- 4) yuqumli virus va kasalliklarning tarqalishi;
- 5) kambag‘allik darajasi muammosi;
- 6) mintaqaviy mojarolar muammosi;
- 7) demografik muammolar;
- 8) ekologiya muammosi va jahon iqlimining keskin o‘zgarishi.

Oziq-ovqat muammosi. Bu muammoni hal qilish XXI asrning boshlariga kelib jahondagi faqatgina o‘ttizga yaqin rivojlangan mamlakatlar uchun o‘z dolzarbligini yo‘qotdi xolos, biroq boshqa o‘nlab davlatlar uchun bu eng muhim masalaligicha qolmoqda. Statistik ma’lumotlariga ko‘ra, jahonda oziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol qilish asta-sekin o‘sib borayotgan bo‘lsa-da, bu jarayon aholi sonining ko‘payib borishiga nisbatan bir tekis yuz berayotgani yo‘q.

XXI asrning ikkinchi o‘n yilligi insoniyat boshiga bir qator og‘ir sinovlar bilan kirib keldi. Jahon iqtisodiy-moliyaviy inqirozlar, siyosiy o‘yinlar, tabiiy ofatlar va albatta, COVID-19. Ayniqsa, pandemiya tufayli jahon ahlining turmush darajasi keskin o‘zgardi va ular yangicha yashashga hamda yangicha ishslashga o‘rgandi. Ammo, pandemiya davrida deyarli barcha dunyo mamlakatlarida joriy etilgan karantin jahon mamlakatlari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni va hamkorlikni har tomonlama cheklab qo‘ydi. Shuningdek, xalqaro aviaqatnovlarning butkul to‘xtashi, xalqaro savdo aylanmasi miqdorining rekord darajaga tushib ketishi, ko‘plab mamlakatlarning tashqi savdosida oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini vaqtinchalik cheklab qo‘yilishi dunyo aholisining turmush darajasiga keskin salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Jahon xo‘jaligidagi ochlik deb atalmish global muammo deyarli barcha jahon mamlakatlarining asosiy kun mavzusiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, 2020-yilda yuzaga kelgan pandemiya sharoitida ushbu muammo barcha mamlakatlarning birinchi raqamli muammosiga aylandi desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki jahon xo‘jaligidagi barcha ishlab chiqarish tarmoqlarining, xususan millionlab korxonalar, zavodlar va fabrikalarning vaqtinchalik yopilishi jahonning ish bilan band bo‘lgan 2 milliard 700 million ishchisiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Shundoq ham pandemiya davrigacha dunyo aholisining 10 foizi yoki 820 million nafari to‘yib ovqatlanmas edi. Ularning asosiy qismi siyosiy mojarolar va ichki siyosiy tartibsizliklar hamda iqtisodiy inqirozlar ro‘y berayotgan va albatta, tabiiy ofatlar hamda iqlimning o‘zgarishi yuqori bo‘lgan mintaqalarda istiqomat qilmoqda.

Ana endi ushbu ko‘rsatkichga pandemiya sharoitida ochlikka duchor bo‘lgan jahon aholisining 130 milliondan ortiq kishisi ham qo‘shildi. Demak, dunyo aholisining salkam 1 milliard kishisi oziq-

ovqat muammosi tufayli ochlik girdobiga duchor bo‘lgan. Jahon sog‘lijni saqlash tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda ochlik bilan kurashayotganlarning 462 million nafari bolalardir. Jahon mintaqalari kesimida oladigan bo‘lsak, Osiyo qit’asida qariyb 500 million kishi ochlikka qarshi kurashmoqda va yoshiga nisbatan vazni kam bo‘lgan har 10 bolaning 9 nafari Osiyo va Afrika qit’alarida yashaydi. Jahon xo‘jaligida yuzaga kelgan oziq-ovqat tanqisligi tufayli 2020-yilning yanvar-dekabr oylari davomida 7 millionga yaqin kishi ochlik qurboni bo‘ldi. Ba’zi davlatlarda ocharchilik pandemiyadan oldinroq boshlangan edi.

Masalan, Afrika qit’asining janubiy va sharqiy mamlakatlarida qurg‘oqchilik mavsumi har yilgidagidan ham og‘ir mavsum kelgan bo‘lsa, mavjud agrar soha chigirtka hasharotlarining hujumidan aziyat chekdi. 2020-yilning so‘ngiga kelib, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti tomonidan Afrikaning 4 mamlakatining oziq-ovqat zaxirasi yaqin orada butunlay tugashini ma’lum qilgan, jumladan: Burkina-Faso, Janubiy Sudan, Nigeriya va Fors ko‘rfazi hududida joylashgan Yaman mamlakatidir. Ushbu mamlakatlarda oziq-ovqat zaxirasini tugashiga sabab sifatida ichki siyosiy mojarolar, iqtisodiy tanazzul, ekstremal iqlim va koronavirus pandemiyasi sabab bo‘ldi.⁴¹

Shuningdek, oxirgi yillarda Shimoliy Koreyada vujudga kelayotgan tabiiy ofatlar uning qishloq xo‘jaligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda, shunga ko‘ra, Rossiya har yili Shimoliy Koreyaga kamida 200 ming tonnaga yaqin bug‘doyni beg‘araz yordam sifatida beradi. Hozirgi kunda Yaman, Kongo Demokratik Respublikasi, Afg‘oniston, Venesuela, Efiopiya kabi bir qator mamlakatlar iqtisodiyotida oziq-ovqat muammosi global muammo bo‘lib, ushbu mamlakatlar aholisi ocharchilik tahdidi ostida yashamoqda.

BMT Jahon oziq-ovqat dasturi direktori Devid Bizlining bayonotiga ko‘ra, 2021-yil dunyo uchun halokatli yil bo‘lishi mumkinligi va so‘nggi 75 yil ichidagi eng og‘ir gumanitar inqirozga duch kelishi mumkinligi hamda ko‘plab mamlakatlarda oziq-ovqat masalasi global muammoga aylanishini ma’lum qilgan.⁴²

Ichimlik suvi muammosi. Jahon mamlakatlarida ichimlik suvi

⁴¹ <http://www.fao.org/news/story/en/item/1325054/icode>

⁴² <http://ria.ru/20201205/krizis-1587770098.html>

tobora asosiy muammolarning biriga aylanib bormoqda. Ichimlik suvi tanqisligi bo‘yicha ko‘rsatkichlar yaqin yillarda jahonning aksariyat mamlakatlarida oshib borishi muqarrardir. Suv yana qancha vaqtga yetadi? Inson tirikligi uchun keyingi eng muhim narsa – suv. Yer sayyorasining 70 foizdan oshig‘i suv bilan qoplangan bo‘lsa-da, uning 2,5 foizi iste’mol uchun yaroqli. Shundan atiga 0,3 foizi daryo va dengizlar, aniqrog‘i yer sathida joylashgan va inson undan emin-erkin foydalanib kelmoqda. Qolgan asosiy qismi esa yer ostidan va Antarktida muzliklari tarkibidan o‘rin olgan.

Suv tanqisligi allaqachon, global ko‘rinish olib bo‘lgan. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotiga ko‘ra, bugun dunyo bo‘yicha 785 million odam suvsizlikdan azob chekmoqda. Nafaqat Afrikaning qoloq davlatlari, balki rivojlangan mamlakatlarning ulkan megapolislarida ham suv muammozi o‘tkirlashib bormoqda. Xususan, Pekin, Mexiko, Tokio va Jakarta kabi yirik shaharlarning har birida 10 milliondan 20 milliongacha aholi har kuni suv taqchilligi bilan yashashga majbur bo‘lmoqda. Afrika davlatlarida esa suv uchun turli guruhlar o‘rtasidagi to‘qnashuvlar odatiy holga aylanib ulgurdi.

Suv taqchilligiga olib kelayotgan omillardan biri bu – uning haddan tashqari ko‘p ishlatalishi. Tahlillarga ko‘ra, suv eng ko‘p sarflanadigan soha qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va irrigatsiyadir. “The Guardian”ning ma’lumotlariga ko‘ra, 1 dona tuxum olish uchun 196 litr, 1 litr sut uchun esa 628 litr suv, 1 kilogramm kartoshka etishtirish uchun 287 litr suv sarflanadi. Demak, bir tasavvur qiling: 1 dona non, 2 dona tuxum, 200 gramm qovurilgan kartoshka va 1 stakan sutdan iborat nonushta uchun taxminan 1000 litrga yaqin suv ishlataladi.

Daniyaning Artur universiteti tadqiqotlariga ko‘ra, insoniyat suvdan shu tarzda foydalanishda davom etsa, 2040-yilga borib butun sayyora o‘tkir suv tanqisligidan azob cheka boshlaydi. Allaqachon, geografiya faniga Markaziy Osiyoda Orol fojiasi, Shimoli-sharqiy Afrikada “Nil o‘limi” kabi tushunchalar kirib kelgan. Xitoy sivilizatsiyasining o‘chog‘i bo‘lgan Sariq daryoning qurib borishi 2000-yillardayoq muammoga aylanib ulgurgan.

Jahonning bir qator mamlakatlarida, xususan Singapur, Gonkong va Fors ko‘rfazi mintaqasi mamlakatlarida ichimlik suvi muammozi o‘z dolzarbligini yo‘qotganicha yo‘q, qaytanga yil sayin bu muammo

yiriklashib bormoqda. Yer sharining uchdan ikki qismi suvliklardan iborat bo‘lib, buning 97 foizi sho‘r suv va qolgan 3 foizigina chuchuk suvni tashkil qiladi xolos. Tahlillarga ko‘ra, 2025-yilga borib yer yuzidagi davlatlarning yarmidan ko‘vida suv taqchilligi yuzaga kelishini ko‘rsatmoqda.

Jahonda yaroqli hamda filtrlangan suvdan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, BAAda aholi jon boshiga foydalanilayotgan toza suv miqdori kuniga 700 litrni tashkil qilsa, Rossiyada 400 litr, O‘zbekistonda 240 litr, AQSHda 200 litr, Germaniyada esa 130 litr suv sutkalik normani tashkil qiladi.

Qishloq xo‘jaligi sohasining ravnaqi uchun suv eng asosiy resurs hisoblanadi. So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini sug‘orishda Yaqin va O‘rta Sharq va Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlarida suv resursi asosiy muammolarning biriga aylanib bo‘ldi. Sug‘orish uchun suv resurslarining yil sayin global muammolarga aylanishi va suvsizlikdan ko‘plab agrar sohaga ixtisoslashgan mamlakatlarning qishloq xo‘jaligi tarmoqlari hosildorlikdan to‘xtab qolmoqda. Quruq yerlar dunyodagi ekin maydonlarining 43 foizdan yuqorisini tashkil etadi. Yerlarning suvsizlikdan tanazzulga uchrashi oqibatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yo‘qotish yiliga o‘rtacha taxminan 42 mlrd.dollarini tashkil qilmoqda. So‘nggi 40 yil ichida dunyodagi barcha ekin maydonlarining uchdan bir qismi tuproq eroziyasi tufayli hosildorlikni yo‘qotish sababli tashlab ketilgan. Har yili yana 20 million gektar qishloq xo‘jaligi yerlari shu qadar tanazzulga uchraganki, ular endi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun ishlatilmayapti.

Dunyo resurslari instituti (WRI) tomonidan 2019-yilda e’lon qilingan hisobotiga ko‘ra, bugungi kunda O‘zbekiston ham suvning yuqori tanqisligi mavjud bo‘lgan mamlakatlar ro‘yxatiga kiritilgan. O‘zbekiston bilan birga suvning yuqori tanqisligi mavjud bo‘lgan mamlakatlar ro‘yxatidan 27 ta davlat joy olgan. Ularning orasida Turkiya, Misr, Italiya, Ispaniya, Portugaliya, Iroq, Afg‘oniston va Qирг‘изистон ham bor.

Turkmaniston esa suvning tanqisligi o‘ta yuqori bo‘lgan mamlakatlar ro‘yxatiga kiritilgan. Unda 17 ta mamlakat, jumladan Qatar, Isroiil, Livan, Eron, Iordaniya, Liviya, Kuvayt, Saudiya Arabiston, BAA, Hindiston va Pokiston ham bor. Tojikiston va

Qozog‘iston esa suvning o‘rtacha-yuqori tanqisligi mavjud bo‘lgan davlatlar qatoridan joy olgan.

Tabiiy resurslar muammosi. Jahon xo‘jaligida tabiiy va mineral resurslarning yo‘qolib yoki kamayib borishi sanoat mahsulotlar ishlab chiqarilishining qisqarishiga va mahsulotlar narxining oshishiga olib keladi. Dunyo aholisining 25 foizigacha bo‘lgan qismi rivojlangan mamlakatlarda yashaydi va ular jahon resurslarining 80 foizini iste’mol qilishadi. Global energetik xomashyo resurslari muammosi kelib chiqish xususiyatiga ko‘ra bir-biriga o‘xhash bo‘lgan ikkita muammodan iborat bo‘ladi, ya’ni: energetik (neft va gaz) va xomashyo (tabiiy resurslar).

XX asrninig 70-yillarning oxiri va 80-yillarining boshida jahon xo‘jaligida sanoati rivojlangan mamlakatlar tomonidan birinchi bo‘lib energetik va xomashyo inqirozlari nomini olgan voqealar kuzatila boshlandi. Bu davrda ular mavjud xalqaro iqtisodiy aloqalar tizimiga qattiq zarba berdi, ko‘plab mamlakatlardagi iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatni yomonlashtirdi. Biroq amalda ular ishlab chiqarishda energiya resurslarni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish uchun rag‘batlarni yaratdi. Yangi joriy qilingan va energiyani iqtisod qiladigan texnologiyalarni ixtiro va joriy qilinishi natijasida XX asrning 80-yillarining o‘rtalariga borib ishlab chiqarishning energiya sig‘imi taxminan 25 foizgacha pasaydi.

Sanoatlashgan davlatlarda neft va ko‘mir energiyaning asosiy manbayi hisoblanadi. Xususan, AQSHda ko‘mir yoqish orqali mamlakatning 30 foiz elektr energiyasi olinadi. Stenford universiteti ma’lumotiga ko‘ra, bugungi kunda dunyoda ishlab chiqarilayotgan 38 foiz elektr energiyasi ko‘mir yoqish hisobiga olinadi. Neftning inson hayotidagi o‘rni esa undan ham yuqori. Yaxshilab nazar solsak, “qora oltin”ni yoqilg‘i sanoatidan tashqari qurilishda ham, oziq-ovqatda ham, kundalik ehtiyojda ishlatiladigan oshxonalaridan tortib kiyim-kechak tarkibida ham ko‘rishimiz mumkin.

Afsuski, ko‘mir va neft ham cheklangan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, dunyo yiliga 36 trillion barrel neft ishlatadi. “Worldometers”ning ma’lumotlariga ko‘ra, agar har yili shuncha miqdorda neft sarflansa, 47 yildan so‘ng “qora oltin”ning zaxiralari tugaydi. Bundan ham dahshatlirog‘i agar barcha neft zaxiralari yoqib yuborilsa, ekologiya qanday ahvolga keladi?

Ushbu savolga javob topish maqsadida AQSH, Germaniya va Britaniya olimlari NASA bilan o‘zaro hamkorlikda tadqiqot o‘tkazishgan. Natijalarga ko‘ra, agar yer yuzidagi neft, gaz va ko‘mirning barcha zaxirasi yoqib yuborilsa, havo harorati ko‘tarilib, Antarktika va Grenlandiya muzliklari eriydi va suv sathi 100 metrdan ham balandroqqa ko‘tariladi, atmosferani esa chuqur va zaharli bug‘ qoplab oladi. U esa ming yilgacha tarqalmay turadi.

BMT tomonidan 2020-yildagi tabiiy iqlim insoniyat tarixidagi eng issiq iqlim ro‘y berganligi ma’lum qilingan. Juhonning ko‘plab mamlakatlari energetik xomashyolardan foydalanishni asta-sekin to‘xtatishlarini ma’lum qilishgan, xususan:

Daniya hukumati 2035-yildan Shimoliy dengiz hududidan neft qazish ishlarini rasman to‘xtatishini e’lon qildi. Eng muhimi, 2025-yildan o‘z aholisini to‘la elektr energiya bilan ta’minlaydigan “Energetika oroli”ning qurilish loyihasini boshladi. Bu esa, Daniya iqtisodiyoti tarixidagi eng katta qurilish loyihasi bo‘lib, maxsus orolda shamoldan elektr energiya olishga mo‘ljallangan ushbu qurilish ishlari uchun mahalliy hukumat jami 28 mlrd.dollar miqdorida mablag‘ ajratilishini rejorashtirgan. Qurilish ishlari 2021-yildan boshlandi va “Energetika oroli” qirg‘oqdan 80 km uzoqlikda joylashadi. Unda 200 ta yirik “shamol turbinalari” o‘rnataladi. Loyiha ishlari tugallanganidan so‘ng elektr ishlab chiqarish quvvatiga qarab Skandiyanaviya davlatlariga ham eksport qilinishi ko‘zda tutilgan.

Germaniya 2025-yildan ko‘mir qazishni kamaytirishni hamda 2028-yilgacha o‘z hududlaridagi barcha ko‘mir havzalarini butunlay yopishini ma’lum qildi. Fransiya esa, 2028-yildan ko‘mir ishlab chiqarishni butunlay to‘xtatishni va 2030-yildan mamlakat hududlarida faqat elektromobil faoliyatiga ruxsat berish haqidagi qonunni tatbiq qildi. Bundan tashqari, Buyuk Britaniyaning “Bentley Motors” avtomobil kompaniyasi ham 2030-yildan faqat elektromobil ishlab chiqarishini ma’lum qildi.

Kambag‘allik darajasi muammosi. BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrishning 2020-yilning sentabrida bo‘lib o’tgan “BMTning 75 yillik yubileyi” onlayn Sammitidagi bayonotiga ko‘ra, yer yuzidagi jami aholining 20 foizi, ya’ni qariyb 1,5 milliarddan ortiq bo‘lgan dunyo aholisini kambag‘allik darajasida kun kechirishini ma’lum qilgan. Ayniqsa, Afrika va Osiyo hamda Lotin Amerikasi davlatlarida

aholining kambag‘allik darajasi yuqori hisoblanadi. Yer yuzidagi jami kambag‘allarning 35 foizi, ya’ni 350 million kishi Osiyoning Janubiy Osiyo mintaqasida yashaydi. Jahon mintaqalari bo‘yicha aholining eng nochor qismi Hindistonning Ganga vodiysida istiqomat qiladi.

Jahon banki tomonidan dunyo bo‘yicha har bir mamlakat pulining to‘lov qobiliyati, o‘sha mamlakatlarda yaratilayotgan tovar, xizmatlarning boshqa mamlakatlarga nisbatan solishtirish uchun dastur ishlab chiqilgan. Bu dasturga asosan, mamlakatlardagi holatga baho beriladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev: “Kambag‘allikdan chiqib ketish uchun eng muhim omil – bu insonning intilishi, o‘z kuchiga tayangan holda aniq maqsad sari harakati bo‘lishi kerak”,⁴³ deb ta’kidlab o‘tgan.

Avvalo kambag‘allik va qashshoqlik o‘rtasida qanday farq mavjud? Hozirda jahon bo‘ylab kambag‘allik yoki qashshoqlik tushunchalarining umumqabul qilingan hamda yagona kelishilgan ta’rifi ishlab chiqilmagan. Har bir mamlakat o‘zi uchun belgilangan kambag‘allik mezonidan kelib chiqib tavsiflaydi. BMT ta’rifiga ko‘ra, qashshoqlik – insonning hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan daromad va resurslarning yetishmasligi, bundan tashqari, ochlik va to‘yib ovqatlanmaslik, sog‘liqni saqlash, ta’lim yoki boshqa asosiy xizmatlardan foydalanishda cheklovlarning mavjudligi, turar-joyning yo‘qligi, xavfli tabiiy va texnogen muhitda hamda ijtimoiy tengsizlik sharoitida yashashiga nisbatan aytildi.

Kambag‘allik esa insonning hayoti davomida tanlov va imkoniyatlarga ega bo‘lmasligi, jamiyatda to‘laqonli ishtiroy etish uchun to‘siqlarning mavjudligi, bundan tashqari, oilasini boqishi va kiyintirishi, ta’lim olishi yoki kasalxonada davolanishi, biror sohada faoliyat yuritishi yoki daromad olishga imkon beradigan mehnat bilan ta’minalash imkoniyatlari yetishmasligi hamda kredit olish imkoniyatining cheklanganligida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, kambag‘allik – bu insonlar, uy xo‘jaliklari va jamoalarning ijtimoiy jihatdan chegaralanganligi, xavf-xatarlar oldida chorasizligi hamda nochorligi sanaladi.

Kambag‘allik darajasini aniqlash o‘lchovi ikki turga bo‘linadi: global kambag‘allik o‘lchovlari va milliy kambag‘allik o‘lchovlari.

⁴³ O‘zbekiston Respublikasi Sh.Mirziyoevning 2020 yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
<https://review.uz/uz/post/poslanie-prezidenta-uzbekistana-shavkata-mirziyoyeva-oliy-majlisu>

Global kambag‘allik o‘lchovlarini o‘z mandatiga ko‘ra, Jahon banki belgilaydi. U past, o‘rta daromadli mamlakatlar daromadi o‘sishidan kelib chiqqan holda global kambag‘allik chegarasini 3,2 dollari miqdorida belgilagan. Agar mamlakat yuqori o‘rta daromadli mamlakatlar qatoriga kiradigan bo‘lsa, u mamlakat kambag‘allik chegarasini 5,5 dollari miqdorida belgilagan.

Yuqoridagi ta’rif va uslubiyotlardan kelib chiqib, alohida qabul qilingan kambag‘allikni aniqlash uslubiyoti asosida jami daromadi (yoki xarajati) belgilangan kambag‘allik chegarasiga yetmagan aholi qatlamini kambag‘al, hayot kechirishi uchun zaruriy ehtiyojlarini mutlaqo qondirish imkoniyati bo‘lmagan qatlamni esa qashshoq aholi deb e’tirof etish mumkin.

Jahon xo‘jaligida milliy chegaralar muammosi. Milliy chegaralar muammosi hozirgi paytga kelib yanada global dolzarb muammolarning biriga aylanib bormoqda. Siyosatchi olimlarning tahlillariga ko‘ra, jahon siyosiy kartasining shakllanish jarayonini beshta asosiy bosqichlarga bo‘lamiz:

- 1) qadimgi ilk davlatlarning (qadimgi Rim, qadimgi Misr, Karfagen) tashkil topishi;
- 2) o‘rta asrlar (Muqaddas Rim Imperiyasi va Kiev Rusi paydo bo‘lgan);
- 3) yangi, ya’ni buyuk geografik kashfiyotlar bilan bog‘liq bosqich (masalan, Amerika qit’asining kashf qilinishi);
- 4) Yangi jahon tarixi, ya’ni ikkita jahon urushi yuz bergen, ikki xil iqtisodiy rivojlanish tizimi (“kapitalistik” va “sotsialistik”);
- 5) zamonaviy, ya’ni hozirgi davr.

Yaqin 30 yil davrini olsak, XX asrning 90-yillarida jahon xo‘jaligida juda katta o‘zgarishlar yuz berdi, ayniqsa, Yevropa tubdan o‘zgarib ketdi. Jumladan, Yevropada ikkita davlatda yashovchi bitta xalqning, ya’ni GDR va GFR oxir-oqibat yagona mamlakatga birlashishi jahon xo‘jaligida yangi siyosiy davrni ochib berdi. Osiyoda esa, Shimoliy va Janubiy Yaman mamlakatlarini, ya’ni Yaman Xalq Demokratik Respublikasi va Yaman Arab Respublikasi yagona YAARga birlashdi. 1991-yilda esa, sobiq Ittifoq inqirozga yuz tutgach uning o‘rnida 15 ta mustaqil mamlakatlar va Yevropada bir qancha yangi davlatlar vujudga keldi. Davlatlar chegarasini o‘zgarishida milliylikka intilish katta ta’sir o‘tkazmoqda. Ana shu sababdan

Kanadada Kvebek, Fransiyada Korsika va Yangi Kaledoniya, Buyuk Britaniyada Shotlandiya va Shimoliy Irlandiya, Ispaniyada Kataloniya kabi hududlar madaniyatda, tilda va dindagi qarashlar turlichaligini namoyish etmoqda. Milliylikka intilish turli etnik kelishmovchiliklarni keltirib chiqarmoqda, ya’ni aynan ana shu sabablar bois sobiq Chexoslovakiya ikki davlatga, sobiq Yugoslaviya esa yetti mamlakatga ajralib ketdi.

Ma’lumki, Buyuk Britaniya Gonkongni 1997-yilning 1-iyulida Xitoya bir qator shartlar asosida rasman qaytarib bergen. Ikki tomon o‘rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq, 50 yildan keyin, ya’ni 2046-yilda Gonkong to‘la ravishda Xitoyning mulki bo‘ladi. Shu davr ichida Xitoy Gonkong hukumati tomonidan qabul qilingan barcha qonun hujjatlarini va tartiblarini (milliy valutasi, bayroq, xalqaro tashkilotlarga a’zoligi va boshqalar) hurmat qilishiga majburdir. Xuddi shu asnoda, Portugaliya tomonidan Xitoya Makao 1999-yilning 20-dekabrida qaytarib bergen.

Demak, hozirgi zamonaviy jahon xo‘jaligi davrida ham, insoniyat tarixi davom etayotgan bir paytda milliy chegaralarning o‘zgarishi hamon davom etmoqda. Jahon siyosiy kartasi butunlay shakllanib bo‘lgani yo‘q va insoniyat mavjud ekan u yana shakllanishda davom etadi.

12.3. Mintaqaviy mojarolarning milliy iqtisodiyotlar rivojiga ta’siri

So‘nggi 10 yillikda “mintaqaviy mojaro” degan ma’lum mazmunga ega ushbu ibora jahon ommasining qulog‘iga o‘rnashib, oddiy bir holga aylanib qoldi. Mintaqaviy mojarolar dunyoning ham rivojlangan mintaqalarida va ham rivojlanayotgan mintaqalarda odatiy tusga aylandi. XXI asrning boshlarida Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasida ro‘y bergan siyosiy mojarolar tufayli ko‘plab mamlakatlarning milliy iqtisodiyoti izdan chiqdi va millionlab aholi o‘z yurtlarini tashlab boshqa hududlardan panoh topishdi. Ayniqsa Iraq, Suriya, Liviya, Afg‘oniston kabi mamlakatlarda siyosiy vaziyat hamon barqarorlashmagan. Masalan, Germanianing 2001-2020-yillarda Afg‘oniston hududida tinchlikni mustahkamlash maqsadida yuborgan harbiy qo‘sishlari uchun ketkazgan sarf-xarajatlari miqdori 12,1 mlrd. yevroni tashkil qilgan.

BMTning 2020-yil yakuniga kelganda, butun dunyoda jami 80 mln.ga yaqin qochoq aholi borligi haqidagi so‘nggi ma’lumotlari kishini befarq qoldirmaydi, ushbu qochoq aholi turli mamlakatlarda sodir bo‘lgan va bo‘layotgan fuqarolar urushi va siyosiy notinchliklar tufayli o‘zi yashab turgan uy-joylarini tashlab, boshqa mamlakatlarga boshipana izlab “qochoq” sifatida ketishga majbur bo‘lishgan.

Turkiya 2005-2021-yillarda eng ko‘p qochoqlarni bag‘riga olgan mamlakat bo‘lib qolmoqda va ayni vaqtida Anadolu zaminida 4 mln.ga yaqin qochoqlar panoh topgan. Turkiya Respublikasi Prezidenti R.Erdo‘g‘an 2020-yilning noyabrida bo‘lib o‘tgan “G20” onlayn Sammitida, “Biz 4 million qochoqni bag‘rimizga oldik. Ularning ko‘pi Suriyadan. Shuningdek, Suriya, Idlib va boshqa ko‘plab mamlakatlarda millionlab muhtojlarga gumanitar yordam ko‘rsatmoqda. Ularning soni Sizning ko‘plab yirik shaharlaringiz aholisidan ziyoddir. Biz mamlakatimizda panoh topganlarning jamiyatimiz bilan hamjihat va munosib hayot kechirishi uchun sa‘y-harakatlarimizni davom ettirmoqdamiz”, deya ta’kidladagan edi. Turkiya rahbari qochoqlar va himoyaga muhtoj bo‘lgan dunyo aholisiga yordam berish faqat Turkiyaning vazifasi emasligini eslatib, bu borada barcha mamlakatlarga o‘ziga tushadigan yukni adolatli bo‘lib olishi kerakligini ma’lum qilgan.

Shuningdek, 2021-yilning boshida Turkiya rahbarining Anqaradagi chiqishida, Yevropaga yuz minglab suriyalik qochoqlar uchun chegaralarni ochib yuborish bilan tahdid qilib, shunday degan edi: “Yevropaning puli va kuchi bor, ammo har safar Gretsiyaga yuzlab qochoqlar kelganida Yevropaliklar Turkiyaga qo‘ng‘iroq qilishadi, men eshiklarni ochib yuborishimni aytganimda ular g‘azablanishni boshlashadi. Qizishmang, vaqt keladi, eshiklarni ochamiz. Sizlar ham yuz minglab qochoqlar bilan shug‘ullaninglar, bizda 4 mln qochoq bor. Agarda kimdir gumanitar siyosatimizni zaif deb hisoblaydigan bo‘lsa, biz unga temir musht bilan javob qaytarishni kechiktirmaymiz”.

Milliy iqtisodiyotlarning taraqqiyotidagi “tinchlik” davrlarida ham mamlakat mudofaasi uchun ma’lum xarajatlar miqdori davlat budgeti uchun “og‘ir yuk” hisoblanadi. Chunki, harbiy mudofaaga ketadigan xarajatlar miqdori ancha salmoqli mablag‘ hisoblanadi. Ayniqsa, jahondagi yetakchi mamlakatlarning harbiy mudofaa sanoatini

shakllanishi va ushbu tarmoqni har yili rivojlantirib borish bo‘yicha ulkan mablag‘lar yo‘naltiriladi.

Ikkinci jahon urushidan so‘ng jahondagi yetakchi mamlakatlarning harbiy mudofaa sanoatini rivojlanishiga alohida turki bo‘lgan jihatni bu – Buyuk Britaniyaning sobiq Bosh vaziri Winston Cherchillning 1946-yil mart oyida AQSHning Fulton shahrida so‘zlagan nutqida sobiq Ittifoq tomonidan “sovuv urush” davrining boshlanganligini ta’kidlab o‘tgan edi va bu tarixda “Fulton nutqi” sifatida joy olgan.

Stokholm jahon muammolarini tadqiqot qilish institutining (SIPRI) ma’lumotiga ko‘ra, 2019-yilda jahon mamlakatlari bo‘yicha barcha harbiy xarajatlar miqdori jahon YaIMning 5 foiz ulushi miqdorini tashkil qilgan. Chunki, qurol-yaroq tayyorlash va uni ishlab chiqarish eng ko‘p mehnat va resurs talab qiluvchi sanoat ishlab chiqarish tarmog‘i hisoblanadi. Dunyoda qurol-yaroq savdosining hajmi yil sayin oshib bormoqda. 2019-yilda dunyodagi 25 ta eng yirik kompaniyalarning qurol-yaroq va harbiy xizmatlar savdosi 2018-yilga nisbatan 8,5 foizga o‘sgan va 361 mlrd.dollarni tashkil etgan. Ushbu 25 ta kompaniyaning 12 tasi AQSHda joylashgan bo‘lib, jami qurol savdosining 61 foizi ularga tegishli bo‘lgan. Shu bilan birga, ulardan beshtasi, ya’ni “Lockheed Martin”, “Boeing”, “Northrop Grumman”, “Raytheon” va “General Dynamics” kompaniyalari jahon qurol-yaroq va harbiy xizmatlar savdosi reytingida yetakchi va ularning savdosi 166 mlrd.dollarni tashkil qilgan.

Harbiy qurol savdosi bo‘yicha AQSHdan keyingi o‘rinni Xitoy egallagan. Uning harbiy-sanoat kompaniyalari ulushiga jami savdo hajmining 16 foizi to‘g‘ri keladi. Reytingga kirgan to‘rtta kompaniyadan uchtasi – “Aviation Industry Corporation of China” (6-o‘rin), “China Electronics Technology Group Corporation” (8-o‘rin) va “China North Industries Group Corporation” (9-o‘rin) dastlabki o‘ntalikdan joy olgan.⁴⁴ 2019-yilda Jahon bo‘yicha harbiy qurol-aslaha eksporti bo‘yicha eng yirik mamlakatlar reytingini 12.3.1-jadval orqali ko‘rishimiz mumkin.

⁴⁴ <https://www.sipri.org/media/press-release/2020/global-arms-industry-sales-top-25-companies>

12.1 - jadval

2019-yilda Jahon bo‘yicha harbiy qurol-aslaha eksporti bo‘yicha eng yirik mamlakatlar reytingi

T/r	Mamlakatlar	Eksport (mlrd.dollar)	Jahon bo‘yicha ulushi (foizda)	Asosan qaysi davlatga eksport qilgan?
1	AQSH	41,0	33	96 ta mamlakatga
2	Xitoy	28,0	25	Asosan Eron, Suriya, Shimoliy Koreya (jami 42 ta mamlakat)
3	Rossiya	27,0	5,9	Asosan Eron, Ve- nesuela, Hindiston, Suriya (jami 48 ta mamlakatga)
4	Fransiya	12,0	5,6	Hindiston, SA va BAA
5	Germaniya	8,0	4,7	Turkiya, SA va BAA

Manba: ushbu jadval Stokgolm jahon muammolarini tadqiqot qilish institutining (SIPRI) ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

12.2 - jadval

2019-yilda Jahon bo‘yicha harbiy qurol-aslaha importi bo‘yicha eng yirik mamlakatlar

T/r	Mamlakatlar	Import (mlrd.dollar)	Jahon bo‘yicha ulushi (foizda)	Asosan qaysi davlatdan import qilgan?
1	Hindiston	27,5	14,0	Rossiya, AQSH, Fransiya
2	Saudiya Arabistoni	26,0	7,0	AQSH, Xitoy va YI
3	Xitoy	21,0	4,7	Rossiya va Ukraina
4	Turkiya	14,0	4,0	Rossiya va AQSH
5	BAA	9,0	3,4	Xitoy, AQSH va YI

Manba: ushbu jadval Stokgolm jahon muammolarini tadqiqot qilish institutining (SIPRI) ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

Jahonning ko‘plab rivojlangan mamlakatlari harbiy sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishi va tashqi savdo orqali uni eksport qilishi orqali milliardlab dollar foyda ko‘radi. Har bir mamlakat iqtisodiyotida harbiy salohiyatni qisqartirish va doimiy harakatdagi armiyalarni quolsizlantirish mamlakatning davlat budgetining ulkan tejamkorligiga olib keladi va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish aholini turmush darajasini oshirishga faqat yordam beradi.

SIPRI ma’lumotiga ko‘ra, ayni paytda, harbiy sanoatning eksporti miqdori bo‘yicha AQSH jahon mamlakatlari ichida 1-o‘rinda turadi va keyingi o‘rnlarni Xitoy va Rossiya mamlakatlari egallashgan. 12.1-jadval va 12.2-jadvallardan ko‘rnib turibdiki, quol-aslahani eksport qiluvchilar jahonning rivojlangan mamlakatlari bo‘lsa, ularning importida rivojlanayotgan mamlakatlarning ham ulushi kattadir.

Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasida yuzaga kelgan siyosiy inqirozning ta’siridan hozirgi kunda Yevropaning janubiy hududlaridan va Turkiya hududlari orqali YI hududiga kuniga minglab fuqarolar turli yashirin yo‘llar orqali kirib kelishmoqda. Ayniqsa, Janubiy Osiyo, Shimoliy Afrika va Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasi mamlakatlaridan 2015-2020-yillar mobaynida millionlab aholini Yevropa mamlakatlariga “oqim”ini kuzatish mumkin. Aynan ushbu muammo hozirda YI hisoblangan jahondagi eng yirik tashkilotining xavfsizligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. YI o‘z hududlari chegaralarini mustahkamlash hamda migrantlarning oqimini kamaytirish maqsadida Gretsiyaning Turkiya bilan quruqlikdagi chegarasida, ya’ni Yevros viloyatida devor qurilishi loyihasi ishlab chiqildi va uning amalga oshirilishi 2021-yilning yakuniga belgilandi.

2020-yilning 30-yanvarida Yevroparlamentda bo‘lib o‘tgan Buyuk Britaniya deputatlarining “Breksit”ga bag‘ishlangan va ularning ishtirokidagi so‘nggi “xayrlashuv” yig‘ilishida, britan deputatlari tomonidan hozirgi paytda mamlakatga va milliy iqtisodiyotning rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan 3 ta asosiy sabablarni o‘z chiqishlarida ta’kidlab o‘tishgan edi, jumladan:

- migratsiya oqimining La-Mansh ko‘rfazi orqali kun sayib ortib borayotganligi ular uchun ortiqcha va ko‘zda tutilmagan sarf-xarajatlarni yo‘naltirilayotganligi (oziq-ovqat va uy-joy bilan ta’minlash);

- migrantlarning soni ko‘paygan sari tinch aholining qo‘rquvda

yashayotganligi va ularning xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'r-satayotganligi;

– mamlakatga noqonuniy sifatsiz mahsulotlarni YI hududlari orqali kirib kelish hajmining ko'payib borayotganligini bildirib o'tishgan edi. Demak, britan deputatlarining so'zlariga ko'ra, "Breksit"ning eng asosiy sabablaridan biri bu – britan xalqining muhojirlardan xavfsirashidir.

Rivojlangan Yevropa mintaqasida yuzaga kelgan Rossiya bilan YI o'rtasidagi turli siyosiy kelishmovchiliklar natijasida ikki tomon o'rtasidagi o'rnatilgan "iqtisodiy jazo"larning salbiy ta'siri butun jahon iqtisodiyoti rivojiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Ikki qarama-qarshi tomonlar tomonidan joriy qilingan "iqtisodiy jazo"lar 2014-yildan boshlanib, YI va uning hamkor sheriklari hisoblangan AQSH, Yaponiya, Avstraliya, Kanada kabi mamlakatlar tomonidan "iqtisodiy jazo" tariqasida Rossiya bilan investitsiyaviy hamkorlikni to'xtatilishini hamda bank-moliya operatsiyalari bo'yicha ma'lum chekhanishlarni joriy etgan. Ushbu "iqtisodiy jazo"ga asosan, Rossiya tomonidan YI mamlakatlaridan ko'plab turdag'i oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarning importini vaqtinchalik to'xtatgan. Biroq ushbu YI va Rossiya o'rtasidagi "iqtisodiy jazo"lar ba'zi qishloq xo'jaligi mahsulotlarni yetishtiruvchi mamlakatlar uchun ancha "foydali" bo'ldi va ularning milliy iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, Turkiya, Hindiston, Ozarbayjon, O'zbekiston kabi mamlakatlarning Rossiyaga qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksport miqdori kamida 2-3 marotabaga ko'paydi. Ayniqsa, Turkiya bundan juda ham unumli foydalandi va Rossiyaning markaziy hududlarini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan doimiy ravishda ta'minlab kelmoqda.

Ma'lumki, Yaqin va O'rta Sharq mintaqasida Isroil va unga qo'shni bo'lgan mamlakatlar bilan qo'shnichilik siyosati juda ham murakkab jarayonga egadir. U arab olamida yolg'izlanib qolgan mamlakat bo'lib, mana qariyb 70 yildan buyon deyarli har yili yuzaga keladigan siyosiy inqirozlarga qaramay Isroil "olovli mintaqa"da rivojlanib kelmoqda.

1990-yil o'rtalariga kelib Falastin va Isroil munosabatlarida ham iliqlik kuzatiladi. Saudiya Arabistoni, Kuvayt, Bahrayn, Qatar, BAA va Ummon sultonligi ham norasmiy tarzda Isroil bilan o'z

munosabatlarini yaxshilashga harakat qila boshlaydi. Sabab esa Erondan kelayotgan xavf arab davlatlarini Isroil bilan tinchlik o‘rnatishga asos bo‘layotgan bo‘lsa, boshqa tarafdan arab mamlakatlari Isroildagi yuqori texnologiyalardan bahramand bo‘lish va qishloq xo‘jaligi, tibbiyot, suvsozlik va suv ta’minoti, cho‘llashishga qarshi kurashish va harbiy-texnik sohalarda hamkorlik qilishga bo‘lgan istakdir. Isroil bosh vaziri Binyamin Netanyahuning Ummon sultonligiga tashrifi ham arab-yahudiy munosabatlarini yaxshilash uchun ijobiy qadam sifatida baholandi.

1994-yilda Iordaniya va Isroil tinchlik bitimini imzolaydi va diplomatik munosabatlar o‘rnataladi. Isroil hukumati Iordaniyaga tabiiy gaz va ichimlik suvi yetkazib berish evaziga Iordaniyaning urush boshlamaslik kafolatini qo‘lga kiritadi. Keyinroq esa BAA va Isroil o‘zaro aloqalarni yaxshilash uchun kelishib olishdi. 2020-yilning 29-avgust kuni BAA hukumati Isroilga nisbatan e’lon qilingan boykotni bekor qilishini ma’lum qildi. Kelishuvga binoan Isroil hukumati BAA hududiga o‘z mahsulotlarini olib kirishi, BAA kompaniyalari va kichik tadbirkorlik subyektlari isroillik biznesmenlar bilan har qanday moliyaviy va biznes sherikchilikni rivojlantirishlariga ruxsat berildi. 31-avgust sanasida esa Isroildagi xalqaro Ben Gurion aeroportidan BAAGa dastlabki tarixiy parvoz amalga oshirildi. Isroil milliy xavfsizlik kengashi raisi Meir Ben Shabbat, AQSH milliy xavfsizlik kengashi maslahatchisi Robert O‘Brayan va AQSH prezidentining katta maslahatchisi Jared Kushner BAAGa ilk parvozni amalga oshirgan o‘choqning sayyoohlari bo‘lishdi. Ayniqsa, Isroil-BAA o‘rtasida “vizasiz” kirib-chiqish imzolanganligi ko‘plab arab mamlakatlarining e’tiroziga sabab bo‘ldi. Marokash qirolligi ham Isroil bilan diplomatik munosabatlarni yo‘lga qo‘yayotgan oltinchi arab mamlakati bo‘ldi. Shuningdek, Janubiy Sudan 7,0 mlrd.doll. moliyaviy ko‘mak evaziga Isroil bilan diplomatik munosabatlarni yo‘lga qo‘yishini ham ma’lum qilgan.

12.4. Milliy iqtisodiyotda demografik muammolar

Aholi tizimini o‘rganuvchi va doimiy ravishda tahlil qiluvchi BMT tarkibidagi Jahon aholisini o‘rganish va tahlil qilish tashkilo-

tining tahliliga ko‘ra, so‘nggi 30 yil mobaynida yer yuzi aholisi har 10 yilda kamida 1 milliard kishiga ko‘payib bormoqda va XXI asrning 20-yillarning boshiga kelib dunyo aholisi qariyb 8 milliard kishini tashkil qilmoqda. Aholi sonini keskin ko‘payishi va ularni keyinchalik uy-joy, oziq-ovqat va ish bilan ta’minlash vazifalari jahonning har bir mamlakatning eng asosiy vazifasi bo‘lib qolmoqda.

10 ming yil oldin yer sayyorasida atigi 5 million aholi yashagan, ming yillar davomida dunyo aholisi juda sekin o‘sib keldi va shu tarzda XIX asrga qadar davom etdi. Biroq tibbiyat, texnologiya va qishloq xo‘jaligidagi rivojlanish natijasida 1800-yilga kelib dunyo aholisining soni 1 milliardga yetdi. Shundan so‘ng, yuz bergen ikki Jahan urushi va “Ispan” grippi pandemiyasi davridagi yo‘qotishlarga qaramay, 1960-yilda “yerliklar” soni 3 milliarddan oshdi. Ko‘rinib turibdiki, ushbu raqamlar faqat yuqoriga qarab o‘smoqda. Oradan bor-yo‘g‘i yana 60 yil o‘tib, aholi soni 2,5 baravar ko‘paydi. Ayni vaqtda yer yuzida 7 milliard 840 million inson yashamoqda va ushbu ko‘rsatkich shiddat bilan o‘sishda davom etmoqda. BMTning bashoratiga ko‘ra, 2055-yilga kelib yer aholisi 10 milliardga yetadi. Aholi sonining tez sur’atlar bilan o‘sishi kelajakda insoniyatning o‘ziga xavf soladimi? Axir, yer sayyorasidagi tabiiy resurslar cheklangan va tobora tugab bormoqda. Bu masalada qanday yechim bor?

Yer yana qancha vaqt insoniyatga chidab bera olishi mumkinligi haqida so‘z ochishdan avval, inson omili tufayli sayyora qanday holatga yetib kelgani va unda qancha resurs qolgani haqida fikr yuritib ko‘raylik.

Dunyo aholisining yarmidan ko‘prog‘i rivojlanayotgan mamlakatlarga to‘g‘ri keladi. Ekspertlarning hisob-kitoblariga ko‘ra, dunyo aholisi yiliga o‘rtacha 100-105 million kishiga ko‘payib bormoqda. Bularning asosiy qismi jahonning rivojlanayotgan mamlakatlariga to‘g‘ri kelmoqda. Dunyo aholisining ko‘payishi asosan jahonning 6 mamlakatiga to‘g‘ri keladi: jumladan, Osiyoning Hindiston, Yaman, Pokiston, Bangladesh, Indoneziya va Afrika qit’asining Nigeriya mamlakatlariga to‘g‘ri keladi. Sayyoramizdagi har o‘n kishining to‘rttasi Xitoyda yoki Hindistonda yashaydi.

Aholi sonining bunday o'sishi hozirgi kungacha insoniyat tarixida hali kuzatilmagan edi. Jahon iqtisodiyotida demografik muammolarning mavjudligini birinchi bo'lib XVI asrning oxirida ilk bor ingliz olimi T. R. Maltus o'z e'tiborini qaratdi. Dunyoda aholi sonining keskin ko'payishi jahonning ko'plab mamlakatlardagi kambag'allikni yengish, ochlik, sog'liqni saqlash, uy-joy kabi ko'plab muammolarni chuqurlashtirib yuboradi. Dunyo aholisining kundan kunga ko'payib borishi ko'z oldimizda yuz berayotgan "demografik portlash" keyinchalik tabiiy resurslarni takror ishlab chiqarish va insonlar xo'jalik faoliyati o'rtaсидаги muvozanatning buzilishiga olib keladi.

Xo'sh, aholining o'sish tendensiyasi jahondagi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun qay darajada ta'sir o'tkaza oladi? Tadqiqotlar natijasida aholi o'sishining iqtisodiy rivojlanishga ko'rsatadigan ta'sirini baholashga nisbatan ikkita yondashuv ishlab chiqilgan:

Birinchi yondashuv – bu yoki u darajada T.R.Maltus ta'limoti bilan bog'liq bo'lib, bu ta'limotga ko'ra, aholining o'sishi oziq-ovqat o'sishini ortda qoldiradi va shuning uchun ham dunyo aholisining qashshoqlashuvidan qutulib bo'lmaydi;

Ikkinci yondashuv – aholishunoslikning iqtisodiyotdagi rolini baholashga bo'lgan zamonaviy yondashuv – kompleks yondashuv hisoblanadi va u aholi o'sishining iqtisodiy o'sishga ko'rsatadigan ta'sirining ham ijobjiy, ham salbiy omillarini aniqlab beradi. Biroq har qanday yondashuvda ham shu narsa ayonki, aholi o'sishining milliy iqtisodiyotlarga ko'rsatadigan salbiy ta'sirini hamda zamonaviy sharoitlarda inkor etish mumkin emas.

12.3-jadvaldan ko'rini turibdiki, Xitoy va Hindiston mamlakatlarining aholi soni 1 milliardan ortiqdir. Ularning aholi soni qo'shib hisoblaganda dunyo aholisining 35,5 foizini tashkil qilmoqda.

12.3 - jadval

Jahondagi eng ko‘p aholi soniga ega bo‘lgan mamlakatlar reytingi (2019-y.)⁴⁵

T/r	Mamlakatlar	Aholi soni (mln. kishi)	Dunyodagi ulushi (foizda)
1	Xitoy	1 406,9	17,9
2	Hindiston	1 380,7	17,6
3	AQSH	330,0	4,2
4	Indoneziya	266,9	3,4
5	Pokiston	219,6	2,8
6	Braziliya	212,4	2,7
7	Nigeriya	209,9	2,7
8	Bangladesh	171,7	2,2
9	Rossiya	146,7	1,9
10	Meksika	127,8	1,6
11	Yaponiya	126,0	1,6
....40	O‘zbekiston	34,6	0,4
...44	Afg‘oniston	32,2	0,4
....64	Qozog‘iston	18,8	0,2
...97	Tojikiston	9,1	0,1
...110	Qirg‘iziston	6,5	0,1
....113	Turkmaniston	5,9	0,1
...	boshqa mamlakatlar	3 142,3	60,0
	Jahon bo‘yicha	7 848,0	100,0

Manba: ushbu jadval wikipedia.org ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

12.4-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, aholi sonining bunday tez o‘sib borayotganligi keyingi 10 yillikkarda jahon ijtimoiy-iqtisodiy taraqiyotning eng muhim muammolaridan biriga aylandi. Yer sharining ko‘payib borayotgan aholini oziq-ovqat va ularni ish bilan ta’minlash kabi muammolar keyingi yillarda asosiy muammolardan biri bo‘lib qolaveradi.

Hozirgi vaqtda jahoning rivojlangan mamlakatlarining yirik shaharlarida, xususan London, Tokio, Nyu-York, Los-Anjeles, Parij, Rim kabi yirik shaharlari aholisining yillik o‘sish sur’ati o‘rtacha 1 foiz atrofida bo‘lsa, jahondagi rivojlanayotgan mamlakatlarning

⁴⁵ https://ru.m.wikipedia.org/wiki/Spisok_stran_po_naseleniyu

yirik shaharlarida esa, jumladan Mumbay (Bombey), Kalkutta, Karachi, Dakka, Nyu-Deli, Stambul, Anqara, Tehron, Qohira, Lagos, Nayrobi, Er-Riyod kabi shaharlarda aholi soni o'sishi o'rtacha yiliga 3-5 foizni tashkil qilmoqda.

12.4 - jadval

Dunyo aholisining o'sish tendensiyalari

T/r	Yillar	Aholi soni (mln. kishi)	O'rtacha 1yildagi o'sish (mln. kishi)
1	1000	275	
2	1540	500	0,4
3	1815	1.000	1,8
4	1928	2.000	8,8
5	1958	3.000	33,3
6	1975	4.000	58,8
7	1987	5.000	83,1
8	1999	6.000	83,3
9	2011	7.000	84,0
10	2021 (istiqbol)	8.000	100,1

Manba: ushbu jadval wikipedia.org ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

Yer kurrasida aholi nihoyatda notekis joylashgan. Umuman dunyoda aholi soni ko'p to'plangan ikkita asosiy mintaqqa mavjud bo'lib, bular: Janubiy Osiyo va Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqalaridir. Ushbu ikki mintaqadagi aholi soni yer yuzi aholisining 61 foizini va 4,8 mlrd.ni tashkil qiladi hamda aholi sonining ko'pligi va zinch joylanishuviga sabab quyidagichadir:

- aholining qadimdan yashashi;
- ko'p mehnat talab qiluvchi dehqonchilik sohasining qadimdan mavjudligi;
- asosiy iste'moli baliq va o'simlik mahsulotlari;
- aholining tabiiy ko'payishidir.

12.5 - jadval

Dunyo aholisining qit'alarga taqsimlanishi

T/r	Qit'alar va mintaqalar	Foiz hisobida	Mln. kishi
	<i>Yer yuzidagi jami aholi</i>	<i>100</i>	<i>7.848,0</i>
1	Sharqiy Osiyo	34	2.668,3
2	Janubiy Osiyo	27	2.119,0
3	Afrika	16	1.255,7
4	Shimoliy Afrika, Yaqin Sharq, Yevropa, Avstraliya	13	1.020,2
5	Shimoliy, Markaziy va Janubiy Amerika	10	784,8

Manba: ushbu jadval wikipedia.org ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

Jahon, mamlakat yoki rayon aholisida shaharliklar salmog‘ining o‘sishi urbanizatsiya deb ataladi. Lekin bu salmoq urbanizatsiya jarayonida erishilgan haqiqiy darajaning tashqi belgisidir, xolos. Aslida urbanizatsiya shaharlar ahamiyatining ortishi va shaharliklar turmush tarzining yoyilish jarayonlaridan iborat. Odatda, shahar aholisi qancha ko‘p bo‘lsa, shaharning o‘sish sur’ati shuncha yuqori bo‘ladi. Xususan, Misrning Qohira, Hindistonning Mumbay va Kalkutta, Turkiyaning Stambul kabi shaharlar aholisi qishloq aholisining shaharlarga ko‘plab oqimi tufayli ushbu shaharlarda aholi sonining ko‘payishiga olib kelgan.

12.5. Ekologiya muammosi va global iqlimning keskin o‘zgarishi

Umuman ekologik muammolar ko‘p asrlik tarixga egadir. Biroq, XXI asrning boshlariga kelib atmosferamizning havosi keskin ravishda yomonlashdi. Jahon iqtisodiyoti tarixidan joy olgan “XX asr – sanoat asri” davrida sayyoramizdagi o‘rmonlarning 30 foizi yo‘qolib ketdi. 2018-2021-yillarda Rossiya, AQSH, Kanada, Fransiya, Ispaniya, Italiya, Gretsya, Avstraliya, Malayziya, Indoneziya, Braziliya kabi mamlakatlarda turli sabablarga ko‘ra minglab hektar yer maydonlaridagi o‘rmonlar yonib kulga aylandi. Ayniqsa, ushbu tabiiy

ofatlardan Avstraliya, Rossiya va AQSHning o‘rmon xo‘jaliklari jiddiy talafot ko‘rdi.

“National Geographic” va Jahan banki ma’lumotlariga ko‘ra, 1950-yillardan beri daraxtlarning keng miqyosda kesilishi natijasida shu vaqtgacha dunyo o‘rmonlarining 46 foizi yo‘q qilingan. Agarda biror bir chora ko‘rilmasa, shu ketishda 2100-yilga kelib, dunyoda umuman o‘rmon qolmaydi.

Bugungi kunda jahon olimlari deyarli har kuni global isish xavfini eslatib turishibdi. Yer haroratining asta-sekin ko‘tarilishi ichimlik suvining kamayishi, hayvonlarning yo‘q bo‘lib ketishi va boshqa dahshatli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ta’kidlashmoqda. Ko‘pchiligidan uchun iqlim o‘zgarishi vahima bo‘lib eshitilsa-da, global isishning oqibatlarini sezganimizcha yo‘q.

XX asrning 70-yillarida jahon iqtisodchilar iqtisodiy rivojlanish uchun atrof-muhit muammosining muhim ahamiyatga ega ekanligini anglab yetishdi. Atrof-muhitning yomonlashuvi natijasida global iqlimning o‘zgarishi, jamiyatga va resurslarning nobud qilinishiga xavf soladi. Turli-tuman iqtisodiy faoliyat turlarida atrof-muhitni asrash uchun sarflanadigan xarajatlarning miqdori to‘g‘risida to‘liq yoki aniq hisob-kitob mavjud emas. Biroq ko‘plab mutaxassislar ularni rivojlanish siyosatini ishlab chiqishda hisobga olish zarurligini ta’kidlashadi. Jahonning donor mamlakatlari atrof-muhitni asrash maqsadida yirik mablag‘larni unga qarshi kurashish ishlari uchun yo‘naltirishadi.

Ekologik muammolarning kuchayishi shunga olib keldiki, bu muammolar ko‘plab mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishining strategik dasturlarida markaziy o‘rinlardan joy oldi. Hozirda milliy iqtisodiyotni rivojlanishida eng asosiy omillaridan biri bu – ekologiyadir. Iqlimning o‘zgarishlari hozirgi davrning eng yirik muammosi bo‘lib, global iqlim isishining oldini olish uchun jahon mamlakatlari anchadan buyon kurashib kelmoqda.

Global iqlimning isishi natijasida yerda misli ko‘rilmagan falokatli qurg‘oqchilik boshlanishi mumkin. Olimlar yer sayyorasida keng ko‘lamli qurg‘oqchilik boshlanishini ma’lum qildi. Tadqiqotchilar tomonidan e’lon qilingan ma’lumotlarga ko‘ra, Yerning janubiy yarimshari yuz yillikning o‘rtalariga borib uzoq va kuchli qurg‘oqchilikka duch keladi. Istiqbollar bo‘yicha ushbu

hududlarga yog‘adigan yillik yog‘ingarchilik 30 foizga qisqarib ketadi. Iqlim o‘zgarishi oqibatida 2024-yilga borib o‘rtacha global harorat 1,5 daraja Selsiyidan ortiqroqqa, yuz yillik oxirida esa havo issiqligi 3 darajaga ko‘tarilishi mumkin. Bu avvalroq e’lon qilingan prognozlardan ham erta sodir bo‘lishi mumkin⁴⁶.

2020-yilning oktabr oyida “TED Countdown” xalqaro global iqlim tashabbusi ostida o‘tkazilgan forumda nutq so‘zlagan BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish global iqlim o‘zgarishi va qurg‘oqchilik masalalariga alohida e’tibor qaratish zarurligini jahon ommasiga yana bir bor ta’kidlab o‘tdi. U “Agar biz hozir harakat qilmasak, bu XXI asr insoniyat uchun so‘nggi asr bo‘lishi mumkin. Global iqlim o‘zgarishi misli ko‘rilmagan o‘rmon yong‘inlari, kuchli va tez-tez uchraydigan siklonlar, toshqinlar, qurg‘oqchilik va boshqa ob-havo hodisalarini keltirib chiqarmoqda”.

“Global iqlimga qarshi kurash” mavzudagi Birinchi xalqaro konferensiya 1972-yilda Shvetsiya poytaxti Stokgolmda bo‘lib o‘tadi. Keyinchalik, ushbu muammo global muammolarining biriga aylanganligi sababli 1985-yilda Yaponiyaning Kioto shahrida “Global iqlimga qarshi kurashish” Sammiti bo‘lib o‘tadi va unda ishtirokchi davlat rahbarlari “Kioto bitimi”ni imzolashdi.

1992-yilda Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida bo‘lib o‘tgan “Global iqlimga qarshi kurashish” mavzusidagi Sammitda jahonning 118 ta davlatlar hamda 100 dan ortiq nodavlat ekologiya uyushmalarining rahbarlari ishtirokida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. Unga ko‘ra, atmosferaga chiqindi gazlar tashlanishi miqdorining oshib ketishi natijasida katta ekologik halokat tahdidi yuzaga kelayotganligi, bu global muammoning natijasida ob-havoning isib ketishiga va hayvonot hamda o‘simlik dunyosining turli-tumanligini yo‘qotishiga olib kelishi mumkinligi kun mavzusiga aylandi. Shuningdek, kambag‘allikka qarshi kurashish va atrof-muhitni sog‘lomlashtirishga, sanitar sharoitlarni yaxshilash, toza suvni ta’minalash, havo ifloslanishini kamaytirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirilishiga kelishib olindi. Garchi jahonning yetakchi donor mamlakati – AQSH Rio-de-Jeneyrodagi konferensiyada o‘z zimmasiga qo‘srimcha majburiyatlarni olishga tayyorligini

⁴⁶ <https://phys.org/news/2020-09-southern-hemisphere-century.html>

bildirmagan bo'lsa-da, YIning o'n ikki mamlakatlari ekologik dasturlarni amalga oshirish uchun 1993-97-yillar davomida 4,2 mlrd.dollar mablag' berishga rozilik bildirdi. Yaponiya esa, ekologik ehtiyojlar uchun yillik yordam hajmini 1992-yildagi 800 mln. dollardan 1993-97-yillar uchun 1,4 mlrd. dollargacha oshirishini ma'lum qildi.

2009-yilda Daniya poytaxti Kopengagen shahrida jahondagi barcha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning rahbarlari ishtirokida bo'lib o'tgan "Jahon iqlimining isishi va zaharlanishi" mavzusidagi Sammitida ushbu masalaga yana bir bor jiddiy yondashildi. Qisqasi, YI mamlakatlari 7,0 mlrd. yevro; Xitoy 4,0 mlrd. yevro va Saudiya Arabiston 1,0 mlrd. yevro mablag'ini 2012-yilgacha rivojlanayotgan mamlakatlarning sanoat tizimini qayta qurilishi uchun yo'naltirilishiga qaror qilindi.

2015-yilda Fransiya poytaxti Parijda BMT tasarrufidagi jahonning barcha mamlakatlari tomonidan hamjihatlikda global iqlimga qarshi kurashish va atmosferaga chiqindilarni tashlash miqdorini kamaytirish maqsadida navbatdagi "Jahon iqlimining isishi" Sammiti bo'lib o'tdi va "Parij kelishuvi" imzolandi.

Demak, avvaliga Kioto protokoli, keyinchalik esa tarixiy deb baho berilgan 2015-yilgi Parij kelishuvi, 2019-yilgi xalqaro Sammitlar va kelishuvlar orqali rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar rahbarlari global iqlim o'zgarishlariga qarshi umumiylar choralar ko'rishga hamkorlikda ishlab olib borilishiga kelishildi. Biroq qanchalik xalqaro kelishuvlar soni ko'p bo'lmasin, aksincha, atmosferaga chiqarilayotgan uglerod oksidlari miqdori yildan yilga baribir ortib bormoqda va 2020-yilda ham tashlama gazlar miqdori o'tgan yilga nisbatan bir foizga ortishi prognoz qilingan edi. Lekin ushbu sohaga oid prognoz va tahlillar bilan shug'ullanuvchi "Carbon Brief" axborot-tahliliy portali hisobotida, koronavirus pandemiyasi tufayli yuzaga kelgan xalqaro vaziyat oqibatida yil yakuniga ko'ra, butun sayyoramiz miqyosidagi karbonat angidrid (CO_2) tashlamalari miqdori 5,5 foizga kamayganligi ma'lum qilingan. Albatta, mana buni haqiqatan ham tarixiy natija desa bo'ladi.

Pandemiya oqibatida jahon iqtisodiyoti inqirozga yuz tutgan bo'lsa, biroq ikkinchi tomondan koronavirus sayyoramizga o'ziga xos bonus taqdim qildi. Bu degani yer atmosferasi taxminan 5-6 foiz

issiqxona gazlaridan xalos bo‘lmoqda. Qisqasi, Xitoyning Uxan koronavirusi tabiat va tevarak atrof-muhitning yaqin 200 yil davomida birinchi marotaba ekologiyani yaxshilanishiga olib keldi. Pandemiya tufayli jahon bo‘ylab zavod va fabrikalarning ishlab chiqarishdan butunlay to‘xtashi, avtomobillar harakatining butkul to‘xtab qolishi, aviaparvozlar va temiryo‘l qatnovlari favqulodda qisqarishi natijasida so‘nggi 200 yil deganda atmosferaga chiqarilayotgan CO₂ gazi miqdori rekord darajada kamaydi!

Jahonda global iqlimning o‘zgarishi ko‘plab jahon mintaqalaridagi klimatni o‘zgartirib yubormoqda. 2021-yilning aprel-may oylarida Fransiyada ro‘y bergen bergen sovuq iqlim qishloq xo‘jaligi ekinlariga salbiy ta’siri tufayli, shu paytga qadar ko‘plab turdagи qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini jahon bozoriga export qiluvchi Fransiya vaqtinchalik bo‘lsa-da yirik mablag‘lar evaziga xorijdan import qilishga majburdir.

12.6. Pandemianing jahon iqtisodiyoti va milliy iqtisodiyotlar rivojiga ta’siri

2019-yilning oxirlarida Xitoyda aniqlangan COVID-19 yuqumli kasalligi 2020-yilning boshlarida butun dunyoga juda tez fursatda tarqalib ketdi va BMT tomonidan ushbu yuzaga kelgan favquloddagi holatni “pandemiya holati” deb atadi. Nufuzli “Time” jurnali (AQSH) dunyo aholisining asosiy qismi avval bu darajadagi “dahshatli yil” bilan to‘qnash kelmaganligi sababli, 2020-yilni “tarixdagi eng yomon yil” deb e’lon qildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev: “Pandemiya jahon iqtisodiyoti uchun har oyda qariyb 400 mlrd. dollar miqdorida zarar keltirmoqda. Bugungi kunga qadar dunyo bo‘yicha 500 millionta ish o‘rni yo‘qotilgan”⁴⁷ deb ta’kidlab o’tgan edi.

Yuzaga kelgan pandemiya natijasida jahon iqtisodiyoti global miqyosda inqirozga yuz tutdi. Jahondagi barcha mamlakatlarning chegaralari yopildi, hatto yagona YI hududidagi ichki mahalliy chegaralar ham yopildi. Xalqaro va ichki transport ham vaqtinchalik bo‘lsa-da, butunlay to‘xtatildi. Jahondagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol va vaziyat 2020-yilning o‘rtalariga borgandagina ijobjiy tomonga o‘zgara

⁴⁷ O‘zbekiston Respublikasi Sh.Mirziyoevning 2020 yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaonması.
<https://review.uz/uz/post/poslanie-prezidenta-uzbekistana-shavkata-mirziyoyeva-oliy-majlisu>

boshladi va jahon mamlakatlari asta-sekin o‘z chegaralarini ochishga va xalqaro aviaqatnovlar faoliyatiga ruxsat berildi.

Jahon mamlakatlari iqtisodiyotida sanoat sohasi va uning tarmoqlari 2020-2021-yillar davomida to‘la quvvat bilan ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ya olishmadi. Jumladan, jahon sanoatidagi bugungi kundagi yirik “Boing”, “Folkswagen”, “Nissan”, “Toyota” va boshqa yuzlab yirik kompaniyalari pandemiya boshlangan yilidan boshlab minglab ishchilarni vaqtinchalik majburiy ta’tilga chiqardi va uzoq davom etgan vaqtinchalik tanaffus ularning umumiyligi ishlab chiqarish jarayonlariga o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatdi. Yaponianing “NHK” ma’lumotiga ko‘ra, 2020-yilning oxiriga borib pandemiya tufayli Yaponiyada bankrot bo‘lgan kompaniyalarning soni 700 dan oshib ketgan.

Pandemiyadan eng og‘ir shikastlangan iqtisodiyot sohalaridan biri bu – ichki va tashqi turizm bo‘ldi. Jahon turizm sohasi butkul tanazzulga yuz tutdi va turizm sohasi rivojlangan mamlakatlar ushbu sohaga ixtisoslashgan ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini vaqtinchalik to‘xtatishga majbur bo‘lishdi. Turizm sohasidan Yevropadagi barcha mamlakatlar, ayniqsa Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya, Chexiya va Avstriya kabi mamlakatlar har yili turizm sohasidan davlat budgetiga kamida 10 mlrd. yevrodan ortiq daromad kelar edi. Shuningdek, ushbu mamlakatlarning mehnatga layoqatli aholisining eng asosiy qismi band edi.

Masalan 2019-yilda jahoning eng ko‘p sayyoohlari Fransiya, Ispaniya, AQSH, Xitoy kabi mamlakatlarga xorijiy mamlakatlardan millionlab sayyoohlar tashrif buyurishgan bo‘lsa, 2020- va 2021-yilda ularning tashrifi pandemiya sababli keskin ravishda kamaygan hatto YI mamlakatlari joriy qilingan karantin cheklovlarini tufayli 2020-yilda xorijiy mamlakatlardan kam sonli sayyoohlar tashrif buyurishgan xolos.

BMTning Jahon sayyoohlilik tashkiloti ma’lumotiga ko‘ra, 2020-yilda xalqaro sayohatlar soni 1 milliardga yoki 74 foizga kamaydi, shu tariqa o‘tgan yil turizm uchun kuzatishlar tarixidagi eng yomon yilga aylandi. Koronavirus pandemiyasi va unga bog‘liq holda keng tarqalgan sayohat cheklovlarini tufayli 2020-yilda xalqaro sayyoohlarning tashrifi 1 mlrd.ga yoki 74 foizga kamaydi. Turizm eksportidan tushadigan daromad 1,3 trln. dollarga qisqardi, bu 2009-yilgi jahon iqtisodiy inqirozi keltirgan zarardan 11 baravar ko‘pdir. Bulardan kelib

chiqib 2020-yilni xalqaro turizm uchun kuzatuvlari tarixidagi eng yomon yil deb ataldi. Inqiroz sayyohlik sohasida 100-120 million tagacha ish o‘rinlarining yo‘q bo‘lib ketish xavfini keltirib chiqardi, ularning aksariyati kichik va o‘rta biznesga to‘g‘ri keladi.

Xalqaro turizm xavfsizligini yaxshilash bo‘yicha ko‘plab choralar ko‘rilganiga qaramay, inqiroz hali yakuniga etmaganini bilamiz. Aksariyat mamlakatlar koronavirus mutatsiyalari tufayli sayohat uchun yangi va qat’iy cheklovlar o‘rnatdi, jumladan, majburiy testlar, karantin, ba’zi hollarda esa chegaralarni to‘liq yopish singari. Bularning barchasi xalqaro sayohatlarni tiklashga qarshi ta’sir qiladi. Shu bilan birga, bosqichma-bosqich emlash mijozlarning ishonchini tiklab, cheklovlarini yumshatish va vaziyatni normallashtirishga yordam beradi.

Pandemiya oqibatida sayyohlik bo‘yicha eng ko‘p zararni Osiyo-Tinch okeani mintaqasi ko‘rdi, bunga mintaqada o‘rnatilgan o‘ta qattiq cheklovlar sabab bo‘lgan. Mintaqaga kelgan xalqaro sayyohlar soni 2020-yilda 300 milliontaga yoki 84 foizga pasaydi. Yaqin Sharq va Afrikada tashriflarning kamayishi 74 foizni, Yevropada 70 foizni tashkil qildi. Shu bilan birga, 2019-yilga nisbatan mutlaq sayohatlar sonining eng katta pasayishi Yevropa qit’asida (500 mln) qayd etildi. Amerika qit’asida chet ellik sayyohlar sonining kamayishi 69 foizni tashkil etdi.

Yuzaga kelgan pandemianing “ikkinchi to‘lqini” va “uchinchchi to‘lqini”ni jilovlash va to‘xtatish maqsadida 2020-yilning oxirlari va 2021-yilning boshlarida Yevropa mamlakatlarining barchasida kuchaytirilgan karantin qoidalari joriy qilindi. Biroq endigi joriy qilingan karantinga qarshi ichki siyosiy noroziliklarning natijasida ko‘plab mamlakatlarda mahalliy aholi tomonidan ommaviy noroziliklar sodir bo‘ldi. Germaniya, Ispaniya, Italiya, Chexiya, Polsha, Belgiya, Fransiya kabi mamlakatlarida joriy qilingan karantinga qarshi mahalliy aholining ommaviy tartibsizliklari yuzaga keldi. YIda pandemiyadan eng og‘ir shikast olgan mamlakat Italiya milliy iqtisodiyoti bo‘lib, uning pandemiya tufayli avvaliga qisqa uch oy ichida 600 mlrd.dollar miqdorida va yarim yil ichida deyarli 800,0 mlrd.dollar miqdorida iqtisodiy zarar ko‘rganligini Italiya Bosh Vaziri Konte ta’kidlab o‘tdi.

2020-yilning so‘nggi oylari va 2021-yilning boshlarida ham

pandemiya davrining davom etishiga qaramay, xalqaro turistlar oqimini to‘xtatmagan dunyoning bir qator mamlakatlari, xususan BAA, Xorvatiya, Turkiya, Kipr va boshqa bir qator mamlakatlar pandemiyaning ikkinchi to‘lqinida va unga qarshi kurashishda kuchli cheklovlarini va karantinlarni qayta joriy etmasliklarini bildirib o‘tishdi.

Jahon banki ekspertlarining bergen prognozida 2020-2025-yillarda jahon iqtisodiyotining yillik o‘sish sur’atlarini 6-7 foiz darajadagi o‘sishini bashorat qilishgan edi, yuzaga kelgan pandemiya tufayli 2020-2021-yillarda amalda jahon iqtisodiyotining 3-4 foizga kamayishi yuzaga keldi. Xalqaro mehnat tashkilotining (XMT) 2020-yilgi hisobotida, pandemiya sababli deyarli butun dunyoda ish haqi pasayganligini ma’lum qilgan. 2020-yilning birinchi yarmida dunyo davlatlarining uchdan ikki qismida ish haqi pasaydi yoki ish haqini ishchiga berish jarayoni sekinlashdi. Yaqin kelajakda yillarda ham inqiroz tufayli ish haqining sezilarli darajada pasayish tendensiyasi saqlanib qolinishi hamda inqiroz, ayniqsa, ayollar va kam maosh to‘lanuvchi ishchilarning ish haqiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. XMTning bosh direktori Gay Rayder “COVID-19 inqirozi oqibatida tengsizlikning kuchayishi kambag‘allikning va ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlikning halokatli darajada ortishiga olib kelishi mumkin” deb ta’kidlab o‘tgan⁴⁸.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) ekspertlarining fikricha, milliy iqtisodiyotlarni qayta tiklanish jarayoni mamlakatlar bo‘yicha bir tekisda bo‘lmaydi, bu esa jahon iqtisodiyotida uzoq muddatli o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin. Boshqalardan ertaroq qayta tiklanishni boshlagan Xitoy iqtisodiyoti qat’iy ravishda o‘sib bormoqdai, 2021-yilda jahon iqtisodiyoti o‘sishining uchdan bir qismidan ko‘prog‘i uning hissasiga to‘g‘ri keladi. Davlatlar pandemiyadan eng ko‘p zarar ko‘rgan sohalarga e’tibor qaratgan holda, o‘z siyosiy vositalaridan faol tarzda foydalanishda davom etishi kerak. IHTT ekspertlari hukumatlar uchun uchta birlamchi yo‘nalishlarni maslahat beradi, bular eng zarur mahsulotlar va xizmatlarga investitsiyalar, qashshoqlikka va tengsiz daromadlarga qarshi kurashish, shuningdek, xalqaro hamkorlikni

⁴⁸ https://www.ilo.org/moscow/news/WCMS_762979/lang--ru/index.htm

qo'llab-quvvatlash.

“The Bell”ning ma'lumotiga ko'ra, BMT ekspertlari tomonidan amalga oshirilgan tahlillarga ko'ra, COVID-19 pandemiyasi 2 yil davomida global iqtisodiyotning to'rt yillik o'sishini yo'qotishini hamda qariyb 8,5 trln. dollar yo'qotilishi ma'lum qilingan. Shuningdek, pandemiya jahon iqtisodiyotida raqamlashtirish va avtomatlashirish sohasining rivojlanishini yanada tezlashtirmoqda hamda buning natijasida ish o'rinalarining yanada qisqarishi va ishsizlik darajasining ortishiga olib kelishi mumkinligini ma'lum qilishgan.

XVF esa, koronavirus tufayli tarixda birinchi marta jahon iqtisodiyotining o'sishi deyarli to'xtab qolganligi, vaziyat esa 2008 - 2009-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi davridan ham yomonroq holatga kelganligni ma'lum qilishgan. XVF rahbari Kristalina Georgieva: “Biz XVF tarixida hali hech qachon jahon iqtisodiyotining to'xtab qolganini ko'rmaganmiz. Biz tanazzulga yuz tutyapmiz, bu jahon iqtisodiy inqirozidan ham yomonroq”, deb ta'kidlab o'tgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, koronavirus pandemiyasi sabab jiddiy o'zgarishlar yuz bergen 2020-yilda rivojlangan davlatlardan faqatgina Xitoy iqtisodiyotida o'sish kuzatilgan va 2020-yilda Xitoy iqtisodiyoti 2,3 foizga o'sgan. Bu ko'rsatkich iqtisodiy o'sish so'nggi o'n to'rt yil ichidagi eng past ko'rsatkich bo'lgan. Demak, pandemiyasi sharoitida iqtisodiyoti kuchli davlatlar ichida faqatgina Xitoyda o'sish kuzatilgan. Masalan, AQSH YaIM 2020-yilda 3,5 foizga kamaygan, bu 1946-yildan beri eng sezilarli pasayish hisoblanadi. Rossiya YaIM esa 2020-yilda 4 foizga kamaygan.

12.7. Milliy iqtisodiyotlar taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan va “ko'zga ko'rinnmaydigan” korrupsiya muammosi

Yuzaga kelgan pandemiya milliy iqtisodiyotning boshqa sohalari kabi qishloq xo'jaligi sohasiga ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Ayniqsa, ko'plab mamlakatlarda joriy etilgan karantin chekllovleri natijasida aholining oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talab va ehtiyojlari salmoqli darajada oshdi.

Jahon tashqi savdo-sotiq jarayonlarida agrar sohasining ulushi kam bo'lsa-da, u dunyo aholisining 45,3 foizini oziq-ovqat bilan ta'minlaydi va dunyo aholisining 51 foizi qishloq xo'jaligi tarmoqlarida faoliyat ko'rsatishadi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda

mehnatga layoqatli aholining atigi 5 foizi agrar sohada faoliyat olib boradigan bo‘lsa, jahondagi rivojlanayotgan mamlakatlarning deyarli 60 foizi qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida banddir.

YI rahbari Ursula fon der Lyayen pandemiya sababli YIdagi holat yuzasidan bergen bayonotiga ko‘ra, oddiy aholi iste’moli mahsulotlari va qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talab va ehtiyoj kamida ikki marotabaga oshganligini 2020-yilning iyun oyida ta’kidlab o’tdi. Juhonning ko‘plab rivojlangan mamlakatlarida agrar sohaning rivojlanishi va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida mahsulotlarning yetishtirilishi xorijiy mamlakatlardan jalb qilinadigan qo‘srimcha ishchi kuchi migrantlariga bog‘liqdir. Masalan, YI iqtisodiyotining agrar sohasiga ishchi kuchi har yili, asosan, Shimoliy Afrika va Sharqiy Yevropa mamlakatlaridan jalb qilinadi. 2020-yilda aksariyat Yevropa Ittifoqi malakatlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish miqdori o‘tgan 2019-yilga nisbatan kamida 12-15 foizgacha pasaydi.

Bir qator Yevropa mamlakatlarida ba’zi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eksportiga cheklovlar joriy qilindi. Chunki, pandemiya sababli, qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga talabning ortishi ishlab chiqarish pasaygan sharoitda uning zaxirasini oshirish hamda ushbu tarmoqqa xorijiy ishchilarning jalb qilinmaganligi davlat chegaralarini yopilishi bilan izohlandi⁴⁹.

Pandemianing boshlang‘ich davri Yevropaning bir qator mamlakatlariga shu qadar ruhan ta’sir qildiki, rivojlangan Buyuk Britaniyaning deyarli barcha shaharlaridagi do‘kon peshtaxtalarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bo‘yicha keskin taqchillik yuzaga keldi. Mazkur muammo kun sayin jiddiy tus olib, “oziq-ovqat” masalasi eng birinchi dolzarb muammoga aylandi. Britaniyalik fuqarolar kamida “3 oylik oziq-ovqat zaxirasi”ni do‘konlardan xarid qilishga shoshilishdi. Hatto, Ikkinci jahon urushi davrida ham Buyuk Britaniyada bunday “tahlikali vaziyat” kuzatilmagan edi.

Buyuk Britaniya qo‘sni YI mamlakatlaridan oziq-ovqat masalasida yordam so‘ragan bo‘lsa-da, biroq, ushbu davrda YI mamlakatlarining har biriga ham yetarli darajadagi oziq-ovqat zaxirasini shakllantirish eng muhim masalalaridan biri bo‘lib

⁴⁹ <https://www.google.com/amp/s/amp/dw.com/ru%2500>

kelayotgan edi. Eng muhimmi, YIning har bir mamlakati o‘zining hududidan ortiqcha oziq-ovqatning tashilishini qattiq nazoratga oldi.

2020-yilning mart oyini ilk kunlarida Britaniya hukumati rasmiy ravishda JAR va Hindistondan meva-sabzavot va aholi iste’moli mahsulotlari importi hajmini salmoqli darajada oshirishini ma’lum qilishining o‘ziyoq, Britaniyada oziq-ovqat masalasi qanchalik dolzarb muammoga aylanganligidan darak berar edi, chunki, Britaniyaning ushbu vaziyatda zudlik bilan tahlikali holatdan chiqib ketishi va “panika”dan tezroq qutulishi mahalliy hukumatning eng muhim vazifasiga aylangan edi.

Yuzaga kelgan pandemiya Germaniya, Gollandiya va Fransiya singari mamlakatlar milliy iqtisodiyotining agrar sohasiga ham juda ham katta salbiy ta’sir ko’rsatdi. Ushbu mamlakatlar oziq-ovqat xavfsizliklarini ta’minlash maqsadida ba’zi oziq-ovqat mahsulotlarining eksportiga nisbatan vaqtinchalik cheklovlar o’rnatishga majbur bo‘ldilar. Ushbu davlatlarning oziq-ovqat mahsulotlari eksportiga qo‘yilgan cheklovları jahon qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga o‘z ta’sirini ko’rsatdi. Chunki aynan mazkur mamlakatlar jahon qishloq xo‘jaligi bozoridagi asosiy yetakchi mamlakatlar hisoblanishadi.

Pandemiya davrining birinchi to‘lqinidayoq, YI mamlakatlari oziq-ovqat mahsulotlari eksportini vaqtinchalik to‘xtatib qo‘yanligi sababli, Buyuk Britaniya 1995-yildan boshlab rasman AQSHning YI hududiga mol go‘shti mahsulotlari eksporti taqiqini bekor qilib, AQSHdan mol go‘shti mahsulotlari importini yana yo‘lga qo‘ydi. 2020-yilning boshlarida Rossianing Uzoq Sharq hududlariga Xitoyning qishloq xo‘jaligi va aholi iste’moli mahsulotlari eksportining to‘xtatilishi oqibatida, Primore o‘lkasi shaharlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining narxi birdaniga 3-4 barobarga ko‘tarilib ketdi. Masalan, bodring narxi 280-300 rubl (4-5 dollar) yoki pomidor 170-180 rublgacha (o‘rtacha 3 dollar) ko‘tarilgan bo‘lsa, Yakutiya va boshqa Shimol hududlaridagi bozorlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining narxi bundan ham qimmatlashgan.

Pandemiyaning jahon agrar sohasiga salbiy ta’siri jahon tashqi savdosiga ham umumiyoq ko‘lamda va xususan, agrar sohasini bir qator tarmoqlarining eksporti miqdorlarini pasayishi orqali o‘z salbiy ta’sirini ko’rsatdi. Shuningdek jahonning ko‘plab mamlakatlari

pandemiya davrining kamida 1-2 yil davomiyligini hisobga olib, ko‘plab va eng muhim strategik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini to‘xtatib, “Milliy oziq-ovqat zaxirasi”ni shakllantirishni boshladilar.

Jahon iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talab va ehtiyojni keskin darajada oshganligi sababli, jahonning qishloq xo‘jaligi sohasi rivojlangan mamlakatlar oldida oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini jahon bozoriga yetkazib berish va ularning hajmini yanada oshirishga imkoniyat yuzaga keldi. Albatta, dunyoning ko‘plab mamlakatlari pandemianing “ikkinci to‘lqini” va “uchinchchi to‘lqini”ga tayyorgarlik ishlarida eng asosiy muhim bo‘lgan vazifa sifatida milliy oziq-ovqat zaxirasini shakllantirishga e’tiborni qaratdilar. Ko‘plab mamlakatlarda, ayniqsa Yevropa mamlakatlarida oziq-ovqat mahsulotlarining ba’zi turlari bo‘yicha taqchillik yuzaga kelishi mumkinligini hisobga olib, uning zaxirasini shakllantirish avvaldanoq boshlangan edi.

Pandemiya tufayli oziq-ovqat masalalasida yuzaga kelgan taqchillik sabab jahonning bir qator mamlakatlari ba’zi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari eksportiga vaqtinchalik cheklov joriy qilishdi. Masalan, YI mamlakatlari ba’zi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining olib chiqilishining ma’lum bir me’yorini va ba’zi mahsulotlarni olib chiqilishiga esa vaqtinchalik cheklovni joriy qildi.

Jumladan Qozog‘iston ham 2020-yilning 1 apreliдан bug‘doy va un uchun eksport kvotalarini joriy qildi va vaqtinchalik ushbu mahsulotlar eksportini cheklab qo‘ygan edi. Odatda eksport kvotalari iste’molchi mamlakatlarga ushbu turdagи mahsulotlar importining kamayishiga olib keladi. Lekin mazkur cheklovlarining salbiy ta’siri qishloq xo‘jaligi rivojlangan mamlakatlar uchun u qadar ta’sirchan bo‘lmaydi, albatta.

Hozirgi vaqtida jahondagi bir qator mamlakatlar tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining jahon tashqi savdosiga kiritayotgan cheklovlar, “COVID-19” tufayli aksariyat mamlakatlarda joriy etilayotgan karantin cheklovlar natijasida mamlakatlarning ichki hududlaridagi qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida ishchi kuchlari harakatlanishining cheklanishi jahon qishloq xo‘jaligi tarmoqlari taraqqiyoti uchun asosiy xatarlardan biri bo‘lib qolmoqda.

BMT tahliliga ko‘ra, COVID-19ning jahon agrar sohasiga ta’siri,

avvaliga salbiy holatga olib kelgan bo'lsa, biroq qishloq xo'jaligi tarmoqlari faoliyati asta-sekin oyoqqa turib, ushbu salbiy ta'sirni yengishga muvaffaq bo'lindi. Chunki, rivojlangan mamlakatlarda yuzaga kelgan oziq-ovqat taqchilligidan bir qator qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan mamlakatlarning unumli foydalanishi natijasida ularning qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti hajmlarini salmoqli darajada ko'payishiga olib keldi. Jumladan, jahondagi ko'plab mamlakatlarning oziq-ovqat xavfsizligi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan eng asosiy ozuqa hisoblangan bug'doy va guruch mahsulotlarining narxlari jahon bozorlarida bugungi kunda barqarorligicha qolmoqda. Don ekinlarining 2019-2020-yillardagi jahon xo'jaligida yetishtirish ko'lami va zaxiralari avvalgi yillarga qaraganda nisbatan yuqori bo'ldi. Xususan Rossiya, Qozog'iston, Ukraina, Tailand va Pokiston 2020-yilda don ekinlarining hosili mo'l-ko'l bo'ldi. Ayniqsa, Rossiya bilan Qozog'iston o'zining iqtisodiy tarixidagi eng yuqori hosillarni yig'ishga musharraf bo'lishdi. Rossiya o'zining iqtisodiy tarixidagi rekord ko'rsatkich, ya'ni 125 mln. tonna bug'doy yetishtirgan bo'lsa-da, biroq, 2020-yilning yarmidan boshlab bug'doyning xorijiy mamlakatlarga vaqtinchalik eksportini to'xtatib qo'ygan⁵⁰.

Jahon sog'liqni saqlash qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra, pandemiya AQSH, Hindiston va Braziliya mamlakatlari milliy iqtisodiyotiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatgan. Ma'lumki, AQSH va Hindiston jahon qishloq xo'jaligida eng yetakchi "beshlik" qatoridan joy olishgan. Yuzaga kelgan pandemiya ushbu mamlakatlarda oziq-ovqat xavfsizliklarini ta'minlash maqsadida ba'zi muhim qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportiga vaqtinchalik bir qator cheklovlar o'rnatilishiga olib keldi. Bu esa, jahon qishloq xo'jaligi savdosiga ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

BMT ekspertlarining tahlillariga ko'ra, 2020-yilning oxirlari va 2021-yilda jahoning bir qator mamlakatlari, xususan Kanada, Rossiya, Pokiston, Eron, Turkiya, Vietnam va boshqa ba'zi mamlakatlar qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy eksport qiluvchi mamlakatlari bo'lishini taxmin qilishgan.

Milliy iqtisodiyotning rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan va jahon

⁵⁰ <https://www.google.com/amp/s/amp/dw.com/ru%2500>

iqtisodiyotida ham o‘z aksini topgan hamda ko‘zga ko‘rinmaydigan “korrupsiya” muammosi – bugungi zamonaviy iqtisodiyotning asosiy muammolaridan biriga aylanib ulgurgan. BMTning tashabbusi bilan 2004-yildan buyon har yili 9-dekabrni “Korrupsiyaga qarshi kurashish xalqaro kuni” sifatida nishonlab kelinadi.

Davlat sektoridagi korrupsiya hozirgi zamonning asosiy muammolaridan biri bo‘lib, uning muvaffaqiyatlari yechimiga davlat va umuman jamiyatning muvaffaqiyatlari rivojlanishi bog‘liqdir. Jahon bankining so‘nggi ma’lumotlariga ko‘ra, butun dunyoda korrupsiyada aylanadigan pulning yillik miqdori 1 trln. dollarni tashkil etar ekan.

Ba’zi mamlakatlar garchi tabiiy resurslarga boy bo‘lishiga qaramay, yetarli darajada o‘sishga erisha olmaydi. Xo‘sh, nega? Albatta, buning turli obyektiv va subyektiv sabablari bor. Ammo shu narsa ayonki, bunday davlatlarning aksariyati jiddiy bir muammodan – korrupsiya balosidan aziyat chekadi. Korrupsiya kecha yoki bugun paydo bo‘lib qolgan illat emas. Hatto miloddan avvalgi IV asrda Hindistonda yashagan Kautiliyaning davlat boshqaruvi haqida yozilgan “Arthashastra” nomli asarida ham u haqda so‘z yuritilgan ekan. Muallif o‘z kitobida mol-mulkni o‘g‘irlashning qirq yo‘li borligini ta’kidlaydi va bu yo‘llarni birma-bir sanab o‘tadi.

Korrupsiya, asosan, quyidagi hollarda yuzaga keladi: davlat tomonidan tovar va xizmatlarni xarid qilish va sotishda, subsidiyalarni taqsimlashda, davlat muassasalarini xususiylashtirishda, muayyan imtiyozlarni taqdim etishda va shunga o‘xhash boshqa hollarda. AQSHning sobiq savdo vakili Maykl Kantor qudratli odamlar va ular pul orqali ta’sir o‘tkaza oladigan insonlar bor ekan, korrupsiya mavjud bo‘lib qolishini aytadi.

Jahon banki va XVFning 1996-yildagi yillik yig‘ilishida o‘sha paytda Jahon banki prezidenti bo‘lgan Jeyms Vulfonson uzoq vaqt davomida moliya institutlari va rivojlanish assotsiatsiyalari tomonidan ko‘tarmay kelingan “nozik” mavzuni ya’ni, korrupsiya masalasini kungartibiga olib chiqdi. Shundan so‘ng Jahon banki har yili 100ga yaqin mamlakatda o‘tkazilgan tergov ishlariga, xususan, korrupsiyaga qarshi kurash doirasidagi 600dan ortiq dasturga har yili 10 million dollar sarfladi va 50dan ortiq xodimga ega tahlil bo‘limi tashkil etdi.

Har yili yanvar oyida korrupsiyaviy holat bo‘yicha davlatlar reytingini e’lon qiluvchi “Transparency International” xalqaro

nodavlat tashkiloti tomonidan yuritiladigan “Korrupsiyani tasavvur qilish” reytingining ma’lumotlariga ko‘ra, jahon mamlakatlari ichida korrupsiya holatining rivojlanganlik darajasini asosiy ulushi rivojlanayotgan mamlakatlarga to‘g‘ri keladi.

Xo‘s, jahondagi davlatlar korrupsiyaga qarshi kurashish uchun qaysi usullardan foydalanadi, qanday samarali yo‘llardan boradi? Bu mamlakatlarga korrupsiyaga qarshi kurashda qanday yordam beradi? Korrupsiya illati jahon iqtisodiyotiga qanchalik salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda? Quyida korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha jahon mamlakatlari tajribasi haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Hindistonda pora berish odatiy holga kirgan va har qanday masala rasmiylar ishtirokida hal qilinadigan “Beshinchı kolonna” deb nomlangan korrupsiyaga qarshi kurashish jamoat tashkiloti tuzilgan. 2010-yilda tashkilot tomonidan aynan tovlamachilar uchun maxsus kupyura chiqarildi. Ushbu kupyura odatiysiga o‘xshaydi, ammo unda “pulni qalbakilashtirish qonun bilan javobgarlikka tortiladi”, degan yozuv o‘rniga “pora berish qonun bilan jazolanadi”, degan ogohlantirish mavjud. Banknota nol nominal qiymatga ega. Hind iqtisodchilarining hisob-kitoblariga ko‘ra, har yili korrupsiya holatidan davlat budjetiga kamida 3 mlrd. dollar miqdoridagi mablag‘ kirim qilinmasligi va bu ko‘proq “yashirin iqtisodiyot” faoliyati bilan bog‘liqligi ma’lum qilgan.

Chexiya Yevropadagi xalqaro turizm markazlaridan biridir. Chexiya poytaxti Pragada g‘ayrioddiy texnika qo‘llaniladi. Mahalliy sayyohlik kompaniyasi shahar mehmonlarini “Korrupsiya safari” deb nomlangan tadbirda ishtirok etishga taklif qiladi. Uch soatlik ekskursiyada poraxo‘rlik qilgan mashhur siyosiy mansabdar va boshqa davlat amaldorlarining hashamatli qasrlari, uylari va joylari namoyish etiladi. Mazkur ekskursiya korrupsiyani “eng ijtimoiy yovuzlik”, deb ataydigan Chexiya hukumati tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.

Xitoy korrupsiyaga qarshi o‘zining qattiq qonunlari bilan dunyoga mashhurligini bilamiz. Xitoyda mazkur jinoyatga hatto o‘lim jazosi ham berilishi mumkin. Pora oluvchilarning qo‘llarini kesib tashlash ham odat tusiga kirgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, 2003-yildan buyon aybdorligi isbotlangan 10 mingdan ortiq amaldorlar ommaviy ravishda otib tashlangan. Yana 120 ming kishi 10 yildan 20 yilgacha

ozodlikdan mahrum qilingan. Shunga qaramay, Xitoyda korrupsiya sezilarli darajada saqlanib qolmoqda. Bular oddiy pul ko‘rinishida pora berishdan, to siyosiy darajadagi holatlarda ham ko‘zga tashlanmoqda. Agarda korrupsiya holati milliy iqtisodiyotning rivoji uchun amalga oshiriladigan loyihalarda aniqlansa, u holda aybdorligi isbotlangan bunday shaxslarni mahalliy davlat aslo kechirmaydi.

Rossiyada korrupsiya holati iqtisodiyotning barcha sohalaridan o‘rin olgan. Ushbu holat xiyonat bilan tenglashtirilib, to‘g‘ridan to‘g‘ri davlatning iqtisodiy xavfsizligiga tahdid sifatida talqin qilinadi. Uning qanchalik davlat iqtisodiy xavfsizligiga yetkazilgan zararidan kelib chiqib ozodlikdan mahrum etish jazosi beriladi.

Janubiy Koreyada korrupsiya hukumat vakillari orasida bo‘layotgani tasdig‘ini topsa, bu xabarning egasi sir saqlangan holda 1,7 mln.dollargacha bo‘lgan miqdorda mukofot pulini olishi mumkin.

Ukraina mamlakati korrupsiya orqali iqtisodiyotga zarar ko‘rsatayotgan shaxslarga nisbatan antiqa usulni qo‘llagan. Agar ukrainalik amaldor poraxo‘rlikda aybdor deb topilgudek bo‘lsa, u soliq bo‘yicha daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiyadagi “pora” ustunida qancha pora olganini ko‘rsatishi kerak bo‘ladi.

Ko‘plab islom davlatlarida poraxo‘rlikka qarshi og‘ir jazolar qo‘llaniladi va aksar holatlarda aybdorligi isbotlangan shaxslarning qo‘l barmoqlari iqtisodiy zararidan va qanchalik ziyonidan kelib chiqqan holda kesib tashlanadi.

Qozog‘istonning korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan amaldorlarga kichik va o‘rta darajadagi korruptsion jinoyatlari uchun jazo sifatida jamoat ishlariga tayinlashni taklif qilmoqda va bu taklif tez kuchga kirishi kutilmoqda.

Buyuk Britaniyada mahkumlarga “jamiyat haqini qaytarish” yozuvli yorqin rangdagi nimchalar kiydirish va ularni ko‘cha ishlariga majburlash odat tusiga kirgan.

Italiyada korrupsiya shu qadar rivojlangan ediki, 2011-2012-yillarda “korrupsiya sohasi rivojlangan” jahon mamlakatlari reytingida Italiya eng yuqori o‘rinni egallagan. Korrupsiya sohasi iqtisodiyotda va sport sohasida juda ham avj olgan edi. 2012-yilda hukumat tepasiga Italiya Bosh vaziri Mario Monte kelgach, korrupsiyaga qarshi ayovsiz kurashni e’lon qildi. Korrutsiyaga qarshi kurashning italyancha usuli shundan iborat bo‘ldiki, iqtisodiyotda davlatga ziyon yetkazgan

shaxslarni, ular tomonidan aniqlangan umumiy iqtisodiy zarar miqdorlariga qo'shimcha holda moliyaviy jarimasi bilan, shuningdek, kompaniyalar tomonidan yetkazilgan iqtisodiy zararlarning barchasi miqdoriga qo'shimcha holda bir necha barobargacha moliyaviy jarimalari bilan birgalikda qoplatildi. Eng yengil jazo esa, korrupsiyaga aralashgan insonlarni o'z sohasidagi faoliyatidan butkul chetlatish choralar qo'llanildi. Sport sohasida esa, ko'plab futbol klublari championatning quyi divizionlariga tushirib yuborildi, ularning egallagan o'rnlari va mukofotlari bekor qilindi, sport korrupsiyasida ishtirok etgan sportchilar o'z sohasidan chetlatildi. Hozirgi o'sib kelayotgan italiyalik yoshlar korrupsiyaning oxir-oqibatini chuqr his etishadi va anglashadi.

Filippin Prezidenti Rodrigo Duterte 2020-yildan boshlab mamlakat fuqarolaridan pora talab qiluvchi amaldorlarini otishga ruxsat berdi. U shu bilan birga fuqarolarga poraxo'rlarni o'ldirmay, ularning oyoqlariga otishni tavsiya qilgan, yo'qsa "ular tergov natijasida afv etilmasliklari" xavfi bor. R.Duterte: "Agar siz soliq, yig'imlar, boj to'lovlari va shu kabilarni to'lasangiz-u, bu ahmoqlar sizdan pora talab qilsa, ularni uring. Agar yoningizda quroq bo'lsa, ularni otishingiz mumkin, biroq ularni o'ldirmang, yo'qsa afv etilmasligingiz mumkin", deb ta'kidlab o'tgan. Uning ta'kidlashicha, qonunni buzuvchi amaldorni o'qqa tutadigan har qanday kishiga qo'llanadigan chora qamoq jazosi bo'lmay, faqatgina "jiddiy jismoniy jazo" bo'lishi mumkin.

Yaponiyada "korrupsiya" so'zining o'zi nihoyatda jirkanch so'z hisoblanadi. Ushbu mamlakatda iqtisodchilar va ushbu soha vakillari jamiyat oldida javobgar ekanliklarini yaxshi his qilishadi. Masalan, vazirlik ishida sezilarli kamchilik yuz bersa vazir bevosita o'zi aybdor bo'lmasa ham (garchi sohadan umuman ketmasa ham) jamiyat oldida uzr so'rash ma'nosida iste'fo beradi. Masalan, hukumatni boshqargan Bosh vazir Abe Shinzo davrida jamiyat oldida aytgan gaplari va qilgan ishlari uchun bir qator vazirlar iste'fo berishgan edi:

- Obuchi – Iqtisodiyot, savdo va sanoat vaziri siyosiy tashkilotiga kirim qilingan pullarni hisobotda ko'rsatmaganligi uchun ishdan ketgan;
- Nishikava – Qishloq xo'jaligi va o'rmonchilik vaziri u boshqargan siyosiy tashkilot davlat tomonidan subsidiya olgan

- firmadan xayriya mablag‘i qabul qilgani uchun ishdan ketgan;
- Amari – Iqtisodiyot, savdo va sanoat vaziri o‘zi va yordamchilari qurilish firmasidan pul olgani, pullarni hisobotda yetarlicha ko‘rsatmagani uchun ishdan bo‘shagan. U Bosh vazir Abe Shinzoga juda yaqinligi va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda kuchli mutaxassis bo‘lgani bilan tanilgan iqtisodiyot, savdo va sanoat vaziri Akira Amari mablag‘larni ishlatishda yetarlicha e’tiborli bo‘lmagani uchun xalqdan kechirim so‘rab, ishdan bo‘shagan.
 - Sugavara – Iqtisodiyot, savdo va sanoat vaziri saylov okrugidagi qo‘llovchilariga turli sovg‘alar berganligi ayon bo‘lganidan keyin vazirlik maqomidan ketgan.

Shunday qilib, davlat xizmatchilari “qonun doirasida boshqarish” qoidasiga qattiq rioya qilishadi. Unga ko‘ra ijro organi qonunlar bilan belgilangan vakolatlari doirasidan tashqariga chiqmasligi lozim. Biron-bir qonun jamiyat manfaatiga zid kelib qolsa, unda bu qonunni parlament o‘zgartirishi kutiladi. Vakolatlarni suiiste’mol qilish Yaponiyada kechirilmaydi.

Dunyoning boshqa davlatlari qatori O‘zbekiston ham korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash olib bormoqda va ayniqsa, unga qarshi kurashish so‘nggi yillarda tobora kuchaytirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan O‘zbekistonda 2021-2025-yillarga mo‘ljallangan Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy strategiyasini tatbiq qilish ko‘zda tutilgan, shuningdek, 2020-yilda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil qilindi.

Mamlakatimizda taraqqiyot kushandasini bo‘lgan korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishning ta’sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Konstitutsiya kuni munosabati bilan yo‘llagan bayram tabrigida: “Korruptsiya – bu davlatimizni ich-ichidan yemirib, milliy xavfsizligimizga rahna soladigan g‘oyat xatarli tahdid va unga qarshi murosasiz kurash olib borish – barchamizning

burchimizdir”⁵¹, degan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan “Korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga asosan, endilikda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishga munosib hissa qo‘sghan shaxslarni mukofotlash uchun har yili davlat budgetidan qo‘s Shimcha 500 million so‘mgacha mablag‘ ajratiladi.

Shunga ko‘ra, korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslar tegishlicha bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravaridan 25 baravarigacha (669 ming so‘mdan 5 million 575 ming so‘mgacha) miqdorda bir martalik pul mukofoti bilan rag‘batlantirilishi ko‘zda tutilgan.

2020-yil 29-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida: “Korrupsiyaning har qanday ko‘rinishiga murosasiz bo‘lish kundalik hayot tarzimizga aylanishi shart. Bu illatga qarshi kurashishga barcha davlat organlari, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, umuman, har bir fuqaro safarbar etilishi zarur. Korrupsiya o‘ta og‘ir jinoyat ekani va unga nisbatan murosasiz bo‘lish g‘oyasini farzandlarimizga yoshlik davridan boshlab singdirishimiz, ularga faqat halol mehnat va tadbirkorlik orqali daromad topishni o‘rgatishimiz lozim”⁵², deb ta’kidlab o‘tdi.

Bob yuzasidan xulosa

Sivilizatsiyamiz o‘zining rivojlanish jarayonida hech qachon hozirgi paydagidek keskin ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga duch kelmaganligi iqtisodiy tarixdan bizga ma’lum. Bu muammolarni hal etmasdan turib, insoniyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo‘lida

⁵¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev: “Ochiqlik va oshkorlik yo‘lida qat’iy davom etamiz”/<https://kun.uz/news/2020/12/07/ochiqlik-va-oshkorlik-yolida-qat'iy-davom-etamiz-prezident-konstitutsiya-bayrami-bilan> 2020-yil 29-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://review.uz/uz/post/poslanie-prezidenta-uzbekistana-shavkata-mirziyoyeva-oliy-majlisu>

⁵² 2020-yil 29-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://review.uz/uz/post/poslanie-prezidenta-uzbekistana-shavkata-mirziyoyeva-oliy-majlisu>

oldinga qarab dadil harakat qila olmaydi. Insoniyat tarixida yuz bergen o'n besh mingdan ortiq urushlarning milliy iqtisodiyotlar uchun qanchalik vayron keltiruvchi salbiy ta'sirga ega ekanligi barchamizga ma'lum.

Global muammo o'zining toifasiga qarab uchta ko'rinish xususiyatiga ega:

- muammoning xalqaro hamjamiyati e'tiboriga havola qilinishi;
- muammoning ta'sirida dunyo aholisini halokatga uchrashi mumkinligi va bu muammo asta-sekin yillar sayin yiriklashib borishi;
- muammoning zudlik bilan kechiktirib bo'lmas darajada hal qilinishi.

Demak, BMT tasarrufidagi har bir mamlakat ushbu muammolarni hal qilish va ularni bartaraf qilish uchun kechiktirib bo'lmas vazifalarni va chora-tadbirlarni ishlab chiqib bajarilishi lozim bo'ladi. Aks holda, yuzaga kelgan har bir iqtisodiy muammo yil sayin globallashib boraveradi.

Nazorat savollari

1. Juhon xo'jaligidagi hozirgi dolzarb muammolar tarkibini ayting.
2. Juhonning qaysi mamlakatlari xomashyo resurslariga muhtoj?
3. Juhonning qaysi mintaqalarida kambag'allik muammosi mavjud?
4. Global muammo o'zining toifasiga qarab qanday ko'rinishdagi xususiyatlarga ega?
5. Juhon xo'jaligida ijtimoiy-iqtisodiy global muammolarning kelib chiqish sabablarini ayting.
6. Globalashuv sharoitda milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga ta'sir etuvchi xavfsizlik muammolari tarkibini ayting.
7. Juhon sanoat tizimida qanday xomashyo muammolari mavjud?
8. Mintaqaviy mojarolar muammosi milliy iqtisodiyotlar rivojiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

9. Oziq-ovqat muammosi milliy iqtisodiyotlar rivojiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
10. Demografik muammolar milliy iqtisodiyotlar rivojiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
11. Ekologiya muammosi va jahon iqlimining keskin isib borishi milliy iqtisodiyotlar rivojiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
12. Global iqlimga qarshi kurashishda jahon mamlakatlari tomonidan imzolangan Parij kelishuvi deganda nimani tushunasiz?
13. 2020-yilda jahon xo'jaligida yuz bergan pandemianing jahon iqtisodiyotiga salbiy va ijobiliy ta'sirini ayting.
14. Dunyodagi eng ko'p aholi soniga ega bo'lgan yuqori beshlik mamlakatlarni va ularning aholi sonini ayting.
15. Jahonda aholi sonining ko'payib borishi Milliy iqtisodiyotda qanday muammolarni keltirib chiqaradi?

Uyga vazifa!

Talabaning “Milliy iqtisodiyotlar rivojiga ta'sir etuvchi xavfsizlik muammolari” mavzusini chuqur o'zlashtirishi hamda amaliyot darsiga puxta tayyorgarlik ko'rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

- 1) mavzu so'ngida berilgan “Nazorat savollari”ga tayyorgarlik ko'rish;
- 2) jahon xo'jaligida mintaqaviy mojarolar; oziq-ovqat muammosi; demografik muammolar; ekologiya muammosi; kambag'allik darajasi muammosi kabi mavzular bo'yicha talabalar guruhlarga bo'lingan holda “taqdimot” o'tkaziladi.

XIII BOB. RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR – XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR TIZIMIDA

- 1. Jahon xo‘jaligida rivojlanayotgan mamlakatlar va ularning tarixi.**
- 2. Rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari.**
- 3. Rivojlanayotgan mamlakatlarning tasniflanish belgilari.**
- 4. Rivojlanayotgan mamlakatlarda turmush darajasining pastligi: uning tavsifi va asosiy omillari.**

Tayanch iboralar: rivojlanayotgan mamlakatlar, “uchinchi dunyo mamlakatlari”, “janub” mamlakatlari, “periferiya”, “jini koeffitsiyenti”, mineral resurs, qashshoq va kambag‘al, aholining kam daromadi.

13.1. Jahon xo‘jaligida rivojlanayotgan mamlakatlar va ularning tarixi

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon iqtisodiyoti tizimini rivojlanishining ahamiyatli tomonlaridan biri sobiq mustamlaka va qaram hududlarning ahamiyatini iqtisodiy jihatdan kuchayib borayotganligidir. Ushbu mamlakatlar avval jahon iqtisodiyotida rivojlanayotgan mamlakatlar yoki ozod etilgan mamlakatlar, “uchinchi dunyo mamlakatlari”, “janub” mamlakatlari yoki “periferiya” mamlakatlari sifatida tilga olingan bo‘lsa, hozirgi kunda umumiylar tarzda rivojlanayotgan mamlakatlar deb ataladi. Ikkinci jahon urushidan keyin ko‘plab mintaqalarda mustamlakachilik tuzumi barbod bo‘lgach, dunyoda ko‘p sonli yosh mustaqil davlatlar paydo bo‘ldi. Bu o‘rinda asosan Osiyo-Afrika qit’alari mintaqalaridagi mamlakatlar ko‘zda tutiladi. Bu davlatlar haqli ravishda “mustaqillikka erishgan mamlakatlar” deb ta’riflanadi. Keyinchalik ushbu mamlakatlar bundan taxminan yuz yil ilgari siyosiy mustaqillikka erishgan Lotin Amerikasi davlatlari bilan qo‘sib tilga olinadigan bo‘ldi. Natijada Ikkinci jahon urushidan keyin 1950-yillarga kelib jahon xo‘jaligida “rivojlanayotgan mamlakatlar” atamasi paydo bo‘ldi.

Garchi “rivojlanayotgan mamlakatlar” atamasi bu qadar shartli bo‘lsa ham, hozir bu guruhga 170 dan ortiq davlat kiradi, bularning

ba’zilari siyosiy mustaqillikka XIX asrda, qolganlari esa XX asrda, ya’ni Ikkinchi jahon urushi tugaganidan keyingi dastlabki o‘n-o‘n besh yilliklarda hamda ayrimlari esa asrning 1990-yillarning boshlarida erishgan.

Rivojlanayotgan mamlakatlar deganda, Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi va Okeaniyadagi jami 128 mamlakat, shu jumladan, dunyodagi 48 ta eng kam rivojlangan mamlakatlar tushuniladi. Ular yer yuzining qariyb 60 foizini egallagan bo‘lib, aholisi kurramizda yashovchilarning deyarli 80 foizini tashkil etadi. Shunisi diqqatga sazovorki, ularning umumjahon yalpi ichki mahsulotdagi hissasi atigi 18,3 foizni va sanoat ishlab chiqarishida 14 foizni tashkil etadi. Bu mamlakatlar iqtisodiyoti turli-tuman bo‘lib, ushbu mamlakatlarda hozirgi kunda juda murakkab ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlar kechmoqda.

Jahon xo‘jaligida mustaqillikka erishgan mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishi XX asrning 50-yillariga to‘g‘ri kelib, ularning har biri milliy iqtisodiyotning taraqqiyotida o‘z milliy uslubiga va xususiyatiga ega bo‘lmoqda. Ushbu yillarda jahon xo‘jaligida rivojlanayotgan mamlakatlar qatoridan milliy iqtisodiyoti juda tez sur’atlarda taraqqiy etgan mamlakatlarning soni 54 tani tashkil qildi. Ushbu 54 ta mamlakat rivojlanayotgan mamlakatlarning eng ilg‘orlari bo‘lib, qolgan “o‘rta rivojlanayotgan” mamlakatlarga qaraganda 2,4 barobarga iqtisodiy yuksalishga erishishdi va Yuqorida zikr etilgan mamlakatlar o‘rtasidagi rivojlanish darajasidagi farq sezilarli tarzda ortib bordi.

Jahon iqtisodiyotida 2020-yilga kelib YaIM miqdori jihatidan rivojlanayotgan mamlakatlar qatoridan o‘rin olgan Xitoy 2-o‘rin va Hindiston esa 5-o‘rinni egallahsgan. Britaniyaning Iqtisodiy va tadbirkorlik tadqiqotlari markazi (CEBR) ekspertlarining taxminlariga ko‘ra, Yaponiya 2030-yil boshigacha dunyoning uchinchi iqtisodiyoti bo‘lib qoladi, so‘ngra uning o‘rnini Hindiston egallaydi.

Xitoy esa YaIM miqdori bo‘yicha 2028-yilda AQSHni ortda qoldiradi va dunyoning eng yirik iqtisodiyotiga aylanadi. Taxminlarga ko‘ra, Xitoy iqtisodiyoti 2021-2025-yillarda yiliga 5,7 foiz va 2026-2030-yillarda esa yiliga 4,5 foizdan o‘sadi. AQSH iqtisodiyotiga pandemianing og‘ir salbiy ta’siri natijasida 2022-2024-yillarda o‘sish yiliga 1,9 foiz va keyingi yillarda esa 1,6 foizdan o‘sishini ekspertlar

tomonidan taxmin qilingan⁵³.

13.2. Rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari

Jahonda rivojlanayotgan mamlakatlarning xo‘jalik hayoti g‘oyat xilma-xil xususiyatlarga ega bo‘lishiga qaramay, unda har holda muayyan darajada mushtarak jihatlar ham mavjudki, bular ushbu mamlakatlarni yagona bir guruhga kiritish imkonini beradi. Iqtisodiy va siyosiy rivojlanish borasidagi o‘xhash yoki aynan manfaatlar shular jumlasidandir.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari iqtisodiy rivojlanishdagi farqlarga qaramasdan rivojlanayotgan mamlakatlarning barchasiga xos bo‘lgan umumiyligini ham alohida ajratib ko‘rsatish mumkin bo‘lib, ushbu xususiyatlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) ichki ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmadagi o‘tish davri xususiyatlari;
- 2) ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi past darajada ekanligi, ya’ni sanoat, qishloq xo‘jaligi va ijtimoiy infratuzilmaning past darajada ekanligi (albatta, tez rivojlanayotgan “yuqori guruh” mamlakatlarini hisobga olmaganda);
- 3) ularning milliy iqtisodiy rivojlanishida asosan xomashyoni qazish va jahon xo‘jaligiga yetkazib berishga moslashganligi va boshqa xususiyatlarni keltirish mumkin.

BMT ekspertlarining ma’lumotlariga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlar XXI asrning 10-yillarning boshiga kelib, rivojlangan YI mamlakatlaridan mehnat unumдорligi sohasida quyidagicha orqada qolgan:

- sanoatda 6-10 marta;
- qishloq xo‘jaligida 20-25 marta.

Shuningdek, “Rivojlanayotgan mamlakatlar”ning jahon xo‘jaligida tutgan ahamiyati ularning tabiiy boyliklarga boyligi va aholi soni ko‘pligi bilan ajralib turadi.

Bu mamlakatlarda quyidagi tabiiy boyliklar mavjud:

- umumiyligini zaxiralarining hamda mineral xomashyolarining 8 turining (boksitlar, kobalt, mis, neft, qalay, nikel, tabiiy gaz,

⁵³ <https://www.forbes.ru/newsroom/finansy-i-investicii/417433-analitiki-predskazali-prevrashchenie-kitaya-v-krupneyshuyu>

fosfatlar) 2/3 qismi;

- temir rudasi, molibden va uranning 1/3 qismi;
- volfram, marganets, qo‘rg‘oshin, xrom, rux bilan bog‘liq sanoat zaxiralarining qariyb 1/4 qismi to‘g‘ri keladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar qimmatbaho rangli metallar va toshlar bo‘yicha dunyo zaxiralarida muhim o‘rin egallaydi, biroq ularning hududlarida foydali qazilma boyliklar mutlaqo teng joylashmagan. Rivojlanayotgan mamlakatlarda topilgan foydali qazilmalarning aksariyati ularning faqat 45 tasiga to‘g‘ri keladi xolos. Bular, avvalo, asosan neftni eksport qiluvchi va mineral resurslarni ishlab chiqaruvchi mamlakatlardir. Ayni paytda rivojlanayotgan mamlakatlarning 2/3 qismi umuman mineral va energetika zaxiralariga ega emas. Rivojlanayotgan mamlakatlarning tabiiy boyliklariga xos bo‘lgan yana bir xususiyat shundan iboratki, bu boyliklarni mamlakat hududlari bo‘ylab aniqlash darajasi nisbatan juda past: mazkur 45 mamlakatning atigi 10 tasida 3 xildan ko‘proq xomashyo turi mavjudligi aniqlangan xolos.

Ko‘pgina rivojlanayotgan mamlakatlarning o‘zi energetika va mineral resurslarni hamda xomashyolarni chetdan olib kelishga majbur. Masalan, mamlakat importining umumiyligi hajmida xomashyo salmog‘i Marokashda 20 foiz, Pokistonda 22 foiz, Paragvayda 25 foiz, Bangladeshda esa 28 foiz to‘g‘ri keladi. Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida “tez rivojlanayotgan mamlakatlar” guruhidan joy olgan Vietnamning importida xomashyoning ulushi 25 foizni tashkil qiladi. Taqqoslash uchun: XX asrning 1970-yillarida jahondagi “Yangi industrial mamlakatlar” a’zolari hisoblangan mamlakatlarning bugungi kundagi importida xomashyoning ulushini ko‘rsak, Janubiy Koreyaning importida 30 foiz hamda Gonkong va Singapurda esa deyarli 100 foizni tashkil etadi.

Osiyo va Afrika mamlakatlarining aksariyati yaqin o‘tmishda Buyuk Britaniya, Fransiya, Belgiya, Gollandiya, Germaniya, Portugaliya, Ispaniya va sobiq Ittifoqning mustamlakalari edi. Shu sababli ham ularning iqtisodiy tizimi, shuningdek, ta’lim va ijtimoiy sohalari ularning manfaatlariga moslab shakllantirilgan.

XX asrning 50-60-yillarida jahon xo‘jaligida mustaqillikka erishgan rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyati agrar sohadan sanoatlashtirish tizimiga o‘tganligi ularning qisqa fursat yillar ichida

jahon iqtisodiyotida tez rivojlanayotgan mamlakatlar maqomini olishga musharraf bo‘lishgan. Masalan, Tayvan, Singapur, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar 1960-yillardagi kambag‘al davlatdan qisqa 10-15 yil ichida jahondagi “Yangi industrial mamlakatlar” guruhidan joy oldi.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlarning yirik kapitallari va yirik TMKlarining rivojlanayotgan mamlakatlarning sanoat tarmoqlariga oqimi natijasida ularning sanoat ishlab chiqarish salohiyati kamida 3-4 marotabaga oshdi. Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy ahvolining o‘xshashlik tomonlari, ya’ni ularning kambag‘allik darajasi, aholisining qoloqligi, ishsizlik darajasining yuqoriligi va sanoati rivojlangan mamlakatlardan katta miqdorda qarzdorligi hamda Milliy iqtisodiyotda asosiy daromad keltiruvchi manbasi sifatida agrar sohani ta’kidlash mumkin.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyati, masalan, Shimoliy Koreya, Yaman, Somali, Shimoliy va Janubiy Sudan kabi mamlakatlarning to‘laqonli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va aholisining yashash turmush tarzi darajasi bo‘yicha G‘arbiy Yevropani sanoatlashgan ilg‘or mamlakatlaridan qariyb 40-50 marotaba orqada qolmoqda.

13.3. Rivojlanayotgan mamlakatlarning tasniflanish belgilari

Jahon iqtisodiyotida rivojlanayotgan mamlakatlarning turkumlanishini BMT, XVF, Jahon banki va boshqa bir qator xalqaro tashkilotlar o‘z hisob-kitobi uslubiyotiga ko‘ra tahlillar asosida tasniflashadi. Masalan, BMTning uslubiyotiga ko‘ra, jahondagi rivojlanayotgan mamlakatlarning turkumlanishini mamlakatlarning iqtisodiy-geografik joylanishuvi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish darajasi, mahsulotlarning eksportdagi ulushi, iqtisodiy taraqqiyotning holati, ularning iqtisodiy salohiyati va boshqa bir qator iqtisodiy ko‘rsatkichlarning tahlillariga ko‘ra quyidagi 5 ta guruhga bo‘lgan:

1. Yuqori darajada rivojlanayotgan mamlakatlar. Bu guruhga Lotin Amerikasidagi Argentina, Braziliya, Meksika, Chili va boshqa ba’zi mamlakatlar va Osiyoning “Yangi industrial mamlakatlari” hisoblangan Singapur, Janubiy Koreya, Gonkong, Tayvan kabi mamlakatlarni ushbu guruhga kiritgan.

2. Neft eksport qiluvchi mamlakatlar guruhi. Bu guruhga Shimoliy Afrikadagi Liviya, Jazoir va boshqa ba’zi mamlakatlar hamda Fors ko’rfazi hududidagi Qatar, BAA, Saudiya Arabiston, Iroq, Quvayt, Bahreyn va boshqa mamlakatlar tashkil qiladi. Ushbu guruhdagi mamlakatlar hududi energetika resurslarga boy bo’lganligi, aholi daromadi boshqa mintaqalardagi rivojlanayotgan mamlakatlar bilan taqqoslaganda yuqori bo’lganligi hamda aholining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining ijobiyligidan kelib chiqib tasniflangan.

3. O’rtacha daromadga ega bo’lgan rivojlanayotgan mamlakatlar guruhi. Ushbu guruhga aholi daromadi 4000 dollar atrofi va undan yuqori bo’lgan jahonning ko’plab mintaqalari mamlakatlari kiritilgan. Masalan, Tunis, Kolumbiya, Gvatemala, Pargvay va boshqa mamlakatlar.

4. Iqtisodiy salohiyati yuqori bo’lib, qisman rivojlanayotgan mamlakatlari guruhi. Ushbu guruhni tasniflanish uslubiyoti yirik hududiga, ko’plab tabiiy resurslariga, iqtisodiy salohiyati yuqori va aholi soni ko’p bo’lgan hamda aholi daromadi 2000 dollardan yuqori bo’lgan rivojlanayotgan mamlakatlar guruhini tashkil qiladi. Ushbu guruhga Hindiston, Pokiston, Indoneziya kabi mamlakatlarni kiritish mumkin.

5. Eng past daromadli rivojlanayotgan mamlakatlar guruhi. Bu guruhga aholi daromadi 2000 dollargacha tashkil qilgan jahon mamlakatlarini tashkil qiladi. Ushbu guruhga Afg’oniston, Bangladesh, Chad, Benin, Somali, Efiopiya va boshqa o’nlab mamlakatlar kiradi.

BMT uslubiyotiga ko’ra “Yangi industrial mamlakatlar” darajasini aniqlashda quyidagi uslubiyotdan foydalanadi:

- 1) YaMMning aholi jon boshiga daromadi;
- 2) umumiy eksportda sanoat mahsulotlarining ulushi;
- 3) o’rtacha yillik iqtisodiy taraqqiyoti;
- 4) xorijiy mamlakatlarga to‘g’ridan to‘g’ri investitsiyalarni chiqarish miqdori bo‘yicha;
- 5) YaIMda sanoatni qayta ishlash sohasining ulushi 20 foizdan yuqori bo‘lishi belgilangan.

XVF rivojlanayotgan mamlakatlarni tasniflashda quyidagi uchta asosiy omilga e’tibor qaratadi:

- 1) aholining daromadi;

2) eksportning diversifikatsiya qilish, ya’ni umumiylar eksportining 70 foizidan ortig‘ini neft tashkil qilsa;

3) jahon moliya tizimiga integatsiyalashuvi darajasidan kelib chiqqan holda aniqlaydi va tasniflaydi.

Jahon banki esa, rivojlanayotgan mamlakatlarni tasniflashda har yili faqatgina YaMMning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadidan kelib chiqqan holda tasniflaydi. 2020-yildagi uslubiyotiga ko‘ra quyidagi miqdor o‘lchovlari bilan uchta guruhga bo‘ladi⁵⁴:

1) YaMM miqdorining aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadi 12616 dollardan yuqori bo‘lgan rivojlanayotgan mamlakatlar guruhi;

2) YaMM miqdorining aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadi 1036 dollardan 12615 dollargacha bo‘lgan rivojlanayotgan mamlakatlar guruhi;

3) YaMMning aholi jon boshiga daromadi 1035 dollardan past bo‘lgan rivojlanayotgan mamlakatlar guruhini tashkil qiladi.

Jahon bankining ma’lumotlarni sarhisob qilganda so‘nggi 12 yil davomida Shimoliy Koreya, 9 yildan buyon Venesuella, 8 yildan buyon Suriya kabi mamlakatlar o‘z milliy iqtisodiy ko‘rsatkichlarini turli sabablarga ko‘ra Jahon bankiga taqdim qilishmagan.

13.4. Rivojlanayotgan mamlakatlarda turmush darajasining pastligi: uning tavsifi va asosiy omillari

BMT jahon iqtisodiyotida rivojlanayotgan mamlakatlarning turmush darajasi holatini aniqlashdagi hisob-kitob uslubiyotiga muvofiq, jahon iqtisodiyotida rivojlanayotgan mamlakatlarning turmush darajasining asosan quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- oziq-ovqatni yetarlicha iste’mol qilmaslik;
- aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlarning kamligi;
- yashash va uy-joy sharoitlar hamda kundalik hayotining pastligi;
- yuqori darajadagi kasallanish holati;
- ta’lim darajasining pastligi;
- bolalar o‘limining yuqori darajada ekanligi;
- aholining uzoq-umr ko‘rish darajasining pastligi kabilari.

⁵⁴ New country classifications by incomelevel: 2019-2020, World Bank

BMT tomonidan 2020-yil yakuniga ko‘ra rivojlanayotgan mamlakatlarning turmush darajasi

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan asosiy omillarning ba’zilariga to‘xtalib o‘tamiz.

1. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad bo‘yicha. 2019-yilda dunyodagi barcha mamlakatlarning umumiy YaIM miqdori 87,75 trln. dollarini (taqqoslash uchun: 1999-yilda 30,88 trln. dollar) tashkil qilgan. Shu jumladan:

- iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar – 57,62 trln. dollar;
- rivojlanayotgan mamlakatlar – 28,83 trln. dollar;
- eng kam rivojlangan mamlakatlarning YaIM miqdori esa atigi 1,3 trln. dollarni tashkil qilgan.

Ushbu raqamlarni tahlil qilib ko‘rsak: rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi nisbat 65,7 foiz bilan 32,9 foizni tashkil qiladi (1999-yilda esa, ushbu nisbat 78,8 foiz bilan 21,2 foizni tashkil qilgan. Agarda dunyo aholisining qariyb 85 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarga to‘g‘ri kelsa, u holda dunyo aholisining qariyb 85 foizi jahon ishlab chiqarishning atigi 32,9 foiziga yaqin mahsulotini berar ekan. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad xususida shuni aytish mumkinki, rivojlanayotgan mamlakatlarda bu daromad sanoati rivojlangan mamlakatlarga qaraganda 13,1 marta, shu jumladan, eng kam taraqqiy etgan mamlakatlarda esa 64 marta kam bo‘lgan.

2019-yilda jahon mamlakatlarining YaIMni aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad ko‘rsatkichlari 13.1 va 13.2-jadvallarda keltirilgan 1999-yil va 2019-yildagi YaMMni aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad ko‘rsatkichlaridan ko‘rinib turibdiki, qariyb 20 yil davomida aholi daromadlari deyarli 2 marotabaga o‘sgan, ya’ni YaMM miqdorlari yil sayin tobora o‘sib bormoqda. Masalan, Ikkinchи jahon urushidan 1960-yilgacha bo‘lgan davr ichida jahon mamlakatlarining aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadi 825 dollaridan 5700 dollargacha ko‘paygan, ya’ni deyarli 7 marotabaga o‘sgan. Buning eng asosiy sababi Ikkinchи jahon urushida jahon mamlakatlarining deyarli 70 foizi qatnashganligini hisobga olsak, 1946-yilda ushbu mamlakatlarda tiklanish davri boshlangan.

13.1 - jadval

1999-yilda jahon mamlakatlarining YaMMni aholi jon boshiga taqsimlanishi bo'yicha yuqori va quyi reytingi

T/r	Rivojlangan mamlakatlar	YaMM aholi jon boshiga	<i>dollarda</i>		
			T/r	Rivojlanayotgan mamlakatlar	YaMM aholi jon boshiga
1	Luksemburg	42930	172	Yaman	360
2	Shvetsariya	38380	173	Nepal	220
3	Norvegiya	33470	174	Mozambik	220
4	Yaponiya	32030	175	Chad	210
5	AQSH	31910	176	Malavi	180
6	Germaniya	25620	177	S'erra Leone	130
7	Avstriya	25430	178	Burundi	120
8	Fransiya	24170	179	Efiopiya	100

Manba: World Development Indicators, 2000. Tabl 1,1; 4,2. ma'lumotlari asosida jadval shakliga keltirildi.

Shuningdek, ushbu taqqoslama jadvaldan ko'rinish turibdiki, aholi daromadlari quyi reytingini 1999 va 2019-yillarda, ya'ni qariyb 20 yil davomida ham Afrika vakillari tashkil bo'lsa, yuqori o'rnlarda esa Luksemburg, Shvetsariya, AQSH va Norvegiya kabi mamlakatlari egallahashgan.

Jahon iqtisodiyoti tajribasi shuni ko'rsatadiki, rivojlanayotgan mamlakatlarda qashshoqlikning yana ham kengroq tarqalishi va kuchayishiga olib keluvchi omillar kam taraqqiy etgan alohida bir mamlakat ichkarisidagi boylar bilan kambag'allar o'rtasidagi tafovut tobora o'sib borishidan ham iboratdir. Ayni paytda aholi jon boshiga tushadigan daromad darajasi bilan olinadigan daromadlarning tengsizlik darajasi o'rtasida o'zaro nisbatning yo'qligi e'tiborga loyiqdir.

Masalan, Lotin Amerikasi vakili Peruni Turkiya bilan solishtirib ko'rganda shu narsa ayon bo'ldiki, har ikkalasida ham aholi jon boshiga tushadigan daromad deyarli bir xil bo'lgani holda, Peruda aholining kattagina qismi o'rtasidagi qashshoqlik darajasi Turkiyadagiga nisbatan yuqoriroq bo'lgan, ya'ni 15 foizga qarshi 44 foiz o'rtasidagi tafovut. Bundan shu narsa kelib chiqadiki, iqtisodiy

rivojlanishni yolg‘iz umumiylar daromadlarning yohud aholi daromadlarining o‘sish darajasi va sur’atlariga qarabgina belgilab bo‘lmaydi. Shuningdek, ushbu daromadlar mamlakat aholisi o‘rtasida qay tarzda taqsimlanishini, ya’ni bu rivojlanishdan kimlar ko‘proq manfaat ko‘rishini ham hisobga olish kerak.

13.2 - jadval

2019-yilda jahon iqtisodiyotida ba’zi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning YaMMni aholi jon boshiga taqsimlanishi

<i>dollarida</i>		
T/r	Rivojlangan mamlakatlar	YaMM aholi jon boshiga
1	Makao	121 764
2	Luksemburg	120 490
3	Singapur	101 458
4	Qatar	95 108
5	Irlandiya	91 959
6	Shvetsariya	72 008
7	Norvegiya	66 214
8	AQSH	65 254

T/r	Rivojlanayotgan mamlakatlar	YaMM aholi jon boshiga
181	Liberiya	1 601
182	Mozambik	1.302
183	Niger	1.276
184	Kongo	1.015
185	Malavi	1.004
186	Mark.Afrika Resp.	985
187	Janubiy Sudan	862
188	Burundi	821

Manba: Xalqaro valuta fondining “GDP based on purchasing-power-parity (PPP) per capita (13/10/2020)” ma’lumotlari asosida jadval shakliga keltirildi.

Ushbu iqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisob-kitob qilishda va taqqoslashda “jini koeffitsiyenti” yordamida aniqlash mumkin bo‘ladi. Jini koeffitsiyenti aholining alohida guruhlari milliy daromaddan amalda qancha hissa olganliklari va daromad teng taqsimlangan taqdirda qancha hissa olishlari mumkinligi o‘rtasidagi farqni o‘lchaydi. Koeffitsiyent qanchalik yuqori bo‘lsa, daromadlar taqsimotidagi tengsizlik ham shuncha baland bo‘ladi.

2. To‘yib ovqat yemaslik va salomatlik muammolari. Rivojlanayotgan davlatlar aholisi uchun kam daromadlar bilan bir qatorda ovqatlanish va kasalliklar bilan bog‘liq muammolar ham

dolzarbdir. Ushbu omil ayniqsa 2020-yilda ro'y bergan pandemiya sharoitida yaqqol namoyon bo'ldi.

Eng kam rivojlangan mamlakatlarda aholining o'rtacha yashash davri 2000-yilda 59 yoshni hamda 2019-yilda 63 yoshni tashkil etdi. Vaholanki, bu raqam rivojlanayotgan mamlakatlarda mos ravishda 69 yosh va 72 yosh, rivojlangan davlatlarda esa mos ravishda 73 yosh va 78 yoshni tashkil qilgan.

XX asrning 70-yillarini o'rtalarida 1 mlrd.dan ko'proq kishi yoxud rivojlanayotgan dunyo aholisining qariyb yarmi (Xitoydan tashqari) to'yib ovqat yemaslik sharoitida kun kechirgan, ya'ni ular zarur miqdordagi kaloriyalarni yeyish imkoniyatiga ega bo'lмаган. Ularning 1/3 qismidan ko'prog'ini 2 yoshga yetmagan yosh bolalar tashkil etgan. Keyinchalik bu vaziyat, xususan, Sahroi Kabir janubrog'idagi Afrika mamlakatlarida og'irlashdi va bu mintaqada oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish ancha pasayib ketdi hamda ocharchilik keng tus oldi.

2000-yilda aholi jon boshiga hisoblaganda bir kunda iste'mol qilinadigan kaloriyalar miqdori rivojlanayotgan mamlakatlarda 2572 kaloriyadan, shu jumladan, eng kam taraqqiy etgan mamlakatlarda 2103 kaloriyadan iborat bo'lган, bu esa, o'z navbatida, sanoati rivojlangan davlatlardagidan (3157 kaloriya) nisbatan 24 va 33 foiz kam demakdir.

BMTning ma'lumotiga ko'ra, 2019-yilda Osiyo va Afrika mamlakatlari aholisining qariyb 60 foizi salomatlikni bir me'yorda ushlab turish uchun zarur bo'lган kaloriyalarni eng kam miqdorda iste'mol qilgan. Boz ustiga, olimlarning fikriga qaraganda, kaloriyalarni iste'mol qilishdagi bu yetishmovchilik dunyo bo'yicha yetishtiriladigan don mahsulotlarining bor yo'g'i 2 foizini tashkil qiladi xolos. Bundan ko'rinish turibdiki, ocharchilik degan narsa yer yuz aholisi bilan oziq-ovqat mahsulotlari o'rtasidagi nisbat buzilganligining natijasi emas, balki bunga jahonda daromadlar taqsimotidagi nisbat buzilganligi ko'proq sabab bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, rivojlanayotgan mamlakatlarda yuz berayotgan ocharchilik va salomatlikning zaiflashuvi bu – oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ko'lamlaridan (hozirgi va umumiylar imkoniyatlar darajasida) ko'ra ko'proq bu mamlakatlar qashshoqligining natijasidir.

Afrika va Osiyoning bir qator mamlakatlarida, ayniqsa, Shimoliy

Koreya, Myanma, Yaman, Pokiston, Somali, Markaziy Afrika Respublikasi, Jibuti, Uganda kabi mamlakatlarda tibbiy muassasalarining hamda ularda xizmat qilayotgan xodimlarning yetishmasligi rivojlanayotgan mamlakatlarning ko‘pchiligi uchun jiddiy muammo bo‘lib kelmoqda.

1990-2000-yillarda rivojlanayotgan mamlakatlarda shifokorlar soni har 10 ming kishi hisobiga 18 nafar shifokor, eng kam rivojlangan mamlakatlarda 5 nafar shifokorni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich, 2000-2010-yillarda ham kam rivojlanayotgan mamlakatlarda har 10 ming kishiga atigi 21 nafar shifokorlar to‘g‘ri kelgan. 2019-yilga kelib esa, rivojlanayotgan mamlakatlarda shifokorlar soni har 10 ming kishi hisobiga 53 nafar shifokor, eng kam rivojlangan mamlakatlarda esa 36 nafar shifokorlar tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha sanoati rivojlangan mamlakatlarda har 10 ming kishiga 312 nafar malakali oliy toifadagi shifokorlar tashkil qilmoqda.

Shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlarda 2000-2010-yillarda tibbiy hamshiralar soni har 10 ming kishiga atigi 93 nafar hamshira, eng kam rivojlangan mamlakatlarda esa 31 nafar hamshira va jahonning rivojlangan mamlakatlarda ushbu ko‘rsatkich 817 nafar hamshirani tashkil qilgan. Ayni paytda shuni ham e’tiborga olish kerakki, rivojlanayotgan mamlakatlarida shifokorlarning aksariyati asosan aholining atigi 37 foizi (eng kam rivojlangan mamlakatlarda 23 foizi) yashaydigan shaharlarda istiqomat qiladi. Masalan, Hindistonda shifokorlarning 80 foizi aholini atigi 30 foizi istiqomat qiluvchi shaharlarda faoliyat ko‘rsatadi.

3. *Mehnat unumdarligi darajasining pastligi.* Jahon xo‘jaligida rivojlanayotgan mamlakatlarning o‘ziga xos xususiyatlariga oid belgilardan biri – bu mehnat unumdarligining pastligidir. Avvalo shuni ta’kidlash lozimki, mehnatning samaradorligi ishlab chiqarishning tegishli omillarining mavjudligi bilangina belgilanmaydi. Ana shu ishlab chiqarishning texnikaviy va muhandislik ta’minlanganini yoniga boshqa shart-sharoitlar, jumladan, boshqaruv tizimining layoqatligi va uning qay darajada kelishib ishlashi va h.k.larni qo‘shish lozim.

Mehnat unumdarligini oshirishdagi boshqa noiqtisodiy usullarni ham e’tiborga olish zarur bo‘ladi. Masalan, shunday bir maqol bor: “Sug‘orishga olib borilgan otga suv ichira olmaslik ham mumkin”. Rivojlanayotgan mamlakatlarga buni tatbiq etsak, shu narsa ma’lum

bo‘ladiki, ularni takomillashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish mumkin, ammo kerakli tashkiliy va shakliy o‘zgarishlarsiz muvaffaqiyatga erishib bo‘lmaydi.

Shuningdek, ishchilar bilan boshqaruvchining o‘z malakasini oshirishga bo‘lgan munosabatini ularning faolligi, ko‘nikish darajasi, yangiliklarga va tajribaga nisbatan tashabbuskorligi va xohish-ishtiyoqi hamda umuman mehnatga, tartib-intizomga, hyokimiyatga va ekspluatatsiyaga munosabatlarini e’tiborga olish lozim.

4. Iqtisodiyot tarkibida agrar sohaning ustun darajada ekanligi. Jahon xo‘jaligidagi rivojlanayotgan mamlakatlarning deyarli barchasining iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi sohasi eng asosiy daromad keltiruvchi manba hisoblanadi. Ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishiga ixtisoslashgandir. Rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining ko‘pchilik qismi, ya’ni 65 foizdan ortig‘i qishloq joylarida istiqomat qiladi. Rivojlangan mamlakatlarda esa bu raqam 23 foizdan kamrog‘ini tashkil qiladi.

Shu qatori rivojlanayotgan mamlakatlarda mehnat resurslarining 62 foizdan ko‘prog‘i qishloq xo‘jaligida band bo‘lsa, sanoati rivojlangan mamlakatlarda bu raqam atigi 3-5 foizni tashkil etadi. Shunga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari YaMMning qariyb 14 foizini, sanoati rivojlangan mamlakatlarda esa atigi 3 foizni tashkil etadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hamda xomashyo ishlab chiqaruvchi tarmoqlarda aholi va ishlab chiqarish bir joyda to‘planib qolganligining asosiy sababi shundaki, daromadlar g‘oyat past bo‘lgan sharoitda har qanday insonning birlamchi qayg‘usi oziq-ovqat, kiyimkechak va boshpana topish dardidan iborat bo‘ladi.

Ana shu kichik yer maydoni bevosita (fermerlarni iste’mol qilish bilan) va bilvosita (shaharliklar hamda fermada ishlamaydigan iste’molchilarga oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish bilan) gektar boshiga odatda atigi 10-15 kishini boqadi xolos. Agarda rivojlangan mamlakatlardagi fermerlarning ish unumdorligini ko‘rsak, 1 ta fermer kamida 200 kishini oziq-ovqat bilan ta’minlaydi. Shunga ko‘ra, qishloq xo‘jalikda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va har bir gektar yerdan olinadigan sholi, bug‘doy, makkajo‘xori, tariq va hokazolarning hosilini ko‘rsatish borasidagi sa’y-harakatlar hozir ham,

bundan keyin ham taraqqiyotning ustuvor maqsadi bo‘lib qolaveradi.

Bob yuzasidan xulosa

Rivojlanayotgan mamlakatlar – dunyodagi Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi va Okeaniyadagi mamlakatlarning ko‘pchilik qismi bo‘lib, ular yer yuzidagi hududlarning qariyb 3/5 hissasini tashkil qiladi va aholining 4/5 bo‘lagi ushbu hududlarda istiqomat qiladi. Ularning asosiy xususiyati jahon xo‘jaligi tizimida milliy iqtisodiyotining kam rivojlanganligi, kambag‘allik darajasining yuqoriligi, ishlab chiqarish kuchlarining g‘oyat sust rivojlanganligi hamda iqtisodiyotda qishloq xo‘jaligi sohasining yetakchi mavqega ega ekanligini ko‘rish mumkin.

Jahon xo‘jaligida rivojlanayotgan mamlakatlarning milliy iqtisodiyoti tahlilidan kelib chiqib, iqtisodiyotning sust rivojlanganligi uning ko‘p darajada eksportga (uning tarkibida iqtisodiyotning agrar sektori va qazib chiqaruvchi sanoati yetakchi o‘rin egallagan) qaramligini keltirib chiqaradi. Demak, bularning natijasida aholining asosiy qismini turmush darjasini past bo‘lib, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlar, tibbiy xizmatlar borasida rivojlangan davlatlardan ancha orqada qolganligi, uzlucksiz to‘yib ovqatlanmaslik, bolalarning o‘limi darajasining yuqori ekanligida va hokazolarda namoyon bo‘ladi.

Nazorat savollari

1. Jahon xo‘jaligida rivojlanayotgan mamlakatlar deganda qanday mamlakatlarni tushunasiz?
2. Rivojlanayotgan mamlakatlarning tarixini aytib bering.
3. Rivojlanayotgan mamlakatlarning qanday asosiy ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari mavjud?
4. Rivojlanayotgan mamlakatlar qanday turkumlanish belgilariga ega?
5. “Jini koeffitsiyenti” nima degani?
6. Rivojlanayotgan mamlakatlarni aniqlashda va ularning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini bilishda qanday mezonlardan foydalaniladi?
7. Jahondagi rivojlanayotgan mamlakatlarda turmush darajasining pastligini qaysi iqtisodiy ko‘rsatkichlar orqali tahlil qilsa bo‘ladi?
8. Yuqori darajadagi ishsizlik va ish bilan to‘la band bo‘lmaslik holatlariga sabab bo‘luvchi omillar va ularning xususiyatlarini ayting.

9. Rivojlanayotgan mamlakatlar milliy iqtisodiyotida nima uchun qishloq xo‘jaligi ustun darajada rivojlangan?
10. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining xalqaro munosabatlardagi zaiflik holatlarining sabablarini ayting.
11. Nima uchun Osiyo va Afrikaning ba’zi mamlakatlarida aholi soni tez o‘sib bormoqda?
12. Rivojlanayotgan mamlakatlarning turush darajasi pastligini belgilovchi asosiy omillarni ayting.
13. Jahondagi qaysi mamlakatlarda to‘yib ovqatlanmaslik va salomatlik muammolari mavjud?
14. “Eng kam rivojlangan mamlakatlar” va “tez rivojlanayotgan mamlakatlar” guruhiga qaysi mamlakatlar kiradi?

Uyga vazifa!

Talabaning “Rivojlanayotgan mamlakatlar – xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida” mavzusini chuqur o‘zlashtirishi hamda amaliyot darsiga puxta tayyorgarlik ko‘rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

- 1) mavzu so‘ngida berilgan “Nazorat savollari”ga tayyorgarlik ko‘rish;
- 2) jahondagi rivojlanayotgan mamlakatlarning (Yevropa, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidan tanlama ravishda) jahon iqtisodiyotidagi iqtisodiy salohiyati mavzusi bo‘yicha talabalar guruhlarga bo‘lingan holda “Taqdimot” o‘tkaziladi.

XIV BOB. JAHON XO‘JALIGIDA RIVOJLANGAN DAVLATLARNING UMUMIY XUSUSIYATLARI

- 1. Jahon xo‘jaligida yetakchi mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyotini qisqacha tarixi.**
- 2. Jahon xo‘jaligida rivojlangan mamlakatlarining iqtisodiy salohiyatlari va rivojlangan davlatlarning guruhi.**
- 3. “Katta yettilik” va “Katta yigirmatalik” davlatlarning jahon xo‘jaligida tutgan o‘rni.**
- 4. Xalqaro tashkilotlar va rivojlangan mamlakatlarning milliy iqtisodiyotlarni sog‘lomlashtirish chora-tadbirlari.**
- 5. Zamonaviy jahon iqtisodiyotida G‘arbiy Yevropaning asosiy iqtisodiyot tarmoqlari.**

Tayanch iboralar: rivojlangan mamlakat, “Katta yettilik” (G7), “Katta yigirmatalik” (G20), milliy iqtisodiyot, globallashuv, xalqaro iqtisodiy hamkorlik, rivojlangan industrial mamlakat, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti.

14.1. Jahon xo‘jaligida yetakchi mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyotining qisqacha tarixi

XX–XXI asrlar bo‘sag‘asida jahon xo‘jaligida rivojlangan mamlakatlarning tutgan o‘rni juda katta bo‘lib, bunday guruhga kiruvchi davlatlar asosan Yevropa qit’asi va Shimoliy Amerika materigida joylashgandir. Albatta, jahondagi bir qator iqtisodiy mintaqalarning iqtisodiy-geografik jihatidan qulay joylashganligi ularning iqtisodiy taraqqiyoti va salohiyatiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatgan. Masalan, Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasi jahon xaritasida shunday joylashganki, u Afrika qit’asining Yevropa va Osiyo bilan tutashganligi sababli muhim xalqaro yo‘llar, ya’ni dengiz yo‘llari tutashgan chorrahasida joylashgan.

Yevropa materigida joylashgan mamlakatlar ham qirg‘oqbo‘yi hududlarda joylashganligi sababli, ularning iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy-geografik joylanishuvi ham ijobjiy ta’sirini ko‘rsatgan. Masalan, Turkiyaning umumiyligi yer maydonining 3 foizi Yevropada joylashgan bo‘lsa, Afrikaning yirik mamlakatlaridan biri hisoblangan Misrning kichik hududi Osiyo materigida joylashgan. Aynan shu

mamlakatlarni jahon ommasi sivilizatsiyaning ilk davridayoq G‘arb (Yevropa) bilan Sharqni (Osiyo) bog‘lovchi “Vositachi davlat” deyishganligi bejiz emas, albatta.

Ayniqsa, 1869-yilda Buyuk Britaniyaning sarmoyasi evaziga qurilgan Misrdagi yirik Suvaysh kanali o‘z faoliyatini boshlashi Yevropadagi yirik kapital egalarini Osiyoning neft va boshqa bir qator muhim bo‘lgan mineral resurslar xomashyosi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hamda mehnat resurslarining juda ham arzonligi, bularning hammasi rivojlangan mamlakatlar uchun ham iqtisodiy, ham siyosiy ahamiyatini oshirdi. Xususan jahonning bir qator rivojlangan mamlakatlari o‘rtasida, ayniqsa, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Ispaniya, Portugaliya va keyinchalik AQSH mamlakatlarini ushbu Osiyodagi hududlarga bo‘lgan qiziqishini juda ham kuchayishiga olib keldi.

14.1-jadval

Jahondagi eng yirik yer maydoniga ega bo‘lgan mamlakatlar (2019-y.)

T/r	Mamlakatlar	Hududi (ming km.kv.)	Dunyo bo‘yicha Foizda
1	Rossiya	17 124,4	12,7
2	Kanada	9 976,1	7,4
3	Xitoy	9 597,0	7,1
4	AQSH	9 363,0	6,9
5	Braziliya	8 512,0	6,3
6	Avstraliya	7 686,9	5,7
7	Hindiston	3 287,6	2,4
8	Argentina	2 766,9	2,1
9	Qozog‘iston	2 717,3	2,0
10	Jazoir	2 381,7	1,8
...56	O‘zbekiston	447,4	0,3
...178	Singapur	0,65	0,0005
...208	Gonkong	0,11	0,0001
	Boshqa mamlakatlar	60 878,8	45,2
	Jahon bo‘yicha	134 740,0	100,0

Manba: jadval <https://worldgeo.ru/lists/?id=2> ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

Jahon ommasining bizning materikka, ya’ni Osiyoga bo‘lgan siyosiy-iqtisodiy qiziqishi XVI asrdayoq boshlangan. Osiyodagi mavjud hududlarni birin-ketin Portugaliya, Ispaniya va Gollandiya, ya’ni o‘sha davrda iqtisodiy salohiyati va qudrati bo‘yicha jahonda eng rivojlangan Yevropa mamlakatlari egallashgan edi. Biroq keyinchalik, ya’ni XVIII asrdan boshlab Osiyoga Angliya (Buyuk Britaniya) o‘z hukmronligini o‘rnatdi va uning iqtisodiy salohiyati va jahon siyosiy olamidagi hukmronligi Ikkinci jahon urushi davrigacha davom etdi. Aynan ushbu davrgacha uning jahonda egallagan yer maydoni 33,5 mln.km.kv.ni va aholisi qariyb 520 million kishiga yetgan edi. Biroq Ikkinci jahon urushidan so‘ng jahon siyosiy-iqtisodiy olamida hukmdor Buyuk Britaniyaning o‘rmini Ikkinci jahon urushidagi asosiy qahramonlardan biri – AQSH egalladi.

Jahon xo‘jaligidagi har bir mamlakat haqida gap boshlanganda, avvalo uning yer maydoni, hududi, aholisi va uning siyosiy xaritada joylashgan iqtisodiy-geografik sharoiti va umuman o‘sha mamlakatni benihoyat ko‘z oldimizga keltiramiz. Jahondagi eng yirk yer maydoniga ega bo‘lgan mamlakatlar qatoriga Rossiya, Kanada, Xitoy va AQSH mamlakatlarini kiritamiz (qarang: 14.1-jadval).

Shuni alohida qayd etish lozimki, jahondagi ko‘plab mamlakatlarning vujudga kelishida va uning nomlanishida o‘sha mamlakatga xos bo‘lgan ba’zi o‘ziga xos xususiyatlar bilan ataladi, masalan:

- “gretsiya” lotinchada “gratsiya”, ma’nosi “go‘zallik va quvonch xudosi”;
- “italiya” so‘zining ma’nosi yunonchadan “buzoqchalar o‘lkasi”;
- “argentina” ispanchadan tarjima qilinganda “kumush” demakdir;
- “kanada” so‘zi indeetslarning “kapala” so‘zidan olingan bo‘lib, uning ma’nosi “qishloq” yoki “jamoa” ma’nosini beradi;
- “singapur” so‘zining ma’nosi bu “sherlar shahri” (sherlar makoni);
- “koreya” so‘zining ma’nosi “tonggi tetiklik” (tonggi shabnam);
- “tailand” (siam) so‘zining ma’nosi – “tabassum”;
- “xitoy” (zong‘jua) so‘zining ma’nosi “markaziy davlat” yoki “markaziy qirollik” tushunchasini beradi;
- “Pokiston” - “pok (qalbi toza) davlat”;

- “tayvan” so‘zining ma’nosi “juda chiroyli”, ya’ni portugallar ushbu orolni “Formoza” deb ataganlar;
- “syangan” (Gonkond) so‘zining ma’nosi “xushbo‘y gavan (port)” va boshqa o‘nlab misollarni keltirish mumkin.

Mamlakat milliy iqtisodiyotini tartibga solishda, undagi muammolarni hal qilishda, mamlakat iqtisodiyotini rejaga asosan taraqqiy ettirish yoki ma’lum bir yirik olamshumul islohot yoki dasturlarning tatbiq qilinishida mamlakat hukumatining ahamiyati benihoyat kattadir va ularning sa’y-harakatlari evaziga mamlakatning milliy iqtisodiyoti rivojlanishiga o‘z ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Shuningdek, jahondagi ko‘plab mamlakatlar o‘zlarining milliy iqtisodiyotini taraqqiyotida ma’lum bir “shior”ni tatbiq qilishadi. Jumladan, Yaponiya, Tayvan, Singapur, Germaniya, Janubiy Koreya, Turkiya, O‘zbekiston va boshqa o‘nlab mamlakatlar iqtisodiy-siyosiy shiirlarni tatbiq qilganlar, masalan:

Yaponiya hukumati 1946-yilda milliy iqtisodiyotini rivojlanishda “syan go”, ya’ni “qudratli davlat qurish” shiorini tatbiq qilib, u o‘zining ilk rivojlanish taraqqiyoti davridayoq, ushbu shior ostida yangi-yangi iqtisodiy dastur va islohotlarni ishlab chiqdi hamda juda qisqa fursat ichida jahon xo‘jaligida “iqtisodiy mo‘jiza”ga erishdi.

O‘z oldiga ulkan maqsadlarni qo‘ygan va qisqa yillar ichida jahon xo‘jaligida “iqtisodiy mo‘jiza”ga erishgan bunday mamlakatlar qatoriga Germaniya (GFR) ham misol keltirish mumkin. Germaniya hukumati 1948-yilda “Haqqoniy mehnatga haqqoniy ish haqi” shiorini e’lon qiladi. Shuningdek, Tayvan hukumati “fu min” iqtisodiy shiorini tatbiq qiladi, ya’ni xitoy tilidan “xalqni boy-badavlat qilish” ma’nosini beradi. Ushbu shiorni bevosita tayvanliklarning “otasi” Sun YAt Senning g‘oyasi bilan muhrlanib, birinchi galda xalqni boy-badavlat qilgandan so‘nggina davlatning o‘zi badavlat bo‘lishini o‘ylagan edi.

Singapur hukumati esa, 1966-yilda “Xushmuomalalik - bizning hayot tarzimiz” shiorini tatbiq etib, ushbu shiorni uzoq yillar mamlakatni boshqarib kelgan va kichik hududga ega bo‘lgan kambag‘al mamlakatni qisqa 15 yil ichida jahonga tanitgan Singapur Bosh vaziri Li Kuan Yuning g‘oyasi asosida tatbiq qilingan va uning yakunida “singapur mo‘jiza”siga asos solingan edi.

14.2. Jahon xo‘jaligida rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy salohiyatlari va rivojlangan davlatlarning guruhi

Jahon iqtisodiyotida rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyoti XX asrning ikkinchi yarmida yuz bergan bo‘lsa, Yangi industrial mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyoti 1970-80-yillarda hamda iqtisodiyoti tez rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy taraqqiyot XXI asr bo‘sag‘asida yuz berdi. Jahon xo‘jaligida rivojlangan mamlakatlarning tutgan o‘rni juda katta bo‘lib, bunday guruhga kiruvchi davlatlar asosan Yevropa qit’asi va Shimoliy Amerika materigida joylashgandir. Ma’lumki, rivojlangan “Katta yettilik” mamlakatlari iqtisodiyotini rivojlanishi asosan tabiiy resurslardan qanday samarali foydalanishlik darajasiga va shuningdek, uzoq yillarga mo‘ljallangan zamonaviy ilmiy-texnikaviy taraqqiyotdagi o‘zgarishlarga bog‘liqdir. Shuning uchun ham ushbu mamlakatlar iqtisodiyotida tabiiy resurslardan tejamli foydalilanadi, ishlab chiqarishda esa energetika quvvati pasayishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Masalan, AQSH sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishida asosan kam xarajat qilish evaziga yalpi ishlab chiqarilayotgan mahsulot miqdori qariyb 120 yil davomida, ya’ni 1900-2019-yillar davomida deyarli 15 barobarga ortgan. Xuddi shu davrda, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarishi esa o‘rtacha 8 barobarga ortdi.

Jahon iqtisodiyotining bugungi kundagi tahlilidan ma’lumki, iqtisodiyotning xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlangan mamlakatlarda, sanoatning asosiy qismi tez rivojlanayotgan mamlakatlarda hamda qishloq xo‘jaligi sohasi esa rivojlanayotgan va “o‘tish davri mamlakatlari” hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Jahon xo‘jaligi rivojlanishida yetakchi sanoati rivojlangan mamlakatlar (AQSH, GFR, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Kanada, Italiya) iqtisodiyoti muhim rol o‘ynamoqda. Ushbu mamlakatlar ulushiga rivojlangan davlatlarda ishlab chiqarilayotgan jami sanoat mahsulotlarning 79-80 foizi va dunyo mamlakatlarida ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarning 59-60 foizi, tovarlar eksportining 60-61 foizi va xizmat ko‘rsatish sohalarning 49-50 foizi

to‘g‘ri kelmoqda. Rivojlangan mamlakatlarning barchasida qayta ishlash sohalari tejamkorlik bilan samarali foydalanishni ijtimoiy dasturlar asosida amalga oshirilmoqda.

Albatta, buning zamirida ekologiyani asrash omili ham mavjuddir. Jahonning deyarli barcha rivojlangan mamlakatlar asosiy yoqilg‘i va mineral resurslarni xorijdan import qiladi. Shuning uchun ham bu mamlakatlar iqtisodiyotida tabiiy resurslardan tejamli foydalaniladi va ishlab chiqarishda energetika quvvatining pasayishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Jahon xo‘jaligining rivojlanishida rivojlangan mamlakatlarning qay darajada sanoat energetikasi bilan ta‘minlanganligi ham muhim rol o‘ynaydi. Hozirgi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlar o‘zлari ishlab chiqarayotgan sanoat energetikasi mahsulotlaridan tejamkorlik asosida samarali foydalanib kelmoqdalar. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda sanoat tarmoqlarining rivojlanishi qanchalik yuqori bo‘lmisin narx-navoning ko‘tarilishi ushbu davlatlarda yuqoriligidcha qolmoqda. Bu holat, xizmat ko‘rsatish sohalari va shuningdek, ilmiy-texnikaviy, ilg‘or texnologiyalar hamda innovatsion g‘oyalarga asoslangan yangi zamonaviy sanoat tarmoqlarini vujudga kelishi bilan bog‘liqdir. YI mamlakatlari 2025-yildan boshlab ko‘mir xomashyosidan foydalanishdan butkul voz kechishni e’lon qilgan. Hatto hozirgi kunda Germaniya, Fransiya va Belgiya mamlakatlarining hududlaridagi yirik ko‘mir konlaridagi ishlab chiqarish jarayonlari asta-sekin to‘xtatilmoqda.

Jahon iqtisodiyotida YaIM miqdori bo‘yicha yetakchilikni o‘z qo‘liga olgan mamlakatlar yirik oltin zaxirasi bo‘yicha ham jahon reytingida oldingi o‘rinlarda bormoqda. Jahondagi yirik oltin zaxirasiga ega bo‘lgan mamlakatlar reytingidan Jahon valuta fondi ham o‘rin olgan. Demak, 14.2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, jahondagi yirik oltin zaxiralariga ega bo‘lgan mamlakatlar qatoriga AQSH, Germaniya, Italiya, Fransiya va XVF fondi yuqori reytingda yetakchi beshlikni tashkil qiladi.

14.2-jadval

Jahondagi yirik oltin zaxirasiga ega bo‘lgan mamlakatlar reytingi⁵⁵

O‘rin	Mamlakatlar	Miqdori (tonna)	Jahon bo‘yicha ulushi (foizda)
1	AQSH	8133,5	24,0
2	Germaniya	3362,4	9,9
3	Xalqaro valuta fondi	2814,0	8,3
4	Italiya	2451,8	7,2
5	Fransiya	2436,1	7,2
6	Rossiya	2299,3	6,8
7	Xitoy	1948,3	5,8
8	Shvetsariya	1040,0	3,1
9	Yaponiya	765,2	2,3
10	Hindiston	668,2	2,0
11	Gollandiya	612,5	1,8
...1 5	Qozog‘iston	377,3	1,1
16	Turkiya	362,5	1,1
17	O‘zbekiston	325,7	1,0
18	Saudiya Arabistoni	232,1	0,7
	Boshqa mamlakatlar	6022,1	17,9
	Jahon bo‘yicha	33851,0	100,0

Manba: ushbu jadval “Mirovie finansi - 2020” va World Gold Council ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

Rivojlangan mamlakatlar guruhi hozirgi kunda o‘z tarkibida jahoning 30 dan ortiq davlatini birlashtirgan bo‘lib, bu davlatlar dunyo mamlakatlari xo‘jaligida tutgan o‘rniga ko‘ra bir necha guruhga bo‘lib o‘rganiladi. Ular quyidagilardan iborat:

1. YaIM hajmi bo‘yicha rivojlangan “Katta yettilik” davlatlari guruhi.
2. YI tashkilotiga kiruvchi davlatlar guruhi. Ushbu guruhga GFR, Belgiya, Daniya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Luksemburg,

⁵⁵ <https://global-finances.ru/mirovyie-zolotoye-rezervyi/take-profit.org/statistics/foreign-exchange-reserv>

Niderlandiya, Portugaliya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Shvetsiya, Finlandiya, Avstriya kabi davlatlarni kiritish mumkin.

3. Yevropa Erkin Savdo assotsiatsiyaga (EAST) kiruvchi davlatlar guruhi. Ushbu guruhga Islandiya, Lixtenshteyn, Norvegiya, Shvetsariya kabi davlatlarni kiritish mumkin.

4. Beniluks guruhiga kiruvchi davlatlar guruhi. Ushbu guruhga Belgiya, Niderlandlar va Luksemburg kabi davlatlar kiradi.

5. Shimoliy Amerika Erkin savdo shartnomasiga (NAFTA) kiruvchi davlatlar guruhi. Ushbu guruhga AQSH, Kanada, Meksika kiradi.

6. Jahan xo‘jaligidagi Yangi industrial mamlakatlar guruhi. Ushbu guruhga XX asrning 70-yillarida jahon xo‘jaligida “iqtisodiy mo‘jiza”ga erishgan mamlakatlar, ya’ni Janubiy Koreya, Singapur, Tayvan, Gonkong kabi “To‘rt ajdarho mamlakatlari” va shuningdek, Lotin Amerikasidagi Braziliya, Argentina va Meksika kabi mamlakatlar kiradi.

7. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy uyushmasiga (ASEAN) kiruvchi davlatlar guruhi. Ushbu guruhga jahon xo‘jaligida XX asrning 80-yillarida “iqtisodiy mo‘jiza”ga erishgan “To‘rtta kichik yo‘lbars mamlakatlari”, ya’ni Tailand, Malayziya, Indoneziya va Filippin kabi mamlakatlar kiradi.

14.3. “Katta yettilik” va “Katta yigirmatalik” davlatlarining jahon xo‘jaligida tutgan o‘rni

“Katta yettilik” (G7) tashkilotiga jahondagi rivojlangan mamlakatlarning ichida eng taraqqiy etgan mamlakatlar - AQSH, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya va Kanada mamlakatlari kiradi.

1997-yilda ushu tashkilotga Rossiyaning qo‘shilishi bilan “Katta sakkizlik” (G8) nomiga o‘zgartirildi. Biroq yuzaga kelgan Ukraina-Rossiya o‘rtasidagi “Qrim mojarosi” tufayli siyosiy qaramaqarshiliklar natijasida 2014-yilning 26-martida Bryusselda o‘tkazilgan AQSH va YI mamlakatlari rahbarlari ishtirokida o‘tkazilgan Sammitda Rossiya rasman “Buyuk Sakkizlik” tashkilotidan chiqarib yuborildi va 2015-yildan “Katta sakkizlik” yana oldingi holatiga, ya’ni “Katta yettilik” atamasiga qaytgan. 2019-yilning dekabr oyida Shvetsariyaning Davos shahrida bo‘lib o‘tgan “Jahon iqtisodiyoti

Forumi”da AQSH Prezidenti D.Tramp tomonidan “Katta yettilik” tashkilot a’zolariga 2020-yildan Rossiyaning qaytishi mumkinligini o‘ylab ko‘rish lozimligini bildirib o‘tgan, keyinroq ushbu fikrga Italiya Prezidenti J.Konte ham qarshilik bildirmagan. Biroq Germaniya tashqi ishlari vazirligi tomonidan hozirgi inqiroz davrida Rossiyaning ushbu tashkilotga qaytishi mavridi emasligini hamda Britaniya Bosh vaziri B.Jonson esa Rossiyaga nisbatan “iqtisodiy jazo”ga qo‘srimcha holda ushbu masalani muhokama qilishga tayyor emasligini bildirib o‘tgan.

“Katta yettilik”ning har yilgi Sammitida jahon xo‘jaligidagi ham iqtisodiy va ham siyosiy bo‘lgan eng muhim dolzarb masalalar bo‘yicha maslahatlashiladi va bir to‘xtam qarorga kelinadi. 2020-yilgi “Katta yettilik” Sammiti AQSHda o‘tkazilishi rejalashtirilgan edi. Biroq pandemiya sababli ushbu Sammit bekor qilindi. 2021-yilning iyun oyida “Katta yettilik” sammiti Buyuk Britaniyada o‘tkazilishi rejalashtirilgan. “Katta yettilik” tashkiloti rasman “norasmiy tashkilot” hisoblanadi.

“Katta yettilik” tashkilotidan tashqari, hozirgi zamonaviy jahon xo‘jaligidagi dunyodagi barcha eng muhim masalalar va muammolar 1999-yilda tashkil qilingan “Katta yigirmatalik” (G20) mamlakatlarning rahbarlari ishtirokidagi Sammitlarida ham hal qilinadi. “Katta yigirmatalik” tashkilotiga Osiyoning jami 7 nafar mamlakati, xususan: Xitoy, Yaponiya, Hindiston, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Yaponiya, Indoneziya kabi mamlakatlari a’zo hisoblanishadi. 14.3-jadval orqali “Katta yigirmatalik” tashkilotining barcha a’zolarini ko‘rishimiz mumkin.

14.3-jadval “Katta yigirmatalik” (G20) tashkiloti a’zolari

1. Argentina	6. Hindiston	11. Meksika	16. Fransiya
2. Avstraliya	7. Indoneziya	12. Rossiya	17. Italiya
3. Buyuk Britaniya	8. Janubiy Koreya	13. Saudiya Arabistoni	18. Janubiy Afrika Respublikasi
4. Braziliya	9. Kanada	14. AQSH	19. Yaponiya
5. Germaniya	10. Xitoy	15. Turkiya	20. YI

Manba: ushbu jadval ma’lumotlar asosida ishlab chiqildi.

Qizig‘i, mazkur G20 tashkiloti 1999-yilda tashkil qilingan bo‘lsada, 2008-yilgacha bo‘lib o‘tgan barcha Sammitlarda a’zo mamlakatlarning faqatgina Moliya vazirlari yoki Markaziy bank rahbarlari hamda ba’zi holatlarda hukumat a’zolari ishtirok etib kelishgan edi. Biroq 2009-yildan esa barcha Sammitlarda faqat mamlakatlarning oliv rahbarlari ishtirokida bo‘lib o‘tmoqda⁵⁶. 2020-yilning 22-noyabrida Saudiya Arabistonni rahbari raisligida G20 Sammiti o‘z tarixida birinchi marta onlayn formatda o‘tkazildi. Mazkur Sammitda ko‘tarilgan eng asosiy masala, pandemiyaga qarshi kurash va inqirozdan qutulish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Ushbu G20 davlatlari pandemiyaga qarshi kurashda vaksinalar ishlab chiqarish va tarqatish hamda aholining davolanish imkoniyatini ta’minlashga jami 21 mlrd. dollar sarmoya kiritgan.

14.4. Xalqaro tashkilotlar va rivojlangan mamlakatlarning milliy iqtisodiyotlarni sog‘lomlashtirish chora-tadbirlari

XVF 2020-yilning boshlarida Yevropa va Osiyodagi mavjud inqiroz davrini “Buyuk depressiya” davriga tenglashtirgan bo‘lsa, biroq keyinchalik pandemiya sharoitida dunyo mamlakatlari tomonidan joriy qilingan majburiy cheklovlar natijasida botqoqlikka botgan jahon iqtisodiyoti holati va ahvolini “Buyuk depressiya”dan ham og‘ir bo‘lganligini va jahon iqtisodiy tarixidagi eng og‘ir iqtisodiy inqiroz boshlanganligini hamda inqiroz kamida yana 3 yilgacha davom etishini ma’lum qildi.

Jahon bankining tahlillariga ko‘ra, jahon iqtisodiyoti pandemiya tufayli yuzaga kelgan chuqur inqirozdan qutulishi uchun kamida 5 yil vaqt kerak bo‘lishi taxmin qilishgan. Ehtimol, pandemiya sabab joriy qilingan karantin bilan bog‘liq bo‘lgan barcha cheklov va choralar butun dunyo mamlakatlarida bekor qilinsa-da milliy iqtisodiyotlarning holati tezroq tiklanishi mumkin. Biroq jahon mamlakatlarining iqtisodiy holati 2019-yilgi davriga qaytishi uchun kamida 5 yil fursat kerakligini ko‘plab xalqaro tashkilotlar tomonidan bashorat qilinmoqda.

AQSH milliy iqtisodiyoti XX asrning 30-yillaridan boshlab, ya’ni uzoq 90 yil davomida iqtisodiy taraqqiyoti jahon iqtisodiyotida bir

⁵⁶ Sergey Strokan. “Svet Ukrainiany soshelsya”// Gazeta Kommersant, 17.11.2014g.

tekis rivojlanib kelayotgan kam sonli jahon mamlakatlaridan biridir. Pandemiya AQSH milliy iqtisodiyotiga shu qadar ta'sir ko'rsatdiki, ishsizlik darajasining ko'rsatkichi o'zining iqtisodiy tarixidagi eng yuqori darajasiga chiqdi. 2020-yilning may oyida qariyb 36 million kishi ishsizlikka duchor bo'ldi. Bunday holatning yuz berishi 1929-yilda ro'y bergan Buyuk depressiya davridagi ko'rsatkichlardan ham oshib ketdi.

AQSH Prezidenti D.Tramp 2020-yilning martida AQSH iqtisodiyoti tarixida birinchi marta ulkan mablag'ni inqirozga qarshi kurashish va sog'lomlashtirish chora-tadbirlari uchun 2,2 trln. dollarini davlat budgeti hisobidan ajratilishini ma'lum qilgan bo'lsa-da, biroq mazkur ajratilgan mablag' yuzaga kelgan inqirozga barham berish uchun yetarli darajada emasligi aniq-ravshan bo'ldi. Va keyinchalik, AQSH davlat budgetining "yillik xarajatlar miqdori" qayta ko'rib chiqilib, 2020-yilda inqirozga qarshi kurashish uchun umumiyligida jami 4,0 trln. dollariga yaqin mablag' ajratildi. Jahon iqtisodiyoti tarixida biron-bir mamlakat tomonidan 1 yil davomida inqirozga qarshi kurashishda bu qadar ulkan yirik mablag'ning ajratilishi birincha marta kuzatilishi edi. AQSH hukumati tomonidan pandemiya sharoitida iqtisodiyotni rivojlantirish va sog'lomlashtirish hamda AQSH iqtisodiyotini Xitoy iqtisodiyotidan ustun darajada raqobatlashishi uchun qo'shimcha yana 350 mlrd.dollar miqdorida mablag' ajratildi. Inqirozga qarshi kurashda AQSH jahon iqtisodiyotida faollik ko'rsatgan bo'lsa-da, uning milliy iqtisodiyoti salohiyatining 2019-yilgi holatiga qaytishi uchun kamida 3 yil muddat kerak bo'lishi ma'lum bo'ldi.

O'z navbatida, YI Parlamenti tomonidan 2020-yilning 10 dekabrida bo'lib o'tgan Sammitda inqirozga qarshi kurashish uchun 1,8 trln.Yevro miqdoridagi "Tashkilotning yetti yillik budget mablag'i" ajratilishi va ularni a'zo mamlakatlarga taqdim qilinishiga kelishib olindi. Bundan tashqari, COVID-19ga qarshi vaksina ishlab chiqarish uchun farmatsevtika sohasiga avvaliga 2020-yilning aprel oyida 14,5 mlrd. yevro va keyinchalik yana qo'shimcha holda 8,0 mlrd. yevro mablag'inini ajratdi.

Xalqaro aviatsiya transporti uyushmasi (IATA) ma'lumotiga ko'ra, 2020-yilda xalqaro aviaqatnovlarni bekor qilinishi tufayli jahon aviatsiya transport sohasi qariyb 100 mlrd.dollardan ziyod mablag'

yo‘qotgan. Shunga ko‘ra, bir qator jahon mamlakatlari ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan mahalliy aviakompaniyalarga davlat tomonidan moliyaviy ko‘maklar berildi. Masalan, AQSH Moliya vazirligi mamlakatda vaqtinchalik o‘z faoliyatini to‘xtatgan aviakompaniyalariga salkam 6,2 mlrd.dollari miqdorida subsidiya mablag‘larini, Germaniya “Luftganza” aviakompaniyasiga 2,3 mlrd. yevro va Buyuk Britaniya hukumati “British eyr” aviakompaniyalariga qariyb 800 mln.funt sterling miqdorida moliyaviy mablag‘lar taqdim qilindi.

2020-yilning 3-dekabrda BMT va Yaponiya o‘rtasida bo‘lib o‘tgan “Onlay uchrashuv”da Yaponiya Bosh vaziri YO.Suga tomonidan pandemiya davrida iqtisodiyoti og‘irlashgan mamlakatlar uchun 500,0 mlrd.yen miqdorida (4.347,8 mln. dollar) iqtisodiy yordam mablag‘ini ajratdi.

Jahon mamlakatlari tomonidan pandemiyaga qarshi kurashish va uning milliy iqtisodiyotlar rivojiga ta’sirini kamaytirish uchun ko‘plab chora-tadbirlarni amalga oshirishmoqda. Xo‘sh, jahon iqtisodiyoti qachon va qanday chora-tadbirlar orqali o‘zining oldingi holatiga qaytishi mumkin?

Jahon bankining tahlillariga ko‘ra, jahon iqtisodiyotining barqaror holati va uning salohiyati hamda jahon bozorlaridagi iqtisodiy barqarorlik darajasi kamida 2024-yilda 2019-yil holatiga qaytishi mumkinligini prognoz qilishgan va quyidagi chora-tadbirlarni kamida 2 yil davomida amalga oshirilishi lozimligi talab etiladi, jumladan:

- dunyo mamlakatlarida pandemiyaga qarshi qo‘llanilgan barcha cheklov va choralarini butunlay bekor qilish;
- deyarli to‘xtab qolgan xususiy sektor faoliyatini davlatning moliyaviy ko‘magida oyoqqa turg‘izishi va ularni rag‘batlantirish choralarini ko‘rish;
- pandemiya tufayli ishsiz qolgan ishchi kuchini iqtisodiyotning ishlab chiqarish tarmoqlariga jalb qilish;
- jahon mamlakatlarida xalqaro ishchi kuchining erkin harakatlanishiga sharoit yaratib berish;
- xalqaro turizmni qayta tiklanishi va turizmga ixtisoslashgan mamlakatlarni xorijiy sayyohlarni kirish cheklovlarini bekor qilish va turizmni qayta rivojlantirish uchun sayyohlarga imtiyozlar taqdim qilish;

- jahon xomashyo bozorlaridagi holatini me'yoriy holatga qaytarish;
- jahon mintaqalarida yuzaga kelayotgan siyosiy tortishuvlar natijasida joriy qilinayotgan iqtisodiy sanksiyalarni bekor qilish;
- milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning jahon bozoriga kirishida turli joriy qilingan cheklovlarini bekor qilish;
- xalqaro moliyaviy tashkilotlarning pandemiya tufayli og'ir iqtisodiy inqirozga yuz tutgan mamlakatlarga uzoq muddatli imtiyozli moliyaviy kreditlarni taqdim qilish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirishlari muhim ahamiyatga egadir.

14.5. Zamonaviy jahon iqtisodiyotida G‘arbiy Yevropaning asosiy iqtisodiyot tarmoqlari

XX asrda G‘arbiy Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy o‘sish ko‘satkichlari jahonning boshqa hududlardagi mamlakatlarga qaraganda ancha yuqori bo‘lgan bo‘lsa, biroq XXI asrning boshlariga kelib, uning iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlarida biroz pasayishlar yuz berdi. Yevropa milliy iqtisodiyotining global raqobatbardoshligini ta’minlaydigan sohalar va eng asosiy sanoat tarmoqlari bugungi kunda quyidagilar hisoblanadi:

- samolyotsozlik (Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya);
- bank-moliya (Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Germaniya, Ispaniya);
- biotexnologiya (Germaniya);
- avtomobilsozlik (Germaniya, Italiya va Fransiya);
- televideniye (Fransiya);
- moliyaviy xizmatlar (Buyuk Britaniya, Luksemburg);
- sug‘urta (Niderlandiya);
- nashr ishlari (Germaniya);
- to‘qimachilik (Italiya);
- oziq-ovqat mahsulotlari (Fransiya va Germaniya);
- sut mahsulotlari (Fransiya va Gollandiya);
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlari (Ispaniya, Fransiya va Gollandiya);
- parfumeriya (Fransiya).

Iqtisodiyotning sanoat yoki xizmat ko‘rsatish sohalarida global raqobatbardoshlikka erishilgan bo‘lsa-da, G‘arbiy Yevropa

mamlakatlarida fuqarolarni kuchli ijtimoiy himoyalanishi mehnat bozoriga ta'sir ko'rsatadi va tadbirkorlikning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yevropacha rivojlanish modelining amerika modelidan farqi shundaki, tarixan Yevropada davlatning iqtisodiyotdagi ahamiyati va davlat sektorining o'rni favqulodda muhim bo'lgan. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti – bu aralash iqtisodiyotning Yevropacha varianti bo'lib, unda aholini daromadlari bo'yicha tabaqalanish darajasi yuqori bo'lmaydi.

Bu modelning muammolari quyidagilardan iborat:

- birinchidan, Yevropa texnologik jihatdan AQSHdan sezilarli darajada orqada qolmoqda, chunki davlat tomonidan moliyalashning ustuvor yo'naliishi fan-texnika sohasi emas, balki ijtimoiy dasturlar hisoblanadi;
- ikkinchidan, kasbiy tayyorgarlik borasida asosiy e'tibor davlat xizmati uchun kadrlar tayyorlashga e'tibor qaratiladi. Shuning uchun ham oliy ta'lim bitiruvchilarining nazariy tayyorgarligi va haqiqiy biznes amaliyoti o'rtasida katta farq mavjud;
- uchinchidan, YI mamlakatlarida boshqaruv tizimi ham AQSHga nisbatan samarali emas. Bu yerda byurokratiya ko'proq (masalan, Buyuk Britaniya va Fransiya), poraxo'rlik darajasi ham yuqori (masalan, Italiya va Fransiya). Tadbirkorlar davlat aralashuvining darajasi kuchli bo'lganligi uchun o'z imkoniyatlaridan to'liq foydalana olishmaydi;
- to'rtinchidan, aytish mumkinki, asosiy muammo iqtisodiyotni tuzilmaviy qayta qurishning zaruriyatidir. Yevropada tarmoq tuzilmasi va bandlik tuzilmasini tubdan qayta qurish kerak. Yevropada samaradorlikka asosan bandlar sonining kamaytirish orqali erishiladi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti davlat aralashuvining kuchayishiga, soliqqa tortishning yuqori darajasiga, milliy xo'jalikning nosamaraviy sohalarida ish joylarini saqlab qolishni talab qiladi;
- beshinchidan, bu hududiy bozorni kengaytirish mummosidir. Bu borada Yevropa iqtisodiy makonini Markaziy-Sharqiy Yevropa mamlakatlari hisobiga kengaytirish mumkin, biroq buning uchun bu mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasini G'arbiy Yevropa mamlakatlarinikiga yaqinlashtirish zarur bo'ladi;
- oltinchidan, G'arbiy Yevropaning AQSH bilan iqtisodiy (ba'zi hollarda siyosiy) raqobat olib borishi sanaladi. YIga yangi

mamlakatlarning a'zo bo'lishi bu borada ijobiy omil berishi mumkin, lekin bu ichki muammolarning ko'payishiga ham olib keladi.

Yevropaning g'arbida joylashgan kichik hududga ega va 17 mln. aholiga ega bo'lgan Gollandiya (Niderlandiya)ning iqtisodiy rivojlanishi bugungi kunda jahon iqtisodiyotida tobora yetakchi rivojlangan mamlakatlar qatoriga yaqinlashib bormoqda. Xo'sh, ushbu mamlakatning rivojlanish siri nimada?

Mamlakatning umumiy yer maydoni atigi 33,7 ming kv.km.dan iboratligini hisobga olsak, bu har bir kvadrat kilometrga 508 kishi to'g'ri keladi demakdir. Ushbu ko'rsatkichlar bugun Gollandiyani YIdagi va umuman, dunyodagi aholisi eng zinch joylashgan mamlakatlaridan biridir. 2020-yilgi ko'rsatkichlar Niderlandiyani dunyodagi eng baxtli oltinchi mamlakat sifatida e'tirof etadi. Har yili o'tkaziladigan tadqiqotlarda sog'lom umr ko'rish, erkinlik, ishonch, korrupsiya va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash kabi omillarni hisobga olgan holda 156 mamlakatning reytingi berib boriladi va Gollandiya bir necha yillardan beri bu reytingda peshqadamlar safida bormoqda. Gollandiyaning bu darajaga erishishi uning aholisi bilan ham bevosita bog'liq bo'lsa ajab emas. Gollandlar dunyodagi eng sog'lom odamlardir. Ular sog'lom ovqatlanish bo'yicha reytinglarda birinchi o'rinda turadilar. U dunyodagi ikkinchi yirik sabzavot eksportchisi ekanligini hisobga olsak, bu mantiqqa ancha to'g'ri keladi. Bundan tashqari gollandiyaliklar jismoniy jihatdan eng faol Yevropa xalqlaridir. Buni tasdiqlovchi fakt sifatida shuni aytish mumkinki, mamlakatda 17 million aholi istiqomat qilgani holda bu yerda 22 milliondan ortiq velosiped bor.

Gollandiya dunyoning eng boy davlatlardan biridir. XVF va Jahon banki ma'lumotlariiga ko'ra, mamlakat dunyoning eng boy mamlakatlari 20 taligidan joy olgan. Milliy iqtisodiyoti uchun muhim hisoblangan Rotterdam porti dunyodagi eng yirik dengiz portlaridan biridir. U nafaqat Gollandiya, balki butun Yevropada tovar va xomashyo eksporti va importida juda muhim rol o'ynaydi. Port Gollandiyada joylashgan bo'lsa-da, Germaniya iqtisodiyotida o'ta muhim o'rinni tutganligi sababli uni ko'pincha "eng katta nemis porti" deb atashadi. Darhaqiqat, Germaniyaning yuqori darajada rivojlangan sanoatini qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan xomashyoning ko'p qismi Rotterdam porti orqali keladi. Port sayyoradagi eng katta

kemalarga xizmat ko'rsatishga ham qodirdir. U Gollandiya iqtisodiyotiga har yili yuz million yevroni tashkil etadigan to'g'ridan to'g'ri daromad keltiradi. Ammo bu port mamlakat keltiradigan foydaning bir qismi xolos. Uning afzalliklaridan yana biri shuki, eng katta port shaharlardan biriga ega bo'lish Gollandiyani chet el investitsiyalari uchun juda jozibali hududga aylantiradi.

Gollandiya qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish bo'yicha dunyoda AQSHdan keyingi ikkinchi o'rinda turadi va u sayyoramizdagi eng rivojlangan oziq-ovqat sanoatiga ega. Juda katta bo'limgan hududdan iboratligiga qaramay u qishloq xo'jaligida haqiqiy gigant hisoblanadi. Nederlandiyaliklar ko'pincha o'z mamlakatlarini kichik, ammo har bir kvadrat metri oltinga teng deb hazillashadilar.

Nederlandianing Eyndxoven shahri qit'adagi eng innovatsion va istiqbolli hudud hisoblanadi. Iqtisodiyotda sanoatining eng oqsoq jihatlaridan biri uning resurslar jihatidan kambag'alligidir. Ammo zarur bo'lgan deyarli barcha xomashyolarni chetdan olib kirishga majbur bo'lsa ham mamlakatda yuqori darajada rivojlangan sanoat mavjud. Mamlakat arzon resurslarni import qiladi va chet elga yuqori sifatli tayyor mahsulotlarni eksport qiladi. Mamlakat texnologiya va elektronika sohasida dunyoda yetakchilar qatoriga kiradi. Bu yerda texnologiyalar giganti hisoblangan "Pxillips" va sport avtomobili "Spyker Cars"ning shtab-kvartirasi joylashgan. Gollandiyada turizm yuqori darajada rivojlangan. Mamlakat Yevropaning eng ko'p sayyoohlар tashrif buyuradigan joylaridan biri bo'lib, uning eng katta diqqatga sazovor shahri Amsterdam shahridir. U dunyodagi eng ko'p muzeylar joylashgan manzil sifatida tanilgan. Statistik ma'lumotlarga qaraganda mamlakatga har yili to'rt yarim milliondan ziyod sayyoh tashrif buyuradi.

Gollandiya taraqqiyotining yana bir omili sifatida shuni e'tirof etish mumkinki, bu yerda bolalar yoshligidan tadbirkorlik ruvida tarbiyalanadi. Mamlakat aholisi mukammal darajada ta'lim olish imkoniyatiga ega va mamlakatda dunyodagi eng yaxshi universitetlar mavjud.

Mamlakat iqtisodiy rivojlanishining yana bir muhim omili shuki, mamlakatni faqat boy va qudratli davlatlar o'rab olgan, xususan: Belgiya, Germaniya, Luksemburg, Fransiya, Buyuk Britaniya va

Daniya kabi boy davlatlar bilan qo'shni hisoblanadi. U, shubhasiz, dunyodagi eng yaxshi infratuzilmaga ega o'nta mamlakat qatoriga kiradi va ko'pincha Janubiy Koreya bilan taqqoslanadi. Mamlakatdagi avtomobil yo'llari, zamonaviy aeroportlar va dengiz portlarining mukammal tarmog'i dunyoning deyarli barcha mamlakatlariga soya solishi mumkin. Niderlandiya eng aqlii va muvozanatli immigratsiya siyosatiga ega mamlakatdir. Bu yerga doimiy kirib keluvchi aqlii immigrantlar uning taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

Yevropa iqtisodiyoti tarkibida xizmat ko'rsatish va sanoat sohalari qatorida qishloq xo'jaligi sohasi ham yuksak darajada rivojlangan. Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Italiya kabi mamlakatlar qatori Gollandiyaning qishloq xo'jaligi tarmoqlari bugungi kunda jahon qishloq xo'jaligida yetakchi mamlakatlar qatoridan o'rin olgan.

Yana Gollandiya mamlakati bo'yicha misol qilsak. Gollandiya o'zining yarim mln.gektar erida dehqonchilik qilib, qariyb 102 mlrd.dollarlik qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xorijiy mamlakatlarga eksport qiladi. Avvalo shuni aytish kerakki, Gollandiya qishloq xo'jaligi faoliyatini yuritish uchun qulay sharoitga, resurslarga ega emas. Bugungi kunda mamlakat bo'ylab minglab issiqxonalarini isitish uchun gollandlar quyosh energiyasini avaylab yig'ish va undan issiqxonalarini isitish yo'liga o'tishgan, ya'ni iqlim yetarli darajada issiq bo'lmasa-da 2019-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti miqdori jihatidan dunyoda 2-o'rinni egallagan. 1-o'rinda – AQSH, uning yer maydoni gollandlarnikidan 270 marta katta. Shimoliy qutb doirasidan atigi 1600 km narida bo'lgan Gollandiyada pomidor, kartoshka, piyoz va turli gullar kabi issiqsevar mahsulotlarning eksporti bo'yicha dunyoda peshqadamdir. Umuman, sabzavot eksporti bo'yicha esa dunyoda ikkinchi o'rinda. Darvoqe, urug' savdosи bo'yicha dunyoda tuziladigan shartnomalarning uchdan biri Gollandiyada tuziladi. Bularning hammasi yarim million hektar yerda amalga oshirilayotgan ishlardir. Albatta, bunday yutuqlarga 2000-yillarning boshlarida joriy qilingan "ikki barobar kam resurs sarflab, ikki barobar ko'p mahsulot etishtirish" shioriga amal qilinganligidir.

Bob yuzasidan xulosa

Jahon xo'jaligida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning deyarli barcha iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilib chiqdik. Biroq, har

yili jahon mamlakatlarining iqtisodiy ko'rsatkichlari turli xalqaro tashkilotlar tomonidan tahlil qilinadi va o'z vaqtida yangilanib boriladi. Shunday bo'lsa-da, jahonda iqtisodiy salohiyati va qudrati bo'yicha mamlakatlar reytingini AQSH, Xitoy va Yaponiya boshqarib bormoqda.

Jahon iqtisodiyoti 2020-yilning ilk kunlaridayoq yirik inqirozga yuz tutdi: birinchidan, avvaliga Yevropa Ittifoqidagi "Breksit" voqeasi, ya'ni Buyuk Britaniyaning Yevropa Ittifoqi a'zoligidan chiqib ketishi; ikkinchidan, Xitoy-AQSH o'rtasidagi o'zaro savdo kelishmovchiliklari bo'lsa, uchinchidan esa, 2020-yilning boshlarida jahonda yuz bergan COVID-19 kasalligining paydo bo'lishi kabilardir. 2019-yilning oxirlarida XXR Prezidenti Si Szinpin, ushbu buyuk davlatning asosini qimirlata oladigan birorta kuch mavjud emasligini hamda hech qanday kuch xitoy xalqining oldinga qarab ketayotgan harakatini to'xtatib tura olmasligini ta'kidlab o'tgan edi. Hatto, 2019-yili Jahon banki ekspertlari ham Xitoy milliy iqtisodiyoti salohiyati va ishlab chiqarish miqdori jihatidan jahonda 2021-yilda AQSHni quvib o'tishini va 1-o'ringa chiqib olishini ma'lum qilishgan edi, biroq ushbu taxmin pandemiya sabab o'zini oqlamadi.

Shunday qilib, jahon xo'jaligida ham iqtisodiy ham siyosiy bo'lgan eng muhim dolzarb masalalar va muammolar "Katta yettilik" (G7) va "Katta yigirmatalik" (G20) kabi tashkilotlar a'zolarining bevosita ishtirokida maslahatlashiladi va bir to'xtam yakuniy qarorga kelinadi.

Nazorat savollari

1. Sanoati rivojlangan davlatlar guruhiga qaysi mamlakatlar kiritiladi?
2. Sanoati rivojlangan davlatlarning jahon iqtisodiyotidagi o'rnini qaysi ko'rsatkichlar bilan ko'rsatib berish mumkin?
3. "Katta yettilik"ka kiruvchi davlatlarni sanab bering.
4. "Katta yigirmatalik"ka kiruvchi davlatlarni sanab bering.
5. Sanoati rivojlangan davlatlar ishtirokidagi qanday integratsion guruhlarni bilasiz?
6. 2020-yilning boshlarida jahon arenasida qanday tarixiy voqealar ro'y berdi?
7. Jahanoning qaysi mamlakatlarida tarixiy olamshumul ahamiyatga ega bo'lgan "siyosiy-iqtisodiy" shiorlar tatbiq qilingan?

8. “BREKSIT” islohotining mohiyatini ayting.
9. YaIM miqdori jihatidan jahondagi eng yetakchi mamlakatlarni va ularning ko‘rsatkichlarini ayting.
10. “Yevropacha taraqqiyot modeli” amerika modelidan qanday xususiyatlari bilan farqlanadi?
11. “Katta yettilik” va “Katta yigirmatalik” Sammitlari qanday masalalarni muhokama qilishadi?
12. “Katta yigirmatalik”ning so‘nggi Sammitida qanday masalalar muhokama qilindi?
13. Jahonning qaysi mamlakatlari pandemiyaga qarshi kurashishda eng asosiy mamlakatlar bo‘ldi?
14. Pandemiyaga qarshi kurashishda jahonning qaysi mamlakatlari qanday chora-tadbirlarni amalga oshirdi?
15. Pandemiya sharoitida xalqaro tashkilotlar tomonidan qanday ishlar amalga oshirildi?

Uyga vazifa!

Talabaning “Jahon xo‘jaligida rivojlangan mamlakatlarning umumiy xususiyatlari” mavzusini chuqur o‘zlashtirishi hamda amaliyot darsiga puxta tayyorgarlik ko‘rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

- 1) mavzu so‘ngida berilgan “Nazorat savollari”ga tayyorgarlik ko‘rish;
- 2) Jahondagi mamlakatlarning (Yevropa, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidan tanlama ravishda) milliy iqtisodiyotiga pandemianing salbiy ta’siri mavzusi bo‘yicha talabalar guruhlarga bo‘lingan holda “Taqdimot” o‘tkaziladi.

XV BOB. JAHON IQTISODIYOTIDA AQSHNING IQTISODIY SALOHIYATI

- 1. AQSH milliy iqtisodiyotiga umumi sharh va uning iqtisodiy-geografik joylanishuvi.**
- 2. AQSH iqtisodiy rivojlanishining asosiy xususiyatlari.**
- 3. Pandemianing AQSH milliy iqtisodiyotiga ta'siri va unga qarshi kurashish chora-tadbirlari hamda yangi prezidentning rejalar.**
- 4. AQSH milliy iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy omillari.**
- 5. “Amerika modeli” va uning mohiyati.**
- 6. AQSHning Ikkinchı jahon urushidan so‘ng G‘arbiy Yevropa davlatlariga iqtisodiy yordami va “Marshall rejasi”ning ahamiyati.**
- 7. AQSH iqtisodiyoti tuzilmasi va uning asosiy yo‘nalishlari.**
- 8. AQSH-Xitoy o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarining zamonaviy xususiyatlari va undagi muammolar.**

Tayanch iboralar: iqtisodiy-geografik holati, xomashyo va mineral resurslar, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, “Marshall rejasi”, “Buyuk Depressiya”, “Qora payshanba”, milliy iqtisodiyot, jahon iqtisodiyoti, jahon xo‘jaligi, globallashuv, NAFTA.

15.1. AQSH milliy iqtisodiyotiga umumi sharh va uning iqtisodiy-geografik joylanishuvi

Amerika Qo‘shma Shtatlari ko‘plab iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha jahonning eng yetakchi mamlakati hisoblanadi. Masalan, jahon bo‘yicha iqtisodiy salohiyati jihatidan eng kuchli bo‘lgan, ya’ni milliy iqtisodiyotining salohiyati, tabiiy resurslarga boyligi, YaIM va boshqa o‘nlab iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha jahon iqtisodiyotida yuqori o‘rinlarda turadi. AQSH jahonda biznes olib borish uchun eng qulay mamlakat hisoblanadi. U jahondagi eng nufuzli tashkilot hisoblangan “Katta yettilik” tashkilotining a’zosidir.

AQSHning umumi yer maydoni 9,4 mln.kv.kmni tashkil qilib, yer maydonining kattaligi jihatidan jahonda Rossiya, Kanada va Xitoydan so‘ng 4-o‘rinda turadi. Aholi soni bo‘yicha esa 330,0 kishini tashkil qilib, Xitoy va Hindistondan so‘ng 3-o‘rinda turadi. Umumiyligi

aholining 192 mln. kishisi ishga layoqatli aholi hisoblanadi.

Yirik industrial shaharlari: Nyu-York (dunyodagi eng yirik dengiz port va aeroportlari joylashgan, moliya va turizm markazi), Los-Anjeles (jahon ommasining “Orzular shahri”), Chikago, Filadelfiya, San-Frantsisko, Mayami, Dstroyt (XIX asr oxirlarida jahon xo‘jaligida Genri Ford tomonidan qurilgan eng 1-avtomobil zavodi, hozirda Dstroytni “jahon avtomobil poytaxti” deyishadi), Dallas, Vashington (poytaxt), San-Diego, Boston, Xyoston, Atlanta, Sietl va boshqa yirik shaharlar kiradi.

AQSHning jahon xaritasida joylashgan o‘rni



AQSH 50 ta shtatlardan tashkil topgan. Shu bilan birga, 2020-yilda Markaziy Amerika mintaqasida joylashgan Kosta-Rika mamlakati AQSHga “51-shtat” sifatida kirishni AQSH hukumatiga rasman murojaat qilgan. Ushbu murojaat AQSH hukumati tomonidan 2022-yilda ko‘rib chiqilishini Kosta-Rika hukumatiga ma’lum qilgan.

YaIM miqdori jahon iqtisodiyoti bo‘yicha eng ko‘p miqdorni tashkil qilib, ushbu ko‘rsatkich 1998-yilda 7,7 trln. dollarni tashkil qilgan bo‘lsa, 2019-yilga kelib 21,4 trln. dollarga yetdi. Uning 21 yil davomidagi YaIM miqdori qariyb 3 barobarga oshdi. Aholi jon boshiga daromadi 58 ming dollardir. Umumiy tashqi savdo miqdori – 4,2 trln. dollar bo‘lib, bundan eksporti – 1,6 trln. dollar va importi esa

2,6 trln. dollarni tashkil qiladi. Import miqdori eksport miqdoriga qaraganda salmoqli darajada ustundir.

Eksportining 9 foizini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, 27 foizi sanoat mahsulotlari (texnika, samolyotlar, kompyuterlar, telekommunikatsiya), 49 foizi aholi iste’moli mahsulotlari (avtomobillar, medikamentlar) va qolgan 15 foizi xizmat ko‘rsatish sohasi tashkil qiladi. Eksportdagi asosiy tashqi hamkor mamlakatlari: Kanada (21 foiz), Meksika (14 foiz), Xitoy (8 foiz) va boshqa mamlakatlari.

15.1 - jadval

AQSHning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari

T/r	Asosiy ko‘rsatkichlar va xususiyatlari	Miqdori va belgilari
1	YaIM miqdori (mln.doll) ⁵⁷	21 427,7
2	YaMMning aholi jon boshiga (doll.) ⁵⁸	65 760
3	Umumiy tashqi savdo aylanmasi (mlrd.doll.)	4 211,8
4	Eksporti (mlrd.doll.)	1 644,3
5	Importi (mlrd.doll.)	2 567,5
6	Eng asosiy tashqi savdo hamkorlari	Kanada, Xitoy va Meksika
7	Valuta zaxirasi (mlrd.dollar) ⁵⁹	516,7
8	Tashqi qarzi (mlrd.doll.) ⁶⁰	25 717,1
9	Aholi soni (mln. kishi) ⁶¹	330,0
10	Umumiy yer maydoni (ming km.kv.) ⁶²	9 363,0
11	Ishsizlik darajasi (foiz)	18
12	Milliy valutasi (pul birligi)	AQSH dollari
13	Mamlakat poytaxti	Vashington
14	Rasmiy davlat tili	Ingliz tili

Manba: ushbu jadval ma’lumotlar asosida ishlab chiqilgan.

Importining 33 foizi sanoat mahsulotlari (neft xomashyosi – 9 foiz), texnikalar – 30 foiz (kompyuter, telekommunikatsiya, samolyot

⁵⁷ Gtmarket.ru/ratings/gross-national-income-ranking

⁵⁸ https://data.worldbank.org/indicator/NY.GNP.PCAP.CD

⁵⁹ https://nonews.co/directory/lists/countries/gold

⁶⁰ https://ru.m.wikipedia.org/wiki/%DO%A1%DO%BF%DO%B8%

⁶¹ https://ru.m.wikipedia.org/wiki/Spisok_stran_po_naseleniyu

⁶² https://worldgeo.ru/lists/?id=2

va avtomobil ehtiyyot qismlari, 5 foizini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, 32 foizi aholi iste’moli mahsulotlari (kiyim-kechak, dori-darmon, mebel va o‘yinchoqlar) tashkil qiladi. Importdagi asosiy tashqi hamkor mamlakatlari: Xitoy (21 foiz), Kanada (14 foiz), Meksika (13 foiz) va boshqa mamlakatlar.

Eng qizig‘i, AQSH YaIM miqdori bo‘yicha jahonda eng yetakchi bo‘lsa-da, biroq u jahonda eng yirik tashqi qarzdor mamlakatdir. Tashqi qarzdorlik ko‘rsatkichi 2020-yil holatiga ko‘ra 25,7 trln. dollarni tashkil qilgan. Shuningdek, AQSHning yillik daromadi o‘rtacha 3,5 trln. dollar bo‘lsa, uning yillik xarajati 3,0 trln. dollarni tashkil qiladi. Ishsizlik ko‘rsatkich darajasi yuqori bo‘lib, 18 foizni tashkil qiladi. AQSHning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini 15.1-jadval orqali ko‘rish mumkin.

15.2. AQSH iqtisodiy rivojlanishining asosiy xususiyatlari

AQSH XX asrning o‘rtalaridanoq jahonning iqtisodiy va siyosiy yetakchisiga aylandi. Xo‘sh, qanday qilib, degan savol tug‘iladi, albatta. Ikkinci jahon urushidan so‘ng 1950-yillarga kelib jahon iqtisodiyotida yaqqol eng yetakchi mamlakatga aylandi, chunki uning asosiy raqobatchisi hisoblangan Buyuk Britaniya Ikkinci jahon urushi tufayli o‘z mavqeini yo‘qotdi va jahon xo‘jaligidagi siyosiy-iqtisodiy hukmronligini AQSHga topshirib qo‘ydi.

AQSHning dunyodagi yetakchi davlatga aylanishining yana bir asosiy sabablaridan biri Yevropa mamlakatlarini iqtisodiy salohiyatiga qattiq zarba bergen Birinchi jahon urushi va Ikkinci jahon urushlari edi. AQSHning asosiy raqiblari o‘zaro urushlar oqibatida raqobat kurashidan chetga chiqib qoldilar. AQSH esa, iqtisodiyotning rivojlanishida erkin bozor munosabatlarining mavjudligi, o‘z hududida jahon urushlarini ko‘rmaganligi hamda davlatning iqtisodiyotga o‘z vaqtida aralashuvi tufayli siyosiy va iqtisodiy mavqeい jihatidan jahonda 1-o‘ringa chiqib oldi.

AQSH jahonning ko‘plab mamlakatlariga urushdan aziyat chekkan va tiklanish davri qiyin bo‘lgan mamlakatlarga iqtisodiy va beg‘araz yordamlarni, xususan: G‘arbiy Yevropa mamlakatlariga va Osiyoning Yaponiya, Koreya (Janubiy Koreya), Filippin, Tayvan, Indoneziya, Tailand kabi mamlakatlarga berdi. Albatta, ushbu berilgan yordamlarning negizida o‘sha mamlakatlar bilan strategik hamkorlik

hamda uning hududlarida AQSHning harbiy bazalarini joylashtirish kabi manfaatlar yotardi. AQSHning iqtisodiy yordami va maslahatlari bilan Yaponianing iqtisodiy tez taraqqiyotiga, ya’ni “iqtisodiy mo‘jiza”si sabab bo‘ldi. Shuningdek, bugungi kunda “To‘rt ajdarho mamlakatlari” qatoridan o‘rin olgan Tayvanni 1950-yillarda Xitoydan ximoya qilib uning tez iqtisodiy taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shdi. Bundan tashqari, AQSH G‘arbiy Yevropa davlatlariga “Marshall rejasi” doirasida sezilarli darajadagi yirik moliyaviy yordam ko‘rsatib, ularning milliy iqtisodiyotini tiklashga ko‘maklashdi.

Ikkinci jahon urushidan so‘ng, AQSHda urushdan oldin va urush mobaynida olingan va keltirilgan Yevropa davlatlarining oltin zaxiralari ko‘rinishidagi yirik moliyaviy aktivlar to‘plandi. Masalan, 1942-yilda AQSHning harbiy va iqtisodiy yordami uchun sobiq Ittifoq o‘sha davr uchun ulkan yirik mablag‘ni “Lend-Liz” bitimiga muvofiq “oltin” mahsuloti ko‘rinishi hisobida bergen. Milliy valutani oltin bilan qoplash imkoniyatiga ega bo‘lgan AQSH 1944-yilda Bretton-Vuds valuta tizimi yetakchisiga aylandi. Bu tizim AQSH dollarini jahon to‘lov va zaxira valutasi sifatida hukmronligini o‘rnatishga imkon yaratdi.

Shunday kilib Yevropadan okean ortiga oqib o‘tgan yirik investitsiyalar AQSHning “ikkinci iqtisodiyoti”ni shakllantirdi. Ishlab chiqarish va moliyaviy salohiyatiga ko‘ra, Amerika korporatsiyalarining bo‘limlari va sho‘ba korxonalariga asoslangan “ikkinci iqtisodiyoti” dunyodagi yetakchi mamlakatlarning milliy iqtisodiyotidan qolishmaydi. AQSHning jahonda siyosiy va iqtisodiy sohada birinchi o‘ringa olib chiqqan F.Ruzvelt AQSH tarixidan munosib joy oldi.

1945-1962-yillarda (G.Trumen va D.Eyzenxaurlarning prezidentlik davrlari) AQSH davlat budgetidan samarali tarzda va moliyaviy vositalardan minimal ravishda foydalandi hamda Keyns nazariyasi buyicha budget kamomadi kiritilgan. Bu davr AQSH iqtisodiyoti tarixida - “Passiv antitsiklik budget makrosiyosati” deb ataldi.

1962-1977-yillarda (J.Kennedi, L.Jonson, R.Nikson, J.Fordlarning prezidentlik davrlari) davlat budgetidan foydalangan holda yalpi talab faol ravishda tartibga solingan. Yuzaga kelgan kichik iqtisodiy inqirozlar paytida davlat daromadlari kamaytirilib, hukumat xarajatlari oshirilgan hamda iqtisodiy o‘sish paytida esa tushumlarni oshirib,

xarajatlar qisman qisqartirilgan edi. Bu davr “Klassik budget faolligi” davri deb ataldi.

1961-1963-yillarda J.Kennedi iqtisodiy o’sishni tezlashtirish va ishsizlikni qisqartirish uchun yalpi talabga bevosita budget tomonidan ta’sir ko’rsatish siyosatiga o’tdi. Bu siyosat amerikalik iqtisod-chilarning ta’biri bilan aytganda “Keyns fiskalizmi” nomini oldi.

1963-1968-yillarda L.Jonson bundan oldingi davrdagi “Keyns fiskalizmi”ni davom ettirdi. Unda Federal budget mablag’larini YaIMning o’sish darajalarini barqarorlashtirish uchun foydalanildi. Biroq “sovuz urush” davri nihoyatda tang ahvolga kelib qolganligi hamda AQSH-Vietnam urushi harakatlari bo’layotganligi sababli asosiy xarajatlar harbiy mudofaa sanoatiga yo’naltirildi. Shuningdek, sog’liqni saqlash va ta’lim sohalariga bo’lgan e’tibor ham chetda qolmadi.

1969-1973-yillarda R.Nikson davrida YaIM miqdorining sezilarli darajadagi o’sishi kuzatildi. Ushbu davrda bank foiz stavkalari, aholi iste’moli mahsulotlari, turli tovar va xizmatlarning narxi hamda oylik maoshlaridagi o’sishlar “muzlatildi”.

1973-1977-yillarda hukumat tepasiga kelgan J.Fordga ancha qiyin bo’ldi. Chunki 1973-1974-yillarda jahon xo’jaligida yuzaga kelgan Birinchi neft inqirozi YaIMning pasayishiga olib keldi. AQSH iqtisodiyoti sezilarli darajada inqirozga yuz tutdi. Davlat budgetidan yo’naltirilgan asosiy xarajatlar asosan sanoat tarmoqlarini sog’lomlashtirishga va ishlab chiqarish sohalarini bir tizimga keltirish uchun safarbar qilindi.

1978-1980-yillarda (J.Karter prezidentlik davri) iqtisodiy taraqqiyot uslubi J.Kennedi paytidagi “Klassik budget faolligi”ga kaytildi. Prezident J.Karterning fikricha, sotuv qobiliyatini qo’llab-quvvatlash uchun vaqtı-vaqtı bilan budget kamomadi zarur, ammo uzoq muddatli budget kamomadi inflatsiyani chuqurlashtirish mumkin.

Ushbu davrda uzoq muddatli strategik maqsad sifatida kamomadsiz budget tanlandi. Unga erishish uchun federal xarajatlarni boshqarish va nazorat qilish kiritildi va soliqlar qisqartirildi. Ammo amalda budget kamomadi va inflatsiya darajasini kamaytirishga imkon bo’lmadi. Bu davr – “Keynscha budget konservativmi” deb ataldi. Iqtisodiyotda inflatsiya bilan ishsizlikka qarshi chora-tadbirlar amalgalashirildi. Iqtisodiyotga ichki investitsiyalar ulushini ko’paytirish

maqsadida amerikalik ishbilarmonlar uchun bir qator soliq imtiyozlari joriy qilindi. Inflatsiya darajasining yuqoriligi, iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi, davlat moliysi holatining yomonligi Keynscha yondashuvning makroiqtisodiy jarayonlarga barqarorlashtiruvchi ta'sirini yo'qolishiga olib keldi. Rivojlanishning Keynscha modelini o'zgartirish zaruriyati tug'ildi. Bu model "Konservativ iqtisodiy inqilob" boshlanishi bilan almashdi.

1981-1992-yillarda (R.Reygan va J.Bush prezidentlik davrlari) milliy iqtisodiyot taraqqiyotini amerikalik olimlar "Rivojlanishning nokonservativ boskichi" deb atadilar. Prezident R.Reygan tomonidan "Reyganomika" deb nomlangan islohotlarning amalga oshirilishi iqtisodiyotni sog'lomlashtirish va tashqi iqtisodiy munosabatlardagi mavqeni qayta tiklanishiga sabab bo'ldi. "Reyganomika"ning asosiy dasturlari amerikaliklarda tadbirkorlik va mehnat faoliyatiga rag'bat hosil qildi va davlatning iqtisodiyotga samarasiz aralashuvini kamaytirdi.

"Reyganomika" konsepsiysi quyidagi uchta asosiy vazifani hal qilishni nazarda tutar edi:

- inflatsiya ko'rsatkich darajasini kamaytirish;
- iqtisodiy o'sish darajasini va mehnat unumdarligini hamda bandlikni oshirish;
- federal budget barqarorligini ta'minlashdan iborat bo'ldi.

R.Reygan tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar quyidagi qismlardan iborat edi:

- kuchli pul-kredit siyosati natijasida inflatsiya darajasini kamaytirish imkonini berdi. Boshlanishiga foiz stavkalarining ko'tarilishi mamlakatga xorijiy investitsiyalarni jalb qilib, sanoatni modernizatsiya qilish imkonini berdi. Keyinchalik esa, iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish uchun foiz stavkalari kamaytirildi;

- soliq siyosati tadbirkorlik faolligini oshirdi, amortizatsiyaning hisoblashning yangi usuli uskunalarini tez yangilash imkoniyatini yaratdi. Federal soliqlar stavkalari sezilarli ravishda kamaytirildi. Soliq stavkalarining pasaytirilishi jamg'arma va investitsiyalar darajasini oshirib, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirdi. Ijtimoiy siyosatni qayta ko'rib chiqilishi, ijtimoiy infratuzilmaga federal xarajatlarning kamaytirilishi amerikaliklarni yanada faolroq ishlashga undadi.

"Reyganomikaning" asosiy strategik elementi bu – fan va ilmni

rivojlantirish maqsadida ilmiy-tekshirish institutlariga davlat xarajatlarini oshirish va sohani qo'llab-quvvatlashdan iborat edi. “Reyganomika” dasturi qator iqtisodiy muvaffaqiyatlarga sabab bo‘lgan bo‘lsa-da, eng asosiy maksad - federal budget kamomadini yo‘qotish rejasi amalga oshmadi.

1992-2000-yillarda (B.Klinton prezidentlik davri) iqtisodiyotda birmuncha barqaror iqtisodiy holat kuzatilib, ushbu yillarda YaIM miqdori yuqori o‘sish ko‘rsatkichlar bilan o‘sib bordi. Albatta, mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy hamda infratuzilma sohalari yanada yaxshilanishiga olib keldi. Ishchi-mutaxassislarining oylik maoshlari ketma-ket 2 marta oshirilganligi sababli ishsizlikka ham barham berildi. 1998-yilda AQSHda “Sug‘urta tizimi” joriy qilinib, ishsizlikka duchor bo‘lgan yoki o‘z ish o‘rnini yo‘qotgan amerikaliklar uchun ijtimoiy to‘lov mablag‘lari joriy qilish tartibi belgilandi. Davlat budgetidan yo‘naltirilgan asosiy mablag‘lar fan va texnika, ta’lim va sog‘liqni saqlash, uy-joy qurilish va yoshlar uchun yangi ish o‘rinlarini yaratish maqsadida yo‘naltirildi.

2000-2008-yillarda davlat tepasiga kelgan J.Bursh (kichik) milliy iqtisodiyotni liberallashtirishdan va qayta isloh qilishdan boshladi. Sug‘urta tizimi qisman xususiylashtirildi. 10 yilga mo‘ljallangan jami 1,35 trln. dollar miqdoridagi soliq to‘lovlarini kamaytirish haqidagi “Soliqlarni kamaytirish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Masalan, qonunda dividendlardan olinadigan soliq to‘lovleri 2 marotabaga kamaydi.

Ushbu yillarida jahonda yuzaga kelgan siyosiy inqirozlar natijasida (AQSH-Iraq) “Oq uy” ma’muriyati milliy mudofaa uchun va jahondagi “terrorizm faoliyatiga qarshi kurash” uchun juda yirik mablag‘larni yo‘naltirishga majbur bo‘ldi. 2006-yilda budget xarajatlarining 427,0 mlrd. dollar miqdoridagi mablag‘ harbiy xarajatlar uchun yo‘naltirildi⁶³.

Masalan, 2001-yilning 11-sentabrda Nyu-York va Washingtonda ro‘y bergen terakt jarayonlari yuzasidan Pentagon AQSH Kongressidan 2001-yilning 14-sentabr kuni milliy mudofaani himoya qilish uchun qo‘srimcha 20 mlrd. dollari miqdorida mablag‘ talab qilgan edi. Amerikalik fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash

⁶³ Kiani K.M. On business cycle fluctuations in USA macroeconomic time servies//Economic modeling. 2016. Vol.53-P.179-186.

maqsadida Kongress Pentagon (AQSH Harbiy qo‘mondonligi) so‘ragan mablag‘ni ikki marotaba ortiq bo‘lgan 40 mlrd.dollari miqdordagi mablag‘ni “bir ovozdan” ma’qullab ajratdi. Ma’lumki, 2001-yilning 11-sentabrida ro‘y bergen terakt natijasida AQSH iqtisodiyotiga yetkazilgan zarar qariyb 60 mlrd. dollarni tashkil qilgan. Terakt natijasida Juhon savdo markazi inshooti, ya’ni “Egizaklar” binosining umumiyligi qiymati 1,1 mlrd. dollarni tashkil qilgan edi.

2008-2016-yillarda davlat tepasiga kelgan B.Obama davrida, 2008-yilda AQSHda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz (ipoteka kreditlari fonida yuzaga kelgan) iqtisodiyotning rivojlanishini deyarli 2-yil davomida sezilarli darajada to‘xtatib qo‘ydi. 2009-yildan 2019-yilgacha milliy iqtisodiyot barqaror taraqqiy etib keldi. AQSH iqtisodiyotining 2009-2019-yillardagi iqtisodiy taraqqiyoti o‘z tarixidagi eng uzoq iqtisodiy rivojlanish davri bo‘ldi. B.Obama tashqi iqtisodiy siyosatda asosan Sharqiy Yevropa va Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasi mamlakatlariga e’tiborni qaratdi. Hatto 2013-yilda B.Obama AQSH siyosatining nigohi Osiyoga yo‘naltirilganligini e’lon qildi.

2017-2020-yillarda AQSH Prezidenti D.Tramp tomonidan amalga oshirilgan va uning iqtisodiy tarixda qolgan ishlari bu – mamlakatdagi “milliarder”larni hamda yuqori daromadli ishbilarmonlarni soliqqa tortishda imtiyozlarni joriy qilganligidir. Bundan tashqari, 2015-yilda imzolangan global iqlimga qarshi kurashda jahon mamlakatlari tomonidan imzolangan “Parij kelishuvi”dan 2020-yilning noyabridan AQSH rasman chiqib ketdi. Shuningdek, D.Tramp Juhon sog‘liqni saqlash tashkilotini pandemiyaning jahonga tarqalishida ayblab ushbu tashkilotdan AQSH rasman 2021-yildan chiqib ketganligini e’lon qildi.

Biroq 2021-yildan AQSH xukumati tepasiga J.Bayden kelgach, sobiq Prezident D.Tramp davrida joriy qilingan bir qator qonunlarni bekor qildi, jumladan: AQSH-Meksika chegarasida qurilayotgan devor qurilishi loyihasini to‘xtatdi (loyihaga 2,5 mlrd.dollar mablag‘ ajratilgan edi), AQSHning Juhon sog‘liqni saqlash tashkilotiga qayta a’zo bo‘lib kirishini ta’minladi hamda “Parij kelishuvi”dagi ishtirokini o‘z kuchida qoldirdi.

15.3. Pandemianing AQSH milliy iqtisodiyotiga ta'siri va unga qarshi kurashish chora-tadbirlari hamda yangi prezidentning rejalari

2020-yilda yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz AQSH milliy iqtisodiyotiga juda ham katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. D.Tramp rahbarlik qilgan yillarda AQSH iqtisodiyoti juda og'ir sinovlarni boshidan kechirdi, ayniqsa pandemiya davrida. Pandemiya va inqirozga qarshi kurashish hamda milliy iqtisodiyotni barqarorlashtirish maqsadida 2,3 trln. dollar yo'naltirildi. Ushbu mablag' AQSH milliy iqtisodiyoti tarixida qisqa davr uchun yo'naltirilgan rekord mablag' bo'ldi. Pandemianing og'ir oylarida ishsizlar soni 36 million kishiga yetdi va 85 foiz ishlab chiqarish kamida 2 oyga vaqtinchalik majburiy to'xtatildi. Ishsizlik darajasi ko'rsatkichining bu qadar yuqoriligi AQSH iqtisodiyoti tarixidagi antirekord ko'rsatkich bo'lib, hatto 1929-yilda ham bu qadar yuqori bo'lmasan.

AQSH pandemiya davrida iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash uchun ko'plab yirik mablag'larni ajratishga majbur bo'ldi. "The Xill" ma'lumotiga ko'ra, 2020-yilning so'nggi oyida iqtisodiy inqirozdan chiqish va pandemiya sharoitida milliy iqtisodiyotni kuchaytirishga qaratilgan tezkor choralar uchun AQSH Moliya vazirligi 2021-yil uchun qo'shimcha 916 mlrd.dollar ajratilishini Kongressga taklif qildi va ushbu yordam paketi bir ovozdan tasdiqlandi. Ushbu mablag'lar AQSH aholisiga pandemiya davridagi inqirozni yumshatish uchun taqdim etildi, ya'ni fuqarolarga 600 dollardan tarqatildi. Shuningdek, ishsizlar uchun haftasiga 300 dollardan berilishi belgilandi. Yana 300 mlrd.dollar biznesni qo'llab-quvvatlash, vaksinani joylarga yetkazib berish xarajatlari, maktablar, tibbiyot markazlari uchun ajratildi. Bu pandemiya boshlangandan buyon AQSH fuqarolariga yo'naltirilayotgan ikkinchi "yordam dasturi"dir⁶⁴.

D.Tramp AQSHning pandemiyani og'ir ahvolga kelib qolishida Juhon sog'liqni saqlash tashkilotini aybdor sifatida ko'rsatdi hamda mazkur tashkilotga to'lanadigan yillik a'zolik badalining eng ko'p miqdorini AQSH berayotganligi sababli, ushbu tashkilotdan rasman 2021-yildan chiqib ketishini ma'lum qildi. Davlat budgetidan sarf-

⁶⁴ <https://thehill.com/homenews/senate/531090-congress-passes-one-day-stopgap-bill-ahead-of-shutdown-deadline>

xarajatning asosiy qismi inqirozga qarshi kurash uchun yo'naltirilayotgan bir paytda yana bir muammo yuzaga keldi, ya'ni ichki hududlarda ro'y bergan siyosiy inqiroz yana qo'shimcha mablag'larni yo'naltirishga olib keldi. 2020-yilning o'rtalarida "qora tanli" fuqaroni mahalliy politsiya tomonidan ayovsiz kaltaklanib halokatga uchratishi natijasida, butun AQSHning barcha shaharlarida xalqning ommaviy ravishda noroziliklari natijasida infratuzilma tizimi qisman izdan chiqdi. Yuzaga kelgan ichki siyosiy inqiroz 2-3 oy davom etdi va bu mahalliy hukumatlarning pandemiya sharoitida ichki siyosiy inqirozdan zarar ko'rgan infratuzilma, inshootlarni qayta ta'mirlashga qo'shimcha va ko'zda tutilmagan mablag'larni yo'naltirishga majbur bo'ldi.

2021-yildan boshlab AQSH tarixidagi eng yoshi ulug' davlat rahbari hisoblangan Jo Bayden, bundan avvalgi yillardagi kamchiliklardan xulosa chiqarib, uning eng bиринчи amalgа oshiradigan ishlaridan biri sifatida - koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashning uzoq muddatli dasturini tatbiq qilish, millionlab ishchi o'rinalarini yaratish, global iqlimga qarshi kurash bo'yicha Parij kelishuviga qaytish, immigratsiya siyosatini yumshatish, musulmon davlatlariga immigratsiya cheklovlарini bekor qilish, pul-kredit siyosatida chora-tadbirlarni amalgа oshirish lozimligini ma'lum qildi.

Shuningdek, mamlakatdagi fuqaroligi bo'lмаган va uzoq 10 yildan ortiq Amerika diyorida ishlab va yashab kelayotgan 22,3 million "muhojir aholi"ga "amerika fuqaroligi" berilishini targ'ib qilgan edi. Bundan tashqari, AQSH Prezidenti Jo Bayden o'zining rahbarligidagi dastlabki 100 kunni asosan migratsiya islohoti va koronavirusga qarshi kurashish ishlari bilan boshlagan. U AQSHning sobiq Prezidenti D.Tramp davridagi ba'zi farmonlar iqlim va inson salomatligiga zarar yetkazgan deb hisoblaydi hamda uning bir qator shu kabi ishlarini vaqt o'tishi bilan bekor qildi. Jumladan Meksika bilan chegara hududlarida "Devor qurilishi" loyihasi to'xtatildi, Parij kelishuviga qaytildi.

Xo'sh, J.Bayden ushbu bekor qilingan tarixiy farmon va hujjalarga kengroq to'xtalib o'tsak maqsadga muvofiqdir.

Demak, 2021-yildan lavozimiga kirishgan AQSH Prezidenti Jo Bayden faoliyatining bиринчи kuni jami 17 ta farmon, memorandum va ijro ko'rsatmalarini imzoladi. Ularning to'qqiztasi avvalgi prezident

D.Trampning farmoyishlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri bekor qiladi. Ularning ko‘philagini bekor qilish haqida J.Bayden saylov oldi kampaniyasi chog‘idayoq, shuningdek, saylanganidan keyin ham jamoatchilik oldida va‘da bergen edi.

Iqlim bo‘yicha Parij bitimi 2016-yilda 195 ta mamlakat tomonidan imzolangan bo‘lib, uning asosiy vazifasi yerdagi o‘rtacha haroratning o‘sish darajasini sanoatgacha bo‘lgan davrdan ikki daraja chegarasida saqlab turishdan iborat edi. AQSH bitim doirasida boshqa rivojlangan mamlakatlar bilan birga maxsus jamg‘armani moliyalashtirish majburiyatini olgan edi, bu jamg‘armaning mablag‘lari bitim shartlarini amalga oshirishda yordam berish uchun kam ta’milangan mamlakatlarga yo‘naltiriladi. D.Tramp 2016-yilda saylov oldi kampaniyasi vaqtdayoq bitimdan chiqishni o‘zining asosiy saylov oldi va’dalaridan biriga aylantirdi. Bo‘lg‘usi prezident J.Bayden global isishni inkor etmagan holda, hujjat AQSH (u Xitoy bilan birga dunyodagi jami karbonat angidrid chiqindilarining 40 foizi uchun javobgar) uchun o‘ta foydasiz ekanligini, chunki millionlab ishchi o‘rirlari va milliardlab dollarni yo‘qotishga olib kelishini ma’lum qildi.

AQSH bitimdan chiqishi haqida D.Tramp rasman 2017-yil avgustida e’lon qilgan, ammo bitim shartlariga ko‘ra, undan chiqqunigacha kuchga kirgan vaqtidan buyon kamida uch yil vaqt o‘tgan bo‘lishi kerak edi. Shu sababli 2019-yil noyabrida AQSH BMTga kelishuvdan chiqishi haqidagi rasmiy bildirishnomani topshirdi va yana bir yildan keyin nihoyat undan chiqdi. 2021-yil 20-yanvar kuni Bayden Oq uy saytidagi bayonotida AQSH nomidan Parij bitimining barcha nizomlariga roziliginini ma’lum qildi.

Shuningdek, J.Bayden AQSHning Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotidan chiqishini bekor qildi. 2020-yil aprelda D.Tramp koronavirus pandemiyasi boshlangani uchun Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST)ni javobgar qildi. AQSHning o‘sha vaqtdagi prezidenti fikricha, tashkilot virus Xitoyda paydo bo‘lganidan keyin uning dunyo bo‘ylab tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik vazifasini bajara olmagan. O‘shandayoq Tramp AQSH tomonidan JSSTga beriladigan moliyaviy yordamni muzlatib qo‘ydi, shungacha AQSH tashkilotning eng yirik donori bo‘lib, budgetining, taxminan, 15 foizini ta’milab bergen. 2020-yil mayida D.Tramp JSSTni to‘liq Xitoy tomonidan

nazorat qilinishda aybladi (Xitoyning tashkilot budgetiga qo'shadigan hissasi AQSHnikidan 10 marta kamroq) va undan Pekinga "bog'liq emasligini isbotlab", JSSTning o'zida islohotlar o'tkazishni talab qildi. Oradan ikki hafta o'tar-o'tmas, tashkilot islohotlardan bosh tortganini aytib, AQSH u bilan aloqalarini uzishini ma'lum qildi. J.Baydenning koronavirus pandemiyasiga qarshi kurash chorralari haqidagi yangi farmoni federal hukumatga JSST bilan aloqalarni qayta tiklash va mustahkamlashni yuklaydi.

J.Bayden yana bir hujjatni, ya'ni Meksika bilan chegarada devor qurilishini to'xtatdi. Meksika bilan chegarada devor qurish D.Trampning eng mashhur saylov oldi va'dasi bo'lgandi. Uni bajarish uchun prezident Kongress bilan to'g'ridan to'g'ri ziddiyatga bordi: 2018-yilda u budgetni imzolashdan bosh tortib, unga devor uchun ketadigan 5,7 mlrd.dollar miqdoridagi xarajatlar kiritilishini talab qildi. Oxir-oqibat budget o'z vaqtida qabul qilinmadni, shu sababli AQSHda rekord darajadagi 23 kunlik shatdaun (AQSH hukumati ishining qisman to'xtab qolishi) yuzaga keldi. Shundan keyin Tramp federal favqulodda holat rejimini joriy qilib, devor uchun pul sarflash huquqini qo'lga kiritishga urindi, ammo uni sud bekor qildi. Yakunda devor qurilishi uchun pulning bir qismini D.Tramp boshqa yo'l bilan - Kongress tomonidan mudofaa uchun ajratilgan xarajatlarni qayta taqsimlash yordamida qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi. Buning uchun 2019-yilda Tramp Amerika - Meksika chegarasi hududida mahalliy favqulodda holat rejimini e'lon qildi. J.Baydenning yangi farmoni ushbu rejimni va shu bilan mablag' ajratishni bekor qildi.

Bundan tashqari, J.Bayden AQSHga ba'zi nochor mamlakatlar fuqarolarining kirishiga ruxsat berdi. 2017-yil yanvarida lavozimiga kirishganidan keyin darhol D.Tramp immigrantlar oqimini cheklash bo'yicha saylov oldi dasturini bajarish doirasida aholisining asosan musulmon bo'lgan yetti mamlakat - Iroq, Eron, Yaman, Liviya, Suriya, Somali va Sudan fuqarolarining AQSH hududiga kirishini taqiqlaydigan farmonni chiqargan edi. Allaqaqachon AQSH hududida bo'lganlar esa deportatsiya qilinishi kerak edi. Farmon ommaviy da'volarga va uning ijro etilishiga nisbatan sud taqiqlariga sabab bo'ldi, shundan keyin u bir necha marta qayta yozilib, mamlakatlar ro'yxati va viza berilmasligi shartlari o'zgartirildi, 2017-yil dekabrida esa AQSH Oliy sudi uning oxirgi versiyasini Konstitutsiyaga zid deb

topdi. Unda faqat KXDR va Suriya aholisining AQSHga kirishi bo'yicha to'liq taqiq qoldi; Chad, Liviya va Yaman fuqarolariga sayyohlik vizalari berilishi to'xtatildi. Baydenning yangi farmoni Trampning 2017-yil 25-yanvardagi qarorini to'liq bekor qiladi.

Shuningdek, D.Tramp Kanadadan AQSHga keladigan neft quvuri qurilishi uchun berilgan ruxsatni J.Bayden tomonidan bekor qilindi. Keystone neft quvurining rejalahtirilgan to'rtinchi bosqichi – "Keystone XL" Kanada neftini Texasdagi sanoat korxonalariga haydash uchun Kanadaning Alberta provinsiyasini Amerikaning Nebraska shtati bilan bog'lashi kerak edi. Ekologlar va Shimoliy Amerika tub xalqlaridan iborat mahalliy aholi ko'p yillar davomida neft quvurining qurilishiga qarshilik qilib kelgan. Uning taxminiy yo'nalishi AQSHdagi eng yirik yer osti suvlari zaxiralari joylashgan hududlardan o'tadi. Bundan tashqari, u yerda noyob Sendxills qumtepaliklari joylashgan va "Keystone XL"dagi har qanday avariya yirik ekologik halokatga aylanishi mumkin. Ko'p yillar davom etgan ommaviy muhokamadan keyin Barak Obama o'z muddatining so'ngida loyihadan AQSH xavfsizligi manfaatlariga to'g'ri kelmaganligi uchun voz kechishga qaror qildi, ammo Tramp lavozimidagi birinchi oydayoq quvurning qurilishiga ruxsat beruvchi farmonni imzoladi (lekin qurilish ko'p sonli sudlar va noroziliklar tufayli baribir boshlanmadı). Shu farmonni Bayden iqlim muammolari haqidagi umumiyl hujjat doirasida bekor qildi. Baydenning qurilishdan voz kechish haqidagi qarori allaqachon Kanada hukumati tomonidan tanqidga uchradi.

Pandemiya sharoitida inqirozga qarshi ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, AQSH iqtisodiyoti 2020-yil yakunlariga ko'ra 3,5 foizga pasaygan. Bu ikkinchi jahon urushi davridan buyon qayd etilgan eng yomon natija hisoblanadi. Bungacha iqtisodiy o'sish bo'yicha eng yomon ko'rsatkich 2008-yilda ro'y berib, o'shanda AQSH YaIM 2,5 foizga kamaygan edi. Jahon bankining prognoziga ko'ra, 2021-yilda ham iqtisodiy pasayish yuzaga kelishi bashorat qilingan.

"The Washington Post" gazetasining ma'lumotiga ko'ra, pandemiya tufayli AQSH milliy iqtisodiyoti juda ham og'ir davrni boshidan o'tkazmoqda. AQSHda 10 yillardan buyon moliyalash-tirilmagan infratuzilma achinarli ahvolga kelgan. J.Bayden pande-

miyadan og‘ir shikast ko‘rgan milliy iqtisodiyotni tiklash va rivojlantirish maqsadida Ikkinchi jahon urushidan keyingi eng yirik modernizatsiyalash rejasi loyihasini e’lon qildi. Agarda ushbu loyiha Kongress tomonidan ma’qullanadigan bo‘lsa, u holda 2022-yildan rejorashtirilayotgan dasturlar uchun umumiy miqdorda 2 trln. dollar mablag‘ yo‘naltirishi ko‘zda tutilgan va ushbu reja dasturlar majmuasi to‘rtta toifaga bo‘linadi:

- transport infratuzilmasini rivojlantirish (jami 621 mlrd.dollar, bundan: elektr transportini rivojlantirish – 174 mlrd.dollar; magistrallarni qayta ta’mirlash – 115 mlrd.dollar; temiryo’llar – 80 mlrd.dollar; aeroport va dengiz portlarni modernizatsiyalash – 42 mlrd.dollar yo‘naltiriladi);
- aholi turmush darajasini yaxshilash (jami 650 mlrd.dollar, bundan: suv ta’minoti tizimlarini yaxshilash uchun – 111 mlrd.dollar; elektr tarmoqqlarini rivojlantirish – 100 mlrd.dollar; maktablarni ta’mirlash va qurish – 137 mlrd.dollar yo‘naltiriladi);
- biznes samaradorligini oshirish (jami 580 mlrd.dollar, bundan: ilmiy-tadqiqot loyihalari – 180 mlrd.dollar; mutaxassislarini malakasini qayta tayyorlash dasturi – 100 mlrd.dollar va kichik biznesni rivojlantirishga 400 mlrd.dollar yo‘naltiriladi);
- keksa qariyalarni va sog‘liqni saqlashni qo‘llab-quvvatlash (jami 400 mlrd.dollar mablag‘ keksalar, nogironlar va ularni muhofaza qilish ishlari dasturi uchun jami 400 mlrd.dollar miqdoridagi mablag‘ yo‘naltirilishi ko‘zda tutilgan). Bundan oldin 2017-yilda infratuzilma va ijtimoiy sohalarni yaxshilash maqsadida D.Tramp ham Kogressdan qariyb 1 trpln.dollar mablag‘ni so‘ragan edi.

15.4. AQSH milliy iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy omillari

AQSH milliy iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy omillari quyidagilardan iborat, jumladan:

1. *Mamlakatning iqtisodiy-geografik joylanishuvining qulayligi.* AQSH hududining joylanishuvi va uning ikki tomoni Tinch okeani va sharqda Atlantika okeani suv hafzalari bilan o‘ralganligi, shuningdek, ko‘plab xalqaro dengiz va havo yo‘llarining o‘tganligi bois, uning iqtisodiy taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shdi. Qolaversa, mamlakat hududi juda qulay iqlim sharoitlarga ega bo‘lib, qishloq xo‘jaligining deyarli barcha tarmoqlarini rivojlantirishga imkoniyatlar mavjud.

2. Hukumat tomonidan, iqtisodiy rivojlanish va sanoat ishlab chiqarish siyosatining yuqori darajada tashkil qilinishi. XX asrning 1930-yillarida mamlakat iqtisodiyoti tarixidagi eng yirik inqirozdan xulosa chiqargan holda, AQSH rahbariyati iqtisodiy taraqqiyotda yalpi sanoat ishlab chiqarishning rivojlantirishni hamda zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqarishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

3. Tabiiy resurslar va xomashyolarga boyligi. AQSHda yuzdan ortiq turdag'i foydali qazilma boyliklari mavjud. Tabiiy resurslar orasida qazib olish sanoatida qiymat jihatdan eng katta ulush energiya resurslar (90 foiz) tashkil qiladi, ya’ni neft, ko‘mir, tabiiy gaz va uran kabi xomashyolar. Metallarning 75 foizga yaqini temir rudasi va misga to‘g‘ri keladi. Mahalliy iqtisodiyotning mineral xomashyoga bo‘lgan ehtiyojining 50 foizi import hisobiga qondiriladi.

Mamlakatda yirik neft va tabiiy gaz xomashyolari bo‘lsa-da, lekin ularning qazish faoliyatları sekin darajada o‘zlashtiriladi, buning eng asosiy sabablaridan biri AQSHning ushbu xomashyolarni xorijdan import qilayotganligi bilan izohlanadi. AQSH o‘zining neft zaxiralarini atigi 3 foizigina ishlatgan xolos. Mana bir necha o‘n yillardiki, neft xomashyosi Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasi mamlakatlaridan import qilinmoqda.

4. Transport va aloqa tizimining yuqori darajada rivojlanishi. 1912-yilda AQSH “Panama kanali”ni qurib ishga tushirishi bilan suv transporti floti juda tez sur’atlarda rivojlandi. Bundan tashqari, mamlakatning ikki qirg‘oqbo‘yi hududlarida joylashgan dengiz savdo portlaridagi ish jarayonlarini hajmi yanada oshdi va yuzlab dengiz portlarni ochilishiga olib keldi. Ayniqsa Nyu-York, Los-Anjeles, San-Frantsisko, San-Diego kabi shaharlardagi dengiz portlari yuk tushirish va ortish hajmlari bo‘yicha jahon reytingida yuqori o‘rinlarga chiqdi. Ichki hududlardagi Missisipi va Missouri daryolarida daryo transporti yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, janubiy hududlardan shimoliy hududdagi Buyuk ko‘lgacha bo‘lgan masofalarda ham daryo portlari tashkil qilingan. Mamlakat ixtiyorida 100 ming tonnadan ortiq yuk tashishga moslashgan qariyb 2000ga yaqin eng yirik supertankerlar faoliyat ko‘rsatadi. Mamlakat hududida yuk va yo‘lovchilarni tashishda temiryo‘l transporti hukmronlik qiladi.

Temiryo‘llari uzunligi – 257,7 ming km.ni tashkil qilib, temiryo‘llarning uzunligi jihatidan jahonda 1-o‘rinda turadi, undan keyingi

o‘rinlarda Xitoy – 124,0 ming km.; Rossiya – 85,6 ming km. va Hindiston – 67,4 ming km.ni tashkil qiladi⁶⁵.

Avtomobil yo‘llar uzunligi – 7.149,9 ming km.ni tashkil qilib, qattiq qoplamlali avtomobil yo‘llarning uzunligi jihatidan jahonda 1-o‘rinda turadi, undan keyingi o‘rinlarda esa Hindiston – 5.903,3 ming km.; Xitoy- 5.012,5 ming km.; Braziliya – 1.751,9 ming km.; Rossiya – 1.542,2 ming km. va Yaponiya – 1.197 ming km.ni tashkil qiladi⁶⁶.

Mamlakatning ichki hududidagi suv transport yo‘llar uzunligi – 42 ming km.ni tashkil qiladi.

5. Mehnat resurslarining yetarli ekanligi va milliy iqtisodiyotning rivojlanishida migrantlarning ahamiyati. XX asrning 30-yillarida mamlakatda yalpi ishsizlik hukm surgan edi. 1940-yillarga kelib, mamlakatda ishchi kuchining arzon bo‘lganligi sababli hamma sanoat tarmoqlariga aholi yalpi ish bilan ta’minlandi. Keyinchalik, yuqori malakali mehnat resurslarining ko‘pligi tufayli, asosan zamonaviy industrial tarmoqlarning rivojlanishiga katta ahamiyat berildi. So‘nggi 20 yil davomida yiliga kamida 1 milliondan ortiq migrantlarning tashrifi natijasida ishchi kuchining narxi ham arzonlashdi. AQSHda “qora ishchi” migrantlarning soni yildan yilga ko‘payib bormoqda. Qora ishchilar asosan Lotin Amerikasi mamlakatlaridan tashrif buyurishgan bo‘lib, birgina Meksikadan kelgan qariyb 5 millionga yaqin migrant aholi mavjud.

6. Sanoat tarmoqlarida mahsulotlar ishlab chiqarilishining tez sur’atlarda o‘sishi. 1940- va 1950-yillarning boshlari hamda 1960-yillarning o‘rtalarida Ikkinci jahon urushi va keyinchalik Sharqiy Osiyoda xalqaro siyosiy ahvolning ziddiyatlashuvi AQSH milliy iqtisodiyotiga katta ijobjiy ta’sir ko‘rsatdi va mahsulotlar ishlab chiqarilishi bir necha barobarga oshdi.

7. Fan va texnika sohasining rivojlanishi. 1980-yillardan boshlab bugungi kungacha davlat budgetidan har yili fan va ilmni rivojlantirish maqsadida ilmiy-tekshirish institutlariga yalpi ichki mahsulotning 2-3 foizini ajratmoqda. AQSHda innovatsiya, fanning yutuqlari, raqamli iqtisodiyot va texnika yangiliklarini hamda ulardan ishlab chiqarishda samarali foydalanish uchun sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda asosiy yo‘nalish deb hisoblaydi, shu bilan birga yangi ilm-fan orqali

⁶⁵ https://ru.m.wikipedia.org/wiki/spisok_stran_po_dline_seti_jeleznix

⁶⁶ https://ru.m.wikipedia.org/wiki/spisok_stran_po_dline_seti_avtomobil

erishilgan yangi texnologiya bilan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini dunyo bozori andozalariga mos qilib chiqarishda aks etadi. Yillar davomida shakllangan ilmiy-texnik imkoniyatlarini saqlash, ilmiy-texnik rivojlanishning mintaqaviy va hududiy fondlarini tashkil etish, ilmiy izlanish va tadqiqotlarni olib borish va ular natijasini ishlab chiqarishga joriy qilish kabi omillarga alohida e'tibor berildi.

8. *Moliyaviy xizmatlarning o'sishi*. Mamlakatda ko'plab yirik banklarning faoliyati, jahondagi eng yirik moliya birjalarining aynan AQSH shaharlarida joylashganligi, minglab tijorat banklarning tashkil qilinganligi va ular tomonidan har qanday moliyaviy operatsiyalarni cheklanmagan miqdorda amalga oshirishlari tufayli davlat budgetiga ko'plab miqdorda daromadlar tushadi. Iqtisodiyotda moliyaviy xizmatlarning umumiyligi miqdori bo'yicha jahonda 1-o'rinda turadi. Uning kredit tizimi – jahondagi eng rivojlangan kredit tizimidir. Ushbu tizim davlat va xususiy kredit institutlarini o'ziga jamlagan bo'lib, uning asosiy komponenti - Federal zaxira tizimidir. Federal zaxira tizimi mamlakatda Markaziy bank (1913-yilda tashkil topgan) vazifasini bajaradi.

9. *Turizmnning rivojlanishi*. AQSHda turizm sohasi rivojlangan. Har yili xorijiy rivojlangan mamlakatlardan millionlab sayyoohlар tashrif buyurishadi. Sayyoohlarning tashrif buyurishi bo'yicha jahonda 3-o'rinda, undan daromad olish miqdori bo'yicha esa jahon mamlakatlari ichida 1-o'rinda turadi. Eng asosiy turistik oromgohlar va pansionatlar Florida, Kaliforniya va Gavay shtatlarida tashkil qilingan.

15.5. “Amerika modeli” va uning mohiyati

“Amerika modeli” – uzoq 200 yildan beri asta-sekinlik bilan shakllangan milliy iqtisodiy taraqqiyot modelidir. Uning iqtisodiy taraqqiyotini asosiy davri aynan 1929-yilda ro'y bergan og'ir moliyaviy-iqtisodiy inqirozdan so'ng ro'y beradi. AQSHning iqtisodiy tarixiga nazar tashlar ekanmiz, u o'zining iqtisodiy tarixidagi o'tgan davrlaridan 2020-yilgacha bo'lган davrdagi eng og'ir moliyaviy-iqtisodiy inqirozlaridan biri aynan 1929-yilda ro'y bergan edi. Ushbu inqiroz 1929-yili Nyu-York fond birjasidan boshlangan bo'lib, inqiroz boshlangan kun – payshanba kuni bo'lganligi uchun u iqtisodiy tarixda “Qora payshanba” atamasini olgan edi. 2020-yilgi pandemiya tufayli

yuz bergen iqtisodiy inqirozni ham amerikalik iqtisodchi olimlar 1929-yilgi inqirozdan ham og‘irroq kelganligini ma’lum qilishgan. AQSH iqtisodiyoti uchun juda salbiy bo‘lgan 1929-yilgi ushbu iqtisodiy inqiroz quyidagi oqibatlarga olib keldi:

- mamlakatda ishlab chiqarish deyarli to‘xtab qoldi (1932-yilda 1929-yildagiga nisbatan 2 baravardan ko‘pga qisqardi);
- ishsizlik darajasi kuchaydi (1935-yilda butun ishchi kuchining 25 foizi ishsizlikka duchor bo‘ldi);
- aholining turar-joyi bo‘lmaganlarning aholining soni o‘sdi (1932-yilda 2 mln.dan ortiq kishining uy-joyi yo‘q edi);
- hatto milionerlar soni 513 kishidan 20 tagacha qisqardi va boshqa salbiy oqibatlarni sanab o‘tish mumkin, albatta.

F.Ruzvelt boshchiligidagi AQSH hukumati 1929-33-yillardagi og‘ir inqirozdan so‘ng, yangi iqtisodiy siyosatni joriy qilish bilan milliy iqtisodiyotni rivojlantirish eng asosiy maqsad bo‘ldi. Unga ko‘ra, inqirozdan tezroq xalos bo‘lish va unga barham berish uchun F.Ruzvelt o‘zining mashhur va AQSH iqtisodiyoti tarixidan joy olgan “Yangi kurs” dasturini tatbiq qildi. Ushbu dastur 1933–1940-yillarga mo‘ljallangan va amalga oshirilishi lozim bo‘lgan keng masshtablik iqtisodiy taraqqiyot yo‘nalishlarini o‘z ichiga olgan edi. “Yangi kurs” dasturining mohiyati mamlakat iqtisodiyotini yangicha boshqarish, milliy iqtisodiyotni sog‘lomlashtirish hamda uni ijtimoiy-iqtisodiy tartibga solish bo‘lib, 1929-yilda yuzaga kelgan iqtisodiy inqirozga butunlay barham berishga qaratilgan chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan edi. “Yangi kurs” dasturi quyidagi asosiy yo‘nalishlardan iborat bo‘ldi:
birinchidan, moliyaviy va ijtimoiy qonunlarni joriy qilinishi;
ikkinchidan, milliy iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish;
uchinchidan esa, mintaqaviy siyosatni amalga oshirish edi.

F.Ruzvelt milliy iqtisodiyotni sog‘lomlashtirish maqsadida qo‘sishimcha talabni rag‘batlantirilishi, davlat buyurtmalarining qabul qilinishi va ijtimoiy sektorda ish o‘rinlarini tashkil etilishi hamda milliy daromadni qayta taqsimlab unga tuzatish kiritish lozimligini ta’kidlaydi va zarur deb hisoblaydi. U davlat tepasiga 1933-yilning yanvar oyidan o‘tirdi. F.Ruzvelt avvaliga 1933-yilda “Banklar haqida” qonunini Kongressga taqdim qildi. Keyinchalik, shu yili “Milliy sanoatni tiklash” va “Qishloq xo‘jaligini tartibga solish” qonunlarini kiritdi. 1934-yilda esa “Oltin zaxirasi” haqidagi qonunga imzo chekdi

va oltinga yangi narx belgilandi hamda 1 unsiya oltinning bahosi 35 dollar qilib belgilandi.

Olib borilgan ulkan islohotlar natijasida iqtisodiyotda “katta jonlanish” yuz berib jahon xo‘jaligida “amerika modeli” vujudga keldi. “Amerika modeli”ni oyoqqa turishi va rivojlanish sharoitlari Yevropaga qaraganda ancha farqlanadi, jumladan:

birinchidan, Yevropaga qaraganda AQSH milliy iqtisodiyotiga eski hayotning an'anaviy ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlar bozor tamoyillarining rivojlanishiga ta’sir qilmagan, chunki AQSH hududidagi asl xalqlar bular indeetslardir.

ikkinchidan, Amerika qit’asiga Yevropadan ko‘chib kelganlar o‘zлari bilan tadbirkorlikni, ishbilarmonlikni va sarmoyani qanday ishlatish tajribalarini olib kelganlar.

Qisqasi, 1929-yilda sodir bo‘lgan inqirozga qarshi kurashish chora-tadbirlaridan so‘ng 1933-yildan milliy iqtisodiyotni taraqqiyotida ulkan o‘zgarishlar ro‘y berdi va bu davr AQSH iqtisodiyoti tarixidan “Buyuk depressiya”nomi bilan joy oldi.

15.6. AQSHning Ikkinci jahon urushidan so‘ng G‘arbiy Yevropa mamlakatlariga iqtisodiy yordami va “Marshall rejasi”ning ahamiyati

Ikkinci jahon urushidan so‘ng AQSH urushdan zarar ko‘rgan mamlakatlarga katta iqtisodiy yordamlarni berdi. 1947-yil 5 iyunda AQSH davlat Bosh kotibi J.Marshall mahalliy va kanadalik siyosatchi hamda iqtisodchi olimlar bilan birgalikda Yevropa mamlakatlarini AQSH va Kanadaning iqtisodiy yordami bilan tiklash va rivojlantirish yo‘nalishlari bo‘yicha ishlab chiqilgan “Yevropani tiklash” dasturini AQSH Kongressiga taqdim qildi.

1 yil davomida uzoq tortishuv va muhokamalardan so‘ng, AQSH Kongressi 1948-yilda “Iqtisodiy hamkorlik qilish” Qonunini qabul qildi va “Yevropani tiklash” dasturi tasdiqlandi. Unga ko‘ra, to‘rt yil davomida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan “Chet el davlatlariga yordam” dasturi kuchga kirdi. Unda ikki tomonlama bitim asosida G‘arbiy Yevropa davlatlariga iqtisodiy yordam ko‘zda tutilgan bo‘lib, ushbu iqtisodiy yordam AQSH federal budjetidan qaytarib olinmaydigan subsidiya va zayomlar tarzida berilishi rejalashtirildi.

Ushbu dasturning mohiyati shundan iborat ediki, AQSH

tomonidan Yevropa mamlakatlariga 1948–1951-yillarga mo‘ljallangan dasturda Ikkinchi jahon urushida vayron bo‘lgan G‘arbiy Yevropa mamlakatlari iqtisodiyotini qayta tiklashga ko‘maklashish maqsadida juda katta mablag‘ kreditlarni ajratilishidan iborat bo‘ldi. Dasturni amalga oshirishda jami 17,1 mlrd.dollar miqdoridagi mablag‘ini avvaliga asosiy iqtisodiy yordamni oladigan G‘arbiy Yevropadagi jami 16 ta davlat – Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Belgiya, Niderlandiya, Luksemburg, Shvetsiya, Norvegiya, Daniya, Irlandiya, Islandiya, Portugaliya, Avstriya, Shvetsariya, Gretsya hamda Turkiya Marshall rejasida ishtirok etishga rozi bo‘ldi va Yevropa iqtisodiy jamiyatini tuzish haqidagi konvensiyani qabul qildi. Keyinchalik, Marshall rejasiga 17-mamlakat sifatida Germaniya (GFR) ham jalb etildi va yordam oladigan mamlakatlarning soni jami 17 taga yetdi.

Dasturdan o‘rin olgan asosiy vazifa - sanoat tarmoqlariga texnologiyalar, asbob-uskunalar va aholi iste’moli mahsulotlarini yetkazib berish kabilarni o‘z ichiga olgan edi. Shu bilan birga, ushbu hudud-larga AQSHdan katta miqdorda xususiy kapitallar ham kirib keldi. 1948-yildan 1951-yilgacha AQSH Marshall rejasasi bo‘yicha 17,1 mlrd. dollar mablag‘ rejasidan haqiqatda 17 ta mamlakat uchun jami 12,3 mlrd.dollar miqdorida mablag‘ sarfladi. Iqtisodiy yordamning asosiy qismi Britaniya, Germaniya (AQSH va GFR o‘rtasida 1949-yilda imzolangan ikki tomonlama bitimga asosan), Fransiya va Italiya davlatlariga berildi. “Yevropani tiklash” dasturi amalga oshirilganidan so‘ng jahon iqtisodiyoti tarixida “Marjall rejasasi” muhrlanib qoldi. 1951-yildan boshlab “Marshall rejasasi” o‘z faoliyatini tugatdi va u AQSHning ittifoqchi va hamdo‘stlik davlatlariga harbiy yordam dasturi bilan NATO (Shimoliy Atlantika harbiy tashkiloti yoki qisqacha “Shimoliy alyans”) harbiy blyokiga o‘zgartirildi.

15.7. AQSH iqtisodiyoti tuzilmasi va uning asosiy yo‘nalishlari

AQSH iqtisodiyotining taraqqiyoti yoki pasayishi jahon iqtisodiyoti bilan o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, undagi har qanday

ijobiy yoki salbiy o‘zgarishlar jarayoni jahon iqtisodiyotiga bevosita ta’sir qiladi. AQSH iqtisodiyoti tarkibidagi barcha sohalar yuksak darajada rivojlangan. Sanoatning eng asosiy tarmoqlariga neft qazish, metallurgiya, oziq-ovqat, avtomobilsozlik, kimyo, elektronika, kosmik-aviatsiya kabilarni alohida ajratish mumkin va sanoatning ulushi YaIMda 23 foizni tashkil qiladi.

AQSH sanoatida ilmtalab sohalar ustuvor mavqega ega. Bu sohaga investitsiyalar milliy iqtisodiyotni 1990-2010-yillardagi rivojlanishining asosiy omili bo‘ldi. Kapital qo‘yilmalar YaIMning qariyb 11 foizini tashkil etdi. Sanoatdagi investitsiyalarning yarmidan ko‘prog‘ini kompyuterlar va axborot vositalariga yo‘naltirilgan xarajatlar tashkil etadi. AQSHning qayta ishlash sanoati mahsulotlar ishlab chiqarish miqdori bo‘yicha jahonda 1-o‘rinda turadi va jahon qayta ishlash sohasining 30 foizi to‘g‘ri keladi. AQSH sanoat ishlab chiqarish jarayoni asosan uchta umumiyo‘nalishda mujassamlashgan, ya’ni: qayta ishlash, qazish va elektr energetika. AQSH iqtisodiyotida sanoatdan tushadigan daromad qishloq xo‘jaligidan tushadigan daromaddan 10 marta ortiqdir.

YaIMning asosiy ulushi xizmat ko‘rsatish sohasiga to‘g‘ri kelib, uning ulushi deyarli 75 foizni tashkil qiladi. Amerika iqtisodiyotining asosiy sohasi hisoblanadigan xizmatlar sohasi barcha yunalishlarda yaxshi rivojlangan. Bu an’anaviy turizm, bank ishi, meditsina, sug‘urta, ta’lim kabi sohalardir. So‘nggi yillarda konsalting, marketing, boshqaruv xizmatlari va axborot texnologiyalari keng rivojlanib bormoqda.

Qishloq xo‘jaligi YaIMning 2 foizini bersa-da, ushbu 2 foizlik mahsulotlar AQSH aholi iste’moli to‘liq ehtiyojini ta’minlaydi va jahon qishloq mahsulotlari eksportida yuqori o‘rinlarda turadi. Agrar sanoat kompleksi yagona texnologik zanjirni namoyish etadi, bu yangi o‘simplik navlari yaratiladigan ilmiy laboratoriyalardan boshlanadi, keyin doimiy kompyuter nazorati ostidagi dalaga, ya’ni ishlab chiqarish jarayoniga boradi. AQSH iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi yuksak darajada rivojlangan bo‘lib, jahon bo‘yicha yetishtiriladigan soyani qariyb 50 foizi, makkajo‘xorini 33 foizi, paxtani 21 foizi, yog‘li o‘simpliklarning 18 foizi, go‘sht

mahsulotlarining 17 foizi va bug‘doyni 12 foizi to‘g‘ri keladi⁶⁷.

15.8. AQSH-Xitoy o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning zamonaviy xususiyatlari va undagi muammolar

AQSH va Xitoy jahon iqtisodiyotidagi iqtisodiy salohiyat jihatidan bir-biriga nisbatan ikki yirik raqobatchi mamlakatdir. Ma’lumki, 2019-yildan buyon bugungi kungacha AQSH va Xitoy o‘rtasidagi savdo munosabatlarda bir qator muammolar yuzaga keldi va pandemiya davrida ushbu ikki mamlakat o‘rtasida “sovuq munosabatlar” yuzaga keldi.

2021-yildan AQSH hukumat tepasiga J.Bayden kelgach, Amerika halqining katta qismi uchun avvaldan kutilgan xushxabar bo‘lsa, ba’zi davlatlar uchun munosabatlarni yaxshilashga qulay imkoniyat bo‘lmoqda. Aynan Xitoy uchun D.Tramp davridagi AQSH bilan iqtisodiy manfaatlar qarama-qarshiligidagi yuzaga kelgan “sovuq munosabatlari”ni o‘zgartirish davri kelganligini ta’kidlash mumkin. Hozirgi AQSH va Xitoy o‘rtasidagi munosabatlar so‘nggi 40 yillikdagi eng inqirozli holatdir, ya’ni: savdo urushi, yangidan yangi iqtisodiy sanksiyalar, AQSHda Xitoy fuqarolari uchun ish joylarini cheklash va boshqalar. Ayniqsa, AQSH tashqi siyosatida Xitoy Rossiyani va hatto, sobiq Ittifoqni o‘rnini egallab ulgurdi.

Pandemiya sharoitida AQSH-Xitoy o‘rtasidagi “savdo urushlari”da muammolar ancha chigallashib ketdi. Ikki davlat o‘rtasida yuzaga kelgan siyosiy inqiroz iqtisodiy munosabatlarning holatiga yanada salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, “Gonkong muammosi” tufayli AQSH tomonidan Xitoy kompaniyalariga ko‘plab sanksiyalar qo‘yildi va sanksiyalar 2020 va 2021-yilda ham davom etdi. Ammo, J.Bayden Xitoy bilan iqtisodiy munosabatlarni qayta tiklanishiga umid bildirish mumkin, chunki aynan Jo Bayden bir vaqtlar Xitoyning JSTga a’zo bo‘lib kirishiga yaqindan yordam bergen. Aniqroq aytganda, Jo Bayden 2002-yilda Xitoyning JSTga a’zo bo‘lib kirishini ta’minlash uchun u shaxsan o‘zi harakat qilgan.

Oradan 20 yil o‘tgan bo‘lsa-da, AQSH uchun Xitoy bilan iqtisodiy munosabatlari u qadar muvaffaqiyatli darajada rivojlanmadı. AQSH Xitoydan o‘ziga yaqin hamkor mamlakat sifatida iqtisodiy va siyosiy

⁶⁷ <https://eee-region.ru/article/4937/>

hamkorlikni kutgan edi, biroq uning o‘rniga Xitoy JST standartlariga rioya qilmaslik,adolatsiz savdo amaliyotlari va texnologiyalarni o‘g‘irlash holatlarini oldi. D.Trampning so‘zlariga ko‘ra, Xitoyning JSTdagi ishtiroki “Qo‘shma SHtatlar uchun falokat” bo‘lib chiqdi. Xitoy amerikaliklar belgilagan traektoriya bo‘ylab harakatlanmayotgani, AQSHning 44-prezidenti B.Obama davridayoq ayon bo‘lgan edi, u “Vashington YAqin Sharqda terrorizmga qarshi yillar davomida kurash olib borganida, Xitoy nazoratsiz qoldi va tezlik bilan o‘sdi”, deb ta’kidlagan.

Birgina, 1999-2011-yillar oralig‘ida Xitoy bilan ishlab chiqarishdagi raqobat AQSHda 2 mln.dan ortiq ish o‘rinlarining qisqarishiga olib keldi. Bu orada AQSH moliya tizimining nomukammalligidan kelib chiqqan global iqtisodiy inqiroz o‘z ta’sir doirasini kuchaytirib olishda Xitoyga qo‘l keldi. 2018-yilda D.Tramp Xitoyga qarshi iqtisodiy kurashni boj tariflarini qo‘llashdan boshladi. Bunda AQSHga kirib kelayotgan Xitoy tovarlarining narxini oshirishdan iborat bo‘ldi. Bundan asosiy maqsad – amerikaliklarni Xitoy tovarlarini kamroq sotib olishga undash edi.

2017-yilgi ikki mamlakat o‘rtasidagi o‘zaro tashqi savdo hajmi chuqur tahlil qilinganda, Xitoy Amerika hududida AQSHning Xitoyga eksportiga qaraganda 300 mlrd.dollarga ko‘p tovarlarni eksport qilgan. Bu holat amerikaliklar uchun o‘ta noqulay edi. Chunki Xitoyning arzon import mahsulotlari AQSHning mahalliy sanoat tarmoqlari rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatar hamda ko‘plab AQSH korporatsiyalari ishchi kuchining arzonligi sababli o‘z fabrikalarini XXRga ko‘chirishiga olib kelar edi.

2018-yildan AQSH iqtisodiy siyosatida Xitoyning import tovarlariga bo‘lgan taqiqlarni boshlanishi asta-sekinlik bilan yangi turli boj to‘lovlarini joriy etilishiga olib keldi. O‘z navbatida bunga javoban, Xitoy ham shunday keskin choralarini ko‘rishga majbur bo‘ldi. Natijada ikki davlat o‘rtasidagi “savdo urushi” yanada jadallahdi hamda pandemiya sharoitida ziddiyat yanada keng tus oldi. Ikki davlat o‘rtasida yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz muammolari yakunida endilikda siyosiy inqirozga aylanib qoldi. 2020-yilning yanvar oyida D.Tramp Xitoy hukumatining “COVID-19” epidemiyasini jilovlay olish qobiliyatini olqishlab, Si Szinpinga ushbu masalalarda ishonishini aytgan bo‘lsa-da, infeksiya AQSHga yetib kelganidan so‘ng, jahonga kasallikning tarqalishida va virus Xitoyniki ekanligini hamda jahon iqtisodiyotida yuzaga kelgan iqtisodiy inqirozga sababchi ham aynan Xitoy ekanligini

keskin ta'kidladi.

2021-yilga kelib, AQSHda koronavirus bilan kasallanganlar soni jahonda rekord darajada o'sib ketishi tufayli, D.Tramp Xitoy bilan savdo bitimini tuzishdan bosh tortdi. "Xitoy virusi" haqidagi bayonotlardan so'ng, AQSHdagi xitoylik talabalar va olimlar XXR harbiy kafedralari bilan hamkorlik qilishda ayblandi: ko'plari mamlakatdan chiqarib yuborildi yoki vizalari bekor qilindi. Oqibatda Xitoy texnologik kompaniyalariga qarshi iqtisodiy sanksiyalar joriy qilindi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, 2020-yilda ikki mamlakat o'rtasidagi yuzaga kelgan iqtisodiy inqirozning yakuni siyosiy inqirozga olib keldi. Xitoyning Xyustondagi konsulligi yopildi. Bunga javob tarzida, Xitoy hukumati tomonidan ham choralar qo'llanilishiga olib keldi: amerikalik jurnalistlarning XXRda ishlashi taqiqlandi va AQSHning Chendudagi vakolatxonasi yopildi hamda Amerika rasmiylari va kompaniyalariga qarshi moliyaviy sanksiyalar joriy qilindi, dunyoning eng ommalashgan informatsion telekanallaridan biri hisoblangan BBC World News namoyishi 2021-yildan to'xtatildi.

AQSHning nufuzli "Pew Research Center" tadqiqot markazi tomonidan o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnomaga ko'ra, amerikaliklarning 73 foizi Xitoy haqida salbiy fikrda bo'lib, bu so'nggi 15 yil ichidagi eng yomon ko'rsatkichdir. Shu bilan birga, AQSH fuqarolarining yarmidan ko'pi XXRni "strategik raqobatchi" deb biladi. Bundan tashqari, 78 foiz amerikaliklar Xitoyni butun dunyo bo'ylab COVID-19 tarqalishida aybdor, deb hisoblaydi. AQSHning o'zida deyarli 40 millionga yaqin odam koronavirus yuqtirib, 500 mingga yaqin kishi vafot etgan.

Yuzaga kelgan vaziyatga jahondagi taniqli olimlar va ekspertlar ham fikr bildirishga ojiz qolmoqdalar. AQSH Prezidenti J.Bayden Xitoy bilan global iqlimning o'zgarishi, savdo va boshqa masalalar doirasida hamkorlik qilish ehtimoli mavjud bo'lsa-da, u D.Tramp davrida qo'yilgan iqtisodiy sanksiyalarni shunchaki bekor qilinmaydi. Chunki, cheklovlar nafaqat farmonlar, balki qonunlar shaklini ham olgan. AQSH o'zining cheklovlaridan voz kechishi uchun birinchi bo'lib, Xitoy yon berishi kerak.

Nazorat savollari

1. AQSH iqtisodiy rivojlanishining asosiy xususiyatlarini ayting.
2. AQSHning iqtisodiy rivojlanishiga sabab bo'lgan qanday asosiy omillari bor?

3. AQSH iqtisodiyoti tuzilmasi va o‘ziga xos xususiyatlarini aytib bering.
4. AQSH hukumati Buyuk depressiyadan chiqib ketish uchun qanday chora-tadbirlarni tatbiq qilgan?
5. “Marshall rejasi” dasturi va uning mohiyatini aytинг.
6. AQSHning jahondagi iqtisodiy salohiyatini tavsiflab bering.
7. “Yangi kurs” dasturining mohiyatini aytинг.
8. Nima uchun AQSH iqtisodiyoti moliyaviy xizmatlar tez rivojlangan?
9. “Reyganomika” nma va uning mohiyatini aytинг.
10. AQSHning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini aytинг.
11. AQSHning asosiy eksport va import mahsulotlarini aytинг.
12. Hozirgi kunda AQSH qanday iqtisodiy siyosat olib bormoqda?
13. “Amerika modeli” nima va uning mohiyatini aytинг.
14. “Amerika modeli” jahonning boshqa modellaridan qaysi xususiyatlari bilan farqlanadi?
15. AQSH-Xitoy o‘rtasidagi ziddiyatlarning asl mohiyati nimalarda o‘z aksini topgan?

Uyga vazifa!

Talabaning “Jahon iqtisodiyotida AQSHning iqtisodiy salohiyati” mavzusini chuqur o‘zlashtirishi hamda amaliyat darsiga puxta tayyorgarlik ko‘rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

- 1) mavzu so‘ngida berilgan “Nazorat savollari”ga tayyorgarlik ko‘rish;
- 2) AQSHning hududini xarita orqali iqtisodiy-geografik joylanishuvini ko‘rib chiqish;
- 3) AQSH umumiylashqisi savdosining eksport va import tarkibidagi asosiy mahsulotlar va ularning geografik yo‘nalishlari bo‘yicha jadval ishlab chiqish;
- 4) AQSH iqtisodiyotining sanoati, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohasi bo‘yicha talabalar guruhlarga bo‘lingan holda “Taqdimot” o‘tkaziladi.

XVI BOB. JAHON XO'JALIGIDA BIRINCHI "IQTISODIY MO'JIZA" NI VUJUDGA KELTIRISHDA YAPONIYANING IQTISODIY RIVOJLANISH TAJRIBASI

1. Yaponianing asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va uning jahon xo'jaligidagi iqtisodiy salohiyati.
2. Yaponiya – davlatining iqtisodiy-geografik o'rni, aholi tizimi va qisqacha tavsifi.
3. Yaponianing "iqtisodiy mo'jiza" yaratishdagi asosiy omillari.
4. Yaponianing Ikkinchi jahon urushidan keyingi asosiy iqtisodiy rivojlanish davrlari.
5. "Yaponiya modeli" va uning omillari.
6. Yaponianing hozirgi iqtisodiy va siyosiy muammolari hamda istiqbollari.

Tayanch iboralar: monopoliya, "iqtisodiy mo'jiza", iqtisodiy yuksalish, "dodj yo'nalishi", "katta portlash", "shoup islohoti", yapon modeli, Birinchi jahon neft inqirozi, raqobatbardoshlik, konyunktura, modernizatsiya, konsern, "dzaybatsu", "keyretsu", rotatsiya.

Yaponianing jahon xaritasida joylashgan o'rni



16.1. Yaponianing asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va uning jahon xo‘jaligidagi iqtisodiy salohiyati

Yaponiya sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish, iqtisodiy salohiyati va valuta zaxirasi hamda uning rivojlanish darajasi bo‘yicha dunyo mamlakatlari ichida eng yuqori o‘rnlarni egallab turgan davlatlardan biridir. U Osiyoda iqtisodiy salohiyati jihatidan Xitoydan so‘ng ikkinchi davlatdir. Yaponiya jahondagi eng nufuzli tashkilot hisoblangan “Katta yettilik” tashkilotining a’zosidir. Uning YaIM miqdori 5,1 trln. dollarni tashkil qilib jahonda 3-o‘rinda turadi. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadi 41.690 dollar bo‘lib, jahonda 26-o‘rinni egallab turibdi.

Yaponianing umumiy tashqi savdo miqdori – 1,43 trln. dollarni tashkil qilib, bundan eksporti – 705,6 mlrd.dollar va importi esa 720,9 mlrd.dollarni tashkil qiladi. Import miqdori eksport miqdoriga qaraganda ustundir.

16.1 - jadval
Yaponianing asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari

T/r	Asosiy ko‘rsatkichlar va xususiyatlari	Miqdori va belgilari
1	YaIM miqdori (mln.doll.) ⁶⁸	5.081,8
2	YaMMning aholi jon boshiga (doll.) ⁶⁹	41.690
3	Umumiy tashqi savdo aylanmasi (mlrd.doll.)	1.426,5
4	Eksporti (mlrd.doll.)	705,6
5	Importi (mlrd.doll.)	720,9
6	Eng asosiy tashqi savdo hamkorlari	AQSH, Xitoy va Janubiy Koreya
7	Valuta zaxirasi (mlrd.dollar) ⁷⁰	1.322,4
8	Tashqi qarzi (mlrd.doll.) ⁷¹	13.504,0
9	Aholi soni (mln. kishi) ⁷²	126,0
10	Umumiy yer maydoni (ming km.kv.) ⁷³	377,8
11	Ishsizlik darajasi (foiz)	2,4
12	Milliy valutasi (pul birligi)	Yen
13	Mamlakat poytaxti	Tokio
14	Rasmiy davlat tili	Yapon tili

Manba: ushbu jadval ma’lumotlar asosida ishlab chiqilgan.

⁶⁸ Gtmarket.ru/ratings/gross-national-income-ranking

⁶⁹ https://data.worldbank.org/indicator/NY.GNP.PCAP.CD

⁷⁰ https://https://nonews.co/directory/lists/countries/gold

⁷¹ https://ru.m.wikipedia.org/wiki/%DO%A1%DO%BF%DO%B8%

⁷² https://ru.m.wikipedia.org/wiki/Spisok_stran_po_naseleniyu

⁷³ https://worldgeo.ru/lists/?id=2

Asosiy eksport mahsulotlari transport vositalari (avtomobillar, kemalar, vagonlar), ilg‘or zamonaviy texnologiyalar, metall va metall buyumlar, neft va kimyo mahsulotlari kiradi. Eksportdagi asosiy tashqi hamkor mamlakatlari: asosan AQSH, Tayvan, Xitoy va boshqa mamlakatlar.

Asosiy import mahsulotlariga neft va sanoat xomashyosi hamda oziq-ovqat mahsulotlari kiradi. Importdagi asosiy tashqi hamkor mamlakatlari: asosan AQSH, Xitoy, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlar.

Ishsizlikning ko‘rsatkichi 2,8 foiz bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich jahon mamlakatlari ichida eng past ko‘rsatkichlarining birini tashkil qiladi. Shuningdek, xomashyoni deyarli 100 foiz import qiluvchi mamlakatdir. Jahonda aholining o‘rtacha umr ko‘rish darajasi yuqori - 83 yosh. Jahon bo‘yicha robot mahsulotlari eksportining deyarli 60 foizi va kemalar ishlab chiqarishda jahonda 1-o‘rinda turadi. Yaponiyaning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini 16.1-jadval orqali ko‘rish mumkin.

16.2. Yaponiya davlatining iqtisodiy-geografik o‘rnii, aholi tizimi va qisqacha tavsifi

Yaponiya – Sharqiy Osiyodagi va Tinch okeani havfzasidagi orollardan tashkil topgan davlat bo‘lib, unga yaqin bo‘lgan qo‘shni mamlakatlar (suv havzasida) - Rossiya, Xitoy, KXDR va Janubiy Koreya mamlakatlaridir. Yaponiyani bejizga “kunchiqar mamlakat” deyishmaydi. Yaponiyaning hududi – 377,9 ming km.kv.ni tashkil qilib, 4 ta yirik orol: Xokkaydo, Xonsyu, Sikoku va Kyusyu orollari hamda janubda kichik hududga ega bo‘lgan Yokinava, shuningdek, ularning tevarak-atrofidagi jami 6800 ta orollardan, shundan 340 tasi 1 km. kv. dan katta bo‘lgan orollardir.

Yirik industrial shaharlari Tokio (ma’nosи – “Sharqning poytaxti”, mamlakat poytaxti, mamlakatdagi eng yirik sanoat tarmoqlarining markazi va mamlakatdagi barcha xorijiy moliya tashkilotlarining 85 foizi joylashgan), Iokogama (jahondagi eng yirik baliq bozori, mamlakatdagi eng yirik dengiz porti, Osaka, Nagoya, Sapporo (Osiyodagi eng yirik ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish markazi),

Kobe (doimiy zilzilalar markazi), Kioto – yapon xalqining ziyyaratgohi (“Kunchiqar shahar”, Yaponiyaning 1868-yilgacha poytaxti), Kawasaki (jahon kemasozlik sanoat markazi), Xirosima, Nagasaki (Yaponiya iqtisodiyoti tarixidagi eng 1-tashqi savdo-sotiq faoliyatini olib borgan port-shahar, u 1620-yilda gollandlar yordamida qurilgan), Omiya (jahon vagonsozlik sanoat markazi), Tatikava (Osiyodagi yirik aviasozlik sanoat markazlaridan biri), Takasaki (jahon ipakchilik markazi) va boshqa yirik shaharlar kiradi.

Yaponiya aholisi – 126,5 mln. kishi bo‘lib, aholi soni bo‘yicha jahonda 8-o‘rinda bormoqda, yoki butun dunyo aholisining 2,5 foizini tashkil qiladi (1987-yilda -122 mln. kishi, 1999-yilda – 127 mln. kishi, 2008-yilda 130,7 mln. kishini tashkil qilgan). Tahlillarga ko‘ra, agarda aholining tug‘ilish darajasi shunday davom etadigan bo‘lsa, u holda aholi soni 2050-yilga borganda 80 mln. kishiga kamayishi mumkin, chunki Yaponiya jahondagi eng ko‘p keksa aholiga ega bo‘lgan mamlakatdir. Aholining asosiy qismi Xonsyu orolida, ya’ni 101 mln. kishi yashaydi. O‘rtacha umr ko‘rish: erkaklarda 80 yosh, ayollarda 86 yoshni tashkil qiladi. Umumiy aholining 66 million kishisi ishga layoqatlidir. Aholi zichligi – 1 kv.km yer maydoniga 350 kishi to‘g‘ri keladi (aholi zichligi bo‘yicha AQSHdan 14 marta ko‘p). Mamlakat aholisining 99 foizini yaponlar tashkil qiladi.

Yapon aholisining asosiy qismi mamlakatning rivojlangan janubiy hududlarida va dengiz yon-bag‘rilarida yashashadi. Barcha aholining 45 foizi asosan Tokio, Osaka va Nagoya shahri va uning tumanlarida istiqomat qilishadi. Yapon xalqi jahon millatlari ichida o‘zining milliyagini va g‘ururini himoya qiluvchi xalqlardan biri hisoblanadi.

Odatda har bir mamlakat o‘zining iqtisodiy rivojlanishi uchun ma’lum bir shior ostida taraqqiy etadi. Yaponiya hukumati ham “qudratli davlat qurish” (syan go) shiori asosida milliy iqtisodiy shiorni tatbiq qildi va ilk rivojlanish taraqqiyoti davridayoq ushbu shior ostida yangi-yangi iqtisodiy islohotlar va dasturlarni ishlab chiqdi. Yaponiyada Imperator faoliyat ko‘rsatadi, u davlat ishlariga aralashmaydi, biroq u yapon milliy urf-odatlari va an’analari bo‘yicha hukumatga o‘z maslahatlari va takliflarini beradi. Yaponiya Imperatori-bu yaponlarning simvolidir. 2020-yilning 30 avgust kuni Yaponiya Bosh Vaziri Shinzo Abe sog‘lig‘ida muammolar borligi sababli iste’foga chiqdi va uning o‘rniga 2020-yilning 16-sentabridan

Yoshixide Syura Bosh vazir lavozimini egalladi.

16.3. Yaponianing “iqtisodiy mo‘jiza” yaratishidagi asosiy omillari

Yaponiya, bozor iqtisodiyotiga o‘tishi tufayli deyarli bir avlod hayoti davomida o‘zini tiklabgina qolmay, jahon xo‘jaligida eng yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy oldi. Demak, Yaponiya milliy iqtisodiyotining rivojlanishidagi asosiy omillar quyidagilar iborat:

1. *Hududiy joylanishuvining noqulayligini hisobga olgan holda, sanoat ishlab chiqarishni tartibli joylashtirilishi.* Yaponiya hududiy jihatdan 10 ta iqtisodiy hududga bo‘lingan, bular: Xokkaydo, Toxoku, Kanto, Tokay, Xokuriku, Kinki (Kansay), Tyugoku, Yokinava, Sikkoku va Kyusyu hududlaridir. Eng rivojlangan sanoat hududi bu – Kanto hududidir.

2. *Hukumat tomonidan, iqtisodiy rivojlanish va sanoat ishlab chiqarish siyosati dasturlarining yuqori darajada ishlab chiqilishi.* 1946-50-yillarda hukumat yirik iqtisodiy dasturlar va islohotlarni tatbiq qildi.

3. *Mamlakatning iqtisodiy-geografik ahvolining qulayligi.* Yaponiya davlati Rossiya va Janubiy Koreya bilan chegaradosh hamda butun hududini suv havzalari o‘rab turadi. Tinch okeani havzasi mintaqasining markazida joylashganligi, ko‘pgina xalqaro tranzit yo‘llarining o‘tganligi sababli ham uning iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir qilgan.

4. *Tabiiy resurslardan unumli foydalanganligi.* Yaponiya tabiiy boyliklari va qazilma boyliklarga muxtoj bo‘lgan mamlakatdir. Uning mavjud tabiiy resurs va boyliklardan unumli foydalanshlari hamda uning qoldiqlaridan ham qayta ishlash sanoatida ishlatilishi iqtisodiyotning rivoji uchun ancha foydali bo‘ldi. Shuningdek, yapon mutaxassislari okean va dengiz ostilaridan ko‘plab foydali qazilmalar topishmoqda va ular zamonaviy texnologiyalar orqali qazib olinmoqda. Tabiiy resurslar juda ham kam bo‘lib, asosan toshko‘mir, temir rudasi (uncha sifatli bo‘limgan) va mis rudasini tashkil qiladi. Sanoat tarmoqlari uchun xomashyolar deyarli 100 foiz xorijdan import qilinadi.

16.2-jadval

Yaponiyaning tabiiy resurslari zaxirasi

Tabiiy va foydali qazilmalarining turi	Aniqlangan zaxiralar (mln.t.)	Jahon zaxiralaridagi ulushi (foizda)
Neft	7,6	0,009
Tabiiy gaz (mlrd.kub m.)	20,0 8479,0	0,03 0,3
Toshko‘mir	20,0	0,1
Temir rudasi	0,008	0,5
Uran	5,0	0,03
Manganets	0,01	0,08
Volfram		

Manba: A.D.Ionov “Yaponiya: geograficheskiy ocherk”, M., 2016g.

So‘nggi yillarda xomashyoning yetishmasligi eng dolzarb muammolardan biri bo‘lmoqda. Chunki, sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish uchun xomashyolarni import qilish xarajatlari yil sayin ortib bormoqda. Shu tufayli, hukumat ko‘plab zavodlarni aynan o‘scha xomashyo arzon bo‘lgan qo‘shti mamlakat hududlariga ishlab chiqarish zavodlarini ko‘chirish siyosatini qo’llamoqda. Ayniqsa, unga qo‘shti bo‘lgan Xitoy mamlakatiga ko‘chirish jarayonni ma’qul kelmoqda. Yaponiya iqtisodiyot va sanoat vazirligining ma’lumotiga ko‘ra, 2010-2019-yillar mobaynida jami ishlab chiqarilgan yapon mahsulotlarining 35 foizi xorijda ishlab chiqarilgan. Masalan, avtomobillarning deyarli 30 foizi va rangli televizorlarning 90 foizi Xitoy, Tailand, Filippin kabi xorijiy mamlakatlarda ishlab chiqarilgan.

5. XX asrning yarmidan XXI asr boshlarigacha iqtisodiyotning ishlab chiqarish sohalarida mehnat resurslarining yetarli ekanligi. 1945-yili Yaponiya Ikkinci jahon urushida mag‘lub bo‘lgach, mamlakatda yalpi ishsizlik hukm surgan edi. O‘sha yillari mamlakatda ishchi kuchining arzon bo‘lganligi hamma sanoat tarmoqlariga aholi ish bilan ta’minlandi. Keyinchalik, yuqori malakali mehnat resurslarining yordami bilan industrial tarmoqlarining rivojlantirilishiga katta ahamiyat berildi. Biroq, XXI asrning boshlariga kelib Yaponiya ish kuchiga bo‘lgan ehtiyoj yil sayin ortib bormoqda. 2014-2019-yillarda Xitoy va Filippindan jami 800 mingga

yaqin xorijiy ishchi kuchi sanoat tarmoqlariga jalgan qilingan.

6. *Barcha sanoat tarmoqlarini xorijdan keltirilgan zamonaviy yangi texnologiyalar bilan almashtirilishi*. 1948-50-yillarda deyarli barcha ishlab chiqarish tarmoqlari xalqaro talabga javob beruvchi ilg‘or texnologiyalar bilan almashtirildi. Ilg‘or zamonaviy texnologiyalar AQSH, Buyuk Britaniya va Kanada kabi mamlakatlardan jalgan qilindi. Ushbu islohot natijasida, Yaponiya sanoat tarmoqlarining ishlab chiqarishi hajmi bilan 1955-yildayoq, urushdan oldingi, ya’ni 1940-yildagi holatini tiklashga erishdi va hatto, sanoat tarmoqlarining taraqqiy etishi va ba’zi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishi miqdori bilan Yaponiya jahondagi eng yetakchi mamlakatlar qatoriga qo’shildi.

7. *Sanoat tarmoqlarida mahsulotlar ishlab chiqarilishining tez sur’atlarda o’sishi*. XX asrning 50-yillarida Sharqiy Osiyoda xalqaro siyosiy ahvolning ziddiyatlashuvi yapon milliy iqtisodiyotiga katta ijobjiy ta’sir ko’rsatdi.

8. *Fan va texnika omili* (eng asosiy omil). 1945-65-yillar davomida Yaponiya hukumati fan va ilmni rivojlantirish maqsadida ilmiy-tekshirish institutlarga davlat budgetidan ko‘pdan-ko‘p mablag‘-larni yo‘naltirdi. Shu yillar mobaynida, hukumat YaIM ulushining kamida 3 foizini ilmiy-texnika institutlariga ajratdi. Ayniqsa, ko‘plab ilmiy-tekshirish institutlariga turli zamonaviy elektron mahsulotlarni ixtiro qilishlari uchun tavakkal kapitallarni berish odat tusiga aylangan edi. Davlat budgetidan mahsulotlar ixtirolari uchun ajratilgan tavakkal kapitllar miqdori bir necha marotaba ortiq o‘zini oqlagan edi. Xalqaro tashkilotlar va mahalliy ekspertchilarining tahlillariga ko‘ra, Yaponiya yarning “iqtisodiy mo‘jiza” yaratishida va milliy iqtisodiyotni tez yuksalishiga aynan “fan-texnika inqilobi” katta ahamiyat kasb etgan.

9. *XX asrning 1950-70-yillari mobaynida jahon bozorida yoqilg‘i xomashyosining arzonligi va uning narxini bir necha yillar davomida uzluksiz barqaror bo‘lganligi*. Yaponiyadagi deyarli barcha kompaniyalarning neftga bo‘lgan ehiyoji va talabi hozirgi kunda ham kattadir. 1973-yilgacha, ya’ni Birinchi jahon neft inqirozigacha Yaponiya ishlab chiqarish korxonalari neft narxining jahon bozorida bir me’yorda bo‘lganligi sababli bir tekis ishlashiga imkon bergan.

10. *Yaponiya milliy iqtisodiyoti rivojlanishida “Yaponiya modeli”ning ustuvor ahamiyati* (ushbu omil haqida keyingi bo‘limda

batafsil to‘xtalib o‘tamiz).

11. *Ishlab chiqarilgan mahsulotlarni yalpi eksportga chiqarilishi.* Yaponiya sanoat korxonalarining ishlab chiqargan mahsulotlarini yalpi eksportga chiqarilishi bu – ilg‘or xorijiy texnologiyani import qilinishi uchun eng asosiy manba bo‘ldi.

12. *Yaponiya iqtisodiyotida AQSHning hamkorligi va ahamiyati.* Ikkinci jahon urushidan so‘ng, Yaponiya milliy iqtisodiyotini tiklash deyarli Ittifoqchilarining zimmasida qoldi. AQSH hukumati tomonidan Yaponiya iqtisodiyotini sog‘lomlashtirish maqsadida bir qancha sanoat tarmoqlariga, ya’ni asosiy tarmoqlar bo‘lmish ko‘mir qazish, metallurgiya, kemasozlik va energetika tarmoqlarini ham moddiy va ham xorijiy texnologiya bilan ta’minlaydi. Shu bilan birga, milliy iqtisodiyot ehtiyoji uchun yoqilg‘i, oziq-ovqat mahsulotlari va dordarmonlarni AQSHdan keltirdi. 1946-1947-yillar davomida AQSH Yaponiyaga o‘scha davr uchun ulkan mablag‘ hisoblangan qariyb 2,5 mlrd.dollar miqdorida iqtisodiy yordam berdi, shundan: 1,8 mlrd.dollari “tirik” mablag‘ bo‘lsa, qolgan qismi mahsulotlarni tashkil qildi.

16.4. Yaponianing Ikkinci jahon urushidan keyingi asosiy iqtisodiy rivojlanish davrlari

Birinchi davri – 1945-1949-yillar. Ushbu yillarda Yaponianing iqtisodiy ahvolini quyidagicha tahlil qilamiz:

- urush oqibatida ko‘plab aholi yashaydigan hududlar va 60 foizdan ortiq ishlab chiqaruvchi korxona va zavodlar vayron etilib sanoat ishlab chiqarish faoliyati deyarli to‘xtab, iqtisodiy jihatdan juda zaiflashib qoldi;
- mamlakatda ishsizlik hukm suradi hamda minglab aholi qo‘shni mamlakatlardan vaqtinchalik panoh topishdi;
- inflatsyaning keskin yuqori darajada o‘sib ketishi natijasida aholining turmush darjasini tushib ketib, eng muhim bo‘lgan aholi iste’moli mahsulotlarining narxi bir necha marotabaga oshib ketdi;
- mamlakatda ishlab chiqarish sohalari va hatto, oddiy aholi iste’moli mahsulotlarini ishlab chiqarish to‘xtab qoldi, shu bilan birga mamlakatning tashqi savdosi ham umuman to‘xtadi;
- mamlakatda turli yuqumli kasalliklar va qolaversa, Nagasaki va

Xirosima shaharlariga AQSH tomonidan tashlangan atom bombalari natijasida yuz minglab kishilar nogiron bo‘lishdi;

1945-yilda Ikkinchi jahon urushi yakuniga bag‘ishlangan Postdam konferetsiyasiga muvofiq, AQSH va sobiq Ittifoqning o‘zaro kelishuviga asosan, urushda asirga tushgan qariyb 6 mln.ga yaqin yapon harbiylari Yaponiyaga qaytarildi, ushbu qaytgan harbiylar ham ishsizlikka duchor bo‘lishadi. Ushbu mavjud muammolarning zamirida mamlakatda ocharchilik hukm suradi va oziq-ovqat muammosi eng birinchi muammoga aylandi.

Urushdan so‘ng Yaponiya iqtisodiyotini qayta shakllantirish va tiklash bo‘yicha olib borilgan iqtisodiy dastur va chora-tadbirlar AQSH mutaxassislari tomonidan olib borildi, chunki Yaponiya deyarli AQSH qaramog‘iga qarab qoladi. Tiklanish davrida amaliy ishlarni olib borishda o‘sha paytda Ittifoqchi qo‘shinlarining qo‘mondoni general Duglas Makarturning ahamiyati kattadir. Yaponiya hukumati AQSH bilan hamkorlikda iqtisodiyotni qayta qurishi va uni rivojlantirish uchun 1947-49-yillarda bir qator iqtisodiy dastur va islohotlarni amalga oshirdi:

1. Mamlakatda AQSH bilan hamkorlikda amalga oshirilgan eng birinchi iqtisodiy islohot bu - moliya tizimini qayta shakllantirishdan iborat bo‘ldi. Unga ko‘ra, moliyalar defitsitini kamaytirish, mamlakat iqtisodiyotini sog‘lomlashtirish va narxlarni bir me’yorda ushlab turish imkoniyatini ta’minladi. Bu islohotni amalga oshirishda AQSH Yaponiyaga ko‘plab moliyaviy va iqtisodiy yordamlarni berdi.

2. Urushdan so‘ng milliy iqtisodiyotni tiklash maqsadida “Dodj yo‘nalishi” iqtisodiy dasturi amalga oshirilib, bu dastur hukumatning nazorati bilan bir qatorda, o‘z ichiga davlat tomonidan bir necha tarmoqlarni, asosan energetika, metallurgiya, ko‘mir qazish va kemasozlik sanoat tarmoqlarni davlat tomonidan umumiylashtirildi. Ushbu dasturni amalga oshirilishi natijasida Yaponiya YaIM 1947-yoldayoq 8,4 foizga va 1948-yilda esa 13 foizga o‘sdi va milliy iqtisodiyotda “katta jonlanish” yuzaga keldi.

3. 1947-yilda “Monopoliyaga qarshi kurash” qonuni tatbiq qilindi. E’tiborlisi, mazkur qonun loyihasi Yaponiya iqtisodiyoti uchun AQSHda ishlab chiqilgan edi. Demonopolizatsiya siyosati mamlakatdagi turli xil tarmoqlardagi yirik moliyaviy-sanoat

konsernlarini (dzaybatsu) tarqatib yubordi. Buning eng asosiy sababi, mamlakatda raqobatbardoshlikka va iqtisodiy o'sishga yo'l ochildi. Shuni alohida qayd etish lozimki, banklar demonopolizatsiya siyosatidan mustasno edi, chunki yirik banklar iqtisodiyotning yuksalishida muhim ahamiyat kasb etishgan.

4. 1949-50-yillarda Yaponiya hukumati AQSH ma'muriyatining ko'rsatmasiga binoan, soliq tizimida "Shoup soliq islohoti" tatbiq qilindi. Mazkur islohot ishlab chiqarish tarmoqlaridan olinadigan majburiy soliq to'lovlarini kamaytirish, ishlab chiqarishdan tushadigan daromaddan maksimal 35 foiz soliq to'lash hamda asosiy aholi band bo'lgan, qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatuvchi jismoniy shaxslar uchun 5 foiz miqdorida soliq to'lash kabi imtiyozli soliq islohotlari amalga oshirildi.

Qisqa qilib aytganda, urushdan keyingi yillarda sanoat tizimini yana qayta yo'lga qo'yilishi va qishloq xo'jaligini qayta tiklanishi uchun Yaponiya milliy iqtisodiyoti 1945-1949-yillarda juda og'ir davrni boshidan kechirdi. Yuqorida qayd qilingan iqtisodiy islohotlarning milliy iqtisodiyotini rivojlanishida va mustahkam poydevorini qurishida qabul qilingan eng muhim va asosiy iqtisodiy dastur bu – "Dodj yo'nalishi" dasturi bo'lib Yaponiya iqtisodiy tarixidan muhim joy oldi.

Ikkinci davri – 1950-1955-yillar. 1950-yilda hukumat "Chet el sarmoyalari" to'g'risida qaror qabul qildi. Bu qaror asosida davlatning kuchli nazorati ostida mamlakatga xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilishlari uchun xalqaro investorlar bilan shartnomalar tuzdi. Eng asosiysi, mamlakat sanoatining gurkirab o'sishi uchun xorijiy investitsiyalar jalb qilindi. Jumladan, yangi texnologiyalar va asbob uskunalar AQSHdan keltirildi.

1951-yilda AQSHning San-Fransisko shahrida AQSH va Buyuk Britaniya boschchiligidagi jami 48 ta davlat rahbarlari Yaponiya bilan "Tinchlik shartnomasi"ni imzolashadi, ushbu shartnomaga 1952-yilning 2-martidan kuchga kirdi va shu shartnomadan keyin Yaponiya mustaqillikka erishdi.

1950-55-yillar mobaynida Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida xalqaro siyosiy ahvolning ziddiyatlashuvi yapon milliy iqtisodiyotiga katta ijobjiy ta'sir ko'rsatdi. Chunki, AQSHning Koreya yarim orolida olib borgan urush harakatlari tufayli Yaponiya sanoati AQSH uchun

harbiy texnikalarni ishlab chiqarishni o‘z zimmasiga oldi. AQSH Yaponiyadan avtomobillar, to‘qimachilik va farmatsevtika mahsulotlarini sotib ola boshlashdi. Hozirgi kunda yapon iqtisodchi olimlari o‘sha davrdagi iqtisodiy taraqqiyotga shunday baho berishadi: “agarda Koreyada urush bo‘lmaganda edi, Yaponiyada avtomobilsozlik sanoati bu qadar tez sur’atlarda rivojlanmas va kelajakda, ya’ni hozirgi kunda bunchalik qudratli tarmoq bo‘lmas edi”.

Uchinchi davri – 1955–1963-yillarni o‘z ichiga olib, iqtisodiyotni barqaror bo‘lib turishi uchun sanoatdan tushayotgan barcha daromadlar iqtisodiy konyunkturalarga taqsimlandi. Shu yillarda katta iqtisodiy yuksalish davri boshlandi, neft-ximiya, mashinasozlik, elektrotexnika va sintetika ishlab chiqarish sanoat tarmoqlari tashkil qilindi. YaMMning yil sayin o‘sib borishi natijasida Yaponiya iqtisodiyoti 1955-yildayoq urushdan oldingi 1940-yil holatiga bo‘lgan iqtisodiy ko‘rsatkichlarga yetib oldi. 1955-yili YaIM oldingi yilga nisbatan 10,8 foizga va 1955-yildan 1963-yilgacha iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichi o‘rtacha 9,8 foizni tashkil qildi. 1960-yilda quyidagi iqtisodiy islohotlar tatbiq qilindi, jumladan:

1. Tashqi savdoni erkinlashtirish faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, bu islohot ba’zi mahsulotlarni eksport qilinishiga ruxsatlar berildi hamda 1964-yilga borib barcha ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning 93 foizi eksportga yo‘naltirildi.

2. Hukumat “Milliy daromadlarni ikki marta ko‘paytirish” rejasini tatbiq qildi. Qabul qilingan davlat rejasiga asosan, davlat budgetiga tushadigan daromad 10 yil ichida kamida 2 marotabaga ko‘paytirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Lekin ushbu davlat rejasini haqiqatda 7 yil ichida amalga oshirildi, ya’ni 1966-yilda ko‘zlangan maqsadga erishildi.

1955-yilda Yaponiya AQSH tomonidan 1945–1946-yillarda berilgan moliyaviy tashqi qarzdorlik to‘lovlarini to‘lab, qarzdorlikdan butkul xalos bo‘ldi. Shu yili Butun jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘ldi.

To‘rtinchi davri - 1964–1973-yillarni o‘z ichiga olib, ushbu yillarda yapon milliy iqtisodiyotining o‘sish sur’atlari oldingi yillarga nisbatan yanada kuchayishi natijasida XX asrning 60-yillariga kelib, jahon xo‘jaligida “birinchi iqtisodiy mo‘jiza” ro‘y berdi. Aynan ushbu

1964–73-yillardagi iqtisodiy rivojlanish davri mamlakat iqtisodiyoti tarixida “tez iqtisodiy taraqqiyot davri” nomini oldi. Shu yillarda iqtisodiy o’sish yiliga 14 foizni tashkil qildi. 1970-yillardan boshlab Yaponiyani jahon ommasi “kunchiqar mamlakat” deb atala boshlashdi. Yaponiya iqtisodiyoti 1955-1973-yillarda yiliga o’rtacha 9,8 foizdan o’sib bordi. 1950-70-yillarda Yaponiya iqtisodiyoti juda tez sur’atlar bilan rivojlanganligi sababli, u YaIM va sanoat ishlab chiqarishining hajmi hamda iqtisodiy salohiyati jihatidan jahon xo‘jaligida AQSHdan so‘ng ikkinchi davlatga aylandi.

Yaponiya milliy iqtisodiyotining 1964-1973-yillardagi tez taraqqiyotining sabablari quyidagilardan iborat bo‘ldi:

- sanoat tarmoqlarida ko‘plab miqdorda kapitalning jamg‘arilishi;
- ilmiy-tekshirish institutlarining tavakkal kapitallari hisobiga ko‘plab daromadlarni olishi va bu sohaning yildan yilga rivojlanib borishi, fan-texnika inqilobi natijasida hamda zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar jahon bozorida o‘zining hukmronligini o‘rnatdi;
- ishchi kuchining boshqa yetakchi mamlakatlarga qaraganda arzonligi;
- sanoat tizimlarida erkin ravishda olingan litsenziya hisobiga amerika va Yevropa kompaniyalarining mahsulotlarini ishlab chiqarishi;
- jahon bozorida xomashyo va yonilg‘ini arzon bo‘lganligi;
- oylik maoshlarini yanada ko‘tarilishiga bois, korxona va tashkilotlarda bo‘sh o‘rinlar qolmadi, ishsizlik darajasining ko‘rsatkichi ushbu yillarida o’rtacha atigi 0,5 foizni tashkil qildi. Ishsizlik darajasining ko‘rsatkichi Yaponiya iqtisodiyoti tarixidagi rekord ko‘rsatkichi bo‘ldi;
- eng muhimi, davlat budgetidan deyarli harbiy xarajatlar qilinmaganligi sababli, sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun ko‘plab qo‘sishimcha mablag‘larni sarf qilinishi.

16.3-jadval

Jahon mamlakatlarining XX asrning 1960-1980-yillardagi iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari va unda Yaponiyaning o'rni foizda

Mamlakatlar	1964-1973-yillarda	1960-1973-yillarda	1973-1983-yillarda
Yaponiya	14	10,1	3,7
AQSH	4	3,9	1,9
Germaniya (GFR)	4,5	4,5	1,7
Buyuk Britaniya	3	3,1	0,8
Fransiya	5,5	5,6	2,2
Italiya	5	5	1,8

Manba: Takesi Xiromatsu “Razvitie Yaponskoy ekonomiki”, M., 1992 g.

Beshinchi davri – 1974-1983-yillar. 1973-yilda jahon xo'jaligidagi yuz bergen neft inqirozi sanoat tarmoqlariga juda ham salbiy ta'sir ko'rsatdi va Yaponiya iqtisodiyotida so'nggi 30 yil ichidagi iqtisodiy pasayish holati kuzatila boshlandi. Aynan 1974-yilda sanoat ishlab chiqarishi oldingi yilga nisbatan deyarli 20 foizga tushib ketdi. Neft inqirozi natijasida yapon korxonalarida ishchilarning yalpi ishdan bo'shatilishi va ish o'rinalining qisqartirilishi ro'y berib, ishlab chiqarish korxonalarining daromadlari keskin sur'atlarda kamaydi. Neft inqirozidan chiqib ketish maqsadida, ko'p energetika talab qiluvchi tarmoqlariga e'tibor qaratildi va sanoat tarmoqlarida energiya sarfini kamaytirishning yangi tizimini ishlab chiqqan bo'lsa-da, lekin ushbu "iqtisod qilish siyosati" ham u qadar samarador emasligini isbotladi.

Shundan so'ng, hukumat endi yangi moliyaviy islohotni ishlab chiqdi. Unga asosan, davlatning iqtisodiyotdagi nazorati qisqartirilib, davlat mulkinining xususiy lashtirishga yanada keng yo'l ochib berildi hamda korxonalarining soliqlari qisqartirildi. Amalga oshirilgan choratadbirlardan so'ng bozorlardagi narx-navo 1976-yildagina barqarorlashdi va sanoat tizimidagi ishlab chiqarish holati faqatgina 1978-yildagina qayta tiklanishga erishilib, 1972-yilgi iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga yetib oldi. 1980-yilda Yaponiya 1 yilda jahonda eng ko'p avtomobil, ya'ni 13490 ming dona yengil avtomobillarni ishlab

chiqardi va ushbu ko'rsatkich jahon avtomobil sanoatida rekord ko'rsatkich sifatida tarixdan joy oldi.

Oltinchi davri - 1984-1990-yillarni o'z ichiga olib, ushbu yillarda Yaponianing iqtisodiy salohiyati va nufuzi yil sayin o'sib bordi. Jahon bozorlarini yapon mahsulotlari egalladi va jahoning barcha bozorlarida yapon mahsulotlariga bo'lgan talab va ehtiyoj kuchayib bordi. 1984-yilda jahon bo'yicha yalpi ichki mahsulotning 12 foizi Yaponiyaga to'g'ri keldi.

1985-yili Nyu-Yorkda AQSH tomonidan tashkillashtirilgan AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya va Yaponiya Moliya vazirlari ishtirokida dollarni yetakchi mamlakatlarning milliy valutalarga nisbatan kursini tushirish uchun "Plazov shartnomasi" imzolandi. "Plazov shartnomasi"ga muvofiq, yapon yeni dollarga nisbatan kursi tushirildi va amaldagi 1 dollar -240 yen kursidan 160 yengacha tushirildi.

AQSHning bu g'oyasi asosida tuzilgan ushbu shartnoma Yaponianing milliy iqtisodiyotiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatdi: birinchidan, Yaponianing AQSHdan oladigan import mahsulotlarini yanada ko'payishiga olib kelgan bo'lsa; ikkinchidan, yapon eksport mahsulotlarini jahon bozorida o'zaro raqobatbardoshligi va YaIMning pasayishiga olib keldi. Bundan tashqari, milliy y彭ning kursi birdaniga ko'tarilib ketdi, fond birjalarida qimmatbaho qog'ozlar (aksiya) va yerlarning narxi oshib ketdi, ichki bozordagi mahsulotlarning asoslanmagan holda narxlar ham o'sib ketdi. Ushbu holat natijasida 1950-yildan buyon birinchi marta inflatsiyaning ko'rsatkich darajasi 20 foizga yetdi.

Lekin, ichki bozor hisobiga faoliyat ko'rsatuvchi noishlab chiqarish tarmoqlaridagi korxona va firmalarning ishlab chiqarishiga ushbu "yen inqirozi" deyarli u qadar ta'sir ko'rsatmadni, masalan: moliyaviy xizmat ko'rsatish, sug'urta va boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlari. Turli sanoat tarmoqlardagi korxona va tashkilotlarning mahsulotlari jahon bozorida narxi qimmatligidan deyarli o'tmay qolganligi sababli sanoat korxonalari o'z ish faoliyatlarini to'xtatmaslik maqsadida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni vaqtinchalik arzon narxlarda ichki bozor uchun yo'naltirildi.

Yettinchi davri – 1991-97-yillar. "Inflatsiya shyoki" 1991-yildagina to'xtadi. Tokio fond birjasida aksiyalarning narxi 2

marotabaga tushdi. Qo‘chmas mulk va yarlarning narxi asta-sekin tusha boshladi. 1990-yillardan hukumat tomonidan sanoatda “qayta qurish” siyosati olib borilishi natijasida juda kuchli barqaror iqtisodiyot vujudga keldi va asosan xizmat ko‘rsatish tarmoqlariga, aviatsiya, kosmonavtika, meditsina, biotexnologiya tarmoqlarni yanada rivojlantirishga e’tiborni qaratdi.

1994-yilda Yaponianing tashqi iqtisodiy siyosatida YI tashkilotiga a’zo mamlakatlari bilan keng miqqosda eksport-import jarayonlarini olib borishi va ular bilan tashqi savdoni yanada rivojlantirish maqsadida YI uchun “Yaponiyaga kirish darvozasi” dasturini qabul qildi. Shuningdek, Yaponianing 1994-1996-yillar uchun mo‘ljallangan tashqi iqtisodiy siyosati yo‘nalishlarida sobiq Ittifoq respublikalari bilan iqtisodiy hamkorlik munosabatlarini olib borishga alohida e’tibor qaratdi.

Sakkizinchi davri – 1998-2008-yillar. 1997-yilda Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida ro‘y bergen moliyaviy-iqtisodiy inqiroz Yaponiya iqtisodiyotini ham chetlab o‘tmadi, albatta. Biroq kuchli iqtisodiy salohiyatga ega bo‘lgan Yaponiya iqtisodiyoti XX asr oxirlarida iqtisodiy o‘sish sur’atlarini davom ettirdi. Hukumat iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish maqsadida 1998-yilda 1998-2001-yillarga mo‘ljallangan “Katta portlash” (Big Band) iqtisodiy dasturini qo‘lladi. Ushbu dasturga asosan iqtisodiyotni jadallashtirish uchun 33 trln.yen (285 mlrd.dollar) ajratildi va bu mablag‘ iqtisodiyotni qayta qurish va rivojlantirish uchun yetarli bo‘lib, asosan tijorat banklarning aylanmasiga qo‘yildi.

Yaponiya hukumati jahon bozorlarida xomashyo narxlarining surunkali ko‘tarilishi sababli, ko‘plab ishlab chiqarish inshootlarini Xitoy, Filippin va Vietnam kabi mamlakatlariga ko‘chirishga qaror qildi. Asosiy investitsiyalarni Lotin Amerikasi va Sharqiy Yevropa mamlakatlariga yo‘naltirdi. XVF ekspertlarining tahlillariga ko‘ra, 1998-2008-yillarda Yaponiya iqtisodiyotida ro‘y bergen ko‘plab o‘zgarishlar, milliy iqtisodiy taraqqiyotdagi ko‘plab ko‘rsatkichlarning pasayganligi hamda iqtisodiy o‘sishni to‘xtab qolganligi natijasida yaponlar iqtisodiyotni rivojlantirishda “10 yillik davrni yo‘qotgan” deb baholashgan edi.

To‘qqizinchi davr – 2009-yildan hozirgi kungacha bo‘lgan davr. 2011-yilda Yaponiya tarixida 8,2 shkaladagi eng kuchli

zilzilalarning biri ro'y berdi. Uning oqibatida 14 ta shahar va yuzlab qishloq hududlari hamda markaziy qirg'oqbo'yi hududlar dahshatli sunami oqibatida yaroqsiz holga keldi. Zilzila ta'sirida milliy iqtisodiyotga yetkazilgan iqtisodiy zarar kamida 300 mlrd.dollaridan ortiq deb baholandi. Tabiiy ofat natijasida ko'rilgan iqtisodiy zarar mahalliy mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, "Tabiiy ofat natijasida jahon iqtisodiyoti tarixidagi eng yirik zarar" deb ataldi. Qariyb 20 mingdan ortiq kishi nobud bo'ldi, zilzila oqibatida mamlakatdagi eng yirik AESlar (Fukusima-1 va Fukusima-2) vayron bo'ldi va ularning atrofidagi yuzlab turar-joylardan aholi boshqa hududlarga majburan ko'chirildi. Yaponiyada ro'y bergan ushbu mudhish zilzila oqibatida Ikkinchi jahon urushidan beri birinchi marta oziq-ovqat va aholi iste'moli mahsulotlari tanqisligiga duch kelindi.

Hammamizga ma'lumki, Yaponiya 2020-yilgi rejalahtirilgan "Yozgi olimpiada o'yinlari"ni mezbon sifatida o'tkazish bo'yicha 2014-yilda bo'lib o'tgan xalqaro tanlovda g'olib chiqqan edi. Mazkur yirik anjumanni oliy darajada o'tkazish uchun qariyb 5 yil davomida tayyorgarlik ishlari, qurilish va boshqa tashkiliy ishlar uchun umumiyligi miqdorda jami 7,2 mlrd.dollari miqdoridagi sarf-xarajatni amalga oshirdi. Biroq 2020-yilda yuzaga kelgan pandemiya tufayli avvaliga Kanada va undan keyin Avstraliya kabi mamlakatlar hamda keyinchalik boshqa ko'plab mamlakatlar ham Olimpiada o'yinlariga o'z vakillarini Yaponiyaga yubormasliklarini rasman e'lon qilishdi. Zero, shu paytga qadar Yaponiya Imperatori davlatning siyosiy ishlariga aralashmasdan kelgan bo'lsa-da, biroq Yaponiya Bosh Vaziri Sh.Abe jahonda yuzaga kelgan pandemiya sharoitida Yozgi olimpiada o'yinlarini o'tkazish borasida Imperatoridan maslahat oldi va o'z o'rnida, Imperator tomonidan ayni paytda bu xalqaro anjuman dunyo xalqlari boshiga kulfat tushganda o'tkazilishi mavridi emasligi, mahalliy aholini sog'lig'iga jiddiy xavf solishga yo'l qo'ymaslikka chaqirdi.

Shu kabi va boshqa bir qator obyektiv sabablarga ko'ra, Yaponiya hukumati pandemiya sharoitida mazkur yirik anjumanni o'z vaqtida o'tkazish fursati emasligini bildirib, Xalqaro olimpiya qo'mitasidan ushbu anjumanni 2021-yilning iyul oyida o'tkazilishini ma'lum qildi. Tokioda bo'lib o'tadigan Yozgi olimpiada va Paralimpiya o'yinlari xorijlik muxlirlarsiz o'tkazilishiga kelishildi.

16.5. “Yaponiya modeli” va uning omillari

1868-yilda Yaponiya o‘zining 200 yillik “tashqi dunyodan yopiq holda rivojlanish davri”ni tugatdi va o‘z eshiklarini dunyoga ochdi. 1868-yilda Tokugava Shogunatlik davri tugab, imperator Meyji tomonidan davlat to‘g‘ridan to‘g‘ri boshqariladigan bo‘ldi 1868-1912-yillarda iqtisodiyot tarixida “Tiklanish davri” ro‘y berdi va bu davrda hukumat 5 ta moddadan iborat bo‘lgan “Imperial qasam” (Gokajo No Goseimon)ni e’lon qildi. Uning 5-moddasida “Imperiya farovonligini oshirish uchun ilm-fan butun dunyodan yig‘ib kelinishi lozim”ligi belgilandi hamda Yaponiya Yevropa va AQSHga qaram bo‘lib qolmaslik uchun ilm-fanni taraqqiy ettirishga qaror qilishdi. 1868-yoldayoq, Meyji tiklanish davrining ko‘zga ko‘ringan iqtisodchi va siyosatchilari tomonidan dunyo ilmini jamlovchi yapon olimlari tomonidan “Hammasi davlat farovonligi uchun!” shiorini tatbiq etishdi. Yaponianing kelajak davlat arboblari, siyosatchi va iqtisodchi olimlari sifatida qaralgan Kido Takayoshi, Yamaguchi Masuka, Ivakura Tomoni, Ito Hirobumi, Okubo Toshimichi kabilar 1870-73-yillarda Buyuk Britaniyaning yetuk oliygohlarida ta’lim olishdi.

“Yaponiya modeli” deyarli 150 yil davomida asta-sekin shakllangan va o‘z xususiyatlariiga ega bo‘lgan milliy taraqqiyot uslubidir. Yaponiya modelining Yevropa va amerika mamlakatlari modellaridan farqi shuki, u jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida davlatning yuqori darajada qatnashuvidir. Yapon modeli - yapon vatanparvarlik tuyg‘usi va haqiqiy mehnat asosida yaratilib, eng avvalo, ishlab chiqarishni chetga eksport qilib, xorijiy valuta ishslash, uning evaziga yetakchi xorijiy mamlakatlardan eng zamonaviy texnologiyalarni jalb qilib, yuqori mehnat unumdorligiga erishish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir. “Yaponiya modeli”ning omillari quyidagilardan iboratdir:

- 1) mamlakatdagi ishlab chiqaruvchi barcha firma va kompaniyalarning integrallashuvi (keyretsu) va natijada moliya-sanoat guruhlarining tuzilishi. Bunda yirik kompaniyalarning kichik va o‘rta korxonalar bilan birlashuvidir. Lekin ko‘plab keyretsular urushdan oldingi monopol kompaniyalardan (dzaybatsu) kelib chiqqan “Mitsubishi”, “Sumitomo”, (“Mitsui”, “Sanva” va boshqalar). Bu guruhlar yirik banklar, savdo va sanoat kompaniyalar tomonidan

boshqarildi (masalan, 1950-yillarda “Fudzi-Yasuda”, “Dayiti Kangyo Ginko” va boshqa yirik konsernlar vujudga keldi);

2) mamlakatda yuqori darajadagi mehnat munosabatlari tizimini shakllanishuvi, ya’ni:

- yapon milliy urf-odatlaridan kelib chiqqan holda hukumat har bir fuqaroni butun umrga ish bilan ta’minalash;

- ishchi o‘rlinga yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash;

- korxona rahbariyatining ishchilarni doimiy faoliyat ko‘rsatishini kafolatlash, biroq biror bir amaldagi qonun yoki davlat hujjatlarida ishchilarning korxona tomonidan butun umr davomida ish bilan ta’minalishi qayd etilmagan;

- ishchilarning yoshiga va ish stajiga qaramasdan oylik maoshlarini tengma-teng ravishda oshirilishi hamda ularning ish faoliyatlarini doimiy ravishda rotatsiya qilinishi;

- kompaniya va firma rahbarlari tomonidan ishchi-xizmatchilarni doimiy tarzda ham ijtimoiy ham iqtisodiy tarzda rag‘batlantirib turilishi. Bundan tashqari, ishchi va xodimlarning uy-joy va kommunal xizmatlari to‘lovleri uchun “Maxsus moddiy yordam” hamda transport va meditsina xizmatlari uchun ham moddiy nafaqlar berilishi;

- ishchilarning “Ishxona – bu bizning uyimiz” shiori ostida faoliyat ko‘rsatishi va ishxonalarda ishchilarlarning mehnat intizomiga qattiq rioya qilinishi kabilarni o‘z ichiga oladi.

Yapon boshqaruvi tizimi xordimlarning firma manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yishga intilishlarini har tomonlama rag‘batlantirib, firma bilan xodimlarning jipslashuvini kuchaytirishga harakat qiladi. Yaponiyalik fuqaroden mashg‘ulot turi va uning kasbi so‘ralganda, u o‘zi ishlaydigan firmaning nomini aytadi xolos. Savol beruvchi ham bunday javobdan qoniqish hosil qiladi, chunki bunday holatda u aynan firmaning nomini bilishni xohlaydi xolos. Xalqaro mehnat tashkilotining tahliliga ko‘ra, yapon xalqi dunyodagi eng mehnatsevar xalqlarning biri sifatida e’tirof etiladi.

Ish joyiga bo‘lgan bunday munosabat mehnat koeffitsiyentini va ish sifatining keskin oshishiga hamda mehnat intizominining mustahkamlanishiga yordam beradi. Yaponiyada ishga kelmaslik holatlari koeffitsiyenti boshqa davlatlarga nisbatan ancha past bo‘lib, ko‘plab Yaponiyalik ishchi-xodimlar haq to‘lanadigan mehnat ta’tilidan ham to‘liq foydalanmaydilar. Chunki ularni ish joyida

bo‘lmasliklari firma manfaatlariga ziyon yetkazishi mumkin deb hisoblaydilar;

3) mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida hukumatning ahamiyati va uning kuchli nazorati. Hukumat mamlakatdagi barcha iqtisodiy muammolarni “Moliya-sanoat guruhlari” rahbarlari bilan hamkorlikda hal qiladi. Shu bilan birga, Yaponiya hukumati markazlashgan umum davlat rivojlanish rejalarini quyidagi yo‘nalishlarda ishlab chiqadi va ijrosini o‘z nazoratiga oladi, ya’ni:

- iqtisodiy taraqqiyot;
- ijtimoiy-ta’midot;
- yer va yer osti manbalardan foydalanish;
- sanoat tarmoqlarini rivojlantirish dasturlari va rejalarini ishlab chiqadi;

4) hukumat tomonidan mamlakatda har qanday biznesga qarshi qattiq kurash olib borish va nazorat o‘rnatishi;

5) milliy kadrlar tayyorlashni hamda ta’lim tizimini takomillashtirish. Yapon farzandlari yoshlik yillaridanoq, ta’limga qiziqishini va kasb egallashiga mehr qo‘yishi uchun ustozlar yordamida tarbiyaviy ishlar olib boriladi. Yaponianing ta’lim tizimi jahon reytingida eng yuqori o‘rinlarda turadi.

Demak, “Yaponiya modeli” omillaridan ko‘rinib turibdiki, mehnat va ta’lim omillari milliy iqtisodiy taraqqiyot modelining muhim omillari hisoblanadi. Yaponiyada mahalliy oliygojni bitiruvchisi o‘zi bitirgan sohasida ishlashi lozim emas va “har bir talaba o‘zi bitirgan soha bo‘yicha ishlaydi” degan ibora qabul qilinmagan. Yuzlab huquq fakultetlarida o‘qigan minglab bitiruvchilar asosan xususiy firmalarga ishga kirishadi. Xodimlarni o‘qigan sohasiga emas, balki o‘zlashtirish qobiliyati, moslasha olish sifatiga qarab ishga olishadi hamda amaliyot bilan 3-6 oy davomida qayta o‘qitiladi, firma yoxud davlat sohasiga moslashtiriladi.

16.6. Yaponianing hozirgi iqtisodiy va siyosiy muammolari hamda istiqbollari

Yaponiya jahondagi rivojlangan mamlakat bo‘lsa-da, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yo‘nalishlarda bir qator muammolar mavjuddir. Hukumat tomonidan ushbu mavjud muammolarni doimiy tarzda hal qilishga asosiy e’tiborni qaratgan. Demak, quyidagi muammolar

tarkibini ko‘rib chiqamiz:

– XX asrning so‘nggiga kelib “Yaponiya modeli” o‘zining xususiyatlarni yo‘qota boshladi va ishsizlik darajasi asta-sekin o‘sib bormoqda. Ishchi o‘rinlarni to‘ldirish maqsadida qo‘shni mamlakatlardan shartnomalar asosida ishchilar jalb qilinmoqda (hatto uzoq O‘zbekistondan ham);

– poytaxt Tokio shahrida aholi sonining ko‘payishi tufayli ko‘plab tashkilotlar va aholining uy-joyga bo‘lgan ehtiyoji ko‘payib bormoqda hamda uy-joy va yerning narxi yildan yilga oshib bormoqda, shuningdek, poytaxt ko‘chalarida jiddiy transport to‘siqlari vujudga kelmoqda;

- ushbu muammolarni bartaraf qilish uchun davlat tashkilotlarini va xalqaro diplomatik korpuslarni boshqa shaharga ko‘chirishni, aniqrog‘i yaqin istiqbol yillarda (2030-yilda) poytaxtni markaziy shaharlaridan biriga, ya’ni Senday yoki Nagoya shahriga ko‘chirish rejalashtirilmoqda;

– 2011-yilgi tabiiy ofat natijasida Fukusima tevarak-atrof hududlarining “nurlanishi” sababli ekologiya zaharlangan va uning oqibatlariga to‘la barham berilganicha yo‘q.

– Yaponiya Rossiya bilan mana qariyb 70 yildan beri mamlakatning shimolidagi Kurill orollari bo‘yicha (Iturup, Kunashir, Shikotan va Xabomai orollari) hududiy tortishuvlarni olib bormoqda va ikki davlat o‘rtasidagi ushbu bahsli vaziyat haligacha o‘z echimini topganicha yo‘q;

– mamlakat qirg‘oqlarida yuz minglab kemalarning faoliyati natijasida dengiz suvlari zaharlanmoqda va dengiz “hayvonot olami”ga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda (dengiz mahsulotlari yaponlarning eng asosiy ozuqasidir);

– Yaponiyada tug‘ilish keskin kamayib borayotganligi sababli aholining asosiy qismi 10-15 yildan so‘ng “keksayish davri”ga kiradi. Bu holat hozirdanoq Yaponiya hukumatini qattiq tashvishga solmoqda.

Bob yuzasidan xulosa

Yaponiya Ikkinchi jahon urushi natijasida katta iqtisodiy zarar ko‘rgan bo‘lsa-da, u o‘zining iqtisodiy ahvolini boshqa mamlakatlarga qaraganda tezroq o‘nglab oldi va tez fursatda jahon xo‘jaligidagi AQSHdan keyin ikkinchi mamlakat sifatida tan olindi. Albatta, uning

“iqtisodiy mo‘jiza”ga erishishida “Yaponiya modeli” va AQSHning iqtisodiy hamkorligini alohida ta’kidlash joiz. Yaponiya milliy iqtisodiyotining tiklanishi va uning taraqqiyotini asosan ikki bosqichga bo‘lamiz, ya’ni: birinchi bosqich – 1945-1954-yillar mobaynida Yaponiya iqtisodiyotining barqarorlashuvi bo‘lsa; ikkinchi bosqich esa – 1955-1973-yillar mobaynida Yaponiya iqtisodiyotining juda tez sur’atlarda rivojlanishidir.

Demak, yapon milliy iqtisodiyotining yaqin kelajak yillardagi salohiyati haqida quyidagilarni taxmin qilish mumkin bo‘ladi:

- yirik va qudratli hamda katta miqdordagi moliyaga ega bo‘lgan kompaniyalar iqtisodiyotning eng asosiy “dvigateli” bo‘lib qoladi;
- yaqin istiqbol yillarda ham xomashyo resurslarini ko‘p talab qiladigan korxonalarni yaqin qo‘shti xorijiy mamlakatlarga ko‘chirish jarayoni davom etadi. Albatta, mamlakatning o‘zida yuqori texnologiya asosiga ega bo‘lgan mahsulotlarga ishlab chiqarish jarayoni davom etadi;
- aholining asosiy qismi keyingi yillarda ko‘proq daromad olish maqsadida xizmat ko‘rsatish sohalariga o‘tib ketishmoqda. Shuning uchun ham, so‘nggi yillarda xorijiy mamlakatlardan malakali ishchi kuchlarini sanoat tarmoqlariga jalg qilinishi davom etadi.

Nazorat savollari

1. Yaponyaning iqtisodiy-geografik o‘rnini ta’riflab bering.
2. Yaponyaning asosiy industrial shaharlari ayting.
3. Yaponyaning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini ayting.
4. Yaponyaning aholisi, uning tizimi, dinamikasi qanday muammolarga duch kelmoqda?
5. Yaponyaning “iqtisodiy mo‘jiza” yaratishdagi asosiy omillarini ayting.
6. Yaponyaning iqtisodiy o‘sish davrlarining eng asosiy davri va uning xususiyatlarini aytib bering.
7. “Yaponiya modeli” va uning mohiyatini ayting.
8. “Yaponiya modeli”ning omillarini ayting.
9. Yaponiyadagi jahon sanoat markazlarini ayting.
10. Ikkinci jahon urushidan so‘ng qaysi dastur milliy iqtisodiyotni tiklanishida asosiy ahamiyat kasb etgan va uning mohiyatini ayting.

11. Yaponianing iqtisodiy rivojlanishida AQSHning iqtisodiy hamkorligini aying.
12. Yaponianing hozirgi iqtisodiy-siyosiy muammolarini aying.
13. Yaponiya iqtisodiyotining qaysi tarmoqlari jahon xo‘jaligida yetakchi hisoblanadi?
14. “Plazov shartnomasi” nima va uning mohiyatini aying.
15. 2011-yildagi tabiiy ofat natijasida milliy iqtisodiyot qancha miqdorda zarar ko‘rgan va uning tafsilotlarini aying.
16. 2020-yilgi “Yozgi olimpiada o‘yinlari” uchun qancha miqdorda sarf-xarajat qilingan va mazkur xarajatlar qaysi yo‘nalishlarga sarflangan?

Uyga vazifa!

Talabaning “Jahon xo‘jaligida birinchi “iqtisodiy mo‘jiza”ni vujudga kelishida Yaponianing iqtisodiy rivojlanish tajribasi” mavzusini chuqur o‘zlashtirishi hamda amaliyot darsiga puxta tayyorgarlik ko‘rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

- 1) mavzu so‘ngida berilgan “Nazorat savollari”ga tayyorgarlik ko‘rish;
- 2) Yaponianing hududini xarita orqali iqtisodiy-geografik joylanishuvini ko‘rib chiqish;
- 3) Yaponiya umumiy tashqi savdosining eksport va import tarkibidagi asosiy mahsulotlar va ularning geografik yo‘nalishlari bo‘yicha jadval ishlab chiqish;
- 4) Yaponiya iqtisodiyotining sanoati, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohasi bo‘yicha talabalar guruhlarga bo‘lingan holda “Taqdimot” o‘tkaziladi.

XVII BOB. GERMANIYA IQTISODIYOTI VA UNING JAHON XO‘JALIGIDA TUTGAN O‘RNI

- 1. Germaniyaning iqtisodiy – geografik holati, qisqacha tarixi va aholi tizimi.**
- 2. Germaniyaning jahon iqtisodiyotidagi mavqeい va uning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari.**
- 3. Germaniyaning “iqtisodiy mo‘jiza” yaratishidagi asosiy omillari.**
- 4. “Nemis modeli” va uning xususiyatlari.**
- 5. Jahon xo‘jaligida “nemis mo‘jizasi”ni vujudga kelishining asosiy bosqichlari.**
- 6. Germaniyaning zamonaviy iqtisodiyoti va uning xususiyatlari.**

Tayanch iboralar: Yevro, doych marka, prognoz, nolegal, Bundestag, GFR va GDR, simvol, reyxsmarka, nemis markasi, “Pul islohoti”, “Iqtisodiy taraqqiyot”, “qora bozor”, Bundesbank, NATO.

17.1. Germaniyaning iqtisodiy – geografik holati, qisqacha tarixi va aholi tizimi

Germaniya (Deutschland) yoki Germaniya Federativ Respublikasi Yevropaning markaziy qismida joylashgan bo‘lib, u Yevropaning markaziy va sharqiy davlatlarini bir – biriga bog‘lab turadi. U jami 9 mamlakat bilan chegaradosh, jumladan, shimolda Daniya (chegara uzunligi – 68 km), g‘arbda Gollandiya (577 km), Belgiya (167 km), Luksemburg (138 km) va Fransiya (451 km) davlatlari bilan, janubda Shvetsariya (334 km) va Avstriya (784 km), sharqda Chexiya (646 km), Slovakiya, Polsha (456 km) davlatlari bilan chegaradoshdir. Uning shimoliy hududini Baltika dengizi yuvib turadi.

Mamlakat yirik qazilma resurslarga boy bo‘lib, jumladan temir ruda, ko‘mir, mis, tabiiy gaz, nikel va boshqa tabiiy resurslar mavjud.


“Yirik industrial va ma’muriy shaharlari: Berlin (6 mln.aholi), Myunxen, Gamburg, Drezden, Kyoln, Frankfurt-na-Mayne, Essen, Dyusseldorf, Shtutgart va boshqa o‘nlab shaharlar kiradi. GFR hudu-diy jihatdan 16 provinsiyadan tashkil topgan bo‘lib, uning umumiyl maydoni 356,96 km.kv. bo‘lib, yer maydonining kattaligi jihatidan

Yevropada Rossiya, Ispaniya va Fransiyadan so‘ng 4-o‘rinda turadi.

Germaniya Ikkinchiji jahon urushining asosiy sababchi davlatlaridan biri bo‘lib, 1939-1945-yillar davomida mamlakatning

17 mln. kishisi halok bo‘lgan. 1949-yilda Germaniya rasmiy ravishda ikki mamlakatga bo‘linadi: Germaniya Federativ Respublikasi (GFR) va Germaniya Demokratik Respublikasi (GDR). Biroq XX asr oxirlarida, aniqrog‘i 1990-yilning 3-oktabrida ikki mamlakat nemis xalqlari birlashib, yana yagona mamlakatga - GFRga aylandi. 1991-yilning 20-iyunida Berlin Germanyaning poytaxti deb e’lon qilindi hamda 2000-yilgacha faoliyat ko‘rsatgan “Bundestag” Bonn shahridan Berlin shahriga ko‘chib o‘tadi. Davlat rahbari federal prezident hisoblanadi, u xalqaro munosabatlarda mamlakat nomidan ish ko‘radi. Ijroiya xyokimiyati to‘laligicha federal kansler qo‘lida. Germaniya Federal kansler i Angela Merkel. Pul birligi – yevro bo‘lib, 2002-yil 1-yanvargacha nemis markasi, ya’ni “doych marka” bo‘lgan. Doych marka nemis xalqining uzoq yillardan buyon simvoli bo‘lib kelmoqda.

Germanianing jahon xaritasida joylashgan o‘rnii



Germaniya bir qator nufuzli tashkilotlarga a’zo hisoblanadi: 1951-yilda Xalqaro savdo tashkilotiga (GATT), 1952-yilda XVFga va eng

muhimi, 1957-yilda Germaniya va Fransiya boshchiligidagi bugungi kundagi jahondagi eng yirik integratsiyaviy tashkilot hisoblangan YI tashkil qilindi.

Germaniya aholisi 83,6 mln. kishini tashkil qilib, uning 8 mln.ni migrantlardir. Aholi zichligi – 1 km.kv.ga 232 kishi to‘g‘ri keladi va mazkur ko‘rsatkich bo‘yicha Yevropada Belgiya va Gollandiyadan so‘ng 3-o‘rinda turadi. Aholi soni jihatdan Germaniya Yevropada Rossiyadan so‘ng 2-o‘rinda turadi. 1940-yillarda mamlakat aholisi taxminan 31 mln. kishini tashkil qilgan, lekin 1939-1954-yillar oralig‘ida mamlakatga xorijdan ko‘plab migrantlar tashrif buyurgan. Umumiy aholining 88 foizini nemislar tashkil qiladi.

XVFning Vena instituti mutaxassislari tahlillariga ko‘ra, Germaniyada jami 8 mln.dan ortiq turk millatiga mansub aholi istiqomat qiladi. Bunga sabab, 1950-yillari, sanoat tarmoqlariga xorijdan ko‘plab arzon ishchi kuchlarni jalb qilgan. O‘scha yillari GFR-Turkiya o‘rtasidagi siyosiy-iqtisodiy munosabatlar yuqori darajada rivojlangan edi. Shuning uchun ham, turklarning GFR hududiga kirishi va ularning turli sohalarida mehnat olib borishi unchalik yangilik bo‘lmay qolgan edi.

Mehnatga layoqatli aholi 41,2 mln. kishini tashkil qilib, shundan 41 foizi sanoatda, 53 foizi xizmat ko‘rsatishda va 6 foizi qishloq xo‘jaligi sohasida mehnat qilishadi.

17.2. Germanyaning jahon iqtisodiyotidagi mavqeい va uning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari

Germaniya sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish, iqtisodiy salohiyati va tashqi savdosi hamda uning rivojlanish darajasi bo‘yicha dunyo mamlakatlari ichida eng yuqori o‘rnlarni egallab turgan davlatlardan biridir. U Yevropada iqtisodiy salohiyati jihatidan eng buyuk davlatdir, shuningdek, Germaniya jahondagi eng nufuzli norasmiy tashkilot hisoblangan “Katta yettilik” tashkilotining a’zosidir.

Shuningdek, u sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha jahonda 4-o‘rinda (AQSH, Xitoy va Yaponiyadan so‘nd) va jahon YaIMdagi ulushi 5 foizni tashkil qiladi. Germanyaning YaIM miqdori 3.845,6 mlrd. dollarni tashkil qilib, jahonda 4-o‘rinda turadi. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadi 48.520 dollar bo‘lib, jahonda 18-o‘rinni egallab turibdi. Jahon bo‘yicha YaMMning 7 foizi hamda Yevropa Ittifoqi YaMMning 27 foizi Germaniyaga to‘g‘ri keladi.

Germanyaning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini 17.2.1-

jadval orqali ko‘rish mumkin. Umumiy tashqi savdo miqdori – 2.733,3 mlrd. dollar bo‘lib, bundan eksporti – 1.492,8 mlrd. dollar va importi esa 1.240,5 mlrd. dollarni tashkil qiladi. Eksport miqdori import miqdoriga qaraganda ijobiy saldoni beradi. Germaniya umumiy tashqi savdo miqdori jihatidan jahonda Xitoy va AQSHdan so‘ng 3-o‘rinda turadi. Tashqi savdo-sotiq miqdori 1951-yildan 2019-yilgacha yiliga o‘rtaligda hisobda 8,3 foizdan o‘sib kelmoqda. Shuningdek, jahon eksportida tog‘-kon qazish va metallurgiya texnologiyalari, plastmassa, o‘lchov asboblari va yog‘ochni qayta ishslash mahsulotlari miqdori bo‘yicha 1-o‘rinda turadi.

17.1 –jadval

Germanianing asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari

T/r	Asosiy ko‘rsatkichlar va xususiyatlari	Miqdori va belgilari
1	YaIM miqdori (mln.doll.) ⁷⁴	3.845,6
2	YaMMning aholi jon boshiga (doll.) ⁷⁵	48.520
3	Umumiy tashqi savdo aylanmasi (mlrd.doll.)	2.733,3
4	Eksporti (mlrd.doll.)	1.492,8
5	Importi (mlrd.doll.)	1.240,5
6	Eng asosiy tashqi savdo hamkorlari	Fransiya, Buyuk Britaniya va Italiya
7	Valuta zaxirasi (mlrd.dollar) ⁷⁶	233,2
8	Tashqi qarzi (mlrd.doll.) ⁷⁷	2.557,1
9	Aholi soni (mln. kishi) ⁷⁸	83,6
10	Umumiy yer maydoni (ming km.kv.)	357,0
11	Ishsizlik darajasi (foiz)	11,0
12	Milliy valutasi (pul birligi)	Yevro
13	Mamlakat poytaxti	Berlin
14	Rasmiy davlat tili	Nemis tili

Manba: ushbu jadval ma’lumotlar asosida ishlab chiqilgan.

Asosiy eksport mahsulotlariga avtomobillar, mashinasozlik,

⁷⁴ Gtmarket.ru/ratings/gross-national-income-ranking

⁷⁵ https://data.worldbank.org/indicator/NY.GNP.PCAP.CD

⁷⁶ https://nonews.co/directory/lists/countries/gold

⁷⁷ https://ru.m.wikipedia.org/wiki/%DO%A1%DO%BF%DO%B8%

⁷⁸ https://ru.m.wikipedia.org/wiki/Spisok_stran_po_naseleniyu

elektron-texnika, kimyo va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari kiradi, eksportdagi asosiy tashqi hamkor mamlakatlari: asosan Fransiya, Buyuk Britaniya va boshqa mamlakatlar. Asosiy import mahsulotlariga esa rangli metallar, neft, kiyim-kechak va aholi iste’moli mahsulotlari kiradi. Importdagi asosiy tashqi hamkor mamlakatlari: Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya va boshqa mamlakatlar tashkil qiladi. Demak, Germaniyaning tashqi savdodagi eng asosiy hamkor Fransiya mamlakatidir. Ishsizlikning ko‘rsatkichi 11,0 foiz bo‘lib, so‘nggi yillarda ishsizlik darajasi yil sayin ortib bormoqda. Tashqi qarzi – 2,6 trln. dollar bo‘lib, uning tashqi qarz miqdori tobora ortib bormoqda. O‘rtacha oylik maoshi 2020-yilda 4060 yevroni tashkil qilgan, biroq ushbu o‘rtacha hisoblangan oylik maoshlari miqdori unga qo‘shni bo‘lgan Avstriya, Shvetsariya, Belgiya, Luksemburg va Daniya mamlakatlaridagi o‘rtacha oylik maoshlaridan kamdir.

2020-yilda jahon iqtisodiyotida ro‘y berayotgan inqiroz Germaniya iqtisodiyotiga ham katta salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shunga ko‘ra 2020-yilgi uning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari 2019-yilga qaraganda salmoqli darajada pasaydi. U hozirda bir qator iqtisodiy muammo va to‘sislarga duch kelmoqda. Masalan, jahon ahli muammosiga aylangan “COVID-19” muammosiga to‘la barham berilmaganligi, yil sayin mamlakatning markaziy va turli burchaklarida nolegal fuqarollarning ko‘payib borishi, YIning Rossiyaga “iqtisodiy jazo”sining nemis iqtisodiyotiga salbiy ta’siri, ishsizlik darajasining so‘nggi 60 yildagi rekord ko‘rsatkichga chiqqanligi Germaniya iqtisodiyotining iqtisodiy salohiyatiga ta’sir ko‘rsatmoqda.

Albatta, hukumat tomonidan asosiy yo‘naltirilayotgan mablag‘lar Yuqoridagi muammolar va pandemiyaga barham berishdan iborat bo‘lmoqda. Shunga ko‘ra, nemis ekspertchilarining hozirdanoq hisob-kitoblariga ko‘ra, 2021-2022-yillarda iqtisodiyotning asosiy ko‘rsatkichlarini kamida 3-5 foizgacha pasayishini prognoz qilmoqdalar.

17.3. Germaniyaning “iqtisodiy mo‘jiza” yaratishdagi asosiy omillari

1. *Iqtisodiy-geografik ahvolining qulayligi.* Germaniya Yevropaning markazida joylashganligi sababli, u Sharqiy Yevropani va G‘arbiy Yevropani bog‘lab turuvchi hudud hisoblanib, asosiy xalqaro tranzit yo‘llarni bog‘lab turuvchi mamlakatdir. Shuningdek, uning shimoliy hududi dengizga tutashganligi bois, ko‘plab dengiz portlari mavjud. Gamburg dengiz porti mamlakatning eng yirik dengiz porti bo‘lib, u yuk ortish va tushirish miqdori bo‘yicha Yevropada yetakchi 10 ta dengiz portlari reytingidan joy olgan. Milliy iqtisodiyotda esa, hududlarda yuk tashish miqdori bo‘yicha avtomobil yo‘llari transportining ulushi kattadir.

2. *Milliy iqtisodiyotda yalpi ichki mahsulotning tez sur’atlarda o‘sishi.* 1948-yildan 1962-yilgacha YaIMning o‘rtacha yillik o‘sishi 8 foizni tashkil qilgan va bu ko‘rsatkich bugungi kungacha uzoq 15 yillik davomidagi yuqori ko‘rsatkich bo‘lib qolmoqda.

3. *Nemis xalqining etnik va madaniy jihatdan birdamligi va mehnatsevarligi.* Yevropada nemis xalqi mehnatsevarlik koeffitsiyenti bo‘yicha yuqori o‘rinda turgan bo‘lsa-da, biroq yil sayin ularning ishga bo‘lgan e’tibori va mehnatsevarlik darajasi pasayib bormoqda. Mamlakatda haftasiga 38 soat ish vaqtini belgilangan bo‘lsa-da, jahondagi rivojlangan mamlakatlar ichida aholining eng ko‘p bayram va dam olish kunlari sonining ko‘pligi jihatidan Germaniya Singapurdan so‘ng 2-o‘rinda turadi. Shunisi e’tiborliki, dunyo halqlari ichida korxona va firmalarda ishlovchi har bir nemis vakillari ishga bo‘lgan chanqoqligi, o‘ziga biriktirilgan vazifalarni sidqidildan va o‘z muddatida hamda har bir ishlarni aniq hisob-kitoblar asosida bajarishi, unga yuklangan topshiriqlarning ijrosini yakuniga yetkazishida “nemischa faoliyat” nomini ham olishgan.

4. *Germaniyaning AQSH bilan “harbiy ittifoq” tuzganligi va uning hamkorligining milliy iqtisodiyotiga ijobiy ta’siri.* Ikki mamlakat o‘rtasida 1946-yilda tuzilgan “Harbiy ittifoq” bitimiga muvofiq, bevosita AQSHning yordamida ko‘plab inshootlar, zavod va fabrikalar qurildi hamda urushdan keyingi tiklanish jarayoniga katta yordam berdi.

5. *Germaniya iqtisodiyotiga “Marshall rejasi”ni tatbiq qilinishi.*

“Marshall rejasi”ga muvofiq, 1948-1949-yillar davomida AQSH Germaniyaga 1,9 mld. doll. miqdorida mablag‘ berdi, ushbu mablag‘ o‘sha paytdagi pul qadriga ko‘ra har bir nemis fuqarosiga 150 markadan to‘g‘ri kelgan. Bundan tashqari, AQSH tomonidan beg‘araz berilgan iqtisodiy yordam evaziga 1945-1948-yillar davomida oziq-ovqat, aholi iste’moli mahsulotlari, agrar soha uchun mineral o‘g‘itlar va urug‘lar keltirildi.

6. Milliy iqtisodiyotning rivojlanishida “nemis modeli”ning ustuvor ahamiyati.

7. “Nemis mo‘jizasi”ni vujudga kelishida Lyudvig Erxardning ahamiyati. Avvalo, savol tug‘iladi – jahon xo‘jaligida “nemis mo‘jiza”si qanday vujudga keldi? Germaniya hukumatining kuchli ijtimoiy bozor iqtisodiyotini shakllantirishda iqtisodiy va siyosiy siyosatni oqilona olib borishining natijasidir. Urushdan keyingi yillarda, Iqtisodiyot vaziri (keyinchalik kansler) Ludvig “Erxard tomonidan 1948-50-yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohot va dasturlar jahon xo‘jaligida “nemis mo‘jizasi”ni vujudga kelishiga olib keldi. L.Erxard (hozirda nemis xalqi uni “nemis iqtisodiy mo‘jizasining otasi” deyishadi) va uning Yevropa ishlari bo‘yicha kotibi Alfred Myuller-Armok ikkalasi hamkorlikda 1948-yilda tatbiq qilingan “Iqtisodiy taraqqiyot” va “Pul islohoti” iqtisodiy dastur va islohotlari amalga oshirilib, qisqa yillar ichida milliy iqtisodiyot oyoqqa tura boshladi. A.Myuller-Armokning Germaniya iqtisodiyoti tarixiga muhrlangan quyidagi mashhur iborasini hozirgi yosh nemis iqtisodchi olimlari doim yodga olishadi: “Ijtimoiy bozor iqtisodiyotining ma’nosi shundaki, bozordagi erkinlik tamoyili bilan ijtimoiy tamoyilni uzviy bog‘liqlikni tashkil qilish demakdir”.

1945-1948-yillarda hukumat oldida milliy iqtisodiyotni tartibga solishda ikkilanish bo‘lib qoldi, jumladan, iqtisodiyotni rivojlantirishda rejali iqtisodiyotdan foydalanish yoki erkin bozor xo‘jaligini tashkil qilish. Hukumat ikkinchi maqbul yo‘lni tanlaganligi keyinchalik to‘g‘ri yo‘l ekanligiga nemis xalqi iqror bo‘ldi. L.Erxard mamlakatni erkin bozor iqtisodiyotiga o‘tganligini e’lon qildi hamda ishlab chiqaruvchilarga barcha erkinliklar, shart-sharoitlar va turli imtiyozlar yaratib berildi. Bularning natijasida 1960-yillarga kelib jahonda o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan

“nemis modeli” vujudga keldi.

8. ***Pul islohoti*”ni oqilona amalga oshirilishi va uning milliy iqtisodiyot rivojiga ta’siri.** 1948-yilda L.Erxard boshchiligidagi mahalliy nemis rahbariyati tomonidan uzoq oylardan buyon yashirin tarzda puxta tayyorgarlik ko‘rilib kelingan “Pul islohoti”ni amalga oshirdi. Ushbu islohot 1948-yilning 19-iyun kuni (shanba kuni) radio orqali va barcha mahalliy gazetalarda “Haqqoniy mehnatga – haqqoniy ish haqi” shiori e’lon qilindi. Ertasiga 20-iyun yakshanba kuni, butun mamlakat bo‘ylab sobiq reyxsmarka pullarini yangi pul banknotiga almashtirish boshlandi. Har bir nemis fuqarosiga 40 nemis markasidan va mamlakat bo‘yicha jami 2 mlrd. nemis markasi tarqatildi. 2 oydan so‘ng yana hamma mahalliy fuqarolarga 20 nemis markasidan mablag‘ ajratildi.

Amalga oshirilgan “Pul islohoti”ning birnchi kunida do‘konlarning bo‘m-bo‘sh peshtaxtalari turli xil mahsulotlar bilan to‘ldirildi (albatta, bunga oldindan yashirin tarzda tayyorgarlik ko‘rilgandi). Chunki shu kunga qadar savdo do‘konlarida oddiy aholi iste’moli mahsulotlari ham bo‘lmagan edi va asosiy mahsulotlar qora bozorda sotilar edi.

Bunga sabab, 1948-yilda 1936-yildagi ishlab chiqarish salmog‘ini faqatgina 40 foizini tashkil qilar edi xolos. Shuningdek, fuqarolarning avvalgi jamg‘arilgan reyxsmarka pullari qayta hisoblanib, 100 reyxsmarkasi yangi 6,5 DMga (doych marka) almashtirildi va barcha reyxsmarka pullari bekor qilindi. Eng muhimi, 1948-yilning iyun oyidan boshlab pulning qadrsizlanishiga butunlay barham berildi.

“Pul islohoti”ning samarali tarzda amalga oshirilishi tufayli “Doych marka” nemis xalqining bugungi kungacha simvoli bo‘lib qoldi. Shuningdek, Germaniya iqtisodiyoti tarixidagi “Pul islohoti” “nemis mo‘jizasi”ni vujudga kelishining boshlanishi sifatida e’tirof etildi.

9. ***Tashqi savdo-sotiqning tez sur’atlarda o‘sishi.*** Germaniya tashqi savdo miqdori bo‘yicha jahon mamlakatlari ichida Xitoy va AQSHdan so‘ng 3-o‘rinda turadi. Jahon tashqi savdodagi reytingida yuqori uchlikdan joy egallashi XX asrning 70-yillaridan boshlangan.

10. ***Hukumat tomonidan siyosiy-iqtisodiy siyosatlarini yuksak***

darajada olib borganligi. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng vayronagarchiliklarni bartaraf qilish, to‘xtab qolgan sanoat tarmoqlarini yana tashkil qilish, vayron etilgan tog‘-kon sanoatini qayta tiklash borasida hukumat katta iqtisodiy islohotlarni amalgalashdi. XX asrning 50-yillarida bir qator muhim qonun va hujjatlar qabul qilindi. Eng muhimlaridan biri sifatida – davlatni shakllanishida 4 ta asosiy tamoyil belgilandi, ular: demokratiya, federativ, huquqiy va ijtimoiy.

Shuningdek, “Iqtisodiyotni barqarorlashtirish” haqidagi qonuni davlatning iqtisodiy siyosatining aniq maqsadlarini belgilab berdi. Ushbu qonun keyinchalik “Sehrli to‘rtburchak” nomini oldi. Bunday nomlanishning asosiy sababi – iqtisodiyotni barqarorlashtirishning eng asosiy 4 ta yo‘nalishlarini o‘z ichiga oldi:

- yuqori bandlik,
- narx-navoning barqarorlashuvi;
- tashqi iqtisodiy faoliyatda teng huquqlik;
- iqtisodiyotda doimiy yuqori ko‘rsatkichlarga erishish.

Mamlakatda ijtimoiy institutlarni tashkil qilinishi, jumladan, Pensiya jamg‘armasi va Ijtimoiy sug‘urtalarni tashkil qilinishi aholini maksimal darajada muhofazalash siyosati fuqarolarni erkin mehnat faoliyatlarini olib borishini ta’minladi. Ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimida ham bir qancha muhim samarali chora-tadbirlarni amalgalashdi.

11. ***Tadbirkorlikni rivojlanishi.*** Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularga turli sharoitlar va imtiyozlar hamda moliyaviy yordamlarni berilishi natijasida xususiy sektorni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilishi – ishlab chiqarish taraqqiyotining asosiy sabablaridan biri bo‘ldi. Xususiy sektorni rivojlantirishda AQSH tajribasi o‘rganildi. 1949-yilda Germaniya Federal sanoat ittifoqi tashkil qilinib, u mamlakatdagi jami 80 mingga yaqin xususiy korxonalarini o‘z tarkibiga qo‘sib oldi. Mamlakatda kichik va o‘rta biznesni rivojlanishining eng yuqori cho‘qqisi 1980-yillarning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. O‘sha davrda xususiy sektorning rivojlanish darajasini quyidagi ko‘rsatkichlardan bilish mumkin, albatta:

- ushbu sektorda 12 mln. ishchi o‘rin – umumiyligining 65

foizi;

- mamlakat bo‘yicha ishlab chiqarishning 52 foizi;
- xorijiy sarmoyalarning 40 foizi;
- ishlab chiqarish sohasidan ajralmagan holda malaka oshirish va kadrlarni tayyolashdagi o‘quv kurslarda ta’lim olganlarning 80 foizi aynan xususiy sektorga to‘g‘ri keldi.

12. *Fan va texnika omili*. Urushdan oldingi yillarda ham jahonda ilm-fan taraqqiyoti bo‘yicha nemis olimlari ko‘plab mahsulotlarni kashf qilgan edilar. Masalan, urush davrida eng zamonaviy qurol hisoblangan ilk raketani aynan Fon Braun boshchiligidagi olimlari tomonidan ixtiro qilingan. Biroq urushdan so‘ng minglab nemis olimlari AQSHga ko‘chirib olib ketilganligi sababli 1960-yillargacha ilmiy-texnikani rivojlantirishda asosan xorijiy mamlakatlarda ixtiro qilingan eng so‘nggi mahsulotlarga o‘xhash mahsulotlarni ishlab chiqarishdan iborat bo‘ldi. 1970-yillarga kelib, davlat tomonidan ajratilgan mablag‘lar asosan aerokosmonavtika, mikrotexnologiya, yadroviy energetika va boshqa bir qator muhim bo‘lgan sohalarda mahsulotlarni ixtiro qilinishi uchun va ularni ishlab chiqarish uchun sarf qilindi.

17.4. “Nemis modeli” va uning xususiyatlari

“Nemis modeli”ni vujudga kelishida Germaniya hukumati ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida quyidagi yo‘nalishlarga e’tiborni qaratdi.

- milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda aholini ijtimoiy muhofazalash va ularni mehnatiga yarasha adolatli daromad olishi;
- barcha fuqarolarni ish bilan ta’minlash va mamlakatda ishsizlikka to‘la barham berish;
- mehnatga layoqatsiz aholini har qanday mehnatdan ozod qilish va ularni ijtimoiy tarzda muhofazalash;
- aholini xarid qobiliyati me’yorini saqlab turish va eng asosiysi, inflatsiyani oldini olish va unga yo‘l qo‘ymaslik;
- fuqarolarning huquqlarini himoya qilish va ularning teng huquqlarini ta’minlashdan iboratdir.

Mahalliy hukumat tomonidan Yuqorida qayd etilgan

yo‘nalishlarni amalgalashini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yib ijtimoiy bozor iqtisodiyotini belgilab oldi. Germaniyaning ijtimoiy bozor xo‘jaligini tashkil qilish xususiyatlari quyidagilardan iborat bo‘ldi:

1. Aholining yuqori turmush darajasiga erishilishi:

- a) milliy iqtisodiyotda raqobatchilikni tashkil qilinganligi;
- b) iqtisodiyotning rivojlantirishda maqsadli yo‘nalish siyosatlarini olib borilishi va unda iqtisodiyotda erkinlikni tashkil qilish hamda doimiy ravishda iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlarini ta’minlab borish;
- d) ishga layoqatli jami aholini ish bilan ta’minlab, har bir fuqaroni mehnat faoliyatiga yarasha oylik maoshini o‘z vaqtida olishini kafolatlash;
- e) tashqi savdo va milliy valutaning xorijiy valutalarga nisbatan konvertatsiya jarayonlarida erkinlik siyosatini olib borib, jahon iqtisodiyotidagi ahamiyatini oshirishni tashkil qilish.

2. Samarali iqtisodiyotni olib borishda pul-kredit tizimini oqilona tashkil qilish hamda mahsulotlar narxlarining me’yorini ta’minlash:

- a) Markaziy bankning emissiya siyosatini olib borishda uning mustaqillagini ta’minlash;
- b) davlat budjeti barqarorligini ta’minlanganligi;
- d) to‘lov balansining tarkibiy tuzilishida va tashqi savdoda eksport miqdorining importga nisbatan saldo ko‘rsatkichining doimiy ijobiy natijalarga erishilganligi.

3. Fuqarolarga oylik maoshlarini berishda va uy-joylarni taqsimlash jarayonida birinchi galda muhtoj oilalarni ijtimoiy himoya qilinganligi kabi xususiyatlarni ta’kidlash joiz, albatta.

Mamlakatda ijtimoiy bozor xo‘jaligini tashkil qilish bo‘yicha ishlab chiqilgan ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar va nazariy g‘oyalarning eng asosiy mualliflari sifatida nemis iqtisodchi olimlari Alfred Myuller-Armak, Aleksandr Ryustov, Vilgelm Repke va Ludvig Erxardlarni sanab o‘tish lozim. Aynan ularning xizmatlari va nemis xalqining mehnatsevarligi evaziga jahon xo‘jaligida “nemis modeli” shakllandi va XX asrning 60-yillariga kelib jahon xo‘jaligida “nemis mo‘jizasi” vujudga keldi.

Mamlakatda aholini himoya qilish bo‘yicha quyidagi qonunlar ishlab chiqilib, kuchga kirdi:

- 1951-yilda “Xodimlarning mehnat faoliyati va ularning ishdan ozod qilishni himoya qilish” va “Tog‘-kon sanoatida mehnat qiladigan ishchilar va ularni himoya qilish”;
- 1952-yilda “Onalarni himoya qilish”, “Urushdan ziyon ko‘rgan oilalar haqida” va “Uy-joy binolarini qurish va uysizlarni uy bilan ta’minalash”;
- 1953-yilda “Nogironlarni himoya qilish haqida”;
- 1954-yilda “Yosh bolalik oilalarni mablag‘ bilan ta’minalash” va “Keksalarni himoya qilish” kabi qonunlar qabul qilindi.

17.5. Jahon xo‘jaligida “nemis mo‘jizasi”ni vujudga kelishining asosiy bosqichlari

Ikkinci jahon urushidan so‘ng Germaniya iqtisodiyotining taraqqiyoti AQSH hamkorligida juda tez sur’atlarda rivojlandi va qisqa 15 yil ichida jahon xo‘jaligida “nemis mo‘jizasi” vujudga keldi. Demak, Germanyaning “iqtisodiy mo‘jizasi”ning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. 1948-yilda Germaniya hukumatining iqtisodiy rivojlanishining ilk islohotlari va taraqqiyot yo‘nalishlari bo‘yicha ishlab chiqilgan deyarli barcha dasturlari Ittifoqchilar hamkorligida va ularning maslahatlari bilan amalga oshirildi. Chunki AQSH boshchiligidagi Ittifoqchi mamlakatlar G‘arbiy Germaniya hududida Federativ Respublikani tashkil qilish bo‘yicha va uning iqtisodiy taraqqiyotida hamkorlik qilish haqida Germaniya hukumati bilan bitim tuzilgan edi.

2. Germanyaning bozor xo‘jaligiga intilishidagi ikkinchi asosiy amalga oshirgan qadami mamlakatda pul islohotini amalga oshirishdan iborat bo‘ldi. Pul islohotini oqilona olib borilishi natijasida 1953-yilda “qora bozor” o‘z-o‘zidan g‘oyib bo‘ldi. Ichki bozorlarda mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan yangi mahsulotlar va ularning assortimenti hamda transport tizimi qayta tiklandi. Barcha hududlarda qurilish ishlari avjiga chiqdi. 1948-1952-yillar davomida yiliga 600 mingga yaqin turli xonalarga ega

bo‘lgan ko‘p qavatli uylar qurildi. Aynan pul islohoti iqtisodiy rivojlanishda “tub burilish”ga sabab bo‘ldi.

3. Hukumatning navbatdagi amalga oshirgan islohoti korxonalarga tashqi savdo-sotiqni amalga oshirishda erkinlik va qulayliklarni hamda raqobatchilikni tashkil qilib erkin narx va xarid qobiliyatlari barqarorlashtirildi. Monopoliya korxonalarini hamda ular tomonidan amalga oshirilayotgan narx siyosatlarini davlat o‘z nazoratiga oldi.

Demak, L.Erxard rahbarligida ijtimoiy bozor xo‘jaligi konsepsiyasini tatbiq qilishdagi eng asosiy iqtisodiy islohotlar quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ldi:

- 1950-yilda iqtisodiy islohotlarning bиринчи bosqichi to‘la yakunlandi. Lekin Pul islohotidagi valutani xorijiy valatalarga muammosiz erkin ayirboshlash jarayoni faqatgina 1959-yildan boshlandi;
- 1957-yilda Bundestag tomonidan “Bundesbankni tashkil qilish” haqidagi qonun va ushbu qonunni kuchga kirishi bilan mamlakatdagi barcha tijorat va xususiy banklar hukumatdan to‘la mustaqillikka erishdi;
- 1961-yilda qabul qilingan “Tashqi savdoda erkinlik” va “Kapitalni himoya qilish haqida”gi qonunlarni ta’kidlash joiz.

17.6. Germaniyaning zamonaviy iqtisodiyoti va uning xususiyatlari

Germaniya iqtisodiyotining barcha sohalari yuksak darajada rivojlangan bo‘lib Yevropada eng oldingi o‘rinlarda turadi. Iqtisodiyotda mashinasozlik sanoati eng rivojlangan sohalardan biridir. Sanoatda metallni qayta ishlash, elektrotexnika, qazib olish, kimyo, neftni qayta ishlash, avtomobilsozlik, telekommunikatsiya va uning ehtiyyot qismlarini ishlab chiqarish, poyabzal, mebel ishlab chiqarish, qurilish materiallari, to‘qimachilik kabi sanoat tarmoqlari ham rivojlangan.

Germaniya sanoatining rivojlanishiga imkon beruvchi tabiiy sharoit va resurslar ko‘p jihatdan bu yerdagi foydali qazilmalar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib kelgan. Toshko‘mir qazib chiqarishda

Yevropada eng oldingi o‘rnlarni egallab turadi. Ko‘mir zaxiralari bo‘yicha jahonda 5-o‘rinda turadi. Uni ishlab chiqarish va undan foydalanish bo‘yicha esa 4-o‘rinda turadi. Biroq, 2020-yilda Germaniya hukumati 2025-yildan ko‘mir iste’molidan butkul voz kechish bo‘yicha qonun qabul qildi va shu yilning o‘zidayoq 2 ta yirik ko‘mir havzasi to‘la yopildi. Bunga sabab ekologiya va atrof-muhitni saqlash borasida Yevropa mamlakatlari ichida birinchi bo‘lib namuna sifatida amalga oshirilgan eng muhim qadam bo‘ldi.

Elzas va Lotaringiya hududlari Yevropadagi eng yirik metallurgiya sanoati rivojlangan va ko‘mir resurslarga boy bo‘lgan hududlardir. Germaniya qora metallurgiya sanoati bo‘yicha jahon xo‘jaligida 2007-yilgacha o‘z mavqeini ushlab turdi va AQSH va Yaponiya so‘ng 3-o‘rinda egallab turgan edi. Biroq qora metallurgiya ishlab chiqarish miqdori oldingi yillarga qaraganda ancha pasaydi va 2019-yilda u o‘z o‘rnini Xitoy va Rossiya kabi mamlakatlarga bo‘shatib berdi. Shunday bo‘lsa-da, YIda qora metallurgiya mahsulotlarining deyarli 30 foizi hamon Germaniyaga to‘g‘ri keladi.

Mamlakat iqtisodiyotida konsernlar shaklida bo‘lgan yirik birlashmalar mavjud, jumladan: og‘ir sanoatda “Tissen”, “Krupp”, “Manneeman”; telekommunikatsiya va elektrotexnika ishlab chiqarish sanoatida “Bosh”, “Simenss”, “AEG”, “Telefunken”, “Osram”; kimyo sanoatida “Xyoxt”, “Basf”, “Bayer”; avtomobil sanoatida “Folkswagen”, “Deymler-Beni”, “Opel” va “BMW” konsernlari hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Shu bilan birga mamlakatda avtomobilsozlik tarmog‘i yuksak darajada rivojlangan bo‘lib, Yevropada ushbu sanoat tarmog‘i iqtisodiy salohiyati bilan 1-o‘rinda turadi. Biroq, jahon avtomobil bozorida nemis kompaniyalari Yaponiya, AQSH, Fransiya va Italiya kabi mamlakatlarning avtomobil kompaniyalari bilan doimiy ravishda raqobatlashishga majbur bo‘lmoqda. Mamlakatda avtomobil zavodlari: “Audi”, “Daymler-Bents”, “Folkswagen”, “Opel”, “Ford”, “BMV”, “Ford” ishlab chiqariladi.

Germaniya neft xomashyosiga muhtoj bo‘lib, uzoq yillardan buyon neftning deyarli 80 foizini Rossiyadan import qilgan bo‘lsa, 2014-yildan boshlab neftni Nigeriya va Norvegiyadan import

qilmoqda, chunki Yevropa Ittifoqi tomonidan “Qrim mojarosi” tufayli Rossiyaga qo‘yilgan “iqtisodiy jazo” neft savdosini ham chetlab o‘tmadi.

Germaniya hududining katta qismida tabiiy sharoit qishloq xo‘jaligi uchun qulay hisoblanib, mehnatga layoqatli aholining atigi 4-5 foizi band bo‘lsa-da, qishloq xo‘jaligi sohasi mamlakat aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojining deyarli 90 foizidan ortiqrog‘ini ta’minlaydi. Ushbu ko‘rsatkich mamlakat iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda mehnat samaradorligi naqadar yuqori ekanligidan dalolat beradi. Germaniya qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha Yevropada faqat Fransiya va Italiyadan so‘ng 3-o‘rinda turadi. Lekin, umumiy qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eksporti bo‘yicha dunyo mamlakatlari ichida 6-o‘rinda turadi, jumladan, AQSH, Kanada, Hindiston, Xitoy va Rossiyadan so‘ng.

Germaniyada qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ko‘plab miqdorda ishlab chiqarilsa-da, uning hosildorlik darajasi Yevropadagi ba’zi mamlakatlarga qaraganda, xususan Gollandiya, Belgiya va Fransiya mamlakatlari qaraganda past ko‘rsatkichlarni tashkil qiladi.

Masalan, aholining 1-yil davomida go‘sht mahsulotlarini yetishtirish ko‘rsatkichi kishiga boshiga o‘rtacha 97 kg.ni tashkil qilsa, Yuqorida sanab o‘tilgan mamlakatlarda bu ko‘rsatkich kamida 110 kg.ni tashkil qiladi. Lekin, qishloq xo‘jaligi traktorlari va texnikalari soni jihatdan va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida mineral o‘g‘itlardan foydalanish bo‘yicha Yevropada 1-o‘rinda turadi. Germaniya qishloq xo‘jaligining iqtisodiy holati agrar sohasi rivojlangan mamlakatlardan tubdan farq qiladi, buning sababi Germaniya qishloq xo‘jaligi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta’milanganligidir.

Bob yuzasidan xulosa

2020-yilda pandemiya sababli yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz Germaniyani ham chetlab o‘tmadi. Ayniqsa, pandemianing “birinchi to‘lqini” va “ikkinchi to‘lqini” nemis milliy iqtisodiyotiga juda katta salbiy ta’sir ko‘rsatdi. 2020-yilning noyabr-dekabr

oylarida ishlab chiqarish sohalaridagi ishchi-mutaxassislarning vaqtinchalik majburiy ta'tili natijasida Germaniya YaIM kamida 2 mldr.dollar miqdorida ziyon ko'rdi. 2021-yilning yanvar oyida joriy qilingan navbatdagi karantin cheklovleri ushbu yilda ham ishlab chiqarish tarmoqlarini to'la quvvat bilan ishslash imkonini bergenicha yo'q.

Bundan tashqari, 2014-yildan Yevropa Ittifoqining Rossiyaga qarshi qo'llayotgan "iqtisodiy jazo"larida Germaniya faol qatnashayotgan bo'lsa-da, biroq bir qator nemis kompaniya va firmalari mana bir necha yillardan buyon Rossiya bilan hamkorlik munosabatlari to'xtab qolganligi sababli asosiy daromad manbalaridan quruq qolishmoqda va bu jarayonlar yil sayin ko'plab nemis xalqining norozilik kayfiyatlarini namoyon qilmoqda.

Germaniyaning hozirgi kundagi eng asosiy vazifalari pandemiyadan tezroq "qutulish", ishlab chiqarish tarmoqlarini qayta to'liq yo'lga qo'yish hamda migrantlar borasida bir qarorga kelish.

Nazorat savollari

1. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Germaniyaning iqtisodiy ahvoli va holatini tavsiflab bering.
2. Germaniyaning iqtisodiy-geografik o'rnini tariflab bering.
3. Germaniyaning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va ularning jahon xo'jaligidagi mavqeini ayting.
4. Germaniyaning aholisi va uning tizimi haqida so'zlab bering.
5. Jahon xo'jaligida "nemis mo'jizasi"ning vujudga kelishining asosiy omillarini ayting.
6. "Marshall rejasi" va uning Germaniyaning iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rnini ayting.
7. "Nemis modeli" nima va uning xususiyatlarini ayting.
8. XX asrning 50-60-yillarida Germaniya hukumati tomonidan qanday qonunlar qabul qilindi?
9. Nima uchun bugungi kungacha Germaniya tarixida Ludvig Erxardni "Nemis xalqining otasi" deyishadi?
10. Ludvig Erxard tomonidan amalga oshirilgan islohotning mohiyatini ayting.

11. Germaniyaning iqtisodiy rivojlanishida AQSHning iqtisodiy hamkorligini aytin.
12. Germaniyaning “iqtisodiy mo‘jiza”ga erishishida qaysi omil eng asosiy hisoblanadi va nima uchun?
13. Germaniyaning hozirgi iqtisodiy-siyosiy muammolarini aytin.
14. Germaniya qaysi iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha jahon xo‘jaligida oldingi o‘rnlarni egallab turibdi?
15. Germaniyaning yirik kompaniyalarni va ular tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlarni aytib bering.

Uyga vazifa!

Talabaning “Germaniyaning iqtisodiy rivojlanishi” mavzusini chuqur o‘zlashtirishi hamda amaliyat darsiga puxta tayyorgarlik ko‘rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

- 1) mavzu so‘nggida berilgan “Nazorat savollari”ga tayyorgarlik ko‘rish;
- 2) Germaniyaning hududini xarita orqali iqtisodiy-geografik joylanishuvini ko‘rib chiqish;
- 3) Germaniya umumiy tashqi savdosining eksport va import tarkibidagi asosiy mahsulotlar va ularning geografik yo‘nalishlari bo‘yicha jadval ishlab chiqish;
- 4) Germaniya iqtisodiyotining sanoati, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohasi bo‘yicha talabalar guruhlarga bo‘lingan holda “Taqdimot” o‘tkaziladi.

XVIII BOB. BUYUK BRITANIYANING IQTISODIY RIVOJLANISHI

- 1. Buyuk Britaniyaning umumiy tavsifi va uning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari.**
- 2. Buyuk Britaniya iqtisodiy taraqqiyotining asosiy omillari.**
- 3. XIX–XX asrlarda Buyuk Britaniyaning iqtisodiy taraqqiyoti va xususiyatlari.**
- 4. Buyuk Britaniyaning iqtisodiyot tuzilmasi.**
- 5. “Breksit” islohotidan so‘ng Buyuk Britaniya va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi savdo muammolari.**
- 6. Britaniya iqtisodiyoti tarixidan joy olgan 2020-yil va COVID-19ning milliy iqtisodiyotga ta’siri.**

Tayanch iboralar: mustamlaka (koloniya), “kapitalistik”, imperiya, monopoliya, qirollik, monopolizatsiya, markazlashgan, kartel, trest, diplomatiya, konsentratsiya, COVID-19, pandemiya, referendum, kvota.

18.1. Buyuk Britaniyaning umumiy tavsifi va uning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari

Buyuk Britaniya bir necha uzoq asrlardan buyon jahon xo‘jaligida barcha sohalar bo‘yicha, jumladan, mahsulot ishlab chiqarish va yangi mahsulotlarni kashf qilish, jahondagi ko‘plab hududlarga egalik qilish, ya’ni deyarli barcha okeanlarning qirg‘oqbo‘yi hududlari, jumladan, Avstraliya, Yangi Zelandiya, AQSH, Kanada va yuzlab orollarni egallashi bilan hukmron bo‘lib, jahon tarixidan joy egallagan mamlakatdir. Shuning uchun ham dunyoda ingliz tili keng tarqalib, hozirgi kungacha ingliz tili jahon arenasida eng asosiy so‘zlashuvdagi “xalqaro diplomatiya tili” bo‘lib qolgan.

Britaniya Yevropaning shimoli-g‘arbiy hududida va Britaniya orollarida joylashgan davlatdir. Uning rasmiy nomi Birlashgan Buyuk Britaniya Qirolligi va Shimoliy Irlandiya. Poytaxti - London. Britan oroli Yevropadagi eng yirik oroldir. U suv havzasida, Shimoliy dengiz va Irlandiya dengizlarida Irlandiya, Shvetsiya,

Norvegiya, Daniya va GFR, La-Mansh ko‘rfazida Fransiya hamda quruqlikda faqatgina Irlandiya bilan chegaradoshdir. Uning hududi - 244 ming.km.kv.ni tashkil qiladi. Britaniya to‘rtta mustaqil mamlakatlardan iboratdir: Angliya, Shotlandiya, Uels va Irlandiya orolida esa Shimoliy Irlandiya joylashgan (18.1-jadval).

18.1-jadval

Buyuk Britaniyaning administrativ hududlari

T/r	Mamlakatlar	Poytaxti	Yer maydoni (ming km.kv)	Aholisi (mln. kishi)
1	Angliya	London	136,36	53,7
2	Shotlandiya	Edinburg	78,77	6,6
3	Uels	Kardiff	20,77	4,0
4	Shimoliy Irlandiya	Belfast	14,12	2,4

Manba: ushbu jadval ma’lumotlar asosida ishlab chiqilgan.

Buyuk Britaniyaning jahon xaritasida joylashgan o‘rni



Rivojlangan industrial shaharlari – London (jahondagi yirik turizm va moliya markazi, ishbilarmonlar shahri), Manchester (to‘qimachilik), Liverpul (to‘qimachilik), Birmengem (texnologiya

sohasi markazi), Glazgo (kemasozlik), Kardiff (ko‘mir qazish va metallurgiya), Lids (metallurgiya), Midlsbro (kimyo sanoati) Nyukasl (oziq-ovqat), Midlend (poyabzal), Sautgempton (neftni qayta ishslash va kemasozlik), Suonsi (metallurgiya), Aberdin (baliq mahsulotlari) va boshqa o‘nlab shaharlar kiradi.

Britaniya o‘z vaqtida jahon iqtisodiyoti va siyosatida uzoq yillar davomida hukmronligini olib bordi. Qariyb 500 yil davomida dunyoning turli hududlari va orollari Britaniya mulki deb e’lon qilinavergan. U XV–XX asrlar davomida dunyoning turli hududlaridagi mulklarga egalik qilishi va ushbu hududlardan doimiy ravishda eng muhim bo‘lgan xomashyolar va tabiiy resurslarni Britaniyaning sanoat tarmoqlarini ta’minlab turishi – bu Britaniya iqtisodiyoti rivojlanishining eng asosiy sababidir.

Quyidagi tahliliy iqtisodiy ko‘rsatkichlarga e’tiborni qaratamiz:

- 1876-yilda Angliyaga tegishli mustamlakalar hududi – 22,5 mln.km.kv.ni va undagi yashovchi aholining umumiy soni 250 mln. kishini tashkil qilgan;
- 1899-yilda Angliyaning mustamlakalari bilan umumiy hududi – 33,5 mln.km.kv.ga va umumiy aholisi qariyb 400 mln. kishiga yetgan;
- 1916-yilda Angliya mustamlakalarining umumiy hududi 35 mln.km.kv.ga va aholisi 450 mln. kishiga yetgan;
- 1941-yilda esa, Angliya va uning mustamlakalari bilan umumiy hududi deyarli 42 mln.km.kv. bo‘lib uning aholisi esa 520 mln. kishiga yetgan.

Buyuk Britaniya xalqi 1940-yillargacha “urush” so‘zining mohiyatini faqatgina mamlakatdan tashqarida va uzoq hududlarda olib boriladigan kurashni tushunishar edi. Ikkinchchi jahon urush yillarida Angliya o‘zining tashqi bozorlaridan (Yaqin va O‘rta Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyodan) deyarli mahrum bo‘ldi. Angliyaning eng yirik mustamlakalari hisoblangan Hindiston, Birma, Seylon o‘z mustaqilligiga erishdi.

Uning umumiy yer maydoni 244 ming km.kv. va aholi soni 67 mln. kishidan ziyoddir. Uning iqtisodiyoti tarixidagi eng ko‘p yer maydoni va aholiga ega bo‘lgan davri - bu XX asrning 40-yillarining boshiga to‘g‘ri kelmoqda. Xullas, 1941-yilga kelganda Britaniya

mustamlakalarining umumiy maydoni o‘zidan qariyb 150 marta va aholisi jihatidan esa 14 marta ko‘p bo‘lgan. Britaniya imperiyasining mustamlakalari orasida asosiy o‘rinni Hindiston egallagan bo‘lib, Angliyaga to‘lanadigan har yilgi soliq to‘lovlari o‘sha davrdagi yirik mablag‘ hisoblangan 160 mln.funtni tashkil qilgan. Shuning uchun ham Angliyaning eng yirik mustamlakasi bo‘lgan Hindistonne jahon ommasi “Ingliz sultanatining yoquti” deb atashgan edi.

Tarixga nazar solar ekanmiz, birgina 1916-yilda jahon bo‘yicha jami 1,6 mln. kishi yirik mablag‘ga ega bo‘lgan “millioner” bo‘lsa, shularning 1,5 mln. kishisi (millionerlar) britan fuqarolarini tashkil qilgan. Ikkinchchi jahon urushidan so‘ng, jahon bo‘yicha millionerlarning soni 1919-yildagi 1,6 mln. kishidan 310 nafarga tushib qolgan. Chunki qariyb 1,5 mln.ga yaqin “millioner”lar “Qora payshanba” va Ikkinchchi jahon urushi davrida inqirozga uchrashgan. Britan tarixchilarining tahlillariga ko‘ra, Britaniya o‘zining iqtisodiy tarixida faqat birgina xatolik yuz bergen. Gap shundaki, XX asrning 10-yillarining boshlarida jahondagi eng yirik neft kompaniyasi hisoblangan “British oyl” kompaniyasi Fors ko‘rfazi hududiga yirik neft xomashyosi konlarini topish maqsadida geologik-qidiruv ishlariga jalb qilinadi. Biroq salkam 15 yillik faoliyati davomida u qadar yirik zaxiralarga ega bo‘lgan neft konlarini topishga muvaffaq bo‘lishmaydi. Shunga ko‘ra, Britaniya iqtisodiyoti tarixidan “qora nom” bilan joy olgan va ushbu sohadagi “malakasiz ekspertchi”larning xulosalariga ko‘ra, Fors ko‘rfazi hududida yirik neft konlari mavjud emas, degan yakuniy xulosani hukumatga taqdim qilishadi. So‘ngra barcha neft qidiruv texnologiyalarini Shimoliy Afrika hududiga ko‘chirishadi. Shundan keyin 1920-yillarning o‘rtalaridan AQSHning neft kompaniyalari tashrif buyurishib ketma-ket yirik neft konlarini topishadi.

Britaniya tarixida quyidagi “taqdir”ni ko‘rishimiz mumkin: AQSHning davlat sifatida tashkil qilinishi, uning iqtisodiyotining tuzilishi va Yevropa madaniyatini olib kirilishi Britaniya tomonidan amalga oshirilgan hamda qariyb 200 yil mobaynida “AQSH Buyuk Britaniyaning ukasi” sifatida e’tirof qilingan. XX asrning boshlariga kelib buning aksi bo‘lib qoldi hamda Britaniya “AQSHning asosiy hamkor mamlakati” bo‘ldi. XX asrning o‘rtalariga kelib esa, u jahon

siyosiy-iqtisodiy sohasida AQSHdan so‘ng “ikkinchi mamlakat”ga aylandi. Bugungi kunda esa, jahon siyosiy-iqtisodiy sohasida ma’lum bir global muammolarni hal qilish lozim bo‘lsa, albatta, Buyuk Britaniya AQSHga “quloq soladi”.

Britaniya jahon xo‘jaligidagi eng birinchi rivojlangan mamlakat va nufuzli “Yettilik”ning a’zosi hamda jahondagi ko‘plab xalqaro tashkilotlarga a’zodir. U jahonda iqtisodiy salohiyati va sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda 6-o‘rinda turuvchi mamlakat bo‘lsa-da, jahondagi eng yirik tashqi qarzdor mamlakatlaridan biridir. Uning YaIM miqdori 2.827,1 mlrd.dollar bo‘lib, jahonda AQSH, Xitoy, Yaponiya, Germaniya va Hindistondan so‘ng 6-o‘rinda turadi, Yevropada esa Germaniyadan so‘ng 2-o‘rinda turadi. Aholi jon boshiga daromadi 42.370 dollar bo‘lib jahonda 25-o‘rinni egallab turibdi. Umumiylashuv tashqi savdo miqdori – 1.160,8 mlrd.dollar, bundan eksporti – 468,3 mlrd.dollar va importi esa 692,5 mlrd.dollarni tashkil qiladi. Import miqdori eksport miqdoriga qaraganda ancha salmoqli darajada ustunlik qiladi.

Umumiylashuv tashqi savdo miqdori jihatidan jahonda 6-o‘rinda, Yevropada esa Germaniya va Fransiyadan so‘ng 3-o‘rinda turadi. Asosiy eksport mahsulotlariga avtomobillar, neft quvurlari, kemalar, qora metall, dengiz mahsulotlari, poyabzal, to‘qimachilik va turizm kiradi, eksportdagи asosiy tashqi hamkor mamlakatlari: Germaniya, AQSH, Gollandiya va boshqa mamlakatlar. Asosiy import mahsulotlariga esa, transport vositalari, rangli metallar, neft xomashyosi, mineral o‘g‘itlar va kimyo mahsulotlari, farmatsevtika, to‘qimachilik va aholi iste’moli mahsulotlari kiradi. Importdagи asosiy tashqi hamkor mamlakatlari: Germaniya, AQSH, Xitoy va boshqa mamlakatlar. Demak, Buyuk Britaniyaning tashqi savdodagi eng asosiy hamkor Germaniya mamlakatidir.

18.2-jadval

Buyuk Britaniyaning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari

T/r	Asosiy ko‘rsatkichlar va xususiyatlari	Miqdori va belgilari
1	YaIM miqdori (mln.doll.) ⁷⁹	2.827,1
2	YaMMning aholi jon boshiga (doll.) ⁸⁰	42.370
3	Umumiy tashqi savdo aylanmasi (mlrd.doll.)	1.160,8
4	Eksporti (mlrd.doll.)	468,3
5	Importi (mlrd.doll.)	692,5
6	Eng asosiy tashqi savdo hamkorlari	AQSH, Germaniya va Fransiya
7	Valuta zaxirasi (mlrd.dollar) ⁸¹	173,6
8	Tashqi qarzi (mlrd.doll.) ⁸²	2.681,2
9	Milliy valutasi (pul birligi)	Funt sterling
10	Mamlakat poytaxti	London
11	Aholi soni (mln. kishi) ⁸³	66,6
12	Umumiy yer maydoni (ming km.kv.)	244,8
13	Ishsizlik darajasi (foiz)	3,8
14	Rasmiy davlat tili	Ingliz tili

Manba: ushbu jadval ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan.

Ishsizlik darajasining ko'rsatkichi 3,8 foiz bo'lib, ushbu ko'rsatkich jahon mamlakatlari ichida eng past ko'rsatkichlarining birini tashkil qiladi. Biroq 2020-yilda pandemiya sababli ishga layoqatli aholining 31 foizi vaqtincha ishsizlikka duchor bo'ldi. Ishsizlikning bu qadar yuqori ko'rsatkichga chiqishi bo'yicha 1929-yildagi jahon iqtisodiy inqirozidan keyin ishsizlikning eng yuqori ko'rsatkichi bo'lib yana bir bor takrorlandi.

Mamlakatda ishchi-xodimlarning o‘rtacha oylik maoshi – 3110 dollarini tashkil qiladi. Tashqi qarzi – 2,7 trln. dollar bo‘lib, uning tashqi qarz miqdori tobora ortib bormoqda. Milliy valutasi – funt sterling. Buyuk Britaniya aholisi 66,6 mln. kishini tashkil qiladi: inglizlar – 79 foiz, shotlandlar – 9 foiz, irlandlar – 3 foiz, valliyalar

⁷⁹ Gtmarket.ru/ratings/gross-national-income-ranking

⁸⁰ <https://data.worldbank.org/indicator/NY.GNP.PCAP.CD>

⁸¹ <https://https://nonews.co/directory/lists/countries/gold>

⁸² <https://ru.m.wikipedia.org/wiki/%D0%A1%D0%BE%D0%B8%D0%BC%D0%BE%D0%BD%D0%BD%D0%BE%D0%BC>

(Uels aholisi) – 2 foiz va boshqa millat vakillaridir. Britaniyada xorijlik fuqarolardan hindlar, Pokistonliklar, eronliklar va Shimoliy Afrika mamlakatlaridan tashrif buyurgan minglab migrantlar mehnat faoliyatini olib borishmoqda.

Buyuk Britaniyaning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini 18.2-jadval orqali ko‘rish mumkin. Britanlar sport orqali katta daromad ko‘ruvchi jahondagi ikkinchi mamlakatdir (AQSHdan so‘ng), ya’ni futbol, regbi, golf, tennis va boshqa bir qator sport turi kabi o‘yinlaridan.

18.2. Buyuk Britaniya iqtisodiy taraqqiyotining asosiy omillari

Buyuk Britaniya milliy iqtisodiyoti taraqqiyotining asosiy omillari quyidagilardan iborat:

1. *Mamlakatning iqtisodiy-geografik ahvolining qulayligi*. Buyuk Britaniyaning iqtisodiy-geografik ahvoli Yevropaning shimoli-g‘arbida joylashgan bo‘lsa-da, unga qo‘shni bo‘lgan mamlakatlarning iqtisodiy holati va ularning salohiyatining yuqoriligi ular bilan olib boradigan tashqi savdolarda muhim ahamiyat kasb etadi.

2. *Britaniyaning 1940-yilgacha jahon iqtisodiyoti va siyosatidagi “hukmronligi”*. XX asrning o‘rtalarida jahondagi barcha hududlarning 25 foizi Britaniyaga tegishli bo‘lgan. Jumladan Hindiston (Pokiston, Bangladesh), Singapur, Gonkong, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Afrikaning janubiy va shimoliy mintaqalaridagi o‘nlab yirik hududlar va Fors ko‘rfazidagi ba’zi hududlar hamda yuzlab mayda orollardan sanoat uchun eng zaruriy xomashyo va oziq-ovqat mahsulotlari Britaniyani doimiy ravishda ta’minlab turgan. Hatto bugungi kunda jahonning yirik mamlakatlaridan biri hisoblangan Hindiston ham yaqin o‘tmishda qishin-yozin “bepul” meva-sabzavot va turli sanoat xomashyolari keltirilgan.

3. *Transport sohasining rivojlanishi*. Suv transporti rivojlangan bo‘lib, Britan orolining o‘zida jahon talablariga javob beradigan 100 dan ortiq xalqaro dengiz portlari mavjud. Har yili o‘rtacha 210-220 mln.tonna atrofida yuk ayirboshlanadi. (2019-yilda 212 mln.tonna yuk ayirboshlangan). Eng yirik dengiz portlari London, Liverpul, Glazgo, Sautgempton. Londondagi “Xitrou” aeroporti Yevropadagi eng yirigi bo‘lib, Britaniyani dunyoning turli shaharlari bilan bog‘lab turadi. Britaniya uzoq yillar davomida jahonda transport sohasida yetakchilik

qilgan. 1913-yilda ham mamlakatda temiryo‘llarning uzunligi 100 ming km.ga yetib, dunyodagi barcha temiryo‘llarning 20 foizi Angliyaga to‘g‘ri kelgan. XX asr boshlarida ham Angliyada jami 12 ta yirik temiryo‘l kompaniyalari bo‘lib, ular dunyoning turli hududlarida temiryo‘l qurilishlarini amalga oshirishgan.

4. *Xalqaro turizmning rivojlanishi*. Har yili birgina poytaxt London shahriga 20 mln.dan ortiq sayyoohlар tashrif buyuradi. London, Edinburg, Kardiff, Manchester, Liverpul, Bristol shaharlarida tarixiy-madaniy yodgorliklari mavjud bo‘lib, xalqaro sayyoohlarda chuqur qiziqish uyg‘otadi. Shuningdek, dunyoda eng birinchi tashkil qilingan Kembrij va Oksford Universitetlariga bo‘lgan qiziqish hamda janubiy hududlarida joylashgan yuzlab kurort-plajlariga minglab sayyoohlар tashrif buyuradi.

5. *Angliyaning jahon mamlakatlariga bevosita sarmoyalalarini kiritilganligi*. Ikkinci jahon urushidan so‘ng Angliyaga tegishli bo‘lgan ko‘plab mulklari mahalliy mustaqillikka erishgan mamlakatlar tomonidan milliyashtirilishi Angliyaga qattiq zarba bo‘ldi. Masalan, Misrdagi “Suvaysh” kanalini milliyashtirilishi Angliyaning yillik 1-2 mlrd.dollaridagi mablag‘dan voz kechishiga majbur bo‘lgan. Shunday bo‘lsa-da, ko‘plab hududlarda britanlarning sarmoyalari mavjud. Masalan, Xitoyning nufuzli “Sinxua” ma’lumotiga ko‘ra, inglizlarni Gonkongda qariyb 1 trln. dollardan ortiq miqdoridagi investitsiyasi mavjud.

6. *Ikkinci jahon urushidan keyin mamlakat milliy iqtisodiyotini tiklashda “Marshall rejasi”ning ustuvor ahamiyati*. Britaniya 1946-1951-yillarda AQSHning “Marshall rejasi” hamkorligida 4 yil ichida 3 mlrd.dollarga yaqin moliyaviy yordam oldi va sanoat tarmoqlarini kengaytirish, urushdan keyin qayta tiklashga yo‘naltirildi.

18.3. XIX asr va XX asr boshlarida Buyuk Britaniyaning iqtisodiy taraqqiyoti va xususiyatlari

XIX asrning oxiri va XIX asrning birinchi yarmida Britaniya jahondagi eng yirik mustamlakachi davlat bo‘libgina qolmay, balki dunyo bozorida sanoat, moliya-bank tizimida ham yirik kapitalistik mamlakat bo‘lgan. Ammo Angliyaning iqtisodiy rivojlanishida quyidagi o‘zgarishlar ro‘y berdi:

- Angliya jahon xo‘jaligida sanoat ishlab chiqarish va jahon

bozoridagi yetakchilik mavqeini yo‘qotdi;

– Angliya hukumati sanoat tarmog‘ida asosan harbiy sanoatni rivojlantirishga e’tiborni qaratdi;

– Angliyada qudratli va yirik mablag‘ga ega bo‘lgan jahondagi eng yirik banklar tashkil topdi;

– kapitalni eksport qilish jarayoni boshlandi va o‘ziga qarashli bo‘lgan davlatlarga chiqarildi hamda Angliya eng birinchi bo‘lib kapitalni eksport qilgan mamlakat sifatida jahon iqtisodiyoti tarixidan joy oldi;

– Angliyani iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida uning eng yirik mustamlakachi davlat ekanligi muhim ahamiyat kasb etdi.

1870-yilga qadar “dunyo ustaxonasi” deb nom olgan Angliya dunyo mamlakatlari sanoat ishlab chiqarishning 3 dan 1 qismini, cho‘yan eritish va ko‘mir qazib chiqarish hajmining 50 foizini bergen bo‘lsa, 1870-yildan boshlab Angliyaning dunyo sanoati va savdosidagi hukmronligi asta-sekin inqirozga uchray boshladi. Buning asosiy sabablari:

Birinchidan, yosh davlatlar hisoblangan AQSH va Germaniya o‘z sanoat tarmoqlarini yuqori texnologiyalar asosida shakllantirib, Angliya tovarlarini dunyo bozorlaridan siqib chiqara boshladi. Chunki bu davlatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tannarxi past bo‘lishi bilan bir qatorda, ular arzon va ko‘plab miqdorda ishlab chiqarilgan edi. Natijada 1913-yilga kelib Angliya sanoat mahsulotlarining eksporti 8 foizga, Germaniyaniki 40 foizga va AQSHniki esa 230 foizga o‘sdi. Shu yili Angliya cho‘yan ishlab chiqarish bo‘yicha AQSHdan 3 marta, Germaniyadan esa 2 marta orqada qoldi. Xullas, 1876-1913-yillarda sanoat hajmi Angliyada 2 marotabaga, Germaniyada 4 marotaba va AQSHda esa 7 marotabaga o‘sdi. Biroq kemasozlik sanoatida u o‘z yetakchilikni saqlab qoldi. 1913-yilda ham jahon bo‘yicha qurilgan kemalarning 60 foizi Angliyaga to‘g‘ri kelgan.

Ikkinchidan, XIX asrning 70-90-yillarda ro‘y bergen jahon agrar inqirozi Britaniyaning agrar sohasiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Chunki texnika yutuqlari natijasida yetishtirilgan arzon va sifatli amerika bug‘doylari Yevropa bozorlarini egalladi. 1871-1891-yillarda jahon bozorida bug‘doyga bo‘lgan talab keskin kamayganligi sababli Britaniya bug‘doy ekin maydonlarini 10 foizga qisqartirishga majbur bo‘ldi. Natijasida Angliya tashqi bozor va xorijdan oziq-ovqat

mahsulotlarini olib kelishi yanada kuchaydi.

1886-yilda Angliyada dastlabki “Dinamit Nobel” Anglo-German (portlovchi moddalar) monopol uyushma vujudga keldi. Keyinchalik 1890-yilda “YUNAYTED Alkalli” (ximiya mahsulotlari) tashkil topdi. Angliyaning mustamlaka monopoliyalarida juda katta mablag‘ jamg‘arildi. Bu jamg‘arma mustamlakalarni boshqarish va foydali qazilmalarni tashib ketish hisobiga amalga oshirildi. Masalan, 1898-yilda Janubiy Afrika kompaniyasi monopoliya maydoni jihatidan Germaniya va Avstro-Vengriya maydonini qo‘sib hisoblaganda ham ko‘p hududlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, Transvaldagi (hozirgi JAR) oltin va boshqa foydali qazilma konlarini xususiy mulki deb e’lon qilgan edi hamda ushbu kompaniya Janubiy Afrikadagi olmos sanoatidan millionlab funt sterling foyda ko‘rdi.

XIX asrning oxirlariga kelib, Angliyada harbiy sanoatni kengaytirish ishlari avj oldi. Harbiy sanoat majmuasida 1897-yilda “Armstrong-Untvort” 1898-yilda “Vickers” va 1902-yilda zambarak to‘plarini ishlab chiqaruvchi “Garvey Stil” kabi yirik trestlar tashkil topdi. Ushbu yillarda harbiy qurol-asлаha ishlab chiqarish bo‘yicha Britaniya jahonda yetakchilikni o‘z qo‘liga olgan edi. Moliya sohasida ham dunyoning yirik markazlaridan biriga aylandi. Angliya milliy valutasi – funt sterling xalqaro pul muomalasi va dunyo savdosida asosiy xalqaro to‘lov vositasi bo‘ldi.

1914-1918-yillarda bo‘lib o‘tgan Birinchi jahon urushi Angliyaning iqtisodiy va siyosiy nufuziga juda katta jiddiy zarar ko‘rsatdi va urushga juda katta mablag‘larni sarflashga majbur bo‘ldi. Masalan, 1914-yilda 19 foiz, 1915-yilda 50 foiz va 1916-yilda esa 56,3 foiz milliy daromadini harbiy sanoatga yo‘naltirdi. Urush davrida davlat budgetini to‘ldirish maqasadida Angliyada soliq olish 7 barobarga oshirildi. Xullas, Angliyaning sarf-xarajatlari zoe ketmadi va urushda g‘olib chiqdi. U o‘zining asosiy raqibi bo‘lgan Germaniyani engdi va g‘olib sifatida juda miqdordagi “trofey”ni qo‘lga kiritdi. Masalan, Germaniyaning butun harbiy floti, uning bir qancha mustamlaka yerlari Angliya ixtiyoriga o‘tdi.

1916-yilda Angliyada eng kuchli tadbirkorlar jamiyat – Britaniya sanoat uyushmasi tashkil topgan bo‘lib, u bir necha ming korxonalarini birlashtirdi. Mamlakatda millionerlarning soni ham 2 barobarga oshib, 1,5 mln kishini tashkil qildi. Angliya Birinchi jahon urushidan keyin

1918-1924-yillarda “Midlend”, “Loyd”, “Berkleys”, “Vestminster” kabi banklar vujudga keldi. Moliya banklarining tashkil topishi sanoatni yanada rivojlanishiga olib keldi. Ammo ushbu yillardagi yuksalish davri uzoqqa cho‘zilmadi, chunki 1929-1933-yillarda ro‘y bergen jahon iqtisodiyoti inqirozi Angliyada sanoat ishlab chiqarish 1913-yilgi darajasiga tushib, 23 foizga kamaydi va ishsizlarning soni esa 3 mln. kishiga yetdi.

Britaniya Ikkinchı jahon urushining asosiy ishtirokchilaridan biri bo‘ldi. Urushda g‘olib davlatlaridan biri bo‘lgan Britaniyada 1945-yilning 26-iyulida Parlament saylovi bo‘lib o‘tdi va unda leyboristlar partiyasi g‘alaba qozondi. Konservatorlarning mag‘lubiyatiga sabab urushda Germaniya ustidan qozonilgan g‘alaba va Britaniyaning jahondagi siyosiy va iqtisodiy mavqeini yanada yaxshilash bilan saylovchilarni o‘zlariga jalb qilishdi. Lekin, xalq urushdan charchagan, mamlakatda iqtisodiyotni tartibga solish va aholining turmush darajasini yaxshilash borasida o‘z dasturlari bilan chiqqan leyboristlar partiyasi yetakchilikni o‘z qo‘liga oldi. Uning yo‘lboshchisi Klement Ettli mamlakatning Bosh vaziri etib saylandi.

Ushbu partianing mamlakat iqtisodiyotida boshlagan ilk islohoti ijtimoiy ta’mintoni rivojlantirishdan boshladi. Britaniyalik iqtisodchi olim Uilyam Beveridj tomonidan ishlab chiqilgan ushbu dasturga asosan, eng birinchi galda aholining ijtimoiy ta’mintot tizimini yaxshilash va bepul meditsina xizmatlarini joriy qilishdan iborat bo‘ldi. Iqtisodiyot sohalarida esa ko‘plab sanoat tarmoqlarni, jumladan, ko‘mir va gaz qazish, elektr energetika, transport sohasi va Angliya banklarini milliylashtirish kabilar asosiy vazifalarning yo‘nalishlari bo‘ldi.

Lekin leyboristlarning iqtisodiyotda olib borgan dasturlari o‘z samarasini bermadi, qaytanga soliqlar ko‘paydi. Urush davrida oziq-ovqat mahsulotlari uchun joriy qilingan “kartochka” tizimi davom etdi. Eng zarur aholi iste’moli mahsulotlariga bo‘lgan narx-navoning o‘sishi to‘xtamadi. Chunki, shu paytgacha Britaniya Ittifoqligiga a’zo mamlakatlardan kelib turgan arzon oziq-ovqat va xomashyolar endilikda to‘xtab qoldi.

1945-yildan so‘ng, Britaniya tashqi siyosatda ikkita yo‘nalishdan birini tanlashi lozim edi: birinchisi – sobiq Ittifoq bilan har sohada raqobatlashish (ko‘proq harbiy sohada), ikkinchisi esa, jahonda

Britaniya Ittifoqligini saqlab qolish. Birinchi yo‘nalishni U.Cherchill boshchiligidagi leyboristlar partiyasi qo‘llab-quvvatlashdi va Britaniya AQSHning eng asosiy hamkori bo‘lib qoldi. Lekin, 1947-yilda mamlakatda ro‘y bergen navbatdagi iqtisodiy inqiroz tufayli u sobiq Ittifoq bilan raqobatlashishdan voz kechdi.

Hukumat oldida nihoyatda katta – ham iqtisodiy, ham siyosiy muammolar vujudga keldi. Bir tomondan, iqtisodiyotning inqirozga yuz tutishi bo‘lsa, ikkinchi tomondan Britaniyaning ko‘plab mustamlaka hududlarining mustaqillik uchun kurashish davrining boshlanishi bo‘ldi. 1947-yilda zudlik bilan ko‘rilgan chora-tadbirlar og‘ir muammoni hal qilishda Hindiston, Seylon, Iordaniya va Falastin hududlaridan o‘z qo‘sishinlarini olib chiqishga majbur bo‘ldi va ushbu mamlakatlarning mustaqilligini tan olishdan boshqa iloji qolmadı.

1950-yilda mamlakatda navbatdagi parlament saylovleri bo‘lib o‘tdi va unda yana leyboristlar konservatorlar ustidan katta farq bilan g‘alaba qozonsa-da, ular mamlakatning iqtisodiyotini boshqarishda turli kamchiliklarga yo‘l qo‘yishdi. Shuning uchun ham, 1951-yilda navbatdan tashqari parlament saylovleri bo‘lib o‘tdi va unda konservatorlar g‘alaba qozonib, 77 yoshga to‘lgan Uinston CHerchill hukumatni yana boshqarishga o‘tirdi. U.Cherchill 1945-yilgi parlament saylovlaridagi mag‘lubiyatdan xulosa chiqargan holda mamlakat milliy iqtisodiyotini tartibga solishda ehtiyojkorlik bilan islohotlarni amalga oshira boshladi.

1950-yillarda Yevropada “Yevropa Iqtisodiy Hamkorlik” tashkilotini tashkil topishi va unga Britaniyaning qo‘shilishiga leyboristlar partiyasi qat’yan qarshilik bildirishgan bo‘lsa, keyinchalik Fransiya ham qarshi chiqdi. Chunki Fransiya Prezidenti Sharl de Goll Britaniya iqtisodiyotini AQSH bilan chambarchas bog‘liqligi va ushbu ikki mamlakatning aloqalari nihoyatda “qalinligi”ni e’tirof etadi. 1950-1960-yillarda Fransiya bilan Britaniya o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik munosabatlarida ba’zi kelishmovchiliklar sababli u qadar rivojlanmaydi. Britaniya faqatgina 1973-yildagina YIHga a’zo bo‘ladi.

AQSH Britaniyaning urushdan keyingi siyosiy va iqtisodiy qiyinchiliklaridan foydalanib, o‘ziga qulay bo‘lgan bir qator bitim va shartnomalarni tuzadi. Masalan, 1945-yilda ikki davlat o‘rtasida moliya sohasida bitim imzolandi va AQSH Angliyaga 4,4 mlrd.dollar miqdorida yirik kredit berdi. Bundan tashqari, Angliyaga “Marshall

rejası” iqtisodiy dasturi asosida ham katta iqtisodiy yordamlar ko’rsatildi.

1960-70-yillarda mamlakatda yirik iqtisodiy islohotlar amalgam shirildi, ushbu islohotlar, ma'lum jihatdan AQSHning “Yangi kurs” siyosatiga qiyoslash mumkin, chunki Angliyada 1950-51-yillardagi sanoatning yirik tarmoqlarini milliyashtirilishi davlat tomonidan milliy iqtisodiyotni boshqarishga qaratilgan muhim qadamlaridan biri bo’lgan edi.

18.4. Buyuk Britaniyaning iqtisodiyot tuzilmasi

Britaniya iqtisodiyoti tarkibidagi barcha sohalari rivojlangan. Yalma xizmat ko’rsatish sohasining ulushi yaqqol ustunlik qiladi. Sanoat tarmoqlari ham uzoq 300 yillardan buyon shakllangan bo‘lib, eng yirik sanoat hududi Midlend iqtisodiy hududidir. Sanoatda metallurgiya tarmog‘i eng ko‘p daromad keltiruvchi va asosiy sanoat tarmog‘idir. Ushbu sanoat tarmog‘i Cardiff va Suonsi (Uels), Lids (Angliya) shaharlarda rivojlangan va yiliga o‘rtacha 20 mln. tonnagacha po‘lat ishlab chiqariladi. Mamlakatda yiliga 85-90 mln. tn.ga yaqin ko‘mir qaziladi. Asosiy ko‘mir qazish xududlari Uelsning janubida joylashgan. Shimoliy hududlarida esa yiliga 95-100 mln. tonnaga yaqin neft qaziladi. Biroq neft zaxirasining kamayishi natijasida qazish ishlari hajmi ham pasaymoqda.

Mashinasozlik – asosiy sanoat tarmoqlarining ikkinchisidir. Ximiya sanoatida asosan plastmassa, buyoqlar va mineral o‘g‘itlar ishlab chiqariladi. To‘qimachilik sanoati inglizlarning eng qadimiy kasblaridan biridir. Lankashir, Yorkshir, Liverpul, Manchester kabi ko‘plab shaharlarda yirik to‘qimachilik va poyabzal fabrikalari faoliyat ko’rsatadi. 1990-yillarigacha tabiiy teri xomashyosidan ishlangan poyabzal ishlab chiqarishda jahonda 3-o‘rinda va uning eksporti bo‘yicha jahonda 4-o‘rinda bo‘lgan. Biroq oxirgi 20 yil ichida Xitoy va Hindiston kabi jaholndagi tez rivojlanayotgan mamlakatlar ushbu sohada o‘z yetakchilikni qo‘lga olishgan bo‘lsa-da, Britaniya Yevropada 1-o‘rindadir. So‘nggi yillarda ham yiliga 200 mln. juftdan ortiq toza teridan ishlangan oyoq kiyim mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda.

Oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqariladigan turli xil pechene, tort, shokolad va ingliz kekslari jahonga mashhurdir. Umuman ushbu

sanoat tarmog‘ida 1 mln.ga yaqin ishchi faoliyat ko‘rsatadi. Britaniya jahon shokolad eksportining 30 foizini ta’minlash quvvatiga egadir. Shuningdek, Britaniyada ishlab chiqarilayotgan Shotland viskilari jahonga mashhurdir.

Iqtisodiyotda agrar sohaning rivojlanishi 1950-yillarga to‘g‘ri keladi, chunki ko‘plab mustamlaka hududlarning mustaqilligiga erishganligi ulardan keltiriladigan arzon qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini endilikda jahon bozori narxlarda import qilishga majbur bo‘ldi. Mamlakatning deyarli barcha hududlarida asosiy noni hisoblangan kartoshka yetishtiriladi. Britaniyaning sharqiy qismida shakar-lavlagi va markaziy hududlarida bug‘doy yetishtiriladi, janubdagisi Duvra hududlarida eng yirik meva bog‘lari joylashgan. Baliqchilik sohasi ham rivojlangan.

18.5. “Breksit” islohotidan so‘ng Buyuk Britaniya va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi savdo muammolari

Ma’lumki 2020-yilning 1-fevralidan Britaniya rasman YI a’zoligidan chiqqanligini e’lon qilgan. Biroq YI a’zoligidan chiqqan bo‘lsa-da, 2020-yilning so‘nggi kunlarigacha Britaniya YI bilan savdo bitimini tuzmasdan ko‘plab britan xalqini ancha xavotirga solib qo‘ydi. Chunki Britaniya uchun og‘ir kelgan 2020-yilda do‘konlardagi peshtaxtalar pandemiyaning ilk haftalaridanoq ancha bo‘shab qolgan edi. Britaniya va YI o‘rtasidagi savdo bitimini tuzishi mumkin bo‘lgan muddat 2020-yil 31-dekabrgacha belgilangan bo‘lsa-da, dekabrning ilk kunlarida ham ikki tomon o‘rtasida bir necha bor o‘tkazilgan muzokaralar boshi berk ko‘chaga kirib qolgan edi.

Britaniya eksporti va importining yarmidan ko‘pi YIga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun ham Britaniya hukumati YI bilan tashqi savdo o‘rtasidagi bojlar hamda boshqa turli sohadagi iqtisodiy aloqalar va hamkorliklarni tartibga solishni tezroq amalgalashini taqozo etar edi. Ammo ikki tomon o‘rtasida bitimni imzolanishi uchun yuzaga kelgan qarama-qarshiliklar muzokaralarning ketma-ket navbatdagi raundlari ham hech qanday natijaga olib kelmadidi. Oxir-oqibat 2020-yil 13-dekabr kuni masalani Britaniya Bosh vaziri B.Jonson va Yevrokomissiya rahbari Ursula fon de Lyayen o‘rtasidagi bo‘lib o‘tgan “yopiq eshiklar” doirasida qisman hal qilindi va muzokaralarni keyinchalik davom ettirishga kelishildi xolos.

Xo'sh, bu shartlarning Britaniya uchun nimasi yomon? Nima uchun kechagina "bir oila bo'lib yashagan" va ikki yirik hamkor va bir-biriga qo'shni bo'lgan mamlakatlar o'rtasidagi muzokaralar bunchalik uzoq davom etdi va og'ir kechdi? 2020-yilning oktabrdagi navbatdagi muzokaralar raundi oldidan Ursula fon der Lyayen muzokaralarning eng muammoli nuqtalarini aytib o'tgan edi: bular bo'lg'usi savdo sheriklaridagi standarlarning bir xilligi va baliqchilik sohasida qirg'oqbo'yi hududlaridagi suv havzalaridan foydalanish siyosati hamda YIining Britaniya bilan bojsiz savdo haqida kelishuv imzolanishi uchun Britaniyaning yangi standartlari Yevropanikiga maksimal darajada muvofiq kelishi kerak.

Gap shundaki, aynan 2016-yildagi "Breksit" islohoti uchun ovoz berish arafasida britaniyaliklarga yot bo'lgan standartlarni yuklash YIdan chiqish tarafdorlari dasturidagi eng muhim bandlaridan biriga aylangan edi. Shuning uchun "Breksit"ni yoqlovchilarning asosiy ishtirokchisi bo'lgan B.Jonson ushbu band bo'yicha yon bosishga oxirigacha oyoq tirab turgani hayratlanarli emas. Baliq ovlash siyosati bo'yicha esa, YIda amal qiladigan umumiy siyosatga ko'ra, a'zo mamlakatlar YI hududining butun qirg'oq chizig'i bo'ylab suv havzalaridan dengiz mahsulotlarini muayyan kvotalar bo'yicha ovlashi mumkin, biroq alohida davlatlarning hududiy suv havzalari bundan mustasno. 2021-yil 1-yanvardan Britaniya YI mamlakatlari bilan minglab kilometr qirg'oqni bo'lishadigan begona davlatga aylanadi va baliq ovlash bo'yicha yangi siyosat ishlab chiqilishi talab qilinadi. Muammo shundaki, YI baliqchilik haqidagi band savdo haqidagi yagona bitimga kiritilishini talab qiladi. Britaniyaliklar esa buni alohida hujjat qilib, o'z dengiz manbalarini sobiq ittifoqdoshlar bilan bo'lishmasdan, albatta, o'zi nazorat qilishni istaydi.

Nihoyat 2020-yilning oxirida ikki tomon o'rtasida bo'lib o'tgan og'ir muzokaralardan so'ng yakuniy kelishuv – ikki tomon o'rtasidagi Breksitdan keyingi munosabatlar va erkin savdo bo'yicha kelishuvga erishildi. YI rahbari Britaniyaning YIdan chiqish jarayoni tugagandan keyingi sheriklik to'g'risidagi kelishuvga erishganini rasman e'lon qildi. Savdo kelishuvi ikki tomon o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik va aloqalar, umumiy bozordan foydalanishda teng huquqlik hamda baliqchilik uchun muvozanatli sharoit ta'minlandi. 2020-yil oxirida Britaniyaning "Breksit" islohoti bo'yicha o'tish davri o'z nihoyasiga

yetdi va 2021-yil 1-yanvardan Britaniyaning Yevropa Ittifoqidan chiqish jarayoni yakunlandi.

18.6. Britaniya iqtisodiyoti tarixidan joy olgan 2020-yil va COVID-19ning milliy iqtisodiyotga ta'siri

2020-yil Britaniya uchun o‘z tarixidagi juda qiyin va og‘ir-yil bo‘ldi, desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Nima uchun 2020-yil britanlarga og‘ir keldi?

Birinchidan, Britaniyada o‘tkazilgan “Breksit” referendumiga asosan, 2020-yilning 1-fevralidan rasman Britaniya YI a’zoligidan chiqdi. Biroq referendumda ovoz beruvchilarning 42 foiz fuqarolari Britaniyaning YIdan chiqishiga qarshilik bildirishgan edilar (asosan shotland xalqi).

Ikkinchidan, mamlakatning “ichki siyosati” ham yil sayin tobora ziddiyatlashib bormoqda. 2020-yilning yanvar oyida Qirollikning a’zosi hisoblangan Shotlandiya o‘zining mustaqilligini e’lon qilishini va Britaniya o‘rniga YIga a’zo bo‘lib kirishini ma’lum qilib, shu yilning o‘zida Referendum o‘tkazishini ma’lum qildi. Pandemianing yuzaga kelishi referendumni 2021-yilga qoldirilgan edi.

Avvaliga o‘tkazilgan “So‘rovnama”da Shotlandiyaning 63 foiz aholisi mustaqillik uchun ovoz bergan va kelgusida YIga a’zo bo‘lib kirishini qo‘llab-quvvatlagan. O‘z o‘rnida, Shotlandiya hukumati Britaniya hukumatini chetlab o‘tib, YI rahbariyatiga shotland xalqining istagini ma’lum qildi. 2021-yilning yanvar oyida Shotlandiyaning mustaqilligi masalasi yana bir bor ko‘tarildi, biroq bu gal jiddiy! Shotlandiya rahbari mustaqillik uchun referendum o‘tkazilishini Britaniya hukumatiga murojaat qildi. Biroq Bosh vazir B.Jonson referendum o‘tkazilishini rad etib, “Shotlandlar Britaniyadan mustaqil bo‘lish uchun referendum o‘tkazishga hozircha tayyor emas, ular milliy atmosferada birlashtiruvchi kuchga ega emaslar, bu butun avlodda bir marta bo‘lishi kerak”⁸⁴, deb ta’kidlab o‘tgan.

Uchinchidan, tashqi siyosatda bir qator xorijiy mamlakatlar bilan, jumladan, Rossiya bilan turli “iqtisodiy jazo”lar qarama-qarshiligi bo‘lgan bo‘lsa, Xitoy bilan esa Gonkong mojarosiga duch keldi.

To‘rtinchidan, “Breksit” islohoti amalga oshirilgach, Britaniya YI

⁸⁴ <https://www.interfax.ru/world/743965>

bilan erkin savdo shartnomasini imzolash borasida juda og‘ir muzokaralarni o‘tkazdi. YI fuqarolarini Britaniyaga kirish va chiqish qoidalari, turizm va soliq sohalarida yechimini kutayotgan o‘nlab masalalar 2020-yil oxirida qisman hal qilingan bo‘lsa-da, biroq imzolangan shartnomasi ikki tomonni qoniqtirmasligi ma’lum.

Beshinchidan, La-Mansh yo‘li va boshqa turli suv yo‘llari orqali kuniga yuzlab muhojirlarning “oqimi” ko‘payishi o‘zining yuqori nuqtasiga chiqdi. 2020-yil holatiga ko‘ra, mamlakatga kirib qolgan va ro‘yxatdan o‘tgan jami “52 ming hujjatsiz muhojirlar”ni taqdiri hamon noma’lumligicha qolmoqda. Mahalliy hukumat ushbu muhojirlarni “boqish”, “kiyintirish” va ularni “o‘qitish”ni olib borishga majbur bo‘lmoqda.

Oltinchidan, so‘nggi yillarda mamlakatning turli shaharlarida tinch aholiga nisbatan ko‘chalarda terror harakatlari va holatlari ro‘y berayotganligi. Britaniya hukumati mahalliy aholining xavfsizligini oldini olish va ta’minalash maqsadida ko‘plab qo‘sishimcha choratadbirlarni amalga oshirishga majbur bo‘lmoqda. Aynan aholining xavfsizligiga tahdid qilinishi “Breksit” jarayonining tezlashishiga ham olib kelgan edi.

Yettinchidan, Britaniyaning YIdan chiqish haqidagi qarori mamlakat iqtisodiyotiga 132,8 mlrd.funt sterlingga (173,8 mlrd.dollar) tushdi.

Sakkizinchidan esa, COVID-19ning iqtisodiyotga “zarbasi” va milliy iqtisodiyot holatining tahlikaga tushirib qo‘yishi. Jahonda yuz bergen pandemianing ilk davrida unga qarshi kurashda Britaniya jahon hamjamiyatidan “yolg‘izlanib” qoldi, chunki tashqaridan bironta mamlakatdan o‘z vaqtida yordam ololmadi, chunki bu paytda ham unga yordam berishi mumkin bo‘lgan eng asosiy hamkor davlat hisoblangan AQSH hamda unga qo‘shti bo‘lgan Fransiya ham COVID-19ga qarshi yakkama-yakka kurashayotgan edi.

Britaniya hukumati 2020-yilning yanvar-fevral oylarida avvaliga COVID-19ga unchalik jiddiy e’tibor bermaganini va o‘z vaqtida tashkiliy ishlarga yetarlicha tayyorgarlik ko‘rilmaganligi sababli, “virusning tarqalish jarayoni” mamlakat bo‘ylab tezlik bilan tarqalib ketdi. Hukumat aholini uyda qolishi uchun kuchaytirilgan “karantin” qoidalarini joriy qilgan bo‘lsa-da, ko‘plab fuqarolar bunday cheklov larga qaramay o‘z faoliyatlarini davom ettirishdi. Muammo

kun sayin jiddiylashganidan so‘ng britan aholisi “shok”ka tushib qoldi. Minglab kasallarni yotqizishga va davolashga kasalxonalarini endilikda yetishmasligi, dori-darmon va niqoblarni tanqisligi hamda “oziq-ovqat” masalasi eng birinchi dolzarb muammoga aylandi. Yirik shaharlardagi do‘konlarning peshtaxtalari oddiy kunlik iste’mol mahsulotlaridan bo‘shab qolgan edi. Tahlikali vaziyatda aholi kamida 3 oylik zaxira oziq-ovqatini do‘konlardan xarid qilishga shoshilishdi. Yuzaga kelgan holat hatto Ikkinci jahon urushi davrida ham bu qadar “tanglik” kuzatilmagan edi.

Tahlikali vaziyatga ko‘ra, iqtisodiyotdagi deyarli barcha ishlab chiqarish tarmoqlari vaqtinchalik yopildi. Aholi uchun oddiy aholi iste’moli mahsulotlarini ishlab chiqarish faoliyati ham to‘xtadi. Hukumat oziq-ovqat masalasida qo‘shti YI mamlakatlaridan oziq-ovqat mahsulotlarini import qilishda yordam so‘ragan bo‘lsa-da, biroq bu paytda YIning har bir mamlakatining o‘zi uchun ham yetarli oziq-ovqat zaxirasini jamg‘arish eng asosiy masala bo‘layotgan edi. Aksiga olib, YIning barcha mamlakatlari mahalliy davlat chegaralarini yopib, har bir mamlakat o‘zining hududidan ortiqcha oziq-ovqatni chetga tashilishini qattiq nazoratga oldi.

Noiloj qolgan Britaniya hukumati rasmiy ravishda JAR va Hindistondan meva-sabzavot va aholi iste’moli mahsulotlar eksporti hajmini kamida 2-3 marotabaga oshirilishini hamda dori-darmon va niqoblarning qo‘shimcha tarzda tezroq yetkazib berishini so‘radi. Chunki Britaniya hukumati tahlikalik holatdan tezroq chiqib ketishi va “panika”dan tezroq qutulishi eng muhim vazifa edi.

2020-yilning 27-fevralida Bosh vazir B.Jonson o‘z xalqiga murojaat qilib, meditsina sohasi inqirozga yuz tutgani, ayni damda barchani imkon qadar meditsina sohasiga yordam berishni, xususan, hamshiralik yoki sanitarkalik ishlariga aholini ixtiyoriy yollashni ma’lum qildi. Shifokorlarning yetishmasligi sababli, nafaqadagi 20700 ta keksa shifokorlarni ishga jalb qilishdan va ulardan yordam so‘rashdan boshqa chora topolmadi. Pandemiyaning ayni yuqori nuqtasiga chiqqan paytda, nafaqadagi jami 20 mingga yaqin shifokorlarni 3 marotaba yuqori oylik maoshi evaziga yordamga chaqirishga majbur bo‘ldi.

“The sun” ma’lumotiga ko‘ra, Britaniya hamon meditsina sohasida xorijiy migrantlarga tayanmoqda. Buning asosiy sababi –

yuzaga kelgan COVID-19 sababli mamlakatda jami 40 mingga yaqin shifokorlarning yetishmasligidir. 2020-yilning 18-aprelida Britaniya Bosh vaziri xorijiy mamlakatlardan, xususan Sharqiy Yevropa, Eron va Kubadan malakali shifokorlarni jalb qilish masalasini ko‘rib chiqilishini ma’lum qilgan. Ha, bunday og‘ir iqtisodiy sharoitda o‘zining tashqi siyosatidagi “qora mamlakatlar ro‘yxati”dan joy olgan mamlakat ham esdan chiqadi, chunki Eron Britaniya uchun shunday mamlakatlardan biri sanaladi. 2012-yildan buyon unga qarshi qo‘llanilayotgan “iqtisodiy jazo”da AQSHni eng asosiy qo‘llab-quvvatlayotgan mamlakat ham aynan Britaniya edi. Britaniyada e’lon qilingan “karantin” sababli, milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish 80 foizgacha qisqardi va 14 mln. ishchi vaqtinchalik “majburiy ta’til”ga chiqarib yuborildi. Nufuzli “BBC”ning 2020-yil 2-maydagi ma’lumotiga ko‘ra, Buyuk Britaniya fevral-aprel oylarining o‘zidayoq umumiyligi miqdorda qariyb 400 mlrd.doll. miqdorida iqtisodiy zarar ko‘rganligini ma’lum qildi.

Bob yuzasidan xulosa

Britaniya jahondagi eng birinchi “kapitalistik” mamlakat hisoblanib, uzoq yillar davomida jahon siyosati va iqtisodiyotida hukmronligini olib bordi va dunyoning turli hududlari va orollari Britaniya mulki deb e’lon qilingan. Aynan qariyb 500 yil davomida unga tegishli hududlardan arzon xomashyolar va oziq-ovqat mahsulotlarini tashib keltirilishi Britaniyani jahon iqtisodiyotida yetakchi mamlakatga aylantirdi. Ushbu hududlardan doimiy ravishda eng muhim bo‘lgan xomashyolar va tabiiy resurslarni Britaniyaning sanoat tarmoqlarini ta’minlab turishi – Britaniya iqtisodiyoti rivojlanishining eng asosiy sababi bo‘ldi. Biroq 1950-70-yillarda u ko‘plab hududlarining mustaqilligini tan olishga majbur bo‘ldi. Britaniya 1941-yilgacha jahon iqtisodiyoti tarixidan iqtisodiy salohiyati eng yirik bo‘lgan va jahon siyosat olamida eng buyuk davlat sifatida joy oldi.

Nazorat savollari

1. Britaniyaning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini aytинг.
2. Buyuk Britaniyaning Birinchi jahon urushi davrigacha bo‘lgan

iqtisodiy salohiyatini ayting.

3. Birinchi jahon urushi va Ikkinci jahon urushi oralig‘idagi Britaniyaning iqtisodiy ahvoli va salohiyatini ayting.

4. Buyuk Britaniyaning iqtisodiy taraqqiyot omillarini ayting.

5. Ikkinci jahon urushidan so‘ng Buyuk Britaniyaning iqtisodiy taraqqiyoti xususiyatlarini ayting.

6. Buyuk Britaniyaning aholisi va uning tizimini ayting.

7. Nima uchun Buyuk Britaniya Yevropa Ittifoqi a’zoligidan chiqdi?

8. Britaniya iqtisodiyotiga COVID-19 qanday salbiy ta’sir ko‘rsatdi?

9. Buyuk Britaniya hukumati qaysi xorijiy mamlakatlarning malakali shifokorlarini jalb etish masalasini ko‘rib chiqmoqchi edi va nima uchun?

10. Buyuk Britaniya bugungi kunda qanday iqtisodiy muammolarga ega?

11. Mamlakatning yirik industrial shaharlarini ta’riflab bering.

12. Mamlakatning eng asosiy xomashyo va oziq-ovqat mahsulotlarini Ikkinci jahon urushi davrigacha qaysi mamlakatlar ta’milab turgan?

13. Mamlakat iqtisodiyoti transportning ahamiyatini ayting.

14. Nima uchun 2020-yil Buyuk Britaniya uchun “og‘ir yil” bo‘ldi va uning asosiy xususiyatlarini ayting.

15. Nima uchun Buyuk Britaniya YI o‘rtasidagi “Breksit”dan keyingi Savdo bitimi kelishuvi muzokalarini qiyin kechdi?

Uyga vazifa!

Talabaning “Buyuk Britaniyaning iqtisodiy rivojlanishi” mavzusini chuqur o‘zlashtirishi hamda amaliyat darsiga puxta tayyorgarlik ko‘rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

1) mavzu so‘nggida berilgan “Nazorat savollari”ga tayyorgarlik ko‘rish;

2) Britaniya eksporti va importi tarkibidagi asosiy mahsulotlar va ularning geografik yo‘nalishlari bo‘yicha jadval ishlab chiqish;

3) Britaniya iqtisodiyoti sanoati, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohasi bo‘yicha talabalar guruhlarga bo‘lingan holda “Taqdimot” o‘tkaziladi.

XIX BOB. FRANSIYANING IQTISODIY RIVOJLANISHI

- 1. Fransiyaning umumiy tavsifi, aholi tizimi va uning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari.**
- 2. Fransiya iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy omillari.**
- 3. “Rejalashtirish” (Gollizm) siyosati va uning asosiy bosqichlari.**
- 4. Fransiyaning Ikkinchi jahon urushidan keyingi iqtisodiy taraqqiyoti.**
- 4. Fransiya iqtisodiyoti tuzilmasi.**
- 5. Fransiyaning “XX asr qurilishi” loyihasi.**

Tayanch iboralar: fransuz franki, yevro, qaram, prognoz, agrar, modernizatsiya, sudxo'rlik, kapital, moliya, birja, moliya birjası, valuta birjası, xalqaro turizm, “rejalashtirish siyosati”, “gollizm siyosati”.

19.1. Fransiyaning umumiy tavsifi, aholi tizimi va uning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari

Fransiya jahonda sanoat mahsulot ishlab chiqarish va iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha eng yuqori o'rnlarda turuvchi davlatlardan biri bo'lib, u jahondagi eng nufuzli “Katta yettilik”ning a'zosi. Shuningdek, ayni paytda YIning asosiy “kuratori”dir, biroq iqtisodiy salohiyati jihatidan YIda Germaniyadan so'ng 2-o'rinda turadi. U jahonda sobiq Ittifoq va AQSHdan so'ng uchinchi bo'lib kosmosga milliy raketasini (sputnik) uchirgan uchinchi mamlakatdir. Bundan tashqari, jahonda yadro qurolini yaratgan 4-mamlakatdir. Fransiya jahon xo'jaligiga daromadli mahsulotlar hisoblangan “shampan” va “dux” kabi mahsulotlarini kashf qilib bergen mamlakatdir. Sanoat ishlab chiqarishda jahondagi ulushi 4 foizni tashkil qilib, 8-o'rinda turadi. Ushbu ko'rsatkichni naqadar chuqur mohiyatiga etish uchun Yevropadagi bir qator davlatlarni, ya'ni Shvetsariya, Finlandiya, Norvegiya, Daniya, Shvetsiya va Luksemburg davlatlarining ishlab chiqarish miqdorlarini qo'shib hisoblaganda ularning umumiy miqdori Fransiyaning ishlab chiqarish miqdoriga tenglashishi mumkin.

Fransiya Yevropaning g'arbida joylashgan bo'lib, shimoli-sharqda Belgiya va Luksemburg, sharqda – Germaniya, Shvetsariya va Italiya, janubi-sharqda – Monako hamda janubda Ispaniya va Andorra kabi

mamlakatlar bilan chegaradosh. Mamlakat yarim orol hisoblanib, uning qirg‘oqlarini shimolda Shimoliy dengizning Pa-de-Kale va La-Mansh ko‘rfazlari, g‘arbda Atlantika okeanining Biskay ko‘rfazi, janubda esa – O‘rta yer dengizi yuvib turadi. Umumiylar maydoni 544 ming km.kv.ni tashkil qilib, yer maydoni kattaligi jihatidan Yevropada Rossiya va Ukrainadan so‘ng 3-o‘rinda turadi. Umumiylar maydonining 23 foizini o‘rmonlar tashkil qiladi.

Fransiyaning jahon xaritasida joylashgan o‘rnini



Yirik industrial shaharlari – Parij (poytaxti, madaniyat va san’at, turizm, biznes va moliya markazi), Marsel (aviaqozlik va kema remonti), Lion (neft-ximiya, ipakchilik, bo‘yoq mahsulotlari, farmatsevtika), Brest (baliqchilik), Lille (oziq-vqat sanoati), Tuluza (aerokosmos va ximiya sanoati), Strasburg (to‘qimachilik), Nant (kemasozlik), Bordo (mashinasozlik va metallni qayta ishslash), Sent-Eten (oziq-ovqat sanoati) va boshqa o‘nlab shaharlar kiradi. Rasmiy davlat tili – fransuz tili. Aholisi – 68,9 million kishini tashkil qilib, aholi soni jihatidan Yevropada 4-o‘rinda turadi (Yevropa Ittifoqi aholisining 17 foizi)⁸⁵.

Aholining 3 mln.ga yaqini unga tegishli bo‘lgan “qaram” hududlarda yashaydi. Umumiylar aholining 83 foizini fransuzlar va qolgan

⁸⁵ CountryMeters.info

foizini elzaslar, korsikanlar, katalonlar, basklar, ispanlar, vietnamlar, arablar va boshqa millatga mansub aholilar istiqomat qiladi. Aholining o'sish ko'rsatkich darajasi Fransiya tarixidagi eng past ko'rsatkichiga kelib – atigi 1 foizni tashkil qilmoqda. Bu kelajak yaqin 10-15 yillardan so'ng, aholining asosiy qismi "keksayish davri"ga kirishi bilan jahonda "Ikkinchi Yaponiya" mamlakatiga olib kelishi mumkin. Chunki demografik muammo - tug'ilish sonining tobora kamayib borishi – kelajakda Fransiyani to'laqonli migrantlar mamlakatiga aylanib qolishi mumkin.

19.1 -jadval

Fransiya aholisining o'sish dinamikasi

Aholini ro'yxatga olish	Umumiy aholi (mln. kishi)	Shundan xorijliklar (mln. kishi)	Shahar aholisi (foizda)
1800	29,8	0,5	25,0
1911	39,6	1,2	44,1
1921	39,2	1,5	46,3
1931	41,9	2,7	50,8
1940	41,0	2,5	52,6
1946	40,3	1,7	53,2
1954	43,1	1,8	56,0
1968	49,9	2,7	66,2
1975	52,6	3,5	68,1
1982	54,3	3,7	74,4
1990	56,6	3,6	74,0
2000	59,0	4,2	74,5
2010	64,7	5,1	76,0
2015	66,0	5,7	75,0
2019	68,1	6,9	77,0
2020	68,9	7,0	78,0
2021 (prognoz)	69,3	7,1	78,2

Manba: ushbu jadval "Fransiya//Ejegodnik–M.: 2016g." va internet <https://ru.m.wikipedia.org/wiki> ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

Aholi zichligi 1 km.kv.– 125 kishi to‘g‘ri keladi. Mehnatga layoqatli aholi – 31 mln. kishi bo‘lib, ularning 25 foizi sanoatda, 6 foizi qishloq xo‘jaligida (dehqonchilik, chorvachilik, o‘rmonchilik va baliqchilik) va 69 foizi esa xizmat ko‘rsatish sohasida (turizm, qurilish, transport, bank-

moliya, aloqa va boshqalar) faoliyat ko‘rsatishadi. Ishsizlik ko‘rsatkichi pandemiya davriga qadar – 8,7 foizini tashkil qilgan.

Fransiya iqtisodiyotining YaIMda sanoatdagи ulushi – 20 foiz, qishloq xo‘jaligi – 2 foiz xizmat ko‘rsatish sohasi – 78 foizni tashkil qiladi. Xizmat ko‘rsatish sohasini asosan – turizm, aloqa, qurilish, transport, bank va sug‘urta faoliyatları tashkil qiladi.

Fransyaning YaIM miqdori 2.715,5 mlrd.dollarni tashkil qilib, jahonda AQSH, Xitoy, Yaponiya, Germaniya, Hindiston va Buyuk Britaniyadan so‘ng turadi 7-o‘rinda, Yevropada esa Germaniya va Buyuk Britaniyadan so‘ng 3-o‘rinda turadi. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadi 42.400 dollar bo‘lib, jahonda 24-o‘rinni egallab turibdi.

19.2-jadval

Fransyaning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari

T/r	Asosiy ko‘rsatkichlar va xususiyatlari	Miqdori va belgilari
1	YaIM miqdori (mln.doll.) ⁸⁶	2.715,5
2	YaMMning aholi jon boshiga (doll.) ⁸⁷	42.400
3	Umumiy tashqi savdo aylanmasi (mlrd.doll.)	1.199,6
4	Eksporti (mlrd.doll.)	556,4
5	Importi (mlrd.doll.)	643,2
6	Eng asosiy tashqi savdo hamkorlari	Germaniya, Ispaniya va Belgiya
7	Valuta zaxirasi (mlrd.dollar) ⁸⁸	189,0
8	Tashqi qarzi (mlrd.doll.) ⁸⁹	6.266,1
9	Aholi soni (mln. kishi) ⁹⁰	68,9
10	Umumiy yer maydoni (ming km.kv.) ⁹¹	547,0
11	Ishsizlik darajasi (foiz)	8,7
12	Milliy valutasi (pul birligi)	Yevro
13	Mamlakat poytaxti	Parij
14	Rasmiy davlat tili	Fransuz tili

Manba: ushbu jadval ma’lumotlar asosida ishlab chiqilgan.

⁸⁶ Gtmarket.ru/ratings/gross-national-income-ranking

⁸⁷ https://data.worldbank.org/indicator/NY.GNP.PCAP.CD

⁸⁸ https://https://nonews.co/directory/lists/countries/gold

⁸⁹ https://ru.m.wikipedia.org/wiki/%D0%A1%D0%BF%D0%B8%

⁹⁰ https://ru.m.wikipedia.org/wiki/Spisok_stran_po_naseleniyu

⁹¹ https://worldgeo.ru/lists/?id=2

Umumiy tashqi savdo miqdori – 1.199,6 mlrd.dollar bo‘lib, bundan eksport – 556,4 mlrd.dollar import esa 643,2 mlrd.dollarni tashkil qiladi. Import miqdori eksport miqdoriga qaraganda ancha salmoqli darajada ustunlik qiladi. Tashqi savdo miqdori jihatidan jahonda 5-o‘rinda, Yevropada esa Germaniyadan so‘ng 2-o‘rinda turadi. Asosiy eksport mahsulotlariga aerokosmos, avtomobillar, farmatsevtika, mashinasozlik, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari, harbiy texnika (harbiy samolyot va kemalar) va qurol-yaroq va turizm kiradi. Eksportdagi asosiy tashqi hamkor mamlakatlari: Germaniya, Italiya, Ispaniya va boshqa mamlakatlar. Asosiy import mahsulotlariga esa, neft va neft mahsulotlari, mineral o‘g‘itlar va kimyo mahsulotlari, kauchuk, kofe, kakao, choy, shakar, to‘qimachilik va aholi iste’moli mahsulotlari kiradi. Importdagi asosiy tashqi hamkor mamlakatlari: Germaniya, Belgiya, Gollandiya va boshqa mamlakatlar. Demak, Fransyaning tashqi savdodagi eng asosiy hamkori Germaniya mamlakatidir. Fransyaning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini 19.2-jadval orqali ko‘rish mumkin.

Tashqi savdoda Fransiya uzoq yillardan buyon Britaniyani o‘zining eng yaqin tashqi hamkor mamlakat sifatida ta’kidlasa-da, uning umumiy eksportida Britaniyaning ulushi atigi 6,5 foiz va umumiy importida esa atigi 5 foiz ulushi to‘g‘ri kelar ekan xolos. Hatto jahondagi yirik Xitoy, AQSH, Rossiya, Yaponiya kabi mamlakatlari ham Fransyaning tashqi savdosidagi asosiy hamkor mamlakatlari reytingining yuqori uchtalik qatoridan o‘rin olishmagan.

2020-2021-yillarda pandemiya tufayli ishga layoqatli aholining 37 foizi vaqtincha ishsizlikka duchor bo‘lgan. Ishsizlikning vaqtinchalik bu qadar yuqori ko‘rsatkichga chiqishi Ikkinci jahon urushi davridan buyon yaqin 75 yilda endi kuzatildi. Ishchixodimlarning o‘rtacha oylik maoshi 4185 dollar. Tashqi qarzi 6,3 trln. dollari bo‘lib, uning tashqi qarz miqdori tobora ortib bormoqda. Pul birligi yevro. 2002-yilgacha fransuz franki bo‘lgan. 2002-yil 1-yanvardan 6,5 fransuz franki (=) 1 Yevroga ayirboshlangan.

19.2. Fransiya iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy omillari

Fransiya milliy iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy omillari quyidagilardan iborat:

1. *Mamlakatning iqtisodiy-geografik qulayligi*. Fransyaning iqtisodiy-geografik holati juda ham qulay joylashgan bo‘lib, hududining ikki tomonini suv havzalari o‘rab turadi. Marsel, Brest va boshqa o‘nlab xalqaro talabga javob bera oladigan yirik dengiz portlari qurilgan.

2. *Sanoat ishlab chiqarish tarmoqlarida arzon ishchi kuchlarini xorijdan jalb qilinishi*.

3) *Sanoat tarmoqlari uchun eng asosiy xomashyo va qazilma boyliklarining mavjudligi*. Fransiya tabiiy qazilma boyliklarining ba’zi muhim xomashyolariga boydir. U Yevropada tabiiy xomashyo va mineral resurslarga boy bo‘lgan eng asosiy mamlakatdir. Asosiy xomashyolar hisoblangan temir ruda, ko‘mir, tuz, tabiiy gaz va boksit sanoat ehtiyojini to‘la qoplaydi. Lotaringiyada Yevropadagi eng yirik temir ruda, tuz va ko‘mir konlari, Provans va Langedok hududlarida boksit, janubiy hududlarda tabiiy gaz mavjud. Shuning uchun ham ko‘plab metallurgiya zavodlari Lotaringiya hududlarida joylashgan. Janubiy hududlarida (Bordo) esa, mavjud neft konlari Yevropadagi eng yirik neft konlari hisoblanadi.

4. *Qishloq xo‘jaligini rivojlanishi*. Fransiya Yevropaning janubiy qismida joylashganligi sababli, uning iqlimi Yevropaning boshqa mamlakatlariga qaraganda agrar soha uchun nihoyatda qulay hisoblanadi. XIX asr va XX asrning boshlarida ham Fransiya bug‘doy va bir qator muhim hisoblangan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hosildorligi jihatidan Yevropada 2-o‘rinda turgan. 1950-1980-yillarda iqtisodiyotda agrar soha yetakchi hisoblangan. Ushbu yillarda YaIMDa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiyligi qiymati sanoat mahsulotlari umumiyligi qiyamatidan yuqori bo‘lib, aholining 40 foizi agrar sohada band bo‘lgan.

1950-yillarda dehqonchilik bilan shug‘ullanadigan aksariyat fermerlarda mablag‘ tanqisligi sababli qishloq xo‘jaligi texnikasidan va mineral o‘g‘itlardan yetarli darajada foydalanishiga imkon bo‘lmash edi. Chorvachilik ham ancha past rivojlangan bo‘lib, urushdan keyin ularning soni juda ham pasayib ketgan edi, chunki qishloq hududlaridagi ko‘plab chorvalar urushdagisi ishtirokchilarga asosiy ozuqa sifatida yetkazilib berilgan.

1950-yillarning oxiriga kelib agrar sohada ham juda katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Ana shu yillarda qishloq xo‘jaligida ilmiy-

texnika inqilobi (ITR) to‘liq g‘alaba qozonib, qishloq xo‘jaligi tarmoqlari yangi texnikalar bilan yerga ishlov berish usullari kengaydi va 1960-yilga kelib qishloq xo‘jaligida traktor parklarining soni 1939-yilga nisbatan 16 barobarga, mineral o‘g‘itlardan foydalanish miqdori esa 2 martaga o‘sdi.

1960-yillarga kelib, Fransiya qishloq xo‘jaligi majmuasi zamonaviy tarzda mexanizatsiyalashtirildi. Ushbu amalga oshirilgan islohotdan so‘ng, Fransiya jahonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirib beruvchi yirik mamlakatlarning biriga aylandi. Bug‘doy, sut, yog‘, go‘sht, pishloq, dukkakli ekinlar, vino ichimligi va boshqa mahsulotlarni eksporti miqdori bo‘yicha AQSHdan so‘ng ikkinchi davlatgan aylandi. Biroq, iqtisodiyotda asosiy e’tibor sanoatni rivojlanishiga va ushbu sohada oylik maoshlari agrar sohaga qaraganda 2-3 marotaba yuqori bo‘lganligi sababli ommaviy ravishda dehqonlarning shaharlarga ketib qolishi oqibatida sohasining rivoji 1980-yillardan pasayishni boshladi.

Shunday bo‘lsa-da, Fransiya hozirgi jahon qishloq xo‘jaligida o‘z mavqeiga ega bo‘lib, u bir qator muhim mahsulotlarni yetishtirishda Yevropada Germaniya va Gollandiyadan so‘ng yetakchi mamlakatlar qatoridan joy olgan. Qishloq xo‘jaligida eng asosiy tarmoq chorvachilik hisoblanadi va u qishloq xo‘jaligining 60 foiz ulushini beradi. Dehqonchilikda bug‘doy, makkajo‘xori, kungaboqar, qandlavlagi, soya, sholi, uzum, paxta, kartoshka va boshqa mahsulotlar yetishtiriladi. Uzumdan vino ishlab chiqarishda dunyoda 2-o‘rinda, don mahsulotlari va sut yetishtirishda 7-o‘rinda turadi. U o‘zining milliy konyaklari, shamparlari va vinolari bilan jahonda katta nom qozongan. Har yili 600 mln. litrdan ortiq spirtli ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqaradi. Demak, Fransiya Yevropada arpa va lavlagi (shakar) yetishtirishda 1-o‘rin hamda bug‘doy, vino va go‘sht mahsulotlarini ishlab chiqarishda 2-o‘rinda turadi. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida mineral o‘g‘itlarni iste’mol qilishda va texnikalardan foydalanishda Yevropada Gollandiya, Germaniya va Daniya mamlakatlaridan keyin turadi.

Shunday qilib, Fransiya hududlarida yetishtirilyotgan bug‘doy, shakar, tuxum, qaymoq, go‘sht mahsulotlari mamlakat ehtiyojini to‘la 100 foiz qoplaydi. Ko‘plab qishloq xo‘jaligi mahsulotlari turlarining eksporti bo‘yicha jahon agrar bozorida yetakchi mamlakatlar qatoridan

joy olgan.

Mamlakat hududlarining qishloq xo‘jaligi geografiyasini quyidagicha tavsiflash mumkin:

- Elzas provinsiyasi – bug‘doy yetishtirish markazi;
- Normandiya qaymoq, pishloq, fransuz olmasi va olma syoki markazi;
- Savoyya hududidagi jahonga mashhur - “Evian” mineral suvi;
- Marsel va Bordo hududlarida Yevropadagi eng asosiy uzumchilik sohasi rivojlangan hudud.
- La-Mansh ko‘rfazi hududida eng yirik o‘rmonlari joylashgan hudud;
- Luara daryosi vodiysi – “Fransianing bog‘i” hisoblanadi;
- Burgundiya provinsiyasi esa go‘sht va go‘sht mahsulotlari hamda turli konserva mahsulotlarini ishlab chiqarish markazi hisoblanadi.

Fransiya qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga boy bo‘lsa-da, biroq kofe, kakao, kauchuk, paxta, choy kabi mahsulotlarni xorijdan import qiladi.

5. *Turizmning rivojlanishi*. Fransiyada turizm sohasi tabiiy holatda rivojlangan bo‘lib, ushbu soha bugungi kunda davlat budgetiga tushadigan asosiy daromadlardan biri hisoblanadi. Butunjahon turizm qo‘mitasining 2008-yilda nashr qilingan “Yillik hisoboti”ga ko‘ra, jahon turizmi tarixidagi eng ko‘p sayyoh 2002-yilda Fransiyaga tashrif buyurgan ekan, ya’ni – 75 million sayyoh⁹². Hozirda esa ushbu ko‘rsatkich yil sayin pasayib bormoqda. Albatta, sayyoohlarning sonini kamayishining o‘ziga xos bir qator obyektiv sabablari bor. Masalan, 2020-yilda pandemiya sababli Fransiyaga xorijiy mamlakatlardan atigi 2,3 millionga yaqin sayyoohlар tashrif buyurishdi xolos. 2005-yilda turizmdan tushadigan daromad bo‘yicha dunyoda 1-o‘ringa ko‘tarilgan bo‘lsa-da, biroq 2019-yilga kelib u o‘z o‘rnini jahon turizmida AQSH, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Italiya kabi mamlakatlarga bo‘shatib berdi. So‘nggi yillarda ushbu mamlakatlar bilan turizm sohasida raqobatlashish ancha qiyin kechmoqda. Chunki Yevropada turizm sohasi rivojlangan Fransiya, Italiya, Ispaniya va Britaniyadan tashqari, ularning qatoriga Germaniya, Avstriya, Chexiya va Xorvatiya kabi

⁹² “Vsemirniy turisticheskiy komitet”. 2008. S-12.

turizm sohasi rivojlanib boratyotgan mamlakatlar ham qo'shilishgan.

Mamlakatning janubida joylashgan Provans viloyati jahondagni eng yirik turistik markazlaridan biri hisoblanadi. Nitstsa shahri va uning yon-atrofidagi dengiz kurortlarida har yili millionlab sayyoohlар xordiq chiqarishadi. Viloyat markazi Marsel shahri xorijiy mehmonlarning eng yirik markazidir. Fransiya xorijiy sayyoohlarni jalg qilishida bir qator xususiyatlarga ega bo'lib, unda Yevropadagi eng yirik "Yevrodisneylend", jazirama yoz faslida ham Alp tog' yonbag'irlarida joylashgan Savoyya provinsiyasidagi ko'plab alpinist-lagerlari, Kann shahrida har yili o'tkaziladigan "Butunjahon xalqaro kino festivali", "Parij Aero-shou", Jahondagi eng yirik velopoyga - "Tur-de-Frans" hamda Parij simvoli hisoblangan Eyfel minorasi kabilarni kiritish mumkin.

6. *Kichik va o'rta tadbirkorlikning rivojlanishi*. Fransiya milliy iqtisodiyoti tarixida eng gurkirab rivojlangan iqtisodiy davr 1990-yillarda mamlakatda jami 300 mingga yaqin kichik korxona va 34 mingga yaqin o'rta korxonalar ro'yxatga olingan edi. Bugungi kunda tadbirkorlik faoliyati bilan jami 700 mingga yaqin turli xil ko'rinishdagi korxonalar faoliyat olib bormoqda. Ularning 32 foizi - savdo-sotiq va 37 foizi turizm faoliyati bilan shug'ullanishadi. Sanoat tarmoqlarida 45 mingga yaqin kichik va o'rta korxonalar faoliyat ko'rsatadi. 2020-yilda pandemiya sababli yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz barcha sohalardagi kabi xususiy sektordagi ishlab chiqarishni ham butkul to'xtatib qo'ydi. YI tomonidan Fransyaning xususiy sektorini sog'lomlashtirish maqsadida 2020-yilning may-iyul oylarida 3,2 mlrd. yevro mablag'i va oktabr-noyabr oylarida yana qo'shimcha tarzda 1,7 mlrd. yevro mablag'i ajratildi.

7. *Moliaviy xizmatlarning o'sishi*. Parij fond birjasiga o'z vaqtida jahondagi eng yirik birjalardan biri hisoblangan. U bugungi kunda ham Yevropaning asosiy moliya markazlaridan biri bo'lib, ushbu sohaga xorij sarmoyalari jalg qilingan. Fransiya moliya-kredit tizimini tartibga solish va uning faoliyati 1984-yilda qabul qilingan qonunga asosan olib boriladi. Mamlakatda kredit faoliyati bilan shug'ullanuvchi barcha 35 mingdan ortiq tashkilotlar umumiyligida yagona tizimga kiritilgan. Lekin Fransiya davlat g'aznachiligi, Fransiya Banki va Fransiya aloqa xizmatiga ixtisoslashtirilgan moliya institatlari ushbu tarkibga kirmaydi. Kredit-moliya institatlari tizimida asosiy faoliyatlarini

banklar tashkil qiladi. Hozirgi paytda Fransiyada 500 ga yaqin tijorat va sarmoyali banklar mavjud bo‘lib, unda jami 300 mingdan ortiq ishchi-mutaxassis faoliyat ko‘rsatadi. Jahondagi eng yetakchi 100 ta banklar reytingida Fransyaning 6 ta banki joy olgan. Fransiya tarixida eng birinchi bank Fransiya banki 1800-yilda tashkil topgan, u hozirgi kunda Markaziy bankning vazifasini bajaradi.

8. Bevosita sarmoyalarni eksport qilishi. Fransuz sarmoyadorlari Yevropa, Hindi-Xitoy, Afrika mamlakatlariga ko‘plab sarmoyalarni kiritishgan. 1970-yillardan boshlab Fransyaning yirik TMKlari AQSH va Kanada bozorlariga ommaviy ravishda kirib borishi kuzatilgan.

9. Fransiya iqtisodiyotining rivojlanishida migrantlarning ustuvor ahamiyati. So‘nggi yillarda aholining o‘sish sur’atlari yil sayin pasayib bormoqda. Shunga ko‘ra, iqtisodiyotning sanoat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlariga xorijdan migrant ishchilarni jalb qilmoqda. Migrant ishchilar asosan Portugaliya, Marokash, Jazoir hamda MDH davlatlaridan jalb qilinmoqda. Ular umumiy ishchi o‘rinlarining 23 foizini tashkil qiladi. Fransiya iqtisodiyotning sanoat va agrar sohalariga qariyb 150-yildan buyon xorijiy migrantlarni qabul qiladi. Ayniqsa, mamlakatning janubiy hududlaridagi qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining faoliyati asosan xorij migrantlarning mehnati evaziga bog‘liqdir. Vino ishlab chiqarish va bog‘larda meva yetishtirishdagi ishchilarning deyarli 90 foizi migrantlardir. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida faoliyat ko‘rsatayotgan ishchilarning 80 foizi xorijdan tashrif buyurgan ishchilardir. BMT tahliliga ko‘ra, Fransyaning 1990-yillardagi iqtisodiy o‘sish sur’atlariga qaytishi uchun 3 yil davomida har yili o‘rtalik hisobda 2 mln.ga yaqin xorijiy immigrant ishchi-mutaxassislarni jalb qilishi lozim ekan.

1990-yillarda Fransiya xorijiy mamlakatlardan 3 mln.ga yaqin malakali ishchi kuchlarini iqtisodiyotning sanoat tarmoqlariga jalb qilgan. Fransiya Yevropada migrantlarning asosiy markazlaridan biriga aylanib bormoqda. Xorijdan vaqtinchalik mehnat faoliyatini olib borish uchun jalb qilinayotgan ishchilar mehnat shartnomalari tugagan bo‘lsa-da, ularning deyarli 95 foizi shartnoma tugaganidan keyin ham Fransiya hududlarida doimiy yashash uchun o‘rnashib qolmoqda. Jahonda Fransiya aholisini “internatsional mamlakat” ham deyishadi. Buning asosiy sababi mamlakatda jami 7 mln.dan ziyod fuqarolikka ega bo‘limgan migrantlar mavjuddir. Biroq, so‘nggi 5 yil ichida

bularning safiga 2016-2020-yillarda Shimoliy Afrika va Yaqin va O‘rtal mintaqalaridan turli yo‘llar bilan kirib qolgan va vaqtinchalik ro‘yxatga olingan qariyb yarim million migrant aholi (468 ming kishi) soni ham umumiy migrantlar soniga qo‘shilgan. Ular vaqtinchalik “Migrant hududlari”da Fransiya hukumatining bevosita ijtimoiy ta’minoti bilan yashab kelmoqdalar. Biroq ularning taqdiri hamon hal etilganicha yo‘q. Shu sababli, 2020-yilning 28-fevralida “Yevronyus” orqali berilgan ma’lumotga ko‘ra, mamlakat hududiga kirib olgan yarim millionga yaqin “qochoq aholi”ni oziq-ovqat bilan ta’minalash va bиринчи meditsina xizmatini ko‘rsatish uchun Fransiya hukumati YIdan har yili mazkur muhojirlarni “boqish” uchun qo‘sishimcha ravishda 442,0 mln. yevro mablag‘ini ajratilishini talab qilgan.

10. Milliy iqtisodiyot taraqqiyotida “Rejalashtirish” siyosati va jahon xo‘jaligida “fransuz modeli”ni vujudga kelishi. Fransiya hukumati tomonidan milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda qo‘llagan “Rejalashtirish siyosati” oqibatida jahonda “fransuz modeli” vujudga keldi. Iqtisodiyotni rivojlantirishda va uni modernizatsiyalashda rejalashtirish siyosati fransuz yetakchisi Sharl de Goll tomonidan amalga oshirilgan. Rejalashtirish siyosatining eng asosiy mohiyati milliy iqtisodiyot taraqqiyotida rejalashtirishning indikativ usulini tanladi, ya’ni xalq xo‘jaligida davlat sektorining yuqori ulushini va mulkinining ahamiyatini oshirdi. Uning olib borgan bu jihatni hozirda ham sanoatda davlat ulushining eng yuqoriligi aynan Fransiyada saqlanib qolingga.

Fransuz rejalashtirish tizimining boshqa mamlakatlardan farqi va uning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- 1) bozor iqtisodiyotiga rejalashtirishning mos kelishi;
- 2) rejalashtirishning yengil tizimini joriy qilinishi.

Rejalashtirish siyosatini asosiy omillari quyidagilardan iboratdir:

- a) rejalashtirish – bu umumjamoa jarayoni orqali fransuz jamiyatini kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlab berish va unda iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishda aniq takliflarni berish;
- b) rejalashtirish - bozor va iqtisodiy faoliyatlarini yo‘nalishlarini ta’minalashda rejalashtirishning qoida tizimini ishlab chiqish;
- d) rejalashtirish davlatning shunday siyosatlaridan biriki, uning milliy iqtisodiyotdagi butun vazifa va chora-tadbirlarini olib borishida o‘rtamuddatlik topshiriqlar tizimini belgilab berish;

e) rejorashtirish – bu bozor iqtisodiyotini rivojlantirishdagi qulaylik va afzallik jihatlarini aniqlab berish;

f) rejorashtirish – bu Fransiya hukumatining rahbarlik faoliyatini baholab beradi.

Shunday qilib, Fransyaning XX asrdagi 60-70-yillardagi iqtisodiy rivojlanishida uzoq yillar davomida tatbiq qilingan “rejorashtirish siyosati” iqtisodiy taraqqiyotda muhim ahamiyat kasb etdi.

19.3. “Rejorashtirish” (Gollizm) siyosati va uning asosiy bosqichlari

1950-yillarda Fransiya jahon kapitalistik mamlakatlari ichida birinchi bo‘lib iqtisodiyotni rejali rivojlantirish yo‘lidan bordi. 1946-yilda “Rejorashtirish Bosh kotibiyati” tashkil qilindi va uzoq yillarga mo‘ljallangan “rejorashtirishning demokratik tizimi” ishlab chiqildi.

Fransiya iqtisodiyoti taraqqiyotining rejorashtirilishi quyidagi asosiy bosqichlardan iborat bo‘lgan:

1-bosqich 1947 – 1956-yillar. Milliy iqtisodiyotni bosqichma-bosqich rivojlantirishda 1948-1952-yillarga mo‘jallangan “Birinchi rejorashtirish” dasturida iqtisodiyotni milliy sektori modernizatsiyasiga e’tibor qaratildi. “Birinchi rejorashtirish” dasturi urush vayronagarchiliklariga to‘la barham berish, urush asoratlarini yo‘qotish, to‘xtab qolgan ishlab chiqarishlarni qayta tiklash va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdan iborat bo‘ldi. Ushbu dastur, eng birinchi galda ishlab chiqarish tarmoqlaridagi asosiy 6 ta tarmog‘ni qayta tiklash, jumladan: ko‘mir qazish, elektr energiya, po‘lat quyish, sement ishlab chiqarish, transport va qishloq xo‘jaligi texnikalarini ishlab chiqarishga e’tibor qaratildi. Shu bilan birga, “Marshall rejas” ko‘ra, AQSHdan olingan mablag‘larni asosan sanoat tarmoqlariga yo‘naltirish bo‘ldi.

1953-57-yillarga mo‘ljallangan “Ikkinchi rejorashtirish” dasturida, asosiy e’tibor ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarning jahon bozorlarida raqobatbardoshligini ta’minlash, kapitalni eksport qilinishi hamda harbiy sanoat mahsulotlarini 2 marotabaga oshirilishiga e’tibor qaratildi. Dasturdan o‘rin olgan topshiriqlar ijrosi 1956-yilda tashkil qilingan jami 22 ta asosiy iqtisodiy hududlarda amalga oshirildi. Aynan 1956-yildan boshlab, Fransiya Bosh kotibiyati tomonidan iqtisodiy hududlar uchun keyingi istiqbol yillarga mo‘ljallangan 5

yillik reja dasturlarini tatbiq qildi va ushbu dasturlarni amalga oshirish tufayli milliy iqtisodiyotda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni o'sishida muhim ahamyat kasb etdi.

2-bosqich 1957–1972-yillar oraliq'i. 1958-61-yillarga mo'ljalangan "Uchinchi rejorashtirish" dasturida asosiy e'tibor proteksionizmdan "ochiq iqtisodiyotga" o'tish siyosatiga qaratildi. Mamlakatning "iqtisodiy chegaralari"ni iqtisodiyot taraqqiyot uchun ochilishi va 1957-yilda 6 mamlakat o'rtaida tuzilgan Rim shartnomasiga muvofiq, Yevropada "Umumiyl bozor"ni yuzaga kelishi bilan "rejorashtirish" siyosati o'zining "sanoat tarmoqlariga bag'ishlangan" xususiyatini yo'qotib, endilikda asosan makroiqtisodiy rivojlanish rejasiga o'tildi. Ushbu bosqichda hukumat tashqi savdoda to'lov balansini tenglashtirish maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyatga ham e'tiborni qaratdi. 1958-yildan boshlab tashkil qilingan Fransiya Milliy statistika va iqtisodiy tadqiqotlar institutiga (FMSITI) milliy iqtisodiyotning taraqqiyotini keyingi yillar uchun aniq va ravshan istiqbolli rejalar ishlab chiqilishi yuklatildi.

3-bosqich 1973–1980-yilgacha bo'lgan davr. 1973-yilgi jahon xo'jaligida yuz bergen Birinchi neft inqirozi barcha makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlarini to'xtatib qo'ydi. FMSITI tomonidan hukumatga "ko'p tarmoqli o'sish" iqtisodiy modeli bo'yicha taklif berildi. Bu iqtisodiy model o'z navbatida, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida 5 yillik reja o'sishi bo'yicha "Yillik istiqbollari" dasturini tavsiya qildi. Ushbu "Yillik istiqbollari" dasturi keyingi yillardan boshlab rejorashtirish siyosatiga tenglashib oldi.

4-bosqich 1980-yildan–1990-yilgacha bo'lgan davr. 1980-yildan boshlab har yili hukumat FMSITIdan keyingi istiqbol yillar uchun "Istiqbolli reja dasturi"ni talab qildi. Biroq 1990-yildan boshlab iqtisodiyotni rejorashtirish siyosati erkin ravishda olib boriladigan bo'ldi.

Shunday qilib uzoq 40-yil davomida Fransiya milliy iqtisodiyotida tatbiq qilingan reajorashtirish dasturlari 1980-yillarning so'nggiga kelib o'z xususiyatini yo'qotdi. Iqtisodiyotda gollizm siyosatining mazmuni va mohiyati shundan iborat bo'ldiki, sanoatining xalqaro ekspansiyasini kengaytirish hamda monopolistik strukturani kengaytirib, sanoatning barcha tarmoqlarini haqiqatda keng

rivojlantirishdan iborat edi.

19.4. Fransiyaning Ikkinci jahon urushidan keyingi iqtisodiy taraqqiyoti

Fransiya Birinchi va Ikkinci jahon urushlari davrida dunyodagi kapitalni qarzga berib sudxo'rlik bilan shug'ullangan mamlakat sifatida tarixdan joy olgan. Ushbu davrlarda iqtisodiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat bo'lgan: sudxo'rlikka asoslangan iqtisodiyotning ustunligi, sanoat yiriklashuvining pastligi, qishloq xo'jaligida mayda xo'jaliklarning ko'pligi kabilarni ta'kidlash joiz. Ikkinci jahon urushigacha fransuz moliya kapitalining tez rivojlanishi xorijda mustamlakachilik siyosatini kuchayib borishi uchun zamin yaratdi.

Ma'lumki, XIX asrning oxirlaridan XX asrning o'rtalarigacha Fransiya Afrikada katta hududga ega bo'lgan ko'plab mustamlakalarga ega edi. O'sha davrda Fransiyaga qarashli mustamlakalarning umumiyligi maydoni o'zining hududiga nisbatan 21 marta katta bo'lib, dunyoda Angliyadan keyin yirik mustamlakachilik siyosatini olib borgan 2-davlat sifatida turgan. Ikkinci jahon urushi ham Fransiyaga katta iqtisodiy zarar keltirdi (o'sha davr uchun – 1440,0 mlrd. frank), urushda 1100 ming odamni yo'qotdi. Sanoat ishlab chiqarish 30 foizga kamaydi. Unga tegishli bo'lgan Hindi-Xitoy, Suriya, Livan kabi mustamlakalari o'z mustaqilligiga erishdi.

Urushdan keyingi yillarda Fransiya iqtisodiyotini tiklash, jumladan ko'mir qazish, qora metallurgiya, avtomobilsozlik, aviasozlik sanoat korxonalarini tiklash va tashkil qilish hamda ularning faoliyatlarini jadallashtirish maqsadida AQSHning iqtisodiy hamkorligida "Marshall rejasi" dasturiga muvofiq katta iqtisodiy yordam ko'rsatildi. Natijada iqtisodiyotda sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish 2-3 hajmi barobarga oshdi va kapital jamg'arilishi ham ko'paydi. Masalan, 1949-55-yillarda kapital jamg'arma 2 barobarga ko'paydi va uning eksporti ham oshdi. Xillas, Fransiya 1956-yildayoq, o'zining milliy iqtisodiy salohiyatini urushdan oldingi holatiga qaytarishga erishdi.

1950-yillarda iqtisodiyotda asosan harbiy sanoatni rivojlantirishga ko'proq e'tibor qaratildi. Chunki, Fransiya bu davrda Vietnam va keyinchalik, Jazoirda mustamlakachilik urushlarini olib bordi.

AQSHning Koreya orolida olib borgan urushlari Fransiyani ham harbiy qurollanishga bo‘lgan xarajatlarini yanada ko‘payishiga olib keldi. 1953-yilning oxirlariga kelib, Fransiya iqtisodiyoti xuddi uning qo‘shnisi GFR kabi tez rivojlanish bosqichiga qadam qo‘ydi. Biroq, uning iqtisodiyoti bir tekisda rivojlanib bormadi. Chunki investitsiyasining 90 foizga yaqini asosan harbiy og‘ir sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan edi.

Agar 1950-53-yillarda iqtisodiyotda asosiy investitsiyalar energetika majmuasi va qora metallurgiya sanoat korxonalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lsa, 1954-58-yillarda esa ximiya, mashinasozlik, radio-elektronika va asbob-uskunalar ishlab chiqarish sanoat tarmoqlarini yuksalishiga ham e’tibor berildi. Natijada 1958-yilda sanoat ishlab chiqarish hajmi 1939-yilga nisbatan 2 barobarga oshdi.

1970-1980-yillarda Fransiya iqtisodiyotining tashqi qiyofasi o‘zgardi va u jahondagi rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo‘shildi. 1950-1973-yillarda Fransyaning o‘rtacha YaIM ishlab chiqarish hajmi 4,8 foizdan 5,3 foizga, sanoatda yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmi esa 5,9 foizdan 6,5 foizga o‘sigan edi. 1970-yillarning o‘rtalarida Fransiya hukumati va uning prezidenti V.Jiskar d-Esten “Umumiyo‘z”larda doim raqobatlashib turgan GFRdan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari bo‘yicha o‘zib ketishini maqsad qilib qo‘ygan edi. Biroq, 1973-75-yillarda ro‘y bergan navbatdagi iqtisodiy inqiroz milliy iqtisodiyotga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rstdi. Iqtisodiy inqiroz iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatib, kapital qo‘yilmalarini pasayishiga, inflatsiyani kuchayishiga va ishsizlar sonini oshishiga olib keldi. Ayniqsa, umumiyo‘z sanoat mahsulotlarini 40 foizidan ortiq qismini berib turgan muhim sanoat tarmoqlari hisoblangan qora metallurgiya, kemasozlik, yengil va oziq-ovqat sanoat tarmoqlari deyarli turg‘unlik holatiga tushib qolgan edi.

Iqtisodiy inqirozga barham berish uchun 1976-80-yillarga mo‘ljallangan Yettinchi besh yillik rejasi (1976-80) qabul qildi. 1981-yilda Fransiya sotsial partiyasining lideri Fransua Mitteran mamlakat prezidenti bo‘lib, saylandi. U bir qator demokratik xususiyatga ega bo‘lgan progressiv islohotlarni o‘tkazdi. 1982-yilda “Milliy lashtirish to‘g‘risida”gi qonun kuchga kirdi. Ushbu qonun asosida jahonda birinchi bo‘lib Fransyaning 11 ta milliy sanoat guruhlaridan 9 tasi

davlat nazorati qo‘liga o‘tdi. Fransyaning yirik moliyaviy kompaniyalari Pariba, Syuez, va 36 ta tadbirkor va tijorat banklari milliylashtirildi.

XX asrning 90-yillarida Fransiya o‘z sarmoyalarini MDH davlatlariga olib kirish va ayniqsa, Rossiya bilan iqtisodiy hamkorliklarni kengaytirishga alohida e’tibor qaratdi. Rossiya bilan iqtisodiy munosabatlarni yaxshilanishida va keng sohada hamkorliklarni olib borilishida J.Shirakning xizmatlari katta bo‘ldi.

Prezident Sarkozy davrida Fransyaning Shimoliy Afrika mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorliklari oldingi yillarga qaraganda yuqori cho‘qqisiga chiqdi. Yetakchi kompaniyalari Shimoliy Afrika mintaqasi mamlakatlarida neft qazish va uni qayta ishslash bo‘yicha o‘nlab yirik zavodlar faoliyatini yo‘lga qo‘ydi. O‘z o‘rnida ta’kidlash joizki, Fransiya tarixida birinchi marta Prezident Sarkoziga nisbatan korrupsiya holati bilan ayblanib, 2021-yilda 3 yil qamoq jazosi qo‘llanilgan.

2019-yilning so‘ngida Fransyaning yirik shaharlarida “Sariq jilet”larning hukumatga qarshi soliq va pensiya islohotlariga jiddiy norozilik bildirib davomli yirik namoyishlari bo‘lib o‘tdi. Bunday holat yaqin 50 yilda kuzatilmagan edi. Biroq pandemiya davri kirib kelgach, ichki siyosiy inqirozlar to‘xtagandek bo‘ldi. Biroq pandemiyaga qarshi joriy qilingan “kuchaytirilgan uchinchi karantin” davrida yana ichki siyosiy inqirozlar vujudga kela boshladi. Fransiya 2020-2021-yillarda og‘ir iqtisodiy “karantin davri”ni boshidan kechirdi. Ishlab chiqarish 80 foizgacha qisqarib, 18 mln. ishchi vaqtinchalik “majburiy ta’til”ga chiqdi. Pandemiya tufayli Fransiya qo‘shni Italiya va Ispaniya bilan milliy chegarasini vaqtinchalik “mahkam” yopishga majbur bo‘lgan edi. 130 yildan buyon (1889-yildan) sershovqin va sayyoohlar bilan to‘la bo‘lgan Eyfel minorasi maydoni qariyb 2 oy davomida sayyoohlarsiz huvvillab qolgan edi.

XVFning ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yilning fevral-mart oylarida yuzaga kelgan pandemiya oqibatida 2 oy ichida Fransyaning iqtisodiy zarari 372 mlrd. dollarga yetganligini ma’lum qilgan. Biroq inqiroz davri 2021-yil oxiriga qadar davom etishi kutilmoqda. Fransiya Milliy statistika va iqtisodiy tadqiqotlar instituti ma’lumotlariga ko‘ra, milliy iqtisodiyot 2020-yilda 2019-yilga nisbatan 8,2 foizga pasaygan va 2021-yilda 5 foizga pasayishi kutilmoqda. Bu iqtisodiy inqiroz so‘nggi

75 yildagi eng og‘ir iqtisodiy inqiroz sifatida Fransiya iqtisodiyoti tarixidan joy oldi.

19.5. Fransiya iqtisodiyoti tuzilmasi

Fransiya sanoati jahoning boshqa rivojlangan mamlakatlarning sanoatidan tubdan farq qilib, asosan iste’mol mahsulotlarini ishlab chiqarishga asoslangan. Jahon bozorlarida Fransiyada ishlab chiqarilgan qimmatbaho shoyi gazlamalar, parfumeriya va kosmetika, zargarlik buyumlari, shokolad va ichimliklarga bo‘lgan talab ancha yuqori. Sanoatning asosiy tarmoqlari mashinasozlik (eng asosiy tarmoq), aviasozlik, raketasozlik, kemasozlik, kema remonti, neftkimyo, metallurgiya, farmatsevtika, oziq-ovqat va to‘qimachilik tarmoqlari kiradi. Avtomobilsozlik sanoatida avtomobil ishlab chiqarish va eksporti bo‘yicha jahonda AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya va Xitoydan so‘ng 6-o‘rinda va uni eksport qilish bo‘yicha 5-o‘rinda turadi. Mamlakatdagi ikki yirik avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniyalar: xususiy “Pejo-Sitroen” (jahon avtomobil ishlab chiqarishdagi ulushi – 4 foiz) va davlatlatga tegishli bo‘lgan “Reno” (jahondagi ulushi – 5 foiz) kompaniyalari tashkil qiladi. Bundan tashqari kam miqdorda “Simka” va “Pejo” kompaniyalari ham avtomobillar ishlab chiqaradi.

Tura shahrida avtomobilning ehtiyyot qismlari hamda jahonga mashhur “Mishelen” shinasini ishlab chiqariladi. Kompaniya 1893-yilda tashkil topgan bo‘lib, u o‘z mahsulotlarini nafaqat ichki bozorlariga balki butun Yevropa bozorlariga ham chiqaradi. Shina va rezinotexnika mahsulotlarini ishlab chiqarish ustida doimiy ilmiytadqiqot, novatorlik ishlarni olib borilishi “Mishlen” kompaniyasi mahsulotlarini Lotin Amerikasi, AQSH bozorlariga ham kirib borishiga imkon berdi. Hozirgi kunda kompaniya jahon bozorlariga asosan shinalarni chiqaruvchi yirik TMKlardan biri bo‘lib, yengil va yuk mashinalari uchun, qishloq xo‘jalik traktorlari va yo‘l-qurilish mashinalari uchun, velosiped va mototsikllar uchun rezinotexnika buyumlarini ishlab chiqarmoqda. “Mishlen” Afrika va Janubi-Sharqiy Osiyodagi yirik kauchuk plantatsiyalariga, mamlakatdagi 3 ta yirik sintetik kauchuk ishlab chiqaruvchi zavodlariga egalik qilib, po‘lat simli radial shinalarni ham ishlab chiqarmoqda.

Fransiya metallurgiya sohasi Lotaringiya hududida rivojlangan.

Qizig‘i ushbu hududga egalik qilish uchun doimiy ravishda Germaniya bilan urush harakatlarini olib borgan. Chunki Yevropa metallurgiya sanoati uchun muhim bo‘lgan eng yirik xomashyo aynan ushbu Lotaringiya provinsiyasida joylashgan. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng Lotaringiya yana fransuzlarning qo‘liga o‘tdi. Qora va rangli metallurgiya sanoat tarmog‘i mamlakat eksportida muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, “Yuzinor-Sasilor” kompaniyasi Yevropadagi po‘lat ishlab chiqaruvchi eng yirik kompaniyadir. 2019-yilda 8,5 mln. tonnadan ortiq po‘lat ishlab chiqardi hamda uning mamlakat qora metallurgiyadagi ulushi 36 foizni tashkil qildi. Rangli metallurgiyada eng asosiy kompaniya bu – davlat sektoriga qarashli bo‘lgan “Peshine” kompaniyasidir. U ishlab chiqargan mahsulotlar ushbu tarmoqda 94 foiz mahsulotlar ulushini beradi. Kompaniya plastmassa mahsulotlarini ham ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, plastmassa mahsulotlarini ishlab chiqarishda dunyodagi eng yirik yetakchi kompaniyaga aylangan.

Neft sanoati tarmog‘ida 150 ga yaqin yirik korxonalar va unda 50 mingga yaqin ishchi-mutaxassislar faoliyat ko‘rsatadi. Neft qazib chiqarish va uni qayta ishlash texnologiyalarini xorij mamlakatlarida o‘rnatib berish ishlarida bir qator fransuz kompaniyalari katta daromad olishmoqda. “Kompani Fransez de Petrol” kompaniyasi Yevropaning yirik kompaniyalaridan biri bo‘lib, u jahonning ko‘plab mamlakatlarida o‘z bo‘limlariga ega. U jahon bozorlarida “Total” guruhi nomi bilan ish yuritadi. “Total” kompaniyasi asosan neft va neft mahsulotlarini ishlab chiqarish, tabiiy gaz qazib olish, saqlash, qayta ishslash, kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish kabilar kiradi.

Samolyotsozlik sanoatida “Tomson” konserni samolyot uchun navigatsiya asbob-uskunalarini va boshqa turli ehtiyyot qismlarini ishlab chiqarishda jahonda 1-o‘rinda turadi. Jahonga mashhur bo‘lgan “Karavella” reaktiv samolyoti va vertolyotlari, “Mister” va ”Miraj” qiruvchi-bombardimon harbiy samolyotlarini ishlab chiqaradi. Raketasozlik sanoatida faoliyat ko‘rsatayotgan “Aerospasial” (jahonda 1-o‘rinda) va “Dasso-Brege” (jahonda 3-o‘rinda) kompaniyalari aviakosmik sohasiga tegishli bo‘lgan yuzlab mahsulotlarni ishlab chiqarishda yetakchi hisoblanadi. Yevropadagi eng yirik “Arianspeys” kompaniyasi kosmik sputniklarni ishlab chiqaradi.

Parfumeriya, kosmetika va zamonaviy kiyimlarni ishlab

chiqarishda “L’Oreal”, “Shanel”, “Iv Sen Loran”, “Dior” kabi kompaniyalarining mahsulotlari jahonga mashhur va jahon xo‘jaligida yetakchilik qiladi. Umuman, mamlakatda parfumeriya va kosmetika mahsulotlarini ishlab chiqarishda 500 dan ortiq firmalar faoliyat ko‘rsatishadi.

Oziq-ovqat sanoatida mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha YIda Germaniyadan so‘ng 2-o‘rinda turadi. Ushbu tarmoqda “Danon”, “Nestle Frans”, “Rafaella” va boshqa o‘nlab dunyoga mashhur kompaniyalarning mahsulotlari jahon ommasiga ma’lumdir. Farmatsevtika mahsulotlarning ishlab chiqarish miqdori bo‘yicha jahonda 5-o‘rinda, uni eksport qilishda ham jahonda 5-o‘rinda turadi. Masalan, konditer va shokolad mahsulotlari, go‘sht mahsulotlari hamda turli xil konserva mahsulotlar eksportini misol qilishimiz mumkin. Agrar sohada yetishtirilayotgan va ishlab chiqarilayotgan umumiyligini qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 30 foizi eksportga yo‘naltirilmoqda.

Shunday qilib, Fransiya sanoati jahon iqtisodiyotida yetakchi hisoblanadi. Fransiya harbiy sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish va tashqi savdo orqali eksport qilish orqali milliardlab dollar foyda oladi. SIPRI ma’lumotiga ko‘ra, 2020-yilda harbiy sanoatning eksporti miqdori bo‘yicha Fransiya jahon mamlakatlari ichida 4-o‘rinni egallagan. Uning harbiy samolyot, kemalar va qurol-aslaha mahsulotlari eksporti 12 mlrd.dollarni tashkil qilgan. Eng muhimi, Fransiya jahon xo‘jaligida birinchi bo‘lib, 2025-yildan boshlab “ko‘mir iste’moli”dan voz kechiladi va bu haqida 2020-yilning avgustida Fransiya qonuni qabul qilindi. Shuningdek, 2030-yilgacha mamlakatdagi barcha avtomobillar elektromobil tizimiga o‘tilishi bo‘yicha davlat qonuni qabul qilindi.

19.6. Fransyaning “XX asr qurilishi” loyihasi

Jahon xo‘jaligi tarixidan joy olgan “XX asr qurilishi” deb nom olgan La Mansh tunneli, jahondagi yirik qurilish loyihasi sifatida 1994-yilda amalga oshirilib, Fransyaning Buyuk Britaniya bilan SUV havzasida bog‘lab turuvchi uzunligi 51 km.dan iborat bo‘lgan SUV osti tunneli ishga tushirildi. Ushbu zamonaviy dunyoning muhandislik mo‘jizasi, ya’ni Yevrotunnel qurilishi 1987-yilda boshlangan bo‘lib 1994-yilda La Mansh bo‘g‘ozni ostidan o‘tgan tunnel kontinental Yevropa va Buyuk Britaniyani bir-biriga bog‘ladi.

Ushbu tunnelning jahon ommasi uchun mohiyati shundaki, Parijdan poezdda yo‘lga chiqqan yo‘lovchi 2 soat-u 8 daqiqada Londonga yetib

boradi. Albatta, ushbu tunneldan nafaqat temiryo'llar, balki ikki tomoniga xavfsiz holda harakatlanadigan avtomobil yo'llari ham o'rin olgan. Hozirda ushbu yo'ldan yo'lovchi va yuk tashishda faol foydalanilmoqda. Jami 51 kilometrdan uzunlikdagi tunnel qurilishi uchun 13 mingdan ortiq ishchi va muhandislar hamda yetti yil vaqt kerak bo'ldi.

Qizig'i, mazkur yirik loyihani amalga oshirish uchun, qanchalik g'alati tuyulmasin, 200 yildan oshiqroq vaqt ketdi. La Mansh ostidan yo'l o'tkazgich qurish g'oyasi eng birinchi bo'lib, 1802-yilda fransuz injeneri Alber Mate-Faver tomonidan ilgari surildi. Dastlabki berilgan taklif loyihasiga ko'ra, tunnel moyli lampalar bilan yoritilishi va undan odamlar ot-aravalarda o'tishi kerak edi. Havo aylanish tizimini esa dengiz sathiga chiqadigan teshiklar bilan tashkil qilish rejalashtirildi. Ushbu qurilish loyihasi Napoleon I tomonidan Buyuk Britaniya va Fransiya o'rtasida tinchlik shartnomasini tuzish paytida ham taklif qilingan edi. Ammo inglizlar tomonidan ushbu taklif qilingan loyihaga javob olinmaganligi uchun u amalga oshmay qolib ketdi.

1856-yilga kelib boshqa bir fransuz muhandisi Tome de Gamond Angliya va Fransiya o'rtasida temiryo'l tunnelini qurishni taklif qildi. Fransuzlar tomonidan asosiy qurilish ishlarini o'z zimmasiga olib loyihani amalga oshirishga tayyor bo'lib turgan bir paytda, inglizlar tomonidan yana bir bor tayinli va aniq javob bo'lmadi.

1963-yilda Angliya va Fransiya o'rtasida La Mansh ostidan tunnel qurish bo'yicha prinsipial kelishuvga erishildi. Shundan so'ng ham loyihani amalga oshirishga kirishilmadi. Dengiz to'lqinlarining kuchi, shamolning suvning tebranishiga bo'lgan kuchi va boshqa turli har xil gumonlar qurilish ishlarini ortga surdi. Va nihoyat, 1986-yilga kelibgina ikki mamlakat loyihani haqiqatda birgalikda va hamkorlikda amalga oshirish uchun ikki tomon o'rtasida tarixiy kelishuvga imzo chekildi. Bir yil o'tib, uning qurilish ishlariga start berildi.

Ushbu "XX asr qurilishi" deb nom olgan loyihani amalga oshirishda, muhandislar olidida juda katta vazifa turgan edi: suv ostidan uzoq yillab xizmat qilishi kerak bo'lgan chidamli tunnel qurish. Tunnellarni Fransiyadan Kale shahridan hamda qarama-qarshi qirg'oq tomonidan esa, Britaniyaning Folkstonda qurilish ishlari boshlandi.

Qurilish jarayonida sakkiz mln.kubometr tosh olib tashlandi (yuzi 200 metr bo'lgan kub). Bunday hajmdagi yirik loyihalar jahonda shu paytgacha birinchi bor amalga oshirilishi edi. Loyiha ishlari yetti yil davomida 13 ming ishchi kuchi yordamida amalga oshirildi. 1994-

yilning 6 may sanasida ikki davlat uchun tarixning yangi sahifasi ochildi. Aynan shu kuni yangi qurilgan tunneldan birinchi poezd yurdi. Tantanali ochilish marosimida Buyuk Britaniya qirolichasi va Fransiya prezidenti Fransua Mitteran qatnashdi va ushbu tunnel jahonga “Yevrotunnel” nomi bilan tanishtirildi.

Xo’sh, ushbu loyihaga qancha mablag‘ sarfalangan? Avvaliga loyiha ishlab chiqilganda, britan muhandislari qurilish ishlari uchun jami 2,6 mlrd.funt sterling mablag‘ sarflanishini hisob-kitob qilishgan. Biroq qurilish yakuniga yetganidan so‘ng jami qurilish ishlari uchun 4,65 mlrd. funt sterling sarflangani hisob-kitob qilingan. “Yevrotunnel”dan olingan ilk daromad 2008-yildan boshlangan, ungacha olingan daromadlar banklardan olingan kreditlarni yopish uchun to‘lovlarni amalga oshirgan. Ushbu tunneldan eng ko‘p yo‘lovchi va yuk tashish 2017-yilda rekord ko‘rsatkichga erishilgan bo‘lib, ushbu yili yo‘lovchilar soni – 10,3 mln. kishi va yuk tashish miqdori esa 1,22 mln. tonnani tashkil qilgan.

Bob yuzasidan xulosa

Fransiya milliy iqtisodiyotining Ikkinci jahon urushidan keyin taraqqiy etishiga eng asosiy sabab “Rejalashtirish” siyosati va jahon xo‘jaligida “fransuz modeli”ni vujudga kelishidir. Rejalashtirish siyosatining eng asosiy mohiyati milliy iqtisodiyot taraqqiyotida rejalashtirishning indikativ usulini tanladi, ya’ni xalq xo‘jaligida davlat sektorining yuqori ulushini va mulkining ahamiyatini oshirdi.

Shunday qilib, Fransyaning XX asrdagi 60-70-yillardagi iqtisodiy rivojlanishida uzoq yillar davomida tatbiq qilingan “rejalashtirish siyosati” iqtisodiy taraqqiyotda muhim ahamiyat kasb etdi hamda Fransiya iqtisodiyoti tarixida u “gollizm siyosati” sifatida muhrlandi.

Demak, Fransyaning iqtisodiy salohiyatini barqaror ushlab turishi uchun har yili xorijiy migrantlarni doimiy ravishda jalb qilib turish lozim. Iqtisodiyotining sanoat va agrar sohalariga qariyb 150 yildan buyon xorijiy immigrantlarni qabul qiladi. agarda mamlakatda demografik ahvol o‘zgarmas ekan, u holda Fransiya iqtisodiyoti bundan keyingi yillarda ham xorijiy migrantlarning xizmatidan foydalanishga majbur bo‘ladi.

Nazorat savollari

1. Fransyaning umumiy iqtisodiy-geografik ahvolini ayting.
2. Fransyaning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini ayting.

3. Fransiya TMKlarining jahon mikyosida tutgan o‘rni qanday?
4. Fransiya jahon bozorida qaysi mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan yetakchilik qiladi?
5. Ikkinchchi jahon urushidan so‘ng Fransyaning iqtisodiy ahvolini aytib bering.
6. Fransyaning aholisi va uning o‘ziga xos xususiyatlarini ayting.
7. Fransyaning iqtisodiy o‘sish omillarini ayting.
8. Jahon xo‘jaligida “fransuz modeli” qanday vujudga kelgan?
9. Fransuz rejalashtirish tizimining boshqa mamlakatlardan farqi va uning asosiy xususiyatlarini ayting.
10. Fransyaning Ikkinchchi jahon urushidan keyingi iqtisodiy rivojlanishini ayting.
11. Gollizm siyosati nima va uning mohiyatini ayting.
12. Fransiya bugungi kunda qanday iqtisodiy muammolarga ega?
13. Mamlakatning yirik industrial shaharlarini ta’riflab bering.
14. Fransiya hukumati nima uchun YIdan 2020-yil uchun qo‘sishimcha 442,0 mln. yevro ajratilishini talab qilgan?
15. “Yevrotunnel” loyihasining mohiyatini ayting.

Uyga vazifa!

Talabaning “Fransyaning iqtisodiy rivojlanishi” mavzusini chuqr o‘zlashtirishi hamda amaliyot darsiga puxta tayyorgarlik ko‘rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

- 1) mavzu so‘nggida berilgan “Nazorat savollari”ga tayyorgarlik ko‘rish;
- 2) Fransyaning hududini xarita orqali iqtisodiy-geografik joylanishuvini ko‘rib chiqish;
- 3) Fransiya umumiylashuvini savdosining eksport va import tarkibidagi asosiy mahsulotlar va ularning geografik yo‘nalishlari bo‘yicha jadval ishlab chiqish;
- 4) Fransiya iqtisodiyotining sanoati, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohasi bo‘yicha talabalar guruhlarga bo‘lingan holda “Taqdimot” o‘tkaziladi.

XX BOB. ITALIYANING IQTISODIY RIVOJLANISHI

- 1. Italiyaning umumiy tavsifi, aholi tizimi va asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari.**
- 2. Italiya iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy omillari.**
- 3. Italiyaning Ikkinchi jahon urushi davrida va undan keyingi iqtisodiy taraqqiyoti.**
- 4. Italiyaning 2010-yildan keyingi iqtisodiy siyosati.**
- 5. Italiyaning transmilliy kompaniyalari va ularning jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni.**
- 6. COVID-19ning Italiya milliy iqtisodiyotiga ta'siri.**
- 7. Italiya iqtisodiyotining tuzilmasi.**

Tayanch iboralar: italiya liri, simvol, FIAT, COVID-19, yuvelir mahsulot, maxsus eksport, ixtisoslashtirilgan, "Marca", neft inqirozi, konsern, "Marshall rejasi", "Pandolfi rejasi", g'aznachilik, NATO.

20.1. Italiyaning umumiy tavsifi, aholi tizimi va asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari

Italiya tarixan sivilizatsyaning beshigi hisoblanadi. Yevropa mamlakatlari taraqqiyotining istiqbolini belgilab bergen uyg'onish davri (XV asr) sivilizatsiyasi ham aynan shu davlatning nomi bilan chambarchas bog'liqdir. Ko'plab tarixiy obidalar, "ochiq muzey shahri" bo'lgan Venetsiya ham nafaqat italiyaliklar, balki butun dunyo xalqlarining madaniy boyligi hisoblanadi. Italiyalik Dante, Petrarka, Bokkachcho kabi mashhur rassomlar jahon madaniyatini rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan allomalardir.

Italiya Respublikasi Yevropaning janubida, O'rta yer dengizi havzasida joylashgan bo'lib, uning tarkibiga Apenin yarim oroli, Sitsiliya, Sardiniya kabi yirik orollar va boshqa bir qator mayda orollar ham kiradi. U Fransiya, Shvetsariya, Avstriya va sobiq Yugoslaviya mamlakatlari bilan, janubda Afrika qit'asi bilan chegaradoshdir. Mamlakatning umumiy chegarasini 20 foizi quruqlikda joylashgan. Jahon xaritasida Italiya hududi Yevropaning "etigi" ko'rinishida tasvirlanib joy olgan.

Italiya 20 ta provinsiyadan iborat bo'lib, poytaxti Rim shahri. Rim shahrining simvoli shaharda joylashgan "Kolizey"dir. Uning hududi 301,2 ming kv.km.ni tashkil qilib, umumiy hududining 20 foizini

o‘rmonlar tashkil qiladi. Davlat tili – italiya tilidir.

Italiyaning jahon xaritasida joylashgan o‘rnii



Yirik industrial shaharlari: Rim (poytaxt, Yevropadagi yirik turizm markazlaridan biri), Milan (moliya, savdo, to‘qimachilik, jahon opera madaniyat markazi), Turin (mashinasozlik markazi va avtomobil shahri – FIAT), Genuya (mamlakatning eng yirik dengiz porti), Neapol (“Neapol – makaronning vatanidir”), Venetsiya (jahondagi eng yirik suv havzasidan iborat bo‘lgan “suv ko‘chali shahar”) va boshqa shaharlar kiradi.

Aholisi - 60,2 mln. kishini tashkil qiladi. Aholining 98 foizi italyanlardir. Aholi zichligi – 1 km.kv. Yer maydoniga 197 kishi to‘g‘ri keladi. Aholining asosiy qismi katolik diniga mansubdir. Shuni alohida qayd etish lozimki, mamlakat poytaxti Rimning qoq yuragida “Rim papasining davlati – Vatikan” joylashgan. Aholi soni ko‘p bo‘lgan shaharlar – Rim (4 mln.), Milan (2,5 mln.), Neapol (2,1 mln.) va Turin (1,8 mln.), Genuya – 1,5 mln. va boshqa shaharlar kiradi. Aholining 60 foizini shaharliklar tashkil qiladi. Aholining mehnatga layoqtli qismining 5 foizi qishloq xo‘jaligida, 37 foizi sanoatda va 58 foizi xizmat ko‘rsatish sohalarida faoliyat ko‘rsatishadi. 2019-yilda italiyaliklarning o‘z vatanini tashlab ketishga undovchi omillar yuzasidan o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovnoma, aksariyat aholi, ya’ni ko‘chib ketayotganlarni 67 foizi zilzila, yong‘in, suv toshqinlari hamda Shimoliy Afrikadan kelayotgan muhohirlardan xavfsiragan holda YIdagi unga qo‘shni bo‘lgan mamlakatlarga ko‘chib o‘tishga qaror qilishganligi aniqlangan.

Italiya jahon xo‘jaligida rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy olgan bo‘lib, u “Katta yettilik”ning a’zosidir. Sanoati jahon sanoatining saltkam 3 foizini tashkil qiladi. Uning iqtisodiy salohiyati AQSH, Xitoy, Yaponiya, Germaniya, Hindiston, Britaniya va Fransiyadan keyin 8-o‘rinda turadi. YIda esa Germaniya va Fransiyadan so‘ng 3-o‘rinda turadi. Jahon ommasi Gollandiyani “lolalar yurti” deyishsa, Italiyanı “xushbo‘y gullar yurti” deb ham atashadi. Shuning uchun ham, mamlakatda etishtiriladigan gullarning 90 foizi xorijga eksport qilinadi.

Italiyaning YaIM miqdori 2.001,2 mlrd.dollarni tashkil qilib, jahonda AQSH, Xitoy, Yaponiya, Germaniya, Hindiston, Buyuk Britaniya va Fransiyadan so‘ng turadi 8-o‘rinda, Yevropada esa Germaniya, Buyuk Britaniya va Fransiyadan so‘ng 4-o‘rinda turadi. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadi 34.460 dollar bo‘lib, jahonda 27-o‘rinni egallab turibdi.

Italiyaning umumiy tashqi savdo miqdori – 1.006,3 mlrd.dollari bo‘lib, bundan eksporti 532,7 mlrd.dollar hamda importi esa 473,6 mlrd.dollarni tashkil qiladi. Eksport miqdori import miqdoriga qaraganda ijobiy saldoni beradi. Italiyaning umumiy tashqi savdo miqdori jihatidan jahonda 10-o‘rinda, Yevropada esa 4-o‘rinda turadi. Asosiy eksport mahsulotlariga transport vositalari (kema, avtomobil, mototsikl, traktor va boshqalar), kiyim-kechak, zamonaviy asbob-uskunalar, kimyo va mineral o‘g‘itlar, qurilish materiallari, oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari (apelsin va limon, poyabzal, vino, yuvelir, konservalar) va turizm kiradi. Eksportdagi asosiy tashqi hamkor mamlakatlari: Germaniya (13,2 foiz), Fransiya (10,9 foiz), AQSH (7,1 foiz), Shvetsariya (5,8 foiz) va boshqa mamlakatlar tashkil qiladi. Asosiy import mahsulotlariga esa, transport vositalari, neft xomashyosi (umumiy importining 15 foizi), yog‘och, paxta tolasi, elektr energiya, oziq-ovqat mahsulotlari va aholi iste’moli mahsulotlari kiradi. Importdagi asosiy tashqi hamkor mamlakatlari: Germaniya (14,1 foiz), Xitoy (9,4 foiz), Fransiya (8,8 foiz), Rossiya (6,4 foiz) va boshqa mamlakatlar tashkil qiladi. Demak, Italiyaning tashqi savdodagi eng asosiy hamkorı Germaniya mamlakatidir.

Ishsizlik ko‘rsatkichi 12,8 foiz bo‘lib, ishsizlik ko‘rsatkich darajasi yil sayin tobora ortib bormoqda. Mamlakatda ishchi-xodimlarning o‘rtacha oylik maoshi 3300 dollarni tashkil qiladi. Tashqi qarzi 2,82 trln. dollarni tashkil qilib, ushbu ko‘rsatkich 2020-yilda salmoqli darajada oshganligini kuzatish mumkin. Pul birligi – Yevro. Italiyaning asosiy

makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini 20.1-jadval orqali ko‘rish mumkin.

Italiya – jahon turizm markazlarining eng asosiy hududlari joylashgan mamlakatdir. “Marca” ma’lumotiga ko‘ra, Yevropada turizm sohasi bo‘yicha 2019-yilda 2 mamlakat o‘zaro raqobat olib borgan, bular: Ispaniya bilan Italiyadir. Ammo ular bilan doimiy raqobatda yetakchi bo‘lish uchun Fransiya va Britaniya ham kurashmoqda. Demak, turizm sohasi ham bugungi kunda Italiyaning asosiy daromad manbalaridan biridir.

20.1-jadval

Italiyaning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari

T/r	Asosiy ko‘rsatkichlar va xususiyatlari	Miqdori va belgilari
1	YaIM miqdori (mln.doll.) ⁹³	2.001,2
2	YaMMning aholi jon boshiga (doll.) ⁹⁴	34.460
3	Umumiy tashqi savdo aylanmasi (mlrd.doll.)	1.006,3
4	Eksporti (mlrd.doll.)	532,7
5	Importi (mlrd.doll.)	473,6
6	Eng asosiy tashqi savdo hamkorlari	Germaniya, Fransiya va Xitoy
7	Valuta zaxirasi (mlrd.dollar) ⁹⁵	175,4
8	Tashqi qarzi (mlrd.doll.) ⁹⁶	3.160,3
9	Aholi soni (mln. kishi) ⁹⁷	60,2
10	Umumiy yer maydoni (ming km.kv.) ⁹⁸	301,2
11	Ishsizlik darajasi (foiz)	12,8
12	Milliy valutasi (pul birligi)	Yevro
13	Mamlakat poytaxti	Rim
14	Rasmiy davlat tili	Italiya tili

Manba: ushbu jadval ma’lumotlar asosida ishlab chiqilgan.

⁹³ Gtmarket.ru/ratings/gross-national-income-ranking

⁹⁴ https://data.worldbank.org/indicator/NY.GNP.PCAP.CD

⁹⁵ https://https://nonews.co/directory/lists/countries/gold

⁹⁶ https://ru.m.wikipedia.org/wiki/%DO%A1%DO%BF%DO%B8%

⁹⁷ https://ru.m.wikipedia.org/wiki/Spisok_stran_po_naseleniyu

⁹⁸ https://worldgeo.ru/lists/?id=2

20.2. Italiya iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy omillari

Italiya iqtisodiyoti quyidagi omillarga ko‘ra iqtisodiy taraqqiyotga erishgan:

1. *Iqtisodiy-geografik joylanishuvining qulayligi.* Italiyaning iqtisodiy-geografik o‘rni shunday joylashganki, uning hududi suv havzasida G‘arb bilan Sharqning bir-biriga tutashgan joyida, hamda Yevropaning Osiyo bilan, Osiyoning Afrika bilan, Yevropaning Afrika tutashgan qismida joylashgan. Shuningdek, uning hududlari ko‘plab xalqaro tranzit yo‘llar bilan tutashgan. Shu bilan birga, Italiyaning qulay geografik joylanishuvi NATOning strategik jihatdan o‘z harbiy bazalarini joylashtirishi ham nihoyatda muhim bo‘lib, uning o‘ndan ortiq harbiy bazalarini aynan shu hududda joylashtirilgan.

Yevropaliklar Italiyani “Yevropaning zilzilalar markazi” deb bejizga aytishmaydi. Yevropada kamdan kam sodir bo‘ladigan zilzilalar odatda Gretsiya, Xorvatiya va Italiya hududlarida sodir bo‘ladi. O‘tgan XX asrda mamlakatda jami 150 dan ortiq o‘rtacha va kuchli zilzilalar ro‘yxatga olingan. Ularning eng kuchlisi 1980-yilning noyabrida bo‘lib, ushbu zilzila kuchli 6,6 ballda bo‘lgan (Neapol shahridan Potentsa shahrigacha hududni o‘z ichiga qamrab olgan) edi. 2000-yildan 2021-yilgacha Italiya hududlarida jami 6 marta 5 balldan yuqori bo‘lgan kuchli zilzilalar sodir bo‘ldi, ularning eng kuchlisi 2020-yilning yanvarida 5,6 ballik shkalada ro‘y bergan. Ushbu so‘nggi kuchli zilzila milliy iqtisodiyotga 2,2 mlrd.doll. miqdorida iqtisodiy zarar keltirgan. Janubiy Italiya hududlari hozirgi kungacha ham zilziladan so‘ng o‘zining oldingi holatini haligacha tiklay olmagan.

2. *Qazilma boyliklar va xomashyolarga boyligi hamda ulardan samarali foydalanishi.* Italiyaning qazilma boyliklari haqida gap ketganda, jahon xo‘jaligidagi eng bиринчи bo‘lib, Italiyada temir rudani qazib chiqarish boshlangan bo‘lib, Elba orolidagi Aost hududida mana 2700 yillardiki temir rudani qazish ishlari hamon davom etmoqda.

Temir rudadan tashqari, mamlakatning Sardiniya hududida svinets, sink, kumush va boshqa rangli metallar ham qaziladi. Toskana hududidagi simob rudasi konlarining zaxirasi bo‘yicha jahon xo‘jaligidagi 1-o‘rinda turadi. Lekin uni ishlab chiqarish bo‘yicha jahonda Ispaniyadan so‘ng 2-o‘rinda turadi. Magniya xomashyosini

ishlab chiqarish bo'yicha jahonda 1-o'rinda turadi. Sardiniya, Toskana, Umbriya, Kalabriya hududlarida qisman bo'lsa-da, toshko'mirlar mavjud. Sitsiliyada neft va tabiiy gaz konlari mavjuddir, lekin neft va tabiiy gazning asosiy qismi xorijdan import qilinadi. Italiya qurilish xomashyolarga boy bo'lib, mramor va granitlar Yevropaning ko'plab mamlakatlariga eksport qilinadi.

Shuningdek, Toskana hududida mashhur oq rangli mramor ishlab chiqariladi. Aynan oq mramor orqali qadimgi Rim xaykaltaroshligi va binolardagi chiroyli skulptur qurilishlari shu xomashyodan tayyorlangan. Hozirgi kunda ham ushbu xomashyo nafaqat mamlakatning ichki iste'moli uchun balki okean ortiga ham ko'plab miqdorda qimmat narxda eksport qilinmoqda. Masalan, Markaziy Osiyo vakili hisoblangan Turkmaniston ham Ashxobot shahridagi bir qator inshootlarni qurilishlari uchun 2012-2013-yillarda Italiyadan ushbu oq mramor xomashyolarini import qilgan.

3. *Qishloq xo'jaligini rivojlanishi*. Italiyaning Padana tekisligi hamda Sitsiliyada qishloq xo'jaligi tarmoqlari mujassamlashgan bo'lib, ushbu hududlar qishloq xo'jaligi tarmoqlari uchun iqlim sharoiti juda ham qulay hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida aholining atigi 5 foizigina faoliyat ko'rsatishadi xolos. Biroq qishloq xo'jaligi mavsumi boshlang'ich o'n minglab migrantlar Shimoliy Afrika mamlakatlaridan ishga yollanadi. Italiya qishloq xo'jaligi YaIMning 9 foiz ulushini tashkil qiladi. Agrar sektor asosan dehqonchilikka yo'naltirilgan bo'lib, ushbu sektorda band bo'lgan aholining 58 foizi dehqonchilik bilan, 42 foizi esa chorvachilik bilan shug'ullanishadi. Dehqonchilikda donli ekinlar yetishtirilib, yiliga o'rtacha 1 mln. tonnadan ortiq hosil olinadi.

Italiyaning shimoliy hududlarida dehqon fermer xo'jaliklari bog'dorchilikda yiliga 6 mln.tonnaga yaqin mevali mahsulotlarni oladi. Janubiy hududlar asosan mindal, yer yong'oq va boshqa ko'plab subtropik ekinlarni yetishtirishga ixtisoslashtirilgan. yiliga 3,3 mln.tonna tsitrus va 5,5 mln.tonna tomat yetishtiriladi. Italiya xo'jaligida sut va go'sht chorvachiligi asosan mamlakatning shimoliy hududlaridagi o'tloqzorli yaylovlarda keng tarqalgan. Mamlakatda pomidor, karam, piyoz, shakar lavlagi, kartoshka va boshqa muhim mahsulotlar yetishtiriladi. Mahsulotlarning asosiy qismi YI mamlakatlariga va asosan Skandinaviya mamlakatlariga eksport qilinadi.

Jahon xo‘jaligida Italiyani “Yevropaning bиринчи bog‘и” deyilishi ham bejiz emas, albatta. Chunki, Italiya hududlarida qadimdan olma, nok, apelsin, shaftoli, gilos, o‘rik va anjirlarning ko‘plab turlari yetishtiriladi va Yevropaning bir qancha mamlakatlarini doimiy ravishda ushbu mahsulotlar bilan ta’minlab beradi. Italiyaning Sitsiliyadagi apelsin mevalari va Latsio uzumlari jahonga mashhurdir.

Italiya qishloq xo‘jaligida yiliga 10 mln. tonnadan ziyod uzum hosili olinadi. Qishloq xo‘jaligida uzumchilik ham rivojlangan bo‘lib, asosan vino mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi eng asosiy xomashyo manbayidir. Italiya uzum mahsulotlarini yetishtirish miqdori bo‘yicha Ispaniyadan so‘ng jahonda 2-o‘rinda turadi.

Italiya turli yillarda vino mahsulotlarini ishlab chiqarishda jahon xo‘jaligida Fransiya bilan raqobatlashar edi. Ma’lum yillar vino mahsulotlarini ishlab chiqarishda jahonda o‘z vaqtida 1-o‘ringa ham ko‘tarilgan edi. Lekin hozirda Fransiyadan so‘ng 2-o‘rinda turadi.

Italiya Yevropada sholi etishtirish miqdori bo‘yicha 1-o‘rinda turadi. Sholi mamlakatning Padana vodiysida yetishtiriladi. Shuningdek, g‘aynoli yetishtirishda Italiya jahonda Ispaniyadan so‘ng 2-o‘rinda turadi. Italiya o‘zining xushbo‘y gullari bilan jahon xo‘jaligida nom qozongan. Shuningdek, mamlakat yarim orol va uning tarkibida yuzlab mayda orollardan tashkil topganligi sababli ham baliqchilik rivojlangan.

4. *Transportning rivojlanishi*. Italiyada avtomobil, temiryo‘l, havo yo‘llari va suv yo‘llari transporti rivojlangan sohadir. Mamlakat aholisining 90 foizdan ortiq yo‘lovchilari va 80 foizdan ortiq yuklari avtomobil transporti orqali tashiladi. Demak, milliy iqtisodiyotda avtomobil transporti ustuvor ahamiyatga egadir. Mamlakat avtosaroylari va xususiy ko‘rinishda qariyb 40 mln.ga yaqin va 7 mln. dan ortiq yuk avtomobili mavjud. Janubiy hududlarini shimoliy hududlari bilan avtomobil va temiryo‘llari transporti bog‘lab turadi. Ushbu ikki hududni bir-biriga bog‘lashda minglab uzun masofadagi tunnellar va chiroyli ko‘priklar ushbu magistral yo‘llarda alohida ahamiyat kasb etadi. Rim shahri London, Parij va Berlin kabi yirik shaharlar bilan tez yurar poezdlar bog‘lab turadi va ushbu transport sayyoqlar uchun juda ham qulaydir.

Eng yirik dengiz porti (yuk ayirboshlashdagi) bu – Genuya portidir. Lekin fuqaro yo‘lovchilarni tashishdagi eng yirik port bu –

Neapol dengiz portidir, shuningdek, xalqaro talabga javob beradigan 145 ta dengiz portlari mavjud. Eng yirik aeroport – Rim shahri yaqinida qurilgan “Leonardo da Vinchi” nomidagi aeroportdir. Temiryo‘llari uzunligi 18 ming km.ni tashkil qiladi.

5. ***Turizmning rivojlanishi*** (eng asosiy omil). Italiyaga har yili o‘rtacha 60 mln. dan ortiq sayyoohlар tashrif buyurishadi. Sayyoohlarning asosiy qismi Germaniya, Fransiya, Avstriya va AQSHdan tashrif buyurishadi. Italiyada turizm Rim, Milan, Turin va Venetsiya shaharlarida rivojlangan. Italiya turizm sohasida mehmonxonalarining (sayyoohlар uchun qurilgan xonalarning soni) soni jihatidan Yevropada 1-o‘rinda turadi.

6. ***Tashqi savdo miqdorining yildan yilga o‘sib borishi***. Italiya tashqi savdosini miqdori jihatidan jahon iqtisodiyotida 10-o‘rinda va YIda esa 5-o‘rinda turadi. Italiyaning tashqi savdosida asosiy o‘rinni YI davlatlari egallaydi. Italiya eksportining deyarli 60 foizi va importining 58 foizi ana shu davlatlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

2010-yilning o‘rtalarida iqtisodiyotda asosiy tarmoqlar bo‘yicha rivojlanishi bir me’yorda taraqqiy etgan bo‘lsa-da, uning tashqi savdo aylanmasida u qadar o‘sish kuzatilmadi va tashqi savdosida u o‘z o‘rnini Janubiy Koreya, Gollandiya va Gonkong kabi mamlakatlarga bo‘shatib berib 7-o‘rindan 10-o‘ringa tushib qoldi.

7. ***AQSH tomonidan Italiyaga beg‘araz yordamning berilishi***. Ikkinci jahon urushidan so‘ng AQSH Italiyaga tiklanish va ishlab chiqarishni qayta qurishishlaridan yaqindan yordam berdi. Ikki mamlakat o‘rtasida iqtisodiy hamkorlik munosabatlari ancha kengaydi. AQSH hukumat 1948-yilda “Marshall rejasii”ga muvofiq, katta miqdorda iqtisodiy yordamni berdi.

8. ***Urushdan keyingi yillarda hukumat tomonidan olib borilgan ijtimoiy islohotlarning olib borilishi***. 1950-yillarda hukumat aholini ijtimoiy muhofaza qilish va ularning yashash darajalarini yaxshilash maqsadida quyidagi ijtimoiy islohotlarni amalga oshirdi:

- kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam berish va davlat tomonidan himoyaga olinishi (yolg‘iz, nogiron, ko‘p bolalik oilalar);
- ishchilarni oldindan ishsizlik davri uchun, ishchilarni baxtsiz xodisalar uchun va ularni kasallik davri uchun sug‘urtlash, nafaqa yoshdagilarni nafaqa bilan ta’minalash va ijtimoiy muhofaza qilish;
- ichki bozorda mahsulotlar narxining ko‘tarilishi hisobiga

ishsizlarni oylik maoshlarini ham ko‘tarib borish.

Eng muhimi, Italiyada 1950-yillarda aholini ijtimoiy muhofaza qilish borasida qabul qilingan islohotlar hamon o‘z kuchini saqlab qolgan.

9. *Italiyaning NATOga a’zo bo‘lishi va uning iqtisodiyotga ijobjiy ta’siri*. 1946-1950-yillarda Italiya sanoati to‘la 100 foiz faqat “tinchlik davri”ga ixtisoslashtirilgan mahsulotlarini ishlab chiqarar edi. Lekin, Italiyaning NATOga a’zo bo‘lishi va sanoat tarmoqlarida “harbiy” mahsulotlarni ishlab chiqarish asta-sekin yana rivojlanib bordi. Ayniqsa, Koreya yarim oroli va ko‘plab hududlardagi NATOning ishtiroki Italiyaga faqatgina “qo‘sishimcha daromad”ni keltirdi. Chunki, 1949-yildan beri NATOning turli urush harakatlari uchun harbiy mahsulotlarga buyurtmalar asosan Italiyaga berilar edi. Italiyaning harbiy qurol-aslaha ishlab chiqarish jarayonlari 2008–2017-yillarda yanada rivojlandi, chunki Shimoliy Afrika va Yaqin Sharqdagi siyosiy inqiroz vaziyatlaridan kelib chiqib, uning ishlab chiqargan mahsulotlarga talab ham oshib boraverdi.

20.3. Italiyaning Ikkinci jahon urushi davrida va undan keyingi iqtisodiy taraqqiyoti

Ikkinci jahon urushida davrida Italiyaning sanoat ishlab chiqarish miqdorlari sezilarli darajada o‘sdi. Uning urushda bevosita qatnashayotgan mamlakatlardan (Germaniya) harbiy sanoat mahsulotlari uchun ko‘plab miqdorda buyurtmalar oldi. Italiyaning mashinasozlik sanoatining gurkirab rivojlanishiga aynan Ikkinci jahon urushi sabab bo‘ldi. Urushda 1 mln.dan ortiq italiyaliklar halok bo‘lishgan bo‘lsa-da, sanoat tarmoqlarida erkaklar o‘rnini xotin-qizlar egallashdi va erkaklarning urushdagi ishtiroki ishlab chiqarish sur’atlariga ta’sir ko‘rsatmadı.

Biroq Ikkinci jahon urushining ikkinchi pallasi, ya’ni 1941-yilning o‘rtalariga kelib, Italiya iqtisodiyotini umuman izdan chiqardi. 1943-yilga kelib Italiyaning urushda mag‘lub bo‘lishi aniq-ravshan bo‘lib bordi va mamlakatdan deyarli barcha xorijiy sarmoyadorlar chiqib ketishdi. Shuningdek, mamlakatga import qilinayotgan mahsulotlar, jumladan, kauchukning importi 100 foizga to‘xtadi, neft xomashyosining importi 80 foizga, bug‘doy 70 foizga, yog‘och esa 40 foizgacha kamaydi. 1944-yilga kelib esa Italiyaning tashqi savdosi

umuman to‘xtab qoldi.

Mamlakatda yuzaga kelgan ochlik va 3 mln.dan ortiq ishsizlik hukm surdi. 1943-yilning o‘zida aholiga berilayotgan kunlik non normasi 150 grammgacha tushirildi. Italiyaning sanoati va qishloq xo‘jaligi Buyuk Germaniya tomonidan nazoratga olingan edi hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar Germaniyaga tashilar edi. Ishga layoqatli aholining 500 mingdan ortig‘i majburiy ravishda Germaniyaga turli ishlarga yuborildi.

Urushdan keyin Italiya iqtisodiyotida tiklanish davri boshlandi. Uning urushdan oldingi holatiga faqat 1949-yildagina erishdi. Italiya iqtisodiyotini tiklashda, urush asoratlariga barham berishda, ishlab chiqarish tarmoqlarini yana o‘z faoliyatini boshlashga va infratuzilmani yaxshilashda AQSH tomonidan tatbiq qilingan “Marshall rejasi” ustuvor ahamiyatga ega bo‘ldi. Aynan AQSHning iqtisodiy hamkorligi evaziga Italiya o‘z milliy iqtisodiyotini 1949-yildagina qayta tiklashga va 1940-yildagi holatiga qaytarishga muvaffaq bo‘ldi.

1950-1960-yillarda iqtisodiyotning barqarorlashuvi natijasida uning bir tekis rivojlanishiga imkon berdi. 1973-yilda yuzaga kelgan neft shyoki tufayli sanoat ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari birmuncha pasayib ketdi. 1973-yilgi inqirozdan endigma chiqib kelgan Italiya iqtisodiyoti yana 1979-yilda sodir bo‘lgan neft inqiroziga duch keldi. Albatta, ketma-ket qisqa davr oralig‘ida yuz bergan neft inqirozlari nafaqat sanoat tarmoqlariga, balki butun Italiya milliy iqtisodiyotiga o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatdi. Ushbu inqirozlar tufayli iqtisodiyot taraqqiyotini oldingi holatiga qaytarish maqsadida 1978-yilda Italiya G‘aznachiligi vaziri F.M.Pandolfi tomonidan 1979-1981-yillarga mo‘ljallangan “Uch yillik reja” ishlab chiqilib iqtisodiyotni barqarorlashtirish uchun tatbiq qilindi. Ushbu uch yillik reja keyinchalik Italiya iqtisodiyoti tarixiga ”Pandolfi rejasi” bo‘lib mamlakat iqtisodiyoti tarixi sahifasidan joy oldi. ”Pandolfi rejasi” quyidagi eng asosiy uchta vazifani o‘z ichiga oldi:

- inflatsiyani pasaytirib, 1981-yilga borib 8 foizni tashkil qilish;
- iqtisodiy o‘sishni oshirish maqsadida 1978-yildagi 2 foizdan 1979-yilda 2,5 foizga, 1980-1981-yillarda esa 4 foizdan o‘sishni ta’minlash;
- to‘lov balansining daromad va xarajatlardagi tenglikni

ta'minlashdan iborat bo'ldi.

Ushbu rejaning eng muhim ahamiyatli tomoni shundan iborat ediki, mamlakatda ishsizlikka barham berish va keyinchalik, mamlakatning iqtisodiy holatini hududlar bo'yicha tenglashtirish maqsadida, Janubiy Italiya mintaqasi iqtisodiy hududini markaziy va shimoliy mintaqalarga tenglashtirish edi (aksiga olib, 1980-yilda ro'y bergan Janubiy Italiyadagi kuchli zilzila ushbu iqtisodiy hududni qaytadan tiklash uchun asosiy xarajatlar mablag'i aynan shu hududga berildi).

2000-yillarda milliy iqtisodiyotning sanoat tarmoqlarini rivojlanishida katta ijobjiy siljishlar ro'y berdi. Buning asosiy sabablari sifatida neft xomashyosi narxining barqarorlashganligi hamda neft importi bo'yicha Liviya va Jazoir mamlakatlari bilan hamkorliklarining yanada kengayishi bilan izohlanadi. Ushbu arab mamlakatlarining neft sohasiga kiritilgan Italiyaning investitsiyaviy hamkor kompaniyalari Italiyaning neft xomashyosiga bo'lган ehtiyojini qondirishda katta ijobjiy ta'sir ko'rsatdi. Aynan ushbu yillarda hukumat tomonidan milliy iqtisodiyotning rivojlanishida asosan ikkita yo'nalishga: birinchidan, sanoat sohasiga va ikkinchidan esa, turizm sohasiga g'oyat katta e'tibor qaratildi.

XXI boshlarida Italiya hukumati jahon xo'jaligidagi eng yirik loyihani amalga oshirishga qo'l urdi. Chunki ushbu yillarda unga qo'shni bo'lган Fransiya "XX asr qurilishi"ni amalga oshirib, jahon xo'jaligida o'ziga xos nufuzga erishgan edi. Aynan Fransiyadan orqada qolishni istamagan Italiya ham "XXI asr qurilishi" deb nomlangan yirik loyihani 1995-96-yillarda ishlab chiqdi. Ushbu murakkab loyihaga ko'ra, Venetsianing suv havzasida dengizdan shahar qirg'oqlariga va uning ichki hududlariga suv oqimi va to'lqin harakatini doimiy bir me'yorda ushlab turish maqsadida dengizning uch tomoniga yirik to'siqli dambalar qurilishini o'z ichiga oldi. Unga ko'ra mabodo, favqulodda kuchli suv to'lqinining ko'tarilishi va kuchli shamol ostida suv to'lqinlarini shaharga urilish xavfi bo'ladigan bo'lsa, u holda dengiz suv havzasida qurilgan ushbu dambalar suvning urilish kuchi harakatini zararsizlantirar edi. Ushbu loyiha 2004-yilda to'la qurilib bitkazildi. Loyiha miqdori o'sha davr uchun ulkan mablag' hisoblangan 2,7 mlrd.doll.ni tashkil qildi.

20.4. Italiya hukumatining 2010-yildan keyingi iqtisodiy siyosati

Italiya iqtisodiyoti tarixida eng rivojlangan iqtisodiy davr sifatida XX asrning 90-yillari deb e'tirof qilinadi. Chunki ushbu yillarda Italiyaning YAIM miqdorining o'sish ko'rsatkichlari 5-7 foizni tashkil qilgan. Biroq so'nggi 10 yilda YAIM ishlab chiqarishning yillik o'sish darajasi yiliga 3-5 foizni tashkil qilmoqda, ya'ni 20 yil oldingi davr bilan taqqoslaganda kamida 2-3 foizga pasaygan.

2008-yilda ro'y bergan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi Italiya milliy iqtisodiyotiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Inqiroz oqibatlaridan faqatgina 2011-yilga borgandagina xalos bo'ldi. Inqirozdan keyingi yillarda Italiya milliy iqtisodiyotining salohiyati va ko'rsatkichlari bo'yicha qo'shni Germaniya va Fransiyadan ancha orqada qolib ketdi. Masalan, 2010-yilda uning YAIM 1,3 foizga o'sgan bo'lsa, Yevropa Ittifoqining qolgan mamlakatlarini iqtisodiy o'sishi shu yili kamida 2,7 foizga o'sdi. Bu esa Italiya iqtisodiyotining o'sishini deyarli to'xtab qolganligini anglatar edi.

2012-yilda hukumat tepasiga Mario Monte kelgach, u mamlakatning davlat budgetini qayta isloh qilishdan boshladi hamda majburiy budget daromadlarini jamg'arilishini "SaveItaly" dasturiga ko'ra, 2012-2014-yillarda yiliga 10 mlrd. yevro miqdorida va 2014-yilga borganda jami 30,0 mlrd. yevro mablag'i jamg'arildi. Bu 30 mlrd. yevroni tejalishi va jamg'arilishi harbiy mudofaa va davlat sektori xarajatlarini iqtisod qilish yo'li bilan hamda energetik xomashyolarga qo'yilgan aksiz soliqlaridan olinadigan yig'imlar hisobiga amalga oshirildi.

Italiya Bosh vaziri Mario Monte boshchiligidagi hukumat 2012-yilda nafaqaga chiqish yoshi 60 yoshdan 62 yoshgacha uzaytirildi. Mamlakatda yoshlarni ish bilan ta'minlash, davlat tashkilotlarining lavozimli o'rnlarga yoshlarni va xotin-qizlarni tayinlanishiga hamda oilalarda genderlik xususiyatiga ko'proq e'tibor berildi. Jahon mamlakatlarida hukumat idoralarida yuqori lavozimlarda ko'p sonli xotin-qizlarni faoliyat ko'rsatishi bo'yicha Skandinaviya mamlakatlari tajribasidan Italiya samarali foydalandi.

Hukumat "yashirin iqtisodiyot"ga qarshi qattiq kurash olib bordi. 2012-yilda YAIMning 17 foizi "yashirin iqtisodiyot"ga to'g'ri kelgan. "Yashirin iqtisodiyot"da faoliyat ko'rsatgan va jahonda o'z nufuziga

ega bo‘lgan eng yirik to‘dachilik (mafiya) guruhlari yo‘q qilindi va ularning qonunga qarshi yig‘ilgan boyliklari musodara qilindi. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi ayovsiz kurash olib borildi. Chunki 2001-2011-yillarda hukumat tepasida bo‘lgan Italiya Bosh vaziri Berlusconi davrida mamlakatning turli iqtisodiy sohalarida korrupsiya illatlari rivojlanib ketgan edi. 2013-2018-yillarda milliy iqtisodiyotda sanoat va turizm sohalarining hisobiga iqtisodiy o‘sish ancha barqarorlashdi.

2014-yilda YIning Rossiyaga qarshi qo‘llagan “iqtisodiy jazo” Italiyaning qishloq xo‘jaligi va bir qator sanoat tarmoqlarining ishlab chiqarilishiga katta salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, fermerlar tomonidan yetishtirilayotgan ko‘plab mahsulotlarini asosiy importchisi bo‘lgan Rossiyaga eksport qilolmasligi ularning faoliyatiga hamon salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

2019-yilning noyabr oyida Rossiya va Italiya hukumatlari o‘rtasidagi muzokaralardan kelib chiqib, YIning iqtisodiy siyosatidan qat’i nazar istiqbolda ikki tomon o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik yo‘nalishlarini qayta yo‘lga qo‘yishni Italiya Bosh vaziri J.Konte ta’kidlab o‘tgan edi.

20.5. Italiyaning transmilliy kompaniyalari va ularning jahon iqtisodiyotida tutgan o‘rni

Italiya Ikkinci jahon urushida mag‘lubiyatga uchrab, iqtisodiy jihatdan nihoyatda kuchsizlanib qoldi. Mamlakat iqtisodiyoti Fransiya va Britaniyadan keskin orqada qolgan edi (garchi aholi soni teng bo‘lsa-da). Aynan AQSHning “Marshall rejasi” milliy iqtisodiyotning o‘sishiga kuchli “zarba” bo‘ldi va 1950-yillardan boshlab iqtisodiyotning o‘sish ko‘rsatkichlari Britaniya va Fransiyaga nisbatan katta tezlikda rivojlanib, iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari bo‘yicha faqatgina GFRdan ortda qoldi xolos. Iqtisodiy rivojlanishning nisbatan tez borishi muhim iqtisodiy tarmoqlarida ishlab chiqarishni konsentratsiyasi va monopolashuviga sabab bo‘ldi hamda yirik TMKlar paydo bo‘ldi.

Agar, 1950-yillarda mamlakatda faqatgina 2 ta yirik TMKlar faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 1980-yillarga kelib neft, avtomobilsozlik, kimyo, rezina va sintetik mahsulotlar ishlab chiqarish sanoat tarmoqlari va boshqa sohalarda 5 ta yirik TMKlar paydo bo‘lgan edi.

“ENI” kompaniyasi 1953-yilda davlat nazoratida bo‘lgan neft, gaz va neftkimyo mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi bir qator kompaniyalarini birlashishidan tashkil topdi. 1950-yillarning oxirlarida ushbu “ENI” kompaniyasi o‘z tovarlari bilan Yevropa, Afrika, Lotin Amerikasining bir qator mamlakatlarini ichki bozorlariga kirib bordi. 1973-74-yillarda ro‘y bergen yoqilg‘i-energetika inqirozi-yillarida kompaniya juda ham katta iqtisodiy zarar ko‘rdi.

“ENI” kompaniyasi xolding kompaniyalaridan biri bo‘lib, xorijiy mamlakatlarda – Avstraliya, Angliya, Argentina, Gretsiya, Zambiya, Eron, Zair, Irlandiya, Ispaniya, Kamerun, Keniya, Kongo, Liberiya, Malta, Nigeriya, Niderlandiya, Norvegiya, Portugaliya, Saudiya Arabistoni, Sudan, AQSH va jahoning boshqa o‘nlab mamlakatlarida xususiy korxonalar ko‘rinishida faoliyat ko‘rsatmoqda. Kompaniyaning ish bilan band bo‘lgan umumiy aholisining 18 foizi, sotilayotgan mahsulotlarning deyarli 35 foizi xorijiy mamlakatlardagi sanaot korxonalari ulushiga to‘g‘ri keladi.

“ENI” xolding kompaniyasi “AGIP” kompaniyasi orqali asosan neft va gaz foydali qazilmalarga boy bo‘lgan Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasi mamlakatlarida, Afrika mamlakatlarida, Shimoliy dengizlardagi foydali qazilmalarni geologik-qidiruv ishlarini amalga oshirish va ularni ishga tushirish ishlari bilan hamda ko‘mir, uran va boshqa foydali qazilma boyliklarni va qayta ishlangan neft mahsulotlarini ishlab chiqaradi. GFR, Shvetsariya va Afrika mamlakatlarida joylashgan 20 ga yaqin neftni qayta ishlash zavodlariga to‘liq yoki qisman egalik qiladi.

Jahondagi yirik TMKlarning biri hisoblangan ushbu “ENI” kompaniyasi jahondagi xalqaro maqomga ega bo‘lgan 16 ming km.dan ziyod bo‘lgan gaz quvurlariga ham egadir. U ko‘plab neft va neft mahsulotlarini tashiydigan 12 ta yirik zamonaviy tankerlarga ega. Kompaniya rezina, plastik buyumlarni, sintetik mahsulotlarni, polimerlarni, neft va kimyo mahsulotlarini quruqlik va dengiz okeanlarda foydalaniладиган “yer qazish” (burovoy) quvurlarini va atom sanoati uchun zarur bo‘lgan buyumlarni ishlab chiqaradi.

Italiyaning “Fiat” kompaniyasi esa, dunyodagi eng yirik avtomobilsozlik sanoat kompaniyalaridan biridir. U 1981-yilda dunyodagi yirik sanoat korporatsiyalar reytingida 22-o‘rinda, 500 dan ortiq yirik noamerika sanoat kompaniyalari ichida esa 9-o‘rinda turgan

edi. “Fiat” kompaniyasi 1906-yilda Italiyaning Turin shahrida tashkil topdi, 1920-yillarga kelib yengil avtomobillar ishlab chiqaruvchi kompleks korxonalaridan biriga aylandi. Kompaniya Birinchi va Ikkinci jahon urushi-yillarida ishlab chiqarishni katta tezlikda o‘zgartirib, takomillashib bordi. Argentina va Ispaniyada avtomobil qismlarini yig‘uv tsexlarini, Fransiyaning “Simka” firmasi bilan hamkorlikda esa avtomobilgarga texnik xizmatni ko‘rsatish shahobchalarini tashkil etdi.

Ikkinci jahon urushidan so‘ng Ispaniyada “Seat” kompaniyasi nomi bilan ataluvchi avtomobil qismlarini yig‘uv zavodini bunyod etdi. 1978-yilda konsern AQSHning Kaliforniya shtatida tibbiy jihozlarni yetkazib beruvchi “Bentli labaratoriz ink” kompaniyasini tashkil etdi. “Fiat” kompaniyasining litsenziyasi bilan Polsha, Turkiya, Yugoslaviyada avtomobillar ishlab chiqarila boshlandi. 1970-yillarda “Fiat” kompaniyasi to‘liq qayta ta’mirlanib, jahondagi yirik moliyaviy xolding kompaniyalarning biriga aylandi.

“Fiat” kompaniyasi turli rusumdagи avtomobilarni, “Iveko” nomli og‘ir yukli avtomobilarni, traktor va buldozerlarni, ko‘tarma kranlarni, dvigatellarni, kompressorlarni, elektr asbob-uskunalarni, teplovoz va vagonlarni, presslovchi temirchilik stanoklarni, reaktorlarni va uning qismlarini jahon bozorlariga chiqaradi.

“Montedison” Italiyaning yirik kimyo kompaniyalaridan biri bo‘lib, 1966-yilda mamlakatning ikkita yirik kimyo kompaniyalarining, ya’ni “Montekatini” va “Edison” kompaniyalarining birlashishidan tashkil topgan. Kompaniya hozirgi kunda 500 dan ortiq yirik noamerika TMKlari ichida 46 o‘rinda turadi. Asli 1888-yilda tashkil topgan “Montekatini” kompaniyasi dastlab yer osti foydali qazilmalarini geologik-qidiruv ishlari orqali mis xomashyosini topish va uni ishlab chiqarish ishlari bilan shug‘ullanishdan boshlagan. 1964-yilda elektronika mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi “SADE” jamiyati bilan qo‘shilgandan so‘ng “Montekatini” kompaniyasiga aylantirilib, u Italiyaning yirik kimyo kompaniyalaridan biriga aylandi. 1884-yilda tashkil topgan “Edison” kompaniyasi esa, elektronika mahsulotlarini ishlab chiqarish va uni taqsimoti bilan, 1974-yillardan boshlab esa kimyo sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish ishlari bilan ham shug‘ullangan.

“Montedison” kompaniyasi jahon iqtisodiy inqirozlaridan eng

ko‘p jabr ko‘rgan kompaniyalarning biri sifatida jahon iqtisodiyoti tarixidan o‘rin olgan. Gap shundaki, 1970-yillarda jahon bozorlarida neftning narxi keskin tushib ketishi munosabati bilan “Montedison” kompaniyasi katta iqtisodiy zarar ko‘rdi va u butkul “bankrot” darajasigacha kelib qolgandi. Biroq Italiya hukumatining moliyaviy yordami evaziga u o‘z holiga qaytgan edi. Shuningdek, ushbu “Montedison” kompaniyasi 2008-yilgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi natijasida ham uning moliyaviy aktivlariga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Biroq inqirozdan keyin 5 yil o‘tganidan so‘ng, 2013-yilga kelib hukumat tomonidan taqdim qilingan kredit mablag‘lari evaziga yana oldingi iqtisodiy salohiyatiga qaytishga erishdi.

Italiyaning “Pirelli” kompaniyasi Yevropa mamlakatlari ichida shina, rezina va kabel buyumlari ishlab chiqaruvchi yirik korporatsiyalardan biri bo‘lib hisoblanadi. XX asrning 1980-yillarida kompaniya sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish darajasi bo‘yicha 500 dan ortiq yirik noamerka TMKlari ichida 108 o‘rinda turgan edi. Albatta, uning bugungi kundagi iqtisodiy salohiyati jahon TMKlar ichida 700 talik qatoridan joy olgan bo‘lsa-da, uning mahsulotlari jahon bozorida xaridorbop mahsulotlar sifatida nom qozongan. Kompaniya 1872-yilda G.Bpirelli tomonidan tashkil etilgan “Pirelli kompani” bo‘lib, 1920-yilda qayta tashkil etilgan edi.

Kompaniya tomonidan shinalar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yilishi munosabati bilan kompaniya Fransiyaning “Mishlen” kompaniyasi bilan, 1970-71-yillarda esa Angliyaning “Danlop” firmasi bilan shartnomalar tuzib, fan-texnika sohasi bo‘yicha ilmiytadqiqot ishlarini kengaytirdi. Angliya, Irlandiya va Yevropa Ittifoqiga a’zo mamlakatlarda faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalarini umumiyl foydasining 49-50 foizi “Pirelli” kompaniyasiga tegishli bo‘lgan. 1973-yilgi Birinchi jahon neft inqirozi davrida kompaniyaning Italiya va boshqa xorijiy mamlakatlardagi zavodlari xomashyo va boshqa mahsulotlarga nisbatan narx-navoning ko‘tarilishi munosabati bilan katta zarar ko‘rgan edi va o‘zining iqtisodiy ahvolini faqat 1978-yildagina tiklashga erishdi.

Hozirgi kunda “Pirelli” xolding kompaniyalardan biri sifatida Italiya, Angliya, Argentina va boshqa davlatlarda faoliyat ko‘rsatmoqda. Sotuvdan ko‘rayotgan umumiyl foydaning 30-35 foizi kompaniyaning xorijiy mamlakatlardagi sanoat korxonalari ulushiga

to‘g‘ri keladi. Kompaniyaning avtomobillar va samolyotlar, mototsikllar va velosipedlar, traktor shinalarini, sanoatda foydalaniladigan rezinali shlanglarni, rezinali oyoq kiyimlari, sport mahsulotlari, kabellar, selluloza va qog‘ozlarni jahon bozorlariga olib chiqadi. Uning mahsulotlari 2016-yilgi Janubiy Koreyada o‘tkazilgan Xalqaro qishki olimpiada o‘yinlarida eng ko‘p foydalanilgan va iste’mol qilingan mahsulotlarning biri bo‘ldi.

Demak, bugungi kunda TMKning jahon “Global 500” reytingida Italiyaning “ENI”, “Exor”, “Assicurazioni Generali”, “Enel”, “Intesa Sanpaolo”, “UniCredit”, “Telecom Italia”, “Poste Italiane” va “Unipol” kompaniyalari joy olishgan. Albatta, 2020-yilda ro‘y bergen jahon iqtisodiy inqirozi ularning reyting o‘rinlariga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

20.6. “COVID-19”ning Italiya milliy iqtisodiyotiga ta’siri

2020-yil Italiya uchun xuddi Britaniya singari juda “og‘ir yil” bo‘ldi, desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki Ikkinchchi jahon urushidan beri qariyb 75 yildan buyon iqtisodiy qiyinchiliklarsiz taraqqiy etib kelayotgan edi. Biroq 2020-yilda yuz bergen kutilmagan bir qator tabiiy ofatlar va “tashqi xatar”lar oqibatida qariyb 3 oyning ichida salkam 600,0 mlrd.doll. miqdorida iqtisodiy zarar ko‘rdi. Bu holat YI a’zo mamlakatlar ichidagi eng og‘ir talafot ko‘rgan mamlakat sifatida tarixdan joy egalladi.

Xo‘sish, nima uchun 2020-yil Italiya uchun “og‘ir yil” bo‘lib uning iqtisodiy tarixidan joy oldi?

Birinchidan, yil boshida mamlakatning markaziy hududida kutilmagan 5,6 ballik tizimda kuchli zilzilaning ro‘y bergenligi va buning oqibatida 2,2 mlrd.doll. miqdorida iqtisodiy zarar ko‘rganligi hisob-kitob qilindi. Zilzila oqibatida minglab binolarga jiddiy shikast yetkazildi.

Ikkinchidan, 2019-yilning dekabr va 2020-yilning fevral oylarida mamlakatning eng asosiy turizm markazi sifatida jahonda tan olingan Venetsiya orolini SUV sathining 80 sm.ga ko‘tarilganligi Venetsiya shahri butkul SUV ichida qoldi. SUV satxining ko‘tarilishi oqibatida ko‘plab qadimiylar inshootlarni SUV bosganligi va kamdan-kam quruqlik ko‘chalarini SUV havzasasi bilan qoplanib qolganligi mamlakatning asosiy daromad keltiruvchi manbalaridan biri hisoblangan turizm

sohasiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bugungi kungacha ham suv sathi hamon o'zining me'yorida pasaygani yo'q. Ekspertchilarning fikriga ko'ra, suv satxi tushmasa, u holda binolar zaxlanib shikastlanadi va devor inshootlari yaroqsiz holatga keladi.

Uchinchidan, Yaqin va O'rta Sharq hamda Shimoliy Afrika mamlakatlaridan kelayotgan muhojirlarning asosiy oqimi Italiya qirg'oqlari orqali YI hududlariga kirishga harakati Italiya uchun ortiqcha xarajatlarni va qo'shimcha tashkiliy ishlarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, 2020-yilning yanvar-fevral oylarining o'zidayoq, qirg'oqbo'yi hududlaridan chegarachilar tomonidan qariyb 2 oy davomida 24 ming "qochoq muhojirlar" ortga qaytarildi yoki ularni vaqtinchalik "qochoq lagerlari"ga joylashtirildi. Birgina 2019-yilning o'zida Shimoliy Afrika mamlakatlaridan O'rta yer dengizi orqali Italiyaning qirg'oqlariga yashirin tarzda 60 ming qochoqlar kirishgan.

To'rtinchidan esa, eng muhimi COVID-19ning Italiyaga kutilmagan zarbasi bo'ldi. Xo'sh, Yevropada birinchi bo'lib Italiyada ushbu pandemiya jarayoni qanday boshlandi? Nima uchun Italiya hukumati kasallik paydo bo'lganda ham jiddiy e'tibor bermadi va tayyorgarlik hamda tashkiliy ishlarni qilmadi? Nima uchun xorijiy turistlarning eng tirband hududi hisoblangan Venetsiya hududi vaqtinchalik bo'lsa-da o'z vaqtida yopilmadi?

2020-yilning 26-fevralida Italiyaning Lombardiya provinsiyasining Bergamo shahrida ilk marta aniqlangan ushbu kasallik oddiygina kasallik sifatida qabul qilingan va mahalliy shifokorlar tomonidan jiddiy e'tibor berilmagan. 10 kun ichida Bergamo kasalxonalariga "shamollash" va "istima" holatlari bilan 300 dan ortiq fuqarolar murojaat qilishgan.

Va eng asosiysi, 2020-yilning 10 mart kuni, kasallikning ayni rivojlangan kunlarida Milan shahrida bo'lib o'tgan mahalliy "Atalanta" va Ispaniyaning "Valensiya" klublari o'rtasida bo'lib o'tgan futbol uchrashuvida Ispaniyadan kelgan 16 ming ispan muxlislari va Italiyaning Bergamo (Lombardiya) shahridan kelgan 20 mingdan ortiq muxlislari va mahalliy Milan shahri fuqarolaridan iborat bo'lgan jami 80 ming kishi Milan stadionida qariyb 2 soat davomida bo'lishgan va kasallik tez tarqalgan.

Italiya hukumati og'ir ahvolga qolgan bo'lsa-da, biroq YI ham

biron-bir yordam berishga ojizlik qildi. Chunki YIning barcha mamlakatlari yolg'iz pandemiyaga qarshi kurash davrini boshidan kechirishdi. Italiya o'z tarixida eng og'ir kunlarni kechirayotgan bir paytda, kutilmagan tashqi iqtisodiy yordam Rossiyadan keldi. Ayni qiyin bo'lган vaziyatda Rossiyaning 3 mingga yaqin malakali harbiy shifokorlari yordamga kelishdi. Italiya mazkur kasallikka qarshi kurashda ojiz qolganligi ma'lum bo'lgach, 2014-yildan buyon Rossiyaga qarshi "iqtisodiy jazo"da faol qatnashgan bo'lsa-da, Rossiyadan yordam so'rashga majbur bo'ldi. Rossiya Italiyaga oziq-ovqat, dori-darmon va turli aholi iste'moli mahsulotlarini yetkazib berdi. Rossiyadan tashqari Kuba ham Italiyaga katta yordam qo'lini cho'zdi va ko'ngilli malakali shifokorlarni yordamga yubordi. Qizig'i, shu kunga qadar Kuba tomonidan jahon mamlakatlariga yordam bergenligi tarixda kuzatilmagan edi.

COVID-19ning Italiya milliy iqtisodiyotiga ta'siri mahalliy ekspertlar tomonidan hisob-kitob qilinib chiqildi. Avvaliga 2020-yilning 7-aprelida 600,0 mlrd.dollarga yaqin iqtisodiy zarar ma'lum qilingan bo'lsa, keyinroq 28-aprel kuni YI doirasida bo'lib o'tgan video yig'ilishda Italiya Bosh vaziri J.Konte 2020-yilgi pandemianing "birinchi to'lqini"dayoq 612 mlrd.dollar miqdorida zarar ko'rganligini, biroq yil oxirida pandemianing "ikkinchi to'lqini" ro'y beradigan bo'lsa, u holda bu ko'rsatkich yil oxiriga borib 1 trln. dollarga yetishini ta'kidlab o'tdi.

Italiyalik siyosatchilar tomonidan o'z tarixida birinchi marta bu qadar og'ir iqtisodiy ahvolga tushib qolganligini va mamlakatga yetkazilgan qariyb 600,0 mlrd.dollarini kim tomonidan qisman bo'lsa-da qoplab berilishini YI parlamentidan so'rashgan edi. YI pandemiya sharoitida eng birinchi moliyaviy yordamni eng og'ir inqirozga yuz tutgan Italiyaga taqdim qildi. Unga ko'ra, 209 mlrd. yevro miqdoridagi moliyaviy yordam ajratildi. Ushbu moliyaviy yordamning 82,0 mlrd. yevrosi iqtisodiyot sohalariga, 127 mlrd. yevrosi esa kichik biznes sohasida faoliyat ko'rsatadigan va "karantin" tufayli iqtisodiy zarar ko'rgan korxonalarga yo'naltirildi.

20.7. Italiya iqtisodiyotining tuzilmasi

Italiya iqtisodiyotida davlat monopolistik kapitali hukmronlik qiladi. Iqtisodiyotni rivojlanishida chet el kapitalining roli ham katta

hisoblanadi. Ma'lumki, Italiya yoqilg'i resurslariga (ayniqsa, gaz va neft) va sanoatning ko'plab boshqa xomashyo resurslariga muhtojdir. Biroq, mamlakatda rux, oltingugurt, qalay, boksit, mramor qazib olish ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Italiya gidroenergetika resurslariga ham boyadir.

Italiya sanoatida mashinasozlik, avtomobilsozlik, oziq-ovqat, kimyo, to'qimachilik, metallurgiya sanoat tarmoqlari yaxshi rivojlangan. Mamlakatda hisoblash texnikasi, elektr asbob-uskunalarini ishlab chiqarish va ulardan foydalanish ishlari ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, harbiy sanoat tarmog'i ham rivojlangan bo'lib, ushbu tarmoqda ishlab chiqariladigan mahsulotlar miqdori jihatidan va uni eksporti bo'yicha YIda faqat Fransiyadan keyingi o'rinda turadi.

Italiya hukumatining sanoat sohasida olib borayotgan siyosati asosan kichik va o'rta biznes toifasidagi ishlab chiqarish korxonalarini qo'llab-quvvatlashga, shuningdek, mamlakatning shimoliy va janubiy hududlari o'rtasidagi iqtisodiy farqlarni qisqartirishga qaratilgan. Chunki xususiy sektor sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va firmalar mamlakatning milliy iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Italiyaning 93 foizga yaqin kichik va o'rta biznes korxona va firmalarida 200 kishidan kam bo'limgan ishchi va xizmatchilar mehnat qilishadi. Ishlab chiqarish firmalarning 85 foizi kichik korxonalarini tashkil etib, ularda kamida 11 kishidan 50 nafar kishigacha bo'lgan ishchi va xizmatchilar faoliyat ko'rsatadi. Bunday toifadagi korxonalar YaIMni 40 foiz ulushini beradi.

Italiyaning sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik va o'rta biznes korxonalari asosan metallni qayta ishslash, mashinasozlik sanoat sohasi uchun turli ehtiyyot qismlari va shunga o'xshash ishlab chiqarish korxonalarda, to'qimachilik, terini qayta ishslash, poyabzal, oziq-ovqat, mebel ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalardan tashkil topgan.

Italiyada ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sifatliligi, ixcham, bejirim va chiroyliligi hamda doimo yangilikka intilib borilganligi bilan jahon bozorlarida katta yutuqlarga erishib kelmoqda. Italiyaning xususiy sektorida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlari asosan AQSH, Kanada va YI mamlakatlariga eksportga chiqariladi. Ularning mahsulotlarining narxi nisbatan qimmat bo'lsa-da, avvalo Italiyada ishlab chiqarilganligi hamda yuqori sifatga egaligi bilan xaridorlarni

o‘z diqqatiga tortadi.

Masalan, Yevropa bozorlarida Osiyo mamlakatlarda ishlab chiqarilgan kostyum-shimning narxi o‘rtacha 400-500 dollar atrofida bo‘lsa, Italiyada ishlab chiqarilgan ushbu mahsulotning narxi kamda 1000 dollarni tashkil qiladi. Biroq xaridorlarning aksariyat qismi, albatta, italiyaliklarning mahsulotiga e’tiborni qaratishadi.

Iqtisodiyotda kichik va o‘rta biznes korxonalarining 91 foizi Italiyaning shimoliy va markaziy hududlarida, 9 foizi esa janubiy hududlarida va Sitsiliya va Sardiniya orollarida joylashgan. Italiyaning janubida ishsizlar soni mamlakatda yashaydigan umumiyligi aholining 25 foizini tashkil etadi. Eng muhimi, 2019-yilda yoshlar o‘rtasida ishsizlar soni umumiyligi ishsizlar sonining 55 foizini tashkil qilganligi hukumatni tashvishga solib qo‘ygan edi.

Italiyaning mashinasozlik tarmoqlarida mehnatga layoqatli aholining 11 foizi banddir. Mashinasozlik tarmog‘ida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning 70 foizini ichki talabni qondirishga qaratilgan va qolgan 30 foiz qismi eksportga chiqariladi. Italiya mashinasozlik mahsulotlariga bo‘lgan talab va ehtiyoj hamda qiziqish unga qo‘suni bo‘lgan YI mamlakatlardan ko‘ra Meksika, Rossiya va Fors ko‘rfazi hududi mamlakatlarda ko‘proqdir. Elektronika sanoat tarmoqlarida mehnatga layoqatli aholining 7,5 foizi band bo‘lib, umumiyligi ishlab chiqarilgan mahsulotlarning 48 foizi ichki bozor talabini qondirgan holda, qolgan 52 foizini asosan YI mamlakatlarga eksport qiladi.

Italiyaning transport mahsulotlarini ishlab chiqarish tarmoqlarida mehnatga layoqatli aholining 7,1 foizi band bo‘lib, ichki bozor talabining 47 foizini qondirgan holda qolgan qismini eksportga chiqaradi. Transport vositalaridan kemalar, avtomobillar, mototsikllar kabi mahsulotlar ishlab chiqariladi. Sanoatda neftri qayta ishslash, rezina va plastmassa ishlab chiqarish tarmoqlarida aholining 4,5 foizi band bo‘lib, ushbu sanoat tarmoqlarida ishlab chiqariladigan mahsulotlar asosan ichki bozorga yo‘naltiriladi. Shuningdek, ushbu sanoat ishlab chiqarish tarmoqlariga har yili Shimoliy Afrikaning Jazoir, Tunis va Marokash kabi mamlakatlardan 200 mingga yaqin migrantlar ishga yollanadi. Qayta ishslash sanoati import xomashyolari hisobiga ishlaydi. Neft xomashyoning asosiy qismi Liviya va Jazoirdan import qilinadi. Neftni qayta ishslash sanoat tarmog‘i

Yevropadagi eng yirik tarmoq hisoblanadi, ya’ni Yevropadagi eng yirik neftni qayta ishlash korxonasining ikkinchisi Sitsiliya orolining Milatstso shahrida qurilgan. Ushbu tarmoqda ishlab chiqariladigan mahsulotlar mamlakat ehtiyojini qoplabgina qolmay, Yevropaning Avstriya va Shvetsariya kabi mamlakatlarini ham neft mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qoplaydi, ya’ni eksport qilinadi.

Mamlakatning ikkinchi asosiy sanoat tarmog‘i bu to‘qimachilikdir va uning markazi Milan shahri. Lekin to‘qimachilik mahsulotlarining jahon bozoridagi narxi yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, mahsulotlar narxi ancha qimmatdir. Lekin, aynan Italiyada ishlab chiqarilgan bo‘lsa-da, uning mahsulotlarni sifatliligi bilan jahon bozorida alohida o‘z o‘rniga ega.

Metallurgiya tarmog‘ida Yevropadagi eng yirik kompaniyalardan biri “Findser” bo‘lib, ishlab chiqaradigan mahsulotlariga bo‘lgan talab ichki va tashqi bozorlarda katta. Mamlakatda jami 4 ta yirik metallurgiya kombinatlari mavjud bo‘lib: ular Genuya, Neapol, Pombino va Taranto shaharlarida joylashgan. Mahsulotlarning asosiy qismi xorijga eksport qilinadi. Italiya tabiiy gazga muhtoj bo‘lib, tabiiy gazning gazning iste’moli yildan yilga o’sib bormoqda. Suyultirilgan gaz Shimoliy Afrika, Gollandiya va Rossiya mamlakatlaridan import qilinadi.

Sanoat tarmoqlaridagi eng ko‘p ishchi-mutaxassis mashinasozlik tarmog‘ida faoliyat ko‘rsatishib, unda 2 mln.dan ortiq ishchi-mutaxassis faoliyat ko‘rsatadi. Mashinasozlik sanoat tarmog‘ida avtomobilsozlik alohida muhim ahamiyat kasb etadi hamda jahon avtomobil bozorida ham o‘z nufuziga egadir. Avtomobilsozlikda eng asosiy o‘rinni xususiy FIAT konserni egallagan. Ushbu konsern nafaqat yengil avtomobillar, balki yuk mashinalari, avtobuslar, dvigatellar, tramvaylar, trolleybuslar, traktorlar, velosipedlar va boshqa turli mahsulotlarni ishlab chiqaradi. FIATning asosiy korxonalari Turin shahri atorofida joylashgan.

Shuningdek, “Ferrari”, “Mazerati”, “Lancha” kabi avtomobil konsernlari ham faoliyat ko‘rsatib, ular Milan, Turin, Boltsano, Modene, Neapol va Palermo shaharlarida joylashgan. Italiyaning avtomobillariga bo‘lgan asosiy xaridorlar Lotin Amerikasi davlatlaridir. Italiya – jahon xo‘jaligidagi motorolla va mototsikllarning vatanidir. Ushbu mahsulotlarga talab va ehtiyoj jahon bozorida

o‘zining nufuzli mavqeiga egadir. Ayniqsa, jahonning yirik shaharlarida transport vositalarining kun sayin ko‘payib borayotganligini hisobga olganda, motorolla va mototsikllarga bo‘lgan talab ham oshaveradi. Ishlab chiqarilayotgan ushbu mahsulotlarning eng asosiy doimiy xaridorlari Vietnam va Gonkong mamlakatlaridir.

Italiyaning iqtisodiy-geografik holati mamlakatda kemasozlik tarmog‘ining rivojlanishiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Mamlakatda ishlab chiqarilayotgan barcha kemalarning 90 foizi “Italkanteri” kompaniyasiga tegishli bo‘lib, u Yevropadagi eng yirik kema ishlab chiqarish kompaniyalaridan biridir. Adriatika dengiz qirg‘oq bo‘yi shaharlarida, jumladan, Monfalkon, Triest va Ankona shaharlarida, Liguriya dengiz qirg‘oqbo‘yida joylashgan Genuya, Spetsiya, Livorno hamda mamlakatning janubiy hududida joylashgan Neapol, Taranto, Messine va Palermo shaharlarida kemasozlik tarmog‘ining yirik zavodlari mavjud.

Poyabzal ishlab chiqarish miqdori bo‘yicha Italiya jahonda AQSH, Xitoy, Hindiston va Buyuk Britaniyadan so‘ng 5-o‘rinda va uni eksporti bo‘yicha esa 3-o‘rinda turadi. Oziq-ovqat sanoati rivojlangan bo‘lib, Neapol atrofida joylashgan yuzlab korxonalar turli makaron mahsulotlarini ishlab chiqaradi. Makaron mahsulotlarini ishlab chiqarish miqdori bo‘yicha Italiya Yevropada 1-o‘rinda va dunyoda 3-o‘rinda turadi. Go‘sht, baliq va turli mevalardan tayyorlangan “konserva” mahsulotlari ham jahon bozorida xaridorgo‘ydir.

Mamlakatda mebel mahsulotlarini ishlab chiqarish keng yo‘lga qo‘yilgan. Mebelchilik tarmog‘ida “qadimiy davrni eslatuvchi va o‘tmish uslubda” ishlab chiqarilgan mebel mahsulotlari keng tus olgan. Jhon mebelchilik sanoat tarmog‘ida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning eng qimmat narxi aynan italiya mebellaridir. Italiyada ishlab chiqarilgan mebellar Kanada, AQSH va Yevropa mamlakatlariga eksport qilinadi.

Italiya yuvelir mahsulotlarini ishlab chiqarishda jahondagi etuk mamlakatlar qatoridan joy olgan bo‘lib, ushbu sohada jahonda Gonkong va Turkiya bilan doimiy ravishda raqobat olib boradi. Mamlakatning Florentsiya, Rim va Venetsiya shaharlarida zargarlik mahsulotlarini ishlab chiqaradigan bir qancha yirik kompaniyalar mavjuddir.

Bob yuzasidan xulosa

Italiya iqtisodiyoti tahlillari va iqtisodiy ko'rsatkichlaridan ko'rinish turibdiki, Italiya jahondagi eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallagan. Albatta, uning tarixiy maskanlari xalqaro turizmni tabiiy holatda rivojlanishiga va har yili ushbu sohadan davlat budjetiga yirik miqdorda daromad keladi. Mamlakatdagi minglab xususiy firmalar bugungi kunda ushbu sohada faoliyat ko'rstishmoqda. Italiya milliy iqtisodiyotida ishlab chiqarilgan mahsulotlar jahon bozorida qimmat bo'lsa-da, biroq ularning mahsulotlari sifatli ko'rinishga egadir.

So'nggi 3 yilda har yili o'n minglab italiyaliklar o'z vatanini tashlab ketmoqda. Italiya hukumatining ma'lumotiga ko'ra, 1869-yildan 2019-yilgacha mamlakatdan jami 22 mln. kishidan ortiq italiyaliklar o'z vatanini tashlab ketishgan. Ularning asosiy qismi okean ortiga Argentina, Braziliya va AQSHga ketishgan bo'lsa, 2010-yillardan boshlab asosan Shvetsariya va Avstriya mamlakatlariga ketishmoqda. Albatta, bu jarayon davom etgudek bo'lsa, u holda Italiya mamlakatida ham demografik muammolar boshlanadi, chunki mamlakatda tug'ilish kamayib borayotgan bir paytda, uning aholisining boshqa mamlakatlarga doimiy yashash uchun ko'chib ketishi mahalliy hukumatni ham tashvishga solmoqda.

Nazorat savollari

1. Italiyaning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini ayting.
2. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Italiyaning iqtisodiy ahvolini ayting.
3. Italiyaning aholisi va uning tizimini ayting.
4. Italiyaning jahonda va YIdagi iqtisodiy salohiyatini ayting.
5. Italiyaning iqtisodiy o'sish sabablarini ayting.
6. Italiya iqtisodiyotiga COVID-19ning salbiy ta'sirlarini ayting.
7. Italiya bugungi kunda qanday ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga ega?
8. Nima uchun italiyaliklar o'z vatanini tashlab boshqa davlatlarga yashashga ketishmoqda?
9. Italiyaning umumiyligi tashqi savdo aylanmasi, eksporti va import miqdorlarini hamda eng asosiy tashqi hamkor davlatlarini

ayting.

11. Mamlakatning yirik industrial shaharlarini ta’riflab bering.
12. Italiya qaysi mineral va xomashyo resurslarga boy hisoblanadi?
13. “Pandolfi rejasi” nima va uning mohiyatini ayting.
14. “Pandolfi reja”sida qanday vazifalarni amalga oshirish belgilangan edi?
15. 2012-yilda hukumat tepasiga kelgan M.Monte iqtisodiyotni tartibga solish uchun qanday ishlarni amalga oshirdi?

Uyga vazifa!

Talabaning “Italiyaning iqtisodiy rivojlanishi” mavzusini chuqur o‘zlashtirishi hamda amaliyat darsiga puxta tayyorgarlik ko‘rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

- 1) mavzu so‘nggida berilgan “Nazorat savollari”ga tayyorgarlik ko‘rish;
- 2) Italiyaning hududini xarita orqali iqtisodiy-geografik joylanishuvini ko‘rib chiqish;
- 3) Italiya umumiy tashqi savdosining eksport va import tarkibidagi asosiy mahsulotlar va ularning geografik yo‘nalishlari bo‘yicha jadval ishlab chiqish;
- 4) Italiya iqtisodiyotining sanoati, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohasi bo‘yicha talabalar guruhlarga bo‘lingan holda “Taqdimot” o‘tkaziladi.

XXI BOB. KANADANING IQTISODIY RIVOJLANISHI

- 1. Kanadaning qisqacha iqtisodiy tarixi va umumiyl tavsifi.**
- 2. Kanada aholi tizimi, uning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari hamda jahon xo'jaligidagi iqtisodiy salohiyati.**
- 3. Kanada iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillari.**
- 4. Ikkinchchi jahon urushidan so'ng Kanadaning iqtisodiy taraqqiyoti va uning iqtisodiy rivojlanish davrlari.**
- 5. Kanada milliy iqtisodiyotining rivojlanishida AQSHning ustuvor ahamiyati.**
- 6. Kanada iqtisodiyoti tuzilmasi.**

Tayanch iboralar: immigrantlar mamlakati, "kanada", "Mendeleev jadvali", Kvebek muammosi, NAFTA, erkin savdo, savdo blyoki, soliq stavkasi, moliya tizimi, pul-kredit siyosati, "Ebbota rejası", kompensatsiya, parlament.

Kanadaning jahon xaritasida joylashgan o'rni



21.1. Kanadaning qisqacha iqtisodiy tarixi va umumiyl tavsifi

Kanadaga aholi Yevropadan XVII asrning boshlaridan kela boshlagan. Uning tarixiga nazar tashlar ekanmiz, ko'plab Yevropaliklar mamlakatning ichki hududlariga kirib borgan va

majburiy ravishda mahalliy indeets aholini shimoliy hududlarga siqib haydab borishgan. Yevropalik sayyoh va ishbilarmonlarning indeetslardan turli xil mex va junlarni qurol-yaroqlarga almashtirishlari bu - yevropaliklar va mahalliy indeets savdogarlari o‘rtasidagi ilk savdo jarayonining boshlanish davri bo‘lgan.

Tarixchi-olimlarning fikriga qaraganda, Kanada hududining eng birinchi xalqi bo‘lgan indeetslar bundan 25 ming yil ilgari Osiyodan kirib kelishgan. O‘sha paytda Osiyodan ko‘plab indeets aholi quruqlik yo‘li orqali (hozirgi Bering ko‘rfazi o‘rnida) Kanada hududlariga kirib kelishgan.

XVI asrda fransuz dengiz-sayyohchisi Jak Karte (1491-1557) Kanadaning ichki hududiga birinchi bo‘lib Dohiy Lavrentiya daryosi orqali “Kanadaga yo‘l” topadi. O‘sha vaqtida Fransiya qiroli Fransua I Jak Karteni “Yangi Jahon”ga oltin izlash uchun hamda “Yangi Jahon” orqali Osiyoga, aniqrog‘i o‘sha paytdagi mashhur Hindistonga yo‘l topish uchun jo‘natgan edi. 1534-yilda Jak Karte Dohiy Lavrentiya ko‘rfazini o‘rganib chiqib, o‘ziga xos kartasini chizishga muvaffaq bo‘ladi. Bir yildan so‘ng “Yangi Jahon”ning ichki hududlariga kiradi va u yirik indeetslar qishlog‘iga duch keladi. Ushbu qishloqni keyinchalik Jak Karte “Kanada” deb atay boshlaydi. Demak, “kanada” so‘zi indeetslarning “kapala” so‘zidan olingan bo‘lib, uning ma’nosи “qishloq” yoki “jamoа” ma’nosini beradi. Lekin, Karte Fransiyaga hech qanday oltin yoki olmos topib bormadi, chunki har qancha qidirilsa ham ushbu nodir metallar o‘sha paytda topilmagan edi. Biroq bugungi kunda bilamizki, Kanada oltin, olmos va boshqa ko‘plab nodir metallar zaxirasiga boy mamlakatdir.

1663-yilda Kanada rasmiy ravishda Fransyaning koloniysi deb e’lon qilinadi va keyinchalik Kanada 1763-yilda Britaniyaning koloniyasiga qo‘shib olindi. Ikkinci jahon urushi tugaganidan so‘ng ham Kanada Britaniyaga qaramligi saqlanib qolingan edi. Biroq 1947-yilda Kanada hukumati “Kanada fuqaroligi” qonuni qabul qildi. Shundan so‘nggina, Kanada jahon siyosiy va iqtisodiy tizimda mustaqil mamlakat sifatida o‘rin oldi hamda uning Britaniyaga bo‘lgan qaramligi qisman tugadi.

Kanada umumiyl yer maydonining kattaligi jihatidan Rossiya va Xitoydan so‘ng 3-o‘rinda turadi. Uning hududi – 9,98 mln.km.kv bo‘lib, shundan 0,76 mln.km.kv ichki hududdagi suv havzalarini yoki

umumiylar maydonining 8 foizini hamda 3,5 mln.km.kv o‘rmon bilan qoplangan. Kanadaning quruqlikdagi chegara uzunligi 8 893 km.ni tashkil qiladi. Eng qizig‘i, quruqlikdagi barcha chegaralar AQSH bilan bog‘langan. Ushbu qariyb 9 ming km. uzunlikdagi chegarani jahon ommasi jahondagi “eng uzun qo‘riqlanmaydigan chegara” deyishadi. Mamlakatning ikki tomoni qirg‘oqbo‘yi hudud hisoblanadi. Shuni alohida qayd etish lozimki, dunyo mamlakatlari ichida faqatgina birgina Kanadaning yer maydonini 3 ta okean, jumladan, shimolda Shimoliy Muz okeani, g‘arbda Tinch okeani va sharqda Atlantika okeanlari yuvib turadi. Poytaxti Ottava shahri. “Ottava” so‘zi indeetslarning so‘zidan olingan bo‘lib, uning ma’nosni “almashuv” ma’nosini beradi. Mamlakatning yirik industrial shaharlar: Toronto, Montreal, Kvebek, Ottava, Vankuver, Winnipeg kabi shaharlar tashkil qiladi.

Toronto - mamlakatdagi eng yirik industrial, ishbilarmon, moliya va sanoat markazidir. Aholisi 4 mln. kishi. Shaharga 1793-yilda asos solingan bo‘lib, 1834-yildan Toronto deb atala boshlangan. “Toronto” so‘zi indeetslarning so‘zidan olingan bo‘lib, uning ma’nosni “ko‘rishadigan joy” ma’nosini beradi. Toronto shahri Amerika shaharlariga o‘xshab amerikacha uslubda qurilgan. Montreal - mamlakatdagi 2-yirik shahar hisoblanadi. Aholisi 3,5 mln. kishi. 1535-yilda britan qo‘shinlari tog‘-yon bag‘rida katta indeetslarning makoniga duch keladi. Bu tog‘ni Mont Royal deb ataydi hamda keyinchalik bu qishloq kengayib, 1642-yildan Montreal shahri deb nomlandi.

Davlat tili rasmiy ravishda ingliz va fransuz tillaridan tashkil topgan. 1969-yildan mamlakatda ikki rasmiy davlat tilida hukumatning barcha xujjatlari va nashrlari hamda ommaviy axborot vositalari ikkala tilda olib boriladi.

Kanadaning haqiqiy asli xalqi indeetlar va eskimoslardir. XV asrlarda hozirgi Kanada hududidagi indetlar va eskimoslarning soni 220 ming kishini tashkil qilgan edi. Bundan 6 ming yil ilgari esa, Kanadaning Artika hududiga eskimoslar kelishgan va bugungi kundagi soni atigi 50 ming kishini tashkil qiladi xolos. Hozirgi paytda esa, mamlakatda jami 1 mln.dan ortiq indeets xalqi mavjud bo‘lib, ular 58 xil indeets tilida so‘zlashadi. Kanada – immigrantlar mamlakatidir. Bu yerga dastlab Fransiya, Angliya, Shotlandiya va Irlandiyadan ko‘chib

kelishgan. Ikkinci jahon urushidan keyin Markaziy va Sharqiy Yevropa aholisi ko‘chib kelgan bo‘lsa, 1941-1961-yillarda aholining tez sur’alarda o‘sishi kuzatildi. Jumladan, uning aholisi 11,5 mln. kishidan 18 mln. kishiga etdi. Buning asosiy sababi - shu yillar davomida mamlakatga 3 mln.ga yaqin xorij mamlakatlardan migrantlar kelishdi. 1960-yilda aholi ro‘yxatga olingan vaqtida aholining 60 foizi shaharlarda istiqomat qilgan.

Kanadaga aholining eng ko‘p ko‘chib kelishi 1913-yilda ro‘y bergen bo‘lib, o‘shanda yil bo‘yi jami 400 mingdan ortiq muhojirlar ko‘chib kelgan. Bundan tashqari, 1930-yillardagi “Buyuk depressiya” davrida AQSHdan yuz mingdan ortiq kishi, Ikkinci jahon urushidan so‘ng Yevropada uysiz qolgan aholilar, 1970-1980-yillarda Osiyo va Lotin Amerikasidan ko‘plab qochoqlarning kelishi hamda 1980-yillarda Kanada-Xitoy o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar va iqtisodiy munosabatlar kengaygach, AQSHdagi muhojir xitoyliklarning Kanada hududiga oqimi kuchaydi.

21.1-jadval

Aholining provinsiyalar bo‘yicha joylanishi va zichligi

Provinsiyalar	Maydoni (ming km²)	Aholi soni (ming kishi)	Aholi zichligi (1 km.kv. - kishi)	Provinsiyalar markazi
Yangi Shotlandiya	55,5	106,6	0,9	Galifaks
Nyu-Bransvik	73,4	893,0	10,8	Frederikton
Prins-Eduard oroli	5,7	156,4	27,4	SCharlottaun
Kvebek	1.540,7	8.333,3	5,4	Kvebek
Ontario	1.068,6	14.911,5	13,5	Toronto
Manitoba	650,1	1.138,9	1,8	Vinnipeg
Saskachevan	652,3	1.024,4	1,6	Ridjayna
Alberta	661,2	2.419,9	3,7	Edmonton
Britan Kolumbiyasi	947,8	5.009,9	5,3	Viktoriya
Yukon	483,5	88,1	0,2	Uaytxors
Shimoli-G‘arbiy hudud	1886,3	1.968,0	0,9	Yellounayf
Nunavut	1.951,0	176,0	0,9	Ikvalut
Kanada bo‘yicha	9.976,1	37.084,7	3,7	Ottava

Manba: I.Svetlov. “Ekonomicheskie rayoni Kanadi”, M.: 2018g., S-51.

1990-yillarda asosiy migratsiya Yevropadan, jumladan, Skandinaviya va Sharqiy Yevropa hamda MDH mamlakatlaridan migrantlar Kanadaga yo‘l olishgan. 2000-yillardan esa, kamdan-kam holatda kuzatiladigan holatni ko‘rishimiz mumkin, ya’ni nemis xalqining boshqa mamlakatlarga doimiy yashash uchun ko‘chib borishi va bunda 2000-yildan 2017-yilgacha jami 51 ming nemis fuqarlari Kanadaga doimiy yashash uchun ko‘chib kelishgan. Hozirgi paytda esa ko‘chib kelayotganlarning asosiy qismini MDH va Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi mamlakatlari tashkil qilmoqda.

Kanadaning aholisi 38,4 mln. kishini tashkil qiladi. Taxminlarga ko‘ra, 2030-yilda mamlakat aholisi 40 mln. kishiga yetishi kutilmoqda. Kanada iqtisodiyotida ishga layoqatli aholining 75 foizi xizmat ko‘rsatish sohasida, sanoatda 14 foiz va qishloq xo‘jaligida atigi 4 foizi faoliyat ko‘rsatishadi. Ishsizlik darajasi – 10 foizni tashkil qiladi. Kanada iqtisodiyoti tarixida ishsizlikning eng yuqori ko‘rsatichi 1929-yilda ro‘y bergen va o‘shanda 32 foiz aholi ishsizlikka duchor bo‘lgan.

Aholi sonini yillik o‘sishi o‘rtacha 1 foizni tashkil qiladi, ya’ni tug‘ilish soni kam. Kanada oilalarida bolalar soni juda kam bo‘lib, 1 ta oilaga o‘rtacha 1 ta farzand to‘g‘ri keladi. Aholining o‘rtacha uzoq umr ko‘rish davri 80 yilni tashkil qiladi, ya’ni erkaklar 76 yil va ayollar 83 yil umr ko‘rishadi. Aholining yosh bo‘yicha tarkibi quyidagicha: 0-5 yosh aholi – 5 foiz; 5-19 yoshdagilar – 20 foiz; 20-44 yoshdagilar – 38 foiz; 45-64 yoshdagilar – 24 foiz va 65 yoshdan tepasi esa – 13 foizni tashkil qiladi.

Aholi zichligi juda ham siyrak joylashgan bo‘lib - 1 km.kv.ga 4 kishi to‘g‘ri keladi. Umumiyligi aholining 98 foizi oliy ma'lumotga ega. Aholining 77 foizi shaharlarda va 23 foizi qishloqlarda yashaydi. Umumiyligi aholining 31 foizi, ya’ni 9 mln. kishi mamlakatning 3 shahrida istiqomat qiladi: Toronto, Montreal va Vankouver shaharlarida. Umumiyligi aholining 90 foizi AQSH bilan chegaraga yaqin bo‘lgan hududlarida istiqomat qiladi.

21.2. Kanadaning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va uning jahon xo‘jaligidagi iqtisodiy salohiyati

Kanada jahondagi “Katta yettilik”ning a’zosi bo‘lib, u Shimoliy Amerikaning shimolida joylashgan davlatdir. Kanadada jahonda birinchi bo‘lib, elektron mikroskop, plitka shokoladi, telefon, gugurt, arra, kerosin va samolyot kabi mahsulotlari ixtiro qilingan. U jahondagi kam aholi soniga ega bo‘lgan mamlakat bo‘lishiga qaramasdan, aholining intellektual salohiyati juda yuqoridir, ya’ni insonlarning taraqqiyoti indeksi bo‘yicha jahonda birinchi o‘rinda turadi. Kanada Britaniya Hamdo‘stligiga, 1945-yildan BMT, 1994-yildan NAFTA kabi tashkilotlarga a’zo hisoblanadi. Jhon ommasi Kanadani “immigrantlar mamlakati” hamda “bepoyon o‘lka” deyishadi.

Kanadaning YaIM miqdori 1.736,4 mlrd.dollarni tashkil qilib, jahonda YaIM miqdori jihatidan 10-o‘rinda. Aholi jon boshiga daromadi 46.370 dollar bo‘lib, jahonda 20-o‘rinni egallab turibdi. Kanadaning umumiy tashqi savdo miqdori – 899,3 mlrd.dollarni tashkil qilib, bundan eksporti 446,1 mlrd.dollar va importi esa 453,2 mlrd.dollarni tashkil qiladi. Umumiy tashqi savdo aylanmasida import miqdori biroz ustunlikka ega. Kanadaning umumiy tashqi savdo miqdori jihatidan jahonda 12-o‘rinda turadi.

Asosiy eksport mahsulotlariga avtomobillar, asbob-uskunalar, samolyotlar, telekommunikatsiya va uning dastgohlari, kimyo, plastmassa, neft xomashyosi, elektr enegiya, aluminiy, oziq-ovqat, bug‘doy va boshqa mahsulotlar kiradi. Eksportdagи asosiy tashqi hamkor mamlakatlari: umumiy eksportining deyarli 80 foiz ulushi - AQSH va qolgan qismini Buyuk Britaniya va Xitoy mamlakatlari tashkil qiladi.

Asosiy import mahsulotlariga esa, asosan avtomobillar va uning ehtiyyot qismlari, kimyo va mineral o‘g‘itlar kiradi. Umumiy importning deyarli 50 foiz ulushi AQSHga to‘g‘ri kelsa, qolgan ulushlari Xitoy va Meksikani tashkil qiladi. Demak, Kanadaning tashqi savdodagi eng asosiy hamkori AQSH mamlakatidir. Ishsizlikning ko‘rsatkichi 10,0 foiz bo‘lib, ishsizlik ko‘rsatkichi yil sayin tobora ortib bormoqda. Pul birligi kanada dollari. Inflatsiya ko‘rsatkichi 1,8 foiz. Kanadaning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkich-

larini 21.2-jadval orqali ko‘rish mumkin.

21.2-jadval

Kanadaning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari

T/r	Asosiy ko‘rsatkichlar va xususiyatlari	Miqdori va belgilari
1	YaIM miqdori (mln.doll.) ⁹⁹	1.736,4
2	YaMMning aholi jon boshiga (doll.) ¹⁰⁰	46.370
3	Umumiylashqi savdo aylanmasi (mlrd.doll.)	899,3
4	Eksporti (mlrd.doll.)	446,1
5	Importi (mlrd.doll.)	453,2
6	Eng asosiy tashqi savdo hamkorlari	AQSH, Buyuk Britaniya va Xitoy
7	Valuta zaxirasi (mlrd.dollar) ¹⁰¹	85,3
8	Tashqi qarzi (mlrd.doll.) ¹⁰²	1.613,3
9	Aholi soni (mln. kishi) ¹⁰³	38,4
10	Umumiylashqi yer maydoni (ming km.kv.) ¹⁰⁴	9.976,1
11	Ishsizlik darajasi (foiz)	10,0
12	Milliy valutasi (pul birligi)	Kanada dollari
13	Mamlakat poytaxti	Ottava
14	Rasmiy davlat tili	Ingliz va fransuz tillari

Manba: ushbu jadval ma’lumotlar asosida ishlab chiqilgan.

⁹⁹ Gtmarket.ru/ratings/gross-national-income-ranking

¹⁰⁰ https://data.worldbank.org/indicator/NY.GNP.PCAP.CD

¹⁰¹ https://nonews.co/directory/lists/countries/gold

¹⁰² https://ru.m.wikipedia.org/wiki/%DO%A1%DO%BF%DO%B8%

¹⁰³ https://ru.m.wikipedia.org/wiki/Spisok_stran_po_naseleniyu

¹⁰⁴ https://worldgeo.ru/lists/?id=2

21.3. Kanada iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillari

1. *Kanadaning iqtisodiy-geografik joylanishuvining qulayligi.*

Mamlakatning sharqiy va g‘arbiy hududlarini hamda shimoli-sharqiy hududlarini suv xafzalari o‘rab turadi. Uning tashqi savdosida dengiz transporti muhim ahamiyatga egadir.

2. *Tabiiy resurslar hamda ularning zaxiralariga boyligi.*

Kanada tabiiy xomashyo zaxiralariga juda ham boy bo‘lib, “Mendeleev jadvali”dagi barcha elementlar mavjud. Shuning uchun ham Kanada milliy iqtisodiyotida qazilma resurslarini qazib olish va xomashyoni qayta ishslash bilan bog‘liq sanoat tarmoqlari bugungi kunda yuksak darajada rivojlanib bormoqda.

Kanada nikel, sink, kumush, kaliy tuzi, uran, molibden, mis, volfram qazib chiqarish miqdori bo‘yicha dunyo mamlakatlari ichida yetakchi o‘rinda turadi. Masalan, uran, svinets va sink zaxirasi bo‘yicha jahonda 1-o‘rinda, nikel va platina zaxirasi bo‘yicha 2-o‘rinda hamda oltin va temir ruda zaxirasi bo‘yicha jahonda 3-o‘rinda turadi.

Kanadaning chuchuk suvlari zaxirasi dunyo chuchuk suvlari zaxirasining 15 foizini tashkil qiladi. Birgina Buyuk ko‘ldagi chuchuk suvlari jahonning 9 foiz zaxirasini tashkil qilar ekan. Shuni alohida qayd etish lozimki, Kanada ko‘llarning ko‘pligi va ularning soni jihatidan jahonda 1-o‘rinda turadi, ya’ni qariyb 4 millionga yaqin turli xil kattalikdagi ko‘llar mavjud bo‘lib, ularning 200 tadan ortig‘i yirik ko‘llardir. Demak, har 8 ta fuqaroga 1 ta ko‘l to‘g‘ri keladi deganidir.

Yog‘och zaxirasi bo‘yicha Kanada jahonda Rossiya va Braziliyadan so‘ng 3-o‘rinda turadi. Gidroelektr energiya zaxiralari salohiyati salkam 100 mln. kilovattni tashkil etadi, bu jahon mamlakatlari ichida uchinchi ko‘rsatkich hisoblanadi.

3. *Mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida migrantlarning ustuvor ahamiyati.*

Hukumatning mamlakat hududiga xorijiy migrantlarni, jumladan malakali mutaxassislarini jalb qilsh va samarali “immigratsiya siyosati” dasturini olib borganligi muhim ahamiyat kasb etdi. Kelayotgan xorijiy fuqarolarni doimiy ko‘chib kelishi, hukumatning “immigratsiya siyosati”ga asosan jalb qilingan. 1957-yildan boshlab faqat yuqori malakali mutaxassislarning ko‘chib kelishiga ruxsat berildi.

Kanada hukumatining 2020-yil martdagi “Yangi iqtisodiy immigratsiya” dasturiga muvofiq, 2020-2022-yillar mobaynida 1.053.000 immigrantlarni jalg qilish ko‘zda tutilgan edi, ya’ni 2020-yilda – 341 ming kishi; 2021-yilda 351 ming kishi va 2022-yilda esa 361 ming kishi. Biroq 2020-yilda yuzaga kelgan pandemiya tufayli ushbu rejaning amalda tatbiq qilish jarayoni 2021-2023-yillarga ko‘chirilganligi sababli: 2021-yilda-401 ming, 2022-yilda 411 ming va 2023-yilda esa 421 ming va jami 1,2 mln. muhojir migrantlarni qabul qiladi. Shunday bo‘lsa-da, pandemiya sharoitida 2020-yilning 10 oyi ichida 128 ming kishi xorijiy mamlakatlardan yuqori malakaga ega bo‘lgan migrantlarni qabul qilgan.¹⁰⁵

Ushbu “Yangi iqtisodiy immigratsiya” dasturiga ko‘ra, xorijiy mamlakatlardan sog‘liqni saqlash, oziq-ovqat sanoati hamda axborot texnologiyalarni va sun’iy intellekt sohasidagi mutaxassis va ishchilarni jalg qilish ko‘zda tutilgan. 2020-yildan 2028-yillar ichida mamlakatning 9 millionga yaqin kishisi nafaqaga chiqishini hisobga olsak, albatta, mamlakatning milliy iqtisodiy salohiyatini ushlab turish va uni yanada rivojlantirish xorijdan jalg qilinadigan malakali ishchi-mutaxassislarbga bog‘liqdir. O‘z o‘rnida ta’kidlash joizki, Kanadadagi umumiy bizneslarning 33 foiziga muhojirlar egalik qilsa, jamoat sog‘lig‘ini saqlash xodimlarining 25 foizi ham muhojirlardir.

Demak, Kanadaning iqtisodiy rivojlanishidagi eng asosiy xususiyatlaridan biri bu – milliy iqtisodiyot sohalariga xorijiy migrantlarning jalg qilinishidir. 2021-yilga kelib, Kanada mehnat muhojirlarini jalg qilish soni bo‘yicha AQSHni ortda qoldirib, jahonda xorijiy migrant ishchi kuchlarini jalg qilish bo‘yicha 1-o‘ringa ko‘tarildi.

4. Mamlakat hududidagi yangi yer maydonlarini o‘zlashtirilishi va uni yanada o‘zlashtirish imkoniyatlarining mavjududligi. XX asrning 1941-1970-yillari davomida mamlakat hududining 3 foiz yer maydonlari o‘zlashtirildi. Shu yillar davomida bu o‘zlashtirilgan yer maydonlarida 500 dan ortiq yirik sanoat tarmoqlari markazlari bunyod qilindi. Bundan 92 tasi qora metall rudasini qazish va uni ishlab chiqarish, 81 tasi neft, gaz, ko‘mir qazish va ularni qayta ishlash, 33 tasi yog‘och va oziq-ovqat ishlab chiqarish, 30 tasi elektr energiya,

¹⁰⁵ <https://news.knopka.ca/post/view?id=11884>

27 tasi harbiy sanoat va ilmiy tekshirish markazlari tashkil qilindi.

Kanadaning iqtisodiy salohiyatini yanada rivojlantirish va ishlab chiqarish tarmoqlarini kengaytirishda yetarli darajada imkoniyatlar mavjuddir va bu maqsadga yetish uchun faqat yetarli ishchi kuchini safarbar qilish orqaligina amalga oshirilishi mumkin.

5. *Mamlakatda uzoq yillardan buyon siyosiy barqarorlikning mavjudligi*. Kanada o‘z hududida va jahon urushlarida qatnashma-ganligi ham alohida xususiyatga egadir. Albatta, Kanada Ikkinchi jahon urushida Ittifoqchi qo‘slnlarga harbiy qo‘sln, harbiy texnika, qurol-yaroq, oziq-ovqat hamda to‘qimachilik mahsulotlarini yetkazib bergen bo‘lsa-da, Kanada o‘z hududida urush ko‘rmagan jahondagi kam sonli mamlakatlardan biridir.

6. *Kanada milliy iqtisodiyotini rivojlanishida AQSHning ustuvor ahamiyati*. Ushbu xususiyat eng asosiy xususiyat bo‘lib, keyingi bo‘limlarda batafsил ko‘rib chiqiladi.

7. *Ekologiyaning asrash omili*. Kanadaliklar o‘zlarining mamlakatlari bilan nihoyatda g‘ururlanadilar. Chunki, mamlakat ko‘chalarini ozoda tutishi, tabiatdan nihoyatda toza havoga ega bo‘lishi, atrof-muhit yashil daraxtlar bilan o‘ralganligi, minglab toza bo‘lgan ko‘llar va daryolar, keng va bepoyon tog‘lik vodiylar – bularning hammasi kanadaliklarning g‘ururi hisoblanadi. Kanada jahon xo‘jaligida ekologiyani asrash xususiyati bilan eng yuqori o‘rinda turadi. 1971-yilda Kanada jahon mamlakatlari ichida ikkinchi bo‘lib (Fransiyadan keyin) Tabiatni muhofaza qilish vazirligiga asos solindi.

8. *Milliy iqtisodiyotda transport turlarining rivojlanishi*. (ushbu omil xususida keyingi bo‘limlarda ko‘rib chiqiladi).

9. *Ishsizlik ko‘rsatkichi darajasining pastligi*. Kanada ishsizlik ko‘rsatkichi jihatidan jahon iqtisodiyoti tarixida Yaponiyadan so‘ng keyingi o‘rinda turadigan davlatdir. Chunki Kanadaga tashrif buyuradigan har qanday xorijiy migrantning asl maqsadi mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishdir.

Kanadada Ikkinchi jahon urushi davridan beri ishsizlik darjasini 10 foizdan oshmagan. Biroq 2020-yilda ro‘y bergen pandemiya davrida avvaliga mart-aprel oylarida ishsizlik darajasining ko‘rsatkichi 35 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, keyinchalik yil oxirlariga kelib oktabr-noyabr oylarida ushbu ko‘rsatkich 22 foizni tashkil qildi. Pandemiya davrida ishsizlik darjasini ko‘rsatkichining 35 foizgacha ko‘tarilishi

Kanada iqtisodiyoti tarixidagi eng antirekord ko'rsatkich sifatida joy oldi. Ishsizlikning bunday yuqori ko'rsatkichga chiqishi pandemiya sharoitida ro'y berganligini hisobga olsak, bu vaqtinchalik holatdir, albatta.

10. *Kanada aholisining eng yuqori darajada yashash va turmush sharoitining mavjudligi.* Hukumat tomonidan aholini yashashi uchun barcha yetarli shart-sharoitlar va qulayliklar yaratilganligini ta'kidlash zarur. Jahonning deyarli barcha mamlakatlari aholisi "kanada hayoti"ni orzu qilishlari hech kimga sir emas. Shuning uchun ham zamonaviy migratsiya davrida hamon Yevropaliklarning ko'chib kelishi davom etmoqda. Kanadada aholisining kun kechirish holati qo'shni AQSHga qaraganda deyarli 3 marotaba arzondir. Jahonning ko'plab mamlakatlaridan kelgan xorijlik talabalar mahalliy universitetlarida yoki boshqa oliygohlarda ta'lim oladigan bo'lsa, uning mamlakatda ish topishi juda oson kechadi. Shuningdek, ushbu talaba o'qishni tamomlaganidan so'ng mahalliy iqtisodiyot sohalariga ishga jalb qilinsa uning "Kanada fuqaroligi" olishi deyarli hal qilinadi.

BMTning yillik hisobotlarida Kanadaning umumiqtisodiy ko'rsatkichlarining yakunida va aholini eng qulay yashashi uchun yaratilgan shart-sharoitlar bo'yicha o'tkaziladigan jahon mamlakatlari reytingida Kanada 1970-yildan buyon doimiy ravishda jahonning eng yuqori uchlik pog'onasidadir (1993-2001-yillarda 1-o'rinni egallagan edi). Ushbu reytingda aholining yashash sharoiti, uning daromadi va umr ko'rish darjasи, ekologiya, madaniyat va san'at, ta'lim olish, kam jinoyatlarning sodir bo'lishi va boshqa ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha har yili jahon mamlakatlari tahlil qilinib, reyting ishlab chiqiladi. Ushbu reytingda Kanadaning asosiy raqobatchi mamlakatlari Yaponiya, Singapur, Shvetsariya, Shvetsiya, Finlyandiya, Islandiya, Luksemburg kabi mamlakatlar tashkil qiladi.

Jahondagi mashhur "Forchun"(Fortune) jurnali tomonidan har yili e'lon qilib boradigan "Aholining yashash sifati bo'yicha jahonning eng yetakchi shahar" reytingida, Toronto shahri 1996-, 2003- va 2017-yillarda 1-o'rinni egallagan. Ushbu reytingda jahon shaharlari aholisining mehnat faoliyati, kun kechirishi, oilani boqishda yaratilgan barcha qulayliklar, kommunal xizmatlari, xarid qobiliyatları va boshqa bir qator iqtisodiy-ijtimoiy ko'rsatkichlardan kelib chiqiladi.

11. Milliy iqtisodiyotning sanoat tarmoqlariga xorijiy kapitalni jalg qilinishi. Kanada iqtisodiyot sohalariga xorijiy sarmoyalarni jalg qilish oqimi 1960-yillar oxirlarida “Xomashyolarga yo‘l” davlat dasturi amalga oshirilganidan so‘ng kuzatilgan. Xorijiy kapitallar eng asosan AQSH va Buyuk Britaniya kabi mamlakatlardan jalg qilingan. Mamlakatda xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay va imtiyozli shart-sharoitlarni o‘z ichiga olgan “Xorijiy sarmoya” qonuni mavjud.

12. Milliy iqtisodiyotning rivojlanishida transport sohasining ustuvor ahamiyati. 1958-yilda Kanada Parlamenti tomonidan “Xomashyolarga yo‘l” davlat dasturi qabul qilindi. Ushbu dasturga muvofiq, qisqa 10 yil ichida mamlakat hududlarida 100 dan ortiq yirik avtomagistrallarni va temiryo‘llarni qurilish loyihalarini o‘z ichiga oldi. Dasturdan o‘rin olgan loyihalarga ko‘ra, umumiyligi uzunlikdagi qariyb 8 ming km.dan iborat bo‘lgan avtomobil yo‘llari; 6,3 ming km. uzunlikdagi neft quvurlari hamda qariyb 2 ming km. uzunlikdagi temiryo‘llarni qurilishi amalga oshirildi. Ushbu ulkan vazifa va yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan dasturning amalga oshirish ishlari 1969-yilda nihoyasiga yetdi va to‘la amalga oshirildi hamda Kanadaning Shimoliy hududlari va uzoq g‘arbiy hududlari umumiyligi avtomobil magistrali tizimiga tutashtirildi.

Temiryo‘llarning uzunligi jihatidan Kanada o‘scha paytda faqatgina Rossiya va AQSHdan so‘ng jahonda 3-o‘rinda turgan. Hozirda esa, AQSH, Xitoy, Rossiya, Hindistondan so‘ng 5-o‘rinda turadi. Avtomobil yo‘llar uzunligi 855 ming km.dan ortiq bo‘lib, jahonda AQSH va Xitoydan so‘ng 3-o‘rinda turadi. Neft quvurlari uzunligi 42 ming km.atrofida. Gaz quvurlari uzunligi esa 100 ming km. dan ortiqdir.

Mamlakatda transport tizimi bu Kanadaning iqtisodiy taraqqiyotidagi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Mamlakat janub va shimol hududlarini temiryo‘l, avtomobil va havo yo‘llari bilan tutashtirilgan ulkan tizimli yo‘ldan iboratdir. Albatta, iqtisodiyotda sanoat sohasining yanada rivojlanishiga avtomobil va temiryo‘llarning qurilishi asosiy sabablaridan biri bo‘ldi. Aynan shimoliy va g‘arbiy hududlarda temiryo‘llarning qurilishi natijasida mamlakatning barcha hududlarida yengil sanoat va oziq-ovqat sanoati hamda metallni qayta ishslash sanoati rivojlana boshlagan. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining taraqqiyoti ikki marotabaga o‘sdi.

Mamlakatdagi eng uzun avtomagistral g‘arb bilan sharqni bog‘lab turuvchi 8 ming km.lik avtomagistral yo‘li tashkil qilingan bo‘lib, ushbu yo‘l “Kanadaning asosiy magistrali” deb nomlanadi.

Mamlakatda ko‘plab mahalliy va xalqaro maqomga ega bo‘lgan dengiz portlari mavjud. Ichki hududlarda ko‘plab yirik daryo portlari qurilgan, lekin ushbu daryo portlari o‘zining yuk ortish va tashish miqdorlari bo‘yicha yirik dengiz portlaridan qolishmaydi.

Masalan, Vankuver shahridagi “Vankuver daryo porti” yiliga salkam 60 mln. tonnaga yaqin yukni tushiradi va ortadi. Hatto eng shimoliy hududdagi Manitoba shahridagi dengiz portining umumiyligi tovarayirboshlash miqdori ham yiliga 1 mln. tonnadan ortiqdir. Ushbu dengiz porti Shimoliy muz okeanidagi yagona dengiz portidir. Shuningdek, mamlakatda Montreal, Tander-Bey, Galifaks, Kvebek va Set-Il kabi yirik dengiz portlari ham faoliyat ko‘rsatadi. Eng yirik aeroportlari: Toronto shahridagi “Mirabel” va Monrealdagi “Dorval” aeroportlari hisoblanadi. Bundan tashqari, eng yirik tranzit aeroport hisoblangan Nyufaundlend orolidagi “Gander” aeroporti hisoblanadi. Mamlakatda ikkita asosiy aviakompaniyalar xizmat ko‘rsatadi: “Air Canada” va “Canadian Airlines”.

Bundan tashqari, Kanada iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy xususiyatlariga qo‘srimcha qilgan holda, Kanada milliy valutasining barqarorligi hamda AQSH bilan salkam 9 ming km. uzunlikdagi davlat chegarasini “tikanli simlar” bilan o‘ralmaganligi kanadaliklarning AQSH hududiga erkin o‘tishi mumkin bo‘lgan xususiyatlarni ham qo‘sish mumkin.

21.4. Ikkinchchi jahon urushidan so‘ng Kanadaning iqtisodiy taraqqiyoti va uning iqtisodiy rivojlanish davrlari

Kanadaning ikkinchi jahon urushidan so‘ng bugungi kungacha bo‘lgan iqtisodiy rivojlanish davrlarini quyidagi davrlar orqali ko‘rib chiqamiz:

Birinchi iqtisodiy rivojlanish davri – 1945-1960-yillar. Ikkinchchi jahon urushi davrida Kanada urush ishtirokchilariga asosiy mahsulotlarni yetkazib beruvchi mamlakatlardan biri bo‘ldi. Xususan kiyim-kechak, oziq-ovqat, dori-darmon, harbiy texnika va transport vositalari, qurol-yaroq va aholi iste’moli mahsulotlarini yetkazib berdi. Ikkinchchi jahon urushi Kanadaning sanoat tarmoqlari rivojlanishining

yangi davrini ochib bergen. Shuningdek, Kanada Birinchi jahon urushi va Ikkinci jahon urushlari oralig'i davrlarida jahon mamlakatlarini bug'doy bilan ta'minlagan eng asosiy mamlakat bo'lganligini unutmaslik darkor.

Ikkinci jahon urushidan so'ng milliy iqtisodiyotning sanoat tarmoqlari tez sur'atlarda rivojlana boshlandi. Sanoat mahsulotlarining yalpi ishlab chiqarilishi natijasida 1946-1955-yillar oralig'ida uning iqtisodiy salohiyati bo'yicha jahon iqtisodiyotida 3-o'ringa chiqdi. Ammo, keyinchalik 1960-yillarga kelib, Yevropaning bir qator vakillari va Yaponiya kabi mamlakatlar mahsulot ishlab chiqarish miqdori bo'yicha Kanadani 7-o'ringa tushirib qo'ydi. Uning jahonda mahsulot ishlab chiqarishning pasayib qolishi ishlab chiqarishning o'sish ko'rsatkichlarini pasayishida emas, balki aynan shu davrlarda jahonda Yaponiya singari "tez taraqqiyot" bilan rivojlanayotgan mamlakatning kirib kelishi hamda "Marshall rejasi" orqali Germaniya, Fransiya, Italiya mamlakatlari iqtisodiyotining tez sur'atlardagi iqtisodiy taraqqiyoti bilan izohlandi.

1941-1961-yillarda mamlakat aholi sonining 11,4 mln. kishidan 18 milion kishiga yetishi, yangi shaharlarni bunyod etilishi hamda yangi hududlarni o'zlashtirilishi bilan Kanada jahon xo'jaligida o'zining iqtisodiy taraqqiyoti bilan alohida o'rinn oldi. 1960-yillarning o'rtalaridan boshlab Kanada jahon xo'jaligida nikel, uran, sink, oltin, mis, platina, kumush kabi qazilma metallarni qazish va ularni ishlab chiqarish hamda qog'oz va yog'och ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi mamlakatlar qatoriga aylandi. Qazib chiqarilgan xomashyolarning yarmidan ortig'i AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya va Yaponiyaga eksport qilindi.

1960-yillarning boshlari va 1970-yillarda mamlakatning ichki hududlarida ichki milliy siyosiy mummolar paydo bo'ldi. Ushbu ichki siyosiy muammolar mamlakatning aholisini uchta toifaga bo'linib qolganligi bilan izohlanadi. Jumladan, umumiy aholining 40 foizi kelib chiqishi ingliz-kanadaliklar, 27 foizi fransuz-kanadaliklar va 33 foizi boshqa millatga mansub kishilarni tashkil qilar edi. Masalan, 1970-yillarda 1 mln.dan ortiq aholi asli kelib chiqishi ukrain millatiga mansub kishilar edi.

1960-yillarning boshlarida Kvebek provinsiyasining deyarli 90 foiz aholisi kelib chiqishi fransuz-kanadaliklardan iborat bo'lganligi

uchun ushbu provinsiya Kanada hududidan mustaqil bo‘lib chiqishga harakat qildi. Chunki, aynan shu provinsiya boshqa hududlarga qaraganda iqtisodiy holati boshqa iqtisodiy hududlarga qaraganda ancha orqada qolgan edi. Shuning uchun ham, Kvebek provinsiyasi rahbarlari hukumatdan ushbu provinsiyaga ham alohida e’tibor berilishini va aholining turmush darajasini mamlakat bo‘yicha bir me’yorga keltirilishini talab qilishdi.

Ayniqsa, Angliya qirolichasi Elizaveta II ning 1964-yilda Kanadaga tashrif buyurgan vaqtda Kvebek aholisining boykot qilinishi bilan tugadi. “Kvebek muammosi”ni 1968-yilda hukumat tepasiga kelgan Bosh vazir, ya’ni Liberal partiyasi rahbari fransuz-kanadiyalik P. Tryudo qisman bo‘lsa-da, bu muammoga yechim topgandek bo‘ldi. Uning harakati evaziga 1969-yilda Parlament mamlakatda “Fransuz tili - ikkinchi davlat tili” haqidagi qonunni qabul qildi hamda hukumat doirasidagi ishchi-mutaxassislarining asosini fransuz-kanadaliklar tashkil qildi. Shuningdek, Kvebek provinsiyasining iqtisodiyotini yanada yaxshilash maqsadida qo‘sishimcha mablag‘lar ajratildi. Lekin, Kvebek provinsiyasining muammosiga to‘la barham berish faqatgina 1982-yildagina barham berildi. Buning asosiy sababi 1982-yilda Kanada mustaqil ravishda Kanada Konstitutsiyasi qabul qilindi, ya’ni endilikda Kanada o‘z konstitutsiyasiga mustaqil o‘zgartirish huquqiga ega bo‘ldi, chunki bungacha konstitutsiyadagi o‘zgarishlar faqatgina Buyuk Britaniya tomonidan tasdiqlanar edi. Konstitutsiyaga qo‘sishimcha holda “Xartiya” qo’shildi, ya’ni Xartiya bu - provinsiyalarga o‘z-o‘zini boshqarishda ma’lum erkinliklar berildi va provinsiyalarning ichki hududlaridagi muammolarni o‘zlari mustaqil hal qilish imkoniyatini berdi.

Ikkinci iqtisodiy rivojlanish davri – 1970-1980-yillar. Kanadaning ushbu iqtisodiy rivojlanish davri stixiyali tarzda taraqqiy etgan davr bo‘ldi. Shimoliy hududlarda yangi hududlar o‘zlashtirildi, jalb qilingan xorijiy ishchi kuchlarining hisobiga yangi sanoat tarmoqlari yanada kengaytirildi va yangi sanoat tarmoqlari tashkil qilindi. AQSHlik yirik investorlar bilan hamkorlikda yangi sanoat tarmoqlari tashkil qilindi. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida mahsulotlar yetishtirish miqdorlari 2-3 marotabagacha oshirildi.

1984-yilda konservatorlar tomonidan boshqarilgan iqtisodiy siyosatdagi ba’zi yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar hisobiga ketma-ket ikki

marta iqtisodiy inqiroz vujudga keldi. Inqiroz natijasida ishsizlik darajasi 8 foizdan 11 foizga yetdi. YaIMning iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi oldingi yilga nisbatan 1 foizga va sanoat ishlab chiqarish esa 4 foizgacha tushib ketdi. Buning natijasida Kanada hukumati tomonidan moliya tizimini qattiq nazoratga olishi, ya'ni turli xil yo'naliishlardagi davlat xarajatlari miqdorini keskin kamaytirish haqidagi qaror qabul qilindi.

Uchinchi iqtisodiy rivojlanish davri – 1990-2000-yillar. 1980-yillarning oxirlarida, ya'ni 1989-yildan kuchga kirgan "Kanada va AQSH o'rtasidagi erkin savdo bo'yicha" bitim Kanadaning AQSH bilan iqtisodiy hamkorligi hamda ikki mamlakat o'rtasida savdo munosabatlarining yanada rivojlanishiga olib keldi, ayniqsa amerikalik investorlarning oqimi davri boshlandi. Shundan keyin mamlakatda xususiy lashtirish jarayoni keng ko'lamda amalga oshirila boshlandi. Natijada qayta ishslash va neft-gaz sanoatidagi yirik korxonalar, havo va temiryo'l transporti, aloqa xususiy biznes qo'liga o'tdi. Dengiz va daryo portlarini hamda aeroportlarni ommaviy ravishda xususiy lashtirish amalga oshirildi. Provinsiyalar hukumati telekommunikatsion kompaniyalarni va elektr energetika korxonalarini sotib yubora boshladi. Xususiy kompaniyalar ijtimoiy xizmatlar sohasiga faollik bilan kirib bordi. Bularning natijasida davlat xarajatlari sezilarli darajada kamaydi.

1990-yillarning boshlarida Kanada iqtisodiyotida chuqur o'zgarishlar davri bo'ldi. Ma'lumki Kanada iqtisodiyoti "an'anaviy iqtisodiyot"ga moslashgan va ishlab chiqarilishi tashqi bozorga yo'naltirilgan. Darhaqiqat, globalizatsiya jarayonlari, ayniqsa, Shimoliy Amerikadagi integratsiya Kanada iqtisodiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadidi. 1994-yilda Kanada, AQSH va Meksika mamlakatlari "Shimoliy Amerika erkin savdo hududi"ni (NAFTA) tashkil etilishi Kanada uchun yangi imkoniyatlarni ochdi.

1990-yillarning boshlari Kanada iqtisodiyoti uchun unchalik omadli bo'lmadi. 1991-yilda YaIM o'sish sur'ati bor yo'g'i 0,2 foizga teng bo'lgan bo'lsa, 1991-yilda u 1,7 foizni tashkil etdi. Milliy iqtisodiyotning "jonlanishi" faqatgina 1992-yildan boshlandi. Biroq 1995-yilgacha bu iqtisodiy o'sish juda past ko'rsatkichlar bilan bordi. Ushbu yillarda Kanada iqtisodiyoti rivojining asosiy omili NAFTA doirasidagi tashqi savdo bo'ldi, ichki bozordagi talabning ortishi u

qadar kuzatilmadi.

1993-yilda hukumat tepasiga kelgan liberallar partiyasi budjet kamomadini bartaraf etishning uzoq muddatli dasturini amalga oshira boshladi. Soliq stavkalari saqlangan holda davlat xarajatlari kamaytirildi. 1998-yilga kelib, jahondagi rivojlangan mamlakatlar ichida birinchi bo‘lib federal budjet kamomadi bartaraf etildi hamda provinsiyalar moliyasi sog‘lomlashtirildi.

2000-yillarning boshlarida ham hukumat tomonidan soliq siyosatiga ba’zi o‘zgartirishlarni kiritilishi eng asosiy vazifalar qatoridan joy oldi. Chunki daromad solig‘i va iste’mol buyumlariga egri soliqlar o‘rtasida katta farq bo‘lgan edi. Shuningdek, ish haqidan olinadigan to‘g‘ri soliq 46 foizga teng edi (taqqoslash uchun: 2000-yillarning boshlarida AQSHda 30 foiz). Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqlarning kattaligi mamlakatga yuqori malakali kadrlarning kirib kelishiga to‘sinqinlik qildi. Ba’zi kanadaliklar esa, asta-sekin AQSH, Avstraliya va Yangi Zelandiya kabi mamlakatlarda yuqori oylik maoshlari evaziga ishlashni ma’qul ko‘rishdi. Shunday bo‘lsa-da, aholi uchun sog‘liqni saqlash xizmatlarining bepulligi, oliy ta’limning arzonligi bilan (federal hukumat oliy maktab xarajatlarining 50 foizini qoplaydi) o‘ziga xos kompensatsiyaga ega bo‘ldi.

To‘rtinchи iqtisodiy rivojlanish davri – 2010-yillar. 1993-yildan Moliya vaziri lavozimida faoliyat ko‘rsatgan Pol Martin keyinchalik 2003-yilda hukumat tepasiga keladi va Kanada Bosh vaziri lavozimini egallaydi. Albatta, Kanadaning XX asrni so‘nggi yillari va XXI asr boshlaridagi iqtisodiy taraqqiyot aynan uning faoliyatiga to‘g‘ri keladi. 2010-yilgacha Kanadaning iqtisodiy o‘sishi jahon iqtisodiyotida ijobjiy ko‘rsatkichlar bilan taraqqiy etdi.

2010-yillarda Kanadaning milliy iqtisodiyoti “Katta yettilik” mamlakatlari ichida eng tez taraqqiy etayotgan mamlakatlar qatoridan joy oldi. Xorijiy investorlarni jalb qilishda asosan G‘arbiy Yevropa mamlakatlarining kompaniyalarini jalb qilishdan manfaatdor bo‘ldilar. Xorijiy investorlar asosan tog‘-kon va neft xomashyosini qayta ishlash hamda oziq-ovqat sanoat tarmoqlariga jalb qilindi. Neft tarmog‘iga AQSH va Fransiya investorlari hamda oziq-ovqat sanoatiga esa Germaniya, Fransiya va Italiya kabi mamlakatlarning eng yirik kompaniyalari jalb qilindi.

2011 va 2012-yillarda jahondagi eng nufuzli jurnallardan biri bo‘lgan “Forbs” reytingiga ko‘ra, jahon mamlakatlarida biznes faoliyati bo‘yicha eng qulay mamlakat sifatida Kanada 1-o‘rinni oldi. Ushbu reytingni ishlab chiqilishida biznes faoliyatini olib borishda eng asosan siyosiy barqarorlik, qog‘ozbozlik va soliq tizimini soddalashtirilganligiga e’tibor qaratiladi. 2011-2016-yillarda jahondagi nufuzli “Ekonomist” jurnali va Jhon banki tomonidan Kanada xorijiy investorlar uchun eng qulay mamlakat sifatida e’lon qilinganligi ham so‘zimizning isbotidir.

Kanada YaIMning o‘sishida uning harbiy mudofaa sohasiga kam xarajatlarni ajratishi, xarajatlar asosan ekologiya, ta’lim, infratuzilma va meditsina xizmati uchun yo‘naltirilishi Kanadaning jahondagi eng rivojlangan mamlakatlaridan biri sifatida qayd etilishiga imkon beradi.

21.5. Kanada milliy iqtisodiyotining rivojlanishida AQSHning ustuvor ahamiyati

Kanadaning iqtisodiy rivojlanishi davrida “hammayoqda paydo bo‘ladigan” AQSHning aralashuv jarayoni ham yuz bermasdan qolmadi. 1948-yilda Kanadaning qayta ishlash sanoatining 39 foizi va tog‘-kon sanoatining 37 foiz ishlab chiqarish ulushiga AQSH o‘zining nazoratini o‘rnatgan edi. Kanadaning iqtisodiy rivojida AQSH bilan olib borilgan savdo munosabatlari katta ahamiyat kasb etgan. U AQSH ko‘magida “Katta yettilik”ka a’zo bo‘lgan. Albatta, Kanada iqtisodiyotining salohiyati jihatidan “Katta yettilik”da oxirgi o‘rinda turadi. Lekin Kanada “Katta yettilik”ning boshqa a’zolaridan xalqaro mehnat taqsimoti va xalqaro savdoga ko‘proq jalb qilinganligi bilan alohida ajralib turadi.

Ikkinci jahon urushidan so‘ng Kanada iqtisodiyotining AQSHga bog‘liqligi yil sayin kuchayib bordi. Chunki, 1940-yillarda Kanada hukumati birinchilardan bo‘lib, avvaliga AQSH hukumatining olib borgan siyosatlarini, jumladan, Trumen siyosatini, keyinchalik Marshall rejasini qo‘llab-quvvatladi. Hatto AQSHning NATO harbiy blyokini tashkil qilinishida va Koreya yarim orolida Kanada AQSHga yaqindan ko‘mak berdi. Buning oqibatida Kanada keyingi yillarda AQSHning “kichik va eng asosiy” hamkoriga aylanib qoldi. AQSHning ko‘plab yirik korporatsiyalari Kanadaning yirik o‘rmon hududlarini, unumli yer maydonlarini, tabiiy resursga boy bo‘lgan

tog‘lik o‘lkalarni (asosan uran va rangli metallarni qazish maqsadida) sotib oldilar. AQSH Kanadaning bank-moliya va qurilish sohalariga ulkan sarmoyalarni olib kirdi.

Hatto 1940-yillarning o‘rtalarida ham amerikaliklar Kanada hududida ishlab chiqargan mahsulotlarini Amerika bozoriga olib kirishida ba’zi to‘sinqinliklarni amalga oshirishdi. Masalan, kanadaliklar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar Amerikaning ichki bozoriga eksport qilinadigan bo‘lsa, aynan o‘sha mahsulotlarning narxi AQSHning ichki bozorlarida sun’iy ravishda pasaytirilar edi va buning oqibati Kanada tashqi savdo-sotig‘ida bir qator moliyaviy qiyinchiliklarga duch kela boshladi. Bunga javoban Kanada Parlamenti tomonidan 1947-yilda “Ebbota rejası” qabul qilinadi. Ushbu “Ebbota reja”sida AQSHdan olinadigan mahsulotlar va ko‘rsatiladigan xizmatlarning miqdori yiliga 350 mln.dollari miqdoriga kamaytirilishi ko‘zda tutildi. Keyinchalik, bu amalga oshirilgan reja faqat Kanada iqtisodiyotiga ziyon yetkazilganligi bilan izohlandi.

1945-yildan so‘ng Kanadaning iqtisodiyotida Britaniyaning aralashuvi kamaygan sari, uning o‘rniga AQSHning aralashuvi kuchayib bordi va 1950-yillarga borib, uning eng asosiy xorijiy sarmoyadori bo‘lib qoldi. Masalan, Kanada iqtisodiyotida AQSHning ulushi 76 foiz bo‘lgan bo‘lsa, Britaniyaning ulushi 16 foizni tashkil qildi. Kanadaning AQSH bilan yil sayin yaqinlashib borishiga Kanada Liberal partiyasining rahbari L.Sen-Loran sababchi bo‘ldi. Chunki, 1947-yilda Tashqi ishlar vaziri lavozimida faoliyat ko‘rsatayotgan vaqtda Britaniyaning azaliy va qadimiy yordamlaridan voz kechib, mamlakatga yaqin va qo‘sni bo‘lgan AQSH bilan iqtisodiy hamkorlikni yanada kuchaytirishni va kelajakda Kanada iqtisodiyoti AQSH bilan chambarchas bog‘liqligini ma’lum qiladi. Keyinchalik, L.Sen-Loran Kanada Bosh vaziri lavozimiga o‘tirgach, Kanada-AQSH mamlakatlari o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik misli ko‘rilmagan darajada rivojlanadi.

1950-yillarda Kanadaning AQSHga tobora yaqinlashib borishiga avvaliga Kanada Liberal partiyasi bosh-qosh bo‘lgach, keyinchalik 1957-1963-yillarda mamlakatdagi ikkinchi buyuk partiya hisoblangan va hukumatni boshqargan Konservativ partiyasi davom ettirdi. Ushbu partiya mamlakatda davlat sektorida faoliyat ko‘rsatayotgan va davlat ixtiyoridagi korxonalarini xususiy sektorga o‘tkazilishi, mamlakat

iqtisodiyotida aynan xususiy sektorda davlatning aralashuvlarini kamaytirish va aralashuv jarayonlarini cheklash hamda mamlakatda ijtimoiy ta'minot bo'yicha muammolarga barham berish bo'yicha faoliyat olib bordi.

1964-yildan esa mamlakat tepasiga Liberal partiyasi kelgach, endilikda antiamerika siyosati boshlandi hamda Kanadaning AQSH bilan siyosiy-iqtisodiy munosabatlarida chigallik yuzaga keldi. Buning natijasida Kanadaning NATOdagi ishtiroki chegaralandi hamda u sobiq Ittifoq va boshqa sobiq sotsialistik mamlakatlар bilan iqtisodiy hamkorliklarni kengaytirish bo'yicha qabul qilingan dasturlar bo'yicha faoliyat olib bordi.

Masalan, 1970-yilda Kanada-Xitoy o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi. 1976-yilda esa birinchi marta Kanada Bosh Vaziri Kubaga rasmiy vizit bilan tashrif buyurdi. 1970-yillarda oldingi yillarga qaraganda Kanada-Yaponiya o'rtasidagi tashqi savdo-sotiq jarayonlari yanada kuchaydi hamda Kanadaning Lotin Amerikasi mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorlik munosabatlari kengaydi. Bu jarayonlar Kanadaning AQSHdan holi va mustaqil sifatida amalga oshirgan tashqi iqtisodiy siyosatidan dalolat berar edi.

1966-yilda Kanada bilan Britaniya o'rtasida ma'lum "sovuj munosabat" yuz berdi. Unga ko'ra, Kanadaning Buyuk Britaniya mamlakati oldida umuman tashqi qarzi yo'qligini hamda Kanada endilikda Buyuk Britaniya bilan xalqaro talablarga mos ravishda o'zaro teng sheriklik tamoyili asosida har qanday xalqaro shartnomalarini tuzishga tayyor ekanligini ma'lum qildi.

O'z o'rnida, bundan keyingi istiqbol yillarda Kanadaning eng asosiy hamkor mamlakati sifatida AQSH tanlanganligini hamda AQSH-Kanada o'rtasidagi ham iqtisodiy ham siyosiy munosabatlar jarayoni orqali integratsiya jarayonini davom ettirishini ma'lum qildi. L. Sen-Loran AQSH ommasi oldida imkon darajada Kanadaning iqtisodiyotiga AQSH sarmoyadorlarini jalb qilishini va ularning Kanada iqtisodiyotiga o'z ulushlarini yanada ko'paytirishini ta'kidlaydi.

1967-yilga kelib esa Kanada hududidagi barcha avtomobil zavodlari va rangli metallarni ishlab chiqarish kompaniyalarining deyarli barchasi xorij sarmoyasi ixtiyorida faoliyat ko'rsatdi. Aniqrog'i AQSH nazorati ostiga olingan edi, chunki ushbu sanoat tarmoqlariga AQSHning ko'plab yirik kapitallari jalb qilindi. Sanoatning boshqa tarmoqlarida esa, masalan, tog'-kon sanoatida xorijiy sarmoyadorlarning 65 foiz ulushi

(shundan 45 foizi AQSHga tegishli), qayta ishslash sanoat tarmog‘ida xorij sarmoyasi 57 foizni (shundan 44 foiz AQSHga tegishli) tashkil qildi.

1980-yillarda mamlakat tepasiga konservatorlar kelgach, hukumatni Brayan Molruni boshqardi. Ushbu yillarda AQSH-Kanada o‘rtasida harbiy-siyosiy aloqalar bo‘yicha hamkorliklar yanada kengaytirildi. Ikki mamlakat o‘rtasida bir qatora harbiy bitimlar imzolandi. Eng muhimmi, 1988-yilda ikki mamlakat o‘rtasida “Kanada va AQSH o‘rtasidagi erkin savdo bo‘yicha” bitim imzolandi. Ushbu bitimga ko‘ra, ikki mamlakat o‘rtasidagi tashqi savdo-sotiq jarayonlarida har qanday tariflar va to‘siqlar olib tashlandi.

AQSHda nokonservativ islohotlar muvaffaqiyatli yakunlangandan so‘ng, 1984-yilda kanadalik islohotchilar ham shunga o‘xhash vazifalarni amalga oshira boshlashdi. 1980-yillarning o‘rtalarida mamlakat iqtisodiyotida olib borilgan qayta qurishlar AQSHda qo‘llanilgan “Reyganomika”ning asosiy dasturlarini eslatadi. Islohotlarning zarurligini iqtisodiyotda an’anaviy ravishda davlat rolining kattaligi bilan tushuntirish mumkin. Eng asosiy tarmoqlar davlat ixtiyorida bo‘lgan. Davlat tovar va xizmatlarning asosiy ishlab chiqaruvchisiga aylangan edi. Energetika, transport va aloqalar ham davlat ixtiyorida bo‘lgan. Kanadada olib borilgan nokonservativ islohotlarning dastlabki natijalari kutilganicha bo‘lmadi.

Demak, Kanada bilan AQSH o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning yangi bosqichi 1988-yilda imzolangan “Kanada va AQSH o‘rtasidagi erkin savdo bo‘yicha” bitimi 1989-yildan kuchga kirdi. Ushbu kelishuv natijasida ikki mamlakatning ishbilarmonlari va tadbirkorlarining biznes bilan shug‘ullanishi uchun juda ham qulay imkoniyatlar tug‘ildi.

21.6. Kanada iqtisodiyoti tuzilmasi

Kanada iqtisodiyoti tarkibi quyidagicha: YaIMda qishloq xo‘jaligi ulushi – 2 foiz, sanoatning ulushi – 22 foiz (shu jumladan, qayta ishslash sanoatining ulushi – 23 foiz), xizmat ko‘rsatish sohasining ulushi YaIMning 76 foizni tashkil qiladi. Kanada iqtisodiyotida sanoat tarmoqlarini modernizatsiyalash jarayonining birinchi davri Ikkinci jahon urushidan keyingi yillarda sodir bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi davri esa XX asrning 80-yillarida amalga oshirildi. Sanoatning rivojlanishida hukumat asosan tog‘-kon, neft-ximiya, avtomobilsozlik, samolyotsozlik, elektron sanoat va to‘qimachilik tarmoqlari tashkil qilinishiga va ularni

rivojlantirishga ahamiyat berdi. Sanoatda yaqin yillargacha neft, gaz va o'rmon sanoati ustuvor edi. Hozirda esa, eng muhim xomashyo tovarlarining jahon narxlarini pasayishi va ularga talabning kamayishi natijasida quyidagi ilmtalab sohalar sanoat taraqqiyotida oldingi o'ringa chiqdi:

- “nou-xau” asosida elektron mahsulotlar va ilg‘or zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqarish;
- telekommunikatsiya vositalarini ishlab chiqarish;
- farmatsevtika sanoati;
- aerokosmos sanoati;
- yangi konstruktiv materiallar (polimerlar, plastmassalar va sintetik materiallar) sanoati.

Avtomobillar ishlab chiqarish sanoati uchun butlovchi va ehtiyyot qismlarini ishlab chiqarish hajmi ham ortib bormoqda. Kanada avtomobilsozlik sanoat tarmog'i AQSH va Yaponiya kompaniyalarning shaxobchalari va sho'ba korxonalariga asoslangan. Sanoatda neftni qayta ishslash hamda kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish tarmoqlari yil sayin tobora rivojlanib bormoqda. Transport mashinasozligi: ekskavatorlar, lokomotiv va uning vagonlari, samolyotlar, suv mototsikllari, aviasozlik ham milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari hisoblanadi. Kanadada kompyuter industriyasi ham jadal rivojlanib bormoqda.

Yalimo asosiy ulushni xizmatlar ko'rsatish sohasi tashkil qilganligi sababli, xizmat ko'rsatishda quyidagi sohalarda ulkan muvaffaqiyatga erishilmoqda: ulgurji savdo, tadbirkorlar tarmog'i uchun biznes-xizmatlar ko'rsatish, mehmonxona xo'jaligi, umumiy ovqatlanish, telekommunikatsiya sohasi kabilar. Sanoat tarmoqlari xorijiy kapitallarning hisobiga jumladan, asosan amerikalik sarmoyadorlarning evaziga taraqqiy etmoqda. Ayniqsa, avtomobilsozlik va aviasozlik sanoati to'la amerikalik sarmoyadorlarning nazoratidadir.

Energetika majmuasi va uni ishlab chiqarishda Kanada dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy olgan va u dunyoda energiya ishlab chiqarish miqdori bo'yicha 5-o'rinda turadi. Elektr energiyaning yarmini mamlakatda qurilgan GESlar beradi. Ko'plab yirik Issiqlik elektr stansiyalari Toronto va Vankuver shaharlariga yaqin hududlarda qurilgan. Umumiy energiyaning 18 foizini AESlar beradi. AESlar Ontario, Kvebek va Nyu-Bransuik provinsiyalarida qurilgan.

Asosiy neft va tabiiy gaz qazib chiqaradigan hududlari Alberta, Saskachevana va Britaniya Kolumbiyasini provinsiyalarida

mujassamlangan. Bu provinsiyalarda Shimoliy Amerika qit'asidagi eng yirik neft konlari, jumladan, Pembina, Reduoter va Zama hududlari mavjud.

Tog'-kon sanoati mamlakatning eksportida muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatning asosiy tog'-kon zavodlari janub hududlarda joylashgan, ya'ni Sadberi, Sallivan, Noranda va Flin-Flon shaharlari yon bag'rida. Mashinasozlik sanoat tarmoqlarining asosiy markazlari - Toronto, Montreal, Uinsor, Gamilton, Ottava, Galifaks va Vankuver shaharlaridir.

Kanada mineral o'g'itlarni ishlab chiqarish miqdori bo'yicha dunyoda 4-o'rinda turadi. Yog'och-qog'oz sanoatida mamlakatning boy o'rmonlari uning xomashyosi hisoblanadi. Yog'och tayyorlash bo'yicha dunyoda 5-o'rinda, yog'och arralarini va turli xil qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda 3-o'rinda turadi. Lekin ushbu mahsulotlarning eksporti bo'yicha Kanada dunyoda 1-o'rinda turadi. Yog'och zaxirasi bo'yicha ham Kanada dunyoda Rossiya va Braziliyadan so'ng 3-o'rinda turadi.

Qishloq xo'jaligi Saskachevan, Manitoba va Ontario kabi provinsiyalarda rivojlangan. Asosiy ekinlar bug'doy va makkajo'xori sanaladi. 70 foizga yaqin fermerlarning asli kelib chiqishi Ukrainianadan bo'lgan kanadaliklardir. Urushdan keyingi yillarda mamlakat yiliga 500 mln.tonnagacha bug'doy yetishtirar edi. Kanada bug'doy yetishtirish miqdori bo'yicha uzoq yillardan buyon 1-o'rinda bo'lgan. 1952-yilgacha mamlakat qishloq xo'jaligida umuman muammolar mavjud bo'lmasagan edi. Chunki shu davrgacha Kanada qishloq xo'jaligi tarmoqlarida asosiy ekin bug'doy yetishtirilishi sababli, boshqa qishloq ekinlariga jiddiy e'tibor qaratilmagan edi.

Qishloq xo'jaligidagi asosiy yuzaga kelgan muammo, bu mamlakatning turli hududlarida yetishtirilgan bug'doy mahsulotlarini xorijga eksport qilishda ushbu mahsulotlarning dengiz portlarigacha yetkazib berishdagi transport muammosi bo'ldi. Chunki transport muammosi, aynan mamlakatning ichki hududlarida avtomobil yoki temiryo'llar transportining olis hududlarida joylashganligi bilan izohlandi.

Masalan, 1952-yilda xorijga eksport qilish uchun transport vositalarining yetishmasligi oqibatida don omborlarida minglab tonna bug'doylar qolib ketgan edi. Buning oqibatida aksariyat fermerlarning faoliyatiga qattiq salbiy ta'sir ko'rsatdi. Hatto hukumatning don

zaxiralari bo‘yicha yig‘iladigan miqdorlaridan ham ikki marta ortiq don zaxiralari yig‘ib qo‘yilishiga majbur bo‘ldi. Buning natijasida kanadalik fermerlarning bug‘doy yetishtirish faoliyatlarining keyingi yillarda susayishiga olib keldi. Vinnipeg - mamlakatning “bug‘doy mahsuloti poytaxti” va “non-shahri” ham deb yuritiladi. Bunga sabab, shaharda yuzlab xususiy korxonalar bug‘doydan turli xil mahsulotlar ishlab chiqaradi. Fermer xo‘jaliklarning egallagan yer maydoni jami yer maydonining 10 foizini tashkil qiladi. Fermerlarning yetishtiradigan mahsulotlari taxminan 110 mln.dan ortiq aholini to‘la oziq-ovqat bilan ta’minlaydi.

Bob yuzasidan xulosa

Yuqoridagi Kanada iqtisodiyoti mavzusining tahlilidan ko‘rinib turibdiki, Kanadaning iqtisodiy rivojlanishida AhSH bilan olib borilgan iqtisodiy hamkorlik va savdo munosabatlari katta ahamiyat kasb etgan. Kanada AQSH ko‘magida bir qator xalqaro tashkilotlarga a’zo bo‘lgan, jumladan “Katta yettilik” tashkilotiga. Albatta, Kanada iqtisodiyotining salohiyati jihatidan “Katta yettilik”da oxirgi o‘rinda tursa-da, biroq “Katta yettilik”ning boshqa a’zolaridan xalqaro mehnat taqsimoti, aholining turmush darajasi, ekologiya va xalqaro savdoga ko‘proq jalb qilinganligi bilan alohida ajralib turishini ta’kidlab o‘tdik.

Shunday qilib, Kanada iqtisodiyoti rivojlanishining eng asosiy xususiyatlarining birinchisi AQSHning iqtisodiy hamkorligi bo‘lsa, ikkinchisi xorijiy mamlakatlardan jalb qilinadigan migrantlarning ahamiyatidir. Nima sababdan Kanada doimiy ravishda xorijlik migrantlarni jalb qilishdan manfaatdor? Buning sababi shundaki, Kanadaning umumiylar yerdagi maydoni katta, biroq aholi soni kam. Shunga ko‘ra, Kanada iqtisodiy taraqqiyot darajasini yanada rivojlantirishini istasa, u holda har yili xorijiy mamlakatlardan ishchi kuchini jalb qilishi lozim. Shuningdek, yaqin 10 yil ichida qariyb 9 mln. nafar aholini nafaqaga chiqishini hisobga olsak, u holda hukumatning oldida iqtisodiyot sohalariga qo‘srimcha ravishda xorijiy mamlakatlardan kamida 5 mln.ga yaqin ishchi kuchini jalb qilishga majbur bo‘ladi.

Nazorat savollari

1. Kanadaning umumiylar iqtisodiy-geografik tavsifini ayting.
2. Kanada qanday tabiiy boyliklarga va mineral resurslarga ega?
3. Kanadaning jahondagi iqtisodiy salohiyatini aytib bering.

4. Kanada aholisi va uning tizimini ayting..
5. Kanadaning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini ayting.
6. Kanada iqtisodiy rivojlanishining asosiy xususiyatlarini ayting.
7. Kanada-AQSH o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorligining asosiy yo‘nalishlarini ayting.
8. Kanada bilan AQSH o‘rtasida iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha qanday bitim imzolangan?
9. 1960-yillarda qanday ichki siyosiy inqirozlar yuzaga keldi?
10. 1960-yillarda Kanada iqtisodiyoti qaysi dasturning amalga oshirilishi natijasida rivojlandi?
11. Nima uchun Kanadani “immigrantlar mamlakati” deyishadi?
12. Hozirgi kunda Kanada xorijiy migrantlarni jalb qilishi uchun qanday dasturni tatbiq qilgan?
13. Kanada iqtisodiyotida sanoatning qaysi tarmoqlari ustuvor?
14. 1990-yillar soliq siyosatida qanday muammolar mavjud bo‘lgan?
15. Kanada qaysi mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni eksporti bo‘yicha jahon iqtisodiyotida yetakchi o‘rinni egallagan?

Uyga vazifa!

Talabaning “Kanadaning iqtisodiy rivojlanishi” mavzusini chuqr o‘zlashtirishi hamda amaliyat darsiga puxta tayyorgarlik ko‘rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

- 1) mavzu so‘ngida berilgan “Nazorat savollari”ga tayyorgarlik ko‘rish;
- 2) Kanadaning hududini xarita orqali iqtisodiy-geografik joylanishuvini ko‘rib chiqish;
- 3) Kanada umumiy tashqi savdosining eksport va import tarkibidagi asosiy mahsulotlar va ularning geografik yo‘nalishlari bo‘yicha jadval ishlab chiqish;
- 4) Kanada iqtisodiyotining sanoati, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohasi bo‘yicha talabalar guruhlarga bo‘lingan holda “Taqdimot” o‘tkaziladi.

XXII BOB. JAHON XO‘JALIGIDA YANGI INDUSTRIAL MAMLAKATLARINING VUJUDGA KELISHI

- 1. Yangi industrial mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga umumiyl tavsif.**
- 2. Yangi industrial mamlakatlari iqtisodiyoti taraqqiyotining asosiy omillari.**
- 3. Jalon iqtisodiyotida Yangi industrial mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish tamoyillari.**
- 4. Jalon xo‘jaligida “To‘rt ajdarho mamlakatlari” va Lotin Amerikasi Yangi industrial mamlakatlarning iqtisodiyoti.**
- 5. Yangi industrial mamlakatlar – xalqaro mehnat taqsimoti tizimida.**

Tayanch iboralar: “to‘rt ajdarho mamlakatlari”, “yangi industrial mamlakatlar”, agrar-industrial, industrial, yuqori darajada rivojlanayotgan, o‘rtacha darajada rivojlanayotgan, past rivojlangan mamlakatlar, nota, “qo‘shma deklaratsiya”, birja.

22.1. Yangi industrial mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga umumiyl tavsif

Jahon xo‘jaligida XX asrning 60-70-yillarda rivojlanayotgan mamlakatlarning tez iqtisodiy taraqqiyoti natijasida “Yangi industrial mamlakatlar” (YaIM) vujudga keldi. Jalon iqtisodiyotida rivojlanayotgan mamlakatlarning ko‘pchiligidan YaIM o‘zining iqtisodiy ko‘rsatkichlari va iqtisodiy taraqqiyotining bir qator xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi. YaIMni rivojlanayotgan mamlakatlardan farqlanib turuvchi xususiyatlaridan biri shundaki, uning iqtisodiy salohiyati va rivojlanish darajasining jahon iqtisodiyotida rivojlangan mamlakatlardan ham ajralib turishligidir, ya’ni ularning rivojlanishi “yangi industrial” rivojlanish modeli sifatida mavjudligidir. Bunday xususiyatga ega bo‘lgan mamlakatlar, jahon xo‘jaligining Osiyo-Tinch okeani mintaqasida va Lotin Amerikasidagi YaIMning iqtisodiy rivojlanish tajribasini chuqur tahlil qilish jarayonida ko‘zga tashlangan edi.

Odatda rivojlanayotgan YaIM qatoriga Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi Janubiy Koreya, Tayvan, Gonkong, Singapur kabi mamlakatlar bilan bir qatorda Lotin Amerikasidagi Argentina, Braziliya, Meksika kabi mamlakatlar taalluqlidir.

Ma'lumki, jahon xo'jaligida Osiyodagi YaIMni, jumladan Janubiy Koreya, Singapur, Tayvan va Gonkongni "To'rt ajdarho mamlakatlari" hamda Malayziya, Tailand, Indoneziya va Filippin mamlakatlarini "To'rtta kichik yo'lbars mamlakatlari" deb nomlanadi. Biroq, Yuqorida qayd etib o'tilgan barcha mamlakatlar YaIMlarning birinchi avlodlari yoki birinchi qaldirg'ochlari hisoblanadi. Ulardan keyin o'z milliy iqtisodiyotlarini shakllantirgan "To'rtta kichik yo'lbars mamlakatlari" YaIMning keyingi avlodlari hisoblanishadi.

BMT tomonidan ishlab chiqilgan uslubiyot (metodika) bo'yicha YaIM qatoriga kiruvchi mamlakatlar u yoki bu mezonlar bo'yicha alohida ajralib turadi. Ushbu mezonlar quyidagilardan iboratdir:

- aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIMlarning miqdori;
- yalpi ichki mahsulotning o'rtacha yillik o'sish sur'ati;
- YaIM tarkibidagi qayta ishslash sanoatining umumiyligi miqdori (kamida 20 foiz atrofida bo'lishi lozim);
- ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiyligi miqdoriga nisbatan sanoat mahsulotlarining ulushi va eksport hajmining miqdori;
- xorijiy mamlakatlarga chiqariladigan to'g'ridan to'g'ri yo'naltirilgan investitsiyalarning umumiyligi miqdori va boshqa mezonlarni tashkil qiladi.

YaIM ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlardan ajralib turadi, balki bir qator sanoati rivojlangan mamlakatlardan ham ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha ustunlikka egadir.

Masalan, Tayvan, 1950-2019-yillarda aholi jon boshiga YaIM hajmini deyarli 200 marotabaga oshirgan (bu iqtisodiy ko'rsatkich aholining o'sishiga nisbatan 2,5 marotaba ortiqroqdir). Tashqi savdo hajmini esa 620 marotabaga oshirdi. Mamlakatning inflatsiya darajasi o'rtacha 3,6 foizni hamda iqtisodiy o'sishning o'rtacha yillik sur'ati 8-10 foizni tashkil etgan edi. Shunday qilib, XX asrning 80-yillariga kelib, Tayvan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha dunyoning ilg'or mamlakatlari qatoriga kiritilgan bo'lib, uning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yillik daromadi 30 ming dollardan oshgan edi.

Jahon xo'jaligi tarixiga nazar solamiz: 1960-1990-yillarda Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish sur'atlari tahlil qilinganda ularning iqtisodiy ko'rsatkichi yiliga o'rtacha kamida 5 foizni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin (mazkur ko'rsatkich bo'yicha o'sha davrda Yevropa mamlakatlarida o'rtacha 2

foiz tashkil qilgan). Ushbu yillarda, Tayvanda yillik iqtisodiy o'sish sur'ati juda yuqori bo'lib, o'rtacha yiliga 8,7 foizni tashkil etgan. 1990-yillarda unga qo'shni bo'lgan Janubiy Koreya va Singapur kabi mamlakatlarda esa yillik o'sish sur'atlari 8 foizni, Malayziyada esa 9 foizni tashkil etgan.

Jahon iqtisodiyotida YaIMning iqtisodiy rivojlanish darajasi va YaIMning tez sur'atlarda o'sishi natijasida ularning aholi turmush tarzini yuqori darajada shakllanganligini ta'kidlash lozim. 1970-2020-yillarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yillik daromad rivojlanayotgan YaIMda 5 marotabaga o'sdi.

Jahon banki tahlillariga ko'ra, Janubi-Sharqiy Osiyodagi YaIMning iqtisodiy o'sish sur'atlari oldingi yillardagi kabi yana 10 yil davom etadigan bo'lsa, u holda 2030-yilga borib G'arbiy Yevropaning rivojlangan mamlakatlarini YaIMning hajmi bo'yicha quvib o'tishi, 2040-yillarga borib esa, Shimoliy Amerikadan ham o'zib ketishi bashorat qilinmoqda. Faqat ularning pandemiya sharoitidan qay darajada "sog'lom" holatda chiqishiga va inqirozdan qanchalik qutulishiga bog'liq, albatta. Agarda pandemiya davrida Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi YaIMning milliy iqtisodiyotlari inqirozdan talafot bilan chiqadigan bo'lsa, u holda ularning kelajak yillardagi bashoratiga yana kamida 5-6-yil qo'shish lozim bo'ladi.

Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasining YaIMdanbiri Singapur 1995-yilda Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi davlatlari ichida birinchi bo'lib "industrial rivojlangan mamlakat" statusini qo'lga kiritgan mamlakat bo'ldi. Bunday "unvon" unga Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (IHRT) tomonidan rasman e'lon qilindi. Chunki Singapur milliy iqtisodiyoti barqaror o'sishining 3 yilligi davomida nisbatan past rivojlangan 10 ta rivojlanayotgan mamlakatlar doirasidan ajralib chiqib, dunyoning boy rivojlangan davlatlari qatoridan joy oldi (albatta, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM hisobiga).

22.2. "Yangi industrial mamlakatlari" iqtisodiyoti taraqqiyotining asosiy omillari

Jahon xo'jaligida "Yangi industrial mamlakatlar"ning milliy iqtisodiyoti quyidagi asosiy sabablarga ko'ra taraqqiy etdi, jumladan:

1. *Iqtisodiy-geografik ahvolini va sharoitni qulayligi.* Gonkong, Braziliya, Singapur, Janubiy Koreya, Tayvan va Meksika kabi mamlakatlarining iqtisodiy-geografik joylanishuvi nihoyatda qulay

bo‘lib, ularning tashqi savdosida suv transporti muhim ahamiyati kasb etdi. Ayniqsa Singapur va Gonkongning asosiy hududlarini dengiz o‘rab turganligi sababli, qolaversa ushbu mamlakatlar joylashgan hududdan xalqaro dengiz yo‘llari o‘tganligi sababli ham ularning iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shtiradi.

2. *Mamlakat iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligining ahamiyati*. Ushbu omil YaIMdan faqatgina Braziliya, Meksika va qisman Tayvanga tegishlidir. Braziliya va Tayvan milliy iqtisodiyotida agrar sohasining rivojlanishi va uning tarmoqlarida yetishtirilgan mahsulotlar yilning barcha mavsumlarida to‘xtovsiz yetkazib beriladi va uning tashqi savdosida ham qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetakchi o‘rnlarning birini egallagan. Tayvan esa, qishloq xo‘jaligi sohasini rivojlantirib, 1950-yillardagi “qolooq” va oziq-ovqatga muhtojligini yengib o‘tdi. Qishloq xo‘jaligida yetishtiriladigan eng asosiy sholi eksportini 1984-yildan boshlagan edi.

3. *Milliy iqtisodiyotning rivojlantirishda tatbiq qilingan chora-tadbirlari, dasturlar va iqtisodiy islohotlari*. Barcha YaIMda sanoat tarmoqlarini tashkil qilish va ularning faoliyatini rivojlantirish, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xorijga eksportga chiqarish, investitsiya siyosati va xorijiy investorlarni jalgan qilish, zamonaviy texnologiyalarni rivojlangan xorijiy mamlakatlardan jalgan qilishda chora-tadbirlar va dasturlar muhim ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, Janubi Koreya 1973-yilda 7 ta sanoat tarmog‘ini jahon iqtisodiyotida yetakchi ilg‘or sanoat tarmoqlariga aylantirish uchun “Maqsadli taraqqiyot” iqtisodiy dasturini va maxsus qonunlarni ishlab chiqardi. Bu sanoat tarmoqlari - mashinasozlik, elektronika, to‘qimachilik, qora metallurgiya, rangli metallurgiya, neft-ximiya va kemasozlik tarmoqlaridir.

Janubiy Koreya iqtisodiyotida 1980-1993-yillarda liberalizatsiya siyosati, ya’ni erkin bozor iqtisodiyotini shakllantirdi. Ushbu davrda mamlakatda tashqi iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirish uchun o‘zining bozorlarini tashqi xorijiy xaridorlar uchun ochib beradi, ya’ni “ochiq eshiklar siyosati”ni olib bordi. 1973-79-yillarda hukumat tomonidan tatbiq qilingan dastur va chora-tadbirlar mamlakat milliy iqtisodiyotini jahon xo‘jaligiga olib chiqdi. Ushbu davr Janubiy Koreya iqtisodiyoti tarixida “eng rivojlangan iqtisodiy davr” deb muhrlandi.

4. *Fan va texnika omili*. YaIM milliy iqtisodiyotining taraqqiyotida fan va texnika omili asosan Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi mamlakatlariga tegishlidir. Masalan, Janubiy Koreya davlati ham

Yaponiya singari 1960-70-yillarda fan va ilmni yanada rivojlantirish maqsadida ko‘pdan ko‘p mablag‘larni ilmiy tekshirish institutlarga yo‘naltirdi va bu jarayon bugungi kungacha ham davom etmoqda.

5. *Eksportni rivojlanishi*. Albatta, ushbu omil YaIMning barchasiga tegishlidir, biroq, ularning barchasidan ko‘ra Janubiy Koreya yaqqol favoritdir. 1962-1972-yillarda mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni yalpi eksportga chiqarilishi, ya’ni mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida eksport modeli ustun darajada ahamiyat kasb etgan. 1960-yildan 1990-yillar mobaynida eksport yiliga o‘rtacha 30 foizga o‘sdi, 1961-yildan 1971-yilgacha esa, mamlakat iqtisodiyoti tarixida eksportning eng ko‘p o‘sishi kuzatilgan bo‘lib, ushbu yillarda yiliga eksport hajmining umumiy miqdori yiliga 36 foizdan o‘sgan. Umuman olganda, Janubiy Koreya jahon xo‘jaligida 1964-yildan 2008-yillar oralig‘ida uning eksporti yiliga o‘rtacha 22,4 foizdan o‘sgan hamda eksport miqdorining uzoq yillar mobaynida eksportning o‘rtacha o‘sish ko‘rsatkichi hozirgi kungacha jahon xo‘jaligida eksport borasidagi rekord ko‘rsatkich hisoblanadi.

6. *Xorijiy sarmoyadorlarni jalg qilinishi*. YaIM milliy iqtisodiyotning turli sohalariga G‘arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikaning yirik investorlarini jalg qilishgan. Bugungi kunda ham Gonkong va Singapurda faoliyat ko‘rsatayotgan yirik TMKlar Buyuk Britaniyaga tegishli ekanligi hamda Tayvan va Janubiy Koreyada AQSH va Kanada mamlakatlarining o‘nlab TMKlari faoliyatları saqlab qolingga. Koreya Respublikasi tomonidan 1960-yillarda AQSH, Yaponiya va boshqa yetakchi mamlakatlardan xorijiy investorlarni jalg qilganlar.

7. *YaIMning iqtisodiy taraqqiyotida AQSHning iqtisodiy hamkorligi*. AQSHning siyosiy manfaatlari asosan Sharqiy Osiyo mamlakatlarining sobiq Ittifoqning hamkorlari ta’siriga qarshi turuvchi siyosiy manfaatlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan edi (jumladan Tayvan Xitoya qarshi va Janubiy Koreyaning Shimoliy Koreyaga qarshi).

AQSHning yirik moliyaviy yordami tufayli Tayvan milliy iqtisodiyoti har tomonlama rivojlandi. AQSH Tayvanning XX asrning 50-yillaridan to 60-yillarigacha bo‘lgan iqtisodiy rivojlanish davrida yiliga 500-700 mln. dollar miqdorida kredit mablag‘lari yordamini berdi. Berilgan kredit mablag‘lari faqat Tayvanning milliy iqtisodiyotini rivojlantirishga va asosan sanoat tarmoqlarini keng ko‘lamda tashkil

qilinishiga hamda uni rivojlantirishga sarf-xarajat qilindi. AQSHning bergan iqtisodiy yordam evaziga, ushbu mamlakatlardan tomonidan o‘z hududlarida AQSHning harbiy bazalarini qurishga ruxsat berilganligini ham ta’kidlab o‘tish lozim.

1950-1965-yillarda AQSHning iqtisodiy yordami Tayvanning umumiy jalg qilingan xorijiy investitsiyalarning 34 foizini tashkil etdi. AQSHdan jalg qilingan investitsiyalarning 14 foizi infratuzilmani yaxshilashga, 59 foizi qishloq xo‘jaligiga, 13 foizi sanoat ishlab chiqarishi va boshqa sohalarga jalg etilgan edi. Xullas, bularning barchasi Tayvan iqtisodiyotining rivojlanishida tashlangan ijobjiy qadam bo‘ldi.

8. *Xorijiy texnologiyaning import qilinishi*. Deyarli barcha YaIM milliy iqtisodiyoti sanoat tarmoqlarining rivojlanishi uchun jahondagi rivojlangan mamlakatlaridan xorijiy texnologiya va asbob-uskunalarni import qildi. Janubiy Koreya xorijiy rivojlangan mamlakatlardan ilg‘or va zamonaviy texnologiya sotib olish miqdori bo‘yicha 1984-yilgacha jahondagi “eng yirik texnologiya importchisi” hisoblangan. Biroq, 1984-yilda u o‘z o‘rnini Xitoya bo‘shatib bergen.

9. *Milliy iqtisodiyotni rivojlanishida turizmning ahamiyati*. Singapur, Gonkong, Braziliya va Meksika kabi mamlakatlarda xorijiy sayyoohlarni jalg qilish borasida ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ayniqsa, infratuzilmalarni yaxshilash, obodonlashtirish, tarixiy obidalarni ta’mirlash, yirik pansionatlar qurish, qirg‘oqbo‘yi hududlarda oromgohlar qurish, transport, savdo va boshqa turli xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e’tibor berildi.

10. *Milliy iqtisodiyotning rivojlanishida Erkin iqtisodiy hududlarning ustuvor ahamiyati*. YaIMning barchasida erkin iqtisodiy hududlar tashkil qilindi va ularda ishlab chiqarilgan mahsulotlar jahon bozoriga yo‘naltirildi. Singapur va Gonkongning erkin savdo hududi deb e’lon qilinishi, Braziliyada tashkil qilingan “Manaus erkin iqtisodiy hududi”ning faoliyati jahon iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etdi.

11. *Tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi*. Tayvan, Gonkong, Braziliya va Meksika mamlakatlarida tadbirkorlik faoliyati juda tez sur’atlarda rivojlandi. Ayniqsa, Tayvanda “Milliy oilaviy biznes”ning rivojlanishi natijasida Tayvan milliy iqtisodiyotini “oyoqqa turg‘ishi”ga eng asosiy sababchi bo‘ldi.

22.3. Jahon iqtisodiyotida Yangi industrial mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish tamoyillari

Jahon iqtisodiyotida YaIMning iqtisodiy rivojlanish modeli va ularning muvaffaqiyatli rivojlanish darajalari tahlil qilib chiqilganda, ularning tashqi va ichki omillari xususida ham to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Ushbu omillarning bu ikki guruhlari, ya’ni ichki va tashqi omillar YaIMlarning hukumatlari tomonidan olib borilayotgan maqsadli iqtisodiy siyosatlari orqaligina aniqlash imkonini beradi. Jahon mamlakatlarini iqtisodiy rivojlanish jarayonlari shuni ko‘rsatmoqdaki, jahonning u yoki bu mamlakatlari xalqaro iqtisodiy hamkorlikka faol kirishayotganda asosiy boshlang‘ich pog‘onadagi ishni xorijiy investitsiyalarni jalg etish hamda tashqi savdoning o‘sishiga zaruriy bo‘lib hisoblanadigan shart-sharoitlarni yaratishdan boshlaydi.

Shunday ekan, bu mamlakatlar o‘z iqtisodiy rivojlanishlari doirasida texnologik ishlab chiqarishning barcha bo‘g‘inlaridan keng foydalangan holda ularni tarkibiy jihatdan qayta qurishga, ishlab chiqarishda tayyor xomashyolardan texnologik sig‘imi yuqori bo‘lgan tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayoniga o‘ta boshlaydi. Ishlab chiqarishda xo‘jalik tarmoqlarni rivojlantirish va qayta ta’mirlash uchun eksportdan tushadigan valuta tushumlaridan (daromadlardan) keng foydalanish xalqaro mehnat taqsimoti ko‘lamida ancha istiqbolli va “foydali” usul bo‘lib hisoblanadi.

XX asrning 60-yillarida Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasidagi YaIMlar ham xuddi ana shu yo‘llar orqali rivojlanishning ilk bosqichiga qadam qo‘ygan edi. Ushbu davlatlarning barchasi iqtisodiy o‘sishning tashqi omillaridan samarali foydalandilar. Shu o‘rinda, sanoati rivojlangan mamlakatlardan xorijiy sarmoyalari, texnika va texnologiyalarni keng miqyosda jalg qilinganligini ta’kidlab o‘tish lozimdir. Xullas, jahon iqtisodiyotida shunday savol tug‘iladi – qaysi jihatlari bilan “Yangi industrial mamlakatlar”ni rivojlanayotgan dunyodagi boshqa mamlakatlardan alohida ajratib ko‘rsatish mumkin?

Ma’lumki, bir qator sabablarga ko‘ra, YaIMning ba’zi birlari sanoati rivojlangan yetakchi mamlakatlarning muhim siyosiy va iqtisodiy manfaatlar ta’siri doirasiga tushib qolganligini ko‘rishimiz mumkin. YaIMlarni zamonaviy milliy iqtisodiyot tarkibining shakllanishida, bevosita yo‘naltirilgan investitsiyalarning ta’siri doirasi ham katta bo‘lmoqda. XX asrning 80-yillarini birinchi yarmida YaIMlar

iqtisodiyotiga bevosita yo‘naltirilgan investitsiyalarni umumiy miqdori – jahon xo‘jaligidagi rivojlanayotgan mamlakatlarga bevosita yo‘naltirilgan sarmoya quyilmalarini 42 foizini tashkil qilgan.

Sanoati rivojlangan mamlakatlar orasida AQSH YaIMdagi ishbilarmonlik sarmoyalarining eng ko‘zga ko‘ringan investori bo‘lib hisoblanadi. Ulardagi to‘g‘ridan to‘g‘ri yo‘naltirilgan investitsiyalarning o‘sishi, xorijiy mamlakatlardagi xuddi shunday investitsiyalar umumiy miqdorining 10 foizini tashkil etadi.

Yaponiya xuddi shu yillarda, ya’ni XX asrning 80-yillarida YaIMga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirilgan investitsiyalarning miqdori bo‘yicha jahon mamlakatlari ichida ikkinchi o‘rinda turgan edi. Yaponiya investitsiyalari YaIMlarning industriallashuviga va ularning eksport tovarlari raqobatbardoshligini oshirishga imkoniyat yaratib, YaIMlar sanoatida qayta ishlanadigan mahsulotlarning yirik eksportyorlaridan biriga aylanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Yaponiya investitsiyalarini kirib kelishi birgina 1982-1985-yillarda Gonkongda 61 foizga o‘sgan edi.

Yaponiya sarmoyalarining ishtirokida, ushbu mamlakatlarda yuqori sifatli tayyor mahsulotlarni ekportyorlari bo‘lib qolishiga imkon beruvchi yirik ishlab chiqarish bazasi tashkil etildi. XX asrning 80-yillari boshlarida Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasidagi YaIMda Yaponiya investitsiyalari umumiy miqdorining yarmisidan ko‘prog‘ini tashkil etgan edi. Xullas, yapon investorlari ishtirokida YaIMlarda zamonaviy stanoklar, elektronika jihozlari, kemasozlik va boshqa bir qator ishlab chiqarish bo‘yicha yirik majmualar barpo etildi.

Osiyoning YaIMlarning iqtisodiy taraqqiyotida tadbirkorlik sarmoyalari, eng birinchi galda, qayta ishlash sanoati va xomashyo tarmoqlarini rivojlantirishga yo‘naltirildi. O‘z navbatida, Lotin Amerikasining YaIMlarida esa ishbilarmonlik sarmoyalari ko‘proq savdo, xizmat ko‘rsatish sohalari va qayta ishlash sanoat tarmoqlariga jalg etildi. Xullas, jahon iqtisodiyotida xorijiy sarmoyalarning keng miqyosda tarqalishi shu narsaga olib keldiki, YaIMlarda xorijiy sarmoyalari ishtirok etmagan birorta ham iqtisodiy tarmoq qolmagan edi. Bugungi kunda esa, Janubi-Sharqiy Osiyo YaIM o‘z investitsiyalarini mintaqadagi ASEAN mamlakatlariga bevosita kiritish siyosatini olib boryotgani ushbu mamlakatlarning iqtisodiy holati tahlilidan ko‘rish mumkin, albatta.

22.4. Jahon xo‘jaligida “To‘rt ajdarho mamlakatlari” va Lotin Amerikasi Yangi industrial mamlakatlarining iqtisodiyoti

Koreya Respublikasi iqtisodiyoti. Koreya Respublikasi – Sharqiy Osiyoda, Koreya yarim orolida joylashgan mamlakatdir. Shimolda Koreya Xalq Demokratik Respublikasi (KXDR) bilan chegaradosh. Poytaxti – Seul shahri. XX asrning 50-yillarning boshlaridagi Koreya yarim orolidagi urush natijasida koreys xalqi ikki mamlakatga bo‘linib ketgan: shimolda KXDR va janubda Koreya Respublikasi. Shuning uchun ham jahon ommasi Koreya Respublikasini oddiygina “Janubiy Koreya” nomi bilan atashadi. Uning yer maydoni 222,2 ming km.kv. bo‘lib, uning kattaligi taxminan Buyuk Britaniya yoki Ruminiya hududlariga tengdir. Uning umumiy yer maydonining 45 foizida qishloq xo‘jaligi tarmoqlari bilan foydalanishga qulaylik mavjuddir. Ishsizlik darajasi – 5,2 foiz.

YaIM miqdori 1,64 trln. dollar, YaMMning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadi 33720 dollarni tashkil qiladi. Umumiyl tashqi savdo aylanmasi 1045,5 mlrd.dollarni tashkil qilib, bundan eksporti 542,2 mlrd.doll. va importi esa 503,3 mlrd.dollarni tashkil qiladi. Janubiy Koreyaning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini 22.1-jadval orqali ko‘rib, tahlil qilish mumkin. 1953-yildan so‘ng, ya’ni Koreya yarim orolidagi urush harakatlaridan keyin Janubiy Koreya milliy iqtisodiyoti AQSHning iqtisodiy hamkorligida kuchli taraqqiyotni boshidan kechirdi. Bugungi kunda Janubiy Koreya jahon xo‘jaligida “Yangi industrial mamlakatlar” qatoridan joy olgan bo‘lib, u “To‘rt ajdarho mamlakatlari”ning biri sifatida e’tirof qilinadi. Koreya Respublikasi “Katta yigirmatalik” (G20), BMT, Jahon savdo tashkiloti kabi nufuzli xalqaro tashkilotlarning teng huquqli a’zosidir.

Janubiy Koreya iqtisodiyoti yuqori texnologiyalar va qulay infratuzilmaga asoslangan hamda jahon xo‘jaligida o‘z nufuziga ega bo‘lgan yirik kompaniyalar, jumladan “Samsung”, “LG”, “Hundai”, “Kia” va boshqa o‘nlab kompaniyalar jahon bozorlariga elektronika, avtomobillar, kemalar, mashina va robotlar yetkazib beradi. Shuningdek, koreys ta’limi jahon ta’lim tizimida ilg‘or mamlakatlardan biri bo‘lib, aholisining ilmiy savodi darajasi bo‘yicha jahonda birinchi, matematika yo‘nalishidagi savodosi bo‘yicha esa ikkinchi o‘rinda turadi.

Janubiy Koreyaning XX asrning 50-yillaridan 1997-yilgi Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida bo‘lib o‘tgan molivaviy-iqtisodiy inqiroziga

bo‘lgan ildam iqtisodiy rivoji “Sharqiy Osiyo mo‘jizasi”ning biri deb atalgan. Uning salkam 30 yil davomidagi shiddatli iqtisodiy rivojlanishi natijasida jahon xo‘jaligidagi kambag‘al davlatlarining biri hisoblangan mamlakatni dunyodagi o‘n ikkinchi yetakchi iqtisodiy eksportchi davlatiga aylantirdi. Koreyaning bunday iqtisodiy tez taraqqiyoti yuqori darajadagi jamg‘arma va sarmoyaga katta yordam berdi, milliy ta’limning taraqqiy topishiga rag‘bat bo‘ldi. Shuning evaziga bugungi kunda bir qancha yosh koreys o‘g‘il-qizlar dunyoning eng nufuzli oliygohlarida ta’lim olishmoqda. Lekin uning milliy iqtisodiyotining bugungi kun holatiga chiqishiga osonlik bilan erishganicha yo‘q, albatta. Bu yo‘lga erishish turli qiyinchiliklarni yengib o‘tishni talab etdi. 1945-yili Yaponiya qaramligidan ozod bo‘lganidan va 1952-53-yillardagi Shimoliy Koreya bilan “qonli urushidan” so‘ng milliy iqtisodiyotni rivojlantirish xalqning hayot-mamot masalasiga aylangan edi.

Tabiiy boyliklarning cheklanganligi, ichki bozorning zaifligi va iqtisodiy rivojlanish tajribasiga ega bo‘lmasligiga qaramay, Koreya milliy iqtisodiyotning barqaror va mustaqil rivojlanishini amalga oshirdi. Janubiy Koreya sun’iy ko‘mir ishlab chiqarish va uning zaxirasi bo‘yicha jahon xo‘jaligida 1-o‘rinda turadi. Sun’iy ko‘mirni oxirgi yillarda o‘rtacha 5-6 mln. tonnadan qazib chiqarmoqda. Sun’iy ko‘mirni ishlab chiqarish tajribasi - maxsus hududlarda yirik o‘rmon daraxtlarini o‘stirib, katta yog‘ochlar yondiriladi va keyin tuproq ostiga ko‘miladi, so‘ngra bir necha yillardan keyin sun’iy ko‘mir hosil bo‘ladi.

Janubiy Koreyaning elektronika va mashinasozlik kompaniyalari jahonda yetakchi o‘rinlardadir. Butun dunyodagi “LCD” monitorlarning 50 foizi aynan Janubiy Koreyada ishlab chiqariladi. “Samsung” va “LG” mobil telefon ishlab chiqaruvchilari orasida dunyoda yetakchi kompaniyalardir. Janubiy Koreya aholisi elektronikadan eng ko‘p foydalanuvchi xalqlar qatoriga kiradi. Internetdan foydalanuvchilarning foiz nisbatdagi soniga ko‘ra birinchi o‘rinda turadi.

So‘zimizning isboti tariqasida, 2020-yilda Janubiy Koreya - mamlakat hududidagi barcha avtobuslarga bepul “Wi-Fi” o‘rnatalgan dunyodagi eng birinchi mamlakatga aylandi. Koreya Respublikasi Ilm-fan va texnologiya vazirligi ma’lumotiga ko‘ra, barcha shahar avtobuslarini bepul “Wi-Fi” tarmog‘i bilan ta’minlash dasturi 2018-yilda yo‘lga qo‘yila boshlangan bo‘lib, 2020-yilning so‘nggiga kelib dastur to‘liq amalga oshirilgan. Shuningdek, 2020-yilgacha har bir koreys xonadonida kamida bitta robot bo‘lishi rejalashtirilgan edi va ushbu reja

bekamu-ko'st amalga oshirildi. Zamonaviy Janubiy Koreya milliy iqtisodiyotining yil sayin taraqqiy etib borayotganligi va milliy iqtisodiyotda raqamlı iqtisodiyotning rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Gonkong iqtisodiyoti. Gonkong-Xitoy tarkibidagi maxsus ma'muriy hududi hisoblanib, unga tegishli bo'lgan jami 235 ta kichik orollarni o'z ichiga oladi. Umumiy hududi 2905 km^2 , shundan quruqlik qismi 1095 km^2 , qolgan qismi esa dengiz akvatoriyasidir. Ma'muriy markazi - Syangan shahri. Aholisi 7,47 mln. kishi. Asosan, xitoylar (98 foiz), shuningdek, tibetlar, hindlar, inglizlar va portugallar ham yashaydi. Rasmiy tili xitoy va ingliz tili. Ishsizlik darajasi 6,3 foizdir.

Gonkongning YaIM miqdori 366 mlrd.dollar, YaMMning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadi 50840 dollarni tashkil qiladi. Umumiy tashqi savdo aylanmasi - 1114,3 mlrd.dollarni tashkil qilib, bundan eksporti 535,7 mlrd.doll. va importi esa 578,6 mlrd.dollarni tashkil qiladi. Gonkongning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini 22.1-jadval orqali ko'rib tahlil qilish mumkin. Pul birligi erkin konvertatsiya qilinadigan syangan dollaridir.

2019-2021-yillarda Gonkongdagi bo'layotgan ichki siyosiy inqirozlarga Xitoy hukumati tomonidan AQSH va Buyuk Britaniyaning aralashuvi deb baholab, Xitoyning ushbu mamlakatlar bilan iqtisodiy munosabatlarida ma'lum bir uzilishlar yuzaga kelmoqda. Gonkong milliy iqtisodiyoti uning "tashqi savdo" omilining roli va ta'sirida shakllangan. Bunga sabab - uning qirg'oqbo'yi hududlarida dengiz portlarining mavjudligi bilan izohlanadi. Ma'lumki, Gonkong tabiiy va mineral resurslarga muhtoj mamlakatdir. Uning sanoati xorijiy mamlakatlardan keltiriladigan xomashyo va yarimtayyor mahsulotlar asosida ishlaydi. Ishlab chiqariladigan mahsulotlarning 70 foizi eksport uchun mo'ljallangan. YaIMning asosiy qismi ulgurji va chakana savdo, eksport-import operatsiyalari, transport, aloqa, moliya va sug'urta, ko'chmas mulk operatsiyalari va kommunal xizmat ko'rsatish sohalarida ishlab chiqariladi.

Xizmat ko'rsatish sohasi eng asosiy daromad manbayi hisoblanadi. Gonkongni jahon moliya tizimida "Osivoning dollar bozori" deyishadi. Gonkong moliya birjasi amalga oshiriladigan umumiy moliyaviy faoliyatları miqdori bo'yicha Osiyoda Shanxay va Singapur moliya birjalaridan so'ng 3-o'rinda turadi. Turizm sohasi ham rivojlangan bo'lib, mamlakatga har yili 9-10 millionga yaqin sayyohlar tashrif

buyurishadi. Tashrif buyuradigan aksariyat sayyoohlar Xitoyning shimoliy va markaziy hududlaridan, Yaponiya, Janubiy Koreya, Hindiston, Tayvan hamda YI mamlakatlaridan tashrif buyurishdi.

22.1-jadval

“To‘rt ajdarho mamlakatlari”ning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari

T/r	Asosiy ko‘rsatkichlar va xususiyatlari	Janubiy Koreya	Singapur	Gonkong	Tayvan
1	YaIM miqdori (mln.doll.) ¹⁰⁶	1.642,4	372,1	366,0	635,6
2	YaMMning aholi jon boshiga (doll.) ¹⁰⁷	33.720	59.590	50.840	26.910
3	Umumiy tashqi savdo aylanmasi (mlrd.doll.)	1.045,5	749,3	1.114,3	181,9
4	Eksporti (mlrd.doll.)	542,2	390,3	535,7	349,8
5	Importi (mlrd.doll.)	503,3	359,0	578,6	269,0
6	Eng asosiy tashqi savdo hamkorlari	Xitoy, Yaponiya va AQSH	AQSH, Malayziya va Yaponiya	Xitoy, AQSH va Buyuk Britaniya	Xitoy, Yaponiy a va AQSH
7	Valuta zaxirasi (mlrd.dollar)	408,8	285,5	441,3	499,6
8	Tashqi qarzi (mlrd.doll.) ¹⁰⁸	430,9	632,6	1.630,6	146,8
9	Aholi soni (mln. kishi)	51,8	5,7	7,5	23,8
10	Umumiy yer maydoni (ming km.kv.)	98,5	0,65	1,1	36,0
11	Ishsizlik darajasi (foiz)	5,2	4,9	6,3	3,8
12	Milliy valutasi (pul birligi)	Vona	Singapur dolları	Gonkong dolları	Tayvan yuani
13	Mamlakat poytaxti	Seul	Singapur	Gonkong	Taybey
14	Rasmiy davlat tili	Koreys tili	Xitoy, ingliz, malay va tamil	Xitoy va ingliz tillari	Xitoy tili

Manba: ushbu jadval ma’lumotlar assosida ishlab chiqilgan.

¹⁰⁶ Gtmarket.ru/ratings/gross-national-income-ranking

¹⁰⁷ <https://data.worldbank.org/indicator/NY.GNP.PCAP.CD>

¹⁰⁸ <https://ru.m.wikipedia.org/wiki/%DO%A1%DO%BF%DO%B8%>

Gonkong hukumati 2012-yildan boshlab aholiga kommunal xizmatining chiqindisi uchun soliq tizimini joriy qilgan. Unga ko‘ra, soliq to‘lovi chiqindining miqdori bilan belgilangan bo‘lib, uni nazoratini aholiga xizmat ko‘rsatish tashkiloti zimmasiga yuklatilgan. Xuddi shunday jarayon, ya’ni Gonkong tajribasidan kelib chiqib, hozirgi kunda Yaponiya, Janubiy Koreya, Yangi Zelandiya va Tayvan kabi mamlakatlarda ham chiqindi miqdori uchun soliq tizimi joriy qilingan. Gonkongda har kuni 21 ming tonna chiqindi tashlanib, shundan faqatgina 52 foizigina qayta ishlanadi xolos.

Aholining 63 foizi xizmat ko‘rsatish sohalarida faoliyat olib borishadi. Qayta ishlash va qurilish sohasida 28 foiz aholi band bo‘lib, uning YaIMdagi ulushi 23 foizni tashkil qiladi. Sanoatning yetakchi tarmoqlari to‘qimachilik va tikuvchilikdir. Xorijiy investitsiyalarning asosiy qismi ham ushbu tarmoqlarga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, qimmatbaho soatlar (oltindan ishlangan), plastmassa buyumlar (asosan o‘yinchoqlar) ishlab chiqariladi. Elektronika va elektrotexnika, poligrafiya mahsulotlari ishlab chiqarish sanoat tarmoqlari ham rivojlanmoqda.

Qishloq xo‘jaligi sohasi YaIMda u qadar yuqori ulushga ega bo‘lmasada, biroq qishloq xo‘jaligi tarmoqlari uchun ajratilgan yer maydonlarida sholi va turli sabzavot ekinlari yetishtiriladi. Agrar sohada etishtiriladigan barcha mahsulotlar faqat ichki bozorga mo‘ljallangan. Biroq qishloq xo‘jaligning gulchilik tarmog‘ida yetishtiriladigan turli rang-barang gullar eksportga chiqariladi. Mamlakatning hududi yuzlab mayda orollardan tashkil topganligi sababli baliqchilik tarmog‘i rivojlangan. Baliqchilik bu syanganliklarni eng qadimiy kasbidir.

Gonkong dengiz porti jahondagi eng yirik portlaridan biri hisoblanadi. 1902-yilda Gonkong Buyuk Britaniya tomonidan erkin savdo hududi maqomi berilib, e’lon qilinganidan so‘ng dengiz portining hududi yil sayin kengayib bordi hamda yuk ortish va tushirish tonnaji ham o‘sib bordi. Gonkong dengiz portida bajariladigan umumiyl ishlar va xizmatlar miqdori bo‘yicha jahondagi eng yuqori yetakchi bo‘lgan dengiz portlari reytingidan joy olgan.

Uning eksportida, asosan to‘qimachilik, elektron robotlar, qimmatbaho soatlar va suvenirlar, zargarlik buyumlari, akvarium

baliqlari, gullar, turizm va reeksport tashkil qiladi. Importiga esa, neft xomashyosi va neft mahsulotlari, sanoat uchun turli xomashyolar, oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, aholi iste’moli mahsulotlari, avtomobillar va boshqa transport vositalari kiradi.

Singapur iqtisodiyoti. Singapur Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida Singapur orolida joylashgan davlat bo‘lib, uning maydoni turli mayda orollari bilan birgalikda jami 640 km^2 tashkil qiladi. Uning yer maydoni dunyo mamlakatlari ichida eng kam hududga ega bo‘lgan mamlakatlar qatoriga kiradi yoki taqqoslaganda Toshkent shahri hududidan qisman sal kattaroq hududga ega bo‘lgan mamlakatdir. Singapur oroli Joxor bo‘g‘ozi orqali Malakka yarim orolidan, Malakka va Singapur bo‘g‘ozlari orqali Indoneziya orollaridan ajralib turadi. Singapur bir paytning o‘zida davlat, shahar, orol va daryo nomini bildiradi.

Poytaxti Singapur shahri. Milliy valutasi singapur dollari. Ishsizlik darajasi 4,9 foizdir. Singapurning YaIM miqdori 372,1 mlrd.dollar, YAMMning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadi – 59590 dollarni tashkil qiladi. Umumiylashqi savdo aylanmasi 749,3 mlrd. dollarni tashkil qilib, bundan eksporti 390,3 mlrd.doll. va importi esa 359,0 mlrd.dollarni tashkil qiladi. Singapurning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini 22.1-jadval orqali ko‘rish mumkin.

Aholisi 5,7 mln. kishi. Aholisining asosiy qismi xitoylar (76 foiz), malayyalar (14 foiz), hindlar (6 foiz) va boshqa millatga mansub xalqlarni tashkil qiladi. Rasmiy tillar – xitoy, ingliz, malayya, tamil tillaridir. Bitta mamlakatda 4 ta rasmiy tillarni joriy qilgan jahondagi kamdan kam mamlakatlarning biridir. Singapur tabiiy va mineral resurslarga muhtoj bo‘lgan mamlakatdir, hatto aholi ehtiyojini toza ichimlik suv bilan ta’minlashning to‘la imkoniyati yo‘q. Shu sababli ham aholi ichimlik suvi ehtiyojining 70 foizini Malayziyadan import qiladi.

Singapur – Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasidagi iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan davlatlardan biri hisoblanadi. Uning YaIMda sanoatning ulushi 28 foiz, transport va aloqaning ulushi 13 foiz va qishloq xo‘jaligi ulushi atigi 0,5 foizni tashkil qiladi xolos. 1965-yildan 2019-yilgacha bo‘lgan davrda siyosiy barqarorlik sharoitida Singapur mamlakatining sanoat ishlab chiqarishi yiliga o‘rtacha 7,2 foizni tashkil etgan bo‘lib, aholining turmush darajasi o‘rtacha 8

marotabaga oshdi. Singapurning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadi 1965-yilgi 22 dollardan, 1995-yilda 22 ming dollarga va 2019-yilga kelib qariyb 60 ming dollargacha ko‘tarildi.

Singapurning iqtisodiy taraqqiyotidagi doimiy raqobatchisi Gonkong ham xuddi Singapurdagidek ham hududiy joylanishuvi, aholi soni, yer maydoni va aholisining millat vakillarida ham o‘xhashliklar mavjuddir. Hatto ularning Singapur va Gonkong mamlakatlarining YaIMda qishloq xo‘jaligi sohasining ulushi 1-2 foiz atrofini tashkil qiladi xolos. O‘z navbatida Gonkong ham Buyuk Britaniyaning sobiq mustamlakasi bo‘lib, uning ko‘plab ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari jahon iqtisodiyotida yuqori pog‘onaga ko‘tarildi.

Sanoatining yetakchi tarmoqlari – mashinasozlik, elektronika, elektrotexnika, optika, aholi iste’moli mahsulotlari, qayta ishlash, to‘qimachilik, oziq-ovqat va boshqa tarmoqlar tashkil qiladi. Chetdan keltiriladigan xomashyo asosida neftni qayta ishlash sanoati rivojlangan. Singapur zavodlari yiliga qariyb 60 mln.tonna neftni qayta ishlash imkoniyatiga ega. Neftni qayta ishlashda Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasidagi eng yirik Karimun neftni qayta ishlash zavodini alohida ta’kidlash joiz. Mamlakatning Jurong iqtisodiy hududida ikki mingga yaqin yirik korxonalar mavjud bo‘lib, ular kemasozlik, kema ta’mirlash, metallurgiya, kimyo, yog‘ochsozlik, qurilish materiallari, rezina, poyabzal, oziq-ovqat tarmoqlarida faoliyat ko‘rsatishadi.

Qishloq xo‘jaligida ekin ekiladigan yerlar kam ajratilgan bo‘lsada, mavjud ekin maydonlaridan samarali foydalanildi. Agrar sohada asosan shahar aholisi uchun sabzavot va meva, ziravor, tamaki, kokos palmasi yetishtiriladi. Ushbu sohada yetishtiriladigan barcha mahsulotlar faqat mamlakatning ichki bozoriga yo‘naltiriladi. Mamlakatning oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyoji Malayziya, Indoneziya va Hindiston kabi mamlakatlardan keltiriladigan oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hisobiga qondiriladi. Agrar sohada cho‘chqachilik va parrandachilik rivojlangan. Mamlakat orol bo‘lganligi sababli ham baliqchilik tarmog‘i rivojlangan.

Xizmat ko‘rsatish sohasida turizm, sug‘urta, moliya va boshqa sohalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa Singapur birjasi Osiyodagi yetakchi birjalar qatoridan joy olgan. Mamlakatdagi “Changi” xalqaro aeroporti yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha Osiyoda 5-o‘rinda turadi. Singapur dengiz porti esa yuk tushirish va

ortish hajmlari miqdori jihatidan Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida Gonkongdan so‘ng 2-o‘rinda, Osiyoda esa 6-o‘rinda turadi. Tashqi savdoda qayta eksport qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Eksportning asosiy qismini qayta ishlangan mahsulotlar, asbob-uskunalar, radio-elektronika, kompyuter va uning ehtiyyot qismlari, neft mahsulotlari va turizm tashkil qiladi. Importiga esa, turli xomashyo, aholi iste’moli mahsulotlari, oziq ovqat tashkil qiladi. Tashqi savdodagi asosiy hamkor mamlakatlarga AQSH, Malayziya, Yaponiya, Indoneziya, Xitoy kabi mamlakatlar kiradi.

Tayvan iqtisodiyoti. Tayvan – Tinch okeandagi orol mamlakat bo‘lib, Osiyoning janubi-sharqiy qirg‘oqlari yaqinida, materikdan Tayvan bo‘g‘ozi orqali ajralgan. Suv havzasida Tayvan bilan Xitoy materigi o‘rtasidagi masofa 220 km.ni tashkil qiladi. Uning hududi 36 ming km² tashkil qiladi va taqqoslaganda uning hududi mamlakatimizning Buxoro viloyati bilan deyarli teng. 20-yillarning oxirlariga kelib jahon ommasi Tayvanni Xitoy Taybeyi nomi bilan atashmoqda. U hozirgi kunda BMTga a’zo bo‘lmasa-da, jahon xo‘jaligida barcha rivojlangan mamlakatlar bilan teng huquqli savdo, iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorliklarni olib bormoqda. Hozirgi kunda Tayvan bilan jahonning 27 ta mamlakati rasmiy jihatdan diplomatik munosabatlarni olib bormoqda.

Poytaxti Taybey shahri. Aholisi 23,6 mln. kishi, 1 km² ga 672 kishi to‘g‘ri keladi. Mamlakatda yildan yilga tug‘ilish kamayib borayotganligi sababli, aholisining asosiy qismi “keksayish” davriga kirib bormoqda. Rasmiy tili xitoy tili. Pul birligi tayvan dollari. Ishsizlik darajasi 3,8 foizni tashkil qiladi.

Tayvan oroli haqidagi dastlabki ma’lumotlarni ta’kidlaydigan bo‘lsak, 1590-yilda orolni portugallar bosib oladi va unga “Formoza” (“juda ajoyib”) nomi beriladi. 1624-yildan gollandlar nazoratida o‘tadi, 1861-yildan ma’muriy jihatdan Xitoyning Futszyan provinsiyasi tarkibiga kiritiladi. 1887-yilda esa alohida provinsiya sifatida ajratildi. 1894-95-yillardagi Yaponiya-Xitoy urushidan so‘ng orol yaponlar qo‘liga o‘tadi. Ikkinci jahon urushida yaponlar yengilgach, Tayvan 1945-yilda Xitoyma qaytarib berildi. 1949-yilda XXR tashkil etilgach, mag‘lub bo‘lgan Xitoyning Gomindan hukumati Tayvan oroliga qochib o‘tadi va ushbu orolga mustahkam o‘rnashib “Xitoy Respublikasi”ni e’lon qiladi.

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng, Tayvan milliy iqtisodiyotining shakllantirishda avvaliga agrar sohaga, so‘ngra sanoat sohasiga e’tibor qaratiladi. Aynan AQSHning iqtisodiy hamkorligi evaziga Tayvan milliy iqtisodiyoti tez sur’atlarda rivojiana boshlaydi. 1952-1961-yillarda uning iqtisodiy o‘sishi o‘rtacha 9,2 foizni tashkil qiladi.

Hududining yarmiga yaqini doim yashil o‘rmon bilan qoplangan. Foydali qazilmalardan neft, tabiiy gaz, oltingugurt, ko‘mir qazib olinadi.

YaIMning sohalarga taqsimlanishi: sanoat – 36 foiz; qishloq xo‘jaligi – 1,8 foiz va xizmat ko‘rsatish - 62,1 foiz. Tayvanning YaIM miqdori 635,6 mlrd.dollar, YaMMning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadi 26910 dollarni tashkil qiladi. Umumiylashqini savdo aylanmasi 181,9 mlrd.dollarni tashkil qilib, bundan eksporti – 349,8 mlrd. doll. va importi esa 269,0 mlrd. dollarni tashkil qiladi. Uning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini 22.1-jadval orqali ko‘rish mumkin.

Bugungi zamonaviy Tayvan iqtisodiyoti tarkibida sanoat sohasi muhim ahamiyat kasb etadi. Sanoatda kompyuter, elektron uy-ro‘zg‘or mahsulotlari, kiyim-kechak, poyabzal va boshqa o‘nlab mahsulotlar ishlab chiqariladi. Ayniqsa, Tayvan hozirda kamfara, elektronika va uning ehtiyyot qismlari, kompyuter, mebel, to‘qimachilik, metallurgiya, kimyo va boshqa bir qator mahsulotlarining yirik eksportchisi darajasiga chiqdi. Kamfara ishlab chiqarish va uni eksport qilishda hamda kompyuterning “chip”larini ishlab chiqarish bo‘yicha jahonda 1-o‘rinda turadi.

Tayvanda tadbirkorlik faoliyati yuksak darajada rivojlangan bo‘lib, ko‘plab mamlakatlarga namuna sifatida ushbu sohada Tayvan tajribasidan foydalanish imkoniyatidan kelib chiqib u jahon xo‘jaligida “Tadbirkorlik faoliyati bo‘yicha qirol mamlakat” atamasini olgan.

Asosiy sanoat tarmoqlari: to‘qimachilik, radioelektronika, kemasozlik, oziq-ovqat, tsement, yog‘ochsozlik, po‘lat eritish kabi tarmoqlari rivojlangan. Yirik sanoat shaharlari: Taybey, Szilun, Taychjun va Gaosyun.

Asosiy eksport mahsulotlari: neft va kimyo mahsulotlari, avtomobillar va uning extiyot qismlari, po‘lat, elektronika, plastmassa, kompyuter va oziq-ovqat mahsulotlari kiradi. Asosiy import mahsulotlari: neft xomashyosi, tabiiy gaz, transport vositalari, to‘qimachilik

va kimyo mahsulotlari kiradi. Tashqi savdodagi eng asosiy hamkor mamlakatlar: Xitoy, Yaponiya va AQSH kabi mamlakatlar tashkil qiladi.

Braziliya iqtisodiyoti. Braziliya Federativ Respublikasi - Janubiy Amerikadagi eng katta va aholisi eng ko‘p bo‘lgan mamlakat hisoblanib, ham aholi soni, ham maydoni jihatidan dunyoda beshinchi o‘rinda turadi. Maydoni 8515 ming km.kv. Aholisi 212,4 mln. kishini tashkil qiladi. U Janubiy Amerika markazidan to Atlantika okeaniga qadar yoyilgan hududni egallab, Amerikaning “eng sharqiy” mamlakatidir.

Braziliya janubiy Amerika qit’asidagi deyarli barcha mamlakatlar bilan chegaradoshdir va uning iqtisodiy-geografik ahvoli juda ham qulay bo‘lgan mamlakatdir. Uning nomi, dastlabki kolonistlar tomonidan juda ham qadrlangan, ya’ni “braziliya daraxti” (pau-brasil) kelib chiqqan. Hududining asosiy qismini ekin maydonlari, tropik o‘rmonzorlar va Amazonka daryosining irmoqlaridan hamda botqoqliklardan iborat bo‘lgan qalin o‘rmonlar juda katta hududni egallagan. Tabiiy resurslar va millionlab ishchi kuchiga boy bo‘lgan Braziliya - Janubiy Amerika iqtisodiyotining eng yetakchi mamlakatidir. Uning hududini Portugaliya egallaganidan so‘ng sobiq koloniysi bo‘lgan. Davlat tili portugal tilidir. Poytaxti – Brazilia shahri. Milliy valutasi real. Ishsizlik darajasi 12,5 foiz. Braziliya industrial-agrar mamlakat.

Iqtisodiy salohiyati va tabiiy zaxiralari jihatidan Lotin Amerikasida yetakchi o‘rinda turadi. YaIMda sanoat ulushi 31 foiz, qishloq, o‘rmon xo‘jaligi va baliqchilik 10 foiz va qolgan qismi xizmat ko‘rsatish sohasiga to‘g‘ri keladi. Braziliyaning YaIM miqdori 1839,8 mlrd.dollar, YamMMning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadi 9130 dollarni tashkil qiladi. Umumiy tashqi savdo aylanmasi 402,7 mlrd.dollarni tashkil qilib, bundan eksporti 225,4 mlrd.doll. va importi esa 177,3 mlrd.dollarni tashkil qiladi. Uning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini 22.2-jadval orqali ko‘rish mumkin.

Ikkinci jahon urushidan keyin Braziliya milliy iqtisodiyotida sanoatni rivojlantirish va umuman xo‘jalikni sanoatlashtirish asosida taraqqiy ettirish yo‘lida tuzilmaviy siljishlar ro‘y berdi. XX asrning 60-yillaridan boshlab milliy mahsulotda sanoatning ulushi qishloq xo‘jaligidan oshib keta boshladи. Kon sanoatida temir va marganes

rudalar qazib olish muhim o‘rin oladi. Boksit, qo‘rg‘oshin, volfram, oltin, olmos, neft va tosh ko‘mir, qalay, mis, nikel ham qazib chiqariladi. Tashqi bozorga, asosan AQSHga strategik ahamiyatga molik ma’danlar – niobiy, berilliy, sirkoniy kabilarni, shuningdek, uran rudasini eksport qiladi.

Sanoat tarmoqlari orasida eng yetakchilari – metallurgiya va mashinasozlik (jumladan, avtomobilsozlik, kemasozlik, aviasozlik, qishloq xo‘jaligi, radioelektronika) to‘qimachilik, mebel ishlab chiqarish kabilarni tashkil qiladi. So‘nggi yillarda elektr texnika, harbiy sanoat, atom sanoati, neftni qayta ishlash sanoati, kimyo va neft kimyosi tarmoqlari (kislotalar, ma’danli o‘g‘itlar, sintetik tolalar, bo‘yoqlar, plastmassalar) rivojlandi. Shuningdek, to‘qimachilik sanoatida asosan ip-gazlama va oziq-ovqat sanoatida qand-shakar, go‘sht, yog‘, tamaki kabilar ishlab chiqariladi.

Mamlakat maydonining 4 foizida dehqonchilik qilinadi. Asosan Atlantika okeani soxili va janubi-sharqiy shtatlardagi hududlarda dehqonchilik bilan shug‘ullaniladi. Eng muhim ekinlari – kofe, shakar-qamish, kakao, banan, ananas kabilar yetishtiriladi va ularning asosiy qismi eksportga chiqariladi. Janubiy hududlarda tamakichilik va sohibkorlik rivojlangan. Asosiy oziq-ovqat ekinlari: makkajo‘xori, sholi, bug‘doy, soya, maniok, loviya kabilardir. Asosan go‘shtbop yaylov chorvachiligi, go‘sht va jun olinadigan qo‘ychilik rivojlangan. Mamlakat suv havzasi va uning ichki hududlarida ko‘plab yirik daryolarning mavjudligi (ayniqsa Amazonka daryosi) sababli ham baliqchilik tarmog‘i rivojlangan. O‘rmonlarda kauchuk, yong‘oq, mum, palma mevasi yig‘ishtirib olinadi hamda Yaponiya va Janubiy Koreyaning milliy uylari uchun maxsus qimmatbaho yog‘ochlar ishlab chiqariladi va ularga eksport qilinadi.

Braziliyaning asosiy eksport mahsulotlari og‘ir va yengil sanoatning tayyor va yarimtayyor mahsulotlari, kofe, temir rudasi, soya, tamaki, qand-shakar, yog‘och, baliq, qog‘oz, mebel, xomashyolar va boshqa mahsulotlar kiradi. Xorijiy mamlakatlardan neft va neft mahsulotlari, asbob-uskuna, metall va undan yasalgan buyumlar, kimyo mahsulotlari, bug‘doy va boshqa mahsulotlar keltiriladi. Savdo-sotiqdagi eng asosiy hamkor mamlakatlari - AQSH, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya, Kanada, Lotin Amerikasi mamlakatlari hisoblanadi. Tashqi savdoda Rio-de-Janeyro, Santus, Riu-Grandi,

Paranagua, Portu-Alegri, Tubaran, San-Sebastyan kabi yirik dengiz portlaridan foydalaniladi.

Shunday qilib, Braziliya iqtisodiyoti taraqqiyotida qishloq xo‘jaligi muhim ahamiyat kasb etgan. Shuningdek, uning iqtisodiy taraqqiyotida xalqaro turizm omili ham Braziliyaning asosiy daromad manbalaridan biridir. Mamlakatning eng yirik shahri hisoblangan Rio-de Jeneyroga har yili 5 millionga yaqin xorijiy sayyohlar tashrif buyurishadi.

Argentina iqtisodiyoti. Argentina Respublikasi - Janubiy Amerikaning janubi-sharqiy qismida bir qancha orollardan tashkil topgan va Atlantika okeani soxilida joylashgan davlatdir. Uning hududi 2780 ming km²ni tashkil qiladi va aholisi 45,1 mln. kishi. Poytaxti Buenos-Ayres shahri. Pul birligi peso. Ishsizlik darajasi 6,1 foiz.

Argentina iqtisodiy salohiyati va qudrati jihatidan Lotin Amerikasidagi eng rivojlangan mamlakatlaridan biridir. U ko‘plab tabiiy va mineral resurslarga boy. Shuningdek, mamlakat malakali ishchi kuchiga ega. Birinchi jahon urushi va Ikkinci jahon urushi davrida Yevropa mamlakatlaridan va ayniqsa, 1945-yilda Yaponiyadan yuz minglab yirik kapitalga ega bo‘lgan tadbrkorlar, ishbilarmonlar va ko‘plab sohalarda faoliyat ko‘rsatgan malakali ishchi-mutaxassislar “oqimi” kuzatilgan.

Milliy iqtisodiyotining rivojlanishi Lotin Amerikasi mamlakatlaridan tubdan farq qilib, uning iqtisodiyoti XX asrning boshlaridayoq shakllangan va uning taraqqiyoti, aholining turmush darajasi hamda aholi mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha 1910-yillarda AQSH mamlakati bilan deyarli tengma-teng ravishda raqobatni olib borgan.

YaIM miqdori 449,7 mlrd.dollar, YAMMning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadi 11200 dollarni tashkil qiladi. Umumiylashqi savdo aylanmasi 114,2 mlrd.dollarni tashkil qilib, bundan eksporti 65,1 mlrd.doll. va importi esa 49,1 mlrd.dollarni tashkil qiladi. Asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini 22.2-jadval orqali ko‘rish mumkin.

Argentina 1913-yilda jahondagi eng rivojlangan mamlakatlarining biri sifatida tan olingan edi, ya’ni Yevropada Buyuk Britaniya yetakchi bo‘lgan bo‘lsa, Shimoliy Amerikada AQSH, Osiyoda esa Yaponiya va

Lotin Amerikasida Argentina iqtisodiy salohiyati va qudrati bo‘yicha eng yetakchi mamlakat sifatida qayd etilgan. Uning aholi daromadi 1913-yilda Germaniya va Fransiya mamlakatlari bilan deyarli teng bo‘lgan, hatto o‘sha davrda Italiya va Ispaniyani ortda qoldirgan. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad ko‘rsatkichi bo‘yicha qo‘shni Braziliya Argentinadan 5 marotaba kam, o‘sha paytdagi jahonning eng rivojlangan mamlakatlaridan biri Yaponiya esa 3 marotaba kam bo‘lgan. Uning rivojlanganlik darajasini Buenos-Ayresdagi metro qurilishining 1913-yilda ishga tushirilganligi orqali bilish mumkin, chunki o‘sha yillarda jahondagi rivojlangan mamlakatlarning ikkinchisi hisoblangan AQSHda eng birinchi metro Nyu-York shahrida 1903-yilda ishga tushirilgan edi. Jahan ommasi Buenos-Ayres shahrini AQSHning o‘sha paytdagi eng “sho‘x” va sanoat markazi hisoblangan Chikago shahri bilan qiyoslashgan.

Avvalo savol tug‘iladi, Argentina milliy iqtisodiyotining XX asr boshlarida iqtisodiy rivojlanishiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatgan? 1910-1930-yillarda Argentinada ta’lim tizimining yuqori darajada shakllanganligi va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining AQSH va Yevropaga eksportidan olingan daromadlar evaziga ushbu mamlakatlardan zamonaviy va ilg‘or texnologiyalarni doimiy ravishda import qilinishi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari oralig‘ida urushda qatnashayotgan ko‘plab mamlakatlarning minglab yirik sarmoyaga ega bo‘lgan fuqarolari Argentinadan panoh topishgan.

Argentina iqtisodiyotida sanoatning turli tarmoqlari, xususan to‘qimachilik, charm-poyabzal, og‘ir industriya, mashinasozlik (traktor, qishloq xo‘jaligi mashinalari, avtomobillar, stanoklar, elektr texnika asbob-uskunalar va boshqalar), neftni qayta ishslash, qora metallurgiya kabi tarmoqlar rivojlangan. Mamlakat ehtiyoji uchun sement, selluloza-qog‘oz korxonalarini va minglab kichik va o‘rtacha biznes korxonalarini tomonidan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sohalarida faoliyat ko‘rsatishai. Neft, gaz, qo‘rg‘oshin, temir, uran, berilliyl va volfram rudalari qazib olinadi. Yoqilg‘i-energetika balansining salkam 85 foizini neft va gaz tashkil qiladi. Asosiy sanoat markazlari: Buenos-Ayres, Rosario, Kordova.

Argentina iqtisodiyotida sanoatdan tashqari, qishloq xo‘jaligi xomashyosini qayta ishslashga ixtisoslashgan mamlakatlardan biridir.

Sanoatda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi oziq-ovqat (go‘sht, yog‘, un, vinochilik, konserva, qand-shakar) sanoati ham rivojlangan. Mamlakatda chorvachilik va dehqonchilikda don va moyli ekinlar hosilini mahsulot sifatida tayyorlashga ixtisoslashgandir. Go‘sht yetishtirish va uni eksport qilish sohasida Argentina dunyoda oldingi o‘rinlarda turadi. Ayniqsa, 2020-yilda yuzaga kelgan pandemiya davrida Yevropa mamlakatlarini go‘sht mahsulotlari bilan ta’minlashda Argentina faol bo‘ldi.

Demak, agrar sohada yetakchi tarmoqlaridan biri chorvachilik bo‘lib, unda go‘sht etishtiriladigan qoramolchilik va go‘sht-jun olinadigan qo‘ychilik ustun darajada rivojlangan. Mamlakatda qoramollar soni 52 mln.bosh, qo‘ylar 31 mln.bosh, cho‘chqalar 5 mln. boshdan ziyoddir. Xorijga eksport qilinadigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 80 foizi go‘sht, don, yog‘, xom teri, jun, ho‘l mevalarga to‘g‘ri keladi. Importida esa, mashinalar, transport vositalari, metall, yoqilg‘i, kimyoviy tovarlar tashkil qiladi. Tashqi savdodagi asosiy hamkorlari: AQSH, Braziliya, Italiya, Germaniya va Yaponiya mamlakatlaridir. Tashqi savdodagi eng asosiy xalqaro dengiz porti – Buenos-Ayres portidir.

Meksika iqtisodiyoti. Meksika Qo‘shma Shtatlari – Shimoliy Amerikaning janubiy qismida joylashgan davlat bo‘lib, uning hududi 1972,5 ming km². Aholisi 127,8 mln. kishi. Poytaxti Mexiko shahri. Poytaxt Mexiko shahrida shahar atrofidagi kichik hududlarni qo‘shib hisoblaganda 20 mln.dan ortiq aholi yashaydi. Ma’muriy jihatdan 31 shtat va poytaxt federal okrugiga bo‘linadi. Milliy valutasi meksika pesosi.

Meksika industrial-agrar mamlakat. Lotin Amerikasida iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan uch mamlakatning biridir. YaIMda sanoatning ulushi 25 foiz, qishloq, o‘rmon xo‘jaligi va baliqchilikning ulushi 9 foiz va qolgan qismi xizmat ko‘rsatish sohasiga to‘g‘ri keladi. Ishsizlik darajasi 10,6 foizni tashkil qiladi.

YaIM miqdori 1258,3 mlrd.dollar, YAMMning aholi jon boshiga daromadi 9430 dollarni tashkil qiladi. Umumiy tashqi savdo aylanmasi 939,6 mlrd.dollarni tashkil qilib, bundan eksporti 472,3 mlrd.doll. va importi esa 467,3 mlrd.dollarni tashkil qiladi. Uning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini 22.2-jadval orqali ko‘rish mumkin.

22.2-jadval

Lotin Amerikasi Yangi industrial mamlakatlarining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari

T/r	Asosiy ko‘rsatkichlar va xususiyatlari	Braziliya	Argentina	Meksika
1	YaIM miqdori (mln.doll.) ¹⁰⁹	1.839,8	449,7	1.258,3
2	YaMMning aholi jon boshiga (doll.) ¹¹⁰	9.130	11.200	9.430
3	Umumiy tashqi savdo aylanmasi (mlrd.doll.)	402,7	114,2	939,6
4	Eksporti (mlrd.doll.)	225,4	65,1	472,3
5	Importi (mlrd.doll.)	177,3	49,1	467,3
6	Eng asosiy tashqi savdo hamkorlari	Xitoy, AQSH va Argentina	AQSH, Xitoy va Ispaniya	AQSH, Kanada va YI
7	Valuta zaxirasi (mlrd.dollar) ¹¹¹	356,9	45,2	183,1
8	Tashqi qarzi (mlrd.doll.)	3.195,5	111,5	1.444,1
9	Aholi soni (mln. kishi) ¹¹²	212,4	44,9	127,8
10	Umumiy yer maydoni (ming km.kv.)	8.512,0	2.766,9	1.972,6
11	Ishsizlik darajasi (foiz)	12,5	6,1	10,6
12	Milliy valutasi (pul birligi)	Kruzeyro (real)	Argentina pesosi	Meksika pesosi
13	Mamlakat poytaxti	Brazilia	Buenos-Ayres	Mexiko
14	Rasmiy davlat tili	Portugal tili	Ispan tili	Ispan tili

Manba: ushbu jadval ma’lumotlar asosida ishlab chiqilgan.

Meksikaning iqtisodiy taraqqiyotida u bilan qo‘shti bo‘lgan AQSHning iqtisodiy hamkorligini alohida ta’kidlash lozim. AQSHning turli iqtisodiyot sohalarida 5 millionga yaqin meksikaliklar faoliyat olib borishadi va har yili migrantlarning o‘tkazma pullari o‘rtacha 6-7 mlrd. dollarni tashkil qiladi. Meksikaning sanoat tarmoqlari AQSHning ilg‘or texnologiyalari bilan modernizatsiya qilingan.

¹⁰⁹ Gtmarket.ru/ratings/gross-national-income-ranking

¹¹⁰ https://data.worldbank.org/indicator/NY.GNP.PCAP.CD

¹¹¹ https://nonews.co/directory/lists/countries/gold

¹¹² https://ru.m.wikipedia.org/wiki/Spisok_stran_po_naseleniyu

Sanoatda iqtisodiy faol aholining 15 foizi band. Sanoatning muhim tarmoqlari: konchilik, neftni qayta ishlash, neft kimyosi, metallurgiya, qurilish, to‘qimachilik, oziq-ovqat, mashinasozlik va oziq-ovqat sanoat tarmoqlari tashkil qiladi. Neft-gaz sanoati va ularni qayta ishlash, konchilik va metallurgiya sohasidagi ishlab chiqarish sanoati korxonalarini mamlakatning shimolidagi yirik shaharlarda joylashgan. Qazish tarmog‘ida ko‘mir sanoati muhim o‘rin olgan.

Bundan tashqari, energetika, qurilish xomashyolari, kimyo, farmatsevtika, to‘qimachilik, tikuvchilik, poyabzal, oziq-ovqat sanoati ham rivojlangan. Meksika agrar sohada paxta, shakarqamish, kofe yetishtirishda hamda qazish sanoatida neft, gaz, kumush, rux, qo‘rg‘oshin, oltингugurt, simob qazib olishda dunyoda yetakchi o‘rnilda turadi.

Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy faol aholining 27 foizi band bo‘lib, qishloq xo‘jaligi aholining ehtiyojini to‘la qoplaydi va mahsulotining bir qismi asosan Yevropa mamlakalariga eksport qilinadi. Umumi hududning 25 foizida qishloq xo‘jaligi ekinlari yetishtiriladi. Qishloq xo‘jaligining asosiy tarmog‘i dehqonchilik bo‘lib, unda paxta, kofe, shakarqamish, makkajo‘xori, oq jo‘xori, bug‘doy, sholi, loviya, kartoshka, soya yetishtiriladi va ularning asosiy qismi eksport qilinadi. Chorvachilikda qoramol, ot, cho‘chqa, qo‘y va echki boqiladi hamda dengizlarda baliq va dengiz jonivorlari ovlanadi. Mamlakatda xalqaro turizm rivojlangan bo‘lib, asosiy sayyohlar Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Kanada va AQSHdan keladigan sayyohlar tashkil qiladi. Har yili Meksikaning turli shaharlariga o‘rtacha 3 millionga yaqin sayyohlar tashrif buyuradi.

Mamlakatning asosiy eksport mahsulotlari neft va neft mahsulotlari, qora va rangli metallar, aholi iste’moli mahsulotlari, paxta tolasi, kofe, tsitrus mevalar, shakar, dukkakli ekin mahsulotlari tashkil qiladi. Importiga esa, avtomobillar, vagonlar, ilg‘or texnologiya va asbob-uskunalar, mineral o‘g‘itlar tashkil qiladi. Tashqi savdodagi asosiy hamkorlari: AQSH, Kanada, Yaponiya va YI mamlakatlaridir.

22.5. Yangi industrial mamlakatlar – xalqaro mehnat taqsimoti tizimida

Jahon iqtisodiyotida Lotin Amerikasining YaIM XXI asrning boshlariga kelib, jumladan, Braziliya, Argentina, Meksika kabi

davlatlarda amalga oshirilgan liberal iqtisodiy o'sish sur'atlari yuksalib, savdo balansini yaxshilashda ijobiy yutuqlar qo'lga kiritildi.

Lotin Amerikasining yirik, YaIMlaridan biri hisoblangan Braziliyada olib borilayotgan siyosat ochiq iqtisodiyotni yaratishga qaratilganligidir. Buning uchun mamlakatning ichki bozorlarida raqobat kurashuvi uchun muhit yaratilgan bo'lib, unga bog'lik holda import tariflari pasaytirildi. 1995-yilda MERKOSUR mamlakatlari (Braziliya, Argentina, Paragvay va Urugvay) o'rtasidagi bojxona to'siqlari to'liq olib tashlandi.

Osiyodagi YaIM iqtisodiyotining eksportga mo'ljallangan samarali va tez moslashuvchan modelini joriy etdi. Bu model, ma'lum davr mobaynida bir vaqtning o'zida import o'rnni egallah siyosatini ham o'z ichiga olgan edi. Eksport siyosati o'rnni egallahga mo'ljallangan sanoatlashtirishning tugallangan davrini qayta sodir etishni talab etmaydi.

Ma'lumki, jahon iqtisodiyotida import o'rnni egallah va eksportga mo'ljallangan iqtisodiy siyosat bir biri bilan tengma teng holda harakat qilib, ba'zi davrlarda esa ular bir biridan ustunlikka ham ega bo'lishi mumkin. Eksportni kengaytirish davriga yoppasiga o'tish oldidan, import o'rnni egallah uchun jahon mamlakatlari ishlab chiqarishining zamonaviy tizimlarini vujudga keltirish, xalq xo'jaligini an'anaviy sektorini qayta qurish kabi masalalarga ham e'tiborni qaratishmoqda.

Osiyoning YaIM sanoat mahsulotlari eksportining yuqori dinamikasiga asoslangan holda an'anaviy ayrim tovarlar eksporti bo'yicha tashqi savdo aylanmasida hal qiluvchi o'rinni egallagan edi. Masalan, Janubiy Koreya va Tayvan eksportida xomashyo va oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi mos ravishda 7,1 foiz va 7 foizni tashkil etgan edi. Xullas, XX asrning 90-yillarida Janubiy Koreyada tovarlar eksportida qiymati bo'yicha ikkinchi o'rinni poyabzal mahsulotlari egallagan bo'lsa, Tayvanda esa elektron o'yinchoqlar va sport tovarlari egallagan edi. Janubiy Koreya eksportida to'rtinchi o'rinni sintetik mahsulotlardan tayyorlangan to'qimachilik mahsulotlar egallagan bo'lsa, Tayvanda esa yettinchi o'rinda poyabzal mahsulotlari turgan edi.

XXI asrning birinchi dekadasida ham rivojlangan mamlakatlarning eng yirik kapital importyori bo'lgan YaIM o'z

geografik yo‘nalishlarini ancha kengaytirgan edi. Hozirgi kunda ilg‘or sanoati rivojlangan davlatlarini kapitali uchun Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasidagi rivojlanayotgan mamlakatlar yangi bozorlardir.

Masalan, Janubiy Koreya firmalari AQSHda aniq maqsadga yunaltirilgan eksport ekspansiyasini o‘tkazmoqda. AQSH iqtisodiyotiga kapital qo‘yishib, Janubiy Koreyaliklar o‘z iqtisodiyoti uchun eng yangi texnika-texnologiyalarni kirib kelishiga yo‘l ochmoqdalar. Shuningdek, Janubiy Koreya va Tayvanning kompaniya va firmalari o‘zining qo‘sni mamlakatlari hisoblangan Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi mamlakatlariga ham kapital olib kirish hajmini ko‘paytirmoqda. Masalan, Tayvanning Xitoya bo‘lgan qiziqishi juda kattadir. 2019-yilga kelib Tayvanning XXRdagi investitsiyalari miqdori 13 mlrd. doll. dan oshib ketgan edi. O‘z navbatida, gonkonglik ishbilarmonlar ham Xitoyda ro‘yxatga olingan qo‘sma korxonalarining yarmidan ko‘prog‘iga egalik qilishmoqda.

Bu davlatlarda qabul qilingan iqtisodiy strategiyaning asosiy yo‘nalishi ilm talab mahsulotlar ishlab chiqarishdir. Mehnat talab va past rentabelli ishlab chiqarishlar YaIMlarning “ikkinci oqimida” turgan Vietnam va Hindistonga “topshirilmoqda”. Natijada bu ishlab chiqarishlarni bir paytlar sodir etgan sanoati rivojlangan davlatlardan birinchi avlod YaIMga ko‘chish jarayoni amalda qaytarilmoqda.

Shunday qilib, YaIMlarning iqtisodiy rivojlanishida qo‘lga kiritgan yutuqlari, jahon xo‘jaligiga integratsiyasi, iqtisodiy o‘sishining istiqbollari, aholining turmush darajasini o‘sishi, tashqi savdodagi faolligi va valuta zaxiralarining jamg‘arilishi kabi iqtisodiy ko‘rsatkichlari bilan jahon iqtisodiyotida o‘z nufuziga ega bo‘lib, yetakchi mamlakatlar darajasiga chiqib borishdi.

Bob yuzasidan xulosa

BMT tomonidan ishlab chiqilgan uslubiyot bo‘yicha Yangi industrial mamlakatlar qatoriga kiruvchi davlatlar aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulotlarning miqdori; uning o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati; YaIM tarkibidagi qayta ishlash sanoatining umumiy miqdori; ishlab chiqariladigan tovarlar umumiy miqdoriga nisbatan sanoat mahsulotlarining ulushi va eksport miqdori; xorijiy mamlakatlarga chiqariladigan to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarning umumiy miqdori kabi mezonlar bo‘yicha alohida ajralib turadi.

Jahon xo‘jaligida YaIM, ya’ni Janubiy Koreya, Gonkong, Tayvan va Singapur mamlakatlarini “To‘rt ajdaho mamlakatlari” deb atashadi. Bunga sabab ularning iqtisodiy jihatdan tez rivojlanganligidir. Bu taraqqiyotning asosini eksport sohasining rivojlanishi, tayyor mahsulotlarni eksport qilishni ko‘paytirishdagi muvaffaqiyatlari, raqobatbardoshlikning yuqoriligi, jahon bozoridagi o‘ziga xos tajovuzkorlik tashkil qiladi. Bugungi kunda Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasining YaIM ilmtalab va yuqori texnologiyali mahsulotlar eksportchisiga aylandi hamda ilmtalab mahsulotlar bozorida ularning maqomi tobora oshib bormoqda.

Nazorat savollari

1. Jahondagi YaIMning iqtisodiy taraqqiyot sabablarini ayting.
2. Rivojlangan va YaIMlarni rivojlanish xususiyatlarini bir-biridan farqlab bering.
3. Jhon iqtisodiyotida YaIMlarning iqtisodiy rivojlanish modellarini o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflab bering.
4. Rivojlanayotgan yangi industrial mamlakatlarni xalqaro mehnat taqsimotidagi rolini ayting.
5. “To‘rt ajdarho mamlakatlari”ning “iqtisodiy mo‘jiza”sining asosiy omillarini ayting.
6. Tayvanning jahon iqtisodiyotida tutgan o‘rnini ayting.
7. Singapurning jahon iqtisodiyotida tutgan o‘rnini ayting.
8. Gonkongning jahon iqtisodiyotida tutgan o‘rnini ayting.
9. Braziliyaning jahon iqtisodiyotida tutgan o‘rnini ayting.
10. Argentinaning jahon iqtisodiyotida tutgan o‘rnini ayting.
11. Meksikaning jahon iqtisodiyotida tutgan o‘rnini ayting.
12. YaIMning “ikkinchi avlod”ga qaysi mamlakatlar kiradi va ularning iqtisodiy taraqqiyotida qaysi iqtisodiy ko‘rsatkichlari jahon iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etmoqda?
13. YaIM iqtisodiyotida TMKning rolini ayting.
14. BMT tomonidan ishlab chiqilgan uslubiyot bo‘yicha YaIM qatoriga kiruvchi mamlakatlar qanday mezonlar bo‘yicha aniqlanadi?

Uyga vazifa!

Talabaning “Jahon xo‘jaligida yangi industrial mamlakatlarining vujudga kelishi” mavzusini chuqur o‘zlashtirishi hamda amaliyot darsiga puxta tayyorgarlik ko‘rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

- 1) mavzu so‘ngida berilgan “Nazorat savollari”ga tayyorgarlik ko‘rish;
- 2) Yangi industrial mamlakatlari hududlarini xarita orqali iqtisodiy-geografik joylanishuvini ko‘rib chiqish;
- 3) YaIM mamlakatlarining poytaxti, davlat tili, milliy valutasi, aholi soni hamda umumiylarini yer maydoni, asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarini (YaMM, YaIM, eksport va import miqdori, tashqi qarz, valuta zaxirasi va aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadi) jadval shaklida ishlab chiqish;
- 4) Lotin Amerikasi mamlakatlarining sanoat tarmoqlari bo‘yicha talabalar guruahlarga bo‘lingan holda “Taqdimot” o‘tkaziladi.

XXIII BOB. ASEAN DAVLATLARINING IQTISODIY RIVOJLANISHI VA ULARNING JAHON IQTISODIYOTIDA TUTGAN O'RNI

- 1. ASEAN tashkilotining tashkil qilinishi, maqsad va vazifalari hamda iqtisodiy salohiyati.**
- 2. ASEAN mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillari va xususiyatlari.**
- 3. “To‘rtta kichik yo‘lbars mamlakatlari” va Vietnam iqtisodiyoti.**
- 4. ASEAN uyushmasining muammolari va istiqbollari.**

Tayanch iboralar: ASEAN, “To‘rtta kichik yo‘lbars mamlakatlari”, Sammit, deklaratsiya, kuzatuvchi mamlakat, diplomatiya, Okeaniya, assotsiatsiya, “yuqori beshlik mamlakatlari”, “quyi beshlik mamlakatlari”, moliyaviy inqiroz, deklaratsiya.

23.1. ASEAN tashkilotining tashkil qilinishi, maqsad va vazifalari hamda uning iqtisodiy salohiyati

“ASEAN” tashkiloti – bu Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari uyushmasidir (Association of South East Asian Nations). Ikkinchi jahon urushidan so‘ng jahoning ko‘plab mintaqalarida birin-ketin xalqaro tashkilotlar tashkil topa boshladi va jahon xo‘jaligida integratsiya jarayonlari o‘zining yuqori cho‘qqisiga chiqa boshladi. Shu yillarda Sharqiy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiyoti ham urush yillaridan so‘ng AQSHning iqtisodiy hamkorligida taraqqiy eta boshladi.

XX asrning 50-60-yillarida Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi mamlakatlarining bir-birlari bilan o‘zaro iqtisodiy munosabatlari va hamkorliklarini olib borishda birlashtiruvchi tashkilot haqiqatan ham zarur edi. Ushbu uyushmaga Tailand poytaxti Bangkok shahrida 1967-yil 8-avgustda asos solingan bo‘lib, Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tailand va Filippin davlatlarining Tashqi ishlar vazirlari doirasida o‘tkazilgan yig‘ilishda “Deklaratsiya” imzolanib, tashkil topgan.

Ushbu uyushmaga hozirda jami 10 ta mamlakat a’zo bo‘lib, ular quyidagi mamlakatlarni tashkil qiladi: Singapur (1967-yilda a’zo bo‘lgan), Malayziya (1967), Indoneziya (1967), Tailand (1967),

Filippin (1967), Bruney (1984), Vietnam (1995), Myanmar (Birma) (1997), Laos (1997), Kambodja (Kampuchiya) (1999) kabi mamlakatlar ushbu uyushmaning rasmiy a'zolari hisoblanishadi.

Janubiy Koreya uyushmaning norasmiy a'zosidir. Ushbu tashkilot faqatgina iqtisodiy hamkorlik bo'yicha tuzilgan va bu tashkilot harbiy harakatlar va harbiy hamkorliklardan umuman mustasno. Maxsus kuzatuvchi mamlakatlar Papua-Yangi Gvineya va Yaponiya mamlakatlarini tashkil qiladi. ASEANning iqtisodiy salohiyati va uning jahon xo'jaligidagi nufuzini quyidagi iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali ko'rish mumkin:

- a'zo mamlakatlarning umumiyligi aholisi – 655 mln. kishi;
- a'zo mamlakatlarining umumiyligi yer maydoni – 4,48 mln.km.kv.;
- a'zo mamlakatlarning umumiyligi YaIM miqdori – 737,1 mlrd. doll.

Indoneziya poytaxti Jakarta shahrida ASEAN uyushmasining Bosh kotibiyati boshchiligidagi doimiy vakolatxonasi (Shtab kvartirasi) faoliyat ko'rsatib turadi. ASEAN uyushmasining eng oliv maqsadi mintaqqa mamlakatlarining o'zaro iqtisodiy hamkorligini rivojlantirishdan iboratdir. ASEAN uyushmasi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'ygan:

- 1) janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari o'rtasida ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy taraqqiyotni rivojlantirish;
- 2) mintaqada tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash;
- 3) a'zo mamlakatlar o'rtasida ilm va fan, texnika, ishchi mutaxassislarni tayyorlashda o'zaro iqtisodiy hamkorlik va yordamni kengaytirish;
- 4) sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarida iqtisodiy hamkorlikni yanada samarali rivojlantirish;
- 5) o'zaro savdo-sotiqni kengaytirish;
- 6) o'zaro hamkorlikda jahon bozorlaridan munosib o'rin oladigan yuqori sifatli sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish;
- 7) ASEAN mamlakatlari uyushma doirasida sarmoyalarni ko'paytirish va mintaqada savdoni kengaytirish kabi vazifalarni o'z ichiga oladi.

Uyushmaga a'zo bo'lib kirish Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasidagi barcha mamlakatlar uchun uning "eshigi ochiq"dir hamda a'zo bo'lib kirishga xohish bildirgan mamlakatlarni qabul qilinishi har yili

o'tkaziladigan navbatdagi yig'ilishlarda muhokama qilinadi. Uyushmaga a'zo bo'lish xohishini bildirgan mamlakatlarni qabul qilinishida a'zo mamlakatlarning barchasini roziligi va qo'llab-quvvatlanishi hisobga olinadi. Agarda uyushmaga a'zo mamlakatning biri qarshi ovoz bersa, u holda a'zolikka ariza topshirgan mamlakat qabul qilinmaydi.

Uyushmaning eng birinchi Sammiti 1975-yilda Indoneziyaning Bali orolida bo'lib o'tdi va unda uyushmaning "beshlik" a'zolari o'rtasida har qanday siyosiy muammoni o'zaro tinch yo'li asosida diplomatik yo'llar orqali hal qilish va uyushma mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlarni va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash bo'yicha kelishib olindi. Bo'lib o'tgan Sammitda "Janubi-Sharqiy Osiyoda do'stlik va hamkorlik to'g'risida"gi bitim va "rozilik" deklaratsiyasi tasdiqlandi. Bitimda, xususan, ASEAN hamkorlari mintaqada tinchlikni mustahkamlash yo'lida yuzaga kelgan o'zaro qarama-qarshiliklarni tinch yo'l bilan hal qilish, kuch ishlatish xavfidan voz kechish va barcha bahsli munozaralarni do'stona diplomatik muzokaralar yo'li bilan hal qilish uchun harakat qilishlari shartligi kelishib olindi.

1992-yilda Singapurda bo'lib o'tgan Sammitda ASEAN mamlakatlari doirasida kelajak yillarda Erkin savdo hududini tashkil qilish borasidagi g'oyani ilk bor muhokamaga qo'yishdi. ASEANning iqtisodiy tarixidagi eng "og'ir" davr bu 1997-yilda yuazaga kelgan moliyaviy-iqtisodiy inqirozdir. Inqiroz mintaqaning barcha mamlakatlarining iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi, uning asorati yaqin 10-yillar ichida ham o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymadi. Mintqa inqiroz asoratlaridan endigina qutulgan paytda jahon iqtisodiyotida navbatdagi 2008-yilgi moliyaviy-iqtisodiy inqiroz ro'y berdi.

2020-yil 15 noyabr kuni Vietnamda bo'lib o'tgan onlayn Sammitida ASEAN jahondagi eng yirik Erkin savdo hududini tashkil qilinganligi haqidagi bitim a'zo mamlakatlar o'rtasida bitim imzolandi. Ushbu bitimga muvofiq, ASEANning jahon iqtisodiyotidagi iqtisodiy salohiyati 2025-yilga borib qariyb 3,2 mlrd aholi soniga ega bo'lishi va YaIM qariyb 29,0 trln. dollar miqdoriga ega bo'lgan yirik mintaqaviy uyushmaning shakllanishi yuzaga keladi. Agarda kelajak yaqin yillarda ASEANGa Xitoy, Hindiston, Yaponiya, Janubiy Koreya, Avstraliya va Yangi Zelandiya kabi mamlakatlar a'zo bo'lib kirishsa, u

holda ushbu uyushma “Dunyodagi eng yirik iqtisodiy tashkilot” bo‘lish ehtimoli mavjuddir. Chunki 2025-yilgacha ASEAN uyushmasiga Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya a’zo bo‘lib kirganidan so‘ng Hindistonni a’zoligi hamda 2030-yilgacha Avstraliya va Yangi Zelandiya kabi Okeaniya mamlakatlari ham a’zo bo‘lish istagini bildirishgan.

23.1-jadval

Jahon xo‘jaligida ASEANning mavqeい va iqtisodiy salohiyati hamda istiqboli

T/r	Iqtisodiy ko‘rsatkichlar	2020-yil	2025-yil (istiqbol)	2030-yil (istiqbol)
1	A’zo mamlakatlar soni	10 ta	14 ta	16 ta
2	Umumiy yer maydoni (mln.km.kc) ¹¹³	4,48	17,8	23,7
3	Umumiy aholisi (mln. kishi) ¹¹⁴	655,0	3.210	2.520
4	YaIM miqdori (mlrd.dollar) ¹¹⁵	0,737	29,0	32,0
5	Istiqbol yillarda a’zo bo‘lib kirishni istagini bildirgan davlatlar		Xitoy, Yaponiya; Janubiy Koreya; Hindiston	Avstraliya va Yangi Zelandiya

Ushbu jadval ma’lumotlar asosida ishlab chiqilgan.

ASEANning bugungi iqtisodiy holatiga ko‘ra, a’zo mamlakatlar ikki toifaga bo‘lingan, ya’ni: “Yuqori beshlik mamlakatlari” - Singapur, Malayziya, Indoneziya, Tailand, Filippin mamlakatlari tashkil qilsa, “Quyi beshlik mamlakatlariga” – Vietnam, Bruney, Myanmar (Birma), Laos va Kambodja (Kampuchiya) mamlakatlarini tashkil qiladi.

2000-yildan bugungi kungacha bo‘lgan ASEAN mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish darajalari tahlil qilinganda, ularning “Yuqori

¹¹³ <https://worldgeo.ru/lists/?id=2>

¹¹⁴ https://ru.m.wikipedia.org/wiki/Spisok_stran_po_naseleniyu

¹¹⁵ Gtmarket.ru/ratings/gross-national-income-ranking

beshlik mamlakatlari”ning yillik iqtisodiy o‘sishi o‘rtacha 6,5 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, “Quyi beshlik mamlakatlari”ning o‘rtacha yillik iqtisodiy o‘sishi 4,2 foizni tashkil qilgan. Biroq, “Quyi beshlik mamlakatlari”dan hisoblangan Vietnamning YaIMning o‘sishi o‘rtacha taxminan 7,1 foizni tashkil etgan, bu ko‘rsatkich a’zo mamlakatlarning iqtisodiy o‘sishidan ikki marta yuqoriligini ko‘rsatadi.

23.2. ASEAN mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillari va xususiyatlari

XX asrning 80-yillarida jahon xo‘jaligida “To‘rtta kichik yo‘lbars mamlakatlari” vujudga keldi hamda ularning iqtisodiy taraqqiyotlari natijasida ular tomonidan “iqtisodiy mo‘jiza”ga erishildi. ASEAN uyushmasiga kiruvchi Tailand, Malayziya, Filippin, va Indoneziya mamlakatlari 1980-yillarda jahon bozoriga yangi sanoat mahsulotlarini yetkazib berishi va mahsulotlar sifati bilan rivojlangan mamlakatlar bilan raqobatlishishi hamda yuzlab TMKlarning kirib kelishi natijasida milliy iqtisodiyotlarning davomiy o‘sish sur’atlari kuzatildi.

ASEAN mamlakatlari iqtisodiy taraqqiyotining asosiy xususiyatlarini ta’kidlab o‘tish joizdir:

- mintaqaning qo‘shni rivojlangan mamlakatlarning, jumladan Yaponiya, Janubiy Koreya, Tayvan, Gonkong va Avstraliya kabi mamlakatlarning iqtisodiy holatining ASEAN mamlakatlariga ta’siri;
- “To‘rt ajdarho mamlakatlari” iqtisodiyotining ASEAN mamlakatlari iqtisodiyoti bilan chambarchas bog‘liqligi;
- XX asrning 1970-80-yillarda ASEAN mamlakatlari bilan AQSHning iqtisodiy hamkorligi (Malayziya, Fillipin, Tailand va Indoneziya) va uning beg‘araz iqtisodiy yordami;
- ASEAN uyushmasi mamlakatlarining bir-biri bilan uzviy va har tomonlama iqtisodiy hamkorligi;
- “To‘rtta kichik yo‘lbars mamlakatlari” milliy iqtisodiyotlariga xorijiy texnologiyalarni va investitsiyalarni jalb qilinishi;
- ASEAN mamlakatlari iqtisodiyotiga Yevropa va Shimoliy Amerikaning yirik TMKlarining kirib kelishi;
- qishloq xo‘jaligi sohasining yuksak darajada rivojlanishi. Albatta, Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi iqlim jihatidan ekvatorial va subekvatorial mintaqalarda joylashganligi uchun qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini bekamu ko‘st rivojlanishida issiq klimat va sug‘orilishida

yog‘ingarchilik yetarli darajada suv bilan ta’minlaydi;

– Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasining foydali qazilma boyliklari va mineral resurslarining mavjudligi. Ayniqsa, sanoat tarmoqlari uchun neft, qalay, tabiiy gaz, volfram, nikel, xrom, kauchuklarga boydir;

– ASEANning “yuqori beshlik mamlakatlari” milliy iqtisodiyotlarini yuksaltirishda samarali iqtisodiy dasturlar va islohotlarni tatbiq qilinishi;

– ASEAN mamlakatlarining iqtisodiy-geografik joylanishuvining qulayligi, a’zo mamlakatlarning deyarli barchasi (Laosdan tashqari) dengiz bo‘yida hamda ular muhim xalqaro suv yo‘llari chorrahalarida joylashganligi;

– ASEAN uyushmasi mamlakatlarining jahon xo‘jaligida yuqori iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan o‘sishiga mintaqada urush bo‘limganligi va tinch sharoitda rivojlanganligi hamda jahoning ko‘plab rivojlangan mamlakatlari tomonidan investitsiyalar va zamonaviy ilg‘or texnologiyalarni jalb qilinganligini alohida ta’kidlash lozim.

23.1-jadval

ASEAN mamlakatlarining YaIMdagi ulushlari (foizda)

Davlatlar	Qishloq xo‘jaligi	Sanoat	Xizmat ko‘rsatish
Bruney	1	62	37
Kambodja	26	32	42
Indoneziya	13	40	47
Laos	15	36	39
Malayziya	17	38	45
Myanma	26	32	42
Filippin	19	32	49
Singapur	1	24	75
Tailand	15	39	46
Vietnam	36	22	42

Ushbu jadval “ASEAN Sekretariat, “ASEAN: statyearbook 2019” ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi mamlakatlarini iqtisodiy rivojlanish xususiyatlariga ko‘ra quyidagi 4 ta guruhga bo‘lish mumkin:

1. Yangi sanoatlashgan “Osiyo yo‘lbarslari” davlatlari: Janubiy Koreya, Singapur, Tailand va Malayziya. Bu mamlakatlarda yapon kapitali ta’sirida va mahalliy ishbilarmonlar faoliyati tufayli “iqtisodiy mo‘jiza”ga erishganlar.

2. Neft-gaz sanoati tarmog‘i rivojlangan davlatlar: Indoneziya va Bruney sultonligi. Indoneziyada yiliga salkam 70 mln.tonnaga yaqin neft hamda 30 mlrd.m.kub tabiiy gaz qazib oladi. Bruney sultonligida esa sanoat tarmoqlari endigina rivojlanish davrini boshidan kechirmoqda, Bruneyda qazib olinayotgan neft (yiliga 8-10 mln.tonna) va tabiiy gaz (10-13 mlrd.m.kub) eksportga chiqariladi.

3. Sanoatlashtirish yo‘lidan borayotgan davlatlar. Bu guruhda Vietnam alohida ajralib turadi hamda Filippinda ham AQSHning iqtisodiy hamkorligida sanoat tarmoqlari ancha rivojlangan.

4. Sanoati juda sust rivojlanayotgan davlatlar: Laos va Kambodja. Ushbu mamlakatlar iqtisodiyotida sanoatdan ko‘ra agrar soha ustun darajada rivojlangan (qarang: 23.2-jadval). Aynan ushbu mamlakatlarning iqtisodiy salohiyati ASEANning “Quyi beshlik mamlakatlari”ni iqtisodiy ko‘rsakichlarini “Yuqori beshlik mamlakatlari”ga tenglashishga to‘sqinlik qilayotgan eng asosiy mamlakatlardir.

Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi mamlakatlarining rivojlanishida o‘ziga xos milliy urf-odatlar muhim ahamiyat kasb etadi va ularga xos quyidagi jihatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Jumladan, Janubi-Sharqiy Osiyo iqtisodiy modeli uchun davlat va biznes hamkorligi bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Mintaqa mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish bosqichlarida Milliy iqtisodiyotda quyidagi ustuvor tarmoqlarning rivojlanish davrlarini ko‘rishimiz mumkin:

- 1950-yillar-mintaqa mamlakatlarida urush asoratlariga barham berilishi va tiklanish davri;
- 1960-yillar – to‘qimachilik va qishloq xo‘jaligi;
- 1970-yillar – neft-gaz, qayta ishslash, kimyo sanoati va metallurgiya;

- 1980-yillar – mashinasozlik, kemasozlik va avtomobilsozlik;
- 1990-yillar – radioelektronika, elektrtexnika va kompyuter;
- 2000-yillar – aerokosmos, nou-xau, yangi fan-texnika mahsulotlari;
- 2010-yillar – “nou-xau” va raqamli iqtisodiyot.

23.3. “To‘rtta kichik yo‘lbars mamlakatlari” va Vietnam iqtisodiyoti

Tailand iqtisodiyoti. Tailand Qirolligi – Janubi-Sharqiy Osiyoda, Hindixitoy yarim orolining markaziy qismi va Malakka yarim orolining shimoliy qismida joylashgan davlat bo‘lib, uning umumiy hududi 514 ming km.kv.ni tashkil qiladi. Aholisi 66,6 mln. kishi. Poytaxti Bangkok shahri, uning aholisi poytaxt yaqinidagi Tonburi shaharchasi bilan birga 7 mln. kishini tashkil qiladi. Rasmiy tili tay tili, rasmiy dini buddizm. Ishsizlik darajasi 4,0 foizdir. Milliy valutasi bat. Asosiy industrial shaharlari: Bangkok, CHiangmay, Txonburi va Kxonken. Xalqaro dengiz portlari: Bangkok, Pxuket, Sattaxin. Bangkokning xalqaro aeroporti Janubi-Sharqiy Osiyodagi muhim xalqaro tranzit yo‘llaridan biri hisoblanib, mintaqada yo‘lovchi va yuk tashish jihatidan Singapurning “Changi” va Gonkongning “Kaytak” aeroportlaridan keyin 3-o‘rinda turadi.

Tailandning YaIM miqdori 543,7 mlrd. dollar, YAMMning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadi 7260 dollarni tashkil qiladi. Umumi tashqi savdo aylanmasi 450,5 mlrd.dollarni tashkil qilib, bundan eksporti 233,7 mlrd.doll. va importi esa 216,8 mlrd.dollarni tashkil qiladi. Uning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini 23.3-jadval orqali ko‘rib tahlil qilish mumkin.

Tailand rivojlangan agrar-industrial mamlakat bo‘lib, uning YaIMda qishloq xo‘jaligining ulushi o‘rmon xo‘jaligi va baliqchilik tarmoqlari bilan birga 15,2 foiz; sanoatning ulushi 39 foiz hamda xizmat ko‘rsatish sohasining ulushi 46 foizni tashkil qiladi. Mehnatga layoqatli aholining 70 foiziga yaqini qishloq xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatadi. Tailandda qishloq xo‘jaligi yalpi ichki mahsulotning 16 foizini beradi. Tailand milliy iqtisodiyotida chet el kapitali asosan Yaponiya, AQSH, Germaniya va Buyuk Britaniya mamlakatlariga to‘g‘ri keladi.

Qishloq xo‘jaligi tarmoqlari mamlakat hududining 38 foizini

tashkil qiladi. Asosiy dehqonchilik yerlari Menam vodiysi va Korat platosida joylashgan bo‘lib, ushbu hududlarda aholining eng asosiy “non”i hisoblangan sholi, shuningdek, makkajo‘xori, shakarqamish, dukkakli ekinlar, tariq, yer yong‘oq, kanakunjut, choy, kofe, kanop, kokos palmasi, paxta, tamaki, ziravorlar, sitrus mevalar, mango, ananas va boshqa ko‘plab meva-sabzavotlar yetishtiriladi. Mamlakat issiq iqlim mintaqada joylashganligi sababli bir yilda 2 marta hosil olish imkoniyatiga egadir.

Sanoat tarmoqlari uchun kauchuk olinadigan daraxtazorlar tashkil qilingan, shuningdek, pillachilik ham rivojlangan. Chorvachilikda qoramol, cho‘chqa, parranda boqiladi. Ichki suv havzalari va dengizlarda baliq ovlanadi. Tailand ko‘plab tabiiy resurslar va mineral xomashyo zaxiralariga boy bo‘lgan mamlakatdir. Sanoat tarmoqlari ichida konchilik tarmog‘i rivojlangan bo‘lib, unda qalay, qo‘rg‘oshin, rux, volfram va marganets rudalari, neft, asbestos, qimmatbaho toshlar qazib olinadi va qisman qayta ishlanadi, shu bilan birga metallurgiya, tsement ishlab chiqarish, metallsozlik kabi tarmoqlar rivojlangan.

Sanoatining eng asosiy tarmoqlariga elektronika, oziq-ovqat (sholidan turli mahsulotlar ishlab chiqarish, kokos moyi, qand-shakar ishlab chiqarish va boshqalar) va to‘qimachilik (jutdan kanop yigirish va to‘qish) sanoatini ta’kidlash joiz. Yog‘ochsozlik sanoati va kauchukni dastlabki qayta ishlash korxonalari tashkil qilingan.

Mamlakatda turizm juda ham rivojlangan bo‘lib, sayyohlarning asosiy ulushini MDH davlatlari tashkil qiladi. Turizm negizida hunarmandchilik rivojlangan bo‘lib, ushbu sohada ishlab chiqarilgan mahsulotlar va turli suvenirlar xorijiy sayyohlar tomonidan xarid qilinadi.

Asosiy eksport mahsulotlari: guruch, kauchuk, qand-shakar, qalay va boshqa metall va nodir rudalari, asil toshlar, gazlama kabi mahsulotlar hamda turizm kiradi. Tailand jahon iqtisodiyotida tabiiy kauchuk va sholi eksport qiluvchi yirik mamlakatlaridan biridir.

Asosiy import mahsulotlariga esa neft va neft mahsulotlari, mashina va uskunalar, kimyo mahsulotlari, mineral o‘g‘itlar, qora metall va aholi iste’moli mahsulotlarini tashkil qiladi. Asosiy hamkor mamlakatlar Xitoy, AQSH va Yaponiya, Singapur kabi mamlakatlardir.

Malayziya iqtisodiyoti. Malayziya davlati yoki Muh Lay Zhuh

Osiyo qit'asining Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida hamda iqtisodiy - geografik jihatdan juda qulay joylashgan mamlakatlardan biridir. Uning hududi 329,8 ming km.kv.ni va minglab orollardan tashkil topgan.

Malayziya ikkita yirik oroldan, ya'ni G'arbiy Malayziya va Sharqiy Malayziya orollardan tashkil topgan bo'lib, G'arbiy Malayziya shimolda Tailand, janubda Singapur, g'arbda Malakka bo'g'ozi va sharqda Janubiy Xitoy dengizi o'rab turadi. Sharqiy Malayziya esa, janubda va g'arbda Indoneziya bilan, shimolda esa Bruney bilan va qolgan yer maydonlarini suv havzalari o'rab turadi. Poytaxti Kuala-Lumpur. Pul birligi ringit.

Aholisi 33 mln. kishi bo'lib, bundan malaylar 67 foiz, xitoylar 23 foiz, hindlar 7 foiz va qolgan qismini indoneziyaliklar, avstraliyaliklar va Yevropaliklar millatga mansub aholilar yashaydi. O'rtacha yashash davri erkaklarda 67 yosh, ayollarda 72 yoshni tashkil qiladi. Tug'ilish-1000 kishiga 31 kishi, o'lim darajasi esa 1000 kishiga 5 kishi to'g'ri keladi.

Aholi zichligi 1 km.kv.ga 101 kishi to'g'ri keladi. SHuni alohida qayd etish lozimki, G'arbiy Malayziyaning aholi zichligi Sharqiy Malayziyaga qaraganda deyarli 7 barobar ortiqdir. Butun aholining deyarli yarmi qishloqlarda yashaydi. Rasmiy dini-islom dini. YaIM miqdori 364,7 mlrd.dollar, YAMMning aholi jon boshiga daromadi 11200 dollarni tashkil qiladi. Umumiylashqi savdo aylanmasi 443,0 mlrd. dollarni tashkil qilib, bundan eksporti 283,1 mlrd.doll. va importi esa 204,9 mlrd. dollarni tashkil qiladi. Uning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini 23.3-jadval orqali ko'rib tahlil qilish mumkin.

Malayziya industrial-agrar mamlakat. YaIMda sanoatining ulushi 29 foiz, konchilik sanoatining ulushi 9 foiz, qishloq xo'jaligi 17 foizni hamda xizmat ko'rsatish sohasi 45 foizni tashkil qiladi. Ishsizlik darajasi 5,0 foizni tashkil qiladi. Malayziyaning yalpi iqtisodiy taraqqiyoti XX asrning 70-yillaridan boshlangan. Butun dunyoga suv yo'llarning mavjudligi Malayziyani savdo, investitsiya va sayyohlik uchun juda qulaylik tug'dirdi.

23.3-jadval

“To‘rtta kichik yo‘lbars mamlakatlari”ning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari

T/r	Asosiy ko‘rsatkichlar	Malayziya	Indoneziya	Filippin	Tailand
1	YaIM miqdori (mln.doll.) ¹¹⁶	364,7	1.119,2	377,0	543,7
2	YaMMning aholi jon boshiga (doll.) ¹¹⁷	11.200	4.050	3.850	7.260
3	Umumiy tashqi savdo aylanmasi (mlrd.doll.)	443,0	337,7	188,1	450,5
4	Eksport (mlrd.doll.)	238,1	167,0	70,9	233,7
5	Import (mlrd.doll.)	204,9	170,7	117,2	216,8
6	Eng asosiy tashqi savdo hamkorlari	Singapur, Xitoy	Yaponiya, Xitoy	Xitoy, Yaponiya	Xitoy, AQSH
7	Valuta zaxirasi (mlrd.dollar) ¹¹⁸	103,6	129,2	89,5	224,4
8	Tashqi qarzi (mlrd.doll.)	100,1	223,8	72,8	86,1
9	Aholi soni (mln. kishi)	33,0	266,9	109,4	66,6
10	Umumiy yer maydoni (ming km.kv.)	329,8	1.919,4	300,0	514,0
11	Ishsizlik darajasi (foiz)	5,0	6,6	4,3	4,0
12	Milliy valutasi (pul birligi)	Ringit	Indoneziya rupiyasi	Filippin pesos	Bat
13	Mamlakat poytaxti	Kuala-Lumpur	Jakarta	Manila	Bangkok
14	Rasmiy davlat tili	Malay tili	Indoneziya tili	Filippin tili	Tay tili

Ushbu jadval ma’lumotlar asosida ishlab chiqilgan.

Sanoat mahsulotlarining xalqaro savdosi Malayziyaning kelajakdagi iqtisodiy rivojlanishi uchun asosiy omil bo‘ladi. Mamlakat

¹¹⁶ Gtmarket.ru/ratings/gross-national-income-ranking

¹¹⁷ https://data.worldbank.org/indicator/NY.GNP.PCAP.CD

¹¹⁸ https://https://nonews.co/directory/lists/countries/gold

hukumati investitsiyani kengaytirish maqsadida ko‘plab qonunlarni tatbiq qildi. Jumladan, 1967-yilda “Bojxona faoliyati” va “Soliq siyosati”, 1972-yilda “Aksiz soliqlarini tatbiq qilinishi”, 1986-yilda “Investitsiyani kengaytirish” hamda xalqaro turizmni rivojlantirish, sanoat, xususiy sektor va qishloq xo‘jaligi tarmoqlariga oid ko‘plab qonunlar kuchga kirdi.

Iqtisodiyot tarkibining sanoat sohasida mashinasozlik, kauchukdan mahsulotlar ishlab chiqarish, qo‘rg‘oshin (Malayziya - dunyodagi yirik qo‘rg‘oshin ishlab chiqaruvchi mamlakatdir), sement, konditsioner, neftni qayta ishslash, kimyo, to‘qimachilik, yog‘ochni qayta ishslash, kompyuterning ehtiyyot qismlari, metallurgiya tarmoqlari keng ko‘lamda rivojlangan. Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish esa, bu mamlakat milliy iqtisodiyotidagi eng asosiy tarmoqdir.

Qishloq xo‘jaligida asosiy ekin sholi bo‘lsa ham, mamlakat ehtiyyagini to‘la qondirmaydi. Mamlakat iqtisodiyotining eng muhim tar-mog‘i kauchuk ishlab chiqarishdir. Bundan tashqari, kokos palmasi, ananas, kakao, choy, murch, sabzavot va ko‘plab tropik, mevalar yetishtiriladi.

Asosiy eksport mahsulotlariga kauchuk, qalay, neft, yog‘och va oziq-ovqat mahsulotlari hamda turizm kiradi. Importiga tayyor sanoat mahsulotlari, oziq-ovqat, neft mahsulotlari, mashinalar, ilg‘or asbob-uskunalar kiradi. Savdo-sotiq sohasidagi asosiy sheriklari: Singapur, Xitoy, AQSH.

Filippin iqtisodiyoti. Fillipin Respublikasi Janubi-Sharqiy Osiyodagi jami 7112 ta orollardan (shundan 872 tasida aholi yashaydi) tashkil topgan davlatdir. Uning hududi 299,8 ming km.kv. bo‘lib, poytaxti Manila shahridir. Mamlakatning yirik orollari: Luson, Mindanar, Samar, Mindoro, Palavan va Panay orollari. Milliy valutasi filippin pesosi. Ishsizlik darajasi 4,3 foizdir.

Filippin aholisi taxminan 109,4 mln. kishi. Manila shahrining aholisi unga juda yaqin bo‘lgan shaharchalar bilan birgalikda 5 millionga yaqin aholi istiqomat qiladi. Umumiyligi aholining 93 foizini xristianlar, 4 foizini musulmonlar va qolgan 3 foiz aholi boshqa dinga mansub kishilardir. Filippin aholisining kelib chiqishi Malayziya, Indoneziya va Xitoy xalqlaridan iborat. Asl Filippin orollarining xalqi pigmeylar bo‘lgan (ya’ni balugas ham deb atalgan), bu xalq hozirgi kunda juda ham kam sonli aholini tashkil qiladi. Industrial va aholisi

ko‘p bo‘lgan shaharlarga Manila (5 mln. kishi), Keson-Siti (3 mln.), Kalookan (1 mln.) Sebu (1 mln.), Bakolod (salkam 1 mln.) va boshqa o‘nlab shaharlar mavjud.

Fillipin ko‘plab foydali qazilma boyliklar va xomashyoga ega bo‘lgan mamlakat. Uning hududida mis, xrom, oltin, temir, marganets, simob, nikel, ruda, toshko‘mir va boshqa o‘nlab foydali qazilma boyliklar mavjud. XX asrning 50-yillarida ham Filippin hududining 70 foizi qalin o‘rmonlardan tashkil topgan edi, biroq so‘nggi yillarda daraxtlarning sanoat tarmoqlari uchun ko‘p kesilishi, yog‘ochga bo‘lgan ehtiyojning yuqori bo‘lganligi, yer maydonlarining o‘zlashtirilishi sabab ko‘p kesilishi, shuningdek, bir necha bor takror ro‘y bergen o‘rmonlarning yonishi oqibatida o‘rmon xo‘jaligi salmoqli darajada qisqargan.

Filippin agrar-industrial mamlakat bo‘lib, YaIMda iqtisodiyot sohalarida quyidagi ulushlarni ko‘rishimiz mumkin: sanoat 32 foiz, qishloq xo‘jaligi 19 foiz va xizmat ko‘rsatish sohasi esa 49 foiz. Filippinning YaIM miqdori 377,0 mlrd.dollar, YaMMning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadi 3850 dollarni tashkil qiladi. Umumiy tashqi savdo aylanmasi 188,1,0 mlrd.dollarni tashkil qilib, bundan eksporti 70,9 mlrd.doll. va importi esa 117,2 mlrd.dollarni tashkil qiladi. Uning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini 23.3-jadval orqali ko‘rib, tahlil qilish mumkin.

Fillipinda sanoat ishlab chiqarishda 100 dan ortiq yirik kompaniyalar mavjud. Sanoat tarmoqlarida metallsozlik, mashinasozlik (jumladan, avtomobil yig‘ish), televizor, radiopriyomnik, elektr asboblar), mebel ishlab chiqarish, poyabzal, yog‘ochsozlik, mineral o‘g‘itlar, rezinotexnika buyumlari ishlab chiqarish, neftni qayta ishlash, neft kimyosi, to‘qimachilik, tikuvchilik, oyna, sement ishlab chiqarish kabi tarmoqlar mavjud bo‘lib, sanoat tarmog‘ida mehnatga layoqatli aholining 22 foizi banddir. Sanoatda konchilik rivojlangan bo‘lib: nikel, rux, mis, temir, marganets, xrom rudalari, shuningdek, toshko‘mir, neft, simob, oltin, kumush qazib olinadi.

Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida yaroqli yerlar 9 mln. hektar, ya’ni mamlakat hududining 30 foizida shug‘ullaniladi. Mehnatga layoqatli aholining 50 foizdan ko‘prog‘i qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida mashg‘ul, bu tarmoq barcha eksport tushumlarining 60 foizga yaqinini

beradi. Dehqonchilikda asosan shakarqamish, kokos palmasi, yeryong‘oq, kofe, kakao, tamaki, tropik va sitrus mevalar yetishtiriladi va ularning asosiy qismi eksportga yo‘naltiriladi.

Chorvachilik tarmog‘i ham rivojlangan bo‘lib, qoramol va buyvol, cho‘chqa, echki, parranda boqiladi. Mamlakat minglab orollardan tashkil topganligi sababli baliqchilik sohasi rivojlangan. Baliqning asosiy qismi Yaponiyaga eksport qilinadi. Demak, asosiy eksport mahsulotlariga radioelektron mahsulotlar, sholi, mevalar, rezina, baliq, yog‘och, banan, qand-shakar, oltin, kokos yong‘og‘ining mag‘zi, kokos moyi kabilar tashkil qiladi. Filippin kokos yong‘og‘ini eksport qilish miqdori bo‘yicha jahonda 1-o‘rinda turadi. Asosiy import mahsulotlariga esa, zamonaviy texnologiyalar, neft va neft mahsulotlari, avtomobillar, kemalar va boshqa transport vositalari, aholi iste’moli mahsulotlari tashkil qiladi. Tashqi savdodagi eng asosiy hamkor mamlakatlar: Xitoy, Yaponiya, AQSH, Avstraliya, Indoneziya, Singapur, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar tashkil qiladi.

Shuni qo‘sishimcha holda ta’kidlash joizki, Filippin iqtisodiyoti har yili turli tabiiy ofatlar natijasida qariyb 1 mlrd.dollar atrofida ziyon ko‘radi va Filippin Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida tabiiy ofatlardan eng ko‘p jabr ko‘rvuchi mamlakat sifatida e’tirof qilinadi.

Indoneziya iqtisodiyoti. Indoneziya Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasining Malaya orollarida va Yangi Gvineya orolining g‘arbiy qismida joylashgan hamda ikki okean va to‘rt dengiz oralig‘ida, dunyodagi eng katta musulmon davlatidir. Uning hududi 1906,6 ming km.kv bo‘lib, jami 17 mingdan ortiq orollardan tashkil topgan. U jahon xo‘jaligida eng ko‘p orollardan tashkil topgan davlatdir. Aholisi 266,9 mln. kishini tashkil qilib, aholi soni bo‘yicha dunyoda Xitoy, Hindiston va AQSHdan so‘ng 4-o‘rinda turadi. Aholining 81 foizini musulmonlar tashkil qiladi. Mamlakatning YAvA orolida aholi qariyb 150 mln. kishi istiqomat qiladi va jahon orollarida eng ko‘p aholi istiqomat qilish ko‘rsatkichi bo‘yicha YAvA oroli 1-o‘rida turadi (2-o‘rinda Yaponiyaning Xonsyu oroli). Indoneziya ko‘p millatli davlat bo‘lib, unda xitoylar, malaylar, filippinlar va boshqa millatga mansub xalqalar ham yashaydi yoki boshqacha qilib aytganda mamlakatda jami 583 xil muloqot til mavjuddir. Poytaxti Jakarta shahri (YAvA orolida), poytaxtning aholisi 15 mln. kishini tashkil qiladi. Pul birligi indoneziya rupiyasi. Ishsizlik darajasi 6,6 foiz.

Industrial rivojlangan shaharlari: Jakarta, Surabaya Medan, Bandung, Semarang, Padang, Malang, Palembang va boshqa o‘nlab shaharlar kiradi. Indoneziyaning YAIM miqdori 1119,2 mlrd.dollar, YAMMning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadi 4050 dollarni tashkil qiladi. Umumiy tashqi savdo aylanmasi 337,7 mlrd.dollarni tashkil qilib, bundan eksporti 167,0 mlrd.doll. va importi esa 170,7 mlrd.dollarni tashkil qiladi. Uning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini 23.3-jadval orqali ko‘rib, tahlil qilish mumkin.

Indoneziya agrar-industrial mamlakatdir. Uning jahon tashqi savdodagi ulushi salkam 1 foizni tashkil qiladi. Indoneziya XX asrning 60-yillaridan jahon bozoriga asosan xomashyo eksporti orqali o‘z milliy iqtisodiyotini oyoqqa turg‘izgan. Jahon bozoriga neft xomashyosi va kauchuk hamda ko‘plab mineral resurslarni eksport qiladi. Indoneziya bugungi kunda ham kauchuk eksporti bo‘yicha jahon xo‘jaligida 1-o‘rinda turadi.

Indoneziya tabiiy qazilma boyliklariga va mineral resurslarga ega mamlakat. Qazilma boyliklardan: yuqori sifatli neft, qalay, boksit, nikel, marganit, qo‘rg‘oshin, mis, rux va xromning katta zaxiralari bor. Mamlakat hududining 60 foizidan ziyodrog‘ida qimmatbaho nav daraxtlar o‘sadigan yirik o‘rmonlar bilan qoplangan. Sanoatda avtomobilsozlik, radioelektronika, mashinasozlik, rezina mahsulotlarini ishlab chiqarish, kema remonti, neft qazish va uni qayta ishlash, to‘qimachilik kabi sanoat tarmoqlari mavjuddir. Bundan tashqari mineral o‘g‘it va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish sohalari ham rivojlangan. Biroq ushbu sanoat tarmoqlari asosan ichki bozorga mo‘ljallangan.

Mehnatga layoqatli aholining 56 foizi qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida band bo‘lib, ular sholichilik, chorvachilik, baliqchilik, parrandachilik va boshqa agrar tarmoqlarida faoliyat ko‘rsatishadi. Qishloq xo‘jaligida yetishtiriladigan mahsulotning asosiy qismi mamlakat aholisi ehtiyoji uchun yo‘naltiriladi. Mamlakatda turizm sohasi XX asrning 90-yillaridan rivojlana boshladi. Bugungi kunda mamlakatning Bali oroli xorijliklar uchun yirik turizm markazi sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Xorijiy sayyohlarning 65 foizi MDH mamlakatlariga to‘g‘ri keladi.

Indoneziyaning asosiy eksportiga neft xomashyosi va neft mahsulotlari, kauchuk, yog‘och, rangli metallar, gazlama, baliq kabi

mahsulotlar kiradi. Importiga esa, aholi iste'moli mahsulotlari, oziq-ovqat mahsulotlari, ilg'or texnika va texnologiyalar, transport vositalari tashkil qiladi. Tashqi savdo-sotiq sohasidagi eng asosiy sheriklari: Yaponiya, Xitoy, AQSH, Singapur, Malayziya, Germaniya va Avstraliya kabi mamlakatlar kiradi.

Vietnam iqtisodiyoti. Vietnam Sotsialistik Respublikasi – Janubi-Sharqiy Osiyoda, Hindixitoy yarimorolida joylashgan davlat bo'lib, uning hududi 331,2 ming km.kv.ni tashkil qiladi. Aholisi 96,7 mln. kishi, poytaxti Xanoy shahri. Aholining 80 foizi vietnamlarni tashkil qiladi, shuningdek, taylor, xitoylar, myaolar, yaolar, xmonglar va boshqa millat vakillari yashaydi. Rasmiy tili vietnam tili. Umumiyligi aholining 21 foizi shaharlarda istiqomat qiladi. Mamlakatning yirik industrial shaharlari: Xanoy, Xoshimin, Danang, Xayfon, Namdin va boshqa o'nlab shaharlar kiradi hamda ushbu shaharlar dengiz qirg'oqlarida joylashganligi sababli yirik xalqaro-dengiz portlari qurilgan. Milliy valutasi - dong.

Vietnam iqtisodiyoti 1970-yillardan boshlab sobiq Ittifoqning bevosita iqtisodiy yordami evaziga oyoqqa turgan. O'tgan asrning 60-yillarining oxirida yuz bergan Vietnam-AQSH urushi iqtisodiyotini butkul izdan chiqargan va urush tufayli umumiyligi hududning 65 foizi yaroqsiz holatga kelgan. AQSH tomonidan ishlab chiqarilgan eng zamonaviy ilg'or va kimyoviy qurollar aynan ushbu mamlakat bilan urushda qo'llanilgan. Urush asoratlaridan qutulish uchun Vietnamga kamida 15 yil vaqt sarflangan.

Vietnam agrar-industrial mamlakatdir. XXI asrning 10-yillarida jahon iqtisodiyotidagi eng tez rivojlanayotgan mamlakatlar toifasidan joy olgan. Jahon banki ekspertlarining tahlillariga ko'ra, Vietnam milliy iqtisodiyoti pandemiya sharoitidan yengil chiqib iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari 5-6 yil davomida kamida 8 foizni tashkil qilsa, u holda 2020-yilning o'rtalariga borib jahon xo'jaligida "vietnam mo'jiza" sini vujudga kelishini taxmin qilishmoqda.

YalIMda qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligining ulushi 36 foiz, sanoat 22 foiz va xizmat ko'rsatish sohasi 42 foizni tashkil qiladi. Sanoat tarkibida yengil va oziq-ovqat tarmoqlari ustun darajada rivojlangan. Oziq-ovqat sanoatida sholi va sholdan tayyorlangan mahsulotlar, qand-shakar, konserva, choy, tamaki, turli xil makaron mahsulotlari va boshqa turdag'i oziq-ovqat mahsulotlari ishlab

chiqarildi.

Xanoy, Namdin, Xayfon, Xoshimin kabi shaharlarda yuzlab to‘qimachilik va trikotaj fabrikalari faoliyat ko‘rsatadi. Vietnam ko‘plab tabiiy resurs va xomashyolarga boy bo‘lgan mamlakatdir. Konchilik sanoatida toshko‘mir, qalay, xromit, apatit, volfram qazib olinadi. Kaobangda kapay, Langshonda aluminiy, Txaynguyen, Benxoada yirik po‘lat eritish korxonalari bor. Mashinasozlik tarmog‘ida qishloq xo‘jaligi texnikasi va traktorlari, avtombillar (yig‘ish), tog‘-kon metallurgiya korxonalari uchun asbob-uskunalar, nasoslar, televizorlar hamda turli transport vositalari ishlab chiqarish asosiy o‘rinni olgan. Vietnam jahon xo‘jaligida velosipedlar ishlab chiqarish soni jihatidan Xitoy va Hindistondan so‘ng 3-o‘rinda turadi.

Qishloq xo‘jaligi sohasida mehnatga layoqatli aholining qariyb 75 foiz band bo‘lib, 5 mln.ga. yer maydonlarida qishloq xo‘jaligining turli tarmoqlarida faoliyat ko‘rsatishadi. Jahon qishloq xo‘jaligida Vietnamning ayrim hududlarida sholichilikda 3 martagacha sholi yetishtiriladi. Jahon qishloq xo‘jaligida sholichilikda 1 yilda 3 marta sholi yetishtirish faqatgina Vietnam va Tayvan mamlakatlarining tabiiy iqlimi imkoniyat beradi xolos.

Asosiy qishloq xo‘jalik ekini sholi bo‘lib, undan tashqari batat, maniok, makkajo‘xori, turli meva-sabzavotlar, tropik mevalar, shakarqamish, choy, tamaki, ananas, banan, kofe, kauchuk kabilar etishtiriladi. Chorvachilikning asosiy tarmog‘i cho‘chqachilikdir. Bundan tashqari qoramolchilik va parrandachilik ham rivojlangan. Mamlakat yarimorol bo‘lganligi sababli baliqchilik ham rivojlangan. Asosiy eksport mahsulotlariga: neft xomashyosi, elektronika, ko‘mir, sholi, kauchuk, qalay, kofe, baliq hamda dengiz va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari kiradi. Importiga esa neft mahsulotlari, mineral o‘g‘itlar, sement, paxta, mashina asbob-uskunalarini kiradi. Tashqi savdodagi asosiy hamkorlari: Yaponiya, Singapur, Gonkong, Janubiy Koreya va Fransiya mamlakatlaridir.

23.4. ASEAN uyushmasining muammolari va istiqbollari

XXI asrning 20-yillariga kelganda uyushmaning qariyb 50 yildan ortiq faoliyati davomida a’zo mamlakatlar o‘rtasida hamon o‘zaro hal etilmagan masalalar va bir qator muammolar mavjud.

— “Yuqori beshlik mamlakatlari”ga qo‘shilgan yangi a’zo

mamlakatlarning, jumladan Hindixitoy va Myanma mamlakatlarining “adaptatsiya” (ko‘nikish va shart-sharoitlarga moslashish) jarayonlarining hamon davom etishi;

- “Quyi beshlik mamlakatlari” iqtisodiyotlarida davlat aralashuvining turli ko‘rinishlari natijasida “Yuqori beshlik mamlakatlari”ning iqtisodiy holatiga va aholini turmush darajasiga tenglashishi (bu jarayon 2025-yilgacha hal bo‘lishi lozim);
- ASEAN uyushmasi mamlakatlarining hududiy tortishuvlarining bugungi kungacha bartaraf etilmaganligi, jumladan: Malayziya-Singapur; Malayziya-Filippin; Malayziya-Indoneziya o‘rtasidagi ko‘plab orollar yuzasidan bahsli hududlarning mavjudligi.

Shuningdek, ASEAN uyushmasining yaqin kelajak yillardagi istiqbollarini ta’kidlashimiz lozim:

- ASEAN uyushmasi mamlakatlarining integratsiyalashuvi jarayoni (Yevropa Ittifoqi uyushmasi namunasi kabi jarayoniga yaqinlashuvi);
- Xitoy, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Hindiston mamlakatlarining 2025-yilgacha hamda Avstraliya va Yangi Zelandiya mamlakatlarining 2030-yilgacha a’zo bo‘lib kirishi;
- yangi a’zo bo‘lib kiradigan mamlakatlarning iqtisodiy hamkorligida va ularning ishtirokida ASEAN 2033-yilga borib jahondagi eng qudratli va iqtisodiy salohiyati jihatidan eng yirik xalqaro tashkilot bo‘lishiga harakat qilinadi va bu ASEANning yaqin kelajak yillar uchun eng oliy maqsaddalaridan biri bo‘lib qoladi.

Bob yuzasidan xulosa

XXI asrning boshlariga kelib ASEANning “Yuqori beshlik mamlakatlari” va Vietnam kabi mamlakatlarining milliy iqtisodiyotlarining ko‘plab iqtisodiy ko‘rsatkichlari jahon iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari ilmtalab va yuqori texnologiyali mahsulotlar eksportchisiga aylanmoqda hamda ilmtalab mahsulotlar bozorida ularning maqomi tobora oshib bormoqda. Jahondagi integratsiyaviy jarayonlar taraqqiyoti xususiyatlaridan kelib chiqib, ASEAN va uning a’zo mamlakatlari milliy iqtisodiyoti yuzasidan quyidagi xulosa va takliflarni keltirish mumkin:

- mintaqaviy va xalqaro masalalarda ASEAN davlatlari

birdamlikni qo'llab-quvvatlab kelmoqda. O'z vaqtida Vietnam Prezidenti Xo Shi Min "Birdamlik, birdamlik, birdamlik. Muvaffaqiyat, muvaffaqiyat va ulkan muvaffaqiyat" – deb ta'kidlagan edi. ASEAN tarixida Kambodja davlati inqirozga uchraganda, ASEAN davlatlari uyushgan holda Kambodjaning inqirozdan chiqib ketishida birgalikda faoliyat olib borganligi ham aynan birdamlikning yaqqol namunasidir;

– mintaqa davlatlari o'rtasida iqtisodiy-siyosiy kelishmovchilik va ixtiloflar yuzaga kelganda ASEAN bu muammolarni kuch ishlatmasdan tinch yo'llar bilan diplomatik muzokaralar asosida hal qiladi;

Nazorat savollari

1. ASEANning tashkil qilinish zaruriyati va mohiyatini ayting.
2. ASEAN uyushmasi qachon va qanday tashkil qilingan?
3. ASEAN uyushmasining a'zolarini sanab bering.
4. ASEAN uyushmasi faoliyatining maqsadlarini ayting.
5. "To'rtta kichik yo'lbars" mamlakatlarining "iqtisodiy mo'jiza"ga erishishdagi eng asosiy omillarini ayting.
6. ASEAN mamlakatlari iqtisodiy rivojlanish sabablarini ayting.
7. Malayziya iqtisodiyotida eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishning rivojlantirishga bo'lgan e'tiborni tavsiflang?
8. Tailand iqtisodiyotining jadal sur'atlarda rivojlanishiga qaysi xususiyatlarni ko'rsatish mumkin?
9. Filippin bilan AQSH o'rtasidagi o'zaro harbiy va savdo iqtisodiy munosabatlarga baho bering?
10. Indoneziyaning aholi tizimi va uning ko'rsatkichlarini ayting.
11. Nima uchun Vietnam iqtisodiyoti tez sur'atlarda taraqqiy etmoqda?
12. ASEANning so'nggi Sammitida qanday kelishuv imzolandi va uning jahon iqtisodiyotidagi mohiyatini ayting.
13. ASEANning iqtisodiy salohiyatini ta'riflab bering.
14. Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi qanday xomashyo va mineral resurslarga boy hisoblanadi?
15. ASEAN uyushmasining muammolarini ayting.
16. ASEAN uyushmasining istiqbollarini ayting.

Uyga vazifa!

Talabaning “ASEAN davlatlarining iqtisodiy rivojlanishi va ularning jahon iqtisodiyotida tutgan o‘rni” mavzusini chuqur o‘zlashtirishi hamda amaliyot darsiga puxta tayyorgarlik ko‘rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

- 1) mavzu so‘ngida berilgan “Nazorat savollari”ga tayyorgarlik ko‘rish;
- 2) ASEAN davlatlari hududlarini xarita orqali iqtisodiy-geografik joylanishuvini ko‘rib chiqish;
- 3) ASEAN mamlakatlarining sanoat tarmoqlari bo‘yicha talabalar guruahlarga bo‘lingan holda “Taqdimot” o‘tkaziladi.

XXIV BOB. XITOYNING “IQTISODIY MO‘JIZA”SI VA UNING JAHON XO‘JALIGIDA TUTGAN O‘RNI

- 1. Xitoyning qisqacha iqtisodiy tarixi va uning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari.**
- 2. Xitoyning aholi tizimi va uning o‘sish tendensiyalari.**
- 3. Xitoyning “iqtisodiy mo‘jiza” yaratishdagi asosiy omillari.**
- 4. Xitoyning 1950–1970-yillardagi iqtisodiy taraqqiyoti.**
- 5. Xitoy iqtisodiyotida “xitoy mo‘jiza”sining vujudga kelishining asosiy bosqichlari.**
- 6. COVID-19ning Xitoy iqtisodiyotiga ta’siri.**
- 7. “Xitoy modeli” va uning omillari.**

Tayanch iboralar: “ochiq eshik siyosati”, madaniy inqilob, “5 yillik reja”, “xitoy modeli”, “xitoy mo‘jizasi”, plenum, syezd, “xitoy diplomatiyasi”, demping, demping siyosati, reeksport, inflatsiya, yuan, kollektivlashtirish.

Xitoyning jahon xaritasida joylashgan o‘rni



24.1. Xitoyning qisqacha iqtisodiy tarixi va uning tavsifi

Xitoy dunyodagi eng qadimiy davlatlardan biri sanaladi. Qadimda, Xitoy Sharqning eng yuqori sivilizatsiyasini egallagan davlat bo‘lgan. Ko‘pgina mamlakatlar, xususan, Yaponiya, Koreya,

Vietnam kabi mamlakatlar Xitoy tomonidan ta'sirlangan, ya'ni ular Xitoy falsafasini, san'atini, oziq-ovqatini, moddiy madaniyatini, davlat tuzilishini, texnologiyasini va yozuv harflarini o'z davlatlarida o'zlashtirganlar. Jahon xo'jaligi iqtisodiyoti tarixining ko'pgina qismida Xitoy davlatining iqtisodiyoti har tomonlama rivojlangan bo'lган.

Xitoyliklar o'z davlatlarini "Zong'ju" (Zhongguo) deyishadi. Bu so'zning ma'nosi "Markaziy davlat" yoki "Markaziy qirollik" demakdir. "Xitoy" degan atama xorijliklar tomonidan berilgan. Qadimda ham O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasida iqtisodiy hamkorlik bo'lган, bunga sabab, aynan Xitoyning Yevropa mamlakatlari bilan bog'lab turuvchi "Buyuk ipak yo'li" Markaziy Osiyo hududidan o'tgan. Jahonning "yetti mo'jizasi"ning biri va jahonga mashhur bo'lган "Buyuk xitoy devori" qurilgan. Jahonda birinchi bo'lib ko'plab sanoat tarmoqlari aynan Xitoymda vujudga kelgan: porox, ipak (shoyi), qog'oz, farfor va kompaslar ixtiro qilingan.

Bugungi Xitoy hayotining qaysi sohasini olmang, taraqqiyot va yangilanish ro'y berayotganligiga guvoh bo'lamiz. Umuman Xitoy iqtisodiyoti tarixini ko'radigan bo'lsak, ikki ming yil davomida, xususan 1700-yilga qadar Xitoyning dunyo bo'yicha YaIMdagi ulushi 25 foiz bo'lган va jahon xo'jaligida yetakchi mamlakatlar qatoridan joy olgan. Biroq keyinchalik uning hududlarini birin-ketin Portugaliya, Buyuk Britaniya, Yaponiya kabi mamlakatlar tomonidan egallanishi Xitoy xalqi va iqtisodiyoti uchun kuchli zarba bo'ldi hamda ushbu mamlakatlar uchun asosiy xomashyo bazasi bo'lib qoldi. Buning natijasida, Xitoyning jahon iqtisodiyotida YaIMdagi ulushi 1950-yilga kelib atigi 3 foizga tushib qoldi.

Xitoy Xalq Respublikasi Osiyoning sharqiy qismida joylashgan eng yirik davlatadir. Uning hududi 9,6 mln.km.kv.ni tashkil qiladi, ya'ni salkam 10 mln.km.kv. Uning hududiga 3400 dan ortiq orollar ham kiradi, ushbu orollardan eng yiriklari mamlakat hududining janubida joylashgan bo'lib: Tayvan (36 ming kv.km) va Xaynan orollaridir (34 ming kv.km). Mamlakat hududining kattaligi jihatidan dunyoda Rossiya va AQSHdan so'ng 3-o'rinda turadi, Osiyo qit'asida esa 1-o'rinda turadi.

Mamlakat poytaxti Pekin shahri yoki xitoylar "Beytszin" ("shimoliy poytaxt") deyishadi. Umumiy hududning 33 foizi baland

tog‘lar, 36 foizi qir-adirlar, 19 foizi foydalanib bo‘lmaydigan yerlar (chakalakzorlar, cho‘llar va botqoqliklar) va 12 foizigina tekis va foydalaniladigan yerlardir. Xitoyning aholi soni eng ko‘p va eng yirik industrial shahri - Shanxay shahridir. Ushbu shahardagi dengiz porti nafaqat mamlakatning, balki jahondagi eng yirik dengiz porti hisoblanadi. Shuning uchun ham xitoyliklar Shanxayni “mamlakatning eshigi” deb aytishadi. Shanxayda 20 mingdan ortiq ishlab chiqarish korxonalari faoliyat ko‘rsatadi va shaharda korxonalar soni jihatidan dunyo shaharlari ichida yetakchilik qiladi. U mamlakatning yirik sanoat tarmoqlari markazidir. Mamlakatdagi 1-AES ham aynan Shanxayda qurilgan. Aholi soni jihatdan va yirik industrial shaharlarning ikkinchisi bu Pekindir. Xitoy pul birligi yuan.

Xitoyning YaIM miqdori 14,3 trln. dollarni tashkil qilib, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadi 10410 dollar. Ushbu ko‘rsatkichni kam yoki ko‘pligini tahlil qilib ko‘ramiz. Umumiyligi aholining 70 foizini qishloq joylarda yashashini hisobga olsak, ushbu ko‘rsatkich jahondagi o‘nlab mamlakatlardan kam miqdorda ko‘rinishi mumkin, lekin 1 mlrd. 405 mln. aholiga ega bo‘lgan Xitoy uchun bu jahon xonxo‘jaligida katta yutuqdir.

Xitoy so‘nggi 40 yil ichida 740 million kishini kambag‘allik darajasidan olib chiqdi. Albatta, uning ushbu sohadagi tajribasini bugungi kunda ko‘plab jahonning rivojlanayotgan mamlakatlari tomonidan o‘rganilmoqda, xususan O‘zbekiston ham. Xitoyning tashqi savdo-sotig‘i 4.567,6 mlrd.dollarni tashkil qilib, bundan, eksporti qariyb 2.498,6 mlrd.dollar va importi esa qariyb 2.069,0 mlrd.dollarni tashkil qildi. Xitoy jahondagi eng yirik eksportyor davlat bo‘lsa, AQSH eng yirik importyor mamlakatdir. Tashqi savdo-sotiq bo‘yicha Xitoy 1978-yilda 32-o‘rinda bo‘lgan bo‘lsa, 2020-yilga kelib 1-o‘rindadir.

Eksportning assosiy mahsulotlariga to‘qimachilik, ipakchilik, radioelektronika, poyabzal, oziq-ovqat, harbiy sanoat va kimyo sanoati mahsulotlari, asbob-uskunalar, texnologiyalar, avtomobillar, vagonlar, kemalar, mototsikllar, farmatsevtika, oziq-ovqat, aholi iste’moli va o‘nlab turdagи qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tashkil qiladi.

Importiga esa, neft xomashyosi va boshqa xomashyolar, oziq-ovqat mahsulotlari, avtomobillar, samolyotlar va boshqa bir qator aholi iste’moli mahsulotlar kiradi. Xitoy jahon xo‘jaligida ko‘mir qazish,

po‘lat quyish, to‘qimachilik mahsulotlari, dukkakli ekinlarni etishtirish (yog‘ olinadigan-mosh, yeryong‘oq, loviya, semichka va kanop), go‘sht, tsement ishlab chiqarish, bug‘doy, go‘sht, “chiqindi”lardan qayta mahsulot ishlab chiqarish, televizorlar ishlab chiqarish bo‘yicha jahon xo‘jaligida 1 va 2-o‘rinda turadi. Ishsizlik darajasi – 6,6 foiz. Xitoyning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini 24.1-jadval orqali ko‘rish mumkin.

24.1-jadval

Xitoyning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari

T/r	Asosiy ko‘rsatkichlar va xususiyatlari	Miqdori va belgilari
1	YaIM miqdori (mln doll.) ¹¹⁹	14.342,9
2	YaMMning aholi jon boshiga (doll.) ¹²⁰	10.410
3	Umumiy tashqi savdo aylanmasi (mlrd.doll.)	4.567,6
4	Eksporti (mlrd.doll.)	2.498,6
5	Importi (mlrd.doll.)	2.069,0
6	Eng asosiy tashqi savdo hamkorlari	Yaponiya, AQSH va Rossiya
7	Valuta zaxirasi (mlrd.dollar) ¹²¹	3.222,9
8	Tashqi qarzi (mlrd.doll.) ¹²²	16.250,6
9	Aholi soni (mln. kishi) ¹²³	1.406,9
10	Umumiy yer maydoni (ming km.kv.) ¹²⁴	9.597,0
11	Ishsizlik darajasi (foiz)	6,6
12	Milliy valutasi (pul birligi)	YUan
13	Mamlakat poytaxti	Pekin
14	Rasmiy davlat tili	Xitoy tili

Ushbu jadval ma’lumotlar asosida ishlab chiqilgan.

¹¹⁹ Gtmarket.ru/ratings/gross-national-income-ranking

¹²⁰ https://data.worldbank.org/indicator/NY.GNP.PCAP.CD

¹²¹ https://nonews.co/directory/lists/countries/gold

¹²² https://ru.m.wikipedia.org/wiki/%DO%A1%DO%BF%DO%B8%

¹²³ https://ru.m.wikipedia.org/wiki/Spisok_stran_po_naseleniyu

¹²⁴ https://worldgeo.ru/lists/?id=2

24.2. Xitoyning aholi tizimi va uning o'sish tendensiyalari

Xitoy aholi soni jihatidan jahonda 1-o'rinda turadi, uning aholi soni 1 mld. 405 mln. kishi bo'lib, dunyo aholisining 5/1 qismini tashkil qiladi. Xitoyleklar yer yuzidagi barcha "qora tanli"lardan ham ko'p, yoki yer yuzidagi barcha Yevropa millatlariga mansub kishilardan ham ko'pdir, lekin yer yuzidagi barcha musulmonlarni qo'shib hisoblaganda tengdir. Mamlakat aholisining 93 foizini xitoylar tashkil qiladi. Umuman mamlakatda 55 ta millat va elat yashaydi, bularning eng asosiysini chjuanlar, uyg'urlar, mongollar, tibetlar, koreyslar, xueylar, itszular, manjurlar va boshqalar kiradi, hatto o'n minglab o'zbeklar ham istiqomat qilishadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, aholi soni jihatdan Shanxay va Pekin yetakchi hisoblanishadi. 1 mln.dan ortiq bo'lgan shaharlar soni 51 tani tashkil qiladi. Mamlakatda aholini birinchi bo'lib ro'yxatga olish 1935-yil o'tkazilgan va o'shanda 602 mln. aholi soni rasman qayd qilingan.

Ikkinci jahon urushidan so'ng mamlakatda ro'y bergan ocharchilik va qatag'onlardan so'ng tug'ilish soni bilan o'lim soni ko'rsatkichlari deyarli tenglashib qolgan edi hamda bu davrda aholini ro'yxatga olishni imkoniyati bo'lмаган. Xitoy iqtisodiyoti tarixida 1935- va 1953-yillar o'rtasida ocharchilik, qatag'on va urushlar tufayli qancha xitoyleklarning "nobud bo'lganligi" hisob-kitobi haligacha ochiqlanmagan. Mamlakatda rasmiy ravishda ikkinchi bo'lib aholini ro'yxatga olish 1953-yilda amalga oshirilgan bo'lib, unda kutilganidan ham ortiq darajada 583 mln. kishi ro'yxatga olingan. 1957-yilda 656 mln. kishi; 1986-yilda 1 mld. 60 mln. kishi; 1990-yilda 1 mld. 134 mln.; 2001-yilda 1 mld. 280 mln kishi; 2011-yilda 1 mld. 315 mln. kishi ro'yxatga olingan. 2020-yilning 1 yanvar holatiga ko'ra uning aholisi 1 mld. 405 mln. kishini tashkil qiladi. BMT tahliliga ko'ra, 2021-yil yakuni bo'yicha Hindiston aholi soni jihatidan Xitoyni quvib, 1-o'ringa chiqishi bashorat qilinmoqda.

Aholi zichligi 1 km.kvga 140 kishi to'g'ri keladi. Umumiyl aholining 51 foizini erkaklar va 49 foizini ayollar tashkil qiladi. Aholining deyarli 70 foizi qishloq hududlarida istiqomat qiladi. Xitoy tarixida aholi sonining juda tez sur'atlarda o'sishi 1960-70-yillarda

kuzatilgan edi. O'sha paytda hukumat mamlakat aholi sonining tez sur'atlarda ko'payishini oldini olib, maxsus qonunni qabul qiladi. Unga ko'ra, yoshi 20ga to'lgan o'smir va qizlarning nikohga kirishi qat'iyan man qilingan. Chunki aholi sonining ko'payishi mamlakatda turli ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqara boshladi. Hukumati mamlakat aholi sonining 1 mlrd.ga yetganligini 1984-yilda jahon ommasiga rasman e'lon qilgan.

1982-yilgi qabul qilingan Xitoy Konstitutsiyasiga muvofiq, mamlakatda "rejali tug'ilish" moddasi qabul qilinadi hamda ushbu moddaga asosan har qanday talabalarni nikohdan o'tishi qat'iyan man etildi. Bundan tashqari, 1983-yilda "Maxsus bola tug'ilish qo'mitasi" tashkil qilinib, har bir xitoy oilasi uchun "Bitta oila - bitta farzand" tamoyili belgilandi. Oilada ikkinchi farzand tug'ilishi uchun oldindan faqatgina "Maxsus bola tug'ilish qo'mitasi" dan ruxsat olishi belgilandi va ruxsat olingan taqdirda yuqori miqdorda soliq to'lovini amalga oshiradiganlar uchun ikkinchi farzand uchun ruxsat berilgan edi hamda ushbu cheklov 2016-yildan bekor qilindi, chunki mehnatga layoqatli aholining qisqarishi yuzaga keldi. Endi istalgan oila ikkita farzandli bo'lishi mumkin.

Xitoy aholisining o'sish ko'rsatkichlari XXI asrning 10-yillariga kelib barqarorlashdi. Agarda 2000-yillarda aholi sonining o'sish ko'rsatkichlari yiliga 7 mln. kishidan ko'payib borgan bo'lsa, 2010-yillarning o'rtalariga kelib uning yillik o'sish soni o'rtacha 5 mln. kishini tashkil qilmoqda. Ekspertlarning fikricha, yana 5-6 yildan so'ng tug'ilish soni tabiiy holatda kamayadi va aholi soni kamayish davrini boshlaydi hamda aholining asosiy qismi "keksayish davri" ga kirishi mumkin.

2021-yilga kelib Xitoyda tug'ilish darajasining pastligi mamlakat iqtisodiyotiga xavf solishi mumkinligi birinchi bor nufuzli The Wall Street Journal (WSJ) tomonidan mamlakatda tug'ilish darajasining pasayishi iqtisodiy o'sish istiqbollariga xavf solishi haqida ma'lum qilindi. WSJ tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, 2020-yilda Xitoyda tug'ilish 2019-yilga nisbatan 15 foizga kamaygan va 2019-yilda mamlakatda jami 14,65 million bola tug'ilgan.¹²⁵

¹²⁵ www.interfax.ru/world/754044

24.3. Xitoyning “iqtisodiy mo‘jiza” yaratishidagi asosiy omillari

Xitoy iqtisodiyoti 1950-yildan 1980-yilgacha asosan qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini rivojlantirishga e’tiborni qaratgan edi. 1949-yilda Mao Szedun boshchiligidagi XXR e’lon qilingach, iqtisodiyotni rivojlantirishda sobiq Ittifoqning tajribasiga tayangan holda “besh yillik reja”lardan foydalandi. Chunki ushbu yillarda Xitoy jahon arenasida faqatgina sobiq Ittifoq bilan iqtisodiy hamkorlik va munosabatlarni keng ko‘lamda olib borgan edi xolos. Xitoyning jahon xo‘jaligiga kirib borishi, jahon bozorlariga mahsulotlarini yetkazib berishi hamda jahon mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorliklarni rivojlanishi 1980-yillardan boshlandi. Chunki ushbu yillarda mamlakat tepasiga Den Syao Pin kelgach, Xitoyning eshigi jahon mamlakatlariga ochildi, desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Demak, Xitoyning jahon xo‘jaligida “to‘rtinchi iqtisodiy mo‘jiza”ni vujudga keltirgan eng asosiy omillar bilan tanishib chiqamiz:

1. *Mamlakatning iqtisodiy-geografik qulayligi*. Xitoy mamlakati hududining teng yarmini dengiz suvlari yuvib turishini hisobga oladigan bo‘lsak, mamlakatning janubi-sharqiy qirg‘oqbo‘yi hududlarida ko‘plab yirik industrial shaharlar barpo bo‘lganligi va ular zamonaviy dengiz portlariga ega bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etgan.

2. *Xitoyning yirik qazilma boyliklari va mineral resurslariga egaligi hamda ularning yirik zaxirasini mavjudligi*. Xitoy quyidagi yirik tabiiy resurslarga egadir: toshko‘mir, temir rudasi, neft, sement, oltin, mis, turli, grafit, qo‘rg‘oshin, rangli metallar va boshqa o‘nlab foydali qazilmalarning yirik konlariga ega. Xitoyda quyidagi qazilma boyliklari va zaxiralari mavjud: Ko‘mir zaxirasi - 3200 mlrd.tonna, neft zaxirasi 64 mlrd.t. (eng yirik neft koni “Datsin koni”), temir ruda (temir ruda zaxirasi bo‘yicha Xitoy dunyoda Rossiya va Belgiyadan so‘ng 3-o‘rinda turadi), volfram zaxirasi bo‘yicha esa Xitoy dunyoda 1-o‘rinda turadi. Biroq aluminiy, svinets, sink va uran kabi xomash-yolarning tabiiy zaxirasi u qadar ko‘p bo‘lmasligi sababli xorijiy mamlakatlardan import qilmoqda.

Tabiiy gaz zaxirasi 1,17 trl.kub.m.ni tashkil qiladi. Xitoy

iqtisodiyoti tarixida ushbu zaxiraning faqatgina 3,5 foizi iste'mol qilingan xolos, tabiiy gaz kelajak avlod uchun asrab qo'yilgan. Eng yirik gaz koni va markazi Senxua provinsiyasidir. Xitoy yirik neft va gaz zaxirasiga ega bo'lsa-da, Den Syao Pinning ko'rsatmasiga ko'ra, asosiy iste'mol uchun imkoniyat va sharoit bo'lganda ushbu muhim strategik xomashyolarni xorijdan import qilish lozimligi va mavjud zaxiralarni kelajak avlod uchun asrab qo'yilishi lozimligi iborasiga amal qilinmoqda.

3. *Qishloq xo'jaligining yuksak darajada rivojlanishi.* Eng avvalo, 1980-yillarga kelib, o'sha paytda qariyb 1 mlrd. aholiga ega bo'lган mamlakatning oziq-ovqat bilan ta'minlanishi, mamlakatning eng asosiy ozuqasi bo'lган bug'doy va guruch tanqisligiga barham berilishi, kolaversa, ushbu mahsulotlarni yetishtirish bo'yicha mamlakat aholsining ehtiyojini qoplab, ortgan qismini jahon bozoriga chiqarilishi XX asrning 90-yillarida jahon xo'jaligida "to'rtinchı iqtisodiy mo'jiza"ni vujudga kelayotganligini jahon ekspertchi olimlari bashorat qila boshlashgan edi.

4. *Xitoy mahsulotlarni eksport qilishida demping siyosatidan foydalanishi.* XX asrning 80-yillar oxiri va 90-yillarning boshlarida mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ichki bozorni qondirgach, ularning asosiy qismini jahon bozoriga chiqarilishiga imkon berdi. Ammo avvaliga jahon bozorida "Made in China" tamg'asi ostida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga bo'lган talab va ehtiyoj u qadar yuqori bo'lindi, chunki ushbu mahsulotlarning ko'rinishi va sifati jahondagi bir qator yetakchi mamlakatlarning mahsulotlari oldida raqobatlashishiga ojizlik qildi.

Shundan keyin Xitoy hukumati tomonidan eksport evaziga xorijiy valutani imkon qadar jalb qilish va yalpi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni jahon bozoridan joy olishi uchun jahon bozorida kamdan kam uchraydigan "demping siyosati"ni tanlashga majbur bo'ldi. Mahsulotlar eksportida jahon bozorida Xitoyning "demping siyosati"dan oqilona foydalanishi uning mahsulotlarini jahon bozoridan joy olishiga imkon bo'ldi. O'z tannarxidan arzon narxlarda eksport qilgan korxonalarga davlat budgetidan subsidiyalar qoplandi.

5. *1990-yillardan boshlab eksport (tashqi savdo) miqdorining yil sayin ortib borishi.* Xitoy mahsulotlarining eksport hajmi va miqdori yildan yilga ortib bormoqda. Masalan, 1982-yilda Xitoy 1 yilda

mahsulotlar eksporti miqdori 18 mld. dollarni tashkil qilgan bo‘lsa, 2004-yilda bu ko‘rsatkich qariyb 300 mld. dollarga va 2020-yilga kelib bu ko‘rsatkich deyarli 2,5 trln. dollarga yetdi va jahon iqtisodiyotida eksport va umumiy tashqi savdo miqdori bo‘yicha 1-o‘rinni egallamoqda. Uning umumiy tashqi savdo miqdori 4,6 trln. dollarni tashkil qilgan. Xitoyning tashqi savdo miqdorlariga tenglashishi uchun yaqin 5-10-yillar ichida jahondagi hech qaysi mamlakatning quvib o‘tish imkoniyati mavjud emas, albatta.

6. *Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida “xitoy modeli”ning ahamiyati*. Xitoy hukumati XX asrning 50-yillardagi milliy iqtisodiyotni sobiq Ittifoq tajribasidan kelib chiqib markazlashgan reja asosidagi taraqqiyot modelini bekor qilib, 1980-yillardan iqtisodiy rivojlanishning bozor iqtisodiyotiga o‘tish asosida milliy iqtisodiy taraqqiyotni tanladi.

7. *1980-yillarda Xitoy hukumatining “kuchli” iqtisodiy dasturlari va islohotlarini amalga oshirishi*. 1976-yilda Mao Szedunning vafotidan so‘ng, Xitoy hukumati 1978-yildan mamlakatda keng masshtabli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishni va xorijiy mamlakatlar bilan savdo-sotiq jarayonlarini keng ko‘lamda olib borishni o‘z oldiga maqsad qildi. Ushbu qisqa ikki yillik amalga oshirilgan dastur va islohotlar natijasidayoq Xitoy jahon xo‘jaligida qayta tug‘ildi va jahon bozoriga eshik ochdi.

1979-yilda davlat rahbari Den Syao Pin mamlakatda amalga oshiriladigan islohotlar jarayonining nazariy asosini va tamoyillarini ma’lum qildi, unga ko‘ra:

- ishlab chiqarish kuchlari rivojiga xalaqit bermaslik;
- ishlab chiqarishni bozor iqtisodiyotiga moslashtirish;
- insonlar ongiga erk berish, aholining turmush darajasini yaxshilash va farovonligini oshirishdan iborat bo‘ldi. Ushbu tamoyil Xitoy iqtisodiyoti tarixida “Den Syao Pinning uch tamoyili” sifatida o‘rin oldi.

8. *Mamlakatda ishchi kuchining arzonligi va mehnat resurslarining yetarli ekanligi*. Xitoy bugungi kunda ham sanoat tarmoqlarida ishchi kuchining soni jihatidan hamon jahonda 1-o‘rinda turadi, biroq agrar sohada esa, Hindistondan so‘ng 2-o‘rinda turadi.

9. *Yalpi ichki mahsulot miqdorining yildan yilga o‘sib borishi*. 1978-yildan 2008-yilgacha YaIM miqdori yiliga o‘rtacha 8,6 foizdan

o'sib bordi. Masalan: 1982-1988-yillarda o'rtacha 11,4 foiz, 1991-97-yillarda o'rtacha 11,2 foiz, 1998-2002-yillarda esa, 6,8 foizdan, 2003-2008-yillarda esa 8,2 foizdan, 2009-2019-yillarda esa o'rtacha 6,2 foizdan o'sib bordi. Umuman, Xitoyning YaIM miqdori 1978-yildan 2020-yilgacha 22 marotabaga oshdi, ya'ni 1978-yilda YaIM miqdori 670,0 mlrd.dollar bo'lgan bo'lsa, 2019-yilga kelib bu ko'rsatkich 14,3 trln. dollarga yetdi (24.2-jadvalga qarang).

Xitoy milliy iqtisodiyoti tarixida YaIMning o'sish ko'rsatkich rekordi 1992-yilda yuz berib, unda oldingi yilga nisbatan 14,2 foizga o'sgan. Xuddi shunga yaqin bo'lgan holat 2003-yilda ham yuz berdi va shu yili iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi 14 foizni tashkil qilgan. Ushbu yillarda Xitoyning bu qadar yirik to'xtovsiz iqtisodiy o'sishini ko'rgan va tahlil qilgan jahon ekspertchi olimlari "XXI asr - Xitoy asri bo'ladi" degan iborani ta'kidlashgan edi. Haqiqat ham, uning iqtisodiy o'sishi va ko'plab iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha jahon xo'jaligida yetakchilik qilishi Xitoyning yaqin yillar ichida jahondagi eng buyuk davlatiga aylanishiga hech kimda shubha tug'dirmasa kerak.

24.2-jadval

Xitoyning 1978–2019-yillardagi YaIM miqdorining o'sish ko'rsatkichlari

T/r	Iqtisodiy ko'rsatkichlar	1978-yil	1997-yil	2019-yil
1	YaIM (mlrd.dollar)	670,0	3.827,2	14.342,9
2	YaMMning aholi jon boshiga daromad (dollar)	708	3.119	10.410

Ushbu jadval ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan.

10. Xitoyning "ochiq eshiklar siyosati"ni amalga oshirishi. 1984-yilda Xitoy hukumati mamlakatning 14 shahriga tashqi iqtisodiy faoliyatni olib borish huquqini berdi hamda ushbu dengiz shahar portlari tashqi savdo-sotiq uchun "ochiq" deb e'lon qilindi. Shu bilan birga, avvaliga 4 ta yirik "erkin iqtisodiy hudud" tashkil qilindi. Jumladan: Shenchjen, Chjuxay, Syamen va Shantou shaharlarida. Bugungi kunda ushbu "erkin iqtisodiy hudud"larning eng yirigi bu – Shenchjen shahridir. Ushbu shahar Gonkongga yaqin bo'lgan hududda

joylashgan.

11. Milliy iqtisodiyotning rivojlanishida **“To‘rt modernizatsiya” dasturining usutvor ahamiyati**. 1978-yilda Butunxitoy xalq vakilalarining yig‘ilishining beshinchi sessiyasida milliy iqtisodiy taraqqiyotning “To‘rt Modernizatsiya” dasturini amalga oshirilishini 10 yillik davlat rejasi qabul qilinishi bilan boshlandi. Ushbu “To‘rt modernizatsiya” dasturi to‘rtta yo‘nalishni amalga oshirilishini nazarda tutdi:

- 1) qishloq xo‘jaligi sohasi;
- 2) sanoat sohasi;
- 3) harbiy mudofaa sohasi;
- 4) fan va texnika sohasini modernizatsiya qilishdan iborat edi.

Ushbu 10 yillik davlat dasturida Yevropaning rivojlangan mamlakatlaridan zavod-fabrikalar uchun tayyor asbob-uskunalar va yangi zamonaviy ilg‘or texnologiyalarning katta miqdorda import qilinishiga alohida urg‘u berildi. 1978-yilning oxiriga borib Xitoy xorijiy investorlar bilan o‘sha davr uchun yirik mablag‘ hisoblangan qariyb 7 mlrd.dollar miqdorida qator shartnomalarni imzoladi.

12. **Zamonaviy Xitoy iqtisodiyotining rivojlanishida xorijiy investitsiyalarning ustuvor ahamiyati**. 1978-yilgacha Xitoyga jami 430 mln.dollar miqdorida xorijiy sarmoya jalb qilingan bo‘lsa, 2002-yilga kelib uning miqdori 44 mlrd. 241 mln.dollar hamda 2019-yilda umumiy jalb qilingan xorijiy sarmoyalarning miqdori qariyb 3 trln. dollardan ziyodni tashkil qildi.

13. **Xalqaro turizmning rivojlanishi**. XXI asrning boshlariga kelib, Xitoyning turizm sohasidagi daromadlari yil sayin o‘sib bormoqda. Hukumat xorijlik sayyoohlар oqimini ko‘paytirish maqsadida qirg‘oqbo‘yi hududlardagi ko‘plab me’morchilik va tarixiy obidalarni qayta ta’mirlash, ularga yaqin bo‘lgan hududlarning infratuzilmasini yaxshilash hamda minglab zamonaviy mehmonxonalarini qurish ishlari olib borildi.

Butunjahon turizm tashkilotining ma’lumotiga ko‘ra, Xitoy tarixida eng ko‘p xorijiy sayyoohlар 2017-yilda tashrif buyurishgan bo‘lib, ularning soni 60,7 mln. kishini tashkil qilib, jahonda xorjiy sayyoohlari tashrifi soni bo‘yicha AQSH, Ispaniya va Fransiyadan

so‘ng 4-o‘ringa chiqishgan edi¹²⁶. Biroq so‘nggi yillarda tashrifchilarning soni 2010-yillardagi ko‘rsatkichlarga qaraganda ancha pasaygan. Xususan 2019-yilda ularning soni 30,5 mln.gacha pasaygan. “Sinxua” ma’lumotiga ko‘ra, Shanxay shahri osmon-o‘par binolarning soni jihatidan 2015-yilda jahon shaharlarini, jumladan, Chikago, Nyu-York, Los-Anjeles, Gongkong kabi ko‘plab osmono‘par inshootlarga ega bo‘lgan shaharlarni ortda qoldirib 1-o‘ringa chiqib olgan. Bugungi kunda Shanxayning osmono‘par binolarni qurilishi bo‘yicha raqobatchisi Dubay shahridir.

14. *Xitoy milliy iqtisodiyotida xususiy va oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi*. 1980-yillarda xususiy va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish hamda ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning eksporti uchun davlat tomonidan turli subsidiyalarni berilishi ushbu sohani 2-3 marotabaga rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, 1990-yillarga kelib, ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar narxining o‘z tannarxidan arzon bo‘lganligi hamda sohada ishlab chiqarilgan mahsulotlarning asosiy qismlari MDH mamlakatlariga eksport qilinganligi ham yaqqol bunga misol bo‘la oladi.

24.4. Xitoyning 1950–1970-yillardagi iqtisodiy taraqqiyoti

1949-yilda, XKP (Xitoy Kommunistik Partiyasi) davlat tepasiga kelgandan so‘ng, milliy iqtisodiyotning rivojlantirishda iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni va bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Hukumat qishloq xo‘jaligi sohasini rivojlantirishni yo‘lga qo‘yanidan so‘ng, 1950-yildan asosiy e’tiborni sanoatni rivojlantirishga qaratdi. 1952-yilda davoat rahbari Mao Szedun mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini “sotsializmga o‘tish davri” deb e’lon qildi hamda 1952-yilda XXR iqtisodiyoti tarixida birinchi marta 1953-1957-yillarga mo‘ljallangan birinchi besh yillik rejasini tatbiq qilindi.

Ushbu birinchi besh yillik reja, sobiq “soviet modeli”ning ko‘rinishi bo‘lib, unda hukumatning markazlashgan rejaga asosan mamlakatda og‘ir industriyani rivojlantirishdan iborat bo‘ldi. Xitoy iqtisodiyotida birinchi besh yillik rejalarini amalga oshirishda sobiq Ittifoq yaqindan iqtisodiy va texnikaviy yordam berdi.

¹²⁶ https://ru.m.wikipedia.org/wiki/Turizm_v_Kitae

Birinchi besh yillik rejada iqtisodiy sektorining barcha tarmoqlarini tubdan o‘zgartirish bilan birga eng asosiysi, og‘ir sanoatni kengaytirishga va uni rivojlanirishga e’tibor qaratildi. 1953-yilda aholi sonining tez ko‘payishini hisobga olgan holda, Mao Szedunning rejasiga ko‘ra qishloq xo‘jaligi jamoalari (kollektivlashtirish) tadbiri amalga oshirildi.

Ushbu tadbirga asosan, qishloq joylarda jami 52 mingga yaqin qishloq xo‘jaligi jamoalari tashkil etildi va jamoalarga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha davlat buyurtmasi berila boshlandi. Ushbu davlat buyurtmasi bajarilishi majburiy bo‘ldi. Har bir jamoa xo‘jaliklari 16 ta ishlab chiqarish brigadalariga bo‘linib, har bir brigada 7 ta ishlab chiqarish guruhlariga bo‘lindi. Guruhda o‘rtacha 100-250 tagacha odam ishlar edi. Har bir oila yer, ishslash uchun qishloq xo‘jaligining mehnat qurollari ega bo‘ldi. 1956-yilgacha mamlakatning 90 foiz hududida kollektivlashtirish tadbiri amalga oshirildi.

1953-yilda boshlangan birinchi besh yillik rejasi – markazlashgan rejali iqtisodiyot bo‘lib, davlat barcha turdagи ishlab chiqarish tomorqalarini o‘z boshqaruviga oldi. Davlat ish haqi, narxlar va transport, qurilish sohalarini o‘z nazorati ostiga oldi. Xususiy mulkchilik sohasida ba’zi o‘zgarishlar kiritilib, xususiy mulkchilikka barham berildi va mamlakatdagi barcha mulklar “xalqniki” deb e’lon qilindi.

1958-yildan so‘ng, amalga oshirilgan “birinchi besh yillik reja” tahlil qilindi. Qishloq xo‘jaligini rivojlanishi sanoatning rivojlanishiga qaraganda ancha sust ekanligi aniqlandi. Shunga ko‘ra, iqtisodiyot taraqqiyotining rivojlanish dasturiga bir qator o‘zgartirishlar kiritilib, unda mamlakat bo‘ylab qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish va rivojlanishga alohida ahamiyat qaratildi hamda bir vaqt ni o‘zida sanoat rivojlanishini bir maromda ushlab qolish asosiy maqsad qilib belgilandi va navbatdagi dastur “Katta sakrash” nomi bilan ataldi.

Ushbu “Katta sakrash” islohotining eng asosiy vazifalaridan biri bu – arzon baholi rudalardan va ikkilamchi metallardan po‘lat ishlab chiqarish uchun mayda o‘txonalar (uy sharoitida katta qozonlarda po‘lat eritish) tashkil etish bo‘ldi. Millionlab qishloq fuqarolari o‘zlarini shug‘ullanayotgan ishlarini tashlab uylaridagi o‘txonalarda po‘lat

eritish bilan shug‘ullanishda va davlatning rejalarini bajarishi bilan band bo‘lishdi hamda qishloq xo‘jaligi ishlari o‘z holiga tashlab qo‘yildi. Davlat tomonidan berilgan reja majburiy bo‘lib, rejani bajarmagan oilalar “xalq dushmani” sifatida e’tirof qilingan.

Uy xo‘jaliklarida ishlab chiqariladigan mahsulotlar (po‘lat) sanoat tarmoqlari uchun ishlab chiqarildi. Natijada bir qator tartibsizliklar va resurslarni isrofgarchilagini keltirib chiqardi, xususan o‘txonalarda po‘lat ishlab chiqarish uchun kerak bo‘ladigan yonilg‘ini topish maqsadida o‘rmonlarning keskin kamayishiga olib keldi. Har bir brigada, avvalo belgilangan rejaga asosan po‘latni ishlab chiqorganidan so‘nggina qishloq xo‘jaligi sohasi bilan shug‘ullanishdi. Har bir brigada o‘zining oshxonasi, turar-joylari va bolalar bog‘chasi, boshlang‘ich maktablar tashkil qilingan edi. Amalga oshirilgan islohotlarning natijasi shundan dalolat berdiki, “Katta sakrash” islohoti o‘zini umuman oqlamadi. Qaytanga, qishloq xo‘jaligi tarmoqlari umuman izdan chiqdi.

Sanoat tarmoqlari uchun ishlab chiqarilgan po‘lat – chugunlar sifatsiz bo‘ldi. Mamlakatlarning barcha hududlarida oziq-ovqat muam-moga aylandi va 1959-1960-yillarda Xitoy aholisi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari yetishmasligidan qattiq aziyat chekdi. Vaziyat 1960-yil avgust oyida mamlakat hududidan sobiq Ittifoq mutaxassislarining chiqarib yuborilishi va sobiq Ittifoq-Xitoy o‘rtasidagi munosabatlarining keskin sovuqlashishi natijasida tashqi yordamning to‘xtab qolishi iqtisodiy holatni yanada murakkablashtirdi.

Hukumat ushbu ichki inqirozdan chiqib ketish va unga qarshi kurash hamda milliy iqtisodiyotni ikki marotabaga tez rivojlantirish hamda aholini yanada ruxlantirish maqsadida “sotsializmga o‘rganish” shiorini tatbiq qiladi.

1965-yilda Xitoy hukumati 1966-1976-yillarga mo‘ljallangan navbatdagi “Madaniy inqilob” islohotini amalga oshirilishini e’lon qildi va ushbu islohot o‘zining samarasizligi bilan va uni amalga oshirishda millionga yaqin xitoylik fuqarolarning qurbon bo‘lganligi bilan jahon xo‘jaligi tarixidan joy oldi. “Madaniy inqilob” bir paytning o‘zida ham siyosiy tadbirlarni ham amalga oshirdi, ya’ni hukumatga norozilik tuyg‘ulari bilan yurgan va hukumatga qarshilik g‘oyalari bo‘lgan minglab kishilar qatag‘onga mahkum qilindi. “Madaniy inqilob”ni amalga oshirishda partianing yetakchi himoyasi sifatida

“Qizil brigada” o‘zining alohida faoliyati bilan ajralib turdi.

“Madaniy inqilob” islohoti venger va nemis (GDR) tajribalaridan kelib chiqqan holda, islohotlar quyidagi nazariy yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan edi:

- korxonalarning mikrodarajadagi xo‘jalik yuritishdagi erkinligi (harbiy va strategik ahamiyat ega bo‘lgan korxonalar bunga kirmaydi);
- davlat bilan korxonalar o‘rtasidagi munosabatlarni teng huquqligini vujudga keltirish;
- qishloq xo‘jaligini ustun darajada rvojlantirish.

24.5. Xitoy iqtisodiyotida “xitoy mo‘jiza”sining vujudga kelishining asosiy bosqichlari

Xitoy iqtisodiyoti tarixidan joy olgan “xitoy mo‘jiza”si 1978-yildan boshlab 2004-yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi va bu iqtisodiy davrda Xitoy hukumati tomonidan amalga oshirilgan samarali islohot va dasturlarning 4 ta bosqichini quyidagicha tahlil qilamiz:

Birinchi bosqichi – 1978-84-yillar. Islohotlarning eng boshlang‘ich bosqichi qishloq joylardan boshlandi. 1978-yildan boshlab oldingi yillarda tatbiq qilingan “xalq kommunalari” iqtisodiy islohotning o‘rniga oilaviy pudrat joriy etildi. Bu islohotni amalga oshirishda quyidagi vazifalar tezkor va qisqa fursat ichida amalga oshirildi:

- shartnoma asosida yerlarni dehqonlarga bo‘lib berish;
- rejani bajarib va o‘zida qolgan ortiqcha mahsulotlarni o‘zining ixtiyorida qolish huquqi (bozorda hoxlagan narxda sotishi, uni qayta ishlab chiqarishi yoki o‘zida olib qolishi). Demak, o‘sma davrda salkam 700 mln. aholi soniga ega bo‘lgan dehqonlar qishloq xo‘jaligida erkin ishlab chiqarish huquqini olishdi hamda ko‘plab qishloq xo‘jaligi mahsulotlarning narxini o‘zları erkin holda belgiladi. Amalga oshirilgan islohotlar natijasida dehqonlar, mayda tadbirkorlar va tijoratchilar katta daromad ko‘rdilar. Eng muhimi, qishloq hududlari-dagi kambag‘al aholining asta-sekin “kambag‘allik darajasi”dan chiqish imkonи tug‘ildi va aholining turmush darjasи salmoqli tarzada o‘sdi.

Tomorqa xo‘jaligi tizimiga o‘tish va to‘g‘ridan to‘g‘ri bozordan sotib olish siyosatini qo‘llash qishloqdagi iqtisodiy ahvolni tubdan

o‘zgartirib yubordi va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning tez sur’atlarda o‘sishiga olib keldi. Xitoy qishloq xo‘jaligidagi ushbu holat “agrар mo‘jiza” sifatida talqin etildi hamda jahon xo‘jaligida hali hech qaysi mamlakat tomonidan qishloq xo‘jaligida bunday darajadagi “agrар mo‘jiza”ni yaratmagan edi. Ushbu agrар sohadagi Xitoyning yutuqlarini ilk bor BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jalik tashkilotining 1996-yil noyabrda bo‘lib o‘tgan Butunjahon konferensiyasida ta’kidlab o‘tildi.

Xitoy hukumati tomonidan milliy iqtisodiyot taraqqiyotini rivojlantirishda Sharqiy Yevropadagi mamlakatlarning (GDR, Chexoslovakija, Ruminiya, Vengriya va Polsha kabi mamlakatlar) taraqqiyot modellarini o‘rganishdi va saboq olishdi hamda ularning tajribalaridan unumli tarzda foydalanishga harakat qilishdi. Unga ko‘ra iqtisodiyotning davlat tomonidan nazorat qilinishi va bosim o‘tkazilishi kamaytirildi. 1978-yilning dekabr oyida Xitoy Kommunistik Partiyasining (XKP) 3 plenumida (yig‘ilish) Xitoyning iqtisodiy tarqqiyoti uchun qabul qilingan ko‘plab qonunlar, qarorlar, dastur va chora-tadbirlar Xitoyning yaqin kelajak istiqbolli yillarda katta o‘zgarishlar sodir bo‘lishini anglatar edi. Eng muhimi, jahon xo‘jaligidagi “yopiq mamlakat”laridan biri hisoblangan Xitoy o‘z “eshigi”ni tashqi mamlakatlar uchun ochiq deb e’lon qildi va bu, albatta, tarixiy voqeaga aylandi.

Ikkinci bosqichi – 1984-1992-yillar. XX asrning 80-yillarining o‘rtalariga kelib Xitoyda amalga oshirilayotgan ulkan islohotlar jahon xo‘jaligining rivojlanishiga ham o‘z ijobiyligi ta’sirini ko‘rsatdi. Xususan, tashqi savdo-sotiq aylanmasidagi o‘zgarishlar, mahsulot turlarining ko‘payishi, dunyodagi kambag‘al aholi sonining qisman kamayishi va boshqa bir qator iqtisodiy ko‘rsatkichlardagi o‘zgarishlarni misol qilish mumkin.

Xitoyning qishloq hududlarida XX asrning 70-yillari oxirida boshlangan ulkan islohotlar endi 80-yillar o‘rtalariga kelib shaharlarda ham davom ettirila boshlandi. Bunda shaharlarda yuzlab sanoat korxonalarini tashkil qilish, ishchilarining oylik maoshlarini qaytadan ko‘rib chiqilishi natijasida ularning oylik maoshlari kamida 2-3 marotabaga oshirildi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning narxnavolarini erkinlashtirish, savdo-sotiq, moliya va soliq tizimlarda turli imtiyoz va sharoitlarni joriy qilinishi hamda turli infratuzilmalarni

yaxshilanishi shaharlarning ham iqtisodiy holatini va qiyofasini jiddiy tarzda o‘zgartirib yubordi. Shunday qilib, boshlangan islohotlarning ikkinchi bosqichi 1990-yillarning boshlariga kelib yakunlandi.

Uchinchi bosqich – 1992-1997-yillar. XKPNing 14 syezdida (partiyaning yig‘ilishi) bozor iqtisodiyoti sharoitida “sotsialistik jamiyat qurish”ning yangi islohoti qabul qilindi. Unga ko‘ra, mamlakat milliy iqtisodiyoti tizimlarini qayta shakllantirish va eng muhim tarmoqlarni yanada rivojlantirishga e’tibor qaratildi. Bundan tashqari, bank-kredit tizimi, tashqi savdo-sotiq, valutani muvofiqlashtirish, investitsiyani jalb qilish, ishlab chiqarish resurslarini yanada oshirish talab qilindi.

Xitoy hukumatining ko‘plab iqtisodiy tahlillari va izlanishlari asosida hamda jahondagi yetakchi mamlakatlarning, jumladan AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, GFR kabi yetakchi mamlakatlarning sanoat tarmoqlarini izchil o‘rganib chiqib, 1985-yilda “Fan va texnikaning 1986-2000-yillarda rivojlantirish Davlat rejasi”ni qabul qildi. Ushbu reja asosida 1986-2000-yillar mobaynida ilm va fan yo‘nalishida 12 ta zamonaviy sanoat tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha iqtisodiy yo‘nalishlar belgilandi, jumladan: xalq xo‘jaligini sanoatlashtirish va modernizatsiyalash, biotexnologiya, energetika, avtomatzatsiya, aerokosmos, lazer texnikasi, mikrotexnologiya, harbiy sanoatni rivojlantirish va zamonaviy sanoat tarmoqlari kirdi.

To‘rtinchi bosqich – 1997-2009-yillar. 1997-yilda Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida ro‘y bergan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz Xitoyni ham chetlab o‘tmadi. Mintaqada yuzaga kelgan inqiroz, Xitoyning tashqi savdosiga, bank-moliya tizimi, birjalar faoliyati va sanoat ishlab chiqarish ko‘rsatkichlariga o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatgan bo‘lsa-da, biroq ushbu inqiroz Xitoy milliy iqtisodiyotiga u qadar jiddiy shikast yetkazmadi, chunki Xitoy tomonidan qurilgan ulkan iqtisodiy devor o‘z mustahkamligini jahon xo‘jaligiga namoyon qildi.

Ushbu moliyaviy-iqtisodiy inqiroz paytida Xitoyning ba’zi iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari tushib ketganligi bois, Xitoy XX asr so‘nggida o‘zining iqtisodiy o‘sishini yanada tezlashtirish va Yangi industrial mamlakatlar qatoriga qo‘shilish harakatida yana bir qator iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirdi, jumladan:

- milliy valutani devalvatsiya qildi;
- hukumat keskin ravishda “moliya siyosati”ni olib bordi;

– davlatdan va banklardan qarzdor bo‘lgan korxonalarining qarzini qaytarilishini va qarzdorlik ko‘rsatkichlarini kamaytirish yuzasidan nazoratni davlat o‘z qo‘liga oldi.

Shuningdek, Xitoy hukumati 90-yillarning boshlarida bo‘lajak 2008-yilda bo‘ladigan Xalqaro olimpiya o‘yinlarini Pekinda o‘tkazish maqsadida shaharni kengaytirish, infratuzilmalarni yaxshilash va sayyoohlarni uchun yuzlab mehmonxonalarini qurishga kirishildi va tub ma’noda uning tashqi qiyofasi o‘zgardi. Olimpiada o‘yinlari Pekin shahrida oliy darajada o‘tkazildi.

1997-2008-yillarda hukumat tomonidan iqtisodiyot taraqqiyotiga qaratilgan eng muhim islohotlardan biri iqtisodiy zarar keltiradigan va doimiy iqtisodiy zarar ko‘rayotgan davlat korxonalarini faoliyatini tugatish va ularni xususiy lashtirishdan iborat bo‘ldi.

Shuningdek, Xitoyning tashqi siyosiy yo‘nalishida ham nufuzi va imidji oshib bordi. Hatto bir necha yillardan buyon Buyuk Britaniya bilan muzokara o‘tkazib, butkul umidini uzgan Gonkong hududini qo‘shib olish masalasini hal qila olganligini ko‘rish mumkin. Gonkong hududini qo‘shib olish masalasida “xitoy diplomatiyasi” jahon arenasida o‘z professionalligini va mahoratini namoyon qildi. 1997-yilda Buyuk Britaniya Gonkongni Xitoyga qaytarib bergach, keyinchalik Portugaliya tomonidan ham 1999-yilda Makaoni qaytarib berishga majbur bo‘ldi. Xitoy Jahon savdo tashkilotiga 2002-yilda a’zo bo‘lib kirdi.

BMT Bosh kotibi Kofi Annan nihoyasiga yetgan 2003-yilni jahon xo‘jaligidagi “Xitoy yili” deb atagan edi. Albatta, Xitoyni “2003-yil – Xitoy yili” deyilishiga quyidagi sabablar bo‘lgan edi:

– Xitoy 2003-yilning oktabr oyida jahonda uchinchi bo‘lib, (sobiq Ittifoq va AQSHdan so‘nd) kosmik kemasini fazoga olib chiqdi. Xitoy o‘zining milliy fan-texnika sohasini rivojlantirish evaziga shu paytgacha jahonda kosmik kemalari bilan hukmronlik qilgan Rossiya va AQSH mamlakatlaridan hech qanday hamkoriksiz kosmik kemasini fazoga uchirdi;

– 2003-yilda Xitoy o‘zining YaIMining o‘sishini 14 foizga ta’mirladi;

– 2003-yilning boshlarida jahonda paydo bo‘lgan yuqumli “SARS” (SARS) pnevmoniya kasalligining aynan Xitoyning Guanjou viloyatidan kelib chiqqanligi va ushbu kasallilikning tez fursatda butun

dunyo mamlakatlariga tarqalishiga sabab bo‘lgan. Ushbu kasallik natijasida yuz minglab insonlar qurbon bo‘lishgandi. Ushbu yuqumlik kasalligi Xitoy milliy iqtisodiyotiga 52 mlrd. dollar miqdorida iqtisodiy zarar yetkazgan.

Beshinchi bosqich – 2010-yillarni o‘z ichiga olib Xitoy jahon xo‘jaligida har jabhada o‘z ustunliklarini namoyon qila boshladi. Xususan tashqi savdo, valuta va oltin zaxirasi, investitsiyalarni jalb qilish va xorijiy mamlakatlarga sarmoya kiritish ko‘rsatkichlari bo‘yicha jahon iqtisodiyotida eng yetakchi mamlakat sifatida namoyon bo‘ldi.

Xitoyning 2010-yillardagi iqtisodiy o‘sishi bir tekis rivojlanib bordi. 2010-yillarning o‘rtalariga borganda Jahon banki va bir qator xalqaro tashkilotlar hamda jahon iqtisodiyoti borasida faoliyat ko‘rsatuvchi ekspertchilar tomonidan Xitoyning yaqin kelajak yillarda jahondagi iqtisodiy salohiyati va qudrati bo‘yicha eng yirik mamlakatga aylanishi borasida birin-ketin taxminlar bildira boshlashgan edi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2011-yil aprel oyida Xitoyga amalga oshirgan tashrifi chog‘ida “Xitoy 2015-yilda iqtisodiy potentsial jihatidan dunyodagi eng yirik davlatga aylanadi” degan edi.

AQSHning 2010-yillardagi iqtisodiy taraqqiyoti Xitoyning yaqin-yillar ichidagi jahon iqtisodiy sohasidagi hukmronligiga erishishiga yo‘l qo‘ymadi va yetakchilikni o‘z qo‘liga olishini kamida 10 yil keyinga surishga muvaffaq bo‘ldi. Shunday bo‘lsa-da, Xitoyning jahon xo‘jaligida yaqin kelajak yillarda yetakchilikni o‘z qo‘liga olishga tobora yaqinlashmoqda.

2021-2025-yillarga mo‘ljallangan o‘n to‘rtinchchi besh yillik ijtimoiy-iqtisodiy rejasini amalga oshirish jarayonida Xitoy hukumati jahon siyosiy va iqtisodiy arenasida eng qudratli mamlakat bo‘lishini maqsad qilgan. 2021-yilda pandemiya sharoitiga qaramasdan, Xitoy qashshoqlikka qarshi kurashda “to‘liq g‘alaba”ga erishdi va aholi eng zinch joylashgan mamlakatda mutlaq qashshoqlik yo‘q qilin-gan. Xitoyda so‘nggi sakkiz yil ichida qashshoqlik chegarasida yashovchi 98,99 million qishloq aholisi kambag‘allikdan butkul qutulgan. Xitoy rahbari - Si Szinpin ushbu tarixiy voqeani “tarixga ki-

rishga arzigulik mo‘jiza” deb atadi.¹²⁷

24.6. COVID-19ning Xitoy iqtisodiyotiga ta’siri

2019-yilning oxirlarida XXR Prezidenti Si Szinpin ushbu buyuk davlatning asosini qimirlata oladigan birorta kuch mavjud emasligini hamda hech qanday kuch xitoy xalqining oldinga bo‘layotgan harakatini to‘xtatib tura olmasligini ta’kidlab o‘tgan edi.

Jahon banki ekspertchi mutaxassislarining 2019-yilning o‘rtalarida bergen tahlillariga ko‘ra, Xitoy milliy iqtisodiyoti salohiyati va miqdori jihatidan jahon xo‘jaligidagi 2020-yilda AQSHni quvib o‘tib 1-o‘ringa chiqib olishini ma’lum qilishgan edi.

Biroq, 2019-yilning so‘nggi oyida Xitoyda yuzaga kelgan COVID-19 Xitoyning rejalarini yana to‘xtatib qo‘ydi. 2019-yilning 31-dekabr kuni Xitoy rahbari Jahon sog‘liqni saqlash qo‘mitasiga Xitoyda “koronavirus” epidemiyasi boshlanganligini rasman ma’lum qildi. Virus aniqlangan Uxan shahrida 2 oylik kuchli karantin joriy qilindi va shaharga kirish va chiqish hamda aholining ko‘chaga chiqishi ham qat’iyan man etildi. Tarixda birinchi marta milliondan ortiq aholiga ega bo‘lgan shaharning muzlatilgan manzarasi namoyon bo‘ldi. Xo‘sish, Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan ushbu kasallikning oqibati Xitoy milliy iqtisodiyotiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?

Avvaliga mamlakatning markaziy hududidagi yirik shaharlaridan biri hisoblangan Uxan shahri butunlay yopildi. Mamlakat bo‘ylab barcha turdagи transport qatnovlarining ham ichki, ham tashqi yo‘nalishlari to‘xtatildi. Dunyoning barcha aviakompaniyalari Xitoy shaharlariga bo‘lgan parvozlarini yil oxirigacha bo‘lgan muddatda butunlay to‘xtatdi va davlat chegara hududlari mustahkam yopildi.

Mamlakatning xalqaro turizm sohasi to‘xtadi va yilning o‘rtalariga borib ichki turizm sohasi yana o‘z faoliyatini boshladi. Avvalari unga qo‘shni bo‘lgan Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Vietnam, Tailand, Gonkong va Kambodja kabi mamlakatlardan har yili yanvar oyida “Xitoy yangi yili” bayramiga kamida 3-4 million sayyoohlolar, ayniqsa, qish mavsumida mamlakatning janubi-sharqiy provinsiyalariga va asosan Xaynan orolidagi turistik hududlariga millionlab xorijiy sayyoohlarning tashrifi va boshqa turli hududlar bilan yil

¹²⁷ http://www.xinhuanet.com/english/2021-02/25/c_139765861.htm%C2%A0

yakunida kamida 30-40 million atrofida xorijiy sayyoohlarning tashrifi kutilar edi. Eng muhimi, jahonning deyarli barcha mamlakatlari Xitoydan to‘g‘ridan to‘g‘ri tashrif buyurayotgan xitoylik fuqarolarni va sayyoohlarni ham o‘z mamlakatlariga kiritishdan vaqtinchalik “voz kechish”ga majbur bo‘lishdi.

Mamlakatdagi iqtisodiy holat shu qadarga yetib bordiki, mahalliy va xorijiy investorlarning qo‘rquvgaga tushishi natijasida markaziy hududlaridagi barcha ishlab chiqarish korxonalari vaqtinchalik o‘z faoliyatini to‘xtatdi va majburiy tarzda yuz millionlab ishchimutaxassislar 2 oy mehnat ta’tiliga majburiy chiqarildi. Virusning Xitoy hududlarini qamrab olishi, albatta sarmoyadorlarning xavotirga solishi va uning natijasida turli jahon bozorlarida tahlikali holatlar yuz berdi. Xitoyda faoliyat ko‘rsatayotgan ko‘plab yirik kompaniyalarining qimmatbaho qog‘ozlari narxi birjalarda keskin ravishda tushib ketdi. Investorlar qiyin vaziyatlarda qadrini yo‘qotadigan aktivlarini sotishga majbur bo‘ldi. Ushbu aktivlar qatoriga qimmatbaho qog‘ozlar, neft, metall kabilar kirishini ta’kidlash joiz. Uning o‘rniga rivojlangan mamlakatlarning obligatsiyalarini va oltinni sotib olishni boshlashdi.

OPEK tashkilotining ma’lumotiga ko‘ra, Xitoy jahon neft bozorida eng ko‘p miqdordagi neftni import qiluvchi mamlakat ekanligini hisobga olsak, jahon neft bozorida uning kunlik iste’moli 14,0 mln. barrelni tashkil qiladi. Biroq yuzaga kelgan pandemiya tufayli Xitoyning jahon neft bozoridan importining 30 foizga qisqarishi va kunlik iste’molining 10-11 mln. barrelga tushib ketishi oqibatida jahon neft bozori inqirozga yuz tutdi.

Eng muhimi, 2020-yilning 23-yanvaridan 14-fevraliga qadar Xitoydagagi barcha fond bozorlari faoliyatlarini vaqtinchalik o‘z faoliyatlarini to‘xtatdi va uning ta’siri jahondagi boshqa yirik birja markazlariga o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatdi, chunki jahondagi eng yirik fond birjalaridan biri hisoblangan Shaxay fond birjasining faoliyati jahondagi barcha fond birjalar faoliyatiga o‘z ta’sirini o‘tkaza oladigan darajaga chiqqan edi.

Xitoyda yuzaga kelgan iqtisodiy tanglik holati jahon iqtisodchi ekspertlarini ham befarq qoldirmadi. 2020-yilning o‘rtalariga borib Xitoyning YaIM miqdorining o‘sish ko‘rsatkichini kamida 10-12 foizga kamayishi taxmin qilishgan bo‘lsa-da, biroq yil oxiriga borib iqtisodiyoti o‘zini o‘nglab olganligini va iqtisodiy taraqqiyotning

2019-yil holatiga qaytishini 2021-yilning o‘rtalarida yuz berishini bildirib o‘tishgan.

2020-yilning so‘nggi kunlarida jahon mamlakatlari tomonidan iqtisodiy inqirozga qarshi kurashish tadbirlari amalga oshirilayotgan bir paytda Xitoyning Oyga uchirilgan raketasi muvaffaqiyatli qo‘nib, undan tuproq namunasi olib kelinganligi jahon ommasiga ma’lum qilindi.

Shuningdek, 2020-yildan ishga tushirilgan poytaxt Pekin shahridan janubda joylashgan hududda “Mega-aeroport” o‘z faoliyatini boshladi. Tahlillarga ko‘ra, ushbu yangi Pekin xalqaro aeroportining ishga tushirilishi natijasida 2022-yilga kelib Xitoy dunyodagi eng yirik aviatashuvlar bozori sifatida AQSHni ortda qoldiradi. Yangi aeroport qurilishi 2014-yilda boshlanib umumiyligi miqdorda 11,5 mlrd.dollar mablag‘ sarf qilingan. Aeroport o‘z oldiga qo‘ygan dastlabki vazifa 2025-yilgacha har yili 72 mln yo‘lovchi va 2 mln tonna yuk qabul qilishdan iborat. Rejada yana uchta uchish-qo‘nish yo‘lagi qurish va har yili kamida 100 mln. yo‘lovchi va 4 mln. tonna yuk qabul qilish bor.

Qisqasi, jahon xo‘jaligi tarixidan joy olgan “xitoy mo‘jiza”sining vujudga kelishida 1980-2000-yillar boshlarida olib borilgan iqtisodiy islohotlarning umumlashtirganda, ularning 5 ta asosiy yo‘nalishlarini ko‘rishimiz mumkin, jumladan:

- davlat korxonalarini qayta shakllantirish hamda ularni xususiyashtirish;

- umumiyligi bozor tizimini tashkil qilish, ya’ni mamlakatlarning barcha hududlarida ishlab chiqarilayotgan masulotlarning ichki va tashqi bozorga olib chiqishini muvofiqlashtirish;

- narxni shakllantirishda davlat tomonidan faqatgina strategik mahsulotlarni, jumladan: neft, tabiiy gaz, rangli metallar, dori-darmon, quroq-yaroq kabi mahsulotlarga narx belgilaydi xolos. Qolgan ishlab chiqariladigan mahsulotlarning narxi talab va etiyoj darajasidan kelib chiqqan holda bozorni o‘zi belgilaydi hamda erkin narxga o‘tildi;

- aholini ijtimoiy muhofazalash, ya’ni hukumatning asosan qishloq joylardagi oilalarga bo‘lgan e’tibori, ularni kambag‘allik darajasidan chiqarish hamda ularni ijtimoiy muhofazalash;

- ishchi-mutaxassislarning oylik maoshlarini ish faoliyatiga qarab shakllantirish mexanizmi ishlab chiqildi. Hukumat oylik maoshlarini

“adolatga ko‘ra oylik maoshi, lekin, eng asosiysi samaradorlik” tamoyiliga ko‘ra oylik maoshlari shakllantirildi.

Pandemiya sharoitida Xitoy 2020-yilda 220 milliarddan ziyod himoya niqobini ikki yuzdan ortiq mamlakat va hududlarga eksport qildi. Shuningdek, 2,3 milliard kombenzon va test uchun 1 milliard reaktivlar to‘plami ham eksport qilingan. Xitoy “epidemiyaga qarshi dori-darmonlarni yetkazib beruvchi eng yirik davlat sifatida o‘zining ustunligini” faol ravishda oshirib bormoqda.

COVID-19ning oldini olish bo‘yicha samarali choralar va hukumatning ulkan investitsiyalari yordamida qisqa muddatda Xitoy iqtisodiyoti yetarlicha kuch to‘pladi. 2021-yil boshida jahonning ba’zi iqtisodchi olimlari Xitoy iqtisodiyotining AQSHni ortda qoldirib, kutilganidan bir necha yil oldin - 2028-yilga kelib iqtisodiy salohiyati jihatidan dunyodagi eng yirik mamlakatga aylanishi mumkinligini taxmin qilishdi.

24.7. “Xitoy modeli” va uning omillari

Ko‘pgina Osiyo mamlakatlariga yod bo‘layotgan va o‘zlarining milliy iqtisodiyotlarini mustaqil ravishda rivojlanishiga harakati hamda milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun “iqtisodiy poydevorni qurishi”da ma’lum taraqqiyot modellari orqali rivojlanishga erishmoqdalar, jumladan Xitoy ham 1984-yilning oktabrda Xitoy hukumati “Xo‘jalik tizimini islohot qilish to‘g‘risida”gi qarorini qabul qildi. Ushbu tarixiy qabul qilingan qarorda “sotsializm qurish” vazifasi va iqtisodiy davlat dasturi ishlab chiqilishi belgilab olindi. Aynan iqtisodiy sohalarni rivojlantirish bo‘yicha ushbu ishlab chiqilgan davlat iqtisodiy dasturi keyinchalik Xitoy iqtisodiyoti tarixidan “xitoy modeli” sifatida joy oldi va uning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- bozor islohotlarini boshlashdan avval iste’mol bozorida mahsulot narx-navolar dinamikasini tiklash hamda ularni bir xil toifa va sifatga ega bo‘lgan mahsulotlarning narxlarini tenglashtirish;
- bozor iqtisodiyotini yuzaga keltirish va shakllantirish;
- bozorni yanada shakllantirishda xususiy tadbirkorlikni va yordamchi hunarmandchilikni rivojlantirish;
- inflatsiya jilovini oldini olishda “qat’iy tartib”ga rioya qilish va “qora bozor”ga barham berish;
- milliy valutani “yuan”ni qadrini tiklash va oshirish;

- davlat korxonalarini xususiy lashtirish hamda sanoat korxonalarini “mustaqil xo‘jalik tashkilotlari”ga aylantirish;
- bir vaqtning o‘zida ham davlat, ham xususiy sektorlarini rivojlantirishga ahamiyat berish;
- mamlakatga xorijiy investitsiyalarni kiritishda “ochiq eshiklar siyosati”ni olib borish va uning tashkiliy ishlarini qisqa fursatda amalga oshirish hamda chet el kapitali hajmini oshirish iqtisodiy islohotning eng asosiy maqsadlari bo‘ldi va “xitoy modeli” xususiyatlarini shakllantirib berdi.

Bob yuzasidan xulosa

Xitoy bugunga kelib aholi soni, valuta zaxirasi, tashqi savdo, o‘nlab mahsulotlarni ishlab chiqarishda va etishtirishda jahon iqtisodiyotida 1-o‘rinda turadi. U dunyodagi eng ko‘p aholisini oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta’minlabgina qolmay, jahon bozoridagi eng yetakchi eksportyor mamlakatdir. U arzon narxlardagi yengil sanoat va mashinasozlik mahsulotlari bilan dunyo bozorini egalladi. U jahoning barcha mamlakatlariga eksport mahsulotlarini chiqargan yagona mamlakatdir.

Shuni alohida aytish joizki, Xitoy XX asrda agrar mamlakat bo‘lgan bo‘lsa, XXI asrga o‘tganda agrar-industrial mamlakatga aylandi. Xitoy so‘nggi 40 yil ichida qariyb 740 million aholini kambag‘allik darajasidan chiqarishga erishdi. Xitoy hukumatining oldidagi asosiy vazifa pandemiya holatidan tezroq chiqib, Xitoy “eshigi”ni yana jahon mamlakatlariga ochishdan va oldingi hayotga qaytishdan jahon ahli umidvordir. Albatta, buning negizida Xitoy yaqin kelajak yillarda iqtisodiy salohiyati va qudrati bo‘yicha eng yetakchi mamlakat bo‘lishiga shak-shubha yo‘qdir.

Nazorat savollari

1. Xitoyning iqtisodiy-geografik joylanishuvini aytib bering.
2. Xitoyning iqtisodiy tarixi va uning umumiy tavsifini aytинг.
3. Xitoyning jahon xo‘jaligida tutgan o‘rni va uning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini aytинг.
4. Qaysi iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha jahonda 1-o‘rinda turadi?

5. Xitoyning aholi tizimi va uning o'sish tendensiyalarini ayting.
6. Xitoy hukumati qaysi yillarda aholi sonining ko'payishini oldini olish bo'yicha dasturlarni qabul qilgan edi va ularning mohiyatini ayting.
7. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda tatbiq qilingan "Katta sakrash" islohotining mohiyatini ayting.
8. Jahon xo'jaligi tarixidan joy olgan "Madaniy inqilob" islohoti va uning mohiyatini ayting.
9. Mamlakat milliy iqtisodiyotini rivojlantirishda eng asosiy sabablaridan biri bo'lgan "To'rt modernizatsiya" dasturini ayting.
10. Xitoy "iqtisodiy mo'jiza" yaratishidagi asosiy omillarni ayting.
11. Xitoy iqtisodiyotida "xitoy mo'jiza"sining vujudga kelishining asosiy bosqichlarini sharhlab bering.
12. "Xitoy modeli" va uning asosiy oimllarini ayting.
13. Den Sya Pinning tamoyillarini ayting.
14. Xitoyda amalga oshirilgan "Ochiq eshiklar siyosati"ning mohiyatini ayting va qaysi hududlarda erkin iqtisordiy hududlar tashkil qilindi?
15. BMT Bosh kotibi nima uchun "2003-yilni Xitoy yili" deb atagan?

Uyga vazifa!

Talabaning "Xitoyning "iqtisodiy mo'jiza"si va uning jahon xo'jaligidagi iqtisodiy salohiyati" mavzusini chuqur o'zlashtirishi hamda amaliyat darsiga puxta tayyorgarlik ko'rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

- 1) mavzu so'ngida berilgan "Nazorat savollari"ga tayyorgarlik ko'rish;
- 2) Xitoyning iqtisodiy-geografik joylanishuvini va uning qo'shni mamlakatlar bilan chegaradoshligini xarita orqali ko'rib chiqish;
- 3) Xitoy iqtisodiyotining sanoati, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohasi bo'yicha talabalar guruhlarga bo'lingan holda "Taqdimot" o'tkaziladi.

XXV BOB. JANUBIY OSIYO MAMLAKATLARI IQTISODIYOTI RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (HINDISTON MISOLIDA)

- 1. Hindistonning umumiyl tavsifi va qisqacha iqtisodiy tarixi hamda uning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari.**
- 2. Aholisi va uning o‘sish dinamikasi.**
- 3. Hindiston iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari.**
- 4. Mamlakat iqtisodiyotining tuzilmasi va asosiy ustuvor tarmoqlari.**
- 5. Hindiston milliy iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi sohasining ustuvor ahamiyati.**
- 6. Hindistoning hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy muammolari.**

Tayanch iboralar: sivilizatsiya, kolonizatsiya, buddizm, “yashil inqilob”, “Neruvian yo‘li”, “aralashma” model, 5 yillik rejalar, BRIKS, rabi, musson, xarif, “Ganga vodiysi”, qashshoq va kambag‘al.


25.1. Hindistonning umumiyl tavsifi va qisqacha iqtisodiy tarixi hamda uning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari

Hindiston – dunyo sivilizatsiyasining eng qadimiy davlatlaridan biri. Hindiston haqida gap ketganda, avvalo, bu o‘lkaning qadim tarixi, betakror madaniyati, go‘zal tabiatni namoyon bo‘ladi. U dunyoga guruchni, paxtani, shakarqamishni, bir qancha ziravorlarni, uy parrandasini, shaxmatni, o‘nlik sistemasini kashf qildi va sovg‘a qildi. Mamlakat tarixi buyuk bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari nomi bilan bog‘liqligi biz uchun yanada ahamiyatlidir. Zero, Bobur va boburiylar bu yerda qudratli, markazlashgan davlat barpo etib, Hindistonning iqtisodiy taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shganlar. Hind olim va dasturchilari dunyodagi eng peshqadamlaridan hisoblanadi, bu davlat sun’iy yo‘ldoshlar fazoga chiqardilar hamda yadro qurollari sohibidir. Ayni paytda, uning aholisi, maydoni, “nou-xau” g‘oyalari, kompyuter dasturlari va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishi jihatidan dunyoda eng yuqori o‘rinlarda turadi. Shu bilan birga, Hindiston sayyoramizning iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha kambag‘al davlatlar qatoriga kiradi.

Hindiston Janubiy Osiyo mintaqasida iqtisodiy jihatdan eng

qudratli mamlakat bo‘lib, uning markazida joylashgan. Shuningdek, u yarimorol mamlakati ham deb yuritiladi. Unga yaqin bo‘lgan qo‘shni mamlakatlar: shimoli-g‘arbda Pokiston, shimoli-sharqda Xitoy va Nepal, sharqda Bangladesh, Butan va Myanma, janubda suv havzasida Shri-Lanka mamlakatlari bilan chegaradosh hamda deyarli yarim hududini Hind okeani o‘rab turadi. Uning yer maydoni 3287,7 ming km.kv bo‘lib, uning umumiy yer maydonining 21 foizini o‘rmonlar (asosan jungli) tashkil qiladi.

Hindistonning jahon xaritasida joylashgan o‘rni



Hindiston hududining kattaligi jihatdan dunyoda 6-o‘rin yoki dunyo hududining 2,4 foizini tashkil qiladi. Taqqoslash uchun: Hindiston hududi O‘zbekiston hududidan 7 marta kattadir. Hindistonning poytaxti Nyu-Dehli shahri. Aholining 80 foizini hindlar (buddizm) va 14 foizini musulmonlar tashkil qiladi. Davlat tili - hind tili.

Hindiston XVIII asrdan XX asrning o‘rtalarigacha Buyuk Britaniya koloniyasida bo‘ldi. Buyuk Britaniya koloniysi davrida Hindistonda qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining rivojlanishi umuman to‘xtab qoldi. Hindistonning ishlab chiqarish tarmoqlari tizimi izdan chiqib mamlakat faqat Yevropa uchun xomashyo ishlab chiqaruvchi mamlakatga aylandi. Kolonizatsiyaning birinchi davrida mamlakatda qishloq xo‘jaligining oddiy tarmoqlari uchun, ya’ni ekin maydonlarini

sug‘orilishi uchun irrigatsiya tarmoqlari qurilishi ham bo‘lмаган.

Mustamlaka davrida Hindiston mineral xomashyo va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini Yevropa mamlakatlariga chiqarardi va aholining oddiy kundalik ehtiyoji, ya’ni keng iste’mol mollarini xorijdan keltirar edi. O’sha davrlarda jahon bozoridan joy olgan hind to‘qimachilik, metall va shishadan yasalgan mahsulotlarni sobiq eksportchisi Hindiston endi, mana shu mahsulotlarni o‘zi import qiluvchi davlatga aylanib qolgan edi. Mamlakatda sanoat ishlab chiqarish mahsulotlari nihoyatda kam ishlab chiqarila boshlandi, chunki, mahalliy milliy korxonalarga kolonizatorlar tomonidan 15-17 foiz miqdorida soliq belgilanishi oqibatida ishlab chiqarish deyarli to‘xtab qoldi. Hindiston o‘zi ishlab chiqarsa bo‘ladigan mahsulotlarni, ya’ni asbob-uskunalar va turli xil sanoat mahsulotlarini endi Buyuk Britaniyadan import qilishga majbur bo‘ldi. Masalan, Buyuk Britaniyaning birgina to‘qimachilik mahsulotlarining eksporti Hindistonga 1618-yildan 1835-yilgacha 65 marotaba o‘sgan edi.

Ikkinci jahon urushi boshlanishi arafasida Hindiston cho‘yan ishlab chiqarish bo‘yicha Britaniyadan 36 marta, Yaponiyadan esa 7 marta kam ishlab chiqar edi. Yirik iqtisodiy salohiyatga va tabiiy resursga boy bo‘lgan Hindistonning dunyo bo‘yicha ishlab chiqarishdagi ulushi 1 foizdan ham oshmas edi, o‘rtacha umr ko‘rish davri 32 yoshni, savodlilar soni bo‘yicha esa butun aholining atigi 18 foizini tashkil qilar edi xolos. Hindistonning 1947-yildan 2020-yilgacha bo‘lgan iqtisodiy rivojlanish davrini oladigan bo‘lsak: mamlakatning milliy daromadi deyarli 5 marotaba, sanoat ishlab chiqarish 12 marotaba, boshoq ekinlarini etishtirish 4 marotabaga oshdi. Aholi yiliga o‘rtacha 2 foizdan ko‘paysa-da, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadi o‘tgan davrlar ichida deyarli 2,5 marotabaga o‘sdi. Aholining o‘rtacha ma’lumot darajasi esa 18 foizdan 67 foizgacha oshdi.

Hindistonning YaIM miqdori 1995-yilda 272 mlrd.dollarni tashkil qilib, uning miqdori bo‘yicha dunyo mamlakatlari ichida 1945-yildagiga nisbatan, ya’ni so‘nggi 50 yil ichida 145-o‘rindan 15-o‘ringa ko‘tarildi. 2020-yilga kelib esa, uning YaIM miqdori 2875,1 trln. dollarni tashkil qiladi va YaIM miqdori bo‘yicha dunyoda 5-o‘rinni egallab turibdi. YaIMning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadi – 2.130 dollarni tashkil qilib, aholi daromad ko‘rsatkichi bo‘yicha dunyoda 144-o‘rinni egallab turibdi. Jahon banki ekspertlari

tahlillariga ko‘ra, Hindiston YaIM miqdori bo‘yicha 2030-yilga borib jahonning “Uchinchi mamlakati” bo‘lishi taxmin qilinmoqda. Shuningdek, Hindistonning tashqi qarzi miqdori bo‘yicha dunyoda 4-o‘rinda turadi va uning 2020-yil holatiga ko‘ra tashqi qarzdorlik miqdori 7,7 trln. dollarni tashkil qiladi.

Aynan ushbu 1950-1990-yillar mobaynida po‘lat ishlab chiqarish 1 mln.tonnadan 11,1 mln.tonnagacha, alyuminiy ishlab chiqarish 5 ming tonnadan 260 ming tonnagacha, sement 13 mln.tonnadan 39 mln. tonnagacha, ko‘mir qazib chiqarish 33 mln.tonnadan 185 mln. tonnagacha, neft 300 ming tonnadan 32 mln.tonnagacha ko‘paydi. Elektr energiyasining quvvati esa 5 mlrd.kVt.dan 202 mlrd.kVt.gacha o‘sdi¹²⁸ va albatta, bugungi kunda ushbu sohalardagi iqtisodiy taraqqiyot yanada oshgan.

YaIMda hamon qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining ulushi sanoatga qaraganda ustunroqdir: qishloq xo‘jaligi 29 foiz, sanoat 27 foiz va boshqa tarmoqlarni qo‘shib hisoblaganda 41 foizni tashkil qiladi.

XX asrning oxiri va XXI asrning boshlariga kelib, rivojlanayotgan Hindiston jahon xo‘jaligida iqtisodiy qudrati va salohiyati, qishloq xo‘jaligi va sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish miqdori bo‘yicha dunyodagi 10 ta yetakchi mamlakatlar qatoridan joy oldi. Hatto Hindiston YaIMning umumiy miqdori bo‘yicha dunyoda yetakchi mamlakatlar qatoridan joy olgan Kanada, Italiya, Fransiya Buyuk Britaniya kabi mamlakatlardan o‘zib ketdi.

Hindistonning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini 25.1-jadval orqali ko‘rish mumkin. Umumiy tashqi savdosi 80,2 mlrd.dollar bo‘lib, uning eng asosiy hamkor mamlakatlari – AQSH, Xitoy va BAA mamlakatlari tashkil qiladi. Umumiy tashqi savdo-sotig‘ining 60 foizi rivojlangan mamlakatlarga to‘g‘ri keladi. Eksporti 323,3 mlrd.dollarni bo‘lib, eksportdagi asosiy hamkor mamlakatlari: AQSH, BAA, Xitoy, Gonkong, Singapur va boshqa mamlakatlar. Asosiy eksport mahsulotlari mineral o‘g‘itlar, olmos, rangli metallar, farmatsevtika ishlab chiqarish uskunalari va dori-darmon, qora metall, to‘qimachilik, trikotaj, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hamda turizm. Importi 478,9 mlrd. dollarni tashkil qilib, importdagi asosiy sheriklari: Xitoy, AQSH, BAA, Saudiya Arabiston, Iroq kabi mamlakatlar. Importdagi

¹²⁸ V.K. E.Xalevinskaya, I.Kroze. “Mirovaya ekonomika”, “YUrist”, M.: 1999g. –S. 111.

asosiy mahsulotlari tarkibiga neft va neft mahsulotlari, rangli metallar, asbob-uskuna, harbiy quroq-aslaha, plastmassa, aholi iste'moli mahsulotlari kiradi.

25.1-jadval

Janubiy Osiyo mamlakatlarining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari

T/r	Asosiy ko'rsatkichlar va xususiyatlari	Hindiston	Pokiston	Bangla-desh	Shri-Lanka
1	YalIM miqdori (mln.doll.) ¹²⁹	2.875,1	278,2	302,6	84,0
2	YAMMning aholi jon boshiga (doll.) ¹³⁰	2.130	1.530	1940	4.020
3	Umumiylashchi savdo aylanmasi (mlrd.doll.)	802,2	73,8	78,3	33,7
4	Eksporti (mlrd.doll.)	323,3	23,7	37,6	12,1
5	Importi (mlrd.doll.)	478,9	50,1	40,7	21,6
6	Valuta zaxirasi (mlrd.dollar) ¹³¹	463,5	16,6	32,7	7,6
7	Tashqi qarzi (mlrd.doll.) ¹³²	7.677,9	66,5	30,7	27,5
8	Aholi soni (mln. kishi) ¹³³	1.380,7	219,6	171,7	21,8
9	Umumiylashchi maydoni (ming km.kc) ¹³⁴	3.287,6	803,9	144,0	65,6
10	Ishsizlik (foiz)	6,3	7,7	7,2	5,1
11	Milliy valutasi (pul birligi)	Rupiya	Rupiya	Taka	Rupiya
12	Mamlakat poytaxti	Nyu-Deli	Islomobod	Dakka	Kolombo
13	Rasmiy davlat tili	Hind tili	Urdu tili	Bengal tili	Sinxala

Ushbu jadval ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan.

¹²⁹ Gtmarket.ru/ratings/gross-national-income-ranking

¹³⁰ https://data.worldbank.org/indicator/NY.GNP.PCAP.CD

¹³¹ https://nonews.co/directory/lists/countries/gold

¹³² https://ru.m.wikipedia.org/wiki/%DO%A1%DO%BF%DO%B8%

¹³³ https://ru.m.wikipedia.org/wiki/Spisok_stran_po_naseleniyu

¹³⁴ https://worldgeo.ru/lists/?id=2

Hindiston jahondagi yirik neft, temir ruda va ko‘mir zaxiralariga, shuningdek, marganets, mis, boksit, titan, oltin, volfram, sink, qo‘rg‘oshin, olmos kabi yirik tabiiy qazilma boyliklarga egadir. Shu bilan birga, Hindiston oltin importi bo‘yicha ham dunyodagi eng yirik importyor mamlakat hisoblanadi va yiliga 700-800 tonna oltinni sotib oladi. Jhon banking ma’lumotlariga ko‘ra, yer yuzidagi jami ishsiz aholining 3 foizi va jami kambag‘al aholining 22 foizi Hindistonga to‘g‘ri kelar ekan. Agarda Hindistonning rasmiy ma’lumotiga tayanadigan bo‘lsak, ishsizlik darajasi 6,3 foizni tashkil qiladi. U atom sanoatining rivojlanishi darajasiga ko‘ra, dunyodagi rivojlanayotgan mamlakatlar orasida yetakchi o‘rinda turadi. Hindistonning ilmiy tadqiqot izlanishlariga yo‘naltiradigan xarajatlar miqdori jami dunyo bo‘yicha ushbu yo‘nalishdagi xarajatlarining 1,2 foizi to‘g‘ri keladi. Hindiston fan-texnika mutaxassislarining soni jihatidan AQSH va Rossiyadan so‘ng 3-o‘rinda turadi.

25.2. Aholisi va uning o‘sish dinamikasi

Hindistonning aholisi 1 mlrd. 380,7 mln. kishini tashkil qiladi va aholi soni jihatidan jahonda Xitoydan so‘ng 2-o‘rinda turadi. Jhon aholi tizimini o‘rganuvchi va doimiy ravishda tahlil qiluvchi BMT tarkbidagi Jhon aholisini o‘rganish va tahlil qilish tashkilotning istiqboliga ko‘ra, Hindiston aholi soni bo‘yicha 2022-yilga borib dunyoda 1-o‘ringa chiqishini ma’lum qilgan. Xalqaro kuzatuvchi ekspertlarning fikriga ko‘ra, mamlakatda bunday tez ko‘payishi jarayoni davom etsa, u holda 2050-yilga borib hind aholisining soni 3 mlrd. kishiga yetishi taxmin qilinmoqda, chunki aholi soni jihatidan dunda 1-o‘rinda turgan Xitoyning aholi sonini o‘sish sur’atlari ancha pasaygan.

Hindistonda eng ko‘p aholi soniga ega bo‘lgan shaharlar Mumbay (Bombey) – 23 mln. kishi, Kalkutta – 18 mln. kishi, Nyu-Dehli – 14 mln. kishi va boshqa o‘nlab million aholi soniga ega bo‘lgan shaharlar mavjud.

Hind aholisining bunday tez sur’atlarda o‘sishi kelajak istiqbol yillarda Hindiston iqtisodiyotiga o‘z salbiy ta’sirini o‘tkazishi mumkin va u ko‘plab ijtimoiy-iqtisodiy mummolarni keltirib chiqarish xavfi mavjud. Shundoq ham bugungi kunda mamlakatda ishsiz aholini ish

bilan ta'minlash, oziq-ovqat muammosi, uy-joy va boshqa bir qator ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilish Hindiston hukumatining eng asosiy vazifalaridan biri bo'limoqda.

25.2-jadval

Hindiston aholisi sonining o'sish ko'rsatkichlari

Aholining ko'payish tarixi	Aholining ko'payish darajalari
<ul style="list-style-type: none"> • 1901-yilda 239 mln. kishi; • 1951-yilda 361 mln. kishi; • 1981-yilda 683 mln. kishi; • 1991-yil 1-martida 846 mln. kishini (440 mln. erkaklar, 406 mln. ayollar) tashkil qilgan. • 2000-yil iyulda 1 milliard kishi; • 2008-yil 1-yanvar 1 mlrd. 115 mln.; • 2015-yil 1-yanvar 1 mlrd. 309 mln.; • 2020-yil 1-dekabr 1 mlrd. 388 mln. 	<ul style="list-style-type: none"> • Bir minutda 33 kishi (2 soniyada 1 ta); • bir soatda 2 ming 22 kishiga; • bir sutkada 48,5 ming kishiga; • bir oyda 1 mln. 456 ming kishiga; • bir yilda 17.466 ming kishiga ko'payadi; • aholisi yiliga 2 foizga o'sadi; • 2000-yildan 2020-yilgacha aholi 405 mln. kishiga ko'paygan. • Ko'payish 1000 kishiga 26 kishi; • O'lim 1000 kishiga 9 kishi.

Ushbu jadval

https://ru.m.wikipedia.org/wiki/Spisok_stran_po_naseleniyu_ma'lumotlar_asosida_ishlab_chiqilgan.

XXI asrning 20-yillariga kelib jahon mamlakatlari ichida eng ko'p aholi soni ortib borayotgan mamlakat ham bu aynan Hindiston mamlakatidir. Mamlakat aholisi yiliga o'rtacha 17 mln. kishiga ko'payib bormoqda va yillar o'sishi sayin uning yillik ko'payish soni ham ortib boraveradi. Jahon mamlakatlari ichida ishsizlarning soni jihatidan ham Hindiston 1-o'rinda turadi. 2020-yilda yuzaga kelgan pandemiya sharoitida qariyb 300 million hindistonliklar ishsizlikka duchor bo'lishdi. Shuningdek, jahon mamlakatlari bo'yicha eng ko'p kambag'al aholi ham Hindistonning Ganga vodiysida istiqomat qiladi.

Mamlakat 1947-yilda mustaqillikka erishgan paytda aholi soni 343 mln. kishini tashkil qilgan edi. O'sha paytda ham mamlakat tepasiga kelgan Maxatma Gandhi va keyinroq uzoq yillar mamlakatni boshqargan Javoharlal Neru boshchiligidagi hukumatning eng asosiy

vazifasi ham aholini oziq-ovqat va uy-joy bilan ta'minlashdan iborat bo'lgan. Hukumat 1951-yilda aholining yildan yilga tez sur'atlarda ko'payib borishini oldini olish va oilada tug'ilish sonini kamaytirish maqsadida jahon mamlakatlari ichida eng birinchi bo'lib "oilani rejalashtirish" dasturini olib bordi. Ushbu dastur bilan hind oilasida ikkita yoki uchta farzand bilan cheklanishni ko'zda tutar edi. Lekin ushbu siyosat o'z samarasini bermadi va dasturning ijrosini amalga oshirilishi nihoyasiga yetmay qoldi¹³⁵.

25.3. Hindiston iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo'nalishlari

Hindiston iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini quyidagi iqtisodiy davlar bo'yicha ko'rib chiqamiz:

Birinchi iqtisodiy davri, 1950-yilning boshlari va 1960-yillar - "Neruvian yo'li". Ushbu davrda hukumat tepasiga Javoharlal Neru keldi hamda milliy iqtisodiyotning rivojlanishida quyidagi yo'nalishlariga alohida e'tibor berildi:

- a) markazlashgan reja tizimi, ya'ni "aralashma" model;
- b) Yuqorida, ya'ni davlat boshqaruvi tizimi;
- d) kichik va o'rta tadbirdorlikni qo'llab-quvvatlash;
- e) agrar sohani ustun darajada rivojlantirish ("yashil inqilob" islohoti).

Ikkinchchi iqtisodiy davri, 1960-yilning oxiri va 1970-yil - "Indira Gandhi davri". Ushbu davrda milliy iqtisodiyotning rivojlanishida quyidagi vazifalar o'rin oldi:

- a) banklarni milliylashtirish;
- b) neft inqirozidan chiqib ketish;
- d) aholining turmush darajasini yaxshilash;
- e) agrar sohaga xorijiy texnologiyalarni jalb qilish.

Uchinchi iqtisodiy davri, 1980-yilning o'rtalari va 1990-yillar - "Rajiv Gandhi davri". Mamlakat Bosh vaziri R.Gandi iqtisodiyotni rivojlantirishda quyidagi yo'nalishlarga asosiy e'tiborni qaratdi:

- a) axborot texnologiyasi sohasini rivojlantirish;
- b) iqtisodiyotni liberallashtirish jarayonining boshlanishi;
- d) kichik va o'rta tadbirdorlikning turli tarmoqlarda rivojlantirish;
- e) iqtisodiyot tizimiga ixtisoslashgan ilmiy-texnika institutlar

¹³⁵ V.K.Lomakin, "Mirovaya ekonomika", Moskva, "Finansi" Izdatelskoe ob'edinenie "YUNITI", 1999 god, str.-247.

sonini oshirish, ta’lim tizimini yaxshilash va iqtisodiyot sohalariga mutaxassislarini tayyorlash.

To‘rtinchi iqtisodiy davri, 1991-yildan 2000-yillar - “Global-lashuv davri” bo‘lib xorijiy mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni hamda tashqi iqtisodiy faoliyatga asosiy e’tiborni qaratdi:

- a) tashqi iqtisodiy faoliyatda tariflarni qisqartirilishi;
- b) erkin iqtisodiy savdo hududlarini tashkil qilinishi;
- c) xorijiy sarmoyadorlarni jalg qilish;
- d) ishlab chiqarish tarmoqlariga ilg‘or texnologyalarni jalg qilish asosida eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarish;

Beshinchi iqtisodiy davri 2010-yillar – “Jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuv davri” bo‘lib, asosiy e’tibor fan-texnika sohasini rivojlantirish hamda mamlakatning jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuvi yo‘nalishlarini o‘z ichiga oldi:

- a) tadbirkorlikni yuqori texnologiyalar asosida rivojlantirish;
- b) jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuvi (BRIKS, ShHT, ASEAN);
- c) fan-texnika sohasini yanada rivojlantirish;
- d) kambag‘allikni qisqartirish.

1950-yillarda import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish modeliga asosan, sanoat tarmoqlarini industrlashtirish siyosati olib borildi. Industrlashtirish siyosatidagi iqtisodiy islohotlar qora va rangli metallurgiya, og‘ir mashinasozlik, harbiy mudofaa sanoati, temiryo‘l, aviatsiya va suv transporti tarmoqlarida olib borildi.

Hindiston iqtisodiy rivojlanishning barcha bosqichlarida xorijiy moliyaviy yordam tashkilotlari muhim ahamiyat kasb etdi. U Yevropa va xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan beriladigan moliyaviy yordamlarni ko‘p oladigan mamlakatlardan biridir. 1960-yillarda mamlakatning moliyaviy mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojining deyarli 30 foizdan ortig‘i xorijiy moliyaviy yordam tomonidan qoplanardi.

Shuningdek, 1970-yillarning oxiri 1980-yillarning boshlarida moliyaviy mablag‘ tanqisligiga duch kelgan Hindiston, davlatlararo imtiyozli xorijiy moliyaviy yordamlardan maksimal miqyoslarda foydalanishga harakat qildi. 1980-yillarda Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan jahon mamlakatlaridan eng ko‘p kredit ajratilgan mamlakatlardan biri Hindiston bo‘ldi. Ushbu berilgan kreditlar Hindistonda asosan iqtisodiyotning sanoat tarmoqlarida ishlatilishi

uchun ajratildi. 2010-yilga kelib, mamlakatning tashqi qarzdorlik miqdorini o'sib ketishi tufayli xalqaro moliyaviy tashkilotlardan kredit olish miqdorlarini kamaytirishga majbur bo'ldi.

1970-yillarning o'rtalariga kelib davlat nazoratining kamayishi va xususiy sektor faoliyatida cheklanishlarning qisqartirilishi 1984-yillardan boshlab "Yangi iqtisodiy siyosat boshqaruvi"ga sabab bo'ldi. Bu davrdan boshlab mamlakatda sanoatlashtirishni tezlashtirishga, ishlab chiqarishni takomillashtirishda raqobatchilikni kuchaytirishga katta e'tibor berildi. Bu yangi bosqich Hindistonning milliy iqtisodiyoti rivojlanishining 1986-1991-yillardagi 7-5 yilligida aks etgan.

1990-yillarda hind islohotchisi sifatida Bosh vazir Narasimxa Rao keldi va u boshchiligida olib borilgan islohotlar asosan uchta yo'naliшhda:

- 1) xususiy sektorga erkinlik berish, uning davlat tasarrufidan chiqarish;
- 2) iqtisodiyotning tashqi bozorlar uchun ochiqligini ta'minlash;
- 3) soliq islohoti, ya'ni daromad soliqlarini kamaytirish.

1991-yilda boshlangan islohotlar dasturida ochiq liberal iqtisodiyotga o'tish nazarda tutilib, quyidagilarni o'z ichiga oldi:

- import cheklovlarini bekor qilish;
- narx-navodagi davlat nazoratini bekor qilish;
- ba'zi import tovarlarining boj to'lovlarini bekor qilish;
- davlat subsidiya tartiblarini bekor qilish;
- bank va moliya tizimini isloh qilish;
- davlat xarajatlarini va budjet tanqisligini qisqartirishdan iborat bo'ldi.

XXI asrning boshlariga kelib, Hindiston milliy iqtisodiyoti jahon arenasida o'z nufuziga ega bo'la boshladi, uning iqtisodiy salohiyati yil sayin ortib bordi. Jahondagi ko'plab mamlakatlarning TMKlari Hindistonga bo'lgan e'tiborini befarq qoldirmadi, chunki aholisi 1 mld. kishidan ortiq bo'lgan mamlakatga yirik bozor sifatida qaraldi.

Hindiston jahon xo'jaligiga integratsiyallashuvi davri boshlandi, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Avvaliga, 2006-yilda BRIKSga a'zo bo'lishi natijasida uning Rossiya, Braziliya, Janubiy Afrika Respublikasi va Xitoy kabi mamlakatlar bilan o'zaro iqtisodiy hamkorliklarini kengaytirish borasida o'nlab yirik kelishuvlarni

imzoladi. 2010-yillardan boshlab esa, uning ShHTga avvaliga kuzatuvchi mamlakat va keyinroq to‘la a’zoligiga erishildi. 2025-yilda esa ASEAN uyushmasiga a’zo bo‘lib kirish masalasi ko‘rib chiqiladi.

25.4. Mamlakat iqtisodiyotining tuzilmasi va asosiy ustuvor tarmoqlari

Hind sanoatida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning umumiy miqdori jahon ishlab chiqarishning 1,5 foiz ulushiga to‘g‘ri keladi. Hindiston iqtisodiyotida davlat sektorining ahamiyati kattadir. Davlat sektoriga harbiy sanoat, energetika, neft qazish, neftni qayta ishlash, mashinasozlik, temiryo‘l, havo yo‘llari va suv yo‘llari transporti, telekommunikatsiya, tog‘-kon qazish va metallurgiya tarmoqlarining asosiy ulushi tegishli. Davlat sektoriga neft qazish va neftni qayta ishlash sanoat tarmoqlarining 100 foizi, ko‘mir sanoatining 98 foizi, elektr energiya ishlab chiqarishning 94 foizi, po‘lat ishlab chiqarishning 80 foizi davlat sektori ulushlariga to‘g‘ri keladi.

Davlat sektori ko‘p mablag‘ talab qiluvchi tarmoqlarni egallagan bo‘lsa-da, unda aholining atigi 7 foizi band bo‘lib, YaIMdagi ulushi 25 foizni tashkil qiladi. Hindiston XX asr oxirlariga kelib, yengil va oziq-ovqat sanoati mamlakatidan og‘ir industriyasi rivojlangan mamlakatga, ya’ni agrar mamlakatdan agrar-industrial mamlakatga aylandi. Sanoatning muhim tarmoqlarida Rossiya, Buyuk Britaniya va AQSH kompaniyalari o‘z mavqelarini saqlab qolgan.

Hindistonning industrillashtirish yo‘liga o‘tishi uning yoqilg‘i va xomashyo resurslari ahamiyatini keskin darajada oshirdi. Xomashyo resurslari asosan Dekan yassi tog‘ligi hududida joylashgan bo‘lib, asosiy sanoat majmualari, og‘ir industriyaning eng muhim yangi qurilishlari aynan shu yerda vujudga kelgan. Ushbu hududdagi bunday ulkan qurilishlarni mustaqil Hindistonning birinchi Bosh vaziri Javoharlal Neru iborali qilib, “Yangi Hindistonning qasrlari” deb atagan edi.

Hindiston iqtisodiyotining hozirgi asosiy yetakchi tarmoqlari: to‘qimachilik (jahon bo‘yicha ishlab chiqariladigan to‘qimachilik mahsulotlarning 3 foizi to‘g‘ri keladi), yengil sanoat, ip-gazlama, poyabzal, oziq-ovqat, kemasozlik, avtomobilsozlik, neft ximiyasi hamda qishloq xo‘jaligi tarmoqlari kiradi. Dunyodagi hech bir mamlakat kinofilmlarni ishlash bo‘yicha Hindistonga tenglasha

olmaydi. Jahonga mashhur bo‘lgan “Bollivud” tomonidan yiliga o‘rtacha 1000 ga yaqin kinofilmlar ishlab chiqariladi. Farmatsevtika tarmog‘i da ishlab chiqarilayotgan dori-darmon mahsulotlari miqdori jahon farmatsevtika mahsulotlarining 17 foizini tashkil qiladi. Ushbu tarmoqda 12 mingdan ortiq turli toifadagi mahalliy va xorijiy korxonalar faoliyat ko‘rsatishadi. 2019-yilda 11,2 mlrd.dollar miqdoridagi dori-darmon eksport qilingan.

Mashinasozlik tarmog‘i YaIMning 7 foizi ulushini tashkil qiladi va ushbu tarmoqda 20 mln.dan ortiq ishchi-xizmatchiqlar faoliyat ko‘rsatishadi. Avtomobilsozlik nafaqat mamlakatda, balki Janubiy Osiyo mamlakatlari ichida eng rivojlangan sanoat turiga kiradi. Har yili o‘rtacha 25 mln.donaga yaqin o‘nlab turdagи yengil mashinalar, avtobuslar, “rekshalar” mototsikllar, yuk mashinalari, traktorlar, ekskovatorlar va boshqa transport vositalari ishlab chiqariladi. Taxminan 3,5 mln.donasi Shri-Lanka, Bangladesh, Pokiston, Nepal, Maldiv kabi mamlakatlarga eksportga chiqariladi. Reksha hindlarning milliy transportidir. Hozirgi paytda Hindistonda avtomobilsozlik sanoati juda tez sura’atlarda rivojlanmoqda. Hindistonda jami 16 ta avtomobil zavodlari mavjud. Eng yirik kompaniyalari – “Hindustan motorz industorial”, “Tatamotorz”, “TELCO” va boshqa kompaniyalar faoliyat ko‘rstadi.

Iqtisodyotning yengil, oziq-ovqat va farmatsevtika sanoatlari, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida, qurilish va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarid xususiy sektorning ulushi kattadir. Oxirgi 10 yillik iqtisodiy davrini tahlil qiladigan bo‘lsak, milliy iqtisodiyotda xususiy sektorning ahamiyati yildan yilga ortib bormoqda. Yengil sanoat tarmog‘i bu – hindlarning milliy sanoat tarmog‘i hisoblanib, 784 ta yirik fabrikalar faoliyat ko‘rstadi. To‘qimachilik mahsulotlari mamlakat eksportining 25 foizini tashkil qiladi. Shuningdek, oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqariladigan mahsulotlar asosan ichki bozorni ta’minlashga qaratilgan.

Qazish sanoatida har yili o‘rtacha 73-75 mln.tonna temir ruda qazib chiqariladi. Po‘lat ishlab chiqarish bo‘yicha jahonda Xitoy va Yaponiyadan so‘ng 3-o‘rinda turadi. Metallurgiya sanoatining istiqboliga ko‘ra, 2030-yilga borib po‘lat ishlab chiqarish miqdori jihatidan jahonda 1-o‘ringa chiqib olishni rejalashtirgan. Metallurgiya sohasi “Vizag Steel”, “Tata steel”, “Steel Authority of India”, “VIZA

Steel”, “Bxilai Steel”, “Essar Steel” kabi yirik hind kompaniyalari faoliyat ko‘rsatishadi. Neft sanoatida qazib chiqariladigan xomashyosi mamlakatning 30 foiz iste’molini qondiradi, qolgan qismini xorijdan import qiladi.

Hindiston iqtisodiyotda axborot texnologiyalar sohasi eng tez taraqqiy etib kelayotgan sohalarning biridir. Jahon axborot texnologiyalarida hindlarning ulushi qariyb 60 foizni tashkil qiladi. YaIMdagi ulushi 10 foizni tashkil qiladi, ushbu sektor hind iqtisodiyotining lokomotivi hisoblanadi¹³⁶.

25.5. Hindiston milliy iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi sohasining ustuvor ahamiyati

Odatda, mamlakatning qishloq xo‘jaligi haqida gap ketganda ushbu mamlakatning iqlimi, suv resurslari, ekin maydonlari ko‘rsatib o‘tiladi. Albatta, Hindistonning qishloq xo‘jaligining rivojlanishida va uning tarkibiga kiruvchi tarmoqlarning rivojlanishi uchun mamlakatda kerakli bo‘lgan barcha tabiiy shart-sharoitlar va qulayliklar yetarlidir.

Hindistonda qishloq xo‘jaligi tarmoqlari qanday sabablarga ko‘ra taraqqiy etgan? Demak, mamlakat agrar sektorining rivojlanishidagi eng asosiy omillari quyidagilardan iboratdir:

1. Mamlakatning hududi issiq iqlim mintaqada joylashganligi. Hindiston qishloq xo‘jaligining rivojlanishi yoki unda 1 yilda yetishtiriladigan hosillarning istiqbolini oldindan aytib bo‘lmaydi. Taxmin qilinishi mumkin, lekin uning natijasini faqatgina yilning oxirida ko‘rish mumkin. Bunga eng asosiy sabab, mamlakatning hududiy joylashuvi tropik klimatiga bog‘liqligi va mussonlar davrining (yog‘ingarchilik) qay darajada sodir bo‘lishiga bog‘liqdir. Iqlimning qulayligi tufayli barcha hududlarda yil bo‘yi dehqonchilik qilish mumkin.

2. Mamlakatda suv manbalarning yetarli ekanligi. Mamlakatning Shimoliy daryolar vodiysida va Ganga vodiysida daryo suvlarining mo‘l-ko‘lligi va serhosil ekin maydonlarining ko‘pligi tufayli ham aholining ko‘plab qismi shu yerda o‘rnashgan, va eng asosiysi, “hind sivilizatsiyasi” aynan shu yerdan boshlangan. Hindiston mamlakati suv manbalarga boydir. Janubiy Osiyodagi bu yirik daryolar o‘z suv

¹³⁶ <https://grodnoinvest.by/press-center/mezhunarodnyj-obzor-respublika-indiya>

manbalarini asosan dunyodagi eng yirik va baland tog‘ tizmalaridan hisoblangan Tibet va Himolay tog‘laridan oladi.

3. Unumli va serhosil ekin maydonlarining ko‘pligi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari etishtirishning eng asosiy manbasi yer, ya’ni yer resurslari hisoblanadi. 1950-yillarda qishloq xo‘jaligida olib borilgan ilk islohot ham aynan ekin maydonlarni o‘zlashtirishdan boshlangan. Umumiy hududining 92,7 foizi ekin ekishga yaroqli hisoblanib umumiy haydaladigan ekin maydonlari 169,7 mln.gektarni tashkil qiladi.

4. Mamlakatda mehnat resurslarning yetarli ekanligi. Hindistonda kimni ishsiz deb hisoblash mumkin? Albatta, yersiz dehqonlar ana shu toifaga kiradi. Ular mavsumdan boshqa vaqtarda ish topa olmaydilar. Hindistonda aholi ko‘pligini hisobga oladigan bo‘lsak, hozirgi paytda mamlakat hukumati barcha ishsiz aholini ish bilan ta’minalashga qodir emas. Shuning uchun ham qishloq xo‘jaligi tarmoqlariga ko‘plab ishsizlar jalg qilinadi. Hindiston Osiyo mamlakatlari ichida eng arzon ishchi kuchi mamlakatlari qatoridan joy olgan. Mamlakatda butkul bandlik fikri M.Gandining “Qishloq iqtisodiyotining afzalliliklari haqidagi ta’limoti”dan kelib chiqqan.

5. Mamlakat qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida xususiy sektorning ahamiyati. 1950-yillarda mamlakatda qabul qilingan “yer islohoti” qonuni qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida xususiy sektorning jadal sur’atlarda rivojlanishiga sabab bo‘ldi.

6. Agrar sektor taraqqiyotida “Yashil inqilob”ning ahamiyati. Endigma rivojlanayotgan kambag‘al mamlakatning qisqa yillar ichida qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining rivojlanishi bo‘yicha jahon xo‘jaligida yetakchi mamlakatlar qatoriga qo‘shilishida 1950-1960-yillarda agrar sektorni rivojlantirishda qo’llailgan islohotlar, dasturlar va chora-tadbirlarning natijalaridir. 1968-yilda uzoq yillarga mo‘ljallangan “Yashil inqilob” deb nom olgan ajoyib va puxta o‘ylangan davlat rejasini ilgari surdi¹³⁷.

Jahon xo‘jaligida muhim ahamiyat kasb qilgan “Yashil inqilob”ning eng asosiy mohiyati mamlakatda qishloq xo‘jaligi tarmoqlari uchun texnika va mineral o‘g‘itlarni ishlab chiqarishni, ko‘p millionli aholining turmush darajasini yaxshilash, qashshoqlikka

¹³⁷ “Mirovaya ekonomika”. / E.Xalevinskaya, I.Kroze. – M.: “YUrist”, 1999. – 111 b.

barham berish, aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash va ularning ehtiyojini qondirishdan iborat bo'ldi.

“Yashil inqilob” agrar islohoti mamlakatda eng avvalo Panjob vodiysida amalga oshirila boshlandi. Shuning uchun ham hozirda mamlakat bo'yicha eng ilg'or qishloq xo'jaligi tarmoqlari aynan ushbu vodiyda rivojlangan.

“Yashil inqilob” islohoti quyidagi yo'naliishlarni o'z ichiga olgan edi:

- qishloq xo'jaligini oyoqqa turg'azish va aholini oziq-ovqat ehtiyoji bilan ta'minlash;
- millionlab ishsiz aholini ish bilan ta'minlash;
- ekin maydonlarida asosan paxta, sholi va bug'doy ekinlarini ekish;
- qishloq xo'jaligi orqali xususiy sektorni rivojlantirish va fermer xo'jaliklarini tashkil qilish;
- qishloq joylardagi ekin maydonlarini aholiga bo'lib berish;
- dehqon va fermer xo'jaliklariga soliq tizimida imtiyozlar berish;

7. Qishloq xo'jaligi tarmoqlari uchun tijorat banklar tomonidan doimiy ravishda imtiyozli kreditlarni berilishi kabi asosiy omillarni Hind qishloq xo'jaligining rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatganligini ta'kidlash joiz.

Hindiston qishloq xo'jaligi bir necha o'nlab tarmoqlarga bo'lingan. Uning eng asosiy tarmoqlari: paxtachilik, sholichilik, chorvachilik, cho'chqachilik, parandachilik, baliqchilik, mevasabzavot (banan, apelsin, mandarin), o'simlikshunoslik, dala ekinlari (makkajo'xori, kanop, choy, tamaki, so'ya va kungaboqar) va poliz ekinlarini yetishtirish (qovun, tarvuz, karam) va boshqa ko'plab qishloq xo'jaligi tarmoqlari kiradi.

Qishloq xo'jaligida eng asosiy yetakchi tarmoq bu dehqonchilik tarmog'idir. Dehqonchilik tarmog'ida ekiladigan ekinlar maydoni qariyb 140 mln.gektarni va butun qishloq xo'jaligi mahsulotlari qiymatining 80 foizini tashkil qiladi.

Sholichilik. Hindistonning eng asosiy dala ekini sholi bo'lib, Hind-Ganga pasttekislikning janubi-sharqiy qismida Hindistonning asosiy sholikorlik hududi shakllangan. Bu yerda sholi yozgi mavsum xarifda musson yomg'irlari ostida, qishki mavsum rabida esa sug'orib yetishtiriladi. Dehqonchilikning bu tizimi yiliga ikki, hatto uch marta

hosil olishga imkon beradi. Sholi mamlakat qishloq xo‘jaligida yetishtiriladigan eng asosiy dala ekinlaridan biridir. Hindiston sholi yetishtirish bo‘yicha dunyoda faqat Xitoydan keyin 2-o‘rinda turadi. So‘nggi yillarda 130 mln.tonnagacha sholi hosili olinmoqda.

Bug‘doychilik. Bug‘doy qishki “rabi” mavsumining muhim ekini bo‘lib, asosan Uttar-Pradesh, Panjob va Xaryana shtatlarida asosiy bug‘doy hududlari shakllangan va u ko‘proq unumli yerlarda yetishtiriladi. Ushbu hududda ko‘plab gidrotexnik inshootlar qurilgan bo‘lib, ulardan eng kattasi Bxakra-Nangaldir. Hindiston bug‘doy yetishtirish bo‘yicha dunyo mamlakatlari ichida Xitoy va AQSHdan so‘ng 3-o‘rinda turadi. 1960-yillarning oxirlarida mamlakat hukumati tomonidan olib borilgan “Yashil inqilob” islohoti natijasida bug‘doy mustaqilligiga erishildi. Hozirda hind aholisi yiliga o‘rtacha kishi hisobiga 230-240 kg. bug‘doy iste’mol qiladi. Oxirgi yillarda mamlakatda 75 mln. tonnadan ortiq bug‘doy yetishtirilmoqda. Mamlakatning Uttar-Pradesh shtatida mamlakat bo‘yicha eng ko‘p bug‘doy yetishtiriladigan hudud hisoblanadi.

Paxtachilik. Mamlakatda paxtaning asosiy qismi Dekan yassitog‘ining shimoli-g‘arbiy qismida ekiladi. Mana shu hududning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, hududning yeri qora tuproqli va yuqori unumdorlik yerlar qatoriga kiradi. Mamlakat barcha navlarni qo‘sib hisoblaganda yiliga o‘rtacha 8 million tonnadan ortiq paxta yetishtiradi va paxta yetishtirishda dunyoda Xitoy va AQSH dan so‘ng uchinchi o‘rinda boradi.

Choy. Hindiston choy yetishtirish bo‘yicha jahondagi eng yirik mamlakatdir, jahon bo‘yicha yetishtirildigan choyni 30 foizini beradi va yiliga o‘rtacha 750-800 ming tonna choy ishlab chiqaradi. Choy yetishtirish, ishlab chiqarish va uni qadoqlash tarmog‘ida mamlakatning 20 milliondan ortiq ishchi kuchi mehnat qiladi. Choyning asosiy qismi Braxmaputra daryosi vodiysining yuqori oqimi va Sharqiy Ximolayning tog‘ yon-bag‘irlari hududida yetishtiriladi. Choy yig‘ish bo‘yicha dunyoda 1-o‘rinda turadi. Jahon bo‘yicha choy eksportining 21 foizi Hindistonga to‘g‘ri keladi.

Mamlakat qishloq xo‘jaligidagi asosiy ikkinchi tarmoq bu chorvachilikdir. Hindiston chorva mollarning soni jihatidan dunyo mamlakatlari ichida 1-o‘rinda, dunyo bo‘yicha barcha buyvollarning 57 foizi va qoramollarning 15 foizini tashkil qiladi. Chorvachilikdan

olinadigan mahsulotlar miqdori butun qishloq xo‘jaligi mahsulotlar miqdorining 15 foizini, shundan 65 foizini sut va sut mahsulotlari tashkil qiladi. Biroq, hind xalqining go‘sht mahsulotlarini iste’mol qilish bo‘yicha dunyo mamlakatlari ichida oxirgi o‘rinlarda turadi. Hind aholisi 1 yilda o‘rtacha 1,6 kg. go‘sht, 1 kg. chorva yog‘i, 55 litr sut, 24 dona tuxum iste’mol qiladi.

25.3-jadval

Ba’zi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha Hindistonning jahon qishloq xo‘jaligidagi mavqeい va ulushi

№	Mahsulot turlari	Jahondagi hissasi (foiz hisobida)	Egal-lagan o‘rni	Yetishtiriladigan eng asosiy hududlar
1	Qizil qalampir	85	1	Deyarli barcha hududlarda
2	Qora murch	60	1	Deyarli barcha hududlarda
3	Kashiv	40	1	Kerala, Karnataka, Tamil Nadu
4	Jut	35	1	G‘arbiy Bengaliya
5	Choy	32	1	Braxmaputra daryosi vodiysi
6	Echki	20	1	Deyarli barcha hududlarda
7	Qoramol	15	1	Deyarli barcha hududlarda
8	Dukkakli ekinlar	15	1	Uttar-Pradesh, Panjob, Xaryana
9	Tariq ekinlari	12	1	Maxarashtra, Rajastan, Maysur
10	Banan	10	1	shimoliy hududdan tashqari
11	Sholi	28	2	Hind-Ganga pasttekistligi
12	Gullar	25	2	Markaziy va janubiy hududlar
13	Shakarqamish	22	2	Ganga vodiysi, Maxarashtra
14	Yeryong‘oq	20	2	Uttar-Pradesh, Assam, Xaryana
15	Tamaki	19	2	Krishna va Godavari daryolari bo‘yi
16	Kauchuk	17	2	Janubi-sharqiy hududlarda

17	Qo'y	12	2	Shimoli-g'arbiy hududlarda
18	Sabzavotlar	11	2	Deyarli barcha hududlarda
19	Mevalar	9	2	Deyarli barcha hududlarda
20	Bug'doy	15	3	Uttar-Pradesh, Panjob, Xaryana
21	Sut	3	3	Deyarli barcha hududlarda
22	Paxta	8	3	Dekan pasttekistligi va Gujarat
23	Kofe	7	3	Maysur
24	Tuxum	5	3	Maxarashtra

Ushbu jadval "Reserve Bank of India", Annual Report 2016-2017,
Mumbai, India, 2018 va "Statistical outline of India 2017", Mumbay, 2018
ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

Hind xalqi go'shtni bu qadar kam iste'mol qilishiga eng asosiy sabab bu – induizm diniy qarashlarning ta'siridir. Induizm dini go'shtsiz ovqatlanishni qo'llab-quvvatlaydi, ovqatga mol go'shtini ishlatish va sigirlarni so'yishni "qat'iyan man etadi". Chunki qadimdan sigirlar hindlarning hosildorlik va farovonlik ramzi bo'lgan. Induizm aqidalariga binoan, hind xalqi qarib qolgan qoramolni so'ymaydi, balki shunchaki o'z hovlisidan haydab yuboradi. Buning natijasida mamlakatdagi millionlab och muqaddas sigirlar yo'llar, ekin dalalar, shahar ko'chalari bo'ylab daydib yurib, yo'l harakatiga halal beradi va ekinzorlarni vayron qiladi, biroq ularga hech kim tegmaydi va ozor bermaydi. Yirik qoramollar, xo'kizlar, buyvollar va kabilar dehqon xo'jaligida ot-ulov sifatida ishlatiladi.

Hindiston 1980-yillarda 1 yilda o'rtacha 3 mln.tonna, 1990-yillarda o'rtacha 4 mln.tonna va 2010-yillarga kelib bu ko'rsatkich yiliga o'rtacha 4,5-4,6 mln.tonna baliq ovlanmoqda. Baliq ovlash ko'rsatkichlarining yildan yilga yuqori ko'rsatkichlarga erishishda mamlakatning turli hududlarida baliqchilik bilan shug'ullanuvchi minglab fermer xo'jaliklari tashkil qilingan. Dengiz hududlaridan baliq ovlashda Hindiston jahondagi 10 ta yetakchi mamlakatlar qatoriga kiradi¹³⁸.

¹³⁸ "Strani mira", Minsk, "Mirinda", "Rodiola-plyus", 2018g. – S. 195.

25.6. Hindistonning hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy muammolari

Hind iqtisodiyoti bugungi kunda quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga ega bo‘lib, olib borilayotgan islohot va dasturlar ushbu muammolarga barham berishga qaratilgan:

- aholi jon boshiga iste’mol darajasining pastligi hamon ortda qolmoqda, bunda faqatgina daromadning pastligidan emas, balki ijtimoiy tovar va xizmatlarning (suv va elektr energiyasi va xokazolarning doimiy uzilishlari) yetishmasligi ham sabab bo‘lmoqda;
- ko‘plab malakali ishchi-mutaxassislarining xorijiy mamlakatlarga migrant sifatida ketib qolishi;
- qishloq va chekka hududlarda ta’lim darajasining pastligi;
- aholining daromaddagi ijtimoiy va diniy sabablarga ko‘ra sezilarli tabaqalanishi hamon saqlanib qolmoqda;
- Hindiston 2020-yilda COVID-19 tufayli yuzaga kelgan pandemiyada eng ko‘p jabr ko‘rgan mamlakatlardan biri sifatida e’tirof qilingan va uning asoratlari hozircha to‘laligicha bartaraf qilinganicha yo‘q;
- iqtisodiyotda korrupsiya sezilarli darajada saqlanib qolmoqda;
- jahon xo‘jaligida eng ko‘p kambag‘al aholining mavjudligi va kambag‘alikka qarshi kurashish borasida ko‘plab chora-tadbirlar olib borilmoqda. Demak, dunyo xaritasida kambag‘allik darajasining eng ko‘p joylashgan hudud - Janubiy Osiyoning Ganga daryosi vodiysidir.

Bob yuzasidan xulosa

Sanoati bu qadar rivojlangan davlatning hamda o‘z hududida dunyoning eng yirik TMKlar ilmiy tekshirish institutlari markazlariga ega bo‘lgan mamlakat aholisining 22 foizi bunchalik kambag‘al ahvolda ekanligiga sabablar nimada? Bu savolga javob berish uchun Hindistonning rivojlanish yo‘lini tahlil qilib chiqar ekanmiz, avvalambor, Hindistonning mintaqaviy rivojlanishdagi ko‘zga ko‘rinadigan qarama-qarshiliklarini e’tirof etish kerak. Mamlakatning shimoliy hududlariga G‘arb sivilizatsiyasi o‘z ta’sirini o‘tkaza olmadi. Mamlakatning janubiy hududi britaniyaliklarning ta’siri ostida shakllangan bo‘lib, hattyoki, bu yerdagи rasmiy til hozirda ham ingliz tilidir. Mintaqaviy rivojlanishning nomutanosibligi tufayli,

Hindistonning hududlari boy va kambag‘al shtatlarga ajralib qoldi.

Albatta, hind hukumatining oldida bir qator amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar talaygina. Chunki dunyodagi eng yirik aholi soniga ega bo‘lgan mamlakatning biri sifatida qishloq aholisini ish bilan ta’minalash, ishsiz yurganlarni va doimiy ish bilan band bo‘lmasanalarni ishlab chiqarish sohalariga jalg etish, ularni ijtimoiy jihatdan himoyalash hozirgi kunning dolzarb masalalaridan sanaladi.

Nazorat savollari

1. Hindistonning 1950-yildagi iqtisodiy ahvolini 2020-yildagi holatini iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan taqqoslab bering.
2. Hindistonning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini ayting.
3. Hindistonning iqtisodiy taraqqiyot xususiyatlarini ayting.
4. Hindiston iqtisodiy rivojlanishining 1-iqtisodiy davrini ayting.
5. Hindiston iqtisodiy rivojlanishining 2-iqtisodiy davrini ayting.
6. Hindiston iqtisodiy rivojlanishining 3-iqtisodiy davrini ayting.
7. Hindiston iqtisodiy rivojlanishining 4 -iqtisodiy davrini ayting.
8. Hindiston iqtisodiy rivojlanishining 5- iqtisodiy davrini ayting.
9. Hindiston agrar sohasi rivojlanishining asosiy omillarini ayting.
10. Nima uchun Hindiston hukumati “Yashil inqilob” islohotini amalga oshirgan?
11. Hindistonning aholisi va uning o‘sish dinamikasini ayting.
12. Hindiston so‘nggi 15 yilda qaysi xalqaro tashkilotlarga a’zo bo‘ldi va kelajak yillarda qaysi nufuzli xalqaro tashkilotga a’zo bo‘lmoqchi?
13. Hindistonning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini aytib bering.
14. Hindiston qishloq xo‘jaligida qaysi tarmoqlar rivojlangan?
15. Qaysi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo‘yicha jahon xo‘jaligida yetakchi o‘rinlarda turadi?
16. Sanoatning qaysi sohalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar jahon sanoatida yetakchi o‘rinlarni va yuqori ulushlarni tashkil qiladi?

Uyga vazifa!

Talabaning “Janubiy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyoti rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari (Hindiston misolida)” mavzusini chuqur o‘zlashtirishi hamda amaliyat darsiga puxta

tayyorgarlik ko‘rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

- 1) mavzu so‘nggida berilgan “Nazorat savollari”ga tayyorgarlik ko‘rish;
- 2) Hindiston umumiy tashqi savdosining eksport va import tarkibidagi asosiy mahsulotlar va ularning geografik yo‘nalishlari bo‘yicha jadval ishlab chiqish;
- 3) Hindiston iqtisodiyotining sanoati, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohasi bo‘yicha talabalar guruhlarga bo‘lingan holda “Taqdimot” o‘tkaziladi.

XXVI BOB. YAQIN VA O'RTA SHARQ MINTAQASI MAMLAKATLARINING IQTISODIY RIVOJLANISHI VA ULARNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

- 1. Yaqin va O'rta Sharq mintaqasi mamlakatlarining iqtisodiy-geografik joylanishuvi va tasniflanishi.**
- 2. Yaqin va O'rta Sharq mintaqasi mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish davrlari va omillari.**
- 3. Yaqin va O'rta Sharq mintaqasi mamlakatlarining iqtisodiy taraqqiyot sabablari.**
- 4. Yaqin va O'rta Sharq mintaqasi mamlakatlari milliy iqtisodiyoti tuzilmasi va unda neft sanoatining ustuvor ahamiyati.**
- 5. Jahon xo'jaligida "turk modeli"ning vujudga kelishi va Turkiya iqtisodiyotining istiqboli ("Nigoh-2023" dasturi).**
- 6. Saudiyaning "Yangi sanoat siyosati" ("Industry-2020") dasturi va sanoatning diversifikatsiyalash chora-tadbirlari.**

Tayanch iboralar: "arab dunyosi", Suvaysh kanali, "cho'l ustidagi iqtisodiy mo'jiza", OPEK, ADL, ITB, diversifikasiya, "iqtisodiy sanksiya", jahon neft bozori, barrel, "Nigoh-2023", "Yangi sanoat siyosati".


26.1. Yaqin va O'rta Sharq mintaqasi mamlakatlarining iqtisodiy – geografik joylanishuvi va tasniflanishi

Yaqin va O'rta Sharq mintaqasi mamlakatlarini dunyoning uchta yirik materigi va qit'asi tutashgan joyda, ya'ni Osiyo qit'asi va Afrika qit'alari hamda Yevropa materigining bir-biriga tutashgan qismida hamda muhim xalqaro yo'llar va dengiz yo'llari tutashgan chorrahasida joylashgan desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. 1869-yilda Suvaysh kanalining qurilishi, mintaqaning boy neft va gaz, ba'zi qishloq xo'jalik xomashyosi, mehnat resurslarining juda ham arzonligi – bularning hammasi Yaqin va O'rta Sharq mintaqasining iqtisodiy va siyosiy ahamiyatini oshirdi.

Suvaysh kanalaning nafaqat Misr iqtisodiyoti uchun, balki jahon iqtisodiyoti uchun ham qanchalik muhimligini 2021-yilning aprel oyida mazkur kanalning favqulodda hodisa tufayli o'z faoliyatini 6 kunga to'xtab qolishi jahon iqtisodiyoti uchun 1 mlrd. dollardan ortiq

hamda jahon savdosiga 8 mlrd. dollar miqdorida zarar yetkazganligini xalqaro kemalar qatnovi tashkiloti – Lloyd's List ma'lum qilgan. Gap shundaki, 2021-yilning 23-mart kuni Yaponiyaga qarashli bo'lgan "Ever Given" konteyner yuk tashuvchi tankeri kuchli shamol va qum bo'roni tufayli kanalning ikkala qirg'oqqa tiralib, yo'lni berkitib qo'ygan edi. Buning natijasida 6 kun mobaynida 462 ta yuk va savdo kemalaridan iborat tirbandlik yuzaga kelgan. Shuningdek, hodisa ortidan jahon neft bozorida ham neft xomashyosining narxi birdaniga 10-12 foizgacha tushib ketgan (iste'molchilarning vaqtinchalik ehtiyoji bo'lmaganligi sababli). Suvaysh kanali faoliyati jahon savdosiga soatiga 400 mln. miqdorlik savdo aylanmasiga va Misr davlat budgetiga soatiga 14 mln. dollar miqdorida daromad keltiruvchi eng asosiy kanal hisoblanadi.

Yaqin va O'rta Sharq mintaqasining jahon xaritasida joylashgan o'rni



Bu mintaqaga bo'lgan qiziqishni o'z vaqtida jahoning bir qator rivojlangan mamlakatlari o'rtasida juda ham kuchayishiga olib keldi. Misr sivilizatsiyaning ilk davridayoq jahon ommasi G'arb (Yevropa) bilan Sharqni (Osiyo) bog'lovchi "Vositachi davlat" deyishgan. Mazkur mintaqaga bo'lgan qiziqish asosan XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, avvaliga Angliya va Fransiya o'rtasida hududlarni "bo'lib olish siyosati" boshlangan edi va ularning mustamlakachilik davri XX asrning 60–70-yillarigacha davom etdi.

Keyinchalik ushbu “siyosiy o‘yin”ga AQSH qo‘sildi. XX asrning boshlariga kelib u Fors ko‘rfazi hududiga neft konlarini izlash maqsadida o‘zining qiziqishlarini oshirdi va mana qariyb 100 yildan buyon mazkur mamlakat Fors ko‘rfazi hududidagi neftga boy bo‘lgan mamlakatlar bilan hamon qalin iqtisodiy hamkorlikka egadir.

Bugungi zamonaviy jahon xo‘jaligidagi Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasini quyidagicha tasniflash mumkin: Fors ko‘rfazi, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mintaqasi. Arab dunyosi 373 million aholi soniga ega bo‘lib, 24 ta arab mamlakatlaridan tashkil topgan. Ular Osiyo va Afrika qit’alarida joylashgan. 12 arab davlati (Saudiya Arabiston, BAA, Quvayt, Ummon, Qatar, Baxrayn, Yaman, Iordaniya, Iraq, Suriya, Livan, Falastin) Osiyo mintaqasidagi davlatlar sanaladi. Shundan 7 ta arab mamlakatlari (Saudiya Arabiston, BAA, Quvayt, Ummon, Qatar, Bahrayn, Iraq) Fors ko‘rfazi arab mamlakatlari hisoblanadi. Biroq, Fors ko‘rfazi hududi mamlakatlari qatoridan Eron ham joy olgan.

Arab olimlari Iordaniya, Iraq, Suriya, Livan va Falastinni “Hosildor yarimoy” mamlakatlari sifatida tasniflaydilar. Mazkur atama birinchi bor Chikago universiteti arxeologi Jeyms Genri Brested tomonidan 1906-yilda chop etilgan “Ancient Records of Egypt” (Misrning qadimiylarini qo‘lyozmalari) ilmiy asarida keltirilgan¹³⁹. Unga ko‘ra, mazkur hudud hosildorligi bilan ajralib turgan va uning ko‘rinishi yarim oy shaklini ifoda etgan.

Afrika qit’asining Shimoliy hududidagi 11 ta arab davlati (Shimoliy Sudan, Janubiy Sudan, Misr, Liviya, Tunis, Jazoir, Marokash, Mavritaniya, Komor orollari, Somali, Djibuti) joylashgan bo‘lib, umumiyligi arab davlatlari maydonining (14 291 469 kv km) 72,5 foizini tashkil etadi. Shuningdek, G‘arbiy Sahro hududi bevosita arab manbalarida G‘arbiy Sahro hududi davlat sifatida tan olinmagan va Arab davlatlari uyushmasiga a’zo sifatida kiritilmagan. Afrikaning sharqiy qismida joylashgan Somali, Djibuti va Komor orollaridan tashqari qit’adagi barcha arab mamlakatlar Shimoliy Afrika davlatlari deb nomlanadi va jahon siyosiy xaritasida “Shimoliy Afrika mintaqasi” deb ataladi. Umuman Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasi mamlakatlari quyidagi geografik mintaqalarga ajratiladi:

Sahro hududi: mintaqaning 80 foiz hududini tashkil qilib, unda Arabiston yarim oroli (SA, BAA, Quvayt, Qatar, Bahreyn, Ummon),

¹³⁹ Fertile Crescent”, Columbia Encyclopedia, Columbia University Press, 2008. P-56.

Iraq, Misr, Shimoliy Sudan va Janubiy Sudan hamda G‘arbiy Afrika maydoni bo‘ylab cho‘zilgan Sahroi Kabir maydonini o‘z ichiga oladi. Arab olami va saudiyaliklar Saudiya Arabistonni hududini, ya’ni Arabiston yarim orolini “Arablar oroli” deyishadi.

O‘rta yer dengizi hududi: Turkiya, Isroil, Falastin, Suriya, Livan, Iordaniya, Iraq va Misrning shimoliy qismlari, Jazoir, Tunis, Marokash, Liviya va Mavritaniya kabi sohil mamlakatlari kiradi.

Markaziy hududi: Shimoliy Somali, Jibuti, Yaman, Saudyaning janubi-g‘arbiy qismi va Ummomonning g‘arbiy hududlarini o‘z ichiga oladi. Demak, Yuqorida sanab o‘tgan hududlar bevosita jahonning ikki yirik qit’asida, ya’ni Osiyo va Afrika qit’alarida joylashgandir. Yaqin va O‘rta Sharqda eng yirik yer maydoniga ega bo‘lgan mamlakat bu Saudiya Arabistonni hisoblanadi, uning umumiy yer maydoni 2,8 mln.km.kv.ni tashkil qiladi (keyingi o‘rinlarda Jazoir 2,4 mln.km.kv.; Liviya 1,8 mln.km.kv.ni tashkil qiladi). Ayni paytda Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasida eng rivojlangan iqtisodiy hudud bu Fors ko‘rfazidir (SA, BAA, Qatar, Quvayt va Bahreyn).

Demak, Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasida “Arab dunyosi” vakili hisoblangan Komor orollari davlatini hisobga olmasak, jami 26 ta mamlakat mavjud: 23 ta arab davlatlari va 3 ta “noarab” davlatlari.

26.1-jadval

Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasida joylashgan barcha mamlakatlar va unda “Arab dunyosi”ning vakillari ro‘yxati

1	Bahreyn	8	Liviya	15	Tunis	22	Quvayt
2	BAA	9	Marokash	16	Turkiya	23	Mavritaniya
3	Jazoir	10	Misr	17	Ummomon	24	G‘arbiy Saxro (Saxar)
4	Iordaniya	11	Saudiya Arabistonni	18	Falastin	25	Komor orollari
5	Iraq	12	Shimoliy Sudan	19	Eron	26	Somali
6	Isroil	13	Janubiy Sudan	20	Yaman Arab Respublikasi	27	Jibuti
7	Livan	14	Suriya	21	Qatar		

Ushbu jadval ma’lumotlar asosida ishlab chiqilgan.

26.2. Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasi mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish davrlari va omillari

Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasi mamlakatlari XX asrning so‘ngida va XXI asrning boshlariga kelib birin-ketin misli ko‘rilmagan darajadagi iqtisodiy taraqqiyoti va rivojlanishi bilan jahon iqtisodiyotidan joy oldi. Jumladan, ba’zi mamlakatlar “qora oltin”, ya’ni neft xomashyosining eksporti evaziga o‘z milliy iqtisodiyotini yuksaltirgan bo‘lishsa, ba’zi mamlakatlar esa o‘zlarining “milliy iqtisodiy rivojlanish model”larining (“turk modeli”) evaziga iqtisodiy taraqqiyotga erishdilar. Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasi mamlakatlarining iqtisodiy taraqqiyotini quyidagi uchta asosiy iqtisodiy davrga bo‘lamiz va ularning iqtisodiy taraqqiyotga erishishdagi asosiy omillarini ko‘rib chiqamiz:

Birinchi iqtisodiy davri – 1990-yillar – Turkiya va Isroil mamlakatlari. Turkiya milliy iqtisodiyotining taraqqiyotidagi eng asosiy omil xorijiy sarmoyalarning jalb qilinishi bo‘lsa, ikkinchi omili “turk modeli”dir. Isroilning iqtisodiy taraqqiyotidagi eng asosiy omili sanoatning ustuvor darajada rivojlanganligi va ikkinchi omili esa AQSHning iqtisodiy hamkorligi.

Ikkinchi iqtisodiy davri – 2000-yillar – Birlashgan arab amirliklari (BAA). 2000-yillarda Fors ko‘rfazida jahon xo‘jaligida yangi yirik ishbilarmon, turizm va moliya markazi vujudga keldi. BAA 1990-yillarning oxirlaridan 2010-yillar davomida jahondagi ko‘plab yirik TMKlar va yirik xorijiy investorlarni jalb qildi. Mamlakatning Dubay, Abu-Dabi shaharlari qisqa 15 yil ichida dunyodagi eng yirik va osmono‘par binolari bilan qoplangan zamonaviy shaharlar qiyofasini oldi. Ko‘plab jahon ekspertchilari tomonidan BAAning iqtisodiy taraqqiyotini “Cho‘l ustidagi iqtisodiy mo‘jiza” deb atashdi. Qisqasi, BAAning “iqtisodiy mo‘jiza”ni vujudga keltirishdagi eng asosiy omili neft xomashyosi eksporti bo‘lsa, ikkinchi omili xalqaro turizmnинг rivojlanishidir.

Uchinchi iqtisodiy davri 2010-yillar – Saudiya Arabistonni va Qatar mamlakati. 2010-yillarda Fors ko‘rfazining vakillari hisoblangan Saudiya Arabistonni va Qatar mamlakatlari ham BAAning iqtisodiy yuksalishidan orqada qolib ketmaslik maqsadida iqtisodiy taraqqiyotni rivojlantirishga harakat qilishdi. Ayniqsa, cho‘l hudud-

larda infratuzilmani yaxshilanishi, neft eksporti evaziga yirik xorijiy valutalarning jamg‘arilishi va yirik zamonaviy sanoat tarmoqlarini shakllanishi ushbu mamlakatlarning milliy iqtisodiyoti jahon iqtisodiyoti muhim ahamiyat kasb etdi. Shunday qilib Saudiya va Qatarning iqtisodiy taraqqiyotiga sabab bo‘lgan eng asosiy omil – bu neft eksportidir. Jahon Banki ekspertlari tomonidan “2010-yil yakuni bo‘yicha hisobotida”da berilgan tahlillarga ko‘ra, XX asr oxiri va XXI asrning boshlarida Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan mamlakatlar tomonidan kichik “iqtisodiy mo‘jiza”larni vujudga kelganligi ta’kidlangan¹⁴⁰.

XXI asrning ikkinchi dekadasida Jahon Bankining ekspertlari tomonidan berilgan tahlillarga ko‘ra, Fors ko‘rfazining boshqa vakillari hisoblangan Quvayt, Bahreyn hamda Shimoliy Afrika mintaqasidagi Misr mamlakatlari ham 2010-yilgacha iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan. Biroq 2011-yilning boshlarida yuzaga kelgan “Arab bahori” siyosiy inqirozi mazkur mamlakatlarning milliy iqtisodiyotlarning rivojiga o‘ta salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Buning oqibatida Quvayt va Bahreyn mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari 2-3 yil davomida sekinlashgan bo‘lsa, Misr milliy iqtisodiyotining rivojlanishida deyarli 10 yillik davrini yo‘qotdi, desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

2021-yilning 9-fevralida Yevropa Ittifoqi 2021–2027-yillarda Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarini 7 mlrd. yevrogacha moliyalashtirish ishlarini tashkil qilish rejasi ishlab chiqildi. Ushbu rejaga asosan, YI 2021–2027-yillarda xalqaro hamkorlik, yaqin qo‘s-nichilik va taraqqiyot loyihalari uchun ajratiladi. Shuningdek, mazkur yangi reja beshta soha – inson salohiyatini rivojlantirish, boshqaruv va huquqlarning kafolatlari; barqarorlik, taraqqiyot va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish; tinchlik va xavfsizlik, migratsiya hamda mobillashuv; yashil energetikaga o‘tish bo‘yicha vazifalarni amalga oshirilishini o‘z ichiga olgan. YI dasturiga jami 10 ta mamlakat: Jazoir, Misr, Isroil, Iordaniya, Livan, Liviya, Marokash, Falastin, Suriya va Tunis kiritilgan.

¹⁴⁰ ANNUAL REPORT 2010”/World Bank. 2010. P-41-46

26.3. Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasi mamlakatlarining iqtisodiy taraqqiyot sabablari

XX asrning oxirlari va XXI asrning boshlariga kelib, Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasidagi bir qator rivojlanayotgan mamlakatlar yuqori iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan iqtisodiy taraqqiyotga erishdilar. Xususan, Turkiya, Saudiya, BAA, Isroil, Qatar va Misr kabi mamlakatlarni alohida ta’kidlash lozim. Ularning iqtisodiy rivojlanishiga quyidagi asosiy sabablarni ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir:

1. *Mamlakatning iqtisodiy-geografik o‘rni.* Mintaqaning deyarli barcha mamlakatlarining iqtisodiy-geografik joylanishuvi juda ham qulay hisoblanadi. Ayniqsa, Misr va Turkiya hamda BAA mamlakatlari xalqaro tranzit yo‘llari chorrahasida joylashganligini alohida ta’kidlash joiz. Misr hududidan o‘tgan jahondagi eng yirik xalqaro tranzit suv yo‘li hisoblangan Suvaysh kanali davlat budgetiga har yili kamida 3 mlrd.dollar miqdorida daromad keltiradi. Masalan, Yevropa va Osiyoning markazida va uni tutashtiruvchi hududida joylashgan Turkiya mamlakatini jahon ommasi “Yevropa bilan Osiyoni bog‘lovchi ko‘prik” deyishadi, chunki Bosfor Ko‘rfazidagi ko‘prik aynan shu xususiyatga egadir.

2. *Qishloq xo‘jaligining rivojlanishi* (Eron, Turkiya va Isroil). Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasida qishloq xo‘jaligining dehqonchilik (Misr va Isroil), chorvachilik (Iraq va Quvayt) va baliqchilik (BAA, Turkiya va Saudiya Arabiston) tarmoqlari rivojlangan. Masalan, agrar sohasining paxtachilik tarmog‘ida Misr va Isroilning erishgan yutuqlari jahon qishloq xo‘jaligida muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon paxtachilik tarmog‘ida eng oliv paxta tołasi navi Misrda yetishtiriladi. Ma’lumotlarga qaraganda, Italiya, Buyuk Britaniya va Fransiya kabi Yevropaning yetakchi to‘qimachilik kompaniyalari kamida 6 oy oldin Misrdagi hali pishmagan paxta mahsuloti uchun barcha pul to‘lovlарini 100 foiz oldindan to‘lab bo‘lishadi, chunki uning paxta tolasiga bo‘lgan talab va ehtiyoji yuqoridir.

Isroil paxtachilikda ulkan muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritgan. Qizig‘i shundaki, paxtachilikdagi bunday muvaffaqiyat toshloq va qumlik hamda suv yetishmaydigan yer maydonlarida qo‘lga kiritilgan. Bir gektar yerni sug‘orish uchun O‘zbekistonga nisbatan kamida 2-3

barobar kam suv sarf qilinadi. Shunisi ham e'tiborga sazovorki, Isroil qishloq xo'jaligi tarmog'ida mehnatga layoqatli aholining atigi 3 foizigina band xolos. Shunga qaramay, qishloq xo'jaligi tarmoqlarida etishtirilgan mahsulotlarini o'z ehtiyojini qoplabgina qolmay uni chetga ham eksport qiladi.

Bunday yutuqning "siri" qishloq xo'jaligi texnologiyasining yuqoriligi hamda mamlakatda mavjud bo'lgan barcha imkoniyatlardan oqilona foydalanishda. Har gektar paxta maydonidan olinadigan hosil miqdori o'rta hisobda 60-70 tsentnerga etadi (O'zbekistonda esa bu raqam o'rtacha 30 tsentner). Isroilning jahon qishloq xo'jaligida ushbu yutuqqa yetaklagan usuli bu - "tomchilab ekish" usulini jahon mamlakatlari ichidan eng birinchi qo'llagan mamlakatdir.

3. *AQSH bilan iqtisodiy hamkorligi* (Saudiya Arabistonni, Isroil va Iraq). XX asrning boshlarida AQSH mamlakati Saudiya Arabistonni hududiga neft xomashyosini izlash va geologik-qidiruv jarayonlarini olib borish maqsadida iqtisodiy hamkorlikni yo'lga qo'yishgan edi. Mana salkam bir asrki ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik aloqalari davom etmoqda. Shuningdek, AQSH hukumati tomonidan 2000-yillarning boshlarida Liviya va Misr kabi bir qator mamlakatlarga ham o'zining geosiyosiy manfaatlari asosida iqtisodiy yordamlarni berib kelmoqda. Masalan, 2013-yilda AQSH hukumati tomonidan 2013-2014-yillar uchun 770 mln.d ollar miqdorida Shimoliy Afrika mintaqasi mamlakatlariga iqtisodiy yordam mablag'ini berishga qaror qilgan va ushbu mablag' "Arab bahori" sodir bo'lgan mamlakatlarda iqtisodiyotni qayta tiklash ishlari uchun sarflanishini ma'lum qildi. Ushbu mablag'ning asosiy qismi Misr, Liviya va Suriya mamlakatlari uchun sarf qilingan edi¹⁴¹.

4. *Samarali iqtisodiy islohotlarni olib borilishi* (Misr, Saudiya Arabistonni, Turkiya va Iraq). Amalga oshirilgan asosiy iqtisodiy islohotlar sanoat va agrar sohalarda olib borildi. Ma'lumotlarga ko'ra, Yaqin va O'rta Sharq mintaqasida tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan iqtisodiy islohot va dasturlar faqatgina XXI asrning boshlariga kelib namoyon bo'lmoqda. Jumladan, 2000-yilda Saudiyaning "Yangi sanoat siyosati" dasturi ("Industry 2020"), 2002-yilda Misrning "Ochiq eshiklar siyosati", 2011-yilda Turkiyaning "Nigoh-2023"

¹⁴¹ www.bfm.ru

davlat dasturlarining amalga oshirish jarayonlari bugungi kungacha ham davom etmoqda.

5. *YaIMning yuqori iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan o'sib borishi* (Qatar va BAA). Mintaqa mamlakatlarining YaIMning yil sayin rivojlanib borishida – Milliy iqtisodiyotda mahsulot ishlab chiqarilishi miqdorining o'sishi, neft xomashyosini qazish, qayta ishlash va yangi turdag'i o'nlab mahsulotlarning ishlab chiqarish miqdorlarini ko'paytirishi, moliyaviy xizmatlar miqdorini o'sib borishi kabilarni o'z ichiga oladi. Yaqin va O'rta Sharq mintaqasida YaIMning miqdori bo'yicha eng yetakchi mamlakat bu Saudiya Arabistonidir. Uning YaIM miqdori 2019-yilda qariyb 793,0 mlrd.dollarini tashkil qilgan va keyingi o'rinda Turkiya bo'lib, uning YaIM miqdori – 754,4 mlrd.doll.ni tashkil qiladi.

Qatar YaIMning o'sish ko'rsatkichi 2000-2012-yillarda, ya'ni qariyb 13 yil davomida uning iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi yiliga 13 foizni tashkil qildi va bu yillarda jahon iqtisodiyotida YaIMning o'sish ko'rsatkichi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich aynan Qatarga tegishli bo'ldi.

6. *Milliy iqtisodiyot tarmoqlariga xorijiy texnologiya va sarmoyalarni jalb qilinishi* (Turkiya, Saudiya Arabistoni, Iroq va BAA). Yaqin va O'rta Sharq mintaqasi mamlakatlarining deyarli barchasining iqtisodiy sohalariga xorijiy mamlakatlarning texnologiyalari va investorlari jalb qilingan. Masalan, Iordaniya iqtisodiyotiga asosan Rossiya va Germaniya; Eron iqtisodiyotiga Rossiya va Xitoy; Quvayt va Bahreyn iqtisodiyotiga Buyuk Britaniya va Yaponiya; Qatar iqtisodiyotiga AQSH va Buyuk Britaniya; Misr iqtisodiyotiga Italiya va Rossiya; Liviya iqtisodiyotiga Fransiya va Turkiya; Iroq iqtisodiyotiga AQSH va Germaniya kabi mamlakatlarning investorlari va ularning zamonaviy ilg'or texnologiyalari iqtisodiyotning turli sohalariga jalb qilingan.

Iroq Milliy investitsiya qo'mitasining ma'lumotiga ko'ra, Iroq milliy iqtisodiyotiga eng ko'p xorijiy investitsiya jalb qilingan davr 2003-2008-yillarga to'g'ri kelib, ushbu yillarda Iroq milliy iqtisodiyotini qayta tiklash uchun 300 mlrd.dollardan ziyod AQSH sarmoya kiritgan. Ushbu mablag' Iroq hududida AQSH-Iroq urushidan so'ng iqtisodiyotni qayta tiklash, inshootlarni qurish, vayron bo'lgan sanoat korxonalarini qurish va infratuzilmalarni qayta yo'lga qo'yish

uchun sarflanishiga yo‘naltirilgan.¹⁴²

7. *Tabiiy resurslarga boy ekanligi* (Fors ko‘rfazi va Shimoliy Afrika mamlakatlari, Turkiya va Eron). Shimoliy Afrika va Fors ko‘rfazi mamlakatlarida mavjud bo‘lgan neft xomashyosi mamlakatning eng asosiy daromad manbayi hisoblanadi. Bundan tashqari, Turkiya va Eron ko‘plab mineral resurslarga boy hisoblanishadi.

Mintaqada eng yirik mineral va xomashyo resurslariga Turkiya egalik qiladi, albatta mintaqadagi neft va tabiiy gazni xomashyolarini hisobga olmaganda. Turkiyada ko‘plab tabiiy resurslar mavjuddir, jumladan, surma (jahon bo‘yicha surma zaxirasining 25 foizi), simob (jahon bo‘yicha simob zaxirasining 25 foizi), xrom (jahon bo‘yicha xrom zaxirasining 8 foizi), volfram rudasi (jahon bo‘yicha volfram zaxirasining 7 foizi), uran rudasi (jahon bo‘yicha uran rudasi zaxirasining 5 foizi, mis (jahon bo‘yicha mis zaxirasining 4,4 foizi) aynan Turkiyaga to‘g‘ri keladi, bundan tashqari ko‘mir, oltin, oltingugurt, ohak, mramor kabi xomashyolarga ega.

8. *Aholining turmush darajalarining tez sur’atlarda o‘sishi* (Fors ko‘rfazi hududi mamlakatlari). Mintqa mamlakatlari ichida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad ko‘rsatkichlari bo‘yicha Qatar, BAA va Quvayt mamlakatlari yetakchi hisoblanishadi.

AQSHning “Kato” (Cato) ilmiy tekshirish instituti tomonidan jahondagi mamlakatlarning “erkin iqtisodiyoti” reytingi e’lon qilindi. Ushbu “erkin iqtisodiyot”ga mamlakatdagi daromad solig‘i, hukumatning mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni, mamlakatdagi iqtisodiyotning erkinligi va aholining shaxsiy daromadlarining miqdorlari kabi iqtisodiy ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi. Reyting natijasiga ko‘ra: 1) Qatar; 2) Gonkong; 3) Singapur mamlakatlari yuqori uchlik o‘rinlarini egallashgan.

9. *Erkin iqtisodiy hududlarni vujudga kelishi* (BAA, SA va Turkiya). 1985-yilda BAA hukumati tomonidan qabul qilingan “Qirg‘oqbo‘yi hududlarda Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish” qaroriga asosan, Dubay Amirligida yirik “Jebel Ali erkin iqtisodiy hududi” tashkil qilingan va ushbu erkin iqtisodiy hudud Yaqin va

¹⁴² SSHA v uregulirovanii irakskogo krizisa. Blijniy Vostok i sovremennoe. Vip. 17. M., 2009.

O'rta Sharq mintaqasidagi eng yirik EIHdir¹⁴³.

10. *Eksportning rivojlanishi* (Fors ko'rfazi hududi mamlakatlari va Turkiya). Yuqorida ta'kidlanganidek, arab mamlakatlarining iqtisodiyotida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning (neft xomashyosi) deyarli 90 foizidan ortig'i eksport qilinadi. Fors ko'rfazi hududidagi SA, BAA, Qatar va Turkiya kabi mamlakatlar tabiiy resurslarni va sanoat mahsulotlarini eksporti bilan jahon bozorida o'z o'rniga egadir.

BAAning Dubay shahri mintaqada reeksport faoliyatini tobora rivojlantirib borayotgan yirik markaz hisoblanadi. Ushbu markaz mahsulotlarni reeksport qilish miqdorlari jihatidan jahon iqtisodiyotida Gonkongdan so'ng 2-o'rinni turadi.

Eronda har yili 21-oktabr kuni "Eksport kuni" nishonlanadi. Dunyo mamlakatlari ichida tashqi savdoni bayram bilan nishonlaydigan yagona mamlakat Erondir. Ma'lumki, Eronning eksport mahsulotlari tarkibida "Eron gilami" muhim ahamiyat kasb etadi. Eron gilami jahon xo'jaligidagi gilam ishlab chiqarish miqdori, uni eksport qilish, uning sifati va "bezab" to'qilishi bilan 1-o'rinda turadi. Bundan tashqari ko'plab qishloq xo'jaligi mahsulotlari, ayniqsa eron pistasi va o'nlab quritilgan meva-sabzavotlar bo'yicha ham jahon xo'jaligidagi 1-o'rinda turadi.

11. *Turizmning rivojlanishi* (Turkiya, BAA, Misr va SA). Mintaqaning Turkiya va BAA mamlakatlariga boruvchi xorijiy sayyoohlar mamlakatga kiruvchi "viza"ni ushbu mamlakatlarning aeroportlarida olish imkoniyatiga ega bo'lganligi uchun, bunday tartib mazkur mamlakatga keluvchi xorijiy fuqarolarning sonini yanada ko'payishiga xizmat qiladi. XXI asrning boshlariga kelib Yaqin va O'rta Sharq mintaqasi mamlakatlariga xalqaro turizm "oqimi"ning ko'payishi (Turkiya, Misr, BAA). BAA bugungi kunda jahondagi yirik turizm markazlaridan biridir. Eng qizig'i, 1958-yilda ham Abu-Dabi shahrida energiya umuman bo'lmagan edi. Qachonki shu yili BAA hududida eng birinchi neft koni topilganidan keyingina shaharni energiya bilan ta'minlash ishlari boshlangan edi. Oradan 60 yil o'tganidan so'ng Abu-Dabi jahon turizm markazlaridan biriga aylangan.

¹⁴³ "Zagadka nalogovogo edema Arabskich Emiratov: Svobodnie ekonomicheskie zoni" // Delovie lyudi. №2, fevral M.: 2003.– S. 40-41.

2000-yilda butun jahon mamlakatlarini pandemiya qamrab olgan bir paytda BAA tomonidan may oyidan xalqaro aviaqatnovlarni qayta joriy qilganligi tufayli yil oxirigacha 8,8 mln. xorijiy sayyoohlar tashrif buyurishdi va 2020-yilda jahon mamlakatlari bo‘yicha eng ko‘p xorijiy sayyoohlar tashrif buyurgan mamlakat sifatida tarixdan joy oldi. 2021-yilda pandemiya davri davom etayotgan bo‘lsa-da, 15 mln.ga yaqin xorijiy sayyoohlarning tashrifi kutilmoqda.

Jahon ommasi Saudiya Arabistonining iqtisodiy o‘sishini faqatgina neft xomashyosiga bog‘lashadi. Umuman olganda Saudiya Arabistoni milliy iqtisodiyotining asosiy daromad keltiruvchi donor tarmog‘i neft sanoati bo‘lsa, ikkinchisi bu xizmat ko‘rsatish sohasidir. Xizmat ko‘rsatish sohasi o‘z tarkibiga turizm, “haj” mavsumlariga tashrif buyuradigan mahalliy va xorijiy mehmonlarga xizmat ko‘rsatish, savdo, transport, mehmonxona xizmatlari va boshqa turli xizmatlarni o‘z ichiga oladi. Hukumatning maxsus dasturiga asosan yaqin istiqbol yillarda Jidda shahrini xorijlik mehmonlar uchun yirik “Maxsus turizm hududi” sifatida shakllantirish loyihasi amalga oshirilmoqda.

Har yili 5 mln.ga yaqin ziyoratchilarning tashrifidan mamlakat budgetiga milliardlab daromad tushmoqda. Saudiya Arabistoniga qariyb 10 yildan beri islom dunyosi mamlakatlaridan mvsumiy “haj” safariga o‘rtacha 2 millionga yaqin kishi tashrif buyurishadi. 2012-yil noyabrdagi Qurban Xayiti mavsumida qariyb 2 million 832 ming nafar xorijiy ziyoratchilar tashrif buyurishgan va ushbu ko‘rsatkich “rekord ko‘rsatkich” sifatida Saudiya tarixidan joy olgan.

12. Jahon moliya bozoridagi faol faoliyati va ishtiroki (Saudiya Arabistoni, Qatar, BAA, Quvayt va Turkiya). 2010-yillarning boshlariga kelib Fors ko‘rfazi hududida yirik biznes va moliya markazlari vujudga keldi. Stambul, Doha, Dubay shaharlari Osioning yirik moliya markazlari qatoridan joy olishdi.

26.4. Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasi mamlakatlari iqtisodiyoti tuzilmasi va unda neft sanoatining ustuvor ahamiyati

Iqtisodiy tarixdan ma’lumki, dunyo xaritasida XX asrning 30-yillaridan boshlab Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasida ulkan neft konlariga ega bo‘lgan davlatlarning ahamiyati orta boshladi. Neft qazilma boyligini “topish” uchun Osiyo qit’asiga eng birinchi bo‘lib

Buyuk Britaniya xorijiy investor sifatida XX asrning boshlarida tashrif buyurgan. Buyuk Britaniyaning Fors ko‘rfazida neft izlashiga eng asosiy sababi, o‘sha davrda rivojlangan industrial mamlakatlarning Osiyo qit’asiga, ya’ni tabiiy resurslariga, arzon ishchi kuchi va siyosiy jihatdan ushbu mintaqada strategik mavqega ega bo‘lish edi. Ammo, Angliyaga tegishli bo‘lgan neft kompaniyalarining Fors ko‘rfazi hududidagi neft geologik-qidiruv ishlari muvaffaqiyatsiz yakunlandi va asosiy urg‘u Shimoliy Afrika mintaqasi bilan Hindiston hududlariga urg‘u berildi.

1920-yillarning o‘rtalariga kelib, AQSHning bir qator nufuzli neft kompaniyalari Fors ko‘rfaziga neft xomashyosini topishi uchun “tashrif” davri boshlandi hamda ushbu hududda o‘zining yirik neft kompaniyalarini joylashtirishga kirishdi. Ayni shu yillarda Angliya va Fransiya, umuman olganda G‘arbiy Yevropa mamlakatlarining bir qator yirik neft kompaniyalarining ish faoliyati ancha susayib qolgan edi.

AQSHning Fors ko‘rfazida birinchi bo‘lib o‘rnashgan va o‘zining ish faoliyatini aynan Osiyoda birinchilardan bo‘lib boshlagan “Teksako” va “Standard Oil Company of California” kompaniyalari neft geologik-qidiruv ishlarini boshlashdi. Ular mahalliy arab mamlakatlari bilan qo‘shma korxonlarni tashkil qilish haqida shartnomalar tuzishga kirishishdi.

Saudiya Arabistonи. 1930-yilda Saudiya Arabistoni hududida eng birinchi neft koni topilgach, mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi “yangi hayot davri” boshlandi. 1933-yilning may oyida eng birinchi bo‘lib “Standart oyl of Kaliforniya” va yilning oxirlariga kelib, AQSHning ARAMKO neft kompaniyalari Saudiya Arabistoni hukumati bilan konsessiya shartnomasini imzolashib, o‘z faoliyatini boshladi.

Hozirgi kunda Arabiston yarim orolidagi qariyb 20 ta yirik neft konlaridagi mavjud neft zaxiralari dunyo zaxirasining deyarli yarmiga yaqinini tashkil qiladi. “Saudiya Aramko” (Saudi Aramco) davlat korporatsiyasi mahalliy kompaniya bo‘lib, dunyodagi eng yirik neft qazish tarmog‘iga ega bo‘lgan korporatsiya hisoblanadi. Ushbu korporatsiya mamlakatdagi 98 foiz neft resurslariga, uni qazish, tashish, qayta ishslash va jahon mamlakatlariga taqsimlash ishlariga ham egalik qiladi. Saudiya Arabistoni hukumati milliy iqtisodiyotning

neft-gazni qazish sanoatida xorijiy investorlarning faoliyat olib borishlarini qat’yan cheklab qo‘ygan. Barcha hududlarda sanoatning qazish sohalarida faqat mahalliy kompaniyalar faoliyat olib borishadi.

Mamlakatda Energetika resurslarini tartibga solish, neft-gaz xomashyolari qazish va undan foydalanish masalalarini Saudiya Arabistoni Podshohligi Neft va mineral resurslari vazirligi o‘z nazoratiga olgan. Shuningdek, Saudiya Arabistoni Podshohligi Oliy neft soveti bevosita neft va gaz sohasida xalqaro masalalar bo‘yicha shug‘ullanadi. Istisno tariqasida mabodo biror xorijiy mamlakat bilan neft-gaz konlarini taqdim qilish istagida bo‘lsa, ushbu tashkilot neft va gaz konlarini xorijiy investorlarga topshirish va ular bilan uzoq yillarga mo‘ljallangan konsessiya shartnomalarini imzolaydi, kelgusi yillar uchun rejalashtirish va istiqbol vazifalarini aynan sovet tasdiqlaydi.

Saudiyaning neft sanoati jahon neft bozori bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ba’zi holatlarda neft qazish kvotasini oshirib, uni qazish jarayonlariga ham salohiyati yetmoqda. Buning asosiy sababi shundaki, 2012-yilda xalqaro hamjamiyat tomonidan Eron neft eksportiga nisbatan qo‘yilgan “iqtisodiy jazo” tufayli Saudiyaning neft qazish miqdori Eron hisobiga ko‘paytirgan edi.

Qatar hududlarida neft konlarini izlash va topish tarixining boshlanish davri ham 1930-yillarning boshiga borib taqaladi. Ushbu hududlarda mahalliy hukumat (shayx Ahmad Al-Jobr al-Saloh) birinchi bor “Anglo-Pershn Oyl” (Anglo-Persian Oil) va “Galf Oyl Korporeyshn” (Gulf Oil Corporation) kompaniyalariga shartnomalarida yerlar ajratib berdi. Neft qazish bo‘yicha yalpi ishlar 1936-yilga kelib boshlanib ketdi va 1938-yilda Yangi Burchan neft zaxirasi ochildi. Uni qayta ishslash faqatgina Ikkinchi jahon urushidan so‘ng, eksport qilish esa 1946-yildan boshlandi.

Qatar hududidagi geologik-qidiruvlar natijasiga ko‘ra, mamlakat hududlarida qazilayotgan neft xomashyosi miqdori yana 20 yildan keyin tugashi taxmin qilingan, ya’ni 2040-yilga borib neft konlarida neft xomashyosi qolmasligi ehtimoli mavjuddir. Aynan shuning uchun ham, Qatar hukumati yil sayin neft qazish miqdorlarini kamaytirib bormoqda va yaqin istiqbol yillarda, aniqrog‘i 2022-yildan neft eksportini butunlay to‘xtatilishini va majud neft zaxiralari kelajak avlod uchun saqlab qo‘yishlarini ma’lum qilgan.

26.2-jadval

Fors ko‘rfazi arab mamlakatlarining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari

T/r	Asosiy ko‘rsatkichlar va xususiyatlari	Saudiya	BAA	Qatar	Quvayt
1	YaIM miqdori (mln.doll.) ¹⁴⁴	793,0	421,1	183,5	134,8
2	YaMMning aholi jon boshiga (doll.) ¹⁴⁵	22.850	43.470	63.410	34.290
3	Umumiylashchi savdo aylanmasi (mlrd.doll.)	396,1	677,8	102,1	103,0
4	Eksporti (mlrd.doll.)	251,8	389,4	72,9	68,8
5	Importi (mlrd.doll.)	144,3	288,4	29,2	34,2
6	Eng asosiy tashqi savdo hamkorlari	AQSH, YI va Yaponiya	AQSH, YI va Xitoy	Yaponiya, Italiya va Fransiya	AQSH, YI va Pokiston
7	Valuta zaxirasi (mlrd.dollar)	515,0	108,4	39,7	43,7
8	Tashqi qarzi (mlrd.doll.) ¹⁴⁶	149,4	163,8	149,3	34,4
9	Aholi soni (mln. kishi)	34,2	9,8	2,8	4,2
10	Umumiylashchi maydoni (ming km.kv.)	1.960,6	82,9	11,4	17,8
11	Ishsizlik darajasi (foiz)	7,6	4,8	5,4	5,3
12	Milliy valutasi (pul birligi)	Saudiya riali	Dirxam	Qatar riali	Quvayt dinari
13	Mamlakat poytaxti	Er-Riyod	Abu-Dabi	Doha	Quvayt
14	Rasmiy davlat tili	Arab	Arab	Arab	Arab

Ushbu jadval ma’lumotlar asosida ishlab chiqilgan.

Fors ko‘rfazi hududidagi mamlakatlarda temiryo‘llar transporti u qadar rivojlanmagan bo‘lib, ushbu mamlakatlarda yuk va yo‘lovchi tashish asosan suv yo‘llari va avtomobil yo‘llari transporti orqali amalga oshiriladi. Hatto mintaqaning Quvayt, Bahreyn va Qatar

¹⁴⁴ Gtmarket.ru/ratings/gross-national-income-ranking

¹⁴⁵ https://data.worldbank.org/indicator/NY.GNP.PCAP.CD

¹⁴⁶ https://ru.m.wikipedia.org/wiki/%DO%A1%DO%BF%DO%B8%

mamlakatlarida temiryo‘llar endigina XXI asrning boshlariga kelib qurildi va jahon xo‘jaligidagi yuqori rivojlanayotgan mamlakatlarda temiryo‘l transportining mavjud bo‘lmasligi bir qator turli mushohadalarga sabab bo‘ldi. Ushbu uch mamlakatda temiryo‘llar qurilmaganligiga quyidagi sabablarni keltirish mumkin:

- birinchidan, ushbu mamlakatlarning hududlari kichik va yarim orol bo‘lganligi;
- ikkinchidan, mamlakat hududlaridagi asosiy yuklar va yo‘lovchilar avtomobil transporti orqali tashilar edi va bu qulaylik yaratari edi;
- uchinchidan, ushbu mamlakatlarning hududlari asosan cho‘l hududlardan iborat bo‘lib, cho‘l hududlarida temiryo‘llar transportini shakllantirishda biroz tabiiy muammolar kelib chiqishi mumkin;
- to‘rtinchidan esa, chunki shu paytgacha ushbu mamlakatlarda temiryo‘llar transportiga talab va ehtiyoj bo‘lmasligi edi. Biroq, mazkur mamlakatlarda suv yo‘llari transporti yuksak darajada rivojlangan.

BAA hududida eng birinchi neft koni 1958-yilda topilgan. Hozirda BAA hududidagi topilgan neft zaxiralari dunyo neft zaxirasining qariyb 7 foizini tashkil qiladi. Shunday qilib, tahlillarga ko‘ra, mintaqada neft xomashyosining qazish ishlari XX asrning 30-yillariga to‘g‘ri kelar ekan. BAA ham milliy iqtisodiyotni diversifikasiyalash asosida neft xomashyo qazish sanoatidan tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishga mo‘ljalangan sanoatni qayta ishlash tarmoqlarini shakllantirish va yangi ishchi o‘rlanani tashkil qilishdan iborat bo‘ldi. Sanoat sohasida neftni qayta ishlash va mashinasozlik tarmoqlariga katta e’tibor berildi. Eng asosiysi, sanoatdan ko‘ra iqtisodiyotda xizmat ko‘rsatish sohasining ulushi yil sayin tobora rivojlanib bormoqda. Bu sohada xalqaro turizmni rivojlantirish orqali bir qator yirik shaharlar industrial va ishbilarmonlar shahriga aylandi. Juhon xo‘jaligidagi yirik moliya, industrial, turizm shaharlaridan biri hisoblangan “Dubay – ishbilarmon shahri” vujudga keldi.

Quvaytning mustaqillikka erishgan yilidan boshlab bugungi kungacha bo‘lgan davridagi iqtisodiy taraqqiyoti faqatgina neft sanoati bilan bog‘liqdir. Neft sanoatini rivojlantirish va undan tushayotgan xorijiy valutalarning jamg‘arilishi natijasida Quvayt jahon moliya bozoridagi asosiy “kreditor” mamlakatlaridan biri sifatida tan olinmoqda. Ayniqsa Quvayt arab iqtisodiy taraqqiyot fondi jahondagi

ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarni kredit mablag‘lari bilan ta’minlab kelmoqda.

Mamlakatning aksariyat hududlari neft konlari bilan band bo‘lsada, ba’zi maydonlarning o‘zlashtirilishi natijasida agrar sohaga ham biroz e’tibor qaratilmoqda. Quvayt asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini xorijiy mamlakatlardan import qiladi. Qishloq xo‘jaligi sohasining tez sur’atlarda o‘sib borishi milliy iqtisodiyotning yanada o’sishiga va aholi turmush darajasining yaxshilanishiga ko‘mak beradi. Chunki oziq-ovqat mahsulotlarining ko‘plab miqdorda import qilinishi sababli ham hukumatning agrar sohasini rivojlantirishga e’tiborni kuchaytirmoqda.

Xo‘sh, bu mamlakatning neft xomashyosidan boshqa yana nimasi bor? Demak, aholisi taxminan 4,5 mln kishini tashkil qiladi. Mamlakat, ma’lumki, o‘zining neftga boyligi bilan mashhur, ammo bu undagi yagona o‘ziga xoslik emasdir. Quvayt osmono‘par binolari va xorijiy emigrantlar soni ko‘pligi bilan ajralib tuuradi. Quvaytda istiqomat qiluvchilarning atigi 30 foizi uning tub aholisidir, qolgan 70 foizini muhojirlar tashkil etadi. Muhojirlarning aksariyati poytaxtda yashaydi va milliy iqtisodiyotning turli sohalarida faoliyat ko‘rsatishadi. Hindlar eng katta jamoani tashkil etadi. Ularning deyarli barchasi Hindistonning janubiy shtatlari – Tamilnad va Keraladan kelishgan. Kuvaytda 17 ta hind maktabi tashkil etilib, faoliyat ko‘rsatadi.

Quvayt milliy valutasi hisoblangan “dinor” dunyodagi eng qimmat valuta hisoblanadi. Quvayt dinori milliy valuta hisoblanib, 1000 filsga teng. Fils bu ko‘plab arab mamlakatlarida muomalada bo‘lgan pul birligidir. Arab tilida “fils” pul degan ma’noni anglatadi va so‘zning o‘zi Qadimgi Rim tangasi follis nomidan kelib chiqqan. Dinor Fors ko‘rfazining rupiysi o‘rnini egallagan va 1961-yilda muomalaga kiritilgan. Agar Quvayt valutasini AQSH dollari bilan taqqoslasak, uning uch barobar kuchliligiga amin bo‘lamiz, shuning uchun ham u jahondagi eng qimmat pul bo‘lib qolmoqda.

Iordaniyaning iqtisodiy taraqqiyot yo‘nalishlarida iqtisodiyotning barcha sohalari ayni paytda bir xil xususiyatga ega bo‘lsa-da, YAIMning asosiy ulushi qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohasiga to‘g‘ri keladi. Bugungi kunda hukumat tomonidan olib borilayotgan asosiy iqtisodiy islohotlar va uning e’tibori eksport mahsulotlarini

ishlab chiqaruvchi korxonalarini qayta modernizatsiyalashga qaratilgandir. Mamlakatda neft-gaz konlarining mavjud emasligi ushbu mamlakatning boshqa arab mamlakatlari iqtisodiy taraqqiyoti yo‘nalishlari bilan tubdan farqlanadi. Shuningdek, Iordaniyada xalqaro turizm sohasiga e’tibor qaratilmoqda. Unga qo‘sni bo‘lgan Suriyada siyosiy inqirozga barham berilsa, albatta 2000-yillardagi xalqaro turizmni qaytishini tezroq kutishmoqda. Chunki o’sha yillarda, ayniqsa 2000-yilda Iordaniyaga 2,7 mln. sayyoh xorijiy mamlakatlardan tashrif buyurgan edi.

Suriya YaIMda yil sayin qishloq xo‘jaligi sohasining ulushi kamayib borayotgan bo‘lsa-da, uning qishloq xo‘jaligi davlat budgetining asosiy daromadlaridan biri hisoblanadi. Suriya qishloq xo‘jaligi ikki sohaga bo‘lingan: dehqonchilik va chorvachilik. 2012-yildan buyon mamlakatda iqtisodiy holat deyarli izdan chiqqan. Ayni paytda davom etayotgan fuqarolar urushi tufayli mamlakatning milliy iqtisodiyoti og‘ir talafot ko‘rgan. Siyosiy inqirozga qaramay agrar sohada faoliyat davom ettirilmoqda. Biroq, mamlakatda qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini sug‘orish muammolarini hal etish yil sayin qiyinlashib bormoqda. Hatto so‘nggi yillarda suv muammosini hal qilishda Suriya Turkiya bilan diplomatik muzokaralarni olib borishga ham majbur bo‘lmoqda.

Yuzaga kelayotgan ichki siyosiy inqirozlar natijasida iqtisodiyot sohalaridagi deyarli barcha chora-tadbirlarni Rossiyaning iqtisodiy hamkorligi evaziga olib bormoqda. Suriyaning iqtisodiy holati Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasi mamlakatlari ichida eng oxirgi o‘rinlarini birini egallab turibdi. Albatta, siyosiy inqirozga tezroq barham berilsa, xorijdan vaqtinchalik panox topgan qariyb 8 million suriyalik qochoq aholini qaytarish ishlarini olib borish, sanoat ttarmoqlarini qayta tiklash, vayron bo‘lgan inshootlarni qayta qurish yoki ta’mirlash kabi ulkan ishlarni hamda vazifalarni amalga oshirish kerak bo‘ladi.

Eron yirik neft va gaz zaxiralari ega bo‘lgan jahondagi yetakchi mamlakatlaridan biridir. Uning eksport salohiyati yuqori bo‘lsa-da so‘nggi yillarda tashqi siyosatida bir qator mamlakatlar bilan siyosiy muammolarga uchraganligi sababli uning tashqi savdosiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Eron iqtisodiyotining 2018-

2019-yillarda iqtisodiyot sohalarida iqtisodiy ko'rsatkichlarning pasayishi ham bevosita jahon siyosiy arenasida jahonning yetakchi mamlakatlari tomonidan Eronning "Yadro milliy dasturi"ga bo'lgan salbiy munosabati natijasida yuzaga kelmoqda. Eron xalqi deyarli 30 yildan beri iqtisodiy jazo holatida kun kechirmoqda. Shunga qaramasdan uning milliy iqtisodiyoti asta-sekin o'sib bormoqda. Neft-gaz sohalariga iqtisodiy jazo siyosatiga qaramasdan Xitoy va Rossiya kabi yirik mamlakatlardan investorlar jalb qilingan. Rossiyaning hamkorligida Bushir AES qurilgan.

Bugungi kunda dunyo neft zaxiralari 1551 mld. barrelni tashkil qiladigan bo'lsa, shundan Arab davlatlarining ulushi 48 foiz yoki 744,5 mld. barrelni tashkil qiladi. Dunyo mamlakatlarining neftga bo'lgan kunlik ehtiyojlari qariyb 90 mln.barrelni tashkil qilsa, shundan 50 foizdan ko'proq qismi "Arab dunyosi" mamlakatlari tomonidan ta'minlanadi. Shuningdek, jami jahon bo'yicha neft ehtiyojining 3/1 qismini, ya'ni 30 mln.barreli Osiyo mamlakatlariga to'g'ri keladi. Demak, jahon neft zaxiralarining 48 foizi "Arab dunyosi"ga to'g'ri kelsa, uning salkam 60 foiz zaxirasi Fors ko'rfazi mamlakatlarida joylashgan, chunki Eron mamlakati ham dunyo neft zaxirasining 10 foizini tashkil qiladi.

Ko'plab mahalliy va xorijiy adabiyotlarda Saudiya Arabistonni 2012-yilgacha dunyodagi eng yirik neft zaxirasiga ega bo'lgan mamlakat sifatida e'tirof qilinar edi. Biroq 2010-2012-yillarda Venesuelada neft geologik-qidiruv ishlaridan so'ng isbotlangan neft zaxiralari miqdori aniqlangach, ushbu mamlakat neft zaxirasi bo'yicha jahon xo'jaligida 1-o'ringa ko'tarildi. Neft zaxiralarini so'nggi 2-3 yil ichida jahonning Venesuela, Eron, Iroq, Rossiya, Saudiya Arabistonni kabi mamlakatlarda topilayotgan yirik neft konlari hisobiga dunyo mamlakatlariga bo'lgan ulush ko'rsatkichlari ham tobora o'zgarib bormoqda.

Jahon xo'jaligida neft qazish va neft eksporti siyosati muvofiqlashtiruvchi hamda a'zo mamlakatlar manfaatlarini himoya qiladigan xalqaro tovar tashkilot - Neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti (Organization of Petroleum Exporting Countries, OPEC) tartibga solib turadi. Tashkilot rasman 1960-yilda Venesuela va Iroq tashabbusi bilan Bog'dod konferensiyasida tashkil etilgan. A'zo

mamlakatlar 13 mamlakat: Saudiya Arabistoni, Iroq, Eron, Quvayt, BAA, Jazoir, Angola, Kongo, Ekvatorial Gvineya, Gabon, Liviya, Nigeriya, Venesuela.

26.3 - jadval

Jahon mamlakatlari geologik-qidiruv ishlariga asosan isbotlangan neft zaxiralari va ishlab chiqarish bo'yicha ko'rsatkichlar (2019-y.)

№	Mamlakatlar nomi	Zaxira miqdori (mlrd.barrel)	Dunyo bo'yicha zaxira ulushi
1.	Venesuela	303,8	19,6
2.	Saudiya Arabistoni	266,2	17,2
3.	Kanada	170,5	11,0
4.	Eron	157,2	10,1
5.	Irok	148,8	9,6
6.	Quvayt	101,5	6,5
7.	BAA	97,8	6,3
8.	Rossiya	80,0	5,2
9.	Liviya	48,4	3,1
10.	Nigeriya	37,5	2,4
...43	Turkmaniston	0,6	0,04
44	O'zbekiston	0,6	0,04
.....	Qolgan mamlakatlar	138,1	8,9
	Dunyo zaxiralari	1.551	100,0

Manba: <https://www.nonews.co/directory/lists/countries/oil> va finanz.ru/novosti/aktsii/dokazanniye ma'lumotlari asosida jadval shakliga keltirildi.

Demak, jahonda neft xomashyosiga va uning zaxirasiga eng boy bo'lgan davlat bu – Venesuela hisoblanadi. Ayni paytda Saudiya Arabistonida neft zaxirasi qariyb 266,2 mlrd.barrel deb baholanmoqda. Agarda Saudiya Arabistoni mamlakatdagi neft qazish faoliyatida har 1 sutkada 10 mln.barrel neft qazib chiqarilsa, neft zaxiralari

mamlakatda uzog‘i bilan 70 yilga yetishi mumkin. OPEKning xalqaro munosabatlar jarayoniga ta’siri hamon “kuchli”. Tashkilotning Bosh qarorgohi Avstriya poytaxti Vena shahrida joylashgan bo‘lib, yiliga 2 marta yig‘ilish bo‘ladi va unda ishtirokchi mamlakatlarning neft ishlab chiqarish strategiyasi, jahon neft bozoridagi narxlar ko‘rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

26.6. Jhon xo‘jaligida “turk modeli”ning vujudga kelishi va Turkiya iqtisodiyotining istiqboli (“Nigoh-2023” dasturi)

XX asrning 80-yillarida jahon xo‘jaligida Turkiya mamlakati o‘zining tez iqtisodiy taraqqiyoti bilan jahon iqtisodiyotida o‘z nufuziga ega bo‘ldi va Yevropa Ittifoqi tashkilotiga integratsiyalashuvini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Turkiya milliy iqtisodiyotini tez rivojlanishi hukumat tomonidan iqtisodiyotda sanoatning rivojlanishiga katta e’tibor berildi, mamlakatning iqtisodiyoti rivojlanmagan chekka hududlarda qishloq xo‘jaligining rivojlantirishda chora-tadbirlarni qabul qildi va eng muhimi, xorijiy yevropalik sarmoyadorlar uchun “ochiq eshiklar siyosati”ni tatbiq qildi.

Bir qator Yevropa mamlakatlari bilan, ayniqsa Germaniya bilan iqtisodiy hamkorliklarni keng ko‘lamda rivojlantirishi va milliy iqtisodiyotni taraqqiyoti uchun olib borilgan islohotlar natijasida qisqa 10 yil ichida jahon xo‘jaligida “turk modeli” vujudga keldi.

“Turkiya modeli”ning to‘rtta ustuvor yo‘nalishlari mavjuddir:

- moliyaviy resurslarni jamlash;
- tabiiy resurslardan samarali foydalanish;
- aholini yalpi ish bilan ta’minlash;
- boshqaruv va tadbirkorlik tizimlarini rivojlantirish.

“Turkiya modeli”ning omillari quyidagilardan iborat:

- mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini vujudga keltirishda rivojlangan xorij mamlakatlarning tajribalaridan foydalanish;
- davlat sektorini bir me’yorda mablag‘ bilan ta’minlash;
- xalq xo‘jaligini ilg‘or texnologiyalar bilan yangilash va jihozlash;
- xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilish;
- mulkchilik shakllarining rivojlantirish (eng asosiy omil);
- davlat tomonidan dinning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash;

- qonun va huquqlar ustuvorligi;
- xususiy sektorni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi va ularga turli yordamlarning berilishi (davlat kreditlarining imtiyozli berilishi).

2010-yil yakuni bo‘yicha Turkiya YaIM miqdori bo‘yicha jahoning eng oldi “20 talik” qatoridan joy oldi. Ushbu ko‘rsatkichga erishilishi Turkiya Bosh vaziri Turg‘ut O‘zolning 1990-yillardagi ko‘zlangan maqsadiga erishdi. Endigi Bosh vazir R.Erdo‘g‘anning maqsadi Turkiyaning iqtisodiy salohiyatini 2023-yilga borganda jahondagi eng yetakchi bo‘lgan 10 ta mamlakatlar qatoriga olib chiqishdan iboratdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun 2011-yildan buyon “Nigoh-2023” dasturi amalga oshirilmoqda. Ushbu dasturga muvofiq, Turkiya YaIM miqdori 2023-yilga borganda qariyb 2 trln. dollarni tashkil qilishi lozim. Chunki Turkiyaning 2023-yilda yuqori o‘ntalik davlatlar qatoriga chiqishi bu “Turkiya Respublikasining 100 yillik yubileyi”ga bo‘lgan sovg‘adir.

2011-yilning aprel oyida Stambulning Dolmabaxche saroyida Turkiya Bosh Vaziri R.Erdo‘g‘an boshchiligidida o‘tkazilgan “Nigoh-2023” dasturi prezентatsiyasida Turkiyaning eksport istiqboli ham aniq-ravshan belgilab olindi hamda 2023-yilga borganda Turkiya eksport miqdori qariyb 500 mlrd.dollarini tashkil qilish ko‘zda tutilgan. Ushbu prezентatsiyada R.Erdo‘g‘an: “2023-yilga borganda Turkiya eksportining miqdori 500 mlrd.dollarga yetishi bu orzu emas, ushbu ko‘rsatkichga etish uchun astoydil ishlashimiz kerak va bu raqamga ishonib ishlashimiz kerak” degan edi¹⁴⁷.

Ushbu raqamlarga yetishda Turkiyaning 2013-yil, 2018-yil, 2023-yillarda tugaydigan 5 yillik rejalaridan o‘rin olgan vazifalar ijrosini davlat tomonidan qattiq nazoratga olinishi Bosh vazir tomonidan ta’kidlab o‘tilgan.

“Turkiya eksportining 2023-yilgacha bo‘lgan strategiyasi” dasturi ga ko‘ra, turk sanoati mahsulotlari eksportining eng asosiy geografik yo‘nalishlari Rossiya, AQSH, Germaniya, Iroq, Xitoy, Buyuk Britaniya va boshqa mamlakatlarni tashkil qiladi. Eksport miqdorini oshirish maqsadida, qisqa yillar ichida milliy iqtisodiyotda bir qator yangi sanoat tarmoqlarini tashkil qilish ko‘zda tutildi:

¹⁴⁷ “51 milyon dolardan 500 milyar dolara...”// İhracat. Dünya Gazetesi. 5 Nisan 2011.

- kosmos va aviatsiya;
- mudofaa sanoati;
- kompyuter texnologiya va aloqa;
- meditsina uskunalari va priborlarini ishlab chiqarish¹⁴⁸

26.7. Saudiyaning “Yangi sanoat siyosati” (“Industry-2020”) dasturi va sanoatning diversifikatsiyalash chora-tadbirlari

2000-yillarning boshlarida Saudiya Arabistonni milliy iqtisodiyotining davlat budjeti tushumi asosiy xorijiy valutani olib keluvchi neft sanoatiga bog‘lanib qolganligi sababli, iqtisodiyotni diversifikatsiyalashga qaror qilindi. Shunga ko‘ra, hukumat oldida neft sohasidan tushayotgan xorijiy valuta tushumlarini iqtisodiyotning boshqa sohalariga yo‘naltirish, asosan sanoat tarmoqlarini kengaytirish uchun maqsadli ravishda sarflash yaqin kelajak 20 yillarda asosiy vazifalaridan biri hisoblandi. Unga asosan, 2001-2020-yillarga mo‘ljallangan yirik “Industry 2020” davlat dasturini (“Yangi sanoat siyosati”) tatbiq qildi.

“Industry – 2020” sanoat ishlab chiqarish strategiyalarining asosiy tamoyillarini va mexanizmlarini o‘z ichiga olib, yangi innovatsiya g‘oya va loyihalarga asoslangan holda sanoatlashtirishni rivojlantirish; sanoat tarmoqlarida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik va o‘rta korxonalarini rag‘batlantirish asosida preferensiyalar berish; eng muhim milliy iqtisodiyotni yanada rivojlantirish maqsadida iqtisodiyotni diversifikatsiyalash asosida neft xomashyo qazish sanoatidan xomashyodan tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil qilishdan iborat bo‘ldi.

Saudiya Arabistonida yangi sanoat siyosatini olib borilishiga turtki bo‘lgan yana bir omillardan biri bu – Saudiyaning 2005-yilda Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lishi ham iqtisodiyotning sanoat siyosatida ba’zi tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirilishiga sabab bo‘ldi.

“Yangi sanoat siyosati” (“Industry – 2020”) davlat dasturining maqsadi milliy iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish va uni isloh qilish asosida milliy iqtisodiyotni yanada rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish, arab dunyosidagi eng rivojlangan industrial mamlakatga aylantirishdir. Ushbu dasturining eng asosiy va muhim

¹⁴⁸ <http://www.tim.org.tr/tr/tim-gundem-tim-hedef-2023-500-milyar-dolar-ihracat-stratejisini-basbakana-sunuy>

vazifasi - yangi innovatsion loyihalarni amalga oshirishga asoslangan sanoatning diversifikatsiyalash jarayoni bo‘lib, jahon bozorlariga raqobatbardosh eksportbop mahsulotlarini yetkazib berishdan iboratdir.

BMT qoshidagi Sanoat taraqqiyoti tashkilotining (UNIDO) Saudiya Arabistonida amalga oshirilayotgan “Yangi sanoat siyosati”ning tahlillariga ko‘ra, amalga oshirilayotgan diversifikatsiya jarayonlarini muvaffaqiyatli olib borish bilan birga mamlakatni iqtisodiy taraqqiyotida mahaliy hukumat tomonidan donor tarmoqdan tushayotgan daromadlar evaziga ijtimoiy sohani rivojlantirishga ham alohida e’tibor berilgan.

Ushbu maqsadga to‘la erishish uchun Saudiya hukumati innovatsiyaga asoslangan ta’lim tizimi salohiyatini oshirib, yangi tashkil qilinayotgan sanoat tarmoqlariga malakali ishchi-mutaxassislarni yetkazib berish maqsadida bir qator sanoat sohasiga ixtisoslashtirilgan malaka oshirish o‘quv markazlari tashkil qilindi.

“Yangi sanoat siyosati” davlat dasturining asosiy yo‘nalishlari:

- yangi innovatsiya tizimlariga asoslangan holda sanoatlashtirishni rivojlantirish;
- mahalliy kompaniyalarining sanoat ishlab chiqarishini yanada kengaytirish;
- hududlardagi mavjud tabiiy va inson manbalaridan unumli va samarali foydalangan holda milliy iqtisodiyotni sog‘lomlashtirish va bandlik muammosiga barham berish;
- tabiiy xomashyo manbalaridan qayta ishlab chiqarishga o‘tish;
- yangi innovatsiya loyihalari asosida zamonaviy sanot tarmoqlarini tashkil qilishdir. Dasturda belgilangan chora-tadbirlar va vazifalarni to‘la amalga oshirilishi 2022-yilda kutilmoqda.

Bob yuzasidan xulosa

Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasi mamlakatlarining iqtisodiyoti jahon iqtisodiyotida o‘z o‘rniga ega, albatta. So‘nggi 15-20 yillik davrda ular iqtisodiy taraqqiyotda katta ijobiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarga erishmoqdalar. Haqiqatan ham, so‘nggi 30 yil ichida Turkiya, Isroil, Saudiya Arabiston, BAA va Qatar kabi mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishida ijobiy ko‘rsatkichlar va yutuqlarga erishishdi. Bu mintaqadagi ko‘plab mamlakatlarning

iqtisodiy rivojlanishi tez va jadal sur'atlar bilan rivojlandi. Ayniqsa, Fors ko'rfazi mamlakatlarining milliy iqtisodiyoti jahon iqtisodiyotida juda tez rivojlanishi tufayli jahon xo'jaligidagi "Fors ko'rfazi mo'jizasi" atamasini ham oldi.

Xalqaro ekspertlarining taxminlariga qaraganda, jahon xo'jaligidagi iqtisodiy taraqqiyot va milliy iqtisodiyotdagi katta ijobiy siljishlar XXI asrning 20-yillarida ham asosan Fors ko'rfazi va Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi mamlakatlarida bo'layotganini ta'kidlashmoqda. Qisqasi, Yaqin va O'rta Sharq mintaqasidagi bir qator mamlakatlar, xususan, Qatar, Saudiya Arabiston, BAA, Turkiya va Isroil kabi mamlakatlar o'zlarining hozirgi iqtisodiy taraqqiyoti bilan yaqin 15 yil ichida jahondagi yetakchi mamlakatlar qatoriga chiqib olishi kutilmoqda.

Nazorat savollari

1. Yaqin va O'rta Sharq mintaqasi mamlakatlari ishtirokida qanday xalqaro tashkilotlar tashkil qilingan?
2. Yaqin va O'rta Sharq mintaqasi mamlakatlarining iqtisodiy-geografik joylanishuvi tavsiflab bering.
3. Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish davrlarini va asosiy rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyot omillarini ayting.
4. Yaqin va O'rta Sharq mintaqasi mamlakatlarining iqtisodiy taraqqiyot sabablarini ayting.
5. Yaqin va O'rta Sharq mintaqasi mamlakatlarining jahon xo'jaligidagi iqtisodiy salohiyatlarini ta'riflab bering.
6. Fors ko'rfazi hududi mamlakatlarida neft va gaz xomashyolarining milliy iqtisodiyotlardagi ahamiyatini ayting.
7. Juhon xo'jaligidagi neft zaxirasiga ega bo'lgan mamlakatlarni va ularning ulushlarini ayting.
8. Mintaqaning qaysi mamlakatlarida qazilma boyliklar va ularning zaxirasi mavjud?
9. OPEK qanday tashkilot va uning asosiy ish faoliyatini ayting.
10. OPEK tashkilotiga a'zo mamlakatlarni ayting.
11. Juhon xo'jligida Yaqin va O'rta Sharq mintaqasi mamlakatlarining qaysi iqtisodiy jihatlari va salohiyatlari yuqori nufuzga ega?

12. Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasining qaysi mamlakatlarida sanoatni divesifikatsiyalash jarayonini amalga oshirish muhim va nima uchun?
13. Saudiya Arabistonining “Yangi sanoat siyosati” davlat dasturining maqsadi, vazifasi va mohiyatini ayting.
14. “Turk modeli”ning yo‘nalishlari va omillarini ayting.
15. “Nigoh-2023”ning mohiyati va undagi vazifalarini ayting.

Uyga vazifa!

Talabaning “Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasi mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanishi va ularning asosiy xususiyatlari” mavzusini chuqur o‘zlashtirishi hamda amaliyat darsiga puxta tayyorgarlik ko‘rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

- 1) mavzu so‘ngida berilgan “Nazorat savollari”ga tayyorgarlik ko‘rish;
- 2) mintaqaning barcha 27 mamlakatlarining hududlarini xarita orqali iqtisodiy-geografik joylanishuvini ko‘rib chiqish va “Arab dunyosi”dagi 23 ta mamlakatini aniqlash;
- 3) Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasi mamlakatlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarini (YaMM, YaIM, eksport va import miqdori, tashqi qarz, valuta zaxirasi va aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadi) jadval shaklda ishlab chiqish;
- 4) Turkiya, Eron va Isroil mamlakatlarining sanoat tarmoqlari bo‘yicha talabalar guruhlarga bo‘lingan holda “Taqdimot” o‘tkaziladi.

XXVII BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAHON XO'JALIGINING TARKIBIY QISMI SIFATIDA

- 1. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati va imkoniyatlari.**
- 2. O'zbekiston milliy iqtisodiyotining taraqqiyotida xalqaro moliya tashkilotlarining o'rni.**
- 3. O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotida Osiyo taraqqiyoti bankining o'rni va iqtisodiy hamkorlikning asosiy yo'nalishlari.**
- 4. O'zbekistonning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvi va xalqaro tashkilotlar bilan iqtisodiy hamkorligining o'rni.**
- 5. Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi va O'zbekistonning unga a'zo bo'lish imkoniyatlari va istiqbollari.**
- 6. O'zbekiston Respublikasining jahon mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi.**

Tayanch iboralar: agrar-industrial mamlakat, geostrategik, milliy iqtisodiyot, "Yangi O'zbekiston", modernizatsiya, diversifikatsiya, jahon bozori, liberallashtirish, mineral resurs, tranzit, milliy boylik, milliy turizm, telekommunikatsiya.

O'zbekistonning jahon xaritasida joylashgan o'rni



27.1. O‘zbekistonning iqtisodiy salohiyati va imkoniyatlari

O‘zbekiston Respublikasi jahon xo‘jaligida agrar-industrial mamlakatlaridan biridir. Mamlakatimizning umumiy hududi 448,9 ming km.kv. bo‘lib, shundan 10 foizi suv havzasi va 90 foizi quruqlikdan iboratdir. Yer maydonining kattaligi jihatidan jahon mamlakatlari ichida 56-o‘rinda turadi¹⁴⁹. Mamlakatimiz aholisi qariyb 34 million kishini tashkil qiladi. Ulkan hududlarga, ko‘plab tabiiy boyliklarga va yirik mineral resurslarga ega bo‘lgan mamlakatdir.

Mamlakatimiz o‘zaro manfaatlar doirasida iqtisodiy hamkorlikni olib borishi uchun a’zo bo‘lishi mumkin bo‘lgan deyarli barcha xalqaro tashkilotlarga teng huquqli ravishda kirgan. O‘zbekistonning integratsiyaviy aloqalarini jadallashtirishga xizmat qiladigan omillar va sharoitlar orasidan respublika integratsiyaviy salohiyatining quyidagi aniq-ravshan ustunliklarini sanab o‘tish mumkin:

- O‘zbekistonning Yevroosiyo qit’asidagi qulay geostrategik joylashuvi;
- yer, mineral-xomashyo va o‘simgiklarning ancha katta zaxirasi;
- qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun qulay bo‘lgan tengi yo‘q tuproq-iqlim sharoitlari;
- muhim tashqi savdo va eksport salohiyati;
- tegishli davlatlararo koopetsiyalashuv va birgalikdagi investitsiyalar mavjud bo‘lganda ancha qisqa muddatlar ichida tayyorgarlikning yuqori darajasiga ega raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni tashkil qilishga imkon beradigan yirik ishlab chiqarish salohiyati;
- insonlar salohiyati, tez ko‘payib borayotgan mehnat resurslari, shuningdek, nisbatan arzon (jahon miqyosida olib qaraganda) ish kuchining mavjudligi;
- rivojlangan ishlab chiqarish infratuzilmasi, birinchi navbatda respublikani MDHning boshqa mintaqalari bilan bog‘lab turadigan, avtomobil va temiryo‘l magistrallari, telekommunikatsiya tizimining mavjudligi;
- respublikada chet el kapitalini investitsiya qilish, o‘zaro foydali tashqi iqtisodiy va integratsion hamkorlikning yaxshi kafolati bo‘lgan barqaror siyosat.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan pozitsiyalar bo‘yicha milliy

¹⁴⁹ <https://www.google.com/search?=territoriya+uzbekistana>

iqtisodiyotning bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatning integratsiyaviy salohiyatidan samaraliroq foydalanish uchun bu iqtisodiy salohiyatning hozirgi holatiga baho berish kerak bo‘ladi:

27.1-jadval

O‘zbekistonning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari

T/r	Asosiy ko‘rsatkichlar va xususiyatlari	Miqdori va belgilari
1	YaIM miqdori (mln.doll.) ¹⁵⁰	57,9
2	YaMMning aholi jon boshiga (doll.) ¹⁵¹	1800
3	Umumiylashchi savdo aylanmasi (mlrd.doll.)	36,8
4	Eksporti (mlrd.doll.)	14,9
5	Importi (mlrd.doll.)	21,9
6	Eng asosiy tashqi savdo hamkorlari	Xitoy, Rossiya va Qozog‘iston
7	Valuta zaxirasi (mlrd.dollar) ¹⁵²	29,3
8	Aholi soni (mln. kishi) ¹⁵³	34,6 million
9	Umumiylashchi maydoni (ming km.kv.)	447,4
10	Ishsizlik darajasi (foiz)	8,2
11	Milliy valutasi (pul birligi)	So‘m
12	Mamlakat poytaxti	Toshkent
13	Rasmiy davlat tili	O‘zbek tili

Ushbu jadval ma’lumotlar asosida ishlab chiqilgan.

34 million aholisi bo‘lgan O‘zbekiston iqtisodiy-geografik jihatidan ham, siyosiy jihatidan ham Markaziy Osiyoning o‘zagini tashkil etadi. Dunyodagi eng qadimiy sivilizatsiyalardan biri mana shu mintaqada paydo bo‘lgan. Qadim zamonalarda Buyuk Ipak yo‘li shu yerdan o‘tgani. Xalqimizning tarixi o‘z ildizlari bilan asrlarga borib taqaladi va uch ming yildan ko‘proq davrni o‘z ichiga oladi. Qadimiy Turon, Movarounnahr, Turkiston hududida ravnaq topgan davlatlar jahon madaniyatini

¹⁵⁰ [Gtmarket.ru/ratings/gross-national-income-ranking](https://gtmarket.ru/ratings/gross-national-income-ranking)

¹⁵¹ <https://data.worldbank.org/indicator/NY.GNP.PCAP.CD>

¹⁵² <https://https://nonews.co/directory/lists/countries/gold>

¹⁵³ https://ru.m.wikipedia.org/wiki/Spisok_stran_po_naseleniyu

rivojlantirishda yorqin iz qoldirgan. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari juda qadim zamonlardan dunyoga mashhur bo‘lgan.

O‘zbekiston tabiiy resurslarga boy o‘lka. Mamlakat hududida 2 2700 dan ortiq foydali qazilma boyliklari koni mavjud, ulardan 900 ga yaqini o‘zlashtirilgan. O‘zbekistonning kelajagi qimmatbaho qazilma boyliklari, rangli va noyob metallar, organik yonilg‘ilarning barcha turlari neft, tabiiy gaz va gaz kondensati, ko‘mir, uran, qurilish materiallarining ko‘plab turlari va boshqa konlarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq.

O‘zbekiston mavjud qazib olinadigan oltin xomashyosi zaxiralari bo‘yicha dunyoda JAR, AQSH va Rossiyadan so‘ng 4-o‘rinda turadi va 5,99 ming tonna oltin zaxiralari mavjuddir, shuningdek, mamlakatimizda 63 ta oltin konlari aniqlangan. Har yili o‘rtta hisobda 70-80 tonna oltin eksport qilinadi¹⁵⁴. “Muruntov”dagi (Navoiy viloyati) oltin konlarini (miqdori va sifati bo‘yicha) Kolondayk (AQSH), Vitvatersrand (JAR), Kolar (Hindiston) singari jahondagi eng yirik konlar bilan bir qatorga qo‘yish mumkin. Yirik oltin zaxiralarini o‘zi tasarruf etish imkoniyatiga ega bo‘lgan O‘zbekiston, jahon oltin bozorida ham teng huquqli hamkor bo‘la olishi mumkin. “Kitco” xalqaro markazining tahliliga ko‘ra, “Muruntov” koni 2020-yilda jahondagi oltin qazib olish bo‘yicha eng yaxshi kon deb topilgan. Reytingda AQSHdagi “Karlin” va Rossiyadagi “Olimpiada” konlari keyingi o‘rinlarni egallagan.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankning ma’lumotiga ko‘ra, mamlakatimizning oltin-valuta zaxirasi 2021-yilning 1-fevral holatiga ko‘ra, 34,3 milliard dollarni tashkil etdi.¹⁵⁵

Butun Markaziy Osiyo mintaqasi bo‘yicha gaz kondensati zaxiralarining 74 foizi, neftning 31 foizi, tabiiy gazning 40 foizi, ko‘mirning 55 foizi O‘zbekiston hissasiga to‘g‘ri keladi. Tabiiy gaz qazib olish bo‘yicha respublika MDH mamlakatlari ichida uchinchi o‘rinda va dunyodagi bu sohaning kuchli yetakchi 10 ta mamlakatlar qatorida turadi. O‘zbekiston Markaziy Osiyoda va MDH doirasida paxta yetishtiruvchi asosiy mamlakat bo‘lib hisoblanadi. O‘zbekiston paxta tolasini yetishtirish bo‘yicha dunyoda yetakchi

¹⁵⁴ <https://www.google.com/amp/s/kursiv.kz/news/mirovaya-ekonomika/2019-10/uzbekistan-voshel-v-top-20-stran-po-zolotym-rezervam%3>

¹⁵⁵ <https://cbu.uz/oz/statistics/intlreserves/442245/>

o‘rinlarda turadi.

O‘zbekistonning gaz uzatish tizimi MDH davlatlarining yagona gazquvur tizimiga kiradi. U Markaziy Osiyo, Rossiya va Ukraina kabi Yevropa davlatlariga hamda Xitoyga gaz uzatish texnik imkoniyati bilan birgalikda 9 ta bosh gaz transport tarmog‘iga ega.

Respublikada yuk va yo‘lovchilarni mamlakat ichkarisida va tashqarida tashish imkoniyati MDH, yaqin va uzoq xorij mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarni ta’minlovchi tarmoqlangan xalqaro transport tizimi shakllandi. O‘zbekiston Qozog‘iston bilan mustahkam transport aloqasiga ega bo‘lib, mamlakatimizning Rossiya, Xitoy, Osiyoning boshqa davlatlari va Tinch okeani mintaqasi avtoyo‘llariga chiqishini ta’minlaydi. O‘zbekistonning bevosita ishtirokida Transosiyo magistralining bir qismi hisoblangan, Janubi-Sharqiy Osiyoni G‘arbiy Yevropa bilan tutashtiradigan va Transsibir magistralidan 1500 km qisqa bo‘lgan Eron dengiz portlariga tutashtiruvchi Tajan-Seraks-Mashxad yangi yo‘li ishga tushirildi. Shu bilan bir qatorda O‘zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlariga Gruziyaning Poti dengiz porti Yevropa bilan bog‘lanish imkoniyatini beruvchi Turkmaniston va Transkavkaz yo‘li orqali o‘tgan transport yo‘lagi o‘zlashtirildi.

O‘zbekiston avtomobil yo‘llari tarmog‘i rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha MDH mamlakatlari orasida yetakchi o‘rinda turadi. Mayjud avtomobil yo‘llari respublika hududi orqali Qirg‘iziston, Turkmaniston, Tojikiston, Afg‘oniston, ular orqali esa Pokiston, Hindiston, Eron, Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari yo‘llariga tranzit yuk va yo‘lovchilarning uzlusiz o‘tishini ta’minlaydi.

Bizning tashqi savdoga chiqadigan yuklarimizning 80 foizi Qozog‘iston, Qirg‘iz Respublikasi va Rossiyaning tranzit yo‘lklari orqali o‘tadi. Shuningdek, tayyor mahsulotlarimiz eksportining 50 foizi, ayrim tovarlar bo‘yicha esa 80 foizi Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston hissasiga to‘g‘ri keladi. Ana shu omillarni inobatga olib hamda Rossiya va Qozog‘istonga ishlash uchun borgan fuqarolarimizga qulay shart-sharoit yaratish maqsadida, bugungi kunda O‘zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan hamkorlik qilish bilan bog‘liq masalalar o‘rganilmoqda.¹⁵⁶

¹⁵⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <http://www.president.uz/uz/list/>

O‘zbekiston, Afg‘oniston va Pokiston mamlakatlari o‘rtasida “Asr loyihasi” deb atalayotgan yirik loyiha, ya’ni “Mozori Sharif – Kobul – Peshovar” temiryo‘li loyihasini amalga oshirish XXI asrda Yuqoridagi uch mamlakat uchun “yangi davr va eng muhim voqeа” bo‘ladi. Ushbu loyiha yuzasidan hukumatlar o‘rtasida O‘zbekiston, Afg‘oniston va Pokiston davlat rasmiylari o‘rtasida 2021-yilning boshida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda “Mozori Sharif – Kobul – Peshovar” temiryo‘li qurilishi bo‘yicha qo‘shma harakatlar rejasi (“yo‘l xaritasi”) tasdiqlandi. Mazkur transport yo‘lagi milliy iqtisodiyot va mintaqalararo savdoning ravnaqi uchun yangi turtki beradi, shuningdek Afg‘oniston va Pokistonning Markaziy Osiyo, MDH va Sharqiy Yevropa bozorlariga chiqish imkoniyatlarini to‘liq ochib beradi. Markaziy Osiyo mamlakatlari Afg‘oniston va Pokiston orqali dengiz portlariga eng qisqa vaqt ichida chiqish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bu temiryo‘l transport xarajatlarini 30–35 foizga, tashish vaqtini esa o‘rtacha 15–16 kunga kamaytiradi.

Ushbu Pokiston shimoli bilan bog‘laydigan Mozori Sharif – Kobul – Peshavor temiryo‘li qurilishi va uning uzunligi 573 kilometr bo‘lib, loyiha uchun umumiy 4,8 milliard dollar kredit jalb qilinadi. Temiryo‘l qurilishini moliyalashtirish uchun O‘zbekiston, Afg‘oniston va Pokiston rahbarlari nomidan qo‘shma murojaat asosida AQSH Xalqaro taraqqiyot moliya korporatsiyasining va boshqa xalqaro moliya institutlari mablag‘lari jalb etilishi ko‘zda tutilgan. Loyiha uchun tegishli hujjatlarni tayyorlash 2021-yil iyungacha yakunlanadi. Temiryo‘l qurilishi 2022-yilning sentabr oyida boshlanishi rejalash-tirilgan.

O‘zbekiston milliy aviakompaniyasi Boing - 747, A-310, Il-86, “Drim Layner” va boshqa shu kabi zamonaviy havo laynerlariga ega bo‘lib, MDHning bir necha o‘nlab yirik shaharlari va jahonning 30 dan ortiq davlatlarining yirik shaharlari, xususan: AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Italiya, Gretsiya, Chexiya, Shvetsariya, Hindiston, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Isroil, Janubiy Koreya, Singapur, Tailand, va boshqa o‘nlab davlatlar bilan bevosita havo yo‘llari orqali bog‘langan. Xorijiy aviakompaniyalarning ham o‘nlab aviaqatnovlari Toshkent shahridan xalqaro tranzit yo‘li sifatida foydalanmoqda. Samarqand, Buxoro, Urganch, Namangan, Andijon va Farg‘ona shaharlaridan ham dunyoning turli shaharlariiga aviaqatnovlar yo‘lga

qo‘yilgan. Albatta, havo yo‘llari transportining yanada rivojlanishi mamlakatimizga xorijiy mamlakatlarning sayyoohlar oqimini ko‘payishiga olib keladi.

2020-yilda Butunjahon qonun va tartib indeksiga ko‘ra, O‘zbekiston dunyoda xavfsizlik darajasi bo‘yicha yetakchi to‘qqiz mamlakat safidan o‘rin oldi, ya’ni O‘zbekiston dunyoning eng xavfsiz o‘n mamlakatidan biri bo‘ldi. Ushbu tahlil nufuzli “Gallup’s” Amerika jamoatchilik fikrini o‘rganish instituti tomonidan amalgalashirilgan bo‘lib, unga ko‘ra xavfsizlik bo‘yicha birinchi to‘qqizlikda O‘zbekistondan tashqari Singapur, Turkmaniston, Xitoy, Islandiya, Quvayt, Norvegiya, Avstriya va Shvetsiya kabi mamlakatlar ham bor. Reytingning eng quyi pog‘onasidan Afg‘oniston joy olgan. Demak, bundan ko‘rinib turibdiki avvalari xorijiy sayyoohlarni O‘zbekistonga kelishi uchun ularda “qo‘rquv” bo‘lgan bo‘lsa, endilikda barcha jahon mamlakatlarining sayyoohlari uchun xafvsiz mamlakat ekanligi xalqaro tashkilot tomonidan kafolatlandi.

Xalqaro turizmni rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlarga ega. Respublika hududida 4 mingdan ortiq me’morlik yodgorliklari mavjud. Ularning ko‘plarini YUNESKO o‘z muhofazasiga olgan.

Albatta, mamlakatimizning iqtisodiy salohiyati va imkoniyatini jahon investorlari yuqori baholamoqda. Nega dunyo brendlari Markaziy Osiyodan O‘zbekistonni tanlamoqda, masalan YaIM miqdori mamlakatimizga nisbatan yuqori bo‘lgan Qozog‘istonni emas? Dunyoga mashhur Nike, ADIDAS, Apple brendlari, shuningdek, kiyim-kechak va uy-ro‘zg‘or buyumlarini chakana sotish bo‘yicha yetakchi INDITEX kabi dunyo brendlari o‘zining ishlab chiqarish korxonalarini O‘zbekistonda ochmoqda. 2020-yili bir qator jahonga mashhur kompaniyalar ishlab chiqarishni kengaytirish uchun O‘zbekistonni tanladi. So‘nggi bir yarim yil ichida esa bir nechta yirik korporatsiyalar O‘zbekistonda rasmiy ravishda soliq to‘lovchi sifatida ro‘yxatdan o‘tdi. Bular: Netflix, Google Commerce, Google Ireland, Google Voice, Samsung Electronics, Sleverbridge, Activision Blizzard International, “Nike World Headquarters”, “ADIDAS AG”, “Converse va Jordan” kabi brendlariiga egalik qiluvchi yirik kompaniyalarni misol qilish mumkin. Pandemiyaga qaramasdan, 2020-yilda jahon iqtisodiyotida rekord darajada foyda qilgan Apple kompaniyasi ham mamlakatimiz bilan hamkorlik qilish maqsadida o‘z imkoniyatlarini

ko‘rib chiqmoqda.

2021 yilda O‘zbekiston Saudiyaning “ACWA Power” kompaniyasi bilan shamol energetikasi loyihasini amalga oshirish to‘g’risida bitim imzoladi va mazkur loyiha Qoraqalpog’istonda 1500 megavatt quvvatga ega shamol energetikasini loyihalashtirish, qurish va ekspluatatsiya qilishni o‘z ichiga oladi. Mazkur inshoot ishga tushganidan so‘ng dunyodagi eng yirik shamol elektr stantsiyasiga aylanishi kutilmoqda.

O‘zbekistonda jami Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotiga ko‘ra, 2021-yil 1-mart holatiga mamlakatimizda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining soni 12 069 tani tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma’lumotiga ko‘ra, 2021-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekistonning tashqi qarzi 33,8 mlrd. dollarni tashkil qilgan: bundan davlat qarzi 21,3 mlrd. dollarni tashkil etsa, xususiy tashqi qarz esa 12,5 mlrd. dollarni tashkil qilgan. Yangi qarzlarining jalb qilinishi pandemiya oqibatida yuzaga kelgan inqirozning ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirini yumshatish uchun hamda hududlar va iqtisodiyt tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlarini moliyalashtirish uchun sarflandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2020-yilning 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida, “O‘zbekistonning davlat tashqi qarzi Jahon banki va XVF mezonlariga ko‘ra xavfsiz hisoblanadi”, deb ta’kidlab o‘tgan¹⁵⁷.

O‘zbekiston Respublikasining asosiy kreditorlari Xitoy Eksimbanki, Xitoy davlat taraqqiyot banki, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi va tashkiloti va boshqa mamlakatlarning xorijiy hukumat moliya tashkilotlari hissasiga to‘g’ri kelib, asosan turli investitsion dasturlarni Hukumat kafolatlari ostida moliyalashtirilishi uchun qarz mablag‘lari jalb etilgan. Kreditorlar oldidagi qarzdorlik bo‘yicha xarajatlar davlat korxonalarini tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirish natijasida tushgan mablag‘lar hisobidan so‘ndiriladi.

¹⁵⁷ 2020 yil 29 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://review.uz/uz/post/poslanie-prezidenta-uzbekistana-shavkata-mirziyoyeva-oliy-majlisu>

Jahondagi nufuzli “QS Quacquarelli Symonds” oliv ta’lim sohasidagi analitik agentligi 2021-yildagi Yevropa va Markaziy Osiyodagi rivojlanayotgan mamlakatlarning eng yaxshi universitetlari ro‘yxatini e’lon qildi. Reytingda mintaqaning 400 ta eng yaxshi universiteti, shu jumladan O‘zbekistonning to‘rtta oliv o‘quv yurtlari mavjud. O‘zbekiston nomidan ushbu ro‘yxatga Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti (birinchi marta 2019-yili reytingga kiritilgan), Mirzo Ulug‘bek nomidagi Milliy universiteti, Samarqand davlat universiteti va Toshkent davlat texnika universitetlari ushbu reytingdan joy olishgan.

Shunday qilib, 2016-yildan O‘zbekiston hukumati tomonidan “Yangi O‘zbekiston – yangi iqtisodiyot” shiori ostida ko‘plab samarali iqtisodiy dasturlar va chora-tadbirlar amalga oshirildi. Amalga oshirilgan islohotlar natijasida milliy iqtisodiyotimizda katta tarkibiy o‘zgarishlar yuzaga keldi va jahon investorlari uchun qulay imkoniyatlar tug‘ildi. Ichki iqtisodiyotni raqobatga ochish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

- hyokimiyat narxlarni nazorat qilishni bekor qildi;
- chet el valutasini sotib olishdagi cheklovlar olib tashlandi;
- qishloq xo‘jaligi va yer islohotlari amalga oshirildi;
- sud tizimini qayta qurish jarayoni boshlandi.

2020-yilning 23-dekabr kuni O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida Mamlakatimizda investitsiyalar va tashqi savdo sohasidagi ishlar natijadorligi hamda 2021-yilga mo‘ljallangan asosiy vazifalar muhokamasi bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishda, 2020-yilda 6,6 mlrd.dollar to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy sarmoyalar o‘zlashtirilganligini ta’kidlab o‘tgan. Shuningdek, davlat rahbari 2021-yil ham iqtisodiyot uchun oson bo‘lmasligini, shu bois investitsiyalar jalb qilish, o‘zlashtirish va eksport prognozlarini ta’minlash, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish uchun hozirdanoq aniq, manzilli choralar ko‘rish zarurligini ta’kidladi.

Shunga ko‘ra, 2021-yilda 7,5 mlrd.dollardan ziyod to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni o‘zlashtirish maqsad qilingan bo‘lib, ushbu mablag‘ni har bir loyiha bo‘yicha to‘liq va muddatida o‘zlashtirish chora-tadbirlari belgilandi. Bunday sarmoyalar hisobiga 226 ta yirik loyihami o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish bo‘yicha aniq choralarни ko‘rish rejulashtirilgan. Shuningdek, 69 ta istiqbolli

yangi sanoat loyihasini sifatli amalga oshirib, iqtisodiyot o'sishiga qo'shimcha zaxira yaratish vazifasi qo'yildi. Bunda asosiy drayver sohalar bo'lgan kimyo, energetika, mashinasozlik, geologiya, elektrotexnika, farmatsevtika va yengil sanoat tarmoqlariga alohida e'tibor qaratiladi.

2021-yil 1-yanvardan boshlab xalqaro moliya institutlari kredit mablag'lari hisobiga amalga oshiriladigan loyihalar bo'yicha yangi tizim joriy etish, har bir loyihada belgilangan mablag'larni samarali o'zlashtirish va natijadorligini ta'minlash maqsadida "Loyiha ofislari" rahbar va xodimlarning malakasini oshirish va ularni o'qitish muhimligi ta'kidlab o'tildi. Shuningdek, 2021-yilda eksport hajmi 17 mlrd. dollar atrofida bo'lishi prognoz qilinmoqda.

27.2. O'zbekiston milliy iqtisodiyotini taraqqiyotida xalqaro moliya tashkilotlarining o'rni

O'zbekistonning turli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarining rivojlantirilishi uning jahon xo'jaligi integratsiyasida samarali ishtirok etishini ta'minlaydi. Bunday xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik o'tish davri muammolarini hal etishni, shuningdek, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor xo'jaligini shakllantirishni yengillashtiradi. Albatta, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini keng ko'lamda rivojlantirilsa, ulardan kredit mablag'larini olishda, bevosita xorijiy investitsiyalarni jalg qilishda, mahsulotlarni jahon bozorlariga chiqarishda katta yordam beradi.

Bugungi kunga kelib O'zbekiston jahondagi 30 dan ortiq obro' va nufuzga ega bo'lgan iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlarning to'laqonli a'zosi bo'ldi. Bularning qatoriga Jahon Banki guruhiga kiruvchi tashkilotlar, shuningdek, Xalqaro moliya korporatsiyasi, XVF, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot Banki, Islom taraqqiyot banki, Butunjahon bojxona tashkiloti, Butunjahon turizm tashkiloti, Paxta bo'yicha xalqaro konsultativ komiteti va boshqa ko'plab tashkilotlarga a'zo bo'ldi. Respublika hozirgi kunda JSTga a'zo bo'lish uchun bir qator ishlarni amalga oshirmoqda.

Jahon Banki bilan hamkorlik. 1992-yil sentabrda O'zbekiston Respublikasi Jahon bankiga (JB) a'zo bo'ldi. 1992-yil sentabrdan Toshkent shaxrida Jahon bankining vakolatxonasi ochildi. O'zbekiston Respublikasiga qarzlar quyidagi shartlar asosida berilmoqda:

- qaytarilish muddati 20 yil
- imtiyozlar davri 5 yil
- foiz stavkasi suzib yuruvchi va har yili aniqlanadigan.

Bank strategiyasi bosqichma-bosqich rivojlanishda hukumat islohotlarini qo'llab-quvvatlash va tatbiq etish maqsadida maslahatlar berish, shuningdek, texnik-moliyaviy yordam ko'rsatishni o'z ichiga oladi. JB kreditlarni asosan qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun suv ta'minoti va sanitariya irrigatsiya tizimi, drenajni qo'llashga va boshqa yo'naliishlarga ajratadi.

JBning O'zbekistonga berayotgan yordamining asosiy maqsadi:

- valuta va savdo tartibini liberallashtirish masalasida siyosiy-iqtisodiy holatni takomillashtirish va davlat boshqaruvi samarasini oshirish;
- xususiy sektor va to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish;
- ijtimoiy infratuzilmadagi davlat resurslarini qo'llash va taqsimlashdagi samaradorlikni oshirish kabilarni o'z ichiga oladi.

2020-yilda pandemiya sharoitida JB tomonidan O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlarni va taraqqiyot siyosatini qo'llab-quvvatlash doirasida 500 mln.dollar mablag' ajratdi. Ushbu kredit mablag'i O'zbekiston hukumatiga COVID-19 pandemiyasining salbiy ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini yumshatish, shuningdek, 2017-2021-yillarda Harakatlar strategiyasida belgilangan islohotlarni amalga oshirish ishlari uchun qo'llab-quvvatlanadi. Hukumatning taraqqiyot siyosatini qo'llab-quvvatlash operatsiyasi bilan o'tkazadigan islohotlari qatoridan davlat banklari tomonidan davlat korxonalariga subsidiyalashtirilgan kredit mablag'lari ajratilishini qisqartirish, pandemiya davrida fuqarolarga ijtimoiy yordam ko'rsatishni kengaytirish kabi talablar o'rinni olgan.

Umuman olganda JB bugungi kunda O'zbekiston bo'ylab 25 ta loyihaning amalga oshirilishini qo'llab-quvvatlamoqda. Uning moliyaviy va texnik yordami makroiqtisodiy islohotlar, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, ta'lim, suv va kanalizatsiya, energetika, transport, shahar va qishloq infratuzilmasini rivojlantirish kabi sohalarda qo'llanilib kelmoqda¹⁵⁸.

¹⁵⁸ <https://www.vsemirnyjbank.org/ru/news/press-release/2020/12/16/additional-support-from-the-world-bank-to-help-sustain-economic-and-social-reforms-in-uzbekistan>

Shuningdek, 2020-yilning oktabr oyida Jahon banki tomonidan “O‘zbekistonda milliy innovatsion tizimni modernizatsiya qilish” loyihasini amalga oshirish uchun 50 mln.dollar miqdorida mablag‘ ajratilishini ma’lum qilgan.

Bundan tashqari, JB, Masdar kompaniyasi (BAA) va Osiyo taraqqiyot banki hamkorligida 100 MVt kuchga ega bo‘lgan O‘zbekistonagi ilk quyosh elektrostansiyasini moliyalashtirish bo‘yicha kredit va sug‘urta shartnomalarini imzoladi. Stansiya O‘zbekistonda xususiy kompaniya tomonidan quriladi va boshqariladigan energetika sohasidagi ilk katta masshtabli obyektga aylanadi. Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC, Jahon bankining tarkibiga kiradi) va OTB loyihani moliyalashtirish uchun 60 mln.dollargacha, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki esa Masdar kompaniyasiga aksiyadorlik jamiyatini moliyalashtirish uchun 5,1 mln.dollarlik qisqa muddatli kredit mablag‘i ajratilishi rejlashtirildi.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorlik. O‘zbekiston 1992-yil apreldan ETTB ga a’zo bo‘ldi va qariyb 30 yildan buyon ETTB tomonidan O‘zbekiston xususiy sektorini rivojlantirish va kengaytirish; tabiiy resurslarni o‘zlashtirish; energetika sektorini, kichik va o‘rta korxonalarni, paxtani qayta ishslash va boshqa yengil sanoatni, turizm infrastrukturasi ni rivojlantirish kabi sohalardagi yo‘nalishlarda hamkorlik olib borilmoqda. Amalga oshirilgan va oshirilayotgan loyihalar kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish maqsadida 3 ta kredit liniyasi Asaka bankini xususiylashtirish (ETTB aksionerlarining 20 foizi garovi asosida), Sirdaryo GRESni 5 va 6 energiya bloklarini qayta tiklashning ikki fazasi; “O‘zbektelekom” AKni 7 foiz aksiyasi to‘lovi asosida xususiylashtirish; kompyuter va axborot texnologiyasini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash uchun jamg‘arma kabilarni kiritish mumkin.

Xalqaro valuta fondi bilan hamkorlik. O‘zbekiston 1992-yil sentabr oyidan boshlab, XVFga a’zo bo‘lib kelmoqda. XVF O‘zbekistonga eng birinchi iqtisodiy yordami 1995-yilda bo‘lib, unda mamlakat boshqaruvi tomonidan qabul qilingan dastur asosida “birinchi transh” 72,4 mln.dollar miqdorida transh mablag‘larini bergen edi. Shuningdek, undan keyingi yillarda milliy valutani qo‘llab-quvvatlash maqsadiga “ikkinchi transh” berildi. Berilgan mablag‘lar bo‘yicha foiz stavka suzib yuruvchi hisoblanadi. Qarzni to‘lash

muddati 5,5 yilni tashkil etgan edi. 1995-yilda XVF O‘zbekiston Respublikasiga “Stend Bay” kreditini berdi. Bu mablag‘lar iqtisodiy islohotlarni davlat tomonidan 1995-1996-yillarda qo‘llab-quvvatlanishi uchun ko‘zlangan.

2000-2001-yil davlat tomonidan valuta siyosatini tartibga solish uchun qo‘llash chora-tadbirlarini hisobga olgan holda, 2001-yil avgustda O‘zbekiston Respublikasi va XVF o‘rtasida moliyaviy va iqtisodiy siyosat to‘g‘risida memorandum qabul qilindi. Memorandum asosida O‘zbekiston va XVF vakillari hamkorligida makroiqtisodiy va strukturaviy siyosatning asosi ishlab chiqildi. 2002-yil XVF monitoring dasturi asosida bir qancha vazifalar bajarildi. Bundan asosiy maqsad iqtisodiy islohotlarni rivojlanтирishda kredit va soliq budjet siyosatini qattiq saqlagan holda valuta rejimini tartibga solish bo‘ldi. XVFning iqtisodiy ko‘maklari bugungi kungacha davom etmoqda va uning hamkorligi mamlakatimizning milliy iqtisodiyotini rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlik. Islom taraqqiyot banki (ITB) direktorlar kengashi 2020-yilning 19-dekabr kuni O‘zbekistonda umumiyligi qiymati 509,2 mln.dollarga teng bo‘lgan ikkita yirik va iqtisodiy jihatdan ahamiyatli loyihani moliyalashtirishni ma’lum qilgan. Unga ko‘ra, 200 mln.dollarlik birinchi loyiha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, shuningdek, Xorazm, Buxoro va Navoiy viloyatlarida bir qator infratuzilmaviy hamda ijtimoiy obyektlarni modernizatsiya qilishni ko‘zda tutadi. Loyerha doirasida 1161 km. masofadagi suv ta’mnoti tizimlari, 626 km. masofadagi mavze ichidagi va mavzega olib boruvchi yo‘llar, 1154 km. uzunlikdagi past kuchlanishli elektr liniyalari, 693 km. masofadagi irrigatsiya va drenaj tarmoqlari, 155 ta o‘quv, tibbiy va 100 dan ortiq boshqa inshootlarni qurish hamda rekonstruksiya qilish kabi loyihalarni o‘z ichiga olgan. Loyihaning amalga oshirilishi natijasida 710 mingdan ortiq kishining turmush sharoitini yaxshilash bilan birga, ushbu hududlarning barqaror rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Ushbu bank tomonidan 80 mln.dollar ajratilayotgan ikkinchi loyiha mahalliy klinikalarini zamonaliv tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlash ko‘zda tutilgan. Shuningdek, ITB O‘zbekistonda islom moliyalashtirish tamoyillari asosida qimmatli qog‘ozlar joriy etilishi, O‘zbekistonning Jahon musulmon turizmi reytingidagi o‘rnini yanada

yaxshilash choralarini ko‘rilishi hamda Islom taraqqiyot banki O‘zbekistonning yangi klinikalarni jihozlashga 17 mln.dollar kredit mablag‘ini yo‘naltirgan.

27.3. O‘zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotida Osiyo taraqqiyoti bankining o‘rni va iqtisodiy hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari

Mamlakatimiz milliy iqtisodiyotida xalqaro moliya tashkilotlarning iqtisodiy yordami va hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Osiyo taraqqiyoti banki (OTB) bilan iqtisodiy hamkorligimiz nisbatan boshqa moliya tashkilotlari bilan hamkorliklarga qaraganda yaqqol ajralib turadi va OTB bilan iqtisodiyotimizning turli sohalarda hamkorlik yil sayin tobora rivojlanib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi 1995-yil avgustda OTBning to‘laqonli a’zosi bo‘ldi. OTB bilan o‘zaro moliyaviy va texnik hamkorlik maqsadida, shuningdek OTBga taqdim etilishi mumkin bo‘lgan investitsiyaviy loyihalarni tayyorlash ishlarini mo‘ljallashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1996-yil 16-yanvardagi 27-sonli farmoyishi bilan OTB bilan hamkorlik uchun idora tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi OTB bilan iqtisodiy va moliyaviy aloqalarda mas’ul hisoblanadi. OTB mamlakatimizning hukumati bilan kelishgan holda bank tomonidan kelgusida takomillashtirish uchun ba’zi iqtisodiyot sektorlari aniqlangan: qishloq xo‘jaligi, transport va kommunikatsiya, ijtimoiy infrastruktura va boshqa sohalar.

So‘nggi yillarda mamlakatimiz milliy iqtisodiyotini tarkibiy o‘zgartirish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir loyihalarni amalga oshirish uchun investitsiyalarni jalg qilish borasida bajarilayotgan ishlar alohida e’tiborga loyiq. Albatta, bu amalga oshirilayotgan ulkan ishlar o‘z-o‘zidan bo‘layotgani yo‘q. Birgina pandemiya sharoitida 2020-yilning o‘zida qator loyihalarni amalga oshirilishi uchun OTB bilan kelishuvga erishildi.

Masalan, OTB O‘zbekistonga “Barqaror gidroenergetika” loyihasi doirasida 60 mln.dollar, milliy yo‘llar tarmog‘ining muhim nuqtalarida

xavfsizlikni oshirishga 274,2 mln.dollar, elektr energetika sohasidagi islohotlarni amalga oshirish uchun 200 mln.dollar, sog‘liqni saqlash tizimi va sanitariya-epidemiologiya xizmatini modernizatsiya qilish hamda uni jihozlash uchun 100 mln.dollar, koronavirus pandemiyasining iqtisodiyotga salbiy ta’sirini kamaytirish uchun 500 mln.dollar kredit ajratdi.

Bundan tashqari, 2020-yilda OTB Farg‘ona vodiysidagi temiryo‘llarni modernizatsiya qilish uchun 121 mln.dollar ajratdi. Bu ajratilgan mablag‘ mintaqadagi iqtisodiy o‘sishni rivojlantirishga, savdo-sotiq va mintaqaviy aloqalarini yaxshilashga yordam beradi. Kredit Farg‘ona vodiysidagi Pop, Namangan va Andijon o‘rtasida 145,1 kilometr temiryo‘l aloqalarini elektrlashtirishga yordam berish uchun OTB tomonidan 2017-yilda tasdiqlangan 80 million dollarlik mablag‘ni to‘ldiradi. Farg‘ona vodiysidagi temiryo‘l tarmog‘ining modernizatsiya qilinishi odamlarning sog‘liqni saqlash, ta’lim olish va ish bilan ta’minlanish imkoniyatlarini yaxshilanishiga o‘z hissasini qo‘sadi.

Pandemiya sharoitiga qaramasdan O‘zbekistonning qo‘suni Afg‘oniston bilan iqtisodiy hamkorliklari turli sohalarda keng ko‘lamda rivojlanib bormoqda. 2020-yilning so‘nggiga kelib, OTB Afg‘onistonda O‘zbekiston tomonidan elektr uzatish liniyalarini qurilish loyihasi uchun 110 mln dollar miqdorida mablag‘ ajratdi. Ushbu loyihaga asosan, Afg‘oniston hududida yuz berayotgan siyosiy inqirozga qaramasdan Kobul shahrida O‘zbekiston delegatsiyasi ishtirokida Afg‘oniston va OTB banki o‘rtasida 110 mln.dollar mablag‘ ajratishni nazarda tutuvchi “Surxon – Puli-Xumri” elektr uzatish liniyasi qurish loyihasini moliyalashtirish to‘g‘risida bitim imzolandi. Mablag‘larning asosiy qismi tashkilotning o‘zbek pudratchilari tomonidan qurilish ishlariga yo‘naltiriladi.

Umuman olganda 2019-yilning sentabrida mamlakatimizning “Milliy elektr tarmoqlari” korxonasi Afg‘onistonning “Da Afghanistan Breshna Sherkat” kompaniyasi bilan 10 yillik muddatga mo‘ljallangan “Ol va to‘la” sharti asosidagi kontraktni imzolagan edi. Ushbu tamoyil OTBning loyihani moliyalashtirishdagi asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Unga ko‘ra, agar Afg‘onistonning Surxondaryodan olayotgan elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyoji tugasa, mamlakat baribir shartnomaga bo‘yicha to‘lash majburiyatini zimmasiga oladi.

2018-yilda “O‘zbekenergo” (hozirgi O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi) Afg‘onistonga elektr energiyasini yetkazib berishni ko‘paytirish maqsadida “Surxon – Puli-Xumri” elektr uzatish liniyasini qurishga kirishgan bo‘lib, unda 260 km. uzunlikdagi tarmoq Afg‘onistonga elektr energiyasini yetkazib berishini 70 foizga va yiliga 6 mld. kilovatt soatgacha ko‘paytirish imkonini beradi.

27.4. O‘zbekistonning jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuvi va xalqaro tashkilotlar bilan iqtisodiy hamkorligining o‘rni

2020-yil O‘zbekistonning jahon xo‘jaligi arenasida va tashqi iqtisodiy siyosatida muhim voqealarga boy bo‘ldi. 2020-yilda ro‘y bergen muhim voqealardan biri sifatida O‘zbekistonning 2021-2023-yillar mobaynida BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashiga a’zo bo‘lishi juda muhim ahamiyat kasb etdi.

2020-yilning sentabrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 75 yillik yubileyida o‘zbek tilida nutq so‘zлади. У о‘з nutqida:

- pandemiya davrida davlatlarning ixtiyoriy majburiyatları to‘g‘risidagi xalqaro kodeksni ishlab chiqish;
- Afg‘onistonni Markaziy Osiyoning ajralmas qismi sifatida qabul qilish;
- BMT shafeligida Transport-kommunikatsiya aloqalarini rivojlantirish mintaqaviy markazini ochish;
- 2021-yilda YUNESKO bilan hamkorlikda qadimiy Xiva shahrida „Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyalari chorrahasida“ mavzusida xalqaro forumni o‘tkazish kabi taklif va tashabbuslarni ilgari surdi¹⁵⁹. Oliy minbardan turib ilgari surgan global va mintaqaviy tashabbuslarimiz dunyo hamjamiyati tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilindi.

O‘zbekistonning 2020-yilda MDHga raislik qilishi tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi. 2020-yilning 10-noyabrida o‘tkazilgan ShHTning 20-Sammiti onlayn formatda Rossiya Federatsiyasi raisligida o‘tkazilgan bo‘lib, barcha a’zo mamlakatlar o‘z nutqilarida asosiy urg‘uni ShHT doirasidagi siyosiy yo‘nalishlarga e’tibor berishgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev

¹⁵⁹ <https://www.gazeta.uz/uz/2020/09/23/bmt/>

o‘z ishtirokidagi nutqida bir qator tashabbuslar va g‘oyalarni ilgari surdi. Xususan, iqtisodiy sohada:

- inqirozga hamjihatlikda qarshi kurash;
- oziq-ovqat xavsizligini ta’minlash;
- sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish;
- raqamli iqtisodiyotga o‘tish kabilarni o‘z ichiga oldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev o‘z ma’ruzalarida ShHT uchun yangi ustuvor vazifa kambag‘allikka qarshi kurashishishga; yuqumli kasalliklarga qarshi kurash global masala ekanligi; ShHTni yangi vazifa va tahdidlarni hal qilishga moslashtirish; xavfsizlikka mas’ul idoralarining muloqotlari mexanizmlarini ishlab chiqish; axborot makonidagi xatar va tahdidlarga qarshi kurashish borasidagi qo‘shma chora-tadbirlarni kelishish; “ShHT-Afg‘oniston” muloqot guruhi doirasida Afg‘onistonning ijtimoiy-iqtisodiy tiklanishiga ko‘maklashish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish hamda 2021-yilning aprel oyida Toshkentda “Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o‘zaro bog‘liqlik. Xatarlar va imkoniyatlar” mavzusida xalqaro konferensiyasini o‘tkazish tashabbusi bilan chiqdi.

Bundan tashqari, 2021-yil 15-iyunda ShHT tashkil topganiga 20 yil to‘lishi munosabati bilan “ShHTning zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi roli” mavzusidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish taklifi berildi. Ushbu xalqaro konferensiyalarni Toshkent shahrida o‘tkazilishi taklif qilindi. Shunday qilib ShHT yangi taraqqiyot bosqichiga chiqdi. ShHT Sammitida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan bildirilgan tashabbus va takliflarni ShHT a’zo rahbarlari bilan birgalikda BMTning Bosh kotibi Antoniu Guterrish ham yuksak baholadi va qo‘llab-quvvatladi.

2020-yilning 18 dekabrida O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev raisligida MDH davlat rahbarlari ishtirokida onlayn Sammiti bo‘lib o‘tdi. Sammitda Belarus, Moldova, Ozarbayjon, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va O‘zbekiston davlat rahbarlari ishtirok etdi. Kun tartibiga muvofiq MDH doirasidagi ko‘p qirrali hamkorlikning holati va ustuvor yo‘nalishlari ko‘rib chiqildi, sheriklik munosabatlarini mustahkamlash bo‘yicha birgalikdagi rejalar belgilab olindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti o‘z nutqida O‘zbekiston shu yil MDHga raislik qilishdek sharaflı va mas’uliyatlı

vazifani ilk bor o‘z zimmasiga olganini ta’kidladi.

Shuningdek, yurtboshimiz tomonidan MDHning ulkan salohiyatidan foydalanish, sa’y-harakatlarni birlashtirish, o‘zaro ishonch va hamkorlikni yanada mustahkamlash, koronavirus pandemiyasi oqibatida kelib chiqqan inqirozdan tez fursatlarda chiqishning maqbul yo‘llarini topish uchun xizmat qilishiga ishonch bildirdi. Tashkilot doirasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirishga doir qator takliflarni ilgari surdi.

O‘zbekiston MDH doirasidagi hamkorlikning sifat jihatidan yangi bosqichiga izchil o‘tish, sheriklik mexanizmlari va qabul qilingan hujjatlar ijrosi samaradorligini oshirish tarafdir. Xususan, bugungi sharoitda mamlakatlar iqtisodiyotlari, savdo va kooperatsiya aloqalarini jadal sur’atlarda qayta tiklash ustuvor vazifa ekani ta’kidlandi. Mayjud muammolarga qaramay, O‘zbekistonning MDHga a’zo mamlakatlar bilan tovar ayriboshlashi barqaror o‘sib borayotgani kuzatilmogda. Hamdo‘stlik doirasida “yashil” va soddalashtirilgan yo‘lklar amaliyotini keng joriy etish, elektron savdoni rivojlantirish bo‘yicha yagona platformani ishga tushirish va “yo‘l xaritasi”ni qabul qilish muhimligi qayd etildi.

O‘zbekiston rahbari sanoat kooperatsiyasi bo‘yicha kompleks dastur ishlab chiqish zarurligini qayd etdi. Bunda agrosanoat, mashinasozlik, elekrotexnika, yengil va oziq-ovqat sanoati, farmatsevtika va boshqa ustuvor tarmoqlarda qo‘shma klasterlar tashkil etish nazarda tutiladi. Ushbu dastur hamda innovatsion loyihalar va ilg‘or texnologiyalar taqdimotini “MDH mamlakatlari sanoat kooperatsiyasi forumi” doirasida o‘tkazish taklif etildi.

Transport yo‘lklari raqobatbardoshligini oshirish, texnik reglament va standartlarni uyg‘unlashtirish, o‘zaro kelishilgan tarif siyosatini amalga oshirish va preferensiyalarni o‘zaro taqdim etish transport sohasidagi muhim vazifalar sifatida belgilandi. “O‘zbekiston barcha sanitariya talablariga rioya etgan holda o‘zaro aviaqatnovlarni imkon qadar tez fursatda qayta yo‘lga qo‘yish tarafdir. Bu ishbilarmonlik, gumanitar va sayyohlik almashinuvlarini tiklashga xizmat qiladi”¹⁶⁰, – deya ta’kidladi Prezident Sh.Mirziyoyev.

MDH mamlakatlarining Hamdo‘stlik davlatlarida mehnat

¹⁶⁰ <https://president.uz/uz/lists/view/4024>

faoliyatini olib borayotgan fuqarolarini ijtimoiy va huquqiy himoya qilish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu munosabat bilan O‘zbekiston rahbari mehnat migrantlari hujjatlarini o‘zaro tan olishning yagona mexanizmini yaratish va bu sohada alohida dastur qabul qilish vaqt kelganini qayd etdi. Bugungi kunda sanitariya-epidemiologik tusdagagi favqulodda vaziyatlarni monitoring qilish va ularga barvaqt javob qaytarishning samarali tizimini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu munosabat bilan MDH doirasidagi tegishli kelishuvni tayyorlash ishlari tezlashtiriladi. Kasallikkarni profilaktika qilish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish maqsadida har yili ommaviy sport va madaniy tadbirlarni tashkil etgan holda “MDH salomatlik marafoni”ni o‘tkazish taklif etildi.

MDH ijodiy va fan ziyorolarining navbatdagagi forumi doirasida O‘zbekistonda “Hamdo‘stlik mamlakatlari madaniy merosi” konferensiyasini o‘tkazish g‘oyasi ilgari surildi. Bu an’anaviy yaqin bo‘lgan gumanitar aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. MDH makonidagi xavfsizlikka tahdid solayotgan xatarlar to‘g‘risida so‘z yuritilar ekan, Afg‘onistonda yo‘lga qo‘yilayotgan tinchlik jarayonini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash muhim ekani qayd etildi. “Ushbu mamlakatning tinchligi butun Hamdo‘stlik makonida xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlashning muhim omilidir. Bu, shuningdek, davlatlarimizning Janubiy Osiyo bilan savdo-iqtisodiy hamkorligini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar degani”, – deya ta‘kidladi Prezident Sh.Mirziyoyev¹⁶¹.

O‘zbekistonning jahon xo‘jaligiga integratsiyasi o‘zining yangi bosqichga chiqqanligini Yuqoridagi keltirilgan tahlillardan ko‘rib chiqdik. Va, eng asosiysi, yaqin istiqbol yillarda mamlakatimizni Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lishidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2021-yilning fevral oyida JST bosh direktori Ngozi Okonjo-Ivealaga lavozimiga tayinlangani munosabati bilan yo‘llagan tabrigida, yangi bosh direktor rahbarligida ushbu tashkilotning o‘rni va nufuzini oshirish borasidagi samarali islohotlar amalga oshirilishi hamda global inqirozni bartaraf etish va xalqaro savdo munosabatlari tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha ta’sirchan choralar ko‘rilishiga ishonch bildirib, O‘zbekistonning tez fursatda JSTga a’zo bo‘lishi masalasida yaqindan

¹⁶¹ <https://president.uz/uz/lists/view/4024>

hamkorlikni davom ettirish muhim ekanini alohida ta'kidlab o'tdi.

27.5. Yevroosyo iqtisodiy ittifoqi va O'zbekistonning unga a'zo bo'lish imkoniyatlari va istiqbollari

Ma'lumki O'zbekistonning Yevroosyo iqtisodiy ittifoqiga (YOII) a'zo bo'lib kirishi haqidagi savol qariyb bir necha yillar davomida mamlakatimizning siyosiy va iqtisodiy sohasida faoliyat ko'rsatib kelayotgan ekspertlar, olimlar va turli soha vakillari va mutaxassislari o'rtasida turli xil fikr va mushohadalarga boy bo'ldi. Ayniqsa, so'nggi 2 yil davomida kun tartibidan o'rin olgan ushbu savol borasidagi munozaralar o'zining yuqori nuqtasiga chiqdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2020-yilning yanvar oyida parlamentga yo'llagan Murojaatnomasida mamlakatimizni Yevroosyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo bo'lish masalasini hukumat tomonidan parlament muhokamasiga kiritilishi va xalq vakillari bilan batafsil ko'rib chiqilishini hamda qaror qabul qilishda, eng avvalo, xalq manfaatlaridan kelib chiqib, ularning xohish-irodasiga tayanish lozimligiga alohida urg'u bergen edi. Shundan keyin uzoq bahs-munozaralardan so'ng 2020-yilning may oyida Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yakuniy qarori qabul qilindi va deputatlar O'zbekistonni YOIIga kuzatuvchi maqomida asosida qo'shilishiga ovoz berdi.

Nihoyat, 2020-yilning 11-dekabrida YOIIning bo'lib o'tgan onlayn Sammitida O'zbekiston YOII "kuzatuvchi mamlakat" maqomi bilan kirdi va Yuqoridagi turli bahs-munozalarga qisman bo'lsa-da nuqta qo'yildi. Albatta, bu masala bo'yicha fikr-mulohazalar hamon turlicha: kimdir mazkur ittifoqda kuzatuvchi bo'lishni yoqlasa, yana boshqalar buni mustaqillikka bo'lgan jiddiy tahdid sifatida ko'rди. Xo'sh, ushbu ittifoqdagi kuzatuvchilik maqomi O'zbekistonga nima beradi? yoki, aniqroq aytganda, bizning milliy iqtisodiyotimiz rivojiga qanday ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi?

Avvalo, YOII qanday tashkil topganligiga to'xtalib o'tamiz. YOII ni tashkil qilinishi uzoq 1994-yilga borib taqaladi. Sobiq Ittifoq tarqab ketgach, uning tarkibidagi mamlakatlar endigina o'z davlatchilik siyosatlarini mustaqil ravishda oyoqqa turg'azayotgan paytda Qozog'istonning Birinchi Prezidenti N.Nazarboyev 1994-yilda YOII ni tashkil qilish tashabbusi bilan chiqdi va mazkur ittifoqni tuzish

uchun tayyorgarlik ishlari 1995–2000-yillar davomida olib borilib, tashkilotning huquqiy asoslari ishlab chiqildi. 2000-yilning 10-oktabr kuni Qozog‘iston poytaxti Ostona (hozirgi Nur-Sulton) shahrida Rossiya, Qozog‘iston, Belarus, Tojikiston va Qirg‘iziston rahbarlari o‘rtasida YOII ni tuzish haqidagi bitim imzolandi. Ushbu bitim 2001-yil 30-may kunidan kuchga kirdi. Bitimga muvofiq, ittifoqqa a’zo bo‘lgan davlatlar Yagona iqtisodiy hudud va Bojaxona ittifoqi to‘g‘risidagi kelishuvlar asosida birlashdilar.

2001-yilning may oyida Ittifoqning asosiy organlari – YOII kengashi va YOII integratsiya qo‘mitasi vazifalarini belgilab beruvchi hujjatlar qabul qilindi. 2006-yil 24-yanvar kuni Rossiya Federatsiyasining Sankt-Peterburg shahrida o‘tkazilgan kengashda O‘zbekistonning YOII ga a’zo bo‘lishi haqidagi bitim imzolanib, shu yilning iyun oyida Minsk shahrida o‘tkazilgan kengashda Yagona iqtisodiy hudud doirasida ish olib borilishiga kelishildi. 2009-yilda Bojaxona ittifoqining ustida turuvchi Bojaxona ittifoqi komissiyasi tashkil etildi. 2011-yildan esa Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V.Putin Yagona iqtisodiy hudud rejasining amalga oshira boshlangani haqida bayonot beradi.

2008-yilning oktabr oyida O‘zbekiston hukumati YOII faoliyatining yo‘nalishlaridan hamda o‘z milliy iqtisodiyoti ravnaqi manfaatlaridan kelib chiqib, mazkur tashkilotdan chiqish haqida bayonot berdi. 2008-yil 12-noyabrda YOII O‘zbekistonning tashkilotga a’zoligini to‘xtatish borasida qaror qabul qildi va shu yilning 12-dekabrdagi YOII kengashida O‘zbekiston iltimosi rasman tasdiqlandi.

YOII bosh organi Davlatlararo kengash hisoblanadi. A’zo mamlakatlar o‘rtasidagi qaror kelishuv asosida qabul qilinishi belgilangan. YOII ning doimiy faoliyat yurituvchi organi Integratsiya qo‘mitasidir. Mazkur qo‘mita yig‘inlari yiliga kamida 4 marta o‘tkazilishi belgilab olingan. Tashkilotda a’zolarning ovozi to‘lov badallariga asoslangan holatda belgilangan. Shundan kelib chiqqan holda: Rossiya – 40; Belarus – 15; Qozog‘iston – 15; Qirg‘iziston – 7,5; Armaniston – 7,5 ovozga ega.

Iqtisodiy masalalarni hal qilish va rivojlantirish maqsadida Rossiya va Qozog‘iston o‘rtasida maxsus bank ham ish olib boradi. YOII tarkibida inqirozga qarshi kurashish uchun maxsus fond ham

tashkil qilingan bo‘lib, uning maqsadi jahon iqtisodiyotida yuz bergan inqirozni bartaraf qilish uchun ko‘mak berishdan iboratdir.

Rossiya tashabbusi bilan yuzaga kelgan mazkur iqtisodiy hamkorlik tashkiloti bir qarashda YIga o‘xshash bo‘lgan tashkilotning shakllanib borayotganligidan dalolat beradi. Biroq YI bilan YOII o‘rtasida juda ham katta tafovutlarni ko‘rish mumkin. Masalan, YOII mamlakatlari integratsiyani qay darajada kuchaytirishga intilmasin, a’zo mamlakatlar o‘rtasida tovar ayirboshlashni kamayib borayotganini kuzatish mumkin. Ekspertlar nazarida YOII a’zo mamlakatlari o‘rtasidagi o‘zaro tovar ayirboshlashning qisqarishiga asosiy sabab milliy valutalar qadrining pasayib borayotganligidir. Ayrim sohalarni hisobga olmaganda, YOII ichidagi o‘zaro “iqtisodiy nizolar” ham mahsulot ayirboshlashning qisqarishiga sabab bo‘lmoqda.

Ayni paytda YOII Eron, Vietnam, Singapur, Serbiya kabi mamlakatlar bilan erkin iqtisodiy hududlarni tashkil qilish bo‘yicha bir qator bitimlarni imzolagan. YOII a’zo mamlakatlari erkin iqtisodiy hudud tashkil etish maqsadida Xitoy, Kuba, Misr, Tailand, Mo‘g‘uliston, Hindiston, Isroil bilan muzokaralar olib bormoqda. Hozirgi kunga kelib, YOII tashkilotiga Rossiya, Qozog‘iston, Belarus, Qirg‘iziston va Armaniston mamlakatlari a’zo hisoblanishadi. Moldova, Kuba va O‘zbekiston esa kuzatuvchi mamlakat maqomida qo‘shildi. 2020-yildan O‘zbekiston va Kubaning YOIIning kuzatuvchi davlat maqomini olishi Ittifoqning qudratini mustahkamlashga qo‘yilgan yangi qadam bo‘ldi.

Xo‘sh, kuzatuvchi davlatning YOIIdagи o‘rni qanday? Kuzatuvchi mamlakat maqomida qo‘shilgan davlatlarning ushbu tashkilotdagi ishtiroki va huquqiy asoslari quyidagilardan iborat:

- YOII to‘g‘risidagi kelishuvga asosan, kuzatuvchi-davlat vakillari YOII tadbirlarida ishtirok etishlari mumkin, lekin qarorlarni qabul qilishda rasman qatnashmaydi;
- kuzatuvchi davlat Ittifoqqa yoki a’zo davlatlarning iqtisodiy manfaatlariga zarar yetkazadigan harakatlarni amalga oshirmaslik majburiyatini oladi;
- kuzatuvchi davlat maqomi YOIIning navbatdagi bo‘lib o‘tadigan Kengashlarida kun tartibidan o‘rin olgan masalalardan xabardor bo‘lish va turli sohalardagi hamkorlikni kengaytirishga imkon beradi.

YOIIga kuzatuvchi maqomi bilan kirgan O‘zbekistonga nima beradi? YOII dastlab Bojxona ittifoqi ko‘rinishida tashkil topgan va huquqiy hujjatlar hamda kelishuv a’zo mamlakatlar tomonidan imzolangan. Ushbu Kelishuvning maqsadi a’zo mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro iqtisodiy aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirish hamda erkin savdo va adolatli raqobatni ta’minlashda iboratdir. Kuzatuvchi maqomini berish to‘g‘risidagi qaror tashkilotning Oliy Kengashi tomonidan qabul qilinadi. Bu maqomni olgan davlat esa YOII ta’sis shartnomasida ko‘rsatilgan maqsad va yo‘nalishlarga zid, Ittifoq va uning a’zo davlatlari manfaatiga zarar yetkazadigan xatti-harakatlarga yo‘l qo‘yilmasligi belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston YOIIda kuzatuvchi maqomini olgan davlat hukumati sifatida, YOII komissiyasi vakolatxonasiga o‘zining doimiy rasmiy vakilini yuboradi va ushbu vakil O‘zbekiston nomidan Komissiya va uning organlari bilan doimiy aloqa o‘rnatish vakolatiga ega bo‘ladi. Ushbu rasmiy vakil Ittifoq doirasida savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, texnik, bojxona, sanitariya va fitosanitariya reglamentlarini tartibga solish, Komissiya vakolatiga kiradigan turli xil boshqa masalalar bo‘yicha doimiy aloqalarni o‘rnatish va qo‘llab-quvvatlashga mas’ul bo‘ladi. Shuningdek, rasmiy vakil O‘zbekiston va Ittifoqqa a’zo davlatlar uchun o‘zaro manfaatli sohalarda ikki tomonlama va ko‘p tomonlama muloqot o‘rnatish va hamkorlik qilish bo‘yicha faoliyat ko‘rsatadi.

Demak, O‘zbekiston 2020-yildan rasman YOIIga kuzatuvchi mamlakat maqomi bilan qo‘sildi va kelajak istiqbol yillarda O‘zbekistonning endilikda YOIIga to‘laqonli a’zo bo‘lib kirishi masalasi haqidagi muhokamalar yana kun tartibidan o‘rin olishga shubha yo‘q. Masalan, ushbu YOIIga a’zolik bo‘lish eng birinchi navbatda Rossiya, Belarus va Qozog‘iston kabi mamlakatlar hududida faoliyat ko‘rsatayotgan mehnat migrantlarimizning erkinligi yuzaga chiqsa, ikkinchi tomondan esa bor-yo‘g‘i shu 5 nafar a’zo mamlakat bilan bojsiz savdo qilishni ta’kidlash mumkin.

Mehnat patenti to‘lovlarining bekor qilinishi yoki kamaytirilishi natijasida O‘zbekiston migrantlar orqali yiliga taxminan 200 mln.dollar daromad olishi mumkin. Bu, albatta, migrantlarning o‘zlari uchun juda muhimdir, biroq ushbu mablag‘ O‘zbekiston milliy iqtisodiyoti uchun u qadar juda katta o‘sish sifatida qaralmaydi.

Ittifoqqa a'zo bo'lishning ijobiliy tomonlari sifatida qo'shni davlatlarning oldindan yagona hududiy kompleks sifatida shakllanganligi, boj siyosatining yengillashtirilishi, mehnat resurslarining samarali taqsimlanishi va arzon elektr energetika bozorining tashkil etilishiga olib kelishi mumkin.

O'tkazilgan tahlillarga asosan, istiqbol yillarda O'zbekistonning YOIIga to'la a'zoligiga erishilsa, u holda quyidagilar amalga oshiriladi:

- o'zaro savdoda protseduralari soddalashadi;
- eksport bojxona to'lovleri olib tashlanadi;
- mamlakatning tashqi savdo aylanmasi asta-sekin oshib boradi;
- yuklarni tashish narxlari pasayadi;
- yangi tranzit oqimlari jalb qilinadi;
- meva-sabzavot eksporti ko'payadi;
- tashqi savdoda transport xarajatlari ulushi kamayadi;
- transport vositalaridan foydalanish samaradorligi oshadi;
- tovarlarni yetkazib berish muddati tezlashadi;
- xalqaro transport yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifati yaxshilanadi;
- Yevrosiyo ittifoqining transport koridorlariga qo'shilishi Qirg'iziston va Afg'onistonda temiryo'llar qurilishini tezlashtiradi, YOII davlatlarining Xitoy, Hindiston, Pokiston va Afg'onistonga yuk tashish imkoniyatlarini oshiradi;
- O'zbekiston logistika markazlarining YOII mamlakatlarining yirik logistika va taqsimlash markazlariga integratsiyasi eksport qilinayotgan tovarlarni, birinchi navbatda, meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga olib chiqish bo'yicha imkoniyatlarimizni yanada oshiradi.

Shuningdek, YOIIga a'zo bo'lish mamlakat uchun nima manfaat berishi yoki qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi yuzasidan "Adolat" partiyasi tomonidan maxsus ishchi guruhi tuzildi va ishchi guruh ekspertlari tomonidan O'zbekistonning YOIIga a'zo bo'lishi natijasida mamlakatimiz milliy iqtisodiyotiga ijobiliy va salbiy ta'sirlari hisoblab chiqildi, jumladan ijobiliy tomoni:

– birinchidan, a'zolik YOII davlatlaridagi migrantlar masalasida ayrim ijobiliy natijalarini keltirib chiqaradi (2,5 mln.dan ortiq O'zbekiston fuqarolari migrant sifatida mehnat qilmoqda). Ular ishlash

va yashash hujjati bilan bog‘liq turli to‘lovlar uchun chet davlatlar hisobiga milliardlab dollar atrofida mablag‘ sarflamoqda. A’zolikdan so‘ng fuqarolar ushbu davlatlarda patent olmasdan ishslash imkoniyatiga ega bo‘ladi va pul jo‘natmalarini hozirgi 4-5 mlrd. dollardan 7-8 mlrd.dollariga yetishi mumkin;

– ikkinchidan, a’zo davlatlar bilan energetika sohasidagi hamkorlik yaxshi natija beradi, chunki ular gaz qazib olish va uni qayta ishslashda dunyoda yetakchi hisoblanadi;

– uchinchidan, turizm sohasida ham katta imkoniyatlar ochiladi. Xalqaro yuk hamda yo‘lovchi tashishlar tizimi soddalashtiriladi;

– to‘rtinchidan esa, O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi ortadi. Yirik bozorga chiqish va o‘zining mahsulotlarini eksport qilish orqali ayrim tadbirkorlarimizning faoliyati yanada kengayadi.

Shuningdek, deputatlar tomonidan bildirilgan salbiy oqibatlari:

– birinchidan, YOIIga a’zo bo‘lish natijasida mamlakat sanoati (avtomobilsozlik, oziq-ovqat, farmatsevtika va ba’zi boshqa tarmoqlar) kamida 2 mlrd.dollar atrofida yo‘qotishga uchraydi;

– ikkinchidan, YOII davlatlari tashqi savdo siyosatini yetarlicha mustaqil muvofiqlashtirish imkoniyatiga ega emas;

– uchinchidan, deputatlar tomonidan YOII oldindan belgilangan qoidalar orqali boshqariladigan va nizolar kelishilgan qoidalarga ko‘ra hal eta oladigan tashkilotga hali aylanib ulugurmaganligi tanqidiy baholangan (tahlillarga ko‘ra davlatlarning muhim manfaatlari to‘qnash kelganda ittifoq qoidalalarini bir tomonlama buzilishi kuzatilmogda);

– to‘rtinchidan esa YOIIning eng asosiy a’zosi Rossiya (Ittifoq iqtisodiy salohiyatining salkam 85 foizini tashkil etadi) hozirgi kunda xalqaro sanksiyalar va bosim ostida bo‘lib, bu uning milliy iqtisodiyotiga katta salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Masalan, oxirgi 2 yilda rubl bir necha barobarga qadrsizlangan hamda ushbu mamlakat bilan bitta ittifoq doirasida hamkorlikka kirishish kelgusida bizning iqtisodiyotimizga ham salbiy ta’sirini o‘tkazishi mumkinligini bildirib o‘tishgan.

Albatta, ekspertlar bu borada o‘zlarining tahlillari va hisob-kitoblari bilan yakuniy qarorga va bir to‘xtamga kelishadi hamda mamlakatimiz hukumati a’zolik masalasini sinchkovlik bilan o‘rganib, qaysi biri foydali ekanidan kelib chiqib, tanlovnini amalga oshiradi.

27.2-jadval.

O'zbekistonning EvroOsiyo iqtisodiy ittifoqiga qo'shilishining ijobili va salbiy jihatlari

Nº	Ijobiy	Salbiy
1	O'zbekiston tovarlarining to'siqlarsiz a'zo mamlakatlar hududlariga kirib borishi	EOII iqtisodiy ittifoqdan ko'ra, ko'proq, siyosiy ittifoqqa moyilligi sababli O'zbekistonning siyosiy erkinligi cheklanishi mumkin
2	A'zo mamlakatlar mahsulotlari O'zbekistonga arzon narxlarda kirib keladi va narxlar pasayadi	A'zo mamlakatlar mahsulotlari O'zbekistonga kirib kelishi O'zbekistonning kichik ishlab chiqaruvchilari sinishiga olib keladi
3	Erkin migratsion hudud hosil bo'ladi va O'zbekistonda va u orqali mintaqada turistlar oqimi kuchayadi	A'zo mamlakatlar o'ratasida valyutalar erkin aylanishi oqibatida nisbatan rivojlangan mamlakatlar tomon valyuta oqib ketishi yuz berishi va O'zbekistonda xorijiy valyuta narxi ko'tarilib turgan bir paytda bu holat iqtisodiyotga yanada salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin
4	O'zbekiston migrantlari a'zo davlatlar hududida hech qanday bojlar va to'siqlarsiz ishlay oladilar	O'zbekiston migrantlarining a'zo mamlakatlarga chiqib ketishi ortidan iqtisodiyoti rivojlanib borayotgan mamlakatimizda bir necha yildan so'ng ishchi kuchi etishmovchiligi yuzaga kelishi mumkin
5	Yangi yuk tashish karidorlari paydo bo'ladi va O'zbekiston tovarlari tez va kam xarajatlar bilan boshqa davlatlarga etib boradi	Ittifoqning eng kuchli a'zosi bo'lgan Rossiya Federatsiyasiga xorijiy davlatlarning bo'lgan har qanday sanktsiya va iqtisodiy cheklowlari to'g'ridan-to'g'ri O'zbekistonga ham ta'sir qiladi
6	Yangi bozorlar ochiladi	O'zbekistonning bozorlari ham boshqa davlatlar uchun ajoyib o'ljaga aylanishi mumkin
7	O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlari bo'lgan a'zo mamlakatlar bojaxona bojlarini kamaytirishi sababli mamlakatimiz tovarlari ularga nisbatan arzon narxda kirib boradi	Kelishuvlarga asosan O'zbekiston ham bojxonalarini kamaytirishiga to'g'ri keladi va buning natijasida respublikamizga boj tushumlarining nisbatan kamayishi yuzaga keladi

Manba: ushbu jadval tahlillar asosida ishlab chiqilgan

O‘z vaqtida Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining rahbari lavozimida faoliyat ko‘rsatgan va bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Iqtisodiy rivojlanish, samarali boshqaruv va xalqaro hamkorlik masalalari bo‘yicha maslahatchisi Suma Chakrabarti Ozarbayjonning “Trend” nashriga bergen intervyusida YOII masalasiga ham to‘xtalib o‘tib, O‘zbekistonning YOIIga a’zo bo‘lib kirish jarayonida qo‘shni Qozog‘iston va Qirg‘iziston mamlakatlarining tajribasiga tayanib, xarajat va manfaatlarni sinchkovlik bilan ko‘rib chiqish lozimligini bildirib o‘tgan.

Demak, Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, har bir savdo yoki iqtisodiy ittifoqning o‘ziga xos ijobiy va salbiy jihatlari bo‘lgani singari YOII ham bundan mustasno emas. Hatto YI shu jumlasidan. Uzoqqa bormay, Buyuk Britaniyaning Yevropa Ittifoqidan chiqib ketishini (“Breksit” islohoti) misol qilish mumkin. Turlicha iqtisodiy o‘sish hamkor davlatlarga ham ta’sir ko‘rsatishi bunga sabab qilib ko‘rsatiladi. YOII ni Shimoliy Amerika erkin savdo kelishuviga (NAFTA) qiyoslash mumkin.

27.6. O‘zbekiston Respublikasining jahon mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi

O‘zbekiston jahondagi ko‘plab mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorlik va savdo munosabatlarini keng ko‘lamda olib bormoqda va hamkorlik aloqalarini yil sayin rivojlantirib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev, “Olis va yaqindagi barcha davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini, uzoq muddatli va ko‘p qirrali sheriklikni yanada kuchaytiramiz”-deb ta’kidlagan edi.¹⁶²

2019-yilda iqtisodiy o‘sish 5,6 foizni tashkil etdi, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 6,6 foizga ko‘paydi. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining bergen ma’lumotiga ko‘ra, 2019-yil yakuni bo‘yicha mamlakatimizning tashqi savdosi jami 42,2 mlrd.dollarni tashkil qilgan va 2018-yilga nisbatan 8,3 mlrd.dollarga o‘sigan (o‘sish sur’ati – 26,2 foiz). Bunda eksportimiz 17,9 mlrd.dollar, import esa 24,3 mlrd.dollarni tashkil qilgan.

Umumiylashuvda asosiy tashqi savdo hamkorimiz Xitoy -

¹⁶² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <http://www.president.uz/uz/list/>

7,6 mlrd.dollar, Rossiya - 6,6 mlrd.dollar, Qozog‘iston - 3,3 mlrd. dollar, Janubiy Koreya - 2,7 mlrd.dollar, Turkiya – 2,5 mlrd.dollar va boshqa mamlakatlarni tashkil qilgan. 2019-yilga kelib O‘zbekistonning tashqi savdosidagi eng hamkor mamlakati Xitoy mamlakati bo‘ldi. Ma’lumki, O‘zbekiston mustaqillikka erishgan davridan boshlab 2019-yilgacha mamlakatimizning tashqi savdosidagi eng asosiy hamkor Rossiya edi.

Jahon mamlakatlariga eksportimizning asosiy mahsulotlarini: avtomobil, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va ho‘l mevalar, paxta tolasi, oltin, uran, rangli va qora metall, mineral o‘g‘itlar, mis, aluminiy, aholi iste’moli mahsulotlari, to‘qimachilik va poyabzal mahsulotlari va boshqa mahsulotlar hamda ishchi kuchi, turizm va boshqa xizmatlarni tashkil qilgan.

Importimizning asosiy mahsulotlariga esa neft xomashyosi, aholi iste’moli mahsulotlari, avtomobillar, samolyot, lokomotiv va vagonlar, dori-darmon, elektr, ilg‘or zamonaviy texnologiyalar va mexanik asbob-uskunalar, plastmassa va uning mahsulotlari, kofe, choy va qandolat mahsulotlari, to‘qimachilik kiyimlari, kauchuk va rezina mahsulotlari va turli xizmatlar kiradi.

2020-yilda pandemiya sharoitida O‘zbekiston jahoning 9 mamlakatiga iqtisodiy beg‘araz yordamlarini yubordi, jumladan: Afg‘oniston, Belarus, Vengriya, Ozarbayjon, Tojikiston, Turkiya, Xitoy, Eron va Qirg‘iziston kabi mamlakatlariga. O‘zbekiston Respublikasi Xitoy, Turkiya, Rossiya, Yaponiya, Janubiy Koreya mamlakatlari bilan yaqindan iqtisodiy hamkorliklarni olib bormoqda. So‘nggi 3 yil davomida ushbu mamlakatlarga amalga oshirilgan davlat tashriflari chog‘ida imzolangan o‘nlab hujjatlar bunga misol bo‘la oladi.

Yevropa Ittifoqi (YI) mamlakatlari bizning yetakchi investorlarimiz qatoridan joy olgan bo‘lib, jalb qilingan investorlar iqtisodiyotimizning turli sohalarida faoliyat olib borishmoqda. Shu bilan birga oxirgi yillarda Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Chexiya, Avstriya, Vengriya va boshqa qator davlatlar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri ikki tomonlama aloqalar izchil va barqaror rivojlanmoqda.

Aytish mumkinki, YI O‘zbekiston uchun hozirgi kundagi eng asosiy hamkorlardan biridir. YI bilan iqtisodiy munosabatlarni qay tarzda amalga oshirilishi O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi

o‘rnini belgilaydi. Shunday ekan O‘zbekiston Respublikasining YI davlatlari bilan iqtisodiy munosabatlarini chuqurlashuvi o‘z-o‘zidan siyosiy-madaniy hamkorlikni rivojlanishiga ham olib keladi.

O‘zbekiston YI munosabatlarining istiqbol yillardagi kelajagiga ko‘p jihatdan transport muammolarining hal bo‘lishiga bog‘liq. Bu sohada YI ning TRASEKA dasturi alohida e’tiborga sazovor.

O‘zbekiston YI hamkorligining istiqbolli sohalari hamda ularning amalga oshirilishida YI mamlakatlari bilan hamkorlik qilish maqsadga muvofiqligi bo‘yicha quyidagi tavsiyalarni keltirish mumkin:

- davlat va kompaniya boshqaruvi kadrlarini tayyorlashda keng qamrovli hamkorlik (Germaniya va Buyuk Britaniya);
- bank-moliya sohasida mutaxassislarning malakasini doimiy oshirib borish (Fransiya, Avstriya va Germaniya);
- ta’lim tizimida hamkorlik olib borish (Finlandiya, Chexiya va Daniya);
- farmatsevtika sohasida hamkorlini rivojlantirish (Fransiya, Germaniya va Gollandiya);
- eksport imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida YI davlatlarida o‘zbek savdo uylarini ochish (YI barcha mamlakatlari);
- oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishda YI a’zolari tajribasidan foydalanish (Belgiya, Gollandiya, Daniya, Fransiya va Italiya);
- paxta tolasini qayta ishlash va kiyim-kechak, poyabzal ishlab chiqarishda hamkorlikni kengaytirish (Italiya, Germaniya va Avstriya);
- turizm sohasidagi keng qamrovli hamkorlikni kengaytirish (YI mamlakatlari);
- kommunikatsiya sohasida hamkorlikni kengaytirish (YI mamlakatlari);
- foydali qazilmalar ishlab chiqarish va uni qayta ishlashdagi hamkorlikni kengaytirish (Fransiya, Germaniya va Italiya);
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va ularni qayta ishlashdagi hamkorlik imkoniyatlaridan foydalanish (Gollandiya, Fransiya, Italiya va Germaniya);
- temiryo‘llarni qurishda “tezyurar” poezdlarning harakatiga moslashtirish va xorij tajribasini o‘rganish (Ispaniya va Fransiya);
- metallurgiya sohasidagi hamkorlik (Avstriya, Fransiya va Luksemburd) va boshqa turli sohalarda hamkorlik munosabatlarini kengaytirish imkoniyatiga ega.

O‘zbekiston turli darajadagi global va mintaqaviy integratsion jarayonlarda qatnashish bilan bir paytda bir muhim tamoyilga rioya qiladi: bir davlat bilan yaqinlashish boshqa bir davlat bilan uzoqlashish evaziga bo‘lmasligi kerak. O‘zbekistonning jahon hamjamiyati bilan integratsiyasining tarkibiy qismi turli davlat va xalqaro tashkilotlar bilan ko‘p tarmoqli aloqalardir. O‘zbekiston uchun YI bilan iqtisodiy-siyosiy hamkorlikni kengaytirish mamlakat uchun nafaqat iqtisodiy afzalliklar, balki shu bilan bir qatorda jahondagi mavqeini mustahkamlash imkoniyatlarini ham yuzaga keltiradi. Jahonning nufuzli integratsion guruhi bilan teng huquqli hamkorlik o‘rnatish O‘zbekiston uchun dunyoning boshqa mamlakat va hududlari bilan teng huquqli hamkorlik o‘rnatish kafolati bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, O‘zbekiston uchun YIga a’zo-mamlakatlar bilan alohida munosabatlar o‘rnatish va kengaytirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

1991-yilda Sobiq Ittifoq parchalangach, Markaziy Osiyo mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorliklar va munosabatlarida turli sabablarga ko‘ra bir qator “uzilishlar” yuzaga keldi. Mamlakatimiz Markaziy Osiyo mintaqasidagi barcha qo‘shni mamlakatlar bilan o‘zining siyosiy va iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqib ko‘p tomonlama iqtisodiy hamkorliklarni rivojlantirishga harakat qilmoqda. O‘zbek mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqishda qo‘shni mamlakatlarning xalqaro tranzit yo‘llari O‘zbekiston uchun muhim ahamiyat kasb etadi. 2018-yilga kelib qo‘shni mamlakatlar bilan iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi o‘zining yuqori bosqichiga chiqdi. Ayniqsa, Tojikiston, Qirg‘iziston, Turkmaniston va Afg‘oniston kabi qo‘shni mamlakatlar bilan qo‘shnichilik siyosati ancha mustahkamlandi va uzoq yillardan buyon mamlakatlarimiz o‘rtasidagi turli munozaralarga boy bo‘lgan muammo va masalalarlarni hal qilishga musharraf bo‘ldik. Markaziy Osiyodagi mamlakatlar ko‘p asrlik do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarida yuksak darajaga erishilgani va bugun ular jadal sur’atda rivojlanib borayotganini katta mammuniyat bilan ta’kidlash joiz. Mintqa mamlakatlari o‘rtasida savdo, sanoat kooperatsiyasi, qishloq xo‘jaligi, energetika, transport va tranzit, hududlararo rishtalar va gumanitar dasturlar kabi muhim sohalardagi hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari belgilandi. Oliy darajada

erishilgan kelishuvlarni so‘zsiz ro‘yobga chiqarishda tashkil qilingan qo‘shma hukumatlararo komissiyalarning samarali ishlari bilan amalga oshiriladi va mintaqada tinchlik va xalqalarimiz o‘rtasidagi do‘stlik yanada mustahkamlanadi.

Bob yuzasidan xulosa

O‘zbekiston noyob tabiiy boyliklarga, qudratli iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy, aqliy va ma’naviy salohiyatga ega. Tarixning o‘zi O‘zbekistonning o‘rnini G‘arbni Sharq bilan, Janubni Shimol bilan bog‘laydigan Yevroosiyo yo‘llari chorrahasida belgilagan. Mamlakatimiz Yevroosiyo iqtisodiy va madaniy ko‘prigi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bu ko‘prik doirasida tovarlar, texnologiyalar, sarmoyalar va madaniy qadriyatlarning harakati va almashuvi uchun yaxshi sharoit yaratilgan.

“Yangi O‘zbekiston” sifatida shakllanayotgan milliy iqtisodiyotimiz yangi islohotlarning muhim qismi O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi xomashyosini baholashga qaratilganidir. Iqtisodiyotimizning barcha sohalari, ayniqsa sanoat tarmoqlarida o‘zgarishlar yuz bermoqda va yangi turdagи o‘nlab mahsulotlarimiz jahon bozorlariga chiqarilmoqda. O‘zbekistonning xalqaro bozorga mustaqil sur’atda chiqishi va dunyo xo‘jaligiga integratsiyalashuvi sharoitlarida uning boshlang‘ich iqtisodiy salohiyati jahon xo‘jaligiga samarali qo‘shilish istiqbollariga umid qilish imkonini beradi.

Nazorat savollari

1. O‘zbekistonning iqtisodiy salohiyati va imkoniyatlarini ayting.
2. O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining taraqqiyotida qaysi xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning roli katta?
3. O‘zbekistonning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini ayting.
4. O‘zbekistonning tashqi qarzi qancha va kimlardan qarzdor?
5. O‘zbekiston Respublikasi jahoning qaysi mamlakatlari bilan ustun darajada iqtisodiy hamkorlikka ega?
6. Pandemiya sharoitida O‘zbekiston qaysi xorijiy mamlakatlarga beg‘araz iqtisodiy yordamlarni taqdim qildi?
7. O‘zbekiston qaysi xalqaro tashkilotlarga a’zo bo‘lib kirgan?
8. O‘zbekistonning tashqi savdodagi eng asosiy hamkor

mamlakatlari?

9. Mamlakatimizning asosiy eksport mahsulotlari tarkibini ayting.
10. Mamlakatimizning asosiy import mahsulotlari tarkibini ayting.
11. 2020-yilda bo‘lib o‘tgan ShHTning navbatdagi Sammitida yurtboshimiz tomonidan qanday taklif va tashabbuslar bilan chiqdilar?
12. O‘zbekiston qaysi xalqaro tashkilotlarga a’zo bo‘lishi mumkin?
13. O‘zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari bilan qaysi sohalarda iqtisodiy hamkorliklarni olib bormoqda?
14. So‘nggi yillarda mamlakatimiz Osiyo taraqqiyot banki bilan qaysi sohalarda hamkorlikda investtsiya loyihalarini amalga oshirmoqda?
15. O‘zbekistonning YOIIga a’zo bo‘lish imkoniyati va istiqbollari borasidagi fikringiz?

Uyga vazifa!

Talabaning “O‘zbekiston Respublikasi jahon xo‘jaligining tarkibiy qismi sifatida” mavzusini chuqur o‘zlashtirishi hamda amaliyot darsiga puxta tayyorgarlik ko‘rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

- 1) mavzu so‘nggida berilgan “Nazorat savollari”ga tayyorgarlik ko‘rish;
- 2) O‘zbekiston umumiyligi tashqi savdosining eksport va import tarkibidagi asosiy mahsulotlar va ularning geografik yo‘nalishlari bo‘yicha jadval ishlab chiqish;
- 3) O‘zbekiston iqtisodiyotining sanoati, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalari bo‘yicha har bir talaba “Mustaqil ish” mavzusini tayyorlash;
- 4) O‘zbekistonning “Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi”ga a’zo bo‘lishi istiqbollari yuzasidan “Mustaqil ish” mavzusini tahlil qilish.

XXVIII BOB. O'ZBEKISTON MILLIY IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH VA LIBERALLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

- 1. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari.**
- 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida O'zbekiston milliy iqtisodiyoti taraqqiyotining dolzarb vazifalari.**
- 3. Pandemianing O'zbekiston milliy iqtisodiyoti rivojiga ta'siri va inqirozga qarshi kurashish chora-tadbirlari.**
- 4. Pandemiya sharoitida O'zbekiston qishloq xo'jaligi 8mahsulotlari eksportining salohiyati.**
- 5. O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari.**

Tayanch iboralar: “Harakatlar strategiyasi”, Murojaatnomalar, “Yangi O'zbekiston”, Yevrobond, modernizatsiya, diversifikatsiya, liberallashtirish, indeks, budjet, farmon, qaror, chora-tadbir.

28.1. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish yo'nalishlari

2017-yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sun Farmoniga ko'ra, olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi¹⁶³. Ushbu Harakatlar strategiyasida

¹⁶³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha harakatlar strategiyasi tug'risida”gi PF-4947-sun Farmoni. // “Xalk suzi”, 8 fevral 2017 yil.

iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari alohida muhim o‘rin egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasining milliy iqtisodiyotini rivojlantirish va liberallashtirishning asosida tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobidan uning raqobatdoshligini oshirish masalasi turadi.

Butun jahonda o‘zimizga xos va mos rivojlanish modeli yo‘lida dadil qadamlar bilan borayotganimiz qo‘lga kiritilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy muvaffaqiyatlarning bosh omili bo‘lmoqda. Pirovardida iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar natijasida yurtimiz kun sayin ravnaq topib, mamlakatimizning nafaqat shahlarida, balki qishloqlarida ham sanoat jadal rivojlanib bormoqda, zamonaviy ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalari hamda yuzlab aholi uchun turar-joy binolari barpo etilmoqda.

Bugungi globallahuv jarayonlari jadallahayotgan sharoitda mamlakatimiz iqtisodiyotining yuqori sur’atlarda o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatadigan sohalardan biri bu – xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hamda xalqaro moliya bozori institutlari bilan aloqalarni kengaytirishni talab etadi. Yetakchi xalqaro va chet el moliyaviy institutlari bilan aloqalarni kengaytirish orqali:

– xalqaro moliyaviy institutlarning pul mablag‘larini jalb qilish orqali moliyalashtiriladigan investitsiyaviy loyihalarni o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta’minalash, shu jumladan:

a) 2016-2020-yillar davomida 27 ta loyihani amalga oshirish uchun Jahon banki kreditlarini jalb etish;

b) 2017-2019-yillar davomida 20 ta loyihani amalga oshirish uchun Osiyo taraqqiyot banki kreditlarini jalb qilish;

d) Islom taraqqiyot bankining 1 milliard dollardan kam bo‘limgan miqdordagi kreditlarini jalb qilishni ko‘zda tutadigan investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish masalasini ishlab chiqish orqali 2017-2019-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi va Islom taraqqiyot banki o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirish;

e) ustuvor ijtimoiy-iqtisodiy, infratuzilmaviy va boshqa loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan chet el hukumat tashkilotlarining (Xitoy eksport-import banki, Koreya eksport-import banki, EDCF Fondi, Yapon xalqaro hamkorlik agentligi (JICA),

Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA), Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ), Shvetsariya taraqqiyot va hamkorlik agentligi (ShTXA), Fransiya taraqqiyot agentligi (FTA), Yevropa hamkorlik komissiyalari va hokazo) imtiyozli kredit hamda grant mablag'larini jalb qilish imkonining yaratilishi Harakatlar strategiyasida keltirib o'tilgan.

Yetakchi xalqaro va chet el moliyaviy institutlari bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish, jalb qilinayotgan tashqi sarmoya bo'yicha yuzaga keladigan xarajatlarni kamaytirish maqsadida O'zbekistonning kredit reytingini yaxshilash hamda yuqori suveren reyting ko'rsatkichlariga erishish maqsadida yetakchi xalqaro reyting va sug'urta agentliklari (S&P, FITCH, MOODY'S va hokazo) bilan uchrashuv va davra suhbatlarini muntazam ravishda o'tkazib borish lozimligi muhim ahamiyat kasb etadi.

28.1-jadval

Milliy iqtisodiyotni 2017-2021-yillarda taraqqiyoti uchun yo'naltiriladigan xarajatlarning moliyalashtirish manbalari

T/r	Moliyalashtirish manbalari	Mlrd. so'm	Ming dollar
1	Jami xarajatlar miqdori	37.687,8	8.349,3
2	Davlat budgeti va Davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari	5.263,1	1.625,8
3	Ijrochilar va xayriya tashkilotlari mablag'lari	15.423,0	311.510,0
4	Tijorat banklari kreditlari	16.941,2	-
5	Xalkaro tashkilotlar, moliya institutlari mablaglari va beg'araz yordam	60,5	8.036.157,8

Harakatlar strategiyasidan o'rinn olgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun quyidagi sarf-xarajatlarni amalga oshirilishi belgilangan va rejallashtirilgan:

2017-2021-yillarda umumiy qiymati 40 mlrd.dollari miqdoridagi

649 ta investitsiya loyihani nazarda tutuvchi tarmoq dasturlarini ro‘yobga chiqarish rejalashtirilgan. Natijada keyingi 5 yil davomida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish 1,5 barobar; uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizga; qayta ishlash tarmog‘i ulushi esa 80 foizdan 85 foizga oshishi belgilangan. Jami xarajatlar uchun 37687,8 mlrd.so‘m va 8.349,3 mln.dollar ajratilishi rejalashtirildi. Xarajatlarning moliyalashtirish manbalarini 28.1-jadval orqali ko‘rishimiz mumkin.

Mamlakatimiz eksport salohiyatidan samarali foydalanish va uni kengaytirishda eksportchi korxonalarning maqsad va vazifalarini aniq belgilash, ularni amalga oshirish yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda, eksport strategiyasini shakllantirish korxonalarning hozirgi paytda kuchli raqobat sharoitida o‘z o‘rni va mavqeini to‘g‘ri belgilab olishiga yordam beradi. Jahon bozorlarida raqobatning keskin tus olishi shuni ko‘rsatmoqdaki, endilikda korxonalar o‘z maqsad va vazifalarini belgilashda nafaqat mahsulotga bo‘lgan oddiy talab va taklifdan kelib chiqishlari kerak, balki birinchi navbatda, salohiyatli iste’molchilarining ehtiyojlari, xohish-istaklari hamda maqsadlarini doimo diqqat markazda tutib, ularni chuqr o‘rganishlari va shu sharoitga mos keladigan strategiyani amalga oshirishlari muhim bo‘lib qolmoqda.

Oxirgi yillarda milliy iqtisodiyotimizni tarkibiy jihatdan diversifikatsiya qilish va iqtisodiyot sohalarining raqobatdoshligini oshirish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida jahon iqtisodiyotida inqiroz holatlari hamon saqlanib turgan va jahon bozoridagi narxlar darajasi pastligi mamlakatimizning asosiy eksport sohalariga ta’sirini kamaytirishga erishildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev eksport salohiyatimiz borasida mazkur sohaning holatiga tanqidiy baho berib, mashinasozlik kompleksida import hajmi eksportdan bir necha barobar yuqori bo‘lib, mahalliylashtirish darajasi esa importga nisbatan 20 foizdan kam ekanligi hamda ayni vaqtda mashinasozlik kompleksi, “Uzfarmsanoat” konserni va “O‘zbekenergo” (hozirgi O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi) aksiyadorlik jamiyati tizimidagi korxonalarda import hajmi eksport hajmidan o‘n marotaba ko‘p ekanini, shu bilan birga, “O‘zqurilishmateriallar” aksiyadorlik jamiyati va “O‘zbekneftgaz” kompaniyasi tizimida mahalliylashtirilgan

mahsulotlar hajmi import miqdoriga nisbatan 25-30 foizdan oshmasligi ta'kidlab o'tildi¹⁶⁴.

2018-2021-yillarga mo'ljallangan eksport faoliyatini rivojlantirish konsepsiysi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori qabul qilindi va unda quyidagilar nazarda tutildi:

- yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotlarni eksport qilishni kengaytirish;
- O'zbekiston uchun savdo aloqalarini rivojlantirish borasidagi maqsadli bozorlarni aniqlash;
- tashqi bozorlar konyunkturasini o'rganish asosida katta hajmdagi eksportbop tovarlarni ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish;
- tashqi bozorlarni marketingga xos o'rganish usulini rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;
- belgilangan bozorlarni asosiy ishtirokchilar bilan uzviy o'zaro hamkorlik o'rnatish orqali milliy mahsulotlar bilan ta'minlash;
- xalqaro sifat standartlarni (ISO 9001) keng joriy etish, ishlab chiqaruvchilarni tashqi bozorlarda mahsulotlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish.

28.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida O'zbekiston milliy iqtisodiyoti taraqqiyotining 2021-yilgi dolzarb vazifalari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida pandemiya sharoitida qiyin davrga qaramasdan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar, tatbiq qilingan dasturlarni nihoyasiga yetkazish, ishlab chiqarish samaradorligini yanada rivojlantirishni ta'kidlab o'tdi.

XVF va xalqaro reyting agentliklari tahlillariga ko'ra, bu yilgi sinovlarga qaramasdan, O'zbekiston dunyoning sanoqli davlatlari qatorida ijobjiy o'sish sur'atlarini saqlab qoldi.

Yevropa Ittifoqi tuzilmalari bilan yaqin hamkorlikda mamlakatimizga kengaytirilgan savdo preferensiyalari – "GSP+"

¹⁶⁴ SHavkat Mirziyoev. Tanqidiy taxlil, qatiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak // "Xalk so'zi", 2017 yil 15 yanvar

tizimini tatbiq etish bo‘yicha, muhim qadamlar tashlandi. Ushbu tizim kelgusida respublikamizda ishlab chiqariladigan 6 mingdan ziyod turdag'i mahsulotlarni Yevropa bozoriga boj to‘lamasdan olib kirish imkonini beradi. Bu, o‘z navbatida, birgina to‘qimachilik mahsulotlarining yillik eksportini 300 mln.dollarga oshirish uchun sharoit yaratadi.

Joriy yilda mamlakatimizning xalqaro moliya bozorlariga chiqish imkoniyatlari yanada yaxshilandi, ilk bor milliy valutada 2 trln.so‘mlik davlat Yevroobligatsiyalari past foizlarda joylashtirildi.

Bu yil respublikamizda 197 ta yirik, minglab kichik va o‘rta korxonalar hamda infratuzilma obyektlari barpo etildi. Jumladan, “Navoiyazot”da ammiak va karbamid ishlab chiqarish kompleksi hamda azot kislotasi zavodi, Muborak, Gazli va Sho‘rtan neft-gaz korxonalarida suyultirilgan gaz ishlab chiqarish qurilmalari, Toshkent metallurgiya zavodi kabi yirik quvvatlar ishga tushirildi. Birgina energetika sohasida xorijiy investorlar bilan davlat-xususiy sheriklik asosida 6 ta yangi elektr stansiyasini barpo etish ishlari boshlandi. Ularning umumiyligi 2 milliard dollar bo‘lib, 2 ming 700 megavatt quvvatga ega.

Agrar sohadagi islohotlar, yer maydonlari to‘liq xususiy klaster va kooperatsiyalarga berilgani paxtachilikda hosildorlikni bir yilda o‘rtacha 10 foizga oshirish imkonini yaratdi. Meva-sabzavotchilik, g‘allachilik va chorvachilikda ham 500 ga yaqin klaster va kooperatsiyalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Buning natijasida, pandemiyaning salbiy ta’siriga qaramasdan, 1 milliard dollarlik meva-sabzavot eksport qilindi.

Tadbirkorlikni keng qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ko‘plab imtiyoz va yengilliklar berildi. Tadbirkorlik subyektlariga 100 trillion so‘m yoki 2016-yilga nisbatan qariyb 4 barobar ko‘p kreditlar ajratildi.

Bundan tashqari, o‘zini o‘zi band qilgan aholi uchun soliq imtiyozlari berilishi hamda ko‘pgina cheklovlarining bekor qilinishi tufayli 500 ming nafar fuqaro mehnat faoliyatini qonuniy tarzda yo‘lga qo‘ydi.

Dehqon xo‘jaligi va tomorqa yer egalariga 300 milliard so‘m imtiyozli kredit va subsidiya ajratilgani ham qishloq aholisini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda yangi yo‘nalishga aylandi.

Toshkent shahri, Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand,

Sirdaryo va Farg'ona viloyatlarida tashkil etilgan "IT-parklar"da 500 dan ortiq zamonaviy kompaniyalar ish boshladi.

O'zbekiston "Ochiq ma'lumotlarni kuzatish" xalqaro indeksida 125 pog'onaga ko'tarilib, 44-o'rinni egalladi. Bunda davlat va jamiyat boshqaruvi sohasidagi 20 ta yo'naliish bo'yicha ko'rsatkichlarni oshkor qilib borish amaliyoti joriy etilgani muhim ahamiyat kasb etdi. "Iqtisodiy erkinlik" reytingida ham mamlakatimizning 26-pog'ona ko'tarilgani islohotlarimizning xalqaro maydondagi yana bir e'tirofi bo'ldi.

2021-yilda amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar qatorida iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda strategik ahamiyatga ega bo'lgan davlatga tegishli 32 ta yirik korxona va tarmoqni transformatsiya qilish ishlari amalga oshirilishi belgilangan. Tarkibiy islohotlarning yana bir yo'naliishi bu – davlatning iqtisodiyotdagagi ishtirokini kamaytirishdir. Davlat ulushi bo'lgan korxonalar soni kelgusi ikki yilda kamida 3 barobar qisqartiriladi.

Garvard universiteti tadqiqotlariga ko'ra, mamlakatimiz 50 dan ortiq sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda barcha imkoniyatlar va nisbiy ustunliklarga ega. Ayniqsa, neftgazkimyo, metallurgiya, mashinasozlik, elekrotexnika, farmatsevtika, qurilish materiallari, to'qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat hamda "yashil iqtisodiyot" bilan bog'liq sanoat tarmoqlari iqtisodiyotimiz "drayverlari"ga aylanishi uchun barcha yetarli sharoitlar mavjud.

Bu tarmoqlarda xususiy sektorning tashabbuslari va yangi loyihibarini qo'llab-quvvatlash hamda kooperatsiyani rivojlantirish bo'yicha barcha choralar ko'riliishi lozim. "Bojxona hududida qayta ishlash rejimi"da sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish zarur.

Shu bilan birga, investitsiya siyosatini yuritishda davlat ishtirokini pasaytirib, xususiy va to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar ulushini oshirish kerak. 2021-yilda 23 milliard dollar qiymatidagi investitsiyalarni o'zlashtirish zarur. Natijada 226 ta yirik sanoat va infratuzilma obyektlari ishga tushiriladi.

Hukumatning eng asosiy vazifalaridan biri yangi eksport bozorlariga chiqishdir. Bu vazifalarni amalga oshirishda kelgusi yilda Jahon savdo tashkilotiga a'zolik masalasi hamda Yevropa Ittifoqi bilan keng qamrovli hamkorlik bo'yicha ishlarni faollashtirish, korxonalarga

xomashyo sotib olish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish uchun Eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasidan 100 million dollar ajratiladi. Eksport qiluvchilarga chet elda savdo uylari va do'konlar ochish hamda reklama xarajatlarining 50 foizi qoplab beriladi. Bularning natijasida kelgusi yilda tovar va xizmatlar eksportini kamida 20 foizga oshirish vazifasi qo'yildi. Shuningdek, asosiy xorijiy sheriklarimiz hisoblangan Rossiya, Xitoy, AQSH, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Hindiston, Pokiston, Birlashgan Arab Amirliklari va boshqa davlatlar bilan ko'p qirrali va o'zaro manfaatli aloqalarni yanada kengaytirishga alohida urg'u berildi.

Hozirgi kunda Markaziy Osiyonি Hind okeani bilan bog'laydigan Trans-afg'on transport yo'lagini barpo etish borasida dastlabki amaliy qadamlar tashlandi. Bu loyihaning ro'yobga chiqarilishi butun mintaqamizda barqarorlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga beqiyos xizmat qiladi. Ushbu masalada Pokiston O'zbekiston va Afg'oniston bilan Transafg'on temiryo'l loyihasi uchun xalqaro moliya institutlaridan 4,8 mlrd.dollar kredit jalb qilish to'g'risidagi qo'shma bayonotni imzoladi. Temiryo'l aloqasi Afg'oniston orqali Pokiston va O'zbekistonni bog'laydi¹⁶⁵.

2021 yilning 2 fevral kuni Toshkent shahrida O'zbekiston-Afg'oniston-Pokiston hukumatlari o'rtasidagi yuqori darajadagi muzokaralar natijalar bo'yicha "Mozori-Sharif - Qobul – Peshovar" temir yo'lini qurish bo'yicha qo'shma harakatlar rejasi ("Yo'l xaritasi") qabul qilindi. "Yo'l xaritasi"da temir yo'lni moliyalashtirish va qurish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni hal qilishni tezlashtirishga qaratilgan bir qator tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar ko'zda tutilgan. "Yo'l xaritasi" ga muvofiq, temir yo'l yo'nalishini har tomonlama o'rganish va loyihalash uchun qo'shma xalqaro ekspeditsiya tashkil qilinadi.

Shuningdek, xalqaro konsalting kompaniyalarini jalb qilgan holda, "Janubiy Osiyo – Afg'oniston – Markaziy Osiyo – Rossiya Federasiyasi – Sharqiy Yevropa" yo'nalishi bo'yicha eksport-import yuklarini tashish transporti harakati tadqiqotini o'tkazish rejalashtirildi. Tadqiqot Markaziy Osiyo, Janubiy Kavkaz

¹⁶⁵ <https://www.aa.com.tr/en/asia-pacific/pakistan-signs-letter-on-trilateral-railway-project/2092855>

mamlakatlarining Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan tashqi savdo va yuk aylanmasini o'z ichiga oladi.

Uch tomonlama muzokaralar davomida Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Yevropa investitsiya banki, Islom taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilmaviy investitsiya banki, Xalqaro taraqqiyot moliya korporatsiyasi (AQSh) rahbarlari ushbu loyihani o'zaro hamkorlikda amalga oshirishga qiziqishlarinin ma'lum qilgan.

Ushbu loyiha tahminan 600 km uzunlikdagi va kengligi 1520 mm bo'lgan temir yo'lning qurilishi 5 yil ichida amalga oshirilishi mumkin. Temir yo'lining qurilishi Janubiy Osiyo va Yevropa davlatlari o'rtasida Markaziy Osiyo orqali yuk tashishga sarflanadigan vaqtini va qiymatini kamaytiradi. Ekspertlarning tahlillariga ko'ra, Afg'oniston transport va infratuzilmaviy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish natijasida, masalan, O'zbekistondan Pokistonga yuklarni tashish vaqtini 30-35 kundan 10-15 kungacha qisqartiradi. Yangi temir yo'l Markaziy Osiyo va MDH davlatlarining Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasini oshirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Transport koridori mintaqadagi iqtisodiyotlarning dinamik o'sishi va mintaqalararo savdo hajmini oshirishga yangi turtki beradi. Shunugdek, 700 milliondan ziyod aholi Markaziy Osiyo, MDH, Sharqiy Yevropa va Xitoyning g'arbiy hududlari bozorlariga o'aro kirib boorish imkoniyatini ochib beradi. Yangi temir yo'l orqali yuklarni tashish Rossiya va Pokiston o'rtasida transport xarajatlarini 15-20 foizga, Markaziy Osiyo va Pokiston davlatlari o'rtasida esa 30-35 foizga kamaytirishi mumkin. Loyiha ishga tushirilganidan keyin dastlabki yillarda ushbu yo'naliш bo'yicha yuk tashish hajmi 10 mln.tonnaga yetadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan islohotlar natijasida milliy iqtisodiyotimizning taraqqiyoti ham yil sayin rivojlanib bormoqda. Bu haqda xalqaro tashkilotlar ekspertlari va tahlillari ham ko'rsatib turibdi. Jahon bankining 2021-yilgi "Jahon iqtisodiyoti istiqbollar" hisobotida O'zbekiston iqtisodiyotini 2021-yilda 4,3 foizga va 2022-yilda esa 4,5 foizga o'sishini prognoz qilgan¹⁶⁶.

¹⁶⁶<https://pubdocs.worldbank.org/en/996111599838731966/GlobalEconomicOutlookJanuary2021-Regional-Overview-ECA-RU.pdfkts>

28.3. Pandemianing O‘zbekiston milliy iqtisodiyoti rivojiga ta’siri va inqirozga qarshi kurashish chora-tadbirlari

2020-yilda yuzaga kelgan pandemianing salbiy ta’siri jahon mamlakatlari singari O‘zbekistonni ham chetlab o‘tmadi. Iqtisodiyotning sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalari 2020-yilning mart-aprel oylarida joriy qilingan karantin cheklovlari natijasida vaqtinchalik o‘z faoliyatlarini to‘xtatishgan edi. Biroq keyinchalik, asta-sekin sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalaridagi ishlar o‘z yo‘lida davom ettirilishiga va sog‘liqni saqlash muassasalar hamkorligida hamda ehtiyyotkorlik choralarini ko‘rgan holda tartibli ravishda davom ettirilishi yo‘lga qo‘yildi.

2020-yilning 15-aprelida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev boshchiligidagi o‘tkazilgan video yig‘ilishda 2020-yilda o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni qiyinchiliklarga qaramay amalga oshirilishini ta’kidlab o‘tdi. Bu iqtisodiy inqirozga qarshi kurashish va uni bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Jahon banki, XVF va Fransiya rivojlanish uyushmalaridan jami 2,0 mlrd. AQSH dollari miqdorida “olinadigan qarz”larni safarbar qilinishi ta’kidlab o‘tildi.

Hukumatimizning pandemiya sababli xorijiy mamlakatlarda vaqtinchalik ish faoliyatini olib borgan yuz minglab vatandoshlarimizning o‘z yurtiga qaytib kelishlari va ularni ish bilan ta’minalash maqsadida hamda viloyatlardagi mahalliy yoshlarga ham minglab gektar yer maydonlarining ajratib berilishi natijasida 2020-yilda meva-sabzavot ekinlarining hosilini yanada ortishiga olib keldi.

Qayd etish lozimki, O‘zbekistonda so‘nggi 3 yilda eksport hajmining yil sayin tobora ortib borayotgani bejiz emas, albatta. Bu eng avvalo, oqilona siyosat yuritilib, barchaga teng imkoniyat yaratib berilayotganining samarasi hisoblanadi. Chindan ham, tabiiyligi bilan nom qozongan mahsulotlarni sotib olishda hech qanday cheklov qo‘yilmagan. Qolaversa, uni hech bir vositachilarsiz, to‘g‘ridan to‘g‘ri xarid qilish, uzoq muddatli kelishuvlarga erishish uchun barcha shart-sharoitlar mavjuddir¹⁶⁷.

Masalan, 2020-yilda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun yaratib berilayotgan qulay sharoitlar natijasida butun dunyo

¹⁶⁷ Ismailova S., SHagazatov U.U. “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlari”. – T.: “Noshir” nashriyoti. 2019 y. – 260-261 betlar

iqtisodiyotiga koronavirus pandemiyasining salbiy ta'siriga qaramasdan poyabzal mahsulotlarining eksporti 2 barobarga oshib 28,8 mln.juftni tashkil qildi va shu bilan birga uning importi 74 foizga kamayishiga erishildi.

Xususan 2020-yilda eksport qilingan poyabzallar soni 2019-yilga nisbatan 91 foizga oshdi va poyabzallarning Tojikistonga eksporti 4,5 barobarga; Afg'onistonga eksporti 4,4 barobarga; Qozog'istonga eksporti salkam 2,1 barobarga; Turkmanistonga eksporti 1,8 barobarga va Qирг'изистонга eksporti 1,1 barobarga oshgan. "O'zbekistonda tayyorlangan" tamg'asi ostida tayyorlanuvchi poyabzal mahsulotlarimizning asosiy bozorlari ko'payib, ular qatoriga 2020-yildan AQSH, BAA, Quvayt, Latviya, Moldova kabi mamlakatlar ham qo'shilishdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining koronavirus pandemiyasining iqtisodiyotga ta'sirini kamaytirish va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qabul qilgan bir qator farmonlari va qarorlari iqtisodiyotni o'sish ko'rsatkichlarini ta'minlanishining eng asosiy omillaridan biri bo'ldi. Ahamiyatlisi qo'llab-quvvatlash choralari natijasida sohaning eksporti tarkibida yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarning salmog'ini oshirishga erishildi.

Pandemiya oqibatlarini yumshatish va bartaraf etish uchun davlat tomonidan jami 82 trln.so'mlik kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, Inqirozga qarshi jamg'arma tashkil etilib, koronavirusga qarshi kurashish, aholi va korxonalarini qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq tadbirlarga budgetdan 16 trln.so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi. Shuningdek, davlat korxonalariga va 500 mingdan ziyod tadbirkorlik subyekti hamda qariyb 8 mln. fuqaroga jami 66 trln.so'mlik soliq imtiyozlari, kredit muddatlarini uzaytirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy yordamlar berildi¹⁶⁸.

COVID-19 pandemiyasining O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari bo'yicha Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (ITIM), Jahon banki, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, O'zbekistonning "Taraqqiyot strategiyasi" markazi va BMT Taraqqiyot dasturi (BMTTD) ishtirokida bo'lib o'tgan video anjumanida, COVID-19 pandemiyasining uy xo'jaliklariga bo'lган

¹⁶⁸ 2020 yil 29 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. <https://review.uz/uz/post/poslanie-prezidenta-uzbekistana-shavkata-mirziyoyeva-oliy-majlisu>

ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri bo'yicha 2020-yilning may-iyun oylarida barcha hududlaridagi mahalla raislari bilan ijtimoiy so'rovnomalari o'tkazildi. So'rovnomalarda 3670 respondentlar ishtirok etdi, jumladan mahalla raislari (84,7 foiz), ularning o'rinnbosarlari (12,8 foiz) va mahalla faollari (2,5 foiz), shulardan 62,9 foizi qishloq mahallalari vakillaridir.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, pandemiya kambag'al oilalarning, ayniqsa, shahar hududlarida ko'payishiga olib keldi. Eng ko'p zarar ko'rganlar kam ta'minlangan oilalar (48 foiz respondentlar tomonidan qayd etildi, ayniqsa Namangan va Samarqandda), ko'p bolali oilalar (40 foiz respondentlar tomonidan qayd etildi, ayniqsa Toshkent viloyatida) va qaytib kelgan mehnat muhajoirlari mavjud oilalar (55 foiz respondentlar tomonidan qayd etildi, ayniqsa Jizzax va Qashqadaryoda). Ushbu salbiy oqibatlar ichida asosan daromadlarning pasayishi va ish faoliyatini vaqtinchalik bo'lsa-da yo'qotish kabi jihatlari kirgan.

BMTTD tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarni bartaraf etish bo'yicha berilgan tavsiyalarga quyidagilar kiritildi:

- xususiy sektorni zaruriy mahsulotlarni import qilish yoki mahalliy darajada ishlab chiqarishga rag'batlantirish maqsadida iqtisodiy va ijtimoiy siyosat choralarini o'zgartirish;

- mahallalarda kichik xususiy korxonalarni tashkil etishni qo'llab-quvvatlash orqali yoshlar va xotin-qizlarni oilaviy tadbirkorlik bilan shug'ullanishga rag'batlantirish;

- zaruriy yordamni olishda xotin-qizlar uchun yengillik yaratish, shuningdek ularni tashvishlantiruvchi masalalar tinglanishini ta'minlash;

- COVID-19 kasalligidan davolangan odamlar tomonidan xatar yo'qligini ommaviy-axborot vositalari orqali ta'kidlab turishini ta'minlash kabilarni o'z ichiga oldi.

2020-yilning birinchi yarmida YaIM o'sishi deyarli nolga teng bo'ldi, 2019-yilning birinchi yarmida esa bu ko'rsatkich 5,8 foizni tashkil etgan edi. Shu davrda asosiy kapitalga investitsiyalar 12,8 foizga kamaydi. Ishsizlik darajasi 2020-yilning birinchi choragidagi 9,4 foizdan ikkinchi chorakda 15 foizgacha keskin ko'tarildi. Milliy iqtisodiyotda moliyaviy resurslardan yanada samarali foydalanish va xususiy sektorni rivojlantirish uchun rag'batlantirishni kuchaytirgani

sababli, mamlakatimizning iqtisodiyoti bo'yicha 2020-yilning iqtisodiy ko'rsatkichlari ijobiyligi bo'ldi.

Jahon bankining ma'lumotiga ko'ra, O'zbekiston YaIMning yillik o'sishi 2020-yilda 0,4 foizdan 0,8 foizgacha, bo'lishi kutilgan. Bu ko'rsatkich 2019-yilgi ko'rsatkichdagi 5,6 foizga nisbatan sezilarli darajada past bo'lsa-da, bu ko'rsatkich jahon mamlakatlari ichida eng yuqori ko'rsatkichlaridan biridir.

O'zbekiston 2020-yilda YaIMning ijobiyligi o'sishini kutayotgan Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi 23 ta davlat orasida yagona davlatlarga aylanadi. Mamlakat bo'ylab karantin qayta kiritilmasa, 2021-yilda O'zbekiston YaIM o'sishi 4,8 foizdan 5,0 foizgacha o'sishi proqnoz qilingan. Albatta, bu ko'rsatkich zamirida pandemiya sharoitiga qaramasdan hukumatimiz tomonidan o'z vaqtida amalgalashirilgan samarali iqtisodiy dasturlar va islohotlarning natijasidir.

Shuningdek, Jahon bankining tahlillariga ko'ra, oltin ishlab chiqarishning ko'payishi va qishloq xo'jaligidagi o'sish sanoat va xizmatlar sohasidagi keskin pasayishni bartaraf etishga yordam berdi. Birinchi yarim yillikda pul o'tkazmalar 19 foizga kamayganiga qaramay, ijtimoiy transferlarning 17 foizga ko'payishi va 2020-yil fevralidan eng kam ish haqining 10 foizga o'sishi xususiy istemolni saqlab qolishga yordam berdi.

Pul o'tkazmalarining qisqarishi va tashqi savdo defitsitining kengayishi to'lov balansi joriy hisobining defitsitini 2020-yilning birinchi yarmida YaIMning 7,7 foiziga yetkazdi. Jahon ta'minot zanjiridagi uzilishlar va yirik mahsulotlar narxlarining pasayishi tufayli shu davrda eksport 22,6 foizga kamaydi (tabiiy gaz va metallar). Chet davlatlardan olib kelinadigan mashinalar, uskunalar va yarimtayyor mahsulotlar hajmining pasayishi tufayli import 15 foizga kamaydi.

Davlat budgetiga tushumlarning kam yig'ilishi va inqirozga qarshi katta xarajatlar 2020-yil birinchi yarmida budget kamomadi YaIMning 5 foizgacha o'sdi. YaIMning 2,5 foizi sog'liqni saqlash sohasiga qo'shimcha xarajatlar, kam ta'minlanganlar uchun pul o'tkazmalarining ko'paytirilishi, jamoat ishlarining kengayishi va korxonalarini qo'llab-quvvatlash uchun yo'naltirildi. Oltin eksportining ko'payishi natijasida tushumning kuchli o'sishiga qaramay, zaif iqtisodiy sharoitlar va soliqlarni kechiktirish natijasida YaIM ulushi sifatida hisoblanadigan davlat daromadlarining yiliga 2 foizga pasayishi

kuzatildi.

Jahon bankining O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Marko Mantovanelli COVID-19ning O'zbekiston milliy iqtisodiyotiga ta'siri haqida o'z fikrida, pandemiya natijasida yuzaga kelgan inqiroz O'zbekiston YaIMining o'sishini 2020-yilda deyarli to'xtatib qo'yganligini va pandemiyaning iqtisodiy, ijtimoiy va aholi sog'lig'iga ta'sirini yumshatish uchun hukumat bir qator inqirozga qarshi choralar ko'rganligi bildirib o'tdi. Shuningdek, mavjud sinovlar va qiyinchiliklarga qaramay, iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlariga erishish va fuqarolarning turmush farovonligini oshirish maqsadida mamlakat rahbariyati iqtisodiyotning muhim tarmoqlarida islohotlarni davom ettirishni qat'iy niyat qilganligini tasdiqlab o'tdi.

O'rta muddatli istiqbolda inflatsiya sekinlashadi, ammo narxlarni yanada isloh qilish natijasida yuqori darajada saqlanib qoladi. Pul o'tkazmalarining tiklanishi va savdo defitsitining pasayishi tufayli to'lov balansining joriy hisobot defitsiti 2020-yilda YaIMning 6 foiz atrofida bo'lishi kutildi. O'rta muddatli istiqbolda u taxminan bir xil bo'lib qoladi, chunki pandemiya tugagandan so'ng mashinalar, uskunalar va yarimtayyor mahsulotlar importining o'sishi tiklanadi. Ushbu defitsitni davlat qarzlarini ko'paytirish va chet el investisiyalarining bosqichma-bosqich ko'payishi hisobiga moliyalashtirish kutilmoqda.

2020-yilda yuzaga kelgan jahon iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiyoti o'sishi kutilayotgan sanoqli mamlakatlar qatorida bo'lган O'zbekiston ikkinchi marotaba Yevroobligatsiyalar bozoriga chiqdi. 2020-yilning 19-noyabr kuni ochilgan savdoda O'zbekiston muddati 10 yil bo'lган 555 million dollarlik obligatsiyalarni 3,7 foiz stavkasida sotishga muvaffaq bo'ldi. Bundan tashqari, O'zbekiston ilk bor mahalliy valutada muddati 3 yil bo'lган qiymati 2 trln so'mlik (193 mln.dollar) obligatsiyalarni ham sotishga muvaffaq bo'lган.

2021-yilning 5-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n ikkinchi yalpi majlisida Vazirlar Mahkamasining hisobotida 2020-yilda ro'y bergan pandemiya tufayli koronavirusga qarshi kurashish bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirishga jami 3 trln. 962 mlrd. so'm sarflangan. Shuningdek, sog'liqni saqlash obyektlarini qurish va zarur infratuzilmani yaratishga 1 trln. 22 mlrd. so'm mablag' ishlataligan.

Albatta, pandemiya O‘zbekiston milliy iqtisodiyotiga sezilarli, ammo qisqa muddatli salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Pandemiya 2020-yilning birinchi yarmida iqtisodiyotga kuchli ta’sir ko‘rsatib, og‘ir sinov bo‘lganiga qaramay, uning tarqalishini cheklash bo‘yicha qat’iy va o‘z vaqtida ko‘rilgan choralar va ko‘rsatilgan qo‘llab-quvvatlashlar tufayli yengil kechdi. Buning natijasida O‘zbekiston 2020-yilda umumiyligi o‘sish sur’atlari 1,6 foiz daraja atrofida bo‘lgan kam sonli mamlakatlar qatoridan o‘rin oldi. Ammo bu pandemiyadan oldingi prognozga nisbatan ancha past ko‘rsatkich hisoblanadi.

XVFning istiqboliga ko‘ra, 2021-yilda mamlakatda iqtisodiy o‘sish davom etishi kutilmoqda va iqtisodiyotning o‘sishi taxminan 5 foizga teng bo‘lishi kutilmoqda.¹⁶⁹ “Bloomberg” xulosasiga ko‘ra, O‘zbekistonning xalqaro moliya bozordagi muvaffaqiyati bir necha sabablarga bog‘liq. “Fitch Ratings” va “S&P Global Ratings” kabi xalqaro investitsion reytinglarda past darajada bo‘lsa-da, XVF ekspertlari xulosasiga ko‘ra, O‘zbekiston 2020-yilni iqtisodiy o‘sish bilan yakunlagan jahondagi sanoqli mamlakatlar qatoridan joy oldi.

To‘plangan tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, kuchli va samarali boshqaruv tizimiga bir yoqadan bosh chiqarib yashaydigan aholiga ega bo‘lgan davlatlar pandemiyaning keng tarqalish xavfini o‘z vaqtida bartaraf etishga qodir bo‘ladi. Buni O‘zbekistonning pandemiya davridagi kurash tajribasi ham isbotlab turibdi. Lekin erishgan natijalarimizga mahliyo bo‘lmasdan, jahondagi vaziyatga sergaklik bilan qarab, barchamiz – kim bo‘lishimiz, qaysi vazifada ishlashimizdan qat’i nazar, mamlakatimizning milliy manfaatlarini ta’minlash haqida jiddiy o‘ylashimiz zarur¹⁷⁰.

28.4. Pandemiya sharoitida O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini mahsulotlari eksportining salohiyati

Jahon xo‘jaligida o‘z o‘rniga ega bo‘lib borayotgan “Yangi O‘zbekiston” milliy iqtisodiyotining taraqqiyotida agrar soha qolgan sohalar kabi muhim ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda ushbu sohada uzluksiz ravishda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, dasturlar va aniq chora-tadbirlar natijasida mamlakatimizning qishloq

¹⁶⁹ <https://www.spot.uz/ru/2021/02/18/imf/>

¹⁷⁰ 2020 yil 29 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. <https://review.uz/uz/post/poslanie-prezidenta-uzbekistana-shavkata-mirziyoyeva-oliy-majlisu>

xo‘jaligi mahsulotlari jahon bozorlaridan munosib o‘rin egallamoqda.

Hukumatimiz tomonidan mintaqalar eksporti faoliyatini rivojlanishini aniq chora-tadbirlar asosida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va tartibga solish milliy iqtisodiy taraqqiyotining asosiy omillaridan biridir. Shunga ko‘ra, agrar sohani yuksak darajada rivojlantirish orqali qishloq aholisini ish bilan ta’minlash, ishsiz yurganlarni qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat ishlab chiqarish tarmoqlariga jalb etish, ularni ijtimoiy jihatdan himoyalash hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish masalalari bugungi pandemiya sharoitida hukumatimizning eng muhim vazifalaridan biridir. Jahon xo‘jaligida aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi yalpi ichki mahsulotning asosiy daromad keltiruvchi manbasi hisoblanadi. Pandemiya sharoitida iqtisodiyotimizning to‘xtovsiz faoliyati aynan agrar sohada bo‘ldi. Sababi, karantin joriy qilingan vaqtida hali qishloq xo‘jaligining dehqonchilik tarmoqlarida qish fasli va bahorning erta oylarida sovuq iqlim mavjud edi. Biroq keyinchalik dehqonchilik tarmoqlarida ishlar yil so‘nggiga qadar to‘xtovsiz amalga oshirildi. Shuning uchun ham pandemiya sharoitida milliy iqtisodiyotimizning agrar sohasi qolgan sohalarga qaraganda ancha daromadli sohalaridan biri bo‘ldi. Shuningdek, xorijiy valutalarni oqib kelishida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ulushi katta bo‘ldi.

Umuman olganda 2020-yil boshlaridanoq, bahorgi mavsumdan yil oxirigacha deyarli qishloq xo‘jaligi tarmoqlaridagi tadbir va jarayonlarda u qadar jiddiy uzilishlar bo‘lganicha yo‘q, albatta. Hukumat tomonidan bahorgi ekin mavsumining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, meva-sabzavot mahsulotlarining yangi hosilini xaridorlarga to‘sqliarsiz yetkazib berish, o‘rnatilgan cheklovlar davrida agrar soha xodimlarini o‘z ish joylariga nisbatan erkin yetib olishlari uchun barcha choralarini ko‘rdi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilish orqali aholi daromadlarini oshirishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston milliy iqtisodiyotida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni jahon bozoriga olib chiqishda ishlab chiqaruvchilarning asosiy muammosi bu – O‘zbekistonning dengizga chiqish imkoniyatining chegaralanganligidir hamda uning natijasida

mahsulotlarni xorijiy mamlakatlarga yetkazib berishda transport xarajatlarining miqdori yuqoriligidir.

Bugungi kunda milliy iqtisodiyotimizning qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida yetishtirilayotgan tez ayniydigan va ma’lum vaqtida o‘zining sifatini yo‘qotib qo‘yadigan mahsulotlarimizni imkon qadar qisqa fursatda xorij bozorlariga yetkazishdagi muammolarga barham berish va oldindan bir qator qog‘ozbozlik masalalarini va to‘sqliarni hal qilish ishlab chiqaruvchilar oldida turgan asosiy masalalardan biri bo‘lib, hukumat tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qiluvchilarga barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda.

Ma’lumotlarga ko‘ra, 2019-yilda O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida yetishtirilgan 20 million tonnadan ortiq meva-sabzavotning atigi 15 foizi qayta ishlangan va uning 7-8 foizigina eksport qilingan xolos. 2020-yilda esa mamlakatimizda meva-sabzavot etishtirishni kamida 30 million tonnaga yetkazilish ko‘zda tutilgan bo‘lib, ularning asosiy qismi xorijga eksport qilish va 2019-yilda turli viloyatlarning hududlarida tashkil qilingan va qurilgan meva-sabzavotlarni qayta ishlash korxonalari tomonidan turli mahsulotlar ishlab chiqarilishi ko‘zda tutildi.

Agar O‘zbekiston o‘z xalqi dasturxonidan ortgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xalqaro talab darajasida qadoqlab eksport qilsa, yiliga milliardlab dollar daromad ko‘rishi mumkin. Uning natijasida qishloq hududlarida istiqomat qilayotgan minglab oilalarning turmush darajasining yanada yaxshilanishiga olib keladi.

So‘nggi yillarda tashqi savdoni rivojlantirishda hukumatimiz tomonidan berilayotgan asosiy e’tibor qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida mahsulotlar miqdorini yanada ko‘paytirish va jahon qishloq xo‘jaligida O‘zbekistonning imidjini yanada oshirishdan iborat bo‘lmoqda. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida yetishtirilayotgan va o‘zining sifatini tez yo‘qotadigan va ayniydigan mahsulotlarimizni saqlash va logistika jarayoni uchun zarur bo‘lgan yirik muzlatgich omborlar sonini ko‘paytirish va ushbu sohani rivojlantirish agrar sohamizni taraqqiyotiga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Sir emaski, pandemiya tufayli jahonning ko‘plab rivojlangan mamlakatlarida oziq-ovqat tanqisligi vujudga keldi. Pandemiya oqibatida mahalliy bozorlarda oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining sezilarli darajada ko‘tarilishi yuzaga keldi. Shuningdek, aholi orasidagi

vahimaga asosan eng muhim kundalik oziq-ovqat mahsulotlarining narxi keskin darajada oshib ketdi. Rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talab kamida 2-3 marotabaga oshib ketdi.

Mamlakatimizning xorijiy mamlakatlarga eksportga chiqarilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining jahon bozorlarida nisbatan arzonroq narxlarda sotilishi aynan xorijliklar uchun O‘zbekistonda yetishtirilayotgan meva-sabzavotlarga talab va ehtiyojning sezilarli darajada o‘sishiga olib kelmoqda. Pandemiya davrida jahon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talab yuqoriligicha saqlanib qolmoqda. Shunga ko‘ra, O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eksportini kengaytirish uchun har bir viloyatda tashkil qilingan logistika markazlarini soha mutaxassislari bilan ta’minalash, transport sohasini tubdan yaxshilash, meva-sabzavotlarni saqlash va ularni saralash hududlarini ko‘paytirish hamda yuqori sifatli oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash kabi vazifalarni bajarishga kirishilgan.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini talab darajasidagi salohiyati eksport bozorlarini tahlil qilish va tashqi bozorlarga kirishni tartibga solish, shuningdek, ishlab chiqarish, ta’minot zanjiri va eksport salohiyatini baholash orqali qishloq xo‘jaligi mahsulotlar eksporti miqdorini oshirish maqsadlariga erishishda eksportni rivojlantirish bo‘yicha milliy strategiya loyihasini ishlab chiqish talab etiladi.

Ayniqsa, Xitoy, Janubiy Koreya, Rossiya va Qozog‘iston kabi mamlakatlarda O‘zbekistonda yetishtirilgan mahsulotlarning ta’mi lazzatli bo‘lgani bois talab yil sayin ortib bormoqdi. Bunday ijobiy ko‘rsatkichlarni yanada yaxshilash qonunlarni ham takomillashtirishni talab etadi. Masalan, 2020-yilda Qozog‘iston xurmoni faqat O‘zbekistondan import qilishni afzal ko‘rdi. Shuningdek, Janubiy Koreya, Yaponiya va BAA o‘zbek gilosi, Germaniya va Chexiya o‘zbek qovuni, hatto Eron o‘zbek malinasini va boshqa turli uzoq mamlakatlarga o‘zbek mahsulotlarini yetkazib berishda O‘zbekiston uchun yangi tashqi bozorlarning eshigi ochildi.

Umuman olganda uzoq yillardan buyon o‘zbek qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy importchisi Rossiya va Qozog‘istondir. Shunday ekan, ulkan hududga ega bo‘lgan va qariyb 150 million aholiga ega bo‘lgan Rossiyaning uzoq o‘lkalari va turli hududlarida

yangi bozorlar, savdo-logistika markazlarini barpo etish ayni muddaodir, chunki ushbu sohada salohiyatimiz va imkoniyatlarimizning yanada oshganligi mazkur vazifalarni amalga oshirilishini taqozo etadi. Agarda hozirdanoq ushbu g‘oyalarni amalga oshira olmasak, yirik Rossiya bozorlarini Turkiya yoki Ozarbayjon kabi mamlakatlarda yetishtiriladigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari butkul egallab olishi mumkin.

Ma’lumki 2020-yilda Rossiya tomonidan mamlakatimizda yetishtirilgan pomidor, qalampir, quritilgan o‘rik va shunga o‘xhash ba’zi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarimiz eksportiga nisbatan Rossiya tomonidan vaqtinchalik taqiq qo‘yilgan edi. Bu taqiqning qo‘yilishi natijasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirayotgan korxonalar va tadbirkorlarni biroz bo‘lsa-da taajjub va xavotirga qo‘ydi. Shuning uchun ham O‘zbekiston “Bojxona tartib-qoidalarni soddalashtirish va uyg‘unlashtirish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya”ga qo‘silsa, mahsulotlarning eksporti kafolatlanadi va tadbirkorlarga qulay sharoit yaratiladi. Importda ham xuddi shunday, ya’ni chet eldan mahsulotni sifatli kirib kelishini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida 2020-yilning 21-sentabrida vazirlik va idoralar rahbarlari ishtirokida agrar sohaga bag‘ishlangan videoselektorda, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti miqdorini 3 mlrd.dollarga yetkazish, Boltiqbo‘yi, Ukraina, Gruziya va Sharqiy Yevropa mamlakatlari bilan qishloq xo‘jaligi eksporti borasida hamkorlik olib borish hamda yangi bozorlarga mahsulotlarni yetkazib berishda tizimli ishlarni tashkil qilinishini ta’kidlab o‘tdi.

O‘zbekiston ham agrar sohada yetishtirilayotgan mahsulotlar eksporti tarkibi va miqdorlarini yil sayin ko‘paytirib borishi natijasida jahon qishloq xo‘jaligida eksport qiluvchi asosiy mamlakatlar qatoriga asta-sekin qo‘silib bormoqda. Mavjud imkoniyat va salohiyat O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini yanada oshirib borish mumkinligini ko‘rsatmoqda va buni albatta, ta’minlay oladi.

Shu jihatdan mazkur yo‘nalishda O‘zbekistonda maxsus va keng ko‘lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish ayni paytdagi zaruriyat va muhim amaliy qadam sifatida baholanishi lozim. Qishloq xo‘jaligi sohasida eksport salohiyatining sezilarli darajada o‘sishiga erishish

2017-2021-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida bejizga qayd etilmagan.

28.5. O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari

O‘zbekiston tarixida ilk bor kambag‘allikni qisqartirish masalasi 2020-yilning 24-yanvarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasida Sh.Mirziyoyev: “Kambag‘allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg‘otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to‘la ro‘yobga chiqarish, yangi ish o‘rnlari yaratish bo‘yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish. Shuning uchun, Juhon banki, BMTning Rivojlanish Dasturi va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan birga Kambag‘allikni kamaytirish dasturini ishlab chiqishni taklif qilaman. Bunda xalqaro me’yorlar asosida chuqur o‘rganishlar o‘tkazib, kambag‘allik tushunchasi, uni aniqlash mezonlari va baholash uslublarini qamrab olgan yangi metodologiyani yaratish lozim”- deb ta’kidlagan edi¹⁷¹va mazkur mavzu ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning asosiy kun tartibiga aylandi.

2020-yilning 27-fevralida kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilishda Prezident Sh.Mirziyoyev mamlakatimiz aholisining 12-15 foiz yoki 4-5 milllion aholi kambag‘allik sharoitidaligini hamda ularning bir kunlik daromadi 10–13 ming so‘mdan oshmasligini ta’kidlab o‘tdi¹⁷².

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martida “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5975-son Farmonida ko‘rsatib o‘tilganidek, hududlarda aholining turmush darajasi va sifatini yaxshilash, xususan kambag‘allikni qisqartirish vazifalari ko‘p jihatdan iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarining raqobatbardoshligini oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun fundamental sharoitlarni yaratib berish hisobiga yangi va barqaror ish o‘rinlarini tashkil etish bilan bevosita bog‘liqdir.

Aholi o‘rtasida ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam pulini to‘lash

¹⁷¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <http://www.president.uz/uz/list/>

¹⁷² <https://www.gazeta.uz/uz/2020/02/27/qashshoqlik/>

yoki ularning miqdorini oshirish orqali ushbu muammoni hal etish mumkin, degan fikr mavjud. Bu – bir tomonlama yondashuv bo‘lib, muammoni to‘la yechish imkonini bermaydi. Zero, kambag‘allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg‘otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, kambag‘allikdan chiqib ketish uchun eng muhim omil – bu insonning intilishi, o‘z kuchiga tayangan holda aniq maqsad sari harakati bo‘lishi kerak.

Qishloq xo‘jaligi uchun zarur infratuzilmani yanada rivojlantirish: ilg‘or mamlakatlar tajribasini o‘rganish, ularning samaradorligini isbotlagan innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va usullar bilan almashish tizimini yaratish. Masalan, Janubiy Koreyaning muvaffaqiyatli amalga oshirgan “Yangi qishloq uchun harakat” loyihasi allaqachon Afrika va Janubi-Sharqiy Osiyoda amalga oshirilmoqda. yetakchi korxonalar va hududlardan ichki texnologiyalarni jalb qilish, mintaqada maxsus iqtisodiy zonalarni yaratish mumkin.

Jahon tajribasini, xususan, Xitoy va Hindistonni tajribasini hisobga olgan holda, agrar islohotga e’tiborni kichik fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni qayta ishlash va sotishni yengillashtirishga yo‘naltirish kerak. Birinchidan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bo‘yicha kooperativlar ishini rivojlantirish va buning uchun zarur texnologiyalarni jalb qilish jarayonini yengillashtirish kerak. Hukumat mintaqalarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xalqaro sertifikatlash markazlarini tashkil qilishi va ularning xizmatlaridan foydalanishini osonligini ta’minlashi kerak, bu esa ishlab chiqarilgan meva va sabzavotlarning bozorini kengaytiradi, qayta ishlashni tashkil qiladi va kam ta’minlangan qishloq aholisining daromadlarini oshiradi.

Shuningdek, mamlakatimizning har bir mintaqasining o‘ziga xos kambag‘allik profillari mavjud bo‘lib, uni o‘rganish uchun aniq choralar ishlab chiqishni talab qiladi. Masalan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi (kam ta’minlanganlik darjasini yuqori bo‘lgan mintqa) uchun chora-tadbirlar dasturini aynan kam daromadli ko‘rsatkichlarni hisobga olgan holda ishlab chiqish lozim. Bunda Qoraqalpog‘iston

uchun xavf omillari hisoblangan mintaqaning past iqtisodiy rivojlanishi, 16 yoshgacha bo‘lgan aholining ulushi kattaligi, ishsizlik darajasining nisbatan yuqoriligi, daromadlarning beqarorligi kabi muammolardan kelib chiqib ish tutish choralarning samaradorligini oshirishi mumkin.

Mamlakatimiz rahbarining ko‘rsatmalariga binoan kambag‘allikni qisqartirishning aniq dastak va mexanizmlarini ishlab chiqish, xorijiy tajribani inobatga olgan holda kambag‘allik darajasini aniqlash mezonlari va baholash uslubi, ijtimoiy ta’minotning minimal standartlari va me’yoriy asoslarini puxta ishlab chiqish maqsadida qisqa muddatlarda Jhon banki, BMT Taraqqiyot dasturi, Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro tashkilotlarining 14 nafar eksperti jalb qilindi.

Mazkur ekspertlar bilan birgalikda Yuqoridagi vazifalarni o‘zida qamrab olgan “2021-2023-yillarda O‘zbekiston Respublikasida kambag‘allikni qisqartirish konsepsiysi” ishlab chiqilgan.

2021-yilda mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirish borasida hukumatimiz tomonidan bir qator islohotlarni amalga oshirish belgilab olindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida: “Kambag‘allikdan chiqib ketish uchun eng muhim omil bu – insonning intilishi, o‘z kuchiga tayangan holda, aniq maqsad sari harakati bo‘lishi kerak. Shu maqsadda mahallalarda aholini kasb-hunarga o‘qitish bo‘yicha mingdan ziyod markazlar tashkil etiladi. Bunda kasb-hunarga o‘qitilgan har bir shaxs uchun o‘quv markazlariga 1 million so‘mgacha subsidiya berilib, buning uchun budgetdan 100 milliard so‘m ajratiladi. O‘quv kurslarini tamomlab, o‘z biznesini boshlamoqchi bo‘lgan fuqarolarga asbob-uskuna xarid qilish uchun 7 million so‘mgacha subsidiyalar beriladi”,¹⁷³ deb ta’kidlagan edi.

Shuningdek, har bir tumanning imkoniyati va rivojlanish yo‘nalishidan kelib chiqib, dehqonchilik bilan shug‘ullanadigan oilalarga 10 sotixdan 1 gektargacha yer maydonlari ajratiladi. Ehtiyojmand aholi bandligini ta’minlashga Bandlikka ko‘maklashish hamda Jamoat ishlari jamg‘armalaridan 500 milliard so‘m yo‘naltiriladi.

¹⁷³ 2020 yil 29 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://review.uz/uz/post/poslanie-prezidenta-uzbekistana-shavkata-mirziyoyeva-oliy-majlisu>

Pandemiya sharoitida o‘z ishini yo‘qotgan aholini kambag‘allikka tushib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida, yangicha tizim joriy etildi. Unga ko‘ra, vaqtincha ishsizlik nafaqasi 3 barobar oshiriladi va bunda 6 ta hujjat talab etiladigan eski byurokratik tartib bekor qilindi.

Kambag‘allikni qisqartirish borasida hududlardagi haqiqiy holatga baho berish, amalga oshirilayotgan ishlar ijrosini nazorat qilish Oliy Majlis palatalari va mahalliy Kengashlarning diqqat markazida bo‘lmoqda. Har bir tuman va shahar hyokimi o‘z hududida kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha manzilli dastur ishlab chiqib, uning ijrosi bo‘yicha har chorakda mahalliy Kengashlarda hamda ommaviy axborot vositalari orqali xalqqa hisobot berib borishi belgilandi.

Shunday qilib, 2021-yilda iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadi kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish maqsadida qator vazifalar belgilandi, jumladan:

1. BMT Taraqqiyot dasturi, Jahan banki kabi qator xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda “O‘zbekiston Respublikasida 2030-yilgacha kambag‘allikni qisqartirish strategiyasi” loyihasi ishlab chiqiladi.

2. Kambag‘allikni qisqartirish borasida kompleks yondashuv va nostandard usullar joriy etiladi, ya’ni kambag‘al aholining asosiy ehtiyojlarini kafolatli ta’minalash bo‘yicha Xalqaro ekspertlar bilan chuqur tahlil asosida, hisob-kitoblar yakuniga yetkaziladi va joriy yilning 1 martidan boshlab, “Aholining minimal iste’mol xarajatlari qiymati” joriy etiladi. Mazkur yondashuv aholining kambag‘al qatlamiga kredit, ijtimoiy nafaqa yoki uy berish bilan birgalikda ta’lim, sog‘liqni saqlash, kasb-hunarga o‘qitish, ichimlik suvi, energiya va yo‘l infratuzilmasi bilan bog‘liq kompleks muammolarni hal etishni nazarda tutadi.

3. Ehtiyojmand aholini to‘g‘ri aniqlash va shu asosda, ular bilan manzilli ishslash tizimi yaratiladi.

4. Kelgusi yildan to‘liq ishga tushadigan “Ijtimoiy reestr”da “temir daftar”dagi barcha ma’lumotlar qamrab olinib, ehtiyojmand oilalarga 30dan ziyod ijtimoiy xizmatlar elektron shaklda ko‘rsatiladi.

5. Ijtimoiy kafolatlarni bir tizimga keltirib, ularni minimal me’yorlar darajasida bosqichma-bosqich ta’minalash bo‘yicha dastur ishlab chiqiladi.

6. Hududlarning mavjud salohiyatini kambag‘allikni qisqartirish uchun safarbar etish yo‘llari ishlab chiqiladi, jumladan:

– hududlardagi mavjud maxsus industrial zonalardagi loyihalarni amalga oshirishga to‘sinqinlik qilayotgan muammolarni bartaraf etish choralar ko‘riladi;

– ehtiyojmand aholini kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha motivatsiya, ko‘nikma va moliyaviy ko‘mak tamoyili asosida har bir tuman va shahar bo‘yicha alohida dasturlar ishlab chiqiladi.

7. Yoshlar va xotin-qizlarni kasb-hunarga o‘rgatish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash orqali ularning bandligini ta’minalash va doimiy daromad manbayini yaratishning yangi mexanizmini amaliyotga joriy etish bo‘yicha qaror loyihasi ishlab chiqiladi.

8. Kambag‘allikni qisqartirishga aloqador va mas’ul xorijiy institutlar bilan hamkorlik yanada rivojlantiriladi, jumladan:

– 2021-yilda “Qashshoqlikka barham berish va kambag‘allikka qarshi kurashish” masalalariga bag‘ishlangan BMTning Global sammiti o‘tkaziladi;

– 2021-yilda ShHTga a’zo mamlakatlarda sohaga mas’ul vazirlik va idoralar bilan birgalikda “Kambag‘allikka qarshi kurashish” konferensiyasi o‘tkaziladi;

– iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi va XXRning Xalqaro kambag‘allikni qisqartirish markazi o‘rtasida anglashuv memorandumi imzolanadi.

Bob yuzasidan xulosa

2020-yilda jahon iqtisodiyotida yuzaga kelgan pandemiya sharoitida milliy iqtisodiyotimiz taraqqiyoti uchun amalga oshirilayotgan tub islohotlar, tatbiq qilingan dasturlar va chora-tadbirlar izchil ravishda qiyin davrga qaramasdan o‘z vaqtida olib borildi. Amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalarning asosiy omillari – ichki bozor, ochiq va xalqaro bozor, kapital bozori, xomashyo bozori, turizm bozori kabi bozorlar konyunkturasini tahlil qilish muhim ahamiyati kasb etadi. Albatta, har bir vazifaning omili milliy iqtisodiyotning taraqqiyotida o‘zining ma’lum bir xususiyatiga ega bo‘lib, avvalo jahon bozorlariga chiqishda ulkan ishlarni amalga oshirilishini talab etadi.

Pandemiya sharoitida jahon qishloq xo‘jaligi bozorida qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talab va ehtiyojning oshganligi sababli hamda milliy iqtisodiyotimizning asosiy daromad manbalaridan biri hisoblangan qishloq xo‘jaligi sohasini yanada rivojlantirish hukumatimiz oldidagi asosiy vazifalaridan biri bo‘lmoqda.

Albatta, hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan ulkan islohotlar zamirida aholimizning daromadi va turmush farovonligini oshirish, eng muhimi, kambag‘allikni qisqatirish eng asosiy maqsadlaridan biridir. Kambag‘allikni qisqartirish bu - iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadidir.

Nazorat savollari

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan O‘zbekiston milliy iqtisodiyoti taraqqiyotining asosiy dolzarb vazifalarini aytинг.
2. 2021-yilda pandemiya sharoitiga qaramasdan mamlakatimizda qanday investitsiya loyihalari amalga oshirildi?
3. Kelgusi-yillarda qanday investitsiya loyihalarini amalga oshirish ko‘zda tutilmoqda?
4. Pandemiya mamlakatimizning qaysi sohalariga jiddiy shikast yetkazdi?
5. Pandemiyaga qarshi kurashishda qanday chora-tadbirlar amalga oshirildi?
6. Pandemiya sharoitida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksportida O‘zbekistonning qanday salohiyatlari va imkoniyatlari bor?
7. Mamlakatimizning qaysi qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga va ularga qaysi mamlakatlardan talab va ehtiyoji ko‘paydi?
8. Pandemiya O‘zbekiston milliy iqtisodiyoti rivojiga qanday salbiy ta’sir ko‘rsatdi?
9. Pandemiya sharoitida O‘zbekiston jahonning qaysi mamlakatlariga iqtisoidy yordam ko‘rsatdi?
10. COVID-19ning mamlakatimizning xomashyo bozorlariga qanday ta’sir ko‘rsatdi?
11. Pandemiya O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining qaysi sohalariga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatdi?

12. Pandemiya sharoitida O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mahsulotlar eksportini yanada oshirishida qanday chora-tadbirlarni amalga oshirdi?

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev pandemiyaning jahon iqtisodiyotiga salbiy ta’siri borasida qanday fikrni bergen edi?

14. Mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirish borasida qanday chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda?

15. Kambag‘allikka qarshi kurashish mavzusi bo‘yicha mamlakatimizda qanday xalqaro konferensiyalar o‘tkazilishi rejalshtirilgan edi?

Uyga vazifa!

Talabaning “O‘zbekiston Respublikasi jahon xo‘jalogining tarkibiy qismi sifatida” mavzusini chuqur o‘zlashtirishi hamda amaliyot darsiga puxta tayyorgarlik ko‘rishi uchun quyidagi uy vazifalarini bajarishi talab etiladi:

1) mavzu so‘ngida berilgan “Nazorat savollari”ga tayyorgarlik ko‘rish;

2) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi va uning O‘zbekiston milliy iqtisodiyotini yanada rivojlantirish bo‘yicha asosiy ustuvor vazifalarini ko‘rib chiqish;

3) O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahri hududlarining (tanlama viloyat bo‘yicha) iqtisodiy salohiyatlari bo‘yicha talabalar guruhlarga bo‘lingan holda “Taqdimot” o‘tkaziladi.

"MILLIY VA JAHON IQTISODIYOTI" FANIDAN TEST SAVOLLARI

<p>1. “Ochiq va erkin savdo – ilg‘or iqtisodiyot uchun eng qulay o‘yin qoidalaridir”. Ushbu ibora kimga tegishli?</p> <ul style="list-style-type: none"> a) Adam Smit; b) J.Saks; c) D.Rikardo; d) Mishel Pebro. 	<p>2. 1932-yilda AQSH hukumati tomonidan inqirozga qarshi kurash uchun qanday dastur amalga oshirilgan?</p> <ul style="list-style-type: none"> a) “Pul islohoti”; b) “Dodj yo‘nalishi” dasturi; c) “Shoup islohoti”; d) “Yangi kurs siyosati” dasturi.
<p>3. Jalon iqtisodiyoti bo‘yicha jami umumiy “qarzdorlik” miqdori qanchani tashkil qiladi?</p> <ul style="list-style-type: none"> a) salkam 26 mld.dollarni; b) salkam 190 mld.dollarni; c) salkam 26 trln. dollarni; d) salkam 190 trln. dollarni. 	<p>4. Quyidagi qaysi xalqaro tashkilot “hududiy jihatdan” eng yirik hisoblanadi?</p> <ul style="list-style-type: none"> a) Arab mamlakatlari ligasi; b) Yevroсиyo iqtisodiy ittifoqi; c) Shanxay hamkorlik tashkiloti; d) ASEAN.
<p>5. Jalon iqtisodiyotida YAMMning aholi jon boshiga daromadi bo‘yicha eng yetakchi mamlakatlar qatorini toping?</p> <ul style="list-style-type: none"> a) Lixtenshteyn, Shvetsariya va Norvegiya; b) Qatar, Luksemburg va Shvetsariya; c) Makao, Luksemburg va Singapur; d) Lixtenshteyn, Makao va Singapur. 	<p>6. Jalon iqtisodiyotida YaIMning aholi jon boshiga daromadi bo‘yicha eng yetakchi mamlakatlar qatorini toping?</p> <ul style="list-style-type: none"> a) Lixtenshteyn, Shvetsariya va Norvegiya; b) Qatar, Luksemburg va Shvetsariya; c) Makao, Luksemburg va Singapur; d) Lixtenshteyn, Makao va Singapur.
<p>7. Janubiy Amerika hududida qanday integratsiyaviy tashkilot tashkil qilingan?</p> <ul style="list-style-type: none"> a) MAGRIB; b) NAFTA; c) SAARK; d) MERKOSUR. 	<p>8. YaIMning aholi jon boshiga daromadi bo‘yicha O‘zbekistonda qancha miqdorni tashkil qiladi?</p> <ul style="list-style-type: none"> a) 730 dollarni; b) 1800 dollarni; c) 7300 dollarni; d) 12600 dollar atrofida tashkil qiladi.
<p>9. Jalon bo‘yicha eng ko‘p elektr energiyani quyidagi qaysi mamlakat ishlab chiqaradi?</p> <ul style="list-style-type: none"> a) AQSH; b) Rossiya; 	<p>10. Hindiston jahon xo‘jaligida qanday mamlakat deb ataladi?</p> <ul style="list-style-type: none"> a) agrar mamlakat; b) agrar-industrial mamlakat; c) industrial;

c) Xitoy; d) Yaponiya.	d) hamma javob to‘g‘ri
11. Jahon iqtisodiyotida eng birinchi moliyaviy-iqtisodiy inqiroz qachon ro‘y bergen? a) 1929-yilda; b) 1945-yilda; c) 1997-yilda; d) 2008-yilda.	12. Dunyoning eng yirik TMKni (bozordagi sotuv miqdori jihatidan) toping? a) “Amazon”; b) “Microsoft”; c) “China construction bank”; d) “ICBC”.
13. “Iqtisodiy mo‘jiza” so‘zining ma’nosini toping? a) milliy iqtisodiyotning tez fursatlarda va misli ko‘rilmagan darajadagi taraqqiyoti; b) ishlab chiqarishning tez fursatlarda va misli ko‘rilmagan darajadagi rivojlanish jarayoni; c) iqtisodiyot sohasida tarkibiy o‘zgarishlarni yuqori sur’atlarda amalga oshirilish jarayoni; d) hamma javoblar to‘g‘ri.	14. Quyidagi qatorlardan “Konyunktura“ga berilgan tarifni toping? a) Konyunktura - bu muayyan tovarlarga to‘lash imkoniyati va uning taklifi o‘rtasidagi nisbatdir; b) Konyunktura - tub mazmuni bilan bozor iqtisodiyoti kategoriyasidir; c) Konyunktura - bozor holati, undan xabardor bo‘lib turishdan iboratdir; d) hamma javoblar to‘g‘ri.
15. Jahon bo‘yicha eng ko‘p elektr energiyani ishlab chiqaradigan yetakchi mamlakatlar qatorini toping? a) AQSH, Hindiston va Xitoy; b) AQSH, Xitoy va Rossiya; c) AQSH, Xitoy va Yaponiya; d) Xitoy, AQSH va Kanada.	16. Quyidagi qatorlardan jahon iqtisodchisi Adam Smitning erkin savdo haqidagi asarini toping? a) “Erkin savdo”; b) “Ochiq iqtisodyot”; c) “Milliy va jahon iqtisodyoti”; d) “Xalqlar boyligi tabiatini va sabablari”.
17. Janubiy Koreyaning eksport miqdori 1960-1990-yillar oraliq‘ida taxminan necha foizdan o‘sib borgan? a) 3 foizdan; b) 10 foizdan; c) 15 foizdan; d) 30 foizdan.	18. Yuzaga kelgan pandemiya jahon iqtisodiyotiga har oyda qancha miqdorda iqtisodiy zarar keltirmoqda? a) qariyb 100 mlrd.dollar; b) qariyb 200 mlrd.dollar; c) qariyb 300 mlrd.dollar; d) qariyb 400 mlrd.dollar.
19. O‘zbekiston quyidagi qaysi tashkilotga a’zo emas? a) Birlashgan Millatlar tashkiloti;	20. Valuta zaxiralari miqdori bo‘yicha quyidagi qaysi mamlakat 1-o‘rinda turadi?

b) Islom Konferensiya Tashkiloti; c) Jahon savdo tashkiloti; d) Shanxay Xalqaro tashkiloti.	a) Yaponiya; b) AQSH; c) Xitoy; d) Shvetsariya.
21. Jahon xo‘jaligida eng birinchi “iqtisodiy mo‘jiza” nechinchi-yillarda ro‘y bergan? a) 1930-yillarda; b) 1940-yillarda; c) 1950-yillarda; d) 1960-yillarda.	22. Jahon iqtisodiyotidagi “Eng yirik eksportyor mamlakat”ni toping? a) AQSH; b) Germaniya; c) Yaponiya; d) Xitoy.
23. 1 barrel necha litr? a) 59 litr; b) 69 litr; c) 149 litr; d) 159 litr.	24. 1 unsiya necha gramm? a) taxminan 11 gramm; b) taxminan 21 gramm; c) taxminan 31 gramm; d) taxminan 41 gramm.
25. “Xalqaro iqtisodiyot” deganda quyidagi qaysi nazariya tushuniladi? a) xalqaro iqtisodiy munosabatlar nazariyasi; b) jahon iqtisodiyoti nazariyasi; c) jahon xo‘jaligi nazariyasi; d) hamma javoblar to‘g‘ri.	26. Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida qanday integratsiyaviy tashkilot tashkil qilingan? a) ShHT; b) Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik uyuushmasi; c) SAARK; d) ASEAN.
27. Quyidagi qatorlardan “yopiq iqtisodiyot”ga moslashgan mamlakatni toping? a) Eron; b) Shimoliy Koreya; c) Vietnam; d) Hamma javoblar to‘g‘ri.	28. Yaponyaning “iqtisodiy mo‘jiza” yaratishdagi eng asosiy omili: a) yapon aholisining mehnatsevarligi; b) fan-texnika inqilobi; c) mahsulotlarning eksport qilinishi; d) “Yaponiya modeli”ning ahamiyati.
29. Quyidagi qatorlardan “nemis modeli”ning asoschisini toping? a) Myuller; b) Sharl de Goll; c) Gelmut Kol; d) Ludvig Erxard.	30. Quyidagi qatorlardan Buyuk Britaniyaning milliy valutasini toping. a) britan markasi; b) britan dollari; c) yevro; d) funt sterling.

GLOSSARIY

Aksiya – uning egasi aksiyadorlik jamiyati kapitaliga o‘zining ma’lum hissasini qo‘sghaniga va uning foydasidan dividend shaklida daromad olish huquqi borligiga guvohlik beruvchi qimmatli qog‘oz.

Aksioner – korxona yoki kompaniya aksiyalarining egasi.
Bojxona boji – tovar davlat chegarasini kesib o‘tganda solinadigan maxsus pul solig‘i.

ASEAN – Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining submintaqaviy uyushmasi. 1967-yilda tashkil etilgan bo‘lib, ushbu uyushmaga Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tailand, Filippin, Vietnam, Kambodja, Bruney, Myanma va Laos mamlakatlari a’zo.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish – davlat tomonidan aholiga barcha hayot kechirish shart-sharoitlarini yaratish uchun maqsadli yo‘naltirilgan kafolatlar tizimi.

Aholini ijtimoiy himoyalash – aholini bozor iqtisodiyotining salbiy ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlaridan asrash, shu oqibatlarning aholi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga ta’sirini yumshatish.

Aholining real daromadlari – narx darajasi o‘zgarishini hisobga olib, aholining ixtiyorida bo‘lgan daromadga sotib olish mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlar miqdori, ya’ni aholining ixtiyorida bo‘lgan daromadning xarid quvvati.

“Aqli kishilarining ketib qolishi” - mamlakatdan “intellektual elita” vakillarining chet elda ishga joylashish maqsadida chiqib ketishi.

Bandlik – mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg‘ul bo‘lishi; fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan va qonunga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beradigan faoliyati.

Bank aktivlari – banklarning asosiy faoliyatini amalga oshirishda foydalanuvchi turli moddiy va moliyaviy resurslar majmuyi. Ular asosan bank kreditlari, asosiy vositalari, sotib olgan qimmatli qog‘ozlari, investitsiyalari valuta ko‘rinishida bo‘ladi.

Bank depozitlari – jismoniy va yuridik shaxslarning bank muassasalariga ma’lum muddatga va muddatsiz omonat shaklida qo‘ylgan bo‘sh pul mablag‘lari.

Bank-moliya tizimining barqarorligi – banklarning va boshqa moliya muassasalarining o‘z majburiyatları yuzasidan talablarga to‘la

javob bera olishi. Bu likvidlilik, kapitalning yetarliligi, aktivlar sifati, rentabellik ko‘rsatkichlari orqali aniqlanadi.

Bank o‘tkazmaları – o‘tkazuvchi (to‘lovchi) talabiga muvofiq, uning hisobidan oluvchi (benifitsiar) foydasiga bir bank tomonidan boshqa bankka to‘lov talablari vositasida bajariladigan hisob-kitob ko‘rinishi.

Bankrot – xo‘jalik sudi tomonidan e’tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatları bo‘yicha kreditorlar talablarini to‘la hajmda qondirishga yoki majburiy to‘lovlari bo‘yicha o‘z majburiyatini bajarishga qodir emasligi.

Barqarorlik – narsa va hodisalarning amal qilishi va rivojlanishdagi o‘ziga xos muayyanlik holati.

Barter – tovarni tovarga to‘g‘ridan to‘g‘ri ayirboshlanadigan savdo bitimi.

Bahreyn isлом banki – Bahreyn mamlakatidagi birinchi isлом tijorat banki sifatida 1979-yilda tashkil qilingan. Bankning ruxsat etilgan nizom jamg‘armasi 100 mln.bahreyn dinorini tashkil etadi.

Biznes – foyda olishga qaratilgan (ehtiyoj va muhtojlikni qondirish natijasida) tadbirkorlik faoliyatini anglatadi. U o‘zining mulkiy javobgarligi ostida xususiy yoki qarz mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan, asosiy maqsadi foyda olish va o‘z ishini rivojlantirish nuqtai nazaridan yuritiluvchi iqtisodiy faoliyat.

Bojaxona boji – tovar davlat chegarasini kesib o‘tganda solinadigan maxsus pul solig‘i.

Bojaxona ittifoqi – ikki va undan ortiq davlatlarning bir-biriga va uchinchi mamlakatlarga nisbatan soddalashtirilgan tarif siyosatini o‘tkazishidir.

Bojaxona tarifi – tovar oqimlarining chegarani kesib o‘tishida davlat tomonidan olinadigan soliq miqdori ko‘rsatilgan tartiblangan tovarlar ro‘yxati.

Bozor konyunkturasi – muayyan vaqt mobaynida tovarlar bozorining holatini tavsiflovchi vaqtinchalik iqtisodiy vaziyat bo‘lib, quyidagi belgilar orqali aniqlanadi: ichki va tashqi savdodagi o‘zgarishlar; ishlab chiqarish va qurilish dinamikasi; tovar zaxiralari harakati; narxlar dinamikasi va boshqalar.

Breksit islohoti – Buyuk Britaniyaning Yevropa Ittifoqi a’zoligidan chiqishga mo‘ljallangan vazifa va chora-tadbirlar.

Budget deficitsi – budget xarajatlarining budget daromadlaridan oshib ketishi natijasida vujudga kelgan taqchillik.

Byurokratik to'siqlar – iqtisodiyotning turli darajalarida xo'jalik faoliyatini tashkil etish, xo'jalik yechimlarini samarali hal etishga to'sqinlik qiluvchi, asossiz ravishdagi va subyektiv tavsifdagi rasmiyatchilik, tartib-qoidalar.

Valuta – ma'lum bir davlatning qonun bilan o'rnatilgan pul vositasi (milliy valuta), bir yoki bir necha yetakchi mamlakatlarning valutasi ko'rinishidagi jahon rezerv pullari, Xalqaro valuta fondi va Yevropa valuta tizimi a'zolari tomonidan ko'p tomonlama hisob-kitoblarda foydalilaniladigan xalqaro valuta birliklari.

Valuta arbitraji – svoplar va ssuda kapitali bozorida bitimlar birgalikda amalga oshirilini nazarda tutuvchi banklararo operatsiyalar.

Valuta bozorlari – milliy valuta ishtirokida talab va taklif ta'sirida yuzaga keluvchi valuta kursiga muvofiq xorijiy valutalarini oldi-sotdi qilinadigan rasmiy markazlar.

Valuta interentsiyasi – davlat organlari tomonidan milliy bozorda xorijiy valutani sotish va sotib olish.

Valuta kliringi – ikki va undan ortiq hukumat o'rtasida moliyaviy talablar va majburiyatlarni o'zaro hisobga olish haqidagi kelishuv.

Valuta kotirovkasi – bir valuta bahosini boshqa valutalarga ifodalashining sonli yozuvi.

Valuta kursi – milliy valutalar o'rtasidagi nisbat, bir mamlakat valutasining xorijiy pul birliklarida ifodalanishi.

Valuta rezervlari – xorijiy valuta, oltin, SDR, XVFdagi rezerv pozitsiya ko'rinishidagi valuta-likvid vositalarning jami.

Valuta siyosati – mamlakatda xorijiy valutalarning pul-kredit aylanmasini tartibga solishga yo'naltirilgan tadbirlar tizimi.

Veksel – belgilangan ko'rinishda tuzilgan yozma qarzdorlik majburiyati, veksel egasi ko'rsatilgan muddat tugaganidan so'ng belgilangan pul miqdorini qarzdordan talab qilishga haqlidir.

GATT – Savdo va tariflar bo'yicha Bosh kelishuv – tashqi savdo operatsiyalarini o'tkazishda belgilangan tamoyillarga amal qilishga rozi bo'lgan mamlakatlarni birlashtiruvchi savdo va tarif masalalari bo'yicha xalqaro akt.

Global moliyaviy-iqtisodiy bozor – jahon mamlakatlari o'rtasidagi moliyaviy-iqtisodiy aloqalarni yagona xo'jalik tarzida amal qilishiga asoslangan munosabatlar.

Global muammolar – olamshumul ahamiyatga ega bo‘lgan va o‘z echimini topishida jahondagi barcha mamlakatlarning birgalikdagi harakatlarini talab etuvchi sivilizatsiyamizning eng dolzarb masalalari.

Davlat budjeti – davlat daromadlari va sarflarining moliyaviy rejasи.

Davlat qarzi – davlatning o‘z fuqarolari, banklar, korxona va tashkilotlar, shuningdek, xorij mamlakatlaridan qarzi. O‘z manbayiga qarab, davlat qarzlariga, ya’ni ichki va tashqi davlat qarziga bo‘linadi. Davlat o‘z xarajatlarini daromadi bilan qoplay olmay qarz oladi, qarz hisobidan o‘z budgetining kamomadini vaqtincha qoplaydi.

Davlat mulki – davlat vazifalari bajarishga xizmat qiluvchi davlat korxona va muassasalarining mulki.

Daromad solig‘i – fuqarolarni bir yil davomidagi yalpi daromadidan olinadigan majburiy to‘lov (soliq).

Devalvatsiya – milliy valuta kursini xorijiy valutaga nisbatan pasaytirilishi (teskari jarayon – revalvatsiya).

Demping – tovarlarni tashqi bozorda ichki bozorga nisbatan arzon bahoda sotish. Tashqi bozorni egallash uchun mamlakatlar o‘z tovarini ba’zan ishlab chiqarish xarajatlaridan ham past (arzon) baholarda chetga chiqarishi mumkin.

“Demografik portlash” - jahoning kam rivojlangan va kambag‘al mamlakatlarida nazorat qilib bo‘lmaydigan darajada aholi sonining o‘sishi.

Deflatsiya – inflatsiya davrida muomaladagi qog‘oz pulni kamaytirish. Davlat tomonidan muomaladagi pul miqdorini kamaytirishga qaratilgan moliya va pul – kredit tadbirlarini qo‘llash orqali amalga oshiriladi.

Diversifikatsiya – (lotinchadan diversus – har xil va facere-qilmoq, bajarmoq) – ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohalarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko‘paytirish.

Dividend – aksionerlik jamiyati sof foydasidan aksiya egalariga to‘lanadigan qismi bo‘lib, u aksionerlarga naqd pul yoki aksiyalar bilan to‘lanadi.

Dollar – dollar, birinchidan AQSH pul birligi, 100 tsentga teng. 1786-yilda kumush dollar, 1965-yilda esa oltin, kumush, mis-nikelli dollar zarb qilingan. AQSH dollari xalqaro valuta hisob-kitoblarida keng qo‘llanadi. Muomalada 100, 50, 20, 10, 5, 2, 1 dollarli qog‘oz pullar.

Dollar, ikkinchidan Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Liberiya, Efiopiya, Malayziya, Singapur, Bermud orollari, Britaniya Gondurasi kabi davlatlarining pul birligi hisoblanadi.

Yevro – universal Yevropa hisob-kitob-to‘lov birligi bo‘lib, YIga a’zo mamlakatlar hududida EKYU o‘rniga joriy etilgan.

Yevropa valuta tizimi (YVT) - YI a’zolarining hududiy valuta guruhi.

Yevropa Ittifoqi (YI) – Yevropaning 27 ta davlatini birlashtiruvchi iqtisodiy va siyosiy guruh.

Yevropa erkin savdo uyushmasi (YESU) – Yevropadagi qator yetakchi sanoati va savdosi rivojlangan mamlakatlarning savdo-iqtisodiy tashkiloti bo‘lib, 1960-yilda Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya birlashgan qirolli tashabbusi bilan Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati davlatlari ishtirokida tashkil topdi. “Umumiy bozor”ga qo‘shilishi munosabati bilan 1973-yili Buyuk Britaniya va Daniya, 1986-yili Portugaliya YESUdan chiqdi. Bu uyushmaning hozirgi a’zolari Avstriya, Islandiya, Norvegiya, Shvetsiya, Shvetsariya, Finlandiya. Kotibiyatining shtab-kvartirasi Jeneva shahridir.

Jahon banki – 1944-yilda Xalqaro valuta fondi bilan bir vaqtida tuzilgan birinchi davlatlararo investitsiya institutidir. Bank o‘zining faoliyatini 1946-yil 25-iyundan boshlagan.

Jahon bahosi – talab va taklif egri chiziqlari ta’sirini hisobga olgan holda milliy narx ko‘rsatkichlari ta’sirida xalqaro savdo markazlarida xosil bo‘ladi.

Jahon bozori – moddiylashtirilgan va moddiylashtirilmagan ko‘rinishidagi ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste’mol bosqichlarni o‘z ichiga oluvchi XIM subyektlari (milliy va hududiy iqtisodiyotlar, xalqaro tashkilotlar va korporatsiyalar)ning o‘zaro iqtisodiy ta’sirlashish global muhitidir.

Jahon bozori konyunkturasi – jahon tovar bozorlaridagi sotish sharti, ushbu bozorlardagi talab, taklif, narxlar darajasi, ularning o‘zgarish tendensiyalari.

Jahon valuta-moliya tizimi (JVMT) – xalqaro iqtisodiy munosabatlar doirasida uzoq davom etgan evolutsiya natijasida shakllangan va davlatlararo bitimlar orqali mustahkamlangan valuta munosabatlarini tashkil etish ko‘rinishidir.

Jahon ishchi kuchi bozori (JIKB) – milliy xo‘jalik tizimlari va jahon iqtisodiyoti doirasida ishlab chiqaruvchi kuchlarning darajasi, tabiatи va

joylashuviga sezilarli ta'sir etuvchi iqtisodiy faol aholining mamlakatlar va hududlar o'rtasida jami migratsion aylanmasi.

Jahon puli – xalqaro miqyosda hamma uchun umumiylar xarid vositasi, umumiylar to'lov vositasi, boylikning umumiylar moddiy timsoli, baynalmilal qiymat ifodasi bo'lgan puldir. Jahon puli vazifasini dastlab ma'lum vazifadagi oltin yombilari bajargan, so'ngra xalqaro miqyosda obro'e'tiborli milliy pul (dollar, funt sterlind) jahon pullari deb e'tirof etilgan.

Jahon savdo tashkiloti (JST) — (World Trade Organization WTO). Bu tashkilot GATT (Tariflar va savdolar to'g'risidagi bosh bitim) doirasidagi Uruguay raundi muzokalarini natijasida paydo bo'lgan. Uning shtab-kvartirasi Jeneva shahrida joylashgan. JST GATT, GATS (Xizmatlar ko'rsatish savdosi to'g'risidagi bosh bitim) va TRIPS (Intellektual mulk huquqining savdo aspektlari to'g'risidagi bosh bitim)lar asosida tashkil etilgan ko'ptomonlama savdo-iqtisodiy tashkilotdir. Shuningdek, u xalqaro savdoni institutsional va huquqiy asosini tashkil etuvchi mustaqil davlatlararo tashkilot.

Immigrant – muhojir, boshqa mamlakatdan ko'chib kelgan kishi.

Immigratsion kvota – xorijiy fuqarolarning kirib kelishini davlat tomonidan miqdoriy cheklash.

Import – mamlakat ichki bozorlarida sotish uchun chet el mollarini, kapitalini, texnologiyasini va xizmatlarni olib kelish. Import xalqaro mehnat taqsimoti natijasidir. U vaqtini tejashga, iqtisodiyot, aholi ehtiyojini qondirish vazifalarini muvaffaqiyat bilan hal qilishga ko'maklashadi.

Investitsiya – bu iqtisodiy samara (foyda, daromad) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag'lari, banklarga qo'yilgan omonatlar, paylar, qimmatli qog'ozlar (aksiya, obligatsiyalar), texnologiyalar, mashinalar asbob-uskunalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklardir.

Investitsiya dasturi – ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital kiritish uchun ishlab chiqilgan dastur.

Investitsiyaviy muhit – mamlakat iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning samarali aylanishi zarur bo'lgan shart-sharoitlar kompleksi.

Investitsiya faoliyati – investitsiya maqsadlarini amalga oshirish bilan bog'liq faoliyat. Investitsiya kompleksi tashkilotlari orqali amalga oshiriladi.

Investitsiyaviy siyosat – savdo menejmenti umumiyligi strategiyasining bir qismi bo‘lib, korxonani rivojlantirish uchun aktivlarni kengaytirishning eng samarali yo‘llarni tiklashni nazarda tutadi.

Investitsiyaviy hamkorlik – xalqaro iqtisodiy munosabatlarning bir ko‘rinishi bo‘lib, resurslarni ratsional taqsimlash, xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish natijasidagi ustunliklaridan foydalanish orqali davlat tomonidan iqtisodiyotda nisbatan yuqori natijalarga erishish, texnologik ishlab chiqarish tuzilmasini yangilash kabilarni maqsad qilgan.

Innovatsiya – fan yutuqlari va ilg‘or tajribadan foydalanishga asoslangan texnika, texnologiya, mehnatni tashkil qilish, boshqaruv sohasida yangilik kiritish.

Innovatsion faoliyat – nazariy modelni bozor talabiga mos texnologiya-tovarga aylantirishdan iborat uzoq jarayondir.

Innovatsion texnologiyalar – iqtisodiyotga yangiliklarni tatbiq etish bosqichlarida qo‘llaniluvchi usul va vositalar majmui bo‘lib, o‘z ichiga joriy etish, trening, konsalting, transfert, audit, injiniring kabi turlarini oladi.

Integratsiya – bir necha elementlarni bir butunga birlashtirish. Iqtisodiyotda xo‘jalik hayotni baynalmilallashtirishning oliy shakli bo‘lib, bunga xalqaro mehnat taqsimotini chuqurlashtirish obyektiv ravishda sabab bo‘ladi.

Inflatsiya – pul muomalasi qonunlarining buzilishi natijasida milliy valutaning qadrsizlanishi, narxlarning o‘sishi.

Inflatsiya darajasi – ma’lum vaqt ichida (oy, yil) narxlar darajasining foizdagi o‘zgarishi.

Informatsiya va texnologiyalar jahon bozori (ITJB) – intellektual faoliyat natijalari ayrboshlash xalqaro sohasi.

Infratuzilma – tovar ishlab chiqarish shartlarini ta’minlovchi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlari kompleksi: yo‘llar, aloqa, transport, maorif, sog‘liqni saqlash.

Inqirozga qarshi mo‘ljallangan choralar dasturi – jahon mamlakatlari tomonidan va xususan O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan iqtisodiy inqirozga qarshi ishlab chiqilgan choralar dasturi bo‘lib, mazkur dasturda talabni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan bir qator moliyaviy imtiyozlar va barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlovchi chora-tabdirlar majmui o‘z aksini topgan.

Ipoteka – bankning garov xat, ko‘chmas mulk garovi asosida muayyan muddatga ssuda berishi.

Islom taraqqiyot banki (ITB) – islom bank-moliya sohasida keng qamrovli faoliyat yurituvchi yetakchi islom moliya muassasasi hisoblanadi. ITB Saudiya Arabiston Podsholining Jidda shahrida joylashgan bo‘lib, unga 1973-yil 18-dekabrda Islom Konferensiysi Tashkiloti (hozirgi Islom Hamkorlik Tashkiloti) moliya vazirlarining birinchi konferensiyasida asos solingan. ITB o‘z faoliyatini rasman 1975-yil 20-oktabrda boshlagan. Bank tarkibiga 54 ta hissador a’zo mamlakatlar kiradi.

Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) – (2011-yilgacha “Islom konferensiysi tashkiloti” nomi bilan yuritilgan) 1969-yil 25-sentabrida islom mamlakatlari va hukumatlari rahbarlarining Robot (Marokash) shahrida o‘tkazilgan birinchi konferensiyasida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohada islomiy birdamlikni ta’minalash, mustamlakachilikka qarshi kurashish, Falastin ozodlik tashkilotini qo‘llab-quvvatlash maqsadida asos solingan.

Iste’mol – ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining oxirgi fazasi, ijtimoiy mahsulotdan aholini iqtisodiy talablarini qondirish jarayoni.

Iste’mol krediti – markaziy bank tomonidan barqarorlik davrida qo‘llaniladigan pul siyosati dastagi. U banklar va boshqa maxsus kredit institutlari tomonidan aholining uzoq muddatli iste’mol tovarlarini sotib olish uchun beriladigan kredit.

Iste’mol tovarlari – inson ehtiyojini qondirishga mo‘ljallangan iste’mol buyumlarining tovar shakli; pulga sotib olib, iste’mol etiladigan moddiy mahsulotlar va har xil xizmatlar.

Ish bilan band bo‘lgan jami aholi – ishchi kuchi (iqtisodiy faol aholi)ning ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo‘lgan qismi.

Ishlab chiqarish – ma’lum davrda alohida xo‘jalik yurituvchi subyekt tarmoqlar va iqtisodiy sektorlar tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar qiymati.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi – ishlab chiqarishning rivojlanishi uchun tashqi shart-sharoitlarni ta’minlovchi tarmoqlar majmuyi bo‘lib, o‘z ichiga temir va avtomobil yo‘llari, elektr, gaz va suv ta’minti, aloqa kommunikatsiyalari, ombor xo‘jaligi va boshqalarni oladi.

Ishsizlik – iqtisodiy jihatdan faol aholining bir qismi o‘z kuchini qo‘llay olmay “ortiqcha” bo‘lib, mehnat zaxirasi armiyasi bo‘lib qolish hodisasi.

Iqtisodiy va ijtimoiy kengash (EKOSOS) – BMTning asosiy boshqaruv organlaridan biri bo‘lib, uning XIM sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib turadi.

Iqtisodiy integratsiya – hududiy miqyosda sifat jihatdan yangi iqtisodiy muhitni yaratish yo‘li orqali milliy xo‘jalik komplekslarini o‘zaro yaqinlash va bir-biriga kirib borish jarayoni.

Iqtisodiy ittifoq – iqtisodiy integratsiyaning oliy ko‘rinishi, u umumiyluquqiy me’yorlar, soliq bazasini soddalashtirilishi, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarda yagona standartlarni joriy etish, yagona valutaga o‘tish kabilalar bilan tavsiflanadi.

Iqtisodiy o‘sish – real yalpi ichki mahsulot umumiy hajmining yoki aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan real yalpi ichki mahsulotning oldingi yilga nisbatan o‘sishi.

“Katta yettilik” (G7) – norasmiy tashkilot bo‘lib, yetakchi industrial yetti davlati (AKSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Yaponiya va Italiya). Bu tashkilot har yili jahon xo‘jaligidagi dolzarb muammolarni hal qilishga qaratilgan yuksak darajadagi uchrashuvlarni uyushtiradi.

“Katta sakkizlik” (G8) – norasmiy tashkilot bo‘lib, yetakchi industrial yetti davlat (AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Yaponiya va Italiya) hamda Rossiya davlatini o‘z ichiga oladi. “Katta yettilik” tashkilotiga 1997-yilda Rossiya Federatsiyasi a’zo bo‘lganidan keyin tashkil bo‘lgan “Katta sakkizlik” tashkilotidir. Biroq, 2014-yili Qrim mojarosi tufayli mazkur tashkilot a’zoligidan Rossiya chiqarib yuborilgan va oldingidek “G7” tashkiloti sifatida yuritiladi.

“Katta yigirmalik” (G20) – jahonning 20 ta yirik mamlakatlar guruhi bo‘lib, unga jahondagi eng boy mamlakatlar va yirik rivojlanayotgan davlatlar kiradi va ular hissasiga jahon yalpi ichki mahsulotining 90 foiz ulushi to‘g‘ri keladi.

Kartel - tashki savdo assotsiatsiyasi (uning a’zolari alohida tovar guruhlari bo‘yicha ishlab chiqarish va narx siyosatini muvofiqlashtirib olishadi).

Kvotalash – davlat tomonidan eksport va importning qiymat va jismoniy hajmini to‘g‘ridan to‘g‘ri cheklash amaliyoti.

Kliring – qarama-qarshi tovar oqimlarida valutadan foydalanmasdan (naqdsiz) vositachi orqali o‘zaro hisob-kitobni nazarda tutuvchi savdo operatsiyasi.

Konsalting – konsalting firma tomonidan har qanday iste'molchiga keng ko'lamdag'i maslahat xizmatlari ko'rsatish.

Konyunktura – bu bozorda ma'lum bir vaqtida yuzaga kelgan iqtisodiy holatdir (asosan talab hamda taklif nisbati va u bilan bog'liq bo'lgan narxlar darajasi orqali yuzaga keladi).

Kredit – jismoniy va yuridik shaxslarning vaqtinchalik bo'sh mablag'larini muayyan tamoyillar asosida qaytarish sharti bilan foydalanishga berish jarayonida vujudga kelgan iqtisodiy munosabatlar majmuyi.

Lizing – mashina, qurilmalar, texnologiya va ko'chmas mulkni ishlab chiqarish jarayonida foydalanish uchun uzoq muddatga ijara ga berish.

Litsenziyalash – davlat tomonidan huquqiy va jismoniy shaxslarga tashqi iqtisodiy operatsiyalar olib borishga ruxsat berish amaliyoti.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar – mamlakat yaxlit iqtisodiyoti darajasidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon va hodisalarini o'lchash va baholash imkoniyatini beruvchi ko'rsatkichlar. Masalan, yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, iqtisodiy o'sish, ishsizlik, inflatsiya darajasi va boshqalar.

Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshliligi – mamlakatning o'rta va uzoq muddatga iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlab turish qobiliyati.

Marja – valuta xaridori va sotuvchisi kurslari o'rtasidagi farq.

Maasrixt shartnomasi – shartnomma 1993-yilning 1-fevralida imzolangan bo'lib, Yevropa iqtisodiy hamjamiyatiga a'zo bo'lgan 12 davlat o'rtasidagi kelishuv.

Maxsus qarz olish huquqi – Xalqaro valuta fondining maxsus hisoblaridagi kredit yozuvlari ko'rinishidagi xalqaro aktivlar (ya'ni, zaxira va to'lov vositalar) bo'lib, ularning mikdori XVFga a'zo mamlakatlarning kvotalariga mos keladi.

Mehnat bozori – mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan band bo'lgan va band bo'lmanan qismlari va ish beruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni hamda ularning shaxsiy manfaatlarini hisobga oluvchi shartnomalar asosida ishchi kuchi xarid qilish sotishni amalgalashiruvchi, shuningdek, unga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi nisbatlarni bevosita tartibga soluvchi, bozor iqtisodiyotining murakkab, ko'p aspektli, o'suvchi va ochiq ijtimoiy-iqtisodiy tizimchasidir.

Mehnat haqi – joriy davrda ish beruvchi tomonidan yollangan xodimga bajargan ishlari uchun berilgan pul yoki natura usulidagi to‘lovlar bo‘lib, ular hisoblangan summalar yig‘indisidan tashkil topadi va ikki qismga bo‘linadi: ish haqi va ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshliligi – iqtisodiyotning to‘lovga qodir talabga mos keluvchi, iqtisodiy o‘sish va turmush sifatini oshirishni ta’minlaydigan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish va ichki hamda tashqi bozorlarda sotish qobiliyati.

Modernizatsiya – obyektni takomillashtirish, yaxshilash, yangilash, uni yangi talab va me’yorlarga, texnik shart-sharoitlarga, sifat ko‘rsatkichlariga moslashtirish.

Moliya tizimi – moliyaviy munosabatlar va turli darajada ularga xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalar majmuasi.

Moliya-bank tizimi – tarixan shakllangan va belgilangan qonun qoidalar asosida faoliyati yurituvchi mamlakatdagi moliya-kredit muassasalari majmuyidir.

Moliyaviy institutlar – belgilangan qonun-qoidalar doirasida faoliyat yurituvchi mamlakatdagi moliya-kredit tashkilotlari.

Moliyaviy manbalar – iqtisodiyotning turli darajasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun taqozo etiluvchi moliyaviy mablag‘larning kelib chiqish manbalari. Masalan, moliyaviy manbalar aholi va korxonalarning manbalari, davlat budgeti mablag‘lari, qarzga olingan mablag‘lar, xorijiy investorlarning mablag‘lari va boshqa ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin.

Narx – tovar qiymatining puldagi ifodasi.

Nou-xau – mualliflik guvohnomasi (patent) bilan himoyalananmagan ishlab chiqarish tajribasi va mahorat sirlari.

Oziq-ovqat xavfsizligi – milliy va global ehtiyojlarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minalash imkoniyati.

Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) - (Asian Development Bank, ADB)- Tinch okeani havzasida va Osiyo mamlakatlaridagi rivojlanish loyihasi uchun beriladigan uzoq muddatli kreditlar bilan shug‘ullanuvchi mintaqaviy davlatlararo bank.

Oferta – aniq shart-sharoitlar asosida bitim tuzish taklifi.

Offshor hududlar – milliy iqtisodiy makonning bir qismi bo‘lib, bu yerda xorijiy huquqiy va jismoniy shaxslar tijoriy operatsiyalarni chet el valutasida amalga oshirishadi.

Portfel investitsiyalar – xo‘jalik obyektini ekspluatatsiya qilish tufayli daromad olish huquqini kafolatlovchi kapital qo‘yilmalari.

Preferensiya – iqtisodiyotni maqsadga muvofiq rivojlantirish va tartibga solishda ayrim soha va tarmoqlar, korxona va ishlab chiqarish turlariga nisbatan beriluvchi imtiyoz, afzallik va ustuvorliklar.

Protektsionizm – davlatning xorij raqobatidan ichki bozorni himoya qilish siyosati, mamlakatga olib kelinayotgan tovarlarga yuqori bojlar belgilaydi, ayrim tovarlarni olib kelish cheklanadi yoki umuman taqiqlanadi.

Pul-kredit siyosati – davlat tomonidan iqtisodiy o‘sishni ta’minlash maqsadida pul muomalasini tashkil etish va barqarorligini ta’minlash uchun amalga oshiriladigan barcha chora-tadbirlar majmui.

Pul – hamma tovar va xizmatlar ayirboshlanadigan, umumiyligida sifatida foydalaniladigan, boshqa barcha tovarlar qiymatini ifodalaydigan maxsus tovar.

Ratifikatsiya – shartnomalarni tasdiqlash.

Savdo va taraqqiyot bo‘yicha BMT Anjumani (YUNKTAD) – BMT tizimi doirasidagi maxsus muassasa.

Savdoda eng qulay sharoit yaratish rejimi – mamlakatlar o‘rtasida kelishilgan xolda o‘rnatilgan savdo operatsiyalarining imtiyozli tartibi.

Sanoat taraqqiyoti bo‘yicha BMT Anjumani (YUNIDO) – BMT tizimi doirasidagi maxsus muassasa.

Saldo – muayyan vaqt davomida moliyaviy tushumlar va sarflar, eksport va import qiymati (savdo balansi saldosi), xorijiy to‘lovlar va tushumlar (to‘lov balansi saldosi) o‘rtasidagi farq.

Soliq stavkasi – soliqlarni hisoblashda soliq bazasining har bir birligi hisobiga to‘g‘ri keladigan soliq me’yori.

Soliq yuki – soliq to‘lovchilarining muayyan davrda budjetga to‘langan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘indisidir. Mamlakat miqyosida muayyan davrdagi barcha to‘langan soliqlar va yig‘imlarning yalpi ichki mahsulotdagi salmog‘i ham soliq yukini ifodalaydi.

Soliqlar – belgilangan va muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg‘araz xususiyatga ega bo‘lgan, budjetga yo‘naltiriladigan majburiy pul to‘lovleri tushuniladi.

Strategik alyanslar – jahon bozoridagi global iqtisodiy masalalarni birgalikda hal etish maqsadida tuziladigan firmalararo ittifoq bo‘lib,

ushbu iggifoq mazkur firmalarning boshqa sohalarda raqobatlashuviga to'sqinlik qilmaydi.

Talab – xaridor, iste'molchilarni bozorda muayyan tovarlarni, ne'matlarni sotib olish istagi; bozorga olib chiqilgan va pul imkoniyatlari bilan ta'minlangan ehtiyojlar.

Tannarx – mahsulot ishlab chiqarish va sotish uchun ketgan barcha xarajatlarning qiymati.

Tashqi qarz – mamlakat hukumati, moliya-kredit tashkilotlari, yirik korxonalarining boshqa mamlakatlar moliya-kredit muassasalaridan qarzga olgan moliyaviy mablag'larining jami hajmi.

Tashqi nodavlat qarzlar – mamlakatdagi xususiy shaxslar (moliya muassasalari, korxonalar va aholi) tomonidan boshqa mamlakatlar moliya-kredit muassasalaridan qarzga olgan moliyaviy mablag'larining jami hajmi.

Tashqi savdo – bir mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan savdosi.

Tashqi savdo siyosati – bir mamlakatni boshqa mamlakatlar bilan olib borayotgan savdosi (eksporti va importi) borasidagi siyosati. Bunga teng huquqlilik va ikki tomonlama manfaat olish ko'zda tutiladi. Eksport va importning tovar tarkibi va geografik hajmiga asosan olib boriladi.

TIFni tartibga solishning tarifli usullari – soliq cheklashlari (bojxona yigimlari, bojlar, aktsizlar va boshqalar) yordamida tashqi savdoga ta'sir o'tkazish vositalari yig'indisi.

TIFni tartibga solishning tarifsiz usullari – tashqi savdoga ta'sir o'tkazishning bevosita, ma'muriy vositalari guruhi (kvotalash, litsenziyalash, texnik standartlarni joriy qilish, sanitar me'yorlar va boshqalar).

Transmilliy korporatsiyalar (TMK) – bosh kompaniya bir mamlakat kapitaliga tegishli bo'lib, filiallari esa dunyo bo'ylab tarqalib ketgan kompaniyalar.

Transmilliyashuv indeksi (TMI) – TMKnинг xorijdagi tovar va xizmatlar ishlab chiqarishga jalb etilganlik darajasi.

Transmilliy banklar (TMB) – jahon ssuda kapitali va moliya-kredit xizmatlari bozorida faol qatnashish imkonini beruvchi kapitalga ega yirik banklar.

Turmush darajasi – aholining zaruriy, moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda xizmatlar bilan ta'minlanganlik hamda ularni iste'mol qilish darajasi.

To‘g‘ri investitsiyalar – foyda olish bilan birlashtirilgan kapitalga qo‘yilayotgan obyekt ustidan nazoratni ta’minlash huquqini beruvchi kapital qo‘yilmalari.

To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar – bevosita mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish jarayonini tashkil etish yoki yanada kengaytirish maqsadida xorijiy sheriklar tomonidan uzoq muddatli kapital qo‘yilmalar kiritish. To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar investorlarga mazkur ishlab chiqarish jarayonlari ustidan nazorat qilish imkonini beradi.

To‘lov balansi – mamlakatning barcha rezidentlarining qolgan barcha mamlakatlar bilan ma’lum vaqt oraligidagi (odatda bir yil) iqtisodiy bitimlari natijalarini sitsemashtirilgan xolda qayd etilishidir. Shuningdek, u to‘lov balansi – muayyan muddat davomida mamlakatning chet ellarga to‘lagan va xuddi shu davr mobaynida mamlakatga chet eldan tushgan to‘lovlari summalarini nisbatini tavsiflaydi. To‘lov turkumiga tashqi qarz, uning foizi, chetdan olingan tovarlar va xizmatlar haqi, xorijiy investitsiyalar, xorijda diplomatik ishlarni, iqtisodiy aloqalarni yuritish xarajatlari, fuqarolar va qo‘shma korxonalarining chet elga pul o‘tkazmalari va boshqalar kiradi.

Xavfsizlik, xalqaro – xalqaro munosabatlar miqyosidagi beqarorlik.

Xalqaro valuta fondi – xalqaro savdo va valuta hamkorligini rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatish maqsadida 1944-yilda tashkil etilgan xalqaro valuta-moliya tashkiloti. Xalqaro valuta fondi – a’zo davlatlar o‘rtasida valuta-kredit munosabatlarini tartibga solib turish va ularga to‘lov balansining kamomadi bilan bog‘liq valutaviy qiyinchiliklar paytida chet el valutasida qisqa va uzoq muddatli kreditlar berish yo‘li bilan moliyaviy yordam ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan hukumatlararo tashkilot. XVF o‘z amaliy faoliyatini 1947-yil 1 martdan boshlagan. XVF – yirik hukumatlararo valuta-moliya tashkilot bo‘lib, BMTning maxsuslashtirilgan muassasasi sifatida tartibga solish, maslahat berish va moliya-kredit sohasidagi vazifalarni bajaradi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar – mamlakatlar va hududlar o‘rtasidagi, xalqaro tashkilotlar va korporatsiyalar ishtirokidagi xo‘jalik aloqalari tizimi.

Xalqaro kredit – valuta va tovar resurslarini qaytarishlik, shoshilinchlik va to‘lovligi shartlarida berish.

Xalqaro savdo – milliy xo‘jaliklar o‘rtasida to‘lanadigan jami tovar aylanmasi ko‘rinishidaga mehnat mahsulotlari ayriboshlashning o‘ziga xos shakli.

Xalqaro tashkilotlar – ularning har biri xalqaro siyosatda o‘zlarining faoliyat maqsadlari yo‘nalishlariga qarab, yer yuzi taraqqiyotida egallab turgan mavqelariga qarab, umuman xalqaro siyosiy-amaliy munosabatlar jarayonida harakatlarga kirishadigan boshqa xalqaro tashkilotlar tizimidagi maqomlariga qarab ahamiyat kasb etadilar.

Xalqaro tranzit - xorijiy yuklarni jo‘natish va qabul qilib olish punktlari berilgan mamlakat hududidan tashqarida bo‘lishi shartida tashilishidir. Agar tovarlar bojxona omboriga joylashtirilmasadn tashilsa bevosita xalqaro tranzit, bojxona omboridan foydalanilsa – bilvosita xalqaro tranzit hisoblanadi.

Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OESR) – eng rivojlangan industrial mamlakatlar birlashmasi.

Xalqaro hisob-kitoblar – turli davlatlarning huquqiy va jismoniy shaxslari o‘rtasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlardan kelib chikuvchi pul talablari va majburiyatlar bo‘yicha to‘lovlarini tashkil etish va tartibga solish jarayoni.

Xeksher – Olin – Samuelson tamoyili – mamlakatning eksportga ixtisoslashuvi milliy iqtisodiyotdagি ortiqcha ishlab chiqarish omillarining mavjudligiga asoslangan.

Umumiyo bozor – ishlab chiqarish omillarini milliy chegaralar orqali erkin ko‘chib o‘tishi ta’minlanadigan iqtisodiy integratsiya ko‘rinishi.

Unifikatsiya – turli xildagi mahsulotlar, detallar, uzellar va boshqa qo‘llaniladigan materiallar va texnologik jarayonlarni ratsional jihatdan bir xillagini ta’minlash.

Fyuchers – qatnashchilar tomonidan xatarlarni sug‘urtalash maqsadida kelishilgan kurs bo‘yicha fond birjasida bajariladigan tezkor muddatli valuta-moliyaviy operatsiyalar.

Fond bozori – qimmatli qog‘ozlar va boshqa moliyaviy vositalarning oldi-sotdi jarayonlari amalga oshiriluvchi maxsus tashkillashtirilgan bozor.

Franchayzing – bir kompaniyaning boshqa yirikroq yoki bosh kompaniyaning savdo markasi, tovar belgisi va boshqa atributlaridan foydalanish.

Eksport – tovarlar, xizmatlar, investitsiya, qimmatli qog‘ozlar, texnologiyalar va boshqalarni tashqi bozorga chiqarish.

Eksport kvotasi – mamlakat eksporti qiymatining uning yalpi ichki mahsuloti (YaIM)ga nisbati (foizlarda).

EKYU – Yevropa valuta tizimida 1979-1998-yillarda foydalanilgan valuta birligidir.

Embargo – alohida mamlakat yoki davlatlar guruhi bilan savdoni butunlay taqiqlash.

Erkin iqtisodiy hududlar – mamlakatning shunday hududki, bu yerga olib kirlgan tovarlar milliy bojxona yurisdiksiyaside tashqarida hisoblanadi, binobarin bojxona nazorati va soliqqa tortishdan ozod etiladi, ya’ni bu milliy iqtisodiyotning bir qismini tashkil etib, bu yerda mamlakatning boshka hududlarida qo’llanilmaydigan o‘ziga xos imtiyozlar va ragbatlantirishlar tizimidan foydalaniladi.

Erkin savdo hududlari (ESX) – preferensial hudud hisoblanib, uning doirasida bojxona va miqdoriy cheklashlardan xoli savdo tartibiga rioya q ilinadi.

Erkin industrial – iqtisodiy zona – mamlakat hududining xorijiy mamlakatlar tomonidan turli shakllardagi hamkorlikdagi tadbirkorlik bilan shug‘ullanishlari uchun ruxsat etilgan qismi. Mazkur zonalarda maxsus imtiyozli shart-sharoitlar, jumladan, imtiyozli soliqlar, bojxona to‘lovlari, ijara, viza olish, valuta ayriboshlash, mehnatga yollashning qulay tartiblari belgilangan bo‘ladi.

Yalpi ichki mahsulot (YaIM) – ma’lum davr (odatda bir yil) davomida bir mamlakat hududida yaratilgan jami qiymat.

Yangi industrial mamlakatlar (YaIM) – iqtisodiy jihatdan eng tez rivojlanayotgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi davlatlar guruhi.

Yalpi ichki mahsulot – mamlakatda bir yil davomida ishlab chiqarilgan jami pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor qiymati.

Qashshoqlik – insoniyatning global muammolaridan biridir. Ijtimoiy-iqtisodiy, minimal hayotiylik standartining past darajasini aks ettiruvchi kategoriyadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari

1.1. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi, 7-fevral 2017-yil PF-4947, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda, www.lex.uz.

1.2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.

1.3. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ -598-sonli Qonuni. 2019-yil 25-dekabr.

1.4. O‘zbekiston Respublikasining “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi O‘RQ-604-sonli Qonuni. 2020-yil 17-fevral.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror va farmonlari

2.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-4947-sonli Farmoni.

2.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3303 son Qarori. 2017-yil 29-sentabr.

2.3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvardagi “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5614-sonli Qarori.

2.4. “Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruvin tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-yanvar, PF-5643-son Farmoni. //<http://lex.uz/docs/4182345>.

2.5. “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-mart, PF-5975-son Farmoni. //<http://lex.uz/docs/4776669>.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari

3.1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida ilmiy-tadqiqot

bazasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 958-son Qarori. 16.11.2018.

3.2. “Jahon banki ishtirokida “O‘zbekiston koronavirus COVID-19 infektsiyasiga qarshi shoshilinch choralar ko‘rish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyul PQ-4772-sonli qarori. //https://static.norma.uz/official_texts/.pdf

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev asarlari

4.1. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birqalikda barpo etamiz”. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2016.

4.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi www.UzA/28-12-2018.

4.3. Mirziyoyev Sh.M. BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida so‘zlagan nutqi – //<http://www.press-service.uz/uz/lists/view/1063>

4.4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Mustaqil Davlatlar Hamdo‘sligi Davlat rahbarlari kengashi majlisidagi nutqi. <http://president.uz/uz/lists/view/1132>

4.5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //<https://review.uz/oz/post/uzbekiston-respublikasi-prezidenti-savkat-mirzievning-olij-mazlisga-murozaatnomasi>. 28.01. 2020.

4.6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirzièevning 2020-yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //<https://review.uz/uz/post/poslanie-prezidenta-uzbekistana-shavkata-mirziyoyeva>

5. Xorijiy manba va adabiyotlar

5.1. United Nations Industrial Development Organization, 2020. Competitive Industrial Performance Report 2020. Vienna, Austria.

5.2. The Global Competitiveness Index. 2020.//<https://gtmarket.ru/ratings/the-imd-world-competitiveness-yearbook/info>

5.3. The Global Risks Report 2019, 14th Edition, is published by the World Economic Forum.

5.4. ASEAN Sekretariat, “ASEAN: statyearbook2019”.

5.5. Handbook of International Trade and Statistics. UNCTAD. New York and Geneva.2019. P.14.

5.6. Global Risk Report. World Economic Forum. 2017. <http://www.cnbc.com/2017/01/11/top-five-global-risks-for-2017-wef.html>

5.7. А.С.Булатов. Мировая экономика и международные экономические отношения. Учебник. – М.: КНОРУС, 2017. -916 с.

5.8. Kiani K.M. On business cycle fluctuations in USA macroeconomic time servies//Economic modeling. 2016. Vol.53-P.179-186.

5.9. Воловик Н.П. Международная практика создания специалных экономических зон. – М.: ИПЕИ, - 2016. – 99 с.

5.10. Global Risk Report. World Economic Forum. 2015.

5.11. Т.Ю.Кличев. «Перспективи развития ТНК на мировом рынке»// Российскоэ предпринимателство. – 2014 г.- №13.

5.12. The World Vank. “Development for climate change”. Washington. Annual Report. 2010. P.4.

5.13. Колесов В.П., Кулаков М.В. «Международная экономика»: Учебник. - М.: ИНФРА-М, 2008. - 474 с.

5.14. «Всемирний туристический комитет». 2008. С-12.

5.15. Мировая экономика в век глобализатсии: Учебник /О.Т. Богомолов. – М.: ЗАО Издательство «Экономика», 2007. 432.

5.16. Ломакин Мировая экономика: учебник для студентов вузов, обучающихся по экономическим специалностям и направлениям / В.К. Ломакин. – 3-э изд., перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007.

6. Darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar

6.1. Islamov B.A., Shodiyev R.X., Ismailova N.S., Shodiyeva Z.T., Yoziyev G‘.L. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. –T.: IQTISODIYOT, 2019. –262 b.

6.2. N.S.Ismailova, U.U.Shagazatov. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. - T.: “Noshir” nashriyoti. 2019. – 320 b.

6.3. E.Nigmanov, N.Ismailova, S.Yusupov. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – T.: “Lesson press”, 2019. – 283 b.

6.4. Sirojiddinov N. Xalqaro iqtisodiyot. Birinchi qism. Tashqi savdo nazariyasi va siyosati. Darslik. -T.: “IQTISODIYOT”, 2019. - 181 b.

6.5. Vaxobov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: Darslik. – Toshkent, 2015. – 584 b.

6.6. Isadjanov A.A., Ismailova N.S. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi. O‘quv qo‘llanma. -T.: “Iqtisodiyot”, 2019. – 154 b.

6.7. Isadjanov A.A. Global iqtisodiyotda xizmatlar sohasi. O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi. –T.: “Tafakkur bo‘stoni” nashriyoti. 2019. –300-b.

6.8. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Moliya”, 2016. – 324 b.

6.9. Vahobov A.V. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. T.: O‘zbekiston milliy universiteti. 2015. - 519 b.

6.10. Shodiev R.X., Maxmudov E. Jahon iqtisodiyoti. – T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2005.- 92 bet.

7. Ilmiy monografiya va maqolalar

7.1. Uzbekistan podderjivaet tseli ustoychivogo razvitiya OON do 2030 goda.// <http://www.trend.az/casia/uzbekistan/2438516.html>.

7.2. Piskulova N.A. Razvitie mirovoy ekonomiki: ekologicheskiy vektor. //Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie otnosheniya. M.: 2010. № 12.

7.3. Globalnie tendentsii 2030: Alternativnie miri. Publikatsiya natsionalnogo Soveta po razvedke. – NIC, 2012-001. <http://expert.ru/2012/12/12/alternativnyie-miryi/?n=2299433>.

7.4. Tolametova Z.A. Xalqaro mehnat migratsiyasi va uning o‘ziga hos xususiyatlari.

7.5. O‘zbekiston Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida kuzatuvchi sifatida a’zo bo‘ladi.//<https://parstoday.com/uz/news/uncategorised-i51959>

7.6. Ekonomika Yevropeyskogo SoYuza v usloviyax uxudsheniya mirovoy konyunkturi. Byulleten o tendensiyax mirovoy ekonomiki. Vipusk 53. Fevral 2020. Analiticheskiy tsentr pri Pravitelstve RF. 2020. – S.4.

7.7. “Bir makon – bir yo‘l” tashabbusini Markaziy Osiyoda nima kutmoqda? Jahon 20-may 2017-yil 28678//
<http://kun.uz/news/2017/05/20/bir-makon-bir-jul-tasabbusini-markazij-osieda-nima-kutmokda>

8. Internet saytlari

- 8.1. www.uz.a.uz – O‘zbekiston Respublikasi milliy axborot agentligi.
- 8.2. www.nfa.uz – O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi
- 8.3. www.gov.uz
- 8.4. <http://info-invest.uz>
- 8.5. <https://www.mift.uz/uz>
- 8.6. <http://www.chamber.uz/uz/index>
- 8.7. www.mineconomy.uz (Iqtisodiyot vazirligi);
- 8.8. www.mfer.uz (Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi);
- 8.9. www.stat.uz (Davlat statistika qo‘mitasi);
- 8.10. www.lex.uz (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi);
- 8.11. <https://www.worldbank.org>

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. MILLIY IQTISODIYOT VA UNI TAVSIFLOVCHI ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR TIZIMI	5
1.1. “Milliy va jahon iqtisodiyoti” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.	5
1.2. Juhon xo‘jaligida milliy iqtisodiyotning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi va ishtiroki	8
1.3. Juhon xo‘jaligida mamlakatlarning tasniflanishi	18
1.4. Milliy iqtisodiyot rivojini tavsiflovchi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar	19
II BOB. JAHON XO‘JALIGINING SHAKLLANISHI VA UNI RIVOJLANISHINING ASOSIY BOSQICHLARI	28
2.1. “Juhon iqtisodiyoti” tushunchasi va mohiyati hamda uning xususiyatlari	28
2.2. Juhon xo‘jaligining vujudga kelishi	29
2.3. Juhon xo‘jaligining xususiyatlari.	30
2.4. Juhon xo‘jaligida “ochiq iqtisodiyot” va “yopiq iqtisodiyot” tushunchasi va ularning mohiyati	31
2.5. Zamonaviy jahon xo‘jaligi rivojlanishining asosiy bosqichlari.	36
III BOB. JAHON XO‘JALIGIDAGI TARKIBIY O‘ZGARISHLAR.	41
3.1. Juhon xo‘jaligida iqtisodiy tizimlar va ularning xususiyatlari.	41
3.2. Ishlab chiqarishni buyruqbozlik iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotiga o‘tishning zarurligi va o‘tish iqtisodiyoti davlatlarida bozor islohotlari	44
3.3. Juhon xo‘jaligida Ikkinchchi jahon urushidan so‘ng “iqtisodiy mo‘jiza”larni vujudga kelishi va ularning asosiy omillari	48
3.4. Iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishni qo‘llab-quvvatlashda davlatning roli	52
IV BOB. JAHON BOZORI VA UNING KONYUNKTURASI	55
4.1. Juhon bozori va jahon tovarlar bozori konyunkturasi tushunchasi	55

4.2 Konyunkturani shakllantiruvchi omillar va jahon tovar bozorlari konyunkturalarini o‘rganish uslubiyoti	59
4.3. Jahon bozorida xomashyo tovarlari savdosi va xomashyo tovarlari bozori konyunkturasi tadqiqotining o‘ziga xos xususiyatlari	60
4.4. Jahon neft va neft mahsulotlari bozorida narx shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlari	65
4.5. Tovar bozori konyunkturasini istiqbollash bo‘yicha asosiy yondashuvlar	68
4.6. Marketingda jahon tovar bozorlari konyunkturalarini istiqbollash	70
4.7. Jahon moliyaviy bozorlarning tahlili, maqsadi va asosiy vazifalari	71
4.8. Jahon bozorida eksportning turlari va ularning xususiyatlari	74
4.9. “COVID-19”ning jahon xomashyo bozorlariga salbiy ta’siri	80
V BOB. JAHON IQTISODIYOTINING INTEGRATSIYALASHUVI	87
5.1. Iqtisodiy integratsiyaning mohiyati va unga ta’sir etuvchi omillar	87
5.2. Jahon xo‘jaligida iqtisodiy integratsiya darajalarining asosiy bosqichlari	90
5.3. Integratsiya jarayonlarining jahon markazlari va ularning xususiyatlari	95
5.4. Integratsiya jarayonlarining milliy iqtisodiyotlar rivojiga ta’siri	102
5.5. Jahon xo‘jaligida integratsiya jarayonlarining zamonaviy jihatlari	104
5.6. Jahon xo‘jaligidagi eng yirik integratsiyaviy tashkilot – Yevropa Ittifoqining vujudga kelishi	107
5.7. Yevroosiyo mamlakatlarining integratsiyalashuvida “Bir makon – bir yo‘l” strategiyasining ahamiyati	116
5.8. 2020-yilda bo‘lib o‘tgan jahon xalqaro tashkilotlarining onlayn Sammitlari va ularning asosiy xususiyatlari	120
VI BOB. XALQARO KORPORATSIYALAR VA ULARNING JAHON IQTISODIYOTIDA TUTGAN O‘RNI	125
6.1. Jahon xo‘jaligida transmilliy korporatsiyalarning vujudga kelishi va rivojlanishi	125

6.2. Jahon xo‘jaligida TMKlar faoliyatining asosiy xususiyatlari.	129
6.3. Xalqaro TMKlarning tashkil topishi va shakllanish bosqichlari hamda rivojlanishi	132
6.4. Xalqaro korporatsiyalarning mohiyati, tuzilmasi va ko‘rinishlari	137
6.5. Jahon xo‘jaligida transmilliy korporatsiyalarning roli.	139
VII BOB. XALQARO KAPITAL MIGRATSIYASI	145
7.1. Xalqaro kapital migratsiyasining (olib chiqilishi) mohiyati .	145
7.2. Kapital eksporti - xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ilg‘or shakli sifatida	146
7.3. Kapital eksportining asosiy shakllari va uning o‘ziga xos tomonlari	148
7.4. Kapitalning harakat shakllari	152
7.5. Milliy iqtisodiyotda investitsiya siyosatining shakllantirish omillari	154
VIII BOB. XALQARO ISHCHI KUCHI MIGRATSIYASI	160
8.1. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi tushunchasi va uning tarixi	160
8.2. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining asosiy sabablari	164
8.3. Ishchi kuchi migratsiyasi - eksportning bir turi	166
8.4. Xalqaro mehnat migratsiyasining asosiy yo‘nalishlari va markazlari	170
IX BOB. JAHON XO‘JALIGIDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING TUTGAN O‘RNI	178
9.1. Jahon xo‘jaligida Erkin iqtisodiy hududlarning tashkil topishi	178
9.2. Milliy iqtisodiyotda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil qilish sabablari va maqsadlari	180
9.3. Erkin iqtisodiy hududlarning asosiy turlari va ularning tashkil qilish bosqichlari	183
9.4. Jahon mamlakatlarida erkin iqtisodiy hududlar faoliyatining o‘ziga xos rivojlanish xususiyatlari	189
9.5. Jahon xo‘jaligida erkin iqtisodiy hududlarning tashkil topishi va ularning faoliyatini Xitoy tajribasi	191
9.6. Jahon xo‘jaligida “Cho‘l ustida qurilgan EIHLar” faoliyatining Birlashgan Arab Amirliklari tajribasi	193

X BOB. JAHON VALUTA TIZIMI	199
10.1. Xalqaro valuta tizimining mohiyati va tarkibi	199
10.2. Xalqaro valuta tizimining rivojlanish bosqichlari	202
10.3. Xalqaro rezerv valuta birliklari	206
10.4. Yevropa valuta tizimi	208
10.5. Xalqaro valuta va moliya-kredit bozorlari	211
10.6. Valuta kurslarining barqarorligi	213
XI BOB. JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUVI	217
11.1. “Jahon iqtisodiyotining globallashuvi” tushunchasi va uning mohiyati	217
11.2. Globallashuvning ijobiy va salbiy oqibatlari	221
11.3. Zamonaviy jahon iqtisodiyotining globallashuvi	222
XII BOB. MILLIY IQTISODIYOTLAR RIVOJIGA TA’SIR ETUVCHI XAVFSIZLIK MUAMMOLARI	227
12.1. Jahon xo‘jaligida ijtimoiy-iqtisodiy global muammolarning kelib chiqish sabablari	227
12.2. Globallashuv sharoitda milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga ta’sir etuvchi xavfsizlik muammolari	228
12.3. Mintaqaviy mojarolarning milliy iqtisodiyotlar rivojiga ta’siri	237
12.4. Milliy iqtisodiyotda demografik muammolar	243
12.5. Ekologiya muammosi va global iqlimning keskin o‘zgarishi	248
12.6. Pandemianing jahon iqtisodiyoti va milliy iqtisodiyotlar rivojiga ta’siri	252
12.7. Milliy iqtisodiyotlar taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan va “ko‘zga ko‘rinmaydigan” korrupsiya muammosi	256
XIII BOB. RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR– XALQARO QTISODIY MUNOSABATLAR TIZIMIDA	269
13.1. Jahon xo‘jaligida rivojlanayotgan mamlakatlar va ularning tarixi	269
13.2. Rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari	271
13.3. Rivojlanayotgan mamlakatlarning tasniflanish belgilari	273
13.4. Rivojlanayotgan mamlakatlarda turmush darajasining pastligi: uning tavsifi va asosiy omillari	275

XIV BOB. JAHON XO‘JALIGIDA RIVOJLANGAN DAVLATLARNING UMUMIY XUSUSIYATLARI	284
14.1. Jahon xo‘jaligida yetakchi mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyotini qisqacha tarixi	284
14.2. Jahon xo‘jaligida rivojlangan davlatlarning iqtisodiy salohiyatlari va rivojlangan davlatlarning guruhi	288
14.3. “Katta yettilik” va “Katta yigirmatalik” davlatlarining jahon xo‘jaligida tutgan o‘rni	291
14.4. Xalqaro tashkilotlar va rivojlangan mamlakatlarning Milliy iqtisodiyotlarni sog‘lomlashhtirish chora-tadbirlari.	293
14.5. Zamonaviy jahon iqtisodiyotida G‘arbiy Yevropaning asosiy iqtisodiyot tarmoqlari.	296
XV BOB. JAHON IQTISODIYOTIDA AQSHNING IQTISODIY SALOHIYATI	303
15.1. AQSH milliy iqtisodiyotiga umumiyl sharh va uning iqtisodiy-geografik joylanishuvi	303
15.2. AQSH iqtisodiy rivojlanishining asosiy xususiyatlari . . .	306
15.3. Pandemianing AQSH milliy iqtisodiyotiga ta’siri va unga qarshi kurashish chora-tadbirlari hamda yangi prezidentning rejali	312
15.4. AQSH iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy omillari	317
15.5. “Amerika modeli” va uning mohiyati	320
15.6. AQSHning Ikkinci jahon urushidan so‘ng G‘arbiy Yevropa mamlakatlariga iqtisodiy yordami va “Marshall rejasi”ning ahamiyati	322
15.7. AQSH iqtisodiyoti tuzilmasi va uning asosiy yo‘nalishlari	323
15.8. AQSH-Xitoy o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarining zamonaviy xususiyatlari va undagi muammolar	325
XVI BOB. JAHON XO‘JALIGIDA BIRINCHI “IQTISODIY MO‘JIZA”NI VUJUDGA KEL TIRISHDA YAPONIYANING IQTISODIY RIVOJLANISH TAJRIBASI	329
16.1. Yaponianing asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va uning jahon xo‘jaligidagi iqtisodiy salohiyati	330
16.2. Yaponiya - davlatining iqtisodiy-geografik o‘rni, aholi tizimi va qisqacha tavsifi	331

16.3. Yaponianing “iqtisodiy mo‘jiza” yaratishidagi asosiy omillari	333
16.4. Yaponianing Ikkinchi jahon urushidan keyingi asosiy iqtisodiy rivojlanish davrlari	336
16.5. “Yaponiya modeli” va uning omillari	345
16.6. Yaponianing hozirgi iqtisodiy va siyosiy muammolari hamda istiqbollari	347
XVII BOB. GERMANIYA IQTISODIYOTI VA UNING JAHON XO‘JALIGIDA TUTGAN O‘RNI	351
17.1. Germanyaning iqtisodiy – geografik holati, qisqacha tarixi va aholi tizimi	351
17.2. Germanyaning jahon iqtisodiyotidagi mavqeい va uning Asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari	353
17.3. Germanyaning “iqtisodiy mo‘jiza” yaratishidagi asosiy omillari	356
17.4. “Nemis modeli” va uning xususiyatlari	360
17.5. Jahon xo‘jaligida “nemis mo‘jizasi”ni vujudga kelishining asosiy bosqichlari	362
17.6. Germanyaning zamonaviy iqtisodiyoti va uning xususiyatlari	363
XVIII BOB. BUYUK BRITANIYANING IQTISODIY RIVOJLANISHI	368
18.1. Buyuk Britaniyaning umumiy tavsifi va uning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari	368
18.2. Buyuk Britaniya iqtisodiy taraqqiyotining asosiy omillari	374
18.3. XIX-XX asr boshlarida Buyuk Britaniyaning iqtisodiy taraqqiyoti va xususiyatlari	375
18.4. Buyuk Britaniyaning iqtisodiyot tuzilmasi	380
18.5. “Breksit” islohotidan so‘ng Buyuk Britaniya va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi savdo muammolari	381
18.6. Britaniya iqtisodiyoti tarixidan joy olgan 2020-yil va COVID-19ning milliy iqtisodiyotga ta’siri	383
XIX BOB. FRANSIYANING IQTISODIY RIVOJLANISHI ..	388
19.1. Fransiyaning umumiy tavsifi, aholi tizimi va uning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari	388
19.2. Fransiya milliy iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy omillari	392

19.3. Fransiya iqtisodiyotida “rejalashtirish” (Gollizm) siyosati va uning bosqichlari	399
19.4. Fransiyaning Ikkinchı jahon urushidan keyingi iqtisodiy taraqqiyoti	401
19.5. Fransiya iqtisodiyoti tuzilmasi	404
19.6. Fransiyaning “XX asr qurilishi” loyihasi	406
XX BOB. ITALIYANING IQTISODIY RIVOJLANISHI	410
20.1. Italiyaning umumiy tavsifi, uning aholi tizimi va asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari	410
20.2. Italiya iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy omillari	414
20.3. Italiyaning Ikkinchı jahon urushi davrida va undan keyingi iqtisodiy taraqqiyoti	418
20.4. Italiyaning 2010-yillardan keyingi iqtisodiy siyosati	421
20.5. Italiyaning transmilliy kompaniyalari va ularning jahon iqtisodiyotida tutgan o‘rni	422
20.6. “COVID-19”ning Italiya milliy iqtisodiyotiga ta’siri	426
20.7. Italiya iqtisodiyotining tuzilmasi	428
XXI BOB. KANADANING IQTISODIY RIVOJLANISHI	435
21.1. Kanadaning qisqacha iqtisodiy tarixi va umumiy tavsifi	435
21.2. Kanada aholi tizimi va uning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari hamda jahon xo‘jaligidagi iqtisodiy salohiyati	440
21.3. Kanada iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillari	442
21.4. Ikkinchı jahon urushidan so‘ng Kanadaning iqtisodiy taraqqiyoti va uning iqtisodiy rivojlanish davrlari	447
21.5. Kanada milliy iqtisodiyotining rivojlanishida AQSHning ustuvor ahamiyati	452
21.6. Kanada iqtisodiyoti tuzilmasi	455
XXII BOB. JAHON XO‘JALIGIDA YANGI INDUSTRIAL MAMLAKATLARINING VUJUDGA KELISHI	460
22.1. “Yangi industrial mamlakatlar”ning iqtisodiy rivojlanishiga umumiy tavsif	460
22.2. “Yangi industrial mamlakatlari” iqtisodiyoti taraqqiyotining asosiy omillari	462
22.3. Jahon iqtisodiyotida Yangi industrial mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish tamoyillari	466
22.4. Jahon xo‘jaligida “To‘rt ajdarho mamlakatlari” va Lotin Amerikasi “Yangi industrial mamlakatlar”ning iqtisodiyoti	468

22.5. Yangi industrial mamlakatlar – xalqaro mehnat taqsimoti tizimida	483
XXIII BOB. ASEAN DAVLATLARINING IQTISODIY RIVOJLANISHI VA ULARNING JAHON IQTISODIYOTIDA TUTGAN O‘RNI	488
23.1. ASEAN tashkilotining tashkil qilinishi, maqsad va vazifalari hamda iqtisodiy salohiyati	488
23.2. ASEAN mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillari va xususiyatlari	492
23.3. “To‘rtta kichik yo‘lbars mamlakatlari” va Vietnam iqtisodiyoti	495
23.4. ASEAN uyushmasining muammolari va istiqbollari	504
XXIV BOB. XITOYNING “IQTISODIY MO‘JIZA”SI VA UNING JAHON XO‘JALIGIDA TUTGAN O‘RNI	508
24.1. Xitoyning qisqacha iqtisodiy tarixi va uning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari uning tavsifi	508
24.2. Xitoyning aholi tizimi va uning o‘sish tendensiyalari	512
24.3. Xitoyning “iqtisodiy mo‘jiza” yaratishidagi asosiy omillari	514
24.4. Xitoyning 1950-1970-yillardagi iqtisodiy taraqqiyoti	519
24.5. Xitoy iqtisodiyotida “xitoy mo‘jiza”sining vujudga kelishining asosiy bosqichlari	522
24.6. COVID-19ning Xitoy iqtisodiyotiga ta’siri	527
24.7. “Xitoy modeli” va uning omillari	530
XXV BOB. JANUBIY OSIYO MAMLAKATLARI IQTISODIYOTI RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (HINDISTON MISOLIDA)	533
25.1. Hindistonning umumiy tavsifi va qisqacha iqtisodiy tarixi hamda uning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari	533
25.2. Aholisi va uning o‘sish dinamikasi	538
25.3. Hindiston iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari ...	540
25.4. Mamlakat iqtisodiyotining tuzilmasi va asosiy ustuvor tarmoqlari	543
25.5. Hindiston milliy iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi sohasining ustuvor ahamiyati	545
25.6. Hindistoning hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy muammolari	551

XXVI BOB. YAQIN VA O’RTA SHARQ MINTAQASI MAMLAKATLARINING IQTISODIY RIVOJLANISHI VA ULARNING ASOSIY XUSUSIYATLARI	554
26.1. Yaqin va O’rta Sharq mintaqasi mamlakatlarining iqtisodiy –geografik joylanishuvi va tasniflanishi	554
26.2. Yaqin va O’rta Sharq mintaqasi mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish davrlari va omillari	558
26.3. Yaqin va O’rta Sharq mintaqasi mamlakatlarining iqtisodiy taraqqiyot sabablari	560
26.4. Yaqin va O’rta Sharq mintaqasi mamlakatlari milliy iqtisodiyoti tuzilmasi va unda neft sanoatining ustuvor ahamiyati	565
26.5. Jahon xo‘jaligida “turk modeli”ning vujudga kelishi va Turkiya iqtisodiyotining istiqboli (“Nigox-2023” dasturi)	574
26.6. Saudiyaning “Yangi sanoat siyosati” (“Industry-2020”) dasturi va anoatning diversifikatsiyalash chora-tadbirlari	576
XXVII BOB. O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAHON XO‘JALIGINING TARKIBIY QISMI SIFATIDA	580
27.1. O’zbekistonning iqtisodiy salohiyati va imkoniyatlari	581
27.2. O’zbekiston milliy iqtisodiyotining taraqqiyotida xalqaro moliya tashkilotlarining o’rni	589
27.3. O’zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotida Osiyo taraqqiyoti bankining o’rni va iqtisodiy hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari	593
27.4. O’zbekistonning jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuvi va xalqaro tashkilotlar bilan iqtisodiy hamkorligining o’rni	595
27.5. Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi va O’zbekistonning a’zo bo‘lish imkoniyatlari va istiqbollari	599
27.6. O’zbekistonning jahon mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi	606
XXVIII BOB. O’ZBEKISTON MILLIY IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH VA LIBERALLASHTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI	612
28.1. 2017 - 2021-yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlanirishning beshta ustuvor yo‘nalishi buyicha Harakatlar strategiyasi	612
28.2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2020-yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida	

O‘zbekiston milliy iqtisodiyoti taraqqiyotining dolzARB vazifalari.....	616
28.3. Pandemianing O‘zbekiston milliy iqtisodiyoti rivojiga ta’siri va inqirozga qarshi kurashish chora-tadbirlari	621
28.4. Pandemiya sharoitida O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportining salohiyati	626
28.5. O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish chora- tadbirlari.	631
“MILLIY VA JAHON IQTISODIYOTI” FANIDAN TEST SAVOLLARI.....	638
GLOSSARIY	641
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	657

D.R. Ergashev

MILLIY VA JAHON IQTISODIYOTI

**Toshkent – «INNOVATSION RIVOJLANISH
NASHRIYOT-MATBAA UYI» – 2021**

Muharrir:

Tex. muharrir: A. Moydinov

Musavvir: A. Shushunov

Musahhih: L. Ibragimov

Kompyuterda

sahifalovchi: Sh. Shoaslonov

E-mail: nashr2019@inbox.ru Tel: +99899920-90-35

№ 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 10.08.2020.

Bosishga ruxsat etildi 05.08.2021.

Bichimi 60x84 1/16. «Timez Uz» garniturasi.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog‘i: 42,5. Nashriyot bosma tabog‘i 42,0 .

Tiraji: 50. Buyurtma № 132.

**«INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI»
bosmaxonasida chop etildi.**

**100174, Toshkent sh, Olmazor tumani,
Universitet ko‘chasi, 7-uy.**